



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**“GLOBALLASHUV  
DAVRIDA TURLI TIZIMLI TILLAR  
MUNOSABATI” MAVZUSIDA**

**XALQARO ILMIY-AMALIY  
ANJUMAN MATERIALLARI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI  
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

**“GLOBALLASHUV DAVRIDA TURLI TIZIMLI TILLAR  
MUNOSABATI” MAVZUSIDAGI  
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
M A T E R I A L L A R I**

**IKKINCHI KITOB**

**Navoiy-2023**

## **XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MAS'UL MUHARRIRLARI**

N.Murodova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori
R.Yusubova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

## **XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING TAHRIR HAY'ATI**

N.Murodova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori
R.Yusubova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
B.Zaripov	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası mudiri, dotsent, f.f.n.
A.Allaberdiyev	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani, dotsent, f.f.f.d. (PhD)
N.Tursunova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
N.Yarashova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
G.Norova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
B.Maxammadov	Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

## **XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING TAQRIZCHILARI**

N.Yarashova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
G.Boltayeva	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.n.

*Maqola va tezislarning ilmiy saviyasi, ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.*

## SO‘ZBOSHI

Bugun globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy-madaniy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo, o‘z madaniyatini, qadimiy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor vazifa sifatida ahamiyat qaratmoqda. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgandan so‘ng o‘tgan 33 yil davomida hukumatimiz tomonidan ham o‘zbek tilini har tomonlama takomillashtirish, mavqeyini mustahkamlash, uning jahon tillari darajasidagi nufuzini ko‘tarishga katta e’tibor qaratilib, ko‘plab samarali ishlar amalga oshirildi. Shu ma’noda, Muhtaram Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi 5850-son qarorida “xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biri” ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoniga ilova qilingan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, davlat tilining sofliqini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish, davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi davlat tilini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz uch yilligiga bag‘ishlangan ushbu ilmiy-amaliy anjumanga yuzga yaqin materiallar taqdim etilgan bo‘lib, maqolalarda o‘zbek tilining xususiyatlari xalq og‘zaki ijodi namunalari, yozma adabiyot tili misolida, shuningdek, tarixiylik, qolaversa, lingvomadaniy, lingvopragmatik, psixolingvistik, lingvopoetik aspektlarda ochib berilgan.

Ishonamizki, ushbu maqolalar tilshunoslik sohasi bilan shug‘ullanayotgan ilm ahlini befarq qoldirmaydi.

**Tashkiliy qo‘mita**

## TIL – MILLAT MA’NAVIYATI TIMSOLI

Assalomu alaykum, muhtaram mehmonlar, ilmiy anjuman ishtirokchilari! O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 34 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan “Globallashuv davrida turli tizimli tillar munosabati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanga xush kelibsiz!

Til – millatning asosiy belgilaridan, davlat mustaqilligining asosiy ramzlaridan biri bo‘lib, til mavjud ekan, millat mangu yashaydi; tilning tirikligi, aytish mumkinki, millatning, xalqning mavjudligidir. Demakki, o‘zbek tilining tirikligi – o‘zbek millatining mavjudligi, davlat tili esa o‘zbek davlatchiligining borligidan dalolatdir. Til – boy tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, din-u diyonatimiz, ma’naviyatimiz, xalqimizga xos dunyoqarashni ko‘rsatuvchi ko‘zgu, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazuvchi vositadir. Shu sabab 1989-yil 21-oktabr – “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilingan kun har yili boshqa bayramlar qatori Navoiy davlat pedagogika institutida ham yuqori ko‘tarinkilik bilan nishonlanib kelinmoqda. Bu qutlug‘ kun barchangizga muborak bo‘lsin, deymen.

O‘zbek tilimiz dunyoning eng qadimiy va boy tillaridan biri hisoblanadi. Bu tilning keng imkoniyatlari qadimgi toshbitiklarda, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlarida, Ahmad Yassaviy hikmatlarida, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa” asarlarida, Boburning “Boburnoma” asarida, Boborahim Mashrab, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi mumtoz shoirlarimiz va asrimiz adiblari ijodida madh etib kelinmoqda.

“Davlat tili haqida”gi qonun o‘zbek tilining taraqqiysi, erkin rivojlanishi, davlat va jamoat organlarida asosiy ish yuritish tiliga aylanishi va tilimiz muhofazasi yo‘lida qilingan huquqiy harakat bo‘lib, tilimizni davlat tili maqomi bilan mustahkamladi. Bu qonun o‘zbek xalqi milliy ongining taraqqiysida, mamlakat mustaqilligi mustahkamlanishida, madaniy merosimiz hamda ma’naviyatimizning tiklanishida muhim rol o‘ynadi. Mustaqil O‘zbekistonning Konstitutsiyasida va davlat tili to‘g‘risidagi qonunning yangi tahririda til masalasi bugungi kun talabi darajasida o‘z aksini topdi. Konstitutsiyamizning 4-moddasida davlat tili to‘g‘risidagi qoidalar: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”, degan zalvorli jumalarda mustahkamlandi. Mazkur qoida 1995-yil 25-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston

Respublikasi “Davlat tili haqida”gi qonunining yangi tahririda mufassal yoritib berildi.

Demakki, o‘zbek tilining rivoji va ravnaqi uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasida “Davlat tili haqida”gi qonunning barcha moddalari to‘liq amalga kiritildi.

Tilning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi xalq hisoblansa ham, uning taraqqiyotida olimlarimizning, shoir va yozuvchilarimizning, davlat va jamoat arboblarning, huquqshunoslarimizning, pedagoglar va matbuot xodimlarining, kino, teatr san’ati ustalari va nashriyot xodimlarining hamda jurnalistlarning xizmatlarini qayd qilish lozim. Ayniqsa, mustaqillik davrida tilshunos olimlarimiz, shoir-yozuvchilarimiz va jurnalistlarimizning xizmatlari katta bo‘ldi. Ularning samarali mehnatlari tufayli tilshunoslikning ko‘pgina yo‘nalishlari bo‘yicha qat’iy me’yorlar belgilandi, ona tilimiz rivojiga oid yangi qoidalar va qarorlar inobatga olingan holda til birliklarining yozuv va muomala jarayonidagi namunaviy variantlari tavsiya etildi, til tizimidagi ko‘pgina munozarali masalalar o‘zining nazariy asosiga qo‘yildi.

Bugun o‘tkazilayotgan “Globallashuv davrida turli tizimli tillar munosabati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ham xalqaro hamda respublikamizning yetakchi olimlari tilshunoslikning dolzarb masalalari va muammolarining yechimlari, ona tilimizning kelgusi istiqbolli rejalari xususida o‘z fikr-mulohazalari bilan ishtirok etadilar.

Ruxsatingiz bilan bugungi ilmiy-amaliy anjumanni ochiq deb e’lon qilaman.

**Bahodir Boypulatovich Sobirov**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti rektori**



**1-SHO‘BA**  
**KOMPARATIVISTIKA VA JAHON TILSHUNOSLIGI: MUAMMOLAR,**  
**YECHIMLAR VA STRATEGIYALAR**

---

---

**FOLKLORNING KICHIK JANRLARI XUSUSIDA**

*Olimjon QAYUMOV,*

*Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, filologiya fanlari doktori*

Xalq og‘zaki poetik ijodi xalqimiz tomonidan og‘zaki yaratilib, avloddan avlodga, og‘izdan og‘izga o‘tib keladigan asarlarni tashkil etadi. Folklor asarlarining tabiati, o‘ziga xosligi va poetik xususiyatlari borasida izlanishlar natijasida o‘zbek folklori afsona, rivoyat, naql, ertak, doston, xalq qissalari, latifa, lof, qo‘shiq, og‘zaki dramalar, askiya kabi nomarosimiy hamda qator marosim folklori janrlaridan tashkil topganligi aniqlandi. Hozirga qadar folklorshunoslarimiz tomonidan aniqlik kiritilgan janrlar mumtoz folklorga xos janrlar sifatida qayd etiladi<sup>1</sup>.

Ma’lumki, shaharlashuv jarayoni qadimiy hayot tarzini o‘zgartiradi. Xalqimiz ijtimoiy hayotidagi yangi ma’lumotlar tashuvchi telekommunikasion vositalarning ommalashuvi odamlarning informasion ehtiyojlarini qondirishda bir qadar peshqadamlik qilmoqda. Internet tizimidagi yangiliklarni turli manbalar orqali tarqalishi an’anaviy folklor ijrochiligini ma’lum ma’noda so‘nishiga olib kelmoqda. Ammo halq yashar ekan uning tafakkuri va ijodiy jarayoni to‘xtab qolmaydi. Biroq rus folklorshunosi S.Yu.Neklyudov 1995-yilda e’lon qilgan maqolasida “posle folklor”–folklorlardan keyingi jarayon tushunchasini fanga taqdim etdi<sup>2</sup>. Aksariyat olimlarimiz bu taklifni bajoni dil qabul qilishdilar. Hatto o‘zbek folklorshunosligida ham postfolklorga bag‘ishlab tadqiqotlar e’lon qilindi<sup>3</sup>.

Aslida folklor ijodiy jarayon bo‘lib, u xalq bilan birga doimiy yashaydi. To‘g‘ri, folklorning ba’zi bir janrlari ijrochiligi so‘nishi mumkin, ammo u qachonlardir yana qayta tiklanadi. Masalan, qadimda bobolarimiz tomonidan ijro etilgan tijorat qo‘shiqlari o‘tkan asrda deyarli unitildi. Ijtimoiy hayotimizda bozor iqtisodiyotining joriylanishi va tijoratga keng imkoniyat berilishi natijasida xalq tijorat qo‘shiqlarining yana qayta ijro etilishiga guvoh bo‘ldik<sup>4</sup>. Shu jihatdan folklorlardan keyingi jarayon atamasi va postfolklor tushunchasi o‘zini oqlamaydi. Hatto rus folklorshunosi V.P.Anikin ham “folklorlardan keyingi jarayon” degan fikrga qo‘shilmagan edi<sup>5</sup>. Keyingi davr rus folklorshunoslari

---

<sup>1</sup> Bu haqda qarang! O‘zbek folklori ocherklari. 3 tomlik. 1-2 tomlar, – Toshkent, 1987.

<sup>2</sup> Неклюдов С.Ю. После фольклора // Живая старина, 1995. – № 1.

<sup>3</sup> Рахмонов В. “Postfolklor” istilohi iste’molga kirishining ijtimoiy-estetik omillari. Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar, 2021, № 5 (57). – B.86-95; Yana o‘sha. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti janrlarining postfolklor sharoitidagi holati va funksional xususiyatlari. Filol.fan dokt.diss. – Toshkent, 2022.

<sup>4</sup> Qayumov O. O‘zbek xalq tijorat qo‘shiqlari haqida // Til va adabiyot ta’limi, 2005 № 3.– B.68-71.

<sup>5</sup> Аникин В.П. Не постфольклор, а фольклор (к постановке вопроса о его современных традициях) // Славянская традиционная культура и современный мир: Сборник материалов научно-практической

klassik folklor va postfolklor singari folklorni ikkiga ajratish yo‘lidan boradi. Xalq ijtimoiy hayotining barcha bosqichlarida, uning turmush tarzidan kelib chiqib tafakkurda ma’lum o‘zgarishlar kechadi. Bu esa, ma’lum janrlar ijrochiligining so‘nishi, boshqa janrlar ijrochiligining kuchayishiga olib keladi. S.Yu.Neklyudov folklorning ba’zi namunalarini tabiiy ijro ko‘rinishidan sahnaviy talqinga ko‘chgan holatlariga nisbatan postfolklor atamasini qo‘llagan. Aslida bu xalq tomonidan o‘z qadriyatlarini, ma’naviy merosiga munosabat, uni qayta hayotga qaytarishning ko‘rinishi. Shunday ekan, bu jarayon ham folkloriy xarakterdadir. Xalq tomonidan ijod qilinib, xalq tomonidan ijro etilgan va yana ijro etilayotgan folklor asarlarida ijrochilarning improvizatsiya qilishlari kuzatiladi. Bu esa, ijodiy – folkloriy jarayondir. Ijrochi tomonidan improvizatsiyaga uchragan asar variantlilik sari yuz tutayapti, improvizatsiya oqibatida folklor asarining yangi varianti hosil bo‘layapti. Demak, bu to‘laqonli folkloriy jarayon sifatida qaralmog‘i lozim.

Insoniyat tarixining ilk onlaridan hozirgacha bo‘lgan davrda afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa singari epik tur janrlari ijrochiligi faolligini kuzatamiz. Biroq, xalq tomonidan ijro etilib kelinadigan irim ayimlari, “mish-mish” yoki «g‘iybat» singari muayyan ko‘rinishdagi ayimlar ham mavjudki, o‘zbek folklorshunosligida bu borada alohida tadqiqot olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Irim ayimlarining folklor janri sifatida o‘rganilishi biz tomonimizdan 2001-yillarda, folklorshunos I.Yormatov tomonidan 2017-yilda, keyinroq folklorshunos N.Tursunova tomonidan 2022-yilda taklif etilgan edi<sup>1</sup>. Bugungi o‘zbek folklorshunosligida irim, g‘iybat yoki «mish-mish» kabi alohida hodisa sifatida xalqimiz tafakkurida yashab kelayotgan og‘zaki ijod namunalarini tadqiq etilgani yo‘q. Biz xalq nasri namunalarini kuzatishimiz va ularning janriy mansubiyati borasidagi nazariy qarashlarni tahlil qilar ekanmiz afsona, rivoyat, naql singari janrlar orasida yana bir janrning e’tibordan chetda qolayotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz. Kichik syujetli, og‘zaki yaratilib, og‘zaki tarqaladigan, muallifi noaniq, bir necha variantlarga ega bo‘lgan og‘zaki hikoyalar negadir hozirga qadar folklor janri sifatida tilga olinmasdan kelgan. Bunga sabab rus folklorshunosligining nazariy qarashlari asosida o‘zbek folklorshunosligini shakllantirish tendensiyasining yetakchiligi deb hisoblayman.

Har bir millat og‘zaki ijodida keng tarqalgan «mish-mish»lar folklorning keng ommalashgan janri sifatida e’tiborga olinmog‘i kerak. «Mish-mish» matnlari ham muayyan voqea – hodisani badiiy tasvirlagan kichik hajmli og‘zaki nasr namunasi. «Mish-mish» matnlarida ham folklorga xos barcha xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin. «Mish-mish»lar ham xuddi afsona, rivoyatlar singari xalq tomonidan yaratiladi, muallifi

---

конференции. Вып. 2 – Москва: Государственный республиканский центр русского фольклора, 1997 –С. 224–240.

<sup>1</sup> Qayumov O. Irim va mifologik talqin//Adabiyot gulshani. Ilmiy maqolalar to‘plami. 2- kitob.– Navoiy, 2001. – B. 16-22; Yormatov I. O‘zbek xalq irim ayimlarining janr xususiyatlari//O‘zbek folklorshunosligi antologiyasi. – Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti, 2017. – B. 471- 482; Tursunova N. Irim folklor janri sifatida // Science and innovation. 2022. № 7.– P.81-86.



noaniq, og‘zaki yaratilib, og‘zaki tarqaladi, har bir ijrochi tomonidan ijro qilinganida yangi variantlar hosil qiladi. Ba‘zan epik qahramonining mashhurligiga ko‘ra, «mish-mish»larning versiyalari ham uchrashi mumkin. «mish-mish»lar folklorning kichik epik janrlari singari ularning ijrochisi istalgan shaxs bo‘lib, istalgan joyda ijro etilishi mumkin. «Mish-mish»ning boshqa janrlardan farqli tomoni shundaki, bunday og‘zaki matnlarda epik qahramon ijrochining zamondoshi – real hayotdagi kishi, u bilan bog‘liq voqealar ham hayotiy hodisa sifatida talqin qilinadi.

«Mish-mish»larda tasvirlangan voqealar aksariyat hollarda hayotiy uydirmaga asoslanadi. Ijro qilingan «mish-mish»lardagi tasvirlangan hodisalar tinglovchilar tomonidan haqiqat sifatida qabul qilinadi. «Mish-mish»lar informativ vazifa bajaradi. Bunday hikoyalarda epik qahramon aytuvchining zamondoshi ekanligi va kichik syujetga egaligi bu janrning tabiatini belgilovchi asosiy xususiyatlardan sanaladi.

Aslini olganda, «mish-mish»lar epik qahramoni vafot etgach, davrlar o‘tishi bilan tarixiy rivoyat shaklini oladi. Folklorshunos Z.Jumayevning aniqlashicha, tarixiy rivoyatlarda tasvirlangan voqea-hodisalar hayotiy uydirmaga asoslanadi. Tarixiy rivoyatlarning o‘ziga xosligi yana shunda ko‘rinadiki, tarixiy rivoyatlar o‘tmishda yashab o‘tgan tarixiy shaxslar haqidagi voqea – hodisalarni ifodalashga xizmat qiladi<sup>1</sup>. O‘zbek folklorida tarixiy afsonalarni tadqiq etgan folklorshunos M.Raxmonova tadqiqotida tarixiy afsonalarning janr tabiatida ham tarixiy shaxslar va muhim tarixiy voqealar borasida ma’lumotni tashish yetekchilik qilishi qayd etiladi<sup>2</sup>. Masalan, Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlar ham qachonlardir Navoiy haqidagi «mish-mish» shaklida ommalashgan, ammo davrlar o‘tishi, «mish-mish»ning asosiy epik qahramoni tarixga aylanishi oqibatida avloddan-avlodga og‘zaki yetib kelgan hikoyalar rivoyat shaklini olgan. Yoki matnda tasvirlangan voqealar xayoliy uydirmaga asoslansa afsona sifatida ommalashgan.

Folklorshunoslikda rivoyatlar roviylar tomonidan ijro etilganligi ta’kidlanadi. Xususan, folklorshunos U.Sattorov tadqiqotlarida rivoyatlarning ijrochisi qadimda roviylar bo‘lganligi qayd etiladi<sup>3</sup>. O‘zbek folklorida xalq nasri namunalarning tabiati borasida uzoq vaqt izlanishlar olib borgan K.Imomov tadqiqotlarida ham rivoyatlarning maydonga kelish sabablari e’tibordan chetda qolgan<sup>4</sup>. Negadir rivoyatlarning genezisi borasida biror jiddiyroq kuzatishlar ko‘zga tashlanmaydi.

Biz xalq nasrining kichik janrlari maydonga kelishiga zamin tayyorlagan, hozirgacha folklorshunoslar tomonidan mustaqil janr sifatida e’tirof etilmay kelayotgan xalq ijodining ijro va yaruvchilik ibtidosi borasida to‘xtalishni lozim topdik. Ijro va yaratuvchilik ibtidosi deganda qadim zamoni nazarda tutayotganimiz yo‘q. Folklor

---

<sup>1</sup> Jumayev Z. O‘zbek xalq tarixiy rivoyatlari. Filol.fan nomz.diss. avtoref. – Toshkent, 2005..

<sup>2</sup> Raxmonova M. O‘zbek xalq tarixiy afsonalari. – Toshkent, Fan, 2001. – B. 24.

<sup>3</sup>Sattorov U.F. O‘zbek xalq toponimik nasrining tasnifi va poetikasi. Filol.fan.dokt.diss. – Toshkent, 2023. – B. 67.

<sup>4</sup> Imomov K. O‘zbek xalq prozasi. – Toshkent, Fan. 1981; Yasha o‘sha. O‘zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent, Fan, 2008.

ijodiy jarayon ekan har bir zamon ijro va yaratuvchilik zamoni bo'lishi mumkin. Masalan, ayni paytda qaysidir bolalarimiz yangi zamonaviy topishmoqlar yaratib uni ijro qilmoqda.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, har qanday rivoyat dastlab voqea-hodisa sodir bo'lgan zamonda o'sha zamon kishilari tilida "mish-mish" yoki "g'iybat" tarzida paydo bo'lgan. Voqea sodir bo'lgan zamon odamlari tilida keng tarqalganda o'ziga xos variantlilikka ega bo'ladi. Ma'lum vaqt o'tishi, voqealarning zamoniyligini eskirishi natijasida "mish-mish"lar tarixiy shaxs haqidagi rivoyatga aylanadi. Demak, rivoyatlarning maydonga kelishi dastlab jamiyat a'zolarining bir shaxs yoki hodisa borasidagi yangi ma'lumotni tashuvchi "mish-mish" ko'rinishida paydo bo'lib, davrlar o'tishi natijasida kishilar tafakkurida o'tmishda sodir bo'lgan hayotiy haqiqat shaklidagi rivoyat sifatida ommalashishda davom etadi.

"Mish-mish" g'iybatdan farqlanadi. Mish-mish mohiyatida tashilayotgan informatsiya yoqimli – xush xabar bo'lishi yoki yoqimsiz noxush xabar bo'lishi mumkin. Mish-mishda kichik voqea hikoya qilinadi, ijrochi mish-mish matnida tasvirlangan hodisalar va uning epik qahramoniga nisbatan xolis munosabatda bo'ladi.

G'iybat- aksariyat hollarda biror shaxsning umumjamo'a axloqiy me'yorlariga zid bo'lgan xatti-harakati borasidagi ma'lumotni tashishga xizmat qiluvchi janr. G'iybat ijrochisi tasvirlanayotgan voqealarning epik qahramoniga nisbatan o'z nafratini ifodalashi hodisa tasvirida yaqqol ko'zga tashlanadi. Og'zaki ijro etilgan matnning salbiy mohiyat kasb etishi, ijrochilarning epik qahramonga nisbatan noxolis yondoshuvi: hasad, g'alamsizlik, nafrat tuyg'ularining ochiqcha ifodalanishi g'iybatning asosiy belgilaridan sanaladi. "Mish-mish"larda bunday belgilar yashirin holda, aksariyat hollarda "mish-mish" ijrochilari tasvirlanayotgan voqea va hodisalarga nisbatan xolis pozitsiyada bo'ladilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "mish-mish"da ham g'iybatda ham muayyan voqea tasvirlanadi, muayyan hodisa haqida ma'lumot ifodalanadi. Qizig'i, tasvirlangan voqea va hodisalarda hayotiy uydirma yetakchilik qiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, har ikkalasining ham epik qahramoni ijrochining zamondoshi, ijro paytida hayot bo'lgan shaxslardir. Masalaning ayni shu jihati "mish-mish" hamda g'iybatlarning rivoyat va afsonalardan ajratib turadi. Afsona va rivoyatlarda tasvirlangan voqeaning qadim zamonda bo'lib o'tganligi urg'ulanadi. Shuning uchun afsona va rivoyat janrlarining epik qahramonlari ham o'tmishda yashab o'tgan shaxslar sanaladi.

Demak, "mish-mish", g'iybat singari poetik voqelikni ifodalovchi og'zaki ijod namunalari folklorning kichik epik janrlaridir. Ular kichik epik janrlar: afsona, rivoyat, naql singari folklor tabiatiga xos barcha belgilariga ega.

## TASAVVUF TUSHUNCHASINING KALIMALAR VOSITASIDAGI SHARHI G.S.YUNUSOVA,

*BuxMTI, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XI asr oxiri XII asr boshlaridan yashab, xalq hayotida G‘avsul A‘zam nomi bilan tanilgan Sayyid Abdulqodir Giyloniyning SIRRUL asror asari asosida “tasavvuf” tushunchasining sharhi bayon etilgan bo‘lib, bu jarayon o‘z navbatida inson kamoloti bosqichlari sifatida tasnif etilgan.

**Annotatsiya.** В данной статье описывается изложение слова “тасаввуф”, основанная на творчестве в книге Сиррула Асрара, Сайида Абдул Кадира Гилани жившего с конца XI до начала XII века и известного как Гавсул Азам, и этот процесс, в свою очередь, классифицируется как этапы человеческого совершенствования.

**Annotation.** This article describes the exposition of the word “tasawwuf”, based on the work in the book of SIRRUL Asrar, Sayyid Abdul Qadir Gilani who lived from the end of the 11th to the beginning of the 12th century and known as Ghawsul Azam, and this process, in turn, is classified as the stages of human improvement.

Tasavvuf – insonni kamolotga yetaklovchi yo‘ldir. X asr oxiri – XI asr boshlarida tasavvufga oid kitoblar yaratilgan. Ular orasida at-Tusiy (988y.v.e.), al-Kalobodiy (990 yoki 995 y.v.e), Abu Tolib al-Makkiy (988y.v.e.), as-Sulamiy (1021 y.v.e.) kabilarning bizgacha yetib kelgan asarlari bor. Bu mualliflar tasavvufga doir bilimlarni tartibga solganlar, so‘fiylik istilohlarini tushuntirib berganlar. Tasavvufni izchil islom ta‘limoti bilan yaqinlashtirib, uni keyinchalik rasmiy ta‘limot sifatida tan olinishida G‘azzoliy, Abdulqodir Giyloniy (Jiloniy)larning xizmati katta[1].

Darhaqiqat, Abdulqodir Giyloniy qalamiga mansub asarlar aksariyati tasavvufga bag‘ishlangan. Uning “SIRRUL asror”[2] asarining 6-chi va 13-chi fasllari aynan tasavvuf ahli bayoniga bag‘ishlangan. Tasavvuf tushunchasini izohlashda Giyloniy o‘zining “SIRRUL asror fiy ma yahtaju ilayhil-abror”(Aziz va pok kishilar toifasining ehtiyojlariga atalgan sirlarning siri) asarining 6-fasli “Tasavvuf ahli bayoni”da maxsus e‘tibor bergan: “Ularning “tasavvuf ahli” deya, nom olishlariga yagona sabab, ichki olamlarini tavhid va ma‘rifat nuri bilan oydinlatganlaridir. Yana bir sabab esa as‘hobi suffaga intisoblari bo‘lishi mumkin”. Demak, Giyloniy tasavvufni inson botiniy olamini tavhid va ma‘rifat nurlari ila munavvar etadigan yo‘l deb qaramoqda.

Shuningdek, Giyloniy tasavvuf ahli qo‘yning yungli terisini yopinib yurganliklari uchun ham “so‘fiy” ismi berilgan bo‘lishi ehtimol, tasavvufda o‘rta holda bo‘lganlar qo‘yning terisini yopinganlar, oxirgi davrasiga kelganlar esa yamoq kiyim kiyishgan, deydi.

Tasavvuf tushunchasini izohlashda Giyloniy o'ziga xos mahorat bilan bu kalimadagi harflar asosidagi ishoradan foydalanib, ularni to'rt maqom va hollar sifatida sharhlagan. Maqom – solikning ruhiy-ma'naviy kamoloti bosqichlarini anglatadi. Inson ruhan kamol topishida maqomlar – manzil, bekatlarni bosib o'tishi lozim. Mutasavviflar tariqatning birinchi maqomi sifatida tavbani qayd etganlar[3]. Tariqatlarda maqomlarning soni har xil keltiriladi.

Giyloniyning fikricha, tasavvufdagi birinchi maqom -“Te” maqomi. “Te” – tavba ma'nosini anglatib, u ikki xil bo'ladi: zohiriy va botiniy tavba. Zohiriy tavba – bu so'zda, amalda (jism) barcha gunoh va yomon ishlardan saqlanish. Botiniy tavba qalbning poklanishi, nafs bilan mujodalada bo'lmoqdir. Shu tariqa, yomon holning yaxshilikka kechmog'i bilan “te” maqomi tamom bo'ladi[4] .

Shu o'rinda Giyloniyning tavba maqomini ta'riflab, insonni ruhiy poklanishga da'vat sifatida yangragan g'azalidan bir parchani hukmingizga havola etsak:

Banda gar nek xo'r di dar sharob,  
Tavba kun omurzemmat be pechu tob.  
Gar xato kardi bigo'yad kardaam,  
To kunam jumla xatoro “man savob” [5].

Tarjimasi:

Banda, gar ichib qo'ysang sharob,  
Tavba qilgil, kechiktirmay shu tob.  
Gar xato qilsang uni ol bo'yningga,  
To ki qilgayman xatoingni savob.(Tarjima Yu.G. )

Bu misralarda shoir Allohning kechirimli Zot ekanligini ta'kidlab, gunohdan tavba qilinsa kechirilishi mumkinligini aytadi. Agar gunohlar kechirilib, inson poklansa, uning uchun ikkinchi maqom sari yo'l boshlanadi.

Ikkinchi maqom safo holi haqida ma'lumot bersak, so'fiylik psixologiyasida hol – “Allohga intilish yo'lida so'fiy, uning irodasidan tashqari va mukammallikka erishganlik darajasida qat'iy nazar tushadigan holati”dir. Hol – ilohiy rahmat va va barakatning nuzul bo'lishi, quyilib kelishidir. Holni tirishish, ta'lim-tahsil bilan qo'lga kiritib bo'lmaydi, chunki hol – atoyi Xudodir, g'aybdan kelgan tuhfa-ne'matdir.

Ikkinchi maqom sod maqomidir. “Sod” – safo holini ifodalaydi. Safo holini Giyloniy, te harfidek ikki jihatdan mutolaa qilinishini ta'kidlaydi, ya'ni qalbning sofligi va sirning sofligi.

Qalb safosi – bashariy qadarlardan beri bo'lmoqlikdir. Masalan ko'p yemoq, ko'p ichmoq, ko'p uxlamq va ko'p gapirmoq qalbni dunyoga bog'laydi. Dunyo ishlari haqida fikr yuritmoq uni toldiradi. Qalbni toliqtiruvchi, dunyoga giriftor qiluvchi narsalar orasida – ko'p mol-dunyo orttirmoq, jinsiy ifrot ahli va farzandlarini haddan ortiq sevmqlikni ko'rsatish mumkin. Bular biror qalbdan bo'lsa, u safolik va poklik chog'iga erisha olmaydi.

Qalb musaffoligi zikrulloh bilan amalga oshadi. Bu zikr dastlab jahriy(oshkora) qilingach, so‘ng xafiy (maxfiy)ga kechiladi.

Sirning sofligi esa – Allohning zotidan o‘zga ishlardan beri turmoq va Uning muhabbatini qalbgga joylamoqdir. Sir tili bilan asmoi tavidga davom etiladi. Bu esa ichdan amalga oshiriladi. Mazkur hol tamom bo‘lgach, “sod” maqomi ham nihoyasiga yetadi. Demak, birinchi maqomda gunohdan qaytish tavba bilan bo‘lsa, ikkinchi maqomda poklanish jarayoni boshlanadi. Mana shu poklanishning hosil bo‘lishi Giyloniy g‘azallarida quyidagicha tasvirlangan:

Vaqti tajalli az o‘ diydai bino majo‘y,  
O‘ chu namoyad jamol chashmi turo z-dasti nur.  
Har, ki ba nazdiki o‘st davlati jovidon yoft,  
Ro‘yi saodat nadid on, ki az o‘ mond dur [6]<sup>1</sup>.

Tarjimasi:

Tajalli onida uni ko‘rmoqqa ko‘z izlama,  
Ko‘rolmagaysan vale ko‘zing qamashtirar nur.  
Kimki unga yaqin bo‘lsa topdi davlati jovidon,  
Saodat yuzin ko‘rماغay kimki undan bo‘lsa dur(uzoq ma’nosida). (tarjima Yu.G.)

Ushbu misralardagi «yaqin» holi – bu «Haqqal yaqiy»ga ishora, ya’ni qalb va sir sofligi holida inson Allohga yaqin bo‘ladi. Bu poklanishning eng yuqori cho‘qqisidir.

Uchinchi maqom - “vov” maqomi, valoyat holi. Bu hol ichki olamning sofligi uzra hozirdir. Valoyat holining natijasi ilohiy fe‘llarga bezanmoqdir. Ushbu holda bashariy sifatlardan uzilib, ilohiy sifatga burkanmoq bor. Alloh taoloning zotidan g‘ayri narsalardan poklanadi. Shundan keyin vov maqomi to‘la hosil bo‘ladi. Fikrimizcha, valoyat holi avliyolarga xos bo‘lgan holat bo‘lib, bunda ilohiy fe‘llar bilan bezangan qalb sohibi Yaratganning vaslidan boshqa narsani orzu qilmaydi. Bunda oxirgi maqom fano sari odimlaydi.

To‘rtinchi maqom “Fe” – fano maqomidir. Bu maqom ilohiy sifatlarda yo‘q bo‘lib ketmoqdirki, bashariy sifatlarda g‘oyib bo‘lgach o‘rnini ahadiyat sifati egallaydi. Haddi zotida Haq taolo na fano bo‘ladi, na zavol topadi. Bu hodisalar ichida banda, boqiylikda Yaratguvchi ila baqoga erishadi; Uning rizosiga boradi. Bu orada rozi bo‘lgan va rozi qilingan qoladi, xolos. Va u ezgu amal “tifli maoniy” deya nom berilgan haqiqiy insoniy hayotni yaratadi. “Tifl”<sup>2</sup> – nazokat va latofat holidir. Maoniy esa ma’ni so‘zidan qalbda hosil bo‘ladigan haqiqiylik mazmunini kasb etadi. Shuni aytish o‘rinlidirki, Giyloniy talqinida komil inson – “haqiqiy inson”dir. Haqiqiy inson Allohning zotini esa sir ko‘zi bilan ko‘radi. Giyloniy “Sirrul asrorning” boshqa bobida “tifli maoniy” sir ko‘zi bilan ko‘ra oladiganlar nomi deydi.

Foniy qalb, boqiy sir ila borliqqa qovushadi. Fano holi hosil bo‘lgach, baqo tamom bo‘ladi. Baqo (esa) yaqinlik olamidadir. U tomon lohut olamida bo‘lib, nabiylaru

---

<sup>2</sup> Изох: тифл –фарзанд ёки гўдак маъносини англатиб, улар поклик, беғуборлик рамзидирлир.

valiylarning maqomi bo'lgan. Nihoyat, Alloh to'g'rilar bilan birgadir. Keyin paydo bo'lgan borliq azaliy borli<sup>1</sup> bilan birlashgach, buni endi "vujud" deyilmaydi. Ya'ni bunda moddiylik – tuproq, suv, havo, olov kabi unsurlarning inson jismidagi latiflashuvi, dag'allikdan kechishi ma'nosini anglatadi.

Farq hollar yakun topgach, Haq bilan abadiy soflikkina qoladi. Bu farqlar – insonning tarqoq fikru-xayolini jamlab, Haqdan boshqani anglay olmaslik holatidagi uyg'unlikdir.

Demak, tasavvufni tariqat yo'liga kirgan solikning poklanish va yuksalish bosqichlari deb Giyloniy tavsif etar ekan, uning tasavvuf ahli haqidagi qarashlari ham o'ziga xosdir.

So'fiylikda tariqatlar g'oyatda ko'p bo'lgan. Hozirgacha ayrim Sharq mamlakatlarida saqlanib kelayotgan qodiriya (Eron va Afg'onistonda), rifoia (Eron), tayfuriya (Arab mamlakatlari), mavlaviya (Turkiya), chishtiya (Hindiston, Pokiston), bektoshiya (Turkiya), safaviya (Eron) va boshqalar shular jumlasidandir. O'rta Osiyoda esa, ilgari xojagon, yassaviylik, kubroviylik, Naqshbandiylik, suhravardiya tariqatlari tarqalgan.

Islom olamida keng tarqalgan tariqatlardan biri qodiriyadir. Uning asoschisi va piri Abdulqodir Giyloniydir.

XIII asr oxiri – XIV asr boshlariga kelib, Iroq va Suriyada qodiriyaning maxsus markazlari vujudga kelgan edi. Iroqning Bag'dod shahridagi Abdulqodir Giloniy nomlariga maqbara qurilgan edi. Qurilgan maqbara atrofida mahalliy bag'dodiy toifa saqlanib qolgan edi. Mo'g'ul bosqinchilari, aniqrog'i, Chingizxonning nevarasi - Huloguxon askarlari Abdulqodir maqbarasini vayron qildi. 1326 yili Bag'dodga kelgan arab sayyohi Ibn Batuta bu qabr va maqbara haqida hech qanday ma'lumot bergan emas. Usmonlilar hukumati bu yerni ziyorat qilinadigan joyga aylantirmagunicha u obod bo'lmadi. Hozirgi kunda bu joy obod manzilga aylantirilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Islom ensiklopediyasi. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. –B. 226.
2. Shayx Sayyid Abdulqodir Giyloniy. SIRRUL ASROR. Maktubot. T.: Movarounnahr, 2005. –B.79.
3. N. Komilov. Tasavvuf. Birinchi kitob. T.: Yozuvchi, 1996, -B. 25.
4. Shayx Sayyid Abdulqodir Giyloniy. SIRRUL ASROR. Maktubot. Tarjimon O. Jo'raboev., T.: Movarounnahr, 2005, -B. 77.
5. Sayyid Abdulqodir Giyloniy. Devoni G'avsul A'zam. Toshbosma asar. 48-sah. Shaxsiy kutubxonadan
6. Sayyid Abdulqodir Giyloniy. Devoni G'avsul A'zam. Toshbosma asar. 48-sah.

---

<sup>1</sup> Изоҳ: Азалий борлиқ – бу ваҳдати вужуд, яъни ундан бутун борлиқ пайдо бўлган ва кейинги вужуднинг у билан бирга бўлишиш ўртадаги фарқларнинг йўқолганлигидан кейин бўлади.



## CONTROVERSIES SURROUNDING THE CATEGORY OF SEMANTIC OPPOSITION

*Dildora Abdinabievna ABDULLAEVA,*  
*Candidate of filological sciences,*  
*University of Tashkent for applied sciences*

**Abstract.** The article highlights the controversial views of the research conducted by Russian and Uzbek linguists regarding the category of semantic opposition. The logical nature of the opposition and its expression in language are analyzed. The lexical-semantic paradigms formed on the basis of this category and the criteria for their definition are discussed.

**Key words:** the category of opposition, semantic opposition, lexical-semantic paradigm, antonymy, semi-antonyms, lexical context.

**Abstrakt.** Maqolada semantik qarama-qarshilik kategoriyasi yuzasidan rus va o'zbek tilshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlardagi munozarali qarashlar yoritiladi. Qarama-qarshilikning mantiqiy tabiati va tildagi ifodasi tahlilga tortiladi. Mazkur kategoriya asosida hosil bo'ladigan leksik-semantik paradigmalar va ularning belgilanishidagi mezonlar haqida bahs yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** qarama-qarshilik kategoriyasi, semantik qarama-qarshilik, leksik-semantik paradigma, antonimiya, yarim antonimlar, leksik qurshov.

**Абстракт.** В статье освещаются противоречивые взгляды исследований русских и узбекских лингвистов на категорию семантической противоположности. Анализируется логическая природа противоположности и его выражение в языке. Обсуждаются лексико-семантические парадигмы, сформировавшиеся на основе данной категории, и критерии их определения.

**Ключевые слова:** категория противоположности, семантический противоположность, лексико-семантическая парадигма, антонимия, полуантонимы, лексический контекст.

Every phenomenon in existence constitutes a complex system, the components of which have different relationships with each other. Opposition is one of the most important and complex categories of this system. The role of this category in determining the individuality and uniqueness of existence is incomparable, because any existence clearly shows its essence in difference and opposition.

Opposition is characterized as a category that has captivated the attention of philosophers since ancient times. This category has been interpreted differently in the scientific views of philosophers such as Socrates, Plato, Aristotle, Protagoras, Democritus. Aristotle's scientific views on this matter are particularly noteworthy.

The category of opposition is explained in linguistics on the basis of the phenomenon of antonymy. Antonyms are one of the most complex phenomena in language and have always attracted the attention of linguists. As a result of the work done, a system of certain criteria was formed in the determination of antonymy. These criteria are determined on two levels: paradigmatic and syntagmatic. As a rule, paradigmatic relations are associated with language features, while syntagmatic features are characterized by speech. Both of these aspects are important for language units and ensure the integrity of the language in different aspects. In the paradigmatic plan, the

most important feature of antonyms is their expression of semantic opposition. This aspect has always been the main factor in defining antonyms. "...Antonyms are words that are semantically contrary to their general sign and at the same time are located at two peaks of a certain lexical-semantic paradigm" [7;145]. They are words of different sounds that express opposite, but correlative concepts [6;74].

It is worth saying that the existence of the category of opposition occurs not only in the form of perception of the phenomena of objective existence, but also as a product of thinking. Linguist E.N.Miller asserts that the objective differences between objects, features, relations are defined in our thinking subjectively, on the basis of similarity with objective opposition and based on the standard of evaluation of one or another fact established in society, based on specific life requirements, centuries-old customs and traditions [2;20]. For example, *big - small* are universally recognized antonyms, but nevertheless, it can be said that what they mean is not an absolute opposite. In existence, the small sign can be used for *hedgehogs, kittens, and flies*, and the large sign can be used for *elephants, calves, and eagles*. But the biggest *hedgehog* is smaller than the smallest *elephant*, etc. The same object can be assessed by the same person at different times as big in one place and small in another [3;6].

Despite all the progress made in the field of antonymy, this phenomenon has many controversial, unexplored aspects. To give an example, there are controversial opinions among linguists about whether gendered words are antonyms or not. Some sources state that *male-female* correlative pairs cannot express an antonymic relationship, while others include such pairs as antonyms. For instance, S.Usmanov considers *er - xotin, opa - singil, o'g'il - qiz* (husband - wife, older sister - younger sister, boy - girl) pairs as "semi-antonyms", so he adds them to the list of antonyms anyway.

As an example of the conflicting opinions on this issue, we cite the scientific views of L.A.Novikov and Y.D.Apresyan: L.A.Novikov considers the type of words *мужской — женский, муж — жена* (male - female, husband - wife) to be complementary antonyms: "Non-gradual contrasts are antonyms that express complementarity (дополнительность) (like *женатый — холостой, живой — мертвый, влажный — сухой, зрячий — слепой, мужской — женский, муж — жена*)". The linguist further emphasizes that these words are used like other antonyms on the syntagmatic level, "on the paradigmatic level, they are contrasted according to one important sign - gender: *мужской - немужской* (= *женский*)" [5;31].

Y.D.Apresyan admits that the negation of the sign "*male*" is not equal to "*female*", each gender has its own physiological and anatomical signs. He draws the following conclusion on this issue: "Either the words denoting gender should be removed from the antonyms, or a completely new type of antonymy should be distinguished, but in this case, it will be difficult to give a general description of antonyms" [1;43].

We also approve the scientific views of Y.D.Apresyan. Because antonymy is specific only to the category of sign (of course, sign in this place is broad), and correlative words consist mainly of nouns with concrete semantics. In their semes, the primary semes are not "signs", but "concrete objects", and they contradict each other with the known, secondary semes of "signs". For example: *aka - uka* (older brother - younger brother) pair cannot be an example of an antonymic relationship, because an

antonym should be a unit representing a sign in relation to a certain phenomenon, but the words *aka – uka* themselves represent the object, and the sign is only a certain seme.

As another aspect that caused discussions in the early works on antonymy, it is possible to mention the issue of considering positive and negative forms of verbs as antonyms. In some literature, it is emphasized that cases such as *o‘qigan – o‘qimagan, kelgan – kelmagan, brogan – bormagan* (read - did not read, came - did not come, went - did not go), as they are different forms of the same word, and are not included in the antonyms, other linguists completely opposite to this state that "the positive form of verbs and the negative form constitute a separate type of antonym"[4;145].

R. Shukurov says that "... when the positive and negative forms of some verbs express not only the action, but also the sign of the object through the action, they may have an antonymic feature" [8;16]. The linguist justifies the possibility of an antonymic relationship between *o‘qigan – o‘qimagan* pairs by giving their Russian translations (грамотный – неграмотный). In our opinion, positive and negative verbs cannot be an antonymic case anyway. First, in any case, we are not studying opposition as a logical category, but as a way of expressing it in linguistic units. As a linguistic phenomenon, antonyms should be separate lexemes that exist in the language system, meaning the opposite of each other. *o‘qigan – o‘qimagan* are two forms of one word in Uzbek language.

The field of study of the phenomenon of opposition in lexical and semantic is expanding over time. At first, it was interpreted as a semantic opposition between the meanings of two lexemes in the language system, then its scope of interpretation was expanded, and research was conducted based on its relationship with other lexical-semantic paradigms in the language system. In addition, antonymy appeared as one of the objects of study of such branches of linguistics as linguoculturalology, psycholinguistics, and associative linguistics. This further clarified the possibilities of the opposition category in the language system. Nevertheless, we cannot say that the category of opposition has found its full linguistic research. As mentioned above, there are still many controversial aspects.

## REFERENCES

1. Apresyan Y.D. Lexical semantics. Synonymous means of language. – M.: Nauka, 1974
2. Miller E.N. Antonymy of nominative units in modern German: Textbook. special course manual. – Kuibyshev: KSPI, 1985.
3. Miller E.N. Antonymy in vocabulary and phraseology (based on the material of German and Russian languages). – Alma-Ata: Science, 1978.
4. Modern Uzbek literary language. - Tashkent, volume 1, 1966.
5. Novikov L.A. Antonymy in the Russian language. M.: Moscow. University, 1973.
6. Shansky N.M. Lexicology of the modern Russian language. – M.: Education, 1964.
7. Shmelev D.N. Essays on the semasiology of the Russian language. – M., 1964.
8. Shukurov R. Lexical-semantic nature of Uzbek antonyms: Philol. science. name ... diss. - Tashkent, 1973.

## О ЯВЛЕНИИ ИНТЕРЪЕКТИВАЦИИ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

*Феруза Рузикуловна ЖУМАЕВА,  
доцент кафедры русского языка и литературы*

*Навоийский государственный педагогический институт  
Республика Узбекистан, г. Навои*

**Аннотация:** в данной статье рассматривается один из типов частеречной транспозиции – интеръективация в русском и узбекском языках. Анализируется переход знаменательных частей речи в разряд междометий. Обосновывается мысль о том, что в исследуемых языках интеръективация является малопродуктивным типом частеречной транспозиции. При интеръективации меняются семантические, морфологические, синтаксические свойства слов и их функциональные особенности.

**Ключевые слова:** интеръективация, междометие, существительное, транспозиция, переход, часть речи, лингвистика.

**Annotation:** this article examines one of the types of part-speech transposition - interjectivization in the Russian and Uzbek languages. The transition of significant parts of speech into the category of interjections is analyzed. The idea is substantiated that in the languages under study, interjectification is an unproductive type of partial-speech transposition. During interjectivization, the semantic, morphological, syntactic properties of words and their functional features change.

**Key words:** interjectification, interjection, noun, transposition, transition, part of speech, linguistics.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada rus va o'zbek tillarida so'z turkumlari transpozitsiyasi turlaridan biri – interyektivatsiya ko'riladi. Mustaqil so'z turkumlarini undov so'zlar turkumiga o'tishi tahlil qilinadi. Tadqiq qilinayotgan tillarda interyektivatsiya so'z turkumlari transpozitsiyasining samarasiz turi ekanligi haqidagi fikr asoslanadi. Interyektivatsiya jarayonida so'zlarning semantik, morfologik, sintaktik va funksional xususiyatlari o'zgaradi.

**Kalit so'zlar:** interyektivatsiya, undov so'z, ot, transpozitsiya, o'tish, so'z turkumi, lingvistika.

Вопрос о транспозиции, классификация всех случаев переходности в области частей речи рассматривался в трудах Л.Л. Буланина, В.Н. Мигирова, В.И. Чуглова, М.Ф. Лукина, Е.П. Калечица, Т.М. Николаевой, Л.Д. Чесноковой. [2, 468-472]

Проблемы классификации частей речи и явления переходности изучали учёные-лингвисты Узбекистана: Т. Турдибоев, Г. Абдурахмонов, А. Гулямов, С. Облокулов, Ж. Хамдамов, О. Ким, З.С. Исоков, А.Е. Ботирова, А.Б. Пардаев, С. Маматкулов, Я.Д. Эльтазаров, А. Бегматова, И.И. Расулов и др. [4, 61-67].

В системе частей речи междометия занимают особое положение, связанное с использованием их исключительно в эмоциональной сфере языка. Они служат для выражения чувств и эмоционально-волевых реакций человека на окружающую действительность.

По составу междометия делятся на первообразные (непроизводные) и производные. К первообразным относятся междометия, не мотивированные в современном русском языке словами других частей речи (а!, ах!, о!, ох!, у!, фу!, увы!, ого! и др.). Производные междометия образовались либо путем удвоения, утроения и т. д. первообразных междометий (о-о-о!, ай-ай-ай!, кис-кис!), либо

путем перехода в междометие отдельных форм знаменательных слов и словосочетаний (матушки!, извини!, прочь!, слава богу!, скажите на милость!, вот тебе на!). Спорным является включение в состав междометий оценочно-характеризующих слов (существительных и глаголов) типа горе, крышка, постой, давай, а также особых глагольных форм типа бах, хлоп, бряк, плюх, щелк.

Интеръективация (от лат. *interjectio* – междометие) – переход полнозначных слов в разряд междометий. При таком переходе слова знаменательных частей речи теряют свое лексическое значение и превращаются в слова-сигналы, выражающие эмоции и волеизъявления. [10]

В русском языке в междометия могут переходить:

- 1) имена существительные (Батюшки! Беда! Глупости! Караул! Право!);
- 2) глаголы (Здравствуйте! Поди! Помилуй!);
- 3) местоимения (То-то же!);
- 4) наречия (Полно! Куда!);
- 5) частицы (Как? И ты с ними?)
- 6) отдельные фразеологические обороты (Вот оно что! Вот так-так!

Вот так история! Вот те раз! Еще что! Черт возьми! Дело – табак!).

Рассмотрим несколько примеров на интеръективацию (примеры взяты из словаря омонимов О.С.Ахмановой) [1]. В таблицу №1 мы включили отсубстантивные междометия (междометия, образованные путём перехода существительных в разряд междометий).

**Таблица 1.**

<b>Слово</b>	<b>Существительное</b>	<b>Междометие</b>
<b>БОЖЕ</b>	1. <i>сущ., см. бог.</i>	2. <i>межд.</i> Выражает удивление, восторг, негодование и другие чувства. <i>Б., как здесь красиво! Б., как я устал!</i> ♦ <b>Боже правый!</b> (высок.) – восклицание, выражение удивления, восторга, гнева, печали. <b>Боже (ты) мой!</b> (разг.) – то же, что <i>боже</i> (во 2 знач.). <b>Боже сохрани (или упаси, избави)</b> (разг.) – то же, что упаси бог (см. <i>упасти</i> ). <b>Ни боже мой</b> (прост.) – подчёркнутое отрицание, возражение.
<b>БЕЗОБРАЗИЕ</b>	<b>1. (существительное)</b> – отталкивающе некрасивая внешность; уродство: Кавалеристы лежат под ногами усталых лошадей, и	<b>2. (междометие)</b> – употребляется для выражения возмущения: – <i>Безобразие!</i> – ворчал про себя Ворчун. – Сидишь вот и



	никто не думает, что одно движение лошади может нанести ему вред или вечное <i>безобразие</i> , как это иногда и случается.	даже собственной тени не видишь
<b>БЛИН</b>	<b>1. (существительное)</b> - плоская тонкая лепёшка, испеченная из жидкого теста на сковороде: Что делать, если уже далеко не первый, а десятый <i>блин</i> продолжает прилипать к сковородке и выходит натуральным комом? плоский круглый предмет, диск: <i>штангист установил на штангу дополнительные блины.</i>	<b>2. (междометие)</b> выражает любую сильную эмоцию: <i>Где-где, в автосалоне. Шутник, блин. Таранулька и Штенсель.</i>
<b>ПРОКЛЯТИЕ</b>	<b>проклятие (существительное)</b> церковное осуждение, отлучение от церкви; анафема. Собор лишил их духовного сана, предал <i>проклятию</i> и осудил на заточение. крайнее, бесповоротное осуждение, знаменующее полный разрыв отношений и отторжение. Отец послал ей на дорогу <i>проклятие</i> , а преследовать не заботился.	<b>проклятие (междометие)</b> выражает сильное раздражение, негодование – Стойте, стойте, бога ради! Помогите, помогите, братцы! – кричу я; но топот дюжих коней, стук шашек и шумный казачий говор громче моего хрипенья – и меня не слышат! <i>О проклятие!</i> Я в изнеможении падаю лицом к земле и начинаю рыдать.
<b>ЧУР</b>	<b>чур (существительное)</b> у славян – далёкий предок, родоначальник. <i>Божеством, охраняющим род, дом был у них прежде всего Род, или Чур, Щур (т. е. дед, прадед, что ясно из употребительного пращур).</i>	<b>чур (междометие)</b> выражает требование соблюдения какое-либо условие, какой-либо договор (обычно в играх) <i>Только, чур, не подглядывать!</i> выражает боязливое пожелание избежать какой-либо опасности, избежать чего-либо неприятного (обычно в заклинаниях)



		против «нечистой силы» и т. п.) <i>Ох, чур меня!</i>
--	--	------------------------------------------------------

По примерам из таблицы №1 видно, что при транспозиции существительных в междометия происходит изменение не только в семантике, но и в грамматических свойствах исходного слова, которое приводит к переходу его в иной лексико-грамматический класс.

В узбекском языке интеръективация осуществляется путём перехода существительных, наречий, прилагательных и местоимений в разряд междометий. Рассмотрим примеры из толкового словаря узбекского языка под редакцией А.Мадвалиева. [6]

**1) Переход существительного в междометие.**

**MAZA** [a. - sho‘r, nordongazak] 1 Narsalarning ta‘m-lazzat bilish a‘zolariga ta‘sir etib, sezgi uyg‘otish xususiyati; ta‘m, lazzat. Nordon maza. Olmaning mazasi. Mazasini totib ko‘rmoq. *O‘zi shirin, to‘qligina, mazasi ham totligina (topishmoq: shaftoli).*

2 Qanoat hissi, ruxiy zavq, lazzat, rohat. *Munchalik mazani topa olmaydi Uyquda tamshangancha qaloqlar ham.* F. G‘ulom.

3 sft. Mazali, shirin. *Jarkop, shavla, kichiri — Biri-biridan maza. Xolam qo‘li gul toza.* Q. Muxammadiy.

4 und. s. Qoniqish, roxat hissini bildiradi. *-Eh, maza, maza! — deb Popuk sevinchidan quyonday dikang-dikang sakradi.* X. Nazir, Yonar daryo. *Haligi irjaygan odamning ko‘ngli chopdimi, so‘lakayini oqizdi: -Maz-za! «Mushtum».*

**2) Переход наречия в междометие.**

**OLG‘A** 1 rvsh. Oldinga, ilgari tomonga. *Olg‘a yurmoq. O‘z pulemyotini sudrab, olg‘a emaklab ketdi.* A. Qahhor, Oltin kuz.

Olg‘a bosmoq 1) oldinga tomon yurmoq, ilgariga qarab siljimoq. *Xon yonida turgan xos navkar qilichini ushlab, beixtiyor bir qadam olg‘a bosdi.* S. Siyoyev, Avaz; 2) rivojlanmoq, ilgarilamoq. *Ish olg‘a bosmoqda.*

2 und. s. Ilgari tomon siljishga, oldinga tomon yurishga chaqirish nidosi. *Qani, olg‘a, g‘alaba arslonlari! Qani, olg‘a, vatan qahramonlari!* H.Olimjon, Tanlangan asarlar.

**3) Переход прилагательного в междометие.**

**Qoyil** 1 sft. Zavqlanib yoki tan berib, ofarin o‘qishga, tasanno aytishga arzirli. *Qoyil ish. Qoyil odam.*

2 und.s. Ofarin, tasanno. *Qoyil! Qoyil! Obbo siz-e! Zo‘r ekansiz-ku, jigar.* «Guldasta».

Переход из других частей речи в разряд интеръекционных единиц происходит в результате функционально-семантического преобразования слов из других лексико-грамматических разрядов в процессе интеръективации. Германович А.И. отмечал, что в процессе интеръективации слова из разных частей речи меняют свою «внешнюю форму», теряя свою «внутреннюю форму», и превращаются в «слова восклицания». [7, 153]

В русском и узбекском языках можно наблюдать и обратный процесс – субстантивацию интеръекционных единиц, т.е. переход междометий в состав других частей речи. Переход интеръективизмов в глаголы и имена существительные «является результатом использования междометий в функциях подлежащего, дополнения и сказуемого и других членов предложения» [3, 15-20].

Таким образом, в результате изучения различных источников и словарей, мы пришли к следующим выводам:

1) в русском и узбекском языках использование одной языковой единицы (слова, формы, конструкции) в функции другой языковой единицы встречается довольно часто;

2) в исследуемых языках в разряд междометий могут перейти как знаменательные части речи (существительное, местоимение, глагол, наречие), так и служебные части речи (частицы, предлоги);

3) при интеръективации частей речи происходит изменение не только в семантике, но и в грамматических свойствах исходного слова, которое приводит к переходу его в иной лексико-грамматический класс;

4) наши исследования подтверждают, что в сопоставляемых языках интеръективация является малопродуктивным типом транспозиции.

Итак, основная характеристика процесса интеръективации – это отсутствие лексического значения и номинативной функции. Этот процесс можно наблюдать в обоих исследуемых языках.

Таким образом, вопрос о переходности слов в системе частей речи современного русского языка является еще недостаточно изученным. Нет полного описания системы функциональных омонимов в пределах каждой части речи и языка в целом. В теоретическом плане ещё не до конца решены вопросы о типах, видах и разновидностях этой группы слов.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Ахманова О.С. Словарь омонимов русского языка. – М., 1986. – 448 с.
2. Жумаева Ф.Р. Типы транспозиции частей речи в современном русском языке. – Журнал: «Молодой ученый», №47. (Ч.7) – Казань, 2021. – С. 468-472 - <https://moluch.ru/archive/389/>
3. Жумаева Ф.Р. Интеръективация как один из типов транспозиции частей речи // Universum: филология и искусствоведение: электрон. научн. журн. 2021.12(90). - С.15-20. URL: <https://7universum.com/ru/philology/archive/item/12760>
4. Жумаева Ф.Р. История изучения перехода частей речи в трудах узбекских учёных. – Журнал: «Образование и инновационные исследования», №6. – Бухара, 2022. – С. 61-67  
<file:///C:/Users/Laser/Downloads/Extracted+pages+from+Beshimov+innovatsiya.pdf>
5. Jumaeva F. R., Mamurova F. N. Transposition of parts of speech as a non-morphological method of word formation // ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (102). – 2021. – С. 566-572.
6. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. - Тошкент, 2020. – 680 б.
7. Нигметзянова А. Р. О характеристике междометий по происхождению в татарском и английском языках. <file:///C:/Users/Laser/Downloads/o-harakteristike-mezhdometiy-po-proishozhdeniyu-v-tatarskom-i-angliyskom-yazykah.pdf>
8. Пардаев А.Б. Роль и лингвопрагматика служебных частей речи узбекского языка в лингвистической системе: Диссерт. док. филол. наук. – Ташкент, 2017. - 312 с.

## O‘ZBEK TILI RASMIY USLUBINING SHAKLLANISHI

N.U.SADINOVA,

*NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rasmiy uslubning shakllanishi haqida so‘z yuritilib, turkiy hujjatchiligining tarixiy ildizlari, turkiy hujjatchiligi an‘analarining qardosh xalqlar tiliga ham ta‘sir ko‘rsatganligi yoritilib berilgan va manbalardan keltirilgan misollar vositasida asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** hujjatchilik, munshiy, dabir, kotib, mirza, bitikchi.

**Annotation:** This article discusses the formation of the official style, highlights the historical roots of Turkish documentary, the influence of Turkish documentary traditions on the language of the neighboring nations, and is based on examples from sources.

**Key words:** documentation, munshi, dabir, secretary, mirza, typist.

Ma‘lumki, o‘zbek hujjatchiligi o‘zbek davlatchiligi tarixi bilan deyarli bir vaqtda paydo bo‘lib, rivojlanib kelgan. Hujjatlar o‘z rivojlanishi mobaynida o‘ziga xos xususiyatlarga, binobarin, o‘ziga xos uslubga ega bo‘lib kelgan. Hozirgi kunda “rasmiy uslub” deya ataluvchi hujjatlar uslubi ham bugungi ko‘rinishga, shaklga kelgunga qadar ma‘lum taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan. “Adabiy-badiiy, rasmiy va norasmiy yozishmalar, turli hujjatlar, ish qog‘ozlari har bir xalqning madaniyati, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti, davlatchilik tarixi bilan chambarchas bog‘liq tarzda rivoj topdi.” [4; 20.] Navoiyshunos Q.Ergashev rasmiy uslubning tarixiy ildizlarini insho san‘ati ifodasi ostida o‘rganadi. “Sharq nasrida, jumladan, o‘zbek adabiyotida ham mavjud bo‘lgan o‘ziga xos ijod turi – insho san‘ati alohida diqqatga sazovordir. Zero, insho san‘ati namunalari faqat nasr turi bo‘libgina qolmay, ayni paytda, tarixiy-ijtimoiy hujjat, davlatchiligimizga oid manba, ma‘naviyat va madaniyatimiz yodgorliklari bo‘lib ham hisoblanadi.” [4; 21.] “Lekin barcha davrlarda ham inshoning asosiy turi deb maktublar tan olingan. Buni shundan ham bilish mumkinki, bizgacha yetib kelgan “Munshaot”larning barchasi maktublardan iboratdir.” [4; 30.] Shuningdek, tadqiqotchi insholarda faqat shaxsiy masalalar emas, ijtimoiy-siyosiy masalalar ham katta o‘rin tutishini, bizgacha yetib kelgan ko‘pgina “Munshaot”larga, jumladan, “Makotiboti Rashidiy”ga kirgan aksar maktublar ijtimoiy-siyosiy mazmunda bo‘lib, ularda shaxsiy motivlar ustun emasligini, hatto shohlarning o‘z o‘g‘illariga yozgan bitiklarida ham asosan davlat ishlari to‘g‘risida so‘z borishini, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy masalalar Jomiy va Navoiy “Munshaot”larida ham o‘z aksini topganligini qayd etadi. [5; 35.]

Rasmiy uslub taraqqiy etar ekan, yuqorida aytilganidek, o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Hujjatlarning shakllanish tarixiga bag‘ishlangan ishlarda rasmiy yozishmalarni olib boruvchi devon xizmatchilari ham turlicha atalgani, jumladan, *baxshi* atamasidan tashqari, *munshiy*, *dabir*, *kotib*, *mirza*, *bitikchi* atamalari ham iste‘molda qo‘llangani haqida ma‘lumot beriladi. “Ularga juda yuqori talablar qo‘yilgan. Munshiylar keng qamrovli bilimlarga ega bo‘lishlari kerak edi. Xususan, badiiy san‘atlardan xabardor bo‘lishlari, o‘z maqsadlarini inshoda o‘ta nazokatli bir tarzda ramzu ishoralar bilan ifodalay olishlari, shuningdek, boshqalar tomonidan yo‘llangan maktublardagi ana shunday ramz va ishoralarni fahmlay olishlari talab etilardi... Munshiylarga qo‘yiladigan talablar ulkan bo‘lganidek, ularga bo‘lgan e‘tibor

ham yuksak darajada edi. Xonlar, sultonlar, xalifalar insho ustalarini qadrlaganlar. Ularni davlat ishlariga jalb etib, yuqori mansablarga ko'targanlar, ularga katta hurmat ko'rsatganlar." [4; 31.]

XIV – XV asrlarda uyg'ur xatli imtiyoz huquqini beruvchi davlat hujjatlarini tadqiq qilgan Q.Sh.Omonov so'z tarkibi va leksik birliklarning tanlanishi jihatidan hujjatlarning uslubi o'ziga xosligini, ya'ni rasmiy matnlarda hujjatlar uslubiga xos leksik birliklardangina foydalanilganligini, umumturkiy leksika tarkibidagi birliklarning barchasi ham qo'llanmasligini ko'rsatadi. Hujjatlar uslubida badiiy asarlarga va og'zaki nutqqa xos birliklar uchramasligini, hayot hodisalarini obrazli ifodalash uchun va inson ruhiy kechinmalari, tuyg'ularini tasvirlovchi badiiy tasvir vositalari ishlatilmasligini ta'kidlaydi. [3; 26, 1;84.] "Rasmiy matnlar uslubida o'sha davr umumturkiy leksik birliklarining hammasi ham qo'llanavermasligiga sabab, birinchi navbatda, hujjatlar uslubiga xos rasmiy adabiy tilning talabi bo'lmish «rasmiylik» bilan izohlanadi." [3; 28, 1;84.]

Hujjatlar uyg'ur xatli rasmiy matnlar va arab-forsiy yozuvli rasmiy matnlar asosida rivojlandi. Shuningdek, har ikkala uslub o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladiki, bu uslublarning ma'lum qonun-qoidalarga bo'ysunishini ko'rsatadi.

Turkiy rasmiy uslubning shakllanishini maxsus tadqiq etgan Q.Omonov Amir Temurning 1401 yilda bitilgan forscha yorlig'ining unvon qismi turkiy unvon (Temur Kuragan sozimiz) bilan boshlanishini, forscha yorliqlarda turkiy unvonning qo'llanishi forscha hujjat tuzish uslubining cheklanganidan emas, balki fors devon mahkamachiligi amaliyotida ham turkiy ish yuritish an'anasi yuqori bo'lganidan dalolat berishini qayd etadi. [2; 92.]

Shubhasiz, bu ham turkiy tilning (o'sha paytda bunday nom bilan atalmagan bo'lsa ham) rasmiy uslubi erishgan yutuqdir.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Omonov Q. Qadimgi hujjatlar leksikasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 2014. – №6.
2. Omonov Q. Eski turkiy rasmiy matnlar diplomatikasining qo'shni mamlakatlar hujjatchiligiga ta'siri // O'zbek tili va adabiyoti, 2017. – №6.
3. Omonov Q.Sh. XIV – XV asrlarda uyg'ur xatida bitilgan imtiyoz huquqini beruvchi davlat hujjatlarining lisoniy-uslubiy tadqiqi: Filol. fan. nomz.... diss. – Toshkent, 1997.
4. Ergashev Q. Takallum rishtasin chekma uzun... // Sog'lom avlod uchun, 2001. – № 2.
5. Ergashev Q. O'zbek nasrida insho. – Toshkent: Muharrir, 2011. – B. 35.

#### **“MICROSOFT WINDOWS” OPERATSION TIZIMI TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK ASPEKTI**

**B.MAXAMMADOV,**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i o'rinbosari*

**Annotatsiya.** Lingvistik aspekt turli xil til va nutq o‘rnida bo‘lgan madaniy va ijtimoiy muammosini o‘rganishda, tushuntirishda yoki hal etishda foydalaniladi. Misol uchun, bir tilning grammatik qonuniyatlari, leksikologiyasi, fonetikasi, pragmatikasi kabi lingvistik xususiyatlarini o‘rganish uchun lingvistik aspekt qo‘llaniladi. Shunday ekan bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda zamonaviy terminlarni o‘rganish va uni tadqiq etish juda muhim sanaladi va Microsoft windows terminologiyasining lingvistik aspekti zamonaviy tilshunoslikning talabiga aylanmoqda.

**Kalit so‘zlar:** contana, microsoft windows, operatsion tizim, pragmatika.

**Аннотация.** Лингвистический аспект используется при изучении, понимании или решении культурных и социальных проблем, связанных с различными языками и речью. Например, лингвистический аспект применяется для изучения грамматических правил, лексикологии, фонетики, прагматики и других лингвистических особенностей для понимания или решения проблемы определенного языка. Таким образом, в современной лингвистике изучение и исследование современных терминов является очень важным, и лингвистический аспект терминологии Microsoft Windows соответствует требованиям современной лингвистики и требованиям к современной лексикографии.

**Ключевые слова:** contana, Microsoft windows, операционная система, прагматика.

**Annotation.** The linguistic aspect is used to study, understand, or address cultural and social issues related to various languages and speech in different contexts. In modern linguistics, learning and researching contemporary terms are crucial, and the linguistic aspect of Microsoft Windows terminology aligns with the requirements of modern linguistics and the demands of contemporary lexicography. Understanding and researching contemporary terms in modern linguistics, especially in the field of modern linguistics, are highly important, and the linguistic aspect of Microsoft Windows terminology is evolving to meet the demands of modern linguistics.

**Key words:** contana, Microsoft windows, operating system, pragmatics.

Jahon tilshunosligida terminologiya va leksikografiya, xususan, terminografiya bo‘yicha filologik hamda sohaviy lug‘atlarning ahamiyati, ularni tuzish, terminologik birliklarning soha bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarini ajratib ko‘rsatish, shuningdek, ularni umumiy filologik yoki maxsus lug‘atlarda keltirish, birliklarni izohlash bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan, qator yutuqlar qo‘lga kiritilgan[1]. Milliy tilshunosligimizda ham lug‘atchilikka e‘tibor tilshunoslikning eng muhim tarmog‘i sifatida Mahmud Qoshg‘ariy davridanoq boshlangan[2].

Microsoft Windows operatsion tizimi terminologiyasining lingvistik jihatlari Windows interfeysida ishlatiladigan terminologiya ichidagi til bilan bog‘liq xususiyatlar va elementlarni o‘rganish va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bunga quyidagilar kiradi:

Grammatik qoidalar - operatsion tizim interfeysida qo‘llaniladigan atama va iboralarning grammatik tuzilishini o‘rganish. Bu so‘zlarning qanday qilib ma'noli iboralarni hosil qilishini tushunishni o‘z ichiga oladi.

Leksikologiya orqali Microsoft Windowsda qo‘llaniladigan lug‘at va terminologiyani tahlil qilish. Bu muayyan so‘z va iboralarning ma'nosi, ishlatilishi va talqinini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.



Fonetika orqali atamalarning talaffuzi va artikulyatsiyasi hisobga olinadi. Bunda yozma shaklda unchalik ahamiyatli bo'lmasa-da, ovoz bilan faollashtirilgan tizimlar yoki ekranda o'quvchilar bilan ishlashda muhim sanaladi.

Pragmatika orqali muayyan foydalanish holatlarda matnda kelishi omillari va mo'ljallangan ma'noni hisobga olgan holda atamalarning amalda qo'llanilishini baholash.

Madaniy va ijtimoiy lingvistik mulohazalar orqali operatsion tizim interfeysidagi til tanlash jarayonida madaniy va sotsialingvistik omillar ta'sir qilishi mumkinligini hisobga olish, inklyuzivlik va madaniy sezgirlikni oshirish.

Tarjima qilish va o'zlashtirish orqali operatsion tizimni turli tillarga tarjima qilish va uni turli mintaqaviy lingvistik o'zgarishlarga moslashtirish bilan bog'liq lingvistik muammolarni hal qilish.

Ushbu lingvistik jihatlarni tushunish nafaqat texnik jihatdan samarali, balki turli xil til va madaniyatlarda foydalanuvchilarga qulay bo'lgan operatsion tizim interfeysini yaratish uchun juda muhimdir. Bu ishlatiladigan atamalarning aniq, izchil bo'lishini va lingvistik konventsional va taxminlarga mos kelishini ta'minlaydi.

Microsoft Windows operatsion tizimi o'zining interfeysida ishlatiladigan keng va xilma-xil terminologiyaga ega. Ingliz tilidagi terminlar tahlil qilinadigan bo'lsa, ular son sanoqsiz degan xulosaga kelish mumkin. Shu sababli ham terminlarni tartiblashtirish uchun ularni ma'noviy guruhlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Jumladan, quyidagi terminlarning lingvo pragmatik xususiyatlari bilan tanishib chiqadigan bo'lsak:

**Desktop** - foydalanuvchilar o'z kompyuterlari bilan amallarni bajaradigan va microsoft windows operatsion tizimi uchun mo'ljallangan dasturlarni ishga tushiradigan asosiy ekran.

**Start Menu** - O'rnatilgan dasturlar, sozlamalar va o'chirish/yoqish funksiyalariga kirishni ta'minlaydigan menyu termini.

**Taskbar** – vazifalar paneli bo'lib, odatda ekranning pastki qismida joylashgan bo'lib, ochiq dasutlar va tizim bildirishnomalarini ko'rsatadi. Bu holatda panel leksemasi windows operatsion tizimida foydalaniladigan terminlar ma'nosi qatorida ko'rilmoqda.

**File Explorer** - kompyuterda fayl va papkalarni ko'zdan kechirish uchun foydalaniladigan fayllarni boshqarish dasturi.

**Icon** - fayllar, dasturlar yoki tizim funksiyalarini ifodalash uchun ishlatiladigan kichik grafik tasvir.

**Settings** - turli xil tizim sozlamalariga kirishni ta'minlaydigan boshqaruv panelining modernizatsiya qilingan versiyasi.

**Microsoft Store** - dasturlarni, shu jumladan bepul va pullik dasturlarni yuklab olish va o'rnatish uchun onlayn bozor.

**User Account Control (UAC)** - Muayyan tizim o'zgarishlariga ruxsat berishdan oldin foydalanuvchilardan ruxsat so'raydigan xavfsizlik xususiyati.

**Updates** - muntazam ravishda chiqariladigan dasturiy ta'minot yamoqlari, xavfsizlik yangilanishlari va Microsoft tomonidan taqdim etilgan xususiyatlarni yaxshilash.

**Shortcut** - Muayyan ilova yoki funksiyaga tezkor kirish imkonini beruvchi belgi yoki klaviatura birikmasi.



**Cortana** - ovozli buyruqlar va tabiiy tilda o'zaro ta'sir qilish imkonini beruvchi Microsoft virtual yordamchisi[3].

Ushbu atamalar Microsoft Windows bilan bog'liq bo'lgan keng qamrovli terminologiyaning faqat bir qismini ifodalaydi va operatsion tizimning turli xususiyatlari va funksiyalarini aks ettiradi.

Alohida ta'kidlab o'tish joizki, bunday atamalarning adaptatsiya bo'lishi va muomalada qo'llanilish jarayonlari uzoq vaqt talab etmadi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, mazkur atamalar orasidan ba'zilarini hattoki termin tarjimasini bilan ifodalanmasdan, asl holida qo'llanilish holati uchramoqda. Qolaversa, ularning so'z turkumliligiga qarab egalik, kelishik va boshqa qo'shimchalar qo'shilishi holatlari ham o'zbek tilida uchramoqda. Xususan, Microsoft Windows terminining nomlanishini o'zini qo'llanilishida ham bir nechta savollarni oldimizga tashlayotganligini guvohi bo'lib turibmiz. Masalan, Microsoft terminidagi c harfini oladigan bo'lsak, o'zbek tilida mazkur harf mavjud emas, bu harfni o'zbek tilidagi k harfi bilan ifodalash kerakmi yoki o'z holicha qoldirish kerakmi degan savollarni ilgari surilishi ham tabiiy holat. Bundan tashqari Windows terminidagi w harfi inglizcha sanaladi, bu harfni o'zbek tilidagi v harfiga o'zgartirish qanchalik to'g'riligi yuzasidan savollar yaralaveradi.

Xulosa shuki, zamon talabiga mos tarzda ushbu terminlarning tarjimasini bilan o'zbek tiliga o'zlashtirilsa, balki maqsadga muvofiq bo'ladi. To'g'ri bu bilan 100 foizlik natijaga erishmaslik mumkin, lekin ma'lum miqdorda o'zbek tilining qadr-qimmatini saqlab qolishga hissa qo'shgan bo'lamiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Горностаев Г.Н., Забинкова Н.Н., Каден Н.Н. Латинские названия животных и растений.– М.: Изд-во МГУ, 1974. – С.146; Felber H. International standardization of terminology: theoretical and methodological aspects. – Paris: Vienna, 1977. – P. 264;
2. B.Maxammadov - Android operatsion tizimi mobil ilovalari terminlarining o'zbek, rus, ingliz tillarida berilishi, diss.f.f.f.d, 2023, B.6
3. <https://learn.microsoft.com/en-us/windows/win32/uxguide/glossary>

### O'ZBEK TILI GAP QOLIPLARINING IJTIMOYIY TARMOQ MATNIDA VOQELANISHI

*Bobomurod RUSTAMOV,*

*Navoiy innovatsiyalar universiteti*

*Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasini Ingliz tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoq nutqida ishlatiladigan sintaktik birliklar va ularning turlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** gap qoliplari, ijtimoiy tarmoq nutqi, sintaktik sath, lisoniy sath, internet tizimi

**Annotation:** This article discusses syntactic units and their types used in social network speech.

**Keywords:** sentence patterns, social network speech, syntactic level, linguistic level, internet system.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются синтаксические единицы и их виды, используемые в речи в социальных сетях.

**Ключевые слова:** образцы предложений, речь в социальных сетях, синтаксический уровень, лингвистический уровень, интернет-система.

O‘zbek tili soda gap sintaktik sath til birliklari: so‘z birikmasi, sodda gap, murakkablashgan sodda gap, undalma, kirish va kiritmalardan iborat.

So‘z birikmasi sintaktik birlik sifatida strukturasi, shakli, birikma tarkibidagi so‘zlarning vazifasi, o‘zaro birikish usullari va turlari, birikmalarning turlari va shu kabi qator masalalarni qamrab oladi. Shuningdek, so‘z birikmasining ibora, so‘z qo‘shilmasi va qo‘shma so‘zlardan farqlash masalasi ham muhim jihat hisoblanadi. So‘z birikmasidagi sintaktik munosabatlar quyidagi omillarga bog‘liq: 1) birikma qismlarining umumiy leksik-grammatik xususiyatlari va ularning kategorial ma’nolariga; 2) so‘zlarning leksik ma’nosiga; 3) birikma qamrovidagi kontekstga. Tarkibiga ko‘ra so‘z birikmasining sodda va murakkab turlari mavjud. Zamonaviy qarashlar asosidagi yangicha talqinlar negizida so‘z birikmasini sintaktik qurilmalarning asosiy turlaridan biri sifatida o‘rganishga e’tibor yanada kuchaymoqda.[1,218]

Ma’lumki, muloqot jarayonida qo‘llanilayotgan til birliklarining tinglovchiga ta’siri diskursiv vaziyatga bog‘liq. Muayyan diskursiv vaziyatda, aynan, til funksiyalari qay darajada amal qilayotganini tahlil qilish - ularning muloqot samaradorligi yoki samarasizligini aniqlashga yordam beradi.

Muloqot jarayonida fikr ma’nosi ochiq ifoda etilmaydi, shu sabab ifoda matnining o‘ziga xos xususiyatlari uning yashirin ma’nolarini o‘rganishda samara berishi tabiiy. Ularni idrok etish va tushunish uchun lisoniy qobiliyat bilan birga ongda umumiy bilimlar zahirasi ham harakatga keladi. N.D.Arutyunovanning fikricha, ayrim hollarda nutqiy vaziyatga ko‘ra ochiqchasiga gapirish noqulay vaziyatga olib kelishi mumkin.[38]

So‘z birikmasi so‘zning sintaktik valentligi asosida gapdan mustaqil mavjud bo‘lsa-da, maxsus sintaktik birlik sifatida jumla tarkibida ishlatiladi. Nutqiy vaziyat talabi bilan so‘z birikmasi o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Tilshunoslik fanining keyingi yuz yillik davrida jahon miqyosidagi taraqqiyoti natijasida gapning ifoda, mazmun va ma’no qatlamlariga ega sintaktik yaxlitlik sifatidagi mavqei borasidagi serqirra paradigmatic tadqiq doirasi shakllandi va shu asosda matn tarkibidagi imkoniyatlari o‘rganila boshlandi. “Gap sintaktik yaxlitlik, bu uning grammatik shakllanganligi, tarkibiy uzvlari bir butunlik holiga kelganligi bilan izohlanadi. Demak, gapda bir necha jihat birlashgan bo‘ladi. Birinchi jihat gapning moddiy qobig‘i, bu uni tashkil etuvchi so‘z va grammatik shakllar. Masalan, aksariyat gapda kesimlik ko‘rsatkichlari bilan shakllangan atov birligi (kesim)ning bo‘lishi shart. Ikkinchi jihat ana shu moddiy qobiqqa singdirilgan aqliy mahsul – fikr-axborot. Uchinchi jihat esa so‘zlovchining voqelikka munosabati, nutq vaziyati. Bu uch jihat nutqda uchlikni - sintaktika, semantika va pragmatika birligini tashkil etadi”.[3,306] Antropotsentrik tamoyillar negizida “gap lisoniy sathda” va “gap nutqiy sathda” tushunchalari ajratila boshlandi.

Bugungi zamon shiddati hayotimizni internet yoki ijtimoiy tarmoqlarsiz aslo tasavvur etib bo‘lmagligini namoyon etayotir. Aksariyat odamlarning faoliyati internet,

ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo'layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni bir-biriga uzatish bilan bog'liq.

Mamlakatimiz va dunyo miqyosida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalar, yangiliklar to'g'risidagi ma'lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda aks etib boryapti. Bu yangiliklardan xabardor bo'lishda esa internet tizimi, mobil telefonlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ancha qulay hisoblanadi. Bundan tashqari, o'zaro ma'lumot almashish yoki biror voqea-hodisaga munosabat bildirish, o'z fikrini bayon etish yoki o'zaro muloqot qilishda ijtimoiy tarmoqlar juda qulay vositadir.

Hozirgi kunga kelib o'zbek tadqiqotchilari va mutaxassislari ham internetning ijtimoiy-psixologik jihatlari, internet jurnalistikasi, muayyan soha tarmoqlariga e'tibor qaratmoqdalar.[4,54] Jumladan, internet muloqotining til xususiyatlariga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlar ham olib borilmoqda .[5,138]

Bor-yo'g'i o'n yil oldin ham —so'zlashuv nutqining yozma shakli yo'q va mana shu jihati bilan boshqa funksional uslublardan tubdan farqlanadi.

So'zlashuv nutqi og'zaki shaklda yuzaga chiqadi [6,32] deb hisoblab kelingan edi. “Bugungi kunda mohiyatan lingvistik o'zaro munosabatlarning yangi shakli - yozma so'zlashuv nutqi paydo bo'ldi”.[7,63] Darhaqiqat, fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida Xalqaro globallashuv jarayonini tezlashuvi natijasida internet muloqoti vositasi sifatida so'zlashuv uslubining yozma shakli paydo bo'ldi. Yozma so'zlashuv nutqining dastlabki ko'rinishi sifatida u qadar ommalashmagan maktub, XX asr oxirida telefon orqali qisqa xabar (sms – short message service) shaklida qo'llangan bo'lsa, XXI asrga kelib internet kommunikatsiyasi paydo bo'lishi bilan ommaviy muloqot turiga aylandi. Bu hodisanisinergetika tili bilan aytganda “bifurkatsiya” holati deb aytishimiz mumkin, chunki “rivojlanishning ikkiga ayrilib tartibga tushish holati bifurkatsiya sanaladi”.[8,39] I.Prigojinning fikriga ko'ra, bifurkatsiya jarayonlari tizimning murakkablashuvidan dalolat beradi.[9,20]

Har qanday gapda nutq egasining kommunikativ maqsadi aks etar ekan, nutqiy faoliyat mahsuli bo'lgan gap turlarining har biri pragmatik tahlilga muhtoj bo'ladi.

Internet tarmog'i nutqining lisoniy tahlili jahon tilshunosligi tadqiqotining muhim muammosi sanaladi.

So'zlashuv nutqining quyidagi turlari mavjud: 1) adabiy so'zlashuv; 2) qorishiq so'zlashuv; 3) oddiy so'zlashuv yoki ko'cha tili 4) dialektal so'zlashuv.

Adabiy so'zlashuv nutqi rasmiy doiralarda, ta'lim muassasalarida, ommaviy axborot vositalarida ijtimoiy aloqa-aralashuv vositasi sifatida xizmat qiladi. Ma'lum bir toifa so'zlovchilar rasmiy doiralarda, OAVdagi chiqishlarida, ma'ruza yoki nutq so'zlash jarayonlarida adabiy til me'yorlariga rioya qiladilar. Assalomu alaykum hurmatli do'stlar! Tug'ilgan kunim munosabati bilan bildirgan samimiy tilaklaringiz uchun barchangizdan minnatdorman. E'tiboringizdan boshimiz ko'kka yetdi. Imkon qadar javob qaytarishga harakat qildim. Javob berolmagan bo'lsam uzr, o'qimabdi, degan xayollarga bormang. Hammangizga sog'liq, xotirjamlik va davlatmandlik tilayman. Baxt aslo tark etmasin! [*Internetdan*]

Qorishiq so'zlashuvda muayyan soha vakillari rasmiy-ilmiy-so'zlashuv nutq elementlaridan aralash holda foydalanadilar. Masalan, fizik olim erkin nutq vaziyatida ayrim ilmiy tushunchalar asosida fikr ifodalashi jarayonida kommunikantning qabul qilish imkoniyatini hisobga olgan holda oddiy so'zlashuvga oid elementlardan ham foydalanadi. Ayrim so'zlovchilar muomala-maishiy muloqotda birmuncha erkin

soʻzlasalar ham, maʼlum darajada adabiy til meʼyorlarini saqlab qoladilar. Chunki ularda muayyan ijtimoiy muhit taʼsirida nutq madaniyati kompetensiyasi shakllangan boʻladi.

Demak, ijtimoiy tarmoq matnlarining lisoniy tahlili adabiy til meʼyorlari talablariga, yozma nutq uslub talablariga rioya etishni hamda turli xatoliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Yozma matnlardagi xatoliklarni bartaraf etish soʻzlovchining til meʼyorlarini puxta oʻzlashtirishini talab etadi. Matnda til uslubiy meʼyorlariga amal qilish uning taʼsirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т., 2009. – Б. 271; Раупова Л.Р. Ҳозирги ўзбек тилида сўз бирикмалари. – Т.: Yoshlar matbuoti, 2015. – 218 б.
2. Арутюнова Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики. // Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. Вып. 16. – С. 21-38.
3. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т., 2009. – Б. 306.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Интернет одобрлари // <https://www.islom.uz/view>; Бекназаров К.Т. Интернет самарали коммуникация канали сифатида // НамДУ илмий ахборотномаси. – Наманган, 2019. – № 12.
5. Каримов Р.Г. Тижорат хатларининг лингвопрагматик аспекти (инглиз ва ўзбек тиллари материалида). Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. –Т.: 2018. – 138-б.
6. Каримов С. Ўзбек тили функциоал стилистикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – Б. 32.
7. Виноградова Т. Ю. Специфика общения в интернете // Русская и сопоставительная филология: Лингвокультурологический аспект. – Казань, 2004. – С.63-67.
8. Нурмонов А. Танланган асарлар Шжилдлик. I жилд.– Тошкент: Академнашр, 2012.– Б. 39.
9. Князева Е.Н., Курдюмов С.П. Синергетика как новое мировидение: диалог с И. Пригожиным. // Вопросы философии. – 1992. – №12. – С. 3-20.

#### MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TOʻGʻRI TALAFFUZGA OʻRGATISHDA OʻYINLARDAN FOYDALANISH

*Xaydarova Shaxlo Narzullayevna,*

*Navoiy innovatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar kafedراسи dotsenti*

*Odilova Sitara Ergash qizi,*

*Navoiy innovatsiyalar universiteti Maktabgacha taʼlim yoʻnalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarning ogʻzaki nutqini oʻstirish, nutqni grammatik tomondan toʻgʻri shakllantirishga, tovush va soʻzlarni toʻgʻri talaffuz etishga, ravon gapirishga, nutqida kamchiligi boʻlgan bolalarni vaqtida aniqlab ularga yordam berish haqida yoritib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** Bolaning nutqi, nutqning morfologik va sintaksis, toʻgʻri talaffuz, jarangli, jarangsiz, sonor tovushlar, ustki lab, pastki lab.

**Аннотация:** В статье рассматриваются развитие устной речи детей в дошкольных образовательных организациях, правильное формирование речи с грамматической точки зрения, правильное произношение звуков и слов, умение бегло говорить, детей с речевыми дефектами в время ясно объяснило, как им помочь.

**Ключевые слова:** речь ребенка, морфо-синтаксис речи, правильное произношение, звонкие, глухие, звонкие звуки, верхняя губа, нижняя губа.

**Abstract:** In the article, the development of children's oral speech in pre-school educational organizations, the correct formation of speech from the grammatical point of view, the correct pronunciation of sounds and words, the ability to speak fluently, children with speech defects in time clearly explained how to help them.

**Key words:** child's speech, morphological and syntax of speech, correct pronunciation, voiced, unvoiced, sonorous sounds, upper lip, lower lip.

Bolani maktabda muvaffaqiyatli taʼlim olishga tayyorlash uchun unga tilning barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur. Bola nutqining rivoji koʻp jihatdan uning ruhiyatiga, sogʻlom, tetik oʻsishiga, ahloqiy sifatlariga, oʻquv dasturini oʻzlashtirishda meʼyorli bajarilishini taʼminlashiga, qoʻllanmalarining monandligiga bogʻliqdir. Bu masalalar maktabgacha taʼlimda oʻz yechimi ifodasini topishi va oʻz ona tilida ravon gapira oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi zarur. Bolalarning aqliy jarayonini rivojlantirish uchun ularning nutqini oʻstirish zarur. Bola har bir soʻz maʼnosini tushuna olishi uni oʻz nutqida erkin ifodalashga muvofiq boʻlishi kerak. Tushunchalar tizimiga moslashgan bola oʻz fikrini jamlab gapirishga va ifodalab berishga oʻrganadi.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida taʼlim-tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga oʻz ona tilini oʻrgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga oʻrgatishdir. Bolalarning ogʻzaki nutqini oʻstirish boʻyicha oʻtkaziladigan mashgʻulotlarda asosan, ularning ogʻzaki nutqini oʻstirishga, nutqni grammatik tomondan toʻgʻri shakllantirishga, nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish: sodda va qoʻshma gaplar tuzish, bunda barcha soʻz turkumlaridan foydalanishga oʻrgatish, bolalarni gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni feʼlga toʻgʻri ishlatish malakalarini takomillashtirish, tovush va soʻzlarni toʻgʻri talaffuz etishga, ravon gapirishga, mustaqil hikoya qilishga eʼtibor beriladi.

Bolalarning nutqi qanchalik boy va toʻgʻri boʻlsa ular oʻz fikrlarini boshqalarga shuncha yengil va oson bayon eta oladilar. Nutqning har qanday buzilishi bolaning xulqiga va faoliyatiga taʼsir koʻrsatadi. Buning natijasida bola maktabda yomon oʻzlashtiradigan va oʻz kuchiga ishonmaydigan boʻlib qoladi. Bolalarni maktabgacha taʼlimida savodga oʻrgatish davrida tovushlarni toʻgʻri va aniq talaffuz etishga oʻrgatish muhim ahamiyatga egadir. Lekin bunday muhim masalani hal etishda oilaning ham roli kattadir. Bolalar bogʻchasida olib borilgan har qanday ish ham ota-onalarning yordamisiz yaxshi natijalar bera olmaydi. Tovushlarni toʻgʻri talaffuz etishga oʻrgatish uchun oilada ham har kuni yoki kun oralab bolalar bilan oʻyin shaklida mashgʻulot oʻtkazib turish darkor. Besh va olti yoshli bolalar bilan mashgʻulotlar oyna oldida turib



o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bolalar oyna orqali o'z nutq apparatlarining harakatlarini ko'radilar. Maqsadga qaratilgan muayyan mashq orqali ota-onalar bolalarida yaxshi talaffuz etilmaydigan u yoki bu tovushlarni to'g'ri talaffuz etishlari uchun yordam bergan bo'ladilar. Maktabga tayyorlov guruhida hushtakli (sirg'aluvchi), shipillovchi, jarangli, jarangsiz, sonor (L,R) tovushlari hamda tovushlarni farq qilish uchun mashq komplekslari o'tkaziladi.

Ota-onalar o'z bolalari bilan shug'ullanishda quyidagilarni esda saqlashlari kerak:

Noto'g'ri talaffuz etilayotgan tovushni to'g'ri talaffuz etishiga yordam beradigan mashq kompleksini tanlash;

Bolani zo'rlab mashq o'tkazmaslik, mashq o'yin shaklida o'tkazilishi;

Bir mashg'ulotda 2-3 mashqdan ortiq mashq berilmasligi;

Bir mashqni o'zlashtirgandan keyingina ikkinchi mashqqa o'tishi;

Ba'zi bir mashqlarni biror kishi sanab turganida bajartirish, bu bilan bolalar til va lablarning muhim holatlari turg'unligini ta'minlashi;

Agar bolada zarur tovush paydo bo'lsa, logoped yordamida hosil qilingan tovush bola nutqiga kiritilishi, bularni so'z va gaplarda to'g'ri ishlatishga o'rgatilishi;

6-7 yoshli bolalar s-sh, z-j, b-n, l-r va tovushlarni farq qilish ustida mashq o'tkazish kerak.

Har qanday komplekslar quyidagi mashqlarni bajarish bilan amalga oshiriladi. Quyida misol tariqasida mashq va mashqlarning komplekslari keltiriladi:

#### **“Devor qurish” mashqi**

Mashqning maqsadi: Tishlar orasini bir oz ochib, kulimsirash holatini saqlash malakasini hosil qilish. Bu mashqni bajarish uchun zo'r bermasdan, yuqorigi va pastgi tishlar ko'rinadigan holda kulimsirash kerak. Buni qanday bajarish kerakligini bolalarga ko'rsatish uchun I tovushini talaffuz etish kerak. Birdan beshgacha yoki o'ngacha sanash davomida lablarni kulimsirash holatida saqlash lozim.

Metodik ko'rsatma:

Kulimsirab turganda yuqorigi lab yuqorigi tishlarga tegmasin.

Agar bola pastki tishlarini ko'rsata olmasa, lablarni yumib turib, pastki labni pastga tushurish kerak. Bu mashqni avval quyidagicha bajarish mumkin: Barmoqni ustki lab tagiga qo'yib, pastki labni pastga qayirish va uni ko'tarish kerak. Bunda tishlar jipslashgan, pastki jag' harakatsiz bo'ladi.

#### **“Naycha” qilish mashqi**

Mashqning maqsadi: Labni oldinga tomon harakat qildirish malakasini hosil qilish.

Mashqning bajarilishi: Lablarni yumgan holda naychaga o'xshatib oldinga cho'zish. Shunday holatda birdan beshgacha yoki o'ngacha sanab turish. Bu harakatni bajarishda ota-onalar quyidagilarga ahamiyat berishlari kerak.

Labni oldinga cho'zganda og'iz ochilmasin, tishlar jipslashgan bo'lsin.

Agar bola lablarni oldinga naychaga o'xshatib cho'za olmasa (lablardan 1,5-2 sm uzoqlikda turgan), konfetga lablarni cho'zishni va uni lablari bilan olishni taklif eting. Bundan keyin quyidagi komplekslar bajartiriladi:

#### **“Tilni keng qilish” mashqi**

Mashqning maqsadi: Tilni tinch bo'shshagan holatda ushlab tura olishga o'rgatish.

Mashqning bajarilishi: Jilmayish, og‘izni sal ochib, tilning oldingi keng qirrasini pastgi labga qo‘yish. Shunday holatda beshdan o‘ngacha sanash.

Metodik ko‘rsatma: 1. Lablarni kuchli kulgu holatiga keltirmaslik kerak. 2. Pastki lab buralmasligi lozim. 3. Tilni juda ham cho‘zib yubormaslik kerak. Til, faqat pastki labni yopib tursa bo‘ladi. 4. Tilning yon qirralari og‘iz burchaklariga tegib tursin. 5. Bolalar mashqni uddalay olmasa “itoatsiz tilni jazolash ” mashqni takrorlash kerak.

#### **“Itoatsiz tilni jazolash” mashqi**

Mashqning mazmuni: Til muskullarining bo‘shashishiga yordam berish. Bu mashq quyidagicha o‘tkaziladi: tilni keng va tinch holatda bo‘lishi uchun og‘izni bir oz ochib tilni sekingina pastki labga qo‘yib, yuqorigi lab bilan tilni “pya-pya-pya” deb shipillatish kerak. 1-5 gacha yoki 10 gacha sanaguncha og‘izni ochib keng tilni tinch holatda ushlab turish kerak.

Metodik ko‘rsatma: 1. Pastki lab iloji boricha burilib ketmasligi va pastki tishlarga tegmasligi kerak. 2. Til keng bo‘lishi va uning chetlari og‘iz burchaklariga tegib turishi zarur. 3. Lablar bilan tilni shipillatishni bir nafas chiqarishda bir necha marta takrorlash lozim. Bola chiqayotgan havoni ushlab turmasligi kerak. Buni nazorat qilib turishi uchun bir parcha paxtani og‘iz oldiga olib kelib turishi lozim. Agarda mashq to‘g‘ri bajarilayotgan bo‘lsa, paxta bir tomonga og‘adi.

Tarbiyachining bolalarda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishni shakllantirish ishi, shuningdek, nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarga alohida munosabatda bo‘lishi nazarda tutiladi. Bu ishning asosiy maqsadi bolalar nutqida kamchiliklarning paydo bo‘la boshlaganligini aniqlash, iloji boricha nutqidagi kamchiligini ilgariroq anglash va o‘z vaqtida logopedga murojaat etish ko‘zda tutiladi. Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishni shakllantirish ishining shakli va mazmuni tarbiyachilarga tanish, lekin tovushlarni talaffuz etishdagi kamchiliklarni bartaraf qilish logoped zimmasiga yuklatilgan bo‘ladi. Logopedga tarbiyachilar bola nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishida to‘g‘ri yordam ko‘rsatishi zarur. Mashg‘ulotlar davomida ham tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish, mashg‘ulotlarni to‘g‘ri rejalashtirish va uni o‘tkazishdagi ishlarida yaqindan yordam berishi kerak. Logopedlarga bu ishda yordam berishning eng muvaffaqiyatli yo‘llaridan biri seminarlar o‘tkazishdir.

Xulosa qilganda, bola nutqining rivojlanish jarayoni o‘z vaqtida to‘g‘ri kechishi uchun maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida va oilada maxsus sharoitlar zarurdir. Buning uchun: bola ruhiy va jismoniy jihatidan sog‘ bo‘lishi, normal aqliy qobiliyatga ega bo‘lishi normal eshitish va ko‘rishi, yetarli darajada ruhiy faollikka ega bo‘lishi, gaplashish ehtiyojiga ega bo‘lishi, to‘g‘ri nutq muhitiga ega bo‘lishi lozim. Bolada nutqning normal rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o‘zlashtirib olishga, atrof-olam haqidagi bilim va tasavvurlarini kengaytirishga imkoniyat yaratadi.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Nazarova Ye.N. Logopedicheskaya ritmika. Toshkent, 2004.
2. Shodiyeva K.S. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish ” 1995 yil.
3. Shomahmudov R.Sh., Mo‘minova L.R. “Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish”, 1993.
4. Xivatsiv M.Ye. Logopediya. M, 1969.

## ОСОБЕННОСТИ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМУНИКАЦИИ

*Д.О.КАМАЛОВА,*

*Доцент кафедры «Узбекского языка и литературы»  
Бухарского инженерно-технологического института*

**Аннотация:** в статье рассматривается вопрос межкультурной коммуникации, разнообразие форм отношений и общения между индивидами и группами, принадлежащими к разным культурам.

**Ключевые слова:** коммуникация, общение, понимание, культура, языковое общество.

**Annotatsiya:** Maqolada madaniyatlararo muloqot, turli madaniyatlarga mansub shaxslar va guruhlar o'rtasidagi munosabatlar va aloqa shakllarining xilma-xilligi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** aloqa, muloqot, tushunish, madaniyat, til jamiyati.

**Abstract:** the article examines the issue of intercultural communication, the variety of forms of relationships and communication between individuals and groups belonging to different cultures.

**Key words:** communication, communication, understanding, culture, language society.

Межкультурная коммуникация предполагает общение между представителями разных культур, в ходе которого, по крайней мере, один из участников может говорить на неродном языке. В современном мире, где русский язык прочно занял положение языка международного общения, часто оба участника коммуникации говорят на неродном языке, привнося в него собственные культурные нюансы. В связи с расширением межкультурных контактов возрастает потребность общества в специалистах различного профиля, владеющих иностранным языком. На первый план выступает необходимость вербального обеспечения межкультурной коммуникации (установление личных контактов, ведение телефонных разговоров, обмен корреспонденцией, проведение презентаций, совещаний и собраний, переговоров, участие в конференциях и семинарах). Язык — главный выразитель самобытности культуры — одновременно является и главным посредником в межкультурном коммуникационном процессе.

Вместе с тем успешная межкультурная коммуникация предполагает наряду с владением иностранным языком еще и умение адекватно интерпретировать коммуникативное поведение представителя иносоциума, а также готовность участников общения к восприятию другой формы коммуникативного поведения, пониманию его различий и варьирования от культуры к культуре. Стратегия сближения инокультурных знаний направлена на предотвращение не только смысловых, но и культурных сбоев в коммуникации.

Здесь главная проблема — проблема понимания. При ее решении следует помнить, что язык — только инструмент для передачи форм речевого поведения, он лишь создает среду для межкультурной коммуникации. Понимание в межкультурной коммуникации — сложный процесс интерпретации, который зависит от комплекса как собственно языковых, так и неязыковых факторов. Для

достижения понимания в межкультурной коммуникации ее участники должны не просто владеть грамматикой и лексикой того или иного языка, но знать культурный компонент значения слова, реалии чужой культуры.

Таким образом, овладение иноязычным кодом, позволяющим успешно осуществлять межкультурное взаимодействие, предполагает изучение особенностей культуры, определяющих специфику общественного и делового поведения партнера, детерминированного влиянием исторических традиций и обычаев, образа жизни и т.п. Поэтому иностранные языки как средство коммуникации между представителями разных народов и культур должны изучаться в неразрывном единстве с миром и культурой народов, говорящих на этих языках (раньше у нас иностранный язык изучался в отрыве от его социокультурного контекста как самоцель и практически не нес функциональной нагрузки).

Речь идет о том, что реальное употребление слов, реальное речевоспроизводство в значительной степени определяется знанием социальной и культурной жизни говорящего на этом языке речевого коллектива. «Язык не существует вне культуры, т.е. вне социально унаследованной совокупности практических навыков и идей, характеризующих наш образ жизни» (*Сенир Э. Язык. Введение в изучение речи // Избранные труды по языкознанию и культурологии. М., 1993. С. 211*). Поскольку в основе языковых структур лежат социокультурные структуры, то для активного использования языка как средства общения необходимо как можно глубже знать «мир изучаемого языка» (С.Г. Тер-Минасова).

«Мир изучаемого языка» состоит из «совокупности внеязыковых фактов», т.е. тех социокультурных структур и единиц, которые лежат в основе языковых структур и единиц и отражаются в последних. Можно сказать, что языковая картина мира есть отражение социокультурной картины мира. Не зная мир изучаемого языка, невозможно освоить язык как средство общения, он может быть освоен лишь как способ хранения и передачи информации, как «мертвый» язык, лишенный живительной почвы — культуры носителя. Этим, кстати, объясняются и неудачи с искусственными языками, так и не получившими широкого распространения и обреченными на умирание.

Именно поэтому изучение иностранного языка предполагает не только усвоение плана выражения некоторого языкового явления, но и плана его содержания, т.е. выработки в сознании обучающихся понятия о новых предметах и явлениях, не имеющих аналогов ни в их родной культуре, ни в их родном языке. Для этого в преподавание языка необходимо включать элементы страноведения (это создает синтетический вид преподавательской работы, названный Е.М. Верещагиным и В.Г. Костомаровым «лингвострановедческим преподаванием»).

Комплексный подход, сочетающий собственно лингвистическую подготовку и знания социокультурного контекста изучаемого языка, позволяет обеспечить адекватный перевод с неродного языка на родной.

Перевод текстов — это конкретный процесс межкультурного взаимодействия, процесс объяснения одного культурного кода другим. Нередко при переводе теряются тонкости и смысловые оттенки, особенности и нюансы иностранного языка, текст упрощается, а порой искажается, обретая двусмысленность. Не

случайно в языке закрепились формулы: «непереводимая игра слов». Творческий переводчик, глубоко понимающий обе культуры, имеющий личный опыт контактов, владеющий в совершенстве обоими языками (билингвист), способен своим переводом обогатить язык, органично подобрав смысловые эквиваленты.

Таким образом, любой перевод - это интерпретация, расшифровка смысла, стоящего за очевидным смыслом, осознанная или неосознанная попытка преодолеть дистанцию между культурами коммуникантов. Чем больше различий в культурах партнеров по коммуникации, тем больше различий в толковании слов, поведения и символов. В современной науке заметна тенденция к отказу от поиска единственно правильного смысла текста. Текст все чаще рассматривают как задающий веер возможностей своей интерпретации, обладающий множественностью смыслов. При таком подходе бессмысленным оказывается тезис о «правильном» истолковании текста.

Механизмы овладения иностранным языком изучаются психологами, этнологами, лингвистами. Принципы усвоения второго языка, наблюдаемые в бикультурной и билингвистичной среде, несколько иные, чем в однородной культурной и мооязычной среде. Здесь наблюдается явление интерференции (перенесения, привнесения) элементов культуры *A* в культуру *B* и наоборот.

Ребенок, социализированный в бикультурной (мультикультурной) среде, имеет установку на наличие в культурном пространстве альтернативной символической системы, которая не воспринимается чуждой, угрожающей разрушением собственной культурной системы, наоборот, способствующей овладению другой культурой. Таким образом формируется установка на культурную толерантность. «С повышением материального благосостояния общества и его культурного уровня такие состояния культурного и языкового дву- и многоязычия имеют тенденцию к количественному росту и качественной стабильности» (*Арутюнов С.А. Народы и культуры: развитие и взаимодействие*).

Культуры, которые длительное время находились под инокультурным влиянием, а также маргинальные культуры обнаруживают феномен билингвизма и совмещают в себе альтернативу сигнальных систем. Языки могут претерпевать синтетическое смешение или сосуществовать сегрегационно (в быту употребляется один язык, в социальном общении — другой).

Процесс овладения иностранным языком основывается на тех же навыках, которые получены при овладении родным языком. Не удивительно, что человек, овладевший одним иностранным языком, с большей легкостью овладевает вторым, третьим, т.е. становится полиглотом. Однако описанный процесс интерференции нельзя оценивать однозначно. Если на лингвистическом уровне интерференция зачастую помогает межкультурной коммуникации, то на психологическом она зачастую мешает адекватному пониманию.

Изучение коммуникативного поведения представителей иноязычного социума, их лингвосоциологических и культурологических особенностей способствует приобщению «неносителей» языка к концептуальной системе, картине мировидения, ценностным ориентирам его носителей, сокращению межкультурной дистанции, воспитанию готовности адаптироваться к культуре другого народа, иному социокультурному контексту взаимодействия и



воздействия с целью выработки оптимальной стратегии сотрудничества и общения на иностранном языке.

Безусловно, в межкультурной коммуникации есть области значений, общих для всего человечества, и значений, одинаковых для носителей разных языков. Так, в деловом общении понимание облегчается за счет знакомого всем участникам общения и одинакового для всех них предметного содержания деятельности. Тем не менее, содержательные и смысловые барьеры, возникающие в межкультурной коммуникации, — скорее правило, чем исключение, поскольку каждый участник коммуникации привносит в нее собственную систему смыслов, присущих ему как индивидуальности и как представителю соответствующей культуры. Именно последние выходят на первый план в межкультурной коммуникации.

### ЛИТЕРАТУРЫ

1. Арутюнов С.А. Народы и культуры: развитие и взаимодействие.
2. Астафурова Т.Н. Варьирование речевой деятельности в межкультурном деловом общении // Тезисы докл. науч. конф. "Языковая личность: Жанровая речевая деятельность", Волгоград, 6-8 дек. 1998 г. - Волгоград. 1998. - С. 6-7.
3. Бабаева Е.В. Лексические значения слова как способ выражения культурно-языкового концепта // Языковая личность: Культурные концепты. - Волгоград; Архангельск. 2002. - С. 25-33.
4. Водак Р. Язык. Дискурс. Политика. - Волгоград: Перемена, 2007. - 139 с.
5. Дридзе Т.М. Социальная коммуникация как текстовая деятельность в семиосоциопсихологии // Общественные и науки и современность. - М., 1999. -С. 138-150.
6. Каган М.С. Философия культуры. - СПб: Петрополис, 1996. - 416 с.
7. Карасик В.И. Культурные доминанты в языке // Языковая личность: Культурные концепты. - Волгоград-Архангельск, 2002. - С. 3-16.
8. Леонтьев, А. А. (ред.) (1988) *Методика*. Москва: Русский язык.
9. Миролюбов, А. А. (ред.) (2010) *Методика обучения иностранным языкам: традиции и современность*. Обнинск: Титул.
10. Митрофанова, О. Д. (2006) Традиционное и новое в методике преподавания русского языка как иностранного В: А. Н. Щукин (ред.-сост.) *Язык и культура в филологическом вузе. Актуальные проблемы изучения и преподавания: Сборник научных трудов*. Москва: ГИРЯ им. А. С. Пушкина; Филоматис.
11. Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи // Избранные труды по языкознанию и культурологии. М., 1993. С. 211.

### О‘ZBEK TILIDA “NAVRO‘Z” TURTKI SO‘ZI ASSOTSIATIV MAYDONI

*Nargiza Shixnazarovna AXMEDOVA,*

*Oriental universiteti Sharq tillari kafedراس dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

**Аннотация.** Ushbu maqolada assotsiativ sohaning o‘zbek tilidagi tavsifi, unga oid ilmiy qarashlar, maydonning markaziy va periferik birliklari o‘rtasidagi munosabat, maydonning leksik, semantik va sintaktik xususiyatlari, assotsiativ birliklar o‘rganilgan.

Tajriba asosida assotsiativ birliklar orqali sintaktik birikmalarning shakllanishi tahlil qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** assotsiativ birliklar, assotsiativ maydon, antonimik munosabat, assotsiativ munosabat, stimuly soʻz.

**Annotation.** This article analyzes the description of the associative field in the Uzbek language, scientific views on it, units of the field; the ratio between the central and peripheral units of the field; lexical, semantic and syntactic features of the field. On the basis of associative experience, the formation of syntactic compounds through associative units is analyzed.

**Keywords:** associative units, associative field, antonymic relation, associative relation, stimulus word.

**Аннотация.** В данной статье анализируются описание ассоциативного поля в узбекском языке, научные взгляды на него, единицы поля; соотношение между центральной и периферийной единицами поля; лексические, семантические и синтаксические особенности поля. На основе ассоциативного опыта анализируется образование синтаксических соединений через ассоциативные единицы.

**Ключевые слова:** ассоциативные единицы, ассоциативное поле, антонимическое отношение, ассоциативное отношение, слово-стимул.

Olamning lisoniy manzarasi tahlilida insonning tashqi olam haqidagi tasavvuri va uning tilda aks etishi masalasini oʻrganish muhim ahamiyatga ega. Olamning tilda aks etishida assotsiativ tafakkurning oʻrni, til birliklarining assotsiativ aloqasi, shu aloqaga koʻra maʼlum guruhlariga birikuvi, gapni yoki matnni hosil qilishdagi oʻrni assotsiativ yondashuvning ahamiyati yuqori ekanligini koʻrsatadi.

Tilni oʻrganishga assotsiativ yondashuv, assotsiativ tahlil metodlari til materiallarini uning egasidan alohida oʻrganishga yoʻl qoʻymaydi. Assotsiativ tahlil asosida muayyan til egalarining voqelikni idrok etishi, kognitiv bilimi, lisoniy qobiliyati, lisoniy xotirasi imkoniyatlari, leksik birliklari zahirasi oʻrganiladi. Assotsiativ tahlil muayyan turtki soʻz asosida aniqlangan assotsiativ tajriba maʼlumotlariga tayanadi.

Assotsiativ tajriba natijasida turtki soʻzning assotsiativ maydoni shakllantirilib, u til birliklarining assotsiativ aloqasini aks ettiradi. Assotsiativ maydon “struktur jihatdan leksikografik xususiyatga ega boʻlgan, mohiyatan inson ongida aks etgan muayyan voqelik, uning hamrohlari obrazining verbal ifodasi, u haqdagi tasavvuri, bilimlarini namoyish etuvchi tilning oʻzaro assotsiativ bogʻlangan semantik va grammatik munosabatdagi birliklari yigʻindisidir”. [1, 58]

Assotsiativ maydon oʻzgaruvchan xususiyatga ega boʻlib, shaxsning ruhiyati, dunyoqarashi, qiziqishlari, olam haqidagi bilimlari bilan bogʻliq holda hayotiy tajribasi oshgan sari turtki soʻzga berilgan reaksiyalari turli xil boʻlishi mumkin.

Rus tilshunosi Y.N.Karaulov assotsiativ maydonga insonning nafaqat verbal xotirasi, bilimlari, balki tildagi semantik va grammatik munosabatlar, shuningdek, ongdagi obrazlar, motivlar va u yoki bu madaniyat vakillari bahosining yigʻindisidir, deb taʼrif beradi. [2,6]

Assotsiativ maydon yakka shaxs yoki koʻp sonli til egalari ustida assotsiativ tajriba oʻtkazish va olingan natijalarni umumlashtirish asosida ham hosil qilinadi. Yakka

shaxsda o'tkazilgan assotsiativ tajriba materiallari asosida individual assotsiativ maydon yuzaga keladi. Ammo ko'p sonli sinaluvchilarda assotsiativ tajriba o'tkazish orqali shakllantiriladigan assotsiativ maydon jamoaviy xarakterga ega bo'ladi[3,46]. O'zbek tilshunosligida assotsiativ maydon va u haqdagi qarashlar bilan D.Lutfullayeva, N.Hoshimova, B.Tojiboyev, H.Ortiqova kabi tilshunoslar ishlari orqali tanishish mumkin.

Assotsiativ maydon birliklari til egalarining turtki so'z bilan bog'liq tasavvurlari, bilimi, hayotiy qarashlari, tajribasi, qiziqishlarini ifoda etadi. U turtki so'zning mohiyatini ochib beruvchi butunlik vazifasini bajarib, til birliklarida davr o'tishi bilan yuzaga kelgan ma'noviy o'zgarishlarni ochib bera oladi.

Ma'lumki, assotsiativ maydonda stimol so'z vazifasini bajargan har bir birlikning semantik strukturasi, derivatsion, uslubiy xususiyatlari ochib beriladi. Assotsiativ maydon xususiyatlarini aniqlashda tavsiflash, tasniflash, assotsiativ tajriba usuli kabilardan foydalaniladi.

Biz ushbu maqolada assotsiativ maydon va uning birliklari tahlilini Navro'z stimol so'zi asosida aniqlangan maydon misolida ko'rib chiqamiz.

Navro'z xalqimizning qadimiy milliy bayrami bo'lib, ushbu kun kecha bilan kunduzning tenglashgan paytidir. O'zbek tilida Navro'z turtki so'ziga ishora qiluvchi leksik, paremiologik, sintaktik vositalar mavjud bo'lib, ular o'zbek muloqot jarayonida faol qo'llanadi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da Navro'z so'ziga quyidagicha izoh berilgan: “Navro'z forscha - yangi kun, shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni, mart oyining 21-kuniga to'g'ri keladi [4,8].

“O'zbek tilining etimologik lug'ati”da navro'z leksemasi tojik tilida “yangi” ma'nosini anglatadigan “nav” sifati bilan “kun” ma'nosini anglatadigan “ro'z” otidan tuzilganini, “yangi yil boshlanadigan 21-mart kuni” ma'nosini anglatuvchi so'z ekanligi aytib o'tiladi [5,147].

N.Mirzayevning “O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati”da Navro'z shamsiy yil hisobida yangi yilning boshlanish kuni ekanligi, u martning 21-22 kunlariga to'g'ri kelishi kabilar keltirib o'tiladi[6,57].

Vatan tushunchasi til egalari lisoniy zaxirasida yuqoridagi ma'nolarni ifodalagan holda assotsiativ tarzda gavdalanadigan, millat bilan bog'liq tarzda qadimdan mavjud bo'lgan, xalq tomonidan e'zozlanadigan, qadriyat darajasida ulug'lanadigan, turmush darajasiga singib ketgan birlikdir.

*Navro'z leksemasi assotsiativ maydoniga quyidagilar kiradi: o'zbek xalq milliy bayramlaridan biri, 21-mart kunida nishonlanadi, sayil, 21-mart, o'yinlar, bayram, bahor, bahor bayrami, yangilanish bayrami, momolar, bolalar, sumalak, kurash, ko'pkari, uloq, ko'katlar, ko'k somsa, tog' lola sayli, bayram, xursandchilik, sumalak, halim, qizlar, atlas, tabiatning uyg'onishi, adras, kiyimlar, jamalak, do'ppi, sayillar, ko'katlar, tengkunlik, lolalar, tog'lar, uyg'onish, shodiyona, o'yin-kulgu, atlas ko'ylak, karnay-surnay, gullagan daraxtlar, yoqimli havo, dorboz, masxarabozlar, kursdoshlarim, universitetdagi turli tadbirlar, Mehrjon, birinchi prezidentimiz Islom Karimov, milliy liboslarimiz, milliy taomlarimiz, har yili bahorda kun va tunning teng kunligi munosabati bilan 21-martda nishonlanadi, bahor fasli, quyoshli kunlar, mahalla, lapar, kuy-qo'shiq, san'atkorlar, oliyjanoblik, mehr-saxovat, tayyorgarlik,*

*liboslar, issiq, o'yin, arqon tortish, raqs, raqqosalar, raqqos, dorboz, har kuning Navro'z o'lsin, soch o'rish va boshqalar.*

*Navro'z leksemasi assotsiativ maydonining yuqori chastotali birliklari quyidagilardan iborat bo'lib, ular maydonning yadro qismidan o'rin oladi: o'zbek xalq milliy bayramlaridan biri, 21-mart kunida nishonlanadi, sayil, 21-mart, o'yinlar, bayram, bahor, bahor bayrami, yangilanish bayrami, momolar, bolalar, sumalak, kurash, ko'pkari, uloq, ko'katlar, ko'k somsa, tog' lola sayli, bayram, xursandchilik, sumalak, halim, qizlar, atlas, adras, kiyimlar, jamalak, do'ppilar, uloq, momolar, sayillar, ko'katlar, lolalar, tog'lar, uyg'nish, bayram, shodiyona, o'yin-kulgu, atlas ko'ylak, sumalak, ko'k somsalar, karnay-surnay, gullagan daraxtlar, yoqimli havo, dorboz, masxarabozlar, kursdoshlarim, universitetdagi turli tadbirlar va boshqalar.*

Quyidagi javob reaksiyalari assotsiativ maydonning chekka qismidan o'rin oladi: *birinchi prezidentimiz Islom Karimov, milliy liboslarimiz, milliy taomlarimiz, har yili bahorda kun va tunning teng kunligi munosabati bilan 21-martda nishonlanadi, bahor fasli, quyoshli kunlar, mahalla, lapar, kuy-qo'shiq, san'atkorlar, tayyorgarlik, liboslar, issiq, o'yin, arqon tortish, raqs, raqqosalar, raqqos va boshqalar.*

Assotsiativ maydondan so'z, so'z birikmasi va gap shaklidagi javob reaksiyalari o'rin olgan.

Assotsiativ maydonda *Navro'z* leksemasi quyidagi birliklar bilan paradigmatic munosabatga kirishadi:

1) sinonimik munosabat: *yangi kun, 21-mart, yangilanish bayrami;*

2) partonimik munosabat: maydondan *Navro'z* so'zi bilan qism-butun munosabatga kirishadigan *sumalak, kurash, ko'pkari, uloq, ko'katlar, ko'k somsa* kabi birliklar ham o'rin olgan;

3) giponimik munosabat: *Navro'z* so'zi maydondagi bayram so'zi bilan tur-jins munosabatga kirishadi.

Assotsiativ maydon birliklarining grammatik-struktur belgilari:

*Navro'z* leksemasi assotsiativ maydonida *turtki so'z + assotsiativ birlik* munosabatida quyidagi aloqa-bog'lanish turlari kuzatiladi:

Tobe aloqa usullari: a) boshqaruv usuli *Navro'z* turtki so'zi bilan assotsiativ bog'langan javob reaksiyalarining o'zaro sintagmatik munosabatida kuzatiladi, ya'ni: *arqon tortish, bayramga tayyorgarlik;*

b) moslashuv usuli: *bahor bayrami, tabiatning uyg'onishi;*

c) bitishuv usulida: *yangilanish bayrami, ko'k somsa, lola sayli, atlas ko'ylak, gullagan daraxtlar, yoqimli havo, quyoshli kunlar.*

Assotsiativ maydonda struktur jihatdan quyidagi tuzilishli birliklar o'rin olgan:

sodda so'z shaklidagi assotsiatsiyalar: *sumalak, halim, qizlar, atlas, adras, kiyimlar, jamalak, do'ppilar, momolar, sayillar, kurash, ko'katlar, lolalar, tog'lar, uyg'onish, shodiyona, sumalak, ko'pkari, uloq* kabilar;

qo'shma so'z shaklidagi assotsiatsiyalar: *tengkunlik, oliyjanoblik* kabilar;

juft so'z shaklidagi assotsiatsiyalar: *karnay-surnay, kuy-qo'shiq, o'yin-kulgu, mehr-saxovat* kabilar;

birikma shaklidagi assotsiatsiyalar: *yangilanish bayrami, atlas ko'ylak, gullagan daraxtlar, quyoshli kunlar* kabilar;

gap shaklidagi assotsiatsiyalar: *21-mart kunida nishonlanadi, har yili bahorda kun va tunning teng kunligi munosabati bilan 21-martda nishonlanadi, har kunning Navro'z o'lsin* kabilar.

Assotsiativ maydondan o'ziga xos konnotativ birliklar o'rin olgan bo'lib, ularning ayrimlari *navro'z* leksemasi bilan bevosita bog'liq barqaror birliklar – maqollar hisoblanadi: *Navro'zdan so'ng qish bo'lmas, Mizondan so'ng yoz bo'lmas; har kunning Navro'z o'lsin.*

*Navro'z* leksemasining assotsiativ maydonidan o'rin olgan *kurash, ko'pkari, uloq, arqon tortish, soch o'rish* kabi birliklar milliy-madaniy xususiyatga egaligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Leksemaning assotsiativ ma'nosi leksik ma'no kabi so'z orqali reallashadi, biroq leksik ma'no leksemada o'z ifodasini topsa, assotsiativ ma'no til egalari lisoniy ongida muayyan leksik birlik bilan bog'liq tarzda shakllanadi. Assotsiativ ma'no leksemaning nafaqat semantik jihati, grammatik shakli, intonatsion xususiyati, so'z yasaliş strukturasi, uslubiy, dialektal belgisi kabi lingvistik omillar, balki ekstralingvistik omillar asosida ham hosil bo'ladi[7,26].

Demak, Navro'z turtki so'zi assotsiativ maydoni bir nechta sath birliklari yordamida voqelanadi. Leksik birliklar mavzu jihatdan turli xil ekanligi bilan boshqalaridan farqlanadi. Maydondan o'rin olgan sintaktik birliklar, maqollar o'zbek xalqi muloqot jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot, og'zaki so'zlashuv uslubida milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan bunday birliklar faol ishlatilishi bilan xarakterlanadi.

Navro'z turtki so'zi asosida aniqlangan assotsiativ maydonda maydonga mansub birliklar sinonimik, uyadoshlik, tur-jins asosida paradigmatic munosabatga kirishadi. Assotsiativ maydonni grammatik-struktur belgilari va pragmatik xususiyatlari asosida o'zaro bir tizimga uyushadigan birliklar tashkil etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.
2. Караулов Ю.Н. Русский ассоциативный словарь. Кн.1, ч. 1. – М., с.б.
3. Тожибоев Б. Ўзбек тили миллий-маданий бирликларининг ассоциатив тадқиқи: филол.фан.бўйича (PhD) фалс.докт.дисс. автореферати. – Тошкент, 2020. – 56 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент, 2009.
6. Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1991. – 119 б.
7. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – № 5. – Б. 3-16.
8. Хошимова Н.А. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол. фан. бўй. фалс. фан. докт. дисс. автореф. – Фарғона, 2018.
9. Ортиқова Ҳ. Бадиий матннинг ассоциатив тадқиқи: филол.фан.бўйича (PhD) фалс.докт.дисс. – Тошкент, 2022.



## К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ДЕТЕРМИНАТИВОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ В НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУППАХ

*Шахноза Абдурашидовна САНГИНОВА,  
доцент кафедры филологии и методики её преподавания ГОУ  
«Худжандского государственного университета имени академика Б.  
Гафурова»*

**Аннотация.** Ушбу мақолада муаллиф инглиз тилидаги отларнинг сўзловчи ва тингловчи учун аниқлик ва ноаниқлик, миқдор ва бошқа муносабатларни ифодаловчи детерминативлар тарзида қўлланишини очиқ беради.

Бир от сўз туркуми олдидан икки ёки ундан ортиқ детерминантни келтириб боғлаб бўлмайди. Бу қонун ўйитувчига ўқитишнинг дастлабки онларидан бошлаб бундай бирикувлар иложсизлигини кўрсатиш учун асос беради. “S” билан тугаган отлар олдидан сифатловчи ёки бошқа аниқловчи талаб қилинади. Бу қонуният отли бирикмаларни тўғри тузиш, уларни тушуниш ва таржима қилишга имкон беради.

**Таянч сўзлар:** детерминатив, детерминатив бўлмаган, аниқловчилар, умумлаштирувчи маъно, отли сўз бирикмаси.

**Аннотация.** В данной статье, автор раскрывает использование детерминативов, которые сопровождают английские существительные выражая определенность /неопределенность, отношение к говорящему/пишущему, количественные и некоторые другие отношения. К одному и тому же существительному невозможно отнести два (или более) детерминатива. Этот закон позволяет преподавателю на самых ранних этапах обучения показать невозможность сочетаний. Для определения существительного с окончанием ‘s важна атрибуция стоящего перед ним прилагательного или другого определения. Эти правила позволят грамотно строить именные словосочетания и обеспечат их правильное понимание и перевод.

**Ключевые слова:** детерминатив, недетерминатив, определители, обобщающее значение, именное словосочетание.

**Annotation.** This article reveals the use of determiners that accompany English nouns expressing certainty/uncertainty, relation to the speaker/writer, quantitative and some other relations. It is impossible to assign two (or more) determiners to the same noun. This law allows the teacher to show the impossibility of combinations at the earliest stages of teaching. Attribution of the adjective or other adjective that precedes it is important for identifying a noun ending in "s". These rules will allow to correctly construct noun phrases and ensure their correct understanding and translation.

**Key words:** determiner, non-determinative, determinants, generalized meaning, noun phrase.

Общеизвестно, что детерминативы (детерминанты, определители) – это полу служебные слова местоименного характера, которые сопровождают английские существительные, выражая *определенность/неопределенность*, отношение к *говорящему/пишущему*, количественные и некоторые другие отношения. Ийш В.А. утверждал, что английское существительное не имеет завершенности и самостоятельности и всегда должно сопровождаться

детерминативом [3,131 – 132]. Соответственно, если во множественном числе любых английских существительных или в единственном числе вещественных, абстрактных, собирательных существительных, встречаются без детерминативные употребления, то их принято считать нулевым артиклем. Следовательно, к детерминативам относятся:

артикли *a/an, the*, и нулевой;

указательные местоимения *this, that, these, those*;

притяжательные местоимения *my, your, his, her, their*,

а также *one's, whose*;

неопределенные местоимения *some, any, no*;

адъективные вопросительные, союзные, относительные и восклицательные местоимения *what, whatever, which, whichever, what kind of*; притяжательный падеж существительного в его конкретном употреблении. Каждый

детерминатив вносит в именованное словосочетание свое значение, при этом наиболее нейтральным (т.е. наименее отягощенным индивидуальной лексической спецификой) является неопределенный артикль. *Детерминативы* служат маркерами существительного как части речи с его общекатегориальным значением предметности. При обучении употреблению детерминативов полезно знать два правила:

1. К одному и тому же существительному невозможно отнести два (или более) детерминатива. Этот закон позволяет преподавателю на самых ранних этапах обучения показать невозможность сочетаний *\*this a boy, \*some the boys, \*no any boys, \*no my books, \*John's this brother, \*Moscow's those theatres* и т.п. В связи с первым правилом, детерминативов можно в дальнейшем привести без артиклевые сочетания с постпозитивным количественным числительным в значении порядкового: *Microbus Number 5, School 39, Classroom 18, Lesson 15*.

2. *Детерминатив* ставится в самом начале именованного словосочетания. Этот закон позволяет блокировать такие сочетания, как *\*the seventh Beethoven's symphony, \*an interesting Jack London's story* и т.п. Он показывает также различие в значении между сходными сочетаниями типа *this old man's young sister* и *this young man's old sister*: поскольку притяжательный падеж в индивидуализирующем значении является детерминативом, он предшествует основному существительному и его определения должны находиться только перед ним, а определения к основному существительному - после него. Это дает ключ к правильному переводу, например: *He... took a second glass of the excellent vicar's very inferior sherry (H. Wells)* - "... очень плохого хереса, принадлежавшего прекрасному викарию"; *The real Goya's noble owner's ancestor had come into possession of it during some Spanish war... (J. Galsworthy)* - "Предок знатного владельца подлинника Гойи..."

Однако, изложенные правила имеют следующие исключения:

1. В архаических и экспрессивных текстах встречаются иногда сочетания указательного и притяжательного местоимений (т.е. два детерминатива относятся к одному и тому же существительному): ... *it will be unadvisable for me to take her on this my first journey (Hardy ТН.)*.

2. Ряд слов, относящихся к именованному словосочетанию, может выноситься перед детерминативом. Это исключение можно дать вместе со 2-м законом, но,

конечно, позже и обязательно в связи с конкретными словами и группами детерминативов:

3. а) *Both, all* оказываются перед артиклем *the*, притяжательными и указательными местоимениями, а также притяжательным падежом существительных: ... *if she could have had all Scott's novels and all Byron's poems!* (Eliot G.).

б) После *rather, quite, such, half, many* восклицательного *what* может состоять неопределенный артикль: ... *we have many a mountain - path to tread, and many a varied shore to sail along* (Byron G.).

в) *Half, double, twice, triple, thrice, n-times* встречаются перед определенным артиклем, притяжательными и указательными местоимениями: *We were soon in the streets of the city, desirous of purchasing half their contents* (Meredith G.).

г) В несколько архаизованных и эмфатических построениях прилагательное с наречием - интенсификатором *too, so* или *as* выносится в позицию перед неопределенным артиклем: *I had to get a copy of Gray's Anatomy, the medical student's bible, as unquestionable an authority on anatomy as Hansar on a parliamentary debate* (Gordon R.).

4. Оба закона детерминативов не действуют в том случае, если притяжательный падеж существительного приобретает обобщающее значение вместо обычного индивидуализирующего. Поясним это положение несколько подробнее.

Именное сочетание *my mother's care* может иметь два значения: «забота моей матери» и «моя, материнская забота» (в первом случае существительное с окончанием *'s* является детерминативом, а во втором оно перестает быть детерминативом и превращается в обыкновенное определение, сопоставимое с относительным прилагательным). Это различие особенно четко выявляется на контрастных примерах: ...*it is simply a very young girl's record of her own thoughts and impressions* (Wilde O.) - "...записи очень молодой девушки ..." индивидуализирующее значение; ...*my only fault was indulging in a foolish girl's passion for you* ... (Hardy ТН.) - "...глупая девичья страсть..." - обобщающее значение. Различие выявляется также, когда детерминативный притяжательный падеж предшествует недетерминативному в одном и том же сочетании: ...*she luxuriated in young Crossjaji's boy's voice*... (Meredith G.), или на примере каламбура: *For the next four days he lived a simple and blameless life on thin captain's biscuits* (I mean that the biscuits were thin, not the captain) ... (Jerome J.).

Как видно из приведенных примеров, для определения, является ли существительное с окончанием *'s* детерминативом/недетерминативом, важна атрибуция стоящего перед ним прилагательного или другого определения: если это определение относится не к существительному с окончанием *'s*, а к последующему существительному, что очевидно из контекста и ситуации, то существительное с окончанием *'s* не является детерминативом. Если определениями являются указательные местоимения, то различить недетерминатив помогает рассогласование в числе: *But those saint's eyes alongside - they offered all he knew and more than he could guess* (London G.). Такому различению помогает и четкая атрибуция артикля, особенно неопределенного: *he*

*found a brass p a n t s ' button* (Steinbeck J.). И еще один способ различения детерминатива/недетерминатива - разные ритмика и ударение: недетерминатив имеет более сильное ударение, чем детерминатив, и некоторую паузу перед последующим существительным. Chaikovskaya L.V. уточняет, что детерминатив имеет такое же ударение, как и основное существительное, а недетерминатив принимает ударение исключительно на себя [4, 278]. Это ритмико - тоническое различие иногда (т.е., к сожалению, не во всех случаях) отражается пунктуацией - запятая перед существительным с окончанием 's определения достаточно четко выявляет недетерминатив: ...*I stopped, turned and looked at that worn, s c h o l m a s t e r ' s face* (Macdonald J.).

На основании приведенных выше рассуждений мы определили следующие типы существительных - недетерминативов, с которыми целесообразно познакомить студентов:

1) Существительные *woman's, men's, children's, ladies' , gentlemen's, boys', girls'* (часто, но необязательно во множественном числе), употребляемые при обозначении предметов одежды, различных заведений сферы обслуживания, общественного пользования и других учреждений, в которых существенно разграничение по полу и возрасту: *At ST. Swithin's there was ... a sign of the approaching season - a brisk increase of attendance of the c h i l d r e n ' s department* (Gordon R.).

2) Существительные, обозначающие меру, обычно отрезок времени: *after a six w e e k s ' period of drought he would be stricken down with rheumatic fever ...* (Jerome J.).

3) Существительные *mother's, father's, window's, nurse's, worker's, miner's, employer's, servant's, soldier's, officer's, sailor's, artist's, master's, lover's, people's, bird's, bull's, cat's, dog's, dove's, bear's, lion's, pig's* (преимущественно в единственном числе), употребляемые для передачи внешности человека, его одежды и украшений, поведения и т.п. , а также для определения повадок животных: *the door was pulled open by a strong - looking girl with a black stripe on the cape of her white n u r s e ' s uniform* (Chandler R.).

Вышеизложенные правила, позволят грамотно строить именные словосочетания и обеспечат их правильное понимание и перевод.

#### ЛИТЕРАТУРЫ

1. Алексеева, М.Е. О проблеме детерминативов в контексте современных синтаксических теорий /М.Е. Алексеева//Вестник Санкт-Петербургского университета. Серия 13. Вып.1.- С.107-113
2. Блох, М.Я. Теоритическая грамматика английского языка / М.Я.Блох.-М.: Высшая школа. 1983.- С.62-74.
3. Ильиш, Б.А. Современный английский язык. Теоретический курс/ Б.А.Ильиш. - М. 1948 - С. 131 - 132).
4. Чайковская, Л.В. Ударение в группе «определение плюс определяемое» // СБ науч. тр /Ташкентский пединститут иностр. яз. - 1958. - Вып. 1.
5. Lyons, C. Definiteness. Cambridge. Cambridge Univ. Press, 1999. P.380.

## TURIZM TERMINLARINING BADIY ASARLARDA QO‘LLANILISHI

*Elyor G‘iyozovich BOYMANOV,*

*NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy asarlarda qo‘llangan turizm terminlarining leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, badiiy asarlardan parchalar keltirilib, ularda qo‘llangan turizmga doir terminlar izohlangan.

**Kalit so‘zlar:** turizm, termin, sayyoh, musofir, haj, elchi, ziyorat.

**Аннотация:** В данной статье анализируются лексико-семантические особенности туристических терминов, используемых в художественных произведениях. Также приводятся отрывки из художественных произведений и поясняются используемые в них туристические термины.

**Ключевые слова:** туризм, термин, турист, путешественник, паломник, посол, паломничество.

**Abstract:** This article analyzes the lexical-semantic features of tourism terms used in artistic works. Also, excerpts from works of art are given, and tourism terms used in them are explained.

**Keywords:** tourism, term, tourist, traveler, pilgrim, ambassador, pilgrimage.

Leksikografiyaga doir tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, keyingi davrlarda o‘zbek tili lug‘atida o‘z va o‘zlashgan qatlamga mansub so‘z/terminlar soni ortib bormoqda. Turizm sohasida faol iste‘molda bo‘lgan so‘z/terminlar ham o‘zbek tili leksikasini boyitishga xizmat qilmoqda. Ilgari iste‘molda bo‘lgan so‘z/terminlarning imlosi, izohi, leksik xususiyatlariga doir tadqiqotlar bazasi yaratilyapti. Oqibatda tilimizning naqadar qadimiy tillardan ekanligi, unda turli so‘z va birikmalar, iboralar, terminlarning ko‘pligi xususida ma‘lumotlarni o‘zlashtiramiz. Bu jarayonni badiiy asarlardan olingan misollar vositasida dalillash mumkin. Ilmiy tadqiqot olib borayotgan A.O‘rinboyev, O.Bo‘riyevlar G‘iyosiddin Naqqoshning “Xitoy safarnomasi” asarini 1991-yilda o‘zbek tilida nashr ettirdi. Ushbu asarda O‘rta Osiyo va Xurosonning Xitoy bilan XIV–XV asrlardagi iqtisodiy va siyosiy aloqalari O‘rta Osiyoda Temuriylar hukmronligi va Xitoyda Min sulolasi (1368–1644) davriga to‘g‘ri keladi. Asardagi quyidagi ma‘lumot turizm terminologiyasi uchun alohida ahamiyatga ega: *“Elchilar va amirlar har birining oldiga ikkitadan xontaxta qo‘ydilar: biriga pishirilgan go‘sh, g‘oz, tovuq va xitoy quruq mevalari, ikkinchisiga esa kulcha, yaxshi nonlar va qog‘oz ham ipakdan ishlangan, sifatiga til ojizlik qiladigan, bag‘oyat ko‘rkam bir guldasta qo‘yilgan; qolgan kishilardan har birining oldiga esa bittadan xontaxta...”* [1;14].

Ko‘rinadiki, zamonaviy turizm sohasida bo‘lgani kabi qadimda ham xalqlar o‘rtasida mehmondo‘stlik an‘analari mavjudligini yuqoridagi ma‘lumotlar tasdiqlaydi. Ya‘ni, ushbu matnda qo‘llangan “elchi” so‘z/termini orqali turizm ishini tashkil etishga doir tushuncha, “pishirmoq”, “go‘sh”, “g‘oz”, “tovuq”, “quruq meva”, “non”, “kulcha” kabi so‘z/terminlar vositasida gastronomik turizmga doir tushunchalar ifodalangan.



Turizmga doir ma'lumotlarni Herman Vamberining "Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi" asarida ham keltirilganligini kuzatishimiz mumkin: "*Bizning roviyimiz (Klavixo) –Temur saroyi ulug'vorligini avji kamolga yetgan davrida ziyorat qilib, Samarqand atrofidagi Konigul cho'lida, chodirgohda to'y paytlarida ko'rgan ajoyibotning hammasini tasvirlashdan o'zidir. Turklar har doim yengil chodirlarda umr kechirganlar, binobarin, ularning boyliklari, nomdorliklari, bezaklari bu ko'chma yurtlarda ko'zga yaqqolroq ko'rinadi*".[2;50] Ushbu parchada ziyorat, chodir, chodirgoh so'z/terminlari sayyohlikning ildizlari O'rta Osiyo hududida, xususan, O'zbekistonning qadim tarixida muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo hududida ko'plab jahonga mashur allomalar yetishib chiqqan. Ularning yaratgan asarlarida barcha fan sohasining muammo va yechimlari keng yoritilgan. Jumladan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida safar bilan bog'liq so'z/terminlar uchraydi va bu so'z/termin matn tarkibida turli ma'no nozikliklarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *musofir – safarga chiqqan, sayohatchi, yo'lchi*; [3;422] biror yerda vaqtincha turuvchi ma'nolarida qo'llanadi:

Qushi anduhudard alholi tortib,  
Musofir elga so'ng afg'oni tortib.

. ... va dedikim, barcha olamning musofiri bo'ldim.

*Musofirlig'* –safarda yurganlik:

Tushtilar bir nav' birla jam' basir,  
Yo musofirlig' bila yoxud asir.

*Sayyor* – sayr qiluvchi, kezuvchi:

Hajrim tunida charxkim qoldi harakatdin,  
Ey ashk, qil ul kavkabi sayyorga ma'ruz.

*Sayyoh* – kezuvchi, sayyohatchi, doim kezuvchi:

Yana ul vaqtqachakim, xurshid  
Ko'k biyobonida bo'lg'ay sayyoh.

*Haj* – islomda besh farzdan biri. "Makkaga borib hajarul-asvodni tavof tavof qilish: [3;759]

Eski o'zbek adabiy tiliga taalluqli manbalardan Muqimiyning "Sayohatnoma" asarida keltirilishicha, sayohatlar yo'nalishi "Qo'qondan Shohimardonga", "Qo'qondan Farg'onaga", "Qo'qondan Isfaraga" hamda "Isfara sayohati" shaklida ko'rsatib o'tilgan. Ushbu "Sayohatnoma"da alohida olingan manzil, biror joy haqidagi ma'lumot, ta'rif umumiy tarzda berilgan. Shoir o'z kuzatishlarini she'riy tarzda, sodda ravon tilda qisqa jumlar bilan ifodalaydi. "Qo'qondan Shohimardon" gacha bo'lgan masofa oralig'ida o'nta joy nomi keltirilgan".[5;58] Shulardan biri "O'ltarma" qishlog'i:

"O'ltarma"ga *qildim yurish,*  
*Yo'ldosh* edi bir chitfurush,  
Yetdim jadallab vaqti tush,  
Bir dam qiziq *bozor* ekan". [6;175]

Muqimiyning murabba shaklida yozilgan “Sayohatnoma” asaridagi yuqoridagi kabi to‘rtliklarda sayohatga doir so‘z/terminlarni ko‘plab uchratish mumkin. Misralarda *yurish qilmoq, yo‘ldosh, bozor* kabi so‘z/terminlar buning yaqqol isbotidir.

*Yurish qilmoq* qo‘shma so‘z/termini kontekstual ma’no ifodalashga xizmat qilgan. Matnlarda ushbu qo‘shma so‘z/termin boshqa ma’no nozikliklariga ham ega. To‘rtlikda ushbu qo‘shma so‘z/termin “*O‘ltarma*”ga borish uchun yo‘lga tushmoq” ma’nosini anglatgan.

*Yo‘ldosh.* Yo‘lda, safarda birga bo‘lgan kishi; hamroh. Yomonga bosh bo‘lguncha, yaxshiga yo‘ldosh bo‘l. Maqol.[7; 2, 278]

*Bozor* [f-t.– bozor; savdo rastasi] – savdo joyining hamma uchun ishlatiladigan nomi, ko‘p sotuvchi va haridorlar mavjud bo‘lgan, ko‘pincha usti ochiq holda. [7; 1, 299] Ko‘rinadiki, “Sayohatnoma”larda qo‘llangan turizmga doir so‘z/terminlar kitobxon ko‘z o‘ngida o‘sha davr hayotini gavdalantiradi, insonlar turmush-tarzi bilan yaqindan tanishtiradi.

Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti vakillaridan biri shoir, adabiyotshunos, muarrix, elshunos Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ijodida ham sayohat xotiralari yoritilgan asarlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Furqatning “Bo‘mbaydan xat” asarida shunday jumalalar keltiriladi:

*Har kuni bu shaharni sayr aylamak bo‘ldi ishim,*

*Rohbar aylab gar ko‘runsa odami bekorlar.*[8; 285]

Ushbu baytda *sayr aylamak* qo‘shma turizm so‘z/termini zamonaviy turizm terminologiyasida faol qo‘llanuvchi *sayr qilmoq* qo‘shma turizm terminining eski shakli sanaladi.

XX asr boshlarida yashab xalqqa ilm-u ma’rifat ulashgan jadidlardan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Qasdi safar” asarida: “Dengiz oynadek shaffof va sokin, havo latif, yalg‘uz ostimizda suvu ustimizda Buxorodur”, – deb taassurotlarini bo‘lishar ekan, – “Yerdagilarni Sizga musaxxar qildim, “Ollohning amri ila marokibi bahriya dengizga joriy bo‘lur” mazmunidagi oyatlar mulohaza qilinur”, [9;59] – deya “Qur’oni Karim”da safar borasida tayin etilgan oyatlarni eslatadi.

Behbudiyning safar xotiralari ta’sirida yozilgan “Qasdi safar” asaridan turizm so‘z/terminlari qo‘llanilgan quyidagi jumalarni keltirish mumkin: “... Bir oz o‘lturdi. Istirohat etduk. Oqshom bo‘ldi. Ertag‘a Xalil ar-Rahmon ziyorati va Baytullahm sayohati uchun uchalamizg‘a dalil bir faytun kiro va bir nafar kishi qo‘shmoqchi bo‘lub, ar(o)ba uchun bay’ona oldi. Va’d az a’sho haramdan chiqib “Olter” o‘telidagi hujramg‘a yotdim”.Zamonaviy turizmga doir terminologiyasida faol qo‘llanuvchi “istirohat”, “safar”, “sayohat” kabi so‘z/terminlar asarda juda ko‘p o‘rinlarda uchraydi.

*Istirohat* [a. – dam olish, rohat qilish; tanaffus) – dam olish, hordiq chiqarish; hordiq. U [Sidiqjon] ..istirohat chog‘larida ro‘para kelgan to‘pga qo‘shilib, xursandchilik qilard. edi. A.Qahhor, “Qo‘shchinor chiroqlari”. [7;2, 238]

*Safar* [a. – sayohat, sayr; biror joyga borish; marta, gal] – xizmat yo‘li bilan yoki sayohat qilish, uchrashish maqsadida biror yerga borish; yo‘l. [7; 3, 460]

Sayohat [a – safar, sayr qilish; turizm] – 1) dam olish, hordiq chiqarish, dunyoni ko‘rish maqsadida qilingan safar. Kinofestival qatnashuvchilari va mehmonlari ko‘hna Samarqandga ham sayohat qilishmoqda. [7; 3, 420]

Ubaydullo Solih o‘g‘li Zavqiyning “Yangiqo‘rg‘on qishlog‘i”, “Suv janjali”, “Shohimardon sayohati” deb nomlangan she‘rlari hamda “Demang” radifli g‘azali safar taassurotlari asosida yuzaga kelgan. She‘rlarda safarga doir so‘z/terminlar badiiylikni oshirish bilan bir qatorda ohangdorlikni ham hosil qilishga xizmat qilgan:

Bu ravzaga kimki kelib,  
Bir kechasi mehmon ekan.  
Umrida bir ko‘rgan kishi  
O‘lganda bearmon ekan. [10; 65]

She‘riy bandda uchraydigan “mehmon” so‘z/termini “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ifodalangan ma‘noga aynan mos keladi, ya‘ni: Mehmon [f-t.– mehmon, tashrif buyuruvchi]. To‘y, ziyofat va sh.k. munosabati bilan yo‘qlab kelgan (borgan) shaxs. Mehmon bo‘lmoq. Mehmon qilmoq. Mehmon(ga) aytmoq. Qutidor mehmonlarni ixlos va samimiyat bilan kutar, ziyofat quyuq-suyuqlari bilan to‘la-to‘kis davom etar edi. A.Qodiriy, “O‘tkan kunlar”. [7; 2, 586] Shuningdek, mehmon so‘z/termini bearmon leksimasi bilan ohangdorlikni, ya‘ni qofiyadoshlikni hosil qilish uchun xizmat qilgan.

Istiqlol yillarida yurtimizda turizm sohasi yanada yuqori darajada rivojlandi. Sohaga doir badiiy adabiyotlar bilan tanishishda hamda ish jarayonini tashkil etishda soha so‘z/terminlari izohiga ehtiyoj seziladi. Bu borada turizm terminlarining izohli lug‘atini yaratish kelgusidagi vazifalardan biri bo‘lib qoaldi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўринбоев А, Бўриев О. Гиёсиддин Наққошнинг Хитой сафарномаси. – Тошкент: Фан, 1991
2. Ҳерман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароннаҳр тарихи. Тошкент: 1990.
3. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Шамсиев П., Иброҳимов С. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Б ҳарфи. www. zyouz. com kutubxonasi. – Тошкент, 2008.
5. Неъматова Х. Сафарнома жанри: тарихи, тараққиёти ва поэтикаси. Ф.ф.ф.д. диссертация. –Жиззах, 2022.
6. Adabiyot. 5-sinflar uchun darslik. Ahmedov S., Qosimov B, Qo‘chqorov R., Rizayev Sh.–Toshkent, 2020.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2006 – 2008. 5 жилдлик. 2 жилд.
8. Фуркат. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи Холид Расул. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. –Тошкент, 1975.

9. Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. // “Қасди сафар”. –Тошкент, Маънавият, 1999.

10. <https://ziyouz.uz/uzbek-sheriyati/uzbek-mumtoz-sheriyati/zavqiy/>

**XATIRCHI TOPONIMI ETIMOLOGIYASI**  
**Uyg'unjon Sanaqulovich TURDIMURODOV,**  
**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**  
**O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada Xatirchi toponimining etimologiyasi haqida ma'lumot berilgan. Unda toponimning tarixi, nomlanish sabablari, etimologiyasi tahlil qilingan.

**Kalit so'z:** toponim, etimologiya, etimon, etimologik tahlil, Xatirchi, xatarli joy, xatarli suv, katta daryo, katta ariq.

Til taraqqiyoti tarixida o'zgarishga uchragan so'zlarning ma'nosi davrlar o'tishi bilan barcha uchun tushunarli holda saqlanib qolavermaydi. Bunday o'zgarishlar, ayniqsa, toponimlar tarkibida ko'proq uchraydi. Chunki toponimlar tilda eng ko'p va uzoq vaqt saqlanib qoladigan birliklardan biridir.

Har bir geografik joy borki, o'zining joylashish o'ri, nomi va uning kelib chiqish tarixiga ega. Xalq joyni nomlaydi. Joy shu nom bilan atalaveradi va vaqt o'tishi bilan nega shunday nomlanganligi unutiladi. Keyin bu hududning nomlanishi haqida turli xil rivoyatlar, taxmin va farazlar kelib chiqadi. Kelajak avlod esa o'zi yashab turgan hududning nima uchun bunday nomlanganligini bilishni xohlaydi.

Toponimlarning kelib chiqishini bilish, ularni izohli va etimologik tahlil tamoyillari asosida to'g'ri va aniq talqin qilishimiz lozim. “Vaqt o'tishi bilan mazmunini tushunish qiyinlashgan yoki semantikasini aniqlash mumkin bo'lmagan joy nomlarini etimologik jihatdan tahlil etishda til, tarix, geografiya, geologiya, etnografiya kabi ko'pgina fanlarning dalillari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda toponimlarni etimologik jihatdan ilmiy-nazariy tadqiq etishning tamoyillari belgilab olinadi”[9. 12].

Maqolada Xatirchi toponimining etimologik tahlili haqida ma'lumot berib o'tamiz. Xatirchi Navoiy viloyati tumanlaridan birining nomidir.

Xatirchi tuman Iskandar Zulqarnayn zamonida Parakent (grekcha-turkcha yon, chet qishloq, ya'ni daryo yonidagi), arablar istilosi davrida Farahkent, Sohirqiron Amir Temur hukmronligi davridan XVII asrgacha Faroxin qishlog'i, qal'asi deb yuritilgan [8. 7]. Hozirgi vaqtda tuman markazidagi mahallalardan birining nomi shu nomdan kelib chiqib Paraxun deb nomlanadi.

Tuman hududi qadimgi davrlardan boshlab Muyonqol muzofoti, Kushoniya bekligi, Xatirchi viloyati, Xatirchi bekligi, Xatirchi volosti, Xatirchi tumani, Xatirchi kenti, Xatirchi rayoni va Xatirchi tumani deb nomlanib kelingan.

“Xatirchi tumani tarixidan lavhalar” kitobi muallifi Rahmon Xolmurodovning ma'lumot berishicha, “tuman markazida yashab o'tgan, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida faol ishtirok etgan shaxslardan biri, Mirzaazim Abduqodirovning shaxsiy arxividan chiqqan bir hujjatda Xatirchining nomlanishini 1677-yildan boshlanadi deyilgan”[8. 7].

Xatirchi dastlab tuman sifatida 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. Shundan so'ng, turli davrlarda 1920-1921-yillarda Buxoro xalq sovet respublikasi tarkibida

viloyat, 1922-1924-yillarda Karmana viloyatida uyezd, 1925-1926-yillarda Karmana uyezdining volosti, 1927-1930-yillarda Zarafshon okrugidagi tuman, 1938-yildan Samarqand viloyati, 1982-yildan Navoiy viloyati, 1989-yildan Samarqand viloyati tarkibiga kirib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining 1992-yil 27-yanvardagi 35-XII raqamli “O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Navoiy viloyatini qaytadan tashkil etish to‘g‘risida”gi [3. 7-8] Qaroriga asosan Xatirchi tumani Navoiy viloyati tarkibida qayta tashkil etilgan.

Xatirchi tumani shimoldan Nurota, janubi-sharqdan Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on, shimoli-sharqdan Qo‘shrabot, janubidan Narpay va Paxtachi tumanlari, g‘arbdan Navoiy viloyatining Navbahor tumani bilan chegaradoshdir. Tumanning maydoni 1,37 ming km<sup>2</sup>ni tashkil etadi. Hozirgi kunda tumanda 205 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi, tumanda 70 ga yaqin mahallalar mavjud. Yangirabot shaharchasi uning ma‘muriy markazi sifatida belgilangan [5. 4].

Tumanda o‘zbek, tojik, rus, ukrain, tatar, ozarbayjon, arab, turk, yahudiy, qozoq va boshqa millat vakillari o‘zaro ahillikda yashashadi. Aholi zichligi 1 kv.km.ga 114 kishini tashkil etadi [4. 27].

Xatirchi toponimining bunday nomlanishi haqida bir qancha fikrlarni keltiramiz.

1. “Xatirchi tarixidan lavhalar” asarining muallifi R.Xolmurodov quyidagicha izohlaydi: Mahalliy keksa yoshli kishilar og‘zaki hikoyalar va ba’zi bir tarixiy voqealarga asoslanib shuni aytish mumkinki, bu nom Xatirchi < Xatarchi < Xatarli so‘zining davrlar o‘tishi bilan talaffuz tarzining o‘zgarishi tufayli hozirgi holatga yetib kelgan ko‘rinishidir. Ushbu joyning Xatarli bo‘lishiga quyidagi omillar sabab bo‘lgan deyishadi. Birinchidan, bu joy o‘rni, aniqrog‘i tuman markazining Mustaqillik va Samarqand ko‘chasining janubiy tomonlari o‘rnida 100-130 yillar avval botqoqlik, qamishzor, to‘qayzor hamda chakalakzorlar bo‘lib, unda yovvoyi hayvonlardan to‘ng‘iz, bo‘rsiq, bo‘ri, tulki, to‘qay mushugi, qoplon va, hatto, Turkiston yo‘lbarsi ham uchrashi mumkin edi. Ular mahalliy aholi va shu hududdan o‘tuvchilarga xavf tug‘dirgan. Ikkinchidan, ba’zi yillari bahor erta va issiq kelib, qor va muzlarning tez va ko‘plab erishi oqibatida Oqdaryo va Qoradaryoda suv toshqinlari bo‘lib, ikki daryo qo‘shilish joyi o‘zanini o‘zgartirib bu hududda suv toshqinlari bo‘lib turgan. Bunga misol sifatida mahalliy xalq vakillaridan biri Mirzaazim Abduqodirovning xotiralarida shunday satrlar bor: “1912-yilda men 17 yoshli paytimda 100 yoshga kirgan Ergash hoji bobo hikoya qilgandilar. 1870-yilda Zarafshon daryosida suv toshqini 22 kun davom etgan. Xatirchi markazidagi Charimgarlik guzarigacha (hozirgi Samarqand ko‘chasi) suv kelgan, mahalliy hokimlar shahar darvozalarini berkitishgan. Xatirchi-Narpay yo‘lidagi Oqdaryo bilan Qoradaryodagi ikkita ko‘prikni ham suv olib ketgan, ammo shaharga suv kirmagan ekan. Bundan tashqari 1909, 1913, 1916, 1936 va 1969-yillarda ham suv toshqinlari bo‘lgan va shahar yaqiniga kelib yo‘l va ko‘priklarni buzib ketgan”. Uchinchidan, Buyuk ipak yo‘lining bir tarmog‘i tumanimizdan o‘tgan. Amirlar, xonlar, yirik savdogarlar o‘z sarbonlari hamda karvonboshilariga Xatirchiga kirmay chetlab o‘tishni aytishgan. Sababi bu yerdagi tabiiy sharoit qaroqchilarga yaxshigina makon bo‘lgan. Ular karvonlarni talab, to‘qayzorlarga yashirinishgan deyiladi [8. 10-11].

2. Sh.Ravshanov o‘lkashunos tadqiqotchilar J.Mustafoyev, Sh.Toshturovlarning izlanishlari tayanib, “Xatirchi aslida gidronim, ya’ni suv bilan bog‘liq joy nomi ekanligini ta’kidlab, so‘zning etimologiyasini arabcha “xatar” o‘zbekcha xatarli, xavfli, forscha “jo‘y” esa katta suv, daryo so‘zlarining birlashmasidan hosil bo‘lib,



“xatarli joy” emas, balki “xatarli suv, daryo” degan ma’noni anglatib, bunga uning tabiiy, geografik joylashuvi sabab” deya izohlaydi [6. 113-115].

3. Xatirchilik taniqli adabiyotshunos Jaloliddin Yusupov “Xatirchi aslida gidronim, ya’ni suv bilan bog‘liq joy nomi bo‘lib, arablar yurtimizni fath qilgan davrga (VIII asr) aloqadorligini, uning etimologiyasini arabcha “xatir – ulkan, katta” degan ma’noni anglarishini, “jo‘(y)” esa “daryo” ma’nosini bildirishini ta’kidlagan. J.Yusupov hududning bunday nomlanishiga Zarafshon daryosining ikki irmog‘i Oqdaryo va Qoradaryo Xatirchi tumanida qayta birlashib, katta daryo hosil qilishi, arablar uni “Xatir jo‘” deb ataganligini aytib o‘tadi [1].

Biz ham J.Yusupov fikrlarini toponimning nomlashining asosiy sababi deb, uni quyidagi izohlaymiz: Xatirchi toponimi ikki qismdan iborat bo‘lib, Xatir+jo‘(y) komponentlariga bo‘linadi. Toponim tarkibidagi Xatir so‘zi arabcha bo‘lib, “katta”, “ulkan” degan ma’nolarni bildiradi [7. 471]. Jo‘(y) komponenti toponimik aniqlagich bo‘lib, fors-tojikchada “soy, daryo, kanal, ariq, irmoq” ma’nolarida qo‘llaniladi [7. 796]. Demak, toponim gidronim nomidan olingan bo‘lib, “katta daryo, katta irmoq” ma’nosini beradi. Arablar Oqdaryo va Qoradaryo qayta birlashgan hududni Xatirjo‘y deb nomlagan va bu nom shu hududning ham bunday atalishiga sabab bo‘lgan. Chunki yuqorida aytib o‘tilgan tadqiqotchilarning fikrlaridagi “xatarli”, “xatarli joy”, “xatarli suv” kabi izohlarga qaraganda toponimning “katta daryo”, “katta irmoq”, “katta suv” degan ma’noni bildirishi haqiqatga yaqinroqdir. Yana shuni ta’kidlashimiz lozimki, Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida Xatirchi nomli kanal bor. Ushbu gidronimning bunday atalganligi yuqoridagi fikrimizni ishonchliligini ta’minlaydi. Shuningdek, Abdirazzoq xo‘ja ibn Abdivahob xo‘ja Badr ota tomonidan tijorat ishlari, savdo-sotiq va bozor munosabatlari qonun-qoidalariga bag‘ishlab hijriy 1277-78 (milodiy 1861-62) yillarda yozilgan “Kitobi bay‘ya” asarida o‘zlari tug‘ilgan yerni “Joyi mavludash qishlog‘i Qoracha az sho‘bayi Xatirchigi bexatar” ya’ni “Xatirchiyi bexatar sho‘basiga qarashli Qoracha qishlog‘ida tug‘ilganman” degan so‘zlaridan bu hududni xatarli emas, balki xatardan xoli, bexatar, tinch hudud bo‘lganligini bilishimiz mumkin.

Demak, ushbu toponimning etimoni **xatir+jo‘(y)>Xatirjo‘>Xatirchi** bo‘lib, keyinchalik mahalliy aholi “**jo‘**” komponentini “**chi**” tarzida tafaffuz qilishi natijasida “**Xatirchi**” shakliga kelib qolgan.

### ADABIYOTLAR

1. Jaloliddin Yusufiy “Xatirchi”ning asl ma’nosi. “Xatirchi hayoti” ijtimoiy-siyosiy gazetasi. 14-son, 2010-yil 10-aprel (Maqola “Jannatmakon” jurnalidan olingan).

2. Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси таракқиёт босқичида. Монография. – Тошкент: Фан, 2006. – 131 б.

3. Навоий вилоят давлат архиви. 100 - фонд, 1 - рўйхат, 1 - иш, 7-8 варақ.

4. Нарзуллаев У. Ўзбекистон Республикаси Навоий вилоятининг замонавий тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация. – Тошкент: 2018. –Б. 27.

5. Низамов С. Тарихи тоғларидек улуғвор маскан... Хатирчи тарихидан лавҳалар // Республика илмий анжумани материаллари. - Тошкент, «Zilol buloq» нашриёти, 2022. 4- б.

6. Равшанов Ш. Хатирчи топоними этимологияси. Хатирчи тарихидан лавҳалар. Республика илмий анжумани материаллари. - Тошкент, «Zilol buloq» нашриёти, 2022, 113-115-б.

7. Фарҳанги забони тожики. II қисм. – Москва. 1969, – с. 796.
8. Холмуродов Р. Хатирчи тумани тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 1996. 7-8-б.
9. Эназаров Т. Топонимларни этимологик тадқиқ қилишнинг илмий-назарий ва амалий-услубий асослари (туркий топонимлар мисолида.) 1-китоб. – Тошкент: Университет, 2001. 12-б.

## MUALLIF NUTQI METAFORALARINING STRUKTUR-SEMANTIK TABIATI XUSUSIDA (U.Azim she'riyati misolida)

*Sarvinoz Oripovna MARDONOVA,  
Buxoro davlat universiteti,  
o'zbek tilshunosligi va jurnalistika  
kafedrası oqituvchisi.*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada metafora hodisasi, mazkur hodisa tadqiqi, metaforaning til va nutqqa munosabati, Usmon Azim she'riyatidagi metaforalar, xususan, muallif nutqi metaforalari, ularning ifodasi shoir ijodidan olingan she'riy parchalar orqali ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** leksema, leksik ma'no, sema, metafora, an'anaviy metafora, muallif nutqi metaforalari, o'xshatish, metonimiya, sinekdoxa, individual metafora, okkazonal ma'no.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается исследование метафоры, раскрывается отношение метафоры к языку и речи, разбираются метафоры в поэзии Усмана Азима, в частности, метафоры авторской речи, выражение которых показано через поэтические отрывки из творчества поэта.

**Ключевые слова:** лексема, лексическое значение, сема, метафора, традиционная метафора, метафоры авторской речи, сравнение, метонимия, синекдоха, индивидуальная метафора, окказиональное значение

**Annotation.** This article discusses the study of metaphor, reveals the relationship of metaphor to language and speech, analyzes metaphors in the poetry of Usman Azim, in particular, the metaphors of the author's speech, the expression of which is shown through poetic passages from the poet's work.

**Keywords:** lexeme, lexical meaning, seme, metaphor, traditional metaphor, author's speech metaphors, comparison, metonymy, synecdoche, individual metaphor, occasional meaning.

**Kirish.** So'zlarning ko'chma ma'no ifoda etishi turkiy so'zlarning o'zi kabi qadimiy hodisa sanaladi. Hatto qadimgi turkiy til lug'at qatlamida ham ko'plab so'zlarning qo'shimcha ma'nolar kasb etib ulgurganligi ma'lum. Buni Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'atit turk" asari ham tasdiqlaydi[2].

So'zning ko'chma ma'no kasb etishi til (lug'at qatlami)ning tadrijiy rivoji bilan bog'liq. Bu borada, ya'ni so'z (ma'no)ning serqirraligi[4], leksemaning mazmun plani, leksik ma'no va semantik qism[9,61-67], semema tarkibidagi semalar va ularning ifodasi[6,57-63], sememaning nutqqa xoslanishi, hosila semalarning vujudga kelishi borasida o'zbek tili leksikologiyasi hamda semasiologiyasida yetarlicha fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Soʻz semantik taraqqiyoti, uning mantiqiy-semantik asosda tadqiqi borasida yaqin yillarda qilingan ishlar umumlashmasi sifatida M.Mirtojiyevning “Oʻzbek tili semasiologiyasi” asarining nashr etilishi oʻzbek tili leksikologiyasi va semasiologiyasi yutuqlaridan biri boʻldi. Mazkur manbada leksik maʼno, leksik maʼnoning semantik tarkibi, leksik maʼno taraqqiyoti, hosila maʼno (metafora, metonimiya, sinekdoxa va b.), leksik maʼnoning kengayishi va torayishi, leksik maʼnoning paradigmatic va sintagmatik munosabatlari, shuningdek, uzual maʼno va okkazional leksik maʼnolar haqida eʼtiroflar mavjud[5,284].

Oʻzbek tilida metafora hodisasi va uning vujudga kelishi asoslari xususida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Oʻzbek tilida metaforalar, ularning tabiati, yondosh hodisalarga munosabati haqidagi monografik plandagi ishlarning mavjudligi mazkur hodisa, ular atrofidagi muammolar yechimiga qaratilganligi bilan xarakterlanadi[7;8].

Maʼlumki, metaforalar soʻzlar kabi oʻz lingvopoetik xususiyatiga koʻra doimiy (uzual) va individual metaforalarga boʻlinadi. Har ikkala hodisa ham konnotativ maʼno bilan bogʻliq. Badiiy matnda soʻzdagi konnotatsiya muhim, bu konnotativ maʼnoni harakatga keltirish ijodkor mahorati bilan bogʻliq[11,32].

**Kalit so‘zlar.** Tilshunoslik, kompyuter lingvistikasi, tarjima nazariyasi, inson tarjimasi, mashina tarjimasi, tilshunoslik bilan boshqa fanlarning aloqasi, elektron platformalar, matnshunoslik, raqamli xotira, o‘zbekcha matn korpusi.

**Аннотация.** В условиях глобализации возникают определенные трудности, связанные с разграничением машинного языка и человеческого языка, а существующие характеристики человеческого языка все больше требуют решения этой проблемы. Поэтому компьютерная лингвистика и переводческая лингвистика имеют первостепенное значение. Компьютерная лингвистика — это плодотворные междисциплинарные отношения между лингвистикой, информатикой и математикой. В данной статье будет раскрыта междисциплинарность и уровень изучени

**Ключевые слова.** Лингвистика, компьютерная лингвистика, теория перевода, человеческий перевод, машинный перевод, связь лингвистики с другими дисциплинами, электронные платформы, текстология, цифровая память, корпус узбекских текстов.

**Annotation.** In the context of globalization, there are certain difficulties related to the distinction between machine language and human language, and the existing characteristics of human language are increasingly demanding to solve this problem. Therefore, computational linguistics and translational linguistics are of utmost importance. Computational linguistics is a fruitful interdisciplinary relationship between linguistics, computer science, and mathematics. In this article, the interdisciplinarity and the level of study will be revealed.

**Key words.** Linguistics, computer linguistics, translation theory, human translation, machine translation, connection between linguistics and other disciplines, electronic platforms, textology, digital memory, Uzbek text corpus.

Hozirgi zamonaviy dunyoda muloqot va axborotning ahamiyati juda katta va ahamiyatli, shubhasiz jamiyat hayotining turli sohalari bugungi kunda axborot olamining bevosita ta'siri ostida ekanligi hammaga ma'lum. Shu bilan birga, kompyuter texnologiyalari yangi davr maqsadlariga erishishda muhim o'rin tutadi. Hayotimizning barcha jabhalariga kirib bordi. Globallashtirish sharoitida mashina tili va inson tili o'rtasidagi farq bilan bog'liq ma'lum qiyinchiliklar mavjud, bundan tashqari, inson tilining mavjud xarakterli xususiyatlari bu muammoni hal qilishni tobora ko'proq talab qilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'lim-tarbiya haqida shunday degan: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni, ta'lim sifatini oshirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"[1]. Shuning uchun hisoblash tilshunosligi va tarjima tilshunoslik eng muhim ahamiyatga ega. Hisoblash tilshunosligi tilshunoslik, kompyuter texnologiyalari va matematika fanlarida samarali fanlararo bog'liqlikdir. Chunki kompyuter tilshunosligida matematik amallar va buyruqsiz dasturlarni ishga tushirib bo'lmaydi. Bu amaliy tilshunoslikning tilni qayta ishlashning hisoblash jihatlari bilan shug'ullanadigan bo'limi hisoblanadi. Uni o'rganish sohasi nutq va matn bilan ifodalangan tilning ikki tomonlama mohiyatidir. Uning boshqa yo'nalishlari quyidagicha tasniflanadi: til muhandisligi, sun'iy intellekt, matnlarni bir tildan ikkinchi tilga mashina tarjimasini orqali tarjima qilish, axborot texnologiyalari, aloqa texnologiyasi, qidiruv tizimini loyihalash, katta hajmdagi matndan ma'lumot olish. Eng katta til ma'lumotlar bazasida yoki Internetda turli savollarga javob topish, matn va nutqni qayta ishlash, ovozli buyruqlarni mashinada qabul qilish va ularni batafsil bajarish, matnni nutqqa aylantirish va aksincha, matnlar mazmunini ko'rib chiqish, ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish. Tegishli fanlar qatori umuman inson tili, inson aqli

psixologiyasi va sun'iy kompyuter intellekti bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi. Shu munosabat bilan turli ta'lim tizimlarida bu fan ba'zan tilshunoslik, ba'zan esa kompyuter texnikasi va matematika fanining kichik guruhiga kiradi. Telefon, radio va boshqalar kabi turli xil elektron qurilmalar orqali ovozni yozib olish va uzatish mumkin bo'lgan bizning zamonamizda til aloqa muhandisligi deb ataladigan boshqa mutaxassislar guruhining tadqiqot obyektiga aylandi. Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan tabiiy til tadqiqotlari juda katta o'zgarishlarga duch keldi. Bugungi kunga kelib, imlo xatolari va grammatik tuzatishlarni tekshirish, hujjatlar va ma'lumotlar bazalaridan ma'lumotlarni olish, bir tabiiy tildan boshqa tilga tarjima qilish va boshqalar uchun dastur. butun dunyo bo'ylab millionlab nusxalarda sotilgan. Biroq, hali sun'iy intellektga ega bo'lmagan dasturlar hali ham amal qiladi. Barcha dasturlarni ham bir tilni ikkinchi tilga o'zgartira olmaydi.

Hisoblash tilshunosligining eng yaxshi kichik toifalaridan biri bu tilni to'g'ri tanib olish uchun dasturiy vositalarni ishlab chiqarish va tabiiy tilda avtomatik tarjima va keng qamrovli inson-mashina aloqasida mukammallikka erishish uchun kuchli vositani ishlab chiqishdir[2]. Shuning uchun ham kompyuter lingvistikasini idrok xaritasi vositasida o'qitish ancha samarali usul hisoblanadi. Hozirgacha kompyuter lingvistikasi yaratilganiga qariyb 50 yil bo'lgan lekin bu muammo to'liq hal etilmagan.

Ammo bundan oldin ham bir-birining bilimiga ega bo'lish uchun ko'pchilik xalqlarning tilini aniqlash usullaridan foydalanish zarurati mavjud edi, ya'ni biz universal til haqida gapiramiz. Masalan, o'rta asrlarda xalqaro darajadagi barcha muhim masalalar lotin tilida ifodalangan va shuning uchun universal til ko'pchilikning orzusi edi. Aloqa muammosiga yechim izlagan insoniyat uchun hozirda 600 dan ortiq dasturlar taqdim etilgan.[3] Tarixiy tilshunoslikda bu tilning tarqalishi butun ko'hna qit'ada yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, mo'g'ullar hukmronligi davrida va o'sha davrgacha bu til Hindiston davlatining rasmiy tili bo'lgan. Bu til boy lug'at va yoqimli iboralar tufayli zodagonlar va oddiy xalq orasida ko'plab muxlislarga ega bo'lib, bir qarashda Hindistonga hukmdorlar tili sifatida kirib kelgan bo'lsa-da, lekin asrlar osha o'zining notiqlik mahorati tufayli o'ziga xos bo'lgan. Millionlab odamlar tomonidan chin dildan qabul qilingan.[4] Bu Tojikiston, Afg'oniston va Markaziy Osiyoning ba'zi boshqa mintaqalarida keng tarqalgani hammaga ma'lum. O'zbek tilidagi matnlarda hisoblash tilshunosligining qo'llanilishini o'rganishning ahamiyati haqiqatan ham o'zbek tilida so'zlashuvchi jamiyatda kognitiv imkoniyatlarni kengaytirish, shuningdek, bilimlarni boshqa tillar orqali o'zbek tiliga o'tkazish zarurligini ko'rsatadi. Ayni paytda olimlarning turli sohalaridagi izlanishlari natijasida olingan bilimlar turli tillarda internet tarmoqlari orqali tarqatilmogda. Hozirgi davrda asosiy ilmiy ma'lumotlar odatda ingliz tilida va rus tilida ilmiy ma'lumotlar bazalarida qayd etiladi, va uni boshqa tillarda foydalanuvchilar uchun chiqarish ko'plab qiyinchiliklar bilan bog'liq. Ushbu tadqiqot kompyuter qurilmasi ma'lumotlarni boshqa tillardan o'zbek tiliga va aksincha o'tkazish, so'z va matnni tarjima qilish, audio va video ma'lumotlarini aylantirish, shuningdek,

o‘zbek tilining bu sohada qanchalik muvaffaqiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Boshqa tomondan, elektron platformalarning tobora kengayib borishi yangi avlod hayotining barcha sohalarida yangi muhit yaratdi, deb aytishimiz mumkin. Shu bilan birga, til ijtimoiy institut sifatida, yangi yondashuv ta'sirida va mobil telefonlar, veb-saytlar yoki shaxsiy kompyuterlar kabi raqamli ommaviy axborot vositalarida matnga yo‘naltirilgan asosiy vositaga aylandi.[5] Masalan, yangi platformalarda lingvistik kompyuter ilovalari sohasida ta'lim sohasi sifatida o‘zini namoyon qilgan yangi vositalar yordamida elektron ta'lim tizimini qayd etish mumkin. Garchi elektron platformalar orqali o‘zbek tilini o‘rganish o‘zbek yozuvi yoki zarur platformalar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlar tufayli unchalik maqbul bo‘lmasa-da, lekin aytish mumkinki, dunyodagi til o‘rgatish usullarining aksariyati magnit audiokassetalarning yaratilishidan tortib to paydo bo‘lgunga qadar raqamli xotira va ixcham disklar o‘rganilayotgan tilni o‘qitish samaradorligini oshirish uchun audio va ko‘rgazmali o‘qitish vositalaridan foydalanishga qaratilgan . Undan tashqari ma'lumotlarni saqlash hajmi va muddati kattaroq. O‘zbek tilini elektron o‘qitish tizimining sezilarli muvaffaqiyatsizligining asosiy sababi, raqamli platformalarda o‘zbek tilini o‘qitish tenglamalarini samarasiz qoldirgan va boshqa tillarga nisbatan sanoatning kengayishiga to‘sqinlik qilgan yozuv va grammatikaning o‘ziga xos xususiyatlaridir.

Ilmiy adabiyotlardan ko‘rinadiki 50-yillarning boshidan beri XX asrda tabiiy tillarni qayta ishlash uchun kompyuterlarni qo‘llash bo‘yicha jiddiy harakatlar amalga oshirildi. Bu sa'y-harakatlar ko‘proq mashina tarjimasiga qaratilgan bo‘lib, o‘sha davrdagi siyosiy vaziyat, ya'ni super kuchlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik davri tufayli ular Sovuq urush davrida qarama-qarshilik vositalarini ishlab chiqish uchun rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilishga e'tibor qaratdilar. Hisoblash tilshunosligi sohasida asosiy lingvistik jihat matematika va muhandislik tarmoqlarining o‘sishi va rivojlanishi, bir tildan ikkinchi tilga mashina tarjimasiga, axborot nazariyasi, radioaloqa va boshqalar bilan bog‘liq. Bu kabi sohalar hozirda rivojlanib, takomillashib bormoqda, shuningdek, juda porloq kelajakka ega. Shu asosda, bu savol kompyuterlashtirish va avtomatlashtirishning ko‘plab masalalarida o‘z muammolarini hal qilish ehtiyojlarini qoplaydigan kompyuter texnologiyalarining yangi tomoniga taalluqlidir.

1956 yilda ingliz, kanada, amerikalik va rus mutaxassisleri ishtirokida “mashinali tarjima tizimlari” bo‘yicha birinchi xalqaro uchrashuv bo‘lib o‘tdi.[6] O‘sha paytda Amerika Qo‘shma Shtatlari, Angliya va Sovet Ittifoqi mashina tarjimasiga bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan asosiy mamlakatlar edi, lekin u Italiya va Skandinaviyada ham olib borildi.

1. Oldindan tahrirlash
- 2 Post-tahrirlash
- 3 Jorj Taun



Bu yillarda tadqiqotchilar endi mashina tarjimasiga to'liq erishish mumkinligini isbotlashga urinmay, dunyoning turli mintaqalarida olib borilgan individual tadqiqotlarni tartibga solish va markazlashtirish bilan shug'ullandilar. 1958 yilda AQSHda o'n ikki guruh mashina tarjimasi bo'yicha tadqiqotlar ustida ishladi: Garvard universitetida ruscha-inglizcha mashina tarjimasi lug'ati yaratilmoqda; "Noam Chomskiy" (N.Chomski) "MIT" (MIT) da sintaktik tuzilmalar bo'yicha tadqiqot olib bordi. Jorjtaun universitetida rus tilining sintaksisi va semantikasi masalalari o'rganildi, Michigan universitetida esa rus grammatikasi qoidalarini olishga va polisemiya muammolarini hal qilishga harakat qildilar. [7]. Universitetda "Sietl" rus tilidan mashina tarjimasi tizimini ham ishlab chiqdi. Nemis tiliga Los-Anjeles va Kaliforniyada olimlar mashina tarjimasining kognitiv usuli masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordilar va mashina tarjimasiga ko'proq ahamiyat berildi. Ingliz tilidan rus tiliga tarjima Angliyada mashina tarjimasining kognitiv usuli bo'yicha batafsil tadqiqot olib borildi, bu mamlakat tadqiqotchilarining eng muhim vazifalaridan biri kompyuter mutaxassisleri va tilshunoslarning hamkorligi edi. Ular tilshunoslikni kompyuter fanining kichik faniga aylantirish uchun juda ko'p kuch sarfladilar va shuning uchun ular matematik usullardan foydalangan holda aldashdi. O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab Noam Xomskiyning asari nashr etilishi bilan ma'nodan qat'iy nazar tahlil qilish boshlandi, ammo "J. Katz" (J.Katz), "J. Fodor (J. Fodor) (1963) va Pi. Em. Pochta (1964) semantikani mashina tarjimasi sohasiga kiritdi. Keyingi bosqichda tilni qayta ishlash sohasidagi fan yutuqlaridan foydalanish ham o'rganildi.[8]

O'zbek tiliga kelsak, hisoblash tilshunosligidagi tadqiqotlar O'zbek tili grammatikasi va elektron asboblar o'rtasida mavjud bo'lgan muammolar bilan shug'ullangan va hisoblash tilshunosligining asosiy tamoyiliga kamroq e'tibor bergan. O'zbek tilining hisoblash tilshunosligi bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarning aksariyati aslida bu fanning tadqiqot natijalaridan foydalanuvchi bo'lib, uni O'zbek grammatikasiga moslashtirgan.[9]

Eronda bu sohani o'rganishda peshqadamlardan birini Eron gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti professori, doktor Mustafo Osiy deb atash mumkin. U O'zbek tilshunosligining turli sohalarida hisoblash tilshunosligini ilmiy loyihalar shaklida qo'llash bo'yicha eng samarali tadqiqot ishlariga rahbarlik qilgan yoki doktorlik va bakalavriat dissertatsiyalari O'zbek tilini kompyuterda to'rt fonetik darajada qayta ishlash, so'z tuzilishi, sintaksisi va semantikasiga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borgan. O'zbek tilini kompyuterda qayta ishlash bo'yicha fanlararo va amaliy bog'liqligini tadqiqotlarda ochib bergan. Bu bo'yicha ko'plab maqolalar ham chiqarilgan. Ular bir qatorda Tehron universitetining olimlari ham o'zbek -ingliz qiyosiy korpusi, ingliz-tersiy parallel korpusi, O'zbek -ingliz parallel korpus haqida ma'lumotlar berishgan. [10]. Tehron, telefon farsnet, O'zbek NET, O'zbekcha matn korpusi ham mavjud.

## ADABIYOTLAR

1. Mamlakatimizning 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. T.: O'zbekiston, 2017. 104-b.
2. Абдурахмонова Н. Машина таржимаси. -Тошкент,2008.
3. Абдурахмонова Н. Инглизча матнларни узбек тилига таржима килиш дастурининг лингвистик таъминоти. Фило. фан... (PhD) дисс. - Тошкент, 2018.
4. Abduhamidova L. Tilshunoslikning yangi yo'nalishi: kompyuter lingvistikasi. -Toshkent,2015.
5. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. -Toshkent: Fan, 1985
6. Begmatov E., Ne'matov H., Rasulov R. Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi // O'zbek tili va adabiyoti, 1989, 6-son.
7. Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (o'quv qo'llanma).- Toshkent, 2007, 2008, 2009.
8. Rizayev S. O'zbek tilshunosligida lingvostatistika muammolari. -Toshkent: Fan, 2006.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J II.E- M // Tahrir hay'ati: Mirzayev T. (rahbar) va boshqalar. O'zRFA til va adabiyoti instituti. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006
10. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent – 1981. O'zbekiston FA.

**“CHAROG‘I HIDOYAT” IZOHLI LUG‘ATIDA PAREMIALOGIK  
BIRLIKLARNING BERILISHI**

*Ilyos Ro‘ziqulovich JO‘RAYEV,*

*Tayanch doktoranti,*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

*Samarqand, O‘zbekiston*

**Annotatsiya.** Nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi omillardan biri tilda mavjud paremiologik birlik (frazeologizm, maqol, matal, hikmatli so'zlar)dan o'z o'rnida va unumli foydalanishdir. Nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi paremiologik birliklarni to'plash juda qadimiy tarixga ega. Mazkur maqolada Sirojuddin Alixon Orzuning "Charog'i hidoyat" leksikografik asarida berilgan paremiologik birliklarning berilishi tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** Leksikografiya, fors-tojik tili, etnografik leksika, frazeologiya, paremiologiya, etnografiya, lug'at.

**Abstract.** One of the factors that increase the effectiveness of the speech is the appropriate and effective use of paremiological units (phraseological units, proverbs, sayings, wise words) in the language. The collection of ready-made paremiological units for speech has a very ancient history.

This article analyzes the distribution of paremiological units given in the lexicographic work "Charoghi hidayat" by Sirojuddin Alikhan Orzu.

**Key words:** Lexicography, Persian-Tajik language, ethnographic lexicon, phraseology, paremiology, ethnography, dictionary.

**Аннотация.** Одним из факторов, повышающих эффективность речи, является правильное и эффективное использование в языке паремиологических единиц (фразеологизмов, пословиц, поговорок, мудрых слов). Сбор готовых паремиологических единиц речи имеет очень древнюю историю.

В данной статье анализируется распределение паремиологических единиц, приведенных в лексикографическом произведении Сироджуддина Алихана Орзу «Чароги хидаят».

**Ключевые слова:** Лексикография, персидско-таджикский язык, этнографическая лексика, фразеология, паремиология, этнография, словарь.

Nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi omillardan biri tilda mavjud paremiologik birlik (frazologizm, maqol, matal, hikmatli so'zlar)dan o'z o'rnida va unumli foydalanishdir. Nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi paremiologik birliklarni to'plash juda qadimiy tarixga ega. Mahmud Koshg'ariy XI asrdayoq turkiy xalqlarning hikmatli iboralardan 400 ga yaqinini «Devon»ga kiritib, ularning qanday holatda, qaysi mazmunda qo'llanishini arab tilida izohlagan. Shulardan 250 dan ortiqrog'i mazmun jihatidan ham, shakl jihatidan ham hozirgi o'zbek tilida bugungidek yangrab turibdi [3; 48].

Donishmand fors-tojik vakillari tilida ham qadim zamonlardan paremiologik birliklar xalq og'zaki ijodi sifatida mashhur bo'lib, xalq so'zlashuv tili va ijodida ko'plab qo'llangan. Jumladan, miloddan avvalgi IV asrdayoq Aleksandir Makedoniskiy O'rta Osiyoni zabt etgan davrlarda mahalliy xalq tojik – boxtarlar tilidan “Овози саги тарсончак аз газиданаш сахттар аст” (Qorqoq itning qopishidan hurishi qattiq), “Чукуртарин дарё ҳамон аст, ки ҳамона бесадо чорист” (Teran daryo tinch oqar) kabi maqol va masallar yozib olganligini rim tarixchisi Kvin Kursiy Ruf asarlaridan ma'lum.

Ma'lumki, frazeologiya fanining birinchi davrida frazeologizmlar lug'atshunoslik obyekti bo'lgan. Ularni lug'atlarda aks ettirish (kodifikatsiyalash), ularning ma'nosi va etimologiyasini izohlashga e'tibor qaratilgan [5; 12-13]. “Burhoni qote”, “G'iyos-ul-lug'ot” “Charog'i hidoyat” kabi tojik tili leksikografik manbalari muallifi ham paremiologik birliklarning sharhlanishida til imkoniyatlaridan o'rinli va mohirona foydalan. Lug'at mualliflari o'z davrining til vakillari so'zlashuv nutqi hamda zamondosh va salaf adiblar badiiy, ilmiy va tarixiy asarlari matnida mavjud paremiologik birliklarni o'z lug'atida sharhlagan. Jumladan, “Burhoni qote” lug'ati 20 ming so'zlik izohlangan bo'lib, 3562 (18%) tasi frazeologik birlardan iborat [7; 126]. Yoinki, “G'iyos-ul-lug'ot” da bu ko'rsatkich so'zlikning 6% ni tashkil etadi. Bizning izlanishimiz natijasida shu ma'lum bo'ldiki, ChHda murakkab birliklar 1237 ta (54%) bo'lib, undan 831 ta paremiologik birliklardan tashkil topgan. Bu lug'atdagi jami so'zlik (2279) ning 37 % ni tashkil etadi, shu bois mazkur lug'at shartli ravishda frazeologik lug'at ham deyiladi [9; 97]. Muallif mazkur so'zliklarni ayrim holatlardagina kinoya (киноя аз), iborot yoki masal (zarbulmasal) yoki mazkur so'zliklar sharhida “ma'nosida” (ба маънии), “...ga ishora” (ишора ба), “dan iborat” (иборат аз) va “ya'ni” (яъне) ishora berib, qay holatda qo'llanishini “mahalida, vaqtda” (дар маҳалли) va “...paytda, ...o'rinda” (dar maqome) shaklida ko'rsatib o'tadi. Bu iboralarning ko'pi hozirgi tojik tilida ham qo'llanadi [9; 10]<sup>1</sup>:

<sup>1</sup> Keyingi o'rinlarda [13] tarzida faqat sahifasini ko'rsatish bilan cheklanamiz.

**Ob burdani mojaro** – *kinoya* ishkal, nihoyatda ajablanarli va hayralanarli holat, Ta'sirdan bayt:

Ғайр аз бари ёр майи ноб мебарад,  
Ин мочаро бибин чи қадар об мебарад.  
(Begona yor uchun mayi nob eltadi,  
Qara, bu mojaro qanchalar hayratlanarli).

Va **xele ob burdan** ham mazkur ma'noda; donishmand Xon Oliydan bayt:

Чун ёфтанд мардumi дида<sup>1</sup> суроғи ту,  
Ин хеле об бурд, ки бурданд пай дар об.  
(Ko'z qarochiqlari sening daragingni topganda

Shu darajada ajib bo'ldiki, go'yo suvda izingni topdilar) [11].

**Ob dar shir kardan** va **ob dar shir doxil kardan** (sutga suv qo'shmoq) – firibgarlik mahalida qo'llaydilar (Soibdan ikki bayt keltirilgan).

... Ammo ikkinchisida firibgar ma'nosida mashhur “об дар шир” (sutga suv qo'shmoq) masaliga ishora mavjud...[12].

Muallif so'zliklar izohida nafaqat izohash usuli bilan sharhlagan, balki birikmalarning sinonim, antonimi va variantdosh iboralarini ham keltirib o'tadi, shuningdek, alohida so'zlik sifatida keltirilgan va izohlanayotgan frazeologik birlik bilan qaysi bir jihati bilan bog'liq bo'lgan iboralarga havola ham berib ketish holatlari mavjud. Iboralarni izoh maqolalar yordamida izohlash. Bunda so'zlikning qay holatda qo'llanilishi va leksik-semantik xususiyatlari ixcham tarzda bayon qilingan: **Joi fuloniy xoliy** va **joi faloniy paydo** (falonchanning o'rni bo'sh/bilindi) – har ikkalasini biror kishini eslaganda aytadilar, ammo ikkinchi tarkib afzalroqdir. (Abdurazzoq Fayozdan bayt keltirilgan) [70].

Shuni ham takidlash kerakki, iboraning ko'chma ma'noga asoslanishi, obrazlilik uning tasvir imkoniyatlarini kengaytiradi, lug'atda berilgan ayrim so'zlik so'z birikmasi sifatida izohlangan bo'lsa, davr o'tishi bilan mazkur birikmaning atash semasi yo'qolib ifoda semasi asosiy planga chiqqan va ibora bo'lib qolgan. Jumladan, **Jor zadan** (jar solmoq) – aslida musibat yetganda faryod qilmoqdir. (Ta'sirdan bayt keltirilgan). Va Nodirshoh qo'sinida jarchi (чорчй) mansabi bor edi va u shoh farmonlari bilan qo'shinni xabardor qilardi [70]. Mazkur birikma hozirda “jar solmoq” ma'nosidagi ibora bo'lib qolgan.

Izohlanayotgan iboraga sinonim bo'lgan so'z berilgan: **Aspi cho'bin** (yog'och ot) – *kinoya* tobut ... (Boiz Qazvinidan bayt keltirilgan) [14], **Alif bar xok kashidan** va **bar zamin kashidan** (Yer chizib qolmoq) – *kinoya* xijolat va sharmandalik (Soibdan bayt keltirilgan) [24]. Mazkur ibora bilan deyarli shakldosh bo'lgan “Alif bar sina kashidan” frazeologizmi ham mavjud bo'lib, musibat yetganlar va qalandarlarning holati asosida paydo bo'lgan va keyinchalik “ko'ksini chok etmoq, bag'rini tilmoq” ma'nosidagi ibora bo'lgan [25]. Shunga o'xshagan ayrim iboralar faqatgina misol keltirish bilan kifoyalangan: **Mag'zi xar xo'rdan** (Eshak miyasini yemoq) – ya'ni aqlsiz. So'zlashuvdan olindi [196], **Makre bar ob zadan** – aldamoq ba **ob rondan** (suvga haydamoq) [30]ning sinonimidir, *qarang*<sup>2</sup> (Soibdan bayt keltirilgan) [198].

<sup>1</sup> Mazkur birikma bu yerda iyhom san'atini paydo qilgan, shu bois ikki xil tusunish mumkin: ko'z qarochig'i va ko'rgan odamlar.

<sup>2</sup> Mazkur o'rinda (гузашт), ya'ni o'tdi so'zi berilgan bo'lib, hozirgi kundagi lug'atlardagi “qarang, qiyoslang” havolasiga tengdir. Ya'ni, bu ibora “bob-ut-toziyat” b bobida “ba ob rondan – aldamoq” tarzida izohlangan [9; 30].

Ta'kidlash kerakki, sinonim so'zlar yordamida izohlangan frazeologik birliklar juda kam, buning boisi frazeologik birlik har doim ifoda semasining ko'p ekanligi bilan so'zdan boyligidir. Shu bois iboralar, asosan, so'z birikmasi yordamida izohlangan: **Boloi chashmat abru guftan** (Ko'zing ustida qoshing bor demoq) – *kinoya* yuzxotir qilmoq (Tug'rodan bayt keltirilgan) [30], **Bog'i sabz namudan** – yolg'on va'dalar bermoq [33], **Kosa band kardan** (Laganbardorlik qilmoq) – xushomad qilmoq (Ashrafidan bayt keltirilgan) [167], **Kori obu otash** – og'ir yumush (Sayfiydan bayt keltirilgan) [167], **Joma az mus'haf po'shidan** – *kinoya* qasamxo'rlik. (Ta'sirdan bayt keltirilgan) [70], **Halloji kardan** (Hallojidan o'tkazmoq) – qo'pol so'zlar aytmoq, xoh *kinoya*, xoh haqorat bo'lsin [85], **Qalami sartarosida shudan** – oxir bo'lmoq, tugamoq ma'nosida [164], **Ob doshtani mato** – (чунончи гузашт аз ин олам аст) inchunin o'tdi, **qarang** [13]. Lug'atnavis mazkur o'rinda iboralarning ma'nodosh ekanligini ta'kidlab, keyingi iboraning izohlanishi zarur emasligini ko'rsatadi.

Agar izohlanayotgan iboralarning ma'nodoshligini havolasiz ham tushunish mumkin bo'lganda yoki variantdosh iboralar ko'p bo'lganda mazkur iboralarning variantiga “*guzash*” – o'tdi, ya'ni **qarang** shaklida ishora berilgan:

**Obi chashm giriftan** – *kinoya* qo'qitmoq (Shofe' Asardan bayt keltirilgan) [13]; **Otash az chashmi kase giriftan** – *kinoya* qo'qitmoq (Ta'sirdan bayt keltirilgan) Va **Obi chashmi kase giriftan** buning sinonimidir [31].

Muallif ayrim ibora va masallarni semantik izohlash bilan birga, kelib chiqish sabalari (etymon) etimologiyasi haqida ham ma'lumot beradi, jumladan:

**Ba sang nishastan** – qiynalmoq va azoblanmoq. (Ta'sirdan bayt keltirilgan). Va **bar sang nishondan** (toshga o'tqizmoq) orttirma nisbatdadir. Bu azoblashning bir ko'rinishi bo'lib, issiq tosh ustida o'tqazadilar [38]; **Ba sari sang nishondan ba sari sang nishastanning** orttirma nisbati, **qarang** [42].

Ayrim o'rinlarda bir necha variantdosh iboralar bitta so'zlik shaklida berilgan va ularning qo'llanish chegarasi haqida ham ma'lumot berib o'tadi:

**Dar bar ro'i kase bastan** va **dar bar sari chize bastan** va **darvoza bar rux kashidan** (yuziga eshik yopmoq) – inchunin dastlabkisi ma'nosida mashhur...[98], **To kushtan hamroh** va **to qatl hamroh** va **to xun hamroh budan** – *kinoya* nihoyatda dushmanlik va adovat. (Salim va Raziq Donishdan baytlar keltirilgan). Yahyo Koshiyda **to murdan hamroh** va boshqalar ijodida **to jon hamroh** ham mazkur ma'noda uchratildi [58]. Sirdan “o'lguncha birga yoki toki jon bor birga” shaklida tarjima qilinadigan bu ibora do'stlik sodiqlikni ifodalaganday ko'rinsa-da, aslida “qonga qon – jonga jon” kabi kuchli adovatni ifodalagan.

Shuningdek, iboralar izohlanganda ularning sinonim va antonimlarini ham berib ketish holatlari mavjud: **Bodi muxolif** – kema ahli xohishiga xilof bo'lgan shamol; **bodi muvofiqning** muqobili ... [30].

**Bar xok afgandani taklif** – kishining iltimosini bajarishga rozi bo'lmaslik; **kishi so'zini tuproqqa qorishtirmoq** kabi [38].

**Bar sari xesh budan** – o'zboshimcha va qaysarlik; buning sinonimi **peshi xud barpodir** [38]. Ta'kidlash lozimki, mazkur ibora ellipsislashish natijasida hozirgi tojik tilida “**peshi xud**” – o'zboshimcha shaklini olgan.

**Az ham guzashtan** – o'lmoq; **az ham guzaronidan** – oldirmoq (Ashrafidan bayt) [19]. **Pushti chashm tunuk kardan** – noz qilmoq; **tunuk kardan** – g'amza qilmoq va



g‘aflatda qoldirmoq [53], **Dast dasti o‘st** (qo‘l uning qo‘li) – **davr davri o‘st**[106] (davr uning davri) bunga qiyosdir [101].

ChH lug‘atida izohlangan paremiologik birliklar ham tarkib jihatidan turlicha bo‘lib ko‘pchiligi “ba”, “bo”, “bar”, “dar” va “az” kabi old qo‘shimcha ko‘makchillar yordamida hosil qilingan. Lug‘atda oddiy so‘z birikmasi shaklidan, hattoki qo‘shma gap shaklidagi paremiologik birliklar mavjud: “Ba” va “bar” old ko‘makchilari o‘zlarining odatiy vazifasini bajaragan va harakat yo‘nalishini va vaziyatni ko‘rsatishga xizmat qilgan: *Ob ba resmon bastan* (g‘alborda suv tashimoq) [16], *Ba ob rondan* (aldamoq) [30], *Ba ohu savor shudan* (qo‘lini oyog‘iga olib yugurmoq) [30], *Ba pufe dar band ast* (oson) [34], *Ba yak chashm didan* (bir ko‘zga ko‘rmoq) [47], *Ba toqi abrui kase may xo‘rdan va zadan* (xotirlamoq) [42], *Bar toqi baland* (mensimaslik) [39], *Bar chormex kashidan* (azoblamoq) [38].

Voqea joyini va so‘z ketayotgan hodisani ifodalash uchun oddiy va original “dar” prefiksi, gapning predmeti va belgisi bo‘lib xizmat qilgan.

*Dar araq aftodan* (sharmandalik, uyalmoq) [101]; *Dar yod doshtan* (Esda saqlamoq, eslamoq) [100], *Dar otashu ob budan* (g‘am-tashvish) [100], *Dar xud furo‘raftan* (o‘ylamoq) [100].

Lug‘atdagi birikmalarda “az” prefiksi ham boshqa so‘zlar bilan birlashib ko‘plab frazeologik birliklar yasalishida qatnashgan: *Az ham guzashtan* [19], *Az hush burden* (hushini o‘g‘irlamoq) [19], *Az fikr uftodan* (unitilmoq) [20], *Po az va‘z berun guzoshtan* (haddidan oshmoq) [51], *Sar az yak girebon barovardan* (Bir yoqadan bosh chiqarmoq) [127] kabi.

ChH lug‘atining frazeologik birliklari tahlili shundan dalolat beradiki, lug‘atda ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga oid frazeologik birliklar izohlangan.

Ular Hindustonlik fors tilida so‘zlashuvchilar uchun xos iboralarni jamlash bilan bir qatorda, Eron, Xuroson va Movarounnahr tojikzabonlariga doir frazeologizmlarni ham qo‘llagan: *Qarzi Bag‘dod bad ast* – Eronda mashhur masaldir [164]. Bu iboralarning ayrimlari hozirgi fors tilida qo‘llanmaydi, ammo mumtoz frazeologik birliklarni tushinish uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Ushbu turli qolipdagi frazeologik kompozitsiyalar qo‘llaniladi.

Lug‘atda murakkab so‘z birikmalar va tasviriy ifoda (*Obi sheroz – sharob*) [10], *Aspi cho‘bin – tobut*) [14], “*Kabo‘tari duburji – darbadar* [169])lardan tortib, hatto maqol matallargacha ham qo‘llangan. Ma‘lumki, tojik tilshunosligida maqol va matalni “zarbulmasal” va “maqol” deb nomlanib, deyarli farqlash holati kuzatilmasa-da, maqol tugal fikr bildirishi, ibora bir so‘zga teng tushuncha anglatishi, matal esa ergash gapli qo‘shma gap tarkibidagi sodda gapdek «chala» fikr ifodalashi bilan o‘zaro farqlanadi. Mazmuni obrazli va ko‘chma xarakterda bo‘lishi bilan o‘xshash [2; 108].

Ularning sanoqli bo‘lganligi bois barchasini keltirib o‘tishni lozim topdik: **Ohu guzasht** [16], **Dohi arab** [97], **Daftari namadiy** – ma‘nodoshi **kitobi namadiy** (bo‘lmagan, yo‘q narsa) [103], **Arabi** ro arabiy (saviyasiga qarab muomala qilmoq) [152], **Laklak poi xudro ba ob guzosht** (bahor keldi) [188], **Chandmarda halloj ast** (tajribali, uddaburon) [80], **Cho‘bash dar ob ast** (pishiq) [81], **Xarat ba chand** (mensimaslik) [91], **Ro‘boh dar tala dorad** (ishi joyida) [115], **Kosai garmtar az osh** (keragidan ortiq muomala) [167], **Hazor hamchu fuloniro dar shikam pih hast** (afzalroq) [216], **G‘o‘raash maviz shud** (ishi bitdi) [157], **Lag‘at ba go‘ri hotam zadan, lag‘at ba abr zadan** (saxiylik qilmoq) [188], **Mashuqai ro‘zi benavo** (ermak)

[195] kabi *matallar* va **Ba dar mego‘yam ey devor tu bishnav** (qizim senga aytaman, kelinim sen eshit) [36], **Boqii doshtan ba fardost** (Qiziganda qiziqdir) [30], **Chi mah kard on, ki in tarh kunad** (bir biridan qolmas) [82], **Dar kosa nim kosa doshtan** (kosa tagida nimkosasi bor) [99], **Devonaro dange bas ast** – masaldir (devonaga “hu” ham bas) [106], **Zonui kaftor ba guftani qulo‘x bastan** – masaldir (Kabutar oyog‘ini kesak deb bo‘lamoq) [118] **Sad ko‘za agar faloni sozad, yake dasta nadorad** (kulol mo‘ndiga yolchimas) [145], **Sangi digar bar sang nameistad** (Quruq tosh birikmas) [132], **Murdai o‘ ba zindai tu bor ast** (Uning o‘lgani ham sendan afzal ma‘nosida) [192], **Yaxi bisyor ob shavad ba xele obi sho‘rbo, falon kor sur‘at girad** (Muzlar erib, suvlar oqar – bu ish bitar) [219], **Qu dar falon jo nameparad** (U yerda qarg‘a ham uchmas) [165], **Kardivu murdi** (Bajarding – o‘lding) [170], **Qarzi Bag‘dod bad ast** (Bag‘dodning qarzi yomon) [164], **Qimor dar rahi qimor ast** (Qimor o‘z yo‘lida ma‘nosida) [165], **Mohi naxohi, dumash gir** (Baliq tutishni xohlamasang, dumidan tut) [191].

Alixon Orzu mazkur maqol va matallarning qo‘llanishi holatlarini sharhlash asnosida o‘z zamonasining lisoniy boyliklarini kelgusi avlodlarga yetkazish bilan birga, xalq zakovati va ma‘nav boyligi bo‘lgan ko‘plab barqaror birikmalarni o‘z kitobida jamlagan hamda bu barqaror birikmalarning manbalari haqida ham ma‘lumot berib o‘tadi. Jumladan, “*Mohi naxohi, dumash gir, Laklak poi xudro dar ob guzosh*” barqaror birikmalari Muhammad Xablarudiyning “Majma‘-ul-amsol” (Masallar to‘plami) kitobidan ekanligini ta‘kidlaydi. Mazkur birikmalar hozirgi tojik va fors tili maqollar to‘plamlarida “Mohi ki namexohi, dumash gir”, “Mohiro namexohi, dumash gir” (Baliq tutishni xohlamasang, dumidan tut) shaklida keltirilgan [9; 4; 96].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, iboralarning shakllanish dinamikasi xalq tarixi, madaniyati, dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq. Iboralarni lug‘at muallifi, asosan, *masal, tamsil, iborot* va *istiorot* shaklida keltirib o‘tgan maqol, matal va aforizmlar hozirgi tojik tilida *zarbulmasal* va *maqol* deb yuritiladi.

Lug‘atda betilgan iboralar so‘z birikmasi (po‘st kardan – ta‘na, ma‘lomat), izofa (safiri xob – xurrak), soda gap (Nonash puxta ast – zuvalasi pishiq [103]) va qo‘shma gap (Bo man dorad, bo o‘ dorad – sansolorlik [31]) shaklida keltirilgan va bulardan eng ko‘p qo‘llangani so‘z birikmasi qolipidagi iboralardir (4; 91).

Muallif iboralar sharhida ma‘nosi juda mashhur bo‘lgan yoki berilgan misol so‘zlik mazmunini ochadigan taqdirida faqat misol keltirish bilan kifoyalanadi. Aks holda so‘zlik (so‘zlik sifatida berilgan ibora va maqol)ga sinonim so‘z yoki mavjud bo‘lganda sinonim, antonim va variantdosh iboralarni keltirish va, asosan, so‘z birikmasi yoki bir-ikki gapdan iborat izoh, ayrim hollardagina kengroq izoh berib o‘tadi.

Ta‘kidlash lozimki, mumtoz lug‘atlardagi paremialigik birikmalarni o‘rganish mumtoz matnlarni sharhlash, matn badiiyatini tushinish hamda birliklar etimologiya (etimonsini) o‘rganishga xizmat qiladi. Shuningdek, ko‘pgina o‘zbek tilidagi ibora va maqollarning etimologiyasini tushinish uchun zamin yaratadi. Masalan, “Tomdan tarasha tushganday” iborasi tojik tilidagi “Az bom//tom tasht aftidagi barin” (Tomdan tog‘ora tushganday) iborasi o‘zlashishidan hosil bo‘lgan. Ammo “*tasht*” so‘zining talaffuz dushvorligi va ma‘nosini tushunmaslik oqibatida bu *tarasha* deb aytilgan va shu tarzda tojikzabonlarga “eksport” qilingan. Bu ibora uchun etimon esa oy tutilganda tog‘ora qoqish (Tasht ko‘ftan [150]) odatidir. Tojik va o‘zbek tili o‘rtasidagi bunga o‘xshagan holatlar ham nihoyatda qiziqarli bo‘lib, buni qisqa qilib marhum shoir Erkin

Vohidov “So‘z latofati” kitobida ta’kidlagan maqol bilan aytsak: “Gap ko‘p-ku, ko‘mir oz”, bo‘ladi.<sup>1</sup>

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2005. – 272 b.
2. Mengliyev B., Xoliyurov O‘ va mualliflar guruhi. Ona tili qomus (Maktab o‘quvchilari uchun). – T.: 2009. – 270 b.
3. Абдувалиева Д. ЖДПИ «Тарихи мулуки ажам»да қўлланган паремиологик бирликлар ва уларнинг услубий хусусиятлари/Тилшуносликнинг долзарб масалалари: VI. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 272 б.
4. Бахриддин Д. «Чароғи ҳидоят»-и Орзу ва забони тоҷикии форсӣ. – Душанбе. 1992. – 108 с.
5. Бердиёров Ҳ., Расулов Р., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясидан материаллар (Биринчи қисм). Самарқанд. 1876
6. Раҳматова Ш.Р. Фразеологизмҳо дар фарҳанги “Бурҳони қотей”-и Муҳаммадхусайн Бурҳон
7. Сангинов А. ”Баҳори Аҷам” ва характеристикаи лексикографии он. Дисс. барои гирифтани унвони номзади илми филология. – Душанбе. 1975. – 259.
8. Сирочуддин Алихони Орзу. Чароғи ҳидоят. – Душанбе. Ирфон, 1992. – 288 с.

### **MIQDORIYLIK VA KO‘PLIK**

*M.N.MAMAJONOVA,*

*Qo‘qon DPI*

**Annotatsiya.** Maqola kvantitativlik kategoriyasi va uning til sathlarida voqelanishi, shuningdek, boshqa kategoriyalar bilan bogliqligi masalasiga bag‘ishlanadi.

**Kalit so‘zlar:** miqdor, tafakkur, daraja, o‘lchov.

**Аннотация.** Статья посвящена категории квантитативности и её реализации в языковых отраслях. А также выделены взаимосвязи квантитативности с другими категориями.

**Ключевые слова:** количество, мышление, степень, мера.

**Resume.** The article is devoted to the category of quantitateness and its implementation in the language industries. The interconnections of quantitateness with other categories are also highlighted.

**Keywords:** quantity, thinking, degree, measure.

Tilda lisoniy kategoriyalar izolyatsiyalangan holda mavjud bo‘lmaydi. Ular tilning turli sathlarida bir-biriga uzviy bog‘liq holda yashaydi. Jumladan, kvantitativlik kategoriyasi muayyan til materialida obyektivlashadi (lisoniy shakllarda ma’nolar ko‘rinishida mantiqiy tushunchalarning voqelanishi).

---

<sup>1</sup> Tojik tilida “gap beshu umr kam” (gap ko‘p-ku, umr kam) maqoli mavjud, mazkur maqol ham aslida “Gap ko‘p-u umr ozdir”

Tilshunoslikda miqdoriylikning ifodalanishi leksik, morfologik, soʻz yasalishi, sintaksis sathlarida yetarli darajada mumtoz tahlillar asosida tavsifiy yoʻl bilan oʻrganilgan. Koʻpincha, tadqiqotlar son grammatik kategoriyasini miqdoriy munosabatlar ifodalashning muntazam usuli sifatida qaralgan tahlilga bagʻishlangan. Lekin boy til materialining kvantitativlik kategoriyasi uzviy aloqadorlikda, toʻliq va tizimli holda tadqiq qilinmagan. Bu esa mazkur muammoni koʻp sathli kompleks tahlil etish dolzarbligini koʻrsatadi.

Kvantitativlik tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanadigan ongning lingvokreativ faoliyati mahsuli sifatida oʻrganilishi kerak, shuningdek, kontekstda kvantitativ va nokvantitativ tushunchalarni bildiruvchi vosita sifatida ham tahlil etilishi zarur.

Kvantitativlik kategoriyasi eng muhim ontologik kategoriyalardan biridir:

- u aqliy-maʼnoviy hodisa hisoblanadi;
- obyektiv olamning miqdoriy aniqligi inson ongi orqali bilish natijasidir;
- insoniyat tafakkurining muhim faoliyatidir;
- obyektiv miqdorning ongda aks etishi natijasi va kontseptual analogidir.

Kvantitativlikning tub mohiyatini anglatuvchi miqdor kategoriyasining oʻrganilishi antik falsafaga borib taqaladi. Gegel antik falsafada ilgari surilgan miqdor kategoriyasiga aloqador boʻlgan kattalik, oʻlchov va intensivlik tushunchalariga mukammal taʼrif berdi. Miqdor kategoriyasi keyinroq faqat falsafadagina emas, balki mantiq, tilshunoslik sohalarida ham izchil oʻrganila boshlandi.

Tilshunoslar miqdor kategoriyasini yuzaga chiqaruvchi vositalar, miqdoriylik maʼnolari bilan bogʻliq muammolarni oʻrganganlar. Bunda “miqdor” bilan terminologik yaqin tushunchalar sifatida quyidagilar ajratib koʻrsatilgan: miqdor, miqdoriylik va kvantitativlik. Miqdor deyilganda sanalish va oʻlchanish imkoniyati tushuniladi, miqdoriylik – miqdor kategoriyasiga asoslangan xususiyatdir, kvantitativlik esa turli sathlarda miqdoriylik mazmuniga ega boʻlgan tushunchalar kompleksi haqida tasavvurni yuzaga chiqaruvchi mantiqiy-semantik kategoriya hisoblanadi. Miqdoriylik mazmuni miqdor, son, koʻplik, qisqalik kabilarni, shuningdek, tartib, oʻlchov parametrlariga aloqador tushunchalarni ham oʻz ichiga oladi.

Kvantitativlik tilda narsalar, odamlar, moddalar, masofa kabilarni aniq yoki taxminiy oʻlchash zarurati tufayli yuzaga kelgan. Til taraqqiyoti natijasida kvantitativlik maʼnosini ifodalovchi yangi leksemalar shakllanmoqda.

Kvantitativlik kategoriyasi tilda lokallik, temporallik, substansionallik kabi boshqa kategoriyalar bilan uzviy aloqadorlikda namoyon boʻladi. Masofa, uzunlik, kenglik, balandlik, hajm, maydon kabilarni oʻz ichiga jamlagan “makon” tushunchasi miqdoriy tavsif asosida aniqlashadi, yorqinroq ifodalanadi. Makon esa lokallik kategoriyasi bilan bogʻliq boʻlib, u miqdoriy tavsif boʻlmasa, yalangʻoch va quruq kategoriya hisoblanadi.

Umumiy maʼnoga ega boʻlgan turli sath birliklarini kompleks analiz qilish ushbu birliklarni grammatik-leksik yoki funksional-semantik maydon sifatida oʻrganishga asos boʻldi. Miqdor son, miqdor ravishi, miqdor olmoshlarining mazmun mundarijasida

“miqdor” semasi bo‘lgani uchun matn tarkibida biri o‘rnida boshqasi almashib kelishi mumkin. Almashgan holatda turli mazmuniy o‘zgarishlar ro‘y beradi, lekin ularni transformatsiya qilish mumkin: Har qanday o‘quvchi o‘z vazifasini bajaradi. Hamma o‘quvchi o‘z vazifasini bajaradi.

Son jihatdan qarama-qarshilik tabiatda ham, tilda ham bir-ko‘p chizig‘ida emas, nol-noldan ko‘p chizig‘ida boradi. Miqdoriy me‘yorni quyidagi tartibda ko‘rsatish mumkin: quyi me‘yor-me‘yor-yuqori me‘yor. Masalan: tommoq-oqmoq-sharillamoq.

Yuqoridagi tahlillardan anglashiladiki, kvantitativlik kategoriyasi, kvantor so‘zlarning tadqiqi hali chuqur izlanishlarni talab qiladi. Kvantitativlik tasnif qilish xususiyatiga ega bo‘lgan inson tafakkurining murakkab mahsuli hamda rang-barang shakllarda namoyon bo‘luvchi, tilning har qanday sathida faol amal qiluvchi keng qamrovli kategoriyadir. Rus tilshunosligida va Yevropa tilshunosligida kvantitativlik turli aspektlarga ko‘ra tahlil etilgan.

Miqdor logik kategoriyasining mazmunini yaxshiroq oydinlashtirishga ko‘plab fanlar qatori til faktlarini tahlil qilish asosida erishishiladi.

Insoniyat jamiyati sanoq, o‘lchov orqali juda katta yutuqlarga erishdi. Borliqdagi barcha narsalar sanalishi yoki o‘lchanishi mumkin. O‘lchov bo‘lmaganda, yo‘l qurilishi, binolar bunyod etish, mehnat qurollari yaratish imkoni ham bo‘lmas edi. Shuning uchun ham kvantitativ metod eng ilg‘or metod sifatida barcha jabhalarning asosiy tashkil etuvchi hamda rivojlantiruvchi metodi sanalib kelmoqda.

Miqdoriy belgi tilshunoslikning barcha sathlarida ko‘zga tashlanadi. Miqdor maydoni tilimizda mavjud bo‘lgan turli semantik maydonlar bilan hamkorlikda ish ko‘radi. Mantiqiy kategoriya hisoblangan miqdorni ifodalovchi qator vositalar hamda shakllar mavjud. Ingliz, ukrain, rus tillarida kvantitativlik leksik, morfologik, sintaktik usullarda namoyon bo‘lgani holda, o‘zbek tilida fonetik yo‘l bilan ham kvantitativ ma‘noni hosil qilish imkoni mavjud. Yuqoridagi usullar orqali vujudga kelgan miqdoriy birliklar turli semantik ko‘rinishlarga ega: yo‘qlik, yakkalik, miqdoriy ko‘plik, miqdoriy kamlik, miqdoriy me‘yorga egalik, aniq miqdor, noaniq miqdor, abstrakt miqdor va h.k. Ammo shaklan miqdoriy ko‘rinishga ega ba‘zi birliklar sof miqdor bildirishdan tashqari yana ikki xil holatni ham nazarda tutishi mumkin:

1. Miqdor ma‘nosi + ekspressiv ma‘no;                      2. Ekspressiv ma‘no.

Fonetik usul orqali, ko‘pincha, emotsional-ekspressiv ma‘noni keltirib chiqarish imkoniyati mavjud. Bunda unlini cho‘zib talaffuz qilinadi. Ammo bunday usul fonologik ma‘noga ega emas. Unlini cho‘zib ekspressivlikni vujudga keltirish qator so‘z turkumlari doirasida namoyon bo‘ladi.

Unlilarning cho‘ziq bo‘lishi ba‘zan urg‘uga bog‘liq bo‘ladi. So‘zga qo‘shimcha qo‘shilishi bilan urg‘u so‘z oxiriga ko‘chganda, so‘zning birinchi bo‘g‘inidagi unli sezilarli darajada cho‘ziladi. Sababi, turkiy tillarda birinchi va ikkinchi darajali so‘z urg‘usi ajratiladi. Asosiy urg‘u tushgan unli cho‘ziqroq, kuchliroq talaffuz etiladi. Ko‘pincha, 2-darajali urg‘u o, e, o‘ kabi unlilar bo‘lgan bo‘g‘inga tushadi. O‘zbek tilida



baʼzan umuman urgʻu olmagan boʻgʻin choʻziq boʻlishi ham mumkin. Masalan: oʻrtogʻimiz, bolalar kabi. Baʼzan esa urgʻuli boʻgʻindagi unli juda qisqa talaffuz etiladi. Chunki oʻzbek tilidagi urgʻu, asosan, ekspirator urgʻu, yaʼni kuch urgʻusidir. Faqat kvantitativ urgʻuga ega tilning oʻzi yoʻq. Urgʻuning koʻchishi hamda unlining choʻzilishi koʻproq emotsional maʼno nozikligini ifodalash maqsadida amalga oshiriladi. Bunda soʻzning intonatsiyasi oʻzgaradi, soʻzning asosiy maʼnosi va gap boʻlaklarining sintaktik aloqasiga taʼsir koʻrsatilmaydi. Birlik sonning oʻziga xos xususiyatlari haqida tilshunoslikda koʻplab fikrlar keltirilgan. Birlik son yakkalikdan tashqari yolgʻizlik, yagonalik, tanholik, oʻxshashi yoʻqlik singari maʼnolarni ham bildiradi. Bu—leksik, hayotiy birlik. Ushbu maʼnolar bir soʻzidan boshqa leksik birliklar bilan ham ifoda qilinadi: tanho, oʻzi, betakror, oʻxshashi yoʻq.

Ayrim son (miqdor semasini anglatuvchi) komponentli frazeologik birliklarda son faqat boshqacha maʼno kasb etib qolmay, balki miqdor maydonidan sifat-ekspressiv baho maydoniga oʻtib ketadi. Masalan: “Ikki tomchi suvdek oʻxshash”, “Bir oyogʻi goʻrda boʻlmoq”, “Bir dunyo meva” kabilar. Keltirilgan misollarda frazeologik birliklar nutqiy taʼsirchanlikni oshirishga xizmat qiladi, ular tarkibidagi sonlar desemantizatsiyaga uchraydi, kvantitativlik maʼnosi yoʻqoladi.

Demak, kvantitativ soʻzlar dunyoni bilishning asosiy elementi boʻlish bilan birga, nutqni obrazli, serjilo, taʼsirchan qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

Xullas, kvantitativ belgi til sathlari oʻrtasida eng keng tarqalgan tasniflovchi belgilardan hisoblanadi. Kvantitativ belgini muayyan sath birliklarini ajratishda yohud oʻzaro qiyoslanuvchi sathlarning birliklari orasidagi oʻxshashlik hamda farqlarni belgilashda muhim kriteriy sifatida qoʻllash mumkin. Kvantitativ belgi til vositalaridan keng foydalanilgan holda, ayrim tovushdan tortib butun bir matnlar orqali ham ifoda qilinishi kuzatiladi. Baʼzan miqdoriy belgi til vositalari tahlilida ifoda plani orqali umuman sezilmasdan, faqatgina mazmun planini chuqur tahlil etilganda namoyon boʻlishi ushbu kategoriyaning murakkab va nozik qirralaridan biri sanaladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Сепир Э. Градуирование.// Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16.-М., 1985. -С.43-154.
2. Тимофеев И.С. Методологическое значение категорий «качество» и «количество». -М., 1972.
3. Акуленко В.В., Швачко С.А., Букреева Е.И., Синякова Г.А., Попович М.М. и др. Категория количества в современных европейских языках. Под ред. Акуленко В.В. -К.: Наукова думка, 1990. -С.284.
4. Панфилов В.З. Философские проблемы языкознания. Гносеологические аспекты. -М., 1977.
5. Игошина Т.В. Морфотемный анализ категории количественности в разносистемных языках. -Ульяновск, 2002.
6. Фуломов А.Ф. Фьёл. -Т., Фан, 1954.

7. Абдуллаев Ф.А. Фонетика хорезмских говоров. -Т., Фан, 1967.  
8. Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. -М., 1972.

## ЎЗБЕК ВА РУС ТИЛЛАРИДА ОТ СЎЗ ТУРКУМИНИНГ ГРАММАТИК ШАКЛЛАНИШИ ВА ЎЗИГА ХОС АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

*Барно Муминжоновна МУСАЕВА,  
Навоий давлат педагогика институти ўқитувчиси*

**Аннотация:** Мазкур мақолада рус ва ўзбек тилларидаги от сўз туркумининг грамматик категориялари орасида фарқлар таҳлил қилиниб, қиёсланаётган тиллардаги отларнинг хосил бўлиш жараёнига урғу берилди.

**Калит сўзлар:** от сўз туркуми, келишиклар, сўзнинг хосил бўлиши, функциялар, тааллуқлик.

**Аннотация:** В статье рассмотрены различия в грамматических категориях существительных в русском и узбекских языках, рассмотрен формообразовательный процесс существительных в изучаемых языках.

**Ключевые слова:** существительные, падежи, словообразование, функции, принадлежность.

**Annotation:** The article examines the differences in the grammatical categories of nouns in the Russian and Uzbek languages, examines the derivational process of nouns in the studied languages.

**Key words:** nouns, cases, word formation, functions, belonging.

Тил-барча халқларнинг алоқа воситаси ҳисобланади. Йиллар ўтиши билан барча тиллар давр талабига мос равишда такомиллашиб бораверади. Бундай ўзгаришларни ўзбек ва рус тиллари мисолида ҳам кўриш мумкин. Ҳозирги ўзбек тили лексемасида мавжуд бўлган жуда кўп интернационал сўз ва терминлар, баъзи сўзларнинг семантик структурасида содир бўлаётган ўзгаришлар, нутқ товушлари системасидаги янгиликлар бунинг ёрқин далили ҳисобланади. Шунинг учун ҳам ўзбек ва рус тилларини қиёсий аспектда ўрганиш ҳозирги куннинг долзарб масалаларидан ҳисобланади.

Ўзбек ва рус тилларининг грамматик тузилиши тил системаларига мансублиги билан характерланиши ҳақида профессор О.Азизов “Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси” қўлланмасида ўзбек тилига хос лексик-семантик ва фонетик ҳодисаларни, морфологик ва синтактик категорияларнинг муҳим грамматик хусусиятларини рус тилининг лексикасига ҳамда фонетик ва грамматик тузилишини таққослаб кўрсатган[1].

Барча тилларда сўзлар гуруҳларга ёки туркумларга ажратилишида уларнинг лексик-семантик хусусиятлари, морфологик ва синтактик функцияларига

таянилади. Ўзбек тилидаги сўзларнинг дастлабки шаклларида уларни бир биридан фарқ қилиш учун асос бўладиган морфологик кўрсаткичлар аниқ кўринмаганлиги учун рус тилига нисбатан ўзбек тилидаги сўзларни сўз туркумларига ажратиш қийинроқ кечади. Масалан: уй, дарвоза, анор, қум, нон, расм, кўйлак каби отларнинг кўк, яшил, сариқ, кенг, тор, ажойиб, ёмон, яхши каби сифатлардан ёки бер, ўтир, ўқи, кел, ухла, тик, каби феъллардан фарқ қиладиган морфологик кўрсаткичлари йўқ. Шунинг учун ҳам ўзбек тилида сўзларни туркумларга ажратишда, уларнинг, асосан, семантик ва функционал (синтактик) белгилари кўзда тутилади[1].

Рус тилида сўзларни туркумларга ажратишда семантик ва функционал (синтактик) белгилар билан бир қаторда морфологик белгилар ҳам катта аҳамиятга эга, чунончи, парта, стол, поле, армия, баня каби отлар большой, большая, большое, большие, синий, синяя, синее, синие каби сифатлардан ёки работать, играть, найти, любить каби феъллардан морфологик белгилари билан ҳам фарқланиши кўрсатиб ўтилган[1]. Сўз туркуми сони ва таркибини аниқлашда дунё тилшунослигида бўлгани каби, ўзбек тилшунослигида ҳам, сўзларнинг семантик, морфологик ва синтактик хусусиятини инобатга олиш кенг тарқалган. Бироқ амалиётда сўз туркумларини ажратишда, асосан, уларнинг семантик хоссасига таяниш урф бўлган. Айрим тилшунослар томонидан таснифда маъновий белги бош ва ягона асос сифатида қаралади. Баъзилар эса мезон сифатида мазкур уч белгини тан олгани ҳолда сўзларни маъновий ва синтактик белгилари асосидагина гуруҳлашади. Сўз туркумларининг бир-бирига ўтиши, лексик ва лексик-грамматик омонимия масаласи эса бунда ҳар хил қарама-қаршилик ва иккиланишлар юзага келишига сабаб бўлади деб таъкидланади [2].

Сўз гуруҳлари аро муносабатларнинг очилиши у ёки бу белги асосида сўз туркумининг муайян турини ажратишга, таснифини беришга олиб келади. Шунинг учун мантиқий қарама-қаршиликдан қочиш мақсадида формал мантиқнинг борлиқ ҳодисасини таснифлашга кўядиган асосий талабидан бири бўлган «таснифни фақат бир мезон асосида амалга ошириш, таснифнинг икки белгисини бир пайтнинг ўзида қўллаб, уларни қориштирамаслик» қоидасига қатъий риоя қилиш лозим. Шундай қилиб, сўзлар семантик, морфологик ва синтактик белгиси асосида тасниф қилиниши мақсадга мувофиқ [2].

Сўзлар ўз мавҳум грамматик маънолари, морфологик белгилари ва грамматик категорияларига қараб, сўз ясаш, шакл ясаш ва сўз ўзгартириш хусусияти ҳамда гапда бажарган вазифаларига қараб бир-биридан фарқ қиладди. Сўзларнинг мавҳум грамматик маъноси, морфологик ва синтактик белгиларига қараб гуруҳларга бўлиниши сўз туркуми дейилади. Ҳар бир туркум ўзига хос мавҳум грамматик маънони англатади ва шу туркумга хос грамматик маъно ифодаловчи воситаларга эга бўлади. Жумладан, от туркуми «предметлик» маъносини (кўча, бино, шаҳар, садоқат, дўстлик, киши каби);

От сўз туркуми учун хос бўлган асосий хусусият сон, эгалик ва келишик категориясига эга бўлишдир. Ўзбек тилидаги от сўз туркумининг келишиклардаги турланишига қараганда рус тилидаги келишик шакллари анча мураккаб ҳисобланади. Чунки рус грамматикасида род категориясининг мавжудлиги сабабли рус тилига хос сўзларнинг келишикларда турли кўшимчаларни олишига сабаб бўлади. (Қуйидаги жадвалга эътибор берамиз). Худди шундай ҳолат сифат, сон, олмошларнинг келишикларда турланишида содир бўлади.

№	Келишик	Қўшимча	Мисоллар	Падеж	Окончание	Склоняемые слова
1	Бош келишик	—	Уй Денгиз Сув	Именительный падеж	□	Дом м.р Море с.р Вода ж.р
2	Қаратқич келишик	-нинг	Уйнинг Денгизнинг Сувнинг	Родительный падеж	-а -я -ы	Дома Моря Воды
3	Тушум Келишик	-ни	Уйни Денгизни Сувни	Дательный падеж	-у -ю -е	Дому Морю Воде
4	Жўналиш Келишик	-га	Уйга Денгизга Сувга	Винительный падеж	□ -е -у	Дом Море Воду
5	Ўрин-пайт Келишик	-да	Уйда Денгизда Сувда	Творительный падеж	-ом -ем -ой	Домом Морем Водой
6	Чиқиш Келишик	-дан	Уйдан Денгиздан Сувдан	Предложный падеж	(О)-е (О)-е (О)-е	доме море воде

Рус тилида ҳам, ўзбек тилида ҳам бош келишикдаги от умуман шахс, предмет, воқеа, ҳодисаларнинг номини атайди. Отнинг бош келишик шакли махсус аффиксга эга эмас. Бу келишик шакли аффиксли келишик шаклларига қарама-қарши қўйилади ва шуларга нисбатан белгиланади. Шунга кўра бош келишик аффиксиз келишик ёки ноль кўрсаткичли формаси деб юритилади.

Қаратқич келишигидаги сўз эгалик аффиксини олган от билан мослашув орқали синтактик алоқага киришади. Бунда қаратқич келишигида келган сўз қаратувчи (қаратқич), эгалик аффиксини олган сўз эса қаралмиш деб юритилади. *Китобнинг бети, хўжаликнинг даласи, мактабнинг боғи.*

Қаратқич келишигида келган отлар гапда асосан қаратувчи қаратқичли аниқловчи вазифасида келади: *Мен сизнинг кўзингизда диёримни кўраман. (Х.Гулум).* Қаратқич келишигидаги сўз (кўпинча кишилик олмошлари) кўмакчи билан ишлатилиб, аналитик шакл ҳосил қилади, гапда воситали тўлдирувчи

вазифасида келади: *Кўкан ўзи менинг билан хўп огайни. (Г. Гулом) Сенинг учун бутун бир тўй тuzатдим. (Х. Олимжон). [4]*

Рус грамматикасида эса, родительный падеж косвенный падежларнинг бири сифатида, жаҳон тилларида ҳам одатда, эгалик муносабатларини ифодалайди, шунингдек бир қатор функцияларни ҳам бажаради. Айрим ҳолларда -мя ҳарф бирикмаси билан тугайдиган ҳар хил турланувчи средний родда родительный падеж шакллари ясалишида нутқимизда тез-тез хатоликларга йўл қўйилади. Айниқса оғзаки нутқда “нет время”, “человек без имя” каби шакллар ишлатилади. Бинобарин ҳар хил турланувчи, косвенный падеж шакллари ясалишида шакл ясовчи -ен суффикси қўшилади ва бу сўзлар охирида родительный падежда -и қўшимчани олишини эътибордан қочирмаслик зарур бўлади. Масалан, время — меняются времена; племя — вождь племени; имя—человек без имени; пламя— нет огня без пламени; знамя—нет полка без знамени; бремя — тяжелее бремени; семя — от доброго семени.

Рус тилида Родительный падеждаги отлар, бошқа отлар билан бирикиб, бирор шахс ёки предметга тегишли эканлигини ҳам англатади. Масалан, костюм (чей?) мамы — мамин костюм; берлога (чья?) медведя — медвежья берлога; сообщение (чьё?) папы — папино сообщение.

Родительный падеждаги отлар қуйидаги предлоглар ёрдамида ясалаши мумкин: до, от, без, из, для, с, у, из-за, около, мимо, вслед, возле, кроме, вне, ради каби. Родительный падеж шакллари маъносини аниқлаб келади ва ҳаракат объектини вақти, ўрни ёки унинг мавжуд эмаслигин билдиради. Масалан, *приехать до вечера, вернуться из школы, писать без подготовки, жить около школы, выскочить из-за угла, капает с ветки, пройти мимо магазина*. Гапда родительный падеж шаклида отлар кўпинча иккинчи даражали бўлак синтактик вазифасини бажарди: дополнения (тўлдирувчи), несогласованного определения (мослашмаган аниқловчи), обстоятельство (ҳол). Таркибида ажралмайдиган бирикмали сўзлар: более, менее, свыше, ряд, часть, большинство, меньшинство, много, мало, сколько, несколько, столько ва шунингдек сонлар билан келган отлар родительный падеж шаклида эга вазифасини бажаради.

Тушум келишикдаги от ҳамма вақт ўтимли феълга боғланади. У шу феълдан англашилган иш ҳаракатнинг таъсирини ўз устига олган ҳаракатни бевосита ўзига қабул қилган нарсани ифодалайди, гапда воситасиз тўлдирувчи вазифасида келади. Масалан, *Анвар укангни мактабга олиб бор. Подшоҳ ҳамма куёвидан кенжа ботирни яхши кўрар экан (Эртак)*.

Тушум келишиги қаратқич келишиги каби ҳам белгили ва белгисиз шаклда қўлланиши мумкин: Бундай қўлланиш маъно талабларига ва грамматик ҳолатга кўра содир бўлади. Масалан, тушум келишигидаги сўз сўзловчи ва тингловчи учун маълум предметни англатса, бунда келишик белгили шаклда бўлади *Мен*



*хатни олдим (тингловчига маълум хат), акс ҳолда белгисиз шаклда келади Мен хат олдим (умуман хат кўзда тутилади).*

Рус тилида дательный падеж билан ишлатиладиган ясалмаган предлог бор йўғи иккита к (ко) ва по предлоглари ҳисобланади. Дательный падеж гапда шахсга ёки предметга йўналтирилган ҳаракатнинг косвенный объекти ҳисобланади. Масалан: *Завтра я иду к врачу. Сестра не хочет идти в гости к Нине.* Пайт маъноси ифодаланганда дательный падежда “по” предлоги ишлатилади: *По пятницам брат занимается йогой. По вечерам Рустам любит читать и гулять в парке.*

Рус тилида винительный падежда от ёки олмош объектни ифодалайди. От ва Олмош винительный падежда қуйидаги *читать, понимать, знать, любить* феъллардан кейин қўйилиши лозим бўлади. Агар объект предмет ҳисобланса-что? Объект шахс ёки ҳайвонот бўлса- кого? саволлари бўлади. Масалан, *Что ты хочешь? –Я хочу мандарин. Кого ты знаешь? Я знаю Свету.*

Винительный падежда мужской ва средний роддаги жонсиз отларнинг қўшимчалари доимо именительный падеж билан бир хил формада бўлади. Женский роддаги отларнинг (жонли, жонсиз) винительный падежда келишиқ қўшимчалари қуйидагича ўзгаради. *Это Москв-а? Я люблю Москв-у. Тут твоя подруга Аня? Я уважаю тво-ю подруг-у Ан-ю.* Шунинг учун ўзбек ва рус тилларида отларнинг турланишида шунга ўхшаш тафовутлар морфологияда кўриниб туради.

Эътибор бериб қаралганда ҳар хил тилларнинг келишиқлар сони бир хил эмас бу факт ўша тилнинг морфологик тизими типологик характеристикасининг битта критерияси сифатида қаралади. Худди шундай келишиқнинг мавжуд ёки мавжуд эмаслиги ёки предлогларнинг унчалик ривожланмаганлигидан далолат беради. Масалан, фин тилида отларда келишиқлар сони 14 та, лекин предлоглар жуда кам сонни ташкил этади[4]. Инглиз тилида ҳам чегараланган келишиқлар сони қараганда предлогларнинг кўплиги билан фарқланади. Кўпчилик тиллар мавжудки, от сўз туркумида келишиқ тизими умуман ишлатилмайди. Бунга болгар, итальян ва француз тилларини мисол қилишимиз мумкин.

Хулоса сифатида ҳар бир келишиқни маъносини алоҳида грамматик категория сифатида қараб чиқилса, бир қатор комплекс характерли кўпроқ кичик маъноларга эга эканлигини кўриш мумкин. Масалан, худди шундай маъно сифатида предметлиликни айтиш мумкин, чунки предмет ёки ходисаларни билдирувчи от келишиқ категориясига хос бўлади. Бошқа маъно сифатида отларнинг маълум бир грамматик родга тегишлилигини айтиш мумкин. Учинчи маъно бирлик ва кўплик маънолари ҳисобланади. Тўртинчи маъно ўша ёки бошқа формада ўзининг ифодасини олган жонлилик ёки жонсизлик (одушевлённость, неодушевлённость) ифодаларини айтиш мумкин.

#### АДАБИЁТЛАР

1.О.Азизов,А.Сафаев,Ҳ.Жамолхонов. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси.(Фонетика,лексика,морфология ва синтаксис)Ташкент “Ўқитувчи”1986.

2. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Курбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2009. – 391 б
3. Л.Э.Кузнецова. Сравнительная типология английского и русского языков. Учебно-методическое пособие. Армавир 2021
4. Қаландар Сапаев. Ҳозирги ўзбек тили (морфемика, сўз ясаши ва морфология) Тошкент -2009

**ADBULLA ORIPOV SHE'RLARIDA DAVR MUAMMOLARI TALQINI**  
*Nuriniso Rahimovna UMAROVA,*  
*Mustaqil tadqiqotchi, JizzaxDPI*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Abdulla Oripovning vafotidan so‘ng chop etilgan “Shoirning tug‘ilishi” she‘riy to‘plamiga kiritilgan she‘rlarida aks ettirilgan davrning ijtimoiy-ma‘naviy muammolariga ijodkorning badiiy munosabati haqida so‘z boradi.

**Annotation.** In this article, one of the leading representatives of Uzbek literature, Abdulla Oripov, talks about the artist’s artistic attitude to the social and spiritual problems of the time, reflected in his poems included in the poetry collection “The Birth of a Poet,” published after his death.

**Аннотация.** В данной статье один из ведущих представителей узбекской литературы Абдулла Орипов рассказывает о художественном отношении художника к социально-духовным проблемам времени, нашедшим отражение в его стихах, вошедших в поэтический сборник «Рождение поэта», изданный после его смерти.

**Tayanch so‘zlar.** Inson, davr muammolari, ijodkor, kechinma, dard, qalb, hayot, g‘oya.

**Key words.** Human, problems of the time, creator, experience, pain, heart, life, idea.

**Ключевые слова.** Человек, проблемы времени, создатель, опыт, боль, создатель, душа, жизнь, идея.

Abdulla Oripov lirikasining namunalarida davr muammolariga jiddiylik bilan qarash va his-tuyg‘ularini liro-publististik ohanglarda berish kuzatiladi. U ham barcha iste‘dodlar kabi balandparvoz misralar orqali maddohlik bilan emas, hayotga realistik nigoh bilan boqdi va bu jihatlarda u yaratgan qahramonlar tabiatida ham o‘z aksini topdi. “Davrning og‘riqli masalalari bu davr ijodkorlarini bezovta qiladi. Ular bugun ko‘pchilikning nazaridan chetda turgan, lekin ertaga hammani tashvishga solishi mumkin bo‘lgan hayot muammolariga badiiy mikroskop orqali qarashni lozim topadi”.<sup>1</sup> Bu jihatdan olganda, “Shoirning tug‘ilishi” to‘plamiga kiritilgan “Ateist”, “Tanqidchiga”, “Hayot falsafasi” kabi she‘rlari ijodkorning davr muammolariga munosabati o‘laroq dunyoga kelgan. Ularda lirizm bilan epiklik dialektik ravishda bog‘lanib, bir butunlik kasb etib borayotganligini sezish mumkin. Bugunning dard-u tashvishlariga eshlik, uni o‘z iztiroblari kabi qabul qilish Abdulla Oripov she‘riyatining

---

<sup>1</sup> To‘lakov I Hozirgi o‘zbek lirikasida davr va qahramon talqini. Filol.Fan.dok...dis. – Toshkent. 1994. B.105.

yetakchi xususiyatlaridan biridir. Shoir hayotning nurli lavhalari bilan birga nurlar tufayli hosil bo'layotgan soyalarga ham nigoh tashlaydi. Jumladan, "Ateist" she'rida : Mashhur, dong'i ketgan "ateist lektor"

Dinsiz deb ko'rsatar minbardan o'zin.

Ko'cha-ko'yda esa "Bismilloh" dan boshlab,

"Astag'furulloh" deb tugatar so'zin.

"Gurunch kurmaksiz bo'lmagani kabi" insonlar orasida ham mana shunday "tili-yu dili boshqa odamlar" bisyor, bu toifa insonlar jamiyatimiz illati hisoblanadi. Shoir bunday insonlarning asl qiyofasini fosh etish, davrning muammosini ko'tarib chiqish orqali insoniyatga ko'zgu tutmoqda.

Ijodkorning "Tanqidchiga" nomli she'rida esa iqtidorlarni qo'llab-quvvatlay olmaydigan, qadrlay olmaydigan insonlar tabiatiga xos qirralarni chizadi. She'r markazidagi tanqidchi ijod maydoniga endigina ot solib kirib kelayotgan iqtidor egasini qo'llab-quvvatlab, rag'batlantirish o'rniga, iqtidorning poymol bo'lishiga sababchi bo'lishini qoralaydi. Shoir yosh ijodkor qalb kechinmalaridagi asosiy lavhalarni badiiyat ko'zgularidan o'tkazar ekan, o'z fikrini esa o'z sohasining ustasi bo'lmagan insonlar haqiqiy talantning tug'ilmasdan bo'g'ilishiga sabab bo'ladilar degan g'oya bilan yakunlaydi:

Ikki, uch... bor keldim, hamon o'sha so'z,

Hatto yodlab oldim "O'rtoq Pushkinni".

Ko'zoynagin sekin ko'tarib, der u:

"Ko'proq o'qing, axir, o'rtoq Pushkinni".

Nihoyat, toqatim toq bo'lib, bir kun

Pushkin she'rlaridan tutqazdim birin.

-Attang, - deydi menga, - she'ringiz ko'p xom,

O'rganish kerak,-der,- Pushkinning sirin.

Ijodkor shaxsi tilidan aytilgan bu fikrlar o'zining realligi, aktualligi bilan har bir davr uchun dolzarbdir va kitobxonni mushohadaga, munosabatga undaydi. To'g'ri, bu yerda badiiy tasvir unsurlarini deyarli uchratmaymiz. Hatto oddiy o'xshatish, sifatlashlar ham yo'q, lekin bu yerda hayotning jonli parchasidan kuch olgan haqiqat bor. Davrning dolzarb bir muammosiga ijodkor shaxsining qarshi ichki isyoni, qalb tug'yoni bor. Halollik, rostgo'ylik tuyg'ulari bilan qalbni to'yintira olgan qahramon ma'naviyatidagi yorqin holatlar she'r ruhiyatini ko'tara olgan. Shoir masalaning bu tomonlariga diqqatni qaratish bilan jamiyatidagi soxtaliklarni fosh etmoqchiday go'yo.

"Hayot falsafasi" she'rida esa jamiyatimizning dolzarb, achchiq, og'riqli masalasi aks ettirilgan. Ijodkor shaxsiy "men"i bilan insoniy "men"i bir butunlik kasb etib bormoqdaki, bu, albatta, bugungi she'riyatga xos xalqchilik qirralarini vujudga keltirmoqda.

Ish ko'rib nafsining buyrug'i bilan,

To'g'rini quvdi u qo'llab o'g'rini.

Atrofni o'radi urug'i bilan,

Qo'ltig'iga oldi avval o'g'lini!

Uningcha, xo'jayin bo'lsa bas mamnun,

Qimirlab tursa bas idora ishi;

Aysh-ishrat bag'ishlar umrga mazmun,

Bir marta keladi dunyoga kishi.

Kim uni fosh etar, jazoga tortar?!

Turtinib qoldi-ku oddiy fuqaro:

Ig'vo deb topildi chippa-chin xatlar,

Ne-ne yorug' yuzga chaplandi qaro...

Lirik qahramon bugunning dahshatli kasalliklaridan bo'lmish – tanish-bilishchilik, manfaatparastlik illatlariga o'z nafratini achchiq kinoyalar, kuchli iztiroblar tasviri orqali ta'sirchan qilib beradi. Ijodkor shaxsiyatida achchiq haqiqatni dadillik bilan g'azab ohanglarida aytishga majbur etgan kuch – bu qalb iztirobidir. Olamda ma'naviy taraqqiyotga to'g'anoq bo'lishdek og'ir jinoyat ijodkor “men” qalbiga nayzadek sanchiladi. Ko'zlar bilan, qalblar bilan anglash mumkin bo'lgan bunday fojialardan insoniyatni ogoh etish, bunday tanazzulni keltirib chiqarayotganlarning qiyofalarini ko'rsatish Abdulla Oripov ijodkor “men”ning niyatiga aylangan. Xudbinlik, manfaatparastlik inson ma'naviyatiga tushgan zang. Zang esa emiruvchandir. Ma'naviyat tanazzuli dastlab shaxs ruhidagi yemrilishlardan boshlanadi. Bunga befarq qaralsa, uning ildizlari butun avlodga, jamiyatga tutashib ketishi, oqibatda, katta fojialarni vujudga keltirishi mumkin. Ijodkor shaxsiyatini junbushga keltirishgan narsa ana shu. Jamiyatni, insoniyatni qiynaydigan, og'riqli, lekin dolzarb muammolar haqida, ularning oqibatlari haqida o'ylash ijodkor tabiatidagi to'lqinlarni uyg'otadi. Mazkur she'rda mazmun va shakl mutanosibliigi, mavzu dolzarbligiga hamohanglik hosil qilganki, hissiyotsiz, tuyg'ularsiz mutoalaaning iloji yo'q, ammo “So'z san'atida mazmun va shakl munosabatiga alohida ahamiyat berilar ekan, mavzu dolzarbligiga ortiqcha urg'u berib, badiiyat masalalariga e'tiborsizlik ham ijod qonuniyatlarini buzish bilan barobardir”.<sup>1</sup> Qolaversa, ijodkor she'riy misralarda “men”ligini kashf qila olgan. Adabiyotshunos I. Haqqul ta'kidlaganidek, “G'oyaga mutelik - ko'pchilikka tekkan kasallik. O'nlab shoirlarning shaxsi she'rdagi fikridan ancha past ko'rinadi. Shoirning yangi she'rlari emas, yangi “men”i tahsinga sazovor.”<sup>2</sup>

“Men” yangilanganda – she'r yangilanadi. Ya'ni ohang, obraz, tasvir va mahoratda o'zgarishga erishiladi. Bu – ijodda qayta tug'ilishdir”.<sup>3</sup> Umuman, Abdulla Oripov har bir she'rida o'zining yangi “men”ini kashf qilib, hayratga soluvchi shoirlardandir. “Chumolilar” nomli she'rda tinchlikni ulug'lash, birdamlik g'oyalari ilgari suriladi, butun insoniyatning muammosi bo'lgan urush qoralanadi. B.G. Belinskiy ta'kidlaganidek, “... shoir o'zi, o'z ishi haqida so'zlaganda, umuminsoniyat haqida so'zlaydi”

Tik devorda o'rib, o'rmalab,

Chumolilar qatnar tinimsiz.

(Yashash shuni etadi talab)

Balki ular indosh yo insiz.

Ko'ryapsanmi, uchrashib yo'lda

Gaplashganday bo'lar o'zaro...

Hey, insonlar, boqing bu yo'lda

Ko'tarilmas urush, mojaro.

“Muallifning voqelikka bo'lgan faol munosabati lirik “men”i kechinmalari orqali voqe bo'ladi. Shoir va lirik qahramon davrining ma'naviy yetuk, ruhan uyg'oq farzandi

<sup>1</sup> To'lakov I Hozirgi o'zbek lirikasida davr va qahramon talqini. Filol.Fan.dok...dis. – Toshkent. 1994. B.78

<sup>2</sup> Ibrohim Haqqul. Ruh. Erk va oshkoralik // O'zAS., 02.02.1990. 5-soni.

<sup>3</sup> Mirzo Kenjabek. Bahorim yellari, 104-bet.

sifatida atrofda voqea-hodisalarga o'zining his-tuyg'ulari bilan to'yingan munosabatini oshkora va dadil aytadi. Muallifning voqelikka bo'lgan shaxsiy munosabati badiiy asarda umumiylik kasb etib, ko'pchilik diqqatini tortadi"<sup>1</sup> L.Tolstoyning fikrlari diqqatga sazovordir. "Badiiy asarning butunligi, g'oyaning birligi, qatnashuvchi shaxslarning ishlanganligi kabilardan iborat emas, deb yozadi u, - balki butun asarga singdirilgan avtorning voqelikka bo'lgan o'z munosabatining ravshanligi va aniqligidan iboratdir".<sup>2</sup>

Xulosa o'rnida, E. Mejelaytisning "She'riyat o'z asri hodisalari, o'z davri g'oyalari bilan to'yingandagina boy va ahamiyatlidir",<sup>3</sup> degan fikrlari ayni bugunning she'riyati, Abdulla Oripov she'riyati haqida aytilgandek go'yo, qolaversa, Abdulla Oripov ijodida ijtimoiy-ma'naviy hayotda yuz beradigan voqea-hodisalarga badiiy munosabat bildirish asosiy tamoyillaridan biri ekanligini ham kuzatish mumkin.

## ONA TILI O'QITUVCHILARIDA ADABIY TALAFFUZ DARSNING MUHIM VOSITASI SIFATIDA

*G'iyos DO'STMURODOV,*

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dialekt ta'siriga tushib qolish sabablari, mahalliy sheva ta'sirida dars olib borish hamda uning oqibatlar,i bo'lajak ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilarining dars jarayonida adabiy tilda olib borishi uchun muhim sabablar, shuningdek, adabiy talaffuzni rivojlantirish yo'llari keltirib o'tilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются причины попадания под влияние диалекта, преподавания под влиянием местного диалекта и его последствия, важные причины, по которым будущие учителя родного языка и литературоведения должны преподавать на литературном языке в ходе обучения. на уроке, а также указаны пути развития литературного произношения.

**Abstract:** In this article, the reasons for falling under the influence of dialect, teaching under the influence of the local dialect and its consequences, the important reasons for future teachers of mother tongue and literature science to teach in the literary language in the course of the lesson, as well as literary pronunciation ways of development are mentioned.

**Kalit so'zlar:** dialekt, orfoepiya, adabiy talaffuz me'yori, bo'lajak o'qituvchi, me'yor.

**Ключевые слова:** диалект, орфоэпия, эталон литературного произношения, будущий учитель, эталон.

**Key words:** dialect, orthoepy, standart of literary pronunciation, future teacher, standart.

Nutq madaniyati haqida gap borar ekan, so'z urg'usi erkin bo'lgan tillarda, masalan, rus tilida urg'u me'yorlari masalasiga juda katta e'tibor beriladi[1:115]. Rus tilida urg'u qoidalari behad ko'p bo'lib, ularda xilma-xil xususiy va istisno holatlar ustundir, bu qoidalar umumiy xarakterga ega emas[2:157]. Boshqacha qilib aytganda,

<sup>1</sup> To'lakov I. Hozirgi o'zbek lirikasida davr va qahramon talqini. Filol.Fan.dok...dis. – Toshkent. 1994. B.78

<sup>2</sup> Lev Tostoy ob iskusstve I literature. B 2-x t. T.I,M:, 1958, str.223.

<sup>3</sup> Eduardas Mejelaytis. She'r - inson ruhi. // O'zAS., 1981,12-son.



urg‘u bilan bo‘g‘liq me‘yorlar turlicha miqdorni tashkil etadi. O‘zbek tilidagi urg‘u esa turg‘un bo‘lib, sanoqli istisno holatlar hisobga olinmasa, u, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi, qo‘shimcha qo‘shilgani sayin, so‘nggi bo‘g‘inga ko‘chib boraveradi: kutubxoná – kutubxonamíz – kutubxonamizdá – kutubxonamizdagí – kutubxonamizdagilár – kutubxonamizdagilardán kabi. O‘zbek tilida urg‘uning qo‘llanishidagi bu qoida kuchli me‘yor bo‘lib, hech qaysi o‘zbek unga amal qilishda yanglishmaydi, demak, uni alohida o‘rganish uchun ehtiyoj yo‘q. So‘zning oxirgi qismida bo‘lsa ham, – ta (o‘nta), – larcha (qahramonlarcha), – ma (borma), – gina (sengina), – dek (guldek), – mi (bildimi), – da (bildi-da), – man (ishlaganman) kabi qo‘shimchalarning urg‘u olmasligi yoki yangí – yángi, hozír – hózir kabi urg‘uning ko‘chishi istisno holatlar ko‘p emas. Buning ustiga ayni me‘yorlar o‘zbek xalq shevalaridagidan deyarli farq qilmaydi. Bu hol o‘zbek adabiy tilidagi urg‘u me‘yorlarini osonlik bilan o‘zlashtirilishiga imkon beradi. Shuning uchun urg‘u me‘yorlarini o‘zbek adabiy talaffuzi me‘yorlarining ichida qarash maqsadga muvofiqdir.

Orfoepiyani o‘qitishning nazariy asoslarini tushunish, shuningdek, bir qator ijtimoiy-lingvistik omillarni, shu jumladan ijtimoiy-madaniy omil va bo‘lajak ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish maktab ta‘limida orfoepik ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etishga yordam beradi.

Ma‘lumki, imloni o‘rganish o‘qituvchilar uchun ham, talabalar uchun ham uzoq va qiyin jarayondir. Shu munosabat bilan, dialektizmlar talabalar nutqidan to‘liq ko‘chirilgunga qadar adabiy talaffuz bo‘yicha dastlabki mashg‘ulotlar, so‘ngra imlo mashg‘ulotlari zarurligini ta‘kidlash lozim. Nutq texnikasini egallashda umumiy tarzda bo‘lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur. Ma‘lumki, tovushning fizik-akustik xususiyatlari uning balandligi, kuchi, tembri (bo‘yoqdorligi), cho‘ziqligi kabi sifatlardan tarkib topadi. Har qanday og‘zaki nutqning yashashini ta‘minlaydigan intonatsiyaning prosodik unsurlari bo‘lmish nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq tempi (tezligi), nutq tembri kabi tushunchalar asosida ham mazkur fizik-akustik xususiyatlar yotadi. Masalan, “nutqda ovoznning (tonning) baland-past tarzda to‘lqinlanishi melodikani yuzaga keltiradi, melodika esa gapning ifoda maqsadiga yoki emotsionallikka ko‘ra turlarini belgilashda, sintagmalarni, kirish so‘z yoki kiritma gaplarni ifodalashda muhim vosita sanaladi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, tebranish chastotasi nutqda boshqa akustik vositalar (urg‘u, tembr, temp kabilar) bilan munosabatga kirishib, murakkab tovushni hosil qilishi ham mumkin, bunday murakkab tovushlardan esa turli ekspressiv – stilistik maqsadlarda, ayniqsa, she‘riy misralardagi tovush tovlanishlarini tarkib toptirishda foydalaniladi”[3:23]. O‘qituvchi o‘z nutqida bu fonetik imkoniyatlar va qonuniyatlarni to‘g‘ri va o‘rinli namoyon eta bilishi lozim. Umuman, o‘qituvchi o‘zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg‘urishi, fonetika, fonologiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda bo‘lsa-da, xabardor bo‘lishi, kerak bo‘lganda, o‘z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib borishi maqsadga muvofiq[4:188]. Chunki tugal nutq texnikasisiz o‘qituvchining, har bir nutq tuzuvchining og‘zaki nutq madaniyatini aslo raso deb bo‘lmaydi.

Ushbu muammoni hal qilishda biz o‘zbek tilining tabaqalashtirilgan metodologiyasining umumiy pozitsiyasiga tayanamiz, bu bir vaqtning o‘zida imlo o‘rgatish va maktab o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni o‘z

zimmasiga oladi, garchi ko‘p hollarda talaffuz ko‘nikmalarini egallash imlo ko‘nikmalarini egallashga qaraganda sekinroq boradi.

Dialektizmlarni talabalar nutqidan ko‘chirish va ularni tegishli adabiy shakllar bilan almashtirish dialekt sharoitida imlo bo‘yicha muvaffaqiyatli o‘qitish uchun zarur shartlardan biridir. Qulay nutq muhiti mavjud bo‘lganda, me‘yorni assimilyatsiya qilish ko‘p harakat talab qilmaydi.

Ta‘limning bir qator zamonaviy ijtimoiy-lingvistik omillarini tushunish va hisobga olish zarurligini asoslaydi, ularning yetakchisi ijtimoiy-madaniy omil hisoblanadi.

Zamonaviy bo‘lajak ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari nutqining talaffuz madaniyatini shakllantirishga ta‘sir qiluvchi omillarni ko‘rib chiqish bugungi kunda yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy vaziyatni aniq tushunishga asoslangan adabiy talaffuzni o‘qitishning mavjud uslubiy strategiyasi va taktikasini sezilarli darajada tuzatish zarurati bor degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

O‘zbekistonning barcha mintaqalarida uning tabiati, xarakteri va rivojlanish dinamikasi, shuningdek, bo‘lajak ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilar yashaydigan hududning adabiy talaffuz me‘yorlarini o‘qitishning eng muhim shartlarini hisobga olgan holda, ulardan biri ularning talaffuz madaniyatining ma‘nosini anglashi va talaffuzning adabiy me‘yorlarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishi va istagini uyg‘otishdir.

Kognitiv qiziqishni shakllantirish bo‘lajak ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilariga adabiy talaffuzni muvaffaqiyatli o‘rgatish uchun zarur shartlardan biridir.

Orfoepiyani samarali o‘qitishning bir xil muhim sharti bo‘lajak ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari doimiy ravishda adabiy talaffuzni eshitishlari mumkin bo‘lgan nutq muhitini tashkil etish va ta‘minlashni o‘z ichiga olgan yagona nutq rejimini yaratishdir.

Yagona nutq rejimining mazmuni va uni tashkil etish usullari haqida gapirganda, shuni ta‘kidlash kerakki, rejim talablarini amalga oshirish bo‘yicha ishlar bu maktab jamoasi nutqining talaffuz madaniyati holatini, xususan, o‘qituvchining nutq madaniyatini, o‘quvchilarning talaffuz mahoratini oshirishdagi yetakchi rolini muhokama qilishdan boshlanishi kerak.

Shu munosabat bilan biz quyidagi vazifalarni qo‘ydik:

- o‘qituvchilarning talaffuz qobiliyatlari holatini aniqlash;
- bir qator qishloq va shahar maktablari o‘qituvchilarining orfoepiyani o‘qitishga bo‘lgan munosabatiga e‘tibor berish;
- qishloq maktablari o‘qituvchilari mahalliy dialekt sharoitida talaffuz me‘yorlarini qanday o‘rgatishlarini kuzatish.

Bo‘lajak ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ona tili shaxsiyatining tuzilishi, o‘quvchilarning til qobiliyatining individual tarkibiy qismlarining tarkibi va o‘zaro bog‘liqligi haqida aniq tasavvur, ularning orfoepiyani o‘qitishga bo‘lgan kognitiv qiziqishini rag‘batlantirish yo‘llarini aniqlash, to‘g‘ri adabiy nutqni o‘zlashtirish zarurligini maqsadli shakllantirish, zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda dialekt muhiti ta‘sirining tabiati va yo‘nalishini aniqlash, nutq eshitish maktab o‘quvchilarining yaxshi rivojlanishi, qishloq maktablarida ham yagona

nutq rejimini yaratish va maktabdan tashqarida qulay nutq muhiti va boshqa sharoitlar biz rejalashtirgan eksperimental o'quv dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarurdir.

Shunga ko'ra, bo'lajak ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining bir qator eshitish va artikulyatsion talaffuz qobiliyatlarini shakllantirish, turli didaktik materiallar, artikulyatsion gimnastika, o'yin va o'yin-kulgi elementlari, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish asosida bilimlarning yaxshi esda qolishi va barqarorligini ta'minlash kerak. Buning uchun quyidagi mashqlar tavsiya etiladi:

**1. Me'yoriy va me'yorlashmagan shakllanishlarni taqqoslash va taqqoslash uchun mashqlar:**

- mos keladigan tovushlar va harflar;
- dialekt va me'yorlashtirilgan fonetik xususiyatlarni taqqoslash;
- orfoepiyani biladigan va bilmaydigan talabalarning talaffuzini taqqoslash.

**2. Dastlabki orfoepik tayyorgarlikni o'z ichiga olgan mashqlar** (talabalar o'zlari tomonidan mavjud yoki amalga oshiriladi).

**3. So'zlarga to'g'ri talaffuz qilish va uning ma'no-farqlovchi funksiyasini ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar.**

**4. She'riy nutqni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantiradigan mashqlar** (ritm va qofiyani hisobga olgan holda).

**5. Yozma nutq ta'siridan tashqari, adabiy talaffuz ko'nikmalarini rivojlantiradigan mashqlar.**

Tovushlarning to'g'ri artikulyatsiyasini ishlab chiqishda uch turdagi darslar o'tkaziladi:

1. Ovozni to'g'ri talaffuz qilishga hissa qo'shadigan artikulyatsiya apparatini tayyorlash uchun mashg'ulot.

Maqsad: artikulyatsiya apparati harakatlarini o'rgatish.

2. Muayyan tovushning talaffuzini aniqlashtirish uchun mashg'ulot.

Maqsad:

- a) artikulyatsiya apparatini o'rgatish;
- b) bu tovushning talaffuzini aniqlashtirish (unga ega bo'lgan talabalar uchun);
- c) bu tovushni hosil qilish (unga ega bo'lmaganlar uchun).

3. Ushbu tovushning talaffuzini mashq qilish uchun mashg'ulot.

Maqsad:

- a) bu tovushning so'z bilan talaffuzini aniqlashtirish;
- b) talabaning talaffuzini yaxshilash;
- c) talabaning faol so'z boyligini oshirish.

Tovushni talaffuz qilishni mashq qilishga qaratilgan uch xil toifa mavjud:

- 1) aytilishi qiyin bo'lgan tovushni talaffuz qilishni mashq qilish;
- 2) tovushning so'zlardagi talaffuzini ishlab chiqish;
- 3) bog'lanishli nutqda tovush talaffuzini ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, til me'yorlarini o'zlashtirishning intensiv jarayoni asosan inson hayotining maktabgacha va maktab yillarida sodir bo'ladi. Shuning uchun to'g'ri og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda o'rta maktabning vazifasi o'ta muhim, biroq maktab o'qituvchisi adabiy talaffuz ko'nikmasiga ega bo'lmasa, o'quvchi uni to'la egallay olmaydi.

## ADABIYOTLAR

1. Асомиминова М. ва бош. Ўзбек адабий талаффузи лугати. Тошкент; Фан, 1984. 115 б.
2. Головин Б.Н. Современный русский язык. Ленинград: Просвещение, 1988. 157 б.
3. Жамолхонов Х.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1 - қисм. Тошкент, 2004. 23 б.
4. Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. Бакалавриятнинг “Ўқитувчилар тайёрлаш ва педагогика фани” билим соҳаси талабалари учун дарслик. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти –Тошкент. 2007. 188 б.

## **ЯЗЫК КАК ОБЪЕКТ СОВРЕМЕННОЙ ФИЛОЛОГИИ**

*Жанар Умирбековна СИДИРОВА,*

*преподаватель кафедры русского языка и литературы НавГПИ*

*Азиза ХУДАЙБЕРГЕНОВА,*

*студентка 2 курса направления «Русский язык и литература» НавГПИ*

**Аннотация:** В данной статье предпринимается попытка рассмотреть язык как объект современной филологии; естественно, что такой постановкой актуализируется проблема соотношения языка как объекта филологии и языка как предмета лингвистики.

**Ключевые слова:** язык, филология, лингвистика, объект, языкознание.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola tilni zamonaviy filologiyaning obyektini sifatida ko‘rib chiqishga harakat qiladi; tabiiyki, shu orqali tilning filologiya obyektini, tilning tilshunoslik predmeti sifatidagi muammoning dolzarbligi ko‘rilgan.

**Kalit so‘zlar:** til, filologiya, tilshunoslik, obyekt

**Abstract:** This article attempts to consider language as an object of modern philology; It is natural that such a statement actualizes the problem of the relationship between language as an object of philology and language as a subject of linguistics.

**Keywords:** language, philology, linguistics, object.

Современная филология представляет собой совокупность таких наук, как лингвистика, литературоведение и фольклористика, являющихся ее составляющими, а также ряда научных дисциплин, отмечаемых традиционно и современных, и отличается более сложным строением и устроенностью, чем даже в недавнем прошлом. Дело в том, что единство филологических наук и дисциплин обеспечивается объектами филологии, в число которых входят язык и текст; дисциплинами, общезначимыми с точки зрения интеграции составляющих филологии: гуманитарной семиотикой, филологической герменевтикой и теорией текста, которые и представляют собой своего рода «общефилологическую» базу всей совокупности в содержательном, но прежде всего в методологическом плане; существенна в рассматриваемом отношении и область междисциплинарного филологического знания, в которую входят прежде всего риторика, стилистика, поэтика. Описанная здесь ситуация в современной филологии сложилась как результат развития отдельных ее наук и дисциплин, роста взаимодействий между ними, качественных изменений в речевой коммуникации и науке рубежа 20-21 вв. Более того, единство человек и его язык становится центральной

смыслообразующей категорией гуманитарного знания вообще и филологического в частности [4].

Проблема языка как объекта филологии и предмета лингвистики восходит к лингвистическим традициям, у истоков которых стоят В. фон Гумбольдт и Ф. де Соссюр.

Приведём некоторые суждения В. фон Гумбольдта об отношениях филологии и языкознания: филология и языкознание - это «два разных направления в изучении языка». Если филология «исходит главным образом из сохранившихся памятников, стремится собрать и зафиксировать их для получения надежных сведений об античности», то языкознание «стремится постигнуть язык вообще» [313,169]. Ф. де Соссюр заявлял, что филология резко отличается от лингвистики: «Язык не является единственным объектом филологии: она прежде всего ставит себе задачу устанавливать, толковать и комментировать тексты. Эта основная задача приводит ее также к занятиям историей литературы, быта, социальных институтов и т.п. ...ее интересы лежат почти исключительно в области греческих и римских древностей». Язык востребован филологией для того, «чтобы сравнивать тексты различных эпох, определять язык, свойственный данному автору, расшифровывать и разъяснять надписи на архаических или плохо известных языках», в лингвистике же «язык представляет собою целостность сам по себе, являясь, таким образом, отправным началом классификации» [39, 44, 48].

Приведём обоснование данного тезиса, выдвинув на первый план проблему языка как объекта филологии.

Если языкознание, как и литературоведение и фольклористика, есть одна из наук, составляющих филологию, то можно предположить, что язык как предмет языкознания и есть язык как объект филологии. Это решение напрашивается в соответствии с логикой традиционной версии отношения системы и ее компонентов: признание объекта системой связывается с наличием взаимосвязи, взаимодействий компонентов объекта. Однако есть существенные препятствия для принятия такого решения.

Прежде всего: в современной науке о языке фактически существуют две разные лингвистики, одна из которых восходит к идеям Соссюра, другая – Гумбольдта, позиции которых методологически не близки и реализация идей которых в 20 веке дала принципиально различающиеся понимания языка. Каждая из лингвистик имеет свой предмет исследования: язык как систему или язык как деятельность. Недаром, например, Н.А.Слюсарева утверждает, что концепция Соссюра стала тем трамплином, от которого оттолкнулись многочисленные направления лингвистики нашего времени [19]; несколько ранее В. И. Постовалова констатирует фундаментальную значимость для языкознания концепции Гумбольдта [20].

Свои, «нелингвистические» представления о языке свойственны другим филологическим наукам, в первую очередь литературоведению, для которого язык есть составляющая словесного искусства [1257], а также филологическим дисциплинам - риторике, стилистике, поэтике, занимающим в современной филологии фактически междисциплинарное положение. Эти представления



находятся за пределами предмета лингвистики, но являются частью филологических.

Всякое определение языка - на современном этапе развития лингвистики - будет находиться, по убеждению современных ученых, в русле идей Гумбольдта или Соссюра или основываться на попытках совмещения их воззрений; в этом смысле любое концептуальное определение не покроем язык как предмет лингвистики, оно лишь сможет охарактеризовать какую-то из его сторон или несколько сторон, взятых в относительном (и противоречивом) единстве. Данная квалификация языка как предмета лингвистики соответствует традиции, заложенной Гумбольдтом (определившим предмет лингвистики как «язык вообще») и Соссюром («язык как целостность сам по себе» - вот предмет лингвистики); в этом отношении фундаментальных различий между рассматриваемыми авторами мы не видим. Важно другое: развитие этой традиции и приводит пониманию языка в лингвистике на основе сопряжения идей когнитивизма и коммуникативизма.

Разумеется, главное, что достигается обсуждением проблемы языка как объекта филологии, - это повышение статуса филологии как отрасли гуманитарного знания и на каждом историческом отрезке времени филологические науки, филология в целом получают - и это вполне закономерно - новые осмысления.

#### ЛИТЕРАТУРЫ

1. Гумбольдт В., фон. Избранные труды по языкознанию. - М., 1984 – С. 313, 169
2. Постовалова В.И. Язык как деятельность: опыт интерпретации концепции В. Гумбольдта. – М., 1982. – С. 20
3. Соссюр Ф., де. Труды по языкознанию - М., 1977 – С. 39-48
4. Слюсарева Н.А. О лингвистическом термине language – «языковая деятельность» // Язык: теория, история, типология. – М., 2000 - С. 19
5. Чувакин А.А. Заметки об объекте современной филологии // Человек – коммуникация – текст. - Барнаул, 1999. Вып. 3. – С. 4
6. Шапир М.И. Язык художественной литературы // Литературная энциклопедия терминов и понятий. – М., 2003 – С. 1257

#### СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ БЫТОВОЙ ЛЕКСИКИ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

*Насибахон Суранбаевна ТОЙЧИЕВА,*

*(Самаркандский государственный университет имени Ш Рашидова,  
Самарканд, Узбекистан)*

**Аннотация.** В статье рассматривается, сравнивается и сопоставляется некоторая бытовая лексика русского и узбекского языков и их образование, перевод бытовых терминов. Русский и узбекский язык отличается тем, что эти языки принадлежат к генетически разным семьям. Сравнительный анализ бытовой лексики русского и узбекского языков выявляет разные духовные и бытовые ценности, которые, отражают ментальную картину как русского, так узбекского народа.

**Ключевые слова:** интенсивный процесс, национальный язык, интернационализации жизни, инновационно-технический прогресс, социолингвистический регион, западно-европейский язык, актуальность, высококвалифицированных специалистов, формирование будущих специалистов, исследования учёных, префиксально-суффиксальный, связь, изучать, навыки, расширять, мировоззрение, значение и др.

**Annotation.** The article discusses, compares and compares some everyday vocabulary of the Russian and Uzbek languages and their formation, translation of everyday terms. The Russian and Uzbek languages differ in that these languages belong to genetically different families. A comparative analysis of everyday vocabulary of the Russian and Uzbek languages reveals different spiritual and everyday values, which reflect the mental picture of both the Russian and Uzbek people.

**Keywords:** intensive process, national language, internationalization of life, innovative and technological progress, sociolinguistic region, Western European language, relevance, highly qualified specialists, formation of future specialists, research scientists, prefix-suffix, communication, study, skills, expand, worldview, value, etc.

Лингвистическая ситуация в настоящем развивающемся мире характеризуется интенсивными процессами обновления словарного состава литературных языков. Эти развивающиеся процессы в самой высоко масштабной степени сказываются на развитии и состоянии бытовой лексики каждого из национальных языков, что общей интернационализации жизни во всем мире в значительной мере действуют достижения инновационно-технического прогресса, имеющие всемирный характер.

Нужно говорить о масштабных (\*знаменательных) вариантах интернационализации бытовой лексики. Одним из таких путей (является) представляется социолингвистический регион, объединяющий языки народов стран СНГ.

Сравнительное изучение бытовой лексики (терминологии) узбекского и русского языков свидетельствует о том, что имеется пласт лексики, заимствуемый многими языками из какого-либо одного языка.

Бытовая лексика представлена заимствованиями из западно-европейских языков (латинского, английского и других языков).

Вопрос функционирования терминов в каком-либо языке имеет свой объект, свою актуальность. Изучение специальной терминологии в процессе становления высоко квалифицированных специалистов-вопрос, имеющий свою значимость в процессе изучения бытовой лексики на занятиях по русскому языку, так как изучение русского языка направлено на формирование будущих специалистов. Сравнительный анализ бытовой лексики русского и узбекского языков позволяет выявить разные духовные и бытовые ценности, которые, отражают ментальную картину как русского, так узбекского народа.

Исследования доказали, что лексика узбекского и русского языков отличается тем, что эти языки принадлежат к генетически разным семьям.

Русский язык принадлежит к славянской группе индоевропейской языковой семье, а узбекский язык генетически принадлежит к группе тюркских

языков. Словарный состав узбекского языка богат узбекскими общетюркскими словами. Своеобразие сравниваемых языков проявляется в том, что бытовая лексика, отражающая сходные понятия, соотносится с разными символами, особенно важно, что в фольклоре и образно-речевом выступлении узбекского и русского народов фигурируют именно такие вещи, предметы и явления, которые типичны для его быта. И это типичное, оказывается, передает национальный колорит.

Узбекский язык очень богат и интересен. Лексика любого языка день за днем изменяется, обогащает язык новыми словами, это приводит к расширению его словарного состава. В нашем краю сложились благоприятные условия для обогащения лексики русского языка. Всем известно о том, что лексическая система, выполняя свою функцию как средство общения, создается и обновляется, чтобы адекватно отразить, воспроизвести и закрепить новые понятия в словах и выражениях. Бытовая лексика образуется префиксально-суффиксальным способом, например: бытов-ой, бытов- и-ть, крутить -на-крут-к-а; а часто в сочетании с суффиксацией био-туалет, агро-банк, усечение основ, особенно характерное для образования неологизмов в разговорной речи (бук- из букинистический магазин).

Обращение к словарю не обеспечивает правильности употребления бытовых терминологических словосочетаний.

Сопоставительное изучение бытовых терминологий узбекского и русского языков свидетельствует о том, что имеется пласт лексики, заимствуемый многими языками из какого-либо одного языка.

Рассмотрим на примере: основная функция пылесоса – почистить пыль – чангсурар чангюткич уй ва жихоз чангини суриб тозалайдиган аппарат.

Мясорубка-гушт майдалагич, киймалагич, сепаратор молочный- сут сепаратори, радиолокация- радиотулкин ёрдамида объектларнинг турган жойини аниклаш, сенокосилка- пичан хашак урадиган машина, сенопресс-пичан пресслайдиган машина, пичан пресслагич, сеносушилка- пичан куриткич, сеноуборочная машина –пичан уришга оид, пичан урадиган машина, скрепа, степлер – кискич бириктиргич, соковыжималка – ширакискич, шарбатсиккич (шира сувини сикиб оладиган асбоб еки машина, пекарня – нонвойхона, мясник – кассобхона, сольница – туздон, спичечница-гугурт кути, гугуртдон.

Радиатор – 1. Моторнинг сувини совитадиган мослама 2. бинони буг еки кайнок сув билан иситадиган асбоб.

Самостоятельный поиск активизирует мыслительную деятельность обучаемых, помогает увидеть сложные отношения между значениями полисемантических слов, обогащает словарный запас студентов.

На материале лексики можно также построить проблемные ситуации, при которых студенты сталкиваются с фактами, требующими объяснения.

Рассмотрим некоторые слова бытовой лексики узбекского языка и сопоставим с русским языком. Есть такие бытовые лексикон (термины) узбекского языка, когда сопоставляются с русским языком, нет вариантов этих слов в русском языке. Например: Арба-арава, бахча –1. богча;2. полиз; чопон-чабан, сундук-сандик, казань-козон, кастрюль-кастрюль, арбуз-тарвуз, кишмиш-кишмиш, майиз, йогурт-йогурт, каймак- каймок, компот- компот, шарбат, печь-печка,

халат- халат, игла-игна, чайник-чайнак, чай- чай, атлас-атлас, торт-торт, пирог-пирог, пирожки-пирожки, чебурек-чебурек, булочки-булочка и другие.

В русском языке термин бытовой-маиший хаёт кечириш .

В современной практике сравнительно-сопоставительного изучения языков можно выделить два основных типологических метода: 1) сопоставление двух или более языков с языком эталоном, от которого отталкиваются описания различных языков; 2) непосредственное сопоставление строя нескольких языков без сравнения с избранным языком эталоном.

Из представленных, вторая методика более приемлема.

Анализируя структуру языка, принято характеризовать строй русского языка - как синтетический.

При сопоставлении языков (русского и узбекского) важное значение приобретает изучение глубиной и поверхностной структур, точно взятых языковых категорий.

Сравнительно-сопоставительный анализ русского и узбекского языков позволяет установить, что в русском языке средства выражения слов и словосочетаний отличаются большим структурным разнообразием. Связь между языками помогает нам изучать навыки, расширяет мировоззрение, даёт новые значения, средства, присущие языку.

Язык отражает все изменения, происходящие в жизни общества, поэтому среди тех предметов, с которыми мы сравниваем, появляются новые слова, обозначающие новые явления, предметы.

Одно и то же слово, обозначающее конкретный предмет, может использоваться в разных сравнительных конструкциях, получая при этом разные смыслы, выполняя разные функции.

В русском языке встречаются сравнения, в которых что-то с чем-то сравнивают, обозначаются заимствованным словом. Например: йогурт-йогурт, кофе- кофе, какао- какао, имидж-имидж, компьютер- компьютер, пульт- пульт, телевизор- телевизор, зангори экран, банка- банка, крышка-крышка, копкок и другие.

Таким образом, изучения узбекской и русской бытовой лексики показывает, что типологическое изучение традиции, обряды и бытовая лексика двух народов имеет важное значение.

#### **ЛИТЕРАТУРА**

1. Акишина А.А., Формановская Н.И. Русский речевой этикет. М., Русский язык., 2001
2. Балкина Н.В. Учебное пособие по научному стилю речи. 1-2 ч. М., РУДН, 2002.
3. Гак. В. Г. Сопоставительная лексикология. -М.; Международные отношения.,1997.-264 с.
4. Ожегов С. И., Словарь русского языка.-М.: «Русский язык», 2004.

#### **СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРИЧАСТИЙ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ**

***Барно Муминжонова МУСАЕВА,  
преподаватель Навоийского государственного  
педагогического института, г.Навои, Узбекистан***

**Аннотация:** в статье речь идет о причастиях в русском и узбекском языках. В частности, причастие в обоих языках накапливает как признаки мотивирующего их глагола, так и признаки прилагательного. Значение причастия обусловлено в двух генетически неродственных языках структурой причастия.

**Ключевые слова:** причастие, глагол, прилагательное, действительные причастия, страдательные причастия, причастный оборот.

**Annotatsiya:** maqolada rus va o‘zbek tillaridagi sifatdoshlar haqida so‘z boradi. Xususan, ikkala tilda ham sifatdosh fe‘l va sifat xususiyatlariga ega. Sifatdoshning ma‘nosi genetik jihatdan bog‘liq bo‘lmagan ikkita tilda sifatdoshning tuzilishi bilan belgilanadi.

**Kalit so‘zlar:** sifatdosh, fe‘l, majhul nisbat, sifatdosh oborot.

**Abstract:** the article discusses participles in the Russian and Uzbek languages. In particular, the participle in both languages accumulates both the signs of the verb motivating it and the signs of the adjective. The meaning of the participle is determined in two genetically unrelated languages by the structure of the participle.

**Keywords:** participle, verb, adjective, real participles, passive participles, participial turnover.

Необходимо отметить, что языки являются сложными целостными системами, и их сравнение без последовательного изучения конкретных языковых элементов представляют большие трудности. По этой причине очень важно сопоставлять и сравнивать отдельные элементы и грамматические формы этих языков.

Так, подробное сравнительная характеристика состава, значений и функций причастий в данных языках позволит выявить как их сходные, так и отличительные особенности.

Причастия, как одна из сложных функциональных форм глагола, всегда привлекают к себе внимание лингвистов. Причастие – является сложным образованием, так как в нём, по словам В. В. Виноградова, столкнулись «две стихии» – прилагательного и глагола. Благодаря своей двойственности, причастие является довольно гибкой формой с точки зрения синтаксического строя языка. Причастия – это «поток форм», который идет непосредственно от глагола и внедряется в систему прилагательных. [2].

**Причастие (Sifatdosh)** – особая форма глагола, обозначает признак предмета по действию. В русском и узбекском языках причастие сочетает в себе свойства глагола и прилагательного.

В узбекском языке причастие сочетается с существительным по типу связи примыкание (bitishuv): *ishlayotgan kishi, uxlayotgan bola*. В предложении выполняет функцию определения. В русском языке причастие может находиться перед или после существительного и согласуется с ним в роде, числе и падеже. Такая связь называется согласованием. Например, *на столе лежало написанное письмо. На столе лежали написанные письма. Мальчик, прочитавший письмо, приехал из Самарканда. Девочка, прочитавшая письмо, приехала из Самарканда*. В русском языке есть термин “причастный оборот”. Причастный оборот (ПО) — это причастие с зависимыми словами. Если причастный оборот стоит после



определяемого слова, он обособляется. *Дети, играющие во дворе, вдруг разбежались по домам.* Если причастный оборот стоит перед определяемым словом, он не обособляется. *Играющие во дворе дети вдруг разбежались по домам.*

Причастие в узбекском языке имеет следующие формы:

1) o'tgan zamon sifatdoshi (причастие прошедшего времени) – образуется с помощью аффикса -gan: o'qigan (читавший, прочитавший), yozgan (написавший) и т.д.;

2) hozirgi zamon sifatdoshi (причастие настоящего времени) образуется от деепричастий на аффикс -a(-y) с аффиксом -yotgan: kelayotgan (идуший), ishlayotgan (работающий), sakrayotgan (прыгающий), o'unayotgan (играющий);

3) hozirgi - kelasi zamon sifatdoshi (причастие настоящее - будущего времени) образуется с аффиксом -digan: ishlaydigan (работающий или тот, который будет работать), yozadigan (пишущий или тот, который будет писать);

4) причастие имеет отрицательную форму, которая образуется с аффиксом -ma, этот аффикс прибавляется сразу после корня или основы: chizmagan, chizmayotgan (не рисующий), chizmaydigan (не рисующий);

Пространственно-временной аспект сказок как самостоятельная область научного изучения авторами не рассматривался. Д.С. Лихачев и В.Н. Топоров в своих работах обосновали концепции художественного времени и пространства в русских сказках. Огромный научный интерес представляют работы крупнейших исследователей-культурологов Д.С. Лихачева, разработавшего концепцию «замкнутого времени» сказок, Ю.М. Лотмана, давшего понятие географического пространства, а также М.М. Бахтина, А.А. Шайкина, В.Н. Топорова, И.П. Смирнова [7]. «Замкнутое время» сказок основано на понимании инерциональности, непостижимости, вечности времени, проявляющегося в периодичности схожих процессов: времен года, начало и окончание сельскохозяйственных работ и т.д. в соответствии с различиями их ощущений и рефлексии. Анализ научных позиций этих исследователей позволил выявить особенности философско-культурологические основания для характеристики основополагающих черт концептов пространства и времени в русской сказке.

В основе природы генезиса сказки в исследовании лежит теория В.Я. Проппа о родстве сказки и мифа всех народов мира и отражение в ней забытых древних обрядов, которые были свойственны ранним традиционным обществам.

В исследовании пространства и времени в философско-культурологическом ключе, были рассмотрены: историческое пространство, социальное, психологическое, онтологическое и художественное. Так, выявление исторического пространства в русской сказке основано на работах Б.А. Рыбакова, С.А. Плетневой, Г. Бокля, А.И. Треножкина, А. Полетаева, С.В. Савченко, И. Савельевой, Чой А. Енга, О. Шпенглера. Тема социального пространства и основных методологических подходов к социально-гендерному устройству общества представлена в трудах таких авторов, как П. Бурдьё, Э. Гофмана, О.В. Рябов, В.Н. Виноградова.

Психологические и дидактические исследования русских сказок посвящены изучению осознанных и неосознанных процессов рефлексии архаического общества и особенности восприятия времени и пространства. Выявление психологического аспекта пространства сказок основано на работах Б.Г. Ананьича, В.Н. Мясичева, Л. С. Выготского, Л.И. Божовича, В.А. Моляхо, Е.В. Субботского, М. Бодкина, Ж. Пиаже, К.Г. Юнга, Дж. Кэмбела, Н. Фрая, Ж.

Дюрана, Ж.П. Сартра. Сказка является одним из важных источников исследований проблем телесности культуры, этнопсихологии народов.

В диссертационном исследовании о родстве природы, климата и мировоззрения, единства мифа и русской сказки, И.А. Ильин определил ее особое значение, рассматриваются работы исследователей евразийской школы И.А. Ильина, Б.П. Вышеславцева, Е.Н. Трубецкого. Ученый выявил связи русской сказки с последующей литературной традицией России. Е.Н. Трубецкой исследовал ментальные основания, характеристики русского национального характера, отраженные в русской сказке [8].

Советские ученые-фольклористы Померанцева, Е.М. Мелетинский, В.П. Аникин, С.Ф. Елеонский, М.К. Азадовский, Н.М. Ведерникова продолжили сбор сказок в различных областях бывшего Союза. Накопленный материал стал основой лингвистических, этимологических, ономастических изучений.

Современные исследования русской сказки представлены, прежде всего, работами филологов. Представители этого направления (Т.В. Зуева, М.Е. Протасова, Ю.С. Подлубнова, Т.И. Гулянкова, И.Н. Райкова, А.С. Жиликов, О.Г. Горбачева, В.П. Шустов, В.А. Черванева), изучая пространственно-временные характеристики русской сказки, определяют, прежде всего, основы лексического построения, использования смыслообразующих понятий, сравнений, словесных формул, жанровых особенностей. В тени остаются философско-культурологические аспекты, запечатленные в волшебных сказочных образах.

Для объяснения генезиса русской сказочной традиции применяется теория В.Я. Проппа о происхождении волшебной сказки. Для выявления темпоральных характеристик используется теория замкнутого времени сказок, предложенная Д.С. Лихачевым и предполагающая цикличность и временную повторяемость событий.

Таким образом, ситуация, в которой пространство и время объединяются, то есть понятие хронотопа («хронотоп», греч. – время-пространство), – лингвокультурологическая реальность. Можно даже говорить о реальности исторической: «Пространственное понимание времени нашло своё выражение в древних пластах многих языков, и большинство временных понятий первоначально были пространственными» [9]. Термин «хронотоп» широко использовал М.М. Бахтин, который указал на его сюжетобразующую роль и назвал его формально-содержательной категорией, так как «вступление в сферу смыслов совершается только через ворота хронотопов» [10].

#### ЛИТЕРАТУРЫ

1. Арутюнова Н.Д. Время: модели и метафоры // Логический анализ языка: Язык и время. М., 1997. С. 51-61.
2. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М., 1975. 445 с.
3. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. М., 1972. 614 с.
4. Всеволодова М.В., Владимирский Е.Ю. Способы выражения пространственных отношений в современном русском языке. М.: Русский язык, 1982. 262 с.
5. Гуревич А.Я. Время как проблема истории культуры // Вопр. философии. 1969. № 3. С. 74-97.
6. Кучевский В.Б. Философское учение о бытии и субстанции. М., 1993. 128 с.

7. Лотман Ю.М. В школе поэтического слова: Пушкин. Лермонтов. Гоголь: кн. для учителя. М.: Просвещение, 1988. 352 с.
8. Маслова, В.А. Когнитивная лингвистика: Учебное пособие. 2-е изд. Мн.: Тетра Системс, 2005. 256 с.
9. Основы построения функциональной грамматики русского языка нерусским. Коллективная монография. М.: Изд-во Башкирского ун-та, 1991. 185 с.
10. Парнюк М.А., Причепий Е.Н. Пространство и время. Киев: Наукова думка, 1984. 294 с.
11. Щукин В.Г.

## TILSHUNOSLIKDA EKOLINGVISTIKA OMILI

*Bahora AVAZBERDIYEVA,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada tilshunoslikning bugungi kunda rivojlanib kelayotgan sohalaridan biri ekolingvistika g‘arb tilshunoslarining ilmiy izlanishlari misolida o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologiya, tabiat, lingvistika, ekologik tizim.

**Abstract:** In the article, one of today's developing fields of linguistics, ecolinguistics, is studied as an example of the scientific research of Western linguists.

**Key words:** ecology, nature, linguistics, ecological system.

Tarixdan ma'lumki, ekologiya atamasi ilk bora Ernst Hekkel tomonidan qo‘llangan. Mazkur soha hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xalqaro hamda global muammolarni ham ifodalashi va fanning har bir sohasiga chuqur kirib borishi haqida hech kim o‘ylab ham ko‘rmagan edi. Bugungi kunda ekologiya fani biologiya, kimyo, fizika, geologiya kabi tabiiy fanlar bilan bir qatorda ijtimoiy psixologiya, tilshunoslik, huquqshunoslik kabi fanlarning ham bir bo‘lagiga aylanib ulgurgan va bu sohalarida zamonavuy tadqiqotlar olib borilmoqda. Atrof-muhitning insonlar hayotiga ta'siri turli olimlar tomonidan ilmiy jihatdan ham tadqiq etilgan. Bu sohada, ayniqsa, g‘arb tilshunosligida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Xarald Harman lingvistik xatti-harakatni aniqlaydigan 7 ta atrof-muhit o‘zgaruvchisini aniqlaydi: demografik, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ruhiy, interaktiv, lingvistik. Uning nazariyasiga ko‘ra, bu o‘zgaruvchilarni ajratib bo‘lmaydi, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va o‘zaro ta'sir qiladi va shu bilan "ekologik tizim" ni tashkil qiladi. Shunday qilib, ekologik tizim yettita atrof-muhit o‘zgaruvchisining o‘zaro bog‘liqligi bo‘lib, pirovardida bir butundir.

Tilshunoslik ekologiyasi tillarni bir-biriga va turli ijtimoiy omillarga bog‘liq holda o‘rganadi hamda bu soha fanda til ekologiyasi yoki ekolingvistika sifatida ham tanilgan. Tilshunoslikning bu sohasiga professor Eynar Haugen o‘zining “Til ekologiyasi” (Stenford universiteti nashriyoti, 1972) kitobida asos solgan. Haugen til ekologiyasini “har qanday til va uning muhiti o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni o‘rganuvchi fan” deb ta’riflagan. Hozirgi kunda dunyo miqyosida Xalqaro Ekolingvistika Assotsatsiyasi faoliyat yuritayotgan bo‘lib, mazkur jamiyat til ekologiyasini shunday ta’riflaydi: “Ekolingvistika tilning odamlar, boshqa turlar va jismoniy muhitning hayotni



ta'minlovchi o'zaro ta'siridagi rolini o'rganadi. Birinchi maqsad - odamlarni nafaqat jamiyatning bir bo'lagi, balki katta ekotizimlarning bir qismi sifatida ko'radigan lingvistik nazariyalarni ishlab chiqishdir. Ikkinchi maqsad - iqlim o'zgarishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishidan tortib ekologik adolatgacha bo'lgan asosiy ekologik muammolarni hal qilishda tilshunoslikdan qanday foydalanish mumkinligini ko'rsatishdir."

Alvin Fill birinchi bo'lib ekolingvistikaning turli sohalari uchun aniq terminologiyani ishlab chiqdi. Hammasi bo'lib u uchta yo'nalishni aniqladi:

1. Ekolingvistika ekologiya va tilshunoslikni birlashtirgan barcha fan sohalari uchun umumiy atamadir;
2. Til ekologiyasi - tillar xilma-xilligini saqlash uchun tillarning o'zaro ta'sirini o'rganadi;
3. Ekologik tilshunoslik ekologiyaning atama va tamoyillarini tilga o'tkazadi (masalan, ekotizim tushunchasi);

Umuman olganda esa ekolingvistika lingvistik (til) ekologiya, til va "ekologik" masalalar o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Ekolingvistika shakllanishida har bir xalqning yashash muhiti va tabiat ekologiyasi juda muhim ahamiyatga egadir. Masalan, eskimoslarda "qor" so'zining turli 100 dan ortiq ma'nolari mavjud va aynan qor so'zining buncha ko'p ma'no ifodalanishida ham ularning maishiy hayotida atrof-muhitning qor bilan o'ralganligi ham sabab bo'lgan.

Ekolingvistika fani o'zbek tilshunosligida hali qo'l urilmagan sohalardan biri hisoblanadi va bu haqida A.Sobirov hamda Z.Jo'raboyevalarning "Ekolingvistikaning dolzarb muammolari" maqolasida tahlil qilingan<sup>1</sup>. Maqolada "suv", "qor" kabi leksemalar ekolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan hamda ma'nolari o'rganilgan. Bu esa o'zbek tilshunosligida yangi yo'nalish ochilib, ilmiy izlanishlar olib borilayotganidan darakdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. Toshkent, O'zFA nashriyoti, 2012-yil 1-son.
2. E. Haugen. The ecology of language. Scientific book. Stanford University Press, 1972.

### **ASQAD MUXTOR IJODIDA TAKROR VA UNING QO'LLANISH USLUBIYATI ("Chinor" romani misolida)**

*Matlyuba Alikulovna SINDAROVA,  
SamDU Lingvistika yo'nalishi 1 -kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Asqad Muxtorning "Chinor" romani badiiy personajlarining ichki kechinmalarini namoyon etishda takror san'atining o'ziga xos o'rni va tahliliga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Alliteratsiya, epifora, rifma, anafora, assonans, konsonans, monorim, pleonazm, tavgalogiya, naqorat, personaj, stilistik vosita, hissiyot, emotsionallik.

**Abstract.** This article is devoted to the unique role and analysis of the art of repetition in the manifestation of the inner experiences of the characters of the novel "Chynor" by Asqad Mukhtar.

---

<sup>1</sup> O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2012, 1-son

**Key words:** Alliteration, epiphora, , rhyme, anaphora, assonance, consonance, monorhyme, pleonasm, tantology, refrain, , character, stylistic device, emotion, emotionality.

**Аннотация.** Эта статья посвящена уникальному стилю и анализу искусства повторения в показе внутренних опытов художественного персонажа планорамного романа Аскад Мухтора «Чинар».

**Ключевые слова:** Аллитерация, эпифора, рифма, анафора, ассонанс, консонанс, моноритм, плеоназм, тавтология, припев, персонаж, стилистический приём, эмоциональные чувства

Asqad Muxtor o‘zbek tili lug‘at fondining naqadar boyligini va stilistik jihatdan har jabhada jilolana olishini mukammal darajada seza olgan yozuvchilarimiz sirasiga kiruvchi betakror ijodkordir. So‘zimiz isboti sifatida biz maqolamizda adibning asarlaridan biri “Chinor” romanini tahlil qilgan holda, ijodkorning badiiy tilning emotsionalligini, ekspressivligini oshirishga xizmat qiluvchi stilistik figuralardan biri aynan takrorlardan qay darajada foydalanganlik mahorati to‘g‘risida fikr yuritimiz. “Tilshunoslik va adabiyotshunoslikdan yozilgan ayrim ishlarda alliteratsiya, epifora, rifma, anafora, assonans, konsonans, monorim, pleonazm, tavgologiya, naqorat kabilar takrorning turli xil turlari tarzida ko‘rsatiladi “ .<sup>1</sup>

Takror stilistik figuralarning bir xil tarzda qo‘llanadigan bir ko‘rinishi bo‘lib, misralarda matn tarkibida asosiy ma‘noni ifodalayotgan yoki aynan kitobxon e‘tiborini qaratish maqsadida qo‘llanilgan leksik birliklarning takrorlanib kelishiga asoslanadi. “Birgina takrorning o‘ttizga yaqin, masalan, alliteratsiya, anafora, akromonogramma (epanalepsis, epanafora, anadiplozis), antistrofa, antanaklasa, antonomaziya, antimetabole, metabola, naqorat, monorim, pleonazm, rifma, tavgologiya, sharh, epifora, epistrofa, epanod, epanastrofa, qurshab olish, qaytalanish, halqa, bog‘lam kabi turlarining mavjudligi badiiy uslubda ifoda -tasvir imkoniyatlarining naqadar kengligidan dalolat beradi”.<sup>2</sup> Bu esa yozuvchi yoki shoirning ijodiy uslubi ko‘tarinkiligiga, poeziyada vazn o‘lchoviga, nasrda obrazning psixologik holatini to‘laroq ochib berishga xizmat qiladi. Asqad Muxtorning “Chinor” romanida takrorlardan aynan mana shunday asar qahramonlarining kayfiyatini, ruhiy holatini, ichki kechinmalarini bayon etishdagi hissiyotlarini tasvirlab berish maqsadida yozuvchi tomonidan o‘ziga xos bir mahorat bilan foydalanilgan.

Asardan misol keltiramiz: *Kimdir qo‘rqmadi, u qo‘rqdi. Bir zumgina qo‘rqdi. Bir zum... Bir zum. O‘sha hal qildi. Qaytmoqchi ham bo‘lgan edi, qaytmadi. Yashik... og‘ir, sementli yashik... Qaytmadi. Qo‘rqdi. Bir zumgina qo‘rquv... Endi qochish kerak! Qochish kerak! - Qochish kerak!!! ( 218-bet).* Ushbu jumlar ketma-ketligida adib avval “kimdir qo‘rqmadi” jumlasini keltirib Bektemirning jasoratiga ishora qilgan bo‘lsa, ortidan unga zid tarzda “qo‘rqdi”, “bir zum”, “qaytmadi”, “yashik”, “qochish kerak” so‘zlarini qayta-qayta qo‘llash orqali Akbaralining naqadar ojiz nuqtada qolganini, bir lahzada kechgan qo‘rquvi uning boshqa barcha xislaridan ustun kelganini, qaytmoqchi bo‘lganida ham qaytmay ojizlik qilgani va qo‘rqoqlarcha qochishga qaror qilganini ochib berganini ko‘ramiz. Adib “yashik” so‘ziga ham alohida

<sup>1</sup> Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent. 1977. 127-bet.

<sup>2</sup> Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand. 1994. 43-bet.

urg‘u bergan, uning og‘ir va sementli yashik ekanligini, bunda Akbaralining uni ko‘tarishga ko‘zi yetmay , urunib ham ko‘rmay qo‘rqoqlik qilganini aytmoqchidek go‘yo...

Asardan yana misol keltiramiz: (Keyingi o‘rinlarda “asardan” so‘zi yakka beriladi) *Sharofat xolaning yuragi qinidan chiqayozdi. “Olib kira qol, olib kira qol, bolam!” derdi pichirlab.* Bu jumlada Sharofat xola o‘g‘li Akbaralining vijdon azobida qiynalib, o‘z ruhiyati bilan o‘zi olishib, odamlarga qo‘shilmay yurgan kezlarida tanishgan qizi bilan ko‘chada suhbat qilib turganini ko‘rib qoladi va uni uyga olib kirishini , u bilan suhbatini davom ettirishini, shu orqali o‘g‘li dard-u sitamlarini oz bo‘lsada unutishini, u bilan ovunishini ich-ichidan xohlaganini adib so‘zlarning takrori orqali chiroyli ochib beradi. Yoki: – **Men o‘ldirdim sizni, oyijon, men o‘ldirdim, men, men, men!..** – derdi Akbarali ikki qo‘li bilan salqi yuzlarini changallab. (229-bet). Bu jumlada esa adib qahramonining ruhiyatida kechgan vijdon azobi tug‘yonlarining kulminatsion nuqtaga yetganligini ,poymonasi to‘lganligini, farzandining ruhiy azoblarini ko‘rib chidolmay olamdan o‘tgan onasining o‘limida o‘zini ayblayotganligini,o‘zini uning qotiliday his qilayotganligini “men” so‘zini qayta -qayta ta’kidlash orqali ochib bergan.

Asardan: “*Men Akbaraliman!*” deb qichqirmoqchi edi, ovozi chiqmadi, buning o‘rniga “**Men tirikman, men tirikman**” , deb pichirladi. (237-bet) Navbatdagi jumlada esa qahramon o‘zining qabriga gul qo‘yayotgan bolalarga qarab turib baralla “**men tirikman, mana men**” deyishni istayotgani, ammo ichidagi aybdorlik hissi unga to‘sqinlik qilib ovozini bug‘ayotgani, u mavjudligini aytmoqchi, ammo aytolmayotgani, “men tirikman, men tirikman” deya o‘z-o‘zigagina pichirlashga jur‘ati yetganligi adib tomonidan takror jumlar yordamida kitobxonga yetkazib berilgan...

Asardan: **Meni hech kim tanimayapti bobo! Hech kim tanimayapti....** deb yig‘lab yubordi Akbarali qissasini tugatar ekan. **240- bet.** Ushbu jumlada esa Akbaralining bobosi Ochil buvaga boshidan kechirgan tug‘yonlarini zo‘r -bazo‘r aytib ,o‘zini yig‘lashdan-da zo‘rg‘a ushlab turgan ruhiy holatida, unga alam qilib ketgan ”meni hech kim tanimayapti” degan ohirgi jumla, uni yig‘latdi, o‘zi tirik bo‘la turib , olamdan o‘tgan o‘zining yodichalik izzatga loyiq emasligi unga shunchalik alam qilayotgani, uni hech kim tanimayotgani takrorlar yordamida kuchaytiri tasvirlangan.

Asardan yana bir nechta namunalar keltiramiz: Nazarida, Berger uning o‘ziga tikilib o‘tirganini sezyapti Umida esa o‘chakishgandek yana tikildi, agar hozir gapini to‘xtatib, **qayrilib qarasa... Qayrilib qarasa... 274-bet.** Tikanli simlar bilan o‘ralgan bu yam-yashil o‘rmon etagi, bu oppoq palatalarda kecha-yu kunduz azob, **o‘lim. O‘lim, azob, o‘lim... Ozoda o‘lim,** kasalxona sharoitida, qonuniy **o‘lim. 277-bet. Yana o‘lim! Yana o‘lim!**- deb baqirdi nemis. **286-bet. Yo‘q, yo‘q, so‘nggi gapim, rost gapim,**--dedi Vatslav. Men kasal emas ekanman. To‘rt marta kesdi. Tirik odamga bemalol pichoq soladi. Qassob! Jallod! **Qochinglar** bu yerdan! Hozir... **Qochinglar... 287-bet** -Ha, - dedi u, - men ham **kasal emasman. Kasal emasman,** endi tushundingizmi? **287- bet.** Yuqoridagi jumlalarda esa asar qahramoni o‘zining va o‘ziga o‘xshagan “bemor”larning majburiy yolg‘onlar aro bir “kasalxonada”da, kasal bo‘lmagan insonlarni kasalligiga ishontirib, ularning sog‘tanalari ustida tajribalar o‘tkazilayotganini bilib qolgani va bunga bemorning istehzoli, alamli, nafratli, kinoyali munosabati ochib berilgan...

Umuman olganda yuqoridagi barcha namunalarda Asqad Muxtor takrorlardan ko‘proq aynan bir so‘z yoki jumlaning bir o‘rinda qayta qo‘llashi va bu bilan u ta’kid, chaqiriq, qo‘rquv, hayajon ottenkalarini kuchaytirib ko‘rsatishda alohida ustalik bilan foydalangan.. Shu bilan birga ushbu namunalarda so‘z va so‘z birikmalaridan tashqari to‘liq gaplardan ham takror sifatida foydalanilgan. Bu gaplarda to‘liq hukm ta’kidlanib kitobxonning diqqatini to‘laligicha qamrab olish maqsadi ko‘zda tutilgan.

Shu o‘rinda yozuvchi tomonidan qo‘llangan ushbu takrorlarni shaklan bir necha toifalarga ajratib chiqishimiz mumkin. Yani yakka so‘zdan iborat bo‘lgan takrorlar, so‘z birikmasi shaklidagi takrorlar hamda gaplarning takrorlanishidan hosil bo‘lgan takrorlar. Masalan:

**1. Yakka so‘zli takrorlar:** -- Kimdir qo‘rqmadi, u qo‘rqdi. Bir zumgina qo‘rqdi. Bir zum... Bir zum. O‘sha hal qildi. Qaytmoqchi ham bo‘lgan edi, qaytmadi. Yashik... og‘ir, sementli yashik... Qaytmadi. Qo‘rqdi. Bir zumgina qo‘rquv... Endi qochish kerak! Qochish kerak! -- Qochish kerak!!! **218-bet.** -- Men o‘ldirdim sizni, oyijon, men o‘ldirdim, **men, men, men!**.. – derdi Akbarali ikki qo‘li bilan salqi yuzlarini changallab. **229- bet.** – **Yolg‘on! Yolg‘on! Bas. Qo‘rqmayman!** – deb qichqirib yubordi u. **233-bet.** -- Akbarali Bektemir akaning baxtiyor kulib turgan yuzini ko‘z oldiga keltirdi, u konchi formasini kiyganda qanday quvonib ketgan edi: “ **Yarashdi, yarashdi, Bektemir aka!**”. “ Ha, yaqinda o‘zimga ham tegadi!..” **238-bet.** --Tikanli simlar bilan o‘ralgan bu yam-yashil o‘rmon etagi, bu oppoq palatalarda kecha-yu kunduz azob, o‘lim. O‘lim, azob, o‘lim... Ozoda o‘lim, kasalxona sharoitida, qonuniy o‘lim. **277-bet.** -- Yo‘q, yo‘q, so‘nggi gapim, rost gapim,--dedi Vatslav. Men kasal emas ekanman. To‘rt marta kesdi. Tirik odamga bemalol pichoq soladi. Qassob! Jallod! **Qochinglar** bu yerdan! Hozir... **Qochinglar. 287-bet.**

**2. So‘z birikmasi shaklidagi takrorlar:** Kimdir qo‘rqmadi, u qo‘rqdi. Bir zumgina qo‘rqdi. **Bir zum... Bir zum.** O‘sha hal qildi. Qaytmoqchi ham bo‘lgan edi, qaytmadi. Yashik... og‘ir, sementli yashik... Qaytmadi. Qo‘rqdi. Bir zumgina qo‘rquv... Endi qochish kerak! Qochish kerak! **218-bet.** Taqdir ekan shekilli. Shum taqdir yetaklab ketyapti uni. “**Ona vasiyati. Ona vasiyati...**” deb takrorlardi ichida nimagadir dalil keltirayotgandek. **231-bet.**

**3. Gap shaklidagi takrorlar:**– Men o‘ldirdim sizni, oyijon, **men o‘ldirdim, men, men, men!**.. – derdi Akbarali ikki qo‘li bilan salqi yuzlarini changallab. **229- bet.** --“ Men Akbaraliman!” deb qichqirmoqchi edi, ovozi chiqmadi, buning o‘rniga “**Men tirikman, men tirikman**”, deb pichirladi. **237-bet.** - **Meni hech kim tanimayapti bobo! Hech kim tanimayapti...** deb yig‘lab yubordi Akbarali qissasini tugatar ekan. **240- bet.**

O‘zbek adabiyotida qo‘llangan takrorlarning aynan takrorning qaysi turiga xosligi ko‘proq she‘riy asarlar tahlillari bilan ochib berilgan ilmiy ishlarni ko‘proq uchratamiz. Ularda asosan epistropa, epifora, anafora, assonans, alliteratsiya, rifma kabi takror turlarining o‘ziga xos turli shakllarda qo‘llangan bo‘lsa-da, ammo ushbu takror turlari lirik asarda qo‘llanadimi yoki epik asarda qo‘llanadimi maqsadi bitta, badiiy asarning qaysidir o‘rinlarida ma‘noni ta’kidlab, alohida ajratib, ba‘zan bo‘rttirib ko‘rsatishga, ma‘lum o‘rinlarda kitobxonning diqqatini kuchliroq jalb qilishga qaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, takror san‘ati adib maqsadini amalga oshirishda qo‘l keladigan asosiy tasvir vositalaridan biri sifatida xizmat qilgan. Adib takror san‘atining bor imkoniyatlaridan yetarlicha o‘ziga xos mohirlik bilan foydalana olgan...



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand. 1994. 43-bet.
2. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. Samarqand. 1992
3. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent. 1977. 127-bet.
4. O'rinboyev B. G'afur G'ulom asarlarining lingvopoetikasi. Samarqand. 2008.

## QORAQALPOQ VA O'ZBEK TILIDAGI TURG'UN O'XSHATISHLARNING MILLIY MADANIY JIHLTLARI

*Hulkar JO'RAQULOVA,*  
*Navoiy davlat pedagogika instituti*  
*O'zbek tili va adabiyoti fakulteti*  
*Qoraqalpoq tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Turg'un o'xshatishlarda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi til dagi tayyor birliklar sifatida nutqqa olib kiriladi va ularda ma'lumtilegasi bo'lgan xalqning o'zigaxosxususiyatlari, qarashlariaksetadi. Maqolada o'zbek va qoraqalpoq tilidagi o'xshatish komponentli iboralarning milliy-madaniy jihatlari qiyosiy tahlil qilingan.

**Abstract:** In stable comparisons, the image expressed in the standard of comparison is stabilized. Such comparisons are introduced into speech as ready-made linguistic units and reflect the characteristics and views of people who speak a certain language. The article compares the national and cultural aspects of expressions with a comparative component in the Uzbek and Karakalpak languages.

**Аннотация:** В устойчивых сравнениях стабилизируется образ, выраженный в эталоне сравнения. Такие сравнения вводятся в речь как готовые языковые единицы и отражают особенности и взгляды людей, владеющих определенным языком. В статье сравниваются национально-культурные аспекты выражений со сравнительным компонентом в узбекском и каракалпакском языках.

**Kalit so'zlar:** umum xalq o'xshatishlari, o'xshatish komponentlari, frazemalar, qiyoslash, lingvokulturologikjihatlar.

**Keywords:** universal comparisons, components of comparison, phraseological units, comparison, linguistic and cultural aspects. Ключевые слова: универсальные сравнения, компоненты сравнения, фразеологизмы, сравнение, лингвокультурные аспекты.

O'xshatish deb ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ifodalashga aytiladi. O'xshatishlarda obrzalilik, tasviriylik kuchli, shuning uchun badiiy nutqda ham, og'zaki nutqda ham ko'p qo'llanadigan vositalardan biri sanaladi. O'xshatishlarning ikki turi mavjud: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umum xalq o'xshatishlari yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi. [1.5-b.] Umum xalq o'xshatishlari atamasidan ma'lumki, ular da ma'lum tilegasi bo'lgan xalqning o'ziga xos xususiyatlari, qarashlari aks etadi. Shuning uchun bunday o'xshatishlarda lingvokulturologik jihatlari aks etadi.

Turg'un o'xshatishlarda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib



kiriladi. Umuman olganda ular ham ayni frazeologik iboralar kabi til birliklariga aylanib qolgan. Lingvo kulturologik nuqtai nazardan, ayniqsa, turg'un o'xshatishlar–frazologik birliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqning milliy obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida turg'unlashgan, etalonlashgan obrazlar milliy idrokni aks ettiradi.[2.10-b.]

Tili, madaniyati bir-biriga yaqin bo'lgan o'zbek va qoraqalpoq tillarida turg'un o'xshash tishlarda etalonlashgan milliy idrokni aks etuvchi turg'un iboralar bor. Ularning qo'llanishida o'xshash va farqli jihatlar bor. Masalan:

**Qamirdan qil suvirganday**//**Xamirdan qil sug'urganday** iborasi ikkala tilda ham bir xil "oson" ma'nosida qo'llanadi. Beknazar ishning buqa darjo'n, xamirdan qil sug'urganday oson bitayotgani uchun mamnun (Q. Kenja). Achchiq sho'rva ichib ko'rpaga o'ralib yotsangiz, chunonam bir terlaysizki, dardingiz xamirdan qil sug'urgandek chiqib ketadi. (S. Ahmad.).

*Tilden qalg'anday– oylanip qalw, qorqip soylemey qalw, hayran bolw, toqtap qalw ma'nosida. Tilden qalg'anday lal bolip turgan jerinde sileyip qattida qaldi. (A. Bekimbetov) [3.86-b.] O'zbek tilida ham bu ibora shu ma'noda "tildan qolganday" shaklida qo'llanadi.*

**Tol chiviqday.** Nozik, ingichka, xipcha, bejirim. Bel, qomat, umuman, yosh yigit-qizlar haqida qo'llanadi. Tol chiviqday nozik qomatli qiz goh xandon tashlab kuladi, goh qiyqirib daraxt orqasiga yashirinadi (S. Siyoyev)Qoraqalpoq tilida ham bu o'xshatish aynan shu ma'noda qo'llanadi.

Tal shibiqtay qipsha beli-belbagli,

Meni hayran etip ketti shul pari. (Ajiniyaz)

Qoraqalpoq tilida *qoyga usagan, qoyga megzes, qoy siyaqli, qoy tarizli, qoy yaqli, qoyga usagan* kabi o'xshatishlar qo'llanadi, shuningdek, qo'y so'zi ishtirokidagi turg'un birikmalar ham talaygina:**Qoyday shuwlaw**—uwshuw bolw,shuwlaw. **Qoyday orw**—japirilib shigw, tolip ketw,qaplaw. **Qoyday buwizlaw,qoyday shalw**—qurw, olturw, joq qilw. [4. 5-6.] Qo'y so'zi ishtirokidagi **Qoyday juwas**("momin, juwas,garip" ma'nosida) /**qo'yday yuvosh** (odam) frazemasi har ikkala tilda ham bir xil ma'noda qo'llanadi.

Qoraqalpoq tilida **eshেকে yassiyin aytip turg'anday** iborasi qo'llanadi. O'zbek tilida esa "birovning gapi, nasihati e'tiborsiz qolganda" ishlatiladigan bu ibora **eshakka tanbur chertganday**(variantlari: devorga tanbur chertganday/ eshakning (yoki ho'kizning qulog'iga tanbur chertganday)[5. 660-b.] shaklida qo'llanadi.

O'zbek tilida "tovush chiqarmay, hech narsa demay turmoq" ma'nosida qo'llanadigan **og'ziga tolqon solganday** iborasi mazmuni qoraqalpoq tilidagi **awzina qatiq uyitqanday** va **awzina qum quyilganday** iborasi bilan sinonim. Dusenbay **awzina qum quyilganday** tinip, eki qoli menen basin qisw menen oylanip qaldi. (T.Qayipbergenov)[6. 36-6.]

Bu frazemalar tarkibida ham milliy konnotatsiya mavjud va uni *tolqon* so'zi va *qatiq uyitmoq* birikmasi hosil qilmoqda. *Tolqon* so'zi "qovurilgan don, quritilgan non va shu kabilardan tayyorlangan yemish" ma'nosini anglatadi. *Kuchli, azamat* ma'nosini ifodalovchi *tog'ni ursa tolqon* (qiladigan)qilguday iborasi tarkbidagi *tolqon* so'zi shu yemish, yegulikka o'xshashlik asosida ko'chma ma'noda qo'llangan.

Doimiy o'xshatishlar tarkibidagi o'xshatish obrazi, ya'ni o'xshatish etaloni alohida ahamiyatga ega. Bu unsur o'xshatishning markazini tashkil etadi. Ayni shu etalon esa til egasi bo'lgan xalqning dunyoqarashi ifodalash barobarida milliy-

madaniy jihatlarni aks etadi. O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi doimiy o‘xshatishlar semantik jihatdan har ikki tilda bir xil shakl va ma’noda qo‘llanadigan doimiy turg‘un o‘xshatisli iboralar, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida shakl boshqa ma’nosi bir-biriga o‘xshash iboralar mavjud.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek til o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. T.:2013. 2-b.
2. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. T.:2013. 10-b.
3. Qaraqalpaq tiliniñ tusundirme so‘zligi. 5. No‘kis. Qaraqalpaqstan. 2023.86-b.
4. Qaraqalpaq tiliniñ tusundirme so‘zligi.5. No‘kis. Qaraqalpaqstan. 2023.5-b.
5. O‘zbektiliningizohlilug‘ati. 4-jild.O‘zME. –T. 2006. 660-b.
6. Qaraqalpaq tiliniñ tusundirme so‘zligi.. 1. No‘kis. Qaraqalpaqstan.2023.86-b.

## 2- SHO‘BA

### BUGUNGI TILSHUNOSLIK RIVOJINING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

---

#### НУТҚ ФЕЪЛЛАРИ СЕМАНТИК ТИЗИМИДАГИ ФУНКЦИОНАЛ ХУСУСИЯТ

*Эркин Халилович МУСАЕВ,*

*Навоий давлат педагогика институти катта ўқитувчиси*

**Аннотация.** Нутқ феъллари семантик майдони инсоннинг нутқ фаолиятини билдирадиган феъллар ва феъл фразеологик бирликлардан иборат. Ушбу бирликлар феълнинг умумий лексик-семантик тизимида. ғоят муҳим ҳалқани ташкил этади. Бундай бирликлар ўзининг семантик қиймати ва нутқда кўп ишлатилиши билан ажралиб туради.

**Таянч сўзлар:** феъл семантикаси, формал-грамматик, лексик-семантик, феъл семантикаси таснифи, тавсифий хусусиялар.

**Аннотация.** Семантическое поле речевых глаголов состоит из глаголов и глагольно-фразеологических единиц, обозначающих речевую деятельность человека. Такие фразеологические единицы в общей лексико-семантической системе глагола представляют собой очень важное звено. Такие единицы отличаются смысловым значением и частым употреблением в речи.

**Ключевые слова:** семантика глаголов, формально-грамматическая, лексико-семантическая, классификация семантики глаголов.

**Annotation.** The semantic field of speech verbs consists of verbs and verb-phraseological units denoting human speech activity. Such phraseological units in the general lexical and semantic system of the verb represent a very important link. Such units differ in semantic meaning and frequent use in speech.

**Keywords:** verb semantics, formal-grammatical, lexical-semantic, classification of verb semantics.

Нутқ феъллари лексик - семантик тизимини ўрганиш маълум маънода феълларнинг семантик тизимини ўрганишнинг асосий илмий параметрларни ташкил этади[4].

Туркий тилларда нутқ феълларини биринчи бўлиб, лексик - семантик гуруҳи сифатида махсус таҳлил қилган олим Н. К. Дмитриев эканилиги тадқиқотларда ўз аксини топган. Н. З. Гаджиева билан А. А. Коклянованинг тадқиқотида туркий тиллардаги нутқ феъллари ўзаро қиёсланади[5], тўғрироғи, бу мақолада нутқ феълларининг конкрет туркий тиллардаги шакллари ва уларнинг маънолари бир-бирига чоғиштирилади. Шу билан бир қаторда, мазкур мақолада конкрет туркий тилларнинг ўзига хос бўлган нутқ феъллари ҳам қисман ёритилган. Ўзбек тилида нутқ феъллари семантик

гуруҳ сифатида ҳали махсус ўрганилгани йўқ. Ўзбек тилида кўчирма гап масалаларига, бағишланган тадқиқотларда бу мавзуга қисман қўл урилган. А. Исроилов ва А. Саитниязовларнинг номзодлик диссертацияларини кўрсатиб ўтиш мумкин [1]. Сўнгги йилларда ўзбек тилидаги нутқ феълларидан баъзиларига бағишланган мақолалар зълон қилинди [5]. Нутқ феъллари инсоннинг нутқ фаолиятини кўрсатадиган феъллар экани юқорида кўрсатилди [1].

Инсоннинг нутқ фаолияти бир меъёردа кечадиган, бир хил. структурага эга бўлган яхлит жараён эмас. Инсоннинг нутқ фаолияти конкрет нутқий амаллардан ташкил топади. Бу нутқий амаллар ўз структураси ва мақсадига эга бўлган оралик амаллар ҳисобланади. Шунинг учун ҳар қайси нутқий амал мустақил, бошқа нутқий амаллардан ажраладиган махсус амал сифатида ўқилади. Бу нутқий амаллар тилда ўз лингвистик ифодалари, ўз номлари системасига эга бўлади. Фанда нутқий амалларнинг мукаммал таснифи яратилган эмас. Нутқий амалларни тасниф қилишнинг чуқур илмий критериялари ҳам ҳали ишлаб чиқилмаган. Лекин нутқ фаолиятининг буйруқ, илтимос, савол, жавоб, табрик, суҳбат, баён ва ҳоказо каби кўринишлари бир-биридан яққол фарқланиши, уларнинг махсус, специфик амаллар (нутқий амаллар) сифатида зуҳур этиши ҳеч кимда шубҳа уйғотмайди [4].

Нутқ амалларининг бундай хилма-хиллиги нутқнинг кўп аспекти, ғоят мураккаб объект (денотат) эканлигидан келиб чиқади. Илмий манбаларда нутқнинг қуйидаги аспекти, факторлари ажратиб кўрсатилади:

- 1) сўзловчи (нутқ фаолиятини амалга оширувчи шахс);
- 2) тингловчи (нутқ амалини эшитувчи шахс);
- 3) нутқнинг кечиши (нутқнинг жараёнуал томони);
- 4) нутқнинг товуш-талаффуз томони;
- 5) нутқнинг мазмун томони.

Нутқ фаолиятининг специфик белгилари бу билан чекланмайди, албатта. Масалан, нутқнинг товуш-талаффуз характеристикаси, нутқнинг мазмуний характеристикаси ва бошқа белги-хусусиятларни ажратиш мумкин Лекин бу белги-хусусиятлар нутқ фаолияти факторлари эмас, балки нутқ фаолияти факторларининг ички белги- хусусиятларидир. Бундай хусусиятлар умуман нутқ фаолияти спецификасини эмас, балки нутқ фаолияти турларининг спецификасини юзага келтиради. Нутқ фаолиятининг юқорида саналган факторлари (аспектлари)нинг мияда инъикос этиши нутқ феъллари мазмун планининг махсус лексик-семантик компонентларини, архисемаларини ташкил этади [6].

Нутқ феълларининг конкрет маънолари (семемалари) мана шу компонентларнинг ўзига хос структураларидан иборат бўлади. Нутқ — инсон фаолияти турларидан бири. Фаолият субстанция, ҳолат ёки хусусият эмас, балки жараёндир. Шу маънода нутқ феъллари маъносининг асосий компонентларидан бири жараён тушунчаси ҳисобланади. Семема структурасида бу компонент аниқ

сезилмаса, мазкур семема ифодаси феълдан кўра қобилият ёки хусусият номига яқинлашади. Ўзбек тилидаги гапирмоқ феълнинг «тилдан фойдаланиш кўникмаси (малака)га эга бўлмоқ» маъноси ана шундай семемалар қаторига киради. Ҳозирги тилда *Салим гапиради* гапининг *Салимнинг тили бор*, *Салим гапиришни билади* йўсинида трансформацияланиши бу семема жараёни эмас, балки кўникмани, билимни англантишидан далолат беради.

Демак, бу семема структураси «гапириш кўникмасига эгалик» ва «сўзловчи (субъект)» компонентларидан иборат. Нутқ феълларининг бошқа маънолари бу семемага нисбатан анча мураккаб структурага эга. Улар таркибида сўзловчи (субъект), тингловчи, жараён, мазмун каби элементлар мавжудлиги сезилиб туради. Лекин бу семантик унсурларнинг мавқеи барча семемалар таркибида бир хил эмас. Нутқ феъллари маънолари структурасининг турлилиги мазкур феълларнинг семантик томондан турлича гуруҳланишини келтириб чиқаради.

Ҳозирги ўзбек тилидаги нутқ феълларини биз куйидагича гуруҳлаб ўргандик. Бу эса семантик майдонни ташкил этади:

- 1) ўзбек тилида демоқ феъли;
- 2) гапирув феъллари;
- 3) ифодалов феъллари;
- 4) талаффуз феъллари;
- 5) субъектив ҳукм феъллари;
- 6) нутқий даъват феъллари;
- 7) симметрик нутқ феъллари;
- 8) сукут феъллари.

Демак, нутқий феълларнинг лексик-семантик хусусиятларини парадигматик ва синтагматик бирикувиға асосан 8 та мукамал нутқ феълларининг лексик-семантик майдонини ташкил этади.

#### АДАБИЁТЛАР

1. А. И с р о и л о в . Чужая речь в современном узбекском языке, АКД, Ашхабад, 1971;
2. А. С а и т н и я з о в . Синтаксические особенности конструкций с прямой речью в современном узбекском языке, АКД, Ташкент, 1975.
3. М. С о д и қ о в а . Нутқ феъллари, «Ўзбек тили ва адабиёти», 1975, 2-сон.
4. Н. К. Д м и т р и е в . Глаголы речи в языках тюркской группы, В кн.: «Очерки по методике преподавания русского и родного языков в татарской школе», М., 1952, стр. 203.
5. Н. З. Г а д ж и е в а , А. А. К о к л я н о в а . Глаголы речи в тюркских языках, в кн.: «Историческое развитие лексики тюркских языков», М.: 1961.
6. Қ ў ч қ о р т о е в И. Сўзларнинг лексик-семантик тўдалари ҳақида. «ТошДУ илмий асарлари», 359-чиқиши, 1969.; Қ ў ч қ о р т о е в И. Тилнинг луғат



системасини ўрганишиинг бир йўли тўғрисида. «Ўзбек тили ва адабиёти», 1972, № 3.

## ВЛИЯНИЕ АНГЛОЯЗЫЧНЫХ СЛОВ И МОРФЕМ В РУССКУЮ РЕЧЬ

*М.К.БОЙМУРОВОА,*

*преподаватель Навоийского Университета Инноваций. Узбекистан*

**Аннотация:** Данная статья посвящена рассмотрению особенностей влияния англицизма в современную русскую речь. Основное место отводится к анализируемому актуальным методом введения англицизмов. В речи современного человека появилось множество новых слов и сленг, значения которых не всегда известны широкому кругу людей. Самое интересное то, что большая часть таких слов, по нашему мнению, заимствована из английского языка.

**Annotatsiya:** Mazkur maqola anglitsizmning zamonaviy rus nutqiga ta'siri xususiyatlarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Hozirgi kunda zamonaviy inson nutqida ko'plab yangi so'z va so'zlar paydo bo'ldi, ularning ma'nolari odamlarga har doim ham ma'lum bo'lavermaydi. Eng qizigi shundaki, so'zlarning katta qismi ingliz tilidan olingan bo'lib, shuning uchun ham, hozirgi kunda asosiy o'rin anglitsizmlarni joriy etishning dolzarb usulini tahlil qilishga qaratiladi.

**Annotation:** This article is devoted to the consideration of the peculiarities of the influence of Anglicism in modern Russian speech. The main place is devoted to analysis by the current method of introduction of Anglicisms. In the speech of modern man, many new words and slang appeared, the meanings of which are not always known to a wide range of people. The most interesting thing is that most of these words, in our opinion, are borrowed from English.

**Ключевые слова:** аналитизм, словообразование, английские аффиксы, английские морфемы, заимствованное слово, заимствование.

**Keywords:** analitism, word-formation, English affixes, English morphemes, loan-word, borrowing.

**Kalit so'zlar:** Analitizm, so'z shakllantirish, ingliz tillari affikslar, ingliz morfemalari, o'zlashtirilgan so'zlar, o'zlashtirish.

Заимствования иностранных слов — один из способов развития современного языка. Язык всегда быстро и гибко реагирует на потребности общества. Заимствования становятся результатом контактов, взаимоотношений народов, государств. Английские заимствования появились в русском языке задолго до XXI века. Англицизмы начали проникать в русский язык ещё на рубеже XVIII–XIX веков. Поэтому целью данной работы является выявление

современных английских заимствований в русском языке и исследование особенностей их употребления.

Русский язык пополняется лексическими единицами, активно интегрируемыми из других языков, разнородными с тематической, стилевой точек зрения и по своему происхождению. А также при пополнении русского языка значительную роль играет эффект других иностранных языков. В современную русскую речь вошли слова из языков разных типов и групп: японского (*аниме-анимация, васаби - растение, суши - блюдо, сашими – вид мяса*), итальянского (*цуккини – овощ, биеналле – выставка*), немецкого (*гастарбайтер – приглашенный рабочий*), французского (*фротте – тип ткани*) и т.д., однако наибольшее количество заимствований в настоящее время приходит из английского языка (*бизнес, маркетинг, гаджет, лук* и т.д.). В последние десятилетия его статус в современном мире весьма высок: часто знание английского языка становится необходимым для повседневной деятельности, работы и учебы и др.

Важнейшими чертами любого языка его семантики и словарного состава лингвисты считают вариативность, подвижность, изменчивость, и стремление к реализации и совершенствованию за счет различных лингвистических средств и ресурсов. Одним из путей обогащения словарного состава является заимствование слов иноязычного происхождения.

Одним словом, заимствование является результатом установления экономических, политических и культурных связей с другими странами. Английские морфемы (корни, аффиксы) и слова, повторяясь в языкоресепторе, способствуют тому, что русскоязычной речи они вычленяются в качестве строительного материала, то есть базой для создания новых современных и востребованных «русских» слов. Брейтер М.А. выделяет следующие причины иноязычных заимствований:

- в общественной жизни появляются новые реалии, новые предметы, новые понятия (*маркетинг, паблисити, брэнд, лук, инновация, патий и другие*);
- появление нового слова, обозначающего то, что прежде называлось при помощи словосочетания (*рейтинг - положение фирмы, политического деятеля, передачи в списке себе подобных; имидж - образ "себя", который создает тележурналист, политический деятель, фотомодель и др.*);
- изменение социальной роли предмета (*офис - контора, служебное помещение, сбербанк - прежде сберкасса*);
- влияние иностранной культуры, диктование модой на иностранные слова.

Е.М. Галкина-Федорук считает, что морфемы в заимствованных словах выделяются только этимологически, например,

-инг (блуминг, дансинг, демпинг, крекинг, смокинг), -мен (клубмен, бизнесмен, конгрессмен)

Подобным образом в русском языке адаптирована английская морфема –мент (импичмент, менеджмент, рекрутмент, харасмент, индоссамент). В молодежном сленге встречается лексема «дрожемент», имплицитно обозначающая состояние крайнего напряжения и страха: *У меня всегда дрожемент в ногах, когда копы подходят.*

В настоящее время в речи молодежи часто участвует английский аффикс *-tion* (-шн), в основном, для создания юмористического эффекта: *Пойдем на тусейшн!, Мне нужен похмелейшн* и др. Среди подростков в устной речи наблюдается использование этого английского суффикса: *Да, полнейшн ужасейшн!* Это предложение грамматически неправильно, а созданные слова уникальны.

В современном мире английский язык считается одним из главных средством во всех сферах жизни и международной коммуникации, в том числе, расширение международных контактов, интернет технологий и общения. В свою очередь влияют на регулярное осуществление английских заимствований в русский язык.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Аксенова О. Языковая игра как лингвистический эксперимент поэта.
2. [Электронный ресурс]. URL: <http://levin.rinet.ru/ABOUT/Aksenova>
3. Галкина-Федорук Е.М. Лексикология. Фонетика. Словообразование. М.
4. Крысин Л.П. К определению терминов «заимствование» и «заимствованное слово» [Текст] / Л.П. Крысин // Развитие лексики современного русского языка. – М., 2008. – С. 65–71.
5. Дьяков А.И. Словарь англицизмов русского языка. [Электронный ресурс] / Дьяков А.И. – URL: <http://anglicismdictionary.dishman.ru> свободный. (Дата обращения 04.06.19).
6. Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминоподобных элементов / Лотте Д.С.– М., 1982. С. 34.
7. Григорьев В.П. Поэтика и стилистика. М., 2011.
8. Костомаров В.Г. Русский язык в иноязычном потоке // Русский язык за рубежом. 1994.
9. Крысин Л.П. Словообразование или заимствование? //Русский язык в школе. 1997.
10. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. М., 2004.
11. Отин Е.С. Об «Уотергейте» и прочих «-гейтах» // Русская речь. 1996.

## AXBOROT BERUVCHI TELEKO‘RSATUVLARNI GURUHLASHTIRISH VA ULARDA QO‘LLANADIGAN EKTRAN YOZUVLARINI TANLASH MASALASI

*Abdullo Oblokul o‘g‘li ISOKULOV,  
Perfect university oliy ta‘lim tashkiloti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolamizda zamonaviy telidasturlarda axborot beruvchi mazmundagi teliko‘rsatularning ekran yozuvlar qo‘llanishi va ulardagi mazmuniy hamda leksik-semantik xususiyatlari, amaliyotda yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolar, ularning bartaraf qilish yo‘llari, ekran yozuvlari tanlash masalasi bo‘yicha fikr-mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** titrlar, videokontent, axborot beruvchi, zamonaviy televizion janrlar, “yuguruvchi satrlar”, informatsion dasturlar.

Televizion titrlarni guruhlashtirishda ularning bir nechta xususiyatlariga asoslanish mumkin. Bunda tadqiqotchi ekran matnlarining qanday mazmundagi videokontentga hamrohlik qilishi, qanday maqsadda qo‘llanganligi, qanday shaklda yoki ekranning qaysi qismiga joylashtirilganligi kabilarning har birini asosiy tayanch nuqtasi sifatida qabul qilishi mumkin bo‘ladi. Zero, guruhlash “biror belgisi, turi, xili va boshqa xususiyatlariga qarab guruhlarga, qismlarga bo‘lmoq” ekan, yuqorida sanalganlarning har biri shunday belgi bo‘lib xizmat qilishi mumkin [1.529]. Anglashiladiki, titrlarni guruhlarga ajratish jarayonining bir qismi teleko‘rsatuvlarning o‘zini tasniflash (tanlab olish; turlarga ajratish; narsa va hodisalarni ularning o‘ziga xos belgi, xususiyatlariga qarab tur, turkum va shu kabilarga ajratish) bilan bog‘liq bo‘ladi [2.11]

Teleko‘rsatuvlarni janrlarga ko‘ra emas, balki ularda ko‘rsatiladigan voqealarning murakkabligi darajasiga ko‘ra guruhlarga ajratish tarafdorlari ham mavjud. Tadqiqotchi A.Alekberova teleko‘rsatuvlarni “uch turga: a) axborot beruvchi; b) tahliliy; d) tadqiqiy” kabilarga ajratishni taklif qiladi [3.230]. Bunda birinchi guruh tezkorlikni talab qiladigan sodda murakkabliklarga ega videokontent hisoblansa, tahliliy dasturlar tekshirishni talab qiladigan o‘rta murakkablikdagi voqealarni qamrab oladi. Uchinchi turdagi videokontentlar murakkab hisoblanadi, chunki ular izlanish, aniqlashtirish kabilarni talab qiladi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra zamonaviy televizion janrlarni shu uch guruhga asosan tizimlashtirish mumkin bo‘ladi. Shulardan kelib chiqib, televideniya namoyish etiladigan videokontentlarni mavzusiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lish mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi:

1. Axborot beruvchi videokontent. Bunday dasturlar tomoshabinlarga davlat va jamiyat hayotidagi muhim bo‘lgan o‘zgarishlar haqida ma‘lumot berishni maqsad qiladi. Bunday dasturlarga “Yoshlar” telekanalidagi “Yangi Davr”, “Davr hafta ichida”, “O‘zbekiston” telekanalidagi “Tahlilnoma”, “Axborot 24” ko‘rsatuvlarini keltirishimiz mumkin. Tomoshabinlarni kundalik yangiliklar bilan tanishtirish bilan maxsus shug‘ullanadigan telekanal sifatida “O‘zbekiston 24” telekanalini keltirishimiz mumkin. Zamonaviy inson axborotni turli manbalardan topishi mumkinligini inobatga olganda axborot uzatish bilan shug‘ullanadigan har qanday soha vakili, u internet jurnalisti bo‘ladimi, blogger yoki televideniye sohasida faoliyat yuritadimi, birinchi navbatda, uzatayotgan ma‘lumotlarining ishonchli va tezkorligiga e‘tibor qaratishi shart. Qolaversa, uyali aloqa vositalarining takomillashishi XXI asr foydalanuvchisining

televizor tomosha qilishga ehtiyojini nihoyatda pasaytirdi. Shu sababli axborot uzatishga mo'ljallangan ko'rsatuvlarda videokontent va suxandon orqali boshqa axborot berilsa, titrlar orqali boshqa ma'lumot uzatiladi. Natijada tomoshabin bir vaqtning o'zida bir necha xil axborot olishi mumkin bo'ladi. Bunday ko'rsatuvlarda videokontentdan farqli ma'lumotlarni yetkazishda “yuguruvchi satrlar” (бегущая строка) deb nomlanadigan ekran matnlaridan foydalaniladi. Shuningdek, zamonaviy televideniya titrlarning qotirilgan, lekin muayyan vaqtdan keyin almashadigan turlariga ham murojaat qilinadi. Buni “Yoshlar” telekanalining “Yangi davr” informatsion dasturida ham kuzatishimiz mumkin:



“Yangi davr” dasturidan olingan suratda titrlar videokontentda sharhlanayotgan xabarlarning mohiyatini (53 ming oilaga uy-joy berilishi haqidagi xabar) aks ettirib turibdi. Shuningdek, ekran matni bu namunada ko'rsatuv va u namoyish qilinadigan telekanal ham ifodalab kelgan. Namunada keltirilgan kabi ekran matnlari ko'rsatuvda yangi xabar haqidagi lavha boshlangandan keyingina boshqasiga o'zgaradi.

Axborot beruvchi videokontentlarning ba'zilarida tahliliy ma'lumotlar ham titrlar vositasida berilishi mumkin. Zero, tahlil natijalari ham muayyan axborotning bir turi, deyishga asosimiz bor. Quyida “O'zbekiston” telekanalida namoyish etiladigan “Tahlilnoma” ko'rsatuvidan lavha keltirilgan bo'lib, unda 2020-yilda tibbiyotni isloh qilish uchun ajratiladigan mablag'lar va ularning manbalari tomoshabin diqqatiga havola qilingan. Uning jurnalist nutqi fonida tasvirlanishi ijtimoiy xarajatlarning bir qismi bo'lgan sog'liqni saqlashga hukumatning g'amxo'rligi qay darajada ekanligini ko'rsatib turadi:



Xuddi shunday tahlilni “O'zbekiston 24” kanalining “Yangiliklar” dasturida ham kuzatishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan misolda jurnalistning nutqi bo'lmasa-da tahlillar nima haqida, ularning natijalari qanday ekanligini ekran yozuvlari vositasida anglash mumkin bo'lsa, “Yangiliklar” dasturida titrlar mazmunini tushunish uchun jurnalist nutqiga ham ehtiyoj tug'iladi:





ekran yozuvlarining har xil turlaridan foydalanish ko'rsatuvning muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi, deyish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, 1-жилд, – Тошкент: ЎзМЭ. 2020. – Б.529.
  2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, 3-жилд, – Тошкент: ЎзМЭ. 2020. – Б.11.
  3. Алекберова А., Понятие и система телевизионных жанров // Современная филология: материалы международной научной конференции (Уфа, 20–23 апр. 2011 г.). – Уфа: Лето, 2011. – С. 230–234.
  4. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Бегущая\\_строка](https://ru.wikipedia.org/wiki/Бегущая_строка)
  5. <https://www.youtube.com/watch?v=058CQvPeMJw&t=400s>
  6. <https://www.youtube.com/watch?v=LtDU3jHoXWE>
  7. [https://www.youtube.com/watch?v=pEyVcL\\_Tdjk](https://www.youtube.com/watch?v=pEyVcL_Tdjk)
  8. <https://www.youtube.com/watch?v=yYSuDeLT4yQ>
- Сурикова Т.И., Бегущая строка на телеэкране и культура медиаречи // Медиаскоп. 2017. Вып. 2. – С.62. (–С.61-65.)

### NUTQDA VA NUTQIY MOSLASHUVDA XUSHMUOMALALIK KONSEPTIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

*Ozoda Norboyevna NURALIYEVA,  
Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutqda va nutqiy moslashuvda xushmuomalalik konseptiga doir ayrim mulohazalar yuritilgan. Unda nutqiy muloqotning so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi xushmuomalalik qoidalari, o'zaro hurmat, ularning ijtimoiy jarayondagi lisoniy tadqiqi borasida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** konsept, imidj, presuppozitsiya, kommunikativ implikatura, kontekst

**Abstract:** This article contains some comments on the concept of politeness in speech and speech adaptation. In it, the rules of politeness between the speaker and the listener, mutual respect, and their linguistic research in the social process are discussed

**Key words:** concept, image, presupposition, communicative implicature, context.

**Аннотация:** В данной статье содержатся некоторые комментарии к понятию вежливости в речи и речевой адаптации. В нем обсуждаются правила вежливости между говорящим и слушающим, взаимное уважение, их лингвистическое исследование в социальном процессе.

**Ключевые слова:** концепт, образ, presupпозиция, коммуникативная импликатура, контекст.

Nutqda so'zlovchilarning pragmatik mo'ljalni bilvosita ifodalashga intilishlarining muhim sabablaridan biri xushmuomalalik qoidalariga amal qilishdir.

Tinglovchiga nisbatan xushmuomala bo‘lish, uning hurmatini saqlash uchun so‘zlovchi uning ruhiyatiga, ijtimoiy maqomiga mos keladigan lisoniy vositalardan foydalanishga harakat qiladi. “Xushmuomilalik” tushunchasining pragmatika sohasida keng tarqalganini izohlashga uringan tadqiqotchilar tildan foydalanish amaliyoti suhbatdoshning o‘zligini, ya’ni “jamoadagi maqomi, imidjini saqlashga muqobil bo‘lishi kerakligini” ta’kidlaydilar [Vershuren 1999:45]. Moslashuv nazariyasiga asoslangan holda xushmuomalali moslashuvni suhbatdoshlar o‘z fikrlarini to‘liq va aniq ifodalash uchun kontekstga hozirjavob strategiyalarni tanlashi va shu orqali muloqot ehtiyojini qondirish sifatida tavsiflash mumkin.

Muloqot tamoyillari tahliliga oid pragmatik qarashlar va nutqiy aktlar nazariyasi, albatta, nutqiy tuzilmalarning implitsit ma’noni ifodalash imkoniyatlarini tasvirlash hamda izohlashga sharoit yaratdi. Ushbu nazariyalar tatbiqida pragmatik mazmunning referent ma’nodan qanday farqlanishini izohlash, so‘zlovchi lisoniy vositalardan nima maqsadda foydalanayotganini aniqlash mumkin. Bunday tag ma’noli ifoda holatlarini tavsiflash uchun tadqiqotchilar ko‘pincha H.Grays tomonidan qo‘llab-quvvatlangan “Hamkorlik tamoyiliga” (Cooperative Principle) murojaat qiladilar. Mazkur tamoyilga binoan so‘zlovchi shaxs til vositasida axborot uzatishda quyidagi qoidalarga amal qilishi kerak [Grice 1975:45-46]:

- 1) Sifat qoidasi (“Rost gapir”);
- 2) Miqdor qoidasi (“Kerakli miqdorda axborotni yetkaz, undan ortiqcha emas”);
- 3) Mavzuga oidlik qoidasi (“Mavzudan uzoqlashma”);
- 4) Muloqot uslubi (tarzi) qoidasi (“aniq va tushunarli so‘zlashga harakat qil”).

Albatta, ushbu qoidalar umumiy xarakterga ega va ularga har doim bir xilda amal qilish qiyin.

O‘zaro hamkorlik qoidalaridan chekinish sabablarini va bunday chekinishlar muloqot vaziyati bilan bog‘liq holda sodir bo‘lishi sabablarini ko‘rsatib o‘tgan Sh.Safarovning xulosasicha, “umumiy tamoyil talabi – o‘zaro hamkorlikka faqatgina muloqotdoshlar bir-birlarini tushunishga intilganlarida erishish mumkin. Agarda bunday maqsad bo‘lmasa, suhbatdoshlardan biri ikkinchisini chalkashtirishga, umumiy mavzudan uzoqlashtirishga, sezdirmasdan mavzuni o‘zgartirib, ahamiyatsiz narsalar haqida so‘zlashga harakat qiladi” [Safarov 2008:126].

Shunga binoan, hamkorlik tamoyili zamirida yuzaga keladigan implikaturalarni muloqot pragmatik strategiyalari qatoriga kiritishimiz mumkin.

J.Vershuren kommunikativ implikaturalarning to‘rta turini sanab o‘tadi [Vershuren 1999:34]:

- 1) presuppozitsiya, ya’ni oldindan ma’lum bo‘lgan va nazarda tutilayotgan ma’no;

2) mantiqan mavjud bo'lgan va tuzilma shaklidan kelib chiqib anglashiniladigan ma'no;

3) standart yoki me'yoriy implikatura va muloqot qoidalariga asoslangan holda aniqlanadigan ma'no;

4) tasodifiy implikatura, muloqot qoidalarining hamkorlik tamoyiliga mosligi asosida yuzaga keladigan yashirin ma'no.

Eslatilgan implikaturalarning o'zgaruvchanligi va kontekst bilan bog'liqligi ayon. Ushbu implikaturalar qisman ma'lum vaziyatda qo'llanilayotgan nutqiy tuzilmaning tub ma'nosi zamirida yuzaga keladi. So'zlovchilar yashirinlik strategiyasidan foydalangan holda ma'no hosil qilishsa, tinglovchilar esa uni ma'lum mantiqiy amallar yordamida anglab yetadi. Mazkur amallar so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslanadi.

Hamkorlik nazariyasi muloqot kechishi bilan bog'liq jarayonlarni ilmiy jihatdan izohlash uchun muhimdir. Dialogik muloqot masalasiga keladigan bo'lsak, qoidalarni harakatga tushiruvchi mexanizmlar tavsifi alohida o'rinni egallaydi. Badiiy asarlarda uchraydigan dialoglar tuzilishini kuzatadigan bo'lsak, mualliflar qoidalardan ongli ravishda chekinayotib, ma'lum maqsadni ko'zlayotganlarining guvohi bo'lamiz. Chunki bunday chekinishlar maqsadli bo'lib, ular yashirin ma'noni izlashga undaydi.

Graysning hamkorlik nazariyasi yuqori darajada me'yorlar amal qiladigan muloqot modeliga asoslangan. Eng muhimi ushbu me'yorlarga ongli ravishda amal qilish talab qilinadi. Holbuki, hozirgina aytilganidek, ijtimoiy xatti – harakatlar ba'zan me'yordan chetga chiqishni ham taqozo qiladi. Masalan, xushmuomilalik qoidalariga to'liq rioya qilish ba'zan fikrni oshkora bayon qilishga to'sqinlik qilishi ham kuzatiladi.

J. Lich "Principles of Pragmatics" nomli kitobida hamkorlik tamoyili mazmun va illokutiv kuch o'rtasidagi munosabatni shakllantirishga yordam berishini qayd etadi [Leech 1983:80]. Ammo ushbu tamoyil so'zlovchilar o'z maqsadlarini bunchalik ko'p bilvosita ifodalashini izohlashga yetarli emas. Chunki hamkorlik tamoyili ko'proq propozitsiyaga tayanadi. Shuning uchun ham J.Lich tomonidan taklif qilingan xushmuomilalik tamoyili (Politeness principle) ijtimoiy va ruhiy yo'nalishga ega bo'lgan pragmatik qoidalarga tayanadi. Pragmatik qoidalarni hamkorlik tamoyilining ajralmas qismi deb hisoblagan olim ushbu hodisalar munosabatini tasvirlash uchun quyidagi misolga murojaat qiladi:

Linda: We'll all miss Jill and Chris.

Lucy: Well, we all miss Jill.

Bu yerda Lyusi aftidan miqdor qoidasiga amal qilmayapti. Chunki Linda o'z fikrini tasdiqlashni so'rayotganida Lyusi uning faqat bir qismini tasdiqlab, qolganini inkor qilmoqda. Bundan paydo bo'ladigan implikatura quyidagicha: Lyusining fikricha, ular Krisni sog'inmaydilar. Ammo ushbu implikatura qanday paydo bo'lishi haqida savol tug'ilishi tabiiy. Lyusi aslida hamkorlik tamoyiliga binoan aniq va mavzudan

chiqmasdan rost gapirishi kerak edi, lekin u xushmuomila munosabat saqlab qolish uchun bunday qilmaydi. Xushmuomilalik tamoyilini J.Lich quyidagicha tavsiflaydi:

1) Hurmatsizlikdan darak beruvchi jumalardan imkoni boricha kam foydalan;

2) Xushmuomila jumalarga ko‘proq murojaat qil [Leech 1983:81].

Shunday qilib, xushmuomilalik tamoyili boshqa shaxsning o‘zligi, uning mustaqilligi va makondagi joylashuviga hurmat bildirishni taqozo qiladi. Biz boshqalar hayotiga suqulib kirish va ularning faoliyatini nohaq baholashdan qochamiz. Odamlarga ularning davrasi yoqishini, ularning muvaffaqiyatlaridan xursand ekanligimizni ko‘rsatayotib, ijobiy xushmuomilalik hissiyotini namoyish qilamiz. Ushbu turdagi xushmuomilalik, olijanoblik ma’qul topish, rozilik, kamtarlik, hamdardlik kabi xislatlarni qamrab oladi. Ayni paytda, haddan ziyod hurmat suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofaga ishora qilib, kinoyali muomila strategiyasi faollashuviga sabab tug‘diradi. Hurmat tamoyiliga amal qilmaslik esa ko‘proq o‘zaro yaqin kishilar hamda yoshlar muloqotida kuzatiladi.

Xushmuomilalik tamoyili P.Braun va S.Levinsonlar tomonidan biroz boshqacharoq tavsiflangan [Brown, Levinson 1987]. Ularning nazariyasiga binoan, insonlar “o‘zligi”ni (faces) saqlab qolishi boshqalar tomonidan ma’qullanishi kerak. Olimlar “face” tushunchasini ikki ko‘rinishga ega ekanligini qayd etadilar:

1) Negative face”: the right to freedom of action and freedom from imposition;

2) Positive face: the need to be appreciated by others and to maintain a positive selfimage.

Kundalik muloqot jarayonida uning ishtirokchilari xushmuomilalik tamoyiliga amal qilishga harakat qiladilar. So‘zlovchi boshqa shaxsning hurmatiga ta’sir ko‘rsatadigan nutqiy harakatni bajarsa o‘zlikka tahdid harakati (face threatening act) sodir bo‘ladi va suhbatdoshlar odatda ushbu holatni yumshatish imkoniyatini qidirishga majbur bo‘ladi. Ammo, pragmalingsvistlar qayd etganidek, ushbu holatni chetlab o‘tish katta qiyinchiliklar tug‘diradi [Brown, Levinson 1987:65]. Jumladan, boshqalarga takalluf ko‘rsatish bilan bog‘liq nutqiy aktini bajarayotgan so‘zlovchi o‘zini kamsitayotgandek ko‘rinadi. Shuningdek, tinglovchiga biron ishni bajarishi kerakligini eslatayotib, uning o‘zligiga tahdid qilayotgandek ko‘rinamiz. Zotan, buning bilan suhbatdoshning xotirasiga gumon bildiramiz va uning mustaqqilligiga rahna solamiz. Demak, tabiiy muloqot jarayoni o‘zlikka tahdid ko‘rsatish misollariga boy. Moslashuv nazariyasida nutqiy aktning xushmuomila yoki jo‘yaligi hamda vaziyatga muqobilligi inobatga olinadi. Bunda mavjud qoidalar e’tirof etilishi bilan birgalikda, ba’zan inkor qilinishi ham mumkin. Nutqiy aktning xushmuomila ko‘rinish olishiga til, kod, uslub kabi omillarning o‘rni alohida. Bundan tashqari, P.Braun va S. Levinsonlar nazariyasi ko‘p jihatdan anglo-sakson ijtimoiy muhitiga mos bo‘lib, unda umumiy ijtimoiy voqelik unchalik inobatga olinmagan.



Xulosa qilib aytganda, moslashuv nazariyasi xushmuomilalikni tilning nutqiy faollashuvi jarayonida namoyon bo‘ladigan hodisa sifatida talqin qiladi. Xushmuomilalik strategiyasi voqelanishida so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabati namoyon bo‘ladi. Aytish joizki, xushmuomilalik nazariyasi asosan bevosita og‘zaki muloqot jarayonini tahlil qilishga yo‘naltiriladi. Lekin ushbu tamoyilni badiiy asar personajlari dialogik faoliyati tahliliga ham tatbiq etish unchalik muammo tug‘dirmaydi. Zero, yozuvchilar personajlar o‘rtasidagi munosabatlarni tasvirlash uchun turli ko‘rinishdagi xushmuomilalik strategiyalaridan foydalanadilar.

#### ADABIYOTLAR

1. Verschueren J. Understanding Pragmatics. – L.: Edward Arnold Publishers, 1999. – 295 p.
2. Grice H.P. Logic and Conversation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1975. – 11-82 p.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 300 b.
4. Leech G. Principles of Pragmatics. – L.: Longman, 1983. – 250 p.
5. Brown P., Levinson S. Politeness. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 56-289 p.
6. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temporallik semantikasi. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – 2009. – 190 b.
7. Boymirzaeva S. Matn modalligi. – T., Fan, 2010. – 151 b.
8. G‘ozieva M.M. Prosodika. – T.: Akademnashr, 2019. – 176 b.
9. Hakimov M. Nutqiy aktlar nazariyasi – Farg‘ona: Classic, 2020. – 48-51 b.

#### КЛАССИФИКАЦИЯ БЕЗЛИЧНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

*Орифжон Дилшодович БАРНОЕВ,*

*Докторант, преподаватель кафедры русского языка литературы  
Навоийский государственный педагогический институт*

**Аннотация.** Ushbu maqolada rus tilidagi shaxssiz gaplarning tasnifi tahlili keltirilgan, bu turdagi bir bosh bo‘lakli gaplarning semantikasi va tuzilishiga e’tibor qaratiladi. shaxssiz gaplarni o‘rganish har doim rus tilida juda ko‘p turlari va keng qo‘llanilishi tufayli cheksiz qiziqish uyg‘otadi.

**Аннотация.** Данная статья представляет анализ классификации безличных предложений в русском языке, обращает внимание на семантику и структуру таких типов односоставных предложений. Исследование безличных предложений всегда вызывает бесконечный интерес, в связи с их множеством различных типов и обширным использованием в русском языке.

**Annotation.** This article presents an analysis of the classification of impersonal sentences in the Russian language, drawing attention to the semantics and structure of these types of one-part sentences. The study of impersonal sentences always generates endless interest, due to their many different types and extensive use in the Russian language.

**Kalit so‘zlar:** shaxssiz gaplar, sub'ektsiz, semantik mavzu, shaxssiz fe'l.

**Ключевые слова:** безличные предложения, бессубъектное, смысловое подлежащее, безличный глагол.

**Keywords:** impersonal sentences, subjectless, semantic subject, impersonal verb.

Создание единой классификации безличных предложений представляет большую трудность по причине многообразия морфологических способов выражения главного члена предложения. К тому же, определённой сложностью является различие собственно безличных глаголов и личных глаголов в значении и форме безличных, представляющее собой одну из проблем в теории безличных предложений.

В отечественном языкознании параллельно существует несколько различных классификаций безличных предложений, хотя сама проблема их классификации так и не нашла единого решения.

По мнению В.Л. Георгиевой основной проблемой является «разнородность синтаксического типа ... проблематика его изучения не может быть ограничена лишь вопросами специфики синтаксических категорий в чисто языковом плане или в их отношении к логическим категориям. Возникает проблема частного и общего, что осложняет вопрос о критерии выделения изучаемого объекта и создает множество дополнительных аспектов исследования».

Итак, по своему строению безличные предложения могут быть различными. При рассмотрении с позиции главного члена предложения, выделяется 6 типов:

1. В качестве главного члена безличного предложения употребляется безличный глагол (без суффикса -ся и с суффиксом -ся): светает, моросит, знобит, тошнит; нездоровится, спится, хочется, смеркается, дремлетя и др. Категория лица в таких глаголах имеет чисто формальное значение.

Общее значение безличных предложений данного типа определяется значением безличного глагола. Они могут обозначать состояние природы, окружающей среды: Морозило сильнее, чем с утра (Г.); На дворе еще чуть брезжило (Т.); психическое или физическое состояние живого существа: От радости в зобу дыханье сперло(Кр.); Его знобило и ломало (Л. Т.);

долженствование, необходимость и другие модальные оттенки (такой глагол чаще всего употребляется с инфинитивом): Он шел не торопясь, как и

подобало посетителю музея (Кат.); Мне однажды привелось пробыть на Кавказе больше трех месяцев (Пришв.); наличие или отсутствие, недостаток чего-либо: У нас тебя недоставало (Гр.); Мне не хватает нежности твоей, тебе моей заботы не хватает (Шип.).

2. Безличные предложения, главный член которых выражен личным глаголом в безличном значении, довольно распространены в русском языке и многообразны по структуре и значению: Воздух свежее. - На улице свежее; Ветер воет. - В трубе воет; Могут обозначать: явления природы, стихийные явления и состояние окружающей среды: Ночью несколько стихло (Гонч.); Все небо заложило (Н. Остр.); Снег падал реже, чуть посветлело (Леон.); психическое и физическое состояние живых существ: Мне уши заложило (Гр.); У бабушки даже в глазах зарыбило (С.-Щ.);

3. Главный член безличного предложения может быть выражен кратким страдательным причастием с суффиксом -н-, -ен- или -т-: Уж послано в погоню (П.); Посидели в литографии, где было накурено (Ч.).

4. Наречные безличные предложения представлены в современном русском языке, прежде всего, предложениями с безлично-предикативными словами в роли главного члена. Это может быть форма сравнительной степени: Все теплее становится (Шукш.). Могут обозначать: состояние природы или окружающей среды: В комнате становится тихо (М. Г.); Смотрите, ведь уж поздно, холодно (Л.); психическое или физическое состояние живых существ: Что же мне так больно и так трудно? (Л.); Вам холодно немножко(Т.); зрительное или слуховое восприятие: Давно уже не слышно было ни звука колокольчика, ни стука колес по кремнистой дороге (Л.); значение долженствования, необходимости, возможности и другие модальные оттенки передаются специальными безлично-предикативными словами в сочетании с инфинитивом: Мне надо ехать к коменданту (Л.); Невозможно было ехать (П.)

5. Безличные предложения с безлично-предикативными словами, морфологически совпадающими с именами существительными (грех, стыд, позор, ужас, жаль, пора, время, досуг, лень, охота, неохота), в сочетании с инфинитивом обозначают: оценку действия с морально-этической стороны: Над старостью смеяться грех (Гр.); эмоциональное состояние человека: И сказать мне правду было жаль (Фет); долженствование в отношении времени совершения действия: Был у меня хороший друг, - куда же лучше быть, - да все, бывало, недосуг нам с ним поговорить (Сим.); модально-волевые оттенки: Мне бы вот охота плясать (А.Н. Т.).

Заметим, что согласно классификации Е.М. Галкиной-Федорук, этот тип относится к безличным предложениям с именным сказуемым и именному сказуемому + инфинитиву:

- безличные предложения, сказуемое которых выражено безлично-предикативными словами на -о- без инфинитива и с инфинитивом: Мне тяжело; мне трудно дышать;

- безличные предложения, сказуемое которых выражено безлично-предикативными словами с формами существительными без инфинитива и с инфинитивом: Грех обижать; стыд молчать.

С точки зрения семантического субъекта, этот тип предложений делится на предложения бессубъектные и со скрытым субъектом. Среди предложений данного типа могут быть:

- Собственно бессубъектные, а именно обозначающие состояние природы или окружающей среды.

- Предложения с неопределённым субъектом выражающие: психическое или физическое состояние живых существ, зрительное или слуховое восприятие, эмоциональное состояние, оценку действия с морально-этической стороны, долженствование, модально-волевые оттенки. Субъект в таких предложениях выражается косвенно и стоит в дательном падеже.

6. И, наконец, группа безлично-генитивных предложений, структурной особенностью которых является наличие отрицательного слова в сочетании с родительным падежом. Отрицание может быть выражено: отрицательным словом нет, нету: Нет уже ни положения в обществе, ни прежней чести, ни права приглашать к себе в гости (Ч.); ...Там счету нет столетьям (Щип.); Нет меры нашему Познанию (Бл.); безличной формой глаголов быть, стать, показаться с отрицанием: Не было ни гроша, да вдруг алтын (посл.); Любви без рубцов и жертв не бывает (Паст.); существительным в форме родительного падежа с отрицанием ни: Ни звука!.. И видишь ты синий свод неба... (Н.); Ни писем, ни вестей. Как ни проси их, они забыли (Сим.); отрицательными местоимениями ничего, никого и др.: - Кажется, кто-то там... - Никого (Ч.).

Таким образом, мы видим, что с точки зрения семантического субъекта, безличные предложения можно разделить на 2 категории:

- Собственно безличные (бессубъектные). К ним относятся предложения, выражающие состояние природы или окружающей среды, стихийные явления, погодные условия и время суток.

- Безличные предложения с определенным или неопределённым, но не появляющимся в синтаксической структуре субъектом. К ним относятся предложения, выражающие психическое, физическое или эмоциональное состояние живых существ, зрительное, слуховое или осязательное восприятие, оценку действия с морально-этической стороны, долженствование, модально-волевые оттенки. Иногда среди подобных предложений встречаются предложения выражающие состояние природы или окружающей среды и стихийные явления.

## ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бархударов Л. С. «Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода)» М., "Международ. отношения", 1975.
2. Бурлакова В.В. Синтаксические структуры современного английского языка. М.: Просвещение, 1984. - с.35
3. Валгина Н.С., «Синтаксис современного русского языка» Учебник М.: Агар, 2000.
4. Валгина Н.С., Розенталь Д.Э., Фомина М.И., «Современный русский язык» Учебник/ Под редакцией Н.С. Валгиной. - 6-е изд., перераб. и доп. Москва: Логос, 2002.
5. Галкина-Федорук Е.М. «Безличные предложения в современном русском языке.» Изд-во МГУ, 1958.
6. Георгиева В.Л. «К изучению типов простого предложения русского языка в советском языкознании. Безличные предложения» [Текст] / В. Л. Георгиева // Вопросы развития грамматики и лексики русского языка. - Русская филология

## СОВРЕМЕННАЯ ЛИНГВИСТИКА О СУЩНОСТИ НЕОЛОГИЗМА

*Римма Рафиковна БИКСАЛИЕВА,*

*преподаватель Навоинского университета инноваций*

**Аннотация.** Рассматриваются проблемы изучения неологии, определения и классификации неологизмов, в силу различных подходов и концепций к неологизмам. По этим вопросам в статье анализируются научные и теоретические рассуждения ученых.

**Ключевые слова:** неологизм, неология, неография, неологизмы-займствования, семантические неологизмы, словообразовательные неологизмамы, языковые и окказиональные неологизмы.

**Annotation.** The problems of the study of neology, the definition and classification of neologisms are considered, due to different approaches and concepts to neologisms. On these issues, the article analyzes the scientific and theoretical arguments of scientists.

**Key words:** neologism, neology, neography, borrowing neologisms, semantic neologisms. derivational neologisms, linguistic and occasional neologisms.

**Annotatsiya.** Maqolada neologizmlarga nisbatan turlicha yondashuv va tushunchalar, neologiyani o'rganish, neologizmlarni aniqlash va tasniflash muammolari ko'rib chiqilgan. Ushbu masalalar yuzasidan olimlarining ilmiy-nazariy dalillari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** neologizm, neologiya, neografiya, o'zlashtirgan neologizmlar, semantik neologizmlar, derivatsion neologizmlar, lingvistik va oksi-oksiyal neologizmlar.



Активное изучение неологизмов в русском языке началось в XX в. с появлением информационного общества. В это время произошли радикальные перемены как в политической жизни носителей языка, так и в сфере экономики, образования, научно-технической, культурной и во многих других жизненно важных областях развития общества. Все это оказало значительное влияние на рост и развитие современной лексики русского языка и предопределило ее потребность в специальном исследовании.

Процессы, создающие «динамичную картину жизни», не успевают фиксироваться словарями. Анализ лингвистической литературы отмечен противоречивостью объемом понятия «неологизм». Неоднозначность трактовки «нового в языке» показал многообразие наименований: новообразование, инновация, новая номинация, неониминация, новое наименование, неологизм, окказионализм и др.

В современной науке «неологизм» является наиболее распространенным термином. В лингвистике термин «инновация» применяется для описания новых явлений и процессов на различных уровнях языка, а понятие «новообразование» употребляется при анализе новых словообразовательных номинативных единиц.

Неологизм как явление культуры является еще одним актуальным направлением исследований нового в языке. Явление неологизации свойствен в той или иной мере всем национальным языкам, иначе язык не сможет поспевать за развитием общества и обеспечивать коммуникативные потребности носителей. При этом отношение к неологизмам в каждой культуре свое, специфическое. Именно поэтому основным центром внимания этого направления является национальный неологизм и его принятие культурой исследуемых языков: русского и узбекского. По определению Б.Н. Головина, «неологизмы – это слова, возникшие на памяти применяющего их поколения» [1, с. 91]. А.Г. Лыков полагает, что признаком неологизма является «объективное ощущение новизны» [5, с.100].

Иногда носители языка не воспринимают новые слова как неологизмы, не ощущают новизны даже в момент появления этих слов. Как отмечает Миськевич, это происходит потому, что такие слова созданы по продуктивным моделям словообразования и обозначают уже известные реалии [7, с 245].

Неологизмы, по мнению А.А.Брагиной, не только ранее существовавшие слова, но и такие из них, которые появились вместе с новым явлением. Однако в лингвистике чаще протекают процессы осмысления старых слов путем расширения границ значения. В частности, В.И. Максимов считает, что по своей оформленности новые лексические единицы – это отдельные слова или составные наименования. Такие неологизмы называются лексическими. Можно также выделить фразеологические неологизмы (устойчивые сочетания), к которым

относятся неологизмы, представляющие собой слова, составные термины и фразеологизмы, которые называются лексико-фразеологическими [6, с. 116].

Так, А.В. Калинин [3] и М.И. Фомина [9] классифицируют и выделяют лексические и лексико-сематические неологизмы.

Е.В. Сенько (1994) выделяет такие общие типические признаки для неологизмов и инноваций, как необычность, малоизвестность и новизна языковых форм [8, с. 25]. А.И. Диброва под неологизмами понимает «слова, созданные для обозначения новых предметов, признаков, действий» [2, с. 15]. Языковые неологизмы не имеют авторства, образуются чаще продуктивными способами, регистрируются словарями и находятся в пассивном запасе до широкой актуализации обозначаемого явления.

Г.О. Кипарисов построил изучение неологизмов на комплексном структурно-семантическом и коммуникативно-прагматическом анализе семантических неологизмов [4, с. 5].

Для понимания неологизма как «нового в языке» обратимся к лингвофилософскому осмыслению категории понятия «новое», которое предложено Е.В. Сенько в ее работе [8, с. 22]. Она предложила адаптировать к проблемам неологии диалектические категории «движение», «пространство», «время».

Данные явления отражаются в образовании новых лексических единиц, так как они представляют развитие языка и общества (номинация новых реалий новыми языковыми единицами), взаимодействие языковых и общественных систем (пополнение заимствованными словами лексики одного языка), перемещение (актуализация ранее известных лексических единиц).

Как видно, теорий существует большое количество, и в настоящее время не следует придерживаться только одного определения, которое гласит, что неологизмами следует считать только новые слова. Это подтверждается тем, что для каждого индивидуума ощущение новизны зависит от жизненного опыта, от его общекультурной, профессиональной и лингвистической компетенции. Для одного человека услышанное понятие может показаться новым, для другого носителя языка оно является привычным и потому известным.

Рассматривая дословный перевод понятия «неологизм» (neos «новый» + logos «слово»), придерживаясь следующего определения: неологизмы – это слова как собственно новые или заимствованные из других языков, так и ранее известные, употребляющиеся в ограничении либо за пределами языка, либо на какое-то время выбывшие из употребления, а в настоящий момент ставшие широко употребительными.

Данное понятие является относительным и изменчивым по отношению ко времени, т.к. слово остается неологизмом до его закрепления в языке. После

освоения оно теряет новизну, входит в активный словарный состав и становится общеупотребительным.

Положение, доказанное в научной литературе, гласит, что процесс неологизации представляет комплексный феномен, отражающий развитие языка на лексическом и фразеологическом уровнях, социокультурные преобразования (Ф. Годен, В.Г. Костомаров, Т.В. Максимова, Е.В. Сенько, Г.Н. Складаревская и др.).

По-прежнему главными факторами роста неологизмов остаются научно-технический прогресс и взаимодействие с культурами других народов. Большинство новообразований не имеют аналогов в русском языке ввиду отсутствия соответствующего понятия или обозначения узкоспециального термина.

Таким образом, языковые неологизмы создаются для обозначения актуально нового предмета или понятия. Они входят в пассивный словарный запас и отмечаются в словарях русского языка.

Современная наука соединяет все известные подходы и в качестве основной задачи видит разработку критериев описания и типологии языковых инноваций, их связи с другими языковыми единицами. Считаем перспективным изучение процессов неологизации в отдельных аспектах, например, анализ семантических окказионализмов, разработку новой методики выделения неологизмов и инноваций с точки зрения функционального подхода.

Дата появления неологизма должна служить убедительным доказательством неологичности слова только тогда, когда установлена продолжительность периода, в течение которого слово вызывает у носителей языка ощущение новизны. Постоянство ощущения новизны зависит от процесса лексикализации и закрепления этого слова в словаре.

Слово выполняет функцию неологизма с момента своего создания до его включения в словарь общей лексики.

Таким образом, в действительности неологизм в русском языке должен быть однозначным, мотивированным, т.е. обязательно содержать в себе определение того понятия, которое оно обозначает, экономным по форме и способным занимать центр словообразовательного гнезда, а также соответствовать фонетической и морфологической системам русского языка.

Однако ни один из перечисленных критериев не может быть удовлетворительным в ущерб эффективности коммуникации.

#### **ЛИТЕРАТУРЫ**

1. Головин Б.Н. "Введение в языкознание". – М.: Высшая школа, 1977.- с.
2. Диброва, Е.И. Современный русский язык. Теория. Анализ языковых единиц: Учеб. для студ. высш. учебн. заведений. В 2 ч. / Е.И. Диброва, Л.Н. Касаткин, Н.А. Николина, И.И. Щеболева; под ред. Е.И. Дибровой. – М.: Academia, 2001. – 440 с.

3. Калинин А.В. Лексика русского языка. – М.: Изд-во Московского ун-та, 1971. – 225 с.
4. Кипарисов Г.О. Семантические неологизмы: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Тамбов: Изд. дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2011. – 23 с
5. Лыков А.Г. Современная русская лексикология (русское окказиональное слово). – М.: Высшая школа, 1976. – 120 с.
6. Максимов В. И. Типы неологизмов в современном русском языке [Электронный ресурс].
7. Миськевич Г. И., Чельцова Л. К. Новые слова, их принятие и нормативная оценка (Проблема новых слов в культурно-речевом аспекте) // Актуальные проблемы культуры речи / под ред. В. Г. Костомарова, Л. И. Скворцова. М.,1970. С. 243—277.
8. Сенько Е.В. Неологизация в современном русском языке: межуровневый аспект. – Спб.: Наука, 2007. – 355 с.
9. Фомина М.И. Современный русский язык: Лексикология. – М.: Высшая школа, 1983

## THE USAGE OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN GHAFUR GHULAM'S WORKS

*Makhbuba Shavkatovna MARDIYEVA,  
SamDCHTI "Theory of the English language  
and practice" department teacher*

**Abstract.** This article analyzes the semantic features of phraseological units used in G. Ghulam's short stories "Shum Bola" and "Yodgor". Also, lexemes that are the main component in the formation of phraseological units are paid special attention and their explanation is given from the relevant dictionaries.

**Key words:** phraseology, phraseological unit, unitary unit, semantic meaning, homonymy, antonymy, synonymy.

The use of catchy phrases increases the vocabulary of each writer, makes his speech sharp and impressive, and gives it an artistic polish. Folk sayings, aphorisms, and phraseology that call for a thorough mastery of the culture of speech and a deep understanding of the value of the language are among the examples of Uzbek folk oral creativity. In this type of folk sayings and aphorisms, the important qualities of a word, such as being clear and sharp, short and concise, are interpreted.

Phrases that have the same meaning and make up one synonymous nest differ in terms of the degree of mutual imagery. For example, the phraseological units "to reach the head" and "to eat the head" mean the same thing, but they differ according to the level of imagery.

In G. Ghulam's work for children, this phrase is used by the teacher in relation to Karavoy and appears in the following form:

- Yes, let your service eat your head! - said the teacher. - You slaughtered the donkey, damn it! I bought this donkey from the Bukhara Sharif for three gold coins. What an ass he was, bye-bye my ass...(Shum boy, 54)

In the example, this phrase is used to emphasize the meaning of "to destroy", "to destroy" in a stronger and more decisive way. Special "observations show that phraseological synonyms often differ in the level of imagery" [1, 116]

In our language, we use the phrase "not standing in a spade" for naughty, shameful words that cannot be spoken. The word spade in the phrase is shown in O'TIL as a polysemous word to mean two things: 1. Made of wood or metal, which is used to dig, fight, collect something. instrument. 2. The triangular flat bone in the upper part of the shoulder. The phrase "not standing in a spade" found in Tiliiz also has two meanings as a multi-meaning phrase: 1. "Naughty, shameful person who cannot be translated into language. 2. "Irrational, nonsensical [OTIL, II, 146].

In the short story "Yodgor", the first meaning of the phrase "unspeakable" in O'TIL corresponds to "unspeakable naughty, shameful talk": "We were making noise in the narrow office of ZAGS." (Yodgor)

In Shum Bola's work, there is also an analogy related to the word spade, and this expression was used by Haji Baba in the following form:

"Hey," Grandpa Haji said, "Why are you standing around like a shovel leaning against the wall? Say hello to your uncles and come out here, my boy, yes, that's how it will be."

The word "shovel" is defined in [O'TIL] as follows: "a tool with a handle, which is used for collecting ash or grass, for making charcoal". used in the sense of joining.

In the short story "Shum bola", special attention is paid to the image of the market, in the places where the market is described, sentences and phrases used in the process of trading are given. Expressions such as "give your blessing", "give your blessing", "don't have a blessing", "have a blessing", "find a blessing" are often found in the trade of our people. The phrase "bor baraka", "bor baraka top" is recorded in O'TIL and means "say yes to the stated price". [OTIL, II, 34]. In the story, this phrase is used in abbreviated form in the form of "get a blessing": Come on, brother, say, after half an hour of shaking hands, "get a blessing" for a hoe for half a som and a shovel for one and a half coins. we did (24); Before we saw a camel's tooth, before we knew the direction of a horse, before we said to a bull: "Go, find a blessing", a riot broke out on the outskirts of the sheep market. 28); On Friday, the sheep bleated, the camels roared, the horses neighed, the marketers cursed, the sky was covered with market dust, and the brokers' wrists said "Go and find blessings!" tired at (65).

With the lexeme of blessing, a number of expressions have been formed in our language: blessing, let him give his blessing, let it rain, blessing to him, blessing gone, blessing entered, blessing to the threshing floor. Among them, the phrase "baraka top", "baraka topgur" is used by older people as a greeting to the younger ones. In the short story "Yodgor" this phrase is used in relation to Saodat from the language of an old woman: "Saodat, my child, is also a faithful girl: every two days, she will hear from me as ``aunty-aunty". For some reason, he did not come for three days. "I was sitting looking at the door. Baraka Topkur's hand is just a flower. He arranges all affairs in one breath (47)

In conclusion, we can say that G. Ghulam's work is lively and rich. If we analyze the writer's work from one aspect, we cannot ignore the second aspect, if we want to reveal



every aspect, then we will return to the entire creative life of the writer and conduct long-term research and analysis. it's worth it. In this article, we analyzed some individual phrases in the author's work. In our next works, we will expand these analyzes in the coverage of the topic.

#### REFERENCE

1. Sh. Rahmatullayev. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. -Toshkent, «O‘qituvchi», 1969, 116-bet.
2. Sh. Raxmatullayev. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. -Toshkent, «O‘qituvchi», 1992.
3. Karimov N. G‘afur G‘ulom. – T: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2003.
4. Matyoqubova T. G‘afur G‘ulom badiiyati. – T: Fan va texnologiya, 2006.
5. O‘zbek filologiyasining dolzarb muammolari. – Andijon, 2003.

#### TILSHUNOSLIKDA TERMIN VA SO‘Z MUNOSABATIGA DOIR NAZARIY QARASHLAR TAHLILI

*Ahmad Isa o‘g‘li XASANOV,*

*Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti  
kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** O‘zbek tilshunosligida terminologiya bo‘yicha bir qancha jiddiy ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Mazkur ilmiy tadqiqotlarda termin tushunchasiga ta’rif berilgan, asosiy xususiyatlar izohlangan. O‘zbek tilshunosligida ba’zi hollarda “termin” va u bilan bog‘liq holda atama, istiloh terminlari ham qo‘llanadiki, bu o‘rinda ularni farqlab olish maqsadga muvofiq. Tilshunoslikda terminlarni qiyosiy aspektda o‘rganishga ham qiziqish ortib bormoqda. Ikki til terminlarining leksik tadqiqi ularning matndagi qurshovi darajasini aniqlash, o‘zaro farqli jihatlarni belgilash borasida yangi ilmiy xulosalarga kelish imkonini berishi tabiiy. Maqolada mazkur masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** termin, so‘z, istiloh, atama, terminologiya.

**Аннотация.** В узбекском языкознании проведен ряд серьезных научных исследований по терминологии. В настоящем научном исследовании дано определение понятия термина, объяснены основные характеристики. В узбекском языкознании в некоторых случаях употребляется также термин “термин” и связанный с ним термин "ихтилох", в этом месте целесообразно их различать. В лингвистике также растет интерес к изучению терминов в сравнительном аспекте. Естественно, что лексическое исследование терминов двух языков позволяет определить степень их окружения в тексте, прийти к новым научным выводам об установлении взаимоисключающих аспектов. В статье представлены комментарии по этим вопросам.

**Ключевые слова:** термин, слово, занятие, термин, терминология.

**Annotation.** In Uzbek linguistics, several serious scientific studies have been carried out on terminology. In this scientific research, the concept of the term is described, the main features are explained. In Uzbek linguistics, in some cases, the term “term” and, in connection with it, the terms term, occupation are also used, in which it is advisable to distinguish them. There is also a growing interest in the study of terms in

the comparative aspect in linguistics. It is natural that a lexical study of two language terms makes it possible to determine the degree of their envelopment in the text, to come to new scientific conclusions regarding the definition of different aspects. The article provides feedback on these issues.

**Keywords:** term, word, occupation, term, terminology.

Zamonaviy tilshunoslikda termini lingvistik kategoriya sifatida tushunish va o'rganishning asosiy muammolaridan biri uning ta'rifidir. Terminga berilgan ta'riflarining aksariyatida, birinchi navbatda, uning *tushuncha (konsept)* bilan aloqasi tilga olinadi. "Termin – maxsus bilim yoki faoliyat sohasiga oid tushunchani ifodalovchi so'z yoki birikma", "Termin – bu maxsus tushunchalarni aniq ifodalash uchun yaratilgan (qabul qilingan, olingan va hokazo) maxsus (ilmiy, texnik va boshqalar) so'z yoki birikma"[1] kabi.

Bugungi kunda kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlarda[4] esa termin tushunchadan ham kattaroq bo'lgan fenomen konseptga tenglashtiriladi. Kognitiv terminologiyaga ko'ra termin bilish (idrok) jarayonida tug'iladigan, shakllantiriladigan dinamik hodisa bo'lib, tushunchadan – aqliy kategoriyadan – ma'lum bir nazariya bilan bog'liq bo'lgan og'zaki tushunchaga o'tishdan hosil bo'lgan tushunchadir[8].

Zamonaviy terminologiyaga oid ilmiy tadqiqotlarda terminning o'ziga xos bir qancha xususiyatlari qayd etilgan. Tilshunos olimlarning barchasi terminning ilmiylik xususiyatiga egaligi borasida bir xil fikr bildirgan. Darhaqiqat, terminning ilmiy-texnik tafakkur hosilasi bilan aloqadorligi uning asosiy belgilaridan biri. Bu xususiyat uni tilimizda keng tarqalgan qo'llanish doirasi chegaralanmagan so'zlar va boshqa turdagi maxsus leksik birliklardan ajratib turadi. Terminlarning qo'llanilish doirasi chegaralanmagan so'zlardan navbatdagi farqi – sistemalilik (tizimlilik) xususiyati, muayyan fan-texnika terminologiyasiga singib ketgan umumiy munosabatlar yoki "butun-bo'lak" kabi semantik munosabatlariga egaligi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, terminologik birlik yakka holda mavjud emas, balki muayyan sistema (tizim)da faoliyat yuritadi va boshqa leksemalar bilan sinonimik, antonimik kabi leksik-semantik aloqaga ega. Terminning sistemalilik xususiyati uning tarmoq terminlari tizimidagi o'rnini aniqlashga xizmat qiladi. "Hozirgi o'zbek tilidagi faol so'zlarning izohli lug'ati"da sistema (tizim)ga shunday izoh beriladi: "Tizim – umumiy belgilarga ko'ra birlashgan elementlar, birliklar majmui"[9].

F. de Sossyur tilga sistema sifatida ilk yondashgan olimdir. Uning ta'limotida: "Til g'oyalarni ifodalovchi belgilar sistemasidir", - deyiladi[10]. Shubhasiz, har qanday sistema o'zining komponentlariga nisbatan yirik butunlik, ichki birliklar esa sistemaning, ya'ni butunning qismidir. Qismlarning ham, o'z navbatida, tashkil etuvchilarga ajralishini inobatga olsak, ular ham o'z komponentlariga nisbatan sistemadir. Til yaxlit bir sistema bo'lib, o'ziga nisbatan qism, ayni chog'da, sistema talablariga javob bera oladigan tagsistemalar yig'indisidan iboratdir.

Termini chuqur o'rgangan bir qator olimlarning fikricha, terminlar tildagi maxsus so'zlar. D.S.Lotte, S.A.Chaplogin, E.K.Drezenlar terminga maxsus so'z va birikma sifatida qarab ularda quyidagi belgilar bo'lishi kerak deb hisoblaydi:

- 1) terminning noaniqligi;
- 2) sinonimlarga ega emaslik;
- 3) asosiy ma'nolarning uyg'unligi (motivatsiya);

- 4) tizimlilik ;
- 5) qisqalik;
- 6) soddalik va tushunarlilik;
- 7) aniqlik;
- 8) joriy qilinganlik;
- 9) kontekstdan mustaqillik;
- 10) asossiz chet tillardan soʻz olishga yoʻl qoʻyilmaslik (bu terminning “oʻz tili”)[7] .

Ammo boshqa bir guruh olimlar har qanday soʻz ham termin boʻla oladi, degan fikrni olgʻa surishadi. Bu fikrni asoslab G.O.Vinokur, V.G.Gak, N.P.Kuzmin kabi olimlar bir qancha ilmiy asarlar yozishdi. G.O.Vinokurning fikricha, “Har qanday soʻz termin boʻlishi mumkin ... terminlar maxsus soʻzlar emas, balki faqat maxsus vazifa bajaradigan soʻzlardir”[2]. V.G.Gak esa bu borada shunday fikr bildiradi: “Terminlarning leksikologik va semantik tahlili, shuningdek, umumiy leksikografiya tajribasi shuni koʻrsatdiki, termin lugʻaviy birlikning maxsus turi emas, balki qoʻllanish turi hisoblanadi”[3]. N.P. Kuzmin esa termin va maxsus soʻzlar oʻrtasida hech qanday farq yoʻqligini eʼtirof etadi: “Terminlar ijtimoiy qayta ishlash va tanlashga boʻysundirilgan maxsus leksikaning mantiqiy boʻlagi. Soʻz va termin, boshqa maxsus va umumiy til fondidagi soʻzlar oʻrtasida sezilarli farqlarni topib boʻlmaydi”[5].

Termin va soʻz munosabati hamisha tadqiqotchilar diqqat-eʼtiborida boʻlgan. “...terminlar – bular soʻzlar va hech bir lingvistik hodisa ularga begona emas”[6].

Oʻzbek tilshunosligida U.Tursunov, S.Usmonov, A.Madvaliyev, H.Dadaboyevlar terminologiya masalalari tahliliga bagʻishlangan qator ishlarida termin, istiloh, nomenlarning farqini tushuntirishga harakat qildi. Masalan, S.Usmonov talqiniga koʻra termin gapdan tashqarida olinganda ham maʼlum bir aniq maʼno ifodalaydigan soʻz yoki turgʻun holatdagi soʻz birikmasidir[11]. A.Madvaliyev esa termin oʻzlashmasini ilm, fan-texnika sohalari yoki tarmoqlarida qoʻllanuvchi soʻz va birikmalari, atama soʻzini esa shartli ravishda qoʻyilgan nomlar (nomenklatura, nomenlar), xususan, geografik obyektlar, joy nomlari (toponimlar), arabcha istiloh oʻzlashmasini esa tarixiy terminologiya aspektidagi izlanishlar, tarixiy manbalar matnidagi tushunchalarga nisbatan ishlatish toʻgʻri deb baholaydi. H.Dadaboyev termin va nomenning farqini quyidagicha izohlaydi: nomenklatura va terminologiya oʻrtasidagi prinsipial farqlardan biri – nomenlar, odatda, terminologik lugʻatlarda qayd etilmaydi yoxud oʻta cheklangan miqdorda lugʻatlardan oʻrin oladi. Maʼlumki, rasmiy ilmiy nomenga ega atsetilsalitsil kislota dorisi tijoriy aspirin nomi bilan keng ommalashgan va sh.k. Fan turli sohalarining rivojlanishi jarayonida ayrim nomenlar terminlar tizimiga oʻtishi, sof leksik nominativ birliklardan mantiqiy (logik) axborot, maʼlumot elementi, yaʼni ilm-fan terminiga aylanishi mumkin.

Yuqoridagi fikrga asoslanib, termin va soʻz oʻrtasida jiddiy farq yoʻq deb qarasaq, terminologiyada termini nazariy tushunish doirasi torayadi. Haqiqatan ham, har qanday soʻz termin boʻlishi mumkin, ammo qaysi mezonlarga koʻra ular bir-biri bilan yaqinlashishiga aniqlik kiritilishi lozim. Masalan, shunday soʻzlar borki, ular tilda termin sifatida ham, leksema sifatida ham mavjud boʻlishi mumkin (odamning qoshi - egarning qoshi, odamning burni - kemanding burni, koʻylakning yoqasi - daryoning yoqasi). Masalaning mana shu jihatlariga eʼtibor qaratish terminologiya obyektini aniqlashtirishga yordam beradi.

## ADABIYOTLAR

1. Алексеева Л.М. Проблемы термина и терминообразования. – Пермь, 1998. – 120 с.
2. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Тр. Московского института истории философии и литературы. – М., 1939, т. V. – С. 5.
3. Гак В.Г. Ассиметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии // Сб.: Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики, ч.2, М., МГУ, 1971. – с. 68.
4. Ивина Л.В. Лингво-когнитивные основы анализа отраслевых терминосистем (на примере англоязычной терминологии венчурного финансирования). М.: Академический проект, 2003. – 304 с.; Лукоянова Т.В. Причины разнообразия определений понятия «термин» Козловская О.Г. Когнитивный подход к исследованию термина как инструмента познания // Язык как средство коммуникации: теория, практика, методика преподавания. – М., 2007. – С. 245–247.
5. Кузьмин Н.П. Отглагольные существительные в специальной лексике (на материале лексики станкостроения, приборостроения и общего машиностроения)// Исследования по русской терминологии. – М.: Наука, 1971. – С. 331.
6. Котелова Н.З. К вопросу о специфике термина // Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. – М.: Наука, 1970. – С. 124.
7. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М.: Изд-во акад. Наук СССР 1961. – С. 15-16; 72-79.
8. Лейчик В.М. Терминоведение: Предмет, методы, структура. Изд. 4-е. М.: ЛИБРОКОМ, 2009. – С. 21-22.
9. Hojiyev A., Nurmonov A. va boshq. Hozirgi o‘zbek tilidagi faol so‘zlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 336.
10. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Фан, 2008.
11. Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968. – Б. 4.

## ХАЙЙОМ RUBOIYOTINI TARJIMA QILISH MUAMMOSI

*Zulxumor Sabatullayevna SULTANOVA,*

*Uzbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada sharqshunoslar Hayyomning ruboiyotini tuzilishi, badiiy san’atni qo‘llanishi, jonsiz narsalarni, tabiat tasvirini, sinonimlardan qanday foydalanganligini tahlili aks etilgan.

**Kalit so‘zi:** ruboiy tuzilishi, badiiy san’at, so‘z, , tabiat tasviri, sinonim.

**Аннотация.** В статье отражен анализ структуры «рубайята» Хайяма, использования искусства, использования неодушевленных предметов, изображений природы, синонимов востоковедами.

**Ключевые слова:** структура, художественное искусство, слово, образ природы, синоним.

**Abstract.** The article reflects the analysis of the structure of Khayyam's Rubaiyat, the use of art, the use of inanimate objects, images of nature, and synonyms by orientalists.

**Key words:** Rubaic structure, artistic art, word, image of nature, synonym.

Xayyomning badiiy mahoratiga yuqori baho bergan sharqshunoslardan biri I.S.Braginskiydir. Bu olim “O‘n ikki miniatyura” risolasida e‘lon qilingan “Ruboyoti Xayyom” maqolasida Xayyomning she‘riy san‘atkorligiga yuksak baho berib, xususan, “Xayyom birdaniga emas, ba‘zan kutilmaganda yangicha fikr ifodasi bilan yoqadi”, deb qo‘shimcha qilgan. Shuningdek, uning she‘ridagi botiniy (ichki) ma‘nolarni ochib berishga harakat qilgan. Buning uchun u ko‘pincha so‘zlarning yashirin (botiniy, ramziy) ma‘nolaridan foydalanadi. Uning she‘ri yarim shubhali, yarim g‘amli, yarim e‘tirofli, yarim e‘tirozlidek sado beradi («ни мусулманин, ни еретик», “ни раб, ни господин”, “ни любовь, ни мука») [2,162], uning badiiy san‘atlardan, ayniqsa, kontrast (tazod) san‘atidan foydalanish o‘ziga xosdir. Tadqiqotchi Xayyom san‘atining “yarim ohang estetikasi” (эстетика и полутонов») ni tan oladi va bu yondashuvni shoir rivoyatlarini tarjima qilish muammosi deb atadi [2,163].

I. A. Golubev yuqorida tilga olingan maqolasida va “Ruboyoti Xayyom” kitobining so‘zboshida e‘lon qilingan va rus tiliga eng so‘nggi tarjima bo‘lgan kitobda shoirning badiiy san‘atkorligi haqida fikr yuritadi. Qolaversa, Xayyomning so‘z qo‘llash mahoratiga baho berib, masalan, “sharob” so‘zining turli ma‘nolarda qo‘llanishini izohlaydi. Uning fikricha, Xayyom sharobdan turli ma‘nolarni ifodalovchi timsol sifatida foydalangan [3,45]. Tadqiqotchi bu so‘zning asosiy ma‘nolarini shoirning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib izohlaydi. Uning fikricha, avvalo, “sharob” hayotdagi eng yaxshi narsa bo‘lib, u orqali qalb “yolg‘on qadriyatlar”ga: yoshlik va muhabbatga, bog‘larning bahori va gullariga, musiqa va qo‘shiqqa, kamolot va ijodga, dunyo ilmini bilish va do‘stlar bilan munosabatlarga, qarilik va hikmatga, she‘r va hikmatli bahsga e‘tibor bermasdan ozuqa oladi. Boshqacha qilib aytganda, hayotning haqiqiy qiymatidir. Ba‘zan bu sharob "sof", "toza sharob", "uzumdan olingan suv", ba‘zan esa "ishq sharobi", "donishmandlik sharobi" tarzida ifodalangan. Unga hamroh bo‘lgan asosiy tuyg‘u – hayot shodligi, baxtiyorlik... Demak, Xayyomning ishq timsoli (agar uning tasavvufiy ruboiylarini hisobga olmasak) mana shu “sharob”ga juda yaqin, farqi shundaki, “ishq” inson ko‘ngili uchun “sharob” esa inson ruhi uchundir” [3,45].

Dispersion is the displacement from this point. Spectrum is the distribution of colours produced when white light is dispersed by a prism or diffraction grating. There is a continuous change in wavelength from red, the longest wavelength, to violet, the shortest. Seven colours are usually distinguished: violet, indigo, blue, green, yellow, orange, and red. Static electricity is electric sparks or crackling produced by friction. Superconductivity is the property of certain substances that have no electrical resistance. In metals it occurs at very low temperatures, but higher temperature superconductivity occurs in some ceramic materials. Superfluidity is the state of being or property of becoming a superfluid. Surface tension is a property of liquids caused by intermolecular forces near the surface leading to the apparent presence of a surface film and to capillarity, etc. Tau is a clean unstable, negatively charged lepton with a mass of c. 1,777 MeV/c<sup>2</sup> (or c. 3,490 times that of an electron) and a mean lifetime of  $2.2 \times 10^{-13}$  seconds. Tension is a force that tends to produce an elongation of a body or structure. Terminal velocity is the constant maximum velocity reached by a body falling under gravity through a fluid, esp the atmosphere. Thermostat is a device that maintains a system at a constant temperature. It often consists of a bimetallic strip that bends as it expands and contracts with temperature, thus breaking and making contact with an electrical power supply. Transformer is a device that transfers an alternating current from one circuit to one or more other circuits, usually with an increase (step-up transformer) or decrease (step-down transformer) of voltage. The input current is fed to a primary winding, the output being taken from a secondary winding or windings inductively linked to the primary. Transistor is a semiconductor device, having three or more terminals attached to electrode regions, in which current flowing between two electrodes is



controlled by a voltage or current applied to one or more specified electrodes. The device is capable of amplification, etc, and has replaced the valve in most circuits since it is much smaller, more robust, and works at a much lower voltageultravioletthe part of the electromagnetic spectrum with wavelengths shorter than light but longer than X-rays; in the range  $0.4 \times 10^{-6}$  and  $1 \times 10^{-8}$  metresvacuuma region containing no matter; free spacevelocitya measure of the rate of motion of a body expressed as the rate of change of its position in a particular direction with time. It is measured in metres per second, miles per hour, etcviscositya measure of this resistance, equal to the tangential stress on a liquid undergoing streamline flow divided by its velocity gradient. It is measured in newton seconds per metre squaredvoltthe derived SI unit of electric potential; the potential difference between two points on a conductor carrying a current of 1 ampere, when the power dissipated between these points is 1 wattwattthe derived SI unit of power, equal to 1 joule per second; the power dissipated by a current of 1 ampere flowing across a potential difference of 1 volt. 1 watt is equivalent to  $1.341 \times 10^{-3}$  horsepowerwaveone of a sequence of ridges or undulations that moves across the surface of a body of a liquid, esp the sea: created by the wind or a moving object and gravitywavelengththe distance, measured in the direction of propagation, between two points of the same phase in consecutive cycles of a wavex-rayelectromagnetic radiation emitted when matter is bombarded with fast electrons. X-rays have wavelengths shorter than that of ultraviolet radiation, that is less than about  $1 \times 10^{-8}$  metres. They extend to indefinitely short wavelengths, but below about  $1 \times 10^{-11}$  metres they are often called gamma radiation▷ See physics

Copyright © 2016 by HarperCollins Publishers. All rights reserved.

## “BOBURNOMA” NING BADIYYATINI TA’MINLOVCHI MAQOLLARNING IFODA VA MAZMUN MUNOSABATI

A.T.RASULOVA,

*Navoiy shahar 11-AFCHO‘IM ona tili va adabiyot o‘qituvchisi, magistr*

**Annotatsiya:** maqolada “Boburnoma” asarida keltirilgan she’riy baytlar va ularda maqollarning qo‘llanishi haqida, shuningdek, Boburning o‘z asarida didaktik ahamiyat kasb etgan hikmatli so‘zlar, maqollardan unumli foydalangani batafsil keltirilgan.

**Аннотация:** в данной статье приведены и проанализированы стихотворные строки и выявлены особенности использования пословиц в «Бабур-наме», а также изложен вопрос о дидактическом значении, эффективной использовании афоризмов в «Бабур-наме».

**Annotation:** this article contains poetical lines in “Baburnama” and the analyzed, the properties of the proverbs were determined, as well, the issue of didactic meanings of aphorism in “Baburnama” have raised the issue of effectively

**Kalit so‘zlar:** maqollar, poetik ko‘chim, dalillash san’ati, didaktik ma’no

**Ключевые слова:** пословицы, поэтический перенос, искусство аргументирования, дидактический смысл

**Keywords:** proverbs, poetic slips, evidence art, didactic meaning.

Yozma adabiyotning badiiy jihatdan go‘zal, shakl va mazmun jihatdan ixcham bo‘lishi hamda xalq hayotiga yaqinlashuvida maqollarining ahamiyati muhim hisoblanadi. “Xalq maqollari, matallari, iboralari, hikmatli so‘zlari lirik qahramon ichki dunyosini yoritishda, uning kayfiyat va ruhiyatini tasvirlashda, so‘zga ma’no va zeb berishda, she’riyat (nasr)ga hayotiylik baxsh etishda, uni xalqqa yaqinlashtirishda zarur manba sifatida xizmat qiladi. Chunki xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va boy hayotiy tajribaga asoslangan, o‘zida o‘tmish donoligini singdirgan, ko‘pgina donish ahillarining aqli majmui sifatida shakllangan maqol va matallar badiiy asar mazmuniga, tiliga hamisha ijobiy ta’sir ko‘rsatib kelgan”. [1] Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiylikni oshirish va badiiy til ravonligini ta’minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so‘z san’atkorlarining diqqat markazida bo‘lgan. M. Koshg‘ariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Alisher Navoiy, Bobur, Munis, Nodir, Muqimiy va boshqa o‘nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o‘rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba’zan aynan, ba’zan o‘zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz [2]. So‘z san’atining mahsuli sifatida maqollar ham badiiyat hodisalaridir. Ularda bir so‘zning o‘nlab ma’no qirralari, badiiy tasvir vositalari, poetik ko‘chimlarining barcha namunalarini uchratish mumkin.

“Boburnoma“ ning ham turli o‘rinlarida maqollar qo‘llanilgan. Bizga ma’lumki, she’riyatda maqollar, hikmatli so‘zlarni qo‘llash irsol ul-masal, tamsil kabi dalillash san’atlarini yuzaga keltiradi. Xususan, adabiyotshunos A.Hojiahmedov irsoli masal kitobida shunday yozadi: “Irsol masal “maqol keltirish” ma’nosini bildirib, she’riyat va nasrda ifodalanayotgan biron fikrni isbotlash uchun xalq maqolini keltirish san’ati sanaladi.[3] Demak, irsoli masal gapda yoki she’rda maqol, matal va hikmatli so‘zlarni muayyan maqsadda tamsil (fikrni hayotiy misollar yordamida haqida “She’riy san’atlar va mumtoz qofiya” dalillash ) yo‘li bilan ishlatish san’atidir . “Boburnoma” ning ko‘plab o‘rinlarida maqollar to‘g‘ridan to‘g‘ri turli vaziyatlarda: personajlarning kayfiyati, holatini ta’sirli ifodalash, adibning ruhiy kechinmalari aks etgan o‘rinlarni ko‘rsatish, kishilarning borliqdagi mavjud muammolarini falsafiy isbotlash maqsadida qo‘llaganining guvohi bo‘lamiz. Masalan, asarda ba’zi maqollar kinoyali va shakllantirilmagan holda yoki bayt shaklida berilgan, turkiy va forsiy maqollardan birdek foydalanilgan. “Boburnoma” da maqolligini asoslash uchun “Masal borkim”, “bir turki masal bordurkim”, “burung‘ilar debturlarkim”, “nechukkim, debturlar” kabi jumlar keltirilgan.

Asarda “Deh kujovu daraxton kujo (Qishloq qayda-yu, daraxtlar qayda) masalni g‘olibo Axxi uchun aytibturlar (8-bet), “ G‘ofil az injo ronda va az onjo monda” ( G‘ofil bu yerdan quvilgan, u yerdan ajralgan, 51-bet), bu andin yomonroq masal borkim: “Uzrash batar az gunoh ” (Uzri gunohidin yomonroq, 73-bet), nechukkim, debturlar: “Safi mag‘lubro ho‘ye basandast” (Yengilgan safga bir “hoy” kifoyadir,103-bet), ul masal borkim, “on guzarro ob burd”( ul kechuvlarni suv olib ketdi, 112-bet) , masal borkim: “Dushman ne demas, tushga ne kirmas”, “Darvozai shahrro tavon bast, natvon dahani muxolifon bast ( Shahar darvozasini yopib bo‘ladi-yu, dushman og‘zini yopib bo‘lmaydi” ,131-bet), bir forsi masal bor: “Marg bo yoron surast” (Do‘stlar bilan birgalikdagi o‘lim to‘ydir, 175-bet), “Zikri nomero, hakimon umri soni guftaand” (Shuhrat bilan yondashishni , hakimlar , ikkinchi umr demishlar, 168-bet), xotirg‘a kechtikim, u masal borkim, “gah yozdah beh, gah nuh”( goh o‘n yaxshi, goh to‘qquz, 234-bet) kabi **forscha maqollar**; masal borkim, “Qopudag‘ini qopmasa, qarig‘unchga

qayg'urar" (67-bet), ul bir turki masal bordurkim, "Inonmag'il do'stungg'a, somon tiqar po'stungg'a" (70-bet), "Ko'zlarini tuz tutti" (71-bet), Burung'ilar deb turlarkim, qo'rg'on berkitmaklikka bosh kerak, ikki qo'l kerak, ikki but kerak: bosh sardor bo'lg'ay (84-bet), tog'lari ellariga munosib tushubtur, nechukkim, "teng bo'lmaguncha, tush bo'lmas" deb turlar (129-bet), kimdin yaxshi qoida qolg'on bo'lsa aning bila amal qilmoq kerak (169-bet), kim o'lar holatg'a yetsa, ul bilur jon qadrini (282-bet), yomon ot bila tirilgandin yaxshi ot bila o'lgan yaxshiroq (289-bet) kabi **turkcha maqollar** keltirilgan. Ya'nikim, "Boburnoma"da qaysi o'ringa va qaysi vaziyatga nisbatan bu maqollar qo'llanganining o'z tarixiy voqeasi taqdim etilgan. Xususan, asar muallifi hayotiy, ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettirish orqali ba'zi tarixiy shaxslarning qiyofasini ochishda xalq maqollaridan unumli foydalangan.

Masalan, Bobur "... bir forsi masal bor: "Marg bo yoron surast" (Do'stlar bilan birgalikdagi o'lim to'ydir, 175-bet) maqolini G'arjiston sovuqlarida, qor yoqqan bir paytda askarlarini ruhan quvvatlantirish maqsadida keltirib o'tgan. Shuningdek, u xalq maqollarining mazmunini ochishga, uni yanada aniqlashtirishga yordam beradigan jumlar bilan birga qo'llagan: "*Bu dunyoda kishidin ushmondog' nimalar qolur, har kim aqldin bahravar bo'lsa, nega andog' harakatga iqdom qilg'aykim, andin so'ng yomon degaylar va har kishiga hushdin asar bo'lsa, nega andog'amrga ehtimom qilmag'aykim. Zikri nomero, hakimon umri soni guftaand*" (168-bet). Bu o'rinda keltirilgan "ismning yodga olinishini hakimlar ikkinchi umr deganlar" maqoli Muzaffar Mirzo va Husayn Mirzo (ota va farzand) orasidagi o'zaro nizoli vaziyatni tasvirlash maqsadida ishlatilgan. Shunday maqollardan yana birini u 1506-yildagi Badiuzzamon Mirzo bazmlari voqealari tasvirida keltirib o'tgan: "*Har kimdin yaxshi qoida qolg'on bo'lsa aning bila amal qilmoq kerak, agar ota yomon ish qilg'on bo'lsa, yaxshi ish bila badal qilmoq kerak*" (169-bet).

"**Kim o'lar holatg'a yetsa, ul bilur jon qadrini**" (282-bet) masalini (asarda bu "*misra*" ), ya'ni nasriy asarda she'rdan olingan yoki mustaqil misra deb keltiriladi ) esa Bobur og'ir xastalikdan tuzalganida aytadi va o'zining tirik qolishini Tangrining inoyati deb hisoblaydi. Bugungi kunda bu maqolning "*Kasal bo'lmaguncha sog'lik qadriga yetmas*" varianti ham mavjud. Quyidagi maqol ham mazmunan "*Burgaga achchiq qilib ko'rpa yoqma*" maqoliga teng keladi:

**Ba tundi sabuk dast burred ba teg' ,**  
**gazad pushti dasti dareg'.**(80-bet)

**Ba dandon**

Ya'ni:

G'azabdan xanjarga qo'l cho'zgan kishi,

Afsus barmog'ini tishlashdir ishi. [4]

"Boburnoma" da shunday jumlati gaplar ham borki, ular mazmunan maqolni yodga soladi. Masalan, Sulton Mahmudxon Bobur bilan birgalikda Ahmad Tanbalga qarshi jang qiladi. Jang vaqtida Bobur Sulton Mahmudxonda yuraksizlarga xos holatni payqab, unga shunday deydi: "Bu Tanbal ne miqdor kishidurkim, muncha dag'dag'a va taraddud tortasiz. **Agar ko'zungiz qo'rqsa, ko'zingizni bog'lab yurib ro'baro' bo'laling**". Muallifning yuqorida keltirilgan parchada "**Ko'z qo'rqqoq, qo'l botir**" maqoliga ishora qilinganligi sezilib turadi. Yana bir misolda u Rona Sangaga qarshi jang qilish arafasidagi voqeani bayon qilib, o'zining jangchilariga so'zlagan nutqida shunday yozadi: "Har kimki hayot majlisiga kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichgusidur va har kishikim, tiriklik manzilig'a kelibtur, oxir dunyo g'amxonasidin

kechgusidur. **Yomon ot bila tirilgandin, yaxshi ot bila o'lgan yaxshiroq**" (289-bet). Bu o'rinda u maqol zamiridagi ma'noni voqea bayoni ichiga singdirib yuborgan.

Quyidagi maqollar esa bugungi kunda deyarli o'z ifoda va mazmun munosabatini saqlab qolgan:

1. **Inonmag'il do'stungg'a, somon tiqar po'stungg'a** (70-bet)
2. **Ko'zlarini tuz tutti** (71-bet)
3. **Yomon ot bila tirilgandin yaxshi ot bila o'lgan yaxshiroq** (289-bet)

Bundan ko'rinib turibdiki, Bobur o'z zamonasining buyuk asarlaridan mutolaa qilgan, "Aslida ixchamlik, lo'ndalik, o'tkirlik, tushunarlik va ta'sirchanlik hikmatli so'zning (shuningdek, maqolning) asosiy xususiyatlari bo'lib, Bobur o'z hikmatlarida bu talablarga ortig'i bilan rioya qilgan".[5] Shunday ekan, Sharq mutafakkirlari, xususan, Bobur ham o'z asarida didaktik ahamiyat kasb etgan hikmatli so'zlar, maqollardan unumli foydalangan va o'zining badiiy-estetik olamini ko'rsata olgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Xo'jayev T.R. Alisher Navoiy "Xamsa"sini o'rganish. – T.:Fan, 2014, 89-bet
2. O'zbek xalq maqollari. - T.: Sharq, 2005 , 3-bet
3. Hojihatmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T.,1998, 59-bet Hojihatmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T.,1998, 59-bet
4. Zahiriddin Muhammad Bobur . Boburnoma/ Mas'ul muharrir M.Sa'diy; maxsus muharrir N.Komilov ( V.Rahmonov va K.Mullaxo'jayeva tabdili ). – T.: O'qituvchi NMIU, 2012,81-bet
5. Ochilov E. Bobur. – T.: "Abu matbuot-konsalt", 2011, 19-bet

#### “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA CHORVACHILIKKA OID TERMINLAR

*Marjona JUMAYEVA,  
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi  
Manzura QURBONOVA,  
Buxoro davlat universiteti 4-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridagi qo'llangan chorvachilikka aloqador bo'lgan nomlar o'rganiladi. Hozirgi kunda ham, o'z qiymatini yuqotmaganligini, ko'p yillik tarixi, etnografiyasi va maishiy hayotini o'zida aks etganligi xususida fikr mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** leksema, lingvistika, falsafa, mantiq, ijtimoiy lingvistika, geografiya, etnografiya, zoonim, astronomiya.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются названия, связанные с животноводством, использованные в произведении Махмуда Кашгари «Девону Луготит Турк». Даже сейчас существуют мнения о том, что он не утратил своего значения, что отражает многолетнюю историю, этнографию и быт.

**Ключевые слова:** лексема, языкознание, философия, логика, социальная лингвистика, география, этнография, зооним, астрономия.

**Abstract:** This article examines the names related to animal husbandry used in Mahmud Kashgari's work "Devonu Lugotit Turk". Even now, there are opinions about

the fact that it has not lost its value, that it reflects many years of history, ethnography and household life.

**Key words:** lexeme, linguistics, philosophy, logic, social linguistics, geography, ethnography, zoonym, astronomy.

Buyuk Sharq mutafakkiri, o'z ijodi bilan ijtimoiy falsafa, tilshunoslik, mantiq, adabiyotshunoslik, she'riyat, ijtimoiy lingvistika, tabiatshunoslik rivojiga ulkan hissa qo'shgan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari turkiy islomiy madaniyatni yanada boyitib, yuksak pog'onaga ko'tardi. Asar qoraxoniylar davrining noyob durdonasi hisoblanadi. U o'lmas obida sirasiga kiradi va o'zida davr tili, adabiyoti, tibbiyoti, tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, hunarmandchiligi va astronomiyasi xaqidagi bilimlarni qamrab olgan. Mahmud Koshg'ariy qonun va tartibga rioya qilishga da'vat etish bilan birga hayotni bebaho ne'mat sifatida qadrlashni uqtirdi, qayta-qayta ilmni ulug'ladi. Bir so'z bilan aytganda "Devonu lug'otit-turk" butun ma'naviy badiiy xususiyatlari bilan betakror obidaga, turkiy xalqlar tarixi to'g'risidagi dostonga aylandi. Asarning bosh g'oyasi bitta falsafiy fikrga yo'naltirilgan. Olim yurtni ulug'lash, turkiy xalqlarni birlashtirish, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish muhimligini ta'kidlaydi.

#### **I. HAYVON NOMLARI:**

1. jariz at – chovkar ot [2, 17]
2. jŷrpyk at– yugruk yot. Poygada o'zib ketadigan chopqir ot. O'g'uzlar bilag'on, donishmand, ziyrak va fozil kishilarini "jŷrpyk bilgä" deydilar.[3, 52]
3. Jалафap – shohlarning elchilariga beriladigan ot (Uyg'urcha). Maqolda shunday kelgan: Jam ot kŷjmäc ,jалафap ölmäc – yosh (ho'l) o't yonmaganidek, xabari har qancha og'ir va dahshatli bo'lsa ham elchiga o'lim yo'q. Chunki bu achchig' xabar shohdandir.[1, 54]
4. Jabitaq at – ustida egari, to'qimi yo'q yaydoq ot. Ol atif jabitaq myndi – u otni yaydoq mindi. [1, 55]
5. Jŷgŷrgän at – yuguruk, chopar ot. Boshqasi ham shunday.[2, 62]
6. qosh at – shu yonidagi yetov ot. [3, 139]
7. qon– qo'y (arg'ular so'zi). Bu so'zda n harfi y o'rniga almashgan.[3, 154]
8. koj – qo'y.[1, 155]
9. Taz at – terisi yo'l-yo'l, olacha ot.[2,163]
10. Taz koj – shoxsiz qo'y.[1, 163]
11. Sam at – hurkovich ot.[3,166]
12. Chal koj – ola-bula qo'y.[3,171]
13. Taj – toy, toycha. She'rda shunday kelgan:  
Tegŷp mēniŷ sawimi bilrälirä aj  
Tinar kalı atatca kıcrak sini taj.  
Mening so'zimni aqllilarga yetkaz. Agar biyaning toychasi ot bo'lsa, biya tinadi. Chunki onasi o'rniga uni miniladi.[3,173]
14. Tadun – bir yoshli buzoq.[2,186]
15. Jopifa at – yo'rg'a ot. [1,189]
16. Bi – biya. Turklarda ,ammo o'g'uzlarda emas. [3,223]
17. kuba at – sochi qo'ng'ir rangli ot. Shu xildagi har bir rangga ham shunday deyiladi.[1,236]



18. Ботуқ – tuya bo‘talog‘i. [1, 236]
19. Кéчi – echki (o‘g‘uzcha). [3, 238]
20. қарī at – katta yoshli ot demakdir. Boshqasi ham shunday. [3,242]

### **II.ZOONIMLARGA ALOQADOR DETALLAR:**

1. Жулар – otning yugani,no‘xtasi. Maqolda shunday kelgan: јунд башīн јўләрләб кéңiлдi – otning boshini qaynatgandan keyin yemoqchi bo‘lsang,qochmasligi uchun unga avval no‘xta solib bog‘la, keyin uni yegin. Bu masalni otdan foydalanish uchun oldin uni yaxshi saqlashga, bo‘sh qo‘ymaslikka undab aytiladi. [3,16]
2. Јалīғ – ot yoli. Bu so‘zning bir tilda "јал" varianti ham bor. То‘g‘risi "јéл" shaklidagi variantidir.[3,20]
3. Јалīғ – egarning oldingi va orqa qoshlari. Ularni bir-biridan ayirib aniqlash uchun öңдўғi јалīғ – old qosh, кéдiнғi јалīғ – orqa qosh tarzida qo‘llanadi. [3,21]
4. Јilиn – baytal yelini. Shuningdek, har bir sohib changal (tirnoqli) hayvon yeliniga ham bu so‘z qo‘llanadi. [3,30]
5. Јазғуқ – baytal emchaklarining uchi. Ва‘zilari "јазғуқ" deydilar (qirchoqcha). [3,34]
6. Јуғду – tuyalarning jag‘ ostidagi uzun tuklari. [1, 37]
7. Јуғру – tuyaning uzun mo‘ylari. Ва‘zan bu so‘zni "јуғруј" tarzida ham qo‘llaydilar. Bu so‘zdagi "p" harfi "д" harfi bilan almashgandir. [2,38]
- 8.Јапғуч – eshak va boshqa hayvonlarni haydashda ishlatiladigan xivich, cho‘p. [3,45]
9. Јабī – egar ustiga qo‘yiladigan yostiq ko‘rpacha (chigilcha) [3,30]
- 10.Јалу – toychalarni bog‘laydigan arqon. Biyalarni sog‘ishda toychalar biya atrofida o‘tlab turishiga moslab, bir arqonga bog‘lanadi. [3,32]
11. Јулīч – echkinning mayin yungi ,tivit [1,34]
12. Тiн – no‘xta, yugan, tizgin. [2,152]
13. Кöн– faqatgina ot terisi. Chunonchi, "ат көнi" deydilar. Ва‘zan bu so‘z odam terisiga ham qo‘llanadi. Chunonchi, "анiн көнi күрiдi" deyiladiki, u o‘ldi demakdir. Bu so‘z istiora asosida tuya terisiga ham qo‘llanadi: "тéwéј көнi" – tuya terisi kabi. Bu – teriga ishlov bermasdan oldindir. Ishlov berilgach "қоғуш" deb ataladi. [3,154]
14. Тујағ – hayvonlar tirnog‘i. "ат тујағi" – ot tirnog‘i [1,180]

### **III. HAYVONLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI:**

- 1.Јундақ – ot tezagi. Bu faqat otnikiga xosdir. Maqolda shunday kelgan: јағiн éрсä кéрél јундақi тéгip – dushmaningda bo‘lsa ham mol bo‘lsin, eng kami, dushman otning tezagi tegadi, undan yoqib foydalanasan. [3;51]
2. Чyh-чyh – otni yurgizish uchun aytiladigan,unga ta‘zir beriladigan so‘z. [3;128]
3. Туғ – ot oyoqlarining tepinishidan chiqqan chang, to‘zon. [3;140]
4. қiғ – yerni bo‘shatish, yumshatish uchun foydalaniladigan go‘ng. [3;142]
5. Мајақ – tuya tezagi. Bu so‘z tuya tezagiga xos bo‘lsa ham, so‘ng istiora asosida qo‘unikiga ham qo‘llangan. "қој мајақi" – qo‘y qumalog‘i kabi. Ot tezagiga faqat "јундақ" deyiladi. Maqolda shunday kelgan: тéwéј бédўк éрсä мајақi бédўк éрмäc – tuya katta bo‘lsa ham, tezagi katta emas. Bu maqol kattaning shogirdi bo‘la turib, o‘zini katta tutadigan odamga nisbatan qo‘llanadi. Kattalik senga emas, senga xo‘jayin bo‘lgan odamga munosib demakdir. [3;182]
6. Тајағу – tezak va kesak parchalar [3;189]
7. Бајнақ– o‘tkirlik, go‘ng (o‘g‘uzcha) [3;190]
8. Ба – qo‘yning ma‘ragan ovozi. "қој баладi" – qo‘y ma‘radi. [3;223]

9. Ma – bu soʻz echki va qoʻzilarning maʼrash ovozlari maʼnosida ham qoʻllanadi. [3;232]
10. кyрi-кyрi – toycha biya (onasi)dan orqada qolganda yetib olishga undab chaqiriladigan soʻz. Baʼzan "кyрeк-кyрeк" shaklida ham talaffuz qilinadi. [3;242]
11. Тушу-тушу– eshakni toʻxtatish uchun qoʻllanadigan soʻz. [2;244]
12. Чiлi – ogʻilxonadagi otning hoʻl holdagi yangi tezagi. [3;251]
13. Бeлiдi – baladi, maʼradi. қoј бeлiдi – qoʻy baladi, maʼradi.[3;286]
14. Тyлiдi: at tоladi – ot tuladi, qishki tukini toʻkdi. Yangi tuk chiqardi. Boshqasi ham shunday. Bu soʻzning asli tʻyladi edi, soʻng ʻy tushirilgan. [1 ;286]
15. Тyлiдi: қoј tʻyladi – qoʻy qoʻziladi (oʻgʻuzcha) [3;286]
16. қalidī: at қalidī – ot sakradi, boshini bermay chopdi. [3;287]
17. Кeвшiдi: tеwеј ot кeвшiдi – tuya oʻt bilan kavsh qaytardi. [3;302]
18. Бoзлadi: титир бoзлadi – urgʻochi tuya boʻkirdi. Boshqasi ham shunday. [3;306]
19. Бoқлadi – tezakladi. Jilki бoқлadi – hayvon tezakladi (oʻgʻuzcha) [3;307]

Koʻrinib turganidek, asarda chorvachilikka aloqador boʻlgan nomlar juda koʻp. Biz bularni faqatgina 3- jildidan yigʻib chiqdik. Bundan tashqari boshqa jildlarda ham chorvachilikka mansub boʻlgan soʻzlar talaygina.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, asar oʻz ichiga nihoyatda katta maʼlumotlar bazasini qamrab olgan. Ularning baʼzilari at soʻzi bilan birikma holda berilgan, baʼzilari esa bitta soʻzning oʻzidan maʼnosi anglashilgan holda qoʻllangan. Birgina chorvachilikka aloqador boʻlgan nomlar juda koʻpchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari asarda kasallik nomlari(77 ta), oʻsimlik, hayvon, qushlar, dehqonchilikka oid, inson sifatleri, osmon jism nomlari va h.k. larning nomlari lugʻat shaklida keltirilgan.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Qoshgʻariy M. Devonu lugʻotit turk. Uch tomlik. Ijild. T. 1960.
2. Qoshgʻariy M. Devonu lugʻotit turk. Uch tomlik. II jild. T. 1961.
3. Qoshgʻariy M. Devonu lugʻotit turk. Uch tomlik. III jild. T. 1963
4. Xushanov A ,Boʻronova Sh. Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida maqollarning uslubiy-semantik qoʻllanilishi. SCIENCE AND EDUCATION JOURNAL, 2020.
5. Resimli Atasözleri ve deyimler Sözlüğü. Mehmet Hengirmen. Dumat Ofset Matbaacılık.Baskı Ocak 2017.320.

#### **“BOSH” KOMPONENTLI IBORALAR OʻRTASIDA SEMANTIK MUNOSABATLAR**

**O.MAMARADJABOVA,**

*SamDU Oʻzbek tilshunosligi kafedrası I bosqich magistranti*

*Ilmiy rahbar:dots.U.Rashidova*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola frazeologiya sohasiga bagʻishlangan boʻlib,unda “bosh” komponentli iboralarning omonimlik,antonimlik va sinonimlik xususiyatlari tahlil qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** somatik frazeologizmlar, “bosh” komponentli iboralar,semantik munosabatlar, “bosh” komponentli sinonim iboralar, “bosh”komponentli omonim iboralar.

Ibora- tilimizning lug‘at tarkibini tashkil etuvchi birlik hisoblanadi. Ibora biror tushuncha yoki gapning bir yoki bir nechta so‘zlarning birikishi orqali ifodalanishidir. Masalan, boshi aylanmoq iborasi “behud bo‘lmoq, muvozanatini yo‘qotmoq” ma’nosida, boshidan kechirmoq “Boshidano‘tkazmoq” ma’nosida, boshi yostiqa yetmoq “kasal bo‘lib yotib qolmoq ma’nosida, boshi ikkita bo‘lmoq “turmush qurmoq, oilali bo‘lmoq” ma’nolarini bildiradi. Tilshunoslikda bunday birliklarga nisbatan frazeologizmlar atamasi qo‘llaniladi va ularni o‘rganuvchi soha frazeologiya deb nomlanadi. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni o‘tgan asrning birinchi yarmidan boshlab struktur, semantik, grammatik, uslubiy, funktsionalkabi aspektlari atroflicha keng o‘rganildi.

Shuningdek, tilshunoslikda odam ta’na a’zolari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralar ham mavjud. Masalan, boshi qotmoq, boshi ochiq, yuragidan urmoq, ko‘z-quloq bo‘lmoq, boshdan oyoq kabi bir qancha iboralarni keltirishimiz mumkin. Bunday iboralar somatizmlar yoki somatik frazeologizmlar deb ataladi. Bunday iboralar nafaqat bir til doirasida, balki bir nechta tillarni qiyoslash orqali ham amalga oshiriladi. Bularga misol qilib, A. Isayev, O. Nazarov, Sh. Usmonova, H. Alimovalarni keltirishimiz mumkin

Dastlabki somatik frazeologizmlar insonga har doim ko‘rinib turadigan inson ta’na a’zolari nomlari asosida yuzaga kelgan. Bosh insonning asosiy organlaridan biri bo‘lib, hayotning ramzi hisoblanadi. O‘ylash, fikrlash, fikr yuritish, idrok qilish, reja tuzishda bosh miyaning roli juda kattadir. Bosh haqidagi frazeologizmlar insonning aql va qobiliyatining ijobiy va salbiy ekanligiga baho beradi.

Bosh umumturkiy so‘z bo‘lib, ular orasida bir qancha semantik munosabatlar yuzaga keladi. Bularga misol qilib “bosh” komponentli iboralar o‘rtasidagi omonimlik, sinonimlik, antonimlik kabi munosabatlarni keltirishimiz mumkin.

Bir tushuncha yo tasavvur yoki nisbiy tugal fikr bir frazeologik ibora bilan ifodalanganidek, bir necha frazeologik ibora bilan ifodalanishi ham mumkin. Bunday ekvivalent iboralar frazeologik sinonimlar deb yuritiladi. Bu iboralar ichida bosh so‘zi bilan sinonimlik hosil qiladigan iboralar ham mavjud. Masalan:

**Bir yoqadan bosh chiqaraylik**-qo‘lning qo‘lga beraylik. (Ahil bo‘lmoq)

**Boshi osmonga yetdi**-terisiga sig‘madi, o‘g‘zi qulog‘iga yetdi, do‘ppisini osmonga otdi. (Xursand bo‘lmoq)

**Boshiga yetmoq**-boshini yemoq. (Yo‘q qilmoq)

**Boshiga ko‘tarmoq**-shovqin solmoq. (shovqin qilmoq)

**Boshidan kechmoq**-ko‘nglidan o‘tmoq, xayolidan o‘tmoq (Ma’lum bir muddat fikrlamoq)

**Boshi ko‘kka yetmoq**-terisiga sig‘may ketmoq, o‘g‘zi qulog‘iga yetmoq (behad sevinmoq)

**Boshini bukmoq**-yuzi yerga qaramoq (uyat-nomusdan bosh ko‘tarolmaydigan holga tushmoq)

**Boshini yemoq**-boshiga yetmoq (yo‘q qilmoq, halok qilmoq)

**Boshi shishdi**-boshi qotdi, miyasi g‘ovlab ketdi (o‘ylaverib gangimoq)

**Bosh egmoq**-bo‘yin egmoq (itoatkor bo‘lmoq)

**Bosh qo‘shmoq**-burnini suqmoq (aralashmoq) kabi iboralar “bosh” komponentli iboralar bilan semantik munosabatga kirishadi va frazeologik sinonimlarni hosil qiladi.

Shuningdek, “bosh” komponentli iboralar o‘rtasida omonimlik hodisasi ham kuzatiladi. Bunda bir ibora bir nechta ma’nolarda qo‘llanilishi kuzatiladi. Masalan:

**Boshga ko'tarmoq I**-qattiq shovqin qilmoq. O'tgan yili bu vaqtda kalxoz dalalarida "universal"lar gumburlab, butun qishloqni boshiga ko'tarayotgan edi. I. Rahim, Chin muhabbat.

**Boshga ko'tarmoq II**-yuksak darajada izzat-hurmat qilmoq. Bilaman, Komila ularni o'z boshiga ko'taradi, keragidan ortiqcha sharoit hozirlaydi. Oybek, Oltin vodiyan shabadalar.

Xinalar muhabbat ko'klamida qizlarning qo'lini o'pish uchun yerdan bosh ko'taradi. G'. G'ulom. Qizaloq **Boshini yeb I**-juda ko'p hosil bermoq. Tut o'lgur boshini yeb tagi bilan bitta bo'lib to'kilib yotibdi. Mirmuhsin, Jamila

**Boshini yeb II**-yo'q qilmoq, halok qilmoq. Husning boshingni yeydi. A. Muxtor, Qoraqalpoq qissasi.

**Bosh ko'tarmoq I**-qo'zg'almoq, harakatga kelmoq. .... qalbmida go'yo isyon, g'alayon ajdohosi bosh ko'targan-u, menga tinchlik bermaydi. M. Ismoilov, Farg'onada tong otguncha.

**Bosh ko'tarmoq II**-unib chiqmoq..

**Bosh ko'tarmoq III**-yostiqdand bosh ko'tarmoq kabi iboralar omonim ,ya'ni shakldosh iboralar hisoblanib, bunday iboralar matn ichida turli xil ma'nolarda qo'llanishi kuzatiladi. Bunday somatik iboralarni nutqimizda qo'llash nuqtqimizning ifoda ko'lamini, ta'sirchanligini oshirishga yordam beradi.

"Bosh"komponentli somatik frazeologizmlar orasida zid ma'noli ya'ni antonim frazeologizmlarni uchratishimiz ham mumkin. Masalan:

**Boshi bog'liq-boshi ochiq**

**Boshi ko'kka yetmoq- tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq**

**Boshga ko'tarmoq-yerga urmoq** kabi iboralar o'zora zid ma'noli iboralar hisoblanadi. Bunday iboralarni matn tarkibida qo'llashimiz nutqimizning ta'sirchanligini oshirishga, unitinglovchi shaxsga tezda ta'sir qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, "bosh" komponentli iboralarni semantik jihatdan tahlil etganda, ularning har biri turli xil ma'no, bularning barchasi matn ichida namoyon bo'lishini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bunday somatik iboralar tarkibida bir qancha sematik munosabatlar borligini ham ko'rib o'tishimiz mumkin. Bunday munosabatlar ular orasida antonimlik, ma'nodoshlik, shakldoshlik asosida yuzaga chiqishini yuqoridagi misollar orqali ko'rib chiqdik. Keyingi ishlarimizdabularni yanada batafsilroq yoritishga harakat qilamiz.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Hamidov X. Turk Frazeologiyasi masalalari. -Toshkent: Bayoz, 2019.
2. Mamatov A.E. O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari. -T: O'TA, 2001 №3, 46-49b.
3. Pinxasov U. Hozirgi o'zbek adabiy tilileksikalogiyasi. -T: "Fan", 1968.
4. Rafiyev A. Iboralar nutqimiz ko'rki. -T.: "Fan", 1968.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. -T.: Qomuslar yosh tahririyati. -T: 1982
6. Rashidova U. O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantic-ragmatik tahlili. -Samarqand, 2018.

## ORNITONIMLAR O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA OB-HAVO DARAKCHILARI SIFATIDA

*Munisa Jamshid qizi OROMOVA,  
Buxoro davlat universiteti 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qushlarning xalq hayotida tutgan o‘rni, ularning maqollarda, asosan, ob-havo darakchilari sifatida qo‘llanishi haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** qush, laylak, turna, qaldirg‘och, qarg‘a, “qanotli do‘stlar”

**Annotation:** This article provides information about the role of birds in people's life, their use in reporting proverbs, mainly as weather forecasters.

**Keywords:** bird, stork, crane, swallow, crow, "winged friends"

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения о роли птиц в жизни людей, их использовании в пословицах, главным образом в качестве синоптиков.

**Ключевые слова:** птица, аист, журавль, ласточка, ворона, «крылатые друзья».

Qush deganda, umurtqalilarning tanasi par va patlar bilan qoplangan, uchishga layoqatli bir sinfi; parrandalar tushuniladi [2, 394]. Qadimgi odamlarning turmush tarzi asosan, dehqonchilik, chorvachilik va ovchilik bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli ular qushlarning hayot tarzini bevosita kuzatib borishgan. Insonlar yil fasllarining almashinishi; ekin ekish, uni yig‘ib olish; ov qilish va chorva mollarini ko‘chirish kabi bir qator voqea-hodisalar, ish-harakatlarni qushlar hayoti asosida aniq belgilashgan. Shu bois, xalqda “qanotli do‘stlar”, “qushlar – bizning do‘stimiz” kabi birliklar paydo bo‘lgan. Bu esa bevosita qushlar va parrandalarning ob-havo darakchisi sifatida nazarda tutilishidan dalolat beradi. Masalan, hovuzda ko‘plab qarg‘alar yig‘ilsa, tez orada yomg‘ir, bo‘ron bo‘ladi, agar chumchuqlar kuzning oxirlarida boshlarini qanotlari ostiga yashirsalar, tez orada sovuq boshlanadi, agar ular ko‘lmakda suzishsa, havo iliq bo‘ladi singari [4]. Xuddi shu xususiyatlar xalq og‘zaki ijodiga ham ko‘chgan bo‘lib, asosan, maqollarda faol qo‘llangan. Chunonchi:

Yoz kelganin laylak bilur, qish kelganin – ola qarg‘a.

Laylak kelsa – yorug‘ yoz, turna kelsa – tunuk yoz.

**Laylak** – uzun oyoqli qushlar turkumiga mansub, tumshug‘i va oyog‘i uzun, parlari ola (oq va qora aralash) katta qush [2, 6 bet]. Laylak ham inson e‘tiqod qo‘ygan qushlardan biridir. Shu sababli deyarli barcha xalqlar folklorida laylak obrazi uchraydi. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida “Laylak keldi– yoz bo‘ldi” misrasi mavjud [1, 90]. Chunki O‘zbekistonda laylaklar havo isishi bilan paydo bo‘ladi va sovuq kunlar boshlanishidan oldin issiq o‘lkalarga uchib ketadi. Bunda u, asosan, Arabistondagi Yaman cho‘llariga uchib borar ekan. Yaman musulmon olamining muqaddas ziyoratgohlari Makka va Madinaga yaqinligi bois laylakka ham “hoji qush” deb nom berishgan. Turklar “hoji bobo” deyisharkan, lekin Germaniyaning Nabburg shahri ham 1644-yildan buyon oq laylaklar kelib uya soladigan shahar sifatida dunyoga dong taratib kelgan [1,91]. Taniqli folklorshunos O.Safarov buxoroliklarning “bibihoji” laylakni ilk bor qay holda ko‘rish e‘tiqodini shunday izohlaydi: “Buxoroda ayrim keksalar laylakni birinchi bor bosh tomondan ko‘rish – yil bo‘yi farovonlik, ezgulik belgisi, orqa tomondan ko‘rish esa xosiyatsiz deb hisoblashadi” [1, 91].



Laylak kelmay yoz bo'lmas, qirg'iyak chopmay kuz bo'lmas. (qirg'iy-qirg'iyak-qiyg'irak ham deydilar). Sunbula (22-avgust bilan 21-sentyabr oralig'idagi davr) oyining o'rtalarida keladi. Shu davrda qirg'iyning bolalari kamoliga yetib, saydga (chumchuq, to'rg'ay va boshqalarga) hujum qila boshlaydi [3, 230]. Qirg'iyak so'zining ma'nosini Ahmad Ahmadiy quyidagicha keltiradi: "Qirg'iyak tushar, qirg'iy balabonin uchirar", Demak, ushbu misoldan ayon bo'ladi, qirg'iyak bu avgust oyining nomi hisoblanib, bu paytda qirg'iy bolalarini osmonga uchira boshlaydi. Bu davrda ko'pincha qo'ylar qochib ketib, qishning qahratonida qo'zilovga to'g'ri kelmasligi uchun cho'ponlar ularning beliga ma'lum bir belbog' – kuyak bog'lab qo'yisharkan. Shuningdek, kuzning birinchi kunida yomg'ir yog'sa, ana "birinchi qirg'iyak" deb nomlashgan va bu narsa odamlarni tezroq hosini yig'ib olishga va qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rishga undagan. Qushlar nafaqat paremalarda, balki ertaklarda ham ijobiy va salbiy obrazlarni ifodalashga xizmat qilgan. Shu qatorda laylakdan ham donishmand, oilaparvar, bolaparvar, bahor, yoz darakchisi obrazlarini gavdalandirishda foydalanilgan.

*Turna erta kelsa,  
Ko'klam erta keladi.*

**Turna** – issiq o'lkalarda botqoqlik va ko'llarda yashaydigan, oyog'i, bo'yni, tumshug'i uzun, boshida toji (sochi) bor ko'chmanchi qush...[2, 200]. Maqolda ham turna ornitonimi bahor kelishidan darak beruvchi qush sifatida tasvirlangan. Chunki turnalar ham kuzning oxirlarida issiq o'lkalarga uchib ketib, bahorda qaytib kelishadi.

*Bir qaldirg'och kelgani bilan bahor bo'lmas.  
Bir qaldirg'och bilan yoz bo'lmas,  
Bir bulut bilan kuz bo'lmas.*

**Qaldirg'och** – 1)chumchuqsimonlar turkumining bir oilasini tashkil etadigan, qanoti ingichka va uzun, juda tez uchadigan, qora-ola kichkina qushcha. 2) *ko'chma* Biror narsaning paydo bo'lishi yoki sodir bo'lish belgisi; boshlab beruvchi, darakchi [2,255 ]. Xalqimizda qaldirg'och bahor darakchisi, baxt va ezgulik ramzi sifatida ifodalanadi. Qadimdan bu qush biror bir xonadonga in qursa, o'sha xonadonga baxt va omad, qut-baraka olib keladi deb tassavvur qilingan.

*G'oz kelsa, yoz kelar,  
Qarg'a kelsa, qish kelar.  
Varianti: G'oz kelsa, yoz kelar,  
Qarg'a kelsa, qatqoq bo'lar.*

G'oz – yovvoyi xonakilashtirilgan, bo'yni uzun suvda suzuvchi yirik qush [2, 452]. Maqollardan g'ozning kelishi bilan yoz fasli, qarg'aning kelishi bilan qishning ham kirib kelishini anglash mumkin.

*Qarg'a ming qag'illasa ham yoz chiqmas, g'oz bir qag'illasa – yoz. Qarg'a qag'illasa qishni chaqiradi, g'oz g'ag'illasa yozni chaqiradi. Bir qarg'a bilan qish kelmas. Qarg'a ketmay qor ketmas, turna kelmay muz ketmas. Ola qarg'a og'och boshiga qo'nsa, yoz tez kelar. Qish o'tar qoralik qarg'aga qolar.*

**Qarg'a** – patlari tim qora (qora qarg'a) yoki qora bilan kulrang aralash (ola qarg'a) ko'chmanchi qush (O'zbekistonda qish oylarida bo'ladi) [2,288]. Qarg'a odatda, o'lim, urush, tabiiy ofat va turli falokatlardan iborat yomon xabarlarini yetkazuvchi darakchi qush sifatida qaraladi. Agar, qarg'alar osmonda to'da holda uchsa, bu aniq ob-

havodan darak beradi. Qarg'a haqidagi afsonalarga qaraganda, uning qora rangdaligi unga berilgan jazo bilan bog'liqligi haqida aytiladi. Qarg'a qora rangda bo'lgani uchun maqollarda qish fasli kelishiga nisbat beriladi. Ammo, qarg'ani faqat qishda emas, yil bo'yi kuzatish mumkin, faqatgina qish oylarida ovqat topish murakkablashganligidan odamlarning uylarida va uylarning atrofida uchratganligimiz bois, qarg'a faqat qishda keladi degan fikr uyg'otadi.

Yuqoridagi misollardan xulosa qilish mumkinki, paremalarda qushlar ko'p hollarda ob-havo darakchi vazifasini bajargan. Bunda asosan, *qarg'a va ola qarg'a* ornitonimlari qish fasli, *laylak, g'oz, turna, qaldirg'och* ornitonimlari yoz fasli bilan bo'g'liq fikrni ifodalashga xizmat qilgan. Ushbu maqollarning shakllanishida ham qushlar bilan bog'liq xususiyatlar inobatga olingan. Masalan, qarg'a qora rangda ekanligi va qish faslida ko'p bo'lganligi sababli u orqali qish fasliga nisbat berilgan. *Laylak, qaldirg'och, g'oz* kabilar esa kuzda issiq o'lkalarga uchib ketib, bahorda qaytib kelishadi. Shuning uchun ham ular maqollarda bahor va yozning darakchilari sifatida qo'llangan.

#### ADABIYOTLAR

1. Jumayev Akmal Axmatovich. O'zbek nemis ertaklarida qushlar obrazi tipologiyasi hamda spetsifikatsiyasi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2021. –143 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati 5 jildlik. Beshinchi tom – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2020. – 608 B.
3. Shomaqsudov. Sh, Shorahmedov. Sh. Ma'nolar maxzani. – T.: "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – 448 b.
4. <https://avtovsamare.ru/uz/primety-pro-ptic-horoshie-i-plohie-narodnye-primety-pro-ptic-o-chem/>

#### СУБСТАНТИВНАЯ ТРАНСПОЗИЦИЯ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ И ПРИЧАСТИЙ: ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЙ АСПЕКТ

*Шахноза Файзулла кизи УМАРОВА,*

*Магистрант Навоийский государственный педагогический институт*

**Аннотация:** в данной статье рассмотрен один из типов транспозиции частей речи – субстантивация в русском языке. Примеры рассмотрены на материале Словаря омонимов русского языка.

**Ключевые слова:** субстантивация, имя существительное, транспозиция, переход, часть речи.

**Annotation:** this article discusses one of the types of transition of parts of speech - substantivization in the Russian language. Examples are considered based on the material of the Dictionary of Homonyms of the Russian Language.

**Key words:** substantivization, noun, transposition, transition, part of speech.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada so'z turkumlari transpozitsiyasi turlaridan biri – substantivatsiya ko'rilgan. Misollar Rus tili omonimlari lug'ati materialida ko'rilgan.

**Kalit so'zlar:** substantivatsiya, ot, transpozitsiya, o'tish, so'zb turkumi.

Субстантивация – это переход слов других частей речи в разряд существительных. Результат субстантивации прилагательного и причастия

традиционно называют существительным адъективного (прилагательного) склонения. Субстантивация древний и вместе с тем развивающийся процесс.

Например, некоторые прилагательные очень давно перешли в существительные. К ним относятся существительные с суффиксами (ов) и (ин), обозначающие фамилии и названия населённых пунктов: *Иванов, Петров, Никитин, Фомин, Марьино, Митино* и др. Примеры явления более позднего времени использование в качестве существительных таких слов, как *перевязочная, ванная*.

Рассмотрим примеры субстантивации в русском языке.

- 1) Субстантивация прилагательных: *Больной* вышел на балкон.
- 2) Субстантивация причастий: *Отвечающий* улыбнулся.
- 3) Субстантивация наречий: *Но кто поручится, что наше послезавтра не будет хуже нашего позавчера?*
- 4) Субстантивация местоимений: *Всякому* своя обида горька. (Пословица)
- 5) Субстантивация числительных: *Преподаватель поставил тройку. Один* сказал другому, а тот *третьему, третий - четвертому*.
- 6) Субстантивация глагольных форм (деепричастий): *Когда Резвяся и Играя* грохочут в небе голубом, одна из них подобна снегу, другая - рыжему огню.
- 7) Субстантивация междометий: *Далече грянуло ура!*

Субстантивация бывает полная и частичная (неполная). О полной субстантивации говорится тогда, когда прилагательное полностью перешло в существительное, как прилагательное оно уже не может использоваться (*портной, мостовая, горничная, приданое*).

При частичной субстантивации слово употребляется то как прилагательное, то как существительное (*военный врач и военный, бездетные семьи и бездетные, русский народ и русский*).

Рассмотрим примеры на субстантивацию прилагательных в Словаре омонимов русского языка О.С. Ахмановой [1].

**Прилагательное → существительное:**

**Настоящее** (прилагательное).

Форма именительного и винительного падежа среднего рода единственного числа прилагательного *настоящий*.

**Настоящее** (существительное).

Данное время; совокупность событий, происходящих сейчас, в данное время.

**Мостовая II.**

Форма именительного падежа женского рода единственного числа прилагательного *мостовой*.

**Мостовая I.**

Вымощенная или покрытая асфальтом проезжая часть улицы.

**Цветной** (прилагательное).

Окрашенный в несколько разных цветов. *На передних санях сидел Ларивон и какая-то баба в цветной шали. Работа была несложная: набивать цветной узор на нарезанные куски ткани.*

Способный распознавать или воспроизводить более чем один цвет. *«А самое большое детское мученье: неочиненный или сломанный цветной карандаш».* Уже

*сейчас, благодаря замечательным достижениям науки, полностью разработаны и освоены разнообразные методы цветной киносъёмки; на фабриках налажено производство специальной плёнки для цветных кинофильмов. Фотографирование с таким осветителем под водой на цветные фотоплёнки, сенсобилизированные к солнечному свету, даёт вполне удовлетворительные результаты. Раздвинулись шторы, и осветился огромный экран цветного телевизора. В январе 2004 года на российском рынке появились новые модели цветных принтеров Oki C9000 и C7000 — серии V2.*

### **Цветной (существительное).**

Субстантивир. человек, не являющийся европеоидом. В Берлин приехало много иностранцев, цветных, чёрных, и к ним относились подчёркнуто внимательно.

### **Флотский (прилагательное)**

Связанный, соотносящийся по значению с существительным флот; свойственный, характерный для него. Принадлежащий флоту. Предназначенный для флота

### **Флотский (существительное).**

Тот, кто состоит во флоте, проходит службу на флоте; матрос.

### **Причастие → существительное:**

#### **Управляющий (причастие)**

Прич. наст. от управлять; занятый управлением, выполняющий функции управления. *Управляющая программа.*

#### **Управляющий (существительное)**

Лицо, ведущее дела какого-нибудь хозяйства, учреждения, предприятия; должность высшего оперативного руководителя организации или предприятия. *Управляющий фабрикой.*

Таким образом, в словаре Ахмановой больше 90 процентов примеров субстантивации – это примеры на отадъективную субстантивацию. Это свидетельствует о том, что отадъективная субстантивация в русском языке продуктивна. Более многочисленную и продуктивную группу в словаре формируют примеры на неполную субстантивацию. [1]

Субстантивируясь, прилагательные и причастия приобретают синтаксические функции существительного (выступают в предложении в роли подлежащего или дополнения, могут иметь при себе согласованные и несогласованные определения), а также претерпевают некоторые морфологические изменения (категории рода, числа и падежа у них уже не зависят от рода числа и падежа определяемого слова, а становятся самостоятельными; могут классифицироваться как одушевленные или неодушевленные). При этом субстантивы относятся к адъективному (прилагательному) типу склонения, но система флексий (окончаний) приобретает при субстантивации особую словообразовательную функцию. Субстантивы сохраняют тот тип словоизменения, который свойственен исходной части речи.

### **ЛИТЕРАТУРА**

1. Ахманова О.С. Словарь омонимов русского языка. – М., 1986. – 448 с.
2. Виноградов В. В. Русский язык (Грамматическое учение о слове)/ Под. ред. Г. А. Золотовой. – 4-е изд. – М.: Рус. яз., 2001. – 720 с.
3. Жумаева Ф.Р., Мискинова Г.М. Транспозиция на уровне лексико-грамматических разрядов внутри частей речи. – Журнал: «Образование и

инновационные исследования», №3. – Бухара, 2021. – С. 15-20.  
<https://interscience.uz/index.php/home/article/view/126/83>

<https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/13>

4. Жумаева, Ф. Р. Типы транспозиции частей речи в современном русском языке / Ф. Р. Жумаева. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. - 2021. - №47 (389). - С. 468-472. - URL: <https://moluch.ru/archive/389/85522/>

5. Jumaeva F. R., Mamurova F. N. Transposition of parts of speech as a non-morphological method of word formation //ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (102). – 2021. – С. 566-572.

## АНАЛИЗ НЕПОЛНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ П РАССКАЗЕ А.П. ЧЕХОВА “ЧЕЛОВЕК В ФУТЛЯРЕ”

*Ирода Саъдуллаевна ШОДИЕВА,*

*Магистрант Навоийский государственный педагогический институт*

**Аннотация:** в данной статье рассмотрены типы неполных предложений в современном русском языке. Предложения, в которых имеются все члены предложения, необходимые для данного структурного типа, называются полными. Предложения, в которых опущены какие-либо члены предложения, главные или второстепенные, и которые легко восстанавливаются из контекста или ситуации речи, называются неполными.

**Ключевые слова:** неполное предложение, контекстуально-неполные, ситуативные, диалогические, эллиптические предложения.

**Annotation:** this article discusses the types of incomplete sentences in modern Russian. Sentences that contain all the sentence members necessary for a given structural type are called complete. Sentences in which any members of the sentence, main or secondary, are omitted, and which are easily restored from the context or situation of speech, are called incomplete.

**Key words:** incomplete sentence, contextually incomplete, situational, dialogical, elliptical sentences.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada zamonaviy rus tilidagi to‘liqsiz jumlar turlari muhokama qilinadi. Berilgan tuzilish turi uchun zarur bo‘lgan barcha gap a'zolaridan iborat bo‘lgan gaplar to‘liq deyiladi. Gapning asosiy yoki ikkinchi darajali a'zolari tushirib qo‘yilgan, nutq kontekstidan yoki vaziyatidan osongina tiklanadigan gaplar to‘liqsiz deyiladi.

**Kalit so‘zlar:** to‘liqsiz gap, kontekst bo‘yicha to‘liqsiz, vaziyatli, dialogik, elliptik gaplar.

Как односоставные, так и двусоставные предложения считаются полными, если все синтаксические позиции, необходимые для данной структуры, словесно представлены, и неполными, если одна или несколько синтаксических позиций данной структуры предложения оказываются незамещенными по условиям контекста или ситуации. Н.С. Валгина определяет неполное предложение как «предложение с



лексически незамещенными синтаксическими позициями» [1]; те или иные формально организующие его члены (главные или второстепенные) без названия ясны из контекста или речевой ситуации. Функционирование неполных предложений всецело связано с закономерностями построения текста.

Н.С. Валгина обращает внимание на то, что неполнота таких предложений не мешает им служить целям общения, поскольку пропуск тех или иных членов не нарушает смысловую законченности и определенности данных предложений. [1]

Рассмотрим неполные предложения в рассказе А.П. Чехова «Человек в футляре». [7]

«Человек в футляре» – рассказ Антон Павловича Чехова, написанный в мае-июне 1898 года. Впервые был опубликован в журнале «Русская мысль», 1898 год, № 7.

Неполные предложения по своей структуре относятся к тем же типам, что и полные. Пропуск отдельных членов предложения может быть как у предложений распространенных, так и нераспространенных, односоставных и двусоставных.

– *Много уж их нынче развелось!*

– *Очень уж шумят у нас в классах, – говорил он, как бы стараясь отыскать объяснения своему тяжелому чувству. – Ни на что не похоже.*

*И этот учитель греческого языка, этот человек в футляре, можете себе представить, едва не женился.*

*Иван Иваныч быстро оглянулся в сарай и сказал:*

– *Шутите!*

Соотнесенность с полными предложениями обнаруживается наличием в таких предложениях слов, сохраняющих грамматические функции и формы, свойственные им в соответствующих полных предложениях.

Среди контекстуальных предложений выделяются разные типы.

Простые предложения с неназванными главными или второстепенными членами (отдельно или по группам).

а) Отсутствие подлежащего:

*Не спали. Иван Иваныч, высокий, худощавый старик с длинными усами, сидел снаружи у входа и курил трубку; его освещала луна.*

*И скрылись оба. Мой Беликов из зеленого стал белым и точно оцепенел. Остановился и смотрит на меня...*

б) Отсутствие подлежащего и сказуемого:

*Когда он поднялся, Варенька узнала его и, глядя на его смешное лицо, помятое пальто, калоши, не понимая, в чем дело, полагая, что это он упал сам нечаянно, не удержалась и захохотала на весь дом:*

– *Ха-ха-ха!*

в) Отсутствие сказуемого и дополнения: *Учитель гимназии вышел из сарая. Это был человек небольшого роста, толстый, совершенно лысый, с черной бородой чуть не по пояс; и с ним вышли две собаки.*

– *Луна-то, луна! – сказал он, глядя вверх.*

Неполные предложения, составляющие часть сложного предложения с неназванным членом, имеющимся в другой части сложного предложения. Такие предложения особенно отчетливо свидетельствуют об условности термина «неполное предложение», так как неполнота здесь диктуется законами построения сложного предложения.

*И он не делал предложения, всё откладывал, к великой досаде директорши и всех наших дам; всё взвешивал предстоящие обязанности и ответственность, и между тем почти каждый день гулял с Варенькой, быть может, думал, что это так нужно в его положении, и приходил ко мне, чтобы поговорить о семейной жизни.*

*Лучше бы, кажется, сломать себе шею, обе ноги, чем стать посмешищем; ведь теперь узнает весь город, дойдет до директора, попечителя, – ах, как бы чего не вышло! – нарисуют новую карикатуру, и кончится всё это тем, что прикажут подать в отставку...*

4. Салимов Ф.М. Мактабгача ёшдаги болаларнинг жисмоний имкониятларини ривожлантириш. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 8 ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7. 279-284 бетлар.
5. Салимов Ф.М. Мактабгача таълимда ўйин, тарбия ва ўргатиш усуллари \\  
“Jismoniy madaniyat va sport: ta’lim dasturlarini takomillashtirish, muammolar va yechimlar” xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman materiallari. 2023. 1-2 may, - 557 бет.
6. Пащенко Л.Г. Организация физического воспитания в дошкольных образовательных учреждениях. Учебное пособие. Нижневартовск. Изд-во Нижневарт. гос. ун-та, 2014.-115 с.
7. Фролов В.Г. Физкультурные занятия, игры и упражнения на прогулке. М. “Просвещение”, 1986. - С.5.

### АДАБИЙ ВА МАДАНИЙ МЕРОСНИ САҚЛАБ ҚОЛИШДА ИНТЕРВЬЮНИНГ ЎРНИ

*Фахриддин Тошпўлатович РАЖАБОВ,  
Навоий инновациялар университети, ўқитувчи*

**Аннотация:** Ушбу мақолада адабий ва маданий меросни ўрганиш, мазмун моҳиятини тушуниш, қимматли асарлар ва уларнинг яратилиши хусусидаги маълумотларни сақлаб қолишда интервьюнинг ўрни ҳақидаги фикрлар ёритилган.

**Калит сўзлар:** адабий манба, маданий мерос, интервью, бадий ижодкорлик, журналистика, суҳбат-интервью, кайфият, видео, аудио, телефон.

**Аннотация:** В данной статье освещаются вопросы изучения литературного и культурного наследия, понимания сути содержания, роли интервью в сохранении ценных произведений и информации о характере их создания.

**Ключевые слова:** литературный ресурс, культурное наследие, интервью, художественное творчество, журналистика, интервью-интервью, настроение, видео, аудио, телефон.

**Abstract:** This article discusses the role of interviews in the study of literary and cultural heritage, understanding the essence of content, preserving valuable works and information about their creation.

**Keywords:** literary resource, cultural heritage, interview, artistic creativity, journalism, interview-interview, mood, video, audio, phone.

Маълумки бугунги кунда ижтимоий соҳада ахборот технологияларнинг ва матбуотнинг аҳамияти катта. Сўз санъатининг шаклланиши ва саҳифаларда муҳрланишида эса муаллиф ёки ёзиб олувчининг фаолияти алоҳида ажралиб туради.

Биз филология фанлари доктори, Эркинов Афтондил Садирхонович илмий раҳбарлигида “Ўзбек адабиётида регионал ижодкорлик (XIX-XXI асрлар): Нурота худуди мисолида” мавзусидаги диссертация устида ишламоқдамиз. Бадиий ижодкорлик ва унинг манбалари масаласига доир фикр-мулоҳазаларни ф.ф.д. А.С.Эркинов билан ҳаммуаллифликда тайёрлаган мақолада қисқача тўхталиб ўтган эдик, яъни “Шеърлий мажлислардаги бадиҳагўйлик ёки назирагўйлик билан бирданига яратилган шеърлар матни ўрнида, яъни йиғинда ёзиб олинса яхши. Бундай шеърлар муаллифи уларни матнга туширса катта гап. Бироқ улар йиғин ўрнида яратилиб, шу билан матнга тушмасдан беиз кетиши ҳам мумкин. Мазкур ҳолат афсусланишга арзийди. Сабаби бу шеърларнинг кейинчалик йўқолиб кетиш эҳтимоли катта. Энг асосийси, бундай шеърлар қоғозга туширилган тақдирда ҳам уларнинг яратилиш контексти агар кўрсатилмаса (матнда қайд этилмаса), шеърнинг аҳамияти пасаяди. Адабий мажлисдаги бадиҳагўйлик ва назирагўйлик орқали яратилган шеърлий асар оғзаки бўлиб, суҳбат жараёнининг муайян ўрнида (контекстда) яратилганлиги ва ижро этилиши билан аҳамиятлидир. Бундай шеърлар манбаси оғзаки бўлиб ҳамма вақт ҳам матнларда қайд этилмайди. Бундай хусусиятларига қарамай, бу тур шеърларни ҳам бадиий ижоднинг муайян манбаси сифатида қайд этиш мумкин”<sup>1</sup>.

Бадиий ижодкорликнинг мукамал ёритилиши ва сақланишида, қимматини ошишида интервью муҳим аҳамиятга эга. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида интервью куйидагича изоҳланган: “Интервью (инглизча, interview-учрашув юзма-юз суҳбат) Журналистика жанри; матбуот, радио ёки телевидениеда бериш учун мухбирнинг бирор шахс билан ўтказган суҳбати ва шу суҳбатнинг матни”<sup>2</sup> дея изоҳланган. Ўзбекистон Миллий Энциклопедиясида эса, Интервью (инглизча. interview- учрашув)-публицистика жанри. Журналистнинг бир ёки бир неча шахс билан долзарб масалалар юзасидан суҳбати. Икки турга бўлинади: 1. Хабар, асосан, ахборот етказиш мақсадида ўтказилади; 2. Таҳлилда муҳим воқеа, ҳодиса ва ҳужжатлар шарҳлаб берилади”<sup>3</sup>.

Ҳар қандай ижодкордан ўзи ҳақида, ижодга кириб келишини сўраганингизда албатта сабаб ва оқибатларини ёзиб бериши ёки айтиши мумкин. Бу материаллар етарли даражада ижодкорнинг бадиий оламини тўлиқ ёритолмайди. Маълум мавзу доирасида тузилган саволлар орқали ижодкор аҳли

<sup>1</sup> Эркинов А., Ражабов Ф. Бадиий ижодкорлик ва унинг манбалари масаласига доир (XIX-XXI аср боши). Ўзбек филологиясида матшунослик ва манбашунослик муаммолари. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. Наманган, 2018. 49 бет

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “И” ҳарfli қисм. . [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. 217-бет

<sup>3</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. “И” ҳарfli қисм. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. 216-бет.



ёки умуман ҳар қандай суҳбатдош билан суҳбатга киришар экансиз дастлаб суҳбатдошингизни тўлақонли ҳамфикр<sup>1</sup>ига айланиб, мулоҳазаларини сўраганингизда фақатгина ўзига тегишли яъни мутахассислигига мансуб бўлган мулоҳазалар билан эмас балки ижоддаги ва ҳаётдаги мулоҳазаларнинг асл сабабалари асл ҳақиқатлар ижодий баркамолликнинг воситалари ва сабаблари ёритила бошланади.

Бу ҳақида нуроталик ёзувчи Суюндук Мустафо Нуротой билан олиб борган суҳбат натижаларида шу нарса аниқ кўринди-ки ижод майдонига кириб келишининг сабаблари ва омиллари, ижод сирларини ғойибона тарзда ўрганаган шахслар ҳақида айтиб берди. Бу борадаги мулоҳазаларини ёзувчи 12 ёшидан буён ривожланиб келаётганлигини Нурота бадий ижодкорлигининг асосчиси Раҳмон Чинмирзаев<sup>2</sup> эса фикрларини ривожлантирганини, нуроталик ижодкор ҳамкасб дўстлари Р.Асатов<sup>3</sup>, С.Умрзоқов<sup>4</sup>лар билан биргаликда ҳамфикр бўлиб ижоднинг ўзига хос-хусусиятларини шакллантирганлигини ва шу ва бошқа мулоҳазаларни суҳбат жараёнида айтиб ўтди.

Ҳозгонлик адиб Раҳмон Асатов билан ўтказган суҳбатимиз давомида жуда кўп маълумотларни асарлари таркибига кирмаганлигини чунки ўша пайтдаги зиддиятли ҳолатлар уни ёзишга ундаганини таъкидлайди. Адиб шеърларини ёзишнинг асосий сабаби турмушдаги келишмовчиликлар ва атрофимдаги одамларнинг менга нисбатан асоссиз бўҳтонлари сабаб бўлган, дея эътироф этади.

Саволларнинг бу борадаги тизимли ва қатъий тартиб асосида кетма-кетликдаги шаклланганлиги суҳбат мавзуси ва мазмунини тўлиқ ва изчил ёритилишининг асоси ҳисобланади. Бундан ташқари суҳбат жараёнида вазиятга қараб ҳам ёки суҳбатдошнинг умумий аҳволи ва унинг мавзуга тўлиқ алоқаси бўлмаган фикрларни айтиши ва материалнинг тўлиқ шаклланишини таъминлайди. Чунки суҳбатдош билан олиб борилаётган интервью жараёнининг интервью қонуниятларига бўйсунити мақсадга эришити чеклайди. Яъни бизга керакли бўлган материал матни ва мазмуни айтилмайди, тўлиқ бўлмайди ёки умуман бўлмайди. Шунинг учун ижодкорликни сақлаб қолувчилар яъни зиёлилар, журналистлар, тадқиқотчилар албатта бу жараёнда хушёрлик билан ишлаши зарур. Мавзуга алоқадор бўлмаган (ҳозир айти кундаги мавзуга оид йиғилаётган материал сирасига кирмаслиги мумкин лекин вақти келиб албатта муаллиф ижодининг қайсидир ўрнини тўлиқ ёритиш учун асос бўлиб хизмат қилади) материаллар ҳам вақти келиб ўз қимматини ошқор қилади яъни мавзу ва материал маъно ва мазмунини оширади.

---

<sup>1</sup> Муаллифни ёки суҳбатдошни суҳбатга қорлашдан аввал у киши ҳақида ва ижодининг мазмун-моҳияти билан таниш бўлиши шарт

<sup>2</sup> Бу ҳақида қаранг: Rajabov F. Nurotalik ilk jurnalist-ijodkor . Tinchlik-eng oliy ne'mat. Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Navoiy-2019, 136-137-bet

<sup>3</sup> Раҳмон Асатов 1943 йил Навоий вилояти Нурота тумани Ҳозгон кўрғонида туғилган. Ўқувчилик давридаёқ илк ижод намуналари 1959-60-йилларда Самарқанддаги “Ленин йўли” (ҳозирги “Зарафшон”), “Ўзбекистон маданияти” (ҳозирги “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”) газеталарида чоп этилган. Дастлабки шеъри “Куз оқшомлари” деб номланиб, 1963 йил 15 октябрда “Ленин йўли” газетасида чоп этилган. Адибнинг асарлари куйидагилар. 1. Асатов Р. Ҳозгоннома. Т.; “Наврўз” нашриёти. 2005. 2. Асатов Р. Кавсар булогим. Т.; “Navro`z nashriyoti” 2004. 3. Асатов Р. Қуёшдай чароғон умр. Т.; 2014. 4. Асатов Р. Шомурод овчи. Т.; 2006. 5. Мустафо С., Асад Р. Шохимардон. Т.; “Turon zamin ziyo”

<sup>4</sup> Бу ҳақида қаранг: Rajabov F. Nurotalik ziyokor ijodkor. O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari: tahlil va talqin. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Termiz - 2019, 130-132 bet

Муаллиф кўнглида туғилган саволларни ёки ўй-кечинмаларини кимгадир етказиш ёки келажакда режалаштириладиган ишлари билан таништирсагина у бор ижодий имкониятларини рўёбга чиққанлигининг аввали ва бугунига қадар бўлган жараёни очик кўрсата олади.

Бадиий ижодкорликнинг сақланишидаги яна бир хусусият шундаки, у давр руҳини, ижтимоий ҳаётни кўрсатади (яъни ўша даврдаги одамлар ҳаётининг ижтимоий қиёфаси: диди, этика-эстетикаси, дунёқараши, руҳияти, маънавий салоҳияти, муаммолари уларни юзага келтирувчи омиллари ва бошқа). Муаллифнинг барча нарсани қоғозга туширишга имконияти чекланган сабаби, у ўз қизиқишлари орқали бошқа мавзуда қалам тебратади ёзиш жараёнигача бўлган вазиятлар қоғозга тушмайди. Шунинг учун интервьюни “Оғзаки тарих”нинг бир қисми эканлиги шубҳасиз шундай ўринларда ўз қимматини кўрсатади.

Айнан бадиий ижодкорликда ижод майдонига кириб келган ва ижодкор сифатида шаклланган ҳар бир ижодкорнинг ўз қарашлари ва ижодий-фалсафий тафаккурини яхлит ҳолда намоён бўлишидаги маълумотлар учун интервью муҳим аҳамиятга эга. Бу борада Озод Шарафиддиновнинг “Ижодни англаш бахти”<sup>1</sup>, Умарали Норматовнинг “Ижод сеҳри”<sup>2</sup>, Абдулла Ориповнинг “Эҳтиёж фарзанди”<sup>3</sup>, Иброҳим Ғафуровнинг “Олтин қозик”<sup>4</sup>, Нўмонжон Раҳимжоновнинг “Бадиият-бош мезон”<sup>5</sup> (Ушбу асарда тўлиқ турли ижодий авлодга мансуб шоир, ёзувчи, олимлар билан адабий суҳбатлар жамланган. Уларда сўз санъаткорларининг инсон-жамият-табиат вобасталигини бадиий идрок ва ифода этишдаги эстетик принциплари, ижодий жараён, бадиий маҳорат масалалари хусусида фикр-мулоҳазалар юритилган.) асарларида келтирилган “адабий суҳбатлар” туркумида олимлар адабиёт ва санъат, маънавият ва маърифат, сўз санъати ва унинг руҳият малҳами эканлиги, истиқлол даври адабий жараёнлари ва бугунги адабиёт мавзуларида олиб борилган суҳбат-интервьюлар ҳақида қимматли мулоҳазалар берилган. Бу ҳам албатта ижодкорликнинг сақлаб қолинишида ёки инсониятнинг ички оламида кечаётган жараёнларнинг суҳбат-интервью асосида матда муҳрлашнинг бир йўли эканини кўрсатади.

Ёзувчи ёки шоирнинг суҳбат жараёнидаги кимдандир норози кайфиятдаги фикри ёки ўринли (баъзан ноўрин бўлиши ҳам мумкин) эътирозлари уни бугунги кундаги ижодкор сифатидаги қиёфасини шакллантиргандир эҳтимол. Бу ҳақида муаллифнинг ўзини мулоҳазалари бўлади. Ана шуларни ёзиб олиш суҳбат асносида ўринли мулоҳазалар баъзан шахсий мулоҳазалар ҳам ижодкор ижтимоий қиёфасини кашф қилишда ёрдам беради. Мазмуний моҳиятга эга ижодий имкониятлар баъзан ана шундай вазиятларда ёки ҳолатларда туғилишини ҳам билиш лозим.

Ижодкор билан суҳбат жараёнини яъни интервьюни режалаштиришнинг ўзи катта ютуқ (бу масалада исталган ижодкор ёки маънавий салоҳияти юқори шахс билан амалга ошириб бўлмайди) амалга ошириш эса умуман янги материалга эга бўлиш имконини беради. Баъзи ижодкорлар характер-хусусиятини, баъзи ижодкорларда эса ўзига хос камтаринликни баъзиларида эса

<sup>1</sup> Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. Т., 2004. 191-258 б

<sup>2</sup> Норматов У. Ижод сеҳри. Т., 2012. 204-288 б

<sup>3</sup> Орипов А. Эҳтиёж фарзанди. Т., 1988. 85-161 б

<sup>4</sup> Ғафуров И. Олтин қозик. Т., 2017. 443-540 б

<sup>5</sup> Раҳимжонов Н. Бадиият-бош мезон. Т., 2016. 224 б

шунчаки ижод қилишини бу кўнгил эрмаги бўлганлиги учун катта иш эмаслиги, унинг назарида бу иш бироз ортиқчадек туюлади. Шу ва бошқа сабаблар туфайли интервью беришдан бош тортади. Янги-янги маълумотлар ва материаллар тадқиқотлар мазмун ва моҳиятини ва илмий-назарий асосларини ташкил қилади.

Хуллас, бадиий ижодкорликни сақлаб қолишда биз олиб бораётган тадқиқот доирасида Нурота маданияти ва тарихини интервьюлар орқали ҳам ўрганиш самарали натижа эканлигини кўрсатмоқда. Бадиий ижод билан шуғилланувчи ижодкорлар, тарихчилар, олимлар, ҳудуд маданияти ва тарихини чуқур биладиган зиёлилар билан ўтказётган интервьюлар биз билган ва билмаган янги маълумотларни асл сабаблари ва мазмун-моҳиятини чуқур ўрганиш имконини бермоқда. Шундай экан, интервьюнинг амалий аҳамияти, биринчидан, ҳудуд тарихининг ўзига хослигини кўрсатиш бўлса, иккинчидан эса Нуротага ташриф буюрувчи меҳмонлар ва туристлар учун Нуротанинг маданияти ва тарихи ҳақида кенг қамровли, китоблар чоп эттириш ҳисобланади. Бу борадаги ишларни барча ҳудудлар кесимида ўрганиш ва материалларни оғзаки йиғиш, видео ва аудио вариантларини шакллантириш навбатдаги амалга ошириладиган тадқиқотлар учун муҳим саналади.

#### АДАБИЁТЛАР

1. Эркинов А., Ражабов Ф. Бадиий ижодкорлик ва унинг манбалари масаласига доир (XIX-XXI аср боши). Ўзбек филологиясида матшунослик ва манбашунослик муаммолари. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. Наманган, 2018. 410 бет
2. Норматов У. Ижод сеҳри. Т., 2012. 352 б
3. Орипов А. Эҳтиёж фарзанди. Т., 1988. 223 б
4. Раҳимжонов Н. Бадиият-бош мезон. Т., 2016. 224 б
5. Rajabov F. Nurotalik ilk jurnalist-ijodkor . Tinchlik-eng oliy ne'mat. Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Navoiy-2019, 153 bet
6. Rajabov F. Nurotalik ziyokor ijodkor. O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari: tahlil va talqin. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Termiz - 2019, 276 bet
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
8. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
9. Ғафуров И. Олтин қозиқ. Т., 2017. 546 б
10. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. Т., 2004. 640 б

#### БУЮК УММОНДАН БАҲРА ОЛИБ

*Раъно ФАЙЗУЛЛАЕВА,  
НавДПИ таянч докторанти*

**Аннотация:** Мақолада Сирожиддин Саййид ижодида Алишер Навоий анъаналарини давом эттириш, ундан олган сабоқлари асосида яратган асарларининг ғоявий-бадиий хусусиятлари ҳақида сўз боради. Шоирнинг Навоий ғазалларига боғлаган мухаммаслари таҳлил ва тадқиқ этилган.

**Калит сўзлар:** ғазал, аруз вазни, мухаммас, лафзий ва маънавий санъатлар, ташбех, тасвир

**Аннотация:** в статье говорится о продолжении традиций Алишера Навои в творчестве Сироджиддина Сайида, идейно-художественных особенностях его произведений на основе уроков, которые он усвоил. Анализируются и исследуются комментарии поэта к газелям Навои.

**Ключевые слова:** Газель, аруз, мухаммас, словесное и духовное искусство, аллегория, образ.

**Annotation:** The article talks about the continuation of the traditions of Alisher Navoi in the work of Sirojiddin Sayyid, the ideological and artistic features of his works based on the lessons he learned. The poet's comments to Navoi's ghazals are analyzed and studied.

**Key words:** Gazelle, aruz, mukhammas, verbal and spiritual art, allegory, image.

Алишер Навоий ижоди буюк уммон бўлиб, ундан баҳра олиш, асарларининг сеҳру синоатидан ҳайратга тушиш, у куйлаган ғояларга ҳамоҳанг куйлай олишга интилиш бахтига муяссар бўлиш осон эмас. Бу бахт ҳар кимга ҳам насиб этавермайди. Алишер Навоий ва буюк замондошимиз Абдулла Орипов ижоди ўртасидаги мутаносиблик, уларнинг шеърятдаги улуг хизматларини таҳлил қилган профессор Нурбой Жабборов ижодда бир-бирини такрорламаслик, ҳар бир ижодкорнинг ўз йўли, ўз услуби бўлиши лозимлигини Навоий ҳам, Абдулла Орипов ҳам ўз ижодларида намоён этганликларини таъкидлайди. “Чинакам ижод намунаси оригинал бўлмоғи зарур, тоза тарҳ билан битилмоғи керак. Бутун ижодий фаолияти ана шундай юксак эътиқод, мустаҳкам тутум асосига қурилгани бу икки буюк истеъдоднинг ижодкор сифатидаги принциплари нечоғли уйғун экани далилидир, бизнингча” – дейди олим “Шеър аҳлининг икки жаҳонгири” мақоласида.

Навоийдан ўрганиш, сабоқ олиш, тажриба ва анъаналарини бугунги кун маънавий-маърифий талабларидан келиб чиққан ҳолда давом эттириш, ривожлантириш ҳар бир ижодкорнинг ўзига хослигини белгиловчи омиллар саналади. Мустақил Ўзбекистоннинг миллий адабиёти янги авлоди ўтган асрнинг 70-80-йилларида адабиёт майдонига кириб келган авлод билан бир сафда Навоий ижодини ўрганиб, ундан баҳра олиб, бир-бирини такрорламайдиган ижод намуналарини яратиб келмоқдалар. Ана шундай ижодкорлардан бири Ўзбекистон халқ шоири Сироджиддин Саййиддир.

Сироджиддин Саййид Алишер Навоийга жуда катта меҳр қўйган. Уни шеърятда, бадий ижодда пир деб билади ва ҳар бир шеърида унга буюк ҳурматини билдириб туради. Бу ҳурмат шундан иборатки, шоир ўзини ҳамиша теран бадий фикр юритишга, сўзни эъзозлашга, ундан тўғри истифода этишда ўзини ниҳоятда масъул сезади, айтмоқчи бўлган фикри бошқаларники олдида нурсиз бўлиб қолмаслиги ҳақида ўйлайди, ташвиш чекади. Шунинг учун унинг шеърларида мағзи тўқ бадий топилмалар, лафзий ва маънавий санъатлар жилолари кўп учрайди. Айниқса, ғазаллари мумтоз адабиётимиз анъаналари йўлида бўлса ҳам замонавий руҳ уфуриб туриши, маъно қатламларининг ўзига хослиги билан ажралиб туради.

Ғазал мумтоз шеърятимизнинг етакчи жанри ҳисобланади. Унинг ўзига хос жанрий белгилари, назарий қонун-қоидалари, талаблари мавжуд. Чунончи,

ғазал қатъий қофияланиш тартибига эга. Биринчи ва охирги байтлари алоҳида номланади, охирги байтда албатта унинг ижодкори–шоир тахаллуси келтирилиши лозим. Ғазал аруз вазнида яратилади ва бу вазн баҳрлардан иборат. Алишер Навоий “Мезон ул-авзон” асарида арузнинг 19 та баҳри ҳақида назарий маълумот беради. Унда кўрсатиб ўтилган қоидалар бугунги кунда ҳам ўзгаргани йўқ ва уларга амал қилиб келинади. С.Абдулла, Чархий, Чустий, Ҳабибий сингари ғазалнавис шоирларимиз ғазалнинг замонавийлашишига, бизнинг давримизда ҳам шеърятнинг етакчи жанрларидан бири бўлишига катта ҳисса қўшишди. Э.Воҳидов, А.Орипов ижодида ғазалнинг гўзал намуналари бор. Сирожиддин Саййид ғазал жанри анъаналарини чуқур ўрганиб, Ватан, она юрт, халқ ва миллат, ишқ-муҳаббат каби абадий мавзуларда яратган ғазалларида Навоий анъаналарини давом эттириб келмоқда. Аммо ғазалларнинг сўнгги байти–мақтаъда шоир ўз тахаллусини келтирмайди. Ҳатто Навоий ғазалларига боғлаган мухаммасларида ҳам тахаллус келтирилиши анъанасига риоя қилинмайди. Бу ажабланарли ҳол эмас. Ҳ.Олимжон, Ғ.Ғулом, Ҳ.Ғулом ва бошқа баъзи бир шоирларимиз ҳам ғазал сўнгида тахаллус қўлламаган ҳоллар учрайди.

Мухаммас боғлаш ижодкордан жуда катта масъулият, истеъдод талаб қилади. Чунки мухаммас боғлаганда байтга қўшилаётган уч мисра мазмуни ғазал муаллифи фикрини яна ҳам тўлдириши, унинг бадиий қимматини ошириши лозим. Навоийнинг “Ўйнар” радифли ғазалига боғланган мухаммасда ажиб бир мутаносибликни кўрамыз. Мухаммас боғловчининг фикрлари байтдаги мисраларда ифода этилган фикрларни шарҳлайди, ҳолатнинг турли кўринишларига турлича, жозибали ва таъсирчан иқтибослар келтиради. Бу эса Навоий ғазалидаги сеҳрни янада оширади, кишини ўзига мафтун этади.

Ғазалнинг биринчи байти:

Зулфинг очилиб, орази дилжў била ўйнар,  
Ҳинду бачае шўхтурур су била ўйнар<sup>1</sup>.

Ёрнинг зулфи ёйилиб, юзининг чиройи дилни ўртайдиган даражада, ҳинд боласи каби шўхки, сув билан ўйнайди. Сув ёнидаги гўзалнинг зулфлари товланишини тасаввур қилинг: нақадар чиройли, кишини ҳаяжонлантирадиган тасвир. Сирожиддин Саййидга тегишли мисраларда бу гўзал тасвир янада қуюқлашади, мисралардаги сўзлар моҳияти янада ёрқинроқ очилади, таъсир кучи шунчалик ошиб боради:

Кўнглим очилиб, ўйлаки орзу била ўйнар,  
Кўрганда юзинг, орзуси қайғу била ўйнар,  
Қайғуси яна завқ ила туйғу била ўйнар...<sup>2</sup>

Ошиқ кўнгли кўтарилиб, орзуларга ғарқ бўлади, висолга талпинади, аммо юзини кўриши билан қайғуга ботади, чунки бу юз васлига етмоқ ниҳоятда мушкул; қайғу завққа қўшилиб кетади, негаки, маъшуқа васлига етишиш энг ноёб туйғу ва у ана шу туйғуга талпинади.

Иккинчи бандда Навоий гўзалнинг кўзгу ёнидаги ҳолатига эътиборни қаратади: у бир шўх, кўнгли завққа тўла, у совуқ нафаслардан йироқ, бола каби кўзгуга ўзини солади. Сирожиддин Саййид уни ҳам тўлдиради. Ошиқ замондан

---

<sup>1</sup> Саййид Сирожиддин, Асарлар, III жилд, Шеърлар, дoston, ғазал дафтари, насрий оҳангларда, “SHARQ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент, 2019 й. Б.443.

<sup>2</sup> Ўша жойда.



ҳам, умрининг боридан ҳам кечишга тайёр, жон куйганидан дил ва нафаснинг фарқи қолмайди, ишвасидан кўнгил қафасидан отилиб чиқиб кетади. Маъшуқа ошиқни мафтун этишда давом этади. Унинг ҳар бир ҳаракати ошиқни ҳар кўйга солади. Маъшуқанинг бир боқиши уни сеҳрлаб қўяди, шундан унинг уйқуси ҳам йўқолади. Бунинг сабаби байт олдидан қўшилган уч мисрада равшанлашади: маъшуқанинг юзи кўзидан, кўзи юзидан гўзал; киприклари мафтун этишни икки кўздан ўрганган; бир жилва қилса, ҳар қандай чирой, гўзаллик ундан ортда қолади.

Кейинги бандларда ҳам байтлар мазмунига мос, уларни тўлдирувчи, байтда айтилган фикрлар мағзини чақишга, уларни тўлароқ тушунишга ёрдам берадиган мисралар қўшилган. Жумладан, олтинчи байтда

Зоҳид била нафс этса тамасхур , не ажабким,  
Ит сайд қилур вақтида тулку била ўйнар,<sup>1</sup>

деган Навоий фикрларига “дунё ишида икки тараф борлиги, бири меҳр-муҳаббат бўлса, иккинчиси қаҳр-ғазаб эканлиги, дўст билан душманнинг кулишини ит ов қилар чоғи тулки билан ўйнашига сабаб қилиб кўрсатма”, дейди.

Муғ дайрида маст ўлса Навоийни кўрунгим,  
Бир олма киби гунбади мину била ўйнар,<sup>2</sup>

байтига қўшилган мисралар қалбни некбин туйғуларга тўлдиради, байт мазмунини яна ҳам тўлиқроқ англашга ёрдам беради. Мухаммас муаллифи меҳр билан вафо кўхна оламда доим муҳокама этиб келинади, ошиқ аҳли ўз кўнгил севгани билан бирга бўлиши, ҳамдам, ҳамнафас юриши лозим, бунинг учун ҳаммиша садоқат, саховат йўлидан юринг, дейди.

“Холу хатинг хаёлидин...” деб бошланувчи ғазалга боғланган мухаммас ҳам байт мазмунини янада теранроқ англашга ёрдам берадиган, ташбеҳлар жозибасини оширадиган, ғазалдан олинажак завқни оширадиган даражада. Аслида мухаммас ғазал сеҳрига сомеъ бўлиш, ундаги маъно-мазмундан таъсирланиш, лирик қаҳрамон ҳолатига муносабат билдириш ва ҳолатнинг бадий ташбеҳини янада қуюқлаштиришдир. Бунга қай даражада муваффақ бўлиш мухаммас боғловчининг маҳоратига, истеъдодига боғлиқ. Сирожиддин Саййид ғазал байтларидаги мазмун-моҳиятни чуқур англаб, фикрни ривожлантирувчи, таъсир кучини оширувчи мисралар яратишга муваффақ бўлган. Навоийнинг ҳар бир ғазали санъатлар билан зийнатланган. Юқорида тилга олинган ғазалда ҳам бу хусусият мавжуд. Қайтариш санъатининг бир неча турлари қўлланган унда. Рад-ус-садр илал-ҳашв турида биринчи мисра бошида келган сўз иккинчи мисра ўртасида такрорланади. Ғазалнинг биринчи байтида ана шу санъат қўлланган:

Холу хатинг хаёлидин, эй сарви гульзор,  
Гаҳи кўзумга хол тушубтур, гаҳи ғубор<sup>3</sup>.

Хол сўзи биринчи мисра бошида ва иккинчи мисранинг ўртасида келяпти. Бу қайтариш санъатининг бир кўринишидир. Рад-ус-аруз илал-ибтидо

<sup>1</sup>Саййид Сирожиддин, Асарлар, III жилд, Шеърлар, дoston, ғазал дафтари, насрий оҳангларда, “SHARQ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент, 2019 й. Б.444.

<sup>2</sup>Ўша жойда.

<sup>3</sup>Саййид Сирожиддин, Асарлар, III жилд, Шеърлар, дoston, ғазал дафтари, насрий оҳангларда, “SHSRQ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент, 2019 й. Б.483.

кўринишидаги санъатда биринчи мисра охиридаги сўз иккинчи мисра бошида қайтарилади. Муҳаммас муаллифи тўртинчи бандда ана шу санъатдан фойдаланган:

Саволмидур самода ё қошинг **ҳилолидур**,  
**Ҳилолмидур** ёки бори умрим саволидур?

Худди шу мисраларда рад-ус-садр илал-ажуз санъати ҳам қўлланган. “Саволмидур”, “саволидур” сўзлари мисраларнинг боши ва охирида қайтарилиб, шу санъатни вужудга келтирган.

Навоий ғазалида рад-ус-аруз илал-ажуз кўриниши ҳам учрайди. Иккинчи байтда

Юзингда хол сафҳада томғон киби қаро,  
Холинг малоҳати туз эрурким, қарода бор  
деган гўзал мисраларда бу санъат намоён бўлган.

Рад-ус ҳашв илал-ибтидо кўриниши ҳам байтга қўшилган мисралардан бирида қўлланган. “Жону таним ҳар лаҳза андуҳ бирла тўлмоғин, Ҳар лаҳза нотавону маҳжур ўлмоғин...” мисраларида(муҳаммаснинг бешинчи банди) “ҳар лаҳза” сўзи икки жойда бошқа-бошқа маъноларни аниқлатган ҳолда қўлланган.

Навоий ғазалида тарде акс санъати ҳам қўлланган. Олтинчи бандда унинг гўзал намунасини кўрамиз:

Машшотайи қазо безамиш холу хаттини?  
Беихтиёрликда борму манга ихтиёр?

Бу ерда беихтиёр ва ихтиёр сўзлари маъноси бир-бирига зид сўзлардир. Муҳаммас муаллифи ҳам байтлардаги мазмунга мос, унинг таъсир кучини оширишга хизмат қиладиган мисралар яратилганда таносиб санъатидан кенг фойдаланган. Бу санъатда маъно жиҳатидан бир-бирига яқин сўзларни айтилаётган фикрни таъкидлаш, мазмунни кучайтириш мақсадида келтириш кўзда тутилади. Ҳар лаҳза, ҳар дам; сабо, шамол; назокат, ҳусн, қадди-басти каби сўзларнинг бир ўринда келиши мисралар мазмунига мос келиши билан уларнинг мусиқийлигини, жозибаторлигини оширган.

Мақсуд Шайхзода Навоий асарларининг бадиий хусусиятлари ва услублари тўғрисида фикр юритиб, “Ҳаётни, одатларни, кишиларни, табиатни ва ижтимоий турмушни мукамал билган шоиргина маънавий, руҳий ҳолатларни беришда ташқи дунёнинг, объектив воқеликнинг тазоҳиротидан шундай журъат ва маҳорат билан фойдаланиши мумкин”<sup>1</sup>, деган хулосага келган. Бу хулосани С.Сайид муҳаммас боғлаган ғазалларга нисбатан ҳам татбиқ этиш мумкин.

Алишер Навоий ижоди, яратган асарлари, ижодий сабоқлари ҳамиша адиб ва шоирларимиз учун улкан ибрат мактаби, дуру жавоҳирга кон улкан уммон бўлиб, ижодий истеъдодларини ўстириб боришнинг манбаидир. Улкан салафлари қаторида Сирожиддин Сайид ҳам бу бебаҳо адабий меросдан завқланиб, илҳомланиб, бундан буён ҳам халқимиз маънавий хазинасини бойитадиган асарлар яратаверади.

---

<sup>1</sup> Мақсуд Шайхзода, Алишер Навоий лирикасининг баъзи бир поэтик усуллари ҳақида (“Ғаройиб ус-сигар” девони бўйича), “Ўзбек адабиёти масалалари” Адабий-танқидий мақолалар, Тошкент, Ўздавнашр, 1959 й. Б.252.

## ПЕДАГОГ МАГИСТРЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ИМКОНИАТЛАРИНИ ОШИРИШ

*Икром Абдушукурович ЧОРИЕВ,  
Ўзбекистон Республикаси ОТФИБ ҳузуридаги Талаба ва ўқувчиларнинг  
ижтимоий фаоллигини ошириш маркази мутахассиси,  
Республика маънавият-маърифат маркази ҳузуридаги Ижтимоий-маънавий  
тадқиқотлар институти тадқиқотчиси*

Педагогика фанининг методологияси деганда педагогик ходисаларни ўрганиш усуллари ва тамойиллари назарда тутилади. Педагогик тадқиқотларга услубий ёндашувларни ишлаб чиқадиган ва ўқитувчилар ҳамда олимларга ўқитиш ва тарбиялашнинг самарали усуллари ишлаб чиқишда ёрдам берадиган соҳа сифатида қараш мақсадга мувофиқ.

Аввало, педагог магистрлар педагогика фани методологиясининг қуйидаги асосий жиҳатлари ўзлаштириши талаб этилади. Жумладан:

1. Эпистемология - эпистемология педагогика фанида қандай танишишимиз ҳақидаги саволлар билан шуғулланади. Бунга педагогик тадқиқотлар контекстида «билим», «ҳақиқат», «далил» ва «ишонч» каби тушунчаларни таҳлил қилиш киради.

2. Тадқиқот усуллари - педагогика фанининг методологияси педагогик тадқиқотларда маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилиш усуллари ва усуллари ишлаб чиқади. Бунга малака ва миқдорий усуллар, шунингдек сўровлар, кузатувлар ва тажрибалар усуллари киради.

3. Таълим фалсафаси - педагогика фанининг методологияси педагогик амалиётнинг фалсафий асосларини, шу жумладан таълимнинг мақсадлари ва қадриятлари, ўқитувчи ва талабанинг роли ва бошқалар ҳақидаги саволларни ривожлантиришга ёрдам беради.

4. Педагогик назариялар - педагогика фанининг методологияси педагогик жараёнларни тушуниш ва тушунтиришга ёрдам берадиган педагогик назарияларни таҳлил қилиш ва ривожлантириш билан ҳам шуғулланади.

5. Танқидий фикрлаш - педагогика фанининг методологияси олимлар ва ўқитувчилар ўртасида танқидий фикрлашни ривожлантиришга ёрдам беради, уларга педагогик тадқиқотлар ва амалиётни таҳлил қилиш ва баҳолашга ёрдам беради.

Шуни таъкидлаш керакки, педагогика фанининг методологияси доимий равишда ривожланиб боради. Таълим соҳасидаги ўзгарувчан шароит ва эҳтиёжларга мослашади. Олимлар, шунингдек ўқитувчилар доимий равишда таълим тадқиқотлари ҳамда амалиётига услуб ва ёндашувларни такомиллаштириш устида ишламоқдалар.

Педагог магистрларнинг услубий имкониятларини оширишга ўқитишнинг самарали усуллари ишлаб чиқиш ва амалга ошириш учун зарур бўлган билим, малака ва кўникмалар киради. Ушбу компетенциялар ўқув жараёнида муҳим рол ўйнайди. Педагог магистрларнинг бўлажак ўқитувчи сифатида билим, малака ва кўникмаларни ўқувчиларга муваффақиятли сингдиришга ёрдам беради. Бу ерда бўлғуси ўқитувчи, яъни педагог магистрларнинг баъзи асосий услубий ваколатлари қуйидагилардан иборат:

1. Педагогик усулларни тушуниш: ўз ўқувчилари учун энг мосини танлаш учун турли хил ўқитиш усуллари, шу жумладан анъанавий ва замонавий ёндашувлар билан таниш бўлиши керак.

2. Дарсни режалаштириш: ўқув дастурлари ва дарсларини, шу жумладан дарс мақсадларини аниқлаш, ўқитиш усуллари ва воситаларини танлаш, шунингдек ўқув ютуқларини баҳолашни ишлаб чиқиши керак.

3. Турли хил ўқув услубларига мослашиш: уларнинг эҳтиёжларига энг мос келадиган ўқув муҳитини яратиш учун индивидуал эҳтиёжлари ва ўқув услубларини ҳисобга олиши керак.

4. Технологиялардан фойдаланиш: замонавий таълим технологиялари билан таниш бўлиши ва улардан ўқув жараёнини бойитишда фойдалана олиши керак.

5. Баҳолаш ва фикр-мулоҳазалар: талабаларнинг билимларини баҳолай олиши ва уларга ўз малакалари ва билимларини ошириши учун фикр-мулоҳазалар билдириши керак.

6. Турли хил талабалар билан ишлаш: турли хил талабалар гуруҳлари, шу жумладан турли даражадаги қобилият, маданий ва лингвистик хусусиятларга эга болалар билан ишлашга қодир бўлиши керак.

7. Касбий ривожланиш: доимий равишда услубий маҳоратини ошириши ва таълимнинг сўнгги тенденцияларига риоя қилиши керак.

8. Креативлик ва инновация: дарсларни янада қизиқарли ва самарали қилиш учун янги техника ва ёндашувларни жорий эта олиши керак.

9. Режалаштириш ва вақтни бошқариш: дарсларга тайёргарлик кўриш ва талабалар ишини баҳолаш учун етарли вақтга эга бўлишларини таъминлаш учун ўз вақтларини самарали режалаштиришлари керак.

10. Мулоқот қобилиятлари: ўқувчилар, уларнинг ота-оналари, ҳамкасблари ва мактаб маъмурияти билан самарали мулоқот қила олиши керак.

Ушбу услубий компетенциялар бўлғуси ўқитувчи муваффақиятли фаолиятининг калити ҳисобланади ва талабаларга юқори сифатли таълим беради.

Замонавий ўқитувчининг услубий компетенцияси – бу замонавий таълим стандартлари, талабаларнинг талаблари ва эҳтиёжларига жавоб берадиган услубий ёндашувлар ва ўқитиш усулларини тушуниш, қўллаш ва ишлаб чиқиш қобилияти. Ушбу компетенция таълим сифати ва талабаларнинг ривожланишида муҳим рол ўйнайди. Замонавий ўқитувчи услубий компетенциясининг баъзи асосий жиҳатлари:

1. Замонавий ўқитиш методологиясини билиш: табақалаштирилган таълим, лойиҳа асосида ўрганиш, фикр-мулоҳаза, фаол ўрганиш ва ҳоказо каби замонавий ўқитиш усулларини яхши билиши керак. Бу сизга ўқув жараёнини турли талабалар эҳтиёжларига мослаштириш имконини беради.

2. Дарслар ва курсларни лойиҳалаш: ўқув мақсадлари, ўқувчиларнинг ёши ва тайёргарлик даражасини ҳисобга олган ҳолда дарслар ва курсларни ишлаб чиқиши, шунингдек самарали натижаларга эришиш учун турли усул ва усуллардан фойдаланиши керак.

3. Замонавий таълим технологияларидан фойдаланиш: ўқув жараёнини такомиллаштириш учун интерфаол доскалар, онлайн платформалар, веб-

ресурслар ва дастурий таъминот каби замонавий таълим технологиялари билан танишишлари керак.

4. Ўқув натижаларини таҳлил қилиш ва баҳолаш: ўқувчиларнинг ўқув натижаларини баҳолашлари ва маълумотларни таҳлил қилишлари керак, чунки уларнинг ўрганишга бўлган ёндашувини мослаштириш ва ўқув жараёнини такомиллаштириш.

5. Танқидий фикрлаш ва тадқиқот кўникмаларини ривожлантириш: ўқувчиларнинг танқидий фикрлаш, мустақиллик ва тадқиқот қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам беришлари керак.

6. Таълимни индивидуаллаштириш: ҳар бир талабанинг индивидуал эҳтиёжларини қондириш учун турли хилликни ва ўқув жараёнига қўшилишни қўллаб-қувватлаш учун ўз ёндашувларини мослаштириши керак.

7. Ўз-ўзини тарбиялаш: бўлажак ўқитувчи таълим соҳасида долзарб бўлиб қолиши учун узлуксиз ўрганиш ва ўзини такомиллаштиришга тайёр бўлиши керак.

Бўлажак ўқитувчининг услубий компетенцияси талабаларни замонавий дунёга тайёрлашда ва таълим мақсадларига еришишда муҳим рол ўйнайди.

XXI аср илм–фан ишлаб чиқариш, яратувчанлик омилига айланиши кадрлардан ҳар бир соҳани модернизациялаш шароитига компетентлиги жаҳон андозаларига мослигини талаб қилади.

Ўтган асрнинг 90 йилларида компетентлик концепцияси бўйича ҳар хил қарашлар юзага келди. Жумладан, Fletcher (1997), Mansfeld (1996), Roe (2002), Spencer and Spencer (1993), J.F.Lozano, F.Boni, J.Peris, A.Hueso (2012), Competencies in higher education: A critical analysis from the capabilities approach. Journal of Philosophy of Education томонидан ўтказилган тадқиқотларда олий таълимда компетентли тайёрлаш бўйича тажрибалар умумлаштирилди. Бунинг натижасида компетентлик муайян вазиятда, маълум вақтда, интеллектуал ва эмоционал имкониятларни самарали қўллашдир, деган хулосага келинади.

Р.Э.Бояцис компетентлик имконият ёки қобилият, хулқ тизими эканлигини таъкидлайди. Л.Х.Маркус, Х.Д.Купер–Томос ва К.Н.Олиресс (1997) компетентликнинг уч йўналишини: таълимий, маънавий – ахлоқий ва фаоллик қобилиятлар уйғунлиги деб қарайди. С.Мусинов, С.Кубаев, Н.Холмуродовлар ҳозирги давр мутахассиси компетентлигини уч асосини: ахборотлашиш, ижтимоий–мулоқот, муаммоларни ечаолиш ва модуллаштириш концепциясини тавсия этадилар.

Шунингдек, Ўзбекистон олимларида Р.Джураев, Ш.Қурбонов, Н.Азизходжаева, Н.Муслимов, Ш.Абдураимов, Қ.Олимов, М.Урабова, Б.Ходжаевлар тадқиқотларида касбий компетентлик, касбга оид билим, кўникма, тажриба, маҳорат уйғунлиги илмий асосланган. Б.Назаровнинг тадқиқотида эса педагогнинг касбий тарбияланганлик компетентлигини тадқиқ қилишда унинг қуйидаги турлари билан фарқ қилинишини таъкидлайди:

- махсус тарбияланганлик компетентлиги – касбий фаолиятини етарлича юқори даражада эгаллаганлик, ўзининг келгуси касбий ривожланишини лойихалаш қобилияти;

- ижтимоий тарбияланганлик компетентлиги – биргаликдаги (гуруҳли, кооператив) касбий фаолиятини, ҳамкорликни ва, шунингдек, мазкур касбда



қабул қилинган касбий мулоқот услубларини эгаллаганлик, ўз касбий меҳнати натижалари учун ижтимоий, маъсуллик;

- аутокомпетентлик – ўзининг ижтимоий – касбий характеристикалари ҳақида адекват тасаввур ва касбий деструкцияларини енгиб ўтиш технологияларини эгаллаганлик;

- экстремал касбий компетентлик – тўсатдан мураккаблашган шароитларда, ҳалокатларда, технологик жараёнлар бузилганида ва бошқа ишлаш қобилияти. Маълумки, мутахассиснинг касбий шаклланишида бўлажак касбий фаолият турлари бўйича таянч билим, кўникма ва малакаларини ўзлаштириш муҳим ўрин тутса, реал амалий фаолият олиб бораётган педагогик кадрларда фаолиятни мукамаллиги, уни амалга ошириш сифати ва дарааси муҳим омиллардан саналади.

Мавжуд тадқиқотларда мутахассис, касб, ҳунар, ихтисос фаолиятига нисбатан компетенция, компетентлик, компетентлилик категориялар ҳолларда синоним тарзда қўлланилишига сабаб компетенция у ёки бу мутахассислик таълим стандартига мослиги, таълим стандарти бўйича билим, малакани эгаллаганлиги ва шахсий фазилати, ҳолати, даражасини ифодалаш, дейилади. Маълумки, компетенциялар Болония таълим тизими, стандартлари (Норвегия 2005, Берн) бешта асосий элемент:

- билим ва тушуниш;
- билимларни қўлланилиши ва тушуниш;
- дунёқарашни шаклланишига мойиллик;
- коммуникатив кўникмалар;
- мустақил таълим олишга бўлган қобилиятдан иборатлиги қайд

қилинган.

Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб, компетенция лотинча Coreto – эришяпман, муносибман, лойиқман, у ёки бу мутахассислик меъёрий, норматив мезонларини билиш, шу соҳадаги билим, кўникма, тажрибалар даражаси. Бугун дунёда глобаллашув замонавий цивилизация тараққиёти – фан, маданият, таълим соҳасидаги инновацияларга ўз таъсирини кўрсатмоқда. Мамлакатимизда магистратура таълими тизимида юқори даражадаги инсон капитали, меҳнат бозорида рақобатбардош кадрлар тайёрлашга имконият яратилган.

## АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2909-сонли Қарори.

2. Мирзиёев Ш.М. Илм фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // «Халқ сўзи» газетаси, 2016 йил 31 декабр.

3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. // Халқ сўзи, 2017 йил 15 январь.

4. Нишонова С. Шарқ уйғониш даври педагогик фикр тараққиётида баркамол инсон тарбияси. Пед.фан.докт. ... дисс. Т.: 1998.-288 б.

5. Ортиқов Н. Миллий ва умуминсоний кадриятлар асосида ўқувчи шахсини ахлоқий шакллантириш. Пед.фан.докт. ..дисс. – Т.: 2000. 305 -б.

6. Эшчанова Н.Р. Глобаллашув шароитида миллий маънавиятга таҳдидлар ва уларни бартараф этиш омиллари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Т., 2019.-53 б.

7. Волков Г.Н. Этнопедагогика: Учеб. для студ. сред. и выс. пед. учеб. заведений. – М.: Изд. центр «Академия», 1999. – 168 с.

8. Зиёмухаммедов Б. Педагогика. - Т.: Ўқитувчи, 2008. – 182 б.

9. Кайковус. Қобуснома. -Т.: Ўқитувчи, 1986-. 118 б.

10. Қуронов М. ва бошқалар. Олий таълим муассасаларида маънавий-маърифий ишларни ташкиллаштириш.Т.:Тафаккур. 2011.- 88 б.

## ҲАРБИЙ СОҲА ТИЗИМИГА ОИД ЛЕКСЕМАЛАР

*Манзура Тулагановна НАРМАТОВА,*

*Жиззах давлат педагогика университети, ўқитувчи*

**Аннотация:** мақолада “Малика айёр”, “Баҳром ва Гуландом” дostonларида ҳарбий соҳа тизими тушунчасига, хусусан, ҳарбий ҳаракатларда иштирок этувчи тушунчасига оид, шунингдек, ҳарбий қурол-яроғ тушунчасига оид лексемалар таҳлил қилинган.

**Таянч сўзлар:** дoston, лексема, ҳарбий, новкар, сипоҳ, душман, отлик, пиёда, асир, найза, қилич, қурол-яроғ каби

**Аннотация:** в статье анализируются лексемы, относящиеся к понятию военный строй, особенно понятию участник военных действий, а также понятию боевое оружие в эпосах «Малика Аяр», «Бахрам и Гуландом».

**Ключевые слова:** легенда, лексема, военный, солдат, солдат, враг, конница, пехота, пленник, копье, меч, оружие и т.д.

**Annotation:** the article analyzes the lexemes related to the concept of the military system, especially the concept of the participant in military operations, as well as the concept of military weapons in the epics "Malika Ayar", "Bahram and Gulandom".

**Key words:** epics, lexeme, military, soldier, enemy, cavalry, infantry, prisoner, spear, sword, weapon, etc.

Ижтимоий-сиёсий муносабатларни билдирувчи лексик бирикмаларнинг катта бир тармоғи – бу ҳарбий соҳа тизими оид лексемалардир. Биз ўрганган халқ дostonлари матнида ҳам мазкур тизимга хос юздан ортиқ лексемалар қўлланилганки, уларни қуйидаги функционал-семантик гуруҳларга бўлиб ўрганишни мақсадга мувофиқ, деб ҳисобладик:

**а) Ҳарбий ҳаракатларда иштирок этувчи тушунчага оид лексемалар.**

**Новкар** (мўғ. нўхўр – дўст, ўртоқ; эр) 1. Тар. “Ҳарбий хизматкор, аскар” (6.ЎТИЛ, V, 3-бет) маъносини ифодалаган. Ушбу лексеманинг қўлланилиши дастлаб “Ўғузнома”да (8) кейинчалик Алишер Навоийнинг “Тарихи мулуки Ажам” асарида ишлатилганлиги (1) аниқланган. Биз ўрганган “Малика айёр” дostonида фақат бир ўринда, хусусан, Авазхоннинг отаси Гўрўғлидан оқ фотиҳа сўраб, хайрлашиш мурожаатида қўлланганлигини кузатдик: *Ошмоққа қойимдир, тоғларнинг бели, От чопишиб юрган Новкарнинг чўли* (3.М.а.16-бет). Мазкур лексема “Баҳром ва Гуландом” дostonи матнида учрамади.

**Сипоҳ:** форсча тарихий сўз бўлиб, тилимизга ўзлашма сифатида кириб келган. Нуфузли луғатимизда унинг икки маънода қўлланилиши қайд этилган: 1. Подшоҳ, хон, амир саройида узоқ хизмат қилган лавозимли киши, амалдор; 2. Жангчи аскар (5.ЎТИЛ, III, 518-бет). **Сипоҳ** лексемасининг “аскар, кўшин, лашкар” маъносида эски ўзбек тилида кенг қўлланганлиги, хусусан, Алишер Навоийнинг тарихий асарларида ҳам ишлатилганлиги аниқланган. Ушбу лексема “кўшин” маъносида Бухоро хонлиги даврида ҳам ишлатилган. Унинг маънодош атамаси бўлмиш **сипоҳсолор** варианты “кўшиннинг бош кўмондони, асосий бошқарувчи шахс” маъносини ифодалаб келган<sup>3</sup>. Бу сипоҳ лексемаси баъзи асарларда, хусусан, халқ дostonлари матнида сипоҳи (аскар, жангчи), шунингдек, “амалдорлик, иш бошилиқ, аскарлик, жангчилик” маъносидаги **сипоҳлик** шаклида ишлатилганлигини кузатдик. Биз ўрганган “Малика айёр” достонида **сипоҳилиқ** лексемаси 2 марта, шунингдек, **сипоҳилари**, **сипоҳининг**, **сипоҳнинг** каби вариантларнинг ҳар бири бир мартадан қўлланган. *Белимда ярқиллар кескир нўлатим, Шундай бўлар сипоҳилиқ одатим* (З.М.а.36-бет), *Тоша келар Авазхоннинг гайрати, Шундай бўлар, сипоҳининг одати, Қўлида ярқиллар кескир нўлати* (З.М.а.20-бет). *Чамбилниг эл-юрти Авазхоннинг отланиб бораятганини кўриб, нўш-нўшлаб, Чамбил амалдорлари, сипоҳилари, беклари Авазхонни жўнатмоқчи бўлибди* (З.М.а.16-бет). Келтирилган матнлардаги **сипоҳи** лексемасида “аскар, жангчи, кўшин” семалари устуворлик қилган. Биз ўрганган “Баҳром ва Гуландом” достони матнида **сипоҳи** 3 марта, **сипоҳилар** 8 марта учрадики, уларнинг ҳаммасида юқорида таъкидланган сема мавжудлиги аниқланди: *Қулоқ солинг мард Баҳромнинг тилига, Ёш деб сипоҳилар қарар кўнглига, Тоғ тушса талқон қилур қўлига, Бирга юрган сипоҳилар, англади: Ҳеч бир душман чиқолмади йўлига, Шу эр пайдо бўлди Хурум элида* (2.Б.Г.8-бет).

**Душман.** Ушбу юқоридаги матнда тагига чизилган **душман** лексемаси ҳам ҳарбий ҳаракатларда иштирок этувчи шахс - эпик қаҳрамон тушунчасига оид сўз бирлиги ҳисобланади. У этимологик жиҳатдан форсийдан ўзлашма бўлиб, “ёв, муҳолиф” каби маъноларини ифодалайди. Халқ дostonлари матнида, хусусан биз ўрганган манбаларда “урушда ўзаро бири иккинчиси билан жанг қилувчи, бир-бирига қарши уруш эълон қилган томонларнинг ҳар бири” маъноларини ифодалаб келган. Душман лексемаси “Малика айёр” матнида жуда фаол қўлланганлигини қўйидаги статистик маълумотлар далиллаб бера олади: лексемасининг ўзи матнда 67 марта, **душманлар** 16 марта, **душманнинг** 13 марта, **душманларнинг** 10 марта, **душманларга** 8 марта, **душманга** 6 марта, шунингдек, **душманлардан**, **душманни**, **душманларни** истилоҳлари 3 мартадан қўлланган. Булардан ташқари, **душмандан**, **душмани**, **душманим**, **душманинг**, **душманингни**, **душманларда**, **душманларнинг**, **душманларининг** каби шаклдошлари 1-2 мартадан матнда учрайди. Уларнинг ҳаммасида “ёв, муҳолиф” каби семалар устуворлик қилган. Айрим мисоллар келтириш билан чекланамиз: *бу хизматга, болам талаб қилмагин, Ғариб бўлиб душман қўлида қолмагин* (З.М.а.12-бет). *Келган душманларни баён айлагин, Болам, менга хабар бергин душманни, қилиб қўяй душманларнинг ишини, Хафа бўлма, болам, менинг ишимдан* (З.М.а.11-бет) каби. “Баҳром ва Гуландом” достонида душман лексемасининг қўлланилиш даражаси бироз пастроқ. Биргина душман истилоҳи матнда 19 марта қўлланган. *Душманга, душмандан, душмани, душманим, душманлар, душманларга, душманлардан, душманлиги, душманни,*

*душманнинг* каби лексемалар 1-2 мартадан қўлланган. Лекин уларнинг ҳаммасида юқорида қайд этилган семалар (ёв, мухолиф) ўз ифодасини топган. Ҳарбий ҳаракатларда иштирок этувчи шахс, масалан, новкар, аскарлар *отлиқ* ёки *пиёда* ҳолида ўз вазифаларини бажариш мумкин. Биз ўрганган халқ дostonлари матнида *отлиқ* ёки *пиёда* тушунчасига оид лексемалар ҳам *душман* лексемаси сингари анча фаол қўлланганлигини кузатдик. Улар ўз навбатида ҳарбий соҳа тизимида оид лексемалар қаторидан муносиб ўрин олган.

**Отлиқ (отлиғ):** бу лексема “от минган, сувори” (5.ЎТИЛ, III, 156-бет) маъносини ифодалайди ва фольклор асарларида жуда фаол қўлланади. Масалан, халқ мақолларига оид намуналардан бирини мисол келтирамиз: *Икковга биров ботолмас, отлиққа яёв етолмас*. Ушбу матндаги *отлиқ-яёв* жуфтлиги биз ўрганган “Малика айёр” дostonи матнида ҳам учрайди: *Авазхон мерганлар билан учови отланиб, бедовларни миниб олди. Қолган дорлар телпаги қоққайиб яёв йўл бошлаб, бешовлари отлиғма-яёв бўлиб, қизилқумда йўл юриб бора берди* (3.М.а.69-бет). Мазкур дostonда “от минган, суворий” маъносини ифодалаган *отлиқ* лексемаси алоҳида ҳолда ҳам қўлланганлигини кузатдик: *Бу сўзни душманлар эшитди, Шундай қараса, икки отлиқ тоғдан бақариб-чақариб, сиёсат билан келаётир* (3.М.а.34-бет).

“Баҳром ва Гуландом” дostonи матнида ҳам отлиқ-пиёда жуфтлиги ҳарбий ҳаракатларнинг иштирокчиси сифатида тилга олинган: *Неча меҳмон киши ўлди, Ўришмоққа тобимиз йўқ, Бу лашкар иззатин қилди, Қилични бўйнига солса, Отлиси пиёда бўлса, Енгилган лашкар шу бўлар* (2.Б.Г.103-бет). Мазкур дostonда отлик, отлиқ лексемалари баъзи ўринларда юқорида таъкидланган маънода эмас, балки “номга, исмга нисбатан бериш” маъносида ҳам қўлланганлигини кузатдик: *Замоннинг замонида Хурум шахрида Хусров отлиқ бир подшоҳ бор эди;* (2.Б.Г.5-бет); *Бизнинг эди шахзодамиз, Баҳром отлиқ озодамиз* (2.Б.Г.89-бет) каби.

**Пиёда (яёв):** бу лексема форсий ўзлашган бўлиб, “яёв, оёқ билан, уловсиз аскар” (5.ЎТИЛ, III, 255-бет) маъноларини ифодалашга хизмат қилади. Ўзбек халқ дostonлари матнида, хусусан, биз ўрганган дostonлар матнида асосан кўплик шаклдаги от сўз туркуми сифатида “яёв жанг қилиш учун белгиланган кўшин тури, уловсиз аскар” маъноларида қўлланганлигини кузатдик. “Баҳром ва Гуландом” дostonида пиёда лексемаси 7 марта қўлланган. “Малика айёр” дostonида эса бу ҳолат анча юқори даражада пиёда лексемасининг ўзи 19 марта, унинг пиёдалаб шаклдоши 2 марта учради. Уларнинг жуда кўпчилик намуналарида “пиёда аскар”, “уловсиз аскар” маънолари устуворлик қилганлигини кўрдик: *Қилинган ишим ҳар одамдан зиёда, Ҳар урушида бўлар душман пиёда* (3.М.а.27-бет). *Қани тушгин биз бўлайлик пиёда, Пиёда олишсак, шунда ажрим бўлади, Қайсимизга худо бериб қолади, Бундай кунда ажалли қул ўлади* (3.М.а.39-бет).

**Асир:** форсий ўзлашма саналган бу лексема “тутқин, банди” (4.ЎТИЛ, I, 105-бет) маъноларини ифодалайди. Фольклор асарларида, хусусан, халқ дostonлари матнида “душман қўлига тушиб, озодликдан маҳрум бўлган шахс, банди, тутқин” маъноларида қўлланади. Биз ўрганган “Малика айёр” дostonида асирликда, шунингдек, “Баҳром ва Гуландом”да *асир* шаклида 1 мартадан қўлланганлиги кузатилди. Матнларга эътибор берамиз: *Шозаргар бу ёш боланинг бундай бўлиб, девларнинг қўлида асирликда юрганни кўриб, -Шаҳзода, қайси*



шаҳардан бўласан, ўзинг одамзодсан, девнинг қўлида нимага бундай қамалиб турасан? –деб ёш боладан сўради (3.М.а. 154-бет). Бўлмаса гайрат отинг минарман, Ҳаммасини дами тигдан ўтказиб, Шонзод қўймай, ўзин **асир** оларман (2.Б.Г. 59-бет). Кўрамизки, ҳар иккала матнда “банди, тутқинлик” семаси устуворлик қилган; *асир* лексемаси ҳарбий соҳа тизимига оид лексемалар гуруҳига мансуб, айнан, ҳарбий ҳаракатларда иштирок этувчи шахс яъни эпик қаҳрамон тушунчасига оид лексемалардан бири сифатида тилимиздан муносиб ўрин олган, деган хулосага келдик.

**б) Ҳарбий қурол-яроқ тушунчасига оид лексемалар**

**Аслаҳа:** этимологик жиҳатдан араб тилидан ўзлашма сўз бўлиб, у “қуроллар” маъносини ифодалайди. “Уруш-жанг қуроллари, қурол-яроғ” тушунчасидаги мазкур лексема халқ дostonлари матнида “анжом” сўзи билан боғланиб “Уруш-жанг учун керакли қурол-яроқ ва анжомлар” маъносини ифодалашга хизмат қилган. Биз ўрганган “Малика айёр” достонидан олинган қуйидаги матнда “уруш аслаҳалари”, “ҳарбий аслаҳа” маъноси устуворлик қилган: *Лашкар ёв-ярогини ғамлаб, ҳар ким ўз аслаҳасини олиб, жўнашга ҳозирлик кўрди* (3.М.а.19-бет). *Бедовларга қамчи урди, Девлар қолиб йўлга кирди, Қанча аслаҳа-анжомлар, Ўлжсо бўлиб бунда қолди* (3.М.а.149-бет). Биз ўрганган “Баҳром ва Гуландом” достони матнида ҳам **аслаҳа-анжомин** жуфтлиги 2 марта қўлланганлигини кузатдик: *Бу Баҳром энди ўрнидан турган, Аслаҳа-анжомни олиб қўлига, Жам бўлиб тушдилар девнинг йўлига* (2.Б.Г.43-бет). *Шу замон Сайфур отланди, Ул Новшодга тарап берди, Аслаҳа-анжомин олиб, От суриб майдон борди* (2.Б.Г.93-бет). Бу матнларда ҳам юқоридаги каби “уруш-жанг қуроллари” семаси ўз ифодасини топган.

**Найза** форсча “санчки, найза, қўл билан отиб ёки уриб синдириш учун мўлжалланган, учи ўткир қурол” (5.ЎТИЛ, III, 13-бет) тушунчасини ифодалайди. Мазкур лексема фольклор асарларида, айниқса, халқ дostonлари матнида эпик қаҳрамонларнинг асосий қурол-яроғи сифатида тилга олинган. Масалан, бу ўринда биргина “Алпомиш” достонидаги машҳур “*От чопса гумбулар тоғнинг дараси, Ботирни ингратар найза яраси*” каби мисраларни хотирга келтиришнинг ўзи кифоя.

Биз ўрганган халқ дostonлари матнида ҳам мазкур лексема учради. Хусусан, “Баҳром ва Гуландом”да **найза** лексемасининг ўзи 4 ўринда, *найзани* 4 марта, шунингдек, *найзага, найзада, найзанинг, найзадастлик* каби шаклдошлари 2 мартадан қўлланган. Айрим матнларни келтирамиз: *Нечовларга найза соли, ярадорлар отдан оғиб, От остига сулаб қолди, Бир аломат уруш бўлди* (2.Б.Г.99-бет). *Тулпорлари тирқиллаб, Ўйнаб отлар диркиллаб, Ботирларнинг эғнида ул, Қарагай найза сўлқиллаб* (2.Б.Г.75-бет). *Бир-бириман найзадастлик қиларди, Устида бор бунинг совут қалқони* (2.Б.Г.92-бет). Келтирилган матнларнинг охиридаги **найзадастлик** лексемаси форсча ўзлашган сўз бўлиб, “қўлида найза ушлаган, найзаси бор, абжир” маъносини ифодалаган. Айни лисоний ҳолат бошқа халқ дostonларида ҳам учрайди. Бунга Ислом шоирнинг “Орзигул” достонидаги қуйидаги матн ҳам далил бўла олади: “*Қорахон подшо салтанатли беклар билан ... неча найзадаст ботири билан, Жиловдор шотири билан боғнинг устидан келиб қолди* (5.ЎТИЛ, III, 13-бет).



Тилимиздаги форсий ўзлашган *найза-бардор* (найза тутган, найза билан қуролланган аскар), яна форсийча *найзабоз* (найза ўйнатувчи, найза билан қуролланиб жанг қилувчи, найза билан жанг қилишга уста, моҳир одам), шунингдек, *найзабозлик* (найза жанги, найза билан жанг қилиш, қўл жанги турларидан бири) каби лексемалар ҳар иккала дoston матнида учрамади. Лекин бу лексемалар ҳарбий **қурол-яроқ** тушунчасига оид сўз бирикмалари сифатида биз ўрганган ҳарбий соҳа тизимида оид лексикада муносиб ўрин эгаллаган.

“Малика айёр” дostonи матнида *найза* лексемаси бор-йўғи 6 марта қўлланган, *найзамоҳ* шакли 1 марта учради. Бу маълумотлардан кўрамизки, мазкур лексема “Баҳром ва Гуландом”дагига нисбатан паст даражада қўлланган. Биз учун аҳамиятлиси шуки, уларда “жанг қуроли” маъноси устуворлик қилган. Намуна сифатида берилган қуйидаги матнларга эътибор берамиз: *Бу девларнинг ақлини олиб, Яқинлашса найза солиб, Найза текан шўрли девлар. Ул замон ярадор бўлиб, Отдан йиқилди чинқираб* (2.Б.Г.150-бет); *Юрган йўлинг адир эмас, жўнағир, Найза тегса оқ бадандан қон оқар* (2.Б.Г.21-бет) каби.

**Қилич:** бу лексема ҳам “Бир тигли, ғилоф (қин) билан ёнга осиладиган, чопиш, санчиш билан ёвга шикаст етказадиган қурол” (7.ЎТИЛ, V, 290-бет) тушунчасини ифодалайди. Мазкур лексема халқ дostonлари тилида, хусусан, биз ўрганган дostonлар матнида *найза* сингари жуда фаол қўлланган. Масалан, “Малика айёр”да *қилич* лексемасининг фақат ўзи 24 марта қўлланганлигини кузатдик. Шунингдек, *қиличди, қиличидан, қиличин, қилични* каби шаклдошларининг ҳар бири 2 мартадан матн таркибида учради. Булардан ташқари, *қиличим, қиличимга, қиличини, қиличининг, қиличлаб, қиличларни, қиличнинг* каби вариантдошлари 1 мартадан қўлланган. Бу маълумотлардаги саноклар қанчалик экани муҳим эмас. Бизни эътиборимизни тортган жиҳат шуки, *қилич* лексемаси матнда “душманга зарар берадиган ва эпик қаҳрамонни ҳимоя қиладиган ҳарбий қурол” сифатида қадрланганлигидир. Буни баъзан эпик қаҳрамон ёки баҳши баёнида кузатамиз: *Ўзи билан бирга юрган мерганларни кўриб, дарғазаб бўлиб, илон тили Исфаҳон қилични яшиндай қилиб, ғилофдан суғуриб олиб, мерганларга сиёсат қилиб, бир сўз айтиб бора берди* (3.М.а.18-бет). *Чамбил элда мен ҳам бекман, тўраман, қилич урсам дарров бошин оламан* (3.М.а.38-бет) каби.

“Баҳром ва Гуландом”да ҳам мазкур лексема жуда фаол қўлланганлигини кузатдик. Масалан, *қилични* лексемаси 8 марта, *қилич* сўз бирлиги 6 марта матнда учради. Булардан ташқари, *қиличга, қиличдан, қиличди, қиличи, қиличига, қиличимни, қилични, қиличини, қиличлашиб* каби шаклдошлари 2-3 мартадан қўлланган: *Отга минса Баҳром қилар юришини. Белга боғлаб сопи олтин қилични, Отланганда қилар шундай хурушини* (2.Б.Г.17-бет). *Бу сўзларни айтиб, қилич суғурди, Девнинг тобонига қилични суқди* (2.Б.Г.45-бет) каби. Мазкур дoston матнида **қилич-шамшир, қилич-яроғини** каби жуфтликлар ҳам учради. *Қилични ғилофдан суғурди Новшод, Баҳромнинг бошига қилич соларди, Қилич-шамшир бу ярқиллаб келади, Қиличга рад бериб омон қолади* (2.Б.Г.98-бет). *Гурзи-горонини кўлига олди, Қилич-яроғини белига боғлаб, Шу замон Сайфур отини минди* (2.Б.Г.38-бет). Лисоний далил сифатида келтирилган биринчи матндаги *қилич*нинг жуфтлиги **шамшир** лексемаси форсийдан ўзлашган бўлиб, “қилич, тиг” (6.ЎТИЛ, IV, 543-бет) маъносини, иккинчи матндаги қилич-яроғнинг

кейинги жуфтлиги эса “хужум ёки химоя қилиш учун ишлатиладиган асбоб, қурол, аслаҳа” (7.ЎТИЛ, V, 120-бет) маъносини ифодалаб келган. Ҳар иккала матнда “уруш қуроли, ҳарбий аслаҳа” семалари устуворлик қилган. Иккинчи матндаги *гурзи-горон* лексемаси ҳам айна маънода қўлланган. *Гурзи* лексемаси форсийдан ўзлашган бўлиб “чўқмоқ, тўқмоқ” маъноларини билдиради (4.ЎТИЛ, I, 527-бет). Бу истилоҳ матнда “тўқмоқ шаклдаги ҳарбий қурол, шамшир, катта оғир тўқмоқ” тушунчасини ифодаловчи тарихий сўз сифатида қўлланган.

#### АДАБИЁТЛАР

1. А.Навоий «Тарихи мулуки аҷам» [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси
2. Б.Г.- Баҳром ва Гуландом –Тошкент:Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1886.
3. М.а.- Малика айёр.- Тошкент:Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1886.
4. ЎТИЛ- Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Беш томлик.- Тошкент:ЎзбМЭ.,1-жилд,2006.
5. ЎТИЛ- Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Беш томлик.- Тошкент:ЎзбМЭ.,3-жилд,2006.
6. ЎТИЛ- Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Беш томлик.- Тошкент:ЎзбМЭ.,4-жилд,2006.
7. ЎТИЛ- Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Беш томлик.- Тошкент:ЎзбМЭ.,5-жилд,2006.
8. “Ўғузнома” «Шажарайи турк» (1669)

### BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MANTIQUIY TAFAKKURLARINI O‘STIRISHDA QIZIQARLI MASALALARNI YECHISH USULLARINI QO‘LLASH

*Zuxra Botir qizi AKRAMOVA,*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti sirtqi bo‘lim "Maktabgacha va  
boshlang‘ich yo‘nalishlarida masofaviy ta'lim" kafedrasi stajyor - o‘qituvchisi*

**Аннотация:** Ushbu maqolada matematika darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurlarini o‘stirishda qiziqarli masalalarni yechish usullarini qo‘llash bayon etilgan. Shuningdek, o‘quvchilar bilimlarni o‘zlashtirishlari va hayotiy masalarni tezkorlik bilan qo‘llash fazilatlarini shakllantirishda foydalanilishi mumkin bo‘lgan testlardan namunalar ham keltirilgan.

**Калит со‘злар:** Tafakkur, tafakkur jarayonlari, analiz, sintez, arifmetik masala, mantiqiy masala, sonli bog‘lanish, matematik boshqotirma, mantiqiy boshqotirma, test.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается об использовании методов решения интересных задач в развитии логического мышления учащихся начальных классов на уроках математики. Есть также примеры тестов, которые можно использовать, чтобы помочь учащимся приобрести знания и быстро применить жизненные задачи.

**Ключевые слова:** мышление, мыслительные процессы, анализ, синтез, арифметическая задача, логическая задача, числовая связь, математическая задача, логическая задача, тест.

**Abstract:** This article describes the use of methods of solving interesting problems in the development of logical thinking of elementary school students in mathematics classes. There are also examples of tests that can be used to help students acquire knowledge and quickly apply life problems.

**Keywords:** Thinking, thinking processes, analysis, synthesis, arithmetic problem, logic problem, numerical connection, mathematical puzzle, logic puzzle, test.

Matematik masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur ham etib bo'lmaydi. Matematikada yechishning nazariyasini amaliyotga tadbiq qilishning muhim yo'lidir. Masalalar yechishning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayonida va o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda ham muhim ro'l o'ynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasida tuziladi. Bu degan so'z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan uning qo'llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani yechish bilan amalga oshadi.

Bola maktabdagi mashg'ulotlarning birinchi kunidayoq masala bilan uchrashadi.

Matematik masalalar o'quvchilarga matematik tushunchalarni to'g'ri shakllantirishga, uni o'rab turgan muhitni chuqurroq anglashga, shu bilan birga masalalar yechishga bola tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi. Eng asosiylaridan yana biri masalalar yechish orqali o'quvchi to'rtala arifmetik amal va ularning xossalari puxta o'rganadi. Matematika tili rivojlanadi. qisqasi, masalaga bu nazariya bilan amaliyotni bog'lovchi muhim zvenodir.

**Masalalarni tasvirlash usuli.** Masaladagi berilgan sonlarning nechtaligini ta'kidlashga va ular o'rtasidagi munosabatlarini aniqlay bilish ko'nikmasini rivojlantirishga imkon beruvchi eng muhim matn usuli – masalani tasvirlashdir. Bolalarning narsalarning chizmada tasvirlash usullari bilan tanishishi ham foydalidir. Dastlabki 1-2 ta masalani o'qituvchining o'zi tasvirlab chizadi.

O'qituvchi doskaning ichiga 5 ta qo'ziqorin va uning oldiga bitta qo'ziqorin solingan savatchaning rasmini chizdi. Bolalar o'qituvchi qanday masalani chizganini topganlaridan keyin o'zlari xohlagan narsalar haqida masala tuzadi. Bolalarni masalaning javobi emas, balki masala shartini chizish kerakligi haqida bosh qotirish kerak, o'qituvchi tez chiziladigan narsalarni tanlash haqida maslahat beradi. U bir nechta yaxshi chiqqan va 1-2 ta yaxshi chiqmagan rasmlarni tanlab oladi. Bolalar kim qanday masala tuzganini topadilar. Ular qaysi rasm bo'yicha masala tuzish mumkin, qaysi rasm bo'yicha masala tuzib bo'lmayligini, nima uchun xatosi nimada ekanligini aniqlaydilar. Rasmda masalada berilgan sonlar ko'rsatilishi kerakli haqida ishonch hosil qilinadi o'zaro tekshirish olib borilsa yaxshi bo'ladi. Ayirishga oid masala tuzishda ko'pincha ikkita rasm chizishga to'g'ri keladi, birida kamayuvchi, ikkinchisida qoldiq va ayiruvchi chiziladi.

Masalan: birinchisida 6 ta archa, ikkinchisida 5 ta archa chiziladi.


**1-misol** Rasm asosida masala tuzing va uni yeching.

**Bolalarga hisoblash usulini o'rgatish.** Bolalar arifmetik amallarni ifoda etishga va uni asoslab berishga o'rganib olganlaridan keyin ularni hisoblash usullari bilan tanishtirish mumkin. Ular qo'shish va ayirishni 1 ni qo'shib va ayirib o'rganib olishlari kerak. Bolalar ushbu usullarni egallab borishda qo'shni sonlar


o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni tushunishga hamda sonlarning birliklaridan iborat tartibini bilishga tayanishlari lozim. Arifmetik amallarni o'rgatish jarayonidagi mashg'ulotning bir qismi sonlarni solishtirish va sonlarning birliklaridan iborat tarkibi haqidagi bilimlarni mustahkamlashga o'rgatadi. Bolalarga hisoblash usullarini qanday o'rgatish mumkin? Rasm bo'yicha quyidagi masalani tuzishni taklif etish mumkin. Bolalarni arifmetik amallarni ifoda etishni hisoblash usullaridan farq qila bilishga o'rgatish uchun qo'shishda + "ga" ayirishda - "dan" qo'shimchalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bolalar hisoblash vaqtida olingan javob bilan birga arifmetik amallarni takrorlaydilar. Shundan keyingina ular masala savoliga javob beradilar. Dastlab bolalar ko'rsatma material asosida keyinroq miyada sonlarning to'g'ri va teskari ketma-ketligi haqidagi bilimlar hamda ular masala o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni tushunishiga asoslanib



**10 sonini hosil qiling!**



**10 sonini hosil qiling!**



hisoblaydilar.

Yil oxirida bolalar masala tuzishga undagi shart va savolni farq qila bilishi, berilgan sonlarni ajratib olishni, ular o'rtasidagi miqdoriy munosabatlar aniqlashini arifmetik amallarni to'g'ri to'plashni va ifoda etishni hisoblash usullaridan foydalanib harakat natijasini topishni va masala savoliga to'liq javob berishni bilishlari kerak.

**Arifmetik masalalar yechish.**

Masala yechishda "Qo'shish", "Ayirish", "Barobar" matematik atamalaridan foydalanish zarur. Bolalar yozishni mashq qiladilar.

1-2 bola mustaqil yozganlarini o'qib beradilar.

"3 ta sharga 1 ta shar qo'shilsa 4 ta shar bo'ladi".

Kim masalani yechadi? 3ga 1 ni qo'shish kerak.

Lolada nechta shar bo'ldi? 4 ta

Doskada 3 o'quvchi barobar 4 deb aytishadi.

## "Zukko hisobchi" o'yini

• Dam olish kuni  
Jamshid otasi bilan  
baliq oviga bordi.  
Otasi 17 ta, Jamshid  
esa undan 7 ta kam  
baliq tutdi. Jamshid  
nechta baliq tutgan?



Bolalar ko'pincha masalani hikoya, topishmoq bilan aralashtirib yuboradilar. Masalan: Akvariumda 6 ta baliq bor edi. Yana bir necha baliq solib qo'yishdi. Bu masalani yechish mumkinmi? Yoki 4 og'ayni bitta tom tagida yashaydi. Bular masala emas, balki hikoya va topishmoqdir. Masalada eng kamida ikkita son ishtirok etishi uqtiriladi.

Testlardan ham o'quvchilar bilimlarini o'zlashtirishlari va hayotiy masalarni tezkorlik bilan qo'llash fazilatlarini shakllantirishda foydalanish mumkin.

Masalan, 1-sinf uchun quyidagi testlarni qo'llash mumkin.

### 1-5-gacha bo'lgan sonlarni raqamlash

1. Tushirib qoldirilgan sonni belgilang. 1 2 3 ... 5.

a) 2    b) 4    d) 3

2. 3 sonining oldi qo'shni sonni belgilang.

a) 2    b) 4    d) 1

3. 5 sonining oldi qo'shni sonini belgilang.

a) 3    b) 2    d) 4

4. 3 va 5 sonlar orasida joylashgan sonni belgilang.

a) 2    b) 4    d) 1

5. Agar bir son ikkinchi sondan kichik bo'lsa, qaysi belgi qo'yiladi?

a) =    b) <    d) >

6. Agar bir son ikkinchi sondan katta bo'lsa, qaysi belgi qo'yiladi?

a) =    b) >    d) <

7. Qo'shish belgisini toping.

a) -    b) +    d) =

8. Sonni orttirish uchun qaysi amal bajariladi?

a) qo'shish    b) ayirish

9. Sonni kamaytirish uchun qaysi amal bajariladi?

a) ayirish    b) qo'shish

### 1-5 gacha bo'lgan sonlarni qo'shish va ayirish

1. Ifodalar to'g'ri bo'lishi uchun katakcha o'rniga mos sonni yozing.

$$4 + 2 = \dots$$

a) 6    b) 2    d) 1

2. Ifoda to'g'ri bo'lishni uchun katakcha o'rniga mos sonni yozing.

$$\dots + 3 = 5$$

a) 4    b) 2    d) 8

3. Javobi to'g'ri bo'lgan misolni belgilang.

a)  $4 - 3 = 1$

b)  $5 - 2 = 1$

d)  $3 - 2 = 5$

4. Javobi to'g'ri bo'lgan misolni belgilang.

a)  $2 + 1 = 5$

b)  $3 + 2 = 5$

d)  $4 + 2 = 5$

5. Sonlar tartibi to'g'ri yozilgan qatorni belgilang.

a) 1247689 10 35

b) 123456789 10

6. Ifoda to'g'ri bo'lishi uchun katakcha o'rniga mos son qo'ying. .



$$\dots + 2 = 4$$

- a) 1    b) 3    d) 2

7. Ifoda to'g'ri bo'lishi uchun katakcha o'rniga mos sonni qo'ying.  $5 - 2 = \dots$

- a) 1    b) 4    d) 3

8. Javobi to'g'ri bo'lgan misolni belgilang.

- a)  $2 + 3 = 5$   
b)  $5 - 4 = 2$   
d)  $4 - 2 = 8$

9.

- a)6    b)2    d)5                      [1]



Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida keltirilgan materiallar o'zining qiziqarliligi, tuzilishi bilan bolalarga yaqindir. Boshqotirmalar, matematik mantiqiy masalalar o'quvchilarni shunday sharoitga soladiki o'quvchilar o'ylashga, fikr yuritishga majbur bo'ladilar. Testlar esa o'quvchilarni tezkorlikka o'rgatadi. Dars jarayonida o'quvchilarda hosil bo'lgan ijobiy his – tuyg'ular ularga aqliy qobiliyatlarni shakllantirishda asosiy shartlardan biri bo'lib hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirishga qaratilgan sistemali ravishda olib borilgan ishning ijobiy natija berishi mantiqiy tafakkurning shakllanishiga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda oliy ta'limning bitiruvchi kurs talabalariga ushbu maqoladan foydalanishni tavsiya beramiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Akramova Z. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MANTIQUIY TAFAKKURLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 13. – С. 417-422.

2. Akramova Z., Gulmamatova S. KICHIK MAKTAB YOSHI O'QUVCHISINING TAFAKKURI O'SISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 38-40.

3. Akramova Z. Use of Interesting Problem-Solving Methods in Developing the Logical Thinking of Primary Class Students // Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS) Volume: 02 Issue: 03, 2023. ISSN: 2751-756X.

4. Akramova Z. WAYS TO FORM STUDENTS'LOGICAL THINKING IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS //INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2022. – Т. 1. – №. 9. – С. 6-9.

5. Rahmatova F. A., Akramova Z. B. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MANTIQUIY TAFAKKURLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 133-137.

#### НАЦИОНАЛЬНАЯ И УНИВЕРСАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА ЗАИМСТВОВАНИЯ СЛОВ

*Шохида Тафиқовна ХОЛМАТОВА,  
старший преподаватель Ташкентского государственного  
технического университета*

**Аннотация.** Основными изменениями, которым подвержен язык считаются упрощение, заимствование, образование новых слов и прочие. Необходимо не только исследовать современные процессы, происходящие в языке, но и понимать, почему они происходят. Понимание причин трансформации языка позволяют структурировать данные изменения. Чаще всего заимствование происходит в профессиональной сфере, когда вместе с определенной продукцией заимствуется и само слово или словосочетание. В статье рассматриваются следующие вопросы: сферы заимствования, тенденции адаптации иностранных слов, виды адаптации заимствованных слов, специфика формирования родов новых слов в языке.

**Ключевые слова:** заимствование, адаптация, процесс, русский язык, иностранные слова, тенденция, специфика, транслитерация, варьирование, варианты, норма, отклонение, профессиональная сфера, лексика, род существительных.

**Abstract.** The main changes that a language is subject to are simplification, borrowing, formation of new words, and others. It is necessary not only to explore modern processes occurring in the language, but also to understand why they occur. Understanding the reasons for language transformation allows us to structure these changes. Most often, borrowing occurs in the professional sphere, when, along with a certain product, the word or phrase itself is borrowed. The article discusses the following issues: areas of borrowing, trends in the adaptation of foreign words, types of adaptation of borrowed words, the specifics of the formation of genders of new words in the language.

**Key words:** borrowing, adaptation, process, Russian language, foreign words, trend, specificity, transliteration, variation, options, norm, deviation, professional sphere, vocabulary, genus of nouns.

**Annotatsiya.** Til duch keladigan asosiy o'zgarishlar soddalashtirish, qarz olish, yangi so'zlarni shakllantirish va boshqalar. Bu nafaqat tilda sodir bo'layotgan zamonaviy jarayonlarni o'rganish, balki ularning nima uchun sodir bo'lishini ham tushunish kerak. Tilning o'zgarishi sabablarini tushunish bizga ushbu o'zgarishlarni tuzish imkonini beradi. Ko'pincha qarz olish professional sohada, ma'lum bir mahsulot bilan bir qatorda so'z yoki iboraning o'zi ham qarzga olinganda sodir bo'ladi. Maqolada quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi: o'zlashtirish sohalari, xorijiy so'zlarning moslashish tendentsiyalari, o'zlashtirilgan so'zlarning moslashuv turlari, tilda yangi so'zlarning jinslarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari.

**Kalit so'zlar:** qarz olish, moslashish, jarayon, rus tili, xorijiy so'zlar, tendentsiya, o'ziga xoslik, transliteratsiya, variatsiya, variantlar, me'yor, og'ish, kasbiy soha, lug'at, ot turkumi.

Ребенок, который учится говорить, может приобрести большинство своих навыков от какого-то одного лица, скажем от своей матери, но он будет слышать также других говорящих и усвоит некоторые навыки и от них. Даже основные элементы словарного состава, которые ребенок усваивает в это время, не повторяют точно навыков кого-либо из взрослых. На протяжении всей своей жизни говорящий не перестает перенимать речевые навыки от окружающих, и эти заимствования, хотя и менее существенные, очень многочисленны и почерпнуты из всевозможных источников.

Каждый языковой коллектив учится чему-то от своих соседей. Предметы, созданные как природой, так и производительностью, переходят от одного коллектива к другому, ровно, как и определенные модели - технологические процессы, способы ведения войны, религиозные обряды или формы индивидуального поведения.

В сфере заимствований различают заимствования диалектные, когда заимствованные явления приходят из того же самого языка, и заимствования из области культуры (cultural borrowing), когда заимствованные явления приходят из другого языка. История заимствований более чем какая-либо другая область словарного состава связана с историей народа в его отношениях с другими народами. Если рассматривать словарный состав английского языка, то все входящие в него слова следует считать английскими, за исключением таких слов, которые своей формой выдают своё иностранное происхождение.

Но таких слов в английском языке сравнительно мало. Подавляющая же масса слов воспринимается в современном языке как слова английские, каково бы ни было их действительное происхождение. На самом же деле исконно английскими являются слова, известные с древнеанглийского периода. Они составляют менее половины

английской лексики. Остальная часть словарного языка – слова иноязычного происхождения, пришедшие из латинского, греческого, французского, скандинавских и других языков. Слова иноязычного происхождения называются заимствованиями.

Заимствования лексических элементов из одного языка в другой – явление очень древнее и известно уже языкам древнего мира. Для судьбы заимствованных слов в новом для них языке имеет определённое значение тот путь, которым они в этот язык проникли. Могут быть два таких пути. Во-первых, устный путь, т.е. благодаря живому общению двух разноязычных народов или усвоение названий предметов материальной культуры. В этом случае слова быстрее полностью ассимилируются в языке. Во-вторых, книжный или письменный путь, т.е. заимствование чужих слов из иноязычных текстов при переводе этих текстов на родной язык. В этом случае слова дольше сохраняют свои фонетические, орфографические и грамматические особенности.

Заимствование – неотъемлемая составляющая процесса функционирования и исторического изменения языка, один из основных источников пополнения словарного запаса [5, с. 159]. Заимствование лексики является следствием сближения народов на почве экономических, политических, научных и культурных связей. Так, в германских языках имеется обширный пласт древнейших латинских заимствований, относящихся к различным предметным сферам, в славянских языках древнейшие заимствования – из германских и иранских языков. Из древнейших заимствований в русском языке можно назвать слово из иранских языков, например, слово собака.

Заимствования бывают прямыми или опосредованными. Есть заимствованные слова с очень долгой и сложной историей. В большинстве случаев заимствованные слова попадают в язык как средство называния новых вещей и выражение ранее неизвестных понятий. Заимствованные слова могут также являться вторичными наименованиями уже известных предметов и явлений. Это происходит, если заимствованное слово используется для несколько иной характеристики предмета, если оно является общепринятым интернациональным термином или если иностранные слова насильственно внедряются в язык (при военной оккупации). Многозначные слова обычно заимствуются в одном из своих значений, и объем значения слова при заимствовании, как правило, сужается.

При заимствовании значение слова часто сдвигается. Бывает и так, что заимствованное слово возвращается в своем новом значении обратно в тот язык, из которого оно пришло. Такова, по-видимому, история слова быстро, пришедшего в русский язык из французского, где оно возникло после войны 1812, когда части русских войск, оказались на территории Франции – вероятно, как передача реплики «Быстро!»

Общепринято считать, что для вхождения слова в систему заимствующего языка требуются следующие условия:

- передача иноязычного слова фонетически и грамматически средствами заимствующего языка;
- соотнесение слова с грамматическими классами и категориями заимствующего языка;
- фонетическое и грамматическое освоение иноязычного слова;
- словообразовательная активность слова;
- семантическое освоение, а именно, определенность значения, дифференциализация значений и их оттенков между существовавшими в языке словами и заимствованиями;
- регулярная употребляемость в речи [6, с. 37].

Большое количество новых слов, вошедших в язык за последнее время, дает возможность выявления конкретных типов неологизмов и создания подробной их классификации. Разные лингвисты по-разному подходят к вопросу о типологии неологизмов, исходя из своих лингвистических рассуждений.

Н.М. Шанский утверждает, что, согласно тому, новое ли это слово, или уже существующее в языке слово, обозначающее новое явление или понятие, неологизмы делятся на лексические и семантические [4, с. 98] Лексические неологизмы обычно выражаются заимствованиями из других языков или новыми словами, образованными на базе существующих языков. Семантические служат конкретным стилистическим целям (если они по-другому называют уже названное).

В.Д. Бояркина единогласна с Н.М. Шанским в его убеждении по поводу причисления авторских новообразований к рядам неологизмов. Излагая свои понятия о неологизме, она утверждает, что: «Термин «новые слова» объединяет различные типы новообразований, вхождений и заимствований. Это не только новообразованные слова литературного языка, но и слова, перешедшие из других языков, из русских народных говоров, возрождённые слова, а также индивидуальные авторские образования» [1, с. 93].

Э.А. Сорокина придерживается той же точки зрения, что и вышеуказанные лингвисты; причисляя окказиональные слова к рядам неологизмов. По мнению Сорокиной, «новые слова различаются своей стилистической маркированностью, употребительностью, происхождением, различаются семантическими особенностями, грамматическими признаками» [3, с. 7]. Французский лингвист П. Гилберт, посвятивший большинство своих исследований проблеме неологии и неологизма, выделяет 4 типа неологизмов с учётом способа их создания. Это: фонологические неологизмы, семантические неологизмы, заимствования, синтагматические неологизмы, создаваемые путём комбинации существующих в языке знаков (словообразование, словосочетание) [2, с. 58].

Таким образом, можно сказать, что заимствование слов имеет и лингвокультурологический, и национальный характер. А также заимствование лексики является следствием сближения народов на почве экономических, политических, научных и культурных связей.

#### ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1973. – 304 с.
2. Бабенко Н. Окказиональное в художественном тексте. – М., 1997.
3. Когнитивная лингвистика / З.Д. Попова, И.А. Стернин. – М.: АСТ: Восток – Запад, 2007. – 314 с.
4. Костомаров В.Г., Денисов П.Н., Веселов П.В. Русский язык в современном мире. // Доклад на международной конференции МАПРЯП, 22-27 августа 1969 г. – М.: Из-во МГУ, 1969. – 84 с.
5. Откупщиков Ю.В. К истокам слова. Рассказы о науке этимологии. – 4-е изд., перераб. – СПб.: «Авалон», «Азбука-классика», 2005. – 352 с.
6. Ренц Т.Г., Рыцарева А.Э. Словарь лингвистических терминов. – Волгоград: Изд-во ВолГУ, 2003. – 64 с.



# O‘ZBEK TILI (TA’LIM BOSHQA TILLARDA) FANI DARSLARIDA ROLLI O‘YINLAR VA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

*Dilorom Ikramovna XAKIMOVA,*

*Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi O‘zbek tili fani metodisti*

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda) darslarida o‘quvchilarni faollashtiruvchi metodlar, ularni tashkil qilish yo‘llari, interaktiv doskadan foydalanishning dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati to‘g‘risidagi masalalar o‘z aksini topgan.

**Аннотация:** В статье отражены вопросы методов активизации учащихся на уроках узбекского языка (обучение на других языках), способы их организации, а также значение использования интерактивной доски в повышении эффективности урока.

**Annotation:** The article reflects the issues of methods for activating students in Uzbek language lessons (teaching in other languages), methods of organizing them, as well as the importance of using an interactive whiteboard in increasing the effectiveness of the lesson

**Tayanch tushunchalar:** o‘zbek tilini o‘rganish, roli o‘yinlar, hamkorlik, multimediya vositalaridan foydalanishning afzalligi, o‘qituvchi va tahsil oluvchining faoliyati, faollashtirish jarayoni, ijodkorlik.

**Ключевые понятия:** изучение узбекского языка, ролевые игры, совместная работа, преимущества использования мультимедийных средств, деятельность учителя и учащихся, процесс активизации, креативность.

**Key Concepts:** learning the Uzbek language, role-playing games, teamwork, advantages of using multimedia, teacher and student activities, activation process, creativity.

Til-millat ruhi sanaladi. O‘zbek tiliga e’tibor, uni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yildan yilga ortib bormoqda. Bu borada respublikamizda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, umumta’lim maktablarida o‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda) fanining o‘qitilishi bo‘yicha ham yangiliklar talaygina. Ta’lim-tarbiya sohasidagi samarali islohotlar ta’lim mazmunini yaxshilashga pedagogik vositalarni qo‘llash, innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilishga keng yo‘l ochmoqda.

Hozirgi davrda o‘zbek tili fanini takomillashtirib o‘qitish-davr talabi. Bu jarayonda zamonaviy o‘qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiyani o‘quv jarayoniga faol tatbiq etish hisobiga ta’lim jarayonining rag‘bati (motivatsiyasi) kuchaytirilishi mumkin. O‘quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya o‘qituvchilarning o‘quvchilarga muloqot asosida ta’sir etish yo‘llarini ham o‘z ichiga oladi. [1] O‘zbek tilini o‘rganishda o‘qituvchi va o‘quvchi muloqoti biryozlama va hamkorlikda bo‘lishi mumkin. Biryozlamalikda o‘qituvchi so‘raydi, o‘quvchi javob beradi. Hamkorlikda guruh va jamoa bo‘lib har bir o‘quvchi mustaqil va faol ishtirokchiga aylanadi. Bunda barcha o‘quvchilar o‘zaro muloqotga kirishadi hamqa o‘zlarining qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘quv hamkorligini ta’minlash muammosi so‘nggi yillarda mutaxassislarining e’tiborini o‘ziga jalb qilmoqda. Hamkorlik-birgalikda faoliyat, o‘zaro munosabatga kirishuvchi sub’yektlarning faolligini namoyon qiluvchi pedagogik jarayon sifatida o‘ziga xos xususiyatga ega.[2]

Hamkorlikda ishlash axborot almashish, bir maqsad sari intilish, qoidalar asosida diskussiya qilish imkoniyatini beradi. Hamkorlikda ishlash o'quv materialini o'zlashtirishda juda muhim bo'lib, bunda o'quvchilarning har biri o'zining individual hissasini qo'shadi, bilim almashish, turli loyihalar taklif etish, yangi g'oya berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada do'stona muhit, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash kabi ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi.

O'qitishning shunday usullarini tanlash kerakki, o'quvchilarning faolligi oshishi, dars sifatining natijadorligi rivojlanishi kerak. Bu uchun zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan unumli foydalanish zarur. Bular: turli o'yinli mashg'ulotlar, internet-texnologiya va multimedia vositalaridir.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, interfaol usullar orqali o'qitish o'quvchilarda kuchli motivatsiyani, mustahkam bilimni, ulardagi ijodkorlik va tasavvurni, kommunikativlik, yani o'zaro muloqot ko'nikmasini, hayotiy ko'nikmalarni, jamoaviy ko'tarinki ruhni, erkin mustaqil yashab keta olishni, o'z ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

O'zbek tili fani o'qituvchisining oldidagi eng asosiy masala shundaki, u o'quvchilarni hamkorlikda ishlash jarayonida o'zbek tilini anglagan holda, bilimlariga tayangan holda egallashishiga ko'maklashi lozim.

Rolli o'yinlar-produktiv o'qitishning samarali usullaridan biridir. O'yin texnologiyalari ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarda faollikni yuzaga keltirish, bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, vaqtni qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi. [3]

Rolli o'yinlarning muhim bosqichlarining ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi:

- biror kommunikativ vaziyat ko'riladi va muhokamasi o'tkaziladi;
- muammoli vaziyatlarga yechim topiladi, rollar aniqlanadi;
- o'yinning qoidasi, ketma-ketligi ko'rib chiqiladi;
- rollar bo'lib beriladi, o'yinning ssensriysi aniqlanadi;
- jihozlar, emblemalar, plakatlar tayyorlanadi;
- har bir o'quvchining alohida tayyorgarligi boshlanadi;
- rolli o'yinni o'tkaziladi;
- yakuniy xulosa chiqariladi, muhokama qilinadi.

Metoddan kutiladigan natija (xulosa qismi juda muhim) juda samarali, ya'ni jarayonni tayyorlash va o'tkazishda ishtirokchilarining har birining qo'shgan hissasi, o'quvchilarning o'z-o'zini baholashi, didaktik materialni o'zlashtirish sifati, ijroda o'zbekcha talaffuz me'yorlariga amal qilishi, hayotiyliigi va ifodaliligi, o'ziga ishonchi, ijodkorligi, xotirasi, diqqati, fikrlashi, o'zaro munosabati, suhbatlashish ehtiyoji, kasbiy, ijodiy fikrlashi rivojlanadi, o'rganilgan bilim va ko'nikmalar mustahkamlanadi.

Rolli o'yinning maqsadi shuki, unda har bir ishtirokchi o'ziga xos tarzda rol uchun tayyorgarlik ko'radi. Rolli o'yinlarning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

rolli vaziyat yagona syujetga egaligi, boshqa ishtirokchilar bilan muloqotga kirishishi holati bilan ajralib turadi;

ishtirokchilar rol ijro etayotganda ular yo o'zini, yo vaziyat bo'yicha biror timsolni ijro etadilar. Shuning uchun rolli o'yinlar o'kazilayotganda tomoshabin bo'lmaydi va ishtirokchilar erkin o'zlarini namoyon etadilar;

fanga doir kompetensiyalar, ya'ni izlanuvchanlik, kommunikativlik. tashkiliy-boshqaruvchilik, hamkorlikda ishlash bilim va ko'nikmalari shakllantiriladi.

Bu shakldagi mashg'ulot "Dorixonada", "Shifokor huzurida" kabi mavzularda o'tkazilishi mumkin.

**O'yin nomi: "Quyosh urishida birinchi yordam ko'rsatish"**

Bu o‘yin suhbat o‘tkazish ko‘nikmasini shakllantiradi. Uni o‘tkazishda o‘quvchilar bir-birlarini ko‘rib turishlari va o‘yin ishtirokchilarining so‘zlarini diqqat bilan kuzatadilar. Guruh ikkiga bo‘linadi: biri yordam beruvchilar, biri esa birinchi yordam ko‘rsatilishi zarur bo‘lganlar.

Har bir guruhga dualog tuzishda foydalanishi mumkin bo‘lgan, faol so‘zlar yozilgan kartochkalar beriladi. Interaktiv doskada videorolik(yoki rasmlar jamlamasi) beriladi, shu asosida o‘quvchilar rolikning bosh qahramonlariga ovoz berishlari zarur bo‘ladi.

O‘qituvchi shunchaki yo‘lovchi sifatida o‘yinni savol bilan boshlaydi. “Uning ko‘rinishi bugun yaxshimas” deb suhbatni boshlashi mumkin. O‘quvchilardan biri bu savolga javob beradi. Keyingi o‘quvchi kartochkasidagi so‘zdan foydalanib suhbatni davom ettiradi.

Lug‘at:

1. quyosh urishi – солнечный удар;
2. Sovitish, salqinlatish – охлаждать, (здесь) прохладный;
3. soyali – тенистое;
4. qo‘llab - quvvatlash – поддерживать;
5. qon aylanishi – кровообращение

O‘yin paytida o‘qituvchi o‘ziga yo boshlovchilik, yo ikkinchi darajali rollardan birini tanlaydi. Sababi shuki, o‘yin jarayonida qatnasha oladi, suhbatga passiv-nofaol o‘quvchilarni jalb qiladi, kerakli o‘rinda o‘yinning borishini yo‘naltirib boradi.

Rolli o‘yinlar o‘quvchilarning o‘qish faoliyatining samaradorligini oshiradi, ularning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, bolalarning jarayonga psixologik tayyorgarligini hosil qiladi. Shu tariqa o‘quvchilarning lug‘atdan unumli foydalanishi, o‘rganilgan grammatik mavzularni izchilligi ta‘minlanadi. So‘nggi bosqichda o‘quvchilarga test berish ham mumkin. Natijalar jamlangach, butun guruhga baho qo‘yiladi yoki eng yaxshi guruh nomi aniqlanadi.

O‘zbek tilini o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanish hozirda juda dolzarb. Bu usul o‘qitishdagi o‘ziga xos yondashishga yordam beradi hamda o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlarini ta‘minlaydi. Keyingi yillarda interaktiv doskalardan keng foydalanilmoqda. Oldindan tayyorlangan tekstlar, jadvallar, qo‘shiq, kuy, videofragmentlar darsni dinamikasini ko‘tarishda, materiallarni mazmunli effektli berishda, ijodiy faollikni oshirishda, eng muhimi, til o‘rganishda ijobiy natija beradi.

Interaktiv doskaning afzalligi shundaki, u orqali berilgan materialni faol izohlash mumkin, elektron marker bilan rangni o‘zgartirish, qalinlatish, belgilash imkoniyati bor, natijalarni alohida faylda saqlash imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, bir vaqtning o‘zida ham tekst, ham grafik-tasvir, ham video va audiomatn bilan ishlash imkoniyati bo‘ladi, vaqtdan unumli foydalanish mumkin. Avvaldan tayyorlanib qo‘yilgan matnlar (“Sinfda”, “Kutubxonada”, “Bog‘da”) samarali dars o‘tish yoki darsni faollashtirish uchun, o‘tilganlarni takrorlash, nutqni o‘tirish uchun juda qulay. Bunday matnlar o‘zbek tilda mukammal gapira olish, so‘zlarni qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interaktiv materiallarni tayyorlashda quyidagi saytlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1. **ta’lim.uz** platformasi orqali milliy ta’lim dasturiga to‘liq mos keluvchi o‘zbek tilidagi virtual laboratoriyalar, onlayn mashg‘ulot va mashqlar, test topshiriqlari, video, audio va multimedia ko‘rinishidagi 100 000 dan ortiq o‘quv manbalari hamda umumiy o‘rta ta’limning amaldagi o‘quv dasturi asosida matematika, tarbiya, ingliz tili fanlari (boshlang‘ich sinflar uchun), ona tili, kimyo, biologiya, fizika, astronomiya, matematika, algebra, geometriya, adabiyot fanlaridan (yuqori sinflar uchun) interfaol darslar;

2. **twig-talim.uz** platformasi orqali qo‘shimcha ta‘lim olishlari uchun rus va ingliz tillarida o‘quvchi yoshiga mos har xil videofilmlar, olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va mavjud ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan video kontentlar hamda kimyo, geografiya, matematika, fizika fanlaridan maktab dasturi asosida yaratilgan har xil filmlar, interfaol vazifalar va multimedia materiallari taqdim qilingan.

Interaktiv doskani ishlatish tajribasi yakka tartibda, hamkorlikda ishlash, kommunikativ faolligini oshirish, didaktik materiallardan, ko‘rgazmalardan foydalanish bilan uyg‘unlashtirishni talab qiladi. O‘qitish jarayonida interaktiv metodlardan, internet resursdan foydalanish orqali loyiha ishi, bahs-munozara, musobaqalar o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin.

Interaktiv metodlar va usullar o‘quvchilarning kommunikativ bilim va ko‘nikmasini rivojlantiradi. O‘quvchilarning bir-birlari bilan emotsional muloqoti ta‘minlanadi, guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmasi shakllantiriladi, o‘rtoqlarining fikrini tinglashni o‘rganadi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida do‘stona munosabatni vujudga keltiradi, asab tarangligining oldini oladi, faoliyat shakllarini o‘zgartirish imkoniyatini beradi, mavzu bo‘yicha savollarga diqqatini jamlaydi, mavzuni o‘zlashtirish samaradorligi oshadi, o‘zbek tilini o‘rganishga ishtiyoqi ortadi.

O‘zbek tilini o‘qitishda o‘quvchilarning tilni o‘rganishidagi natijadorlikning ko‘proq bo‘lishi o‘qituvchining zamonaviy o‘qitish texnologiyasini qay darajada bilishiga bog‘liq. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boshqa tilni o‘rganishda kompyuter texnologiyasidan unumli foydalanish repetitor, “matn redaktori”, consultant, partnyor vazifasini bajarishi aniq. Shu bilan birga, bu o‘qituvchiga bajarilgan ishni tahlil qilish, nazorat qilish va baholash imkoniyatini ham beradi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -Toshkent: “Fan”, 2006. - 50-bet.
2. Safarova R.G., Yusupova F.I. O‘quvchilarda o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid nazariy-amaliy yondashuvlar. -Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012. -18-bet.
3. Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -Toshkent: “Fan”, 2006. - 175-bet.

### **JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIIY MUNOSABATLARI INTEGRATSIYASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

*Muhsin Erkinovich AMONOV,  
NavDPI mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyat ijtimoiy-siyosiy munosabatlari integratsiyasi, axborotlashuvi, urbanizatsiya jarayoni, fan, texnika, innovatsion texnologiyalar taraqqiyoti intensivlashuvi sharoitida ekoturizm sohasini takomillashtirish, iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash masalalarining dolzarb ahamiyati xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** urbanizatsiya jarayoni, fan, texnika, innovatsion texnologiyalar, ijtimoiy ong, axloq, me‘yor, tarixiy yodgorliklar.

O‘zbekiston davlatining mustaqillik yillarida tabiiy atrof-muhit muhofazasi, yer osti va yer usti resurslaridan oqilona foydalanishga doir siyosati sohasida erishilgan muvafaqiyatlari tahlili, bu borada muammolar yetarli bo‘lib, hali qilinishi kerak ishlar ko‘lami kengligini alohida qayd etmoq lozim.



O'zbek xalqining tarixiy shakllangan ma'naviy-axloqiy qiyofasidagi: vazminlik, sabr-toqatlilik, bardoshlilik, bag'rikenglik, chidamlilik insonparvarlik kabi fazilatlari ekoturistik madaniyatning mental xususiyatlarini, umuminsoniy mohiyatini belgilab beradi. Bunda axloqlilik va axloqsizlik kategoriyalari ham alohida e'tiborni talab etadi. Yirik nemis faylasufi Immanuel Kantning axloqiy imperativlar insonni yuksakkka ko'tarib ulug'laydi, aksincha axloqiy fazilatlardan uzoqlik esa, uni tubanlikka yetaklaydi, degan fikri asosida, ekoturizm fenomenini ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida olib qarajak, uning zamonaviy dolzarbligi namoyon bo'ladi. O'zbekistonning demokratik davlat, fuqarolik jamiyat asoslarini qurish jarayonida: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarda keng masshtabda islohotlarni amalga oshirishi – ekoturizmni rivojlantirish asoslarini, motivlarini, mexanizmlarini yaratdi va barqarorlik shartlarini, taraqqiyot kafolatlarining strategik vazifalari yo'nalishlarini belgilab berdi.

Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, shuningdek tabiatga antropogen omillarning ta'siri tobora kuchayishi natijasida tabiiy omillarning o'zaro bog'lanishi ma'lum darajada muvozanatdan chiqmoqda. Zero, BMT deklaratsiyasida ham "inson erkinlik, tenglik va munosib hayot sharoitlariga ega bo'lishga haqli va yaxshi atrof-muhitda yashashga imkon beruvchi asosiy huquqlarga ega", deb ko'rsatilgan. Bu esa yer yuzida hayotiy jarayonning barqaror davom etishiga xavf solmoqda. Shu boisdan tabiiy muxitni asrash uchun barcha kurashishi lozimdir. Bu holatda AQShlik huquqshunos olim Uilyam O.Duglas haqli ravishda: «Faqat kishilar ongida o'zgarish yasash kutilgan natijalarga olib keladi. Agar biz o'zimizni va biosferani saqlab qolmoqchi bo'lsak, barchamiz yoshu qari tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish uchun haqiqiy, faol va kerak bo'lsa agressiv kurashchilariga aylanmog'imiz darkor», [1.-crp.238.] - deb ta'kidlab o'tganligini keltirib o'tish kifoya.

Umuman olganda, shaxs tushunchasi tizimlilik xarakteriga ega bo'lgan ijtimoiy fenomen bo'lib, uning shakllanishi individlarning ijtimoiylashuvida amalga oshadigan jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Shunday ekan, ekoturizm tizimida «shaxs» fenomeni muhim o'ringa ega bo'lib, tabiiy atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Bugungi global ekologik talofatlar natijasida yuzaga kelayotgan ekologik xavf xatarlar, xususan, «atrof-muhit ifloslanishi, ozon qatlaminig yemirilishi, fotokimyoviy tutun, kislota yomg'iri, tuproq degradatsiyasi, o'rmonlarni kesish, cho'llanish, chiqindilar muammosi», ekologik jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olishda hamda ularni ratsional tarzda bartaraf etishda shaxs ekologik huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli faoliyatni muntazam ravishda takomillashtirib borish zaruriyatini talab qilmoqda. Zero, «Ekologik inqirozga olib kelgan asosiy sabab – ekologik tizimda modda va quvvat almashishining tabiiy maromi buzilganligidadir. Buni soddaroq qilib aytganda, tabiatdagi ketma-ketlik zanjirining inson tomonidan buzilishi, deb ifodalash ham mumkin»[5.-B.113-114.]. Achinarlisi, «tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy, inson salomatligiga oid muammolar ko'plab xalqlar, millatlar, mintaqalarda yashayotgan aholi hayotiga dahshatli ofat sifatida tahdid solmoqda. Bunday antropotexnogen ofatlar natijasida har yili yuz minglab kishilar qurbon bo'lmoqda». Ekologik barqarorlikni ta'minlashda eng avvalo har bir shaxs ongiga ekologik huquqiy bilimlarni singdirish masalasi muhim o'rin tutadi.

Bugungi global ekologik talofatlar natijasida yuzaga kelayotgan ekologik xavf xatarlar, xususan, «atrof-muhit ifloslanishi, ozon qatlaminig yemirilishi, fotokimyoviy tutun, kislota yomg'iri, tuproq degradatsiyasi, o'rmonlarni kesish, cho'llanish, chiqindilar muammosi», ekologik jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olishda hamda ularni ratsional tarzda bartaraf etishda shaxs ekologik huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga



qaratilgan tizimli faoliyatni muntazam ravishda takomillashtirib borish zaruriyatini talab qilmoqda. Zero, «Ekologik inqirozga olib kelgan asosiy sabab – ekologik tizimda modda va quvvat almashishining tabiiy maromi buzilganligidir. Buni soddaroq qilib aytganda, tabiatdagi ketma-ketlik zanjirining inson tomonidan buzilishi, deb ifodalash ham mumkin». Achinarlisi, «tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy, inson salomatligiga oid muammolar ko‘plab xalqlar, millatlar, mintaqalarda yashayotgan aholi hayotiga dahshatli ofat sifatida tahdid solmoqda. Bunday antropotexnogen ofatlar natijasida har yili yuz minglab kishilar qurbon bo‘lmoqda».[4.-B.155.]. Ekologik barqarorlikni ta‘minlashda eng avvalo har bir shaxs ongiga ekologik huquqiy bilimlarni singdirish masalasi muhim o‘rin tutadi.

Fikrimiz so‘ngida shuni ta‘kidlash joizki, bugungi kunda xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarda, ekoturizm sohasini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq vaziyatlarda barqarorlik motivlarini, shartlarini milliy va umuminsoniy manfaatlar umumiyligidan, ularni integratsiyalashtirish imkoniyatlaridan unumli foydalanish zaruriyatini alohida qayd etish kerak. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarida yashayotgan xalqlarning: tabiiy-geografik sharoiti, ekologik makoni, dini, tarixiy shakllangan madaniyati, urf-odatlarini, an‘analardagi umumiyligi, bu motivni yanada reallashtirmoqda. O‘zbekistonning demokratik davlat, fuqarolik jamiyat asoslarini qurish jarayonida: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarda keng masshtabda islohotlarni amalga oshirishi – ekologik tolerantlikni rivojlantirish asoslarini, motivlarini, mexanizmlarini yaratdi va barqarorlik shartlarini, taraqqiyot kafolatlarining strategik vazifalari yo‘nalishlarini belgilab berdi.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Дуглас Уильям О. Трехсотлетняя война. Хроника экологического бедствия: Пер. с англ. – М., 1975. – С.238.
2. Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T. 6. – T: O‘zbekiston. 1998. B-125.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tinchlik, ma‘rifat va bunyodkorlik yo‘lida hamkorlik. //Xalq So‘zi. 2016, 19 oktyabr.
4. Yunusov K. Ekologik madaniyatning yuksalishida nodavlat tashkilotlarning ishtiroki. Milliy g‘oya-yuksak ma‘naviyatli shaxs kamolotining negizi. Milliy g‘oya - ilmiy tadqiqotlarning nazariy-metodologik asosi. Uchinchi kitob.- Andijon.: 2010, 155-b.
5. Quronov U. Jahon ekologik harakati va O‘zbekiston // Tafakkur. 2011 №1. 113-114-b.

### **JALOLIDDIN RUMIY ILMIY MEROSINING IJTIMOIIY AHAMIYATI**

*Sohib Saimovich AXMEDOV,*

*Navoiy innovatsiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mavlono Jaloliddin Rumiyning ilmiy-ma'naviy merosining bugungi globallashuv davridagi ijtimoiy ahamiyati va uni tadqiq etishning ob'ektiv zarurati xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy faollik, axloq, umuminsoniy qadriyatlar, ezgulik, yovuzlik, komillik, ruhiy barkamollik.

O‘z falsafiy qarashlarida Islom dinining ilohiy qadriyatlarini ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtira olgan shunday buyuk allomalardan biri Jaloliddin Rumiidir. U o‘zining asarlarida ma‘naviy qadriyatlarga oid ilm, tavba, ishq, muhabbat, me‘yor, adolat, haqiqat, halollik, nafs, iymon, insof, ustoz-shogirdlik, qo‘rquv va e‘tiqod kabi mavzularga ko‘p o‘rinlarda to‘xtalib o‘tgan. Mutasavvif falsafiy qarashlarida axloqiy qadriyatlarga oid odob, axloq, yolg‘onchilik, omonat, mehr-muhabbat, saxiylik, tarbiya, mag‘rurlik,

munofiqlik, ota-onaga hurmat, oila, rashk, shukr, hasad, vafodorlik, qanoat, yaxshilik va yomonlik masalalarini hamqalamga olgan. Shuningdek, alloma asarlarida umuminsoniy qadriyatlarga oid tinchlik, do'stlik, mardlik, ogohlik, hushyorlik, hamjihatlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikka oid falsafiy mulohazalarga Rumiylarning asarlarini o'rganish hamda tadqiq etish jarayonida ko'p o'rinlarda duch kelamiz. Sharqning muazzam siymolaridan biri hisoblanmish Jaloliddin Rumiylarning falsafiy qarashlarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va axloqiy kamolot masalalari yetakchi mavzulardan hisoblanadi. Allomani ma'naviy qadriyatlarga oid qarashlarida Ishq va Qalb masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Rumiylarga ko'ra, borliqni harakatga keltiruvchi kuch bu-muhabbat. Uning ta'kidlashicha, nabotot va hayvonot olami vakillarida ham muhabbat bor, lekin ular faqat tanasi-yu terisi bilan sevisadi. Faqat insongina butun vujudi, ya'ni, jismi, ongi, xayoli va shuuri bilan sevisadigan qodir. Mutasavvifning fikricha, ishq va qalbning birlashuvi ruhiy kamolotning ustunidir. Ishq va qalb muhabbat sifatida tasvirlanadigan bo'lsa, unda bu ruhiy birlik cheksiz dunyoviy yuksaklikni yuzaga keltiradi. Shuningdek, u inson qalbi Allohning uyidir, bu uy qancha toza, pok bo'lsa, Alloh nuri, Alloh ilmi hikmati unda shuncha yorqin aks etadi deydi. Farididdin Attor o'zining "Ilohiynoma" asarida ishq xususida shunday yozadi: "Ey farzand! Ishqni chumolidan o'rgan. Ko'rdan ko'rishni, o'zidan o'zlashni, qahramonlikni ta'lim ol. Chumoliga past nazar bilan qarama, chunki uning ham qalbidan ishq inqilobi mavjud 4.-B.38.]".

Jaloliddin Rumiylarning falsafiy qarashlarida ontologiya, gnoseologiya, sotsiologiya va axloq kategoriyalari haqidagi nazariyalar yetakchilik qiladi. Rumiylarning ijodining axloqiy qadriyatlarga doir muhim gnoseologik nuqtalari bevosita odob-axloq muammolari bilan ham bog'liqdir. Mutasavvifning axloqiy qarashlarida yuksak ma'naviy qadriyatlarga va ijobiy fazilatlarga intilish, ega bo'lish masalalari xususida ham so'z boradi. U o'zining axloqiy qadriyatlarga oid qarashlarida axloqiy fazilatlarni rivojlantirish lozimligini ta'kidlagan holda, insondagi axloqsiz fazilatlarni qattiq qoralaydi. Rumiylarning qadimgi faylasuflar izidan borib, ezgulik uchun kurashni inson avvalo o'zidan boshlashi kerak, ana shundagina so'z amalga aylanadi va u albatta jamiyat tomonidan baholanadi [1.-B.85.] deydi. Uning fikricha, yomonlikning bu dunyoda mavjud bo'lmashligi mumkin emas. Ba'zan zaruriyat dunyoda toza suv va peshob borligini anglab yetishni talab qiladi. Arastuning fikricha: "Aslida har qanday nohaq hatti-harakatlar, madaniy buzulqildan, axloqsizlikdan kelib chiqadi. Ba'zan eng ahamiyatsiz mayda-chuyda nojo'ya ishlar, qilmishlar ham agar ma'naviy jihatdan qaralsa, eng katta jinoyat hisoblanishi mumkin"[2.-B.254.]. Pifagor esa: "Odamlar! Eng avvalo ezgu axloqqa ega bo'lishga harakat qiling, zero, axloq qonunning asosidir", desa, qadimgi Xitoy faylasufi Syun Szi: "Chaqaloqlar hamma yerda bir xil yig'lashadi. Katta bo'lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu - tarbiyaning oqibati", deydi. Olimat ul-Banot esa: "Ota-onalar qo'lida bolalar aziz omonatdirlar. Shuning uchun ularni go'zal tarbiya etmoq, yaxshi xulqlarga o'rgatmoq va ko'rkam odatlarni tushuntirmoq lozim bo'ladi. Tarbiya ila bir bolani oltin etmoqlik ham mumkin, tuproq ham qilmoq mumkin"[3.-B.18.],- deya ta'kidlaydi.

Jaloliddin Rumiylarning umuminsoniy qadriyatlarga oid qarashlarida tolerantlik, tinchlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik masalalariga oid fikrlari ham bugungi jamiyatimiz taraqqiyotida o'z dolzarbligini yo'qotmagan mavzulardan sanaladi. Jaloliddin Rumiylarning "bashariyat shoiri" deb ulug'lanishi va e'zozlanishini sababi u millati, dini, irqidan qat'iy nazar barcha kishilarni o'ziga do'stu-birodar deb bilganidadir. U o'zining butun insoniyatga bo'lgan muhabbatini faqat so'zda, asarlarida emas, balki yuragining qat-qatida, ongu shuurida, teran fikrlarida, turfa fe'l-atvordagi shaxslar, turli millat va elat vakillari bo'lgan kishilar, kasb-kori turlicha bo'lgan insonlar bilan muloqotida, munosabatlarida yaqqol namoyon eta oldi. U o'zidagi shu sifatleri orqali butun insoniyatning sevimli shoiriga aylandi. Xristianlar uni "U bizning Isomiz" deyishsa, yahudiylar "U bizning Musomiz" deya

ulug'laydilar. Rumiyning o'zi esa: "Har bir nabiy va valiyning o'z dini, o'z maslagi bor, ammo barcha dinu maslaklar yagona maqsad–Haqqa yetkazadi", deya ta'kidlaydi. Jaloliddin Rumiyning ijodini tadqiq etgan eronlik olimlardan biri Sayyid Husan Nasr mutasavvifning dinlararo bag'rikenglik haqidagi ijtimoiy qarashlari haqida so'z yuritarkan, shunday deydi: "Rumiyning kundan-kun oshib borayotgan shuhrati zamonlarning o'tishi va siyosiy obuhavoning o'zgarishi yoxud madaniyatlar, dinlarning farqu tafovutiga bo'ysinmaydi. Rumiydagi Xudoga muhabbatni kuylash iste'dodi shunday qudratliki, u tili, millati, irqi turlicha bo'lgan odamlarni birday ohanrobo bo'lib o'ziga tortadi".

Xulosa o'rnida shuni qayd etish kerakki, Jaloliddin Rumiyning falsafiy qarashlaridagi ma'naviy-axloqiy va umuminsoniy qadriyatlarga oid fikr-mulohazalar oradan necha asrlar o'tishiga qaramay, o'z qadr-qimmatini yo'qotmay, insoniyatni fikrlashga, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhini yuksaltirishda muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa Mavlononing jahoniy shuhratini oshishiga, "bashariyat shoiri" deya e'tirof etilishiga sabab bo'ladigan asosiy tamoyillardan hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR

1. Abdulla Sher. Xalqni anglasang – Haqni anglaysan. – Tafakkur // 2010. № 1. – B.85.
2. Arastu. Axloqi Kabir. – T.:Yangi asr avlodi, 2015. – B.254.
3. Olimat ul-Banot. Muosharat odobi. – T.:Mehnat, 1991. – B.18.
4. Farididdin Attor. Ilohiynoma. – T.:Yozuvchi, 1994. – B.38.

## JALOLIDDIN RUMIYNING TA'LIMOTIDA RASHK FENOMENI VA UNING FALSAFIY TAHLILI

*Nigina Olimovna MIRZAYEVA,  
SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyning ilmiy merosida rashk fenomeni va uning oilaviy munosabatlarni tartibga solish jarayonidagi ijobiy hamda salbiy xususiyatlari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** rashk fenomeni, milliy mentaletit, jamiyat, axloq, umuminsoniy qadriyatlar.

Sharq xalqlarida oila qadimdan muqaddas hisoblangan va ko'plab didaktik manbalarda ham oila masalalariga to'xtalib o'tilgan. Bu masalalar haqida antik davr faylasuflari, Sharq mutafakkirlari, Markaziy Osiyo allomalari va G'arb faylasuflari ham o'z konsepsiyalarini yaratganlar. Mana shunday o'z konsepsiyasiga ega buyuk allomalardan biri bu Jaloliddin Rumiidir. Mutafakkirning falsafiy-irfoniy qarashlarida oila mustahkamligi masalalariga ham alohida to'xtalib o'tilgan va alloma o'z qarashlarida jamiyat ma'naviy hayotida muhim omil hisoblanmish oilalarning mustahkamligi hamda farovonligi bevosita tomonlarning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy jihatdan o'zaro tengligiga borib taqalishiga doir nazariyasini ilgari surgan.

Jaloliddin Rumi o'zining falsafiy-irfoniy qarashlarida oila va er-xotin munosabatlari haqida so'z yuritarkan, erkakni aqlga, ayolni esa nafsga qiyoslaydi. Chunki erkak kishi tabiatan og'ir-bosiq bo'lganligi tufayli oilada yuzaga keladigan turli muammolarga u aql nuqtai-nazaridan jiddiy yondashadi, uzoqni o'ylab qaror qabul qiladi. Ayol kishi esa tabiatan yig'iga moyil va hissiyotga beriluvchan bo'lganligi tufayli ko'p hollarda o'z manfaatidan kelib chiqib keskin qarorlar qabul qiladi. Buning oqibatida esa oiladagi turli nizolar katta nadomat keltiradi deydi va rashk borasida ham to'xtalib o'tadi. Uning fikricha, barcha narsada me'yor bo'lgani kabi, rashkning ham chegarasi bo'lmog'i darkor. Me'yoridan oshgan rashk

turli fojealar va illatlarning doyasidir deydi hamda “Rashk har na qadar erkaklarning sifatlaridan biri bo‘lsada, undan voz kech. U (ayol) boshqa erkakning vasfini senga aytsa ham qizg‘anma, chunki sendagi yaxshi sifatlardan keyin yomon vasflar ham maydonga keladi”[7.-B.116.], deya ta’kidlaydi. Shuningdek, ayol kishiga haddan tashqari ta’qiqlaru cheklovlar qo‘yish ham yaxshilik alomati emas deydi alloma. Ayolni nazorat qilish va rashk qilishda erkak kishi me’yorni unutmashligi lozimligini shunday izohlaydi: “Sen nima desang ham, demasang ham, ular o‘z bilganlaridan qolmaydi. Masalan, sen xotinga: “Ochiq-sochiq yurma, o‘ran” desang, unda o‘zini ko‘rsatish orzusi tobora ortadi. O‘z navbatida o‘rangan ayolni ko‘rishga xalq ham shuncha ishtiyoqmand bo‘ladi. Mazkur ish bilan sen ikki taraflama - ko‘rmoq va ko‘rilmoq istagini orttirmoqdasan” [8.-B.102.]. Mutafakkirning fikriga ko‘ra, bajarayotgan amali va qilmishining oqibatini oldindan ko‘ra oladigan va to‘g‘ri xulosa chiqara oladigan ayol ba’zi erkaklardan ustundir. Shu o‘rinda Jaloliddin Rumiyy birovning ayoliga ko‘z tikadigan erkaklarni dayus deb ataydi va shunday yozadi:

O‘zgalarning yoriga ko‘z solganing,  
Sen dayuslikni bo‘yinga olganing [9.-B.228.].

Kim o‘zgalarning yoriga hirs va ta‘ma ko‘zi bilan qarasa, albatta uning ayoliga ham boshqalar shunday nigoh bilan boqadi. Chunki qilmish-qidirmishdir, Tangri seni shu yo‘l bilan jazolaydi va tanangga rashk olovini chirmashtiradi deydi mutasavvif. Shuningdek, mutafakkir ayrim erkaklar ayolsifat bo‘ladi va ular ayollardek ishvalar qilib, o‘zlariga haddan ortiq oro beradilar, ayrim ayollar esa erkaklardek dag‘al va qo‘rs bo‘lib, ular o‘z tashqi qiyofasiga u qadar e‘tibor bermaydilar, ya‘ni, ular erkaksifat ayollardir, men ularni na ayol, na erkak deb hisoblayman, bundaylar bu yorug‘ olamda arosatda qolib ketgan sargardon kishilardir, deya ta’kidlaydi alloma.

Darhaqiqat, oila mustahkamligining muhim shartlaridan biri yor ila yor ittifoqidir. Er-xotin bir-birining tilini tushunib, o‘zaro kelishib istiqomat qilishsa, bunday oilalarda xotirjamlik, ko‘ngil halovati, baxt shukuhi hukmronlik qiladi. Mavlono Jaloliddin Rumiyy o‘zining asarlarida oilaviy munosabatlar mustahkamligida qo‘yidagi yetti fazilatni asos qilib belgilagan. Bular: mehr, ro‘zg‘ordagi ba‘zi yetishmovchiliklarga sabrli bo‘lish, er-xotin bir-birlarini ardoqlashi, er-xotinning bir-birlariga e‘tiborli bo‘lmog‘i, oilada adolat maqomining ustunligi, o‘rinsiz rashk va oilaviy ittifoqlik tamoyillaridir.

VIII asr oldin Mavlono tomonidan e‘tirof etilgan bu fazilatlar hozirgi zamonaviy oilalar mustahkamligida ham eng asosiy va zarur omillardan hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Jaloliddin Rumiyy. Masnaviyi ma‘naviy. – T.: MERIYUS, 2010. 1-daftar. – B.116.
2. Jaloliddin Rumiyy. Ichindagi ichindadir. – T.: Yangi asr avlodi, 2013. – B.102.
3. Jaloliddin Rumiyy. Hikmatlar. – T.: Sharq, 2008. – B.228.

### IS‘HOQXON TO‘RA IBRATNING MA‘NAVIY-MA‘RIFIY QARASHLARI

*Mexrigul Xusanovna SHAXNAZAROVA,*

*Navoiy Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadid falsafasining yirik vakillaridan biri hisoblanmish ma‘rifatparvar olim Is‘hoqxon to‘ra Ibratning ijtimoiy-falsafiy g‘oyalaridagi ma‘naviy-ma‘rifiy masalalar xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** ilm, jaholat, ma‘rifat, harakat, taraqqiyot, axloq, odob, zamon, nodonlik, illat, nafs, yolg‘onchilik.



Vatan taraqqiyoti yo'lida fidokorona ibrat namunasini ko'rsatgan ma'rifatparvar olim, Sharq va G'arb tillari bilimdoni, zullisonayn ijodkor Is'hoqxon to'ra Ibratning nomini abadiylashtirish, uning izdoshlarini yetishtirish, iste'dodli yoshlarni kashf etish va qobiliyatlarini keng namoyon qilishlari uchun keng shart-sharoit yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 sentyabrdagi 698-sonli Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida "Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorga ko'ra, Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida "Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatini" butun o'qish davrida a'lo baholarga o'qigan bitiruvchilarni O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tavsiyasiga asosan, Davlat komissiyasi qarori bilan oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishining xorijiy til va adabiyoti, filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalishlariga tanlovdan tashqari test sinovlarisiz, kasbiy (ijodiy) imtihonlarsiz qo'shimcha davlat grantlari asosida o'qishga qabul qilinishi belgilab qo'yilgan.

Is'hoqxon to'ra Ibrat o'zini faoliyat doirasi keng shoir va olim, noshir va publitsist, pedagog va sayyoh, milliy uyg'onish davrining mashhur islohotchisi sifatida butun hayotini Vatan va millat manfaatlariga hamda uning istiqololiga bag'ishladi. O'zining falsafiy qarashlari, diniy-ma'rifiy g'oyalari Sharq va G'arb ilm-fani, madaniyati, san'ati bilan yaqindan tanishgan, yurtimizga ilg'or madaniyat va texnika yangiliklarini olib kirgan ma'rifatparvar buyuk olim Is'hoqxon to'ra Ibratdir. Shu bois uning boy madaniy-ma'rifiy, ilmiy-badiiy merosi nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo hamjamiyatda ham keng o'rganilmoqda.

Inson faqat o'tmishga qarab yashay olmaydi, balki o'tmish ajdodlar tomonidan yaratilgan barcha ilmiy bilimlarni chuqur o'rganish va o'zlashtirish, ularga ijodiy hamda tanqidiy yondashish asosida kelajakni oldindan ko'rishga, to'xtovsiz rivojlanib borishga harakat qiladi. O'tmishni, tarixni bilmasdan turib kelajakni bilish, olg'a rivojlanish mumkin emas. Bugungi kunda Ibratning hayot yo'liga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u o'z davrining chinakam ziyoli ma'rifatparvar shaxsi bo'lganligini ko'ramiz. Is'hoqxon to'ra Ibrat ma'rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o'zbek matbuotchilaridan biri bo'lib, 1862-yilda Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. Dastlabki ma'lumotni eski maktabda, so'ngra onasining qo'lida oladi. Keyinroq Qo'qonda 1878-1886 yillarda Muhammad Siddiq Tunqotar madrasasida mudarrislardan tahsil oladi va o'z bilimni oshiradi.

Is'hoqxon Ibrat 1886-yilda madrasani tugatib, To'raqo'rg'onga qaytib keladi. U o'z faoliyatini pedagog sifatida o'z tug'ilib o'sgan qishlog'ida ma'rifat tarqatish bilan boshladi. O'sha yili eski mahalliy maktablardan ancha farq qiluvchi yangicha maktab ochadi. U o'zining "Tarixi chopxona", "Madaniyat haqida masnaviy", "Gazeta xususida", "Qalam" kabi qator she'rlarida mahalliy va chor amaldorlari kirdikorlarini fosh etgan ("Ilmi Ibrat", she'riy to'plam, 1909). Ibrat arab, fors, hind, turk, o'zbek va rus so'zlaridan tarkib topgan "Lug'at sitta as-sina" ("Olti tilli lug'at") nomli lug'at tuzgan va bu asar o'sha davr uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ibratning yozuvlar tarixiga oid "Jome' ul-hutut" ("Xatlar majmui", 1912) asarida lotin, yunon, xitoy, hind, arab va kirill yozuvlarining kelib chiqishi, rivojlanish tarixi haqida ma'lumot berilgan, ilmiy-tarixiy asarlarida ("Tarixi Farg'ona" 1916, "Tarixi madaniyat" 1925, "Mezon uz-zamon" 1926) esa Qo'qon xonligining vujudga kelishidan tortib XX-asrning 30-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Ibrat "Turkiston viloyati gazetasi", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" gazetalariga yozgan maqolalarida fan, ma'rifat va madaniyatni keng targ'ib etgan. Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi 14-o'rta maktab va Toshkentdagi bir ko'chaga Ibrat nomi berilgan. Is'hoqxon Ibrat 1887-yilda haj



safariga o'tlanadi. So'ng u Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohatni davom ettiradi. Yevropaning Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi markaziy shaharlarida bo'ladi, ancha vaqt Jidda shahrida istiqomat qiladi, Bombay va Kalkuttada ham ma'lum muddat istiqomat qiladi. Is'hoqxon u yerlarda ko'p ishlatiladigan arab, fors, hind va ingliz tillarini mukammal o'rgandi. U 1896-yilda o'z vataniga qaytadi va to'plagan ma'lumotlari, egallagan bilimlari asosida 1901-yilda "Lug'ati sitta-alsina" asarini bosmadan chiqaradi. Mazkur lug'at jadid maktablarida Sharq va rus tillarini o'rganishda birdan bir qo'llanma sifatida foydalanib kelingan.

Turkistonday olis, chekka qishloqda tug'ilib o'sgan bu insonni o'z davri uchun g'aroyib taqdir egasi deb hisoblash mumkin: 25 yoshida hajga safarga chiqib ketgan o'smir to'qqiz yil davomida butun dunyoni kezadi, Yaqin Sharqni, Usmonli Saltanatini, Misrni, Yevropani Eronni ko'radi. To'qqiz yillik sarguzashtlardan so'ng u 34 yoshli ayni kuchga to'lgan bo'z yigit bo'lib qishlog'iga qaytadi. To'qqiz yil ichida butun dunyoni kezib chiqib, turfa davlatlarni, xalqlarni, ma'daniyatlarni ko'rgan, dunyoning eng yirik kutubxonalaridan bo'lgan, Yevropa va Osiyo tillarini eshitgan va o'zlashtirgan inson u paytlari Turkiston tugul umummadaniyat olami uchun ham kamyob hodisa edi. 150 yil oldin Farg'ona vodiysining bir chetida G'arbning markaziy shaharlarida yashagan, yigirmata tilni u yoki bu darajada biladigan, tilshunoslik va tarixchilikni o'z davrining eng ilg'or olimlari darajasida biladigan insonni uchratish qishlog'idan nariga kamdan-kam chiqadigan sodda mahalliy aholigina emas, ruslarni ham hayratlantirar edi. Ibrat tom ma'noda bugungi avlodlarga ibrat bo'la oladigan tarixiy shaxsdir.

#### ADABIYOTLAR:

1. Yo'lchiev Q. Is'hoqxon To'ra Ibrat o'quv metodik qo'llanma. – Farg'ona.: O'qituvchi, 2018. 15-16-betlar.
2. Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar. Mezon uz-zamon. –T.: Ma'naviyat, 2005.
4. Ibrat. Tanlangan asarlar. –Toshkent.: Ma'naviyat. 2005.

### KOMPYUTER LINGVISTIKASINI O'QITISH TAMOYILLARI

*Ozodjon MAMIROV,  
JDPU Sirtqi bo'lim katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Oliy ta'lim muassasasida, umumta'lim maktablarida, o'tiladigan hamma predmetlar uchun umumiy bo'lgan didaktik tamoyillar: talaba ga tarbiya, ma'lumot berish va rivojlantirish; ilmiylik va tushunarlilik; tizimlilik va izchilik, nazariya va amaliyotning aloqadorligi; onglilik va faollik; mustaqillik; o'qitishning talabalar va talabalar saviyasiga mos kelishi; ko'rgazmalilik va individual munosabatda bo'lish kabilardir. Ijodiy fikrlash fikrni og'zaki va yozma shaklda ravon, chiroyli, adabiy til me'yorlarida ifodalash vositasidir.

**Kalit so'zlar.** Kompyuter lingvistikasi, didaktik tamoyillar, ta'lim-tarbiya tamoyili, ilmiylik-tushunarlilik, tizimlilik-izchilik, nazariya va amaliyot, onglilik-faollik, interfaol metodlar, ijodiy fikrlash, og'zaki fikrlash, tilshunoslik, fonetik, leksikologiyas, morfologiya, sintaksis, tamoyillarning ahamiyati.

Ta'lim bosqichida har qanday fanni o'qitishda o'ziga hos tamoyillar mavjud. Shunday ekan umumdidaktik tamoyillar ham kompyuter lingvistikasini chetlab o'ta olmaydi. Har qanday tilshunoslik sohalarini o'qitishda ham tamoyillarga tayangan holda darslar tashkil qilinsa darsdan kutilgan natija ham yaxshi bo'ladi. Ushbu faslimizda ham aynan kompyuter lingvistikasini o'qitishda didaktik tamoyillarning o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'lim-tarbiya haqida shunday degan: "Biz ta'lim va tarbiya

tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni, ta‘lim sifatini oshirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”[1] Oliy ta‘lim muassasasida, umumta‘lim maktablarida, o‘tiladigan hamma predmetlar uchun umumiy bo‘lgan didaktik tamoyillar: talabaga tarbiya, ma‘lumot berish va rivojlantirish; ilmiylik va tushunarlilik; tizimlilik va izchilik, nazariya va amaliyotning aloqadorligi; ongillik va faollik; mustaqillik; o‘qitishning talabalar va talabalar saviyasiga mos kelishi; ko‘rgazmalilik va individual munosabatda bo‘lish kabilardir. Dars jarayonida ushbu tamoyillarga amal qilinsa dardan kutilgan natija samarali bo‘ladi.[2]

Prinsip (tamoyil) – lot. Qoida, asos ma‘nolarini anglatadi. Ta‘limning prinsiplari maktablar oldiga qo‘yilgan talablardan kelib chiqadi. Uni muvaffaqiyatli qo‘llash shaxsni har tomonlama kamol toptirishda ahamiyati katta. O‘qitishda prinsiplarga amal qilish dars samaradorligini ta‘minlaydi, ko‘zlangan maqsadga erishishga zamin bo‘ladi.

Ta‘lim-tarbiya va rivojlantirishning uyg‘unligi tamoyili. Ta‘lim va tarbiya mosligi umumiy ta‘lim maktablarining asosi sanaladi. “Tarbiya ta‘limdan ustun turadi. Insonni tarbiya voyaga yetkazadi”.(A.Sent Ekzyuperi.fran.yozuvchisi, uchuvchi). Bu orqali talabalar ma‘naviy, g‘oyaviy rivojlanishning tamoyillari belgilanadi. Chunki fonetika o‘rganilganda talaffuz me‘yorlarini o‘zlashtirish, qofiyadosh so‘zlar hosil qilish, she‘riyatga qiziqtirish, badiiy tarbiya berish imkoniyatlarini yaratsa, tovushdosh, ohangdosh, qofiyadosh so‘zlar topish badiiy ijodga o‘rgatish usullaridan biri sanaladi.[3]

Leksikologiyada ma‘no nozikligi, so‘z go‘zalligi kengroq his qilinadi. Unda o‘z va ko‘chma ma‘noli, ma‘nodosh, uyadosh, shakldosh, qarama-qarshi ma‘noli, paronim so‘zlar ustida nazariy va amaliy ish olib boradilar. Bu orqali ona tili va uning qudratiga muhabbat hissi tarbiyalanadi.

O‘qitishning tushunarli bo‘lishi, asosan, o‘qituvchiga bog‘liq. Sinfda teng yoshdagi talabalar o‘tirsam ham ularning materialni qabul qilishi bir xil bo‘lmaydi. Shuning uchun o‘qituvchi qiyin o‘zlashtiradigan talabalar bilan individual ishlashi kerak. Shu bilan birga har bir darsda talabalarning yoshini, sinfning darsga tayyorgarligini hisobga olish zarur. Har qanday masalalarni sinfga kiritish keoak emas. Masalan: yomg‘ir (yog‘mir), quloq (qo‘l-och), pichoq (pich-oq) so‘zlarini hozirgi til nuqtai nazaridan tub so‘zlar deb qaramoq lozim. Materialning oson va tushunarli bo‘lishi o‘qituvchi nutq madaniyati va materialni bilishiga bog‘liq.

Ilmiylik va tushunarlilik bir-birini to‘ldiradigan tamoyillardir. Har bir tushuncha va atamalar ma‘nosini ochib berish, har bir mashg‘ulotda mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgata borish zarur. Fikrni og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, aniq ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish kuzatuvchanlik va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishni talab qiladi.[4]

Tizimlilik va izchillik. Ona tili o‘qitishning asosiy vazifasi talabalarni tilga oid bilimlar yig‘indisi bilan qurollantirib qolmay, ulardagi bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirishdan iboratdir

Tizimda tizimlilik bilan izchillik uzviy bog‘lanadi. O‘quv ishlarida puxta o‘ylab tuzilgan rejasiz ko‘ngildagidek natijaga erishib bo‘lmaydi. Fan asoslari izchil o‘rganilmas ekan, o‘rganilgan, o‘rganilayotgan va o‘rganiladigan bilimlar mantiqiy bog‘lanmas ekan, oldingi bilimlarni hisobga olish, nutqiy tayyorgarlikka tayanish ham bo‘lmaydi. Tizimlilik va izchilik tamoyili o‘zbek tili o‘qitishda alohida o‘rin tutadi. Bu tamoyil ona tili bilimlarini tartib bilan o‘rgaishdan tashqari, o‘zlashtirish jarayonini ham yengillashtiradi. Shuning uchun ham dastur va darsliklar tuzishda ushbu tamoyilga qat‘iy amal qilinadi.

Maktabda ona tilini fonetika va grammatika, leksika, so‘z yasalishi, morfologiya, sinaksis vapunktuatsiya tartibida o‘tqizish tizimlilik va izchilik tamoyiliga mos tushadi. Talabalar fonetika va grafika haqida ma‘lumot olgach, leksikani o‘rganishadi. So‘z haqida ma‘lumot

olgach, soʻz yasalishi, soʻz qurilishi haqida maʼlumot oladi. Bu soʻz turkumlari haqida bilim olishga asos boʻladi. Shu tariqa boshqa grammatik kategoriyalar davom ettiriladi. Bularning hammasi taʼlimda izchillikdir.

Tizimlilik va izchilik tamoyiliga kundalik darsda ham amal qilinadi. Bunda oʻtgan mavzu yangi mavzu bilan bogʻlab tushuntiriladi. Bu hol talabalarning anglash faoliyatini yaxshilaydi, oʻtilgan materialni ham esga olish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham har bir mavzuni boshlashdan oldin oʻtgan mavzu soʻraladi. Natijada, yangi mavzu bilan oʻtgan mavzu orasida bogʻlanish yuzaga keladi. Bu tamoyilni amalda tatbiq qilish taʼlim mazmunini takomillashtirishda oʻquv-biluv ishlarida faollikni oshirishda muoʻim ahamiyatga ega.

Nazariy bilim va amaliy koʻnikmalar hosil qilish.[5]

Tilning ijtimoiy hayotdagi oʻrni beqiyosdir. Chunki til boʻlmasa jamiyat ham, ijtimoiy hayot ham boʻlmaydi. Maktab jamiyatning kelgusi aʼzolarini tarbiyalab yetishtiradi: Jamiyat aʼzolarining nutqiy savodxonligini oshirish bugungi kun talabidan kelib chiqadi. Maktabni bitirgan oʻquvchi ijtimoiy hayotdan oʻrin oladi. Shuning uchun ona tili taʼlimining yangilangan mazmuni taʼlim jarayoni tuzilishining maqsadi, vazifasi, bayon etish usullarini belgilab berishi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bilimlarning puxtaligi va ongli oʻzlashtirilganligi amaliy koʻnikmani hosil qiladi.

Talabalarning grammatika, orfografiya va punktuatsiyaga oid nazariy bilimlari bilan amaliy tayyorgarligi orasida farq boʻlishi mumkin. Tilning qonun qoidalarini bilgan holda unga amal qilmagan oʻz fikrini ona tilida mustaqil ravon, goʻzal va loʻnda ifodalay olmagan oʻquvchi (mutaxassis) ning amaliyotdan tayyorgarligi past (sust) hisoblanadi. Toki, fransuz yozuvchisi R. Rollan taʼkidlaganidek; “ Gap – iloji boricha koʻproq bilim toʻplashda emas – gap shundaki, bu bilim koʻpmi yoki ozmi, tanho seniki boʻlishi, u qoning bilan yoʻgʻrilishi, sening erkin va mustaqil harakatingni mevasi boʻlishi zarur”. [6] Ijodiy fikrlash fikrni ogʻzaki va yozma shaklda ravon, chiroyli, adabiy til meʼyorlarida ifodalash vositasidir. Shuning uchun ham nutq madaniyatini rivojlantirish ona tili oʻqitishning bosh maqsadi, deb qaralmogʻi kerak.

Shu nuqtai nazardan fikrni turli sharoitlarda bayon eta olish, bir maʼnoni turli koʻrinishlarda toʻgʻri ifodalay olish, zaruriy ish qogʻozlarini yoza olish malakalarini shakllantirish lozim. Badiiy, ilmiy, ijtimoiy adabiyotlar haqida fikr yuritish, shaxsiy munosabatlarni ogʻzaki va yozma shakllarda toʻgʻri ifodalash mdaniyatini, boshqalar bilan muloqatda ona tilining goʻzal va rang-barangligini namoyish qilish kabi amaliy koʻnikamalarni hosil qilish lozim. Shuningdek, mantiqiy tafakkurni oʻstirish oʻqituvchining muntazam vazifasiga aylanmogʻi lozim. Buni amalga oshirish uchun:

- grammatik qonun-qoidalar asosida ogʻzaki va yozma nutqni tartibga solish;
- til hodisalarini kuzatish, taqqoslash va umumlashtirish asosida xulosa chiqarishga oʻrgatish;
- imloviy, punktuatsion va uslubiy masalalarni hosil qilish maqsadida matn tuzishga oʻrgatish;
- til materiallarini yiriklashtirish, tejalgan vaqt hisobidan amaliy ishlarni koʻpaytirish;
- ijodiy fikrlashni talab qiladigan noanʼanaviy oʻquv topshiriqlaridan, oʻquv qoʻllanmalaridan unumli foydalanish kerak boʻladi.

“ Oʻlka materiallarini oʻrganamiz”, “ Soʻz mulkiga sayohat”, “ Bu kim, bu nima?” kabi ruknlar bilan devoriy gazetalar chiqarib, unga maqolalar yozish mumkin. Bunday ishlarni toʻgʻri qoʻllash orqali nazariy bilimlarni oʻzlashtirish va amaliy darslarning samaradorligini oshirish mumkin.[7]

Oʻqitishda koʻrgazmalilik tamoyili. Ona tili predmetining tabiati koʻrgazmalilikni koʻproq talab qiladi. Tildagi mavhumlik, umumlashtirish, uning mohiyatini anglash va ongli oʻzlashtirish koʻrgazmali vositalar yordamida jonli va qiziqarli boʻladi. “Siz talaba ga qandaydir 5 ta nomaʼlum soʻzni oʻrgating, u bu soʻzlarni bilib olguncha uzoq vaqt ketadi va

behuda bosh qotiradi. Lekin suratlar vositasida o'rgatilgan 20 ta so'zni o'quvchi hash-pash deguncha o'rganib oladi",-deb yozadi K.D. Ushinskiy ( Tan.as. 1954, 429-bet). Fransuz ma'rifatparvari J.J. Russoning: " Bir soatlik ish bir kunlik tushuntiruvdan ko'ra ko'proq narsa beradi, chunki men talaba ni ustaxonada mashg'ul qilar ekanman, uning qo'llari aqli uchun ishlaydi: u o'zini bor-yo'g'i hunarmand hisoblagan holda faylasufga aylanadi",-[8]degan so'zlari yuqoridagi fikrga hamohangdir.

Ko'rgazmali vositalar tabiiy yoki aniq buyumlardan hamda rasm, sxema, jadval, kartin kabi tasvir vositalaridan, texnik (diafilm, teleeshitirish) vositalaridan iborat bo'lishi mumkin. Shuningdek, rasmi va grammatik topshiriqli tarqatmalardan barcha shakldagi darslarda, darsning barcha bosqichlaridi foydalanish mumkin. Ko'rsatmalilikdan me'yorda foydalanilgani maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ona tili o'qitishda umumdidaktik tamoyillar dars samaradorligini oshirishni ta'minlaydi.

Onglilik, faollik va mustqillik tamoyili. Didaktik adabiyotlarda o'rganilayotgan mavzuni asosli egallash, mavzu yuzasidan bilimlarni sistemali va to'g'ri bayon qilish, o'rganilgan bilimlardan turmushda foydalana olish, aql-idrok va tushunchaga egalik tushuniladi. Bu tamoyil til hodisalarining mohiyatini anglab, ongli o'zlashtirishni talab qiladi.

Onglilik tamoyili o'quvchida ona tili o'qitishning asosiy maqsadini to'g'ri anglash bilimlarni ongli o'rganish va o'zlashtirish, mustahkamlash kabi xususiyatlarni tarbiyalaydi.

Onglilik ta'lim jarayonida talabalarining faollik ko'rsatishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'quvchi dars jarayonida ongli o'zlashtirgan bilimlarini amaliy faoliyatda bemalol foydalanishi mumkin.

Ta'limda faollik va mustaqillik o'zaro uzviy bog'langan kategoriyalardir. Har qanday faollik asosida aqliy faoliyat yotadi. Mustaqillikka nisbatan faollik kengroq tushunchadir. Faollik deganda o'quvchining ham o'qish, ham mehnat, ham ijtimoiy topshiriqlarni bajarishni nazarda tutamiz, O'quv faolligi umumiy faollikning bir qismi, Bilish faolligi talaba faoliyatining mahsulidir.

Faollik bazasida mustaqillik yuzaga keladi, ya'ni o'zgarlar ishtirokisiz mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishdir.

## ADABIYOTLAR

1. Mamlakatimizning 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. T.: O'zbekiston, 2017. 104-b.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish", Qo'llanma, Toshkent.2000.
3. Muhiddinov A. O'quv jarayonida nutq faoliyati. Toshkent. 1995.
4. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni, Toshkent. 1995.
5. G'ulomov Yo. Va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Tosh.1975.
6. To'xliyev B. Va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Tosh.2010.
7. G'ulomov A., Qodirov M. Va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. 2012.
8. Uzviylashtirilgan DTS va o'quv dasturi. Ona tili. (5-9-sinflar), Toshkent.2010.

## ПРИЕМЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

*Д.К.ШАРИПОВА,*

*преподаватель Навоийского Университета Инноваций, Узбекистан.*

**Аннотация:** Данная статья посвящена описанию особенностей состава и использования фразеологических единиц (ФЕ). Анализируются труды учёных,



занимавшиеся фразеологией. Особое внимание уделено стилистической вариативности, а также рассматриваются типы трансформаций.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola frazeologik birliklarning (FB) tarkibi va ishlatilishining xususiyatlarini tavsiflashga bag'ishlangan. Frazeologiya bilan shug'ullangan olimlarning asarlari tahlil qilingan. Stilistik o'zgaruvchanlikka alohida e'tibor berilgan, shuningdek transformatsiya turlari ko'rib chiqilgan.

**Abstract:** This article is devoted to the description of the features of the composition and use of phraseological units (PU). The works of scientists engaged in phraseology are analyzed. Particular attention is paid to stylistic variability, and types of transformations are also considered.

**Ключевые слова:** фразеология, трансформация, варьируемость, контаминация, окказиональные фразеологические единицы

**Kalit so'zlar:** frazeologiya, o'zgarish, o'zgarishlilik, kontaminatsiya, okkazional frazeologik birliklar

**Key words:** phraseology, transformation, variability, contamination, occasional phraseological units.

Фразеология – одна из самых сложных и в то же время самых малоисследованных лингвистических дисциплин. И если классификации нетрансформированных фразеологизмов посвящено значительное количество работ (в частности, попытки деления фразеологизмов на группы встречаются у Ш. Балли, В.В. Виноградова, В.Н. Шанского, А.И. Молоткова), то общепризнанной классификации трансформированных фразеологизмов на данный момент не существует. [3] Несмотря на достаточно глубокое изучение фразеологии, до сих пор неполно освещены особенности употребления фразеологических единиц в отдельных функциональных стилях, в том числе в газетном подстиле публицистического стиля.

Наблюдения над произведениями показывают, что писатели активно используют фразеологизмы как яркий, «оживляющий» речь стилистический приём. Писатели применяют фразеологизмы не только в закреплённой языковой форме, но и творчески трансформированной. Авторы переосмысливают фразеологизмы, акцентируют определённый смысловой оттенок, создают новые единицы по модели широко известных. Фразеологическая единица обыгрывается, включается в систему образных средств контекста. Творческая обработка придаёт знакомым единицам большую экспрессивность и выразительность. [3]

Вопрос трансформации, или варьируемости фразеологизмов, исследован многими учеными. Так, по мнению Д.О. Добровольского и Ю. Н. Караулова, «варьируемость и преобразования (или трансформируемое) фразеологических единиц свойственны не только их контекстному употреблению, но заложены в самой природе владения ими носителем языка». Интерес исследователей к проблеме трансформации обусловлен тем, что изменение структуры и семантики языковой единицы, одним из категориальных свойств которой является устойчивость, всегда мотивировано авторскими намерениями, выражает авторский замысел, то есть появление структурно-семантических преобразований фразеологических единиц обусловлено коммуникативными и прагматическими факторами. Преобразованные фразеологизмы «становятся знаками третичной окказиональной косвенной номинации, так как их значение детерминировано фразеологизмами в узуальном употреблении». «Привлечение идиоматических речевых оборотов в авторский повествовательный текст обычно бывает вызвано поисками экспрессии, желанием сделать высказывание



более ярким или более убедительным. В этих стилистических намерениях коренятся вольные или невольные преобразования фразеологических единиц» [2].

Фразеологическая трансформация как языковое явление представляет собой совокупность приемов, основанных на целенаправленном видоизменении стабильной структуры и традиционной семантики фразеологических единиц.

«Деформация семантики и структуры фразеологических единиц имеют целью оживить, усилить их выразительность. Основная же причина любой трансформации фразеологизмов — конкретизация их значения, стремление увязать семантику, эмоциональное и стилевое значение с конкретными, неповторимыми условиями контекста». [1]

Трансформация ФЕ основывается на таких свойствах, как раздельноформленность и семантическая двуплановость. Трансформация оказывается возможной благодаря устойчивости ФЕ с одной стороны, и гибкости в процессе актуализации, с другой. [1] Постоянный поиск универсальной экспрессии ведет к активному использованию приема трансформации. Трансформация расширяет возможности конкретного применения фразеологизмов. Прием обновления, актуализации ФЕ расширяет их сочетаемость, меняет характер окружения. Чем легче фразеологический дериват вызывает в памяти исходное выражение, тем более он выразителен и ярок, тем острее ощущается в нем игра слов.

Анализ картотеки позволяет обозначить три основных вида трансформации - грамматическую, семантическую и структурную. В плане соотношения этих видов трансформации, грамматической трансформации подвержены 20% единиц картотеки, семантической и структурной 30% и 50% соответственно. Грамматическая трансформация связана с преобразованиями на уровне формы фразеологизма, которые влияют на смысловой уровень единицы. [1]

Основными приемами грамматической трансформации являются формально-грамматические изменения формы числа и падежа имен и глаголов, варьирование морфем, инверсия. Благодаря этим приемам в узуальное значение фразеологизма вносятся новые смысловые, стилистические и оценочные оттенки. [1]

В статье «Средства окказионального преобразования фразеологических единиц как система элементарных приемов» Н. Л. Шадрин отмечает, что «выявить и систематизировать многочисленные способы и приемы этих преобразований невозможно, так как нет общего для них признака [1]. Тем не менее, проблемой классификации трансформированных фразеологизмов занимались многие исследователи, в частности, А.И. Молотков, В.З. Санников, К.Л. Шадрин, В.П. Жуков. Однако если выбирать основу для создания классификации трансформированных фразеологизмов, нельзя не принять во внимание классификацию Н.М. Шанского – она является наиболее полной, включает в себя большинство случаев трансформации фразеологизмов. К существенным недостаткам этой классификации следует отнести недостаточную структурированность системы (Шанский ограничился лишь перечислением способов, не создавая системы взаимоотношений между ними). В соответствии с классификацией Шанского, принятой за основную при систематизации трансформированных фразеологизмов, можно выделить следующие типы трансформации: 1) Наполнение новым смысловым содержанием при сохранении у фразеологического оборота лексико-грамматической целостности. Происходит обновление семантики, а лексико-грамматическая целостность не затрагивается. 2) Замена одного из его компонентов фразеологизма синонимом, или расширение его состава новыми словами. 3) Использование фразеологического оборота в качестве

свободного сочетания слов. 4) Образование по аналогии с существующими фразеологизмами новых индивидуально-художественных оборотов. 5) Употребление фразеологического оборота и как фразеологического, и как свободного сочетания слов. 6) Использование не фразеологического оборота, а его образа. 7) Контаминация двух фразеологизмов. Контаминация может быть двоякого рода: или сливаются воедино два фразеологических оборота, имеющих в качестве компонента одни и те же или омонимические слова, или объединению подвергаются фразеологизмы с синонимами или антонимами. 8) Рядом с фразеологическим оборотом используется одно из образующих его слов в качестве лексической единицы свободного употребления. [4]

В предисловии к словарю Фразеологизмов в русской речи А.М. Мелерович и В. М. Мокиенко дают типологию «преобразований» ФЕ, под которой мы можем понимать типологию трансформаций фразеологизмов. Авторы разводят семантические и структурно-семантические преобразования. «Под структурными трансформациями единицы языка понимаются изменения в ее структуре в плане выражения при отсутствии каких-либо изменений в плане содержания» [4].

Исходя из вышесказанного можно сделать следующие выводы:

Фразеологическая трансформация как языковое явление представляет собой совокупность приемов, основанных на целенаправленном видоизменении стабильной структуры и традиционной семантики фразеологических единиц.

Грамматическая трансформация связана с преобразованиями на уровне формы фразеологизма, которые влияют на смысловой уровень единицы.

Основными приемами грамматической трансформации являются формально-грамматические изменения формы числа и падежа имен и глаголов, варьирование морфем, инверсия. Благодаря этим приемам в узуальное значение фразеологизма вносятся новые смысловые, стилистические и оценочные оттенки.

Вариантность языковых единиц ведет к перераспределению в составе языковой единицы ее фонематических, лексических, фразеологических, словообразовательных и грамматических ресурсов по мере ее совершенствования и движения во времени.

#### **ЛИТЕРАТУРА:**

1. Абреимова Г.Н. Трансформированные фразеологизмы в произведениях И.А. Бунина // Русский язык в школе. № 2. 2004.
2. Активные процессы в области русской фразеологии: Межвуз. сб. науч. тр. -Иваново, 1984.
3. Быстрова Е.А., Окунева А.П., Шанский Н.М. Краткий фразеологический словарь русского языка, -СПб., 1994.
4. Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. Толковый словарь русского языка. -М.: ИТИ Технологии, 2008. – 928 с.
5. Шарипова Д.К. О стилистической вариативности фразеологических единиц в сказках А.С.Пушкина. // Global science and innovation 2021: Central Asia. – Нур-Султан, 2021. – С. 22-24.

## **KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TEXNOLOGIK TIZIMI**

***J.I.ESHBOYEV,  
NavDPI doktoranti***

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning texnologik tizimi haqida so'z borgan.

**Tayanch so'z va tushunchalar:** ta'lim, "Harakatlar strategeyasi" kommunikativ kompetensiya, bilim, uzluksiz ta'lim tizimi, muloqot.

**Аннотация:** В данной статье говорится о технологической системе развития коммуникативной компетентности студентов, которая осуществляется на пути развития системы высшего образования.

**Ключевые слова:** Образование, "Стратегия действий" коммуникативная компетенция, знание, система непрерывного образования, коммуникация.

**Abstract:** Provided article states about the technological system for the development of communicative competence of students, which is carried out on the way of development of the higher education system.

**Key words:** Education, "Strategy of action" communicative competence, knowledge, continuous education system, communication.

Mamlakatimizda ta'lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatini o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi „O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategeyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmonida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish kabi vazifalar belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-son farmoniga (08.10.2019) ko'ra, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berishning taklif etilishi, maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlarni qayta ko'rib chiqish, mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar sonini 2 barobar qisqartirish, oliy ta'limda o'quv jarayoni kredit-modul tizimiga o'tkazish, qator oliy ta'lim muassasalarini o'zini o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tkazish, ta'lim sohasini to'liq raqamlashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini ta'lim sohasiga ham keng tatbiq etish masalalari shu kunning dolzarb masalalari ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Ushbu Murojaatnomada birinchi o‘ringa xalqning bilim darajasini oshirish masalasi qo‘yilgan, bu esa millatning raqobatbardoshligini belgilovchi omil hisoblanadi. Shu sababli, tabiiyki, ushbu hujjatda zamonaviy talablar va jahon standartlariga javob beradigan milliy ta‘lim tizimini yaratish muammosining elementlari ham o‘z aksini topgan.

Kommunikativ kompetetsiyaning bilim komponentini shakllantirish chet tillarini o‘qitish metodologiyasida asosiy o‘rin tutadi. Matn mazmunli, izchil va yaxlit bo‘lishi kerak. Matnlar publisistik, ilmiy, rasmiy, badiiy kabi turlarga bo‘linadi. Nutq shakliga ko‘ra og‘zaki va yozma. Muloqot jihatidan diologik va monologik nutqqa bo‘linadi. Talabalar uchun bir xil bilim berish to‘g‘rimi yoki noto‘g‘rimi? Bu muammoni ham hal qilib olish zarur.

Biz uzoq yillar davomida o‘quvchilarga grammatikani o‘qitib keldik. Natijada shu narsa a‘yon bo‘ldiki dars jarayonida to‘rtta ko‘nikmani shakllantirish bilan bo‘g‘liq mashqlarning bo‘lishi talaba ko‘nikmasini shakllantirishga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Bunda o‘qituvchining o‘qitish jarayoni talabalarni individual muhim ma‘lumotlarni tanlashga, undashga, shuningdek, axborot belgilarini yaratishga xizmat qiladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish aspektlari  
Z. U. Musratova *Nizomiy nomidagi TDPU magistri Toshkent 2021yil 24 noyabr*
2. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентного подхода в образовании. [www.eidoc.ru](http://www.eidoc.ru). 2005
3. Hamrayeva Oynisa Farxod qizi *Fardu o‘qituvchisi* Oliy ta‘lim muassasasi talabalarini kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ayrim jihatlari. 2023 yil yanvar
4. Лебедев О.Е. Компетентный подход в образовании. [www.nekrasovepb.ru](http://www.nekrasovepb.ru)
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: “O‘zbekiston”, 2017. 22-b.
6. Mamurov B.B., Davronov I.E. Pedagogik kompetentlik. “Durдона” nashryoti. Buxoro. 2021. 10-b
7. Okhunova, D. K. (2022, October). APPROACHES TO EXPANDING THE POSSIBILITIES OF COGNITIVE ACCEPTANCE OF PROFESSIONAL KNOWLEDGE OF FUTURE TEACHERS. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 1, No. 5, pp. 26-32).
8. Rotova N. A. Boshlang‘ich umumiy ta‘lim o‘qituvchisining kommunikativ kompetensiyasining mohiyati, mazmuni va tarkibiy qismlari / N. A. Rotova // Chelyabinsk davlat pedagogika universitetining axborotnomasi. - 2013. - . Nil 110-117. (0,4 p. 1.)
9. Rotova, N. A. O‘qituvchining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini o‘rganish natijalarini tahlil qilish / N. A. Rotova // Kazanskaya fan. - 2014. - No 6. - S. 188-192. (0,25 p. 1.)
10. Talabalarining kognitiv qiziqishlarini shakllantirishning pedagogik muammolari: darslik / G.I. Shchukin. - M.: Pedagogika, 2008. 296 b.

#### **DRAMATIK ASARLARDA NUTQ SOTSIAL XOSLANISHINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI**

*Rohatoy MASHARIBOVA,  
Xorazm Ma‘mun Akademiyasi erkin tadqiqotchisi, Xorazm*

**Annotatsiya:** Maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalari badiiy asarning milliyligi va xalqchilligini ta‘minlovchi muhim omillardan sanalishi, barqaror birliklar sirasiga kiruvchi



maqollar xalq og‘zaki ijodining namunalaridan biri bo‘lib, unda millatning obrazli tafakkuri va madaniy saviyasi yaqqol aks etib turishi misollar orqali izohlangan.

**Kalit so‘zlar:** sotsiolingvistika, nutq, milliylik, til va jamiyat, kommunikatsiya, tilshunoslik, lisoniy birlik, milliy kalorit, dramatik asar.

**Аннотация:** В статье на примерах поясняется, что примеры народного устного творчества считаются важными факторами, обеспечивающими национализм и национализм художественного произведения, что пословицы, входящие в число устойчивых единиц, являются образцами народного устного творчества, что образное мышление и культурный уровень нации ярко отражаются в ней.

**Ключевые слова:** социоллингвистика, речь, национальность, язык и общество, общение, языкознание, языковое единство, национальный характер, фраза, драматическое произведение.

**Abstract:** In the article, it is explained through examples that the examples of folk oral creativity are considered important factors that ensure the nationalism and nationalism of an artistic work, proverbs, which are part of stable units, are one of the examples of folk oral creativity, in which the figurative thinking and cultural level of the nation are clearly reflected.

**Key words:** sociolinguistics, speech, nationality, language and society, communication, linguistics, linguistic unity, national character, dramatic work.

Asar qahramonlarining davr, muhit va jamiyat bilan bog‘liq holatlari badiiy asarlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik davri dramalar tilining jamiyat bilan bog‘liq jihatlarini tadqiq qilish muhim xususiyatga ega, chunki dramalarda yozuvchilar davr hayoti va muhitini aks ettirishlari bilan birga, jamiyatga xos madaniyat va milliy o‘ziga xoslik qadriyat hamda urf-odatlarini ham ifodalaydi.

Tasvirda jamiyatdagi turli sotsial guruhlar ishtirok etib, ularning nutqi o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Kommunikantlarning ijtimoiy maqomi ham muloqot vaziyatida nutqning xoslanishi, uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy hodisa bo‘lgan tilda zamon va makonning hayot va jamiyatning moddiy va ruhiyatning o‘zaro uyg‘unligini ko‘ramiz. Har bir asarda, avvalo qayd qilingan holat tarixiy voqelik bilan birga uning tilida namoyon bo‘ladi, ana shu xususiyat orqali asar tarixiylik kasb etadi.

So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida bo‘ladigan muloqot jarayoni badiiy asarga ko‘char ekan, unda kommunikatlarning dunyo qarashi, madaniy saviyasi, mental dunyosi ham aks etishi tabiiy.

Ma’lumki, milliy mentalitet tarixan shakllangan tafakkur darajasi, manaviy salohiyati, yashash va fikrlash tarzi bo‘lib, bu tushuncha millatga xos an’ana, urf-odat, diniy e’tiqodni o‘z ichiga oladi. Har bir millatning o‘ziga xos udum va an’analari bo‘lib boshqasirikiga o‘xshamaydi. Bunday holat tilda ham o‘z aksini topdi. Zero, “til-madaniyat ko‘zgusi, u nafaqat inson atrofini o‘rab turuvchi olamni, balki xalq dunyoqarashini, mentalitetini millat xarakterini, yashash tarzi, an’analari, uni urf-odatlarini va odob-axloqini ifodalovchi vosita”. Xalqning milliy turmush tarzi, urf-odatlarini, an’analari, uni o‘rab turgan muhit har bir millatning tilida aks etadi”. Nutqning sotsial xoslanishini namoyon etuvchi nutqiy ifoda vositalari paralingvistik, ekstralingvistik vositalar bilan birgalikda tadqiq qilinadi va bunda sotsiolingvistika pragmatika, etnografiya, etika fanlari bilan bog‘lanib ketadi. Tilda sotsiolingvistik yondashuv asosida shu tilda so‘zlashuvchi millatning madaniyati, urf-odatlarini, udumlarining sotsium nutqida qay holatda uchrashi masalasi ham hal qilinadi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Ter-Minasova C.9. Yozik I mejkulturnaya kommunikatsiya. – M. Slovo, 2000. – C. 14.



Ma'lumki, millatga xos qadriyat, an'analar turmush tarzi donishmandlik va zukkolik namunasi bo'lgan ibora hamda maqolalarda o'z aksini topadi.

Maqol, ibora, hikmatli so'zlarning kommunikantlarning qaysi sotsial qatlamga mansubligidan kelib chiqqan holda qo'llanilishi, ularning milliy mentalitet ifodasi ekanligi diqqatga sazovordir.

Demak xalq og'zaki ijodi namunalari badiiy asarning milliyligi va xalqchilligini ta'minlovchi muhim omillardan sanaladi. Barqaror birliklar sirasiga kiruvchi maqollar xalq og'zaki ijodining namunalaridan biri bo'lib, unda millatning obrazli tafakkuri va madaniy saviyasi yaqqol aks etib turadi.

Maqollar kichik janr hisoblansada, uning ma'naviy jihati keng qamrovli bo'ladi, maqollar har bir xalqning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Millatga xos urf-odatlar, an'ana va qadriyat, madaniyat va dunyoqarash maqollarda o'z aksini topadi. Har bir maqolning o'ziga xos yaratilish tarixi bo'lib, xalqning ijtimoiy, iqtisodiy, geografik, diniy yashash tarzi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy hayot va muhitdagi o'zgarishlar maqollarda ham aks etishi mumkin.

Shunga asoslanib ijodkor o'z asarlarida milliy kaloritni yorqin tasvirlash maqsadida xalq maqollariga murojaat qiladi. Tahlil obyektimiz bo'lgan dramatik asarlar matni xalq maqollariga boy bo'lib, ular orqali xalqimizning o'tmishi bilan bog'liq tarixini kuzatamiz, jamiyat hayoti va haqiqatini yanada yorqinroq tasavvur qilamiz.

Maqollarning jamiyat hayoti va tarixi bilan bog'liq xususiyatlari sotsiologvistikaning ham o'rganish manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu holatni dramatik asarlar tarkibida qo'llanilgan maqollar orqali ham asoslash mumkin. Personajlar nutqida davr voqeligiga hamohang maqollar keng qo'llanilgan.

Maqollar nafaqat asarga milliy ruh beradi, balki so'zlovchining xarakter xususiyatlarini ochib berishga ham hissa qo'shgan.

Maqollar kommunikantlar fikrini obrazli tarzda ifodalashning muhim va birlamchi vositasi sifatida qayd qilinishi lozim. Dramatik asarlarda maqollar muhim o'rin tutadi, shuning uchun dramatik asarlarda maqollarning o'rni va vazifasi alohida ahamiyat kasb etadi. Misollarga murojaat kommunist (sezgirga). Bas qiling!... Cho'lpon, mayli, siz boravering!

Tohir. Sen, Qodir. Yigitlaringni olib, Qorabotirning askarlarini taqib qil! Faqat ehtiyot bo'l!

Qodir. Qo'rqqanga qo'sh ko'rinadi! Bizning qoramiz ko'rinishi bilan ular endi qochaveradilar! Keldim!. Dramada qo'llanilgan "Qo'rqqanga qo'sh ko'rinar" maqoli

Qo'rqoqlik – shaxsning o'zi uchun ham, jamiyat uchun ham eng yomon, zararli illat. Shuning uchun ham xalq o'zining ko'pdan ko'p maqollarida qo'rqoqlikni qoralaydi, qo'rqoqlar ustidan zaharxanda va kinoyali istehzo bilan kuladi, turli misollar va tamsillar vositasida qo'rqoqlikni yomon oqibatlarini ko'rsatish bilan birga, muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatni o'ziga xos tarzda namoyon qilgan.

Diologda ishtirok etayotgan kommunikantlarning yoshi va saviyasi bir-biridan farq qiladi.

Maqol suhbat jarayonida o'spirin yosh so'zlovchi nutqida qo'llangan bo'lib unda qo'rqoqlikning yomon oqibatlarini ko'rsatadi. Bu ham kommunikantning saviyasini belgilaydi. Shu bilan birga, muloqot jarayonida maqollarning qo'llanilishi kommunikant nutqiga milliy ruh bergan. Olimjon (shafyorga) rahmat, og'ayni (pul berib) mana, yaxshi boring. (Shafyor chiqib ketgach) u yoq-bu yoqqa alanglaydi) Kim bor? Qo'chqor aka Turobjon (o'zicha) eshik ochiqku. (Shaqirib) Kennoyi! (Sh.B. "Temir xotin) Qo'chqor

---

<sup>1</sup> Usmon Azim. "Alpomishni qaytishi. 195-bet.

Kennoying onasinikida. Ketib qoldi... Xotin – jafo, Olimtoy!... Keltirilgan muloqotda maqol qo‘llangan bo‘lib, so‘zlovchi nutq jarayonida, nutq vaziyatiga mos maqolni keltirgan, “Xotin – jafo” maqoli orqali fikrini suhbatdoshiga aniq va qisqa tarzda yetkazgan. Bundan anglashiladiki, maqollarda aks etgan obrazlar ham o‘sha xalqning urf-odat, udum va an‘analari bilan bog‘liq. Yoki Eshmatov xavotir olmag. Xudoning buyurgani bo‘ladi.

Shokir. Mana shu gap menga yoqadi! Bandasining buyurgani bir tiyin. Shuning uchun men har qanday bandasini buyurganini bir tiyinga olmayman! Qorni borning lafzi yo‘q joni borning jonidan umidi bor. Bu Ollohning bandasiman degan ukag‘arni hammasini sotib olmoq mumkin!... E qo‘ying shu gaplarni”! “Men-men, deganlarini ko‘rdim! Es lasam, ko‘nglim ayniydi... Aytganday Eshmamatov, shu kelishda bir yaxshi niyat bilan keldim. Otamni Samarqandga ziyorat qildirib kelmoqchiman. Keltirilgan muloqotda ham maqol qo‘llangan bo‘lib, so‘zlovchi nutq jarayonida, nutq vaziyatiga mos maqolni keltirgan. Qorni borning lafzi yo‘q. Joni borning – jonidan umidi bor! Maqoli orqali fikrni suhbatdoshiga aniq va qisqa tarzda yetkazgan. O‘zbek xalqida qo‘llaniladigan bu maqol zamirida jamiyatimizda ayrim shaxslar o‘z manfaatlari uchun iymonini ham sotishga tayyor, o‘z qornini o‘ylab, so‘zida turmaydigan shaxslar haqida fikr yuritiladi.

Maqollar xalq hayoti, turmush tarzini o‘zida ifoda etadi. O‘zbek xalqining turmush tarzi xalq maqollarida o‘z aksini topgan.

Shokir. Hay-hay-hay... Eshmatov! Joyidami atrofga qarang! Necha kishi o‘tiribmiz?... Minbardagi, o‘zingizga o‘xshagan yolg‘onchilar davrasidagi quruq gaplaringizni menga ham har ehtimolga qarshi o‘qiysiz-a! Insof qiling! “Yurtboshi” Vatan, “xalq bilan qachon sizning ishingiz bo‘lgan. Bechora sho‘ro davrida ham gapni ko‘pirtirib, o‘zingizni ishingizni bitirib yuravergansiz. Sizning shoiringiz zo‘r: lo‘lini eshagini sug‘or, pulini ol! Hech bo‘lmasa, meni oldim-da yalin! Ikkalamiz qilayotgan gaplarni ona Vatan bilib qolsa, peshonamizdan otadiku (Usmon Azim. Bir qadam yo‘l 307-bet) matnida so‘zlovchining nutqida “lo‘lining eshagini sug‘or, pulini ol”.

Tahlil qilingan misollardan ko‘rinadiki, iboralar orqali personajlarning nutqini individuallashtirish, shu bilan birga asarga milliy ruh berishga erishilgan.

## ADABIYOTLAR

Winters M. Historical cognitive linguistics. –Berlin: 2010.

Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – University of Chicago Press, 1980; Lakoff G. Women, Fire and Dangerous Things. – University of Chicago Press, 1990; Johnson M. The Body in the Mind. – University of Chicago Press, 1987; Ray J. Semantics and cognition. –Massachusstes, 1999.

Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. М.: Изд. Флинта-Наука. 2010.

Арутюнова Н.Д. Культурные концепты. М.: 1991

Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. Языки русской культуры. М.: 1999

Аскольдов-Алексеев С.А. Концепт и слово. Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. М.: Academia, 1997. Ter-Minasova C.9. Yazik I mejkulturnaya kommunikatsiya. – M. Slovo, 2000. – S. 14.

Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika: o‘quv qo‘llanma/ A.E.Mamatov. — Toshkent.: “Noshir” nashriyoti, 2019. 168 bet.

Usmon Azim. “Bir qadam yo‘l”. 1997-yil.

Sharof Boshbekov. “Temir xotin”, 1989-yil.

Usmon Azim. “Kunduzsiz kechalar”. 1997-yil.

<http://bugabooks.com>  
<http://ladies.academ.org>  
<http://ru.wikipedia.org>  
<http://wiki.myword.ru>  
<http://www.countries.ru/librai>

**ONA TILI TA'LIMI MUAMMOLARI**  
*Hikmatxon Tursunovna AHMEDOVA,*  
*Qo'qon DPI Fakultetlararo tillar kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ona tili ta'limining dolzarb muammolari bayon etilgan bo'lib, ulardan lug'atlar yaratish va ular bilan ishlash hamda o'quvchilar nutqini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** o'quv lug'atlari, o'quvchilar nutqini rivojlantirish, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, yozma nutqni o'stirish, savodxonlik.

Jamiyat hayotidagi yangi tarixiy sharoit, zaruriyatlar yangi ma'naviy ehtiyojlarni va ularni ro'yobga chiqishi uchun kengroq imkoniyatlarni yuzaga keltirar ekan, bu o'z navbatida jamiyat taraqqiyoti, istiqbolining qanday yo'nalish va xarakter kasb etishi, qanday yakun topishi ham aynan ma'naviy ehtiyojlar dialektikasiga, jamiyatda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashga bog'liqdir. Shu boisdan ham Prezident Sh.M.Mirziyoev - "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim"<sup>1</sup>, ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. Insonning kamolotga yetishuvi hech qachon osongina amalga oshgan emas. Bu juda qiyin va uzun yo'ldir. Jamiyatning bir tekisdagi rivojlanish jarayonlarida ham bu vazifa oson bo'lgan emas. Bugungi globallashuv jarayonlari keng miqyas kasb etib borayotgan, bozor iqtisodiyotining o'ziga xos qonunlari va tamoyillari tobora jiddiyroq bo'y ko'rsatayotgan hozirgi zamonda esa bu masala yanada murakkablashadi. Bu tabiiy jarayondir. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonlari tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarga ko'proq ehtiyoj sezilmoqda.

Bu ehtiyoj o'laroq, ta'lim jarayoniga interfaol metodlarning, zamonaviy o'qitish texnologiyalarining olib kirilishi ayni muddao va bu ta'limdagi yutuqlardan hisoblanadi. Amalga oshirilgan ishlar tufayli ona tili ta'limida bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Lekin hali bajarilishi lozim bo'lgan bir qator ishlar borki, ularni amalga oshirmay turib ona tili ta'limini sifat jihatdan yangi bosqichlarga olib chiqib bo'lmaydi.

Ona tili ta'limi oldidagi muammolardan biri o'quvchilarga mo'ljallangan o'quv lug'atlarini yaratishdir. Ma'lumki, ona tili dasturida ona tili ta'limi vositalari sifatida darsliklar, lug'atlar va albomlar ko'rsatilgan. Bu vositalardan biri bo'lgan darslik hanuzgacha asosiy o'rinda turibdi, ya'ni qolgan vositalar ta'lim jarayonidan o'rin olgani yo'q. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ona tili o'qitishda lug'atlarning darslik bilan yonma-yon vosita sifatida qo'llanishi ko'pchilikka ma'lum. Masalan, ingliz, nemis va fransuz bolalarining ona tili darslarida foydalanishlari uchun ommaviy nashr etilgan 20 dan ortiq lug'atlar mavjudligi adabiyotlarda qayd etilgan<sup>2</sup>. Shunday ekan, oldimizda turgan asosiy

<sup>1</sup> Ш.Мирзиёев. Миллий тараккиёт йўлиминини қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т: "Ўзбекистон", 2017. – Б. 27.

<sup>2</sup> .H.Ne'matov, R. Sayfullayeva. Ona tili ta'limi muammolari. "O'zbek tili bo'yicha davlat ta'lim standartlarini joriy etish masalalari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari..Qo'qon 2003.

vazifalardan biri o'quvchilar uchun izohli, faol so'zlar, sinonimlar, omonimlar, antonimlar, iborlar, paronimlar, uyadosh so'zlar kabi o'nlab lug'atlarni zudlik bilan tuzishimiz va ularni ommaviy nashr etishimiz kerak. Bu lug'atlar albatta, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari kutubxonasidan o'rin olishi hamda ularni kompyuter xotirasiga joylashtirish, internet saytlariga kiritish lozim. Shu lug'atlar yordamida amaliy ishlarga yanada kengroq o'rin berish, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, ularni so'zlarning sehrli olamiga olib kirish, so'z sehriga oshufta qilish, ularning imloviy bilimlarini mustahkamlash, bolalarga ijodiy tafakkur ko'nikmalarini singdirish imkoniyatlari yuzaga keladi. Bunday lug'atlarni tuzish uchun lug'atshunos olimlar va metodist olimlar, ilg'or ona tili va adabiyot o'qituvchilari birlashishi lozim bo'ladi.

Ona tili o'qitishni yaxshilash yo'lida bajariladigan ishlardan yana biri o'quvchilar nutqini rivojlantirishga e'tibor qaratishdir. Ona tili ta'limi oldidagi asosiy masalalardan biri ham o'quvchilarda ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri, ravon ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu maqsadga erishishda o'quvchilarda notiqlikka havas uyg'otish, o'z fikrini chiroyli va aniq ifodalay olishga qiziqish uyg'otish, o'zining chiroyli nutqi bilan boshqalarda o'ziga nisbatan hurmat tuyg'usini uyg'otish mumkinligini singdirib borish yaxshi samara beradi deb o'ylaymiz. Buning uchun o'qituvchining o'zi chiroyli nutqqa ega bo'lishi va bu orqali o'quvchilarga namuna bo'lishi lozim bo'ladi. O'qituvchi bolalarga yozuvchi va shoirlar, aktyorlar, nutqidan namunalar eshittirishi va shu orqali o'quvchilarda notiqlikka havas uyg'otishga harakat qilishi kerak. Shundan so'ng o'quvchilarga kichik-kichik mavzularda matn tuzish va uni ko'pchilik oldida ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirib borish zarur. Ona tili mashg'ulotlrida o'quvchilar navbati bilan shunday chiqishlarni amalga oshirib tursalar va bu ishlar o'qituvchi tomonidan rag'batlantirilib turilsa, o'ylaymizki, o'quvchilarning o'z nutqlariga bo'lgan e'tibori borgan sari ortib boradi. Har bir sinf bitiruvchilari o'quv yili oxirida shunday notiqlik chiqishlarini o'qituvchilar, ota-onalar va o'rtoqlari oldida amalga oshirishlari kerak. Bunday notiqlik chiqishlari o'quvchilarning ona tili fanidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholovchi mezonlardan biriga aylanishi kerak. Shundagina o'qituvchi ham , o'quvchi ham nutq malakalarini ovstrishga jiddiy e'tibor bilan qaraydi.

Ona tili o'qitishda hanuzgacha nazariy bilimlarni o'rgatishga keng e'tibor berib kelinmoqda. O'quvchi mashg'ulotda biror nazariy materialni o'rganadi va amaliy ish sifatida berilgan gaplar, matnlar tarkibidan nazariy materialga mos misollarni qidirib topishga yoki misollar tuzishga harakat qiladi. Ko'rinadiki, butun e'tibor nazariy bilimni o'rganishga, mustahkamlashga qaratilgan. Bizning fikrimizcha, nazariy ma'lumotlarga kamroq o'rin berib, amaliy ishlarga kengroq o'rin ajratish kerak. Ona tili darslarida qanday amaliy ishlarni bajarish mumkinligi xususidagi ayrim mulohazalarimizni bayon qilamiz. Biz yuqorida o'quvchilar uchun lug'atlar yaratish lozimligi xususida so'z yuritgan edik. Agar shunday lug'atlar yaratilsa, amaliy ishlarni bajarishga imkoniyatlar yuzaga kelar edi. O'quvchi o'qituvchi bergan topshiriq asosida sinonim so'zlar lug'atidan berilgan so'zlarning sinonimlarini topadi, ularning ma'nolarini izohlaydi, sinonimik qatordan o'rin olgan so'zlarning ma'no jihatdan qanday farqlanishini aniqlaydi va shu so'zlar ishtirokida gaplar yoki matnlar tuzadi. Shu singari omonim so'zlar, antonim so'zlar, paronimlar, izohli so'zlar hamda iboralar lug'ati bilan bog'liq holda ham shunday ishlarni amalga oshirish mumkin. Bu orqali ularda so'zning ma'nosini anglashga intilish, to'g'ri yozilishini bilishga ishtiyoq kuchayadi, so'zning ma'nolarini anglagani sari ularning so'z boyligi ham ortib boradi, ijodiy tafakkuri ham rivojlana boradi.

Ona tili mashg'ulotlarida bajarilishi lozim bo'lgan amaliy ishlardan yana biri o'quvchilarni maktub yozishga, tug'ilgan kunlarga yoki yubileylarga tabrik nutqlari



tayyorlashga, maktab devoriy gazetasiga, gazeta va jurnallarga maqolalar yozishga o'rgatib borishdir. Hozirda umumta'lim maktablarini, akademik litsey va kollejlarni bitirib chiqayotgan o'quvchilarning ko'pchiligi maktub yozish etikasini yaxshi bilmaydi. Maktubni qanday boshlash, qanday fikrlarni bayon qilish, qanday yakunlash malakasi, maktubni savodxonlik bilan yozish masalasi bir qator maktublarni yozish va ularni sinfda muhokama qilish orqali shakllanadi. O'quvchilar navbati bilan o'rtoqlariga, qarindosh-urug'lariga, olisdagi o'rtog'iga, aka-ukalariga, notanish do'stiga, kelajakka, badiiy asar mualliflariga va qahramonlariga maktub yozishni o'rganadilar. Maktabda yoki litsey va kollejda o'qiyotgan bola ota-onasining, buvilari va bobolarining, ustozlarining tug'ilgan kunlariga yoki yubileylariga tabrik nutqlari yozish va ularni ko'pchilik omma oldida qanday ifodalab berish malakasiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun ular ona tili mashg'ulotlarida shunday tabrik nutqlari tayyorlashlari va ularni ifodalash yo'llarini egallab borishlari kerak. O'quvchilar o'z o'rtoqlarining erishgan yutuqlari, o'tkazilgan tadbirlar, bo'lib o'tgan uchrashuvlar, turli musobaqalar, konkurslar haqida maqolalar tayyorlab borishga o'rgatilsa, ularning yozma nutqlarini o'stirishga katta hissa qo'shilgan bo'ladi.

Ona tili ta'limi oldidagi azaliy muammolardan biri savodxonlik bilan bog'liq. O'quvchilarimizning imloviy savodxonligi talab darajasida emasligi hech kimga sir emas. Albatta, buning bir qator obyektiv va subyektiv sabablari bor.

Ona tili darslari jarayonida imlo qoidalarini o'rgatib borishga yetarli e'tibor berilmayotganligi, ayrim fan o'qituvchilarining mahalliy sheva ta'siridan xalos bo'la olmayotganligi, turli reklama va afishalarda savodxonlik darajasining pastligi, savodsizlik bilan yozilayotgan SMSlarning mavjudligi, o'quvchilarning o'zida xatosiz yozishga ishtiyoqning yetarli emasligini savodxonlik darajasining quyi darajaga tushib qolganligiga sabab qilib ko'rsatishimiz mumkin. O'quvchilarda orfografik bilimlarni yaxshilash uchun birinchi galda ona tili mashg'ulotlarida lug'atlar bilan ishlash yo'llarini keng yo'lga qo'yish zarur, chunki o'quvchi lug'at bilan ishlash jarayonida so'zning yozilishiga e'tibor qaratadi. O'qituvchi vaqti-vaqti bilan o'quvchilarga reklama va afishalar bilan tanishib, ulardan xato yozilgan so'zlarni, noto'g'ri tuzilgan gaplarni aniqlab kelishni topshiriq qilib berishi va shunday ishni bajarib kelgan o'quvchilarni rag'batlantirib borishi kerak. Maktablarda vaqti-vaqti bilan savodxonlik bayramlarini o'tkazib turish ham orfografik bilimlarni yaxshilashga samarali ta'sir ko'rsatadi. Savodxonlik bayramida eng savodxon o'quvchilar aniqlanib rag'batlantirilishi, savodxonlik bilan yozilgan insho va bayonlar, tabrik matnlari, ona tili va boshqa fanlardan yuritilgan daftarlar namoyish qilinishi zarur. Bularning barchasi qolgan o'quvchilarda savodxonlikka ishtiyoq uygotadi. Kezi kelganda aytib o'tishni joiz deb bilamizki, savodxonlik bayramlarini ommaviy miqyosda o'tkazish lozim, ya'ni savodxonlik masalasiga keng jamoatchilik e'tiborini qaratish zarur. Barcha oliy o'quv yurtlarining talabalari, muassasa va korxonlarning xodimlari bu bayramda o'z diktantlari bilan qatnashishlari kerak. Yozdirilgan diktant natijalari xodimning maoshiga ta'sir o'tkazishi lozim. Shundagina savodxonlikka ehtiyoj tug'iladi.

Ona tili ta'limini sifat jihatdan ko'tarishning asosiy yo'llaridan biri bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarini tayyorlashga eng muhim vazifa sifatida qarashdir. Ona tilidan DTS talablarini, dasrturda ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshiruvchi asosiy shaxs ona tili o'qituvchisidir. Ona tili o'qituvchisining bilim darajasi past bo'lsa, u dars berayotgan sinf o'quvchilarining bilimi haqida so'z yuritib bo'lmaydi. Kadrlarni saralab ishga qabul qilish vaqti keldi, chunki kadrlarimiz miqdor jihatdan yetarli. Shundagina o'qituvchilar o'z ustida tinimsiz ishlaydi, oily ta'limda o'qiyotgan talaba yaxshiroq bilim olishga intiladi.

Ona tili ta'limining sifati boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining bilim darajasiga uzviy bog'liq. Agar o'quvchi boshlang'ich ta'limdan chiroylli husnixat yozishni bilmasdan, yaxshi



o'qish malakasini egallamasdan chiqadigan bo'lsa, ona tili o'qituvchisi ularni yozishga, o'qishga o'rgatadimi yoki datsur materiallarini ularga tushuntiradimi? Albatta, bu masalaga jiddiy e'tibor beradigan payt keldi. Buning uchun boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash sifatini ham, boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'qitish sifatini ham yuksak darajaga ko'tarish kerak. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin bo'ladi.

Shuningdek, bugungi kunda yangi bilimlar miqdori, hajmi tobora kengayib bormoqda. Axborotlar oqimining kuchayib borishi ham odatdagi holga aylanib qoldi. Ayni paytda ularni o'zlashtirish darajasi nisbatan orqada qolayotgani ham sir emas. Shuning uchun ham an'anaviy ta'lim usullari bilan birgalikda zamonaviy, yangi yondashuvlar ham o'qituvchi va murabbiylarni ko'proq qiziqirmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarning bilimni chuqurlashtiradigan, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini jadallashtirish va qiziqarli bo'lishiga imkon beradigan shakl va usullarning joriy etilishidan ular ko'proq manfaatdor bo'lib qolmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Ш.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т: “Ўзбекистон”, 2017. – Б. 27.
2. Неъматов Х., Сайфуллаева Р. Она тили таълими муаммолари. “Ўзбек тили бўйича давлат таълим стандартларини жорий этиш масалалари” Республика илмий – амалий конференцияси материаллари. Қўқон 2003
3. Гуломов А., Неъматов Х. Она тили та'лими mazmuni.- Т.О'qituvchi, 1997.
4. Рўлатов И., Одилов С. Ўзбек тили таълимидаги замонавий технологиялар ва инновацион методлар. Қўқон, 2004.
5. Н.Т.Аhmedova. Она тили о'qitishning zamonaviy texnologiyalari.- Т.2021.

#### ПРИНЦИПЫ ОТБОРА УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛОВ РУССКОГО ЯЗЫКА

*Х. ЮСУФЖАНОВА, АХАДЖОНОВА,*

*Учитель, НамМТИ*

**Аннотация:** В статье рассмотрен, вопрос, который стоит перед каждым преподавателем, начинающим работать: какой конкретно грамматический материал надо изучать? Практика преподавания определила круг грамматических явлений, которые необходимо дать учащемуся при изучении грамматических основ русского языка, параллельно обучая русскому произношению интонации.

**Ключевые слова:** интерференция родного языка, чтение, аудирование, говорение, письмо, грамматические темы.

**Annotation:** The article discusses what every teacher who begins to work faces: What specific grammatical material should be studied? Teaching practice has determined the range of grammatical phenomena that must be given to the student when studying the grammatical foundations of the Russian language, while simultaneously teaching Russian pronunciation and intonation.

**Key words:** Interference of the native language, reading, listening, speaking, writing, grammatical topics.

Обязательными для усвоения всех учащихся являются следующие грамматические темы:

1. Категория рода и одушевленности/неодушевленности;
2. Предложно-падежная система;

3. Согласование существительного с прилагательным;
4. Парадигматика русского глагола;
5. Виды глагола;
6. Глаголы движения;
7. Грамматическая основа предложения;
8. Порядок слов в русском предложении.

Существенная часть ошибок нерусских учащихся связана с интерференцией родного языка. Для англичан, например, трудным является употребление прилагательного перед существительным и их согласование. Для болгар характерно неправильное употребление предлогов, особенно в винительном и творительном падежах, в армянском языке нет категории рода и т.д. В связи с этим в советский период издавались учебники с учетом родного языка учащихся. В настоящее время таких учебников для школы нет. Поэтому при работе учителю придется ошибки, связанные с интерференцией, исправлять индивидуально. Если же группа детей говорит на одном языке, то надо ввести для них специальные дополнительные темы.

При изучении грамматики русского языка желательно также уделять внимание сравнению грамматических явлений разных языков. Однако делать это необходимо с осторожностью, небольшими фрагментами. Главная цель – обратить внимание учащихся на многообразие языков, на универсальное и отличное в языках, тем самым сняв комплекс оппозиции «чужое» / «свое». Специфику грамматики русского языка можно ярко продемонстрировать на примере слов, заимствованных в русский язык из языка учащегося.

Можно спросить самого ученика о том, какие формы имеет в родном языке такое заимствованное слово (*башмак, карандаш*; для англичан, французов, немцев – *процесс, прогресс* и т.п.), а затем продемонстрировать русскую систему форм. Однако при подробном изучении предложной системы учитель вводит каждый падеж отдельно, а не все сразу.

При введении и объяснении грамматического материала используются следующие средства: наглядность, рисунки, схемы, таблицы, языковые игры, а также речевые образцы.

1. Для демонстрации употребления предлогов в предложном падеже можно просто использовать какой-нибудь предмет, например, игрушку. Надо перемещать ее и задавать вопрос: *где находится...?* – *в парте, на парте, в портфеле, на стуле* и т.д. С детьми начальной школы можно проводить игру с «волшебной коробочкой», мешком Деда Мороза и т.д.

2. Изучение рода имени существительного является одной из самых трудных тем в обучении русскому языку. Для ее введения успешно используется **наглядное пособие «круг»**, который каждый учитель может сделать сам. На листе ватмана рисуется круг диаметром 30–40 см. Из центральной точки он делится на три сектора. В первом секторе пишется местоимение ОН, в следующем – ОНА и в третьем – ОНО. Каждый из них закрашивается в отдельный цвет: красный – сектор ОН, синий – сектор ОНА и желтый – сектор ОНО. Цвета дополнительно помогают учащимся запомнить родовые окончания. Окончания местоимений служат для учащихся сигналом (постоянной подсказкой) для определения рода существительных. Над секторами пишутся местоимения: мой (сектор ОН), моя (сектор ОНА), мое (сектор ОНО). Круг вешается на доске или стене, и учитель, семантизируя слова, просит учащихся определять их род.

**Например:**

стол – он мой,  
доска – она моя,  
окно – оно мое – и т.д.

Или же:

Чей это стол? Это мой стол.

Чья это доска? Это моя доска.

Чье это окно? Это мое окно.

Это **первый и обязательный этап работы**, позволяющий шаг за шагом проработать лексический запас учащихся по запланированным темам и обеспечить усвоение рода. Это наглядное пособие можно использовать в течение долгого времени, обращаясь к нему для исправления ошибок детей на уроках.

Далее начинается **работа следующего этапа**. Например, соединение существительного с прилагательными. Это моя сумка. Она красная. Или же: Это красная сумка. Это моя сумка и т.д.

3. Еще одно средство наглядности – специальные **плакаты**, где показано употребление трудных для учащихся грамматических форм. Например, можно на отдельном плакате написать существительные, которые в предложном падеже оканчиваются на **-у**: **угол – в углу, шкаф – в шкафу, пол – на полу**. Такой плакат можно использовать и для объяснения грамматического материала, и для повторения, и для постоянного напоминания и исправления ошибок учащихся.

4. Хороший результат дает проведение языковых игр на занятиях. Для закрепления навыков употребления прилагательного и его согласования с существительным в форме единственного числа предлагается игровое задание следующего типа. Группа делится на пары или подгруппы по 4 человека (впереди сидящие поворачиваются к сидящим за ними, образуя группу в 4 человека). Для проведения игры готовятся карточки. Одна группа составляет характеристику предмета (например, фрукта), написав на карточках его признаки, а другая должна отгадать, о каком предмете (фрукте) идет речь. У каждой группы карточка иного цвета, что мотивирует детей, делая задание необычным для них и, что важно, включает эмоциональное восприятие, обостряет интуицию. Кроме того, учитель может использовать цвет карточки для условного обозначения уровня сложности задания или иного типа задания. Пример задания:

*На вашей карточке написаны название фрукта и вопрос. Придумайте слова, отвечающие на вопрос **какое?** (**какой?** **какая?** – **банан, груша**). Другой команде вы прочитаете только признаки. Кто отгадает правильно фрукт, тот выигрывает.*

*Признак «цвет»: **яблоко (какое?)** \_\_\_\_\_ .*

*Признак «размер»: **яблоко (какое?)** \_\_\_\_\_ .*

*Признак «запах»: **яблоко (какое?)** \_\_\_\_\_ .*

*Признак «вкус»: **яблоко (какое?)** \_\_\_\_\_ .*

Эффективность заданий такого типа обусловлена суггестивно-семантическим подходом: языковой (лексико-грамматический в данном случае) материал, объединенный в системно организованные группы, повторяясь неоднократно в разных цветовых, звуковых и пр. вариантах, усваивается прочно.

5. Но чаще всего грамматический материал организуется в **систему речевых образцов (моделей)**. Каждый речевой образец обладает конкретностью, так как предъясняется в виде простого предложения. В то же время он построен на основе абстрактного обобщения, т.е. по его модели ученик может построить 8–10 фраз. Это

позволяет компактно представить грамматическую систему языка, не перегружая учащегося пространными объяснениями.

Подводя итог всему сказанному, отметим, что задача учителя, обучающего детей русскому языку, состоит в том, чтобы организовать обучение на основе строгой грамматической системы, изучение которой в то же время не было бы самоцелью для ученика, однако осознавалось бы как необходимое условие понимания в процессе коммуникации.

#### ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Вагнер В.Н. Методика преподавания русского языка. М., 2001.
2. Занин В.Ф. Просто грамматика в кн. «Живая методика для преподавателя русского языка как иностранного». М., 2005. С. 261–335.
3. Габдулхаков Ф.А. О роли русского языка на современном этапе развития общества. //Преподавание языка и литературы №4, 2002 г, С 3-6
4. Интернет сайт <http://www.rusmetodika.net>

### MULOQOT VA LINGVISTIK KOMPONENT IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENSIYANING MUHIM KOMPONENTI SIFATIDA

*Nuriddin XOLMIRZAYEV,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti 13.00.01 –*

*Pedagogika nazariyasi: Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Maqolada ijtimoiy-madaniy kompetentsiyaning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan muloqot hamda lingvistik komponentlarning muhimligi asoslanadi. Ijtimoiy-madaniy kompetentsiyaning bu ikki komponenti uzviy bog'liqligi tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy-madaniy kompetensiya, lingvistik komponent, madaniyatshunoslik, ijtimoiy lingvistik, millatlararo muloqot madaniyati, madaniyatlararo muloqot, muloqot komponenti.

Respublikamiz ta'lim muassasalarida so'nggi yillarda talaba-yoshlarning voqelikka nisbatan ongli munosabati, daxldorlik hissi va ijtimoiy faolligini yanada rivojlantirish, erkin va mustaqil fikrlashlariga imkon beruvchi ta'lim muhitini yaratishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. “Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy haëtiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish[1] ga qaratilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda, til va ta'limini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, talabalarning intellektual salohiyatini o'stirish, ijodiy fikrlash qobiliyati, muloqot va lingvistik komponentlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o'rta va o'rta maxsusta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 187-son qarorida lingvistik kompetensiyaga “Lingvistik kompetensiya – o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlardan unumli foydalangan holda o'quvchilarning fikrini to'g'ri va ravon bayon eta olishini shakllantirishdan iborat [2].-deb ta'rif berilgan.

Tadqiqotchi H.B. Berdiyevaning fikriga ko'ra, Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini o'rganishda, eng avvalo, kommunikativ (muloqot) kompetentligiga e'tibor qaratilgani maqsadga muvofiqdir. [3]

Talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning mavjud imkoniyatlarini tadqiq etish maqsadida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga qo'yilayotgan zamonaviy yondashuvlarni inobatga olib pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining DTS va Malaka talablari tahlil etildi. Tahlil natijalariga ko'ra, bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga dunyoqarash va ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; Ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarining asosiy qoidalari va metodlaridan to'g'ri foydalanish; Ona tilda o'z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini egallaganlik [4] kabi umumiy talablar qo'yilganligi ma'lum bo'ldi.

Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy-madaniy kompetensiya tuzilmasini taqdim etishning bir qancha variantlari mavjud bo'lib, shundan ma'lum bo'ladiki, ijtimoiy-madaniy kompetensiya bir qator kichik kompetensiyalarni o'z ichiga olgan murakkab obyektidir. N.G.Muravyovaning tadqiqotiga ko'ra, ijtimoiy-madaniylikning tarkibiy jihatdan mazmunli modellarini tahlil qilish orqali ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin[5]:

lingvistik (lingvomadaniy, lingvokulturologik), lingvistik va nutqiy material (ekvivalent bo'lmagan lug'at, lingvistik voqelik, frazeologik birliklar, maqollar va boshqalar);

madaniyatshunoslik (mintaqashunoslik, milliy-madaniy, ijtimoiy), shu jumladan, mamlakatingiz madaniyati va mamlakatdagi til haqidagi bilimlar, axborotdan foydalanish qobiliyati, aloqa texnikasi va usullari;

ijtimoiy lingvistik (ijtimoiy xulq-atvor, xulq-atvor), ijtimoiy qatlamlarning lingvistik xususiyatlarini bilish uchun mas'ul bo'lgan, turli xil vakillar: avlodlar, jinslar, ijtimoiy guruhlar, dialektlar: nutq stereotiplarini bilish, vaziyat va kommunikativ klişelar, nutq odobi formulalari, nutq modellari.

Yuqoridagi ijtimoiy-madaniy komponentlarni hisobga olgan holda tahlil qilib, biz uning mavjudligini asoslab beradigan tarkibiy qismlarga ajratishimiz mumkin. Shunday qilib, ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari sifatida lingvistik, madaniy, sotsiolingvistik, ijtimoiy-psixologik va psixologik tarkibiy qismlarga bo'linadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning kichik besh komponentining har birini ko'rib chiqib quyidagicha kengroq tahlil qilish mumkin:

1) Lingvistik va mintaqaviy kompetensiya so'z boyligi, fon so'zlari, lingvistik va milliy voqelik, ekvivalent bo'lmagan bilimlarni birlashtiradi. Ijtimoiy-madaniy semantikaga ega bo'lgan frazeologik birliklar, leksik birliklar, shuningdek, madaniy ahamiyatga ega leksik birliklar, gap mazmuniga va vaziyatga muvofiq madaniyatlararo muloqotni talab qiladi.

2) Madaniy kompetensiya xalqning an'analari, urf-odatlarini bilishni o'z ichiga oladi; shuningdek, mamlakati hududida joylashgan geografik nomlar, milliy bog'lar va qo'riqxonalar, bayramlar, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shgan mashhur shaxslar, san'at asarlari va adabiyot qahramonlari, o'yin va o'yinchoqlar, mashhur nashrlar, televidenie va radioeshittirishlar. Talabalar milliy xususiyatni, kundalik hayotning o'ziga xos xususiyatlarini, aholi farovonligini, jamiyat a'zolarining asosiy qadriyatlarini, turli sohalardagi yutuqlarni (fan, san'at, tibbiyot), siyosiy tizim, milliy taomlar va boshqalarni bilishlari talab etiladi.

3) Ijtimoiy lingvistik subkompetentlik ijtimoiy qatlamlar, turli avlod vakillari, jinslar, ijtimoiy guruhlar, dialektlarning xususiyatlarini, muloqot uslublarining farqlanishini o'z ichiga oladi. Talabalar tilni ma'lum bir lingvomadaniy jamiyatda o'rnatilgan meyorlarga



muvofiq o'zlashtirishni o'rganishi, o'z nutqida kontekstga qarab nutq va xatti-harakatlarida foydalanishi kerak.

4) Ijtimoiy-psixologik kichik kompetensiyaga turli xil muloqot holatlaridagi xatti-harakatlar qoidalari, odob-axloq meyorlari, ijtimoiy va madaniy jihatdan aniqlangan ssenariylarga ega bo'lish, ma'lum bir madaniyatda qabul qilingan kommunikativ texnikadan foydalangan holda milliy o'ziga xos xatti-harakatlar kiradi. U madaniyatlararo o'zaro ta'sir va madaniyatlararo qiyinchiliklarni bartaraf etish strategiyalarini o'zlashtirish darajasini aks ettiradi.

5) Psixologik subkompetentlik boshqa madaniyat vakillari bilan chet tilida muloqot qilish istagini, millatning milliy xarakteri, madaniyati va mentaliteti haqida stereotiplar, yolg'on g'oyalarga ega bo'lmaslik, ularga nisbatan antipatiya, qoralash, dushmanlik va ksenofobiyaning yo'qligini, turli til jamoalar vakillariga bag'rikenglik tuyg'usini rivojlantirish tushunadi.

Bir guruh chet el olimlari (Preston, Braun, Levinson, Sels-Murcia) o'zaro ta'sir vaziyatida muloqot ishtirokchilariga taalluqli ijtimoiy vaziyat omillari sifatida omillarining birinchi guruhini belgiladilar[6]. Bularga quyidagilar kiradi: ishtirokchilarning yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei, bir-biridan ijtimoiy tarqoqligi (ham ijobiy, ham salbiy sharoitlar). Bu omillarning barchasi muloqot xulq-atvoridagi strategiyalarni, aloqa ishtirokchilarining bir-birlari bilan qanday gaplashishlarini va ular bilan qanday gaplashishlarini belgilaydi.

Ikkinchi toifadagi omillar stilistik muvofiqlik omillari sifatida belgilanadi va u turli xil nutq uslublarining asosiy xususiyatlarini hisobga oladi.

Uchinchi toifadagi omillar madaniy omillar bo'lib, ular uchta muhim komponentni o'z ichiga oladi: yo'naltirilgan tillar jamoasining ijtimoiy-madaniy fundamental bilimlari, asosiy dialekt yoki mintaqaviy bilimlar. Bu bilan ingliz faylasufi va mantiqchisi Jon Alan Robinson ikkinchi tilni egallash va "ikkinchi madaniyatni egallash" [7] bir-biri bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlagan edi.

Millatlararo muloqot madaniyati – shaxsning boshqa xalqlarga ularning vakillari bilan bivosita yoki bevosita muloqot, munosabatida namoyon bo'luvchi ijtimoiy madaniyatining tarkibiy qismidir. Millatlararo muloqot madaniyati millatlararo munosabat jarayonida namoyon bo'ladi. bu jarayonda u o'z millatining vakili sifatida ijtimoiy rolda chiqadi. Natijada shaxs ijtimoiylashuv jarayonida o'z xalqi uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida to'plagan ma'naviy qadriyatlar, odob-axloq, muomala madaniyati, mezonlarini o'zlashtiradi. Ikki millat-ikki madaniyat – ikki tilga mansub kishilar orasida yuzaga keluvchi ijtimoiy – madaniy muloqotda ana shu farqlar namoyon bo'ladi.

Agarda ikki suhbatdan bir-biriga yaqin, faol bordi-keldi qilib kelayotgan xalqlar vakillardan bo'lsa farqlar asosan tilda bo'ladi. Bir-biridan jug'rofiy uzoqda yashagan millatlar vakillari orasidagi muloqotda bir-birini anglash murakkabroq kechadi. Ular nafaqat bir-birlarining tillariga tushunmaydilar, balki imo – ishoralarning ham milliyligi tufayli bir-birlarining hatti harakatlarini "noto'g'ri o'qiydi"lar. Bu esa ba'zan noo'ringina kuduratlarga, tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Masalan lotin amerikaliklar, yevropa xalqlari vakillari muloqot paytida suxbatdoshining ko'zlariga tik qarab turadilar, osiyoliklarda esa suxbatdoshning ko'ziga tik qarab turish (ko'zni lo'q qilib turish) beadablik, nazokatsizlikni anglatadi. Demak, G'arb va Sharq xalqlari suhbat chog'ida ko'zlar harakati yo'nalishini turlicha talqin qiladilar.[8] Muloqot vakili bo'lish vatan tarixini, xalq tarixi va tilini, ajdodlarimiz o'tmishini, madaniyatini xolisona ilmiy asosda bilishdan boshlanadi.

Muloqot komponentisiz insoniyat jamiyati bo'lishi mumkin emas. Aynan muloqot hamkorlikda faoliyat yurituvchi individlar jamoasini shakllantiradi. Hamkorlikdagi faoliyat rejasini tuzish va uni ruyobga chiqarish uchun individlar o'rtasida muloqot amalga

oshirilishi shart. Muloqot komponenti orqali hamkorlikdagi faoliyat tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Ayni vaqtda ijtimoiy –madaniy faoliyat davomida insonlar o‘rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda xulosa qilish mumkin, ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllanishida muloqot va lingvistik komponentlarning o‘rni beqiyos hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент: 2017 йил-6-сон-70-модда.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сон қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент: 2017 йил 14 (774)-сон, 230-модда.

3. Berdiyeva N.B.. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1 | ISSUE 9 ISSN 2181-1784

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab talimi vazirligi, Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi 60110100 – Tarix ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari. Toshkent. 2023.08.07. 7 b.

5. Муравьева Н. Г. Понятие социокультурной компетенции в современной науке и образовательной практике // Вестник Тюменского государственного университета. 2011. № 9. С. 136-143.

6. Celce–Murcia, M., Dorney, Z & Thurrell, S. Communicative Competence: A Pedagogically Motivated Model with Content Specifications. Applied linguistics, 6/2, 5-35.

7. Волкова Е. В. Структура социокультурной компетенции (зарубежный взгляд) с.346.

8. Хўшбоқов Д. Ижтимоий-маданий муносабатларда замонавий алоқа воситаларининг роли. «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya.

### ИНДИВИДУАЛЬНО-АВТОРСКИЕ НЕОЛОГИЗМЫ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

*Гузал Тохировна ЗАРИПОВА,  
преподаватель Навоийского Университета Инноваций*

**Аннотация.** Рассматриваются проблемы изучения неологизмов, задачи постмодернизма определения и классификации неологизмов, в силу различных подходов и концепций к неологизмам. По этим вопросам в статье анализируются научные и теоретические рассуждения ученых.

**Ключевые слова:** неологизм, постмодернизм, новорусский сленг, семантические неологизмы, словообразовательные неологизмы, языковые и окказиональные неологизмы.

**Annotation.** The problems of studying neologisms, the tasks of postmodernism of defining and classifying neologisms, due to different approaches and concepts to neologisms, are considered. On these issues, the article analyzes the scientific and theoretical arguments of scientists.

**Key words:** neologism, postmodernism, new russian slang, semantic neologisms, word-forming neologisms, linguistic and occasional neologisms.

**Annotatsiya.** Neologizmlarni o'rganish muammolari, neologizmlarni aniqlash va tasniflashning postmodernizm vazifalari neologizmlarga turli xil yondashuvlar va tushunchalar tufayli ko'rib chiqiladi. Ushbu masalalar bo'yicha maqolada olimlarning ilmiy va nazariy mulohazalari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** neologizm, postmodernizm, yangi rus jargoni, semantik neologizmlar, so'z yasovchi neologizmlar, semantik neologizmlar, lingvistik va oksi-oksiyal neologizmlar.

Основной чертой языка художественной литературы является свободное бытование в нем всех имеющихся в наличии языковых средств, в том числе и неологизмов – авторских, семантических и лексических. Вот исключительные «право, возможность или благодать» художественного текста: всякое слово уместно, любой стиль гош, появление каждой фразы заранее принято как должное и оправдано всеми писаными и неписаными законами словесности.

Несмотря на то, что сегодня критика, теория литературы и просто читатель пытаются по каким-то признакам разнести поток художественных текстов на произведения «серьезной» и «развлекательной», «элитной» и «популярной» и прочих литератур, грань эта все более размывается и в скором времени грозит вовсе исчезнуть.

Однако же для писателя, действительно талантливого, сегодняшняя литературная ситуация предоставляет, вероятно, почти бескрайнее поле для творческой деятельности. Объектом постмодернистского художественного сознания, в самом деле, могут оказаться практически любые явления действительности, сфера его интересов принципиально неограниченна. Все приемы работают, все средства оправданны, решается главнейшая задача постмодернизма: слово рождает смыслы, число которых бесконечно, полисемия является нам на всех уровнях художественного текста. Именно здесь - «воля» для писателей.

Постмодернистская литература не имеет ни определения, ни характерных черт, ни вообще каких-либо обязательных атрибутов. Основной ее проблемой является то, что предложенные постмодернизмом неологизмы могут быть соответствующим образом поняты и приняты лишь самим постмодернизмом, т. е. воспринимающее сознание тоже должно быть постмодернистским. Иначе говоря, зачастую авторские неологизмы не могут употребляться вне определенного контекста, иначе просто будет утерян их смысл.

Авторские неологизмы исполняют чаще всего номинативную функцию, но с другим подтекстом. Они называют так же новые понятия, явления и характеры, но одновременно и содержат личную оценку автора (чаще всего усмешка, сатира). Часто автором создаются новые слова для придания «важности» какого-либо понятия, его образной незаменимости; для обозначения чего-либо понятного только одному автору (например, в названии географических объектов, в обозначении той или иной черты характера, в существовании той или иной материи). Неадекватное восприятие окружающего мира – и есть главная причина появления авторских неологизмов. Совмещение разговорного стиля, «новорусского» сленга с «чистым» литературным языком, а иногда даже научным слогом философского трактата характерно для авторских неологизмов.

Как всякое другое литературное направление, постмодерн сможет быть полностью и окончательно охарактеризован лишь после своего предельного свершения. Однако в свете того, что эта система идей совсем не предполагает предела

ни в каком смысле, постмодернизм литературный, вероятно, так и останется лишь системой философских, литературно-теоретических посылок, не дойдя до высшей точки своего развития - когда создающая эмоция полностью созвучна воспринимающей.

#### ЛИТЕРАТУРЫ:

- 1.Авилова Н.С. Слова интернационального происхождения в русском литературном языке нового времени. М., 1997.
- 2.Комлев Н.Г. Компоненты содержательной структуры слова. М., Изд-во МГУ, 1989. – с.114.
- 3.Щерба Л.В. О понятии смешения языков//в кн. Избранные работы по языкознанию и фонетике, Л., 1988 (с.40-53)
- 4.Лыков А. Г. Современная русская лексикология: Русское окказиональное слово. – М., 1976.
5. Попова Т. В. Русская неология и неография. – Екатеринбург, 2005.
6. Селиванова О. О. Лингвистическая энциклопедия Полтава., 2010

### PORTRET SPESIFIKASI VA UNING POETIK TARKIBI

M.NARZIYEVA,

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada badiiy asar kompozitsiyasida muhim unsurlardan biri sanaluvchi portret va uning spesifikasi haqida fikr yuritiladi. G‘arb adabiyotshunosligida portretga doir tadqiqotlar, qolaversa, ilmiy asarlar hamda lug‘atlarda portret atamasining izohiga to‘xtalangan. Badiiy asarda portretning badiiy-estetik vazifasi haqida ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** badiiy asar, kompozitsiya, portret, badiiy-estetik vazifa, badiiy qiyofa.

**Аннотация:** в данной статье рассматривается портрет, который является одним из важных элементов композиции художественного произведения, и его описание. Исследование портретной живописи в западной литературной критике, а также объяснение термина «портрет» в научных трудах и словарях. Информация о художественно-эстетической функции портрета дана в художественном произведении.

**Ключевые слова:** художественное произведение, композиция, портрет, художественно-эстетическая задача, художественный образ.

**Annotation:** this article discusses the portrait and its specification, which is one of the important elements in the composition of an artistic work. Studies on the portrait in Western literary studies, as well as the explanation of the term portrait in scientific works and dictionaries. Information about the artistic and aesthetic function of the portrait is given in the work of art.

**Key words:** work of art, composition, portrait, artistic and aesthetic task, artistic image.

She‘riyat dramaturgiya va nasrdan farq qilganidek, ularning kompozitsiyasida ham o‘ziga xoslik mavjudki, bu o‘ziga xoslik, albatta, badiiy qiyofa hamda portret chizgilarida namoyon bo‘ladi. Badiiy kompozitsiya haqida so‘z ketganda, avvalo, she‘rning shakliga ko‘proq e‘tibor berish maqsadga muvofiqdir. Biroq kompozitsiya nafaqat shakl birligi, balki mazmuni ham o‘zida ifoda eta oladigan tushunchadir. Bu haqda “Adabiy tur va janrlar”da quyidagi mulohaza keltiriladi: “Kichik birliklar katta birliklarni hosil etadi. Masalan, portret,

manzara, xarakteristika, suhbat va dialoglardan (epos va dramada) sahnalar paydo bo‘ladi, sahnalardan qism, bob, parda va ko‘rinishlar shakllanadi. Ularning hammasi kompozitsiya unsurlari hisoblanadi. Har biri alohida vazifa bajaruvchi bu unsurlardan kompozitsiya tuziladi”[1]. “Lirik kompozitsiya xarakteri ko‘proq lirika ko‘rinishlari tabiatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli meditatiflik, hikoyalash, tavsif, personaj va majozga asoslangan lirika ko‘rinishlaridagi kompozitsiyada umumiylik ham bor, ammo bunda ham ko‘proq kompozitsiya lirikaning har bir ko‘rinishida o‘ziga xos namoyon bo‘lishini soqit qilib bo‘lmaydi”[3]. Darhaqiqat, lirik kompozitsiya o‘ziga xos mazmun va shaklga ega. U boshqa turlardan tubdan farqlanib turadi. Chunki lirikada mazmun ham, shakl ham, ritmik jihatdan pishirilgan ohang asosida amalga oshiriladi. Bu haqda J.Kamolning fikrlari qimmatlidir: “Kompozitsiya “ildizlari” bilan mazmunda, “butoqlari” bilan shaklda yashaydi, mazmundan shira-ozuqa, shakldan nafas olganligi uchun ham u o‘ziga xos hayot yashilligiga, nafosat libosiga burkanib turadi...” [3]. Badiiy idrok sirasida yaxlitlashadigan holat manzarasi – ijod mag‘zi. Unda inson ahvoli-ruhiyasi e’tirofi, istig‘fori, muhokamasi va tahlili yetakchilik qiladi. His qilish, tuyish, anglash va idrok uning tayanch nuqtalari. Ko‘ngil sarhadlarida kechayotgan tug‘yonlar zamzamasini she’r butunligini ijod tovlanishlari silsilasini esa ifoda darajasi tayin etadi [5]. Demak, lirik kompozitsiya haqida gap ketganda, albatta, ham shakl, ham mazmun munosabatiga e’tibor qaratish muhim sanaladi. Umuman, kompozitsiyaning o‘ziga xos unsurlari mavjudki, bu kabi unsurlar nafaqat nasr va dramaturgiyada, balki lirikada ham o‘z ifodasini topadi. Shunday tushunchalardan biriga e’tibor qaratamiz. Bu – badiiy qiyofadir. Badiiy adabiyotda badiiy qiyofa, portret atamaları mavjud. G‘arb adabiyotshunosligida inson tushunchasining umumiy mohiyatini portret va peyzaj bilan bog‘liq holda ochib berishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan [2]. B.Galanov o‘zining “So‘z ta’sirchanligi. Portret. Peyzaj. Asar” kitobida ikki asarni – “Portret san’ati” bilan “So‘z ta’sirchanligi”ni birlashtirgan [2]. Bunda muallif portret, peyzaj va tabiatdagi narsalarning turli ko‘rinishlarida badiiylikni ko‘ra bilishi, ularni idrok qila bilish orqali inson ruhiyatini ochib berish to‘g‘risida fikr yuritgan.

Portret lug‘atlarda berilishicha, adabiy asarda kishining tashqi qiyofasi, siymosi, kiyim-kechagi, o‘zini tutishi va hokazolar tasviri. Badiiy asardagi portretning xarakteri va funksiyalari rang-barang bo‘ladi. Biroq portretning eng muhim xarakteri uning ko‘proq psixologik portret bo‘lishidadir. Psixologik portret yozuvchiga personajning tashqi qiyofasi orqali uning ruhiy dunyosini ochishga yordam beradi. Shuning uchun aytish mumkinki, portret yozuvchining shaxsiy uslubi, mahorati va maqsadiga bog‘liq holda turlicha darajada berilishi mumkin. Masalan, ba’zan shaxsning tashqi qiyofasi va xatti-harakati juda batafsil tavsirlansa, ba’zan obrazning tashqi qiyofasiga yoki uning xatti-harakatiga oid muhim bir detalni tasvirlash orqali ham berilishi mumkin. Portret obraz yaratishning muhim shartlaridan biridir [4].

Bizga ma’lumki, badiiy asarda portretning badiiy-estetik vazifasi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Portret yordamida muallif:

- o‘quvchiga personajning ijobiy va salbiy jihatlarini ko‘rsatadi;
- qahramonning ijtimoiy va moliyaviy holatini aks ettiradi;
- insonning dunyoqarashini tavsiflaydi;
- agar qahramon qarama-qarshi xarakterli kishi bo‘lsa, uning ichki ziddiyatlarini ochib beradi;
- personajning ijtimoiy konfliktini namoyon qiladi, ular orasidagi kontrastga diqqatini qaratadi;
- qahramonning ruhiy kechinmalarini, ya’ni orzu va intilishlarini ko‘rsatadi;
- salbiy personajga ijobiy munosabat yoki nafratni ifodalaydi;



- asar davomida qahramonning ijobiy yoki salbiy tomonga qanday va nima uchun o'zgarishini ko'rsatadi [6].

Adabiyotda psixologik portretning ikki turi ajratiladi:

- portret-moslik. Psixologik tavsif, tabiiyki, tashqi ma'lumotlar va qahramonning ichki olami to'liq mos keladi;

- portret-kontrast. Personajning tashqi qiyofasi uning ichki olamiga butunlay qarama-qarshi bo'ladi [6].

F.Salaev, G.Qurbonniyozovlarning "Adabiyotshunoslik atamalarining izohli lug'ati"da ham yuqoridagi fikrlar o'z ifodasini topgan bo'lib, portretni ikkinchi tushuncha sifatida ijodiy jarayon bilan bog'lab yuboradi. Bundan tashqari ushbu lug'atda keltirilishicha: "Portret – adabiy qahramonning tashqi qiyofasi, ko'rinishi, kiyim-kechagi, xatti-harakati, o'zini tutishi va hokazolarning asardagi tasviri. Ijodkor portret yaratishda yuz, ko'z, qosh, lab, burun kabi a'zolarini tasvirlash bilan cheklanmay, gavda, qo'l, bosh harakatlari manerasi, gapirish ohangi va sur'ati, kulishi, yig'lashi (ushbu holatlardagi mimikasi)" kabi inson ruhiyati bilan bog'liq faoliyatlarga ham katta e'tibor qaratadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, portretni inson qiyofasi tasvirini beruvchi tushuncha sifatida ta'riflasak, uni to'g'ridan-to'g'ri obraz bilan bog'liqligini ko'rish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Nasr va dramaturgiyada obrazning badiiy qiyofasi chizgilari portretda mujassamlashadi. Biroq lirika bu tushunchani kengaytirishi mumkin. Ya'ni lirika badiiy qiyofa sifatida ifoda eta olish qudratiga ega bo'ladi. Badiiy qiyofani keng tushuncha sifatida qarash o'zini oqlaydi. Chunki badiiy qiyofa nafaqat obrazga tegishli, balki jamiyatga, davrga, makonga ham tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, jadid adabiyoti vakillari asarlarida erk, ozodlik, istiqloq tushunchalari tarannumi orqali hur fikrli shaxs qiyofasi namoyon bo'lsa, badiiy asarlardagi qishloq tasviri, shahar tasviri ham o'ziga xos qiyofaga egaki, buni makon manzarasi orqali tushunish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shu nuqtayi nazardan yondashganimizda, quyidagi mulohazalarga kelishimiz mumkin:

- portret obrazga tegishli tushuncha sifatida kompozitsiyada muhim o'rin tutadi;

- badiiy qiyofa portretga nisbatan kengroq bo'lib, u o'zida jamiyat, shaxs va makonni ifodalay oladi.

Umuman olganda, portret bugungi kunda tushunilayotgan kishining tashqi qiyofasi, siyosi, kiyim-kechagi, o'zini tutishinigina emas, balki uning ruhiyati tasvirini ham qamrab oladi. Shu bois portret tushunchasini izohlashda shu nuqtayi nazardan yondashish to'g'ri bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Адабий тур ва жанрлар. 2 жилд. –Тошкент: Фан, 1992. – Б. 44.
2. Галанов Б. Живопись словом. Портрет. Пейзаж. Вещь. – М., 1974. – 343 с.
3. Жамол Камол. Лирик шеърят. –Тошкен: Фан, 1966. – Б.72.
4. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 238.
5. Лирикада рухий ифоданинг ўзига хослиги  
<https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/lirikada-ruhiy-ifodaning-oziga-xosligi/?imlo>.
6. <https://services.selfpub.ru/poleznoe-dlja-pisatelej/literaturnyj-portret>

#### BUGUNGI TILSHUNOSLIK RIVOJINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

*Nilufar Ibodullayevna BERDIYEVA,  
Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tilshunoslikning hozirgi holati, uning asosiy yo'nalishlari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqiladi. Biz zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodologiyalarni o'rganamiz, so'nggi topilmalar va tendentsiyalarni taqdim etamiz va til va muloqotni tushunishimizga ta'sirini muhokama qilamiz. Oxir oqibat, biz ushbu sohada keyingi tadqiqotlar uchun yo'nalishlarni taklif qilamiz.

**Kalit So'zlar:** Tilshunoslik, til, rivojlanish, istiqbollar, metodologiya, multidisiplinarlik.

Tilshunoslik tilning tuzilishi, evolyutsiyasi va ishlatilishini o'rganadigan ko'p qirrali intizomdir. Zamonaviy davrda tilshunoslik tobora fanlararo bo'lib, tushunchalarni birlashtirdi kognitiv fan, kompyuter fanlari, nevrologiya, antropologiya va boshqalar. Ushbu maqola bugungi kunda tilshunoslikning rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va istiqbollari haqida to'liq ma'lumot berishga qaratilgan bo'lib, foydalanilgan metodologiyalar, so'nggi topilmalar va ushbu yutuqlarning oqibatlariga e'tibor qaratadi.

Tilshunoslik-bu turli xil omillarga, shu jumladan texnologiya yutuqlariga, o'zgaruvchan ijtimoiy ehtiyojlarga va paydo bo'layotgan nazariy asoslarga javoban rivojlanishda va rivojlanishda davom etadigan dinamik sohadir. Bugungi kunda tilshunoslikning rivojlanishining ba'zi asosiy yo'nalishlari va istiqbollari:

- Sotsiolingvistika:
  - Sotsiolingvistika til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar madaniyat, millat, sinf va jins kabi omillar tildan foydalanishga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Sotsiolingvistik o'zgarishni o'rganish va globallashtirishning tilga ta'siri doimiy qiziqish doiralaridir.
- Psixolingvistika va neyrolingvistika:
  - Psixolingvistika odamlarning tilni qanday ishlab chiqarishi va tushunishini o'rganadi, neyrolingvistika esa tilni qayta ishlashning asabiy asoslarini o'rganadi. FMRI va EEG kabi miya tasvirlash texnologiyalarining rivojlanishi miyaning til mexanizmlari haqida yangi tushunchalar beradi.
- Kognitiv Tilshunoslik:
  - Kognitiv tilshunoslik tilning inson bilimi bilan qanday bog'liqligini tekshiradi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar metafora, kontseptual ramka va til va fikr o'rtasidagi munosabatlar kabi mavzularni o'rganadi. Reklama va ta'lim kabi sohalarda amaliy qo'llanmalarga ega.
- Tilni O'zlashtirish:
  - Tilni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar shaxslarning birinchi tilini (L1) va keyingi tillarni (L2) qanday egallashiga qaratilgan. Bolalar tilini rivojlantirish va ikkinchi tilni o'rganishni o'rganish ta'lim va tilni o'qitish uchun juda muhimdir.
- Fonetika va fonologiya:
  - Fonetika va fonologiya tadqiqotlari nutq tovushlariga tegishli. Rivojlanayotgan sohalarga prosody (intonatsiya va ritm), nutq sintezi va nutqni aniqlash texnologiyalarini o'rganish kiradi.
- Tarixiy Tilshunoslik:
  - Tarixiy tilshunoslik vaqt o'tishi bilan tillarning evolyutsiyasini o'rganadi. Hisoblash vositalari va lingvistik ma'lumotlar bazalari yordamida tadqiqotchilar tilni o'zgartirish va qayta tiklashni yanada kengroq o'rganishlari mumkin.
- Yo'qolib Borayotgan Tillar:

- Yo‘qolib borayotgan tillarni hujjatlashtirish va saqlash bo‘yicha harakatlar tilshunoslikning hal qiluvchi qismi bo‘lib qolmoqda. Tilshunoslar yo‘q bo‘lib ketish bilan tahdid qilingan tillarni jonlantirish, saqlash yoki arxivlash uchun jamoalar bilan ishlaydi.
- Til va texnologiya:
  - Til texnologiyasi, shu jumladan mashina tarjimasini, nutqni aniqlash va matndan nutqqa sintez, aloqa, biznes va xalqaro munosabatlarda amaliy qo‘llanmalarga ega bo‘lgan tez rivojlanayotgan sohadir.
- Fanlararo Tadqiqotlar:
  - Tilshunoslik antropologiya, psixologiya, informatika va kognitiv fan kabi boshqa fanlar bilan tobora ko‘proq kesishadi. Ushbu fanlararo yondashuv tadqiqotchilarga yangi tushunchalar olish va murakkab lingvistik savollarni ko‘p jihatdan hal qilish imkonini beradi.
- Globallashuv va til bilan aloqa:
  - Globallashuv va madaniy aloqaning kuchayishi til aloqasini o‘rganishga va pidjinlar va kreol tillari evolyutsiyasiga ko‘proq e‘tibor qaratishga olib keldi.
- Lingvistik xilma-xillik va inklyuzivlik:
  - Til tadqiqotlarida lingvistik xilma-xillik va inklyuzivlikni o‘rganish mashhurlikka erishmoqda. Tadqiqotchilar lingvistik xilma-xillikni qanday targ‘ib qilishni va kam vakillik qilingan tillar va dialektlarni lingvistik tadqiqotlarga kiritishni o‘rganmoqdalar.

Bular tilshunoslikning tobora rivojlanib borayotgan sohasidagi yo‘nalishlar va istiqbollarning bir nechtasi. Tilshunoslikning kelajagi, ehtimol, doimiy texnologik yutuqlar, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar va yangi nazariy paradigmalarni shakllanishi mumkin.

Tilshunoslikning fanlararo tabiati uning rivojlanishining o‘ziga xos belgisidir. Ushbu sohaning boshqa fanlar bilan doimiy hamkorligi chegaralarni oshirishda davom etmoqda va insonning tilga bo‘lgan qobiliyatini chuqurroq anglashga imkon beradi. Bundan tashqari, NLPDA chuqur o‘rganish va ilg‘or miya tasviri kabi yangi texnologiyalar va metodologiyalarning paydo bo‘lishi lingvistik tadqiqotlar uchun yangi yo‘llarni ochdi.

Natijalar, shuningdek, til xilma-xilligi va madaniy merosni saqlash muhimligini ta’kidlaydi, chunki ko‘plab tillar yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida. Tilni hujjatlashtirish va jonlantirish bo‘yicha harakatlar insoniyat merosining ushbu jihatlarini himoya qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

### **Xulosalar:**

Tilshunoslik paydo bo‘lganidan beri uzoq yo‘lni bosib o‘tdi va u sekinlashuv belgilarini ko‘rsatmaydi. Sohaning multidisipliner yondashuvi uning dunyoqarashini kengaytirdi va til, idrok va jamiyat haqidagi tushunchamizni chuqurlashtirdi. Tilni o‘rganish ilmiy va amaliy ishlarning boshida bo‘lib, ta’lim, texnologiya va madaniy asrab-avaylash kelajagini shakllantiradi.

- Murakkab lingvistik savollarni hal qilish uchun keyingi fanlararo hamkorlikni rag‘batlantirish.
- Til xilma-xilligini saqlash uchun tilni saqlash va jonlantirish harakatlarini targ‘ib qilish.
- Lingvistik tadqiqotlarda sun‘iy intellekt va neyroimaging imkoniyatlarini o‘rganishni davom eting.
- Raqamli asrda tildan foydalanishning rivojlanayotgan dinamikasini va uning ijtimoiy ta’sirini o‘rganing.

Tilshunoslik dinamik va rivojlanayotgan soha sifatida, shubhasiz, til haqidagi tushunchamizga va uning insoniy muloqot va madaniyatdagi Markaziy roliga hissa qo‘shishda davom etadi.

### **ADABIYOTLAR**

1. R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik (oliy ta'lim muassasalkarining bakalavriat talabalari uchun darslik). Toshkent – 2012.
2. Shayxislamov, N. Z. O. G. L. (2022). AKADEMIK LITSEYLARNING MUTAXASSISLIK YO 'NALISHLARIDA ONA TILI DARSLARINI O 'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARASI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(4), 296-300.
3. Shayxislamov, N. (2021). TOPONIMIK KONVERSIYA HAQIDA TUSHUNCHA. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 73-77.
4. Шайхисламов, Н., & Шайхисламова, Р. (2022). ПРЕЗЕНТАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯСЫ ЖӘНЕ ОНЫ ӘДЕБИЕТ САБАҚТАРЫНДА ҚОЛДАНУ ӘДІСТЕМЕСІ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 339-345.
5. Шайхисламов, Н., & Шайхисламова, Р. (2022). ГРАММАТИКАЛЫҚ ТАЛДАУ ӘДІСІ АРҚЫЛЫ АНА ТІЛІН ОҚЫТУДЫҢ ТИІМДІЛІКТЕРІ. Scientific progress, 3(5), 134-139.
6. Шайхисламова, Р. Б. (2022). ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ЖАНРА КОМЕДИИ В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ. Scientific progress, 3(7), 28-31

## **ASQAR MAHKAM G'AZALIYOTI POETIKASI**

*Xolida Ergashevna BAZAROVA,*

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*

Annotatsiya: Asqar Mahkam o'zbek she'riyatiga "toza iymon shoiri", "so'fiyona she'rlar yozib yurgan", fitratida salobat va soddalik, halollik va oqibat, nafrat va adolat tuyg'ulari uyg'unlashgan ijodkor sifatida tanildi. Maqolada shoir qalamiga mansub g'azallar ana shu naqtayi nazardan tahlil qilingan. Nukta ijodkorning mahorati, tasvir ko'lam, o'zigacha yaratilgan ko'hna she'riyat ustunlari Navoiy va Mashrab kabi salafarga izdoshlik, tasavvuf tamoyillariga xos ohanglarga jo'rovoqlik jihatlari qaratilgan.

Аннотация: Аскар Махкам признан в узбекской поэзии «поэтом чистой веры», «написавшим суфийские стихи», творцом, в натуре которого сочетаются сила и простота, честность и последствия, ненависть и справедливость. В статье с этой точки зрения анализируются написанные поэтом газели. Речь идет о мастерстве поэта, масштабе изображения, следовании созданным им предшественникам старых поэтических рубрик, таких как «Навои» и «Машраб», и подходе к мелодии, характерном для суфийских принципов.

Annotatsion: Askar Mahkam was recognized in Uzbek poetry as a "poet of pure faith", "who wrote Sufi poems", a creator whose nature combines strength and simplicity, honesty and consequence, hatred and justice. In the article, the ghazals written by the poet are analyzed from this point of view. The point is focused on the skills of the artist, the scale of the image, the following of the predecessors of the old poetry columns created by him, such as Navoi and Mashrab, and the approach to the melodies characteristic of Sufism principles.

Kalit so'zlar: „Ishq“, „Mulki fano ichinda“ g'azallari; tatabu' she'r, an'anaviylik, tasavvufiy g'oya va tushunchalar, komil inson, ishq, bulbul istilohlari

Ключевые слова: Газели «Ишк», «Мульки фано ичинда»; Поэзия татабу, традиционализм, мистические идеи и концепции, идеальный человек, любовь, соловей.

Keywords: Ghazals "Ishq", "Mulki fano ichinda"; Tatabu poetry, traditionalism, mystical ideas and concepts, perfect man, love, nightingale terms

Asqar Mahkam XX asr o'zbek she'riyatining yetuk ijodkorlaridan. Asqar Mahkam ijodiy merosining salmoqli hissasini g'azal, ruboiy, qit'a singari janrlar tashkil etishi ham shundan. Asqar Mahkamning "Vahdat kuyi"<sup>1</sup> to'plamiga shoirning zamonaviy she'rlari bilan birga g'azallar, ruboiylari kiritilgan bo'lib, jumladan, ularning 11tasi g'azal, 58tasi ruboiy, bitta qit'a va bir noma janriga mansub she'rlardir. G'azallar turli hajmda bo'lib, ular 5 bayt va 12 baytdan iboratdir. Albatta, g'azaliyotdagi baytlar soni ijodkorning badiiy salohiyati va uslubdagi mahorati bilan bog'liq. Asqar Mahkamning "Vahdat kuyi" to'plamiga kiritilgan g'azallar mavzu ko'lamiga ko'ra oshiqona va orifona ruhda yozilgan. "Bu ishq dog'ulidir...", "Buyuk bir jon edim...", "Ko'nglim mening istagan...", "Oshiq yuragim" kabi she'rlar oshiqona, "Yana bo'm-bo'sh o'zanlarda...", "Kuygan jigarim-bag'rima..." , "Bizni tanlaganda...", "Mulki fano ichinda..." , "Ey Sorbon..." , "Meni sevgan yorlar..." kabilar esa orifona ruhda yozilgan. Asqar Mahkam g'azallari a-a, b-a, d-a, e-a tarzida qofiyalangan, e'tiborlisi shundaki, shoir g'azaliyotda azaliy an'ana-taxallus qo'llash an'anasini chetlab o'tadi. To'plamga kiritilgan birorta g'azalda shoir taxallus qo'llamaganligining guvohi bo'lamiz.

"Buyuk bir jon edim...", "Kuygan jigarim-bag'rima..." g'azallari hajmiga ko'ra ham, badiiy xususiyatiga ko'ra ham shoirning yuksak poetik mahoratidan darak berib turibdi. 12 baytdan iborat "Buyuk bir jon edim..." g'azaliga jon-u jahonim-qonim-iymonim-zabonim-tovonim-ustixonim-osmonim-onim-nom-nishonim-xonumonim-yaxshi –yomonim-lomakonim-oshiyonim so'zlari qofiya sifatida olingan. "Ishq" so'zi she'rning radifi bo'lib, uni takroran qo'llash bilan she'r ta'sirchanligi bir qadar oshirilgan. Aslida, "ishq" so'zining radifda qo'llanishi, she'rning mavzusini ham ochib berishga xizmat qilgan. Tasavvuf ta'limoti g'oyalari ko'ra, ishq markaziy tushuncha sifatida qaraladi, u Allohga bo'lgan muhabbatni ifodalaydi. "Buyuk bir jon edim..." she'rini Asqar Mahkam tasavvuf ta'limoti tamoyillari asosida ishq dardida "xarob o'l"gan, "tili lol, ko'zi giryon", "so'ngaklari nihon" Mashrabga ergashib yozgan. "Buyuk bir jon edim..." mutolaasini qilgan zukko she'rxon unda bir o'qishdayoq buyuk mutasavvuf shoir Mashrab nafasini tuyadi:

Agar oshiqligim aytsam, kuyib jon-u jahon o'rtar,

Bu ishq sirrin bayon etsam toki ul xonumon o'rtar... Endi shu "ishq sirlari bayon"ini Asqar Mahkam izhor etayotgandek:

Buyuk bir jon edim, jon-u jahonim o'rtadi Ishq, Ishq,

So'ngaklar sirqirab singayki, qonim o'rtadi Ishq, Ishq. [2.260-bet]

Baytda "j" tovushi bilan ohangdoshlik, shu tovush bilan boshlanuvchi "jon" so'zi bilan takrir tasvir vositasi hamda avval birgina "jon" so'ngra "jon-u jahon", ya'ni butun borliq ma'nosida qo'llanib, tadrij tasvir vositalarini yuzaga keltirgan. Darhaqiqat, salaf - Mashrab ham "O'rtar" radifli g'azalini aynan shu tasvir vositasini qo'llash bilan boshlagan, u ham ishqqa muhtalo bo'lgan oshiq ahvolini tasvirlay turib, fikrni oddiylikdan darjama-daraja ko'tarib borish yo'li (tadrij tasvir vositasi) bilan bayon etgan edi. Ikkinchi misrada esa "So'ngaklar sirqirab singayki ..." jumlasida "s" tovushi bilan bog'liq ohangdoshlik-alletaratsiya hodisasini hamda ishqning oshiq suyagiga singib ketgani ma'nosini ham kuzatish mumkin.

Quyidagi baytda shoir "bulbul" obrazida haqiqiy ishq egalari-shoirlarga ishora qilmoqda. Xalqimizda: "Boshingga qilich kelsa ham, to'g'ri so'zla" degan hikmat bor. Shoirlar boshlarini qilichga tutib-da, haqiqatni so'zlaydilar, pokiza e'tiqod, mustahkam iymonlarini saqlaydilar:

Qilichlar tig'ida qon o'rnida chah-chahladi bulbul,

<sup>1</sup> Asqar Mahkam, Vahdat kuyi. She'rlar, g'azallar, ruboiylar, adabiy o'ylar/-Toshkent.-Nurafshon business, 2021.



Yonib jon xokidan aql-u iymonim o'rtadi Ishq, Ishq.

Quyidagi baytda esa qo'llangan sinekdoxa "bir usruk ko'z" Olohni ifodalashi bilan uning aniqlovchisi "bir usruk" epitet, "samandardek" so'zida an'anaviy tashbeh san'atini yuzaga keltirgan. Samandar - olovda tug'ilib, olovda kuyib o'ladigan qush nomini qo'llashida ham maqsad bor: samandar shoir tanlagan yo'ning naqadar qaltis, mashaqqatli, ammo sharafligi ekanini ifodalashga xizmat qilgan:

Bir usruk ko'z olovida kuyib yondim samandardek,

Menga jon berdi, ammo ustixonim o'rtadi Ishq, Ishq.

She'r avval-oxir shoirning ishqqa muhtaloligi bayoniga baxsh etilgan. Ishq siri oshkor etilganida g'avg'o ko'tariladi, bu sirdan osmon ham, zamin ham o'rtanadi:

Sirim aytsam, qo'par g'avg'o, kavokib dashti o'rtangay,

Zaminim o'rtadi Ishq, osmonim o'rtadi Ishq, Ishq.

"Kavokib dashti" (yulduzlar dashti) oksimorondan istiora sifatida qo'llash va keyingi misrada mazmunni zamin-osmon tarzida qarama-qarshi tarzda qo'llash ham Mashrabning "Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o'rtar" misrasiga "panja urmoqdir". Barcha maslakning zamirida ishq turar ekan, u kishining nomi-nishoni ham, avval-oxiri, balki xonumoni ham Ishqqa aylanishi tabiiy.

G'azal yozish qonun-qoidalariga ko'ra maqta'dan oldingi baytlarda she'rning asl mohiyati, mazmuni to'la ochib beriladi. Shoir ham shu tamoyilga to'la amal qilgan:

Nasib etmas menga jovid<sup>1</sup> buyuk Ishqdan bo'lak savdo,

Makonim o'rtadi Ishq, lomakonim o'rtadi Ishq.

Bu iqror, aslida, buyuk mutasavvuf shoir Mashrab e'tiqdiga ko'ra biroz o'zgacha ohangda qog'ozga tushirilgan edi. Mohiyat shundaki, abadiyatdan xabar topgan Mashrab, o'zi yashayotgan o'lchamli olamdan yuz o'girgan, bor e'tiborini abadiyatga erishishga qaratgan edi. Asqar Mahkam bu buyuk maqsadni yanada yuksaltirib, ikki dunyo saodatini tiladi. Arshning kungurasin ustig'a qo'ydim oyog'im,

Lomakon<sup>2</sup>din xabar oldim, bu makonni na qilay?!

Tasavvuf ahli o'zlaridan poklik, oqibat, ezgulik, yaxshi amal, muhabbat bilan ziynatlangan go'zal olam qolishini istaydilar, o'z she'rlarida shuni ta'kidlaydilar. Aytmoqchimizki, Asqar Mahkam bejizga tasavvuf olamining buyuk siymosi Mashrab izidan bormadi, bejiz unga ergashmadi. Bunga unda yetarli asos bor edi: shoir ruhi ustoz, piri komil ruhiyatiga yaqin edi, hammaslak edi. Shundan shoir o'z she'rini quyidagi bayt bilan yakunlashga to'la haqli edi:

Umr o'tgay, qolur mendan Muhabbat otli bir olam,

Hama umr o'rtanurman, oshiyonim o'rtadi Ishq, Ishq.

Ko'rinadiki, she'r Boborahim Mashrabning o'sha mashhur "O'rtar" she'riga o'xshatma sifatida yaratilgan tazmin she'rdir. Bu she'rning boshidan oxirigacha radif tarkibida qo'llangan "o'rtadi" so'zidan ham ma'lum. Agar matla'da "jon-jon-u jahon-so'ngaklar-qon-ishq", ikkinchi baytda "qilich-qon-bulbul-xok-iymon", uchinchi baytda "tiriklik qissasi-so'z-doston-suxanpardoz-zabon" so'zlari she'rda o'zaro mutanosiblik hosil qilgan va bu hodisani g'azalning barcha baytlarida izohlash mumkin. Bu ham ijodkorning yuksak iste'dodi, betakror san'ati hosilasidir. Shuni ham qayd etish kerakki, Asqar Mahkam Mashrabning "O'rtar" g'azaliga o'xshatma yozish bilan azaliy an'anani davom ettiribgina qolmay, mazkur she'r orqali zamonaviy she'riyat bisotini yangicha ruh bilan boyitdi. U, aslida, arabcha so'z yoki tovushlar xususiyatiga xos bo'lgan aruz talablariga o'zbekcha so'zlarni ham

<sup>1</sup> jovid - [ar.] abadiy

<sup>2</sup> lomakon-[ar.] makonsizlik

bo'ysundirib, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Jamol Kamol singari aruziy ohanglarga yangicha navo baxsh etdi.

#### ADABIYOTLAR

1. Anvar Hojimatov "Mumtoz badiiyat lug'ati" adabiy janrlar, she'r san'atlari, aruz va qofiya. T.: "Yangi asr avlodi" 2008 –yil
2. Asqar Mahkam, Vahdat kuyi. She'rlar, g'azallar, ruboiylar, adabiy o'yalar.-"Nurafshon business" nashriyoti T.: 2021-yil.
3. Komilov Najmiddin Tasavvuf yoki komil inson axloqi. T.:-"Yozuvchi" nashriyoti, 1996-yil, 155-bet
4. Manzar Abulxayr, Navoiy asarlarining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. T.:2018-yil, 195-bet
5. <https://tafakkur.net/na-qilay-radifli-gazal/boborahim-mashrab.uz>

#### РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В РАМКАХ ИЗУЧЕНИЯ УЧЕБНОЙ ДИСЦИПЛИНЫ « РУССКИЙ ЯЗЫК»

*Гулнара Мамаджановна ИСПАЙЛОВА,  
преподаватель Кокандского Государственного  
педагогического института  
Эргашева Масума, Ботирова Гулафруз, Хайитова Шарифа  
Студентки*

**Аннотация:** В статье раскрывается основная проблематика развития речевой деятельности студентов в рамках дисциплины «Русский язык», основные направления и методы в формировании коммуникативной компетенции студентов.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, речевое развитие, методы формирования коммуникативной компетенции, умение обрабатывать услышанную, изложений и сочинений.

**Abstract:** The article reveals the main issues in the development of students' speech activity within the framework of the "Russian Language" discipline, the main directions and methods in the formation of students' communicative competence.

**Key words:** communicative competence, speech development, methods of developing communicative competence, ability to process what is heard, presentations and essays.

Учебная дисциплина «Русский язык» в средних специальных учебных заведениях направлена на формирование у студентов следующих видов компетенций: лингвистическая компетенция – умение проводить лингвистический анализ языковых умений; языковая компетенция – соблюдение языковых норм, овладение практическими навыками русского языка; коммуникативная компетенция – умение обрабатывать услышанную информацию и создавать свою на ее основе, владение разными видами речевой деятельности (письмо, чтение), умение воспринимать чужую речь в устной, и в письменной форме. Литературный язык существует в двух формах – письменной и устной. Между ними имеются существенные различия, особенности в области синтаксиса. В практике обучения русскому языку в нашем колледже традиционно большое место занимают изложения с элементами сочинений и сочинения. Они являются формами контроля, который определяет уровень владения языком. Правильно, что в практике используются в основном изложения и сочинения на литературную тему, так как они стимулируют понимание классической литературы и этим работают на развитие интеллекта. Изложений и сочинений в колледже пишется достаточное количество. Именно поэтому, на уроках уделяется большое внимание

анализу ошибок. Следует отметить два крупных недостатка изложений и сочинений студентов: орфографическая и пунктуационная неграмотность, неумение раскрыть тему. Причины несоответствия содержания сочинения теме следующие: непонимание темы, неумение логически мыслить, невнимание к формулировке. Задача педагога – проанализировать ошибки, прежде всего, в способах выражения мысли, в содержании сочинения или изложения и помочь студентам разобраться с ними. Ошибки, которые делают в сочинениях и изложениях, в основном, двух типов:

1. Фактические и логические – это неязыковые ошибки;
2. Лексические, грамматические, стилистические – это языковые ошибки.

Неязыковые ошибки. Фактические ошибки в письменных работах очень разнообразны — от искажения хронологии до неверной трактовки образа и произведения в целом.

Языковые ошибки. Самыми частыми среди языковых ошибок являются лексические. Они возникает тогда, когда студент не знает значения употребляемого слова или не вдумывается в содержание прочитанного произведения.

Грамматические ошибки – это нарушение правил построения словосочетаний и предложений, образования и употребления форм слова. Например: Автор статьи рассматривает проблему взаимоотношений отцов и детей. Студент не знает, что существительное проблема управляет словом в Р.п. (кого? чего?) взаимоотношения. Исправление стилистических ошибок всегда сложно для студентов, так как требует знаний и развитого языкового чутья. Например: «Впервые я услышал шелест падающего листа – неясный звук, похожий на шёпот дитя».

Слово дитя имеет просторечный характер и не может применяться в этом предложении. Работа по предупреждению, исправлению и даже обнаружению таких ошибок бывает для студентов достаточно сложной. Главное в этой работе, чтобы ошибка была не просто исправлена, а осмыслён её характер. Практика реализации работы позволяет говорить о создании устойчивой мотивации для совершенствования своей устной и письменной речи. У студентов появляется желание писать и говорить, испытывая эстетическое удовольствие от собственных удачных коммуникативных опытов. Потребуется еще немало усилий по развитию речевой культуры студентов, приобщению их к литературному языку. Только системный, творческий подход к работе даст положительные результаты.

#### **ЛИТЕРАТУРА:**

1. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. (Анализ зарубежного опыта) Рига, НПЦ «Эксперимент», 1995 – 176 с.
2. Куницына В.Н. Коммуникативная компетентность и коммуникативный интеллект: структура, функции, взаимоотношения. // Теоретические и прикладные вопросы психологии. 1995. – 86 с.
3. Капинова Е.С. Отбор коммуникативного минимума на основе анализа болгарских и русских невербальных средств общения [Электронный ресурс] // Перспективы науки и образования, 2013. №2. С.21-27.
4. Капинова Е.С. Биографический метод в обучении русскому языку студентов-нефилологов в Болгарии [Электронный ресурс] // Перспективы науки и образования, 2013. №4. С.114-118.
5. Поповицкая Н.В. Современные требования к педагогу в межличностном восприятии [Электронный ресурс] // Перспективы науки и образования, 2013. №5. С.44-48.
6. Выявление пробелов в знаниях студентов по русскому языку Исраилова Гульнара Мамаджановна 2022 г.

7,9-годовой импакт-фактор 6,5 Journal Indexing-Scopus EBSCO 10 декабря 2022 г. Журнал позитивной школьной психологии Исраилова Г.М. АНАЛИЗ СИНОНИМИЧЕСКИХ РЯДОВ ГЛАГОЛА «ВИДЕТЬ».

8. ASTA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIE ISSN: 319-2836 ИМПАКТ-ФАКТОР: 7.603 Том 11, выпуск 11, 2022 г. Исраилова Г.М. МЕХАНИЗМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ПРЕДМЕТЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.

9.Международный журнал экономики и инноваций, том 32/2023 ISSN:2545-0573 ОЦЕНОЧНЫЙ СЛОВАРЬ И СРЕДСТВЕННЫЕ ПРОЯВЛЕНИЯ Исраилова Гульнора

10. Международный журнал экономики и инноваций Том 32 /2023 ISSN:2545-0573 ПОСТАНОВКА УЧЕБНОЙ ЗАДАЧИ КАК СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ ЯЗЫКА МЛАДШЕГО УЧЕНИКА НА УРОКАХ РУССОГО ЯЗЫКА Исраилова Гульнора

11.НАУКА И ИННОВАЦИИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ Международная научно-онлайн конференция «ПРЕПОДАВАНИЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ЗАНЯТИЯХ С БОЛЬШИМ НАПОЛНЕНИЕМ» ИТАЛИЯ 2023 05.05 Исраилова Гульнора Мамаджановна

13. Научный вестник Наманганского государственного университета ISSN: 2181-0437 журнал.namdu.uz 3-son.2023 стр. 118 «ХОДЖА БАХУДДИН НАКШБАНД-ЙЕТТИ ПИР ТАЛИМОТИ АСОСИДА МАНАВИЙ БАРКАМОЛ ШАКСНИ ТАРБИЯЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА» Исраилова Гульнора Мамаджановна

14. Научный вестник Наманганского государственного университета ISSN:2181-0437 Journal.namdu.uz 3-son.2023 стр.548 «История формирования и функционирования родственных терминов» Гульнора Исраилова Мамаджановна

## SHARQDA “XAMSACHILIK“ AN’ANASI

*Zarina Yodgorovna ISMATOVA,*

*Navoiy davlat pedagogika institute “O‘zbek tili va adabiyoti” fakulteti*

*1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Xamsanavislik Sharq adabiyotining eng go‘zal va boy ananalaridan biri hisoblanadi. Uning natijasida insoniyat tomonidan yaratilgan ma‘naviy meros hazinasi ko‘plab nodir durdonalarga ega bo‘lga. Shu bilan birga buyuk mutafakkir so‘z ustalari tomonidan yaratilgan masnaviyalar Sharq xalqlari madaniyati, turmush tarzi va ma‘naviy qiyofasining shakllanishida sezilarli tasir ko‘rsatgan. Mazkur jarayonda turkiyzabon adabiyot vakillari ham munosib o‘ringa ega ekanligi barchamizga sir emas. Nizomiy Ganjaviy an‘analariga u yoki bu darajada ergashish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatgan Qutb Xorazmiy, Mavlono Haydar (Xorazmiy), Poshshoxoja va ayniqsa, Alisher Navoiy kabi o‘zbek mumtoz adabiyoti vakillarining xamsa sujetlari asosida yaratgan bebaho asarlari uzoq asrlar davomida axloqiy-manaviy kamolot yo‘lida xizmat qilib kelmoqda.

**Kalit so‘zlar:** doston, nazira, anana, sujet, mutafakkir, navoiyshunoslik, tahlil

**Аннотация:** Хамсанавис – самая красивая и богатая литература Востока. Это одна из традиций. В результате сокровищница духовного наследия, созданная человечеством, насчитывает немало редких шедевров. В то же время маснави, созданные великими мыслителями слова, оказали значительное влияние на формирование культуры, образа жизни и духовного образа народов Востока. Для всех нас не секрет, что достойное место в этом процессе занимают и представители тюркоязычной литературы. Кутб Хорезми, Маулана Хайдар (Хорезми), Пошшоходжа и особенно Алишер Навои, проявивший рвение следовать традициям Низами



Гянджеви, и особенно Алишер Навои, создали бесценные произведения на основе основных сюжетов узбекской классической литературы. на пути духовного совершенства.

**Ключевые слова:** эпос, перспектива, традиция, сюжет, мыслитель, нарративные исследования, анализ.

**Annotation:** Khamsanavis is the most beautiful and rich of Eastern literature is one of the traditions. As a result, the treasure of spiritual heritage created by mankind has many rare masterpieces. At the same time, the masnavis created by great thinkers of words had a significant impact on the formation of the culture, lifestyle and spiritual image of the peoples of the East. It is no secret to all of us that representatives of Turkish-language literature also have a worthy place in this process. Kutb Khorazmi, Maulana Haydar (Khorazmi), Poshshohoja, and especially Alisher Navoi, who showed zeal to follow the traditions of Nizami Ganjavi, and especially Alisher Navoi, created invaluable works on the basis of the main subjects of Uzbek classical literature. has been serving on the path of spiritual perfection.

Key words: epic, perspective, tradition, subject, thinker, narrative studies, analysis

Millatimizning g'ururi va iftixori bo'lgan o'zbek mumtoz adabiyotini xalqaro maydondagi nufuzini oshirib dunyo miqyosida yanada rivojlantirish uchun davlatimiz rahbari muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan chiqarilgan qarorlarning ahamiyati kattadir albatta.

Muhtaram yurtboshimizning Oliy Majlisga murojatnomasida aytilgan fikrlar biz yoshlarning oldimizga ham katta mas'uliyat yuklaydi. So'nggi yillarda milliy qadriyatlarni tiklash va mumtoz adabiyot tarixi bilan bog'liq barkamol avlodni ma'naviy kamolotga erishtirish masalalariga katta e'tibor berilib kelinmoqda. Musulmon Sharqi epik poeziyasi tarixi xamsachilik an'anasi bilan chambarchas bog'liq. Dastavval XII asrda vujudga kelgan xamsa janri sakkiz asrga yaqin vaqt davomida yuzlab javob dostonlarga ega bo'ldi. Sharq adabiyotida birinchi bo'lib "Xamsa" yozgan shaxs buyuk ozarbayjon shoiri *Nizomiy Ganjaviy*dir. U 1170–1204- yillar oralig,ida birin-ketin 5 ta doston yaratdi, bu dostonlar shoir vafotidan so'ng yaxlit bir to'plamga birlashtirilib, "Panj ganj" ("Besh xazina") deb atala boshlandi va keyinchalik xamsa nomi bilan mashhur bo'ldi. "Xamsa" yozish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozim bo'ladi:

1. Besh dostondan tashkil topmog,,i.
2. Birinchi doston, albatta, pand-nasihath ruhidagi ta'limiy-axloqiy, falsafiy bo'lmog'i.
3. Ikkinchi doston Xusrav va Shirin mojarolariga bag,,ishlanmog,,i.
4. Uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilib olmog,,i.
5. To,,rtinchi doston Bahrom, beshinchi doston Iskandar haqida yozilmog,,i shart edi.

Alisher Navoiy bu jihatdan ham Nizomiy Ganjaviy an`anasiga amal qildi. Eng muhimmi Navoiyning "Xamsa" si turkiy-o'zbek tilida yozilgan bo'lib, undan turkiyzabon kitobxon bahra olishi uchun imkon yaratildi. Agar Nizomiy Ganjaviy fors tilidagi Xamsa"ni hayot taqozosi bilan 27 yilda (1174 - 1201) yoz-gan bo'lsa, Navoiy o'zbek tilidagi „Xamsa"ni ikki yildan ortiqroq (1483 - 1485) muddatda tugatishga erishdi.[O.Madayev 2018,158] Jahon sivilizatsiyasi tarixida ayniqsa, Sharqda alohida o'rin tutadigan xamsachilik an`anasi va Alisher Navoiy "Xamsa" si o'zbek mumtoz adabiyotining rivojlanishida yuksak ahamiyatga egadir. Sharq epik poeziyasining gultoji hisoblangan "Xamsa" ga kirgan dostonlar musulmonlar Sharqi xalqlarini har doim qiziqtirib kelgan. Ana shuning uchun ham Sharq Renessansi davrida juda ko'p insonlar "Xamsa"



yozishga harakat qilganlar. Bu davrlarda 300 ga yaqin ijodkorlar Nizomiy beshligiga muayyan tarzda javob yozganlarini Ozarbayjon olimi, filologiya fanlari doktori G‘azanfar Aliyev aniqlab, o‘zining "Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока" nomli monografiyasini yaratgan edi.

**Xamsachilik** — Sharq xalqlari adabiyotida dostonnavislik shakllaridan biri; "Xamsa" yozish bilan bog‘liq adabiy an‘ana. Nizomiy Ganjaviy asos solgan.

Ijodkorlar Nizomiy "Panj ganj"ini ("Besh xazina") tashkil etuvchi "Mahzan ul asror", "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Haft paykar", "Iskandarnoma" dostonlarining mavzui, syujet va kompozitsiyasi, qahramonlari, vazni, joylashish tartibini saqlagan holdamustaqil asar yaratganlar. Bu badiiy ijodda katta mahorat maktabi sanalgan. Xamsa dostonlarining har biri mavzuyi, qahramonlari, hatto qo‘yilgan masalalarigacha aniqlikka ega bo‘lib, bu janrda ijod qilgan yozuvchi o‘z mahoratini ana shu an‘anaviy vositalar yordamida ko‘rsatishi, shu orqali o‘z davri ideallarini ifodalashi lozim bo‘lgan. An‘anaga ko‘ra, Xamsadagi 1-dostonning asosini falsafiyaxloqiy masalalar tashkil etgan. 2—3 dostonlar sevgi orqali aks ettirilgan ijtimoiy-ma‘naviy masalalarni yorituvchi mavzu asosida uyushgan. 4-doston sarguzasht asar bo‘lib, unda adolatli shoh masalasi ko‘tarilgan. So‘nggi doston avvalgilarining xulosasi, umumlashmasibo‘lib, unda ijodkorning ma‘naviyaxloqiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlari aks etgan. Sharqda badiiy qimmat turlicha bo‘lgan 50 dan ortiq xamsalar vujudga kelgan. Xamsaning alohida dostonlariga javoblar ham yozilgan. Lekin bizgacha bu asarlarning hammasi ham yetib kelgan emas. Xamsa dostonlaridan faqat birigagina javob yozib, yuksak darajada shuhrat qozongan ijodkorlar ham bo‘lgan (Fuzuliy, "Layli va Majnun"). Xamsada eng ko‘p dostonlar "Layli va Majnun" mavzusida yaratilgan. Keyingi o‘rinlarda tegishli ravishda "Xusrav va Shirin", "Mahzan ul-asror", "Iskandarnoma", "Haft paykar" mavzusidagi dostonlar turadi. Xamsanavislar o‘z asarlarida epikromanik, qahramonlik yoki sufiylik mavzusini birinchi o‘ringa qo‘yganlar. Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"sining syujet va mavzulari turli xalqlar badiiy adabiyotlariga ta’sir etib, 13—20-asrlar mobaynida 600 dan ortiq asar yaratilgan. Nizomiy "Xamsa"sini fors tilida yozgan. Boshqa xalqlar Xamsa an‘anasini o‘z tillarida davom ettirganlar. Turkiy, urdu, pushtu, kurd, arman va boshqa tillarda xamsalar yaratilgan. Davrlar o‘tishi bilan muayyan ijtimoiy-siyosiy sharoitda belgilangan mavzu, syujet, kompozitsiya, obrazlarga ega bo‘lgan "Xamsa" dostonlarining mazmuni, tarkibi o‘zgaribborgan. Xamsa an‘anasi Kavkazorti, O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Pokiston va Hindiston mamlakatlarida davom ettirilgan. Turkiy xalqlar adabiyotida Xamsaga qiziqish 13—14-asrlardan boshlangan. Qutb Xorazmiy Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonini, Haydar Xorazmiy she’riy shaklini saqlagan holda ayrim o‘zgarishlar bilan "Mahzan ul-asror" dostonini turkiy tilga tarjima qilgan. Turkiy (o‘zbek) tilida "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab’ai sayyor", "Saddi Iskandariy"

nomlari bilan 5 doston — "Xamsa" yaratgan Alisher Navoiy Xamsa taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan va X.ni turkiy xalqlar adabiyotida Nizomiy darajasiga kutardi. Bunda Navoiy o‘zigacha bo‘lgan buyuk xamsanavislar — Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiylarni uziga ustoz deb bildi va ularning X.dagi g‘oyaviybadiiy an‘analarini mahorat bilan rivojlantirdi. Xamsa.ni yuqori pog‘onaga olib chiqdi. Navoiy X.da an‘anaviy obrazlar hisoblangan Farhod, Shirin, Dilorom, Layli, Majnun, shohlardan Xusrav, Bahrom, Iskandar obrazlarini yangicha, o‘z davri adabiyotining insonparvarlik g‘oyalari nuqtai nazaridan talqin etdi. Navoiy "Xamsa"si turli xalqlar dostonchiligining keyingi taraqqiyotigaijobiy ta’sir qilgan. O‘zbek shoiri Xoja ("Maqsad ulatvor"), turk shoiri Lomiy va uyg‘ur shoiri Nizoriy ("Farhod va Shirin"), ozarbayjon shoiri Fuzuliy ("Layli va Majnun") o‘zlarining dostonlarini Navoiyning "Xamsa" dostonlari ta’sirida yaratganlar. Navoiy

"Xamsa"si ayni vaqtda o'zbek adabiy tilining boyligi, mukammal va rang-barangligini ham namoyish etadi.

Nizomiy Ganjaviy "Xamsa" si yaratilgandan keyin oradan bir asr vaqt o'tib Amir Xusrav Dehlaviy Nizomiy asariga javob yozish bilan xamsanavislik an'anasini boshlab berdi. Dehlaviyning 1299 - 1302 yillarda yozilib, Alouddin Xiljiyga bag'ishlangan «Xamsa»si quyidagi dostonlarni o'z ichiga oladi: «Matla' ul-anvor» («Nurlarning chiqish joyi»), «Shirin va Xusrav», «Majnun va Layli», «Oinai Iskandariy» («Iskandar oyinasi»), «Hasht bihisht» («Sakkiz jannat»). U Nizomiy dostonlarining shakli va syujeti, obrazlar silsilasini saqlagan holda, ularni o,,ziga xos talqin etdi va yangi mazmun bilan boyitdi. Nizomiy dostonlari shoir dunyoqarashining kengligi va bilimining teranligini namoyish etsa, Xusrav Dehlaviy «Xamsa»si ruhiyat teranligi va qalb boyligini ko,,z-ko,,z qiladi. Nizomiy dostonlarida tafakkur va tuyg'un nisbatini ko'rsak, Xusrav Dehlaviy «Xamsa»sida inson qalbining nozik tebranishlari va badiiyat uyg,,unligining hassos va go'zal tasvirlariga duch kelamiz. Aynan san'atkorona ishlanganligi uchun ham Xusrav Dehlaviy «Xamsa»si o'zidan keyingi shoirlarga kuchli ta'sir ko,,rsatdi, Xalflari goya va mazmunda Nizomiyga ergashsalar ham, shakl va badiiyatda Xusrav Dehlaviyga izdoshlik qildilar. Jomiyning «Bahoriston»da e'tirof etishicha, hech kim Nizomiy «Xamsa»siga Xusrav Dehlaviydan o'tkazib javob yozolmagan.

Navoiy o'z «Xamsa» sini yaratishda Nizomiy bilan bir qatorda, Xusrav Dehlaviydan ham kuchli ta'sirlangan, har bir dostoni muqaddimasida uni ustozlari qatorida ehtirom bilan tilga olib, ijodiga yuksak baho bergan. Temur va Shohrux zamonida yashagan Jamoliyning tavalludi vafot yillari haqida aniq ma'lumot yo'q. Faqat G'. Aliev o,,zining «Temi i syujeti Nizami v literaturax narodov Vostoka» nomli monografiyasida uning beshligi 1402 - 1417 yillar oralig,,ida yaratilgan degan fikrni bildiradi. Jamoliy «Xamsa»si quyidagi dostonlardan iborat: «Tuhfat ul-abror» («Maxzan ul-asror»ga javob), «Mehru Nigor» («Xusrav va Shirin»ga tatabbu'), «Mahzun va Mahbub» («Layli va Majnun»ga tatabbu'), «Haft avrang» («Haft paykar»ga tatabbu'). Doston nomi aniq emas. Lekin voqealar mazmuni va qo'llanilgan vazn Nizomiy «Iskandarnoma»sini eslatgani uchun, uni Nizomiy beshligidagi so,,nggi dostonga javob tarzida yozilgan deb hisoblash mumkin.

Ashraf - Abu Ali Husayn ibni Hasan Marog,,iy. Darvesh Hasan Xiyoboniy (tug', noma'lum - vaf. 1460) nomi bilan tanilgan. 1436-1440 yillar mobaynida «Xamsa» an'anasini davom ettirgan. «Minhoj ul-abror» (Taqvodorlarning yo,,li), «Riyoz ul oshiqayn» (Ikki oshiqning mashaq qatlari), «Shirin va Xusrav», «Ishqnoma» yoki «Layli va Majnun», «Haft avrang» (Etti taxt) va «Zafarnoma» nomli «Xamsa» tarkibidagi dostonlarni yozgan. Shoirning she'rlar devoni va «Sad pandi Ali» (Alining yuz pandi) nomli Hazrat Ali hikmatlarining tarjimai bo,,lgan manzumi ham mavjud. Aftidan bu oxirgi asari Navoiyning «Nazm ul-javoxir» nomli asariga o,,xshash ko,,rinadi. Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida Ashraf haqida yozadi va Hirotda bo,,lganini ta'kidlaydi. Shoir «Xamsa» ustida uzoq yillar mehnat qilgani va nihoyat uni tugallashga noil bo,,lgani xususida Navoiy Ashrafning quyidagi baytini keltiradi:

*Az sharafi vasli tu Ashraf shudem,  
Davlati mo bud musharraf shudem.*

(Tarj.: Sening vasling sharafi bilan Ashraf (ya'ni, sharafli) bo'ldik, bu biz uchun davlat edi musharraf bo'ldik] Fors-tojik adabiyotining oltin davrini yakunlagan zabardast so'z san'atkori, ulug' mutafakkir, naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy Nishopur yaqinidagi Jom shahrida ruhoniylar oilasida

tug‘ilib, Hirotda yashagan hamda shu yerda mashhur shoir va mutafakkir bo‘lib yetishgan. U Hirotda Xoja Alouddin Ali Samarqandiy, Shahobiddin Muhammad Jojarmiy kabi allomalar qo‘lida tahsil oladi. Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasida Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi qomusiy olimlar ma‘ruzalarini eshitishga muyassar bo‘ladi. Mashhur mudarris Fazlulloh Abullaysdan fiqh, Qur‘on, hadis va arab tili bo‘yicha saboq oladi. Alisher Navoiyning yozishicha, Jomiy garchi zohir yuzidan Sa‘diddin Koshg‘ariy muridi bo‘lsa-da, aslida uvaysiysbolib, Bahouddin Naqshband ruhoniyyatidan tarbiya topgan, zamona mashoyixi Xoja Muhammad Porso nazariga tushgan, Xoja Abu Nasr Porso, Xoja Muhammad Kusaviy, Mavlono Boyazid Purodiy, Mavlono Muhammad Asar, Mavlono Muhammad Tabodgoniy, Shayx Shoh Ziyoratgohiy va Mavlono Muhammad Amin Ko‘histoniy kabi o‘z davrining ulug‘ shayxlari bilan muloqot qilgan. Xoja Ahror Valiy bilan yaqin munosabatda bo‘lgan. 1476 yili Alisher Navoiy unga murid tushib, rasman naqshbandiya tariqatiga kiradi. Jomiy 7 ta doston yozib, ularni «Haft avrang» («Etti taxt») nomi bilan atagan: «Silsilat uz-zahab» («Oltin zanjirlar»), «Tuhfat ul-ahror» («Yaxshilar tuhfasini»), «Sibhat ul-abror» («Taqvodorlar tasbehi»), «Yusuf va Zulayxo», «Layli va Majnun», «Salomon va Absol», «Xiradnomai Iskandar» («Iskandar pandnomasi»). Navoiy «Xamsa» si uch yuz yil-lik tajriba va an‘anaga ega bo‘lgan xamsachilik taraqqiyotida yangi va yirik voqea bo‘ldi. Navoiy ustoz xamsanavislarning yuksak san‘atkorligini e‘tirof qiladi va sharaflaydi, ularning ada-biy tajribasidan ta‘lim oladi. Dostonlarining muqaddima qismida Nizomiy va Xusrav Dehlaviyga hamda o‘zi bilan deyarli bir vaqtda xamsa yaratgan Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlab maxsus boblar yozib, ularni ulug‘laydi. U:

*Yo‘ldasa bu yo‘lda Nizomiy yo‘lum,  
Qo‘ldasa Xusrav bila Jomiy qo‘lum, -*

deb ulardan madad tilaydi. Biroq Navoiy hech qachon xamsanavis salaflarining dostonlarini takrorlashga yoki ularga tobelarcha taqlid qilishga intilmaydi. U o‘z oldiga yangi va original xamsa yaratish vazifasini qo‘yadi. Buni Navoiy bot-bot ta‘kidlaydi. Xamsanavis salaflarining ijodiy yutuqlarini e‘tirof qilgan vasharaflagan Navoiy ularning dostonlaridagi nuqsonlarga befarq qaramaydi. U salaflarining juz‘iy kamchiliklarini emas, balki jiddiyroq kamchiliklarini topadi va xolisona tanqid qiladi. Navoiy «Xamsa» ni yaratishda tarixiy manbalardan va xususan xalq og‘zaki ijodi boyliklaridan, xalq afsonalari, ertaklari, qo‘shiqlari, maqol va hikmatli so‘zlari hamda xalq asarlarining badiiy uslubidan mohirlik bilan foydalandi. Navoiy juda og‘ir va juda mas‘uliyatli ishga kirishgan edi. U Yaqin va O‘rta Sharq o‘lkalarida ustoz so‘z san‘atkori sifatida shuxrat topgan Nizomiy va Xusrav Dehlaviy bilan ijodiy bahslashdi. Bu juda katta bilim va yuksak adabiy didni, iste‘dod va qobiliyatni talab etar edi. U og‘ir va mas‘uliyatli bu vazifani sharaf bilan bajardi, adabiyot maydonida sher bilan olishgan sher bo‘lib chiqdi. Navoiy xamsanavis salaflariga ijodiy yondashdi, dostonlarida yashagan tarixiy sharoitning aktual masalalarini mavzu qilib oldi, el-yurt uchun muhim ahamiyatga molik masalalar haqida fikr yuritdi, uning aqlzakovati kelajakka parvoz etib, insonning istiqboliga katta umid bilan boqdi, hayot haqiqati romantik orzu-armonlari bilan chatishdi, qahramonlari umumbashariy xislatlar bilan kamol topdi, yangi-yangi situatsiya, syujet va kompozitsiya, obraz va xarakterlar yaratdi, badiiy so‘z takomilida yangi boblar kashf etdi, o‘zbek adabiy tili istiqboli uchun kurash bayrog‘ini yuksak ko‘tardi. Navoiy «Xamsa»sining ulug‘vorligi, shon-shuhrati va olamshumulligi ham shunda.

“Xamsa” dostonlaridagi muqaddimalar voqelikka shunchaki an‘anaviy kirish bo‘lmay, balki dostonlar mundariyasi uchun ochqich vazifasini ham O‘tardi. Shu ma‘noda muqaddimalarda keltirilgan fikrlarga alohida e‘tibor berish

dostonlar tagzaminida yashiringan ramziy ma'nolarni ochishga yordam beradi. Aynan muqaddimada buyuk mutafakkirning olam va odam, tabiat, kishilik jamiyati, umr va uning mazmuni haqidagi falsafiy-axloqiy qarashlari, ijodkor sifatidagi buyuk salohiyati u qo'llagan badiiy timsollar, tashbeh-u tamsillar vositasida butun bo'ybasti bilan namoyon bo'ladi. O'zbek mumtoz adabiyotining cho'qqisi bo'lgan Alisher Navoiy "Xamsa"si jahon adabiyotining noyob va o'lmas durdonasidir.

#### ADABIYOTLAR

1. O.Madayev "Navoiy suxbatlari", Oqituvchi, -T., 2018.-B158.
2. Юсупова Д. Узбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври), Академнашр, -Т.,2013.-Б. 83,85.
3. Хомидий Х. Ганжалик пир //"Сино" . 2002. №7. -Б31.
4. Донишмандлар тухфаси, Узбекистон.-Т.2009
5. Навоий М.А.Т , "Фан", -Т.1997.-Б.219.
6. Шомухамедов М., Хазидалар жилоси, Гофур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти,-Т.1981.-Б.229.
7. Kholikova, N. (2020). Poetic features of Uzbek poetry of the national awakening period. *Theoretical & Applied Science*, (4), 615-623.
8. Kholikova, N. D. (2020). The period of national awakening in uzbek poetry echo of the treasure voice of the nation. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(06), 4045-4054.
9. Холиқова, Н. (2020). Ўзбек мумтоз адабиётида хотин-қизлар образининг бадий тадрижи (Ширин образи мисолида). *Academic research in educational sciences*, (3)
10. Bertels Ye. E., Nizami i Fizuli, M., 1962;
11. Bertels Ye. E., Navoi i Djami, M., 1965;
12. Hayitmetov A., Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan, T., 1970; 13. Aliyev G., Temi i sujeti Nizami v literaturax narodov Vostoka, M., 1985.

#### FOLKLORNING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TASIRI

D. MAHMUDOVA,

*O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

*Ilmiy rahbar: O'zbek adabiyoti kafedrasi dotsenti Z. Axmedova*

**Аннотация.** Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining yoshlar tabiyasida muhim o'rin tutishi haqida mulohaza yuritiladi. Axloqiy mavzular xalq ertaklari va maqollari asosida tahlil etiladi.

**Калит со'злар:** folklor, ertaklar, maqollar, til odobi, topqirlik, fazilat

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение фольклора в воспитании молодежи. Моральные темы анализируются на основе народных сказок и пословиц.

**Ключевые слова:** фольклор, сказки, пословицы, языковой этикет, добродетель.

**Annotation.** This article examines the importance of folklore in the education of youth. Moral themes are analyzed based on folk tales and proverbs.

**Key words:** folklore, fairy tales, proverbs, language etiquette, virtue.

Insoniyat juda qadim zamonlardan beri turli san'at asarlari vositasida o'z orzu-armonlarini aks ettirib kelgan. Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda ham xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiqlari va maqollari ko'p asrlar davomida muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, xalq hayotini, tarixini va psixologiyasini to'la namoyon etadigan xalq



donoligining nodir yodgorligi bo'lgan maqol va ertaklarda aqliy, axloqiy va nafosat tarbiyasiga katta e'tibor berilgan. Jumladan, o'zbek xalq eposining ulkan namunalari "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi dostonlar, xalq orasida keng tarqalgan ertak, qo'shiq, maqol va topishmoqlar xalq donoligining o'lmas xazinasini hisoblanadi.

Ma'lumki, qadim Turonda inson umumiy axloqining, ma'naviy rasoligining tayanch ustunlaridan biri - nutq odobi fazilat sanalgan. Shuning uchun ham har bir so'zga jiddiy e'tibor berilgan. Har tomonlama voyaga yetgan komil inson yaxshi so'zlay olishi, ya'ni ma'nili, bejirim gapira olishi jamiyatdagi muvozanat va osoyishtalikni belgilovchi asosiy axloqiy mezon hisoblangan. Chunki kishilar o'rtasidagi xushmuomalalik, tavoze, o'ylab so'zlash kabi xislatlar donolikning asl nishonasidir. Mehnatkash xalq orzu qilgan eng go'zal inson-kamtarin insondir. Ko'p gapirish, maqtanchoqlik hamma vaqt qoralangan. "Kamtarga -kamol, manmanga -zavol", "Sen o'zingni maqtama, seni bировlar maqtasin", "Maqtanma g'oz, hunaring oz" kabi maqollarda kamtarin, mehnatkash insonni tarbiyalash g'oyasi ifodalanadi. Shuningdek, "Uch og'ayni botirlar" ertagida ham ota o'z o'g'illariga shunday deb nasihat qiladi: "...Yana uchta narsani aytaman, quloqlaringizga olib, eslaringizdan chiqarmanglar. To'g'ri bo'ling-bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang-hijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang-baxtsiz bo'lmaysiz." [1]. Bu o'rinda ham chol o'g'illariga maqtanchoqlik va dangasalikning zararli illat ekanligi haqida nasihat qiladi. Doimo to'g'ri so'zni aytishga da'vat etadi.

O'zbek xalqi yuksak axloqiy me'yorlarga asrlar osha to'xtovsiz amal qilib kelgan. "Salom ham qarz, alik ham", "Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber", "Qaytib kelar eshigingni qattiq yopma" kabi maqollar shular jumlasidandir. Xalq ertaklarida ham yalmog'iz kampir ertak qahramoniga "Agar saloming bo'lmaganda bir yamlab yutar edim",- deb aytadi. Xalq maqollarida axloqiy sifatlardan bebahra johil kimsalar ayovsiz ravishda fosh etiladi. "Tuyadek bo'y berguncha, tugmadek o'y bersin", O'zi yuzsizning so'zi yuzsiz", "Baxilning bog'i ko'karmas" kabi maqollar uzoq tajribalar asosida qilingan xulosalardir. Ularga amal qilish axloqiy sifatlarning shakllanishida muhim bir vositadir. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq", Sa'diyning "Guliston", Alisher Navoiyning "Hayratul abror", "Mahbub ul-qulub" asarlarida ham til odobiga katta e'tibor berilgan. Bu to'g'risida shunday xalq maqollari yaratilgan: "Qo'l yugurigi oshga, til yugurigi boshga", "Ming eshitib, bir so'yla", "Suvning onasi-buloq, so'zning onasi-quloq", "Oyoq osh keltirar, og'iz tosh", "Og'iz bir, quloq ikki, bir so'zlab tingla qirq ikki", "Tig' yarasi tuzaladi, til yarasi tuzalmas", "Tilingni botir qilmay o'zingni botir qil", "Gap bilguncha ish bil" [2] kabilar. O'zbek xalq ertaklarida ham so'zni o'ylab ishlatishga katta e'tibor berilgan. Ertak qahramoni o'zining donoligi va o'ylab gapirishi, topqirligi va so'zga chechanligi tufayli barcha mushkullarni yechishga muyassar bo'ladi. "Guliqahqah" ertagida ertak qahramoni bola bilan dev o'zaro do'st tutinishadi. Shunda dev odamzotning eng aqlli mavjudot ekanligini nazarda tutib shunday deydi: "...Devlar bilan olishib, surishib, tortishib yenga olmaysan, ular seni bir pastda tilka-pora qilib tashlashadi. Buning uchun aqlni, hiylani ishga solishing kerak. "Qo'l qilolmaganni aql qiladi", degan gap bor. "Ko'z olmaganni aql oladi", degan ham gap bor. Aqlingni ishga sol, hiyla ishlat" [3]. Bu bilan ming qudratli bo'lmasin xudo yaratgan olam sarvari-inson oldida, uning aql-farosati qarshisida barcha yovuz kuchlar tenglasha olmasligini o'qtirish orqali odamzotning aql-idroki ulug'lanadi. Ertakda devlarni yengishning yo'li " ...gap-so'z, hiyla-nayrang, do'q-po'pisa bilan ularni qo'rqitib olishdir" deb aytiladi. Diqqat bilan xalq ertaklarini kuzatsak, ularda bosh qahramon turli to'siqlarni yengishi uchun so'zga chechan va nihoyatda dono, topqirlik fazilatiga ega yigit sifatida namoyon bo'ladi. Xalqimiz bu orqali kerakli so'zni o'z vaqtida topib aytish ham fazilat ekanligini ta'kidlaydi.



Xalq maqollarida ham, ertaklarida ham kishining odobli bo'lishi uchun uni yoshligidan boshlab tarbiyalash kerak degan g'oya ilgari suriladi. "Bolani yoshdan asra, niholni boshdan asra", "Bola aziz, odobi undan ham aziz" kabi maqollar fikrimiz dalilidir. Ertaklarda ham ota o'z o'g'lini to'g'ri tarbiyalash uchun yoshlikdan boshlab ustozga berib ilm va hunar o'rgatiradi. Podsholar esa yurtni boshqaradigan farzand el-yurtga munosib bo'lishi uchun yoshlikdan unga murabbiy tayinlab, ilm olishiga va jangovar san'atni egallashiga, hattoki, hunar o'rganishiga ham jiddiy e'tibor berganlar. Eng e'tiborli tomoni shundaki, ertaklar kishida optimistik-kelajakka ishonch ruhini tarbiyalashga yordam beradi. Demak, xalq maqollari va ertaklarida har tomonlama kamolga yetgan –yuksak ma'naviyatli shaxs egallashi lozim bo'lgan barcha fazilatlar - qahramonlik, vatanparvarlik, do'stlik, mehnatsevarlik, mardlik, insoniylik, to'g'rilik, rostgo'ylik va ilm-hunar ulug'lanadi. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish inson tarbiyasida muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash zarurki, bugungi yoshlar chuqur bilimga ega, salohiyatli va keng dunyoqarash sohiblaridir. Ular jamiyatning har bir sohasida faol ishtirok etmoqda. Mana shunday salohiyatga ega bo'lishida shubhasiz xalq og'zaki ijodining ham o'rni mavjud. Chunki yoshligidan boshlab ertak tinglagan va o'qigan, xalq maqollarining mag'zini chaqishga harakat qilgan bu yoshlar ota-bobolarimizning urf-odatlarini, asrlar osha yetib kelgan qadriyatlarini ulug'lagan holda ajdodlarga munosib vorislar sifatida tarbiyalanadilar.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. O'zbek xalq ertaklari. Toshkent, 1990. 94-bet.
2. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. Toshkent. 1990.
3. Guliqahqah. Sehrli ertaklar. VI kitob. Toshkent, 1988, 11-bet.

### **USMON AZIM BALLADALARIDA TAKROR**

*Saodat SA'DIYEVA,  
SamDU talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada Usmon Azim balladalarida takrorlarning qo'llanishi va o'ziga xosligi haqida so'z yuritilgan. Takrorlarning shoir individual uslubini ko'rsatishdagi o'rni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ballada, takror, alliteratsiya, gorizantal alliteratsiya, vertikal alliteratsiya, evfonika, anafora, epifora.

**Аннотация.** В статье говорится об использовании и уникальности повторов в балладах Усмана Азима. Анализируется роль повторов в проявлении индивидуального стиля поэта.

**Ключевые слова:** баллада, повтор, аллитерация, горизонтальная аллитерация, вертикальная аллитерация, эвфоника, анафора, эпифора.

**Annotation.** The article talks about the use and uniqueness of repetitions in Usman Azim's ballads. The role of repetitions in showing the poet's individual style is analyzed.

**Key words:** ballad, repetition, alliteration, horizontal, vertical, euphonic, anaphora, epiphora.

Shoir qalbi dashtdek keng, tog'dek yuksak, daryodek toshqin bo'ladi. Faqatgina shoirlar inson ruhining oniy iztiroblari-yu quvonchlarini satrlar qatiga jo eta oladi. Adabiy turlarning eng nozigi lirikaning qay bir janrida qalam tebratilmasin, inson ko'nglida mavj uradigan inja tuyg'ular tarannum etiladi. Jumladan, syujetliligi bilan ajralib turadigan balladalar haqida ham shunday fikr aytish mumkin.

Ballada (gr.balare so‘zidan fr.baler so‘zi kelib chiqqan, ma’nosi: 1) “tovushga taqlid qilish, masalan, ma’rash”; 2) “raqsga tushish”) janrdagi bosh xislat – kutilmagan syujet (voqea)ning kutilmagan xotima bilan tugashiga, qahramon qalb kechinmalari va ruhiyatining dramatik izhoriga bag‘ishlangan asardir [2.291]; to‘g‘rirog‘i, undagi epik va lirik holat – davr va qalb dramasi kashfi birlashib, qalb faryodi izhoriga aylanganda ballada tug‘iladi. Ballada mavzusida gapirilar ekan, O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azimni tilga olmaslikning iloji yo‘q. Shoir inson iztiroblarini tasvirlashda buyum va jihozlardan ramz-timsol sifatida ustalik bilan foydalanadi. Usmon Azim balladalaridagi tabiat tasviri betakrorligi bilan e’tiborga molik bo‘lsa, tasvirlayotgan voqea-hodisaning nazarda tutilgan tomoniga o‘quvchining diqqatini tortish, uni bo‘rttirib ko‘rsatish uchun yoki ma’lum narsalarni sanab ko‘rsatish niyatida ko‘proq tovush yoki tovushlar birikmasi, so‘z va so‘z birikmalariga, gaplarga ataylab alohida urg‘u beradi, takrorlaydi. Bunday holat esa hech bir o‘quvchining diqqatidan chetda qolmaydi. Usmon Azim takrordan o‘ziga xos tarzda foydalana olgan ijodkorlardan biri hisoblanadi.

Badiiy nutqning ohangdorligi va ta’sirchanligini ta’minlashda takrorning o‘rni beqiyosdir. She’riy nutqda misralar, undagi so‘zlar hamda bo‘g‘inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo‘llanishiga *alliteratsiya* deyiladi [1.20]. Tovushlar musiqiylikiga asoslangan bu usul qadimdan Sharq she’riyatida keng qo‘llanilib kelingan. Shoir Usmon Azim balladalarida ham alliteratsiya san’ati qo‘llanganligini bir necha o‘rinlarda ko‘ramiz. Hatto bu usul shoir “Ballada”sida his-hayajonini ifodalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yuragim yonidan jimgina o‘tdilar.

Qichqirdim:

– Hey, qarang, yuragim bor, mana!

– Dushman! – dedilar ular.

– Dushman, – dedilar

(o‘ylab o‘tirmay). [3.231].

Bizga ma’lumki alliteratsiya ahamiyatli so‘zni ajratib, bo‘rttirib ko‘rsatadi, unga e’tiborni tortadi. Uni alohida o‘ziga xos qilib talaffuz qilishga undaydi. Alliteratsiyaning bu xususiyatidan shoir Usmon Azim o‘zning “Birinch ballada”sida ham mohirona foydalana olgan.

**Ketgim kelmayapti, akalar, ketgim.**[3.248]

Shoir o‘z misralari musiqiylikini oshirish maqsadida ohangdoshlikni *gorizontal* va *vertikal* yo‘nalishidagi chiziqalarda ham yaratdi. Bu esa o‘z-o‘zidan alliteratsiyaga murojaat qilishga olib keladi. Shoirning “To‘qqizinchi ballada”sida ham *gorizontal* va *vertikal* yo‘nalishdagi chiziqalar yaratilgan.

Tiniq-tiniq to‘lqinlar oqsa,

Tashvishingning xatoligi shu.

To‘lqinlarni qizil qon yoqsa,

Mening umrim adoligi shu.[3.263]

Ma’limki, she’riy nutqni sochma nutqdan asosan, vazn va qofiya ajratadi. Odatdagi qofiya misralar aro bo‘ladi. Uning chizig‘i *vertikal* yo‘nalish bo‘ylab o‘tadi. Ijodkorning “Birinch ballada”sida ham aynan *vertikal* yo‘nalish bo‘ylab o‘tganini va anaforani ko‘rishimiz mumkin.

Yugurdim – balandga o‘rladi qalbim,

Yugurdim – qanotga aylandi qo‘llar.

Yugurdim – eshitib zamonning zarbin,

Yugurdim – balandga ko‘tardi yo‘llar.

Yuksakka chiqing!

Yuguring – siz bilan yuksalsin hayot! [3.250].

Ikkala ko‘rinishdagi alliteratsiyani bir bandda kelishini ham shoir balladalarida kuzatishimiz. Aynan, “O‘n uchinchi ballada”ning ayrim bandlarida ikkala ko‘rinishning kelgan holatlarni uchratishimiz mumkin.

Yoriltosh, Yoriltosh!

Yolg‘iz qoldi g‘arib bosh.

Yoril, bag‘ringga kiray-

Yorilgin tosh! Yoril! Yoril! [3.271].

Shoirning balladalarida tovushlar takroridan tashqari so‘z takrorini ham ko‘rishimiz mumkin. Usmon Azim balladalarida ko‘proq *anafora* (misra boshida so‘z takrori) va *epifora* (misra oxirida so‘z takrori)ning kelganligini kuzatishimiz mumkin. Shoirning “Sevgi haqida ballada”sidagi so‘z takrori qahramonning o‘z-o‘zini taftish qilishi va ichki his-tuyg‘usini ochishga xizmat qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

**Menga** nima kerak zaminda? Axir,

**Menga** nima kerak tashvishli olam!

**Meni** sudrab borar musiqa – g‘ovur,

**Meni** quchog‘iga olar restoran. [3.113].

Anaforaning qo‘llanishini shoirning “To‘qqizinchi ballada”sida ham ko‘rishimiz mumkin.

**Sen** ketasan: yo‘ling – xatarli,

**Sen** ketasan: manziling yiroq.

**Men** ketaman: yo‘llarim – tuman,

**Men** ketaman: saratonim – qish.

**Sensiz** ketdim – topmadim murod,

**Sensiz** ketdim – chalkashdi yo‘lim. [3.263]

“To‘rtinchi ballada”da esa anafora ta’sirchanlikni oshirish vositasi bo‘lib xizmat qilgan:

**Jonim**, ochman,

**Jonim**, holim tang...

**Qora botir**-qurumsoq egam,

**Qora botir**-marhamatsiz er! [3.255].

Bu balladada misra oxiridagi so‘z ham takror kelib so‘zning ma’nosini kuchaytirib, ta’kidlab kelganligini ko‘rishimiz mumkin:

Ko‘zing – **gavhar**

Eng asl – **gavhar** [3.255].

Qora botir

Qop-qora botir! [3.256].

Xullas, takror she’riyatda uchraydigan sintaktik figuralardan biri bo‘lib, shoir maqsadini ochishda o‘ziga xos stilistik funktsiya bajara olgan. Usmon Azim she’rlarida obrazlilik, ta’sirchanlik, shakliy yaxlitlik kabi xususiyatlarni vujudga keltira olgan.

#### ADABIYOTLAR:

1. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006.
2. Умутов Х. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент, 2004.
3. Усмон Азим. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1995.

## ПОСЛОВИЦЫ С ФИТОНИМАМИ КАК ОБЪЕКТ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ

Самарабону Учкун кизи **БАРНОЕВА**,

*Бухарский институт управления природными ресурсами национального  
исследовательского университета Ташкентского института инженеров  
ирригации и механизации сельского хозяйства*

**Аннотация:** В статье рассмотрены различные аспекты использования растений в качестве символов в пословицах, включая культурные, социальные, религиозные и мировоззренческие аспекты.

**Ключевые слова:** пословица, фитоним концепция, символ, метафора, аспект.

**Abstract:** The article examines various aspects of the use of plants as symbols in proverbs, including cultural, social, religious and ideological aspects.

**Key words:** Proverb, phytonym concept, symbol, metaphor, aspect.

**Annotatsiya:** Maqolada o‘simlik nomlarning maqollarda timsol sifatida qo‘llanilishining turli jihatlari, jumladan, madaniy, ijtimoiy, diniy va mafkuraviy jihatlari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Maqol, fitonim tushunchasi, timsol, metafora, jihat.

Пословицы с фитонимами - это пословицы, в которых употребляются названия растений, как символы или метафоры для передачи определенных идей и концепций. Пословицы с фитонимами являются частью фольклорного наследия различных культур. Они могут отражать многовековую историю и культуру народов, использующих эти пословицы. В посевных пословицах фитонимы используются для передачи знаний о сельском хозяйстве и о том, как лучше выращивать и ухаживать за растениями. В литературных произведениях, фитонимы часто используются как символы для передачи определенных концепций, таких как красота, сила, уязвимость, нежность и т.д.

Фитонимы также могут использоваться в метафорическом смысле для передачи определенных эмоций или настроений. Например, в русской литературе часто используется метафора "как калина красна" для описания красоты и привлекательности. Некоторые пословицы с фитонимами имеют универсальный характер и могут быть использованы в различных культурах и странах. Например, пословица "каково дерево, таков и плод" используется в различных культурах для передачи идеи о том, что результат зависит от качества начального материала. Так же фитонимы используются для создания игр слов и смешных ситуаций. В целом, пословицы с фитонимами являются важной частью культурного наследия различных народов и могут быть использованы для передачи различных концепций, идей и настроений.

Пословицы с фитонимами имеют большое значение в лингвокультурологии так как они отражают культурные и языковые особенности народов, использующих эти пословицы. Вот некоторые лингвоскультурологические аспекты, связанные с пословицами с фитонимами:

-Пословицы с фитонимами могут отражать растительный мир определенной страны или региона. Например, в японской культуре широко используются пословицы с названиями цветов и деревьев, таких как "как вишневый цвет весной" или "как вяз на поляне". Эти пословицы отражают особенности растительного мира Японии.

- В различных культурах некоторые фитонимы имеют разное значение и символическое значение. Например, в западной культуре роза считается символом любви и страсти, в то время как в исламской культуре она может символизировать благоухание и красоту. Некоторые фитонимы имеют разные названия в различных языках и культурах. Например, русская "береза" в английском языке называется "birch", в узбекском «qayin» а в немецком языке - "birke".

- В лингвокультурологии особое внимание уделяется метафорическому использованию фитонимов в пословицах. Метафоры, основанные на фитонимах, могут отражать особенности культуры и мировоззрения народа, использующего эти метафоры. Например, в русской культуре широко используются метафоры, связанные с "кленом", который может символизировать силу и устойчивость.

- В лингвокультурологии также изучаются различные трансляционные проблемы, связанные с переводом пословиц с фитонимами на другие языки. Некоторые пословицы могут иметь метафорическое значение, которое не всегда может быть передано точно в переводе.

- Пословицы с фитонимами также могут отражать различные аспекты культуры, такие как религиозные, социальные и моральные нормы.

Пословицы с фитонимами представляют собой интересный объект исследования в области лингвокультурологии. Они отражают культурные, языковые, религиозные и мировоззренческие особенности народа, использующего эти пословицы. Анализ пословиц с фитонимами может дать ценную информацию о культуре и языке определенного народа.

Таким образом пословицы с фитонимами может содержать следующие элементы:

1. Краткое изложение содержания пословицы с фитонимом.
2. Уточнение значения и символического значения фитонима, используемого в пословице.
3. Обоснование важности изучения пословиц с фитонимами в контексте лингвокультурологии.
4. Рассмотрение культурных, социальных, религиозных и мировоззренческих аспектов, связанных с использованием пословиц с фитонимами.
5. Анализ метафорического использования фитонимов в пословицах.
6. Рассмотрение различных трансляционных проблем, связанных с переводом пословиц с фитонимами на другие языки.
7. Предложение возможных направлений дальнейших исследований в области лингвокультурологии, связанных с использованием пословиц с фитонимами.

#### **ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Антонова, Н.А. Фитонимические единицы в пословицах русского языка / Н.А. Антонова // Вестник Томского государственного университета. – 2008. – № 314. – С. 68-71.
2. Голованова, А.В. Фитонимические единицы в русских пословицах и поговорках: лингвокультурологический аспект / А.В. Голованова // Известия Южного федерального университета. Филологические науки. – 2011. – № 2 (215). – С. 36-41.
3. Дарденской, А.И. Фитонимические единицы в современном русском языке и их роль в формировании языковой картины мира / А.И. Дарденской // Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств. – 2010. – № 2 (22). – С. 49-55.
4. Кондратова, Н.В. Фитонимические единицы в английских пословицах и их перевод на русский язык / Н.В. Кондратова // Вестник Липецкого государственного педагогического университета. – 2013. – № 3 (35). – С. 147-151.



5. Мальцева, И.А. Фитонимические единицы в языковой картине мира русских и французов / И.А. Мальцева // Вестник РГГУ. Серия "Филологические науки". – 2009. – № 3 (57). – С. 19-28.
6. Соколова, Н.Н. Фитонимические единицы в русских пословицах и поговорках / Н.Н. Соколова // Русский язык за рубежом. – 2009. – № 2. – С. 140-146.
7. Терентьева, О.Ю. Фитонимические единицы в английских и русских пословицах: лингвокультурологический аспект / О.Ю. Терентьева // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия "Лингвистика". – 2012. – № 3. – С. 119-123.

**4-SHO‘BA**  
**ZAMONAVIY FILOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI**

---

**ISHTIQOQ SAN‘ATIDA SHAKL VA MA‘NO UYG‘UNLIGI**

***Rano Norboyevna YUSUBOVA,***

Navoiy innovatsiyalar universiteti professori, f.f.d. (DSc)

**Annotatsiya.** Maqolada Alisher Navoiyning badiiy mahorati tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** she‘r, mumtoz adabiyot, sinonim, turkiycha so‘z, forscha so‘z, arabcha so‘z.

**Аннотация.** В статье анализируется художественное мастерство Алишера Навои.

**Ключевые слова:** поэзия, классическая литература, синоним, турецкое слово, персидское слово, арабское слово.

**Annotation.** The article analyzes the artistic skills of Alisher Navoi.

**Keywords:** poetry, classical literature, synonym, Turkish word, Persian word, Arabic word.

She‘riy san‘atlar mumtoz adabiyotimizda qofiya ilmi kabi alohida ilm sifatida o‘rganib kelingan. Bu ilm arablarda “balog‘at ilmi”, forsiy va turkiylarda “ilmi sanoye” – san‘at ilmi deb o‘rganilgan. She‘riy san‘atlar lafziy san‘atlar, ma‘naviy san‘atlar va lafziy-ma‘naviy san‘atlar tavsifiy guruhlari bo‘yicha o‘rganiladi. Ma‘lumki, lafziy san‘atlar she‘riy nutqdagi so‘zning tovushi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘proq shakl hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo uning ham o‘z shartlari mavjud. “Bilginki, lafziy go‘zalliklarning asosi uldurkim, alfozni ma‘noga tobe qilg‘aylar”, - deb ta‘kidlaydi Atoulloh Husayniy.

Alisher Navoiy asarlarida ishtiqoq lafziy san‘atidan keng foydalanganlikni ko‘rish mumkin. “Ishtiqoq (so‘zdan so‘zni ajratmoq) – she‘r baytlarida o‘zakdosh so‘zlarni qo‘llash san‘atidir”<sup>1</sup>, ishtiqoqni qo‘llashdan maqsad o‘zakdosh so‘zlarni shunchaki keltirib she‘rga bezak berish emas, bunda o‘zakdosh so‘zlar orasidagi ma‘no aloqadorligi asosida mazmuni tiniq va teran, xushohang ifodalash kabi muhim estetik samaralar ko‘zlanadi.

“Do‘st tutilgan shaxs” ma‘nosini beruvchi o‘zbek tilidagi *o‘rtoq* turkiycha so‘zining forscha *do‘st*, *oshno*, *hamdam*; arabcha *rafiq*, *muhib*, *harif*, *habib*, *mahbub*, *anis* kabi sinonimlari xususida shunday deyish mumkin. Ot turkumiga mansub *o‘rtoq* so‘zi qadimgi turkiy til davridan buyon qo‘llanib, “...asli fe‘l asosiga *-q* qo‘shimchasini qo‘shib yasalgani shubhasiz, lekin “teng holatda bo‘l-” ma‘nosini anglatgan **orta** fe‘li mavjud bo‘lganini tasdiqlovchi dalil manbalarda yo‘q”<sup>2</sup>. Bu xususda E.V.Sevortyan lug‘atida ham keltirilgan<sup>3</sup>. *O‘rtoq* so‘zining forscha sinonimlaridan *do‘st* (دوست) so‘zi “shafqatli o‘rtoq, yor, oshno, mahbub(a)” etimologik ma‘nosini anglatadi<sup>4</sup>, *oshno* (أشنا) so‘zi “tanish”, “o‘rtoq” ma‘nolarini anglatadi<sup>5</sup>, *hamdam* (همدم) so‘zi ham “ulfat, birga yuruvchi; o‘rtoq, do‘st” ma‘nolarini anglatadi<sup>6</sup>. Shuningdek, *o‘rtoq* so‘zining arabcha sinonimlaridan *rafiq* (رفيق) so‘zi “yo‘ldosh;

<sup>1</sup> Hojiahmedov A. She‘riy san‘atlar va mumtoz qofiya. –T., 1998. – B. 83.

<sup>2</sup> Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (Turkiy so‘zlar). – Toshkent: Universitet, 2000. – B. 489.

<sup>3</sup> Sevortyan E.V. Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazykov (obshchetyurkskie i mejtyurkskie osnovy na glasnye). – Moskva: Nauka, 1974. – S.476-477.

<sup>4</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 1-jild. – Toshkent: O‘zME, 2006. – B.677.

<sup>5</sup> Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (Forscha, tojikcha birliklar va ular bilan hosilalar). – Toshkent: Universitet, 2009. – B.176.

<sup>6</sup> Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972. – B.763.

sherik, o'rtoq, do'st; ma'shuq, mahbub" ma'nolarini anglatadi<sup>1</sup>, *muhib* (محب) so'zi "sevuvchi, do'st tutuvchi" ma'nolarini anglatadi<sup>2</sup>, *harif* (حريف) so'zi "o'rtoq, sherik, ulfat" ma'nolarini anglatadi<sup>3</sup>, *habib* (حبيب) so'zi "sevikli, do'st" ma'nolarini anglatadi<sup>4</sup>, *mahbub* (محبوب) so'zi "sevgili; ma'shuqa; do'st" ma'nolarini<sup>5</sup>, *anis* (انيس) so'zi "ulfat; do'st, yaqin, o'rtoq; oshna" ma'nolarini anglatadi<sup>6</sup>.

Navoiy lirik qahramonga (yor) murojaat qilganda, uni tavsiflaganda turkiy tilda mavjud an'anaviy ifodalarni emas, ko'pincha arab, fors tilidan o'zlashgan leksemalarga murojaat qiladi va ikki qaytariqning oldini oladi. Birinchidan, oddiy takrordan xalos bo'ladi, ikkinchidan, poetizmni ishtiyoq san'atiga asoslangan holda qo'llab poetik timsolning bo'rtib turishiga, fon bo'yoqdorligiga erishadi. *Muhib*, *mahbub*, *habib* variantlari ishtiyoq sanalib, shu boisdan Navoiy ushbu so'zlarni nisbatan ko'p qo'llaydi. Shoir "Ey habib" radifli g'azali matla'sida "sevikli" ma'nosida *muhib*, *mahbub*, *habib* arabcha sinonimlarini ketma-ket leksik ortiqchalik asosida qo'llab, yuqorida aytilgan maqsadga erishgan, deb hisoblash mumkin, masalan:

*Haq o'zin qildi muhib sen oyni mahbub, ey habib,  
Ul muhibqa sen kibi mahbub erur xo'b, ey habib.*

Keyingi baytda ham yuqorida keltirilgan o'zakdoshlar bilan bir qatorda, mazmun bilan aloqador ravishda ularning boshqa bir o'zakdoshi ham qo'llanilgan:

*Bo'lsalar ahli muhabbat har kishining tolibi,  
Bizga sendursen iki olamda matlub, ey habib.*

Baytda *muhabbat*, *habib* so'zlari bilan bir qatorda, *tolib*, *matlub* so'zlari (*tolib* va *matlub* keng ma'noda qo'llanadi. Bu o'rinda *tolib* "istak", *matlub* esa "istalgan" ma'nosidadir) vositasida yana bir ishtiyoq san'ati qo'llangan. Muhabbat ahlidan bo'lishlik har bir kishining mayli, istagi bo'lsa, biz uchun ikki olamda istalgan sendursan, ey sevikli, deydi shoir. Baytda ishtiyoq san'atining qo'sh qo'llanishi badiiy mazmun qamrovi sababi bilan yuzaga kelgan.

*Har kishi ahbobing ichrakim o'zin aylar hisob,  
Bermayin jon ul muhibqa qayda mahsub, ey habib.*

*Ahbob habib* so'zining ko'pligi bo'lib, "seviklilar" ma'nosini beradi, bu o'rinda baytda *ahbob*, *muhib*, *habib* so'zlari ishtiyoq san'atini shakllantirgan. Shoir nazdida, har bir kishi o'zini seviklilar qatorida deb biladi, kishi seviluvchi (*muhib*) uchun jon bermay turib o'zini qanday shu qatorga mansub deb hisoblashi mumkin, ey sevikli, deya murojaat etadi. Shu o'rinda e'tibor berilsa, *hisob* va *mahsub* so'zlari ham ishtiyoq sanaladi, mahsub so'zi "hisoblanmoq" ma'nosini beradi, ya'ni hisob o'zagidan yasalgandir. Natijada baytda tovushlar uyg'unligi, ohangdoshlik ravon o'qilishni ta'minlabgina qolmasdan, badiiy mazmun bilan bir butunlikni kasb etgan.

Uchinchi baytda ham ishtiyoq san'ati g'azalda ifodalanishi ko'zda tutilgan badiiy mazmunni rivojlantirishga xizmat qildirilgan:

*Bir sari mo'olam ahli bug'zidin parvoyi yo'q,  
Aylagan o'zni sening hubbungga mansub, ey habib.*

Baytning ikkinchi misrasida o'zakdosh so'zlarning yana biri – *hubb* so'zi qo'llanilib "sevish" degan ma'noni anglatadi va bu o'rinda *habib* so'zi bilan ishtiyoq san'atini yuzaga

<sup>1</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 3-jild. – Toshkent: O'zME, 2007. – B.357.

<sup>2</sup> Shamsiyev P., Ibrohimov S. Ko'rsatilgan manba. – B.440.

<sup>3</sup> Hasanov B. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. – Toshkent: Fan, 1993. – B.367.

<sup>4</sup> Shamsiyev P., Ibrohimov S. Ko'rsatilgan manba. – B.757.

<sup>5</sup> Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik. 1-tom. / E.Fozilov tahriri ostida / – T.: Fan, 1983. – B.286.

<sup>6</sup> Shamsiyev P., Ibrohimov S. Ko'rsatilgan manba. – B.52.

keltirgan. Baytdan esa quyidagi mazmun anglashiladi: Bunday insonlarning tanasidagi har bir tola uchun dushmanlik (bug‘z) ahamiyatsiz, ular o‘zini faqat seni sevishga mansub deb bilganlardir, ey sevikli, deya murojaat etadi.

Ma‘lumki, *ahbob, muhib, habib, mahbub, muhabbat* so‘zlarining o‘zagi «hibba» o‘zagidan yaralgan so‘z bo‘lib, «ustiga tuproq tortilgan urug‘» ma‘nosini anglatadi. Hayotning asli va asosi ana shu urug‘da bo‘lganidek, diniy, ma‘naviy va ruhoni hayotning urug‘i, ildizi va daraxti ham muhabbatdir”<sup>1</sup>.

G‘azalning Maqtasiga diqqat qaratamiz:

*Chun muhabbat ahliga toat hunardur, rahm qil,*

*Kim Navoiy keldi ul xayl ichra ma’yub, ey habib.*

Muhabbat (ishq) ahli uchun itoat qilish (toat) kasbdir, vojibdir, rahm qil, netayki, el ichida aybdor Navoiy ham bor, ey sevikli, deya shoir fikriga nuqta qo‘yadi. E’tibor berilsa, Alisher Navoiy murojaatlarida komillikning mohiyati ochib berilgan, g‘azalda ilohiy muhabbat obrazlashtirilgan holatda tarannum etilgan va ishtiyoq san’ati orqali badiiy kamolotga yetkazilgan.

## “ДЕМОҚ” ФЕЪЛИНИНГ ВАЛЕНТЛИКЛАРИ АСОСИДА СЕМАНТИК МАЙДОНГА БИРИКИШИ

*Эркин Халилович МУСАЕВ,*

*Навоий давлат педагогика институти катта ўқитувчиси*

**Аннотация:** Мақолада “демоқ” нутқ феълининг синтагматик бирикувчанлик валентликлари ва уларнинг актантлари тадқиқ этилади. Бунда асосий нутқ феълларидаги контекстуал бирикувчанлик хусусиятлари орқали семантик майдонлар ҳосил бўлиши тавсиф этилди.

**Калит сўзлар:** семантика, парадигматика, синтагматика, актант, валентлик.

**Аннотация:** В статье изучаются валентности синтагматических союзов речевого глагола «сказать» и их актантов. Описано формирование семантических полей через особенности контекстного спряжения основных речевых глаголов.

**Ключевые слова:** семантика, парадигматика, синтагматика, актант, валентность.

**Annotation:** The article examines the valences of syntagmatic conjunctions of the verbal verb "to say" and their actants. The formation of semantic fields through the features of contextual conjugation of the main speech verbs is described.

**Keywords:** semantics, paradigmatics, syntagmatics, actant, valence.

Ҳозирги ўзбек тилидаги демоқ лексемаси ўзининг бош маъносида уч актантли вазиятни кўрсатиши маълум[1.23-41]:

1) нутқ амали бажарувчиси (демоқ феълининг агенс валентлиги),

2) нутқ амалининг ўзи (демоқ феълининг мазмун валентлиги)

3) нутқ амали қаратилган шахс (демоқ феълининг адресат валентлиги).

Бу семантик модель ёлғиз демоқ феълининг специфик модели эмас, албатта.

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. МАТ. 17-том. Nasoyimul muhabbat. –Т., 2001.504-б.

Кўрсатилган валентликлар ўзбек тилидаги нутқ феълларининг кўпчилигига хосдир. Масалан, *гапирмоқ, сўзламоқ, айтмоқ феълларида сўзловчи (ким), тингловчи (кимга)* ва мазмун (нима тўғрисида) тасаввурлари мавжуд эканини пайқаш қийин эмас. Валентликларнинг сони жиҳатидан демоқ феъли ўзбек тилидаги бошқа нутқ феълларидан принципиал фарқ қилмайди[2.16-34].

Бу феълнинг ўзига хос хусусияти валентликларнинг характери ва уларнинг ифодаланиш йўсинида намоён бўлади. Биз биламиз, ўзбек тилидаги кўпчилик нутқ феълларининг мазмун (объект) валентлиги **гап, нутқ** типидagi отлар ёки отлашган феъл конструкциялар воситасида реаллашади: **гап гапирмоқ, нутқ сўзламоқ, ўқишга кирганини айтмоқ** каби. Лекин демоқ феълнинг учинчи валентлиги бу тарзда реаллашмайди. Бу феълнинг учинчи валентлиги ҳозирги ўзбек тилида фақат кўчирма гап шаклида реаллашади: **Карим دادасига: «Мен ўқишга кирдим»,— деди** каби.

Шуни айтиш керакки, эски ўзбек адабий тилида демоқ феъли валентликларининг реаллашуви ҳозирги ўзбек тилидан фарқ қилган. Бу феълнинг учинчи валентлиги кўчирма констукциялар воситасидагина эмас, балки бошқарилмиш воситасида ҳам реаллашган.

Масалан:

**Оғизга келгани демак нодон иши ва олдига келганини емак ҳайвоннинг иши; Оқил чиндан ўзга демас, аммо барчани чинни ҳ а м демак о қ и л и ш и э м а с** (А. Навоий, «Маҳбубул- кулуб»дан). Эски ўзбек адабий тилида, сўз **айтмоқ** типидagi бирикмалар қанчалик табиий бўлган бўлса, сўз **демоқ** типидagi бирикмалар ҳам шунчалик табиий ва ўринли бўлган. Лекин бундай кўлланишлар ҳозирги ўзбек адабий тилида деярли учрамайди. Ҳозирги тилда «бир нима **дегин** ; ҳеч нарса **демади**» типидagi кўлланишларда кўчирма конструкция ўрнида олмош (бир нима, ҳеч нима) ишлатилганини пайқаб олиш қийин эмас. Демак, бу хил кўлланишларда ҳам демоқ феълнинг учинчи валентлиги кўчирма конструкция воситасида ифодаланади[3.12-45].

Нутқ феъллари маънолари системасида нутқ фаолияти семантик майдони ифодаланиш маълум. Нутқ фаолияти деганда биз умумлашган, мавҳум нутқни эмас, балки конкрет нутқ амалини, кимнингдир гапини кўзда тутамиз. Шунинг учун нутқ феъллари, хусусан демоқ феъли семантикаси изоҳида икки нутқ турини фарқлаш мақсадга мувофиқ бўлади: 1) изоҳланувчи нутқ, 2) изоҳловчи нутқ. Булардан биринчиси изоҳ объекти, предмети ролини ўйнаса, иккинчиси изоҳ воситаси, қуроли ролини ўйнайди. Бу маънода нутқ феъллари изоҳланувчи нутқ (объект нутқ, предмет нутқ) ва унинг унсурлари номлари вазифасини бажаради. Сўзловчи бу феъллар воситасида изоҳланувчи нутқни тавсифлайди, унинг содир бўлган-бўлмаганлиги, ўзига хос хусусият-белгилари ҳақида хабар, маълумот беради. Абдулла Қаҳҳор асарларидан олинган қуйидаги гапларда ишлатилган нутқ феълларининг семантикасини ўзаро таққослаб кўрайлик:

1) **Ҳамида биологиядан... бу ўқиш йилида яна нималар ўтилажганини** сўзлаб берди... (I том, 105-бет)



2) *Наимжон... « Бу ўтириш катта тўйнинг деб о ч а сиз »* деди... (VI том, 86-бет). Бу гапларда ишлатилган иккала нутқ феъли автор баёни (ёзувчи нутқи)га тегишли. Бошқача қилиб айтганда, бу сўзлар изоҳловчи нутқ унсурлари қаторига киради. Уларда бошқа нутқлар (изоҳланувчи нутқлар) ҳақидаги информация ифодаланган: сўзлаб бермоқ феъли Ҳамиданинг нутқи ҳақида, демоқ феъли эса Насимжоннинг нутқи ҳақида маълумот беради. Бу жиҳатдан сўзлаб бермоқ ва демоқ феъллари ўзаро фарқланмайди. Бу феъллар орасидаги принципиал фарқ, юқорида

айтилганидек, уларнинг учинчи валентлиги реализациясида намоён бўлади. Келтирилган мисолларнинг биринчиси Ҳамида поччасига биологиядан ўтиладиган дарслар ҳақида гапириб берганини кўрсатади. Лекин бу хабардан биз Ҳамида конкрет қандай гаплар, сўзлар айтганини билолмаймиз. Бунинг сабаби шундаки, ҳозирги ўзбек тилидаги **сўзламоқ (сўзлаб бермоқ)** каби нутқ феълларининг учинчи валентлиги нутқ амали тасавури билан эмас, балки нутқ амали ҳақидаги информация тасавури билан боғланади.

Шунинг учун бу валентлик нутқ амали ҳақидаги информацияни билдирувчи сўзлар воситасида реаллашади. Юқоридаги гапда **сўзлаб бермоқ** феълининг учинчи валентлиги биологиядан... **бу ўқиш йилида яна нималар ўтилажаги** бирикмасида реаллашган. Ҳозирги ўзбек тилидаги **демоқ** феълининг нутқда қўлланиши бошқача хусусиятга эга. Бу феълнинг учинчи валентлиги нутқ амали тўғрисидаги информация тасавури билан эмас, балки нутқ амали тасавури билан боғланади[4.31-44].

Шунинг учун унинг учинчи валентлиги изоҳланувчи нутқнинг ўзи билан (яъни кўчирма конструкция билан) ифодаланади. Демоқ феълининг учинчи валентлигини реаллаштирувчи гап ёки сўз (кўчирма конструкция) изоҳловчи нутқда тўлиқ келтирилгани учун, изоҳланувчи нутқнинг характери, мазмуни, ҳажми каби хусусиятлари мазкур гап ёки сўзнинг ўзидан англашилиб туради. Бу ҳол демоқ феъли лексик маъносининг ғоят мавҳум, умумий тус олишига сабаб бўлган[5.67-81].

#### Адабиётлар

1. П и н х а с о в Я. Ҳозирги замон ўзбек тили лексикаси. Тошкент, 1960
2. Р а ҳ м а т у л л а е в Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. Тошкент, 1966.
3. Р а ҳ м а т у л л а е в Ш. Нутқимиз кўрки. Тошкент, 1970.
4. М. С о д и қ о в а. Нутқ феъллари, «Ўзбек тили ва адабиёти», 1975, 2-сон.
5. Қ ў ч қ о р т о е в И. Сўзларнинг лексик-семантик тўдалари ҳақида. «ТошДУ илмий асарлари», 359-чиқиши, 1969.; Қ ў ч қ о р т о е в И. Тилнинг луғат системасини ўрганишининг бир йўли тўғрисида. «Ўзбек тили ва адабиёти», 1972, № 3.

## КЎПЛИК ГРАММАТИК КАТЕГОРИЯСИНИНГ ПРАГМАТИК АСПЕКТИ

*Барно Мўминжоновна МУСАЕВА,*

*Навоий давлат педагогика институти ўқитувчиси*

**Аннотация.** Мақолада от сўз туркумининг стилистик хусусиятлари тавсифида, улардаги кўплик, эгалик, категориялари ва модал оттенкалари шаклланишида прагматик аспект(воздействие) нутқда таъсир этиш жараёнлари тадқиқ этилади. Тарихий тараққиёт жараёнида бу категориялар баъзи бир кўрсаткичлари эскирган, муомалада эскирганлари ўрнида янги шаклларнинг қўлланиши натижасида турли хил параллеллар, вариантлар майдонга келганлиги ҳам тавсиф этилган.

**Калит сўзлар:** грамматик кўплик категорияси, прагматик аспект, грамматика ва прагматиканинг муносабати масалалари.

**Аннотация.** В статье исследуются процессы воздействия в речи прагматического аспекта в описании стилистических особенностей метафоризации слов, формировании в них множества, владений, категорий и модальных оттенков. Описано также, что в процессе исторического развития некоторые показатели этих категорий устарели, в результате применения в обороте новых форм на место устаревших пришли различные параллели, варианты.

**Ключевые слова:** грамматическая категория множеств, прагматический аспект, вопросы отношения грамматики и прагматики.

**Annotation.** The article explores the processes of influence in speech of a pragmatic aspect in describing the stylistic features of metaphorization of words, the formation of a set, possessions, categories and modal shades in them. In the process of historical development, it is described that as a result of the use of new forms in place of outdated, outdated words in the circulation of these categories appeared various parallels, options in speech.

**Keywords:** grammatical category of sets, pragmatic aspect, issues of grammar relation and pragmatics.

Ўзбек тилида бирдан ортиклик–кўплик маъноси морфологик, лексик-семантик ва стилистик йўллар билан ифодаланиши ҳозиргача бўлган лингвистик адабиётларда ўз аксини топган. Бу лисоний(лингвистик) хусусиятларнинг прагматик аспекти (воздействие) тингловчи ёки ўқувчи(читатель)га таъсир этиш хусусияти ўзбек назарий тилшунослигида кам тадқиқ этилган. Шу сабабдан масаланининг нозик томони прагматик таъсир этиш масаласида грамматик категориялар тавсифида майдонга чиқиши ҳолатлари фактик, иллюстратив материаллар асосида мавжудлиги кўзга ташланади [4].

Жумладан, баъзи сўзлар ҳеч қандай морфологик кўрсаткичсиз, бошқа миқдор билдирувчи сўзлар билан биргаликда келмаган ҳолда, ҳам ўз лексик маъноси билан кўплик тушунчасини ифодалайди: халқ, эл, қўшин, пода, армия каби. Бу сўзларда жамлик маъноси кучли. Бу ҳам унинг лексик маъносидан сезилиб туради. Бу жиҳатдан кўпчилик, озчилик каби сўзлар ҳам шу маънога яқинлашади. Аммо бу сўзлар

грамматик жиҳатдан шаклланган жамликни кўрсатади: *Йўлчи четроқда бир оз қараб, сўнг оломон ичига кирди.*

Сўзлар грамматик-логик жиҳатдан бирлик шаклида бўлади-ю, аммо у контекст билан боғлиқ равишда кўпликни ифодалайди: *У ўз уйига кетди. Болалар ўз уйларига кетдилар.* Биринчи гапда ўз сўзи бирликда, иккинчи гапда ўз сўзи эса болаларнинг кўплигини англатади. Шунинг учун у логик жиҳатдан кўликда деб қаралади ва *Болалар ўзларининг уйларига кетдилар тарзида* тушунилади[1].

Демак, юқоридаги мисоллардан маълум бўлишича ҳозирги ўзбек тилида кўлик тушунчаси синтактик йўл билан ҳам ифодаланади. Бундай шакл кўлик кўшимчасини олган синтетик шакл билан синонимик муносабатга кириши мумкин. Масалан: *ўнта дафтар//дафтарлар, бешта қалам// қаламлар* каби. Бу жуфтлар буюмнинг конкрет сонини ва ноаниқ кўликни кўрсатиши билан бир-бирдан фарқланади.

Бу каби бирикмалар охирида –лар кўшимчаси ҳам қўшилиб келади: *кўп болалар, юзта кемалар* каби. Бундай қўллаш стилистик нуктаи назардан хато ҳисобланади. Чунки олдидаги сўз шу предметнинг кўплигини англатади. Шунинг учун –лар кўшимчасини ишлатиш ортиқча, ўринсиздир.

–лар ҳозирги ўзбек тилида кўликни кўрсатувчи асосий морфологик кўрсаткичдир.

–лар кўшимчасининг асосий вазифаси нарса-буюмларнинг бирдан ортиқлигини кўрсатишдир.

–лар кўшимчаси буюмларнинг бирдан ортиқлигини кўрсатишдан ташқари, яна кўйидаги маъноларни ифодалайди[3]:

**1. Ҳурмат маъноси.** –лар гапнинг кесимига қўшилиб келганда, бирликдаги эга орқали ифодаланган шахсга нисбатан ҳурмат маъноси англашилади: *Поччам, раҳматлик, соатни сўфи деганлари билан намоз ўқимас эдилар.*

Бу маъно (ҳурмат маъноси), айниқса, кесим бор ва йўқ сўзлари билан ифодаланганда яққол сезилади: *Ўгиллари Ҳалимжон бормилар? – Борлар, кираверинг!- деди Хотин ва юриб ичкари ҳовлига кириб кетганини эшитдим.* (Ж.Икромий).

Баъзан бадий адабиётда, оғзаки нутқда –лар кўшимчаси отларга ҳам қўшилиб ҳурмат маъносини ифодалайди. Бу эса айнан гап мазмунида прагматик аспектни ифодалайди.

**2. Киноя, пичинг маъноси.** Баъзан феъллар, баъзан олмош ва отлар кўлик кўшимчасини олиб, пичинг, кесатиш, киноя маъноларини ифодалайди. Бундай вақтда интонация, турли хил имо-ишора ва мимикалар–экстроллингвистик воситалар ёрдамчи восита сифатида хизмат қилади: Демак, *фюрер Гитлер жуда гамхўрлик қилибдиларда.*

**3. Ноаниқлик, кучайтириш, такрорлаш, таъкид каби маънолар.**

Бизнинг учун кераклардан бири пахта,

Буржуй ютсин кўролмасдан қонлар лахта.

Ўзбек тилида отлар кўлик кўшимчаси –лар ни қабул қила олиш ёки қабул қила олмаслигига қараб стилистик жиҳатдан икки ката гуруҳга бўлинади:

- 1) ҳам бирликда, ҳам кўликда қўллана оладиган отлар;
- 2) фақат бирликда қўлланадиган отлар.

Ҳозирги ўзбек тилида қуйидаги отлар фақат бирлик формасида қўлланади.

1. Мавхум отлар (ёшлик, муҳаббат, орзу, дўстлик, уйқу, тушунча каби). Баъзан стилистик мақсадда, яъни кучайтириш, муболаға қилиш мақсадида уларга кўплик қўшимчаси қўшилиши мумкин:

Чор атроф боғу роғ.... Тушми ё ўнги?  
Бари рост экан-а! Чекинмиш кумлар  
Чекинмиш **сароблар**, қора самумлар  
Ярқирайди шаҳар—узок йўл сўнги. (Миртемир)

2. Санаш мумкин бўлмаган предметларни кўрсатувчи отлар (ун, гуруч, сув, ер, кум, ёғ, бензин, керосин каби). Улар кўплик шаклида келганда шу нарса-буюмларнинг турини (масалан, ёғлар: сарёғ, пахта ёғи, кунгабоқар ёғи, маккажўхорининг ёғи каби) ҳамда кучайтириш маъноларини англатади.

3. Атоқли отлар кўплик қўшимчасини олганда маълум қўшимча қабул қилган сўз орқали ифодаланган жой ёки кишининг бирдан ортиқлигини эмас, балки бошқа маъноларни ифодалаш учун хизмат қилади: Биз ана шу Ширин шаҳарчасидаги Сирдарё ГРЭСини қураётган **фарходларнинг** бири ҳақида ҳикоя қиламиз.

**Ширинлар** кўлидан шароб ичамиз,  
Интизор оталар бўлади соқий. (Ғ.Ғ)

Бундан ташқари, бирор предмет бир неча шахсга тегишли бўлиб, номи аталган шахс уларнинг ичида олиб қаралганда, у кўплик қўшимчасини қабул қилиши мумкин: Муроджон шу жадалиқда Қўштегирмон бошига келди. **Файзуллаларнинг** уйи Қўштегирмон ёнида. 4. Кишиларнинг якка аъзолари бирликда қўлланади: бош, тил, бурун, юрак, жигар. Улар бирликда қўлланганда нейтрал қимматга эга бўлса, кўплик қўшимчаси билан келганда баҳолаш бўёғига эга бўлади. Тасвирланаётган воқеа-ҳодиса, предмет ёки шахсга ёзувчининг салбий ёки ижобий муносабати билдирилади: - Ҳой, ҳой Раҳима ўлгир, қачондан бери тилинг чиқиб қолди? Ҳу **тилларинг** кесилсин! (Ҳ.Ҳ)

Демак, киши, ҳайвон ва жониворларнинг жуфт аъзоларини кўрсатувчи сўзлар одатда бирлик шаклда ишлатилади. Бундай сўзлар кўплик қўшимчаси *–лар* ни қабул қилганда, муболаға, кучайтириш каби маъноларни ифодалайди.

#### АДАБИЁТЛАР

1. А. Шомақсудов, И. Расулов, Р. Қўнғуров, Ҳ. Рустамов «Ўзбек тили стилистикаси». Тошкент, 1983. 6-13-б.
2. И. Тошалиев. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент: Университет, 1996.
3. Қ. Самадов. Ўзбек тили стилистикаси. Гулистон, 1992. 5-7-б.
4. Э. Қиличев. «Ўзбек тилининг амалий стилистикаси» (педагогика олийгоҳларининг филология факультети талабалари учун ўқув-қўлланма). Тошкент «Ўқитувчи», 1992. 13-85 б.

## O‘ZBEK ADABIYOTIDA QISSA JANRIGA OID BA’ZI MULOHAZALAR

*Farhod NIZOMOV,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, tayanch doktorant*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek qissachiligi tarixiy ildizlarining ba’zi xususiyatlarini ilmiy jihatdan yoritib berishga, ushbu janrning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash, o‘zbek adabiyotida qissaning o‘rganilishi, adabiyotshunos olimlarimizning nazariy qarashlari, janr imkoniyatlari xususida mulohazalar bildirishga harakat qilindi.

**Abstract:** In this article, an attempt was made to shed light on some features of the historical roots of Uzbek short stories, to determine the specific aspects of this genre, to study the short story in Uzbek literature, to comment on the theoretical views of literary scholars, and the possibilities of the genre.

**Kalit so‘zlar:** qissa, janr, novella, talqin, modernizm, adabiy jarayon, xalq kitoblari, obraz, badiiy mahorat, syujet, kompozitsiya, qiyosiy-tipologik tahlil.

**Key words:** short story, genre, novella, analysis, modernism, literary process, folk speeches, image, artistic skill, plot, composition, comparative-typological analysis.

Adabiyotning o‘z tili va o‘ziga xos imkoniyatlari mavjudki, ushbu til va imkoniyatga suyanib, davrning badiiy in’ikosi yaratiladi. Epik turning o‘rtacha shakli bo‘lgan qissa janri ayni shu imkoniyatga ega. Mustaqillik davri o‘zbek qissachiligi bu borada alohida o‘rin tutadi. Undan tashqari ushbu janrda mukammal ijod namunalari yaratgan va yaratib kelayotgan A.Qodiriy, G.G‘ulom, A. Qahhor, O. Yoqubov, P. Qodirov, Sh. Xolmirzayev, T. Murod, X.Sultonov, X.Do‘stmuhammad, Xurshid Davron, Abbas Said ijodiga mansub qissalarda obrazlar sistemasi, ijodiy mahorat, zamonaviy va tarixiy mavzulardagi qissalarning o‘ziga xos janr xususiyatlari yuzasidan qimmatli ilmiy fikrlar bildirilgan tadqiqotlar ham yaratilgan. Mazkur maqolada qissa janrning tarixiy taraqqiyoti, janr xususiyatlari, o‘ziga xos tarixiy tadriji haqida ba’zi mulohazalar bayon etiladi.

Ushbu maqolani ilmiy asoslashda U.Normatov, A.Rasulov, Q.Yo‘ldosh, Q.Qahramonov, D. To‘rayev, D.Quronov, I.G‘aniyev, U. Jo‘raqulov, G.Murodov, A.Xolmurodov, G.Imomova, U.Rasulova, R.Qo‘chqor, B. Karimov, S.Meli kabi atoqli adabiyotshunos olimlarning nazariy qarashlari, internet saytlarida mavzuimizga dahldor mulohazalarga e’tibor qaratildi. Qiyosiy-tipologik, bir necha manbalardan foydalanib ilmiy ma’ruza tayyorlash kabi metod va usullar asosida mavzu tahlil etildi.

Zamonaviy qissalarda yangicha tamoyillarning bo‘y ko‘rsatayotgani to‘g‘risida U.Normatovning: “Bugungi qissachiligimizga nazar tashlaganda birinchi galda undagi mavzu muammo, shakliy, uslubiy jihatdan rang-baranglik e’tiborni tortadi; ular orasida tarixiy, zamonaviy, ijtimoiy-siyosiy, oilaviy-maishiy, ishqiy mavzulardagi ham an’anaviy romantik, realistik, ham modernistik, ham jiddiy, ham yumoristik, sarguzasht-dedektiv yo‘nalishdagi asarlarni ko‘rish mumkin” [4;47],- degan fikrlari, A.Rasulovning ilmiy izlanishlarida yozuvchi-badiiy asar-kitobxon munosabatlarining bugungi davr talablari nuqtai-nazaridan



tahlil etilishi<sup>1</sup>, Z.Isomiddinov, Mahkam Mahmud, I.G'afurovlarning adabiy ta'sir, ko'chirmakashlik illati, J.Joys, A.Kamyu va boshqa modernist adiblar ijodining o'zbek yozuvchilari ijodiga ta'siri, an'anaviylik va asllik mohiyati haqida qarashlari va hozirgi adabiy jarayonda kechayotgan o'zgarishlarga bergan baholaridan bilishimiz mumkin. D.To'rayev, Q.Qahramonov, Sh.Daniyarova, D.Salohiylarning yangi o'zbek adabiyotiga xususiyatlar yuzasidan olib borgan ilmiy izlanishlari, adabiy-nazariy qarashlari<sup>2</sup> muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Filologiya fanlari doktori A.Xolmurodovning o'zbek qissalari poetikasi muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarida<sup>3</sup> qissa janriga asarlarda obrazlar sistemasi, ijodiy mahorat, zamonaviy va tarixiy mavzulardagi qissalarning o'ziga xos janr xususiyatlari yuzasidan qim-matli fikrlar bildirilgan. Umuman olganda, adabiyotshunoslikda qissa janriga oid bir qator fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Jahon adabiyotida biz qissa deb ataydigan o'rta epik janr turli nomlar bilan, masalan, ruslarda "povest", Ovrupo adabiyotlarida "qisqa roman" (ing. short novel) yoki novella<sup>4</sup>, yaponlarda ranobe deb yuritiladi. Bu janr voqelik qamrovining mo'tadilligi, voqea tasvirining ustuvorligi va qahramonning ichki olamiga chuqur kirilmasligi, voqealarning "men" tilidan hikoya qilinishi bilan yozuvchiga yengillik beradi. Novella Renessans davrida dastlab Italiya adabiyotida paydo bo'lgan bo'lsa, ruslarda – uzoq asrlik tarixga ega bo'lishiga qaramasdan – XIX asrga kelibgina chinakam realistik povestlar yaratildi. Bizda ham realistik qissa XX asrda shakllangan janr hisoblanadi. Bu o'rta epik janr jahon adabiyotida uzoq asrlik, milliy adabiyotimizda bir asrlik yo'lni bosib o'tdi, izchil o'zgarib-yangilanib bordiki, bu hol janrning ilmiy tadqiqi hamisha dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Qissa janri arab tilidan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosiga ko'ra, hikoyat, sarguzasht, u yoki bu shaxs hayoti - faoliyatining muayyan davrini bayon etuvchi ma'nolarini ifodalaydi, u nafaqat o'zbek, balki butun Yaqin hamda O'rta Sharq xalqlari adabiyotida ham keng tarqalgan janrlardandir. Shu bois adabiyotshunoslik terminlarini izohlovchi ba'zi lug'atlarda uning butun tarixiy tadrijini ifodalovchi ikki bir-biriga bog'liq ma'no quyidagicha tavsiflanadi: "Qissa... 1. Yaqin va O'rta Sharqda keng tarqalgan folklor va yozma adabiyot asarlari. 2. O'zbek prozasida keyingi o'n yillar ichida hikoyadan katta, romandan kichik va aksariyat hollarda asosiy qahramon sarguzashtlari asosida yuzaga kelgan badiiy asarlar ham qissa deb yuritilmoqda. Bunday asarlar o'z xarakteri, janr imkoniyatlari, badiiy-tasviriy prinsip va usullari jihatidan povest janri bilan bir xildir" [7; 169].

**Ushbu janr haqida:** "Qissa -badiiy adabiyotda epik janr turlaridan biri. G'arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida povest ma'nosidagi Qissa tushunchasi yo'q, nasrning romandan boshqa barcha janrlari "novella" termini orqali ifoda-lanadi. Rus va o'zbek adabiyotlarida Qissaning hozirgi va qadimgi ma'nolari o'rtasida farq bor. Masalan,

<sup>1</sup> Расулов Абдуғафур, Бадийлик–безавол янгилик, Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар, "ШАРҚ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент, 2007 й. Б. 96, 98, 101.

<sup>2</sup> Қаҳрамонов, Адабий жараён ва эстетик талқин, Тошкент, 2014 й. Б.35-36. Ш.Даниярова, Истиқлол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон, Тошкент, "Mumtoz so'z" 2011 й. Б. 73-86. Салоҳий Дилором, Тасаввуф ва бадий ижод, ўқув қўлланма, "Наврўз" нашриёти, Тошкент, 2018 й. Б.91-108.

<sup>3</sup> Холмуродов Абдуҳамид, Муқаддас сўз боқийлиги, Тошкент, "Fan". 2007 й. Б.75-76.

<sup>4</sup> Айрим hollarda "novella" deganda kutilmagan yakunga ega bo'lgan kichik hikoyalar ham tushuniladi. Ammo Ovrupoda novella bizning adabiyotimizdagi qissaga to'g'ri keladi.

qadimgi rus adabiyotida har qanday nasriy asar povest (qissa) deb atalgan. O‘zbek adabiyoti tarixida rivoyat usulida nasr yoki nazmda yozilgan tarixiy-afsonaviy asarlar qissa deb yuritilgan. Masalan: “Qissayi Sayfulmuluk”, “Qisasi Rabg‘uziy. Hozirgi ma’nodagi o‘zbek qissasi rus adabiyotidagi “povest” terminiga to‘g‘ri keladi va asosan, roman bilan hikoya oralig‘idagi o‘rtacha hajmli nasriy janrni ifodalaydi” [8] degan fikrlarini keltirish ham o‘rinlidir. Bunga mazkur janr haqidagi an’anaviy mulohazalar davomi deb qarashimiz mumkin.

Adabiyotshunos A.Abrorov bu haqda shunday yozadi: “Adabiyotimizning hozirgi davrida prozaning yangi turi-qissaning tashkil topishi va shakllanishida 20 va 30 – yillarda (bunda XX asr nazarda tutilmoqda – ta’kid F.N.) yaratilgan keng syujetli hikoyalarning roli va xizmati shubhasiz katta bo‘ldi. Qissa ana shu keng syujetli hikoyadan o‘sib chiqdi, tashkil topdi, shakllandi va mustaqil janr sifatida rivojlanmoqda” [1; 89].

Ushbu janrga xos asosiy xususiyatlarni aniqlab, uning yetakchi qirralari haqida fikr bildirgan adabiyotshunos olim A. Xolmurodovning quyidagi fikrlari ahamiyatlidir: “Bu - qissa syujeti asosida yakka qahramonning butun umri davomi-dagi sarguzashtlari emas, balki qahramon hayotining muayyan davri voqealari yotishidir. Shu bois janr xususiyatlari haqida gap ketganda hajmning katta yoki kichikligini emas, balki voqealar qamrovi hamda rivojining romanga nisbatan yengilligi, hikoyaga nisbatan murakkabligini hisobga olish ma’quldir” [6; 7]. Qissa janrining o‘rta asrlar og‘zaki va yozma adabiyotida keng tarqalgani diqqatni o‘ziga tortadi. Tarixiy mavzularda ma’lum voqelik yoki birorta shaxsga atab yozilgan asarlar xususida adabiyotshunos A.Xolmurodovning ilmiy mulohazalari asoslidir. Olim qissa atamasi haqida gapira turib, uni “xalq kitob”lariga yaqin ekanligini ta’kidlab, fikrlarini jahon va o‘zbek adabiyoti vakillari qarashlari yordamida dalillaydi [6; 8-9]. Bizningcha, qissani xalq kitoblariga yaqin qilgan yana bir jihat bu – uning ixchamligi, voqealar bayonining cho‘zilib ketmasligi, an’anaviy boshlanma va yakunda xulosaning mavjudligi bilan ham belgilanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida qissa (povest, novella) janri epik turning nisbatan ko‘p tadqiq etilgan, spetsifik xususiyatlari keng o‘rganilgan janri bo‘lib qolmoqda. Ammo bu holat mazkur janr yuzasidan tadqiqotlar olib borish shart emas, degan fikrga olib bormasligi lozim. Chunki janrning individual uslubdagi har bir namunasi – alohida hodisa, unda umumiy-tipik xususiyatlar bilan birga faqat shu muallifga, faqat shu birgina asarga xos bo‘lgan nozik ayirmalar – nyuanslar ham voqe bo‘lishi qonuniy holdir [9]. Bu hol badiiy tafakkur hodisasi sifatida san’atda individual-subyektivlikning ustuvorligidan, juz’iylik va tipiklik chegaralari nihoyatda shartliligidan ham kelib chiqadi. Xuddi mana shu holat alohida olingan uslublar misolida qissa janri tadqiqiga doimiy ehtiyoj borligidan dalolat beradi.

Dunyo adabiyotidagi yetakchi tamoyillarning ta’siri istiqloq yillarida yangicha mazmun va mohiyat kasb etdi. Adabiy tanqidchilik bu tamoyillarning o‘ziga xos xususiyatlarining milliy adabiyotimizdagi ko‘rinishlarini nazariy va ilmiy jihatdan tadqiq etishga alohida e’tibor bera boshladi. Modernizm, neomodernizm, postmodernizm, syurrealzm, ekzistensializm kabi oqimlarning G‘arb adabiyotidagi ilg‘or tajribalarining ta’siri tadqiq va tahlil etilgan izlanishlar ko‘paydi, ularning muayyan bir janr doirasida ijodiy rivojlantirilishi, yutuq va kamchiliklarni ko‘rsatib berishga intilish kuchaydi. “Istiqloq.

Adabiyot. Tanqid” nomli to‘plamda<sup>1</sup> hozirgi adabiy jarayon, adabiyotshunoslik oldida turgan vazifalar haqida e’tiborli fikrlar bildirilgan.

Ulug‘bek Hamdam istiqlol davri adabiyotini ozod tafakkur adabiyoti deb ataydi. Darhaqiqat, istiqlol yozuvchi va shoirlarimizga ijod qilishning keng ufqlarini ochib berdi. “Bugun yurtimiz ijodkorlari,-deydi u,-o‘z nuqtai nazarini, ko‘hna Sharq adabiyotida bo‘lgani kabi, olami sug‘ro-mukarram Insonga, uning qalbiga qaratgan. Hamda botindagi murakkab jarayonlarni bayonchilik yo‘li bilangina emas(bunday usul bor, bo‘ladi va bu g‘oyat tabiiydir), ayni paytda, umuminsoniy va umumzamoniy mezonlarga suyangan holda Majoz vositasida ham qog‘ozga tushirmoqdalar, san‘atga aylantirmoqdalar” [2; 4]. Bunday ijodkorlar safi kengayib boryapti. Bugungi kunda Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Abduqayum Yo‘ldosh, Luqmon Bo‘rixon, Umid Yoqub, Murod Chovush, Bahodir Abdurazzoq singari yozuvchilarning ijodiy izlanishlari mevalarini kitobxonlar chanqoqlik bilan kutib olishmoqda.

O‘zbek adabiyotida bola obrazining shakllanishida muhim o‘rin tutgan, hayotiylik, badiiyat, falsafiylik va ramziylik kabi adabiyotning jozibador va yashovchanligini ta‘minlaydigan jihatlarga to‘la javob beradigan qissalar yaratgan akademik yozuvchimiz G‘afur G‘ulomning istiqlol davri o‘zbek adabiyotida yaratilgan qissalarga badiiy-estetik ta‘siri katta bo‘ldi. Muallifning “Shum bola” qissasidagi ayrim voqealar, bola ruhiyati tasviri, kichik va katta yoshdagi insonlarning bir-birini anglashdagi murakkabliklar, bola qalbini tushinish, kichik harakatlar bilan katta maqsadlarni ko‘zlagan inson tasviri istiqlol yillarida Luqmon Bo‘rixon tomonidan yaratilgan “Quyosh hali botmagan” qissasida mahorat bilan tasvirlagan. Har ikki qissada ham do‘stlik, sadoqat, oilasini har narsadan ustun bilish, Vatanparvarlik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, samimiyat, vafo, burch, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlar uchun mardona kurashish singari ahamiyati yuqori tushunchalar o‘z badiiy talqini topgan. Obrazlar asar voqealari davomida bu tushunchalarning har birini voqealar rivoji davomida boshdan o‘tkazadi. Asardagi muhim yechimlar o‘smir yoshdagi bola (Omon va Norsoat)lar tomonidan yechiladi.

Voqelikni aks ettirishda an‘anaviy yondashuvlar, an‘anaviy timsollar badiiy talqini hamon yetakchi tamoyil bo‘lgani holda hayotga yangicha nigoh bilan qarash, kitobxonning ong osti tuyg‘ulariga ta‘sir etish yo‘llaridan borish, ramziy timsollar vositasida badiiy haqiqat kuchini namoyon etish adabiy jarayonning ko‘proq qaynab-toshishiga omil bo‘lyapti. Shu sababli ushbu janr haqida fikr bildirganda. Faqatgina qissaga xos nazariy fikrlar, janr tabiati haqida gapirish yetarli bo‘lmaydi. Bugungi kun kitobxonini asar mazmuni, muallif aks ettirgan voqelik, obrazlar qismati qiziqtiradi. Ba‘zilarni esa yozuvchi uslubi, tili o‘ziga jalb etadi.

Badiiy matn, badiiy talqin, badiiy mahorat tushunchalari to‘g‘risidagi ilmiy-nazariy qarashlarni o‘zbek qissalaridagi yangicha tamoyillar asosida ilmiy dalillab berishga harakat qilish, qissa matni orqali voqelikni anglash, muallif badiiy mahoratiga baho berish ilmiy yangilanishga xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> Истиклол. Адабиёт. Танқид., Ёзувчи ва адабиётшунос Улуғбек Ҳамдам саволлари асосида қурилган суҳбатлар, Тошкент, “Туғон замин зियो”, 2015 й.

Jahon adabiyotida paydo bo'lgan absurd adabiyoti, "ong oqimi" tushunchalari o'zbek adabiyotida istiqloq yillarida yaratilgan qissalarni matniy-qiyosiy tahlil etish orqali dalillash ushbu janrga yangicha yondashuvlarning ilmiy prinsiplari shakllantirilishiga xizmat qiladi. Shularni hisobga olib, bu boradagi qarashlarni, ilmiy bahrlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi davr o'zbek qissachiligi yanada barkamollik kasb etdi. XX asrning so'nggi choragi o'zbek qissachiligida juda katta tub o'zgarishlar ko'zga tashlandi. Istiqloq yillarida adabiyotga kirib kelgan ijodkorlar orasida qissa janrida barakali ijod qilayotgan yozuvchilar ko'p. Bu adiblarning barchasida bir jihat ko'zga tashlanmoqda, ya'ni adabiy qahramonlarning dunyoqarashi, hayotga munosabati, rost tasvir, rael voqelikni ifodalashga alohida urg'u berishida bu jihat namoyon bo'lmoqda. Shu boisdan ushbu janrga oid asarlarning yaratilishi, janr xususiyatlari, taraqqiyoti, o'zbek va jahon adabiyotida bu guruhga mansub asarlardagi o'ziga xos jihatlar, muallif individual mahoratiga batafsil to'xtalish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqolada o'zbek qissachiligining taraqqiyotining ba'zi tadrijiy rivojlanish omillari, qahramonlar ruhiy dunyosidagi evrilishlar, o'zbek qissachiligida yozuvchi badiiy tafakkurining qanday kuchga ega ekanligini aniqlashga harakat qilindi. Bugungi qissachiligimizda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ayrim nazariy qarash va jihatlariga mulohazalar bayon etildi.

## ADABIYOTLAR

1. Abrorov A. O'zbek povesti. -Toshkent: Fan, 1973.
2. Istiqloq. Adabiyot. Tanqid., Yozuvchi va adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam savollari asosida qurilgan suhbatlar, -Toshkent, "Turon zamin ziyo", 2015.
3. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018.
4. Normatov U. "Umidbaxsh tamoyillar". -T.: "Ma'naviyat". 2004.
5. Qahramonov Q. "Adabiy jarayon va estetik talqin", -Toshkent, 2014.
6. Xolmurodov A. "Muqaddas so'z boqiyiligi", Toshkent, "Fan". 2007. B.75-76.
7. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча - ўзбекча изоҳли луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1983,- Б.169.
8. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/k/kissa/>

## FRAZEMALARNING LINGVISTIK IMKONIYATLARI

*Yulduz Shaxobovna RAHMATOVA,*  
NavDPI tayanch doktoranti

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada frazema tarkibidagi so'zlarning semantikasi va sintaktik tuzilishi turkiy tillar bilan qiyoslangan holda tahlilga qilingan.

*Kalit so'zlar:* frazeologiya, frazema, leksema, semantika, sintaksis, boshqird tili, qozoq tili, o'zbek tili.

*Аннотация.* В данной статье семантика и синтаксическая структура слов, содержащихся во фразеологизме, анализируются по аналогии с тюркскими языками.



**Ключевые слова:** фразеология, фразеологизмы, лексема, семантика, синтаксис, башкирский язык, казахский язык, узбекский язык.

**Annotation.** In this article, the semantics and syntactic structure of words contained in phraseology are analyzed by analogy with the Turkic languages.

**Keywords:** phraseology, phraseological units, lexeme, semantics, syntax, Bashkir language, Kazakh language, Uzbek language.

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil bo‘limi bo‘lib, unda ko‘chma ma’noga asoslangan barqaror so‘zlar bog‘lanmasi o‘rganiladi. “Frazeologiya” termini grekcha “pharsis” fraza, ifoda “logos” ta’limot degan ma’nolarni anglatib, uning tadqiqot doirasiga faqat ko‘chma ma’noga asoslangan turg‘un birikmalar kiritiladi<sup>1</sup>. Tilshunoslik bo‘limi sifatidagi frazeologiyani asosiy diqqat e’tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o‘rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Uning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya’ni avvaldan tayyor bo‘lmagan) so‘z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. So‘zdan farqli o‘laroq, frazemalar uchun emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik ajralmas xususiyat hisoblanadi, shu bilan birga, frazemalarning asosiy qismi uslubiy jihatdan neytraldir. Chunki frazema yordamida u yoki bu predmet, hodisa nomlanibgina qolmasdan, o‘sha predmet yoki hodisaga, shaxsga so‘zlovchining ekspressiv munosabati ham ifodalanadi. So‘z va frazeologik birlik o‘rtasida ko‘p qirrali semantik aloqalar mavjud: ichki ma’nodoshlik, sinonim, antonimik va hokazo. “So‘zda to‘g‘ri (nominativ) ma’no yetakchi (dominant) bo‘lsa, frazeologik birlikda obrazli-nominativ ma’no yetakchidir. So‘z asosan ifodalasa, frazeologik birlik har doim tasvirlaydi. Frazeologik birlikda obrazli ma’no global xususiyatga ega<sup>2</sup>”. Masalan, “*Puf desa, Buxoroga uchadi*” gap qolipli frazemaning ma’nosi lug‘atda shunday keltirilgan: “juda yengil va yupqa” ma’nosini beradi.<sup>3</sup> Ushbu frazema haqida O.Bayjigitov quyidagi fikrlarni keltiradi: “...biror joyning uzoq emasligini bildirish maqsadida vodiya “Ahmoqqa Quva bir tosh” deyilsa, Toshkentda “Ahmoqqa To‘ytepa bir tosh” iborasi ishlatiladi. Yoki “Asakasi ketadimi?” – nimani yo‘qotadi, ma’nosida, “Onasini Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatmoq” – adabini berib qo‘ymoq, “Puf desa Buxoroga uchadi” – omonatgina mazmunidagi iboralarida Quva, To‘ytepa, Asaka, Uchqo‘rg‘on, Buxoro toponimlari o‘zbek tilida yangi frazemalar shakllanishiga asos bo‘lgan”.<sup>4</sup> Masalan, “*Puf desa, Buxoroga uchadi*” frazemasini “juda yengil va yupqa” ma’nosi bilan badiiy matnda qo‘llanilganligiga misol keltiramiz: *Boshqa ayollar ayvonlarga o‘tqazilib, kichkina iflos patnislarda puf desa, Buxoroga uchadigan taxir chap-chap non, qurtloqi turshak, jiyda va tishga yopishsa, ombir bilan ham sug‘urib olish qiyin bo‘lgan yopishqoq popuk tortildi.*(Oybek, Qutlug‘ qon).

Boshqird tilida *Йөрәк үксәгә китеү* gap qolipli frazemasini “qo‘rqmoq” ma’nosini anglatadi: *Хәзер ул кайтын килгәс, был түрәләге баярзарзың йөрәктәре үксәләренә кутте инде* (B. Dəylətshina).<sup>5</sup> Ushbu frazema o‘zbek tilida ham shu ma’noda qo‘llaniladi: *Bu dalolatni eshitgan va Toshkentning dahayu mahallarini yaxshi bilmaydigan odam Yunusobodni Qoraqalpog‘istonning Shumanay tumanidan ham narida bo‘lsa kerak, degan*

<sup>1</sup> Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс, 2005. 7-б.

<sup>2</sup> Ураксин З.Г. Фразеология башкирского языка. - М.: Наука, 1975. 22-с.

<sup>3</sup> Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. T., 1992. 224-b.

<sup>4</sup> Bayjigitov O. O‘zbek lingvokulturologik frazeologizmlarining assotsiativ talqini // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. O‘zA ilm-fan bo‘limi (elektron jurnal). T., 2022, №11 (37). 182-b.

<sup>5</sup> Ураксин З.Г. Фразеология башкирского языка. - М.: Наука, 1975. 27-с.



*xayolga borishi va yo'l kirasini o'ylab, yuragi tovoniga tushib ketishi aniq.* (Qulman Ochilov. Pista (hikoya)).

Quyidagi tayanch komponenti *yurak* leksemasidan tuzilgan gap qolipli frazemalar “qo‘rqib ketmoq” ma’nosini ifodalaydi: *yuragi orqasiga tortib ketdi, yuragi qoq yorilayozdi, yuragi shuv etib ketdi, yuragi yorildi, yuragiga vahima tushdi, yuragi orqasiga tortib ketdi, yuragi chiqib ketdi* va hokazo.

O‘zbek tilidagi “*qo‘li bog‘langan*”, “*qo‘l-oyog‘i bog‘langan*”, “*ipsiz bog‘langan*”, “*qo‘l-oyog‘i ipsiz bog‘langan*” gap qolipli frazemalar turkiy tillarda ham keng qo‘llanilganligini, *qo‘l, oyoq, ip, bog‘lamoq* so‘zlarining turkiy tilga xosligi bilan ham dalillash mumkin, masalan, qozoq tilida ushbu frazema қолы жіпсіз байланды<sup>1</sup> tarzida qo‘llanadi. Masalan: *Qismat meni sahrolarga bog‘lasa ipsiz.* (M.Yusuf).

Frazemalar so‘zlardan farqli holda reallikdagi muayyan voqea-hodisani faqat ifodalash, nomlash uchun emas, shu bilan birga, unga nisbatan modal, emotsional, estetik munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Sh.Rahmatullaev frazeologik birliklarning ma’no tabiatini bittadan ortiq so‘z yaxlitligicha ma’lum bir obraz asosida, ko‘chirish yo‘li bilan semantik taraqqiyotni boshdan kechiradi<sup>2</sup> deb ta’kidlab muayyan obraz asosida yuzaga kelgan ma’noni frazeologik ma’no deb ataydi

“Frazeologik iboralarni semantik tomondangina o‘rganish bu fanning barcha xususiyatlarini aniqlash uchun imkon bermaydi. Shuning uchun frazeologik iboralarni semantik, grammatik, etimologik va stilistik jihatlardan tekshirish va klassifikatsiya qilish ma’qul. ...Frazeologik iboralarni grammatik (morfologik, sintaktik) tomondan tekshirganda, ularning so‘zga, so‘z birikmasiga va gapga teng (ekvivalent) bo‘lib kelishi va boshqa shu kabi xususiyatlari o‘rganiladi<sup>3</sup>.

Frazemalarning gap qolipli ko‘rinishlarida o‘zbek tilida anchagina bo‘lib, ularning gaplardan farqi shundaki, bunda yaxlit ma’no frazema tarkibidagi har bir so‘zning ma’nosi bilan aloqador bo‘lmaydi, ular anglatgan leksik ma’noga ko‘ra kelib chiqmaydi: *ko‘zi ilindi, ilon po‘st tashlaydi, itning tuvagi tilladan bo‘lib ketdi, lop desa, ola qop olib yugurmoq, oling-u, oldirmang, siz aytgan tollar kesilib ketgan, sichqonning ini ming tanga bo‘ldi, suv kelsa - simirmoq, tosh kelsa – kemirmoq* kabi. Ibora tarkibini sintaktik tahlil qilish nutq birligining tarkibini emas, balki til birligining tarkibini tahlil qilish bo‘ladi. Umuman, ibora tarkibida qatnashgan so‘zlar orasidagi sintaktik bog‘lanish o‘z kuchini saqlaydi, o‘lmaydi, faqat ichki bo‘ladi<sup>4</sup>. Bu jihat frazemalarning nutq birligi bo‘la olmasligini ko‘rsatadi, chunki uning tarkibini tashkil etgan so‘zlar o‘rtasidagi bog‘lanish ichki sintaktik bog‘lanish sanaladi.

Frazema ham so‘z kabi ichki tomon va tashqi tomonga ega, so‘zdan farqli tarzda, ifoda va mazmun jihati murakkablikka ega, mazmuni ichki tomon sanalsa, shakli tashqi tomonidir, biroq ulardagi bog‘lanish turg‘un sanaladi. Frazemalar semantik jihatdan ham, sintaktik jihatdan ham barqaror bo‘lib, semantik imkoniyati so‘zlikiga nisbatan ancha murakkab, chunki frazema dagi ma’no munosabatlari bilan uning tarkibidagi so‘zlar ma’nosida nomuvofiqlik mavjud. Shuningdek, gap qolipli frazemalar tarkibidagi so‘zlarning o‘rnini ko‘pincha almashtirib bo‘lmaydi, frazeologik birikma komponentlarining sintaktik munosabati turg‘unlashgan semantik yaxlitlikning vujudga kelishida muhim mavqega ega. Shu bois, sintaktik munosabatlarni tashkil etayotgan so‘zlarning grammatik shakllarini

<sup>1</sup> Болғанбайұлы Ә., Қалиұлы Ғ. Қазіргі қазақ тілінің лексикологиясы мен фразеологиясы. Алматы: Санат, 1997. 196-б.

<sup>2</sup> Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. –Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. 5-b.

<sup>3</sup> Pinxasov Ya. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. -T., 1969. 56-57-b.

<sup>4</sup> Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. Toshkent. 1978, 10-bet.

aksariyat hollarda o'zgartirib bo'lmaydi, masalan: *O'tirsa-o'poq, tursa – so'poq deyish, Burgaga achchiq qilib ko'rpani kuydirmoq, Ishi bitdi, eshagi loydan o'tdi* kabi.

Frazemalarning lingvistik xususiyatlari tilshunoslikda, xususan, o'zbek tilshunosligida ham tilimiz taraqqiyotining hozirgi davrigacha turli jihatdan tadqiq etilmoqda, leksema kabi frazemalar ham ko'p qirrali bo'lib, ularning semantik xususiyatlarini o'rganish yuzasidan salmoqli yutuqlarga erishildi. Gap qoliqli frazemalarning sintaktik tabiati alohida o'rganilishi lozimdir.

## ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ, ПЕДАГОГИК ЖАРАЁНЛАРГА КИРИТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС БОСҚИЧЛАРИ

*Х.МИРЗАЕВА,*

*Навоий вилояти ПЯМЎММ*

*Тилларни ўқитиш методикаси кафедраси ўқитувчиси*

**Аннотация.** Ушбу мақолада олий таълим муассасалари профессор–ўқитувчиларининг мунтазам касбий ўсишида интерактив методлар, педагогларнинг таҳлилий, танқидий ва ижодий фикрлашини ривожлантиришга йўналтирилган инновацион методикалар, мустақил таълим олишни кенгайтиришни назарда тутувчи техника ва технологиялардан фойдаланган ҳолда машғулотлар олиб бориш малака ва кўникмаларини ривожлантириш бугунги куннинг долзарб муаммоларидан бири эканлиги асосланади.

**Калит сўзлар:** таълим сифати, касбий компетентлик, педагогик инновация, инновацион технологиялар, инновацион жараёнлар, ахборот технологиялар.

**Аннотация.** В статье обосновывается актуальность совершенствования роли инновационных методов, направленных на развитие аналитического, критического и творческого мышления, развитие умений и навыков с использованием современных технологий, предусматривающих расширение самостоятельного образования в непрерывном профессиональном росте профессорско-преподавательского состава ВУЗов.

**Ключевые слова:** качество образования, профессиональная компетентность, педагогическая инновация, инновационные технологии, инновационные процессы, информационные технологии.

**Annotation.** One of the urgent problems of today is the role of innovative methods aimed at developing analytical, critical and creative thinking, developing skills and abilities using methods and technologies that provide for the expansion of independent education in the continuous professional growth of the teaching staff of universities.

**Key words:** quality of education, professional competence, pedagogical innovation, innovative technologies, innovative processes, information technologies.

Хозирги даврда ҳар бир педагогнинг ўз устида ишлаши таълим жараёнига илғор технологияларни татбиқ этиши ҳамда талабаларга энг сўнги янгиликлар асосида билимларни етказиш муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек таълим жараёнида интерактив методлар, инновацион технологиялар, педагогик ва ахборот технологияларини ўқув жараёнида қўллашга бўлган қизиқиш, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда, бундай бўлишининг сабабларидан бири, шу вақтгача анъанавий таълимда талабаларни фақат тайёр билимларни эгаллашга ўргатилган бўлса, замонавий технологияларда эса, уларни эгаллаётган билимларни ўзлари қидириб топишларига,

мустақил ўрганиб таҳлил қилишларига, ҳатто хулосаларни ўзлари келтириб чиқаришларга ўргатади. Педагог бу жараёнда шахнинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиш ва тарбияланишига шароит яратади ва шу билан бир қаторда бошқарувчилик, йўналтирувчилик функциясини бажаради. Таълим жараёнида талаба асосий фигурага айланади [2, 4, 6]. Шунинг учун олий ўқув юртларида малакали касб эгаларини тайёрлашда замонавий ўқитиш методлари - интерактив методлар, инновацион технологияларнинг ўрни ва роли бениҳоя каттадир. Чунки, педагогик технология ва интерактив методлар талабаларни билимли, етук малакага эга бўлишларини таъминлайди. Бизнинг мамлакатимизда педагогик инновацияни яратилиши ва ривожланиши кенг жамоатчи педагоглар ҳаракати, таълим тизимидаги мактабларнинг тез ривожланиши, модернизация қилиниши, стандартларни такомиллаштирилиши ва дастурларни янгиланишига бўлган катта эҳтиёж туғилди. Янгиликларни излаш, яратиш, қўллаш ишлари жадаллашиб борди. Шу сабабли янги билимларга бўлган талаб, “янгилик”, “инновация” ва “инновацион жараёнлар” пайдо бўлди. Илмий тадқиқотларда “Педагогик инновациялар” кўпинча таълимни янгилаш, ислоҳ қилиш жараёни сифатида, материал (ғоя, ҳаракат, шакл, восита, концепция, дастур) сифатида, илғор ўқитиш методларини аниқлаш ва замонавий шароитларда қўлланиш учун энг маъқул ва энг мослашганини танлаб олиш тариқасида таърифланади [1, 2, 3, 4, 5]. М.С.Бургин педагогикада “янгилик”- нинг қуйидаги тавсифларини таклиф этади: бошқа нарсада маълум бўлганини такрорлаш; маълум нарсани унча муҳим бўлмаган ўзгаришлар билан такрорлаш; аввал маълум бўлганини аниқлаштириш; аввал маълум бўлганини жиддий янги элементлар билан тўлдириш; сифат жиҳатидан янгисини яратиш. Инновацион жараёнларнинг микроструктурасини ўрганиб, олимлар янгилик киритишнинг “ҳаётий қисми (даври)” концепциясини ишлаб чиқдилар, улар янгилик киритиш вақт давомида ўтиб борадиган жараён деган фикрни илгари сурдилар. Шу даврга келиб илмий адабиётларда инновацион жараёнлар қуйидаги босқичларга ажратилмоқда: 1. Янги ғоя пайдо бўлиши ёки янгилик концепцияси юзага келиши босқичи. Уни шартли равишда фундаментал ва амалий илмий текширишлар (ёки бирдан пайдо бўладиган) натижалардан келиб чиқадиган янгилик босқичи деб атайдилар. 2. Кашф этиш вақти, яъни амалга ошган объект, моддий ёки маънавий маҳсулот намуна кўринишдаги янгилик яратиш. 3. Яратилган янгиликка амалий кўриниш топилиб, уни қўшимча ишлаш орқали мукаммаллаштириш амалга оширилади. Бу босқич янгилик киритишдан мустаҳкам самарадорликка эришиш билан якунланади. Шундан сўнг янгиликнинг мустақил мавжудлиги бошланиб, янгилик киритиш жараёни кейинги босқичга ўтади. Бу босқич фақатгина янгиликни қабул қилиш шартида амалга ошади. 4. Янгиликнинг бирор соҳада тарқалиши, унинг бошқа соҳаларга диффузияланиб (қўшилиб) кенг татбиқ этилиши билан якунланади. 5. Янгиликнинг бирор соҳада ҳукмрон бўлиши, бунда хусусан янгилик ўз янгилигини йўқотиб, янгилик сифатида мавжуд бўлмай қолади. Бу босқич янги самарали янгилик пайдо бўлиши ёки ундан кўра янада самаралироғи билан алмаштирилиши билан якунланади. 6. Янгилик доираси қисқариб, уни янада маҳсулдорлиги билан алмаштирилиши билан якунланади. Инновацион жараён бошқа сифатли ҳолатга эскириб қолган ҳамда вазият ва аҳамиятларини қайта кўриб чиқиш билан боғлиқ бўлади. Бир даражали қатор янгиликлар йиғиндиси (умумийлиги) инновацион яхлитликни ташкил этади.

Инновацион фаолият даврида янгиликлар, инновациялар, том маънода таълим жараёнига кириб келади. Шу сабабли таълим тизимидаги инновацияларни педагогик жараёнларга киритиш тўрт босқичда амалга оширилади: 1. Муаммони таҳлил асосида

аниқлаш; 2. Ўзгаришларни амалга ошириш ; 3. Ўзгариш ва янгиликларни режалаштириш; 4. Мўлжалланаётган таълим тизимини лойиҳалаш. Юқорида келтирилган инновацион жараённинг бир – бирини вақтлар давомида янги босқичга кетма – кет алмаштирибборилиши, унинг ривожланиб боришининг соддалаштирилган кўринишларида ифодаланади. Бироқ аниқ инновацион жараён бу босқичларни ўз ичига олиб, уларнинг кетма – кет ва боғлиқликларига ҳар доим риоя қилиниши шарт эмаслигини ҳам кўрсатади. Кўпчилик педагог олимлар ишларида педагогик инновациялар қуйидагича гуруҳланади: Инновациялар объекти бўйича таълим мазмунида инновацияларга; ўқитиш ва тарбиялашнинг технологиясида инновацияларга; таълим муассасаларини бошқариш тизимида инновацияларга; таълим муҳитида инновацияларга бўлинади. Келиб чиқиш хусусиятига кўра эса ташқи ва ички инновацияларга ажратилади. Шу билан бирга ташқи инновациялар юқори ташкилотнинг буйруғи ёки йўриқномаси бўйича қабул қилинади ва амалда жорий қилинади. Педагогик тизимга ички инновацияларни жорий қилиш амалиётга нисбатан педагогик рефлексиялар натижасида юз беради. Инновациялар технологик таълим жараёни киритишни янгилик яратиш ва амалга оширишнинг комплекс ва мақсадга мувофиқ жараён сифатида қараб, унинг мақсади инсон талаб ва эҳтиёжларини янги воситалар билан қондирилиши бўлиб, унинг самарадорлиги мунтазам ва ҳаётий янгиликни таъминловчи услуб ва тизимларни маълум сифатли ўзгаришига олиб келади. Педагогнинг инновациялардан самарали фойдаланиши асосан педагогнинг касбий тайёргарлигига ҳамда унинг шахсий тажрибасига боғлиқ. Педагогда шахсий тайёргарлигининг етарли эмаслиги, янгиликлар ҳақида тасаввурларининг ва шахсий имкониятларининг торлиги ўқув муаммосини англаб етилмасдан қолишда намоён бўлиши мумкин. Шундай қилиб, педагогик инновациялар деганда биз восита, метод, усул, технология ва хоказо эмас, балки уларни яратиш, ўзлаштириш ва амалда қўллаш, баҳолашни ҳамда бошқаришни тушунишни тақозо этади. Таълим-тарбия жараёнида инновацияларнинг қўлланилиши бир жиҳатдан таълим жараёнини доимий такомиллаштириш зарурлигидан иборат бўлган педагогик амалиётнинг объектив эҳтиёжларига боғлиқ, иккинчи жиҳатдан эса уларни қўлланиш самарадорлиги педагогларнинг субъектив сифатларига, уларнинг педагогик инновацияларнинг объектив зарурлигини англаганлик даражасига боғлиқлигини кўрсатади.

## АДАБИЁТЛАР

1. Абдукаримов Ҳ., Сувонов О. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010.-76 б.
2. Авлиёқулов Н.Х. Замонавий таълим технологиялари. -Тошкент, 2001. – 69 б.
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат – Тошкент: Молия, 2003. – 174б.
4. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – Москва: ИРПО, 1996.- 336 с.
5. Жўраев Р.Ҳ., Рахимов Б.Х., Холматов Ш..Ф. Янги педагогик технологиялар: муаммоли таълимга асосланган ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: Фан, 2005.- 66 б.
6. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). – Тошкент: Истеъдод жамғармаси, 2010. – 142 б.
7. Олимов Қ.Т. ва бошқалар. Касб таълими методикаси. Дарслик. –Тошкент: “Фан ва технологиялар”, 2016.– 328 б.

**СИНГАРМОНИЗМ НАМАНГАН ҚИПЧОҚ ШЕВАЛАРИ АРЕАЛИНИНГ  
АСОСИЙ ҚОНУНИЯТИ**  
*Мусурмон УСМОНОВ,  
НамДУ тадқиқотчиси*

**Резюме:** Мақолада Наманган қипчоқ шеваларидаги сингармонизм қонунияти ҳақида фикр юритилади.

**Таянч тушунчалар:** Сингармонизм қонунияти, лабланиш, фонетик кучсизланиш, танглай ва лаб гармонияси, назализация.

**Резюме:** В статье предоставлено мнение об закон сингармонизма в Наманганских кипчакских диалектов.

**Ключевые слова и понятия:** закон сингармонизма, лабиализация, фонетическое ослабление, небная и губная гармония, назализация.

**Resume:** The opinion about the law of synharmonism in Namangan dialect kipchac is given in this article.

**Key words and word expressions:** the law of synharmonism, labialization, phonetic weakening, palate and labial harmony, nasalization.

Сингармонизм туркий тилларнинг специфик ҳодисаси бўлиб, у қадимдан мавжуд. Лекин унинг туркий тилларда сақланиш даражаси ҳар хил.

Таъкидлаш керакки, туркий тиллар учун палатал ва лабиал сингармонизмнинг хослиги, палатал гармонияда унлилар қаторга кўра оҳанглашуви ҳеч кимда эътироз турдирмайди. Ўзбек адабий тилининг ҳозирги даври учун гарчи сингармонизм амал қилмаса-да, лекин ўзбек шеваларида сақланиб келаётганлиги деярли барча шевашунос олимлар томонидан эътироф этилади. Шу билан бирга, қаторга кўра зидланишни ўзида сақлаб келаётган ўзбек шеваларида бир ўринда қатор буйича корреляторларнинг ўзаро алмашилиб маъно фарқлаши мавжудлиги қаторни унлилар учун фарқловчи белги сифатида ажратишга имкон беради. Масалан, Андижон шевасида *от* (организм), *ўт* (майса, олов), *ўр* (ўтни ўрмоқ), *өр* (сочни ўрмоқ), *өз* (олмош), *ўз* (босиб ўтмоқ), *ун* (овоз), *ун* (ғалланинг тортилгани).

Лекин, ҳозирги ўзбек адабий тили унли фонемалари учун, дарҳақиқат, қатор белгиси фонологик қимматини йўқотган. Шунинг учун ҳозирги ўзбек адабий тили унли фонемалари учун бу белги тасниф асоси бўла олмайди [3.3].

Сингармонизм қонунини сақланган ўзбек шеваларидаги каби, Наманган қипчоқ шеваларида ҳам унлилар уйғунлиги кузатилади. Лекин уларнинг ўзак ва аффиксларга таъсир даражаси бир хил эмас. Ҳар иккала – танглай ва лаб гармонияси Наманган қипчоқ шеваларида вилоятдаги бошқа шеваларга нисбатан кучлироқ. Лекин олтой, хакас, бошқирд ва қирғиз тилларидагига нисбатан кучсиз.

**Танглай гармонияси** жанубий-ғарбий Наманган қипчоқ шеваларида қуйидаги кўринишларга эга:

а) ўзакнинг биринчи бўғинида тил орқа унлилардан бири бўлса, сўзнинг сўнги бўғинларида ҳам тил орқа (*ёки қаттиқ*) унли товушлар ишлатилади.



б) ўзакнинг биринчи бўғини тил олди (юмшоқ) улилардан бири билан бошланса, унда сўзнинг кейинги бўғинларида ҳам тил олди юмшоқ унлилар иштирок этади.

Танглай гармониясининг бу асосий қонунияти Наманган қипчоқ шеваларида қуйидаги кўринишларга эга:

**1. Сўзнинг ўзак қисми – туб лексик шаклларда.** Кўп бўғинли сўзлардаги биринчи бўғин таркибидаги унлига қолган бўғиндаги унлилар уйғунлашади – биринчи бўғиндаги унли жиҳатларига кейинги бўғиндаги унлилар ҳам эга бўлади. Масалан: *болық* (балиқ), *монты* (манти), *қотық* (қатиқ), *чочық* (сочиқ), *қошқолдоқ* (қашқалдоқ), *чүмәль* (чумоли), *тогоро* (тогора), *сүмәләк* (сумалак), *замбар* (замбил), *сомовор* (самовор), *торғыс// торвыс* (тарвуз), *сомсо* (сомса) каби бир талай туб сўзларда сингармонизм ўз қонуниятини сақлаб қолган.

**2. Сўзнинг ўзак қисмига қўшимча қўшилганда.** Наманган қипчоқ шеваларида қўшимчалар таркибидаги унлиларнинг тил орқа ва тил олди вариантларга эгалиги аффиксларнинг тил орқа қаттиқ ва тил олди юмшоқ вариантларини юзага келтирган. Кўплаб сўз ясовчи ва шакл ҳосил қилувчи қўшимчалар ўзининг контраст жуфтларига эга.

**а) сўз ясовчи қўшимча қўшилганда ёки қўшма сўзларда:** *пармалөлөвгич* (пармалагич), *үймәләма* (уймалама), *савачип* (савагич), *думолоқ//йумолоқ*, *сорторошхоно* (сартарошхона), *мәмохоно* (меҳмонхона), *сомсохпыйос* (саримсоқпийёз), *көзәйнак* (кўзойнак), *нонтохто*, *қыймотохто* (нонтахта, қийматахта) каби жуда кўп содда ясама ва қўшма сўзларда сингармонизм ўз қонуниятини сақлаб қолган.

**б) синтактик шакл ҳосил қилувчи келишик қўшимчалари қўшилганда:**

– қаратқич ва тушум келишиги *-ды//дъ, -ть//ты*: *бунни//мунны* (бурни–ассимиляциян ўзгаришида), *қозонды кўтар*, *қозонды қулогы* (қозонни кўтар, қозоннинг қулоги), *дадамдъ пычохлары*, *энәмдъ көйнәҳларъ* (дадамнинг пичоқлари, онамнинг кўйлақлари), *боғлорды дорохлары*, *совчылорды гапларъ* (боғларнинг дарахтлари, совчиларнинг гаплари), *тошты тәғьда*, *отть түйоғь*, *ошть йәң*, *товоҳты йув* (тошнинг тағида, отнинг тўғи, ошни енг, товоқни юв) каби. Барча қипчоқ шеваларида қаратқич ва тушум келишиги қўшимчалари талаффузда деярли фарқланмайди;

– жўналиш келишиги *-го//га//но, -га//гә, -қа//кә*: *нумоңо*, *нумовго*, (“й”ловчи ва “ж”ловчи шеваларда нимага, нега), *нумонга* (аралаш тип шеваларда нимага, нега), *қайга*, *түйго//түйга//түйга*, *тераҳти учига чихтъ* (терақнинг учига (энг баланд жойига) чиқди), *тогорого со*: (тогорага сол), *орыққо чүш* (ариққа туш), *тэраккә чихтъ* (теракка чиқди) каби.

Асос таркибида бурун товушлари мавжуд бўлган сўзларга жўналиш келишиги қўшимчаси қўшилганда назализациянинг кучлилиги кузатилади.

Назализация унлилар артикуляциясида бурунда ҳосил бўлган резонатор тоннинг қўшиб берилишидир [5.306]. Бу асосан бурун орқали ҳосил бўлувчи сонант талаффузи билан контакт келувчи унлиларда кузатилади: *нумоңо*, *нумовго*, *нумонга* каби. Чунки аввалги товуш артикуляциян рекурсияси кейинги товуш артикуляциян экскурсиясига тенг келади.

Шунинг орқасида аввалги товушдаги уннинг давоми кейинги товушга улашиб кетади ва бурун товушининг ҳам резонатор тони кейинги унли резонатор тонига қўшилади. Натижада унли артикуляциясида ҳам бурун резонатор тони қайд этилади. Шунинг ўзи назализация деб қаралади. Наманган шевасида одатий ҳол деб қаралса ҳам, Тошкент ва бошқа шеваларга хос деб айтиш тўғри эмас. Ўзбек тилининг бошқа шеваларида сонант таъсирида унли назализациясининг содир бўлиши анча кучсиз. У Наманган ва унинг атрофидаги айрим туманлар шевасида одатий ҳол эканлигини С. Отамирзаева ўз изланишларида қайд этган [1.26].

– ўрин-пайт келишиги **-да//до//дә, -та//тә:** *кўчада, уйда, тылызўрдо* (телевизорда), *томдо* (томда), *келидә тўй* (ўғирда туй), *мәлләдә* (этакда), *дәҳчәдә* (токчада), *соҳот бэшта* (соат беида), *эшихтә* (эшикда), *овқотто* (овқатда) каби.

– чиқиш келишиги **-дан//дон, -тан//-дон//-тон//нон//нан//нән:** *укамдан* (укамдан), *сийнимдан* (синглимдан), *чәккадан* (четдан), *олмодон* (олмадан), *сомсодон* (сомсадан), *бошқодон* (ўзгадан, бировдан), *терахтан* (терақдан), *эшихтан* (терақдан), *оттон* (отдан), *хурмодон* (хурмодан), *оштон* (ошдан), *бошқоттон* (янгидан, қайтадан) каби. Агар сўз ўзаги бурун консонантлари билан тугаган бўлса ёки ўзакка синтактик шакл ҳосил қилувчи қўшимча бурун консонантлари билан тугаган бўлса, назализация кучаяди ва тил олди портловчилари **д** ва **т н** ва **ң** товушига алмашади: *ноннон* (нондан), *энәмдән* (онамдан), *қўлимнән үшләди* (қўлимдан ушлади), *чачъңдән тортымы* (сочингдан тортдими?), *бошыңнон ўғирвәр* (бошинг айлантириб юбор) каби.

– эгалик қўшимчаларининг бирлиги **-(ь)м//-(ы)м; -(ь)нг//-(ы)ң; -(с)ъ//-(с)ы** қўшилганда: *бүннъм* (бурним), *қонным* (қорним); *чачъң* (сочинг), *бошың* (бошинг); *әнәсъ* (онаси), *отосы* (отаси); кўплиги **-(ь)мис//-(ы)мыз; -(ь)ңъс//-(ы)ңыз;-ъ//-ләръ//** *лоры:* *кәльнъмис* (келинимиз), *қошығымыз* (қошиғимиз); *этъгъңъс* (этигингиз), *қызыңыз* (қизингиз); *қўшнылорды пъчогъ* (қўшниларнинг пичоғи), *сөвзиләръ* (сабзилари), *пычохлоры* (пичоқлари) каби.

– шахс-сон қўшимчаларининг бирлиги **-(ь)м // -(ы)м; -(ь)нг //-(ы)ң; -тъ // -ды** қўшилганда: *кәлдъм* (келдим), *қылдым* (қилдим); *кәрдъң* (кўрдинг), *бордың* (бординг); *айттъ* (айтди), *қылды* (қилди); кўплиги **-мис // -мыс // -мыз; (ь)ң// -със// -сыс// сыз, -нар// -нәр// -нор; -ъ// -ләр// -лор:** *оң* (олинг), *кәң* (келинг), *кәләмис* (келамиз), *қыйномоймыс* (қийнамаймиз), *ўйлоймыз* (ўйлаймиз); *кәләсъс* (келасиз), *боросыс* (борасиз), *ўйнойсыз* (ўйнайсиз), *чиқиннар* (чиқинглар), *кеннәр* (келинглар), *борыннор* (боринглар); *келадъ* (келади), *келаллар* (келадилар), *бородилор* (борадилар) каби.

**в) лугавий шакл ясовчи қўшимчалар қўшилганда:** – кўплик қўшимчалари **-ләр // -лар // -лор:** *чәвәлләр* (чеварлар), *йъпләр* (иплар), *қувълләр//қубърлар* (қувурлар), *ғўралар* (ғўралар-довучча), *кўрпачалар* (кўрпачалар), *қоровылар* (қоровуллар), *боллор* (болалар), *толлор* (толлар), *дуволлор* (деворлар) каби.

– сифатдош қўшимчаси **-ган// -кән// -қон// -гон:** *диган* (деган), *әйткән* (айтган), *чыққон* (чиққан), *боргон* (борган) каби.

– равишдош қўшимчалари **-(ъ)п; зоны//ганъ//кәнъ:** *туръп* (туриб гапир), *ўқъп* (ўқиб кўр); *озоны* (олгани), *урзоны* (ургани), *кўрганъ* (кўргани), *берганъ* (бергани), *айткәнъ* (айтган), *эккәнъ* (эккани) каби.

Хуллас, Наманган қипчоқ шевалари ареалида ҳам кўпгина сўз ясовчи, сўз ўзгартирувчи аффикслар ўзларининг контраст жуфтларига эга. Булардан қаттиқлари таркибида фақат тил орқа унлиси бор ўзакли сўзларга, юмшоқлари фақат таркибида тил олди унлилари бир ўзакларга қўшилади.

**Лаб гармонияси.** Маълумки, лаб гармонияси қонунига мувофиқ ўзакнинг биринчи бўғинида лаблашган унлилардан бири бўлса, сўнгги бўғинлардаги унлилар ҳам лаблашади.

Наманган қипчоқ шевалари ареалида лаб гармонияси қонуни, оз бўлса-да, мавжуд. Лабланиш ҳодисаси биринчи, иккинчи бўғинларда сезиларли бўлиб, учинчи ва сўнгги бўғинларга ўтиши спорадик. Лекин лаб гармонияси муфассал сақланган олтой ва қирғиз тилларидан кескин фарқ қилади. Мазкур тилларда аффикслар фақат қаттиқ юмшоқлиги билан эмас, балки лабланган ва лабланмаганлиги билан ҳам ажралиб туради [2.142, 6.87].

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш лозимки, ўзбек шевалари ҳозирги адабий тилда учрамайдиган айрим грамматик шакллар, лексик birlik элементларини сақлаб қолганки, уларни асосли равишда илмий ўрганиш жуда муҳим тарихий-лингвистик хулосаларни чиқаришга имкон туғдиради. Қатъий бир қонуният асосида тилнинг узок замонлардаги ҳолатини аниқлаётган изланувчига жуда қимматли материал берувчи маба бўлади. Шунинг билан бир қаторда, бундай фонетик, лексик-грамматик фактлар – асослар П.М.Мелиоранский таъбири билан айтганда: “...қадимги ёдгорликларни тушуниш ва лингвистик анализ қилишда ноёб қўлланма вазифасини адо этади” [4.3].

#### АДАБИЁТЛАР

1. Атамирзаева С. Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка. 1970.
2. Исхаков Ф. Г. Гармония гласных. Истор.-сравн. грамм. тюрск. языка. I-ч. – М., 1968. с.142
3. Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Тошкент: Шарқ, 2005.
4. Мелиоранский П. М. Араб-филолог о турецком языке, СПб., 1900.
5. Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Ташкент: Фан, 2013.
6. Пальмбах А. А. Грамматика тувинского языка. – М., 1979.

#### ERKIN VOHIDOV IJODINI YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH USULLARI

*Barno ABDIYEVA,*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘zbek tili va  
adabiyoti fakulteti talabasi*

*Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD), dots. M.Jo‘rayev*

**Annotatsiya:** Maqolada Erkin Vohidov ijodini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish usullari, shoirning “Donishqishloq latifalari” asari misolida tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘qitish, texnologiya, fan, tarbiya, shoir, latifa, o‘qituvchi, klaster, mavzu.

**Abstract:** The article analyzes the work of Erkin Vahidov on the basis of new pedagogical technologies, using the example of the poet's work "Student Anecdotes".

**Keywords:** teaching, technology, science, education, poet, anecdote, teacher, cluster, topic.

**Аннотация:** В статье анализируется творчество Эркина Вахидова на основе новых педагогических технологий на примере «Мудрых анекдотов» поэта.

**Ключевые слова:** Обучение, технология, наука, образование, поэт, анекдот, учитель, кластер, тема.

O‘qitish fan, uning bo‘limlari va bo‘limlarning mavzularini izchil hamda didaktik talablar asosida rejalashtirishni talab etadi. Shuningdek, o‘qituvchi materialni qismlarga bo‘lib o‘qitishda ushbu qismlarning oson va ongli o‘zlashtirilishiga imkoniyat beradigan didaktik vositalar, amalga oshiriladigan texnologiyalar, samarali metodlar turlari, amalga oshirish yo‘sinlarini ham loyihalashtirishi lozim. Ikkinchi tomondan, o‘quv materiallari, mavzulari o‘zlari aloqador bo‘lgan fanning eng so‘nggi yutuqlarini o‘zida aks ettirishi zarur. O‘z-o‘zidan tushuniladiki, fanning yangi mazmuni o‘qituvchidan ta‘limga yangicha yondashishlarni, rejalashtirishlarni, innovatsiyalarni talab etadi, bularning barchasi o‘qitish modulining dolzarbligini belgilaydi.

Ta‘lim-tarbiya jarayonining doimiy ravishda optimallashtirib borishi dars berish jarayonida qo‘llanilayotgan yangi va takomillashib borayotgan pedagogik texnologiyalarni turli yo‘nalish va maqsadlarda qo‘llanilayotganligiga bog‘liq.

Bugun ta‘lim tizimida hayotga tadbiiq etilayotgan islohatlarning barchasi tub mazmun-mohiyati bilan yoshlarimizning yurt ravnaqi uchun fidoiy, izlanuvchan bo‘lib yetishmog‘iga qaratilgan.

Bugungi kun o‘qituvchisi yangilikka intiluvchan, uni to‘g‘ri qabul qilib o‘z o‘quvchisiga yuksak darajada yetkaza olish zarurdir. Darslarni yuqori darajada tashkil qilish va o‘tkazish uchun, avvalo, o‘qituvchining o‘zi pedagogik jihatdan mahoratga ega bo‘lishi zarur. Shundagina bunday o‘qituvchi yosh avlodni har jihatdan yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalay oladi va unda eng oliy insoniy fazilatlariga ega yosh avlod buyuk kelajagimiz egalari hisoblanadi.

Ijodkorlar bir-biriga o‘xshamaganlari kabi ustozlarimiz Mirtemir, Zulfiya, Asqad Muxtor, Shuhrat, Saida Zunnunova, Ozod Sharafiddinovlarning bizga mehru ardog‘i ham turli yo‘sinda bo‘lgan. Ularning yodi oldida qarzdormiz va bu qarzni ijodkor yoshlarga mehr ko‘rsatib uzmog‘imiz kerak”<sup>1</sup>

Erkin Vohidov yaratgan “Donishqishloq latifalari” va bu turkumning bosh qahramoni Matmusa misolida she‘riyat muxlislari yana bir bor badiiy ijodda baribir mahorat birlamchi

---

<sup>1</sup> Vohidov E. Erk saodati. Asarlar. Oltinchi jild. – T.: Sharq, 2018 yil 270-271-betlar.

ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Erkin Vohidov o‘zidagi mahorat kuchi bilan uncha-muncha nigohlar ilg‘amaydigan komik vaziyatlarni kashf etadi, uni mohirona hajviy yo‘sinda talqin etadi, kuldiradi va o‘ylatadi. Shoir hajviyotining gultoji bo‘lmish “Donishqishloq latifalari”ni o‘qimagan, undan yod olib davralarda odamlarga xursandchilik ulashish uchun aytib yurmagan insonlar bo‘lmasa kerak.

“Zarif inson So‘z qadriga yetadi. So‘zning mag‘zini chaqib, tub ildizini qidiradi. Insonni ulug‘laydigan, uni qaro yerdan osmoni falakka ko‘taruvchi fazilat bahramandlikdir. O‘z ona tilini bilmagan, qiziqmagan odam barkamol sanalmas. U kim, qaysi yurt va qaysi millatga mansub ekanidan, o‘z ona tilining boyu kambag‘alligi, mayin va dag‘alligidan qat’i nazar. O‘z tiling o‘z vataningdek aziz, o‘z onangdek tabarruk”<sup>1</sup>.

Biz o‘quvchilarga ushbu asarni o‘qitish jarayonida quyidagi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashimiz mumkin.

“Tushunchalar tahlili asosida matn tuzish”. Tushunchalar asosida matn tuzish metodi bilish - izlanish turidagi mustaqil ishlar sirasiga kirib, bu ish turli xil mantiqiy amallarni talab etadi: tahlil qilish va umumlashtirish, dalil va hodisalarni qiyoslash, ulardagi mushtaraklik va farqli tomonlarni aniqlash, asosiy va ikkinchi darajali belgilarni ajratish, sabab-oqibat aloqalarini ochib berish va hokazo. Odatda talabalar noma‘lum hodisalar, yangi materiallarga duch keladilar, yangi bilimlarni egallash va o‘quv muammosini hal qilish yo‘llarini izlab topishni talab etadigan muammoli vaziyat paydo bo‘ladi.

Tushunchalar tahlili asosida matn tuzish ayniqsa, adabiyot darslarining amaliy va seminar darslarida katta samara beradi. Masalan, “Donishqishloq latifalari” asarida hajviy obrazning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirishda quyidagicha foydalanish mumkin.

1. Donishqishloq, latifa, Matmusa, hajviy qahramon, ko‘ngil, obraz, ijtimoiy-siyosiy, Matmusaning dutori, peyzaj.

2. Matmusaning tandiri, komizm, kulgi, yumor, satira, diolog, personaj, sujet, Matmusaning qishlog‘i, komik qahramon, komik konflikt.

3. Matmusaning lagani, Matmusaning charxpalagi, Qiziquvchan Matmusa, Matmusaning qalpog‘i, Matmusaning uylanishi, Matmusa rassom.

Tushunchalar tahlili asosida matn tuzish individual yoki kichik guruhlarda amalga oshirilishi mumkin. Matn tuzish auditoriyada yoki uyda bajarish uchun mustaqil ish sifatida beriladi. Auditoriyada matn tuzish uchun o‘qituvchi tomonidan 15-20 minut beriladi. Vaqt tugagandan so‘ng har bir guruh o‘z tuzgan matnini o‘qib beradi. Matn yuzasidan savol-javoblar bo‘ladi. Yuqorida berilgan beshta topshiriq bo‘yicha tuzilgan ilmiy matndan talabarning mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligining guvohi bo‘lamiz.

Bugungi kunda millatdoshlarimizning har biri Matmusaning ajib hangomalaridan xabardor. Donishqishloqliklarning ajabtovur fe‘l-atvorlari barchani qoyil qoldiradi. Qishloqning nomi ham ahliga mos-Donishlar qishlog‘i. Ular atrof-olamni o‘zlaricha qabul qiladilar. Mushohadalari-yu mulohazalari, xulosalari-yu to‘xtamlari ham boshqalarnikidan farq qiladi.


---

<sup>1</sup> Vohidov E. So‘z latofati. – T.: O‘zbekiston, 2018 yil 6-bet.



“Donishqishloq latifalari” turkumiga bir-biridan alohida, bir-biriga bog‘lanmaydigan o‘nta she‘riy hangoma kirgan. Demak, bu turkum uchun yaxlit sujet yo‘q. Ammo bu o‘nta alohida hangomani bir-biriga bog‘lab turuvchi obraz borki, bu Matmusa va donishqishloqlilklardir. O‘nta hangomaning asosiy qahramoni esa Matmusa hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur asarni “Klaster” metodi asosida quyidagicha tahlil qilish mumkin:



Ko‘rib turganimizdek, Matmusa hangomalarimizning sarlavhasiga ko‘tarilgan. Klaster metodi orqali biz har bir Matmusa bilan bog‘liq hangomaning sarlavhasi keltirilishi orqali alohida sujetning umumiy mazmunini yaqqol tasavvur qilish imkoniga ega bo‘lamiz.

O‘n minutlik esse. Esse – bu muallifning individual nuqtai nazarini ifoda etish shakli bo‘lib, biror narsa-hodisa yoki jarayon haqidagi umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o‘z ichiga oladi.

O‘n minutlik essenini yozish qoidalari (“Matmusa obrazining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari” mavzusida):

1. Taklif etilgan mavzuga doir so‘zlar hajmi 500 tadan 1000 tagacha bo‘lishi mumkin.
2. Matmusaning lagani, Matmusaning charxpalagi, Qiziquvchan Matmusa, Matmusaning qalpog‘i, Matmusaning uylanishi, Matmusa rassom kabi jumalardan foydalaning.
3. O‘zingiz o‘qigan Matmusaning hangomalaridan birini tahlil qiling.

O‘n minutlik esse talabani ijodiy qobiliyatini, yozma savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega texnologiyalardan biri hisoblanadi. Ta‘lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish talabalarning mantiqiy, tanqidiy, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda yaxshi samara beradi. Mazkur metodlar tarbiyaviy xarakterdagi bir qator vaziyatlarni amalga oshirish imkonini beradi:

- o‘zining faoliyatiga mas‘ullik va qiziqish uyg‘otadi;
- o‘zgalarni tinglash va fikriga hurmat;
- muammoga ijodiy yondoshish;
- imkoniyatlarni ko‘rsata olish;

- jamoa bilan ishlash mahorati.

Ta'lim sifatini yaxshilash, talabalarning intellektual faolligini oshirish bugungi kunda pedagogikaning bosh vazifasi hisoblanadi. Intellektual faollikni oshirishda interaktiv usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu esa ta'lim jarayonida yangiliklarni joriy etishni talab etadi.

## **DISKURS TERMINING LINGVISTIK MOHIYATI, KO'LAMI VA TALQINI**

*Diyora Qurbon qizi NURIMOVA,*

*Prof'i universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada diskurs konsepti, uning lingvistikada yuzaga kelishi, jahon va o'zbek tilshunoslari tomonidan u bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida so'z boradi. Bugungi kun tilshunosligida uning o'rni va o'rganilishiga oid fikr va xulosalar keltiriladi. Diskursning lingvistik mohiyatiga doir nazariy va ilmiy qarashlar talqiniga alohida to'xtaladi. Shuningdek, ijtimoiy fanlarda diskurs istilohining qo'llanishi hamda amaliy ahamiyati bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** diskurs, tahlil, lisoniy, nolisoniy, lirik diskurs, grammatika, lug'at tarkibi, matn, sotsiopragmatika.

**Abstract.** This article talks about the concept of discourse, its occurrence in linguistics, and the researches carried out on it by uzbek and world linguists. Thoughts and conclusions are given regarding its study in today's linguistics. Special attention paid to the interpretation of theoretical and scientific viewson the linguistic essence of discourse. Also, the use and importance of discourse thereyn social sciences is described.

**Key words:** discourse, analysis, linguistic, non-linguistic, lyric discourse, grammar, vocabulary content, text, sociopragmatics.

Tilshunoslikning rivojlanishi jarayonida lingvistlar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning aksariyati zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari hamda antroposentrik paradigma bo'yicha qilinayotgan ishlardir. Ilmiy izlanishlar orasida "diskurs", "lirik diskurs" atamaları ham ko'p uchramoqda. U nafaqat tilshunoslikning, balki adabiyot, sun'iy intellekt, huquq, falsafa, mantiq, psixologiya, kompyuter tilshunosligi, neyrolingvistikaning ham tadqiqot obyektlaridan biri sanaladi. Ushbu fanlarning har biri diskurs atamasini o'z doirasida tahlil etadi hamda nazariy fikr va xulosalar keltiradi. Tilshunoslikda esa diskurs pragmalingvistika va matn tilshunosligining asosiy o'rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. U so'zlovchi hamda tinglovchi o'rtasida o'zaro fikr almashinish, bir-biriga ekspressiv ta'sir etishning lisoniy va nolisoniy shakllaridan biridir.

Diskursni bitta tushuncha ifodalaydigan birliklar qatoriga qo'shib bo'lmaydi. Chunki "diskurs" atamasi (fr. discours, ing. discourse, lot. dicursus oldinga orqaga yugurish; harakat, aylanish; suhbat, gaplashish) tillarda turli tushunchalarini ifodalab bergan. Umumlashtirgan holda diskursni ijtimoiy muloqotning asosiy shakli va matnni lisoniy va nolisoniy omillar asosida tushunishga tayangan hodisa deb izohlash mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, diskurs-tahlil kognitiv va sotsiokognitiv paradigmada XX asr o'rtalarida yuzaga kelgan. Bu soha

bo'yicha izlanishlar yevropa va rus tilshunoslari ishlarida ko'p uchraydi. O'zbek tilshunosligida esa diskurs pragmatikistikaga oid tadqiqot va monografiyalardagina uchraydi.

Adabiy aspektdagi diskurs masalasi fransuz olimlari M. Fuko, S. Todorov, Y. Kristeva, R. Bart asarlarida, shuningdek, rus tilshunoslari M. M. Baxtin, Y.M Lotman, V. I. Tyup tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan, S. N. Broymtan, I. P. Smirnov, I. V. Samarukov, Y. Rudnev, P.V. Kovalev (Abdunazarova, 2021,15-bet), xususan, nutq nazariyasi, diskurs tahlil masalalari biroz o'rganilgan. Bu atama ilk bora amerikalik tilshunos Z. Xarrisning 1952- yilda nashr etilgan "Diskurs tahlili" nomli maqolasida keltirilgan.

Tilshunoslikda diskurs termini bilan bog'liq bir qator nazariya va fikrlar mavjud. Antroposentrik tilshunoslikning muhim qismi bo'lgan diskurs axborot almashinuviga xizmat qiladi va badiiy muloqot turi sifatida aks etadi. Diskurs yadrosida, avvalo, inson, ya'ni yozuvchi, kitobxon hamda personaj turadi. Shuningdek, matn diskursi lisoniy va nolisoniy omillarni ko'rsatadigan kognitiv hodisadir. Diskurs haqidagi umumiy tushunchalarni jamlagan holda rus tilshunos olimi Y. S. Stepanov pragmatikani alohida fan sifatida belgilaydi. Uning markazi deb esa uzun va mazmunan aloqador matn, diskursni ko'rsatadi. Inson har qanday hodisaning muallifidir. U suhbat, voqea yoki yakun bo'lishi mumkin. (Stepanov, 1981, 332) Olim o'z tadqiqotlarida diskursning "til ichida til" ekanligini qayd etadi. Ammo maxsus shakl beriladi. Haqiqatan ham u tilda mavjud, biroq uning "grammatikasi" va "lug'aviy qatlami" sifatida emas.

Har bir diskursning grammatik, semantik va pragmatik markazida ma'lum hodisa aks etgan matn turadi hamda u gap yoki nutqda so'zlovchi va tinglovchi anglaydigan natija sifatida namoyon bo'ladi. Unga hajman chegara qo'yilmaydi. Sababi u bir yoki ikki so'zdan, ba'zan esa yuz minglab so'zdan iborat bo'lishi mumkin. Diskurs matn tarkibidagi birdan ortiq gap yoki gapdagi mustaqil qismdir. Adabiyotshunoslari uni to'rt asosiy turga bo'ladi: bahs, tavsif, tushuntirish va hikoya. (<https://www.supersummary.com/discourse-in-literature-definition-examples/>)

Ijtimoiy fanlarda diskurs istilohini insonlar muloqotining ijtimoiy va madaniy an'analari kesishgan nuqta sifatida tahlil etishadi. Chunki ong har qanday fikrni so'zga aylantirishi, uni muloqot jarayoniga tayyorlab, nutq yaratishi jamiyat va undagi madaniyatga uzviy bog'liq. Bunga misol tariqasida pitsa va palov leksemalari ostida yashiringan diskursni olishimiz mumkin. Palov o'zbek millati vakillari uchun sevimli taom bo'lsa, pitsa ham italyanlar lug'at boyligida asosiy o'rin egallaydi. Har bir madaniyatga xos bo'lgan leksema bizning kommunikatsiyamiz hamda fikr orqali ta'sir qilishimizda bevosita ishtirok etadi.

Matn tilshunosligida diskurs istilohini T. M. Nikolayeva quyidagi belgilar bilan izohlaydi:

- 1)matn bilan uzviy bog'liq;
- 2)matnning og'zaki so'zlashuv shakli;
- 3)dialog;
- 4)aytilgan va anglangan fikrlar yig'indisi;
- 5)ma'lum bir holatni og'zaki yoki yozma shaklda yetkazish (Nikolayeva, 1978,467).

Olimning fikrlaridan diskurs va uning mavzu ko‘lami xususida turli xulosalar yuzaga keladi. Diskurs matni faqat grammatik tuzilishi doirasida emas, balki ekstralingvistik jihatdan, ya’ni matnda aks etgan fikrni pragmatik, sotsio-kulturologik, psixologik faktorlarga ham tayangan holda muhokama qilishdir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, diskurs og‘zaki nutq va yozma matnda axborot almashinuvi vositasi hamda ma’lum mavzuga oid matnlar yig‘indisidir. Diskurs tahlil va diskurs yuzasidan qilingan asosiy qarashlar Harrisning ishlarida uchraydi. U diskursni nutqni tahlil qilish usuli, shu bilan birga bitta jumlaning tilshunoslikda kengaytirish deb izohlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, diskurs XX asrning ikkinchi yarmida semiotika, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari kesishgan nuqtada yuzaga keldi. U oxirgi o‘n yilliklarda ommalashayotgan atama bo‘lgani uchun ham barcha mazmunini qamrab oladigan umumiy ta’rif mavjud emas. Diskurs bevosita milliy madaniyat va matn yaratuvchisi bilan bevosita bog‘liq. Bu istilohni chuqurroq tadqiq etish zamonaviy tilshunoslik muammolarini tahlil etishga yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdunazarova N. “Diskurs”ni izohlash bo‘yicha turlicha yondashuvlar. Academic research in educational sciences. 2021, №4
2. Stepanov. Yu. Pragmatikadagi izlanishlar. 1981, 332-bet.
3. (<https://www.supersummary.com/discourse-in-literature-defination-examples/>)
4. Nikolayeva. Matn lingvistikasi. 1978, 467-bet.

#### “FLIPPED CLASSROOM” METODINING TARIXI, NAZARIY ASOSLARI

*Oydin Urazali qizi AMANBAYEVA,*

*The 2<sup>nd</sup> degree student of masters degree at Navai Pedagogical Institute*

**Abstrakt.** Ushbu maqolada muallif “Flipped classroom” metodining tarixiy nazariy asoslari uning metod sifatida shakllanishini analiz qiladi va uning oliy ta’lim tizimida chet tillarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar bilan birgalikda qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi. Yangi metodlar yordamida o‘tkazilgan imperik tadqiqot metodlarini xulosalaydi.

**Kalit so‘zlar:** Teskari sinf, moslashuvchan muhit, axborot manbai, professional o‘qituvchi, instruktor, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

**Abstract.** In this article, the author analyses the historical theoretical basis of the "Flipped classroom" method and its formation as a method. The article discusses the use the method in teaching foreign languages in the higher education system together with innovative technologies considering the possibilities of application. It summarizes empirical research methods conducted using new methods.

**Key words:** Flipped classroom, flexible environment, source of information, professional teacher, instructor, information and communication technologies.

**Абстрактный.** В этой статье автор В историко-теоретической основе метода «Перевернутый класс» анализируется его становление как метода и его использование в системе высшего образования. иностранный языклариубейвместе с инновационными

технологиями в обучении рассматривает возможности применения. Обобщаются методы эмпирического исследования, проведенного с использованием новых методов.

**Ключевые слова:** Перевернутый класс, гибкая среда, источник информации, профессиональный преподаватель, инструктор, информационные и коммуникационные технологии.

## **Introduction.**

Ta'lim berishning yangi modeli sifatida e'tirof etilayotgan «Flipped Classroom» (teskari sinf) modeli tadqiqotchi-ekspertlar tomonidan samarali deb ta'kidlanmoqda.

Ushbu model dastlab umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida qo'llanilgan bo'lsa, keyingi tajriba sinov natijalari uning oliy ta'limda samaraliroq bo'lganini ta'kidlaydi. Chunki uning mazmuni nomiga mos bo'lib – uy vazifasini sinfda, sinf vazifasini uyda bajarishda namoyon bo'ladi.

Psixofiziologik jihatdan maktabga nisbatan oliy ta'limda tahsil oluvchilarning shaxsiy rivojlanishda ustunliklarga egaligi bois Flipped Classroom universitet o'quv jarayonida o'zlashtirishning yaxshilanishiga hissa qo'shdi. Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda ushbu model keng miqyosda qo'llanib ko'rilmadi. Shu jihatdan «Flipped Classroom» respublikamiz ta'lim tizimida birmuncha yangi hisoblanadi va shunga asoslanib uning mazmuni va qo'llanilish mexanizmlarini imkon qadar yoritishga harakat qilamiz.

Fan-texnika taraqqiyotidagi yutuqlar yoshlar uchun an'anaviy darslarni zerikarli bo'lib qolishiga sabab bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Oxirgi yigirma yilda ijtimoiy hayotning barcha sohalari kabi ta'limga ham innovatsiyalar keng joriy qilina boshlandi. «Flipped Classroom» (teskari sinf) g'oyasi ham o'qitishning ana shunday innovatsion g'oyasi sifatida amaliyotga joriy qilindi. Yevropaning yetakchi davlatlari Germaniya va Avstriyada 2015-yillardan oliy ta'lim muassasalarida talabalar sonining ortib ketishi hamda auditoriya soatlarini kamaytirish, o'zlashtirish samaradorligini oshirish maqsadida teskari sinf modelidan foydalanila boshlandi. O'qitishga no'anaviy yondashuv talabalarning bilim olishga, o'z-o'zini rivojlantirishga motivatsiyasini oshirdi. Chunki bunda talaba auditoriyada o'tiladigan yangi ma'ruzani uyda o'qib, tushunib, tasavvurga ega bo'lib darsga mavzu bo'yicha amaliy vazifalar yechishga tayyor holda keladi. Dars vaqti uyda mustaqil o'zlashtirgan bilimlari asosida fanga oid ko'nikma va malakalarni rivojlantiruvchi metodikalar vositasida “uyga vazifa”ni bajaradi.

Flipped Classroom nima? “Flipped Classroom” – “Teskari o'girilgan sinf”, yoki “Almashtirilgan sinf” – bu aralash ta'limning (blended learning) bir turi bo'lib, u o'quvchilarning faolligini oshirish va o'quv materialini uylarida o'qishlarini va dars paytida jonli ravishda muammolarni hal qilish ustida ishlashlarini ta'minlashga qaratilgan, ta'lim mazmunini yetkazib berish orqali an'anaviy ta'lim muhitini o'zgartiradigan o'quv strategiyasi. Loyihalar, topshiriqlar, uy ishlari va boshqalar kabi mashg'ulotlar sinfda o'qituvchi bilan birgalikda olib boriladi. Bu o'qituvchilarga dars paytida faol o'qitishga yo'naltirilgan, o'quvchilarga ma'ruza materiallari va taqdimotlarni uyda yoki darsdan tashqarida ko'rib mustaqil o'rganish uchun beriladigan interfaol metodlarning biri hisoblanadi.



“Flipped Classroom”ning ahamiyati darsning maqsadi va uslubini o‘zgartirishdan iborat bo‘lib, unda dars mashg‘ulot bo‘lib, talabalar ma’ruza materiallari bilan oldindan tanishib chiqib, tushunarsiz bo‘lib qolgan jihatlarni topishi, olgan bilimlarini amalda qo‘llay olishi va o‘zaro amaliy tajriba almashishi mumkin. Dars davomida o‘qituvchi instruktor, maslahatchi vazifasini bajaradi, talabalarni individual va guruh ishlarida ilhomlantiradi.

“Aksariyat o‘qituvchilar o‘z vaqtlarini materialni tushuntirishga va bilimlarni yetkazishga sarflaydilar, ozgina vaqt esa qandaydir narsalarni tahlil qilish, baholash va yaratishni o‘rgatishga sarflanadi. Ta’limning “flipped-teskari modeli” bilimlarni talabani shaxsiy makoniga yetkazishga harakat qiladi va ko‘proq vaqt amaliy ko‘nikmalarga sarflanadi”, – deb tushuntiradi “flipped classroom – aylantirilgan sinf” g‘oyasining asoschilaridan biri Jonatan Bergman .

Ushbu texnologiyaga kimlar asos solganliklari haqida to‘xtalib o‘tsak. Ko‘pgina adabiyotlarda hamda elektron manbalarda “Flipped learning” – “Teskari o‘girilgan ta’lim” asoschilari haqida turli ma’lumotlarni uchratish mumkin. Masalan, [en.wikipedia.org](http://en.wikipedia.org) saytining bergan ma’lumotlariga ko‘ra birinchilardan bo‘lib bu texnologiya haqida 1993-yilda Alison King “From Sage on the Stage to Guide on the Side” (“Sahnadagi donishmanddan chekkadagi yo‘lboshchigacha”) nomli asarida yozadi. Bunda u sinf xonasini “teskari o‘girish” tushunchasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoritib bermagan bo‘lsa ham, Kingning ishi ko‘pincha faol o‘rganish uchun ta’lim maydonini yaratishga imkon beradigan inversiya, ya’ni “Flipped classroom” uchun turtki sifatida keltiriladi.

Shuningdek, Salmon Xonni ushbu yondashuvning tarafdorlari va asoschilaridan biri deb hisoblash mumkin. U butun dunyo bo‘ylab maktab o‘quvchilari va talabalari foydalanishi mumkin bo‘lgan turli fanlar bo‘yicha qisqa video ma’ruzalar yaratdi. Xonning bu g‘oyasiga asos bo‘lgan qisqa ma’ruzani masofadan turib ko‘rish prinsipi “flipped learning – o‘girilib o‘rganish” texnologiyasi yotadi.

Sams Aaron o‘zining “The Flipped Class: Shedding Light on the Confusion, Critique, and Hype” nomli kitobiga shunday deydi: “Ehtimol, “Flipped classroom” teskari o‘girilgan sinfning eng taniqli ishtirokchisi Salmon Xon bo‘lishi mumkin. 2004-yilda Xon o‘z o‘quvchisi bo‘lgan kichik amakivachchasining iltimosiga ko‘ra videoyozuvlarni yozishni boshlaydi, chunki o‘quvchisi yozib olingan darslar orqali o‘zlashtirgan bilimlarni yanada mustahkamlashi va tushunmay qolgan qismlarini qayta ko‘rib chiqib o‘rganish imkoniga ega bo‘lar edi. Salmon Xon ushbu model asosida Xon akademiyasini tashkil etdi. Ba’zilar uchun Xon akademiyasi “Flipped classroom-o‘girilgan sinf ” bilan sinonimga aylandi. O‘z o‘rnida bu video filmlar o‘zgartirilgan sinf strategiyasining yagona shaklidir”.

Aksariyat adabiyotlarda va elektron manbalarda Flipped Classroom texnologiyasi 2008-yilda kimyo fani o‘qituvchilari Jonathan Bergman va Aaron Sams tomonidan ixtiro qilingan va ta’lim sohasida ommalashtirilgan deb ma’lumot beriladi.

Ushbu texnologiya birinchi navbatda darslarni qoldirib ketayotgan talabalarga, so‘ngra ma’ruza materiallarini uyda ko‘rish va bilimlarini oshirish imkoniyatini qadrlaydigan barcha sinf o‘quvchilariga yordam berish maqsadida ishlatilgan. Bu esa o‘qituvchilarga o‘qitish uslublarini va umuman butun tizimni qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini berdi. Dastlab J. Bergman va A. Sams o‘zlarining dars materiallarini Power Point taqdimotlarini ovozli

yaratdilar, keyin taqdimotlar mualliflik huquqiga oid videolar bilan almashtirildi. Shunday qilib, o'qituvchilar dastlab nazariy materiallarni onlayn tarzda taqdim etish yondashuvi sinfda o'quv materialini yanada chuqurroq o'rganish uchun foydali bo'lgan dars soatlarini bo'shatishini angladilar. Shu tarzda maktab sinflari "uy vazifasi" ni bajaradigan joyga, ya'ni mavzularni va muammoli masalalarni puxta o'rganishga, shuningdek, hamkorlikda mashg'ulotlarni amalga oshirish imkoniyatiga aylandi. Ammo eng muhimi, ma'ruzalarning barcha jihatlari oldindan o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, iloji boricha vaqt kabi juda kam o'quv manbasini ko'paytirish uchun xizmat qildi.

"Teskari" o'qitish tizimiga o'tgandan so'ng, J. Bergman talabalar bilan individual ravishda suhbatlashish, ayrim ilmiy tushunchalar haqidagi turli xil noto'g'ri tushunchalarni tekshirish, shuningdek, ba'zi hodisalar haqidagi noto'g'ri tushunchalarga oydinlik kiritish osonlashdi. Bundan tashqari, bunday tizim har bir darsda har bir talaba bilan alohida ishlashga imkon beradi. Shunday qilib, har bir talabaga individual yondashish amalga oshiriladi.

J. Bergmanning ta'kidlashicha, endi darslar davomida u uy vazifasini bajarishdan bosh tortmaydigan, aksincha, sinfdagi qiyin vazifalar ustida ish olib boradigan, orqada qoladigan o'quvchilarga ko'proq vaqt ajratadi. Bundan tashqari, sinfda muvaffaqiyatli ishlashga bo'lgan ehtiyoj uy sharoitida nazariy materiallarni o'rganish uchun qo'shimcha turtki yaratadi. Ayni paytda, a'lo darajadagi talabalar mustaqil ravishda o'qish uchun ko'proq erkinlikka ega bo'lishadi. J. Bergman yangi o'qitish tizimi takomillashishiga ham o'qituvchilar, ham talabalar, hamda talabalarning o'zaro munosabatlari, shuningdek, talabalarning motivatsiyasi darajasini oshirishiga ishoniradi.

Ma'lumot o'rnida Xalqaro Oliy ta'lim muassasalaridan MEF universiteti, Turkiyaning Istanbul shahrida joylashgan notijorat xususiy universiteti, butun dunyo bo'ylab "Flipped classroom", ya'ni "o'zgargan sinf" ta'lim modelini qabul qilgan birinchi universitet deb tan olingan.

Flipped Classroom texnologiyasining 4 asosiy komponenti mavjud – "F-L-I-P har bir FLIP harfi uning to'rtta ustunini ifodalaydi, ularning har birini ko'rib chiqamiz.

➤ *F – Flexible Environment (Moslashuvchan muhit).*

Texnologiya turli xil ish rejimlaridan foydalanishga imkon beradi. Ushbu tamoyil nafaqat rejimning moslashuvchanligining jismoniy namoyon bo'lishida, balki yondashuvlarning moslashuvchanligida, ya'ni o'quv jarayonining individualizatsiyasi, talabalarning maxsus guruhlari uchun texnik va materiallarni tanlashida ham namoyon bo'ladi.

➤ *L – Learning Culture (Axborot manbai).*

An'anaviy dars modelida o'qituvchi yetakchi o'rinni egallaydi, ya'ni u ma'lumot manbai bo'lib, avtomatik ravishda jarayonning yagona tashkilotchisi va yetakchisi bilan ta'minlanadi. Flipped Classroom texnologiyasi doirasida talaba o'zi ma'lumotni tanlaydi va tahlil qiladi, o'qituvchi esa qo'llab-quvvatlovchi vazifasini bajaradi, talaba muammoni hal qilishning optimal usulini ko'rsatishi, o'z faoliyatini to'g'ri Yo'nalishda yo'naltirishi zarur bo'lganda jarayonga kiradi.

➤ *I – Intentional Content (o'ylab qilingan tarkib – materialni oldindan mo'ljallab tarqatish).*

Bunda o'qituvchilar nimani o'rgatishlari kerakligini va o'quvchilar o'zlari qanday materiallarni bajarishlari kerakligini aniqlaydilar. Ushbu tamoyil shundan iboratki, o'qituvchi

bu jarayonda talabaning faolligini, jamoada ham, individual ravishda ham o'z ishining intensivligini maksimal darajada oshirishi kerak. Bu yerda o'qituvchilar o'quvchilarga yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan sinfni qabul qilish uchun dars vaqtini maksimal darajada oshirish uchun oldindan tayyorlangan tarkibdan foydalanadilar.

➤ *P – Professional Educator ( Professional o'qituvchi).*

Professional o'qituvchi: teskari o'girilgan sinfda an'anaviy o'qituvchiga qaraganda professional o'qituvchining roli yanada muhimroq. Sinf ishi davomida o'qituvchi talabalar ishini nazorat qiladi, ularga kerak bo'lganda fikr-mulohaza, baho va ko'rsatmalar beradi. O'qituvchi doimo o'z faoliyati to'g'risida fikr yuritadi, tajribasi bilan o'rtoqlashadi va konstruktiv tanqidni qabul qiladi. Ushbu texnologiyada ishlash jarayonida o'qituvchi o'quv jarayonida "ko'rinmas" ko'rinishga ega bo'lsa-da, u o'qitishning ajralmas qismi, butun o'quv jarayoni tayanadigan bog'lovchi element hisoblanadi. Ko'chirilgan modelni kuzatuvchi, o'z vaqtida o'z fikr mulohazalarni (feedback) beradigan, ishni doimiy ravishda baholaydigan va o'quvchilarga tarkibni o'zlashtirishga yordam beradigan o'qituvchilar kerak. Bu faqat professional o'qituvchilarning qo'lidan keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, "Flipped Classroom" texnologiyasi bizning davrimiz talablariga javob beradi, shu jumladan sinf tizimining asoslari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu nafaqat o'quv jarayonini diversifikatsiya qilish, balki o'quv tizimida va material ta'minotida yangi ko'rinishga ega bo'lish imkonini beradi. Ushbu texnologiya hozirda o'zlari bilim olayotgan talabalar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham samarali bo'lib, muammoli masalalarni chuqurroq o'rganish uchun xizmat qiladi, shuningdek, qisqa, ammo katta imkoniyatlar bilan o'qitiladigan materiallar sifatini yaxshilashga yordam beradi. Video darslar, ma'lumotni tushunishingizni tekshirish uchun qiziqarli maqolalar va interaktiv mashqlar orqali o'qitiladigan materiallar sifatini oshirish imkoniyatini yaratadi.

## **BADIY KONSEPTLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI**

*Sarvinoz NURMONOVA,  
NavDPI 2-kurs doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda tilshunoslik va madaniyatshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lgan konseptning hozirgi zamon she'riyatidagi ma'no tovlanishlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** kognitiv tilshunoslik, "Dunyo" konseptosferasi, konsept -tushuncha - so'z zanjiri.

**Annotation:** This article discusses the interpretation of the concept in modern poetry, which is currently one of the topical issues of linguistics and cultural studies.

**Keywords:** cognitive linguistics, the "World" conceptsphere, chain of concept - term - word.

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются трактовки концепта в современной поэзии, что в настоящее время является одним из актуальных вопросов лингвистики и

культурологии.

**Ключевые слова:** когнитивная лингвистика, концептосфера «Мир», цепочка концепт - понятие - слово.

Jamiyatda inson faoliyati ma'lum milliy madaniy muhit doirasida kechadi. Shuning uchun har qanday turdagi bilish jarayoniga oid strukturalar, tuzilmalarda milliy kolorit mavjud bo'lishi ham tabiiydir.

“So'zsiz, insonning inson sifatida shakllanishining o'zi ham madaniyat bilan bog'liqdir. Uning nafaqat intellektual faoliyati, balki oddiy hayotiy xatti-harakatlarining barchasi ham milliy madaniyat ko'zgusida aks topadi va ushbu madaniyat qonun-qoidalari “nazorati”da bo'ladi. Har qanday madaniyat atrof-muhit ta'sirida taraqqiy qilib, o'zgarib boradi. Turli millatlar madaniyati bir-biridan dastlabki o'rinda voqelikni moddiy va ma'naviy o'zlashtirishdagi farqi jihatidan ajralib turadi. Bunday farqning asosida o'zlashtirilayotgan obyekt yoki bu faoliyat mahsuli emas, balki ushbu moddiy-ma'naviy o'zlashtirish jarayoni qanday yoki qay uslubda kechayotganligi yotadi. Shu sababli madaniyatni moddiy va ma'naviy, subyektiv va obyektiv, ichki va tashqi, shaxs madaniyati va milliy madaniyat kabi turlarga ajratishadi”. [1, 63]

Taniqli shoir Sirojiddin Sayyid she'riyatida o'zbek mumtoz she'riyati an'analari bilan birga xalq og'zaki ijodiga xos xususiyatlar – xalqchilik, soddalik, tilining shiraligi, Surxondaryo shevasiga xos leksik va musiqiy tovlanishlar yetakchilik qiladi. Shuning uchun uning aksariyat she'rlari qo'shiq va ashulalarga aylanib ketgan. Ayni paytda Sirojiddin Sayyid o'z ijodida o'zbek she'riyatining so'nggi badiiy yutuqlarini o'zlashtirgan holda hozirgi voqelikda va kishilarning ruhiy olamida yuz berayotgan o'zgarishlarni aks ettirmoqda. Uning she'rlarida “Dunyo” konseptosferasi hayot, taqdir, xorijiy yurt, olam, xayol, mol-davlat, dunyoqarash, umr, o'lim, vatan, nafs kabi tushunchalarni o'z atrofida jamlagan. Quyida shoirning ayrim she'rlarida dunyo konseptining turli ma'no tovlanishlarini kuzatamiz.

*Kimga ko'ngil ochdim beboj, bexiroj,  
Qo'ynidan tikon yo tosh chiqdi oxir.  
O'zingdan qo'ymasin quchog'ingni och,  
Dunyoda eng ochiq, beminnat beg'ir!*

*Bu tunlar boshlanar oydin, sumanbo'y,  
Ko'kdan ishva aylar Zuhro, Cho'lponim.  
Dunyo turgunicha turgin, omon bo'l,  
Do'sti qadrdomim, aziz choponim! (“Choponga hazil qasida”) [4, 314]*

*Birovning to'n, birovning yo'q etigi,  
Dunyo shudir doim bisyor kemptigi.  
Xo'tigini g'ajib o'tar xo'tigi,  
Men bu holni oshkor qilsam kulgili. (“Kulguli”) [4, 275]  
Sochlaringni maydalay,  
Bu dunyo bir g'azalday.*

*Bir baytida men xorman,  
Bir baytida sen zorsan. (“Sochlaringni maydalay”) [4, 123]*

*Ingichkajon, bir kun gullar yo ‘ng ‘ichqalar,  
Meni oxir o ‘ldurgusi ingichkalar.  
Do ‘stu yorim doston qilar ming yilchalar,  
Bu **dunyodan** qandoq o ‘tay, ingichkajon?  
Hajringda men motam tutay, ingichkajon. (“Ingichkajon”) [4, 216]*

***Dunyolarning** zamirida sirlar uxlar go ‘dakdek,  
Shabnamlarning yaltirashi yor taqmagan zirakdek.  
Bir sipohi yaqinlashar ko ‘rinishi kuzakdek,  
Nafasidan bog ‘lar titrab, jimirlaydi daryolar. (“Fasl”) [4, 129]*

*Men **dunyoning** tushlariga kirgan o ‘g ‘il,  
Ko ‘ksim ichra alamlarim shig ‘il-shig ‘il.  
Ey **dunyo**, sen mehru muruvvating qo ‘ygil,  
Yo ‘rgaklading meni hajru hijronlarga. (“Oy nurlari yoyiladi sayhonlarga”) [4, 127]*

***Dunyo** g ‘urbatiga nazar tashlablar  
O ‘tdi Boburlaru o ‘tdi Mashrablar. (“Mangu nomlar”) [4, 351]*

*Qo ‘llarim shoxlarday zor qolgan kunlar,  
Dil ketib, valekin or qolgan kunlar  
Sen ketding, muzladi o ‘ng ila so ‘lim,  
Alamli **dunyoda** alamli gulim. (“Alamli dunyoda”) [4, 70]  
Menga qadim minorlardan bir sas yetar,  
Shul sas mening ko ‘nglim oxir serfayz etar.  
Menga **dunyo** kerak emas, bir xas yetar  
Yassaviylar yotgan aziz yerlaringdan. (“Ilinj”) [4, 44]*

*She ‘riyat, ukalar, o ‘zga **dunyodir**,  
Kirmang bu **dunyoning** hisobi bilan. (“She ‘riyatga kirish”) [4, 357]*

*Toki Navoiydan navo taralmish -  
**Dunyoda** yangi bir **dunyo** yaralmish. (“Mangu nomlar”) [4, 352]*

*Ko ‘nglingga **dunyo** kiribdur el kabi,  
Buncha bisyordir havo-yu matlabi. [4, 244]*

***Dunyo** kezib, sen **dunyoni** taniding, lek  
Bir kun bug ‘doy, somoningni tanirmisan? [4, 316]*



Bunday misollarni yanada davom ettiraverish mumkin. Xullas, misralarda talqin qilingan fikrlar tom ma'nodagi milliylikning dunyo konseptida mujassamlashganidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakl topadi va faollashadi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks topishi tabiiydir.

Sirojiddin Sayyid she'riyatida milliy tushunchalarimizni anglatadigan konseptlar bilan bog'liq misralar juda ko'p. Shoir she'rlarida konsept va konseptosfera orqali olamning lisoniy manzarasi aniqlanib, tilshunoslikda "oila", "ona", "vatan", "do'stlik", "erkak", beshik, kelin kabi konseptlarning leksik, pragmatik, kognitiv jihatlarini yoritish mumkin.

"Inson har qanday voqea-hodisani, predmetni idrok etish, uning haqida ma'lum tushunchaga ega bo'lishda beixtiyor yoki baixtiyor oldingi tajribasiga tayanadi". [2, 65] Xullas, dunyoni ko'rishning konsepti umuminsoniy, milliy va individual xususiyatlarning aloqadorligida namoyon bo'ladi.

Kognitiv tilshunoslikda muhim hisoblangan konseptosfera termini - bu milliy konseptlarning jamlanmasi ma'nosini anglatadi. U til sohibiga oid konseptlarning barcha imkoniyatlari bilan vujudga keladi. Xalq konseptosferasi tilda anglashilgan semantik sferaga nisbatan keng hisoblanadi. Milliy madaniyat, xalq og'zaki ijodi, fan va badiiy adabiyot qay darajada boy bo'lsa, xalq konseptosferasi ham shunga mos holda keng hisoblanadi.

Konsept inson ongida yashaydi va ehtimollar doirasidagi tushunchalarga ishora beribgina qolmasdan insoniyatning tarixiy, ijtimoiy, ilmiy tajribasini namoyon etadi. Konseptlarni aniqlashda ma'lum bir madaniyatga mansub bo'lgan tayanch so'zlar inobatga olinadi.

Xalqchil, ko'ngilga yaqin she'rlari bilan tanilgan shoir Sirojiddin Sayyidning deyarli har bir misrasida milliyligimizning, madaniyatimizning go'zal va ko'p ma'no bilan ifodalangan konseptlariga guvoh bo'lishimiz mumkin. Masalan, "Kundajuvoz. Kech kuz" nomli she'rida:

*Hovlilar tubsiz bir sukunatga g'arq,  
Derazalar boqar pastdan tepaga.  
Ochiq qolgan qozonlar boqar,  
Boqadi kimningdur yag'ir telpagi.  
Xazonlar qoplagan ko'rpacha, yostiqliq,  
Do'mbira. Joynamoz. Nosqovoqlik.  
Obdastada ikki kunlik suv...  
Yurakka o'yilar chuqur bir qo'rquv.  
Cho'qqilarga teginib nogoh  
Oy chinni laganin shunda sindirar.  
Bu chuqur tunlarning bag'rida,  
Chuqur-chuqur xumlar qa'rida  
Yaltirar qop-qora shinnilar. [5, 38]*

Yuqoridagi misralarda kundalik hayotni tavsiflovchi milliy soʻzlarni uchratamiz.

Yoki quyidagi “Baxt ” sarlavhali sheʼrda chimildiq konsepti orqali butun oʻzbek millatining quvonchini, yangi hayot ostonasi tushunchasini ifodalab turganini koʻrishimiz mumkin.

*Uylangan yigitlar bu yil buncha koʻp!*

*Har bir uyda bittadan kelin,*

*Har bir uyda toʻydan yodgorlik –*

***Chimildiq*** va ... *bittadan kelin.* [5, 27]

Yana bir “Samarqandda” nomli sheʼrning sarlavhasidanoq qanday maʼno anglashilayotganini bilish mumkin. Yaʼnikim, birgina konseptning oʻzidayoq madaniy milliy obidalarimizni oʻz bagʻriga jo qilgan, necha yillardan buyon farzandini asragan onadek asrab kelayotgan qadamjoni tushunamiz.

*Unutib asrimning talvasalarin*

*Shoshilmay kezaman **madrasalarni***

*Sukunatni tinglab turarlar*

***Hujralar. Hujralar. Hujralar.***

***Eshiklar.***

*Eshiklar.*

*Eshiklar.*

*Eshiklar tarixday ochilar*

***Darchalardan Samarqandaga qarayman:***

***Minorlar turibdi – soqchilar...***

*Lol qolgan Ulugʻbek,*

*Jim turgan **Sherdor.***

***Registonni kezaman men –***

***Qadim xayollarga gʻarq.*** [6, 52]

Konsept mohiyati konsept - tushuncha - soʻz zanjirida aks etadi. Tushuncha insonning tafakkuri shakli sifatida konseptga bogʻlanadi. Konsept va u bilan bogʻliq konseptosfera tilimizdagi mavjud soʻzlar vositasida mavjud boʻladi va tilga xos boʻlgan ijtimoiy funksiyalarning amalga oshishini taʼminlaydi.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax, 2006;
2. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli, ikkinchi jild. – Toshkent: “UzME”, 2008;
3. Sirojiddin S. Asarlar. II jild. Toshkent, 2018;
4. Sirojiddin S. Soʻz yoʻli. – Toshkent, 2008;
5. Sirojiddin S. Sevgi mamlakati. – Toshkent, 1987.

#### **EVFEMIZMNING UMUMIY MASALALARI**

***Maqsuda Saydullaevna NAZAROVA,***

***Dilnora Dilshod qizi GAFUROVA,***

***Navoiy innovatsiyalar universiteti***

Аннотация: Мақоллада евфемизmlarning tilshunoslikda o‘rganilishi masalalari yoritilgan.

Тayanch so‘zlar: til, евфемизм, tibbiy евфемизм, professional nutq евфемikasi.

Аннотация: В статье освещаются вопросы изучения эвфемизмов в лингвистике.

Ключевые слова: язык, эвфемизм, медицинский эвфемизм, эвфемизм профессиональной речи.

Abstract: The article covers the issues of the study of euphemisms in linguistics.

Keywords: language, euphemism, medical euphemism, euphemism of professional speech.

Har bir til imkoniyatlari nutqiy voqelanishining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan евфемизmda til va ma’naviyat, til va madaniyat, til va ruh mushtarakligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuning uchun milliy ma’naviyat muammosi globallashgan bugungi kunda milliy mentalitetni ifodalaydigan евфемик vositalarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Евфемизмning paydo bo‘lishi insoniyat tafakkuri va axloqiy qadriyatlar rivoji bilan bog‘liq. U nafaqat til hodisasi, biror tushunchani qaytadan nomlash, balki insonning nutqiy vaziyatni odob-axloq doirasida tashkillashtirish sifatida ham namoyon bo‘ladi. Maqbul so‘z qo‘llana turib, so‘zlovchi tomonidan man etilgan birliklar qo‘llanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nosoz muhit yumshatiladi. O‘zbek tilida евфемизм hodisasi “hurmat” va “andisha” tushunchalari bilan uzviy bog‘liq holda ifoda etiladi.

Shu o‘rinda aytmoqchimizki, tilda tibbiy евфемизmlarning 12 ta mavzuiy guruhlari aniqlangan. Tibbiyotda bemorga holatlarni ochiqdan-ochiq aytishdan saqlaniladi va shunga ko‘ra, tibbiy евфемизmlar tasniflanganligini bilishimiz mumkin. Bunda eng avvalo insonning ayrim fiziologik yoki jismoniy jarayon-holatini anglatuvchi, o‘lim bilan bog‘liq, kasallik bilan bog‘liq, davosiz yoki davosi uzoq kasallik nomlari bilan bog‘liq, jamiyat tarafidan uyat, qo‘pol deb qabul qilingan kasalliklar va alohida holatlarga asoslangan nomlanishlar, inson tana a‘zolarini ifodalovchi евфемик ifodalar kabi. Masalan, “homilador” so‘zi o‘rnida ruslar “chaqaloq kutish” deyishsa, o‘zbek xalqida “yukli”, “og‘iroyoq” deyish yoki “ko‘r” so‘zi o‘rnida “ko‘zi ojiz” deyish kabi.

Евфемик ma’no yuklangan ifodalar antik davrdan boshlab olimlarda qiziqish uyg‘otgan. O.M.Freydenbarg tahriri ostida chop etilgan “Antichnye teorii yazykoznaneya i stilya” nomli asarda “евфемизм” tushunchasi Demokrit, Platon, Aristotel tomonidan ham tilga olinganligi haqida ma’lumot beriladi. Antik davr notiqalari евфемизmni e’tibor qaratganlar, uning ta’siri va go‘zal ifoda yaratishi haqida ko‘p gapirishgan. Sitseron bir-biriga muqobil bo‘lgan so‘zlar ichida eng go‘zal va ta’sirchanroqlarini tanlash lozimligi va agar nutqda ma’nosiz yoki noo‘rin so‘zlar ishlatilsa, u butun mazmunning nomaqbul, qo‘pol yoki tushunarsiz bo‘lib qolishiga xizmat qilishi haqida gapirgan.

Demak, bu til birligi haqida qadimgi davrlarda ham bilishgan, ulardan foydalanishgan va hozirga qadar istifoda etishadi. “Dastlab, евфемизmlar XII – XV asrlarda ingliz tilida paydo bo‘lgan.

XVI asrning yarmiga kelib nutqiy madaniyatni yuksaltirishga bo'lgan urinish kuchayib, evfemizmga keng imkoniyat yaratiladi va bu o'sha davr adabiyotida ham o'z aksini topa boshlaydi.

XIX asrga kelib o'zgacha madaniy hayot tarzi shakllanadi, erkaklar ishlab chiqarish bilan band bo'lishlari, ayol esa oila, ro'zg'or ishlari bilan band bo'lishlari lozim bo'ladi. Axloqiy va rasmiy senzura kuchayib, noziklik, nutqiy madaniyat yanada rivoj topa boshlaydi.

Dunyo tilshunosligi XIX asrning oxirlarida nemis olimi G.Paulning "semantik o'zgarishlar sxemasi"da evfemizmlarni tadqiq etilishi bilan evfemizmlarni o'rganishning yangi tadrijini boshlab berdi, natijada g'arb tilshunosligida evfemizmlarga oid dastlabki ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Rus tilshunosligida evfemizmlar ilk bor XX asrning o'rtalarida, aniqrog'i, 1935-1940-yillarda D.N.Ushakov tomonidan gapirilgan: "Evfemizm (yunoncha *eu*phemeo – muloyim gapiraman) (ling.) – ma'lum bir vaziyatda o'z nomi bilan atash noqulay, axloqqa zid va yoqimsiz bo'lgan narsa yoki hodisani bilvosita, yashirin tarzda nomlash uchun ishlatiladigan so'z (yoki ifoda).

Rus olimi I.V.Arnold evfemizm yunoncha euphemismos, eu – yaxshi va phemi – gapiraman so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, kishilarga nisbatan ishlatiladigan beodob, qo'pol so'zlar o'rniga emotsional me'yoriy bo'lgan sinonim so'z yoki so'z birikmalarining qo'llanilishi ekanligini ta'kidlaydi. [Arnold I.V. *Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazyka. – Moskva. –2012. – 284 s.*]

Nafaqat inson a'zolari, balki hayvon va hasharot nomini evfemalashtirish mumkin. *Bo'ri* so'zi chorvador nutqida **u**, **haligi**, **qora**, **jondor** evfemalari ham qo'llaniladi: *Itlar hurishayapti, u (bo'ri demoqchi) kelganga o'xshaydi; Kecha suruvga jondor oralabdi.*

Evfemizm hodisasi XX asr boshlarida umumtilshunoslikda J.Vandriyes, L.A.Bulaxovskiy kabi tilshunoslar tomonidan soha bilan bog'liq adabiyotlarda qayd etilgan bo'lib, ularning fikr-mulohazalari evfemizm mohiyati tavsifining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hodisani alohida millat, alohida jins vakillari (masalan, oltoy ayollari nutqi) misolida tadqiq etgan olimlar sirasiga A.N.Samoylovich, N.A.Baskakovlarni kiritish mumkin. Ular evfemizmni ko'p qirrali etnik hodisa sifatida yoritishga harakat qiladilar [Qodirova X.B. *Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmlardan foydalanish mahorati: Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2012 .]*

Evfemiya hodisasi B.A.Larin, A.M.Katsev, N.S.Boschayeva, L.V.Artyushkina, G.G.Kujim va boshqa tilshunos olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, uning turli nuqtai nazardan turli jihatlari yoritilgan. Masalan, L.V.Artyushkina evfemizmning almashinishini va semantik tipini tadqiq etgan bo'lsa, N.S.Boschayeva tomonidan uning pragmatik aspekti batafsil o'rganiladi. G.G.Kujim evfemizmni tilning "meliorativ" vositasi sifatida yoritisa, A.M.Katsev uni ijtimoiy psixologik-jihatdan talqin etadi.

O'zbek tilshunosligida evfemizm atamasi N.Ismatullayevning "Hozirgi o'zbek tilida evfemizmlar" nomli tadqiqotida o'rganilgan [Ismatullayev N. *Hozirgi o'zbek tilida evfemizmlar. Filol.fan.nom. ...diss. Toshkent,1965*]. Olim evfemizmning paydo bo'lish tarixiga to'xtalib, *tabu* bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Shuningdek, evfemizm tasnifi xususida turli tilshunos olimlar qarashlariga fikr bildirib, o'z ishlarida uning yaratilish sabablariga ko'ra tasnifini taklif etadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Evfemizm” grek tilidan olingan so‘z bo‘lib, yaxshi gapiraman degan ma‘noni anglatadi. Aniqrog‘i, biror sababga ko‘ra qo‘llanilishi taqiqlangan yoki qo‘llanilishi noqulay bo‘lgan qo‘pol, dag‘al so‘z, ibora o‘rniga boshqa yumshoqroq so‘z yoki ibora qo‘llash tushuniladi. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. J. 5. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B.17.]

A.Omonturdiyev tadqiqoti professional nutq evfemikasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda, asosan, Surxondaryo va Qashqadaryo vohalari chorvador tog‘ qishloqlari aholisi nutqi evfemikasi o‘rganilgan. [A.Omonturdiyev. *Professional nutq evfemikasi (Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari chorvadorlari nutqi asosida)*. T., Fan, 2006. ]

Evfemik birliklar serqirra hodisa, bu ularni har bir belgisi asosida turlicha tasnif qilish imkonini beradi. Zero, individual nutqga xos evfemizmlar lisoniy va nolisoniy omillar qorishuvidan iborat yaxlitlik bo‘lib, bu omillar asosida qo‘lga kiritilgan natijalarni umumlashtirishgina har bir evfemizmning o‘ziga xos, shuningdek, shaxs idiolektiga xos evfemizmlarning individual mohiyatini aniqlash imkonini beradi.

Масалан, “o‘lmoq” tushunchasining “*ajal chaqirmoq*”, “*яратган даргоҳига кетмоқ*”, “*рихлат қилмоқ*”, “*ёруғ дунёни тарк этмоқ*”, “*омонатини топширмоқ*”, “*учмоқ*”, “*кўз юлмоқ*” каби ўндан ортик эвфемизмлари мавжуд. Bular sinonimik qatorni tashkil qilgan bo‘lsa-da, birlamchi ma‘no bilan ko‘chim orasidagi bog‘liqlik ma‘lum ma‘noda uzilganini kuzatish mumkin,

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tilshunoslikda evfemizm keng o‘rganilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar yuqorida sanab o‘tilgan olimlar tomonidan evfemizmning ko‘proq nutqiy qatlam sifatidagi xususiyatlari tadqiq etilgan. Uning lisoniy va nutqiy evfemalar farqlanib, evfemik ma‘no kategoriyalari funksional-uslubiy jihatdan tasnif qilinganligi ahamiyatlidir. Evfemizmning psixologlar, mantiqshunoslar tomonidan ham chuqur o‘rganilayotganligi hodisaning til va tafakkurning paydo bo‘lishi bilan uzviy shakllanganligini ko‘rsatadi.

## “LATIFA” VA “ANEKDOT” TERMINLARINING QIYOSIY TAHLILI

*Feruza TEMIROVA,*

*Navoiy davlat pedagogika insituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi “latifa” va xorijiy tillardagi “anekdot” terminlarining qiyosiy tahlili tadqiq etilgan. Muallif tomonidan ushbu janrlarning umumiy va farqli jihatlari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar.** Latifa, folklor, anekdot, janr, “shorta soz”, “shutka”, “fasetiy”.

**Annotation.** This article examines the comparative analysis of the terms “Latifa” in the Uzbek language and “anecdote” in foreign languages. The author has studied the general and various aspects.

**Keywords.** Latifah, folklore, anecdote, genre, “shorta soz”, “shutka”, “facetium”.

**Аннотация.** В данной статье исследуется сопоставительный анализ терминов “латифа” в узбекском языке и “анекдот” в иностранных языках. Автор изучил общие и различные стороны.



**Ключевые слова.** Латифа, фольклор, анекдот, жанр, “короткая песенка”, “шутка”, “фасетий”.

Latifa – o‘zbek folklorining mustaqil epik janri hisoblanadi. U hajman kichik, mazmunan lo‘nda bo‘ladi va bir yoki ikki epizoddan tashkil topadi. Latifalar ortiqcha tasviriylikdan xoliligi bilan ajralib turadi. Ularda ortiqcha so‘z va detallarni uchratish qiyin. Kompozitsiyaning soddaligi, syujetning ixcham va lo‘ndaligi, yechimning favqulodda yuz berishi va tasodifan ko‘tarilgan kulgiga asoslanganligi, yagona markaziy qahramon obraziga bog‘liqligi latifaning doimiy va barqaror janriy belgilari hisoblandi [1, B.189]. Latifa janri bevosita ijtimoiy hayot bilan hamohangdir. U zamonga, insonlar hayotiga moslashadi va ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarni badiiylashtirib, kulgili tarzda bayon etadigan janrdir. Latifalarda xalq turmushidagi nuqson-illatlar, insonlarning xato-kamchiliklari ustidan kulib ularni tanqid ruhi orqali yaxshilikka chorlashni maqsad qiladi. latifalarda doimo ikki xil harakter bir-biriga qarshi qo‘yiladi, ya’ni adolatparvarlik, sahovatpeshalik, quvnoqlik, aqllilikka qarshi adolatsizlik, xasislik, go‘llik va laqmalik kabi tushunchalar obrazlar siyomosida o‘zaro bahsga kirishadi. Latifalarning yana bir o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu – latifalar mantiqan qarama-qarshi, ba’zan be‘mani fikr yoki g‘oyalarni badiiylashtirib ishonchli tarzda namoyish etishdir.

Latifalarning vujudga kelishi xalq ijodiyotining tarixi singari tarixiydir. Latifalarning asl yaratuvchisi xalqning o‘zi hisoblanadi. Dastlab latifalar oddiy xalq tomonidan og‘zaki tarzda bayon qilinib, keyinchalik takomillashib badiiy adabiyot mahsuliga aylanib ketgan va bugungi kungacha rivojlanib, sayqallashib adabiyotimizdagi eng ommabop va yashovchan janr bo‘lib qoldi. Davrlar o‘tib odamlarning hayot tarzi, turmushi, tarix o‘zgardi ammo lekin, insoniyatning hajvga bo‘lgan munosabati, estetik fikrlashi zamonga qarab moslashaverdi va takomillashdi. Shu bilan birga u tildan bu tilga juda tez o‘zlashadi, milliy madaniy qarashlarga, ijtimoiy, siyosiy vaziyatlarga moslashtiriladi. O‘zbek tili izohli lug‘atlarida latifaga “nazokat, noziklik, oqilona so‘z”, “kulgili voqea-hodisa haqidagi kichik hikoya” deb ta’rif berilgan bo‘lsa, ingliz izohli lug‘atlarda esa “anecdote – aynan bir shaxs yoki hodisa haqidagi qisqa va kulgili hikoya” deb ta’riflangan.

Ruslarda anekdotga tarixiy-falsafiy tushuncha kabi qaraladi. Anekdot ya’ni latifa bu hamma narsa: estetik fikrlash madaniyati, dunyoni kashf etishda yordam beradi, abadiy va jonli hayotiy zarbalarni tushunib yetishga, ahamiyatsiz narzlarda yorqinlikni va o‘yin-kulgini topishga xizmat qiladi. Anekdot – falsafiy tushuncha bo‘lib, unda shaxsiy tushunchalar, jamiyat odatlari va siyosiy qarashlar o‘zaro munosabatga kirishadi. Anekdot ilk marta paydo bo‘lganda u zamonaviylik ajralmas bo‘lagi sifatida qaralgan. Ya’ni anekdotlar har qanday zamonda mavjudlikning tarkibiy xususiyatlari: tarixiy tendensiyalar, milliy an’analar, psixologik tiplarni paradoks orqali ko‘rish imkoniyatini yaratadi [2, C.81]. Darhaqiqat, latifalar yoki anekdotlar har qanday zamon va davrga moslashib o‘sha davr odamlarining shaxsiyati, ijtimoiy hayotini aks ettiradi.

To‘plangan materiallar, olimlarning fikridan kelib chiqib “Latifa” janri rus va ingliz adabiyotidagi “anecdote” janriga mos degan xulosaga kelish mumkin. Chunki aynan “anecdote” janri ham g‘arb adabiyotida ilk marta og‘zaki shaklda namoyon bo‘la boshlangan

va vaqt o'tgan sari rivojlanib, olimlar tomonidan yig'ilib to'plamlar holiga keltirilgan. Bu holatga oid ba'zi fikrlarni folklorshunos olim Suvonqulov B.M.ning ilmiy tadqiqotlarida ham uchratishimiz mumkin. Olimning fikriga ko'ra: "Latifa" janri badiiy mohiyati jihatidan aynan "anecdote" janriga mos hisoblanadi. Olim "Anekdot"ni baynalminal termin deb ta'kidlab, turkmanlarda "shorta soz", ruslarda "shutka", italyanlarda "fasetiy", fransuz va inglizlarda "fablio", nemislarda "shvank" ko'tinishida bo'ladi deb hisoblaydi. Lekin aynan "latifa" va "anekdot" bir xil janr degan fikrdan yiroq holda, ularning mohiyati va xususiyatlaridan kelib chiqib, doimo parallel va o'xshash ma'noni anglatashini aytib o'tgan [3, B.65].

Bizning fikrimizcha ham "latifa" janri maqsad, vazifasi va predmetiga ko'ra g'arb folklorining "anekdot" janriga mos deb hisoblaymiz. Chunki ikkala janrning yaratilish mohiyati xalq turmushidagi xato-kamchiliklar, nuqson-illatlarni yo'qotishni maqsad qilgan va hajviy kulgi ostiga olgan. U orqali kelgusi avlodni adolat, odob, yomonlikka qarshi yaxshilik ruhida tarbiyalashni ko'zda tutgan. Hamda barcha xalqlar adabiyotiga xalq og'zaki ijodi namunasi sifatida ta'rif etilgan.

"Anekdot" terminini tahlil qilish maqsadida turli ingliz manbaalariga murojaat qildik: "anekdot" biror shaxs yoki voqea qisqacha hikoya hisoblanib uning asosiy xususiyati nutqda yoki bahsda hajviy muhit yaratish. Ingliz adabiyotida va adabiy qahramonlar tarixida anekdot alohida ahamiyatga ega. XVII-XVIII asrlarga qadar anekdot g'arb madaniyatida insonlarning nutqida, suhbatida aks etgan. XVIII asrning so'ngi yillaridan boshlab Angliyada har yili yuzga yaqin to'plamlar nashr etila boshlangan [4, P.34]. Yana bir boshqa manbaada "Anekdotlar bir qancha maqsadlarga xizmat qiladi. Qiziqarli latifalar begonalar o'rtasidagi do'stlikni qo'zg'atishi yoki atmosferani yengillashtirishi mumkin. Anekdotlar tinglovchilarning e'tiborini tortadi, shuningdek, keskinlikni kuchaytirishi va mumkin bo'lgan to'siqlar yoki baxtsizliklar haqida ogohlantirishi mumkin. Anekdotlar ba'zan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi yoki yo'nalish beradi; biografik latifalar insonparvar bo'lishi mumkin, hamdardlik va xarakterlar o'rtasidagi bog'lanishni rag'batlantiradi yoki aksincha bo'lishi mumkin va shaxsiyatning ayanchli xususiyatini ochib beradi" [5]. Anekdot manipulyatsiya yoki aldash uchun vosita bo'lishi mumkin, uydirma va uydirma latifalar haqiqatga o'xshash maqsadlarga xizmat qiladi. Ular kundalik hayotga taalluqli bo'lgan suhbatning o'ziga xos xususiyati. Ehtimol, oilada, do'stlar davrasida, ta'lim dargohlarida anekdotlardan tez-tez foydalanishganiga guvoh bo'lamiz sababi, insonlar fikrni ifodalash va tushunishni osonlashtirish uchun ko'pincha latifalardan foydalanadilar. Yozuvchilar hikoyaning asosiy ma'lumotlarini: kim ishtirok etgan, qachon va qayerda sodir bo'lganligini ko'rsatib o'tishni ma'qul ko'rishadi va bu asosiy element deb hisoblashadi.

Xulosa qilib aytganda, G'arb adabiyoti anekdot janri ustida juda ko'p izlanishlar olib borilgan, bular to'plamlar, tarjima asarlar va mualliflik kitoblardir.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Safarov. O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqqa. 2010.
2. Курганов Е. Анекдот как жанр русской словесности. Москва: ArsisBooks, 2014.
3. Suvonqulov B O'zbek xalq latifalarining janr xususiyatlari". Filol.fan.nom. ... dis. avtoref. – Toshkent. 2008.

4. A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory, Fifth Edition. J. A. Cuddon. © 2013 The Estate of J. A. Cuddon. Published 2013 by Blackwell Publishing Ltd.

5. <https://www.supersummary.com/anecdote/#:~:text=Anecdotes>

## SHOHLIK VA SHOIRLIKDA KECHGAN MAZMUNLI UMR

*Dilafroʻz Abdugʻaforovna QAHHOROVA,*

*Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti “Jahon adabiyoti” kafedrasi oʻqituvchisi*

Tarixda juda koʻp shohlar yashab oʻtgan. Baʼzilar saltanatni adolat va matonat bilan boshqarib nom taratgan boʻlsa, baʼzilar mardonavor gʻalabalari bilan tillardan-tillarga oʻtib kelmoqda. Amir Temur va Temuriy shahzodalar ham oʻzining bahodir va adirkorligi, shuningdek, ilm maʼrifatdagi yuksak iqtidori bilan nafaqat xalqimiz balki koʻplab mamlakatlarda hurmat va ehtirom bilan yodga olinadi.

Temuriylarning eng soʻnggi shahzodasi umrining soʻngini Vatandan olisda yurt sogʻinchi bilan oʻtkazgan, boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur ham nafaqat adolatli shoh balki koʻplab yozgan asarlari bilan mumtoz adabiyotda, tarixda beqiyos oʻrin tutadi. Boburning lirikasi hamda adabiyot nazariyasiga doir qarashlari va izlanishlari mumtoz adabiyotning durdonasi hisoblanadi. Uning maʼnaviy merosi jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qoʻshgan. Quyida biz uning shohlik va shoirlikda kechgan umriga bularning oʻzaro bogʻliqlik va ayro jihatlari toʻxtalib oʻtmoqchimiz.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarini yozar ekan oʻzining taxtga oʻtirishini shunday bayon qiladi: “ Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chaharyori Bosafolarning himmati birlan seshanba kuni Ramazon oyining beshida tarix sekkiz yuz toʻqson tuvgʻizda Fargʻona, viloyatida oʻn ikki yoshda podshoh boʻldim”. Bundan koʻrinib turibdiki u shu kundan shohlik faoliyatini boshlagan. Boburning oʻz guvoxligiga koʻra, shoir sifatida ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtda boshlangan; „Ul fursatlarda birorikkirar bayt aytur edim“, deb yozadi u va turkiyda shu ruboiyni aytadi:

Ishlar bori koʻnglungdagʻidek boʻlgʻusidir,

Inʼom-u vazifa bori buyrulgʻusidir.

Ul gʻalla-u muhmalki, deb erding, berdim,

Muhmalgʻa boʻy-u gʻalladin uy toʻlgʻusidir.

Keltirilgan ushbu ruboiy bilan Zahiriddin Muhammad Bobur Mullo Binoiyning ruboiysiga javob qaytaradi:

Ne gʻalla maro k-az oʻ tavonam noʻshid,

Ne muhmali gʻalla to tavonam poʻshid.

Onro, ki na xoʻrdanast-u ne poʻshidan,

Dar ilm-u hunar kujo tavonad ishid.

(Tarjimasi: Na yegulik gʻallam bor va na kiyulik kiyimim. Yeyar-u kiyari boʻlmagan kishi ilm-u hunarga qanday urina olsin?) Bu javob ruboiysi bilan Bobur barcha ishlar koʻngildagidek boʻlishini, Barcha inʼom va vazifalar buyurilganini. Gʻalla va kiyim deding berdim, oʻzi kiyimga uyi esa gʻallaga toʻlishini bayon qiladi.

Taxtga oʻtirgan yosh podshoh Bobur hukmronligining dastlabki 2—3-yilida mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan oʻzaro munosabatni yaxshilash, qoʻshinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom oʻrnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshirgan boʻlsa shoir sifatida Samarqanddaligining ilk oylarida Alisher Navoiyning istagi va tashabbusi bilan oʻzaro yozishmalar qilishni boshlashadi. Bu esa Boburni koʻproq ijod

qilishiga ilhomlantiradi. U shoh sifatida davlatni adolatli boshqaradi. Bobokaloni Amir Temur kabi ko‘plab bino inshootlar quradi. Yurti obod qilib xalqni e‘zozlaydi. Ijodda esa shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko‘tara oladi.

1495—1496-yillarda Bobur Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. 1497-yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so‘ng Samarqandni egallaydi. Bobur Samarqandda bo‘lgan vaqtida uning amaldorlarini ko‘pchiligi ukasi tomonga o‘tib ketadi. Andijondan ko‘ngli notinch bo‘lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan, ayni zamonda og‘ir xastalikni boshidan kechirgan Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so‘ng, uni tark etishga qaror qiladi. Ammo Xo‘jandga yetganida Andijon ham qo‘ldan ketganini eshitadi. Uning Andijonni qayta egallash uchun qilgan harakatlari natija bermaydi. Nihoyat 2 yildan so‘ng Andijonni qayta qo‘lga kiritadi. Shu tariqa hiyonat va adolatsizliklarga uchragan Bobur Samarqandni ikkinchi marotaba ishg‘ol etadi. Ammo bu zafar ham uzoqqa bormaydi. Ocharchilikka duchor bo‘lgan saltanat qamalga olinadi. Bu vaqtda Andijon ham boy berilgan edi.

Bobur noilojlikda Movarounnahrni tark etib Hisor tog‘lari orqali Afg‘onistonga o‘tadi va Kobulni egallaydi. Shu bois ham uning ijodida, xususan, she‘riyatida kindik qoni to‘kilgan ona yurtini dildan qo‘msash, uning tuprog‘iga talpinish, g‘ariblik azoblaridan o‘tli hasrat, yoru diyor soginchi va visol ilinji, taqdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona noso‘zliklaridan nola badiiy tahlil etiladi. Mazkur matlasi yuqoridagi fikrimizga dalil bo‘la oladi:

Charxning men ko‘rmagan javr-u jafosi qoldimu?

Xasta ko‘nglum chekmagan dard-u balosi qoldimu?

Bobur saltanatni boshqarish, ijod qilish bilan bir qatorda ishqqa ham murojaat qiladi. Manbalarda keltirilishicha Bobur katta xotini Mohim begimni o‘zgacha qadrlagan. Mohim begim ham temuriylar tarixidagi nihoyatda xushxulq, teran ilm sohibasi bo‘lgan Malikalardan biri edi. Boburning Mohim begimga bo‘lgan sof muhabbati ko‘p bora tilga olingan:

Sen gulsenu, men haqir bulbuldurmen,

Sen shu’lasen, ul shu’lag‘a men kuldurmen,

Nisbat yo‘qdur, deb ijtinob aylamakim,

Shahmen elga, vale senga quldurmen...

Ushbu she‘riy parcha uning pok muhabbati izhori sifatida yaratilgan bo‘lsa ajab emas. Kobul taxtiga o‘tirib yurti boshqarayotgan Bobur qo‘shin to‘plab 1511 yilda Samarqandni qo‘lga kiritadi va 1512 yilda boy beradi. Undan so‘ng Qarshini egallaydi ammo bu ham uzoqqa bormaydi. Shayboniylar bilan bo‘lgan jangda mag‘lub bo‘lib Kobulga qaytadi. Shundan so‘ng Bobur Hindiston tomon yo‘l olishni maqsad qiladi. 1519-yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va 1526 yilga kelib mamlakatni to‘liq bosib oladi.

Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,

Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.

O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,

Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Boburning mazkur ruboiysi ayni o‘sha vaqtlarda yozilganidan dalolat beradi. Uning mana shu kabi yurti yurt kezishi va ko‘p bora hiyonatga uchrab iztirob chekishi ijodining mukammal darajaga ko‘tarilishiga xizmat qilsa. Qog‘ozga to‘kkan dardu hasrati qaytadan oyoqqa yanada kuchli bo‘lib turishga undadi desak xato bo‘lmaydi. Agrani o‘ziga poytaxt sifatida tanlagan Boburshoh katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soladi.

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug‘ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to‘xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi. Shu bilan bir qatorda otasi omonat qoldirgan shohlik martabasini ham tashlab qo‘ymadi. To‘g‘ri yurtdan ketdi ammo taslim bo‘lmadi o‘zga mamlakatda shoh bo‘lib dunyoda nom qoldirdi.

## OZOD SHARAFIDDINOV ZAMONDOSHLARI XOTIRASIDA

*Gulzina Ravshanovna TULISHOVA,*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinovning adabiy tanqidiligidir rivojida tutgan o‘rni zamondosh adib va adabiyotshunosh olimlar fikrlari misolida ochib berilgan.

**Kalit so‘lar:** Adabiy tanqidchilik, she‘riyat, maqola, o‘quvchi, tahlil, uslub, lirik asar, shoir, mutafakkir.

**Annotation:** The role of the Hero of Uzbekistan, Azod Sharafiddinov, in the development of our literary criticism is revealed in the article on the example of the opinions of contemporary writers and literary scholars.

**Key words:** Literary criticism, poetry, article, reader, analysis, style, lyrical work , poet, thinker.

**Аннотация:** В статье на примере мнений современных писателей и литературоведов раскрывается роль Героя Узбекистана Азода Шарафиддинова в развитии нашего литературоведения.

**Ключевые слова:** Литературная критика, поэзия, статья, читатель, анализ, стиль, лирическое произведение, поэт, мыслитель.

“Ozod Sharafiddinov “Zamon, qalb, poeziya”dan to “Ijodni anglash baxti”ga qadar yigirmadan ortiq kitoblar yozdi. O‘zbek adabiy tanqidchiligida o‘ziga xos maktab yaratdi.”<sup>1</sup>

Ozod Sharafiddinovning adabiy tanqidchilik maydoniga endi kirib kelgan paytlarida 1954-1956 yillarda yozgan va she‘riyati mizning jiddiy muammolariga bag‘ishlangan “Lirika haqida mulohazalar” kabi maqolalarini va nihoyat, so‘nggi yillarda nashr etilgan “Chinorlardan biri”, “Millatni uyg‘otgan adib” yoki “Istibdod qurboni yoxud o‘zligidan mahrum qilingan shoir” va “Muvashshah” kabi maqola va esselarini ko‘z oldimizga keltiraylik. Bularning dastlabkilari bundan oltmish yillar muqaddam yozilgan. Lekin bu ixcham maqolalardagi lirik asarlar tahlilining chuqurligi, fikr va umumlashmalarning mantiqan teranligi, tili va uslubining puxtaligini tuygan o‘quvchi ularni hali tajribasi ham, mahorati ham etarli bo‘lmagan boshlovchi yosh bir munaqqid emas, balki did-saviyasi juda baland etuk adabiyotshunos bir olim va mutafakkir yozgan degan qat‘iy xulosaga kelishi tabiiy. Nafaqat adabiy tanqidchi ligimizda o‘ziga xos bir voqea bo‘lgan, balki o‘sha davr she‘riyatining takomillashuviga ham yangi ijodiy bir ruh bag‘ishlagan va adabiyotimizning G‘afur G‘ulom, Abdul la Qahhor, Mirtemirday cho‘ng chinorlari va adabiyotshunoslikning

---

<sup>1</sup> Normat Yo‘ldoshev Yoniq qalb munaqqidi. “Sharq yulduzi” jurnali 2012-yil 1-son.



Izzat Sulton singari ulug‘alari tahsiniga ham sazovor bo‘lgan bu maqolalar chop etilgan 1950-yillar o‘rtalarida Ozod Sharafiddin ov 25 yoshga kirgan bir yigit bo‘lgan. XX asr va o‘zbek adabiyoti tanqidchiligi tarixi Ozod Sharafiddinov fenomenining hayratli bir jihati ham shundaki, uning ilk chiqishlaridayoq chaqmoq misoli yorqin namoyon bo‘lgan tug‘ma tanqidchilik iste’dodi hech qachon xira tortmadi, shoirona qalb ehtirosi va jo‘shqin ijodiy ilhomi umrining so‘ngiga qadar, hatto surunkali va og‘ir xastalik oqibatida ikki oyoqlaridan ajralib, to‘shakkka mixlanib qolgan kunlari ham susaymadi. Hassos va talabchan adib Abdulla Qahhor ta’kidlaganidek, “Ozod Sharafiddinov adabiyot olamiga, aniqroq qilib aytsek, adabiy tanqidchilikka yonib kirdi va hozirgacha u mana shu fazilatni saqlab qoldi. Unda haqiqat ruhi, demokratik ruh, erkinlik ruhi kuchli”.<sup>1</sup>

Oltmish yillar muqaddam aytilgan bu samimiy e’tirof va hayotiy haqiqatni olimning yana bir zamondoshi va shogirdi, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ham yuksak hayrat bilan shunday ta’kidlaydi: “Adabiyotimiz tarixi o‘zanidan turib, yaqin yuz yillikka nazar tashlasak, juda ko‘p sonli ijodkorlarning nomlarini ko‘ramiz. Ulardan hech birining xizmatlarini aslo kamsitmagan holda, aytish mumkinki, keyingi ellik yil ichida faoliyat ko‘rsatgan adabiyotshunoslar va publitsistlar silsilasida Ozod Sharafiddinovning nomi alohida bir cho‘qqi yanglig‘ ko‘zga tashlanib turibdi. Ozod Sharafiddinov odil inson, zahmatkash olim, mehribon padar sifatida bu yorug‘ dunyoda muhtasham iz qoldirdi. O‘zidan o‘lmas ijodiy meros qoldirdi. Bu ijod nainki bir insonning, balki butun bir millatning faxru g‘ururi bo‘la oladigan ijoddir, o‘zbek xalqining, millatimizning o‘tmishi, buguni va kelajagiga daxldor ijoddir.”<sup>2</sup>

Bu jihatdan ham Ozod Sharafiddinov kamdan-kam ijodkorlarga nasib etadigan baxt sohibi edi, deya olamiz.

Ozod Sharafiddinovning serqirra, ulkan ijodkor va komil bir ustoz bo‘lib tanilishining sabab-omillari va ildiz-manbalari ko‘p. Lekin ular orasida qudratli bir omil borki, bu Ozod Sharafiddinovning yorqin iste’dodida va ummon qadar beqiyos bilim-zakovatida ko‘rinadi. Eng avvalo, ana shu betakror iste’dod va salohiyat tufayli Ozod Sharafiddinov badiiy ijod va adabiy tanqidchilik ning ko‘plab dolzarb muammolarini o‘ziga xos o‘tkir nigoh va hozirjavoblik bilan, ijodiy shijoat va nuktadonlik bilan hal etib berishga muvaffaq bo‘ldi: binobarin, ana shunday ulkan xizmatlari bilan ham haqli ravishda mumtoz adiblar va olimlar qatoridan faxrli o‘rin egallabgina qolmasdan, davrimizning chinakam qahramoni timsoli darajasiga ko‘tarildi. E.Vohidov faxr bilan aytganidek, “Ibratli shaxsiyati, mustahkam e’tiqodu dunyoqarashi bilan ziyolilarimizning butun bir avlodi uchun namuna bo‘lib tanilgan” Ozod Sharafiddinov - O‘zbekiston Qahramoni. O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov. Darhaqiqat, endilikda bu ta’rif-iboralar bir-biri bilan yaxlit tushunchalarga aylandi. (Abdulla Oripov)

Ulug‘ adiblar ijodi kabi Ozod Sharafiddinovning ham adabiy-tanqidiy va ijodiy merosi bag‘oyat serqirra va ko‘lamdor, ayni vaqtda, mavzu yo‘nalishi xilma-xil, janr va shakl jihatidan ham rang-barangdir. Shu bilan birga ularning barchasiga xos mushtarak fazilat ham

<sup>1</sup> Ozod Sharafiddinov Zamon. Qalb. Poeziya. -T: O‘zbekiston. 1962 yil. 3-b.

<sup>2</sup> Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. -T: O‘zbekiston. 2007 yil. 4-b.

bor - ularning barchasi adabiyotga, ijodga nisbatan yoniq mehr va samimiyatga yo‘g‘rilganligi bilan alohida ajralib turadi.

### ADABIYOTLAR

1. Normat Yo‘ldoshev Yoniq qalb munaqidi. “Sharq yulduzi” jurnali 2012-yil 1-son.
2. Ozod Sharafiddinov Zamon. Qalb. Poeziya. -T: O‘zbekiston. 1962 yil. 3-b.
3. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. -T: O‘zbekiston. 2007yil. 4-b.

### ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING IJODIY MEROSI XALQIMIZNING MA’NAVIY XAZINASI

*Dilafro‘z Abdug‘afforovna QAHHAROVA,  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
“Jahon adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi*

Ma’naviyat masalalari insonning har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo‘lgan omillardan biri sanaladi. Bu haqda birinchi prezidentimiz Islom Karimov: “Ma’naviyat – insonning ruhan poklanishi, qalban ulg‘ayishiga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir...” deya ta’kidlaydilar. Millat ma’naviyatining yuksalishiga esa buyuk tariximizni, o‘zida aks ettirgan buyuk ajdodlarimiz va ularning boy adabiy meroslarining o‘rni beqiyosdir.

Shubhasiz, yosh avlodning zamon talablariga munosib, mustaqil fikr-qarashiga ega, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyat sohibi va dunyoning har bir burjidagi tengdoshi bilan erkin muloqotga kirisha oladigan shaxs bo‘lib kamol topishida adabiyot va san’atning roli beqiyosdir. Bugun boy adabiy meroslarimizni yoshlarga va, qolaversa, kelajak avlodlarga yetkazib berish muhim vazifalardan biriga aylandi. Fikrimiz tasdiqining bir qismi sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini aytishimiz mumkin: “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyluklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi” .

Bugungi kunda ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan nodir qo‘lyozmalar jiddiy o‘rganilmoqda. Endilikda biz ajdodlarimiz haqida horijda yaratilgan ilmiy-tarixiy va adabiy asarlar bilan ham bevosita tanishish imkoniga egamiz. Xususan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning tarixda tutgan o‘rni ham ijodiy merosi ham nafaqat xalqimizning balki insoniyatning bebaho ma’naviy xazinasidir. O‘zbek mumtoz adabiyotining XV asr oxiri XVI asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli namoyondalaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining murakkab va qisqa hayotida (1483-1530) salmoqli asarlar yaratgan bo‘lsa-da ularning hammasi bizgacha yetib kelgan emas. Boburning ma’naviyat xazinasiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan ilmiy va badiiy asarlarining har biri o‘zbek nazmi va nasri taraqqiyoti rivojida muhim bosqichni tashkil etish bilan birga, adabiy-badiiy tafakkur taraqqiyotiga qo‘shilgan katta hissadir.

Bobur tarixda shoh va sarkarda bo‘lish bilan bir qatorda tarixnavis, adabiyotshunos, iqtidorli ijodkor, salohiyatli shoir sifatida ham keng shuhrat qozongan. “Zahiriddin Muhammad Bobur naqadar sertashvish, notinch hayot kechirishiga qaramay, o‘z davriga nisbatan yetuk bilim olib, yirik badiiy va chuqur mazmunli ilmiy asarlar ijodkori darajasiga ko‘tarildi” . Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo‘ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko‘rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma’naviy

rag'batlantirib turdi. Ijod va san'at ahliga bunday mehrlil munosabat aslo bejiz bo'lmagan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug'ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to'xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

Bobur ijodi ayniqsa lirikasi dunyoning ko'plab mamlakatlari adabiyotshunos olimlari tomonidan tadqiq qilinib nashr etilib kelinmoqda. Shoirning boy adabiy merosidan yosh avlodni barkamol, yani komil inson qilib tarbiyalashda, keng ko'lamda foydalanishimiz mumkin. O'zbek adabiyotshunosligida Bobur adabiy merosi muayyan darajada o'rganilgan.

Bobur lirikasida haqiqatdan ham kitobxon tiliga va diliga yaqin. Sodda va ravon tarzda yozilgan she'rlardan iborat. Uning she'riyatini mavzu ko'lami keng. Deyarli hayotning har bir vaziyatiga alohida to'xtalib o'tgan. To'xtalganda ham shunchaki emas dildan, yurakdan o'tkazganlarini qog'ozga tushirgan desak xato bo'lmaydi. Shoirning hasbi hol xarekterda yozilgan she'rlarini mutoala qilgan har bir kitobxon o'sha holatga tushmasdan iloji yo'q.

Bobur serqirra ijodkor. Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, ijodi va avlodlari hamma davrda olimlar tomonidan o'rganilgan, tadqiqotlar olib borilgan. Boisi shoirning ulkan adabiy merosi xalqimizning boy ma'naviy xazinasiga ulgurgan. Bobur ijodini nafaqat yurtimiz olimlari balki butun jahon olimlari tomonidan ham o'rganishlar olib borilgan. Jumladan shoirning hayoti, faoliyati va merosini o'rganish XVI asrning avvalidan boshlangan edi. Boshqacha qilib aytganda, bu qutlug' ishni Boburning o'zi «Boburnoma»da boshlab bergan edi. Shundan so'ng Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistonda yozilgan tazkira va tarixiy asarlarda Bobur haqida ma'lumot berish kuzatiladi. Bu jihatdan Boburning qizi Gulbadanbegimning «Humoyunnoma», Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» kabi asarlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Chunki bu mualliflar Bobur bilan bevosita muloqotda bo'lib, uning faoliyati, shaxsiyati va fazilatlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni keltirganlar. Bunday ma'lumotlar shu asrda Buxoroda Hasanxoja Nisoriy tomonidan yozilgan «Muzakkiri ahbob» da ham bor. Hindistonda Akbarshoh, Jahongirshoh, Shoh Jahon hukmdorligi davrida yaratilgan tarixiy asarlar va tazkiralarda Bobur haqida ham ma'lumotlar keltirilgan («Akbarнома» va boshqalar).

Keyinchalik, xususan, XVIII asrdan boshlab, Bobur hayoti, faoliyati va merosi bilan qiziqish Evropada ham jonlanib ketdi. Uning «Boburnoma»siga bo'lgan ehtirom tufayli XIX asrda u ingliz (Elfinston, Erskin, Beveridj), fransuz (Pave de Kurteyl) tillariga tarjima qilinib bosildi. Rus olimi N. Ilminskiy esa «Boburnoma»ning asl nusxasini nashr ettirdi. Bunday hol XX asrda ham davom etdi. Jumladan, fransuz adibi Fernand Grenard «Bobur», Amerikalik yozuvchi Harold Lamb «Bobur-she'r» asarlarini yaratdilar. Fernand Grenardning asari keyinchalik nemis (1931 y.) va turk tillariga (1970 y.) tarjima qilinib, nashr ettirildi. «Boburnoma»ning bevosita o'zbek tilidan fransuz (Bakye Grammon, 1980 y.) va ingliz (V.M.Sekston, 1996 y.) tillariga yangi tarjimalari maydonga keldi.

Afg'onistonlik olima Shafiqa Yorqin Bobur she'riy merosining nisbatan to'liq nusxasini tuzib, katta tadqiqot bilan birga 1983 yilda «Devoni Zahiriddin Bobur» nomi bilan Kobulda nashr ettirdi. Rus olimasi I.V. Stebleva Bobur she'riyati (g'azallari) ga oid risolasini yaratdi. XX asrning 20-80 yillari orasida mamlakatimiz O'zbekistonda ham Bobur hayoti, faoliyati va merosini o'rganish sohasida ma'lum ishlar amalga oshirildi: uch jildlik asarlari nashr ettirildi, tadqiqotlar yaratildi. Bu sohada Yahyo G'ulomov, Vohid Zohidov, Homil Yoqubov, Porso Shamsiev, Sabohat Azimjonova, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Saidbek Hasanov, B. Valixo'jaev va boshqalarning katta hissasi bor. Pirimqul Qodirov, Barot Boyqobilovlar esa Bobur haqida roman va dostonlar yaratdilar. Xalqaro Bobur jamg'armasining tuzilgani ham alohida e'tiborga molikdir.

Bobur hayoti va ijodini o'rganish uni lirik va nasriy asarlarini tahlil qilish davom etmoqda. Boisi shoirning ijodida hali o'rganilmagan va tadqiq etilmagan jihatlari ko'p va qiziq. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak buyuk ajdodlarimizning boy adabiy merosi kelajak avlod kamoloti uchun xizmat qiladigan ulkan adabiy va ma'naviy xazinadir. U xazinani asrab avaylash va avloddan avlodga yetkazishga har birimiz birdek mas'ulmiz.

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING MILLIY MADANIYAT BILAN UYG'UNLIGI

*Xurshida TOSHOVA,  
NavDPI tayanch doktoranti*

*Annotatsiya. Maqolada frazeologik birliklarning milliy madaniyat bilan uyg'unligi masalalari tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: Lingvokulturologiya, til, madaniyat, frazeologik birlik*

*Аннотация. В статье проанализированы вопросы гармонии фразеологизмов с национальной культурой.*

*Ключевые слова: Лингвокультурология, язык, культура, фразеологизм.*

*Annotation. The article analyzes the issues of harmony of phraseological units with national culture.*

*Keywords: Linguoculturology, language, culture, phraseolog.*

Lingvokulturologiya til va madaniyatning uyg'unlashgan ko'rinishi, madaniyatning tilda aks etishi demakdir. Bu madaniyat tilda o'xshatish, metafora, ibora, maqol va matal kabi leksik birliklar orqali yuzaga chiqadi. Bu lingvokulturologik birliklar har bir xalqning milliy madaniyati, mentaliteti, urf-odatlarini, rivoyat va miflari ta'sirida yuzaga kelgan. Ayniqsa, frazeologik birliklar o'zbek xalqining milliy madaniyatini yaqqol o'zida namoyon etadi. Y.Odilov frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari haqida shunday fikrlarni bayon qiladi: "Albatta, tildagi har qanday birlik u yoki bu darajada milliy-madaniy o'ziga xosliklarni namoyon etadi. Ammo shunday til birliklari borki, ular milliy-madaniy injaliklarning benihoya betakror timsolidir. Shu ma'noda frazeologizmlar millat mentaliteti, madaniyati, turmush tarzi hamda uzoq yillik kuzatuvlarining qabariq ifodasidir"<sup>1</sup>. Haqiqatdan, iboralarda xalqning necha ming yillik tarixiy madaniyati yotadi. Lekin iboralarni hammasini ham lingvokulturologik tadqiq qilolmaymiz, faqat milliy madaniyatimizni, urf-odatlarimizni o'zida aks ettira oladigan iboralarnigina lingvokulturologik birlik sifatida o'rgana olamiz. O'zbek tili frazeologik fondida o'zida milliy mentalitetimizni aks ettirgan talaygina iboralarimiz bor.

Xalq orasida hayvon nomlari bilan bog'liq iboralar o'ziga xos o'ringa ega. Bu kabi iboralarning qo'llanilishi bevosita tabiiy sharoit bilan bog'liq. Xalqimizning qadimdan chorvachilik(qo'y, mol, ot...) bilan shug'ullanib kelishi bu tur iboralarning yaratilishiga zamin yaratgan. O'zbek xalqi tasavvurida qo'ydan yuvosh, beozor hayvon bo'lmaydi. Shu sababli ijobiy xislatli kishiga nisbatan *qo'yday yuvosh, qo'ydan yuvosh, qo'y og'zidan cho'p olmagan* kabi iboralar qo'llaniladi. *Qo'y og'zidan cho'p olmagan*, ya'ni nihoyat darajada beozor, mo'min<sup>2</sup> ma'nosini ifodalaydi. Bu iboralar o'z o'rnida variantdosh va sinonimlikni yuzaga keltiradi. *Qo'yday yuvosh* va *qo'ydan yuvosh* variantdosh iboralar, *qo'y og'zidan cho'p olmagan* iborasi esa ularga nisbatan sinonim iboradir.: *Kula-kula hammaning darmoni qurigach, Risolat kulgi yoshlarini artib dedi: —Toza hayron bo'larsiz-a, otaxon! Bizning qishloqda G'afforjon degan, qo'y og'zidan cho'p olmagan, buning ustiga hech kimi yo'q bir*

<sup>1</sup>Odilov Y. Enantiosemiya hodisasi va uning lingvistik tadqiqi, Til va adabiyot ta'limi, 34-38 bet, 2013

<sup>2</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati, T.: O'qituvchi nashriyoti, 295-bet, 1978.



yigit bor edi. Uni hamma, hammadan ko'ra ham men yaxshiroq bilar edim(A.Qahhor "Xotinlar"). Ushbu matnda qo'llangan ibora G'afforjon obrazining beozor, yuvosh insonligini ifodalagan. Bu iborada qo'y konsept sifatida yuvosh, beozor ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

**Anqoning tuxumi** nima topilishi qiyin kamyob ma'nolarini ifodalaydi: *Ammo Ahmad Husayn bu shaharda, uning yuzlarcha chaqirim tevaragida har qanday qora ish anqoning tuxumi ekanini bilardi*(Oybek "Nur qidirib")<sup>1</sup>. Varianti *anqoning urug'i*; Sinonimi *anqoga shafe*. Bu ibora xalqning mifologik qarashlari ta'sirida yuzaga kelgan. Xalq afsonasiga ko'ra Anqo Qof tog'ida yashaydigan bir qushning nomi. Ammo nomi bor-u o'zi yo'q. Ushbu ibora topilishi mumkin bo'lmaydigan, noyob narsalarga nisbatan ishlatiladigan frazeologik birlik:

*Mehr yuraklarda qotsa ichikib,*

*Oqibat ham bo'lgay anqo urug'i.*

*Elning kichigini g'ajir kichigi,*

*Ulug'ini esa ulug'i... (M.Yusuf "Oqibat")*

Ushbu parchada qo'llangan ibora mavhum tushunchani, ya'ni insoniy munosabatlarning yo'qolib ketishi, odamlar o'rtasida oqibatning ko'tarilganligini ifodalagan. Demak, **anqoning urug'i** iborasi aniq predmetlar bilan bir qatorda mavhum tushunchalarni ham ifodalashda qo'llash imkoni mavjud.

**Misi chiqib qoldi** iborasi nimaning yoki kimning asl mohiyati, asl qiyofasi fosh bo'ldi, aybi, gunohi, siri oshkor bo'ldi kabi ma'nolarini ifodalovchi frazeologik birlikdir. Bu ibora ham o'zining tarixiy ildiziga ega. O'tmishda xaridorlarni aldab misdan qilingan bezak mollarini(uzuk, zirak va boshqalar) oltin deb sotadi. Oradan bir qancha vaqt o'tgandan keyin o'sha bezak mollarning misi chiqib qolib, oltin emasligi bilinadi. Bu iboraning to'g'ri ma'nosidir<sup>2</sup>.

Bir inson o'zining ayblarini, jinoyatlarini qanchalik yashirmasin, vaqti kelib, baribir oshkor bo'ladi. Ana shunday holatni ifodalash uchun *misi chiqib qoldi* iborasi ko'chma ma'noda qo'llaniladi: Ko'p o'tmay bu usulning **misi chiqdi**. Jamoat yoppasiga yerposhna poyabzalni urf etgan zamonda bitta uning lo'killab yurishi kulgili edi(E.A'zam "Pakananing oshiq ko'ngli"). Matnda misi chiqdi iborasining oshkor bo'ldi ma'nosi aks ettirilgan.

**Uchning biri xonga yoqibdi** bu ibora zamirida tarixiy voqelikka asoslangan neologik birlikdir. Q'qon xonlaridan Umarxonning akasi Olimxon xalqdan askar olish uchun uch o'g'lidan biri askariy xizmatga olinadi deb qonun chiqargan edi. Mana shu qonunga muvofiq xon, albatta, uch o'g'ilning bittasini tanlab oladi va bu xalq orasida ma'juziy tus oladi. Ya'ni qadimda savdogarlar molining bir donasini xaridorga ko'rsatadi, ammo xaridor yoqtirmaydi. So'ng ikkinchi va uchunchisini ko'rsatadi-da xaridorga qarab "uchning biri xonga yoqibdi" deydi. Bu bilan "siz xondan ham ortiqmisiz, mol yoqtirmaysiz, olavering" deb xaridorlarini mot qilmoqchi bo'ladi. Agar xaridor uyatchanroq bo'lsa, molining yaxshi-yomoniga qaramay, xo'p deb ola qoladi<sup>3</sup>. Bugungi kunda bu ibora mazmuniga ehtiyoj yo'q, chunki bu frazeologik birlik siyosiy vaziyat taqozosi bilan yuzaga kelgan, bugungi kunda eskirgan. Natijada neologik ibora ma'lum bir ijtimoiy tuzumga aloqador frazeologik birlik, qonunning eskirishi bilan iste'moldan chiqib ketgan. Shuning bu frazeologik birlikni muvaqqat ibora sifatida tilga olamiz.

Ana shunday milliy madaniyatimiz aks etgan iboralar orasida xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lgan latifalar bilan bog'liq iboralar ham bor. Masalan, **dumi xurjunda** iborasi o'lda-

<sup>1</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati, T.: Qomuslar bosh tahririyati, 21-bet, 1992.

<sup>2</sup> Shomaqsudov Sh. Dolimov S. Qayroqi so'zlar(xalq iboralari), 99-bet, T., 2011

<sup>3</sup> Shomaqsudov Sh. Dolimov S. Qayroqi so'zlar(xalq iboralari), 171-bet, T., 2011



jo'lda, to'mtoq, chatoq ma'nolarini ifodalovchi frazeologik birlik. Bu frazeologik birlik latifalarimizning bosh qahramoni Afandi bilan bog'liq. Afandi eshagini sotmoqchi bo'lib, uni yuvib, tarab bozorga olib ketayotganda botqoqqa botib, dumi loy bo'libdi. Afandi dumini tozalash uchun suv topolmay, eshakning dumini kesib, xurjunga solibdi va bozorga boribdi. Xaridorlar kelib, eshakni ko'rarkan-u, "dumi qani?"-deb so'rarkan, afandi esa: "dumi xurjunda",-deb javob berarkan. Shunday qilib Afandining ishi yurishmay, eshagini sotolmabdi. Bu ibora xalq orasida majoziy, ya'ni biror kishining ishi yurishmasa, ishi orqaga ketsa, ana shunday odamning ishiga nisbatan qo'llaniladi: Bo'riboy o'sha odamlarning nomini tilga olgisi kelmay, dumi xurjunda qoldi( H.Nazir "O'tlar tutashganda")

***Ishi bitdi, eshagi loydan o'tdi*** kimningdir maqsadi amalga oshgach, aloqa va muomalani yig'ishtirmoq ma'nolarini ifodalaydi<sup>1</sup>. Varianti: ***ishi bitdi, eshagi suvdan o'tdi***. Bu frazeologik birligi ham latifa bilan bog'liq. Afandining eshagi og'ir yuk bilan ketayotib loyga botib qoladi, lekin bir o'zi uni chiqarolmaydi. Ko'channing narigi tomonida bir bekor odam o'tirgan edi, lekin u yordam berishni o'ylamaydi. Shunda Afandi uning yordamidan foydalanish uchun bir hiyla o'ylab topadi va kim menga yordam bersa Bahovuddinga atagan yetti tangani o'sha odamga beraman deb yordam so'rabdi. Haligi odam yugurib kelib unga yordam beribdi. Afandi eshagini loydan chiqarib, yo'lga tushibdi. Yordam bergan odamga aytilgan yetti tangani bermabdi. Haligi odam kinoya tariqasida: "Endi bu kishining ishi bitib, eshagi loydan o'tdi-da", deb Afandining orqasidan qarab qolaveribdi. Bu ibora xalq orasida faqat o'z manfaatini o'ylab, kishilarning yordamidan foydalanishnigina biladigan kimsalarga nisbatan ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Masalan, Akramning esa ***ishi bitib, eshagi loydan o'tdi***. Tegirmon ham navbati bilan, jo'rajon, - dedi u Subhonga. Kelishda yaxlab o'lay dedim, ketishda o'lishim aniq. Endi tepaga sen chiqasan. Subhon ko'nmadi: Vadangni buzma, og'ayni! (Sultonmurod Olim "ch") Ushbu parchada ibora o'z manfaati yo'lida kishilardan foydalanadigan kimsaning ishi bitgandan keyingi holatini ifodalash uchun qo'llanilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek xalq iboralari o'ziga xos tarixiy ildizga ega. Frazeologik birliklar zamirida o'zbek xalqining milliy obrazlari, an'anaviy necha ming yillik urf-odatlari, turmush tarzi o'z aksini topadi. Tadqiqotchi Y.Odilov aytganidek, frazeologik birliklarimizda xalqimizning turfa injaliklarini ko'rishimiz mumkin.

## KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA KONSEPT TUSHUNCHASI

*Dilniso Shavkat qizi YANDASHOVA,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lgan kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyat va ularning asosiy birliklaridan biri hisoblangan konsept haqida fikr yuritilgan.

**Annotation:** One of the modern directions of linguistics in this article is cognitive linguistics, linguistics and one of their main units thought was made about the calculated concept.

**Аннотация:** В этой статье рассматривается когнитивная лингвистика, одна из современных области лингвистики, лингвокультура и концепция, которая считается одной из их основных единиц.

**Kalit so'zlar:** Kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyat, konsept, tushuncha

<sup>1</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati, T.: Qomuslar bosh tahririyati, 121-bet, 1992.

**Keywords:** cognitive linguistics, lingvomadaniyat, concept

**Ключевые слова:** когнитивная лингвистика, лингвомаданият, концепция, понятие

Kognitiv tilshunoslik XXI asr boshlarida lingvistikaning peshqadam sohalari- dan biriga aylanib ulgurdi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi amerikalik olimlar J.Miller, J.Bruner, J.Lakoff, R.Langaker, R.Jakendoff va boshqalarning ilmiy ishlari bilan bog‘lanadi. Kognitiv tilshunoslik tilni falsafadagi bilish nazariyasi bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik jihatlarining ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini ilmiy tadqiq etuvchi soha hisoblanadi. Kognitiv so‘zi inglizcha “cognize-bilmoq, angla moq, tushunmoq“ degan ma‘noni anglatadi. Kognitiv tilshunoslik “chegaradosh fan“ bo‘lib, kognitologiya, kognitiv psixologiya, psixolongvistika, lingvistika kabi sohalar to‘qnashuvida vujudga keldi. 1975-yilda J.Lakoff va S.Tompsonning maqolasida “kognitiv grammatika“ termini paydo bo‘ldi. Rus tilshunosligiga esa kognitiv lingvistika V.I.Gerasimovning (“Новое в зарубежной лингвистике“, 1988) ilmiy maqolasi bilan kirib keldi. O‘zbek tilshunosi Sh.S.Safarovning fikriga ko‘ra, “Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo‘llash, hamda uzatish, umuman til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in‘ikosi sifatida tafakkur bilan bog‘lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir“. [1;91] Professor A.Mamatov til tizimini kognitiv jihatdan tahlil qilish borasida fikr yuritir ekan, shunday deb yozadi: “Kognitiv fan kogniziya bilan shug‘ullansa, kognitiv tilshunoslik kogniziyaning, ya‘ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiq qiladi. Tilga bo‘lgan kognitiv yondashuv – bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o‘z tuzilishiga ko‘ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi“. [2;212-219]. XX asrning oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosi masalasini o‘rganishni maqsad qilgan tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi. Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta‘siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Lingvokulturologiya o‘rganish obyektiga ko‘ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o‘rganish obyektiga bo‘lgan yondashuviga ko‘ra farqli deb aytish mumkin. Ushbu ikki soha uchun ham umumiy bo‘lgan asosiy kategoriyalardan biri, muhim o‘rganish obyektiga ko‘ra bu konseptdir. Bu atamani ilk bor 1928-yilda rus tilshunosi S.A.Askoldov o‘z maqolasida qo‘llagan. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o‘zida aks ettiradigan birlikdir“, deb ta‘rif beradi. [3;250] Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb mavzularidan biri bu konsept hisoblanadi. Tilshunoslikka bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy maqolalarda konseptga tushuncha deb izoh berib ketiladi. Konsept atamasini boshqa atamalar bilan taqqoslash yo‘li bilan aniqlashga harakat qiladilar. Konsept, ma‘no-mazmun, tushuncha atamalari aniq chegaralanadi. Xususan, shunday nuqtai nazarni Z.D.Popova va I.A.Sternin quyidagicha e‘tirof etadi: “Ma‘no bilan konsept tushunchalarini bir-birlari bilan almashtirish mumkin emas: konsept- konsept doirasining birligi, ma‘no esa semantik tizimning, til

semantik maydonining birligi hisoblanadi. Ma'no o'zining kompleks semalari orqali konseptning tashkil etuvchi ma'lum belgilarni bildiradi, shuningdek har doim konsept faqat ma'noga oid mazmunli qismidir. Konseptni izohlash uchun odatda ko'p sonli leksik birliklar va shuningdek, ko'p xil ma'nolar kerak bo'ladi". Z.D.Popova va I.S.Sterninning fikriga ko'ra " So'z konseptni to'liqligicha tashkil etmaydi, u o'zining mazmun-ma'nosi orqali so'zlayotgan kishi uchun ularning bosh maqsadini tashkil etuvchi, uning intensiyasiga kiruvchi, bildirish uchun relevant bo'lgan bir necha asosiy konseptual belgilarni uzatadi. Butun konsept o'zining mazmun boyligi nuqtai nazaridan va nazariy jihatdan har biri uning faqatgina bir qismini ochib beruvchi faqat til vositalarining majmuyi orqali ifodalanishi mumkindir ". [4;35] Tilshunoslik tomonidan falsafaning logika bo'limidan o'zlashtirilgan konsept atamasi ba'zan tushuncha atamasining sinonimi sifatida ham qo'llanadi. Nazarimda, tushuncha konseptga nisbatan mazmunan torroq hisoblanadi. Ba'zi tilshunoslarning ongida tushuncha konseptning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi va u turli xil assotsiatsiyalar hamda interpretatsiyalar (talqin -izohlar) bilan boyib boradi. Masalan, V.I.Karasikning fikriga ko'ra: " Til sohiblarining alohidalashgan va ijtimoiy ongida konseptni tushuncha-tasavvurning o'rindoshi sifatida kognitiv, psixologik jihatdan tushunish nihoyatda ishonarli deb tasavvur qilinadi ". [5;4] Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, D.S.Lixachev konseptning muhim bir tomoniga e'tiborimizni qaratdi, ya'ni konsept " vaznsizlik" da bo'lmaydi, balki, u har doim aniq bir kishiga yoki kishilar guruhiga tegishlidir. [6;55] N.D.Arutyunova fikriga ko'ra "Konsept amaliy, kundalik turmush falsafasining tushuncha-tasavvurlari sifatida o'rganadi va ularni „milliy an'ana va folklor, din va milliy mafkura, hayotiy tajriba va san'atdagi timsollar, his-tuyg'ular va qadriyatlar tizimi kabi omillar ta'sirida paydo bo'ladi " ,- deb hisoblaydi. [7;30] Xuddi shu o'rinda Yu.S.Stepanovning "Rus madaniyatining lug'ati" (" Словарь русской культуры" )da berilgan yana bir ta'rifni keltiramiz, ya'ni: " Madaniyat-konsept va ularning o'rtasidagi nisbatlarning yig'indisidir. Konsept-inson ongida shakllangan madaniyatning hosilasidir. U odamning mental (shaxsiy) olamiga kirib kelayotgan madaniyatning bir ko'rinishidir va boshqa tomondan konsept – oddiy (madaniy boylklarning yaratuvchisi) bo'lmagan odamni o'zining madaniyatga kirib borishi hamda ba'zi hollarda unga ta'sir qilishining vositasidir. Atamaning tub mazmunini bildiruvchi tushuncha -tasavvurlardan farqli o'laroq, konsept nafaqat fikrlanadi, balki odamlar ruhiy jihatdan boshidan o'tkazadilar ham. Ular his-tuyg'ularining yoqtirishning va hush ko'rmaslikning, ba'zan esa to'qnashuvlarning asosidir. Konsept – insonning mental olamidagi madaniyatning asosiy uyasi hisoblanadi ". [8;12]. Yuqoridagi fikrlarni o'rganib shunday xulosaga kelish mumkinki, konsept lingvomadaniyatda eng faol qo'llaniluvchi birlik sanaladi. Lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o'taydi. Konsept bu bevosita inson ongi va tafakkuri, his-tuyg'ulari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, til va ruhiyatning bog'liqligida kechuvchi jarayon hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor,2006.- B.91
2. Mamatov A. E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? Tilshunoslikning dolzarb masalalari: Prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Andijon,2012/-B.212-219.

3. Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология.- М:Academia. 1997.-С-250
4. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – Москва: изд-во «АСТ» Южно-Запад, 2007. С-35
5. Карасик В И Журнал « Медиа -лингвистика » № 2.-М, 2015. С-4
6. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка / Серия литературы и языка. № 1.- М., 1993.С-52
7. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека.М.,1999. С-30
8. Степанов Ю. С. Константы. «Словарь русской культуры» Опыт исследования. – М.: АСТ, 2001 С-12

## INNOVATION METODLARINING NAZARIY ASOSLARI

*G.A.Mavlonova,*

*Navoiy innovatsiyalar universiteti ingliz tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, АКТ vositalaridan foydalanish, innovatsion va interfaol metodlar va ularni amalda targ'ib etish haqidagi mulohazalar bayon etilgan.

**Аннотация:** Данная статья посвящена использованию педагогических технологий в современном учебном процессе, использование ИКТ, а также применение инновационных и интерактивных методов на занятиях

**Abstract:** This article describes modern pedagogical technologies used in the educational process, the use of ICT tools, innovative and interactive methods and their practical promotion.

Ta'lim jarayonida innovatsion faoliyat va u haqdagi tushunchalar dastlab N.V.Kuzmina, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, F.N.Gonobolin, V.A.Slastenin, A.I.Shcherbakov kabi olimlar ishlarida tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda ta'lim berish jarayonida innovatsion faoliyat yangilik va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan ochib berilgan.

Bugungi davr ta'lim rivoji va taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion pedagogikani ishlab chiqdi. «Innovatsion pedagogika» atamasini va unga bog'liq bo'lgan izlanishlar G'arbiy Yevropa va AQShda XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi.

Yuqorida aytib o'tilgan tadqiqotchi olimlarning izdoshlari sifatida A.Xeyvlok, N.Gross, X.Barnet, Dj.Basset, D.Gamilton, R.Karlson, M.Mayez, D.Chen, R.Edem kabi olimlar ishlarida innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar yagilanishni tashkil etish, innovatsiyaning «hayoti va faoliyati» uchun muhim bo'lgan masalalari muhokama qilingan.

Ta'lim jarayoniga qolaversa o'qitish usullariga yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti amerikalik tadqiqotchi, olim, E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu olim ta'limga yangilik kiritish jarayoni ishtirokchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini tadqiq etadi.

Oliy ta'lim muassasalari professor - o'qituvchilarining innovatsion faoliyati oliy maktab pedagogikasining muhim muammolaridan biri sanaladi.

Innovatsiya so'zining lug'aviy ma'nosi (inglizcha innovation) – yangilanish, yangilik kiritish, yangilik degan ma'nolarni anglatadi.

A.I.Prigojin tadqiqotlari davomida innovatsiya so'zi zamirida muayyan ijtimoiy tashkilot, insoniyat, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlar mavjud deb ta'kidlaydi. Bu o'z navbatida innovator faoliyati namunasi hisoblanadi. Пассов Е.И., Нелюбин Л.Л., Коменский Я.А, Вейхман Г.А., Беспалько В. П., Азизхўжаева Н. Н. va boshqa bir qator tadqiqotchilar innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini funksional va yo'nalishlariga ko'ra ikkiga ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri mikrosathi.

Mazkur mulohazali yondashuvning birinchi turida, hayotga joriy etilgan bir qator yangi g'oyalar yoritiladi.

Aytib o'tilgan yondashuvning ikkinchi turida, alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashi xususida fikr bildiriladi.

Pedagogikaga mansub adabiyotlarda innovatsiya jarayonining sxemasi tasvirlanadi. Bu sxema o'z navbatida quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Innovatsion g'oya tug'ilishi yoki yangilik tushunchasini yaratish, mazkur holat kashfiyot bosqichi deb ataladi.

2. Ixtiro qilish, aniqroq qilib aytganda yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish, to'g'ri foydalana olish bosqichi.

4. Yaratilgan yangilikni targ'ib etish, uni keng tarqalishini ta'minlash bosqichi.

5. Ma'lum bir sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Mazkur bosqichda yaratilgan yangilik o'zining yangiligini xususiyatini yo'qotadi, uning mukammal samara beradigan muqobil shakli paydo bo'ladi.

6. Taqdim etilayotgan yangi muqobillik asosida, eskini yangi bilan almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

7. Yevropalik olim V.A.Slastenin yangilik yaratish va kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish, deb biladi. Yangilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy) yangi jarayonlarning ikki muhim jihatiga ko'ra tasniflaydilar.

Birinchi turga, yangilik kiritishning murakkab bo'lmagan oddiy jarayonlari kiritiladi. Mazkur holat ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga ta'luqlidir.

Ikkinchi tur taqdim etilayotgan yangilikni keng miqyosda ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ma'lum bir sohada yangilik kiritish ham ichki mantiq ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro bog'liqligini ifodalaydigan dinamik tizimdir. Pedagogik innovatsiyada bugungi kunda «yangi» tushunchasi markaziy o'rin tutadi.

Ilmiy va tadqiqot yo'nalishlarida yangilik va innovatsiya tushunchalari bir biridan farq qiladi.



Yangilik - bu vosita: yangi usul, metodika, texnologiya va boshqalar.

«Innovatsiya» - bu ta'lim: ma'lum maqsadga ega bo'lgan bosqichlar bo'yicha rivojlanadigan jarayon.

Mazkur olim pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova innovatsion jarayon tuzilmasini uch blokka ajratadi:

Birinchi blok - pedagogika sohadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogika sohasidagi mutloq yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, uni o'zlashtirish, rivojlantirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki. Pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi [18, 83].

**Uchinchi blok** - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tadbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir.

M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari ham e'tiborga molikdir. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- faoliyat tuzilmasi-motiv-maqsad-vazifa-mazmun-shakl-metodlar metodika komponentlari yig'indisi;

- subyektiv tuzilma - innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;

- mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv(va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;

- bosqichlikka asoslangan hayotiy davriylik tuzilmasi-yangilikning paydo bo'lishi-ildam-o'sish-yetuklik-o'zlashtirish-diffuziya (singib ketish, tarqalish) – zamonaviylashtirish;

- boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4ta turining o'zaro aloqasi: rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish.

- tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tadbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni - tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bema'romlik qonuni;

- nihoyat amalga oshishi qonuni;

- pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni;

- qoliplashtirish (stretiplashtirish) qonuni;

Bugungi kunda dars o'tish jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini dars vaqtida qo'llashga bo'lgan ishtiyoq, e'tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda, bu holatning muhim sabablaridan biri, shu vaqtgacha qo'llanilib kelinayotgan an'anaviy ta'lim usulida o'quvchi-talabalarni faqat aniq tuzilishga

ega tayyor shakldagi bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalarning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, analiz va sintez qilishlariga, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari qabul qilishga o'rgatadi. Shu sababli oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida yuqori malakali kasb-hunar egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning roli va o'rni juda kattadir. Pedagogikaga oid tajriba, bilim va interaktiv usullar o'quvchi-talabalarni bilimli, chuqur bilim va malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Zamonaviy texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba munosabati va faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, mazkur jarayonni amalga oshirishda asosan innovatsion metodlardan to'liq va samarali foydalaniladi.

**Interfaol metodlar** - bu jamoa bo'lib shakllangan holda fikrlash deb ataladi, ya'ni pedagogik ta'sir o'tkazish usullari bo'lib, ta'lim-tarbiya mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ular faqatgina pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat olib borishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- ta'lim oluvchilar dars davomida e'tiborsiz bo'lmaslikka, erkin fikrlay olish, ijodiy yondasha olish va izlanishga majbur etish;

- o'quvchi - talabalarni ta'lim jarayonida darsga bo'lgan qiziqishlarining doimiyligini ta'minlash;

- o'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

- O'qituvchi va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatining tashkil etilishi.

Innovatsion va pedagogik texnologiyalar muammolari, masalalarini o'rganayotgan o'qituvchi professorlar, amaliyotchi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, pedagogik texnologiya – bu faqatgina axborot texnologiyasi bilan bog'liq shuningdek o'qitish jarayonida qo'llanishi lozim bo'lgan Axborot kompyuter texnologiyalari, masofaviy o'qish, yoki har xil texnikalardan foydalanish deb ataladi. Pedagogik asosi bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalar muhim rol o'ynaydi, ya'ni dars jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi professor-o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida tashkil etilgan hamkorlik faoliyatini rivojlantira olsa, har ikkalasi tomon ham kutilgan ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar erkin fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, analiz va sintez qila olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'z- o'ziga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shular o'qitish jarayonining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. O'qituvchi va o'quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, haroitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi.

Shu bilan bir qatorda, o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonida o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, mavjud moddiy va ma'naviy shart-

sharoitlarni, AKT vositalarini, eng asosiysi, o'quvchi-talabalarning imkoniyat va ehtiyojini hamda ularning hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olish qobiliyatlarini hisobga olishi kerak. Shundagina kerakli va kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi-talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Пассов Е.И. Методология методики: теория и опыт применения (Избранное). Липецк: РИЦ ЛГПУ, 2002(г)
2. Gulboev T. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni ta'lim jarayoniga tadbiq etish. Navoiy., 2001. –94 b.
3. Азизхўжаева Н. Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат.-Тошкент: ТДПУ, 2003. - 89 б.
4. Хужаев N. va boshqalar. Pedagogika asoslari. – Т., 2003. - 316 b.
5. Хужаев N. va boshqalar. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Т., Fan. 2002. -76 b.
6. Tojiev M., Salaxutdinov R., Barakaev M., Abdalova S. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. – Т.,2001. – 87 b.
7. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Navoiy., Nasaf. 2000. – 124 b.

#### ***KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR BILAN MATN USTIDA ISHLASH***

***Shohista Baxtiyor qizi YO'LDOSHEVA,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Sirtqi bo'lim o'qituvchi***

**Аннотация.** Mazkur maqoladan boshlang'ich sinf o'quvchilari darslarda matn tuzish ko'nikmalarini shakllantirishi, boshlang'ich sinf o'qituvchilari esa darslarda foydalanishi mumkun.

**Аннотация.** Из стой статьи первоначальная из начальных учеников классе может использовать действия по подготовке текста на уроках и учителей – учителей класса для начинающих.

**Annotation.** This article can be used by primary school students to develop writing skills in the classroom , and primary school teachers can use it in the classroom.

**Калит so'zlar.** Kompetensiya, asr tahlili, faoliyat, analiz, tanlab o'qish, ongli o'zlashtirish, oddiylikdan murakkablikka, voqealar rivoji, sarlavha, usul.

**Ключевые слова.** Компетентность, вековой анализ, активность, анализ, выборочное чтение, осознанное усвоение, от простоты к сложности, развитие событий, название, метод.

**Key words.** Competence, century analysis, activity, analysis, selective reading, conscious acquisition, from simplicity to complexity, development of events, title, method.

Barchamizga ma'lumki inson boshqa jonzotlardan ustunligiga sabab uning ongliligi, aqli, ilmi, tafakkuri va nutqidir. Biroq inson o'z vazifalarini bekamu- ko'st bajarishi uchun yetarlicha bilimga ega bo'lmogi lozim. Bunda esa oila, maktabgacha ta'lim muassasalari va

maktablarning o‘rni beqiyosdir. Keling shular orasidan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni savodxonligi, mantiqiy fikrlay olishi, matn tuzishi kabi mashg‘ulotlarni qay darajada egallashi bilan tanishib chiqaylik. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 1-4-sinflarda egallagan bilimlari butun umri davomida olgan bilimlarga poydevor hisoblanadi. So‘zimiz isboti sifatida “Yoshlikda olingan bilim, toshga o‘yilgan naqshdir” deb aytilgan maqolni eslab o‘tsak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn ustida ishlash badiiy asarni tahlil qila olish bilan uzviy bog‘liq. Darslik kitoblar yoki kichik yoshdagi bolalar uchun mahsus gazeta va jurnallarda berilgan badiiy asarlarni tahlil qilishda o‘qituvchidan alohida yondashuv va mahorat talab qilinadi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

-matndagi so‘z va gaplarni ma‘nolarini tushuna oladi

-asar mazmunidan ta‘sirlana oladi

-xalq og‘zaki ijodi (ertak, topishmoq, maqol, masal, tez aytishni) farqlay oladi

-asar qahramonlariga munosabat bildiradi

-o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi

-mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi

Yuqoridagi bosqichlarni o‘quvchi to‘la o‘zlashtira olganida dars samaradorligi oshadi, o‘quvchilarni aqli va tafakkuri rivovlanadi.

O‘qish faoliyatida o‘qituvchi badiiy asar ustida ishlash jarayonining quyidagi masalalarini hal qilishi muhimdir. Bular asar ustida ishlashning maqsad va mazmunini aniqlab olishdan boshlanadi. Sinfda o‘quvchilarning ruhiy holati, sinf o‘quvchilari orasidagi holat va vaziyatlardan kelib chiqqan holatda asar ustida ishlashning mazmuni belgilanadi. Keyingi vazifa asarni tahlil qilish uchun dars bosqichlarini belgilab olish vazifasidir. Bu vazifa o‘qituvchining dars jarayoniga metodik tayyorgarligi, dars jarayonini qanday metodlar asosida tashkil etishi va boshqarishiga bog‘liq bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi badiiy asar ustida ishlashda quyidagi o‘qish turidan foydalaniladi.

**Tanlab o‘qish.** Bunda o‘quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o‘qiydi. Vazifa asarning mazmunini oydinlashtirish, sabab - natija bog‘lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o‘qilgan matnga o‘z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, 4 - sinfda “Oltin kuz” matnidagi “Tabiatdagi o‘zgarishlar berilgan qismlarni topib o‘qing”, “Baqa va taqa” ertagidagi “Taqachining nasihati berilgan joyni topib o‘qing” kabi.

Tanlab oqish matn ustida ishlashning eng samarali usulidir. Tanlab o‘qishdan matn ustida ishlashning barcha bosqichlarida turli xil qiyinchilikda, murakkablikda foydalaniladi. U o‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlarini o‘stirish bilan birga ularning ijodiy tasavvuri, nutqi va zehni o‘stirishga yordam beradi.

Eng oddiy tanlab o‘qish asar mazmunini yuzasidan bo‘ladi. Masalan, 4- sinfda” Toshkentnoma” (M.Shayxzoda) asari yuzasidan tanlab o‘qish uchun quyidagi topshiriqlar beriladi:

-She‘rdan o‘zbek xalqining mehmondo‘stligi tasvirlangan o‘rinni topib o‘qing.

- Yoz faslining zoʻrligi tasvirlangan oʻrinni topib oʻqing.

”Dehqonbobo va oʻn uch bolakay qissasi” (A.Oripov) asari matni yuzasidan quyidagi topshiriq beriladi:

- Matndan Dehqonboboning Vatan haqidagi gaplarini topib oʻqing.

Tanlab oʻqishning yana ham murakkabroq turlari matndan sabab-natija munosabati bilan bogʻlangan faktlarni taqqoslashni, umumlashtirishni talab qiladigan oʻrinlarini topib oʻqish hisoblanadi. Masalan, “Xarita” hikoyasi (Normurod Norqobilov) yuzasidan topshiriqlar:

- Sinf rahbari Rasulni nima uchun Samadga biriktirib qoʻydi? Shu oʻrinni topib oʻqing.

-Samadning Rasuldan arazlash sababi ifodalangan oʻrinni topib oʻqing.[1]

Bunda oʻquvchi biror qatnashuvchi shaxs oʻzini qanday tutishini, nima uchun u shunday tutishini tasdiqlash uchun matndan material tanlab oʻqiladi.

**Matnni tasvirlash.** Matnni 2 xil tasvirlash mumkin: 1) soʻz bilan tasvirlash; 2) grafik tasvirlash.

Soʻz bilan tasvirlash oʻziga xos murakkab ish turi boʻlib, unda manzarani soʻz yordamida aniq qayta tiklash talab etiladi. Bunda soʻzlarni aniq tanlashga eʼtibor qaratiladi. Turli tabiat manzaralarini, qatnashuvchi kishilarning tashqi koʻrinishini, voqea sodir boʻlgan joylarni tasvirlash topshiriq qilib berilishi mumkin.

Matnni soʻz bilan tasvirlashga oʻrgatishni darslikda berilgan rasmni matndagi shu rasmga mos qism bilan taqqoslab tasvirlashdan boshlash kerak.

Soʻz bilan tasvirlash bosqichma-bosqich, maxsus tayyorgarlikdan soʻng amalga oshiriladi:

1. Matndan manzara, vaziyat yoki qahramonlarning tashqi koʻrinishi tasvirlangan oʻrinlar aniqlanadi.

2. Nisbiy tugallangan oʻrinlar ajratiladi.

3. Tasvirlashga leksik-uslubiy tayyorgarlik koʻriladi, yaʼni yozuvchi, shoir qoʻllagan lugʻaviy birliklarga oʻquvchilar diqqati tortiladi va ular tahlil qilinadi. Tasvirlashda soʻzni aniq tanlashga yordam beradi.

4. Soʻz bilan tasvirlashga oʻrgatishning dastlabki paytida doskaga foydalaniladigan soʻzlar yozib qoʻyilishi zarur. Soʻz bilan tasvirlash qayta hikoyalashga aylanibmasligi lozim.

Grafik tasvirlash koʻproq uyda bajariladi. Buning uchun oʻquvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan oʻqib chiqadilar, mazmunini oʻzlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar. Bunda oʻquvchilar bilan qanday ranglardan foydalanish, ranglar ifodalaydigan maʼnolar boʻyicha suhbat oʻtkaziladi. Rasmlar koʻrgazmasi tashkil etiladi. Har bir rasm muallifi oʻzi chizgan rang tasvirini izohlab beradi. Kompyuterlashtirilgan sinflarlarda grafik tasvirlashni oʻquvchilar maktabda bajarishi mumkin. Bunda oʻquvchilarning ijodiy yondashuvlariga imkon beriladi.

Oʻquvchilar asar voqealari rivojini seriyali rasmlar asosida muayyan izchillikda tasvirlashlari ham, har bir rasm seriyasi ostida shu qismda ifoda etilgan muhim fikrlarni yozib qoʻyishlari ham mumkin. Bular asar matnini toʻliq, qayta hikoyalash, shuningdek, oʻqilgan hikoya, maqolaning rejasini tuzish, matn mazmunini, uning tasviriy vositalarini bilib olishga yordam beradi.



**Asar rejasini tuzish.** Reja matn mazmunini ongli va chuqur tushunishda, asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining o‘zaro bog‘lanishini tushunishda o‘quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o‘quvchilar nutqi va tafakkurini o‘stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo‘lishga va har bir qismning asosini topishga ularga qisqa va aniq sarlavha topishga, uni reja qismi sifatida shakllantirishga o‘rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o‘rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo‘yish hisoblanadi. Bunday mashqqa o‘rgatishda o‘qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta’kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi. Reja tuzishga tayyorgarlik ishining 2-turi o‘qituvchi rahbarligida tanlab o‘qish hisoblanadi, bolalar matndan o‘qituvchi bergan savolga javob bo‘ladigan o‘rinni topib o‘qiydilar.

Reja tuzish «oddiydan murakkabga» tamoyili asosida asta-sekin murakkablashtirilib, muayyan izchillikda o‘tkazib boriladi. O‘quvchilar 1-sinfda o‘qilgan kichik matnga o‘qituvchi rahbarligida so‘roq gap tarzida sarlavha tanlashlari, 2-sinfda kichik maqolaning rejasini o‘qituvchi rahbarligida so‘roq yoki darak gap tarzida tuzishlari, 3-sinfda o‘qilgan matn rejasini jamoa bo‘lib tuzishlari, 4-sinfda mustaqil reja tuza olishlari kerak.

Rejaning eng oddiy shakli rasmi reja hisoblanadi. Buning uchun avval bolalar kitobda berilgan rasmlardan matn qismiga mosini tanlashga va uni nomlashga o‘rgatiladi, keyin matn qismiga tayyor rasm berilmaydi, uni bolalarning o‘zlari so‘z bilan tasvirlaydilar. Hikoya o‘qiladi va qismlari bo‘yicha tahlil qilinadi, so‘ng o‘quvchilar matnning 1-qismini o‘qiydilar, o‘qituvchi ulardan qanday rasm chizish mumkinligini so‘raydi. qolgan qismlari ustida ham ishlar shu tarzda ishlanadi. O‘quvchilar chizgan rasmlariga nom (sarlavha) qo‘yadilar. Ular qo‘ygan nom sarlavha doskaga reja qismi tarzida yozib beriladi.

O‘quvchilar rasmi reja tuzishdan logik reja tuzishga o‘tadilar, logik reja tuzish quyidagi izchillikda o‘rgatiladi:

1. O‘qituvchi qismlarga bo‘lingan matnga tanlab reja tuzadi va matn rejasining o‘rnini almashtirib, sarlavha tarzida xattaxtaning chap tomoniga yozib qo‘yadi. O‘quvchilar matnning 1-qismini o‘qiydilar, shu qism mazmuniga mos sarlavhani topadilar, uni o‘qituvchi xattaxtaning o‘ng tomoniga yozadi. Ana shu tarzda xattaxtada o‘qilgan matnning rejasini hosil bo‘ladi.

2. Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida har bir qismdagi asosiy g‘oyani aniqlaydilar va unga sarlavha topadilar, o‘qituvchi sarlavhalarni reja tarzida xattaxtaga yozib boradi.

3. Qismlarga bo‘linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar matn rejasini tartibida doskaga yoziladi. O‘quvchilarga berilgan sarlavhalardan foydalanib, matnni qismlarga bo‘lish topshiriladi. Ular matnni o‘qishadi va sarlavhalarga tegishli qismni ajratadilar.

4. Qismlarga bo‘linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar aralash tarzda xattaxtaga yoziladi. O‘quvchilarga yuqoridagiday qismlarga bo‘lish topshiriladi. O‘quvchilar matnni o‘qib, nisbiy tugallangan qismni ajratadilar va unga mos sarlavhani xattaxtadan tanlaydilar. Ish shu tarzda davom ettirilib, matn rejasini tuziladi.

Boshlang'ich sinflarda muammoli tahlil usulidan ham foydalanish mumkin. Masalan, «Bobur va Humoyun» hikoyasini o'rganishda o'quvchilarga «Boburning aytgan gaplari o'rinlimi?», «Hikoyadagiday holat sodir bo'lishi mumkinmi?» kabi muammoli savollar berish o'rinli bo'ladi. O'quvchilar asarni ichda o'qiydilar, jamoa bo'lib fikr almashadilar, bahslashadilar. Bahs davomida o'quvchilar ma'naviy alamida ham, aqliy dunyosida ham muayyan o'zgarishlar, rivojlanishlar sodir bo'ladi. Asar tahlilida qo'llanadigan tanlab o'qish, unga munosabat bildirish, munosabatlarning turli xilda bo'lishi ham munozarani keltirib chiqaradi. Munozarali o'rin muammoni yuzaga keltiradi. Endi o'quv jarayoni oldida muammoni to'g'ri hal etish vazifasi turadi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ham badiiy asar matnini tahlil qilishda, umuman, badiiy asarlarni o'rganishda o'quvchi shaxsiga kuchli ta'sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o'zlashtirilishini ta'minlovchi metod va usullardan, tahlil turlaridan foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak boshlang'ich sinf o'quvchilari matn ustida ishlash asosan muloqat orqali erishiladi. Xususan shaxsning tez rivojlanadigan davri – o'quvchilik yillarida uning ongiga turli faoliyat, yani o'qish, o'yin, badiiy havaskorlik yordami bilan ta'sir etish muhimdir. O'qish darsliklarida berilgan matnlarni qismlarga ajrata olishi va ularga reja tuza olishi uchun o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirmog'i lozim. Bunda o'qituvchi matnni tasvirlashga alohida e'tibor beriladi. O'zbek maktablarida taniqli metodis olimlar T.G.Ramzaeva, M.S. Vasileva, V.G.Goreskiy, K.T. Golenkina, L.A.Gorbushina, M.I. Omorokova, E.A. Nikitina, N.S.Rojdestvenskiylar ishlab bergan takomillashgan sinfda o'qish metodikasidan ijodiy foydalanilmoqda. Ular yaratgan metodik qo'llanmalardan esa bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qish darslarida samarali foydalanilmoqda.

#### **ADABIYOTLAR**

1. K.Mavlonova va boshqalar Ona tili va o'qish savodxonligi. T. 2020
2. Qahhorov I. Notiqlik san'ati. T. 2015
3. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. T.20017
4. Zuhra Saliyeva, Geri Burkholder va boshqalar 3-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi
5. [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)
6. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
7. [www.sputniknews.uz](http://www.sputniknews.uz)

#### **ADABIYOT DARSLARIDA EVRISTIK METOD YORDAMIDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH**

*Maxmuda YULDASHEVA,*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda adabiyot darslarida o'quvchilarni ijodkorlikka, tafakkur qilishga va mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonlari, o'qitishning evristik usullari, badiiy asarni evristik tahlil etish yo'llari hamda adabiy ta'lim berish jarayonida evristik usullarni qo'llashning asosiy mohiyati, shuningdek o'quvchilarning bilimlarini kashf etish bilan

birgalikda ularni izlanishga o'rgatish usullari, evristik metod asosida tuzilgan topshiriqlar va mashqlar o'quvchilarda tashabbuskorlik bilan birgalikda quyidagi layoqatlarni ya'ni mustaqillik, epcillik, qarorlar qabul qilish kabi qobiliyatlarini samarali shakllantirish imkonini berishi tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** ijodkorlik, ijodiy faoliyat, evristik usul, interfaol metod, evristik ta'lim, ijodiy topshiriq.

**Аннотация:** В настоящей дипломной работе рассмотрены процессы обучения учащихся творчеству, мышлению и самостоятельному мышлению на уроках литературы, эвристические методы обучения, способы эвристического анализа художественного произведения и основные сущности применения эвристических методов в процессе литературного воспитания, а также методы обучения учащихся поиску знаний в сочетании с их открытием, задания и упражнения, построенные на основе эвристического метода, помогают учащимся проявлять инициативу и вместе они развивают следующие способности, а именно независимость, ловкость, анализ позволяет эффективно формировать такие способности, как принятие решений.

**Ключевые слова:** творчество, творческая деятельность, эвристический метод, интерактивный метод, эвристическое обучение, творческое задание.

**Abstract:** This thesis examines the processes of teaching students creativity, thinking and independent thinking in literature lessons, heuristic teaching methods, methods of heuristic analysis of a work of art and the main essence of the application of heuristic methods in the process of literary education, as well as methods of teaching students to search for knowledge in combination with their discovery, tasks and exercises based on heuristic method, help students to take initiative and together they develop the following abilities, namely independence, dexterity, analysis allows you to effectively form such abilities as decision-making.

**Keywords:** creativity, creative activity, heuristic method, interactive method, heuristic training, creative task.

Atoqli nemis pedagogi Fridrix Vilgelm Adolf Disterverg o'zining "Nemis o'qituvchilarining ta'limi bo'yicha qo'llanma" sida o'qituvchilar uchun muhim maslahatlar va ko'rsatmalarni berish barobarida quyidagi fikrni bildirib o'tgan edi: "O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi".

Oradan III asr vaqt o'tgan bo'lsa-da, mohir pedagog Adolf Distervergning yuqoridagi fikrlari o'z ahamiyatligini hamon yo'qotgani yo'q. Haqiqatdan ham, o'qituvchilar doimiy ravishda o'z kompetentligini oshirishda tinimsiz ishlashlari, faniga oid yangiliklar bilan muntazam tanishib borishlari va dars jarayonida o'quvchilar faolligini oshirishga xizmat qiladigan turli usullarni kashf etishi hamda amaliyotga tatbiq etishi lozim.

Jahon adabiyotshunosligida Evristik metod, evristik yondashuv, evristik faoliyatga oid juda ko'plab tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar olib borilgan. Evristik usullarni qo'llash muammolari va ta'lim va tarbiya usullari faylasuflar, psixologlar va ilmiy tadqiqotchilarning

asarlarida ishlab chiqilgan. Jumladan, Sokrat, Arximed, G. E. Armstrong, G. S. Altshuller, A. Binet, B. Bolzano, D. Bul, R. Dekart, K. Dunker, N. A. Izvolskiy, A. I. Ilyasov, Konfutsiy, G. Leybnits, A. N. Leontyev, R. Lindseyn, D. Norman, Aleksandriya Pappi, D. Poyi, Y. A. Ponomarev, A. Puankare, V. N. Pushkin, S. L. Rubinshteyn, V. N. Sokolov, O.K.Tixomirov, E.Torndayk, A.V.Xutorskiy, S.I.Shohor-Trotskiy, D. X. Fleyvel, P. K. Engelmeyerlarning asarlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Pedagogika fanlari doktori, professor, Rossiya ta'lim akademiyasining muxbir a'zosi M.V.Klarinning ta'biri bilan aytganda, o'qituvchi ta'lim jarayonini shunday tashkil etishi kerakki, mazkur jarayon o'quvchilarning mustaqil ijodiy tafakkurini shakllantirish imkoniyatini yaratishi lozim [1].

Evristik izlanishga asoslangan o'quv faoliyati jarayonida o'quvchilar o'tilgan asar bo'yicha illyustratsiya yaratadilar, asar qahramonlari yoki tabiat tasvirini o'z tasavvurlari orqali tasvirlab beradilar, kichik loyihalar ustida ishlaydilar, muloqot matnlarini yaratadilar, kichik hikoyalar yozish orqali evristik faoliyat turlari bilan shug'ullanishga muvaffaq bo'ladilar. Natijada o'quvchilarda yaratuvchanlik malakasi rivojlanib, o'z faoliyati mahsulidan qoniqish hissi paydo bo'ladi. Bu esa o'quvchilarda o'zligini namoyon etish imkoniyatini vujudga keltirib, shaxsiy sifatleri rivojlanishini ta'minlaydi.

Ayniqsa, adabiyot darslarida evristik metoddan foydalanish topshiriqlarni tabiiy tarzda mustaqil bajarish, betakror yechimlarni ilgari surish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda ishonchli ma'lumotlarni izlash, ularni qayta ishlash va foydalanishga ko'maklashadi.

V.N.Sokolovning fikricha, evristik o'qitish jarayonida qo'llaniladigan eng samarali metod – kreativ metod sanaladi [2]. Mazkur metod doirasiga o'ylab ko'rish, "Agarda...", obrazli rasmlar, "Aqliy hujum", tadqiqotchilik faoliyati kabi metodlarni kiritish mumkin.

"Agarda..." metodi o'quvchilarni xayol surish, fantaziya qilishga o'rgatadi. Bunday topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilarning tasavvurlari rivojlanadi, dunyoqarashi kengayadi, o'z fikrini mustaqil bayon qila olishi bilan birga og'zaki nutqi rivojlanadi. Masalan, ushbu metoddan adabiyot darslarida o'tilgan biror bir hikoyani "Agarda men yozuvchi bo'lsam..." mavzusida hikoya syujeti saqlangan holda ushbu hikoya yakunini o'z tasavvuri bo'yicha yakunlash topshirig'ini berish, hikoya mazmuni saqlangan holda unga yordamchi yoki epizodik personajlarni o'ylab topish topshiriqlarini berish mumkin. Bu metod o'quvchilar tomonidan o'zgacha qiziqish bilan qabul qilinadi. Ular qayta hikoya yaratish jarayonida muallifni chuqur his qilgan holda asar ichiga kirib boradilar. Natijada asar qahramonlari xarakterini qanchalik o'rganganligi, o'sha qahramonga yaqinlashganligi namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ikkilanmasdan shuni aytish mumkinki, evristik o'qitish jarayonida fan o'qituvchisi ham, muayyan fan doirasidagi darslik ham o'quvchining bilim olishiga ko'maklashuvchi qo'shimcha vosita hisoblanadi. Bu jarayonda ta'lim oluvchi mustaqil ravishda o'z mashg'ulotlari rejasini tuzadi hamda o'z faoliyatiga nisbatan shaxsiy nuqtayi nazarini belgilaydi, olam va insoniyatni anglashga intiladi, adabiyotga oid tadqiqot (muallif ijodiga oid, asar qahramonlari tarixiga oid, voqealar bo'lib o'tgan zamon va makonga oid, tarixiy faktlarga oid...)lar o'tkazadi, she'r, hikoya va esselar yozadi. Natijada ushbu o'quv jarayonida o'quvchilar shaxsiy bilimlari va tajribalarini boyitib boradilar. Va, eng

asosiysi, o'quvchilar o'qituvchilar taqdim etgan bilim, ma'lumotlar, fanga oid yangiliklar bilan cheklanib qolmaydilar, o'zlari mustaqil izlanadilar.

Bir so'z bilan aytganda, ta'limning turli bosqichlaridagi adabiyot darslarini tashkil etishda evristik metodlardan, o'quvchi faolligini rivojlantiruvchi usullardan muntazam va munosib holda foydalanish tegishli ilmiy-metodik talablar andozasida amalga oshsa, ular yosh avodning barkamol inson sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun o'zining munosib vazifasini sharaf bilan ado etaveradi.

### ADABIYOTLAR

1. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. 7-е изд. Москва: Садовое кольцо, 2006. – 198 с.

2. Соколов В.Н. Педагогическая эвристика: Введение в теорию и методику эвристической деятельности: Уч. Пособие для студентов высших учебных заведений. – Москва: Аспект Пресс, 1995.

### O'XSHATISHLAR – OBRAZLI MILLIY TAFAKKUR MAHSULI SIFATIDA

*Gulhayo Hakim qizi JO'RAYEVA,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*10.00.01 – O'zbek tili tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi o'xshatishlarning lingvokulturologiyadagi ahamiyati, Tog'ay Murod qissalaridagi o'xshatish va metaforalarning lingvomadaniy jihatlari tahlilga tortilgan.

**Аннотация:** В данной диссертации анализируется значение сопоставительных тропов в лингвокультуре, лингвокультурологические аспекты сравнений и метафор в рассказах Тогая Мурада.

**Annotation:** In this thesis, the importance of comparative tropes in linguistic culture, the linguistic and cultural aspects of similes and metaphors in Togay Murad's stories are analyzed.

**Kalit so'zlar:** lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, obraz, antroposentrik paradigma, nutq madaniyati, madaniyat tarixi, mubolag'a, assotsatsiya.

O'xshatish - badiiy tasvir vosifalaridan biri bo'lib, obyektни obrazli, ta'sirchan, konkret va ixcham ifodalash xususiyatlari bilan ajralib turadi.

San'atkor qahramonlarni tasvirlashda ularning o'ziga xos individual xususiyatlarini ochishda, ruhiy holatlarni aks ettirishda, tabiat manzaralarini tasvirlashda o'xshatishlardan foydalanadi. Ularni konkretlashtiradi, bo'rttiradi. Kitobxonning diqqatini obrazning ko'rinmas tomonlariga jalb qiladi, asarning g'oyasini ochishga yo'naltiradi.

V. Maslova o'xshatishlarning antroposentrik jihatlari alohida e'tibor berib, shunday yozadi: "O'xshatilayotgan obyektlarning bir-biridan uzoq bo'lgan turli doiralarga mansubligi o'zida bir-birini taqozo etuvchi qo'shimcha assotsiyatsiyalarning butun boshli zanjirini namoyon etadi, ular axborotning to'laqonli bo'lishini ta'minlashi bilan birga ta'sirchanlikni ham kuchaytiradi; o'zaro o'xshatilayotgan obyektlar voqelikda bir-biridan qanchalar uzoq



bo'lsa, ulardagi ekspressivlik shuncha yorqinlasha boradi. O'xshatishlarning evristik vazifasi yana shunda ko'rinadiki, ular dunyo realiyalarini chuqurroq va kengroq bilib olishga, ularning turli va ko'pincha kutilmagan qirralarini anglab olishga imkon beradi"<sup>1</sup>. Shunga ko'ra, D. Xudoyberganova o'xshatishlarni lingvokulturologik adabiyotlarda metafora, metonimiya, maqol va iboralarda ishtirok etishi, tilning lingvomadaniy boyligi ekanini e'tirof etadi.

Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" asarida ham o'xshatishlar orqali milliy mentalitetimizga xos elementlar ko'rinadi. Asarda og'ir tabiatli inson saman otga o'xshatiladi<sup>2</sup>. Ma'lumki, ot qadim-qadimdan insonga xizmat qilib kelgan. Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, otlar miloddan taxminan uch ming yil ilgari xonakilashtirilgan. Uni mashq qildirish va har xil ishlarga, harakatlarga o'rgatish – boshqa hayvonlarga nisbatan ancha qulay. Ot kuchli, sabr-chidamli, ko'rkam, pokiza, ziyrak, hushyor, biror narsani darhol payqash, ko'rish, hid bilish, tovushni, hatto bilinar-bilinmas sharpani eshitish, sezish qobiliyati kuchli. Bu fazilatlaridan tashqari ot insonning sodiq do'sti, vafodori, og'ir ishlarda madadkori, safarlarda hamrohi, jangu jadalda, boshqa xavf-xatarli holatlarda ko'pincha kishini o'limdan saqlab qoluvchi ajoyib jonivordir<sup>3</sup>.

Mahmud Koshg'ariyning ta'biri bilan aytganda ot "turkning qanotidir"<sup>4</sup>. "Ot turkiy qabilalarda totem jonivorlardan biri bo'lib, ezgulik ruhi sifatida shomonga yovuz ruh ustidan g'alaba qilishda yordam beradi. Shomonlarning hassalari ko'pincha ot ramzini ifodalaydi va o'zbek xalqida hozirgacha otning devi bor degan inonchlar saqlanib qolgan". Farg'onada, Qo'qonda, Samarqandda, O'ratepada devni ot qiyofasida tasavvur qilinadi. o'zbek xalq ertaklari va dostonlarida "ot qahramonning sadoqatli yo'ldoshi, hamrohi, yordamchisi, ba'zan o'rinbosari sifatida uchraydi. Alpomishni Boychibor, Go'ro'g'lini G'irotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. "Pahlavon Rustam" ertagida ot Rustamni hamisha falokatlardan asraydi. "Malikai ayyor" dostonida ot qahramonning sarguzashti va qahramonliklariga teng sherik. Ertak va dostonlarda devlar ham ba'zan ot ko'rinishida keladi yoxud bir yumalab otga aylanadi. Bir afsonaga ko'ra, otlar tangrilar bilar ajdarholardan tarqalgan. Shu sababli xalq og'zaki ijodida qanotli otlar ko'p uchraydi"<sup>5</sup>. O'zbek inonchlariga ko'ra, o'limi yaqinlashgan yoki o'lim xavfi tug'ilgan kishining tushiga ot kirib, o'limdan darak beradi. Bulardan tashqari o'zbek madaniyatida yangi uyga ko'chib kirishda hovli ostonasi, darvozasiga otning taqasi qoqiladi. Bu bilan xonadon turmushi ot taqasiday mustahkam va xotirjam, mol-holga boy-badavlat bo'lishi niyat qilinadi.

Islomda ot – baxt va boylik; buddizmda narsalarning yashirin tabiati; nasroniylikda Quyosh, jasorat, olijanoblik; kelt mifologiyasida ot-xudolar obrazi; xitoy mifologiyasida samo, olov, janub, shuningdek, muchallardan biri; yapon mifologiyasida oq ot – mehr, rahm-shavqat ma'budasi, qora ot – yomg'ir xudosi; Sibir va Oltoy shomonligida qurbonlik hayvoni sifatida talqin qilinadi.

<sup>1</sup> Bu haqida qarang: Xudoyberganova D. O'xshatish mazmunini ifodalovchi matnlar.//O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 2012-yil 6-son. 15-bet

<sup>2</sup> Qarang:Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. Qissa. –T.: "Sano-standart" nashriyoti, 201710-bet.

<sup>3</sup> Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. –Тошкент: ЎМЭ, 2001. –Б.263.

<sup>4</sup> Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-том. –Тошкент: Фан, 1960. –Б.83.

<sup>5</sup> Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. –Қарши: Насаф, 1999. –Б. 68-69.

O‘zbek tilida ot komponentli frazeologizmlar shaxsning faoliyati, uning sifatiy ko‘rinishlari, psixik holati, kechinmalari, intellektual qobiliyati, emotsiyasini ifoda etadi. Bu frazeologizmlarda shaxsning u yoki bu holatini ifodalovchi leksema ishtirok etganligi sababli, ularni shaxs komponentli frazeologizmlar deb atadik. Shaxs komponentli frazeologizmlarni leksik-semantik tavsiflash, tahlil etish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilsa-da, ularning strukturasi, komponentlarining xususiyatlari tahlil etilmagan.

Darhaqiqat, turg‘un o‘xshatishlar tarkibidagi o‘xshatish obrazi, ya‘ni o‘xshatish etaloni alohida ahamiyatga ega. U o‘xshatishning mazmunini kasb etadi, o‘xshatish subyekti va asosi shu etalon atrofida birikadi.

Xalqning dunyoni tasavvur etishi va anglashidagi o‘ziga xoslik, ya‘ni milliy-madaniy ma‘lumot ayni shu o‘xshatish etalonida o‘z aksini topadi. Xalqning milliy obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida turg‘unlashgan, etalonlashgan obrazlar milliy idrokni aks ettiradi. Mutaxassislarining qayd etishicha, “o‘xshatish etalonlari an‘anaga kirgan, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan obrazlar sifatida xalqning dunyoni o‘ziga xos idrok etishining ifodachisi bo‘lgani uchun etalonlar komparativ iboralar tarkibida alohida o‘rin tutadi va lingvokulturologik, ya‘ni til, milliy madaniyat va mentalitet munosabatlarini belgilash jihatidan favqulodda muhimdir”<sup>1</sup>. Masalan, o‘zbek tilidagi qip-qizil anorday yuzli o‘xshatishi boshqa tillarda uchramasligi mumkin. “Qip-qizil anorday”<sup>2</sup> o‘xshatish etalonida o‘zbekcha milliy-madaniy qarash, tasavvur yorqin aks etgan. Bu yerda qizil rangi ham o‘ziga xos ma‘no tashiydi.

Yoki yuz subyekti bo‘lgan yana bir muallifning individual o‘xshatishlaridan biri “barchin yuzli” o‘xshatishidir. Ushbu o‘xshatishda pretsedent nom etalon vazifasida kelganining guvohi bo‘lamiz. Pretsedent birliklar til tizimini tadqiq etishning etakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiyaning asosiy o‘rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur birliklarga bag‘ishlangan tadqiqotlarda qayd etilishicha, *pretsedent* termini tilshunoslikda birinchi marta Y.N.Karaulov tomonidan qo‘llangan.

Rus tilshunosligida muayyan til sohiblariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so‘z birikmalari, jumlar hamda matnlar pretsedent birliklar sifatida qayd etiladi.

O‘zbek tilida faol qo‘llanuvchi etalonlardan biri bu – oy. Tadqiq etayotganimiz mazkur asarda esa oy etalon, ya‘ni obeyt emas, subyekti vazifasini bajargan. **“Zardoli bargi misol qayrilma oy bulutsiz osmon oqshomida havolandi”**<sup>3</sup>. Ushbu gapda oyni qayrilma zardoli bargiga o‘xshatilgan.

Yana bir o‘rinda muallif Oymomo tilidan **“Oy-da menday tug‘madi, olam-da taqdirimday zim-ziyo”**<sup>4</sup> deb yozish orqali oyni Oymomoga o‘xshatadi. Muallifning asar qahramoniga Oymomo deb nom berishiga ham oy etaloni sabab bo‘lgan.

O‘zbek tilida oyday o‘xshatish etaloni juda keng qo‘llanadi. Bu o‘xshatish etalonini semantik va lingvokulturologik jihatdan quyidagicha izohlash mumkin: 1. Chiroyli, go‘zal.

<sup>1</sup> Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. T.: “Ma‘naviyat”, 2013. 10-bet.

<sup>2</sup> Tog‘ay Murod. O‘sha asar, 181-bet.

<sup>3</sup> T. Murod. O‘sha asar, 163-bet.

<sup>4</sup> T. Murod. O‘sha asar, 143-bet.

Asosan, ayollar haqida (Husn-u jamoli o'lday) 2. Porlamoq, balqmoq, ajralib turmoq, kuchaymoq (Muhabbatning osmonida oydek porlang!) 3. To'ldmoq, yana- a go'zallashmoq (Oydek to'lib, tushlaringga, Kirar zebo bir sanam. 4. Ravshan, ayon, ma'lum, shubhaga o'rin qoldirmaydigan darajada aniq bilingan (Zebi sud raisining bola emasligi-ni qaydan bilsin? Shu yerda o'tirgan shuncha erkakning o'lday ravshan bir narsani anglamasliklarini qaydan bilsin?) Bundan tashqari, ayolning go'zalligini ta'kidlaydigan o'n to'rt kunlik o'lday turg'un o'xshatishi ham ko'p uchraydi.

Ammo rus lingvomadaniyatida oy o'xshatish etalonining o'zbek tilidagi mazkur to'rt mazmunidan birortasi ham mavjud emas, bu lingvomadaniyatda oy obrazi ko'proq g'amgin, ma'yus, sovuq manzara bilan bog'lanadi, shu holat rus mental tasavvurotida an'anaga kirgan. Xitoy va koreyslarda esa oy etaloni faqat musbat o'lchovlarda talqin etiladi, go'zal ayolning oyga o'xshatilishi juda keng tarqalgan, xuddi o'zbeklardagi kabi oy obrazi go'zallik, yorqinlik, yoqimlilik kabi sifatlarni tamsil etishga xizmat qiladi. Yoki xitoy va koreyslarda ayol yuzining o'rikka, majnuntol novdasiga o'xshatilishi, go'zal yuz aylanasi (oval shakli)ning oshqovoqning urug'idan iborat etalon vositasida ta'kidlanishi mavjudki, ular o'zbek, rus va boshqa lisoniy mental an'alariga begonadir. Demak, turli tillarda o'xshatish etalonlarining tanlanishida ham farqli milliy- etnik idrok hal qiluvchi o'rin tutadi<sup>1</sup>.

O'xshatish etalonlaridan faol qo'llanuvchilaridan biri bu – olma etalonidir. O'zbek lingvomadaniyatida yuzni, yanoqni olmaga o'xshatish uning go'zal, yoqimlilikidan darakdir: ***“Ayollarning oppog'i, Misli olma yanog'i, Gulsun opamga salom”***<sup>2</sup>.

Ko'rinadiki, o'xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Chunki bu o'rinda ma'lum predmet bir predmetga o'xshatilsa, xuddi shu predmet boshqa o'rinda ikkinchi narsaga o'xshatilishi mumkin. Prof. R. Qo'ng'urov o'xshatish haqida o'zining “O'zbek tilining tasviriy vositalari” kitobida shunday degan: Ammo yuzni oyga, qizni gulga qiyos qiluvchi doimiy o'xshatishlar borki, ular ham emotsionallik, ham baholash qimmatini yo'qotgandir. Bu tipdagi o'xshatishlarni lingvistik hodisa sifatida qarash kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab ... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. - № 5. – 10 bet.
2. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. T.: “Ma'naviyat”, 2013.
3. Rahmatullayev Sh. Frazologik birliklarning asosiy ma'no turlari. – T.: Fan, 1955.
4. Tog'ay Murod. Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. Qissa. –T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017.
5. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – T.: “Fan”, 2013
6. Ziyouz.com
7. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati. – T.: O'zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990.

<sup>1</sup> Bu haqida qarang: Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. T.: “Ma'naviyat”, 2013. 15-bet.

<sup>2</sup> T. Murod. O'sha asar, 40-bet.

## “BOBURNOMA” ASARIDAGI ANTROPONIMLARNI TAHLIL QILISHNING METODIK ASOSLARI

*Zumrad NIYOZOVA, Feruza HAMIDOVA,  
NavDPI akademik litseyi o‘qituvchilari*

**Annotatsiya.** Maqolada “Boburnoma”da qo‘llangan antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari, ayrim antroponimlarning etimologiyasi, antroponimlarning hozirgi o‘zbek tili antroponimlariga munosabati va antroponimlarni grafik organayzerlardan foydalangan holda o‘qitish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** antroponimlar, til tarixi, etimologiya, grafik organayzerlar, qadimgi turkiy til, eski o‘zbek tili.

**Аннотация.** В статье освещаются лексико-семантические особенности антропонимов, использованных в “Бабурнаме”, этимология некоторых антропонимов, отношение антропонимов к антропонимам современного узбекского языка и вопросы обучения антропонимов с помощью графических органайзеров.

**Ключевые слова:** антропонимы, история языка, этимология, графические органайзеры, древнетюркский язык, староузбекский язык.

**Annotation.** The article highlights the lexical and semantic features of the anthroponyms used in “Baburnama”, the etymology of some anthroponyms, the relation of anthroponyms to anthroponyms of the modern Uzbek language and the issues of teaching anthroponyms using graphic organizers.

**Keywords:** anthroponyms, language history, etymology, graphic organizers, ancient turkic language, old uzbek language.

Ta’lim tizimida innovatsion ta’lim muhitini yaratish hamda uni xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va bugungi tez o‘zgaruvchan ijtimoiy hayot talablariga javob berishini ta’minlash muhimdir. O‘zbek adabiy tilining tarixini o‘qitishda bu masala dolzarb sohalardan sanaladi. Til tarixini o‘rganishning o‘ziga xos murakkabliklari mavjud. Negaki, til tarixi materiallari diaxron aspektda qiyosiy-tarixiy metodlar yordamida o‘rganiladi. Til harakatdagi, o‘zgarishdagi hodisa bo‘lgani uchun, tildagi ana shu taraqqiyot ikki holatda – tarixiy va zamonaviy tilshunoslikda o‘rganiladi.

Ma’lum bir tilning tarixini o‘rganish faqat shu tilga doir yozma manbalarni chuqur o‘rganish orqaligina amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun XX asr 50 – 60-yillaridan boshlab qadimgi turk va eski o‘zbek tiliga doir yozma manbalarni nashr qilishga, bu manbalarning til xususiyatini o‘rganishga e’tibor qaratildi.

“Boburnoma” – o‘zbek mumtoz adabiyotidagi bebaho asarlar qatoridan munosib o‘rin egallab turgan asar sifatida e’tirof etiladi. Unda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, jug‘rofiyasiga oid qimmatli ma’lumotlar o‘rin egallagan. O‘zbek tilshunosligida «Boburnoma» leksikasi va uning yozilish uslubi, tarixiy, adabiy, lingvistik va manbashunoslik yo‘nalishida turli sohalarni qamrab olgan asar sifatida, turli rakurslarda tadqiq etilgani bizga ma’lum. “Boburnoma” nodir asar bo‘lganligi uchun ham, unda

ifodalangan antroponimlar o'quvchini o'ziga jalb etadi. Muallif tomonidan qo'llangan kishi ismlari oddiy bir chaqiruv yoki atama sifatidagina emas, balki shaxs xususiyatlarini ko'rsatuvchi omillar ifoda etilganligini asarni o'qish jarayonida anglab yetamiz.

Qisqalik ilmiy nutqqa xos belgidir. Ilmiy bayon ortiqcha tasvirni, izohni talab etmaydi. Shuning uchun ilmiy bayonda narsa va hodisalar tasviri uchun uzundan-uzoq o'xshatish, sifatlash, parallelizm kabi tasviriy vositalar qatnashmaydi. Bu kabi ortiqcha bayon fikrni chalg'itib, diqqatni bo'ladi. Shu sababli ilmiy bayon doimo qisqalikka intiladi. U, asosan, yoyiq sodda gaplardan tuziladi. Qo'shma gaplar tarkibida bog'lovchilar ko'proq ishlatiladi.

“Boburnoma”da qo'llanilgan antroponimlarda ijtimoiylikni belgilovchi quyidagi so'zlar qo'llaniladi:

1. Sulton - *Sulton Abusaid mirzo, Sulton Ali arg'un, Xadicha Sultonbegim.*
2. Mirzo - *Badiuzzamon mirzo, Abusaid mirzo, Manuchehr mirzo.*
3. Amir, Mir - *Amir Temur, Amir Hamza, Mir Alisher, Mir Vays.*
4. Shoh - *Shoh Iskandar, Shoh Ismoil, Shoh Muhammad muhrdor.*
5. Shayx - *Shayx Abdullo barlos, Shayx Abulvohid Forig'iy, Shayx Sa'diy.*
6. Mavlono - *Mavlono Abdurahmon Jomiy, Mavlono Sa'diddin Taftazoniy.*
7. Sayid - *Sayid Baraka, Sayid Afzal, Sayid Tabib, Sayid Ota.*
8. Xoja - *Xoja Muhammad Ali, Xoja Yahyo, Xoja Kalon, Xoja Mirmiron.*
9. Mullo - *Mullo Baqoiy, Mullo Bihishtiy, Mullo Rafi', Mullo Turk Ali.*
10. Begim - *Xonzodabegim, Mehrbonubegim, Mehr Nigorbegim.*
11. Xon - *Oroyishxon, Alixon Davlatxon o'g'li, Alouddinxon.*
12. Roja - *Roja Bikam Dev, Roja Bikam Chand, Roja Mon Sing.*

Bobur antroponimlarni quyidagicha tahlil etadi:

• *Yana bir Qanbar Ali mo'g'ul edi, axtachidin edi. Otasi viloyatqa kirib necha mahal salloqliq qilg'an uchun Qanbar Ali sallox der edilar.*

• *Yana biri Sulton Husayn arg'un edi. Necha mahal Qorako'l hukumati anda uchun Sulton Husayn Qorako'liyga mashhur edi.*

• *Odina kuni o'ning ikkisida Shayboq piyoda bila Darvesh Ali piyodakim, holo tufangandozdur Kobuldin arzadoshtlar kelturub, Hindolning tuqqan xabarini ham kelturdilar. Hindning tasxiri zamonida bu xabar kelgani uchun, shugun tutub, Hindol ot qo'ydim.*



## ANTROPONIMLARNI QIYOSLASH

Boburnoma tilida		Hozirgi o'zbek tilida
Farruxzod		Farrux
Firuzabegim		Feruza
Og'abegim		-----
Kichikbek		-----
Muhammad		Muhammad
Faxriddin		Faxriddin
Nizomiddin		Nizomiddin

O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qarash, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy interfaol metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil va sintez qilish, xulosa chiqarish malakalarini shakllantiradi. Ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Ma'lumki, grafik organayzerlar fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish usul va vositalari sanaladi, Ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash uchun Venn diagrammasidan, muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish uchun

## Konseptual jadval

	Turkiy qatlam	Arabcha qatlam	Forscha qatlam
Sodda so'z shakli	Turdibek, Minglik, Eson, Yo'lchuq, Kattabek	Valiy, Rashid, Malik, Mahmud, Homid, Hofiz	Do'st, Komron, Mehribon, Shodmon
Qo'shma so'z shakli	Xonzodabegim, Qorako'zabegim, Oqbug'abek	Imom, Muhammad, Ali, Sayyid, Shayx Sa'diy	Shoh Iskandar, Xoja Kalon, Xoja Mirmiron
Murakkab tarkibli shkl	Bobo o'g'li Alloh veran turkman	Sayid Sulton Ali, Mavlono Mahmud Forobiy	Ali Do'st Muhammad Tag'oyi

## VENN diagrammasi



Zamonaviy qatlam	Umumiy qatlam	Arxaik qatlam
Shuhrat, Norboy, Dilshod, Durbek, Shavkat, Imona, Rayyona, Farangiz, Farzona, Abdulboriy,	Muhammad, Iskandar, Jahongir, Abbas, Hasan, Husayn, Zayniddin, Tursun, G'iyosiddin, Ulug'bek, Xadicha, Halima	Mazidbek, Oroyishxon, Alouddin, Baroqxon, Axiy, Abulhasan, Haqdod, Karimod, Yangibek, Oqbug'abek

konseptual jadval kabi grafik organayzerlardan foydalanish mumkin:

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalash muhim talablardandir.

Interfaol ta'lim interfaol uslublar tizimi bo'lib, unda o'quvchilar o'quv-biluv jarayoniga to'la jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

O'zbek tili tarixi materiallaridan sanalgan "Boburnoma" asaridagi antroponimlarning xususiyatlari o'quvchilar tomonidan ma'ruza va amaliy darslarda samarali o'zlashtirilishi

uchun ham, albatta, ta'limning zamonaviy interaktiv metodlariga murojaat qilish davr talabidir.

## ANBAR OTINNING PEDAGOGIK QARASHLARIDA KO'CHIMLARNING O'RNI

*Zilola Bahodirovna MANSUROVA,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti akademik litseyi, ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** O'zbek xalqining mashhur ijodkor ayollaridan bo'lmish Anbar Otinning falsafiy-pedagogik qarashlari va yoshlarning tarbiyasi, ularning rivoji borasidagi fikrlarining yoritilishida ko'chimlarning ahamiyati beqiyosdir. Chunki ko'chimlar she'rning tasviriyligini oshirib, uning ta'sirchanligini yuqori darajaga olib chiqadi.

**Kalit so'zlar:** Anbar Otin, ta'lim-tarbiya, falsafa, pedagogika, she'rlar, risola, misra, to'rtlik, tarbiya, odob, ma'rifat, g'oya.

O'zbek adabiyoti tarixidan ma'lumki, o'tmishda ijod qilgan har bir ijodkor o'z asarlari bilan nafaqat badiiy-estetik tafakkurni rivojlantirish, balki didaktik maqsadni ham o'z oldilariga qo'yishgan. Ya'ni asarlari orqali o'sib kelayotgan yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, ularning ma'naviy takomilida o'z hissalarini qo'shganlar. Ana shunday buyuk iqtidor egalaridan biri, shubhasiz, Anbar Otindir.

Ayol ijodkorlar orasida Anbar Otin Nodiradan keyingi davrning yorqin adabiy siymosidir. Uning asarlarida ishq-muhabbat tarannumidan ko'ra ko'proq milliy ongni uyg'otish, jamiyatni taraqqiyotga undash, o'z xalqini boshqa xalqlar bilan solishtirgan holda ilg'or davlatlarga tenglashishga da'vat g'oyalari yoniq so'z bilan tashviq qilingan. Anbar Otinning hayoti va ijodiga bo'lgan e'tibor o'zbek adabiyotida 1960-yillardan boshlandi. Shoiri ijodiyotini o'rganish, to'plash, nashr etish ishlari bilan professor A.Qayumov va F.Husainovalar shug'ullanganlar. Ularning say'i harakatlari bilan 1963-yilda shoiri she'rlari topildi va majmua holiga keltirilib, Anbar Otin. She'rlar<sup>1</sup> nomi bilan chop etildi. Shoiri ijodini ommalashtirish maqsadida ushbu tadqiqotchilarning 1964-yilda shoiri hayoti va ijodini yorituvchi Demokrat shoiri Anbar Otin<sup>2</sup> nomli risolasi bosilib chiqildi. Adabiyotshunosligimizda shoiri ijodi bo'yicha izlanishlar izchil amalga oshirildi hamda arab alifbosiga bag'ishlangan Yakka baytlari topildi. Adabiyotshunos M.Qodirova uning 17 she'rini o'zbekcha tarjimai bilan nashr ettirgan. A.Jalolov XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti<sup>3</sup> nomli kitobida Anbar Otin ijodining tahliliga keng o'rin ajratdi.

Ushbu maqolada mashhur ijodkor Anbar Otinning falsafiy pedagogik qarashlari, yoshlarning tarbiyasi va uni rivoji borasidagi pedagogik fikrlarida qo'llangan ko'chimlar tahlilga tortiladi. Shuningdek sharq allomalarining falsafiy pedagogik qarashlarining umumiyligi haqida so'z boradi.

<sup>1</sup> Anbar Otin "She'rlar risolasi"-Toshkent;-1970

<sup>2</sup> Demokrat shoiri Anbar Otin. Toshkent;-1964.

<sup>3</sup> A.Jalolov XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti

U hayotda ro'y berayotgan har bir o'zgarishga tiyrak nigoh bilan qaraydi, kuzatishlari natijasida paydo bo'lgan o'z qarashlarini nazmiy yo'l bilan ifoda etadi:

Ey bolam, Xayrullaxon maktab ochibdur, boringiz,  
Albatta, shu yangi maktabda o'qingiz boringiz.  
Yerda o'ltirmay xarrakda o'ltururmish bolalar,  
Toza turgay ust-bosh-u, joma -yu dastoringiz.<sup>1</sup>

Bu she'r hayotiy voqelik asosida yaratilgan, ya'ni o'sha davrning yirik va nomdor ma'rifatparvarlaridan Xayrulloxon ismli mudarris shoira istiqomat qilayotgan Buzrukxo'ja mahallasida birinchilardan bo'lib "usuli jadid" maktabini ochadi. Maktab o'z-o'zidan eski, "qadimiya" maktablaridan tubdan farq qiladi. Bolalar endi yerlarda emas, "xarrak"- stullarda o'tiradilar, ust boshlari ham ozoda saqlanib, darslar turk tilida olib boriladi. Shoira bu manzarani yuqoridagidek sodda va ta'sirli misralarda bayon etadi. Nazarimizda, bu oddiy she'r emas, qalbi qaynoq shoiraning yangilik va yaxshilikka chaqiruvchi da'vatnomasi edi. Ijodkor o'z to'rtliklarida shunday keltiradi:

Manga xalq ro'zg'ori bo'ldi ustoz,  
Ha ma'murlar yaratg'on ro'zi ma'mur.  
Murodingni hayotingni ichidan axtarki,  
Mavhum ilm ichinda bo'lma axgar.<sup>2</sup>

Ushbu to'rtlikda ijodkor yoshlarga o'zining hayoti orqali kechinmalarini yetkazmoqda. To'rtlikni shunday tushunsak bo'ladi, menga shu xalqning ro'zg'ori bo'ldi ustoz, har bir ishda ustozim shu jamiyat bo'ldi iborasi orqali o'xshatishga asoslangan metafora usulidan mohirlik bilan foydalangan. Men o'z maqsadimni shu hayotimdan axtardim sen hech qachon g'aflatda qolmagin. Shoira hayot ichidan murodini axtarish iborasida ham ko'chim qo'llagan. Bunda asosiy maqsad yoshlar kelajagini yo'lga qo'ya olishi, ijodkorga mana ro'zg'or ustoz bo'ldi mana shu hayot senga ham ustoz bo'ladi deya murojaat qiladi. Anbar Otin har bir ijod namunalarida falsafiylik va pedagogik qarashlar ustun hisoblanadi. Ushbu davrda ta'lim-tarbiya, inson munosabatlarining falsafiy asoslari badiiy ko'chimlar orqali mumtoz adabiyotda ochib beriladi. Natijada ifodalilik va ekspressivlikka erishiladi. Markaziy Osiyo allomalarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinda turadiki, bu bevosita inson kamolotining shakllantirishiga omil bo'la oladigan hodisadir. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy madaniy sohaga qo'shgan ulushlari nihoyatda boy bo'lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan xarakterlanarlidir. Shu o'rinda Anbar Otin va Farobiy qarashlari o'xshashligini bildirib o'tmoqchimiz. Chunki, Farobiy pedagogik qarashlarini ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishida inson xislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlar nihoatda muhim ahamiyat kasb etadi. Farobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamlarning tuzilishini, ruhiyatini, madaniy va ma'naviy olamini o'rganishga ahamiyat beradi. Uning ta'limotida, inson barcha boshqa jismlarda bo'lmagan qobiliyat va kuchga, ruhiy quvvatga, aql va so'zlash qobiliyatiga egaligi, bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan

<sup>1</sup> Anbar Otin "She'rlar risolasi"-Toshkent;-1970

<sup>2</sup> Anbar Otin "She'rlar risolasi"-Toshkent;-1970

ajralib turishi va uning ustidan hokim bo'lish imkoniyati berilganligi namoyon bo'ladi.<sup>1</sup> Anbar Otinning falsafiy qarashlarida ham inson o'zligini topish, insonning ichki kechmishlari, nafs bilan tinimsiz kurashib borish, inson bo'lish kabi yuksak insoniy fazilat yotadi.

Kimki ma'rifatni etsa e'zoz,  
Ani irfon etar albatta mumtoz,  
O'zingni elga xizmatkor etkiz,  
Ishing anjomiga yetkuncha etkiz.<sup>2</sup>

Ma'rifat insonning rivoji va aqliy faoliyatining eng muhim jihati hisoblanadi. Keltirilgan to'rtlikda ham ana shunday maqsad ilgari surilgan. Kimki, ma'rifatni e'zozlab unga borini bersa, uning hayoti yaxshilanadi. Ijodkor aynan ma'rifat ilm-u urfon insoning e'zoziga sabab bo'ladi shuningdek, inson xizmatkor bo'lishi muhim ekanligini isbotlaydi. Bu bilan mohir pedagog e'tibor berishi muhim jihatlarini o'z ijodi orqali ifodalaydi. Anbar Otin aynan insonning kamoli uning ma'rifati ekanligini, ma'rifatli inson el xizmatida bo'lishi lozimligini bildiradi. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish muloqatga moyillik, ixchamlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillikni tasavvur qilishdan iborat. Shunday xususiyatlar aynan Anbar Otin ijodida uchraydi ya'ni yoshlarda fikrlash va tasavvur qilish qobiliyatini kengaytiradi.

Ey qizim, Mo'minxo'jam ahvolidin voqif bo'lib,  
Boxabar bo'l, har yomon yerga yurib, ta'sir qilib,  
Chiqmasin to'g'ri yo'ldan daydilarga qo'shib.  
Aytkil Akbarxo'jaga yo'l bermasun ta'qib qilib.<sup>3</sup>

Tarbiyaviy faoliyatning shunday shakllari bor ekanki, ular shaxsning estetik voqelikka munosabatini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Aynan shu jihat Anbar Otinning yuqoridagi parchadan ko'rishimiz mumkin. Unda adib o'z qizining kelajagini, kimlardan ogoh bo'lishi lozimligini voqeliklar orqali ifodalaydi. Ushbu she'rda "yomon yerlar" ko'chimi orqali bolalarning tarbiyasini buzadigan, uning ma'naviyatiga salbiy ta'sir qiladigan joy nazarda tutilgan. Shuningdek, yoshlarni yo'ldan uradigan vaziyatlardan asrash lozim ekanligi g'oyasi "to'g'ri yo'ldan chiqmasin" ko'chimi orqali berilgan.

Mutafakkirlarning pedagogik qarashlari aql va ilmning yuksak darajadagi ulug'lanishi insonni ulug'lash bilan chambarchas bog'lanadi. Anbar Otin ijodini salmoqli qismi yoshlarga kelajak avlodga o'z she'rlari orqali estetik voqelikni anglab yetish, ma'rifatli bo'lish lozimligini uqtiradi. G'azallarida falsafiylik va chuqur o'yga toldiruvchi jumboqli holatlarni kuzatishimiz mumkin. Bosh g'oya asosan ilmga undov, tarbiya odoblari, ma'rifatli bo'lish singari g'oyalarni ifodalashga harakat qilgan.

---

<sup>1</sup> Abu Nasr Farobiy. "Fozil odamlar shahri" Abdulla Qodiriy nashriyoti. T.:1993-yil

<sup>2</sup> Anbar Otin "She'rlar risolasi"-Toshkent;-1970

<sup>3</sup> Anbar Otin "She'rlar risolasi"-Toshkent;-1970

# TILSHUNOSLIKDA FRAZEMALARNING O‘RGANILISHIGA DOIR NAZARIY QARASHLAR

*Yulduz Shaxobovna RAHMATOVA,*  
NavDPI tayanch doktoranti

*Аннотация.* Ushbu maqolada tilshunoslikda frazeologik birliklarning o‘rganilish tarixi, shakllanishi, frazeologik birliklarning semantik va struktur hamda lisoniy xususiyatlari faktik misollar asosida tahlilga tortilgan.

*Калит so‘zlar:* frazeologiya, frazema, stilistika, semantika, struktura, leksema, gap qolipli, milliy-madaniy.

*Аннотация.* В данной статье на фактических примерах анализируются история и формирование фразеологизмов в языкознании, различные и сходные аспекты фразеологизмов, семантические и структурные особенности и лингвистические особенности фразеологизмов.

*Ключевые слова:* фразеология, фразема, стилистика, семантика, структура, лексема, предложение образное, национально-культурное.

*Annotation.* This article analyzes the history and formation of phraseological units in linguistics, various and similar aspects of phraseological units, semantic and structural features and linguistic features of phraseological units using actual examples.

*Key words:* phraseology, phraseme, stylistics, semantics, structure, lexeme, figurative sentence, national-cultural.

Dunyo tilshunosligida frazemalar, ularning birikuv yo‘llari, ma’no qirralariga boyligi, so‘zga qiyosan olinganda nutqiy imkoniyatlari kengligi tilshunoslarni e’tiborsiz qoldirmagan. Shuning uchun frazeologizmlarning o‘rganilganlik darajasini tahlil qilishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Keyingi yillarda frazeologiya yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar hajmi oshdi, frazeologiya o‘zining tadqiqot obyektiga ega bo‘lib mustaqil fan tarmog‘i sifatida rivojlanib borayotganini kuzatib turibmiz.

Dunyo tilshunosligida frazeologiyaning nazariy masalalarini o‘rganishni Sh.Balli boshlab bergan bo‘lib, olim frazeologiya fanining asoschisi deb e’tirof etiladi. Aynan “frazеologiya” (phraséologie) terminini ham fanga Sh.Balli olib kirgan. U o‘zining “Précis de stylistique française” (Fransuz tili stilistikasi, 1905) va “Traité de stylistique” (Stilistikadan ocherklar, 1909) deb nomlangan asarlarida frazeologiyaga doir qarashlarini ilgari surgan.

Sh.Balli so‘zlarning bog‘lanish darajasi farqlanishini, ayrim so‘z birikmalari parchalanishi va tarkibidagi so‘zlar boshqa birikmalarni hosil qilishda ishtirok etishini, ya’ni mustaqil ravishda bir necha birikmani hosil qilishda ishtirok etishi mumkinligini ta’kidlagan tarzda, ikkinchi bir birikuvlarda esa tarkib parchalanmasligi, balki yaxlitlikda aynan bir ma’noni ifodalashga xoslanganligi, bunda ular o‘z mustaqilligini yo‘qotib, muayyan ma’noni ifodalash uchun doimo bir-birini taqozo etishiga to‘xtalgan. Aynan ikkinchi izoh frazemalar haqida bormoqda<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Балли Ш. Французская стилистика. – Париж-Женева: 1951. 392 с. Перевод с французского К. А. Долинина. Издание второе, стереотипное. – Москва: Эдиториал УРСС, 2001. 392 с.



Olim “frazeologiya” tushunchasini “barqaror iboralarni o‘rganadigan stilistika bo‘limi” degan fikrni ilgari surgan, stilistika frazeologik birliklarni o‘rganishi shartligini ta’kidlagan, chunki nutq uslublarini aniqlash stilistikaning asosiy ustuvorligi va ajralmas talabi, deb qaragan.

Sh.Ballingning fransuz tilining frazeologiyasi ustida olib borgan tadqiqotlari frazeologik birliklarni tizimlashtirish va tasniflashga, boshqa tillarning, shu jumladan, ingliz tilining frazeologiyasini izchil o‘rganishga olib keldi. Olim fransuz tilidagi frazeologik birliklarning to‘rt turini aniqlaydi:

1. Erkin iboralar. Bunday iboralar barqarorlikka ega bo‘lmagan va shakllangandan keyin yana ajralib chiqadigan iboralar;

2. Ommabop iboralar. Bunda ba’zi o‘zgarishlarga imkon beradigan komponentlarning nisbatan kuchsiz aloqasi bo‘lgan iboralar. Masalan, *jiddiy kasalliklar-og‘ir kasalliklar, xayfli kasalliklar-xatarli kasalliklar*;

3. Frazeologik qator. Bunda bir-biriga yaqin ikkita tushuncha deyarli bir-biri bilan birlashadigan so‘zlar guruhi. Bu burilishlarning barqarorligi ularning birinchi so‘zlaridan foydalanish bilan belgilanadi, masalan, *g‘alaba qozonish uchun, tahdid ostida bo‘lish*. Ushbu kombinatsiyalar komponentlarning tartibini o‘zgartirishga imkon beradi;

4. Frazeologik iboralar. Bunday konstruksiyalarda so‘zlar ma’nosini yo‘qotgan holda yagona tushunchani ifodalaydi. Bunday birikuvlar tarkibidagi biror so‘zni o‘zgartirishga imkon bermaydi.<sup>1</sup>

Frazeologiya atamasi N.N.Amosova, N.M.Babkin, V.P.Jukov, A.V.Kunin, A.I.Smirniskiy, N.M.Shanskiy va boshqa rus tilshunoslari tomonidan qo‘llanila boshlandi. A.V.Kunin ta’kidicha, “frazeologiya” termini grekcha “pharsis” fraza, ifoda “logos” ta’limot degan ma’nolarni anglatib, o‘rganish doirasiga faqat ko‘chma ma’noga asoslangan turg‘un birikmalar kiritiladi<sup>2</sup>. V.L.Arxangelskiy, E.X.Rot, V.N.Teliya, L.I.Royzenzon, Ye.A.Malinovskiy, O.S.Axmanova va boshqa olimlar frazeologik qarashlar bilan tilshunoslikni boyitdilar.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozim, rus tilshunosligida XVIII asrdayoq frazeologizmlar masalasi ko‘tarilgan edi. “M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug‘ati rejasini tuzar ekan, bunda so‘zlar bilan bir qatorda “xalq (Rossiya) maqollari”, “frazeslar” va “idiomatizmlar” o‘z ifodasini topishi lozimligini alohida ta’kidlagan edi.”<sup>3</sup> Rus tilshunosligida frazeologizmlarni o‘rganish 3 yirik davrni (XVIII asrning o‘rtalaridan XX asrning 30-yillarigacha, XX asrning 30-50-yillari, XX asrning 60-yillaridan boshlanib hozirgi kungacha) o‘z ichiga oladi.

Rus tilshunosi V.N.Teliya fikricha, frazeologiya atamasi tilshunoslikning frazeologik birikmalarining grammatik tuzilishi va ma’nosidan qat’iy nazar ularning barcha xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limdir<sup>4</sup>, rus olimlari tomonidan frazemalarga beriladigan tavsif ularning tilning tayyor so‘z birikmasi ekanligi, joylashish o‘rnining o‘zgarishligi va bir butun holda ma’no berishini ta’kidlashlaridir.<sup>5</sup> Ma’lumki, o‘zbek frazeologiyasining nazariy masalalariga dastlab E.D. Polivanov e’tibor qaratgan edi. U rus va ayrim Sharq tillari frazeologiyasini o‘rgandi va shu asosda frazeologiyani mustaqil lingvistik soha sifatida ajratish haqida fikr bildirdi. E.D.Polivanov juda asosli farqni o‘rtaga tashlagan edi, frazeologiya yangi soha sifatida leksikologiyaga nisbatan sintaksis morfologiyaga nisbatan egallagan o‘rinda bo‘lishi lozim. “...Sintaksisga teng keluvchi yangi sohaning shakllanishiga ehtiyoj sezilmoqda, - deb yozgan edi E.D.Polivanov, - lekin sintaksis so‘z birikmalarining umumiy tiplarini,

<sup>1</sup> Балли Ш. Французская стилистика / Ш. Балли.- Париж-Женева: 1951. 392 с. Перевод с французского К. А. Долинина. Издание второе, стереотипное –Москва: Эдиториал УРСС, 2001. –С.60.

<sup>2</sup> Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс, 2005. – С.7.

<sup>3</sup> Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. –B.3.

<sup>4</sup> Телия В.Н. Что такое фразеологии. –М.Наука 1966. – С.10

<sup>5</sup>Шанский Н .М. Лексикология современного русского языка. М.1972, 173 с.; Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. – М., 1957. – С.169.

xususiyatlarini o'rgansa, yangi shakllanadigan soha leksemalarning o'zaro munosabati asosida yuzaga keladigan birikmalarning konkret, individual (leksik) ma'no xususiyatlari bilan shug'ullanadi".E.D.Polivanov yangi shakllanadigan sohani frazeologiya yoki idiomatika deb nomlagan edi.<sup>1</sup>

Frazeologik birliklar o'zbek tilshunoslari tomonidan ham xuddi shunday qarashlar asosida izohlanadi. XX asrning 60-80-yillariga kelib frazeologiyani o'rganish dunyo tilshunosligida bo'lgani kabi, o'zbek tilshunosligida ham keng o'rganila boshlandi. Ye.Polivanov, Sh.Rahmatullayev, Ya.Pinxasov, H.Berdiyorov, E.Umarov, M.Umarxo'jaev, H.Berdiyorov, A.Mamatov, B.Yo'ldoshev A.Ishayevlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, bugun frazeologik birliklarni o'rganishning mavzu-mohiyati kengayib, ularning milliy-madaniy xususiyatlari, kognitiv-pragmatik talqini, modellashtirish masalalari e'tibor markaziga qo'yilmoqda.

Sh.Rahmatullayev o'zbek frazeologiyasi rivojida katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Sh.Rahmatullayev birinchilardan bo'lib frazeologik birliklarning tuzilishi haqida gapirgan edi: "Bittadan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so'zga ekvivalent, yaxlitligicha ustama ko'chma ma'no anglatuvchi lug'aviy birlikka ibora (frazeologik birlik) deyiladi. "Lug'aviy birlik" deyish bilan iborani erkin bog'lanmadan, "bittadan ortiq" deb ta'kidlash bilan sodda so'zdan, "leksik negizlar" deb ta'kidlash bilan analitik formadan, "birikmaga, gapga teng" deb ta'kidlash bilan qo'shma so'zdan, "yaxlitligicha ustama ko'chma ma'no" deb ta'kidlash bilan to'g'ri ma'noli turg'un bog'lanmadan farqlaymiz, "so'zga ekvivalent" deb ta'kidlash bilan lug'aviy birlik sifatida yana qator xususiyatlari borligidan darak beramiz".<sup>2</sup>

Ya.Pinxasovning frazeologiya masalalariga doir yondashuvlari V.V.Vinogradov qarashlariga mos keladi, V.Vinogradov frazeologiya rivojiga katta hissa qo'shgan, olim birinchilardan bo'lib frazeologik birliklarning semantik uyg'unligi asosidagi tasnifni ishlab chiqqan. U frazeologik birlikning umumiy mohiyatini ularning turg'unligida ko'rgan va buni so'z birikmasini tashkil etuvchi so'zlarning leksik va semantik xususiyatlari natijasi deb hisoblagan.

"Frazeologik birliklar u yoki bu xalqning ma'naviy qadriyatlarini, milliy tafakkuri, hayot tarzi hamda urf-odatlarini namoyon etadigan til hodisasidir"<sup>3</sup>, frazeologik birliklar tarkibidagi so'zlar bilan birgalikda bir tushunchani ifodalaydi va shunga ko'ra, asosan, so'z birikmasi va gap tuzilishida bo'ladi. Demak, frazeologik birliklar birikma qolipli va gap qolipli frazeologik birliklarga ajratiladi, umuman olganda, bu kabi tartib komponent tahlil qilish orqali aniqlashtiriladi. Gap qolipli frazeologik birliklar sodda gap qolipli va qo'shma gap qolipli frazemalar tuzilishida bo'ladi. Tilshunos Q.Hakimov sodda gap qolipli frazeologik birliklarni komponent tahlil metodi asosida o'rgangan. Q.Hakimov shunday keltiradi: "...frazemalarning yuzaga kelishi faqat ma'no hodisasidir. Uning tarkibidagi bo'laklar o'rtasida shakllangan sintaktik munosabat o'z qimmatini saqlagan, o'zgarishga uchramagan holatda qoladi. Bunda sodda gap qolipli frazemalar garchi ma'no jihatdan til birligi holiga kelib qolgan bo'lsa ham, sintaktik jihatdan sodda gaplik qimmatini saqlaydi. U nutq tarkibida gap sifatida olinib, boshqa bo'laklar unga moslashtiriladi va uning biror bo'lagiga bog'lab qo'llanadi."<sup>4</sup> Bilamiz, *joni uzildi, dabdalasi chiqdi, yuragi yorildi, qo'li kaltalik qiladi, og'zi ochilib qoldi, boshi ko'kka yetdi, ko'zi moshday ochildi* singari frazeologik birliklar sodda gap qolipli frazeologik birliklarga misol bo'ladi.

<sup>1</sup> Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. Ленингр. вост. ин-т им. А.С.Еникидзе, 1928а. Т.1. Вып. VI. –С.144.

<sup>2</sup> Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki. –Toshkent: Fan,1970. – С.56.

<sup>3</sup> Mamatov A. O'zbek tili frazeologiyasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Navro'z, 2019. –B.11.

<sup>4</sup> Hakimov Q. O'zbek tilidagi sodda gap qolipli frazeologizmlarning zaruriy birikuvchanligi. Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – Toshkent: 1994. –B. 20.

N.N.Amosova frazeologik hodisalarni tadqiq etish tizim sifatidagi til haqida ham, nutq mexanizmi haqida ham mavjud tasavvurlarga sezilarli o'zgarishlar kiritishini ta'kidlagan edi<sup>1</sup>. Bu o'rinda frazeologizm vositasida tuzilgan gaplarning qolipi va shu qolipning o'zgarishi haqida fikr yuritilyapti. O'zbek tilshunosi I.Qo'chqortoyev fe'l frazeologizmlarning agensi, ko'pincha, qaratqich kelishigidagi otda ifoda topishini aytgan. Bu asosan, sodda gap qolipli frazeologizmlar predikat vazifasida kelganda kuzatiladi va ma'no va sintaktik nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.

A.Mamatovning «O'zbek tili frazeologiyasi» o'quv qo'llanmasida frazeologik birliklarni o'qitishning lingvomadaniy va didaktik ahamiyati haqidagi tushunchalar izohlagan.<sup>2</sup> Frazeologizmlarni milliy-madaniy birliklar sifatida xalqning madaniyat, ijtimoiy-psixologik, tamaddun va faoliyat nuqtai nazaridan ajratib tahlil etish kuzatiladi.

Ma'lumki, gap qurilishli frazeologik birliklar tarkibida o'zbekcha ismlar (*Ali desang, Vali deydi; Ali – Xo'ja, Xo'ja – Ali*), milliy kiyimlar nomi ishtirok etgan (*bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi; bo'zchi belboqqa yolchimas*), oziq-ovqat nomlari (*shavla ketsa ketsin, obro' ketmasin*), joy nomlari (*Toshkentning tarig'ini yegan chumchuq Makkadan qaytib keladi; gap desang qop-qop, ish desang Samarqanddan top, onasini Uchqo'rg'ondan ko'rmoq*) kabi milliy-madaniy xususiyatlar aks etib turadi. N.Turapovanning «Yapon va o'zbek tillari somatik frazeologizmlarining chog'ishtirma tahlili (lingvomadaniy aspekt)» (2020), M.Tursunovning «Ingliz va o'zbek tillarida metaforik iboralarning lingvokognitiv tahlili» (2021), Z.Jumayevaning «Frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi» (2021), Sh.A.G'aniyevaning «O'zbek frazeologizmlari strukturasi (shakliy va mazmuniy modellashtirish)» (2009), M.K.Xalikovaning «Frazeologiya kak forma otrajeniya natsionalnogo mentaliteta v yazikovoy kartine mira» (1999), L.E.Xolmurodovanning «Ingliz va fransuz tillaridagi obrazli va motivlashgan frazeologizmlarning tematik va ideografik talqini (lingvomadaniy aspekt)» (2017), A.A.Nosirovning «Fransuz, o'zbek va rus tillaridagi proverbial frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy-madaniy xususiyatlari» (2016) nomli tadqiqotlarida frazemalarining milliy o'ziga xosligi bevosita xalqning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va maishiy hayotini ko'rsatib berishi, toponomika, o'simliklar dunyosi, hayvonlar dunyosi ishtirok etishda, xalqqa xos xarakter, xislatlarning ifodalanishida, urf-odat va marosimlarning mavjudligida hamda adabiy-badiiy tilda aks etishi ko'rsatib berilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi yutuqlar dastavval jahon tilshunosligi yutuqlariga tayangan holda olib borilgan bo'lsa-da, so'nggi tadqiqotlar ko'rsatib turibdiki, frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash, xalqning madaniy va milliy ongini shakllantiradigan frazeologik birliklarni o'rganish, ularning muloqotda so'zlashuv vositalari hamda pragmatik niyatga erishish vositalari sifatida qatnashishini ko'rib chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

## QORAKO'L TUMAN AYRIM NEKRONIMLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

*Intizora Hasan qizi AXMATOVA,  
NavDPI tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qorako'l tuman nekronimlarning semantik xususiyatlari tahlil qilindi. Qorako'l tumanida ro'yxatdan o'tgan 43 ta qabriston, ziyoratgohlar bo'lib, ushbu maqolada hayotdan erta ko'z yumgan chaqaloqlar dafn qilingan qabriston nomlari tahlil ostiga olindi.

<sup>1</sup> Amosova N.N. Значение фразеологии как особой отрасли языкознания. в кн. Проблемы фразеологии. -Вологда, 1967. -С.7.

<sup>2</sup> Mamatov A. O'zbek tili frazeologiyasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Navro'z, 2019. – B.224.

**Kalit soʻzlar:** Nekronim, ato, ota, bobo, xoʻja, shayx, hazrat, eshon, ziyoratgoh, mozor, sagʻana, tugʻ, tariqat, suluk

**Аннотация:** В данной статье проанализированы семантические особенности некронимов Каракольского района. В Каракольском районе зарегистрировано 43 кладбища и святыни, в данной статье проанализированы названия кладбищ, на которых хоронили рано умерших младенцев.

**Ключевые слова:** Некроним, дедушка, отец, дедушка, хозяин, шейх, хазрат, эшан, святыня, могила, сагана, туг, тарикат, пиявка.

**Abstract:** In this article, the semantic features of Karakol district necronyms were analyzed. There are 43 registered cemeteries and shrines in Karakol district, and the names of cemeteries where babies who died early were buried in this article were analyzed.

**Key words:** Necronym, grandfather, father, grandfather, master, sheikh, hazrat, eshan, shrine, grave, saghana, tugh, tariqat, leech

Nekronimlarni bu dunyo va u dunyo oʻrtasidagi koʻrinmas olamni chambarchas bogʻlovchi oʻziga xos bir koʻprik deyish mumkin. Har bir xalqning oʻtmish ajdodlari muqaddas qadamjolari, ular orom topgan sokin qabrlar insonlar maʼnaviy olamining ajralmas boʻlagidir. Har bir qabriston nomining oʻziga xos tarixi boʻlib, ular bizni oʻtmishdan xabardor qiluvchi nodir manbadir. Umar Xayyom aytganidek bu foniy dunyoda u shoh yo gado boʻlishidan qatʼiy nazar hech kimga abadiy emas.

Keksa-yosh hayotga har kimki yetar,  
Barchasi birma-bir izma-iz oʻtar.  
Bu dunyo hech kimga qolmas abadiy,  
Ketdilar, ketamiz, kelishar, ketar.

Qabr ziyoratlari, muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlarga borar ekanmiz, bu yerga nomi berilgan zotning oʻtmishi bilan qiziqamiz, albatta. Odatda soʻfiy kishilarning, avliyolarning yoki shu hududa oʻziga xos hurmatga sazovor zotlarning nomlari qabriston nomiga asos qilib olingan. Qorakoʻl vohasidagi aksariyat qabristonlarning nomi ham diniy tariqat vakillarining nomi bilan bogʻliq. Qorakoʻl vohasida avliyolar nomiga agar u yassaviylik tariqatiga mansub boʻlsa “Ota”, “Ato”, naqshbandiylikka mansub boʻlsa “bobo”, kubroviylik tariqatiga mansub boʻlsa u zotning ismlari boshi yoki oxiriga “bobo” nisbasi qoʻshib aytilgan. Chibirdonota, Bobo Isomi, Kaʼbapoʻshbobo, Polvonota qabristonlari shular jumlasidandir.

Nekronimlarning oʻziga xos toponim ekanligi uning nomlanishi uzoq muddat oʻzgarmas holda saqlanib qolishi bilan bogʻliqdir. Qabriston, masjid yoki ziyoratgohlar asosan avliyolar nomlari, tabarruk zotlar nomlari bilan bogʻliq boʻladi. Shuning uchun ham ularning nomlanishi bilan bogʻliq boʻlgan rivoyatlar, afsonalar oʻzining tarixiyliigi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Toponimlarni tilshunoslik jihatidan, tahlil qilish, ayniqsa, semantik xususiyatlarini oʻrganish xalqning milliy, etnik, ijtimoiy-siyosiy, maʼdaniy tarixini, tilning tarixiy taraqqiyotini va takomilini yoritish nuqtai nazaridan ahamiyatlidir. Qorakoʻl tuman nekronimlarining (aynan, yoshlik chogʻida hayotdan koʻz yumgan goʻdaklar dafn etiladigan qabristonlar) semantik xususiyatlarini oʻrganish orqali hudud toponimiyasining bir boʻlagini tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilamiz.

**Bobo Isomi** – Qorakoʻl tuman Ziyorat QFY hududidagi Bobo Isomi qishlogʻida joylashgan. Hozirgi kunda mazkur qabristonga erta nobud boʻlgan chaqaloqlar dafn qilinsa, 1920-yilga qadar katta yoshdagi kishilarning ham mayyitlari shu qabristonga qoʻyilgan. Oq matodan tugʻ koʻtarilgan mazkur ziyoratgohda 2-3 asrluk tut daraxti va qabriston oʻrtasida hovuz mavjud. Ilgari bu hovuzdan shifobaxsh buloq suvi chiqqan va aholi undan yara-



chaqalarni, turli teri kasalliklarini davolashda foydalanishgan. Respublikaning boshqa hududlaridan ham ko'plab bemorlar mazkur shifobaxsh suvdan shifo istab kelishgan.

Qabriston chetida Bobo Isomiga nisbat beriluvchi qabr mavjud. Qishloq aholisi mazkur sag'ana ustida bino tiklashlashgan. Bobo Isomining kimligi haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Mazkur zotning naqshbandiylik tariqati vakili ekanligi haqidagi taxminlar bor.

**Yakka A'lambobo** – Qorako'l tuman Ziyorat qishlog'ida joylashgan. Yosh marhum go'daklar ko'miladigan qabriston. Yakka – alohida, bitta, a'lam – bayroq ya'ni, bitta bayroq ma'nosi, shuningdek olim so'zining talaffuzda o'zgarishi natijasida a'lamga o'zgargan degan taxminlar mavjud. Qabriston uchun asos bo'lgan mazkur nom haqida tarixiy manbalarda ma'lumot uchramadi. Buxoro amirligida a'lam- din arbobi lavozimi mavjud. Yakka A'lam ya'ni mazkur qishloqdagi yagona din arbobi nomiga qo'yilgan bo'lishi mumkin.

**Yakkamozor, O'qchibobo** – Quyi Yangibozor qishlog'ida joylashgan qabriston. Dastlab hududda birgina mozor bo'lgani bois qishloq aholisi uni Yakkamozor deb atashgan. Qabristonga erta yoshda vafot etgan chaqaloqlar dafn qilinadi.

**Murodbaxshi** – Qorako'l tuman Dabbaki qishlog'ida joylashgan qabriston. Oq tug' ko'tarilgan va hozirda faoliyat yuritmayotgan mazkur qabristonga ilgari erta yoshda vafot etgan chaqaloqlar ko'milgan. Murodbaxsh - murodlarni amalga oshiruvchi, orzularni ro'yobga chiqaruvchi ma'nolarini inobatga olsak, ilgari aholi mazkur qabristonga orzulari ijobatini tilab, toat-ibodat uchun kelishgan.

**Ketmonchiota va O'roqchiota** – Qorako'l tuman Qozon qishlog'ida joylashgan qabristonlar. Qabristonda Ketmonchiota va O'roqchiotaga nisbat beruvchi sag'analar mavjud, ular ustida oq tug' ko'tarilgan. Qabristonga erta yoshda ko'z yumgan chaqaloqlar, musofirlar, g'arib, kimsasiz kishilar dafn qilingan. Ketmonchiota va O'roqchiotalar aka-uka bo'lib, qishloq aholisining qabriston eshigi oldiga qo'yib ketgan mehnat qurollarini tuzatib qo'yishgan.

**Qizbibi** – Qorako'l tuman Qorahoji QFYda joylashgan qishloq. Xo'jalar, Arabxona, Qorahoji, qisman Yangi Zamon qishloqlarining marhumlari dafn qilinadi. Oq tug' ko'tarilgan, Qizbibiga nisbat beriluvchi sag'ana va quduq mavjud. Darg'ali qishlog'ida ham Qizbibi qabrisoni bo'lib, unga erta yoshda vafot etgan chaqaloqlar dafn etiladi.

**G'oyibota** – Qorako'l tuman Qozon va Qorahoji qishloqlarida joylashgan qabrison. Qozon qishlog'ida joylashgan G'oyibota qabrisonida bu zotga nisbat beriluvchi ramziy qabr ustida oq tug' ko'tarilgan. Hozirda faqar erta yoshda vafot etgan chqaloqlar dafn qilingan ushbu qabrisonga o'tmishda kata va kichik yoshdagi marhumlar qo'yilgan.

Qorahoji MFYda joylashgan qabrison uch katta qismdan iborat bo'lib, uzunligi uch-to'rt metr keladigan qabr G'oyibotaga nisbat berilgan. Qoraun, Xosxo'rda, Arababdal, Qulonchi, Qora Qulonchi, Mirzaqal'a qishloqlari marhumlari shu qabrisonga dafn etiladi.

**Pahlavon Xalifa** – Qorako'l tuman Mahallayi Shayxon qishlog'ida joylashgan qishloq. Oq tug' ko'tarilgan mazkur qabrisonda bir nechta katta kishilarning qabri bo'lib, hozirda hayotdan erta ko'z yumgan chaqaloqlar dafn etiladi. Pahlavon xalifa haqida tarixiy manbalarda aniq ma'lumotlar yo'q. faqatgina 14 asr o'rtalarida Buxoroga ko'chib kelgan Sayyid Abdulloh Zarbaxshning 400 xalifasidan biri bo'lish ehtimoli bor.

Nekronimlar semantik, grammatik strukturasi jihatidan qolgan toponimlardan tubdan farq qiladi. Bu holat ularning tarkibida ota, mulla, shayx, bobo, hazrat, xalifa, oyim, eshon, maxsum, shayxulislom, so'fi, aziz, avliyo, chilton, singari lug'aviy birliklarning mavjudligida namoyon bo'ladi.

Shayx leksemasi - oliy musulmon ruhoniylari vakili, mozor, qadamjo kabi ziyoratgohlar mutassaddisi, avliyolarga, xudo yo'liga atalgan nazr-niyozlarni qabul qiluvchi kishi.



Eshon leksemasi-fors-tojikcha soʻzdan olingan boʻlib dindorlar orasida obroʻ qozongan ruhoniylar, din kishisi maʼnosini ifodalaydi.

Xoʻja leksemasi-fors-tojik tilidan olingan boʻlib biror kimsa yoki narsaning egasi, tarixiy soʻz hisoblanib birinchi boʻlib islom dinini qabul qilgan yerli kishi, keyinchalik dindorlarning eʼtiqodicha 4 xalifalardan birining avlodi. Shuningdek xoʻja etnografiyaga oid atama boʻlib Oʻrta Osiyoda maʼlum imtiyozga ega boʻlgan oqsuyaklar va ularning avlodlari maʼnosida Xoʻjazoda erkaklar ismiga qoʻshiladi. Ushbu leksemalar nekronimlar tarkibiga turlicha qoʻshilib, shaxsning ijtimoiy darajasini belgilash uchun qoʻllanilgan. Yuqoridagi nekronimlarning til xususiyatlariga diqqat qilinsa, ularning nomlanish asoslarining mazmuni va shakl jihatidan joylashuvida ham alohida oʻziga xoslik, nomlanish bilan bogʻliq asosiy jihatlar mavjud ekanligi yaqqol koʻzga tashlanadi.

Ushbu leksemalar nekronimlar tarkibiga turlicha qoʻshilib, shaxsning ijtimoiy darajasini belgilash uchun qoʻllanilgan. Yuqoridagi nekronimlarning til xususiyatlariga diqqat qilinsa, ularning nomlanish asoslarining mazmuni va shakl jihatidan joylashuvida ham alohida oʻziga xoslik, nomlanish bilan bogʻliq asosiy jihatlar mavjud ekanligi yaqqol koʻzga tashlanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qorayev S. Toponimika. Oʻzbekiston faylasuflari milli jamiyati nashriyoti. T:-2006
2. Raximovna U. N. Tasavvuf taʼlimoti va gʻarb adabiyoti //Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. – 2023. – C. 117-119.
3. Umurova N., Samadova S. Oriental Motives on “The Fifth Mountain” By Paulo Coelho //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – T. 5. – №. 2.
4. Fayбуллаев С. Қоракўл воҳаси тарихий топонимлари атласи. Тошкент, Lesson Press нашриёти, 2021 йил 190 бет
5. С.С.Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. “Дурдона” нашриёти, 2012 йил 272-бет
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2008. – 606 б.

## SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA AYRIM LISONIY BIRLIKLARNING SOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

*Bibisora AXTAMOVA,  
Mustaqil tadqiqotchi*

Hozirgi paytda dunyo tilshunosligining diqqat markazida turli xil mavzular bilan birga sotsiopragmatika ham turibdi. Bu fan sotsiolingvistikaning ham lisoniy, ham ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tadqiq etuvchi tarmogʻi hisoblanadi.

Maʼlum bir til jamiyatning barcha aʼzolari uchun ajdodlar tomonidan tayyor holda keltirib qoʻyilgan, umumiy va majburiy fikrni shakllantirish, ifodalash, uzatish va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan vosita (birlik)lar hamda ularning oʻzaro birikish qonuniyatlarining ongdagi sistemasi sifatida qaraladi. Ular bizning ongimizda nutqda qoʻllanish uchun shay holatda turadi. Lisonga xos bunday birliklar lisoniy birliklar sanaladi. Lisoniy vositalarga foneik, leksik, morfologik, sintaktik vositalarni kiritish mumkin. Bir matn tilshunoslik fani nuqtayi nazaridan oʻrganilar ekan, diqqat adabiy til shakllari-leksik, fonetik, morfologik va sintaktik birliklardan qay darajada foydalanilganliklariga qaratiladi. Biz ilmiy ishimizning oldingi boblarida morfologik, sintaktik vositalarga toʻxtalib oʻtganimiz uchun bu bobda lisoniy vositalarning aynan (ibora-fraza, maqol, barqaror birikmalar, tagmaʼno va metafora) shakllariga urgʻu beramiz.

Adabiy asarning adabiy asar darajasiga ko‘tarila bilishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balog‘atiga bog‘liq ekani har qanday adabiy asarning moghiyatini baholamoq tadqiq etmoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining o‘ziga xosligi tahlil etilmog‘i lozim. Sadridin Ayniy asarlarida ham lisoniy birliklarning, ayniqsa, iboralarning turli xil shakldagi va mazmundagi ko‘rinishlarini uchratish mumkin:

– *Sen har bir ishga xalq foydasi yo‘li bilan emas, o‘zing qatorlaring ko‘zi bilan qarar ekansan-da, – dedi Safarqulga Shokir.*

– *Bo‘lmasam-chi? – javob qaytardi Safarqul unga – “har kim o‘z o‘ligi uchun yig‘laydi” deganlar. Jadidlarning talabida bizga tegishli jindek manfaat ko‘rsating, hammadan burun men jadid bo‘lay. (189-bet)*

Sadridin Ayniy, odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo‘llash bilangina kifoyalaniq qolmaydi, balki qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o‘zgartiradi va qayta ishlaydi. Yuqoridagi ibora “har kim o‘z o‘ligi uchun yig‘laydi”ni qo‘llagan kommunikant so‘zidan uning xarakteriga xos xususiyatlarni ham bilish mumkin va ayni damda uning ishonchsizlik, aniq fikrning aytilishini kutish vaziyati ham bilinadi. Ayniy nihoyatda o‘tkir qalam sohibi bo‘lishi bilan birga asardagi qahramonlarning holatini aks ettirgan kam uchraydigan iboralarni ham qo‘llashi uning tilshunos olim sifatida lug‘at boyligiga ega ekanini bilishimizga imkon beradi:

– *Paxtakorning shubhalari to‘g‘ri chiqdi, boyning “botmon” deb bergan g‘o‘zasidan tozalangan paxta o‘z yetti chorak emas, o‘n olti chorak, chigit ham yarim botmondan ikki chorak oz chiqdi.*

– *Illat “yo oshda, yo moshda” –deb qo‘ydi, paxta va chigitning burungi taxmindan oz chiqqanini ko‘rgan bir paxtakash. (70-bet)*

“Yo oshda, yo moshda” iborasining sotsiopragmatik xususiyatiga e‘tibor qaratganimizda, uning gumon qilish vaziyatida qo‘llanganligi va ochiq “boy paxtadan urib qolgan” deya olmasligi, boyga nisbatan aniq fikr ayta olmasligini sezamiz. Aslida illat boyning yolg‘onchiligida ekani ma‘lum, lekin oddiy dehqon, qul uni ochiq ayta olmaydi, balki “yo oshda, yo moshda” deya ayb tarozida bo‘lishi mumkin degan ma‘noda so‘zlaydi. Boshqa bir iboraga fikr qaratamiz:

– *Bu odamga ko‘zi tushgan Akramboy karvonboshiga pichirlab:*

– *Bu odamni qal‘achi Abdurahimboy deydilar, o‘zi Shofirkom tumanidan, yumshoqqina muomala qiling! Tuzukkina odam, bozordan bo‘sh chiqib ketmaydi,-dedi. (66-bet)*

Yumshoqroq muomala qilmoq iborasi ayni vaziyatda bu iborani kimga nisbatan qo‘llanganligini bilishimizga imkon beradi, ya‘ni Abdurahimboyning ijtimoiy holatini, mavqeyini, katta boylardan ekanini va qul sotib olishi mumkinligini bilgan kommunikant vaziyatga mos iborani ishlatganini bilamiz.

Bundan tashqari Sadridin Ayniy “Qullar“ va “Sudxo‘rning o‘limi” asarlarida qator iboralarning nutq vaziyatiga mos holda qo‘llanganini kuzatishimiz mumkin:

- *burutini bolta kesmas (259-bet)*
- *sadag‘ayi saringiz (253-bet)*
- *baloning tashqarisida turishdan, ichkarisida bo‘lish behroq (249-bet)*
- *sabr qolgur (220-bet)*
- *“suxan az dahani Luqmon xush” (so‘zni Luqmonning o‘z og‘zidan eshitgan yaxshi) (196-bet)*
- *kallasi xum (187-bet)*
- *tug‘di-bitdi (181-bet)*

- *tuproqdan tashqarida yurmoq (176-bet)*
- *eshakka yarasha tushovi (174-bet)*
- *devor mush murad, mush go'sh murad ( devorning sichqoni bor, sichqonning qulog'i bor) (158-bet)*

Sadriddin Ayniy qo'llagan lisoniy birliklar faqat iboralardan iborat bo'lib qolmay, maqol va matallardan ham unumli foydalangan. Maqol- grammatik jihatdan shakllangan fikrni bildiruvchi kichik, ixcham, o'tkir mazmunli, ko'cha ma'noda ham, o'z ma'nosida ham qo'llanuvchi hikmatli xalq iborasi ekanini bilamiz. Ayniy keltirib o'tgan maqollar fikrni lo'nda va aniq ifodalash imkonining mavjudligi, nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda ham qo'l kelgan. Sadriddin Ayniy maqollarni ayrim o'rinlarda tojikcha variantini ham keltirib o'tadi. Asarlarining xalqchilligini, haqqoniyligini ta'minlashda ham maqol va matallarga murojaat qiladi. Qahramonlar nutqini boyitish, emotsionallikka erishish maqsadida ham maqollardan keng foydalangan. Bunday maqol –paremalar Ayniy asarlarida talaygina bo'lib, muallif ulardan nutq vaziyatiga mos ravishda foydalangan:

- *Yaxshilik qil daryoga ot, daryo bilmasa baliq bilur, baliq bilmasa Xoliq bilur (262-bet)*
- *Ovchining ishi baror olsa, ov o'z oyog'i bilan tuzoqqa keladi (260-bet)*
- *Maslahat bilan bichilgan chopon qisqa kelmaydi (254-bet)*
- *Besha be sher nest (To'qay arslonsiz bo'lmaydi) (246-bet)*
- *Qatorda noring bo'lsa, yuking yerda qolmaydi (264-bet)*
- *Zamona bo tu nasozad, tu bo zamona bisoz ( Zamona sen bilan kelishmasa, sen zamona bilan kelish) (247-bet)*

So'zlovchi nutq predmeti haqidagi axborotni til belgilari yig'indisi yordamida hosil qiladi. Bu ifoda pragmatik tuzilishdagi xabar mazmunini tashkil etadi. Tagma'no yashirin ifoda birliklaridan biri bo'lib, u o'zining yashirin belgi-xususiyatlari bilan lingvistik pragmatikaning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Tagma'no lingvistik pragmatikaning xususiy masalalaridan biridir.

Tagma'no tushunchasining yuzaga kelishi umumiy va xususiy ko'rinishlari, uning jahon tilshunoslik tarixida izlanish darajasi, shuningdek, tagma'noning presup pozitsiyadan farqlanish xususiyatlari kabi qator masalalar lingvistik pragmatikaning dolzarb muammolaridan biri-biri sirasiga kiradi.<sup>1</sup> Tagma'noning stilopragmatik tagma'no, individual xususiy tagma'no, espressiv tagma'no, metaforik tagma'no, uslubiy pragmatik tagma'no, fonopragmatik tagma'no va monologik tagma'no kabi ko'rinishlari badiiy asarlarda ko'p uchraydi. Jumladan, Said Ahmadning "Qoplon" hikoyasida asar qahramoni Tillayev nutqida: -"Taniyman bu itni",- jumlasini ishlatiladi. Aynan shu joyda pragmatik tagma'no hayvonga emas, kishiga nisbatan qo'llangan. "Bu it" deganda Qurbonboyni nazarda tutadi. Bundan ko'rinib turibdiki, jumlada pragmatik ma'no orqali asar qahramoniga xos bo'lgan xarakter o'z-o'zidan sezilib turadi. Metaforik tagma'noning bunday ko'rinishida so'zlovchi tinglovchini ma'lum bir predmetlarga o'xshatish asosidagi propozitsiyani berish bilan o'zi nazarda tutgan axborot ko'rinishiga ishora qiladi. Masalan:

-Men Musoning alamini Isodan olmoqchi bo'lib, boyvachchadan so'radim:

- Bu itning sen bilan qanday aloqasi bor ediki, sening isingni iskab kelib, bizning davrani bulg'ab ketdi. (17-bet) Asarda it qiyofasidagi jirkanch va nomi qiyofasiga mos Qori-Ishkamba nazarda tutilgan.

<sup>1</sup> Muhammad Hakimov. O'zbek pragmalolingvistikasi asoslari. T.-2013 "Akademnashr".[22-b]

Formal pragmatikada nutqiy tuzilmalar mazmunidan hosil bo‘ladigan turli xildagi ma’no ko‘chimlarini tushuntirishda lisoniy o‘yin usulidan foydalanish harakati ham seziladi.<sup>1</sup> Metaforik tagma’noning matndagi ifodasi so‘zlovchining ichki maqsadi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, fikrning ta’sir etish va yangi nutq vaziyatini yuzaga chiqarish (perlokutivaktlar) ning boshlang‘ich nuqtasi sifatida namoyon bo‘ladi. Sadridin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” asarida “murch olmasdan murch yegan edim” jumlasini keltiradi. Undagi tagma’no firib yemoq, aldanmoq degan ma’noda ishlatiladi. Demak, borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatni ifodalab keladi. Bunday ma’no badiiy matnning ta’sirchanligini oshirishda ifodali, jozibali bo‘lishida katta ahamiyatga ega.

Jumladan:

-...pulni orttirib olish sharti bilan qarzga beradi, pulning tagidan orttirib olgan foydasini pulning “bolasi” deydi, pulning foydasining foydasini “nabirasi”, foydaning foydasining foydasini “avirasi” deydi. Kun va kun ora oqshomda qarz olgannikiga ovqatga boradi, shu ovqatni “nabirasi” deb ataydi.(27-bet)

Demak, Sadridin Ayniy asarlaridagi bu kabi lisoniy birliklarni o‘rganish va tahlil etish, lingvistik pragmatika masalalari mohiyatini aniqlash sotsiopragmatik tadqiqotlarning oydinlashuvida muhim o‘rin tutadi. Sotsiopragmatikaning umumiy qirralarini ko‘rsatish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammadjon Hakimov. O‘zbek pragmalingsvistikasi asoslari. T.-2013 “Akademnashr”.22-bet
2. Shahriyor Safarov.Pragmalingsvistika.Toshkent,2008.66-bet
3. Sadridin Ayniy . Sudxo‘rning o‘limi. O‘qituvchi.T.-1982
4. Sadridin Ayniy.Qullar.T.-1964.

## SO‘Z BIRIKMALARI O‘RTASIDAGI VARIANTLILIK

*B.M.POLVONOVA*

*FarDU mustaqil tadqiqotchisi, TATU Farg‘ona filiali akademik litsey o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola tilshunoslikdagi variantlilik masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda zamonaviy tilshunoslikdagi so‘z birikmasi variantliliigi hodisasi haqidagi qarashlar umumlashiriladi. Variantlilikka doir mavjud fikrlar tahlil qilinib, lisoniy dalillar bilan izohlanadi.

**Kalit so‘zlar:** variatsiya, uslubiy belgi, model, qolip, invariant, qo‘shma gap, propozitsiya, propozitsiya yadrosi, predikativ va boshqalar.

**Аннотация.** Данная статья посвящена проблеме вариантности в языкознании и обобщает взгляды на явление вариантности словосочетания в современном языкознании. Существующие представления о варианте анализируются и поясняются лингвистическими данными.

**Ключевые слова:** вариация, стилистический знак, модель, шаблон, инвариант, союз, суждение, ядро суждения, предикатов и др.


**Annotatsion.** This article is devoted to the issue of variantness in linguistics, and it summarizes views on the phenomenon of word combination variant in modern linguistics. The existing ideas about the variant are analyzed and explained with linguistic evidence.

<sup>1</sup> Shahriyor Safarov .Pragmalingsvistika. T.-2008 [76-b]






Soʻz birikmalarida hokim qism qanday turkum bilan ifodalanishi ham muhim belgi boʻlib, soʻzlar oʻrtasidagi tobelik munosabati ham shunga koʻra shakllanadi. Masalan, hokim soʻz feʼl bilan yoki feʼldan boshqa turkumlar (keng maʼnoda ot) bilan ifodalansa, umumiy invariantning yana ikkita varianti paydo boʻladi. Bunda xalqaro modellashga koʻra ot – N (noun), feʼl – V (verb) bilan belgilanadi va quyidagi kichik invariantlar hosil boʻladi.



Bunda umumiy invariant  $W^2 = P$  dagi  $W^2$  ni  $W+W$  ga aylantirsak, birinchi kelayotgan tobe soʻz umuman soʻz  $W$  sifatida qoladi, undan keyin kelayotgan hokim soʻz esa  $N$ , yaʼni noun- ot bilan belgilanadi, shunday qilib,  $W+N=P$  invarianti otli birikmalarni ifodalagan. Xuddi shu tartibda  $W+V=P$  modeli feʼlli soʻz birikmalar invariantidir. Bunda  $W+N=P$  quyidagi variantlar bilan reallashishi mumkin.

Bunda hokim soʻzlar feʼlning harakat nomi vazifa shakli bilan ifodalanadi. Chunki soʻz birikmalari gapdan kichik boʻlgani uchun fikr emas, faqat tushuncha ifodalaydi va predikativ munosabat shakllarisiz qoʻllanadi. Feʼlning predikativ munosabat shakllari – kesimlik shakllari boʻlib, ular zamon, shaxs-son va mayldan tashkil topadi. Berilgan variantlar paradigmasida 1- va 2- misollar faqat ohang yordamida, 3-6-birikmalar turli kelishiklar vositasida, oxirgisi esa koʻmakchi orqali bogʻlangan.

Maʼlumki, soʻz birikmalari birikish usuli mavjud boʻlib, ular: bitishuv, boshqaruv va moslashuv kabilardan iborat.  $W^2 = P$  bosh invariantning bu jihatdan ham uchta kichik variantlari mavjud.



Soʻz birikmasi  $W \xrightarrow{\text{bitishuv}} W = P$  modelida  $W+V=P$  hamda  $W+N=P$  modellari ham reallashishi mumkin. Masalan:

$W+V=P$	$W+N=P$
Oʻylanib gapirmoq	Oʻylangan gap
Murakkab tushunish	Murakkab tushuncha
Tasodifan koʻrmoq	Tasodifiy uchrashuv

Keltirilgan paradigmalarda leksik material va propozitsiyalar semasi yaqin (oʻylanib gapirmoq - oʻylangan gap), umumiy invariant ham bitta ( $W^2 = P$ ), birikish usuli ham teng ( $W \xrightarrow{\text{bitishuv}} W = P$ ), lekin ular hokim soʻz ifodalanayotgan turkumning turliligi bilan farqlanadi, yaʼni 1-paradigma  $W+V=P$  invarianti bilan belgilansa, 2-paradigama  $W+N=P$

invariant varianti hisoblanadi. Demak, bu orqali har bir voqelangan, ya'ni nutqda uchraydigan birikmalar  $W^2 = P$  invariant varianti bo'lsa-da, asosiy invariantning variantlari bo'lgan ichki invariantlarga variant bo'lolmaydi.

**W** boshqaruv **W=P** modelida kelishik (tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish) hamda ko'makchilar ishtirok etadi. R.Sayfullayeva ravishdosh va sifatdosh qo'shimchalarini ham boshqaruvli birikmani shakllantiruvchi vosita sifatida izohlagan. Boshqaruvli birikishda hokim so'zning talabi bilan tobe so'z ma'lum grammatik ko'rsatgichni oladi va holli yoki to'ldiruvchili tobe bog'lanishni hosil qiladi.

Bu ikki bog'lanish predikativ va nopredikativlik jihatidan farqlansa-da, ba'zi jihatlardan bir-biriga juda o'xshash. Har ikki bog'lanishda ham hokim qism I, II shaxs birlik va ko'plik sonida kelsa, tobe qism, albatta, olmosh bilan (kishilik yoki o'zlik olmoshi) ifodalanadi. Olmosh inglizcha *pronoun* so'zi bilan ifodalanib, biz uni qolipga **Pron** shaklida kiritamiz. Agar hokim qism III shaxs birlik va ko'plik sonida kelsa, tobe qism bir nechta so'z turkumi bilan ifodalana oladi. Biz ular **W – word**, ya'ni so'z deb atadik. Buni ilova qilingan 2-jadvalda ham ko'rish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 309 b.
2. Абдупаттоев М. Суперсинтактик бутунликлар. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1998.
3. Tanlangan asarlar. – T.:G'.G'ulom.2018.
4. Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992.
5. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990.
6. Musayeva F. O'zbek tilida variantlilik// O'zbek tili va adabiyoti, 6-son,2015.
7. Polvonova B.M. So'z qo'shilmalarida variantlilik//Al-Farg'oniy avlodlari jurnali, Farg'ona - 2023, Tom 1, №3, 38-41b.

#### ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ КРАСНОРЕЧИЮ В ВУЗЕ

**М.У.АСРАРОВА,**

*Старший преподаватель кафедры  
узбекского языка и литературы*

*Бухарского инженерно-технологического института*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada milliy guruh talabalarida to'g'ri va malakali nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning ba'zi usullari va usulvositalari haqida so'z boradi. Nutqda nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi, o'quvchilar nutqini to'sib qo'yuvchi parazit so'zlarni yoki jarangli iboralarni yo'q qilish masalasiga alohida e'tibor beriladi. Bundan tashqari, nutqning yorqin, madaniy va ishonarli bo'lishiga yordam beradigan quyidagi talablar taklif etiladi.

**Аннотация.** В данной статье говорится о некоторых методах и способах развития навыков правильного и грамотного говорения студентов национальных групп. Особое внимание уделяется вопросу искоренения в речи слов-паразитов или жаргонные выражения, которые мешают развитию навыков разговорной речи и засоряют речь студентов. Далее, предлагаются соблюдаемые требования, помогающие сделать речь яркой, культурной и убедительной.

**Abstract:** This article talks about some methods and techniques for developing correct and competent speaking skills among students of national groups. Particular attention is paid

to the issue of eradicating parasitic words or slang expressions from speech that interfere with the development of speaking skills and clog students' speech. Further, the following requirements are proposed to help make the speech bright, cultural and persuasive.

**Ключевые слова:** красноречие, интернет технология, проблема образования, слова-паразиты, чтение, прослушивание, контролирование, тренировка, интуиция.

Предъявляемые требования к вузам, состоят из ряда задач. Одним из задач обучения русскому языку является формирование навыков красноречия. Красноречие – это тоже редкий талант. Не все могут красиво говорить, но все могут научиться этому искусству. Красивая речь присуща тем, кто много читает и размышляет. [1]. Время, в котором мы живём, редко связывает нас с книгой тогда, когда весь мир загружен в занятиях интернет технологий. И, не секрет, такое увлечение молодёжи лишает их от повседневного общения с окружающим миром, что приводит в результате к обеднению их словарного запаса и обеднению речи. Это явление превратилось в одну из проблем образования в вузе. Как быть, что сделать для того, чтобы научиться навыкам развития разговорной речи? И, поэтому поводу, часто на занятиях русского языка нам приходится придерживаться следующих требований: [2]. 1. Искусство говорить культурно, ярко и убедительно. Развивая в себе необходимые навыки, мы учимся говорить ярко, убедительно, культурно. Для этого мы должны исключить из речи слова-паразиты, больше читать художественной литературы, общаться с умными людьми, смотреть интеллектуальные телепередачи. Давайте, узнаем о них по порядку. 2. Долой слова-паразиты, говор или местный лексикон. Подобные слова всерьёз засоряют нашу речь, но не все это понимают, некоторые люди даже сознательно вставляют в разговор различные жаргонные выражения, полагая, что они добавляют красок диалогу, но на деле нередко это звучит неуместно, а, порою, и отталкивающе [3]. Заметьте, что слова, вроде «типа», «как бы», «ну», «это самое», «короче» и тому подобные зачастую отвлекают от нити повествования. Иногда мы и сами не замечаем, как часто используем подобные выражения. Чтобы избавиться от этих «паразитов» придётся постоянно контролировать себя, что требует немалой самодисциплины. Как бы там ни было, со временем, всё придёт в норму. 3. Учимся правильно выражать свои мысли. Чтобы научиться красиво выражать свои мысли, будет не лишним обрести умение внимательно слушать тех ораторов, речь которых вам нравится. [4]. Также не забывайте о таком полезном навыке, как чтение. Выбирайте книги, которые помогут вам настроить мозг в правильном направлении. Кроме того, это могут быть разнообразные учебные пособия, а также научные статьи. Чтение вслух тоже может оказаться не менее эффективным, ведь именно так вы научитесь отрабатывать дикцию. Остановите выбор на классических художественных произведениях известных писателей – как правило, они отличаются богатством речи. [5]. 4. Развиваем красивую речь. Большинство из нас в привычных ситуациях разговаривают вполне нормально, однако, когда возникает какое то стрессовое положение, многие теряют уверенность, будто «теряя дар речи». Когда вы разовьёте грамотную и красивую речь, то перестанете теряться в любых ситуациях. Как это сделать? Наверное, вам известно, что существуют люди, которые способны интересно рассказать о 385 любом, даже самом непримечательном предмете. Если ваш род деятельности предполагает написание текстов, ораторские выступления и тому подобное, то богатый словарный запас со временем формируется сам. Сложнее приходится людям, не работающим в гуманитарной сфере – им приходится приложить

несколько больше усилий. На помощь может прийти прослушивание радио, чтение книг, просмотр хороших кинолент и документальных передач. Важно обращать внимание не только на то, какая информация доносится до вас, но и на то, как именно строятся фразы. Прочтите короткий рассказ и попробуйте пересказать его. Запишите на диктофон свой пересказ, прослушайте его и определите, красиво ли звучит ваша речь или имеются некоторые недочёты. Подобные тренировки вслух очень важны, ведь они постепенно сформируют мелодичную речь и обогатят вас запасом новых интересных выражений. Для развития красивой речи также полезна вот такая игра. [5]. Обратите внимание на какой-нибудь обычный предмет- блокнот, сковорода, стол и тому подобное. На протяжении минуты – двух попытайтесь литературным языком, без явных запинок составить рассказ об этом предмете. 5. Учимся контролировать свою речь. Умение держать свою речь под контролем выделит любого человека из общей толпы. Не удивительно, что люди, обладающие подобным талантом, в своё время оказывались вождями народов, за которыми готовы были следовать тысячи людей, внимая каждому слову своего лидера. Вероятнее всего, тренировки отнимут у вас некоторое время, но это стоит того-лишь так вы не только будете полностью владеть собственным речевым аппаратом, но интуитивно научитесь чувствовать, как лучше обратиться к определённому человеку, какие слова лучше подобрать и так далее. Также вы сможете не теряться даже в самых неожиданных ситуациях, сохраняя хладнокровие. Таким образом, чтобы говорить красиво, убедительно и заинтересовать человека своей речью, надо развивать в себе навыки красноречия и ораторские способности.

Использованная литература:

1. Толковый словарь русского языка. — Veche, 2001.
2. Красина Е.А., Перфильева Н.В. Основы филологии : лингвистические парадигмы: учебное пособие. Флинта, 2019г.
3. Балабаева Е.С., Муртазина Л.Р. Искусство красноречия. 2017. Volume 7. Issue 6.
4. Ассуирова, Л. В. Средства выразительности устной публичной речи. 2008. – № 1. – С. 60–62.
5. Садикова, В. А. Как подготовиться к речевому творчеству (обучение публичному выступлению) // Рус. яз. в шк. – 2009. – № 8. – С. 3–11.

## **КОММУНИКАТИВНЫЙ ПОДХОД К ИЗУЧЕНИЮ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА ПРИ СОЧЕТАНИИ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ И ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ**

**С.Ё.САЙИДОВА,**

*старший преподаватель.*

*Бухарский инженерно-технологический институт, Республика Узбекистан*

**Аннотация:** в этой статье даётся понятие о задачах поставленных перед педагогами для наиболее эффективных интерактивных путей и методов изучения иностранных языков.

**Ключевые слова:** интенсивные методы, изучения языка, образовательный процесс, традиционный метод, коммуникативный метод, процесс обучения.

Необходимость совершенного владения языками ни у кого не вызывает сомнений, а найти наиболее эффективные пути и методы изучения языка, добиться того, чтобы процесс усвоения знаний был интересным и необременительным, - постоянная

проблема, над которой работают ученые, преподаватели высших учебных заведений, учителя колледжей, лицеев, школ.

Вместе с тем в связи с интенсивным развитием ИКТ в последние десятилетия произошли глобальные изменения не только в научно-технической сфере, но и в системе образования. Благодаря оснащению учебных заведений компьютеризированной техникой и возможностям доступа к глобальной сети Интернет в современном образовательном процессе появились и начали активно внедряться новые формы и технологии обучения.

Сегодня перед педагогами встает задача поиска таких форм обучения, методов и дидактических средств, которые интенсифицируют процесс обучения, повышают его эффективность. В исследованиях и публикациях последнего времени утверждается, что одним из наиболее действенных и результативных методов обучения иностранному языку является коммуникативный метод. Применение коммуникативного метода делает процесс обучения приближенным к процессу общения.

Привлечение иностранных студентов к обучению является одной из основных задач университетов нашей страны, поскольку свидетельствует о престижности заведения высшего образования и высоком уровне знаний, которые они предоставляют. В то же время это является сложной задачей, что обусловлено высоким уровнем конкуренции на рынке образовательных услуг. Столкнувшись с рядом проблем и трудностей в этом направлении, учреждения высшего образования вынуждены искать новые альтернативные пути решения поставленных перед ними задач. Поэтому в этих условиях преподаватели активно внедряют в образовательный процесс дистанционные формы обучения, которые могут быть эффективно использованы при изучении любых учебных дисциплин, в том числе и русского языка как иностранного[1]. Дистанционное обучение дает возможность иностранцам получить образование в гибком режиме и изучать русский язык, находясь за пределами учебного заведения и не отрываясь от основной деятельности. В условиях пандемии коронавирусной инфекции проблема дистанционного изучения русского языка иностранными студентами стала особенно актуальной из-за отсутствия или несовершенства дистанционных учебных курсов в университетах


Степень признания и использования интерактивных методов в вузах и технологий взаимодействия преподавателя и студентов в современной системе образования различна. Применение интерактивных методов в образовательном процессе предполагает изменение роли преподавателя, который теперь выступает в новых ампулах: куратора, модератора, организатора, т.п. Условно обозначим их как пассивные, активные и интерактивные (пассивные и активные отнесем к традиционным формам преподавания гуманитарных дисциплин). При этом допускаем существование и некоторых переходных форм преподавания дисциплин и организации способов взаимодействия преподавателей и студентов. Несмотря на достаточно декларативное в ряде случаев признание важности использования интерактивных методов и технологий в ситуации современного образования, подверженного модернизационным изменениям, все же наиболее распространенными в реальной образовательной практике по-прежнему являются методы, относимые к числу пассивных и активных (традиционные методы). Доказано, что использование системы дистанционного обучения во время преподавания русского языка как иностранного - это большой прорыв в обучении иностранных студентов, которые не имеют возможности




присутствовать в аудиториях по уважительным причинам и получать знания традиционным способом. В процессе преподавания курса возможно применение компьютерных технологий: самостоятельная работа студентов в системе электронного обучения Moodle, презентации, просмотр и обсуждение научно-популярных фильмов.

В педагогике существуют многочисленные классификации методов обучения. Нас интересует, та в основе, которой – роль обучающегося в процессе обучения; традиционно в ней выделяют три метода:

1) **Пассивные:** где учащиеся выступают в роли “объекта” обучения, которые должны усвоить и воспроизвести материал, который передается им учителем-источником знаний. Основные методы это лекция, чтение, опрос.




2) **Активные:** где обучающиеся являются “субъектом” обучения, выполняют творческие задания, вступают в диалог с учителем. Основные методы это творческие задания, вопросы от учащегося к учителю, и от учителя к ученику.



3) **Интерактивные:** От англ. (inter - “между”; act – “действие”) таким образом дословный перевод обозначает интерактивные методы – позволяющие учиться взаимодействовать между собой; а интерактивное обучение – обучение построенное на взаимодействии всех обучающихся, включая педагога. Эти методы наиболее соответствуют личностноориентированному подходу, так как они предполагают со-обучение (коллективное, обучение в сотрудничестве), причем и обучающийся и педагог являются субъектами учебного процесса. Педагог чаще выступает лишь в роли организатора процесса обучения, лидера группы, фасилитатора, создателя условий для инициативы учащихся.

Кроме того, интерактивное обучение основано на прямом взаимодействии учащихся со своим опытом и опытом своих друзей, так как большинство интерактивных упражнений обращается к опыту самого учащегося, причем не только учебному, школьному. Новое знание, умение формируется на основе такого опыта.



Кроме того, интерактивное обучение основано на прямом взаимодействии учащихся со своим опытом и опытом своих друзей, так как большинство интерактивных упражнений обращается к опыту самого учащегося, причем не только учебному, школьному. Новое знание, умение формируется на основе такого опыта.

Место пассивных, активных и интерактивных методов также хорошо иллюстрирует так называемая “таксономия Блума” - таблица уровней и целей обучения и развития познавательных навыков, разработанная группой американских психологов и педагогов под руководством профессора Бенджамина Блума. Термин “таксономия” означает систематизацию объектов по определенным критериям с целью создания определенной последовательности (иерархии). Блум предложил иерархию учебных целей по их сложности. Таблица используется учителями практиками, и показывает, что уровень знаний (информации) является лишь начальным этапом в обучении (хотя и обязательным, базовым) Обучение должно продолжаться дальше, и педагог должен ставить перед собой и другие цели.

«Ученик в роли учителя» Этот прием — своеобразная ролевая игра. Она применяется в различных ситуациях. Студент может подготовить рассказ о новом материале, выступить в роли организатора интерактивного упражнения, заменив педагога. Этот прием является одним из самых эффективных средств обучения. Однако приём «ученик в роли учителя» требует серьезной подготовки студента и определенных способностей, поэтому не все студенты смогут выполнить такую нагрузку. Частным и более щадящим случаем приема «ученик в роли учителя» служит метод «каждый учит каждого»[2].

Для раскрытия темы дается домашнее задание: подготовить сообщения об основных представителях античной, средневековой, классической, неклассической и пост-неклассической науки. Студентам достаточно найти информацию об этих священных мест, которые находятся в Бухаре и их научных достижениях. Преподавателю необходимо делать обобщающие выводы, обращая внимание на мировоззренческие особенности конкретных исторических мест. Преподавателю следует также проводить сравнительную характеристику достопримечательных сооружений форм научного мировоззрения с тем, чтобы продемонстрировать, динамику научного знания.

Литература:

1. Суворова Н. Интерактивное обучение: Новые подходы / Н. Суворова. – М.: Роспедагентство,
2. Кузин И. А. Классическая эволюционная эпистемология свидетельствует против научного реализма // Философия науки. Новосибирск: Изд-во СО РАН, 2016. № 3. С. 19-31.

## **“TUSHDA KECHGAN UMRLAR”, “IKKI ESHIK ORASI” ASARLARIDA QO‘LLANILGAN FRAZEMALARNING MAZMUN PLANI**

*Kurbanova Zaynab Burxanovna,  
stajyor o‘qituvchi*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”, “Ikki eshik orasi” asarlarida qo‘llanilgan frazemalarning mazmun plani tahlil qilingan. Frazеologizmlar badiiy matnga estetik zavq beradi. Kitobxon asarini o‘qish jarayonida frazeologizmlardan o‘ziga boshqacha emotsiya oladi.

**Аннотация.** В данной статье анализируется содержательный план фраз, использованных в произведениях Откира Гашимова «Поздние жизни во сне», «Между двумя дверями». Фразеологизмы придают художественному тексту эстетическое удовольствие. Читатель получает разные эмоции от фразеологии при чтении его произведения.

**Annotation.** This article analyzes the content plan of phrases used in O'tkir Hashimov's works "Late Lives in a Dream", "Between Two Doors". Phraseologisms give aesthetic pleasure to the artistic text. The reader gets a different emotion from phraseology while reading his work.

Iboralarning mazmn plani uning nimanidir, nomlab kelishi, ifodalashi, ma'lum ma'no anglatishidir. Masalan, tomdan tarasha tushganday frazemasining mazmun planida behosdan, kutilmaganda, qo'qqisdan kabi ma'nolar ifodalangan.

Frazeologik birliklarning mazmun plani, albatta, ko'chma ma'noga asoslanadi. Chunki iboralarning birlamchi xususiyati ham ko'chma ma'no ifodalab kelishi bilan izohlanadi. Iboralar sintaksis bo'limida o'rganiladigan so'z birikmalaridan mana shu jihatiga qarab farqlanadi. So'z birikmalari, masalan, qizil gul, behosdan gapirmoq, tomdan tushmoq kabilarda ma'no mustaqilligi saqlanib qolgan bo'ladi.

Frazemaning mazmun planidagi ma'no frazeologik ma'no hisoblanadi. Leksemaning mazmun planida – leksik ma'no tushunchasi birinchi o'rinda tursa, frazemaning mazmun planida frazeologik ma'no asosiy o'rinni egallaydi.

Frazeologik ma'no leksik ma'nodan murakkabroqdir, chunki u frazema tarkibidagi so'zlar bog'lanishidan kelib chiqadi va umumlashgan bo'ladi.

Frazemaning semantik tarkibida frazeologik ma'nodan tashqari, uslubiy bo'yoq ham mavjud bo'ladi. Masalan, to'nini teskari kiymoq frazemasining semantik tarkibida "o'chakishmoq" (frazeologik ma'no) bilan birga "qaysarlik" semasi (uslubiy bo'yoq) ham bor.

To'rt tomoni qibla frazemasida "qayoqqa xohlasa ketaversin" ma'nosi bilan birga salbiy baho (uslubiy bo'yoq) ham ifodalangan.

Chehrasi ochiq frazemasining semantik tarkibida esa "xushtabiat" ma'nosi ijobiy baho (uslubiy bo'yoq) semasi bilan qoplangan.

Demak, yuqorida ko'rib o'tilgan frazemalardan shunisi ma'lum bo'ladiki, salbiy yoki ijobiy baho semalari, odatda, frazemalarning mazmun planida aniq va bo'rtib ko'rinib turadi. Bu jihat frazemalarning nutqiy ta'sirchanligini hamda emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligini ta'minlovchi uslubiy vosita sifatida foydalanish imkonini beradi. Ayniqsa, badiiy asar tilida frazeologik birliklarning roli kattadir. Chunki qahramon xarakteri, nutqiy vaziyat, badiiy asar saviyasining qay darajada ekanligi ham frazemalarning o'rinli qo'llanganligi bilan bog'liq jarayon. Misollar:

Berdisini aytguncha urib o'ldirasanlarmi, baraka topkurlar! – Oqsoqol yana hayqirdi. – Ichkari kirsalaring-chi! [I.O'.HoshimovI.e.o].

Bir umr qulingiz bo'lmasam, kalomullo ursin, ko'zim ochildi, aka! [3.T.Murod O.q.d]

Frazemalarning mazmun planini kuzatsak, ulardan ba'zilarida qonun hujjatlari tiliga ixtisoslashish, terminlashish ham uchraydi. Bunday paytlarda frazema ma'nosida neytrallashish yuz beradi, uslubiy bo'yoq sustlashib, oxiri tushib qoladi. Buni jinoyat-protsessual kodeksida qo'llanadigan aybini bo'yniga qo'ymoq, aybiga iqror bo'lmoq, aybini tan olmoq kabi frazemalarda ko'rish mumkin. Bu frazemalardagi bo'yoqdorlik kamayib rasmiy uslubga singib ketgan.

Frazeologik ma'noda tilning xuddi ikki tomoniga o'xshash jihatlar mavjudligini ko'ramiz. Biz yuqorida ko'rib o'tganimiz frazemalarning ifoda planidagi belgilar mazmun planida takrorlanmaydi, alohidalikni kasb etadi. Sababi frazeologik birliklarning ifoda planida, asosan, ularning sintaktik jihatdan tarkibi va tuzilishi inobatga olinadi. Ya'ni ibora so'z birikmasiga o'xshashmi yoki gap ko'rinishidami? Frazemalarning mazmun planida esa iboralarning leksikologiyaga o'xshash jihatlari tahlil qilinadi. Qolaversa, iboralarning gapda qo'llanilishini kuzatsak ularning nutqiy sharoit, matn mazmuniga qarab frazeologik birlik ekanligini aniqlaymiz. Ya'ni bunda frazemalarning o'ziga xos ikki tomoni ko'zga tashlanadi:

*1.Olimjon ham hayratdan og'zini ochib qolgan, nuqul burnini tortar edi* [2.T.k.u.]  
Og'zini ochmoq – 1)angraymoq; 2)gap boshlamoq.

*2.Olimjon ikkilanib turdi-da, sekin borib, bir qo'li bilan qopining og'zini ochdi* [2.T.k.u.]  
Og'zini ochdi – metafora usulida ma'no ko'chishi.

Misollarning birinchisida frazemaning mazmun plani ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda hayratga tushmoq, angraymoq ma'nolari yaxlit holatda ifodalangan. Ikkinchi misolda esa qopning og'zi birikmasi orqali metafora usulida ko'chma ma'no hosil qilingan. Lekin biz qopning og'zi birikmasini garchand ko'chma ma'no ifodalayotgan bo'lsa-da frazema sifatida qabul qilmaymiz. Chunki bunday birikmalarda ko'chma ma'no mutqadagi vaziyatdagina anglashiladi.

Frazeologik birliklardan yaxlitligicha – butunligicha anglashiladigan ma'no bilan uning tarkibidagi leksemalar anglatadigan ma'nolar orasidagi munosabatlar asosida iboralarning ikki semantik turi farqlanadi:

- 1)fraeologik butunlik;
- 2)frazeologik chatishma.

Ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanadigan, shu leksik ma'nolarning umumiy mahraji sifatida gavdalanadigan frazema frazeologik butunlik deyiladi.

Masalan, “Qora ammam” biznikiga deyarli har kuni keladi. “Shovqin solmanglar, oyingni qulog'iga yoqmaydi”, deb chirqillaydi”. [1.I.e.o.172-bet]. Bilaman, Robiyaning dili og'ridi. Muzaffarni aytmaydizmi? [1.I.e.o.180-bet]. Sog'inchli salom bilan seni jonidan yaxshi ko'radigan Kimsan akang. [1.I.e.o.194-bet]. Faqat Robiyaning har so'zidan zahar tomib, aytgan gapi qulog'imga o'qdek kirdi[1.I.e.o.240-bet].

Frazeologik ma'noda uslubiy bo'yoq semasi ham mavjud bo'lib u frazmadan anglashilgan ijobiy yoki salbiy ma'nolarni ham yuzaga chiqaradi.

Masalan: Oqsoqol kamzul yoqasidan g'ijimlab dast ko'targan edi, cholimning oyog'i yerdan uzilib tipirchilab qoldi. Nafas ololmay ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi. [1.I.e.o.287-bet]. Aslida, ko'zi ola-kula bo'lmoq iborasi olayib qaramoq, qo'rqitmoq ma'nosini ifodalaydi. Matn ichida esa qo'rqmoq, hadiksiramoq ma'nosini ifodalab kelmoqda. Bu yerda qo'rqmoq uslubiy bo'yoq bo'lib kelgan.

*Chehrasi ochiq* frazemasining semantik tarkibida esa «xushtabiat» ma'nosi ijobiy baho (uslubiy bo'yoq) semasi bilan qoplangan. Salbiy yoki ijobiy baho semalari, odatda, frazemalarning mazmun planida bo'rtib turadi, bu omil frazemalardan nutqiy ta'sirchanlikni ta'minlovchi uslubiy vosita sifatida foydalanish imkonini beradi, ayniqsa, badiiy asar tilida bunday birliklarning roli katta. “Ikki eshik orasi” romanida ham xuddi shunday ijobiy yoki salbiy baho semalarini ifodalab kelgan frazeologik birliklarni ko'rishimiz mumkin.

Terisiga somon tiqmoq – juda qattiq jazoladi ma'nosini ifodalab keluvchi frazema. Uning ma'nosida matn ichida jazolash uchun qo'rqitmoq, ogohlantirmoq kabi salbiy baho semasi ham anglashiladi: Agar Jo'ra aytganingni qilmasa, terisiga somon tiqaman [1.I.e.o.195-bet].

Daragi chiqdi, darak berdi – xabari topildi, xabardor qilib qo‘ydi. Bu ibora biror voqeadan xabardor qilmoq, darak bermoq ma‘nosini ifodalaydi. Romanda quyidagi holatda qo‘llangan: Tirik bo‘lsa daragi chiqmasmidi, - dedim ko‘ziga tikilib. – Ko‘rasan, o‘ligi yaqinda Bo‘rijardan chiqadi [T.k.u.301-bet]. Aslida ijobiy uslubiy ma‘no ifodalab keladigan daragi chiqmoq frazemasini matn ichida nutq vaziyatidan kelib chiqib salbiy bo‘yoqdorlik ifodalab kelgan.

Iboralar qahramon ruhiyati, peyzaj tasviri, davr va zamon qiyofasini yoritishda muhim adabiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Iboralardan o‘rinli va mahorat bilan foydalana olish adibning badiiy saviyasini ham belgilab beradi. Jumladan, O‘tkir Hoshimov o‘zining asarlarida bir qancha iboralardan mahorat bilan foydalana olganki, bu holat badiiy asarlarning davr va makon sinovlarini yengib o‘tganligida ham o‘z tasdig‘ini topgan. Sababi adibning har ikkala asari bugun ham o‘z o‘quvchisini, tinglovchisini yo‘qotmagan. Iboralardan uslubiy vosita sifatida ham o‘rinli foydalanilgan. Ulardan ba‘zilarini misollar sifatida ko‘rib o‘tamiz:

1.Voy, kap-katta bolani beshikka belab esimni yedimmi deb mundoq qaragam, beshikka yotgan qizim emas, Shokir akam emish. Esini yemoq iborasi miyasi ishlamay qoldi, fikrlash qobiliyatini yo‘qotdi ma‘nosini beradi. Ushbu gapda esa ahmoqlik qilmaslik, aqli joyidalik ma‘nosida kelmoqda. Bu jarayonda muallif so‘zlovchining o‘ziga qaratilgan nutqdan foydalanmoqda.

2.Bashor opa esankirab qoldi, dami ichiga tushib ketdi. Ammo Fotima kelinning ko‘nglini ko‘targisi keldi shekilli, Zuhra kelinga tegishdi. Ushbu gapda dami ichiga tushib ketdi, ko‘nglini ko‘tarmoq kabi iboralar qo‘llangan. Dami ichiga tushub ketdi iborasi qo‘rquv aralash hech narsa deyolmay qoldi, lol bo‘lib qoldi kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Bu yerda personajlar nutqining ta‘sirchanligini oshirish maqsadida, uning qiyofasini chizish maqsadida muallif frazeologik birliklardan foydalangan. Asarni o‘qish davomida Bashor opa obrazi ko‘nglida kiri yo‘q, to‘g‘ri so‘zdan qolmaydigan, o‘ylaganini gapiradigan, dali-g‘uli ayol sifatida tasvirlangan. Ushbu nutq parchasida ham Bashorning odamlar kayfiyatini ko‘tarish uchun ochiq ko‘ngillik qilishiga ta‘rif berilgan.

3....Buyog‘ini menga tanmi? Uch kunda bir likillab kelaversa dumingni tutqizmay qochib qolarsan. Aravangni tort, so‘tak! Aralashma birovning ishiga. Ra‘no o‘laman deydi-yu, alang-jalang qilib nuqul o‘g‘lini surishtiradi. Ensam qotib tursayam yupatdim.

“Ikki eshik orasi” romanini o‘qigan kitobxon yaxshi biladiki, asar o‘zbek adabiyotidagi boshqa asarlarga ham shaklan, ham mazmunan jihatdan o‘xshamaydi. Sababi asar faqat bir qahramon yoki muallif tilidan hikoya qilinmaydi. Asarda qatnashgan har bir qahramon o‘z kechinmalari, o‘y-xayollari, orzu-niyatlari-yu armonlarini birma-bir hikoya qilib beradi. Shuning uchun ham asardagi biror qahramonni butunlay yomon ko‘rib qololmaysiz. Bu holat asarda muallif emas, qahramonlar asosiy planda ekanligini ko‘rsatib turadi. Qolaversa, tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan tahlil qilganimizda, aynan iboralardan foydalanish o‘sha qahramonning xarakterini ham ochib berishda katta xizmat qilgan. Jumladan ijobiy qahramonlar nutqida yozuvchi ko‘proq ijobiy bo‘yoqdorlikka ega, uslubiy jihatdan xoslangan so‘zlardan, frazeologik birliklardan foydalangan. Salbiy qahramonlar nutqida esa aksincha, muallif salbiy bo‘yoqdorlikka ega ko‘chma ma‘noli so‘zlar hamda frazemalarni qo‘llagan. Masalan, asardagi Umar zakunchi obrazi orqali uning xarakteridagi qusurlar, illatlarni ochib berish uchun, asosan, yolg‘on so‘zlar, yomon gaplar hamda salbiy bo‘yoqdorlikka ega frazemalardan foydalangan. Yuqoridagi parchada keltirilgan, alang-jalang qilmoq, aravangni tort, ensam qotdi, dumingni tutqizmaysan kabi birikmalar salbiy ma‘nolarni ifodalab keladi.

Umuman olganda, frazemalar ham xuddi leksemalar kabi ifoda va mazmun planiga ega. Frazeologik birliklarning ifoda plani ularning so‘z birikmasi yoki gap ko‘rinishida ekanligi



bilan belgilansa, mazmun plani ularning anglatadigan ma'nosi bilan bog'liq holda shakllanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'tkir Hoshimov. Tanlangan asarlar V jild: Ikki eshik orasi: Roman. – T.: Sharq, 2012. – 576 b
2. O'tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. – Toshkent: “Book media nashr” nashriyoti. – Toshkent. 2019. – 320 b.
3. T.Murod . Otamdan qolgan dalalar. Toshkent-2021
4. Abdullayev A.Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati. – T; O'TA. 1996.№5.
5. Abdullayev A.O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi – T.: “Fan” 1983
6. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.T.: “Sharq”.2010.
7. Almamatov T, Yadgarov Q, Sh. Almamatova. O'zbek tili o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Toshkent. 2013 yil
8. Ahmedova H. O'zbek tili o'qitishda zamonaviy texnologiyalar. Toshkent 2011 yil.

## **OQOVA SUV VA UNI TOZALASH TIZIMI TERMINLARI XUSUSIDA**

*Dilobar Muxtorovna XURRAMOVA,*

*Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri Xalqaro innovatsion universitet*

**Annotatsiya.** Oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining mavzuiy guruhlarini aniqlash, ular o'rtasidagi xususiyatlarni o'rganish hamda soha terminlarining umumtil tarkibidagi o'rnini belgilab, yaxlit bir sistema shaklida tahlil qilish masalari yoritilgan.

**Abstract.** The problems of identifying the thematic groups of terms of waste water and its treatment system, studying the characteristics between them, and determining the place of terms in the general structure of the field and analyzing them in the form of a whole system are highlighted.

**Kalit so'zlar:** soha terminlari, terminologik sistema, suv, oqova suv, tozalash tizimi terminlari, leksik sath, maydon, mikroguruh.

**Key words:** field terms, terminological system, water, waste water, treatment system terms, lexical level, area, microgroup.

Tilning jamiyat hayoti bilan bevosita aloqasi, avvalo, uning leksik tizimida o'z ifodasini topadi. Ilm-fan taraqqiyoti, shubhasiz, o'rganilayotgan obyektning ifodalash uchun maxsus so'zlarni paydo bo'lishini taqozo etadi. Texnika, madaniyat, san'at, ijtimoiy-siyosiy hayotning rivoji o'zining maxsus so'zlarini vujudga keltiradi. Bunday holat turli vaqtlarda Yer yuzining har xil qismlarida ro'y beradi va u xilma-xil tillarning moddiy shakliga aylanadi. Binobarin, fanda “maxsus so'zlar”, ya'ni terminlarning roli va ahamiyati tobora oshib bormoqda. Har bir til terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi mazkur tilning so'z yasash qonuniyatlari asosida hamda uning leksikasi bilan mustahkam aloqada kechadi.

Terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan terminlar tizimi sifatida ta'riflanadi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Terminlarning qo'llanishi umumiste'moldagi so'zlardan farqli ravishda ma'lum nazorat ostida bo'ladi.

Bu o'rinda shuni ham qayd etish lozimki, tilning terminologik tizimi birliklari qayd etilgan umumiy xususiyatlarga ega bo'lish bilan birga, sohaviy xoslanganligi bilan ham xarakterlanadi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiy-siyosiy, tabiiy, aniq fanlar va texnik-texnologik sohalarda qo'llanuvchi ko'plab terminlar alohida belgilari bilan ajralib turadi.

Buni oqova suv va uni tozalash tizimi sohasida qo‘llanuvchi terminlar tizimida ham kuzatamiz.

Oqova suv va uni tozalash terminlari tizimida – “*oqova*” mazmuniy maydoniga birlashuvchi terminlar bu maydonning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ular o‘zbek tilining maxsus sohasi – Oqova suv va uni tozalashga oid leksik tizim tarkibiga kirishi bilan xarakterlanadi.

Inson faoliyatining deyarli barchasida turli chiqindilar hosil bo‘ladi. Shu chiqindilar ichida suyuqlari nihoyatda xavfli hisoblanadi va ular oqova suvlar deb nomlanadi.

Oqova suvlar belgilariga ko‘ra quyidagi turkumlarga ajratiladi.

- 1) oqindining tabiatiga ko‘ra oqova suv turlari;
- 2) oqova suvlar hosil bo‘lgan maydoni va ko‘rsatkichlari bo‘yicha turlari;
- 3) oqindilarning oqova suv tarmoqlariga doimiy tushish holatiga ko‘ra;
- 4) ifloslangan oqova suvlar miqdorini kamaytirish yo‘llari.

Shuningdek, suv iste‘molchilarga va foydalanuvchilarga bo‘linadi. Suv iste‘molchilari (sanoatning ko‘pgina tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi va boshq.) suvni sarf qiladi. Suvdan foydalanuvchilar esa amalda suvni sarf qilmaydi, undan ma‘lum maqsadda foydalanadi (suv transporti, gidroelektroenergetika va boshq.). Shuning uchun ekologik tomondan suv iste‘molchilari suvdan foydalanuvchilarga nisbatan anchagina xavfli, lekin suvdan foydalanuvchilar ham suvning ifloslanishiga o‘zlarining xissalarini qo‘shib turadilar (daryo, dengiz transporti).

Oqova suv va uni tozalash tizimini tildagi lisoniy tasviri, lingvistik ideografik va mavzuiy talqinida ham ushbu ob‘yektiv bo‘linishga tayaniladi.

Muayyan soha terminlarini o‘rganish, uning tarraqqiyot qonuniyatlarini belgilash, tilning umumiy terminologik tizimdagi o‘rni va ahamiyatini aniqlash maqsadida keyingi vaqtlarda ularni mavzuiy guruhlar asosida tadqiq qilinishiga e‘tibor qaratilmoqda. Eng avvalo, - deb yozadi A.A.Reformatskiy, - terminologiya muayyan tilning umumiy lug‘aviy tizimi ichidagi aniq ajralib turgan va shu bilan birga, ancha sezilarli va hisoblab chiqilgan kichik tizim sifatida, o‘z navbatida mavzuiy guruhlar bo‘yicha yanada kichikroq tizimlarga bo‘linib ketadi”. [5:122] Albatta, bu mavzuiy guruhlar pala-partish holda emas, balki aniq talablar asosida, qat‘iy taqsimlanish asosida yuzaga keladi. “...terminologiyada shunday xususiyatni qayd etish kerakki, bu yerda so‘zlar shunchaki, ixtiyoriy tartibda emas, balki muayyan fan yoki sohaning tasnifidan kelib chiqib guruhlanadi, bu esa alohida paradigmaticani hosil qiladi...”. [1:121]

Shunisi muhimki, tilning lug‘aviy boyligini yohud uning bir qismini muayyan guruhlariga bo‘lib o‘rganishning o‘ziga xos ahamiyati bor. Bu haqida E.Begmatov shunday yozadi: “So‘zlarni tematik guruhlariga ajratish muayyan xalq tilida qaysi sohalarga oid leksikaning boy yoki kambag‘alligini belgilashda imkon beradi, xalqning ijimoiy-siyosiy hayoti, xo‘jaligi, madaniy turmushi, diniy qarashlariga oid ma‘lumotlar so‘zning tematik guruhlarida ravshan ifodalanadi”. [1:121] O‘zbek tili oqova suv va uni tozalash tizimi terminologiyasi haqida ham xuddi shunday fikr yuritish mumkin. O‘zbek tilining ayrim terminologik sistemalarini o‘rganishga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlar (S.Ibrohimov, A.Qosimov, R.Doniyorov va boshqalarning ishlari)da alohida bir mavzuiy guruhni lug‘aviy-ma‘noviy guruhlariga, ya‘ni mikroguruhlariga ajratishga alohida e‘tibor berilgan. Shu sababli, biz ham o‘z tadqiqot ob‘yektimizni ma‘lum mikroguruhlariga ajratib ko‘rsatishni ma‘qul ko‘rdik. Oqova suv va uni tozalash tizimi sohasidagi barcha terminlar tilning terminologik tizimlaridan birini tashkil qiladi. Bu tizim, o‘z navbatida, muayyan guruhlardan, boshqacha aytganda, mavzuiy guruhchalardan tashkil topadi.

Oqova suv va uni tozalash tizimi terminlari murakkab jarayon hisoblanadi. Eng avvalo, oqova suv mavzuiy tizimida “oqova” leksemasi markaziy o‘rinni egallaydi. Oqova suv mavzuiy tizimi o‘z o‘rnida mikrotizimni hosil qilib, soha terminlari quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

I. Oqova suvlar hosil bo‘lish joylari va chiqindilanish darajasini ifoda etuvchi terminlar.

II. Oqova suvni tozalash jarayonini ifoda etuvchi terminlar.

III. Oqova suv tizimi inshootlari, jihozlari, qurilmalari bilan bog‘liq tushunchalarni ifoda etuvchi terminlar.

IV. Oqova suv tarkibidagi va tozalash jarayonida ishlatiladigan moddalar, yuksak va tuban suvo‘tlari nomini ifoda etuvchi terminlar.

Qayd etilgan har bir mavzuiy guruhning har bir a‘zosi o‘z o‘rnida yana ichki guruhlariga bo‘linadi.

Ma‘lum bo‘ladiki, oqova suv va uni tozalash tizimi terminlari til leksik sathida o‘z o‘rniga ega. To‘g‘ri, qayd etilgan terminlarning aksariyati o‘zbek tili umumiste‘mol leksik tizimida mavjud. Bu ularning muayyan terminologik tizim sirasiga mansub emasligidan dalolat bermaydi. Masalan, *qaytarmoq (qaytarish)* fe‘li umumiste‘mol leksikada boshqa izohga ega, [7:220] ammo soha terminosistemasida “oqova suvni tozalashda ishlatiladigan jarayon nomi” sememasi bilan istifoda etiladi. Ko‘rinadiki, umumiste‘mol leksik sistemadagi lug‘aviy ma‘noning xususiylashgan, toraygan ko‘rinishidagi ushbu semema faqat oqova suv terminosistemasida uchun xos.

Xullas, har bir mavzuiy-mazmuniy guruh va guruhchalar tarkibidagi terminlar xalqning va ilm-fan egalarining kuzatuvchanligi, har bir tushunchaga nom berishdagi o‘ziga xos topqirligi, hassosligining dalolatidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent: 1985, 121-bet.
2. Djalilova A., Xamidov A., Abduqodirov M. Kanalizatsiya va oqova suvlarni tozalash. Toshkent: 2012, 6-bet.
3. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977, 45-bet.
4. Narxodjayeva X. Jarayon anglatuvchi terminlarning o‘zbek tilida tutgan o‘rni. – Toshkent: Fan, 2013, 24-bet.
5. Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка. Проблемы структурной лингвистики. М.: 1968, 121-122.
6. Qosimov N. O‘zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasi masalalari (So‘z o‘zlashtirish va affiksatsiya masalalari). – Toshkent: Fan, 1985, 47-bet.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 4-jild. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2008, 220-bet.

## **ПРОСТРАНСТВО ПОЛЕЙ И СТЕПЕЙ В ЛИРИКЕ**

**М. ЦВЕТАЕВОЙ**

*Диана Риннатовна ШАРАПОВА,*

*Преподаватель кафедры русского языка и литературы*

*Навоийский государственный*

*педагогический институт*

**Аннотация:** В этой статье рассматривается художественное пространство полей и степей в лирике Цветаевой, служащие фоном для ее размышлений о жизни,

открывающие для неё новое пространство и возможности для передачи своих эмоций и мыслей.

**Ключевые слова:** воображение, простор, изображение природы, душевная свобода, самовыражение.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Svetaeva lirikasidagi dalalar va dashtlarning badiiy maydoni ko'rib chiqiladi, bu uning hayot haqidagi fikrlari uchun fon bo'lib xizmat qiladi, unga yangi makon va his-tuyg'ulari va fikrlarini etkazish uchun imkoniyatlar ochadi.

**Kalit so'zlar:** tasavvur, kenglik, tabiat tasviri, ruhiy erkinlik, o'zini namoyon qilish.

**Abstract:** This article examines the artistic space of fields and steppes in Tsvetaeva's lyrics, serving as a background for her reflections on life, opening up a new space and opportunities for her to convey her emotions and thoughts.

**Keywords:** imagination, spaciousness, nature image, spiritual freedom, self-expression.

Лирика Марины Цветаевой пронизана сильными эмоциями и глубокими мыслями. Тема пространства полей и степей являются неотъемлемой частью творчества Цветаевой, отражая ее внутреннее мироощущение и душевные переживания.

Цветаева уже с молодости подмечала красоту и мощь природы, гуляя по бескрайним степным просторам. Впечатления, которые она получала от соприкосновения с природой, она передавала в своих стихах, описывая природу таким живым и ярким языком, что её стихи становились настоящими изображениями природы.

Незасеянное, чистое поле в художественном мире Цветаевой именуется пустым и символизирует дикость и одиночество. Звери и птицы только усиливают это впечатление. В стихотворении 1916 года «Веселись, душа, пей и ешь...» лирическая героиня обращается к себе с призывом того, что пока есть время, надо веселиться и петь. А когда настанет срок умереть, то она просит, чтобы её положили промеж четырёх дорог, на пустом поле, где кроме воронья да волков никого нет. И пусть высоко над её могилой торчит безымянный крест.

В другом стихотворении Цветаевой «Хочу у зеркала, где муть...» входящее в цикл «Подруга», лирическая героиня хочет спросить и выпытать у зеркала, куда ведёт путь и где пристанище её возлюбленного. В туманящем сне она видит мачту корабля и его на палубе... Далее в её видениях он предстаёт в дыме поезда. И здесь пред ней открываются вечерние поля в росе и также как первом стихотворении над полями летают вороны. В последних строках стихотворения лирическая героиня решает порвать со своим возлюбленным, благословляя его на все четыре стороны.

Степи, в свою очередь, обычно вызывают у поэтессы ощущение простора, свободы и дикости. Они служат фоном для ее размышлений о жизни, судьбе, любви и смерти. Степи в стихотворениях Цветаевой могут быть местом встречи и разлуки, символизировать открытость и бесконечность, а также отражать состояние одиночества и утраты.

Степи в стихотворениях Цветаевой часто выступают как символ пространства и свободы. В стихотворении «Песня» поэтесса описывает степь как бесконечное пространство, где можно свободно творить, где нет границ и ограничений. Образ степи позволяет Цветаевой выразить свое желание свободы и независимости.

Степь в лирике Цветаевой сопровождается образами просторности, одиночества и бегства от реальности. С помощью степи поэтесса передает ощущение простора,

свободы и неприкасаемости, которое она испытывает в определенные моменты жизни. В степи она видит «неиссякаемость времен», «вселенскую холодную дорогу». Этот образ привлекает Цветаеву своей бескрайностью, которая раскрывает перед ней неограниченные возможности для размышлений и мечтаний.

Степи, с их бескрайними просторами и бурными небесами, олицетворяют грандиозность и величие природы. Именно здесь, в этих просторах, Марина Цветаева находит вдохновение для своего творчества.

Стихотворение 1918 года «Идет по луговинам лития» состоит всего из шести строк. Но несмотря на это, оно наполнено очень глубоким смыслом. Лирическая героиня переживает за судьбу своей родины, размышляя о том, что Россия таинственная книга бытия, в которой скрыты судьбы всего мира. Но теперь, после произошедших в ней событий, эта книга дочитана и в ней теперь нет места новому, прекрасному и светлому. И по степи «рыщет», то есть торопливо бежит в поисках чего-то, только ветер. Этот подобранный Цветаевой глагол, подразумевает многое, обычно его используют в негативном ключе. Например, волк рыщет глазами в поисках еды, или смерть рыщет по городам и весям, те есть настигает многих. И в последних строках стихотворения, она ещё раз обращается к России, называя её мученицей, говоря о том, чтобы она покоилась с миром. Как будто бы предрекает смерть своей родине и прощается с ней.

Горизонты степей, с их бескрайними просторами, наполняют Цветаеву чувством свободы и бесконечности. Она чувствует, как и она сама, степи свободны и неограничены, но в то же время нежны и красивы. Эти горизонты ведут Цветаеву к романтическим мечтаниям и глубоким переживаниям, воплощенным в ее стихах.

#### **Использованная литература**

1. Цветаева М. И. Стихотворения / М. И. Цветаева. Собрание соч.: в 7 т. – Москва: Эллис Лак, 1994. т. I. – 1994. 640 с.
2. Цветаева М. И. Стихотворения. Переводы. / М. И. Цветаева. Собрание соч.: в 7 т. – Москва: Эллис Лак, 1994. т. 2. – 1994. 592 с.
3. Художественный мир М. Цветаевой: поэтика стихий. Горловка: Издательство ГИИЯ, 2013. 371 с.

## **TA'LIM JARAYONINI TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH**

*Shahnoza Uchqun qizi O'KTAMOVA,*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti stajyor o'qituvchi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada dars jarayonini tizimli yondashuv asosida tashkil etish, o'qituvchilarni ta'lim jarayonini tashkil etishda tizimli yondashuv tushunchasi haqida ma'lumotga ega bo'lishlari haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** tizim, tizimli yondashuv, ta'lim, pedagog, o'qituvchi, fan, dars, aloqadorlik, texnologiya.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается об организации учебного процесса на основе системного подхода, и о том, как учителя должны быть проинформированы о концепции системного подхода к организации учебного процесса.

**Ключевые слова:** система, системный подход, образование, педагог, учитель, наука, урок, общение, технология.

**Annotation:** This article talks about the organization of the lesson process based on a systematic approach, and how teachers should be informed about the concept of a systematic approach to the organization of the educational process.



**Keywords:** system, systematic approach, education, pedagogue, teacher, science, lesson, communication, technology.

O'quv maqsadlariga erishishda qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tom ma'no va mazmunini bilish, uning asosida har bir fan, darsning loyihasini tuzib chiqish uchun har bir pedagog-o'qituvchi tizim nazariyasini to'la egallab olishi zarur. Bizning nazarimizda bu o'rinda «tizim» tushunchasining mohiyatini batafsil yoritib o'tish maqsadga muvofiqdir. «Tizim» deganda, o'zaro funksional bog'liq bo'lgan qismlardan tashkil topib, bir butunlikni tashkil qiluvchi narsa yoki hodisalarga aytiladi. Ob'ektiv borliqdagi barcha narsa va hodisalarga ham tizim deb qarasa bo'ladi. Uyg'unlik nazariyasidan kelib chiqadigan tizimli yondashuv tamoyilining o'ziga xos, ancha murakkab qonun va qoidalari mavjud.

Har qanday tizim ikki yoki undan ortiq qismdan iborat bo'lib, ayni vaqtda o'zi ham, o'zidan yuqori pog'onada turgan tizimga qism bo'lib kiradi. Uning qismlari bir pog'ona pastdagi tizimlar hisoblanib, ular ham bir necha qismlardan iborat bo'ladi. Bu hodisa chekli va cheksiz bo'lishi mumkin.

Tizimni tashkil qiluvchi qismlar deb faqat o'zaro uzviy (funktional) aloqadorlikda bo'lgan qismlarga aytiladi.

Tizimni tashkil qiluvchi qismlarning bir xususiyati o'zgarisa, shu tufayli boshqa qismlarning ham xususiyatlari o'zgarishlarga uchrasa, uni funksional aloqadorlik deyiladi.

Tizim xususiyatlari faqat boshqa tizimlar bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi.

Aloqadorlik deb, tizimni shakllantirish xususiyatiga aytiladi. Yangi aloqadorlik xususiyati funksiya deyiladi. Har qanday tizim asosini aloqadorliklar tashkil qilib, ular o'z asoslariga nisbatan tartibli va tartibsiz, harakatchan va statsionar, qarama-qarshi va ko'p tomonlama, nuqtaviy, chiziqli, tiklanuvchan va tiklanmaydigan, oddiy va murakkab, determinlashgan, markazlashgan va markazlashmagan, bir hamda ko'p pog'onali hamda va hokazo tarzda bo'ladi. Har bir ishda tizimlar nazariyasidan kelib chiqish tizimli yondashuv tamoyili deyiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning an'anaviy dars berish uslublaridan asosiy farqi ham darsni bir-biri bilan funksional aloqadorlikda bo'lgan bir necha qismlardan iborat bir butunlik – tizimlilik deb qarashdir. «Dars» deb ataluvchi, tartib va tezlikka ega, tiklanuvchan, murakkab, markazlashgan bir pog'onali tizimning o'zaro funksional aloqadorlikda bo'lgan qismlari quyidagilardir:

- tizimning markazida turuvchi va boshqa barcha qismlar aloqalarini o'zidan o'tkazuvchi talabalar xohish-istagi;
- darsning mazmunini tashkil qilib, talabalar istagidan tashqari barcha qismlarni o'ziga xizmat qildiruvchi dastur va darslik;
- darsning umumiy metodologik asosini tashkil qiluvchi o'git berish, tarbiyalash – didaktika tamoyillari;
- darsni tushunishni osonlashtiruvchi hamda darsning tez va sifatli o'tishiga xizmat qiluvchi didaktik materiallar;
- darsga zamonaviy tus beruvchi, uning mazmuni va mohiyatini to'laroq ochib berishga yordamlashuvchi o'qitishning texnik vositalari;
- dars o'tuvchi o'qituvchining kasbiy faoliyat tayyorgarligi degan qismlardir.

O'qituvchi kasbiy faoliyatining muhim bosqichi didaktik jarayon (yoki o'quv-bilish tuzilmasi)ni loyihalash hisoblanadi. Aynan shu didaktik jarayon zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosini tashkil qiladi yoxud u belgilangan vaqt ichida ta'lim (tarbiya) maqsadiga erishish uchun o'quv elementi mazmunini talabalarga o'zatish yo'llarini aniqlab

beradi. Shu bilan birgalikda didaktik jarayonning nazariy asoslarini yaxshi bilmasdan turib samarali zamonaviy pedagogik texnologiyani yaratish mumkin emas.

O'qituvchi anglab yetishi kerak bo'lgan holat shundan iboratki, darsda motivlarni talabalarda rivojlantirish asosiy maqsad emas, balki talabaniq bilish faoliyatini tezlashtirish vositalaridan biri sanaladi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi o'quv-bilish faoliyatining tashkiliy shakllarini ham ta'lim mazmuniga mos holda tanlay olishi kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni loyihalash shartlaridan biri «tashkiliy shakllar»ni to'g'ri tashkil etish sanaladi. Ma'lumki, ta'lim tizimida bilish faoliyatiga auditoriyadagi (ma'ruza, seminar, laboratoriya, o'quv maslahati, sinov, imtihon) va auditoriyadan tashqaridagi (uyda, kutubxonada tayyorgarlik, loyihalash, tadqiqotchilik, to'garak) mashg'ulotlar kiradi .

O'qituvchi pedagogik tizimning ishtirokchisi bo'lgan talabaniq ta'lim mazmunini va tarbiya ta'sirini qay darajada egallayotganligini eng maqbul usullar bilan nazorat qilib borishi lozim. Olingan axborotlar pedagogik tizimni maqsadga muvofiq tarzda boshqarish imkoniyatini beradi yoki pedagogik tizimdagi qaysi elementning mazmunini tuzatish kerakligini belgilab beradi. Demak, didaktik loyihalash talabalarni ta'lim jarayonida passiv bog'lanish – bilimlarni tayyor holda o'rganish, bunda xotiraga asoslanish, o'quv materialini verbal izohlashdan ozod etib, faol bog'lanishga yo'naltiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.To'raqulov X. A., Xasanboyev J., Usmonov N. O'., Alqarov I. Sh., To'raqulov O. X.Ilmiiy tadqiqot asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: Fan va texnologiya, 2011
- 2.To'raqulov X.A,Muqimov M.O. Bo'lajak kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni axborotlashtirish. Monografiya.-T : Fan va texnologiya, 2014
- 3.To'raqulov X.A, Himmatov A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf sinf o'qituvchilarini tayyorlashga tizimiy yondashuv// “Kompetensiyaviy yondashuvli ta'lim tizimini tashkil etish usullari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.-Jizzax,2021-yil.-B.34-36
- 4.Internet sahifalari. ziyo.net

### **ФОРМИРОВАНИЕ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

*Ирода Анваровна РАХМАТУЛЛАЕВА,*

*Навоийский государственный педагогический институт*

**Аннотация.** В статье даны методологические рекомендации по совершенствованию содержания литературного образования в формировании межкультурной компетенции учащихся, патриотических, интернациональных чувств, уважения к традициям и духовно-эстетическому наследию разных народов и цивилизаций.

**Ключевые слова:** межкультурная компетенция, иностранный язык и культура страны изучаемого иностранного языка, учебные лингвокультуроведческие материалы.

**Annotatsiya.** Maqolada talabalarning madaniyatlararo kompetentsiyasini, vatanparvarlik, xalqaro tuyg'ularni, turli xalqlar va tsivilizatsiyalarning urf-odatlarini va ma'naviy-estetik merosiga hurmatni shakllantirishda adabiy ta'lim mazmunini takomillashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniyatlararo kompetentsiya, boshqa madaniyatning namoyon bo'lishi, o'quv lingvokulturologik materiallar.

**Abstract.** The article provides methodological recommendations for improving the content of literary education in the formation of intercultural competence of students, patriotic, international feelings, respect for traditions and spiritual and aesthetic heritage of different peoples and civilizations.

**Key words:** intercultural competence, foreign language and culture of the country of the foreign language being studied, educational linguacultural materials.

Межкультурная компетенция человека позволяет воспринимать, понимать и интерпретировать феномены иной культуры и сравнивать, находить общность и различия с ценностным складом родной ментальности и национальными традициями, критически их осмысливать и встраивать в собственную картину мира.

В иноязычном общении важно знать не только языковой код другого языка и правила его использования, но и учитывать нормы социального поведения, национально-культурные традиции и привычки, присущие другому народу. Не знание данных особенностей может привести к нарушению межкультурного взаимодействия и отрицательно отразиться на тональности и результатах общения [1].

Общение, поведение всегда оцениваются с точки зрения принятых в родном социуме культурных норм и ценностей. Современные учебные программы обучения русскому языку должны быть направлены на разрешение этих проблем, т.е. на развитие у учащихся способностей реализовывать и понимать иноязычные коммуникативные конструкции в соответствии с конкретной ситуацией общения, речевой задачей и коммуникативным намерением. Для корректного достижения этой цели необходимо развитие речевого и культурного опыта. Успешность обучения межкультурной коммуникации во многом зависит от материалов, используемых на занятиях (интересные факты о жизни в странах изучаемого языка, познавательный характер текстов, наличие фотографий, картинок, схем, чертежей, комментариев и т.д.).

Межкультурный подход к обучению русскому языку призван способствовать приобщению обучающихся к культуре, традициям, обычаям страны изучаемого языка, что, в свою очередь, позволит им адекватно общаться с носителями языка. Иными словами, обучая русскому языку как средству общения, следует не только развивать иноязычные коммуникативные способности, но и знакомить обучающихся с социокультурной картиной мира изучаемого языка.

Диалог культур для учащихся является одним из наиболее эффективных подходов к изучению восприятию и пониманию произведений родной и русской литературы. Совершенно прав В.М.Жирмунский, когда пишет, что «ни одна великая национальная литература не развивалась вне живого и творческого взаимодействия с литературами других народов, и те, кто думает возвысить свою родную литературу, утверждая, будто она выросла исключительно на местной национальной почве, тем самым обрекают ее даже не на «блестящую изоляцию», а на провинциальную узость...» [2].

Полноценное вживание в определенный тип культуры, участие в диалоге на уроке литературы возможны при условии понимания школьниками разных типов культуры, которые определяются национальным образом мира, географической средой, национальным складом психики, мышления, что создаёт положительную основу для развития интернациональных и патриотических чувств, толерантности, помогает школьникам лучше узнавать национально-культурные и социально-исторические достижения других народов и глубже осознать самобытность собственной культуры.

Особое место в проблеме диалога культур занимает диалог Востока и Запада. Сопоставление западноевропейской и восточной литератур позволяет решить задачу взаимопроникновения двух культур, переключения учащихся в другую культуру без отчуждения от родной. Литература как учебная дисциплина обладает уникальными возможностями для реализации этих целей. На этой основе предполагается дальнейшее совершенствование содержания, методов и приёмов литературного образования. В процесс обучения русскому языку и литературе развитие межкультурной компетенции учащихся будет значительно более успешным если: теоретически обосновать и реализовать в учебной практике взаимосвязь и взаимообогащение русских и восточных национальных культур, раскрывая значение культуры и литературы Востока в цивилизации XX века; формировать познавательные интересы учащихся, поддерживать их устойчивое внимание к диалектике взаимосвязей явлений культуры. Сопоставление русской и восточной литератур позволяет решить задачу взаимопроникновения двух культур, переключения учащихся в другую культуру без отчуждения от родной. Литература как учебная дисциплина обладает уникальными возможностями для реализации этих целей. На этой основе предполагается дальнейшее совершенствование содержания, методов и приёмов литературного образования. Почти все великие русские поэты и писатели, писавшие о Востоке и Исламе, были люди глубоко верующие, православные христиане. Но они с интересом, вниманием, доброжелательством воспринимали восточную культуру и литературу, уважительно относились к национальному достоинству восточных народов и их культуре, с которой необходимо считаться и внимательно изучать.

Выдающиеся представители разных народов, татары Габдула Тукай, башкир Мустай Карим, казах Абай Кунабаев, таджик Мирзо Турсун-заде, аварец Расул Гамзатов, узбек Гафур Гулям, киргиз Чингиз Айтматов оценивали вклад русской литературы, влияние Пушкина, Гоголя, Достоевского, Толстого, Чехова, Шолохова на их литературы как непреходящее явление.

В урочной и во внеурочной деятельности происходит знакомство учащихся с народными промыслами, ремеслами родного края, традициями и обычаями своего народа. В практике необходимо использовать методы и приемы знакомства с культурой различных народов: беседы, внеклассные мероприятия, народные праздники (зимний, весенний, летний и осенний периоды), посиделки с обычаями и обрядами, организация выставок декоративно-прикладного творчества учащихся, конкурсы рисунков по народным промыслам, встречи с местными умельцами, экскурсии в краеведческий музей, при этом широко используются современные компьютерные технологии.

Модель формирования межкультурной компетенции студентов включает в себя такие компоненты, как: цель, принципы формирования межкультурной компетенции, критерии отбора содержания, содержание формирования межкультурной компетенции студентов, которое оформлено в дидактических блоках и выражается в специально отобранном лингвокультуроведчески-ориентированном аутентичном учебном материале, алгоритм работы над учебными лингвокультуроведческими материалами и задания на сопоставление фактов бикультурного пространства и результат как сформированность и развитие всех компонентов межкультурной компетенции.

Таким образом, для реализации диалога культур в высшем образовании с целью формирования конкурентоспособной личности в современном мире необходимой является развитая межкультурная компетенция студентов.

### **Список литературы**

1. Галинская И.Л. Мультикультурализм и межкультурная коммуникация // Культурология. 2005.
2. Жирмунский В. М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. / Избр.тр. – Л.: Наука, 1979.
3. Usmanova Sh. “Lingvokulturologiya” fanidan ma’ruzalar kursi. -Toshkent, 2014
4. Usmanova Sh. O‘zbekcha va koreyscha so‘zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol. 9. – Seoul, 2004.
5. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация: Учебное пособие / С. Г. Тер-Минасова. – М.: Слово / Slovo, 2008.

## **BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARINI TASHKIL QILISHNING NAZARIY ASOSLARI**

*Dilfuza Xolmamatovna XOLMUMINOVA,  
stajyor-o‘qituvchi  
Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarini tashkil qilishning nazariy asoslarining ta’limni takomillashtirishdagi roli va ahamiyati, yana qanday jihatlarga e’tibor qaratish lozimligi xususida fikr yuritiladi.

**Аннотация:** в этой статье рассматриваются роль и значение теоретических основ формирования первоклассных языковых дисциплин в совершенствовании образования, а также те аспекты, на которые следует обратить внимание.

**Annotation:** is This article discusses the role and importance of the theoretical foundations of the formation of a first-class language curriculum in improving education, and what other aspects should be considered.

**Kalit so‘zlar:** ona tili, o‘qish va nutq o‘stirish fonetika, leksikologiya, so‘z tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, nutq uslublari, uslubiyatga oid tushunchalar. o‘yin-topshiriqlar

**Ключевые слова:** родной язык, чтение и воспроизведение речи, фонетика, лексикология, словосочетание, словосочетание, морфология, синтаксис, письмо и грамматика, стили речи, методика восприятия.

**Key words:** mother tongue, phonetics, lexicology, word structure, word formation, morphology, syntax, spelling and pronunciation, speech styles, methodology and understanding of speech.

Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida<sup>1</sup>gi<sup>1</sup> Farmonning uchinchi yo‘nalishida o‘quv standartlari, o‘quv dastur va darsliklarini takomillashtirish bo‘yicha DTS, dastur, darsliklarning takomillashtirilgan variantlari tayyorlandi hamda shular asosida ish olib borilmoqda. Chunonchi, ona tili ta’limining takomillashtirilgan standarti tayyorlandi. Unga ko‘ra:

a) grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlar;

---

<sup>1</sup> [Sh.M.Mirziyoyev-Tanqidiy tahlil qatiy tartib-intizom va shaxsiy vobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bolishi kerak 2018](#)



—fonetika, leksikologiya, soʻz tarkibi, soʻz yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, nutq uslublari, uslubiyatga oid tushunchalar.

b) nutq oʻstirish:

— birinchi yoʻnalish — oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish;

— ikkinchi yoʻnalish — oʻzbek adabiy tili meʼyorlarini oʻrgatish, adabiy talaffuz meʼyorlari, shuningdek, lugʻaviy sinonimika, qoʻshimchalar sinonimikasi, umuman, grammatik sinonimika bilan tanishtirish;

— uchinchi yoʻnalish — oʻquvchilarda fikrni ogʻzaki va yozma bogʻlanishli bayon qilish malaka hamda koʻnikmalarini hosil qilish shart qilib belgilangan.

Ana shundan kelib chiqib, ona tili taʼlimining bosh maqsadi: ona tili mashgʻulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda ogʻzaki va yozma shakllarda toʻgʻri, ravon ifodalash koʻnikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilmogʻi lozim. Bu murakkab, ayni paytda, masʼuliyatli vazifani bajarishda ona tili darsliklarining ahamiyati katta.

Oʻrta maktab oʻzbek tili darsliklarida oʻquvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan oʻquv topshiriqlari berilgan. Bu topshiriqlar turli usullar bilan oʻqituvchi hamkorligida oʻquvchilar tomonidan mustaqil bajarishi kerak. Ularni bajarishda ijobiy natija beradigan topshiriqlarning asosiy turlaridan biri grammatik oʻyin-topshiriqlardir. Topshiriqning bu turi oʻquvchilardan bilimdonlikni, izlanishni, topqirlikni va tezkorlikni talab qiladi. Oʻyin-topshiriqlar ona tili darslarining qiziqarli oʻtishini taʼminlaydi. “Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi”da grammatik oʻyin-topshiriqlar va ulardan foydalanish metodikasi yetarli ishlanmagan. Oʻyin-topshiriqlarning oʻziga xos xususiyatlari shundaki, u koʻpincha musobaqa tarzida tashkil etiladi. Natija yakunlanib, oʻquvchi va guruhlariga ochko (yoki ball)lar beriladi. Bu, shubhasiz, topshiriqni bajarishga ishtiyoqni oshiradi. Natijada, oʻquvchilarning grammatik savodxonligi, ijodiy fikrlash qobiliyati, topqirligi, nutqi va shu fanga muhabbati ancha ortadi. Shu bilan birga, qoʻshimcha adabiyotlardan foydalanish, boshqa fanlar bilan ham jiddiy shugʻullanish ehtiyojini tugʻdiradi. Shunday ekan, oʻqituvchi darslarining samarali boʻlishi uchun turli oʻyin-topshiriqlardan va boshqotirmalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Bu esa fan oʻqituvchisidan mahorat, ijodkorlik, eng asosiysi, tinimsiz mehnat talab qiladi. Bugungi davr talabi ham ana shudir.

Shularni hisobga olgan holda ona tili darslarini oʻtishda ishlatish mumkin boʻlgan ayrim grammatik oʻyinlar, boshqotirmalar va ulardan foydalanish metodlarini tavsiya qilamiz. Bunday grammatik oʻyinlarni yanada koʻplab oʻylab topish va dars jarayonida qoʻllash mumkin. Bu esa, yuqorida taʼkidlanganidek, oʻqituvchining ijodkorligiga, izlanuvchanligiga, mahorati va tinimsiz qiladigan mehnatiga bogʻliq.

Maʼlumki, oʻyin-topshiriqlar oʻquvchilarning malaka va koʻnikmalariga koʻra, murakkablik darajasiga koʻra guruhlanib, soddadan murakkablik dinamikasiga qarab boradi.

Ona tili taʼlimi jarayonida topshiriqlar tizimi vositasida til hodisalari kuzatiladi, solishtirib qiyoslanadi, oʻxshash va farqli tomonlari aniqlanadi, umumiy va xususiy tomonlariga qarab guruhlanadi, umumlashma qoidalar hosil qilinadi. Natijada qayta xotirlash topshiriqlaridan ijodiy topshiriqlarga qarab dinamik oʻsish yuzaga kela boradi. Bunday topshiriqlar oʻquvchi tafakkuri taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi.

Oʻquv topshiriqlarining soddadan murakkabga tomon oʻsish dinamikasini aniqlash, belgilash murakkab jarayon. Topshiriqlar shunday yoʻsinda joylashtirilishi zarurki, oʻquvchi tafakkuri taraqqiyotiga ijobiy taʼsir qilsin. Ijodiy topshiriqlar, yaʼni oʻquvchi tafakkurini oʻstiruvchi topshiriqlar oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlishi zarur:

— oʻquvchini izlashga, fikr qilishga, nomaʼlumni topishga undasin;

— o‘quvchini mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirishi zarur;  
— masalaning murakkablasha borishi o‘quvchi aqli, farosatini o‘stira borishi kerak;  
— bu jarayonning kechishi o‘quvchilarda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini hosil qila borishi lozim;

— topshiriqlarni bajarish jarayoni o‘quvchida o‘ziga ishonch, o‘zini (bilimini) anglash, imkoniyatlarini aniqlay olish, yangi bilim olishga undashi shart.<sup>1</sup>

Yangilangan ta‘lim mazmuni asosida yaratilgan darsliklarda tilshunoslikning hamma bo‘limlariga mo‘ljallangan mashg‘ulotlarda darslar ta‘rif, qoida bilan boshlanmasdan, ya‘ni o‘quvchilarga bilimlar tayyor holda berilmasdan har bir mavzu uchun mo‘ljallangan topshiriqlar tahlili bilan boshlanadi. Mana shu o‘rinda o‘qituvchi mahorati, qobiliyati, uquvi namoyon bo‘ladi. Ana shu jarayonda bir faoliyat usulidan bosqichma-bosqich ikkinchi faoliyat usuliga o‘tishi, ya‘ni kuzatishdan umumiy xususiyatlari asosida guruhlashga, takrorlashdan o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash asosida umumlashmalar shakllanadi. Shundagina berilgan topshiriqlar til hodisalarining mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Ma‘lumki, ona tili fanida mavhum tushunchalar, ta‘rif va qoidalar juda ko‘p. O‘quvchi har bir til hodisasini mustaqil o‘rganmasa, bu hodisalar ustida mustaqil ijodiy ish bajarmasa, fikrlash, kuzatish, qiyoslash, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat bilan shug‘ullanmasa, til hodisalarining mohiyatini anglay olmaydi va ularni puxta o‘zlashtira olmaydi.

Bu aytganlarni bajarish, asosan, amaliy-ijodiy faoliyat bilan bog‘liq. Ayni paytda o‘quvchi charchamasligi, zerikmasligi, qiziqish bilan faoliyatga kirishishi kerak. Bu jarayonga o‘yin (grammatik o‘yin) yo‘li bilan kirishish o‘quvchilar tabiatiga juda mos keladi. Chunki o‘yin o‘quvchining eng sevimli mashg‘uloti, faoliyatida asosiy o‘rinni egallaydi. Ana shu imkoniyatni foydali tomonga, maqsad sari yo‘naltirish zarur.

Grammatik o‘yinlarni ona tili mashg‘ulotlarining hamma turlarida o‘tkazish mumkin. Bu o‘rinda morfologiya mashg‘ulotlarida qo‘llash mumkin bo‘lgan grammatik o‘yinlardan namunalar keltiramiz.

Fe‘l turkumi yuzasidan ham qiziqarli o‘yin – topshiriqlar uyushtirish mumkin. Chunonchi **“Yo‘qolganni top”** o‘yini.

Bunda shaxs yoki ma‘lum bir hayvonning ish-harakatini ifodalovchi so‘zlarni topib qo‘yish, muayyan so‘roqqa javob bo‘ladigan so‘zlar uyasini tuzish kabilar. Masalan, bir qatordagi o‘quvchilar **“Qo‘y nima qiladi?”**, **“It nima qiladi?”** kabi savollarni bersa, ikkinchi qatordagi o‘quvchilar nomlari aytilgan hayvonlarning ish-harakatini bajarishini sanaydilar.

I – qator: It nima qiladi?

II – qator: It huradi, qo‘riqlaydi, uxlaydi, sakraydi, o‘ynaydi, tishlaydi, chopadi, yuguradi, talashadi.

II – qator: Qo‘y nima qiladi?

I – qator: Qo‘y ma‘raydi, o‘tlaydi, kovush qaytaradi, yuradi, yuguradi, boqiladi, yotadi, sakraydi, qo‘zilaydi, jun beradi, sut beradi, semiradi.

Ma‘lumki, tafakkur mahsuli va fikr bayon qilish nutq orqali amalga oshiriladi. O‘quvchi tafakkuri qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning fikr ifodalash mahorati shunchalik yuqori bo‘ladi. Shuning uchun ham maktabda ona tili mashg‘ulotlari uchun ajratilgan vaqtning ko‘pchilik qismi bolalarda mustaqil va ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan. Bu qo‘yilgan talab o‘quvchilar tomonidan bajarilsa, ona tili mashg‘ulotlari

---

<sup>1</sup> Tuzuvchilar B.Mingliyev, O.Xoliyorov, H.Qodirova. “Ona tili” qomus Toshkent yangi asr avlod. 2010-yil.

samarali bo‘ladi. Buning uchun o‘quvchilar bilan ko‘proq ijodiy fikrlash mashg‘ulotlari olib borish maqsadga muvofiqdir. Masalan, quyi sinf o‘quvchilari bilan **“Diqqat !”** o‘yinini o‘tkazish mumkin. Bu o‘yin qisqa muddatga mo‘ljallangan bo‘lib, uni quyidagicha tashkil qilish mumkin. O‘yinda o‘quvchilarga **“Diqqat!”** deyiladi. Shunda o‘quvchilar qo‘llarini stol yoki partaning ustiga qo‘yib, ko‘zlarini yumishadi, Tashqaridan eshitilayotgan tovushlarga va sinfdagi harakatlarga xayolan diqqatini qaratadilar. Har bir o‘quvchi ko‘zlari yumuq payt sezganlarini hikoya qilib beradi. Masalan, **“ Bahor. Bahorgi ko‘katlar, mevali daraxtlar gullarining hidi derazadan kelib turibdi. Ko‘chada harakat qilayotgan mashinalarning gurullagan shovqini eshitilayapti. Yo‘lakda yurayotgan kishilarning qadam sharpalari eshitilmoqda. Maktab hovlisi devori orqa tarafida kuchuk huryapti. ”** Eng mukammal va ravon hikoya qilgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

Bu o‘yinda o‘quvchining eshitish qobiliyati va eshitganlaridan ajratib aytib berish mahorati hamda so‘z boyligi aniqlanadi. Yordamchi mehnat ta‘limi maktabida ona tili dasturida «Grammatika, imlo va nutq o‘stirish» bo‘limi o‘z ichiga to‘rtta kata mavzularni qamrab olgan: «Tovush va xarflar», «So‘z», «Gap», «Bog‘lanishli nutq». Shu qismlarda o‘rganiladigan mavzular bilan bog‘langan holda xusnixatga doir ayrim ma‘lumotlar va imlosi qiyin so‘zlar ro‘yxati beriladi.

Yordamchi mehnat ta‘limi maktabining «Ona tili, o‘qish va nutq o‘stirish» dasturi tahlili shuni ko‘rsatdiki boshlang‘ich sinf yozuv darslarida grammatika va orfografiyadan beriladigan bilimlar elementar-amaliy xarakterda bo‘lishiga qaramay, ushbu bilimlar yuqori sinfdagi o‘zbek tili grammatikasi va imlodan nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga puxta zamin xozirlaydi. Shunday qilib, yordamchi mehnat ta‘limi maktabida grammatika va imlo darslari ikki bosqich bo‘yicha o‘tilishi maqsadga muvofiqdir. Birinchi bosqichda 1-4 sinflarda amaliy bilimlar deyarli berilmaydi. Amaliy mashqlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari keyinchalik yuqori sinflarda grammatika va imlodan nazariy bilim olish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirib oladilar, ularning nutqi va tafakkuridagi, bilish faoliyatidagi nuqsonlari kamaytiriladi, korreksiyalanadi. Ikkinchi bosqichda o‘quvchilarga Grammatika va imlodan mustaqil hayot kechirishda zarur bo‘lgan hajmdagi nazariy bilim va ular asosida orfografik ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma bog‘langan nutqi rivojlantiriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Sh.M.Mirziyoyev-Tanqidiy tahlil qat’iy tartib-intizom va shaxsiy vobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bolishi kerak 2018
2. Sh.M.Mirziyoyev-Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi 2019
3. Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik 2021
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori//. Toshkent “Sharq” 20-29-betlar.
5. Umumiy o‘rta ta‘limning “Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi”. Toshkent “Sharq” 1999-yil, 1-maxsus sahifasi.
6. Takomillashtirilgan yangi tahrirdagi umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standarti. Toshkent 2010-yil.
7. Abdulahatova R, Yusupova T, Do‘sonov Q. “Til ta‘limida uzviylik va uzluksizlik”. Toshkent 2008-yil.
8. Abdurahmonov X., Rafoyev A., Shodmonoqulova D. “O‘zbek tilining amaliy grammatikasi”. Toshkent, “O‘qituvchi” 1992-yil.
9. Azimov I., Saparniyozova M. “Ona tildan ma‘ruzalar va testlar majmuasi”. Toshkent, 2008-yil.

10. Azizov O. "Tilshunoslikka kirish" Toshkent, 1996-yil.
11. Azimova X. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, 2012-yil.
12. Hamrayev M. "O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi". Toshkent, 2010-yil.
13. Mahmudov M, Nurmonov A. "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" Toshkent 1995-yil.
14. Mahmudov N. Tilimizning tillo sandig'i. Toshkent, 2012-yil.

## **O'ZBEK TILI (TA'LIM BOSHQA TILLARDA) FANI DARSLARIDA ROLLI O'YINLAR VA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI**

*Dilorom Ikramovna XAKIMOVA,*

*Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi o'zbek tili fani metodisti*

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda) darslarida o'quvchilarni faollashtiruvchi metodlar, ularni tashkil qilish yo'llari, interaktiv doskadan foydalanishning dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati to'g'risidagi masalalar o'z aksini topgan.

**Аннотация:** В статье отражены вопросы методов активизации учащихся на уроках узбекского языка (обучение на других языках), способы их организации, а также значение использования интерактивной доски в повышении эффективности урока.

**Annotation:** The article reflects the issues of methods for activating students in Uzbek language lessons (teaching in other languages), methods of organizing them, as well as the importance of using an interactive whiteboard in increasing the effectiveness of the lesson

**Tayanch tushunchalar:** o'zbek tilini o'rganish, rolli o'yinlar, hamkorlik, multimediyaya vositalaridan foydalanishning afzalligi, o'qituvchi va tahsil oluvchining faoliyati, faollashtirish jarayoni, ijodkorlik.

**Ключевые понятия:** изучение узбекского языка, ролевые игры, совместная работа, преимущества использования мультимедийных средств, деятельность учителя и учащихся, процесс активизации, креативность.

**Key Concepts:** learning the Uzbek language, role-playing games, teamwork, advantages of using multimedia, teacher and student activities, activation process, creativity.

Til-millat ruhi sanaladi. O'zbek tiliga e'tibor, uni o'rganishga bo'lgan qiziqish yildan yilga ortib bormoqda. Bu borada respublikamizda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, umumta'lim maktablarida o'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda) fanining o'qitilishi bo'yicha ham yangiliklar talaygina. Ta'lim-tarbiya sohasidagi samarali islohotlar ta'lim mazmunini yaxshilashga pedagogik vositalarni qo'llash, innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilishga keng yo'l ochmoqda.

Hozirgi davrda o'zbek tili fanini takomillashtirib o'qitish-davr talabi. Bu jarayonda zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga faol tatbiq etish hisobiga ta'lim jarayonining rag'bati (motivatsiyasi) kuchaytirilishi mumkin. O'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya o'qituvchilarning o'quvchilarga muloqot asosida ta'sir etish yo'llarini ham o'z ichiga oladi. [3] O'zbek tilini o'rganishda o'qituvchi va o'quvchi muloqoti biryoqlama va hamkorlikda bo'lishi mumkin. Biryoqlamalikda o'qituvchi so'raydi, o'quvchi javob beradi. Hamkorlikda guruh va jamoa bo'lib har bir o'quvchi mustaqil va faol ishtirokchiga aylanadi. Bunda barcha o'quvchilar o'zaro

muloqotga kirishadi hamqa o'zlarining qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'quv hamkorligini ta'minlash muammosi so'nggi yillarda mutaxassislarining e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Hamkorlik-birgalikda faoliyat, o'zaro munosabatga kirishuvchi sub'yektlarning faolligini namoyon qiluvchi pedagogik jarayon sifatida o'ziga xos xususiyatga ega.[1]

Hamkorlikda ishlash axborot almashish, bir maqsad sari intilish, qoidalar asosida diskussiya qilish imkoniyatini beradi. Hamkorlikda ishlash o'quv materialini o'zlashtirishda juda muhim bo'lib, bunda o'quvchilarning har biri o'zining individual hissasini qo'shadi, bilim almashish, turli loyihalar taklif etish, yangi g'oya berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada do'stona muhit, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash kabi ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi.

O'qitishning shunday usullarini tanlash kerakki, o'quvchilarning faolligi oshishi, dars sifatining natijadorligi rivojlanishi kerak. Bu uchun zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan unumli foydalanish zarur. Bular: turli o'yinli mashg'ulotlar, internet-texnologiya va multimedia vositalaridir.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, interfaol usullar orqali o'qitish o'quvchilarda kuchli motivatsiyani, mustahkam bilimni, ulardagi ijodkorlik va tasavvurni, kommunikativlik, yani o'zaro muloqot ko'nikmasini, hayotiy ko'nikmalarni, jamoaviy ko'tarinki ruhni, erkin mustaqil yashab keta olishni, o'z ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

O'zbek tili fani o'qituvchisining oldidagi eng asosiy masala shundaki, u o'quvchilarni hamkorlikda ishlash jarayonida o'zbek tilini anglagan holda, bilimlariga tayangan holda egallashishiga ko'maklashi lozim.

Rolli o'yinlar-produktiv o'qitishning samarali usullaridan biridir. O'yin texnologiyalari ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarda faollikni yuzaga keltirish, bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, vaqtni qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi. [2]

Rolli o'yinlarning muhim bosqichlarining ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi:

- biror kommunikativ vaziyat ko'riladi va muhokamasi o'tkaziladi;
- muammoli vaziyatlarga yechim topiladi, rollar aniqlanadi;
- o'yinning qoidasi, ketma-ketligi ko'rib chiqiladi;
- rollar bo'lib beriladi, o'yinning ssensriysi aniqlanadi;
- jihozlar, emblemalar, plakatlar tayyorlanadi;
- har bir o'quvchining alohida tayyorgarligi boshlanadi;
- rolli o'yinni o'tkaziladi;
- yakuniy xulosa chiqariladi, muhokama qilinadi.

Metoddan kutiladigan natija (xulosa qismi juda muhim) juda samarali, ya'ni jarayonni tayyorlash va o'tkazishda ishtirokchilarining har birining qo'shgan hissasi, o'quvchilarning o'z-o'zini baholashi, didaktik materialni o'zlashtirish sifati, ijroda o'zbekcha talaffuz me'yorlariga amal qilishi, hayotiyliigi va ifodaliligi, o'ziga ishonchi, ijodkorligi, xotirasi, diqqati, fikrlashi, o'zaro munosabati, suhbatlashish ehtiyoji, kasbiy, ijodiy fikrlashi rivojlanadi, o'rganilgan bilim va ko'nikmalar mustahkamlanadi.

Rolli o'yinning maqsadi shuki, unda har bir ishtirokchi o'ziga xos tarzda rol uchun tayyorgarlik ko'radi. Rolli o'yinlarning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

rolli vaziyat yagona syujetga egaligi, boshqa ishtirokchilar bilan muloqotga kirishishi holati bilan ajralib turadi;

ishtirokchilar rol ijro etayotganda ular yo o'zini, yo vaziyat bo'yicha biror timsolni ijro etadilar. Shuning uchun rolli o'yinlar o'kazilayotganda tomoshabin bo'lmaydi va



ishtirokchilar erkin o‘zlarini namoyon etadilar;

fanga doir kompetensiyalar, ya’ni izlanuvchanlik, kommunikativlik, tashkiliy-boshqaruvchilik, hamkorlikda ishlash bilim va ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Bu shakldagi mashg‘ulot “Dorixonada”, “Shifokor huzurida” kabi mavzularda o‘tkazilishi mumkin.

### **O‘yin nomi: “Quyosh urishida birinchi yordam ko‘rsatish”**

Bu o‘yin suhbat o‘tkazish ko‘nikmasini shakllantiradi. Uni o‘tkazishda o‘quvchilar bir-birlarini ko‘rib turishlari va o‘yin ishtirokchilarining so‘zlarini diqqat bilan kuzatadilar. Guruh ikkiga bo‘linadi: biri yordam beruvchilar, biri esa birinchi yordam ko‘rsatilishi zarur bo‘lganlar.

Har bir guruhga dualog tuzishda foydalanishi mumkin bo‘lgan, faol so‘zlar yozilgan kartochkalar beriladi. Interaktiv doskada videorolik(yoki rasmlar jamlamasi) beriladi, shu asosida o‘quvchilar rolikning bosh qahramonlariga ovoz berishlari zarur bo‘ladi.

O‘qituvchi shunchaki yo‘lovchi sifatida o‘yinni savol bilan boshlaydi. “Uning ko‘rinishi bugun yaxshimas” deb suhbatni boshlashi mumkin. O‘quvchilardan biri bu savolga javob beradi. Keyingi o‘quvchi kartochkasidagi so‘zdan foydalanib suhbatni davom ettiradi.

#### Lug‘at:

1. quyosh urishi – солнечный удар;
2. Sovitish, salqinlatish – охлаждать, (здесь) прохладный;
3. soyali – тенистое;
4. qo‘llab - qvvatlash – поддерживать;
5. qon aylanishi – кровообращение

O‘yin paytida o‘qituvchi o‘ziga yo boshlovchilik, yo ikkinchi darajali rollardan birini tanlaydi. Sababi shuki, o‘yin jarayonida qatnasha oladi, suhbatga passiv-nofaol o‘quvchilarni jalb qiladi, kerakli o‘rinda o‘yinning borishini yo‘naltirib boradi.

Rolli o‘yinlar o‘quvchilarning o‘qish faoliyatining samaradorligini oshiradi, ularning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, bolalarning jarayonga psixologik tayyorgarligini hosil qiladi. Shu tariqa o‘quvchilarning lug‘atdan unumli foydalanishi, o‘rganilgan grammatik mavzularni izchilligi ta‘minlanadi. So‘nggi bosqichda o‘quvchilarga test berish ham mumkin. Natijalar jamlangach, butun guruhga baho qo‘yiladi yoki eng yaxshi guruh nomi aniqlanadi.

O‘zbek tilini o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanish hozirda juda dolzarb. Bu usul o‘qitishdagi o‘ziga xos yondashishga yordam beradi hamda o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlarini ta‘minlaydi. Keyingi yillarda interaktiv doskalardan keng foydalanilmoqda. Oldindan tayyorlangan tekstlar, jadvallar, qo‘shiq, kuy, videofragmentlar darsni dinamikasini ko‘tarishda, materiallarni mazmunli effektli berishda, ijodiy faollikni oshirishda, eng muhimi, til o‘rganishda ijobiy natija beradi.

Interaktiv doskaning afzalligi shundaki, u orqali berilgan materialni faol izohlash mumkin, elektron marker bilan rangni o‘zgartirish, qalinlatish, belgilash imkoniyati bor, natijalarni alohida faylda saqlash imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, bir vaqtning o‘zida ham tekst, ham grafik-tasvir, ham video va audiomatn bilan ishlash imkoniyati bo‘ladi, vaqtdan unumli foydalanish mumkin. Avvaldan tayyorlanib qo‘yilgan matnlar (“Sinfda”, “Kutubxonada”, “Bog‘da”) samarali dars o‘tish yoki darsni faollashtirish uchun, o‘tilganlarni takrorlash, nutqni o‘tirish uchun juda qulay. Bunday matnlar o‘zbek tilda mukammal gapira olish, so‘zlarni qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interaktiv materiallarni tayyorlashda quyidagi saytlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1. **ta'lim.uz** platformasi orqali milliy ta'lim dasturiga to'liq mos keluvchi o'zbek tilidagi virtual laboratoriyalar, onlayn mashg'ulot va mashqlar, test topshiriqlari, video, audio va multimedia ko'rinishidagi 100 000 dan ortiq o'quv manbalari hamda umumiy o'rta ta'limning amaldagi o'quv dasturi asosida matematika, tarbiya, ingliz tili fanlari (boshlang'ich sinflar uchun), ona tili, kimyo, biologiya, fizika, astronomiya, matematika, algebra, geometriya, adabiyot fanlaridan (yuqori sinflar uchun) interfaol darslar;

2. **twig-talim.uz** platformasi orqali qo'shimcha ta'lim olishlari uchun rus va ingliz tillarida o'quvchi yoshiga mos har xil videofilmlar, olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va mavjud ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan video kontentlar hamda kimyo, geografiya, matematika, fizika fanlaridan maktab dasturi asosida yaratilgan har xil filmlar, interfaol vazifalar va multimedia materiallari taqdim qilingan.

Interaktiv doskani ishlatish tajribasi yakka tartibda, hamkorlikda ishlash, kommunikativ faolligini oshirish, didaktik materiallardan, ko'rgazmalardan foydalanish bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. O'qitish jarayonida interaktiv metodlardan, internet resursdan foydalanish orqali loyiha ishi, bahs-munozara, musobaqalar o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

Interaktiv metodlar va usullar o'quvchilarning kommunikativ bilim va ko'nikmasini rivojlantiradi. O'quvchilarning bir-birlari bilan emotsional muloqoti ta'minlanadi, guruh bo'lib ishlash ko'nikmasi shakllantiriladi, o'rtoqlarining fikrini tinglashni o'rganadi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida do'stona munosabatni vujudga keltiradi, asab tarangligining oldini oladi, faoliyat shakllarini o'zgartirish imkoniyatini beradi, mavzu bo'yicha savollarga diqqatini jamlaydi, mavzuni o'zlashtirish samaradorligi oshadi, o'zbek tilini o'rganishga ishtiyoqi ortadi.

O'zbek tilini o'qitishda o'quvchilarning tilni o'rganishidagi natijadorlikning ko'proq bo'lishi o'qituvchining zamonaviy o'qitish texnologiyasini qay darajada bilishiga bog'liq. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshqa tilni o'rganishda kompyuter texnologiyasidan unumli foydalanish repetitor, "matn redaktori", consultant, partnyor vazifasini bajarishi aniq. Shu bilan birga, bu o'qituvchiga bajarilgan ishni tahlil qilish, nazorat qilish va baholash imkoniyatini ham beradi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Safarova R.G., Yusupova F.I. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirishga oid nazariy-amaliy yondashuvlar. -Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012. -18-bet.

2. Tolipov O'. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -Toshkent: "Fan", 2006. -175-bet.

3. Tolipov O'. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -Toshkent: "Fan", 2006. -50-bet.

#### **"MAJOLIS UN-NAFOIS" - BIRINCHI O'ZBEK TAZKIRASI**

*Dilnoza Abduxashimovna XIDIROVA,*

*stajyor-o'qituvchi Jizzax davlat pedagogika universiteti*

#### **ANNOTATSIYA**

Maqolada Alisher Navoiyning "Majolis un - nafaos" ("Nafis majlislar" tazkisasi xususida so'z yuritiladi. "Majolis un-nafaos"da muallif o'zi bilan bir davrda yashab qalam tebratgan shoirlarning ma'lumotlarni yozib qoldirgan. "Majolis un-nafaos" muqaddima, sakkiz majlis va xotimadan iborat. Muqaddimada asarning yozilishi sabablari bayon etiladi. Tazkiraning tuzilish tamoyillariga ko'ra sakkiz majlisini yana shartli ravishda uchga bo'lib tasnif etish mumkin.

## АННОТАЦИЯ

Алишер Навои писал на нашем турецком языке больше и лучше, чем кто-либо другой, поражал поэтов мира и является султаном газелей. «Majolis un-nafois» («Изысканные встречи»). в "Majolis un-nafois" автор записал сведения о поэтах, живших в одну с ним эпоху. «Majolis un-nafois» состоит из вступления, восьми заседаний и заключения. Причины написания работы изложены во введении. По структурным принципам тазкиры восемь встреч условно можно разделить на три.

## ANNOTATION

Alisher Navoi wrote more and better in our Turkish language than anyone else, amazed world poets and is the sultan of ghazals. "Majolis un - nafois" ("Elegant meetings"). , in "Majolis un-nafois" the author wrote down the information of the poets who lived in the same era as him. "Majolis un-nafois" consists of an introduction, eight meetings and a conclusion. The reasons for writing the work are explained in the introduction. According to the structural principles of tazkira, the eight meetings can be conditionally divided into three.

## KALIT SO‘ZLAR

G‘azal mulkining sultoni, tengsiz xamsanavis, zamonasining “malik ul-kalomi”, “Majolis un - nafois” (“Nafis majlislar”), turkiy tilda yaratilgan, muqaddima, sakkiz majlis va xotima, til xususiyatlari, fozil va donishmand kishilar, tazkira, zullisonayn, turkiyzabon.

## КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Султан собственности Газали, несравненный хамсанавис, «малик уль-калам» своего времени, «Маджолис ун - нафуис» («Изысканные встречи»), созданные на турецком языке, введение, восемь встреч и заключение, особенности языка, добродетельный и мудрый люди, тазкира, зуллисонайн, тюркоязычные.

## KEY WORDS

The sultan of Ghazal property, an incomparable khamsanavis, "malik ul-kalam" of his time, "Majolis un - nafois" ("Elegant meetings"), created in Turkish, introduction, eight meetings and conclusion, language features, virtuous and wise people, tazkira , zullisonayn, Turkic-speaking.

Shoir o‘spirinligidayoq yaratgan yuzlab she‘r va g‘azallari har jihatdan yetukligi bilan nafaqat muxlislar e‘tiborini qozonadi, balki ular zamonasining “malik ul- kalomi” (so‘z mulkining podshosi) Lutfiydek va Jomiydek ulug‘ ustozlarning ham yuksak ta‘rif va tahsiniga sazovor bo‘lganligi unutilmas bir voqea sifatida adabiyotimiz tarixida abadiyatga muhrlangan. Kulliyotdagi minglab g‘azal va turli janrdagi she‘rlar nafaqat turkiyzabon shoirlar uchun, balki ko‘plab xorijiy ijodkorlar uchun ham yuksak she‘riyat namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Alisher Navoiy turkiy tilimizda hammadan ko‘p va xo‘b yozib, jahon shoirlarini hayratga solgan va g‘azal mulkining sultoni hamda tengsiz xamsanavis bo‘libgina qolmasdan, balki u zot adabiy tanqid va adabiyotshunoslikda ham barakali ijod qilgan. Alisher Navoiyning “Nasoyim ul - muhabbat” (Muhabbat shabadalari), “Majolis un - nafois” (“Nafis majlislar”), “Mezon ul – avzon” (“Vaznlr o‘lchovi”) va “Mufradot” kabi asarlari tanqid va adabiyotshunoslik sohasidagi ulkan ijodiy faoliyatining katta samarasi bo‘lib hisoblanadi. Navoiy yashab, ijod qilgan davr, ya‘ni XV-XVI asrlarda tanqid va adabiyot shunoslik istilohlari o‘rnida “ilmi naqd”, “ilmi bade‘a”, “ilmi aruz”, “ilmi qofiya” kabi so‘z va ibora-tushunchalar qo‘llangan.

«Majolis un-nafois», ya‘ni “Nafis majlislar” asarning birinchi tahriri 1491 yilda vujudga kelgan bo‘lib, u 1498 yilda muallif tomonidan qayta tahrir qilingan va to‘ldirilgan. Alisher

Navoiy «Majolis un-nafois»ning kirish qismida tazkirada Sulton Husayn Boyqaro tavalludi (1438) yilidan asar yozilgan davrgacha faoliyat ko'rsatgan shoir va she'riyatga aloqador siymolar haqida ma'lumot berilganligini qayd etadi. Bundan ayonlashadiki, «Majolis un-nafois»da muallif o'zi bilan bir davrda yashab qalam tebratgan shoirlarning badiiy ijodiga oid adabiy-tanqidiy qarashlarini ifoda etgan, shuningdek, zamondosh qalam ahli hayoti va faoliyati bilan bog'liq ko'plab muhim va adabiyotshunoslik uchun qimmatli bo'lgan ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

Alisher Navoiyning adabiyotshunos olim sifatidagi faoliyatini ko'rsatib beruvchi asosiy bir asar bu «Majolis un-nafois» tazkirasidir. Navoiy tazkirani 1491-98-yillar davomida yaratadi. Tazkirada XV asrda yashab, faoliyat yuritgan 459 shoir haqida ma'lumot keltiriladi. Navoiy tazkiraning muqaddimasida asarning tarkibiy qismi va nomlanishi haqida shunday yozadi: "... chun bu maqsudg'a yetildi, oni sekkiz qism etildi har qismi bir majlisg'a mavsum bo'ldi va majmuig'a «Majolis un-nafois» deya ot qo'yildi».

Tazkiradagi shoirlar majlis, ya'ni qismlarga quyidagicha taqsimlangan: 1-majlisda 46 ta, 2-majlisda 91 ta, 3-majlisda 175 ta, 4-majlisda 72 ta, 5-majlisda 21 ta, 6-majlisda 31 ta, 7-majlisda 22 ta va 8-majlisda Husayn Boyqaro bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan. Alisher Navoiy adabiy-estetik qarashlari o'zining teranligi, mavzu-muammolarining rangbaranligi, qamrov doirasining kengligi hamda badiiy ijod jarayoni va amaliyoti bilan chambarchas bog'liq ekanligi alohida diqqatga sazovordir.

«Majolis un-nafois» muqaddima, sakkiz majlis va xotimadan iborat. Muqaddimada asarning yozilishi sabablari bayon etiladi. Tazkiraning tuzilish tamoyillariga ko'ra sakkiz majlisini yana shartli ravishda uchga bo'lib tasnif etish mumkin:

1. I-III majlislar. Bunda nomlari keltirilgan shoirlar bilan Alisher Navoiyning uchrashgan yoki uchrashmagani, ular bilan muloqotda bo'lgan yoxud bo'lmagani asos qilib olingan. Jumladan, tazkira muallifi uch-to'rt yoshlarida mashhur mutasavvif shoir va faylasuf Qosim Anvor (vafoti h. 735, m. 1432)ning g'azallarini sevib yod olgani va adabiyot muhoblari davrasida ulardan namunalar o'qib, suhbatdoshlarini xushhol qilganini xotirlab, «tayammun (biror ishni o'ngdan boshlash) jihatidin bu muxtasarni (tazkirani ma'nosida) alarning sharif ismi bila ibtido qil»ganini uqtiradi hamda «tabarruk bo'lgani uchun» bu ulug' shoir g'azallaridan ikki matla' keltiradi. Alisher Navoiy bolalik chog'laridanoq Qosim Anvor she'riyatining ixlosmandi bo'lgan va umrining oxirigacha bu ulug' Shayxga bo'lgan e'tiqodi shoirni hech qachon tark etmagan. «Majolis un-nafois»ning o'zi shaxsan uchratish sharafiga musharraf bo'lmagan ijodkorlarga bag'ishlangan «avvalg'i majlisi»ni Amir Qosim Anvor nomi bilan boshlashni ulug' saodat deb biladi va shoir haqida ancha mufassal ma'lumotlar keltirib o'tadi.

2. IV-VI majlislar. Bu fasllarda she'riyatga daxldor shaxslar-fozillar, mirzozodalar va Xurosondan tashqari hududlarda yashovchi fozil va donishmand kishilar haqida ma'lumot berilgan.

3. VII—VIII majlislar. Yettinchi majlisda she'r hamda nazmga mayli yuksak bo'lgan Amir Temur va temuriy shahzodalar xususidagi mulohazalarga o'rin berilgan bo'lsa; sakkizinchi majlis to'laligicha Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan.[1.A.N.M.n.230-bet.]

«Majolis un-nafois»ga xos bo'lgan xususiyatlardan yana bin shuki, unda Xuroson va Movarounnahrda adabiy va madaniy hayotning ravnaqiga muhim hissa qo'shgan temuriy hukmdor va shahzodalar haqida ham ma'lumotlar keltiriladi. Tazkiraning yettinchi majlisi ulug' sohibqiron Amir Temur shaxsining badiiy adabiyotga munosabatini oydinlashtirish bilan ibtido topadi. Ayonlashadiki, Amir Temur garchi badiiy ijod bilan shug'ullanmagan bo'lsa-da, juda ko'plab nazmiy va nasriy asarlardan xabardor bo'lgan, ulardan namunalar yod bilgan va adabiy davralarda faol ishtirok etgan. Arab va fors-tojik adabiyotida tazkirachilik



an'anasi Navoiy davrigacha juda katta tarixiy taraqqiyot bosqichini o'tadi. Ammo «Majolis un-nafois», avvalo, turkiy tilda yaratilganligi bilan boshqa tazkiralardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, unda XV asrda yashab, turkiy va fors-tojik tilida ijod etgan zullisonayn shoirlar haqida ham e'tiborga loyiq ma'lumotlar beradi. Asarning XVI-XVIII asrlarda fors-tojik tiliga ikki marta tajjima qilinishi ham tazkirada davr adabiy muhiti har tomonlama mufassal yoritilganligidan dalolat beradi.

Navoiy «Majolis un-nafois»da xronologik, jug'rofiy hamda sulolaviy tamoyillarga rioya qiladi. Tazkirada ma'lum darajada davrning ijtimoiy va siyosiy hayot lavhalari real chizib berilgan. Masalan, Ulug'bek Mirzoning o'g'li Abdullatif Mirzo haqida quyidagi fikrlar ilgari suriladi : «O'tar dunyo maslahati uchun donishmand va podshoh otasin o'lturdi. Har oyinakim, saltanat Sheruyaga vafo qilg'oncha anga 166 qildi». Bunda shoir Abdullatif Mirzoning toj-taxt talashib o'zining olim va fozil otasi — Ulug'bekni o'ldirgani, bunday qotillik evaziga qo'lga kiritilgan saltanat unga ham vafo qilmaganini aytadi. Navoiy Abdullatifni mahbubasi va toj-taxtini qo'lga kiritish uchun otasini o'ldirgan, lekin o'zi ham tez orada qatl etilgan. «Majolisun-nafois»da Navoiy badiiy ijodning asosiy mohiyatini belgilovchi nazariy masalalardan biri mazmun va shakl masalasiga ham munosabat bildirib o'tadi.«Majolis un-nafois» Navoiy o'z davridagi adabiy janrlar va she'riyat turlarining rivoji haqida ham keng ma'lumot beradi. Alisher Navoiy epik tur davrning dolzarb muammolarini yoritish va talqin etishda keng imkoniyatlar berishini ko'pgina asarlarida ta'kidlab o'tadi. O'zi ham bu sohada ko'p ijod qilgan. «Majolis un-nafois»da ham epik turda qalam tebratgan shoirlarni ko'rsatib o'tadi.

«Majolis un-nafois» Navoiy davridagi ilmiy nasrning go'zal namunasi. Shuningdek, uning badiiyati ham yuksakdir. Buni muallifning portret chizish, xarakter yaratish mahoratida va adabiy anjumanlar, ba'zi voqealar bayonidagi badiiy bo'yoqlarning rang-barangligida ko'rish mumkin. Shoirning uslubda ixchamlikka, mo'jazlikka intilishi asarga alohida joziba baxsh etadi. Navoiy bu asarida o'zining yetuk adabiyotshunos olim va tanqidchi sifatida namoyon bo'ladi. Unda ilgari surilgan fikr-mulohazalar o'sha davr adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotiga muhim ulush bo'lib qo'shilgan va bugungi kunda katta ilmiy qimmatga egadir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. T., 2007.
2. Alisher Navoiy ijodiy va ma'naviy merosining olamshumul ahamiyati (xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari). T.: O'zbekiston, 2011.176 b.
3. Alisher Navoiy va XX asr. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – T.: TAMADDUN, 2016. – 280 b.
4. Alisher Navoiy adabiy mahorati masalalari. T: Fan, 1993. – B. 208.
5. Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. – T.: “ZARQALAM”, 2006. –128 b.
6. Isoqov Yo. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983. –167 b.
7. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr – O'zbekiston, 2009. – 448 b.
8. Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T. Akademnashr2010,400b
9. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. To'qqizinchi jild. Lison ut-tayr. Majolis ul-nafois. Mahbub ul-qulub. Munshaot. Vaqfiya. – Toshkent: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 768-b.
10. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'ninchi jild. Lison ut-tayr. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. Holoti Pahlavon Muhammad. Nazm ul-javohir. Nasoyim ul-muhabbat. Muhokamat ul-lug'atayin. Mezon ul-avzon. Siroj ul-muslimin. Arba'in. Munojot. – T: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'.G'ulom nomidagi n-uyi, 2012. 684 b.



11. Alisher Navoiy: qomusiy lugʻat. (Maʼsul muharrir: Sh. Sirojiddinov) – Toshkent: “Sharq”, 2016. – 536 b.
12. Alisher Navoiy: qomusiy lugʻat. (Maʼsul muharrir: Sh. Sirojiddinov) – Toshkent: “Sharq”, 2016. – 480 b.
13. Mallaev N. A. Navoiy va xalq ijodiyoti. T. Adabiyot va sanʼat, 1974. – 384 b

## OʻZBEK TILSHUNOSLIGIDA LINGVOKULTUROLOGIK OʻXSHATISHLAR

*Uktamova Nigina,*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada sheʼriyatda va nasrdagi lingvokulturologik oʻxshatishlarni koʻrib chiqamiz. Lingvokulturologik oʻxshatishlar misollar asosida berilgan.

**Kalit soʻzlar.** Lingvokulturologiya, antroposentrik tadqiqot, lingvokulturologik tadqiqot, oʻxshatishlar, til, madaniyat, tafakkur, lingvokulturologik birlik, stereotip, frazeologik birlik, metafora, obraz, nutqiy muomala madaniyati, poetik matn, prozaik badiiy matn.

**Аннотация.** В статье мы рассмотрим лингвокультурные аналогии в поэзии и прозе. На основе примеров приводятся лингвокультурологические аналогии.

**Ключевые слова.** Лингвокультурология, антропоцентрические исследования, лингвокультурологический исследования, сравнения, язык, культура, мышление, лингвокультурное единство, стереотип, фразеологические единство, метафора, образ, культура речи, поэтический текст, художественный прозаический текст.

**Abstract.** In the article, we will consider linguistic cultural analogies in poetry and prose. Linguistic cultural analogies are given on the basis of examples.

**Key words.** Linguistic culture, anthropocentric research, linguistic cultural research, analogies, language, culture, thought, linguistic cultural unit, stereotype, phraseological unit, metaphora, image, speech culture, poetic text, prose fiction text.

Tilshunoslik ilmi XXI asrda jadal surʼatlar bilan rivojlanib, fan oldiga yangi muammolarni hal qilish vazifasini qoʻymoqda. Ana shunday muammolardan biri til tizimini antroposentrik paradigma tamoyillari asosida tadqiq etishdir. Bugungi kunda antroposentrik yoʻnalishning yuzaga kelishi tilshunoslikda tub burilish sifatida baholanib, bu borada koʻplab tadqiqotlar yaratildi va yaratilmoqda. Antroposentrik yoʻnalishning yetakchi yoʻnalishlaridan biri hisoblangan lingvokulturologiya tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan oʻzaro aloqasi va taʼsirini antroposentrik paradigma tamoyillari asosida oʻrganuvchi sohadir. Lingvokulturologiya soʻzi lotincha lingua - til va cultura - ishlov berish, yunoncha logos – taʼlimot, tilga ishlov berish taʼlimoti maʼnosini bildiradi. Tadqiqotchilarning taʼkidlashicha, mazkur soha XX asrning soʻnggi choragida shakllandi, “lingvokulturologiya” termini esa V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bogʻliq ravishda paydo boʻldi. Lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.Fon Gumboldtga borib taqalishini taʼkidlaydilar. Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyana, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rol oʻynaganligi taʼkidlanadi. Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

- 1 fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.Fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);
- 2 lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;
- 3 lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Mazkur sohaning obykti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Ya'ni bularga ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari kiradi. Bunda muayyan lingvokulturologik birlik bir paytning o'zida bir qancha semiotik tizimlarga tegishli bo'lishi mumkin, ma'lum bir odat frazeologizmga, maqol, matalga aylanishi mumkin. Turli millatlarning o'ziga xos madaniyat belgilarini aks ettiruvchi so'zlar ham lingvokulturologiyaga misol bo'la oladi. Masalan, koreyslarda hanbok, kimchjan, ondol, yaponlarda otaku, vafuku, kimono, ikebana, bonsay, Angliyada esa spiker, kriket, shilling. Mana shu kabi madaniyat belgilarini ifodalovchi so'zlar ekzotizm yoki etnografizm atamasi bilan ham nomlanadi. XVIII asrdan e'tiboran kultura so'zi bilan insonning faoliyati, uning aniq bir maqsadga yo'nalgan fikrlashi tufayli yuzaga kelgan barcha narsalar tushunila boshlangan. Biroq mazkur so'z dastlab "insonni tabiatga ta'siri, inson manfaatlari yo'lida tabiatni o'zgartirish, ya'ni yerni ishlash ma'nosida qo'llanilgan. Kultura - ijtimoiy-gumanitar bilishning fundamental tushunchalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur so'z XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy termin sifatida iste'molga kirgan. Madaniyat faqat mavjud me'yori va urf-odatlariga rioya qilish qobiliyatini rivojlantirishni emas, balki ularga rioya qilish istagini rag'batlantirishni ham o'z ichiga olgan. Demak, madaniyat biologik mahsulot emas, balki ijtimoiy mahsulotdir. Madaniyat moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy va o'zaro munosabatlar, siyosat, oila, axloq, xulq, huquq, ta'lim, tarbiya, ijod, ilm-fan, xizmat ko'rsatish, turmush tarzi kabilar bilan bog'liq keng qamrovli voqeadir. Shuning uchun u jamiyat bilan birga rivojlanadi, jamiyatning taraqqiyot darajasini aks ettiradi. Jamiyatdan tashqarida madaniyat yo'q. Ijtimoiy munosabatlardagi har qanday o'zgarish madaniyatga ta'sir ko'rsatadi va u bu munosabatlarning qanday natijalarga olib kelishidan xabar beradi. O'zbek tilida madaniyat so'zi quyidagi ma'nolarda ham qo'llaniladi:

- 1 jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari;
- 2 biror ijtimoiy guruh, sinf yoki aqlning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlari;
- 3 o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat;
- 4 madaniyatli shaxs talablariga javob beruvchi sharoit;
- 5 qishloq xo'jaligida o'simlik yoki ekin turlarini o'stirish, yetishtirish.

Lingvokulturologik o'xshatishlar ham o'ziga xos bo'lib, ushbu o'xshatish turli o'xshatish vositalari, ya'ni qo'shimchalari orqali yoki leksemalararo o'xshatishlar bo'lishi ham mumkin. O'tkir Hoshimovning asarlarida, jumladan "Ikki eshik orasi" romanida ham lingvokulturologik o'xshatishlardan o'rinli foydalanilgan:

- 1 Har "ko'zi" piyoladek oynak taqib yuradi. Ushbu gapda o'xshatish leksema asosga -dek qo'shimchasini qo'shish orqali hosil bo'lgan. N.Mahmudov va D.Xudoyberganovalarning "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" da piyola o'xshatishini quyidagicha izohlagan:

Katta. Ko‘pincha ko‘z, gul, olma va shu kabilar haqida. Ko‘zga nisbatan o‘xshatish boshqa asarlarda ham uchraydi:

1 Piyoladay katta-katta ko‘zlarida doimiy bir hayrat qotib qolganday ko‘rinadigan bu ot Akbarga 10 yildan ortiq xizmat qildi ( P.Qodirov “Humoyun va Akbar”) 2 Endi “imperiya” ni so‘rab olay deyman. Shunday gaplarni gapiradiki, ko‘zim piyoladay bo‘ldi (Cho‘lpon “Kecha va kunduz”)

2 Ana, beton qorishmasi sachrayverib, shimining pochasi qatirmoch bo‘lib ketgan Safar aka ayiqdek lapanglab kelyapti. Ushbu gapda ham o‘xshatish leksema asos ayiq + dek = ayiqdek hosil bo‘lgan. “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” da ayiqdek o‘xshatishiga quyidagicha ta‘rif berilgan:

1 Baquvvat, zo‘r, kuchli. Erkak kishi haqida. O.Yoqubov “Xotiralar”, L.Bo‘rixon “Kutilgan kun”, M.Ismoil “Millat yuragining durdonalari” asarlarida ayiqday baquvvat ma‘nosida qo‘llanilgan.

2 Befahm, beso‘naqay, qo‘pol, o‘xshovsiz harakat qilmoq. Asardan olingan o‘xshatish shu ma‘noda. Ayiqday befahm ma‘nosida Nazar Eshonqulning “Bevaqt chalingan bong” asarida, ayiqday beso‘naqay ma‘nosida H.Nazirning “So‘nmas chaqmoqlar” asarida, ayiqday beo‘xshov ma‘nosida S.Nurovning “Narvon” asarida qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin.

3 Bo‘kirmoq, o‘kirmoq, og‘riq yoki boshqa ta‘sirdan qattiq bo‘g‘iq ovoz chiqarmoq ma‘nosi ham mavjud bo‘lib, ayiqday bo‘kirmoq ma‘nosida Odil Yoqubovning “Adolat manzili” asarida, ayiqday o‘kirmoq ma‘nosida Shavkat Rahmonning “O‘rmonda” asarida qo‘llanilgan.

3 Boshiga marshak tashlagan, **barkashdek** yuzi bo‘g‘riqib ketgan semiz bir xotin boyagi paranjilini tirsagi bilan itardi. Leksema asos barkash + dek = barkashdek orqali o‘xshatish hosil qilingan. Izohli lug‘atda barkashdek o‘xshatishiga quyidagicha ta‘rif berilgan:

1 Dumaloq, oltinrang, gardishsimon. Quyosh, oyga nisbatan. Masalan, barkashday quyosh ma‘nosida X.Do‘stmuhammadning “Chimboyko‘chalik qo‘shnilar”, M.Hazratqulovning “Ko‘kko‘l”, O‘.Umarbekovning “Bahor nafasi” asarlarida, barkashdek oy ma‘nosida Said Ahmadning “Jimjitlik” asarida qo‘llanilgan.

2 Katta, odatdagi hajmidan qo‘polroq. Masalan, barkashday shapaloq ma‘nosida Mirzakalon Ismoilning “Farg‘ona tong otguncha” asarida, barkashday ketmon ma‘nosida Nazar Eshonqulning “Urush odamlari”, A.Jo‘rayev “Shakarining maktublari” asarlarida, barkashdek bashara ma‘nosida O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asarlarida qo‘llanilgan.

4 U chillakdek ingichka, titroq barmoqlari bilan yana guruch terishga tushdi. O‘xshatish chillak + dek = chillakdek hosil bo‘lgan. Izohli lug‘atdagi ta‘rifi:

Oriq, ingichka. Ko‘proq odam, jonivor kabilar va ularning tana a‘zolari haqida. Zumrad va Qimmat, O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asarida chillakdek o‘xshatishi qo‘llangan. Chillakday oriq, ingichka ma‘nosida Oybekning “Navoiy” romanida, chillakday ingichka ma‘nosida O‘tkir Hoshimovning “O‘zbeklar” asarida qo‘llanilgan.

Lingvokulturologik o‘xshatishlar nafaqat nasrda, balki, she‘riyatda ham o‘z o‘rniga ega. Rauf Parfining “Izlar” she‘riga nazar tashlasak:

Go‘yo qordagi izlar -

O‘tkinchi.

Go‘yo qum ustida -

Tovon ko‘lkasi.

Ushbu misralarda o‘xshatish go‘yo bog‘lovchisi orqali hosil qilingan. Shoir izlarni o‘tkinchi deydi. Bunga sabab bugun bu izlarni qo‘yganlar bugun boru ertaga yo‘qdek. Yana

bir o'rinda esa izlarni tovon ko'lkasiga o'xshatgan. Ko'lka bugungi kunda kam qo'llaniladigan so'zlar sirasiga kiradi. Ko'lka so'zi o'rniga ko'lanka qo'llaniladi. Bilamizki, ko'lanka qattiq, mustahkam bo'ladi. Yillar o'tsada umuman eskirmaydi. Shoir bu o'rinda izlarni xuddi qum ustida qolib ketadigandek, o'chmaydi ma'nosida qo'llagan.

Yana bir she'rida:

Qara, qanday porloq erur ko'k,  
Tingla, qo'shiq aytar yulduzlar,  
Bu - oy to'kkan shu'la emas, yo'q,  
Bu - navoga aylangan so'zlar.

Bilamizki, odatda, dalalarda tinchlik hukmron. Ayniqsa, shamol bo'layotganda qulog'imizga turli xil ovozlari eshitiladi. Shoir ko'kni ta'riflar ekan, unda yulduzlar qo'shiq aytishi orqali atrofdagi eshitilayotgan turli ovozlarni nazarda tutadi. Va ushbu ovozlari go'yo kuyga aylangan so'zdek deb ta'riflaydi.

Sirojiddin Sayyid ijodidan:

Men dunyoga nomimni  
bunyod etgali keldim.  
Avval o'zni yo'qotib  
So'ng yod etgali keldim.  
Kuygan sahro ham o'zim,  
Toshqin daryo ham o'zim,  
Ishqdan ado ham o'zim  
Faryod etgali keldim.  
Savollar bilan keldim,  
Sadolar bilan keldim,  
Yosh jonimda ming bitta  
Savdolar bilan keldim.  
Qat'iy niyatlar bilan  
Da'volar bilan keldim.  
Har bir vayrona dilni  
Obod etgali keldim.

Sirojiddin Sayyidning ushbu she'rida bir qarashda dunyoga nimaga kelganligini ifodalab bermoqchidek, tushuntirmoqchidek tuyiladi. Bu dunyoga kelishidan maqsad o'zining nomini qoldirib ketish. Va bu yo'lda tinmay harakat qilish mazmunini uqishimiz mumkin. O'zini kuygan sahroga, toshqin daryoga, ishqdan ado bo'lgan insonga o'xshatadi. Shoir nohaqliklarga duch kelsa o'zini kuygan sahroga qiyos qiladi. Ularning oldini olish uchun harakat qilishini esa toshqin daryoga, shuncha ishlar orasida ishqdan ado bo'lgan insonga o'zini o'xshatadi.

Xulosa qilib aytganda, lingvokulturologiya jonli kommunikativ jarayonlarni - xalqning madaniyati va mentaliteti, ya'ni uning ongi, shuuri, ommaviy an'analari, urf-odatlarini va h.k. bilan bog'liq til ifodalarining qo'llanilishini tadqiq etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

- 1 Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. - Toshkent: "Turon zamin ziyo" nashriyoti, 2015.
- 2 Yusupova O. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. - Samarqand: "SamDU" nashri, 2021.
- 3 Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. - Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2013.

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUMTOZ ADABIYOT O'QITISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI VA MAZMUNINI BELGILASH TAMOYILLARI

*Mamitova Mahliyo Abdug'apir qizi,  
stajyor o'qituvchi Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada maktab ta'limida mumtoz adabiyot o'qitishning hozirgi kundagi holati ko'rib chiqildi. Bugungi kunda mumtoz adabiyot o'qitishni tahlil qilish orqali o'quvchilarga uni mazmunini yoritib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada maktab darsliklaridagi mumtoz adabiyot o'qitishning dolzarb masalalari ochib beriladi.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье рассматривается современное состояние преподавания классической литературы в школьном образовании. В настоящее время важно преподавать классическую литературу и знакомить учащихся с ее содержанием посредством ее анализа. В данной статье рассматривается классическая литература в школьных учебниках. Выявлены актуальные проблемы преподавания.

**ANNOTATION.** In this article, the current state of classical literature teaching in school education was considered. Nowadays, it is important to teach classical literature, to enlighten students about its content through its analysis. In this article, classical literature in school textbooks is considered. Current issues of teaching are revealed

**KALIT SO 'ZLAR.** Mumtoz adabiyot, darsliklar, umumta'lim maktablari, tabdil, o'qituvchi, o'quvchi, mazmun-mohiyat, standart, dasturlar, metodik qo'llanmalar, matn, tahlil, badiiy mahorat.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА.** Классическая литература, учебники, общеобразовательные школы, трансформация, учитель, ученик, содержание-сущность, стандарт, программы, методические пособия, текст, анализ, художественное мастерство.

**KEY WORDS.** Classic literature, textbooks, general education schools, translation, teacher, student, content-essence, standard, programs, methodological manuals, text, analysis, artistic skills.

Ma'lumki, hozirgi paytda umumta'lim maktablarida adabiyot ta'limi mazmunan xalq og'zaki ijodi, eng qadimgi (islomgacha bo'lgan) davr adabiyoti, mumtoz adabiyot hamda yangi davr adabiyoti tarzida o'qitilmoqda.

Bu davr, ruknlarga mansub namunalarning o'qitilish saviyasi hamda murakkablik darajasi bir xil emasligi barcha mutaxassislariga birdek ayondir. Ana shu nuqtayi nazardan maktablarimizda mumtoz adabiyot namunalari o'qitishning ayni paytdagi holatini o'rganish, tahlil qilish muammoni hal etishning omili sanaladi desak, xato bo'lmaydi. Umumta'lim maktablarida mumtoz adabiyot qanday o'qitilmoqda degan savolga, bizningcha, ba'zi juz'iy kamchiliklarga yo'l qo'yilganini kuzatish mumkin. Lekin bu "kamchiliklar"liklar nimalarda namoyon bo'ladi? Sababi nimada? Ularning ildizlari qayerga borib taqaladi? Ana shu savollarga javob topish muhim. Bu tashxis qo'yishdek bir gap. Shunga qarab chora izlanadi, tadbir belgilanadi.

Bizningcha, bunday kamchiliklarni kuzatilishining ikki: birinchichi sababi o'qituvchi shaxsiyatidan ko'ra ko'proq ta'lim mazmuniga mas'ul muassasalar, direktiv hujjatlar bilan bog'liq bo'lib, bunda, avvalo, standartlar, dasturlar, darslik va metodik hamda o'quv qo'llanmalar bo'lsa, ikkinchi sababi mumtoz adabiyot o'qitilishiga doir mazmuniy tafsilotlar, sifatiy ko'rsatkichlar alohida o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.



Fikrimiz isboti sifatida misol qilib “7-sinfda “Moziydan sadolar” rukni ostida mumtoz adabiyot namunalaridan Alisher Navoiyning “Mehr va Suhayl” hikoyasi, Turdining she’rlari, Uvaysiy lirikasi, Zavqiyning sayohatnomasi, Maxtumquli she’riyatidan namuna o’rganilishi ko’rsatilgan. Quyidagi nazariy ma’lumotlar o’zlashtirilishi ko’zda tutiladi: badiiy timsol, mubolag’a, tazod, qofiya, tajnis, tashbeh, muxammas, ma’rifatchilik adabiyoti, badiiy adabiyotning turlari, lirika, tabiat lirikasi to’g’risida tushunchaga ega bo’lish. O’quvchilar tomonidan egallanishi kerak bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar ham ana shu nazariy ma’lumotlar asosida belgilangan. Standartda mumtoz adabiyotning o’zigagina xos bo’lgan xususiyatlari, matnni mustaqil o’qib tushunishga yo’llaydigan nazariy ma’lumotlar o’quvchining yosh xususiyatidan kelib chiqib berilishi alohida ko’rsatilmaganligi bois adabiyot o’qituvchilari o’quvchi baribir mumtoz matnni tushunmaydi, undan ma’no chiqarishga qiynaladi degan bahonani ro’kach qilib, asarlar mazmunini so’zlab beradilar va bolalardan ham shuni talab qiladilar. Bu bilan go’yo standartdagi “...adibning tasvir mahoratini ko’rsatishdan ko’ra matnni chuqurroq anglashga yo’naltir”ish ko’rsatmasini ado etadilar va adabiyot o’qitishdagi eng katta xatoga yo’l qo’yadilar. Aksar hollarda matnni tahlil qilish muallif bu yerda unday deyapti, bu yerda bunday deyapti” qabilidagi hissiz bayonlardan iborat bo’lib qolayotganligi kuzatiladi. “Ifodadagi o’zgachalik, tasvirdagi yangilik, badiiy mahorat masalasi ochiq qoladi. Aslida standartdagi o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan talablarda mavjud bo’lgan “o’rganilgan asarning asosiy badiiy xususiyatlarini” tezisidan kelib chiqib, zikr etilgan nazariy ma’lumotlar dasturga ham, darslikka ham kiritilishi kerak edi. Adabiyot fanidan Davlat ta’lim standartida o’quvchini mumtoz matn bag’riga yetaklaydigan, matnga ma’no berishga o’rgatadigan nazariy ma’lumotlarning berilishi alohida belgilab qo’yilishi kerak. O’quvchilarga mumtoz matnni mustaqil o’zlashtirish ko’nikma va malakalarini shakllantiradigan ma’lumotlar tizimi ishlab chiqilib, dastur va darsliklarda aks ettirgan holda sinfma-sinf tadrijiy tarzda berib borilishi maqsadga muvofiq bo’ladi[12.G.E.B,F.p.80-bet]. Darsliklarda o’zbek adabiyoti tarixi yaxlit bir estetik jarayon ekanligini singdirish uchun yirik adabiy siymolarning eng sara asarlari o’rganish uchun tavsiya etilgan. Yaratilgan darsliklarda mashg’ulotlar saviyasiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan, adabiy ta’limda ko’zlangan maqsaddan o’qituvchini ham, o’quvchini ham chalg’itadigan holatlar borki, ular to’g’risida to’xtalib o’tish joiz bo’ladi. Ko’pchilikka maqbul ko’rilayotgani – darsliklarda mumtoz adabiyot namunalaridan so’ng bu matnlar mazmuni nasriy bayon tarzida alohida berilishidir. Bir qarashda haqiqatan ham yaxshi: mumtoz adabiyotni tushunish qiyin, o’quvchi avval matnni o’qib ko’radi, tushunmasa, uni berilgan mazmuniy bayonga solishtirib, ma’noni uqib oladi. Asta-sekin unda mumtoz matnni o’qish va uqish malakasi shakllanadi. Shunday bo’lsa, qani edi. Darslik mualliflari ana shunday ijodiy yondashuvni ko’zda tutib nasriy bayonni berganlar. Lekin amaliyot bu maqsadga butunlay zid holatni namoyon etmoqda. Bunday darsliklar bilan ishlashda o’qituvchilarning aksariyati asosiy matnni tashlab, hatto o’quvchilar e’tiborini sal bo’lsa ham unga qaratmay, to’g’ridan-to’g’ri mazmuniy bayonni o’qitib qo’ya qolmoqdalar. O’quvchilar mumtoz asarlarni emas, balki ularning darslik mualliflarining tushungan darajasidagi mazmuni bilan tanishmoqdalar xolos. Juda insof qilgan, adabiyot darsi mas’uliyatini his etgan muallimlar bir sira original matnni o’qitib qo’yishi mumkin. Bunday muallimlarni hozirgi kunda topish qiyin[3.A.O’.M.448-bet].”

Achinarli holat shuki, darsliklarda mumtoz asarlar matni berilmay, ularni hozirgi tilga tabdil qilib berilgan holatlar ham bor. Bu yuqorida eslatilgan 9-sinf darsligining 2002-yil nashrida ajabtovur tarzda namoyon bo’ladi. Unda “Xamsa”dagi “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” kabi uch buyuk doston mazmuni bor-yo’g’i ikki sahifada bayon etib berilgan. Bu holatda bitirayotgan o’quvchilar bu dostonlarning har biri to’g’risida yarim

betdan chogʻroq bayon bilangina tanishib oʻrta maktabni tugatganlar. Bu hol oʻquvchini, umuman, badiiy, xususan, mumtoz matndan uzoqlashtirish, begonalashtirishdan boshqa narsa emas. Navbatdagi fikrlar darsliklardagi savol va topshiriqlar xususida boʻlib, biznincha, darsliklarda mavzular, oʻrganishga tavsiya etilgan matnlardan soʻng savol va topshiriqlar har bir mavzudan, matndan keyin uning mohiyatini ochishga qaratilgan, asar badiiyatini anglashga yoʻnaltiruvchi, qahramonlarning ruhiy olami tadqiqiga yoʻl ochuvchi savol va topshiriqlar berilishi zarur. Sababi joʻyali va aniq maqsadni koʻzlagan savol, topshiriqlar adabiyot darslarining samaradorligini taʼminlasa, faktlarnigina qayd etishni talab etuvchi soʻrovlar mashgʻulotlar saviyasining past boʻlishiga olib keladi. Amaliyotda savol va topshiriqlar mohiyatiga koʻra:

- a) faktologik;
- b) konseptual kabi ikki turga ajratiladi.

**Faktologik savollar va topshiriqlar** asosan darslikda mavjud boʻlgan yoki oʻqituvchi soʻzlab bergan faktlarni qayta soʻzlab berishni koʻzlaydi. Bunday savollar ustuvor boʻlgan darslarda oʻquvchi fikrlamaydi, matn ustida izlanmaydi. Chunki ularning javoblari darslikning oʻzida berilgan, faqat birrov oʻqib topib olinsa bas. Koʻpincha amaliyotda oʻquvchilar darslikdagi savollarga javob topish uyga vazifa qilib berilganda, darslik sahifalarining chetiga javoblari bayon etilgan oʻrinlarga shu savol raqamlarini qoʻyib chiqishadi. Eng achinarlisi, baʼzan uyga vazifani shu tarzda bajarishni oʻqituvchilarning oʻzlari koʻrsatib beradilar. Bir qarashda bu hamma uchun qulay: bola qiynalmaydi, ortiqcha zoʻriqmaydi, bir zumda darsni tayyorlab qoʻyadi. Ammo bu holat adabiy taʼlim uchun qimmatga tushmoqda. Oqibatda badiiy soʻzni his qilishdan mahrum, badiiy asar tahlili boʻyicha koʻnikma va malakasi shakllanmagan, mutolaadan zavq tuymaydigan bitiruvchilarga ega boʻlinmoqda.

**Konseptual savol va topshiriqlar** oʻquvchini oʻylashga, mustaqil fikrlashga, izlanishga chorlaydi, asar badiiyati, uning mazmuniga mustaqil nazar tashlash, oʻziga xosliklarini, farqli jihatlarini topishga yoʻllashi jihatidan gʻoyat muhim metodik apparat sanaladi. Kitobdan ularga chaynalgan luqma kabi tayyor javoblar topilmaydi, har bir savolga tayyorlanish, matnni sinchkovlik bilan oʻqish, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini oʻz qalbidan oʻtkazishga toʻgʻri keladi. Javob topish yoʻlidagi aqliy, ruhiy zoʻriqishlar avvaliga qiyin tuyulsa-da, keyinchalik izlab topilgan haqiqatlar, kashf etilgan goʻzalliklar oʻquvchilar uchun shirin “azob”, estetik lazzat manbayiga aylanishi metodikaga oid adabiyotlarda taʼkidlanadi[4.M.p.l.302-bet].

Agar diqqat qilinsa, birinchi darslikdagi savol va topshiriqlarning barchasi konseptual xarakterga ega boʻlib, har bir matnga alohida tuzilgan. Ularga javob topish uchun oʻquvchi matnga murojaat qilishi, uning mohiyati toʻgʻrisida fikr yuritishi lozim boʻladi. Yaʼni bola tafakkurida bir necha idrokiy bosqichlarni oʻtashi orqali badiiy haqiqatdan hayotiy haqiqat tomon boradi. Bu yerda qiziq bir holat kuzatiladi. Ijodkor badiiy asar yaratar ekan, hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantiradi. Adabiyot darslarida muvaffaqiyatli tuzilgan savol, topshiriqlar esa ters jarayonni vujudga keltiradi: oʻquvchi badiiy haqiqat orqali hayot haqiqatiga qaytadi, turmushga chuqurroq nazar tashlaydi, olam va odam muammolari borasida fikr yurita boshlaydi. Zero, “mustaqil ijodiy izlanishlar chogʻida oʻquvchilar oʻzaro muloqotda boʻladilar, tadqiqotlari yuzasidan oʻqituvchiga savollar bilan murojaat etadilar. Oʻqituvchi ularning mustaqil izlanishlari qay yoʻsinda ketayotganligidan xabardor boʻladi, zarur maslahatlar beradi, oʻquvchilar faoliyatini boshqaradi. Belgilangan muddat yaqinlashgan sayin oʻquvchilarning mustaqil ijodiy izlanishlari ham yakunlanib boradi. Oʻqituvchi ularning mustaqil mulohazalari bilan tanishib, zarur oʻrinlarni toʻldiradi, yakuniy mashgʻulotni tashkil etadi”[13.M.M.A.t.m.277-bet]. Adabiyot oʻqituvchisi mustaqil ijodiy

tadqiqot olib borayotgan o'quvchilarga quyidagilarga ahamiyat berishlarini ta'kidlashi lozim: a) Ijodkor hayotiga oid ma'lumotlar bilan tanishishda tarixiy sharoit va o'sha davrdagi adabiy muhitga e'tiborni qaratish; yozuvchi yaratgan asarda zamonasining qanday dolzarb ijtimoiy-ma'naviy masalalari aks etgan va ularga nisbatan ijodkor munosabatini belgilash; b) yozuvchi badiiy mahoratiga badiiylilik va haqqoniylik talablari asosida baho berishda xilma-xil asarlarni qiyosiy o'rganish; d) ijodkor uslubining shakllanishiga ta'sir etgan adabiy an'analar, ijodiy ta'sir va shaxsiy izlanishlar ahamiyatiga e'tibor berish; c) yozuvchi hayoti va ijodini yorituvchi adabiyotlardan foydalanish.

“ Professor Q.Yo'ldoshev adabiy ta'limni tubdan yangilashda uning milliy-tarixiy ildizlariga tayanish kerakligini alohida ta'kidlaydi: “Qadim Turkistondagi maktablarda badiiy adabiyot asrlar davomida tajalli nazariyasiga tayanilgan holda o'qitilib kelingan. Negaki, ...chinakam badiiy asarlarning asosiy qismi yaratilishida tajalli tamal toshi vazifasini o'tagandir. Bu nazariyaga tayanadigan adabiy ta'lim o'quvchilarda ma'naviy sifatlarning shakllanishiga, bolalarda yaratuvchining qudratidan hayratlanish, qahridan qo'rqish, go'zalligidan zavqlanish singari xislatlarni barpo etishga ahamiyat beradi. O'quvchilarning qalbini tarbiyalashga, tuyg'ularini, hissiyotlarini noziklashtirishga diqqat qiladi. Tajalli asosida ish ko'radigan adabiy ta'lim komil shaxs tarbiyalashni maqsad deb hisoblaydi”.

Olim o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda asarlarning o'quv tahlili ustuvor mavqeda bo'lishi lozimligini qayd etadi.

Mustaqil yurtimizda adabiyot o'qitish jarayonining yo'nalishini belgilab beruvchi “Adabiy ta'lim konsepsiyasi” nomli bosh hujjatni yaratishda ham Q.Yo'ldoshev ilg'or qarashlarga tayangan. Uning rahbarligida yaratilgan adabiy ta'lim standarti, dasturi, ular asosida yaratilgan darslik, o'quv va metodik qo'llanmalarda milliy qadriyatlar va estetik asoslar ustuvorlik qiladi.

Q.Yo'ldoshevning “Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari” kitobida adabiy ta'lim tizimini tubdan yangilashning ilmiy-nazariy va tashkiliy tamoyillarini ishlab chiqqan. Asarda olim o'quvchilarga tayyor tushunchalar berish emas, balki badiiy matn asosida o'quvchilarda ma'naviy qarashlar, estetik did qaror toptirish birlamchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatib bergan. U “Adabiyot o'qitish metodikasi” qo'llanmasi mualliflaridan biri sifatida adabiy ta'limning o'zak masalalariga yangicha yondashuv namunasi ko'rsatgan.

Olimning adabiy ta'limni “...yangi ijtimoiy ong talablari darajasida tashkil etishning tamoyillarini belgilash pedagogika nazariyasi uchun ham, adabiyot o'qitish metodikasi uchun ham, tarbiya amaliyoti uchun ham kechiktirib bo'lmaydigan zarurat”[5] ekanini alohida ta'kidlashi adabiyot o'qitishni yangilashning muhim masalalarini ko'zda tutadi. Milliy va chet eldagi ilg'or pedagogik qarashlarni qiyoslab o'rganish, adabiyot o'qitishda tayaniladigan metodik, pedagogik va estetik asoslarga yangilanayotgan pedagogik tafakkur nuqtai nazaridan yondashuv olimning ilmiy tadqiqotlari qimmatining oshuviga sabab bo'ldi.

Q.Yo'ldoshev tomonidan “Adabiyot o'qitish konsepsiyasi” ishlab chiqildi. So'ngra shu yo'nalishning “Davlat ta'lim standarti” (Q. Husanboyeva bilan hamkorlikda) yaratildi. Bu davlat ahamiyatiga molik rasmiy hujjatlarga tayangan holda “Adabiyot” dasturi va darsliklarning yangi avlodi yozildi. Bularning yaratilishida olimning xizmatlari katta bo'ldi. Q. Yo'ldoshev “Adabiyot” darsliklari pedagogika, metodika, psixologiya va adabiyotshunoslik ilmidagi eng yangi qarashlarga tayangan holda yaratilib, yangi davr nafasini aks ettirishiga alohida e'tibor qaratdi.

Bundan tashqari, “Adabiyot” darsliklariga qo'yiladigan talablar”, “Adabiyot” majmualariga qo'yiladigan talablar” kabi rasmiy-metodik hujjatlarga ham u mualliflik qilgan. O'quvchiga tayyor bilimlar berilmay, DTS talablari asosida dasturda o'rganishga taqdim etilgan bilimlarni bola o'z mehnati bilan o'zlashtirishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, mehnat bilan erishilgan har qanday narsa bir umr yodda qoladi va kerak bo'lganda, hayotga tatbiq etiladi.

Darsliklar bolani ta'lim jarayonining obyekti bo'lish maqomidan darsning o'qituvchi bilan teng huquqli subyekti, ijrochisi darajasiga ko'tarilishi kerakligi ko'zda tutilib yaratilishi joiz. Ularni oddiy ishtirokchilikdan ta'lim jarayonining subyekti – bevosita ijrochisi martabasiga ko'tarish kerak. O'qituvchi bolalarning mehnatini to'g'ri boshqarib tura bilsa, o'quvchilar bilishlari kerak bo'lgan badiiy va hayotiy haqiqatlarni o'zlari kashf etadilar.

Biror badiiy asar va uning mazmunini qayta eslashga qaratilgan savollar tuzib qo'yish darslik yaratish degani emas. Adabiyot darsliklarining o'ziga xos ilmiy-pedagogik talablari, zimmasiga ortiladigan ijtimoiy-didaktik yuk bor. Duch kelgan o'qituvchi darslik yaratolmagani singari, metodika ilmi bilan maxsus shug'ullanmagan filolog ham yaxshi darslik yarata olmaydi. "Adabiyot" darsliklari, millat kelajagi ma'naviyatining shakllanishi omili sanaladi. Darslik yaratishga da'vo qilayotgan olimlar mana shu mas'uliyatni unutmashliklari kerak.

Ta'lim mazmunini tashkil etadigan o'quv rejasi, ta'lim konsepsiyasi va standarti, dastur, darslik, metodik qo'llanma singari vositalar o'qituvchi shaxsi bilan muvofiqlashgan holdagina o'qitish kechimi samarali bo'ladi. Chunki o'quv jarayonining qanday ma'no-mazmun kasb etishi bevosita o'qituvchining shaxsi, uning saviyasi, bilimi va mahoratiga bog'liq. Jamiyat va ta'lim jarayonidagi o'zgarishlarni ro'yobga chiqaradigan ham, o'quvchi bilan bevosita yuzma-yuz turadigan ham o'qituvchi.

O'quv fanlari orasida faqat adabiyot bevosita bolaning ko'ngli, uning ruhiyati va ma'naviyatini kamolga yetkazish vositasi hisoblanadi. Adabiyot darslari mutaxassis shakllantirish uchun emas, shaxs ma'naviyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois adabiy ta'lim jarayonida sof adabiyotshunoslikdan bilim berish emas, balki, inson ko'nglini tarbiyalash ustuvor bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir. Adabiyot darslarida badiiy asarlar tahlil qilinib, qahramonlarning xatti-harakatlari muhokama etilish jarayonida o'quvchilar odam va olam sirlarini o'rganadilar, asar muallifi va adabiy qahramonlar timsolida insonni kashf etadilar, oxir-oqibat navqiron fuqaro o'zligini anglay boshlaydi. O'zligini anglagan, mustaqil nuqtai nazariga ega bo'lgan odam o'z taqdirini boshqalar hal qilib yuboraverishiga yo'l qo'ymaydi. Insonga xos xususiyatlar bevosita ruhiyat bilan bog'liq bo'lgani uchun ham bugun ma'naviyat tarbiyasi mamlakat miqyosidagi muhim vazifaga aylandi. Ma'naviyatni tarbiyalash esa maktabda asosan adabiy ta'lim tizimi zimmasiga yuklanadi. To'g'ri, barcha o'quv fanlari zimmasida ma'lum darajada ma'naviyatni shakllantirish vazifasi bor. Biroq, adabiy ta'lim bu borada karvonboshilik qiladi. Chunki uning tadqiqot obyektining o'zi – inson.

Adabiyot darslarida odamning ichki olami, his-tuyg'ulari, kechinmalari, hayajonlari, iztiroblari o'rganiladi, tahlil qilinadi, munosabat bildiriladi. Inson umri davomida turli vaziyatlarning paydo bo'lish sabablari va oqibatlari aniqlanadi, muammolarning yechimi ustida o'yga tolinad[1.A.S.A.352-bet].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. –T.: Ma'naviyat, 2005. –B.352.
2. Dolimov S. 8-sinf "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligi uchun metodik qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 1980. –144 b.
3. Fariduddin Attor. Hikmatlar va hikoyatlar (Forsiydan Jamol Kamol tarjomasi). –T.: Muharrir, 2010. –B. 253.
4. Hamidjon Homidiy. Mashriqzamin-hikmat bo'stoni. –T., 1997. –B.39.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T., 2018. –B.11



6. Yo'ldoshev Q. Adabiy saboqlar. Umumta'lim maktablarining 8-sinf "Adabiyot" darsligi uchun metodik qo'llanma. – T.: Sharq, 2004.
7. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O'qituvchi, 1996. –B.81.
8. Yo'ldoshev Q. va boshq. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 9-sinfi uchun darslik. I qism. –T.: Yangiyo'l poligraph servis, 2014. –B.93.
9. Yo'ldoshev Q., Qodirov V. Adabiy saboqlar. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.: Sharq, 2005. –192 b.
10. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V. Adabiyot. 7-sinf darsligi. – T.: Sharq, 2005. –B. 368;
11. Голубков В. В. Методика преподавания литературы. –М.: Госучпедгиз, 2002. – С.302.
12. Гончарова Е. Б. Формирование мотивации учебной деятельности подростков //Вопросы психологии. 2000. № 6. – С. 81.
13. Mirqosimova M. Adabiy tahlil metodikasi (Adabiyot o'qituvchilari va talabalar uchun qo'llanma). –T.: RO'MM, 1993. –B.277.

## **O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQINI O'STIRISHGA MO'LJALLANGAN MASHQLAR.**

*Turanazarova Nilufar*

*Stajyor o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqni o'stirishga mo'ljalangan mashqlar va metodlarning qo'llanilish sharti va tartibining o'ziga xos xususiyatlarini nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallashga o'rgatish to'g'risida so'z yuritilgan.

### **Аннотация**

В данной статье говорится об обучении студентов на практике особенностям условий и порядка использования упражнений и методов, предназначенных для развития устной и письменной речи на основе теоретической информации.

### **Annotation**

This article talks about teaching students to practice the specific features of the conditions and procedures for the use of exercises and methods designed to develop oral and written speech based on theoretical information.

**Kalit so'z:** Nutq, og'zaki va yozma nutq, hikoya, matn, monologik nutq, nutq uslubi, badiiy asar.

**Ключевое слово:** Речь, устная и письменная речь, рассказ, текст, монологическая речь, стиль речи, художественное произведение.

**Keyword:** Speech, oral and written speech, story, text, monologue speech, style of speech, artistic work.

O'quvchining nutqini o'stirish bu tizimli va davomiy jarayon hisoblanib o'qituvchi tomonidan berilgan erkin topshiriqlarni mustaqil tarzda talqin qila olish, topshiriqni bajarilish jarayonida tushunchalarni tasavvurda aks eta oladigan darajada anglanishi muhimdir, ammo o'quvchining matndan olgan tushunchasi topshiriqni bajarish uchun berilgan yaqqol ko'rsatmasidan boshqacha bo'lishi mumkin, chunki xulosalar o'quvchilarning o'z aql va



zehni, qiziqishlari va tashabbuslari asosida hosil qilinadi. O'quvchilarning har bir chiqargan xulosalariga tayangan holda tafakkuri o'sib boradi – bu yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishning asosini tashkil qiladi. Shunga qaramay o'qituvchi o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini oshirish, fikrlarni jonli tarzda tasavvur qilishlari va berilgan topshiriqni bajarishlari uchun aniq shart va ko'rsatmalar asosida shakllanadigan ma'lumotlarga e'tibor qaratmog'i kerak. Og'zaki va yozma nutq, shuningdek o'quvchining nutq tamoyillaridan habardorligini tekshish uchun ham har xil mashqlar ko'zda tutiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, o'quvchilarning nutqiy bilim va kompetensiyalari davriy rivojlanishi, uni takomillashtirish yo'llari tushunarli va batafsil tasnifini yoritib beruvchi murakkab tadqiqot ishidir, chunki u alohida yoki butun bir tilning imkoniyatlarini batafsil yoritib beradi.

Og'zaki nutqni o'stirishda ko'p holatda matnlardan foydalanish an'anaga aylanganligi hech kimga sir emas. Ammo o'quvchining yoshi va salohiyatidan kelib chiqib erkin matn tanlash o'qituvchidan alohida e'tibor talab qiladi. Quyida endi keltirilgan fikrlarimizga dalil sifatida matn va matn asosida bajarilishi mumkin bo'lgan topshiriqlardan namuna keltirib o'tamiz.

“Hunarsiz kishi o'limga yaqin” o'zbek xalq ertagi.

### **Hunarsiz kishi o'limga yaqin**

O'tgan zamonda bir podsho yashagan ekan. Kunlarning birida u ovga chiqibdi-da, o'sha yerdagi bir o'tinchining go'zal qizini ko'rib uni sevib qolibdi.

Podshoh tomonidan kelgan sovchilarga:

-Podshohingizning nima hunari bor, men hunarli kishiga turmushga chiqaman?- debdi qiz.

Sovchilar:

-Dunyoda podshohlikdan ham katta hunar bo'ladimi? Podshoh barcha hunarli kishining otasi bo'ladi,- deyishibdi.

Qiz:

-Menga hunarlilarning otasi kerak emas, hunarlining o'zi kerak. Zamon o'zgarishi bilan bugun podshoh bo'lgan kishi ertaga tilanchi bo'lib qolishi mumkin. Podshohingizga borib ayting, menga hunarini ko'rsatsin, undan so'ng tegaman.-debdi.

Sovchilar qaytib kelib, qizning javobini aytibdilar. Podshohning bu so'zlarga achchig'i kelib, qizni jazolamoqchi bo'libdi-yu, biroq qizga bo'lgan sevgisi bunga yo'l bermabdi.

Nima qilarini bilmay, o'zini o'qitgan muallim bilan kengashibdi. Muallim “Yetmishta yangi hunar” degan kitobni keltiribdi-da, uni tovush chiqarib o'qibdi. Bir yerdan “hunarsiz kishi o'limga yaqindir” degan so'zlar chiqib qolibdi. Muallim ham shu yerda kitobni yopibdi-da:

-Qizning so'zi to'g'ri, “hunarliga tegaman” desa haqqi bor,- debdi.

Podshohning ilgarigi dardiga yana ming dard qo'shibdi. Muallimga ruxsat beribdi-da, o'zicha bir hunar o'rganmoqqa ahd qilibdi. Ertasiga podshoh taxtiga o'tirgan chog'ida, bir kishi bir gilam olib kelibdi. Bu gilamni ko'rish bilan podshohning ko'ngliga gilam to'qishni o'rganish havasi tushibdi. Gilamdo'z dankasini o'rgatishni o'tinib so'rabdi. U podshohga o'z kasbini yigirma besh kun davomida o'rgatibdi. Kerakli narsalarni tayyorlab, podshoh o'z qo'li bilan gilam to'qib, o'tinchining qiziga sovchilardan berib yuboribdi. Sovchilar qizga podshohning o'z qo'li bilan to'qigan gilamini ko'rsatganlarida u:

-Mana endi podshoh men istagan kishi bo'libdi, borib aytinglar, to'yni boshlayversin,- debdi.

**Endi topshiriq asosida berilgan savollarga javob bering.**

Bu topshiriqni bajarishdan oldin hikoya va maqolalarni o‘qib chiqishingiz zarur bo‘ladi. Topshiriqdagi savollar siz o‘qigan matnga oiddir. Ayrim savollar osonroq va ayrimlari qiyinroq tuyulishi mumkin, ammo har qaysi savolga javob berishda ongingizda ma’lum bir aniq va mantiqli javobni shakllantirib olishga harakat qiling. Ba’zi savollarga 4 ta javob varianti berilgan, siz o‘z fikringizni yig‘ib to‘g‘ri bo‘lgan harfni belgilang.

**Birinchi** misolda shunday savol keltirilgan va unga qanday to‘g‘ri javob berish ham ko‘rsatilgan.

1. Podshoh yoqtirib qolgan qiz kimning qizi edi?

A) savdogarni.

B) dehqonni.

C) o‘tinchini.

D) baliqchini.

2. Qizga qanday inson kerak ekan ?

A) jang san’atidan habardor.

B) hunarli.

C) mehnatkash.

D) boy-badavlat.

3. Podshohning dardiga dard qo‘shilishiga nima sabab bo‘ldi?

1 \_\_\_\_\_

4. Podshohning ko‘ngliga tushgan hunarga kim sababchi bo‘ldi?

1 \_\_\_\_\_

5. Qiz podshohning qaysi ishi uchun sovcilarga to‘yni boshlayverishini aytdi?

A) qizni jazolamoqchi bo‘lgani uchun.

B) gilam sovg‘a qilgani uchun.

C) otasini zindonga tashlagani uchun.

D) asrga olgani uchun.

6. Podshohning bu yerga meni o‘lim haydab kelgan ekan degan xulosaga kelishiga nima sabab bo‘ldi? javobni 2 ta vaziyatda ifodalang.

1 \_\_\_\_\_

2 \_\_\_\_\_

7. Podshoh nechki kun muhlat so‘raydi kabobchining odamlaridan?

A) 25

B) 40

C) 30

D) 20

8. Podshoh o‘z hunarini aytish bilan nimani maqsad qilgan deb o‘ylaysiz?

1. \_\_\_\_\_

9. Podshoh gilamni kimga tortiq qilinglar deb aytadi?

A) xotinigga.

B) vazirlarga.

C) podshohga.

D) kambag‘allarga.

10. Podshoh gilamda qanday belgi qoldirdi?

- A) teshik qoldirdi.
- B) muhr qoldirdi.
- C) zindon xaritasini chizdi.
- D) yordam so‘radi.

11. Kabobchining odamlari gilamni kimga berdi?

- A) vazirga.
- B) soqchiga.
- C) malikaga.
- D) vazirga.

12. Podshoh tushurgan muhrni kim ko‘rdi?

- A) vazir.
- B) o‘tinching qizi.
- C) soqchilar.
- D) yo‘lovchi.

13. Podshohning hunar o‘rganishiga nima sabab bo‘ldi?

Podshohning hunar o‘rganishiga qaror qilishiga sababni yoz, javobingni tasdiqlash uchun matndan tegishli misol keltirilgan gaplarni ajratib yoz.

---

14. Podshoh o‘rgangan hunar uni nimadan qutqarib qoldi? O‘z javobingni hikoyadagi ma‘lumotlardan foydalanib tushuntir.

1. \_\_\_\_\_

15. Nima deb o‘ylaysan, Podshohga o‘rgangan hunari keyinchalik ham yordam berarmikan?

1. \_\_\_\_\_

16. Hunarning odamlar hayotidagi o‘rni qanday? U hammaga kerakmi, qanday hunarlarni bilasan. Sen o‘zing qaysi hunarni yaxshi ko‘rasan va nima uchun.

Bittasi sababini keltiring.

1. \_\_\_\_\_

---

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGRA, EGMA va shu kabi xalqaro baholash dasturlariga tayangan holda o‘quvchilarning o‘qib-tushunish ko‘nikmasini aniqlash mamlakatimiz ta‘lim tizimida joriy qilindi. Aynan PISA xalqaro baholash dasturi o‘tkazilganidan so‘ng boshlang‘ich sinflar o‘rtasida o‘qish savodxonligi doirasida xotiraga tayanib, o‘quvchilar matn bilan tanishganlaridan so‘ng matn asosidagi savollarga javob berish orqali baholanishlari samarali emasligi haqidagi munozaralarning paydo bo‘lishiga olib kelganligini inobatga oladigan bo‘lsak, matn bilan ishlab, javob berish o‘quvchilarga qiyinchilik yaratishi, shuningdek, o‘quvchiga matnli topshiriq berilib, qisqa vaqtdan keyin matn olib qo‘yilsa, kitobxonning o‘qib-tushunish ko‘nikmasi xotirada saqlab qolish ko‘nikmasi bilan aralashib ketishi ham aniqlangan. Albatta dasturda o‘qish savodxonligining bu jihati ham inobatga olingan. Shu kabi boshlang‘ich sinflardagi muammolarni asos qilib, og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish barcha bilim olish va ijobiy natijalarga ega bo‘lishning kalitidir desak xato bo‘lmaydi. Nutq o‘stirish - so‘z ustida ishlash; so‘z birikmasi va gap ustida ishlash; bog‘lanishli nutq ustida ishlash kabi yo‘nalishlarga

ajratilgan. Soʻz, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza boʻlib leksikologiya (frazеologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, siintaksik xizmat qiladi; bogʻlanishli nutq esa logika, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Matchanov S. va boshqalar Oʻqish kitobi. 4-sinf darsligi. Toshkent – 2020. 160 bet.
2. Norboyeva D. 4-sinf oʻquvchilarining oʻqish savodxonligini baholash boʻyicha oʻtkaziladigan xalqoro tadqiqotlarga tayyorgarlik koʻrish uchun daftari Toshkent, 2019-yil, 15 bet.
3. Ona tili oʻqitish metodikasi (Boshlangʻich taʼlim fakulteti talabalari uchun darslik): [K. Qosimova], S.M atchonov, X. Gʻulom ova, Sh. Yoʻldosheva, Sh. Sariyev. — T.: «NOSHIR», - 2009. 352 b.
4. Turanazarova , N. ., & Jazoirov, M. . (2023). PISA XALQARO BAHOLASH DASTURIDA TOPSHIRIQLAR TAYYORLASHDA MATNLARNING OʻRNI. Наука и технология в современном мире, 2(9), 80–83
5. Markaz.tdi.uz - Taʼlim inspeksiya huzuridagi Taʼlim sifatini baholash boʻyicha xalqoro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi

### **НОФАОЛ ЛЕКСИК БИРЛИКЛАРНИНГ ТАСНИФИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ**

*Тешаева Мафтуна Бахтияровна,*

*Навоий давлат кончилиқ ва технологиялар университети тадқиқотчиси*

Лексика муттасил ўсиш ва ривожланишда бўлиб, унда доим янги сўзлар пайдо бўлади, тилдаги мавжуд сўзларнинг баъзилари аста-секин эскириб боради. Эскилик бўёғига эга бўлган сўзлар тилда бирмунча вақтга қадар ишлатилади. Шунга кўра умумхалқ тили луғат бойлигини икки қатта гуруҳга ажратиш мумкин: фаол сўзлар ва нофаол сўзлар.

Калит сўзлар; нофаол лексик бирликлар,

Фаол сўзлар гуруҳига маъноси шу тилда гаплашувчи барча кишиларга тушунарли ва кундалиқ турмушда қўлланиши одат бўлиб қолган сўзлар қиради. Бу гуруҳдаги сўзлар эскилик бўёғига эга бўлмайди.

Нофаол сўзлар гуруҳига эскилик бўёғи аниқ билиниб турадиган ва кўпчиликка маълум бўлмаган сўзлар қиради. Бу гуруҳдаги сўзлар кундалиқ алоқада камроқ ишлатилади.

Нофаол сўзлар икки гуруҳга бўлинади: эскириб қолган сўзлар (архаизмлар, тарихий сўзлар) ва янги сўзлар (неологизмлар)

**Архаизм ва тарихий** сўзларнинг услубий вазифаси. Тилнинг ҳозирги даври учун эскилик бўёғига эга бўлган сўзлар архаизм ёки архаик сўзлар деб юритилади. Сўз маъносининг эскириши ва турли сабабларга кўра унинг ўрнини бошқа сўз олиши натижасида архаизм пайдо бўлади. Масалан: авахта (қамокхона), мусофирхона (меҳмонхона) кабилар ўзбек тилида бугунги кун нуқтаи назаридан эскирган сўзлар бўлиб, уларнинг ўрнини янги сўзлар эгаллаган.

Архаиклашиш ҳодисасининг кўринишлари:

А) сўз бутун ҳолда, яхлитлигича архаиклашади. Бу лексик архаизм дейилади: гардун (осмон), довот (сиёҳдон).

Б) сўзнинг маъноларидан бири архаиклашади. Бу семантик архаизм дейилади. Масалан, нишон сўзининг «орден» маъноси архаиклашган, у белги, аломат, из маъноларида кенг қўлланилади. Шунингдек, ғанимат сўзининг «қўлга туширилган

нарса, ўлжа» маънолари архаиклашган, у «қулай, тузук, яхши» каби маънолари фаол ишлатилади.

**Архаик** сўзлардан тарихий воқеа, ҳодисаларни аниқ тасвирлашда услубий восита сифатида фойдаланилади. Архаизмлар бадиий асарларда, баъзи ижтимоий-сиёсий услубда ёзилган танқидий мақолаларда нутққа киноя, пичинг, мазах-масхара руҳи ва ҳажв бўёғини бериш учун ҳам ишлатилади.

Эскириб қолган сўзларга тарихий сўзлар ҳам киради. Ҳозирги ҳаётда учрамайдиган, фақат тарихий нарса ёки воқеа-ҳодисаларнинг номини билдирувчи сўзлар тарихий сўзлар дейилади. Масалан: омов, аллоф, бакавул, қози каби.

**Тарихий сўзлар**–ўзи англаган нарса ва ҳодисаларнинг ягона атамаси. Шунинг учун ҳозирги тилда уларнинг ўрнини боса оловчи синонимлар бўлмайди. Масалан, Ҳамзанинг Битсин энди эски турмуш, ул қулоҳу жандалар мисрасидаги қулоҳ, жанда сўзлари каби. Тарихий сўзлар шу хусусияти билан архаизмлардан кескин фарқланади (эскирган сўзлар ибораси буларнинг иккаласи учун мумий номдир).

Тарихий сўзлар, асосан, ўтмиш воқелигини аташда ишлатилади. Лекин васиқаси йўқ (одам); ўзига хон, ўзига бек каби халқ иборалари таркибидаги тарихий сўзлар (васиқа, хон, бек) ўтмишдаги нарса ва ҳодисаларнинг номлари бўлиб, уларнинг маънолари иборадан, англашиладиган мажозий маънога сингиб кетган. Бундай ўринларда, баъзи, умум учун ёд бўлган тарихий сўзларни умумисътемолдаги сўзларга ўхшатиб олиш ҳодисаси («халқ этимологияси» ҳодисаси) ҳам учрайди. Масалан, сан солор, ман солор, отга бедани ким солар ибораси халқ этимологиясида учраб сан солар, манн солар, отга бедани ким солар формасини олган. Бу ерда солор тарихий сўзи умунутқдаги солар (солмоқ) феълига ўхшатиб, тенглаштириб қўйилган. Тилда сансоларлик сўзининг шаклланиши ҳам юқоридаги ибора таъсирида воқе бўлган: сан солар-сансоларлик.

Тарихий сўзлардан тарихчилар, олим ва ёзувчилар тарихий воқеа ва ҳодисаларнинг аниқ тасвирини бериш, бадиий асарга тарихий руҳ бериш учун фойдаландилар. Масалан: *Қорани оқлашга ҳеч бир подшоҳнинг ёсасига сизмайди* гапида ёса тарихий сўз бўлиб, «қонун, тартиб» маъноларини билдиради. Бозорни айланиб юрадиган пояки воқеадан бошдан-оёқ хабардор экан. Илгариги вақтда бозор ва расталарда чилим чектириб юривчи кишини пояки дер эдилар.

Неологизмларнинг услубий вазифаси. Адабий тил доимо янги сўзлар–неологизмлар билан бойиб боради. Неологизмлар ишлаб чиқариш ва ижтимоий муносабатда бўладиган ўзгаришлар, фан-техника янгиликлари, санъат, адабиёт ва публицистикадаги янгича тушунчалар–умуман, жамиятнинг, ҳаётнинг талаб-эҳтиёжи билан пайдо бўлган сўзлардир: новатор, чанглагич, пуркагич.

**Неологизмларнинг** пайдо бўлиш йўллари хилма-хил:

1. Тилнинг мавжуд лексик таркиби ва грамматик қонун-қоидалари заҳирасида янги сўз яшаш йўллари билан. Бунда сўз яхлитлигича неологизм бўлади: пайвандчи (металл уловчи), чўлқувар (бўз ерларни ўзлаштирувчи маъносида).
2. Тилдаги мавжуд сўзларнинг лексик маъноларидан бирини янги маънода қўллаш йўли билан. Масалан: чўмич сўзининг «ковш» маъноси каби: Экваторнинг чўмичи шу уюмлардан оша янги тупроқларни ирғитади.
3. Бошқа тилдан (асосан, рус тилидан) сўз қабул қилиш йўли билан. Бошқа тилдан сўз икки хил усул билан олинади:
  - а) айнан қабул қилинади: космонавт, самосвал;
  - б) калькалаш йўли билан олинади: ўзибўларчилик, ер йўлдоши каби. Калька усулини оддий таржимадан фарқлаш керак. Калькалашда бошқа тилдан ўзлаштирувчи



тилга тақлидан нусха олиш асосида неологизм яратилса, оддий таржимада эса бошқа тил сўзи аввалдан мавжуд бўлган ўз сўзлар билан берилади.

1. А. Шомақсудов, И. Расулов, Р. Қўнғуров, Х. Рустамов. Ўзбек тили стилистикаси. Т.: Ўқитувчи, 1983 й.

2. Р. Қўнғуров, С. Каримов, Т. Қурбонов. Ўзбек тили функционал стиллари. С.: СамДУ нашри, 1984 й.

3. Э.Қиличев. “Ўзбек тилининг амалий стилистикаси” (педагогика олийгоҳларининг филология факультети талабалари учун ўқув-қўлланма). Тошкент «Ўқитувчи», 1992.

## ESSE BADIY-PUBLITSISTIK JANR SIFATIDA

*Umida Sa'dullayeva, Rayxon Shodiyeva*

*Navoiy innovatsiyalar universiteti*

**Annotatsiya.** Badiiy-publitsistik janrlarning boshqalardan farqlovchi xususiyatlari mavjudligi, shu ma'noda, esse janri tili va uslubi jihatdan o'ziga xosligi, boshqa janrlardan farqli hamda o'xshash jihatlarining mavjudligini ko'rsatib berildi.

**Kalit so'zlar:** esse, janr, badiiy-publitsistik, epigraf, intermatn, muallif pozitsiyasi.

**Аннотация.** Было показано, что художественно-публицистические жанры имеют отличительные черты от других, в этом смысле жанр эссе уникален по языку и стилю, имеет отличия от других жанров, а также сходства.

**Ключевые слова:** очерк, жанр, художественно-публицистический, эпиграф, интертекст, авторская позиция.

**Annotation.** It was shown that artistic and journalistic genres have distinctive features from others, in this sense, the essay genre is unique in language and style, has differences from other genres, as well as similarities.

**Keywords:** essay, genre, artistic and journalistic, epigraph, intertext, author's position.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda publitsistik uslubni o'rganish hamda fan va ta'limni amaliyot bilan uzviy integratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish, ijtimoiy-siyosiy voqea-hodisalarni bosma media matni orqali turli til vositalari yordamida yoritishda publitsistikaning so'nggi yutuqlariga tayangan holda olib borilmoqda. Publitsistik matndagi ideologemalar publitsistik dunyo manzarasining bir qismi, elementidir.<sup>1</sup>

Matbuot janrini tasniflashda muallif maqsadi va unda yechiladigan ijodiy vazifa e'tiborga olinadi. “Publitsistik matni tasniflash quyidagi uch asosiy unsurdan tashkil topadi:

a) yangilik yoki yuzaga kelgan muammo haqidagi xabar;

b) vaziyatni ayrim-ayrim yoki to'laqonli anglash;

v) auditoriyaga ta'sir o'tkazish.”<sup>2</sup>

Mavjud voqelikka badiiy publitsistik, siyosiy publitsistik va ilmiy publitsistik munosabat esse turlarini ajratishga asos bo'lgan. *Esse* (essey) – g'arb adabiyotidan kirib kelgan yangi janr, fransuzcha so'z bo'lib “qurish, urinib ko'rish” degan ma'noni beradi, esse – erkin, subyektiv, andozalarni tan olmaydigan janr. Esse (fr. *essal* – tajriba, sinab ko'rish), ya'ni muallifning muayyan masala, voqea-hodisa va hayotiy vaziyatga bo'lgan individual fikr-kechinma, mushohada-mulohazalarini kompozitsion-tematik jihatdan erkin ifodalash

<sup>1</sup> Солганик Г. Я. О структуре и важнейших параметрах публицистической речи (языка СМИ) // Язык современной публицистики. – М., 2000. – С. 45.

<sup>2</sup> Publitsistika tili va uslubi (to'plam). Т.: Universitet, 2004, 12-bet.

imkonlari kengaydi. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da «esse (fransuzcha *esesai* – tajriba, mashq, xomaki narsa) adabiy, falsafiy, ijtimoiy, publitsistik va boshqa mavzularda yozilgan, muammolar sistematik ilmiy tarzda emas, balki erkin shaklda talqin qilinadigan nasriy asar»<sup>1</sup> deb keltirilgan. Aniq mavzuga tegishli bo‘lgan yakka bir shaxsning o‘z mustaqil nuqtai nazaridan yozilgan o‘y, fikr-qarashlari esse deyiladi. Ruh erkinligi, fikr erkinligi, ijod erkinligi mavjud bo‘lgandagina u o‘zligini to‘la namoyon eta oladi.

Essening keng leksikasi, uning lug‘ati bir qarashda turfa xil ekanligi ham shu bilan izohlanadi. Esse jamoatchilik uchun qiziqarli bo‘lgan va tarbiyaviy ahamiyatga ega barcha siyosiy-ijtimoiy mavzularni yoritadi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida essening tili muhim ahamiyatga molik, zero, “til ijtimoiy individ sifatidagi insonning uzoq muddatli belgi-tushunchalardan hosil bo‘lgan xotirasidir.”<sup>2</sup> Esseda muallif pozitsiyasi doimo lirik kayfiyat va publitsistik ko‘tarinkilik bilan yo‘g‘rilganligini ham alohida ta’kidlash lozim.

Esse janrining shakllanish tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Olimlar esse janrining yuzaga kelishida ikki manbani inobatga olishadi: *g‘arbiy va sharqiy yo‘nalish*.

1. *Essening g‘arbiy yo‘nalishi*. Esse antik davrda Platonning dialektik jarayonlariga, Platonning dialektik jarayonlariga, Suqrotning esa - mayevtika ya‘ni, topishmoq, metafora, paradokslar orqali so‘zlovchini javob topishga qaratilgan faol holatini yuzaga keltiruvchi fikrlash maydonini to‘plash g‘oyasiga asoslanadi. Janr sifatida esa dastlab fransuz faylasufi Mishel Montening «Esse» («Tajribalar») asarida qo‘llangan. Faylasuflar sevib ijod qiladigan falsafaning muhim adabiy janrlaridan biri essedir. Esse nisbatan kechroq tug‘ilgan (Monten esselari) janr bo‘lganiga qaramay, falsafada juda muhim ahamiyatga ega janrdir. Masalan, antik davrda Platon, yangi davrda Jon Lokk va boshqa mutafakkirlar undan o‘z asarlarini yozishda juda unumli foydalanishgan. Esse o‘zining erkinligi va sub‘ektga fikr ifodalashga keng imkoniyatlar berishi bilan, masalan, ocherkdan katta farq qiladi. O Montening bizgacha yetib kelgan ushbu asari uch kitobdan iborat bo‘lib, u 1580-1588-yillarda yaratilgan. Bunda Monten «Esse» haqida: «Kitobimning mundariyasi – men o‘zimman» deb yozadi. Montening falsafiy, tarixiy, siyosiy, diniy, lingvistik, pedagogik, axloqiy dunyoqarashi, umumiy va xususiy qarashlari «tajribalari»da aks etgan. Monten turli xalqlarning urf-odatlarini, rasm-rusumlari, o‘qilgan kitoblarning mazmun-mohiyati xususida yozgan, agar yozganlari asosiy manba - shaxs obraziga qaytmaganda, ular uzoq sharhlar, sitata va ko‘chirmalar yig‘indisi aylanardi<sup>3</sup>.

L.G.Kayda esse janrining paydo bo‘lishi antik davrga borib taqalib, Lukianning «Deklamatsiya»sida, Platonning «Dialog»i, Mark Tuliyy Sitseronning traktatlarida insonning dunyodagi barcha narsalarga shaxsiy munosabati, ya‘ni ushbu janrga xos jihatlar yoritilganini ta’kidlaydi<sup>4</sup>.

Rus adabiyotida essega xos alomatlar A.Gersenning «Boshka tomondan: publitsistika»<sup>5</sup>, F.Dostoevskiyning «Yozuvchi kundaliklari»<sup>6</sup> asarlarida ko‘zga tashlanadi.

2. *Essening sharqiy yo‘nalishi* Sey Senagonning «Bosh tomondagi qaydlar (Zapiski u izgolovya)» (X asr), Kamo Temeyning «Maxfiy qaydlar (Zapiski v kele)» (XIII asr), Yesi Kenkning «Bo‘sh vaqtda (V chasy dosuga)» (XV asr) asarlardagi g‘oyalarga asoslanadi. 1697-yilda Frensis Bekon esse yozib, ingliz esse janrining rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

<sup>1</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2008, 5 jild. 57-bet.

<sup>2</sup> Федотова Л.Н. Контент анализ в арсенале социологии // Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. Ч. 2. – М., 2004. 222-с.

<sup>3</sup> Эпштейн М.Н. Эссе об эссе / М.Н. Эпштейн. - М., 1998. 225-240-сс.

<sup>4</sup> Кайда Л.Г. Эссе: Стилистический портрет. - М., 2008. 16-с.

<sup>5</sup> Герцен А. И. С того берега: публицистика. Москва: Директ-Медиа, 2008. 242 с.

<sup>6</sup> Достоевский Ф.М. Дневник писателя. Москва: 2008. 350 с.

B.Franklin esa XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida AQShda siyosiy esse asoschisi sifatida tanildi. Rus adabiyoti va publitsistikasida 1930-40-yillarda Marina Svetaeva, Konstantin Paustovskiy, Ilya Erenburg, Aleksey Tolstoy, Iosif Brodskiy kabi yozuvchilar esse janrida ijod qilganlar.

Sharqda mavjud bo'lgan *noma, manoqib, holot, xotira* janrlarini esse namunalari sifatida keltirish mumkin. O.Sharafiddinov «Ijodni anglash baxti» kitobi mustaqillik yillarida yaratgan maqola, esse va adabiy suhbatlaridan tashkil topgan. “Ular yangilanayotgan zamonaviy milliy adabiy tafakkurning – XX asr o‘zbek adabiyoti tarixini yangicha qayta idrok etish, qolaversa, badiiy ijodni, ijodkor shaxsini sho‘ro davrining qarashlaridan farqli o‘laroq, umumbashariy mezonlarda anglashning yorqin namunalaridir. Zamondosh adiblar, ilm-fan, ma’rifat, jamoat arboblari haqidagi esse-badialar bu janrning hozirgi jahon adabiyotidagi eng yaxshi namunalari bilan bir qatorda tura oladi”<sup>1</sup>.

Nabijon Boqiy publitsistikasida sarlavha tanlash mashaqqatidan xabardor ijodkor mahorati ko‘zga tashlanadi. Chunki, har bir sarlavhalarining o‘zidanoq o‘quvchini beixtiyor o‘ylashga, uni o‘qishga majbur qiladigan mavzu borligi anglanadi. Masalan, “Bir siqim tuproq” sarlavhali maqolasi o‘quvchi xayollarida “Yurt tuprog‘idan azizroq nima bor o‘zi?” degan savolni tug‘diradi va o‘qishga qiziqishini orttiradi. Ko‘pchilik o‘quvchi gazeta va jurnallarni kuzatar ekan, dastlab sarlavhalarni ko‘zdan kechiradi. O‘quvchini esa noodatiy, kutilmagan, qiziqarli sarlavhalar e’tiborini tortadi.

Esse erkin kompozitsiyali, uncha katta bo‘lmagan adabiy-publitsistik janr bo‘lgani uchun ham, fikrni erkin, tabiiy ifoda etadi, zamon va zamondoshlar, san’at va adabiyot, tarix va falsafa, hayot va inson munosabatlari haqidagi qarashlar, insoniy tuyg‘u va orzu-umidlar, tarix va hayot oldidagi mas’ullik hissi ifoda etiladi, bu ifodalar muallif dunyoqarashi, yondashuvi, fikri, o‘yi va his-tuyg‘ulari sifatida baholanadi. Shu o‘rinda aytish lozim, essening turlari bir necha xil bo‘lib, yozilish maqsadiga ko‘ra uning qay turga mansubligi aniqlanadi. “*Shoshayotgan odam*” (A.Juraev) nomli publitsistik esse-monologda insonning muammolar girdobida yashashi va doim har bir harakatida nimagadir, qayoqqadir shoshish va shu shoshqaloqlik natijasida umr o‘tib borayotigani, shoshqaloqlik umr mazmunini anglashdan uzoqlashtirishi kabi holatlar tilga olingan. Jumladan, mazkur essegga epigraf tarzida A.Muxtorning “Aziz inson, senga nima kerak? Qaylarga shoshasan, qayda manziling?” degan hikmati tanlangan. Sarlavha va epigraf mavzu g‘oyasini o‘quvchiga darrov tushuntiradi. Muallif shoshib qilingan ishlar muammo keltirishi yoki samara bermasligidan ogohlantiradi.

Kuzatsak, esse janri mohiyatida ochiqlik, dolzarblik, fikr erkinligi, hozirjavoblik, turfa fikrlilik, bugungi hayotga munosabat, badiiy tafakkur yotadi. “*Shoshayotgan odam*” esse-monologida quyidagi o‘rinda bugungi hayotga munosabatni ko‘ramiz:

Zamon o‘zgarishlari shiddat bilan kechayotir. O‘tish davrining zalvorli g‘ildiraklari aslo tinmay aylanayotir. Obodlik avjiga chiqqan palla. Yurt bilan birga o‘zimiz ham, qalbimiz va turmush tarzimiz ham keskin o‘zgarib borayotir.

Keltirilgan shaxsiy fikrlar isboti tarzida intermatnlar keltirish ham esse janrining o‘ziga xos xususiyati deyiladi. “*Shoshayotgan odam*” esse-monologida quyidagi intermatnlar keltirilgan:

1. *Xayolingizga keltirsangiz, Gyote yozganidek: “Shoshqaloqlik – barcha adashishlarning onasi”, ekan...*

2. *“Eb to‘ymagan, yalab to‘yarmidi”, degan naql borku xalqimizda!*

---

<sup>1</sup>Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. 2-6.

3. Afsuski, “sholi kurmaksiz bo‘l magandek”, bu jarayonda ba‘zan ko‘zbo‘yamachilik, ba‘zan buyruqbozlik qilib o‘z shaxsiy manfaatlari uchun shoshayotgan ayrim g‘alamis va cho‘ntakparast kimsalarning nojo‘ya, nopok ishlarini ko‘rib ranjiysan.

4. “Shoshgan qiz...” degan xalq maqolini eshitmaganmisan?..

5. Shoir deydi:

Avlod-ajdoding kim? Shoshmay fikr qil, Shoshmay so‘z degil-u, shoshmay zikr qil. Shoshqin daryoman, deb, vaqt-bevaqt toshma, Ummon bo‘lmoqlikka, ayniqsa, shoshma!

6. Ahmad Yassaviy yozganidek:

Gunohingga tavba qilib, yig‘lab yurg‘il,  
Ketarman deb, yo‘l boshig‘a borib turg‘il,  
Ketganlarni ko‘rib san ham ibrat olg‘il,  
Ibrat olsang, yotmish yering bo‘lar gulzor...

7. Shoirning o‘tli misralari yodga tushadi:

Uyum tuproq bo‘ldi quvonchi-g‘ami,  
Kimdir boqib dedi: “Shunga shunchami?!”

Esse matni mazmunini tushunishda keltirilgan intermatnlar o‘quvchidan keng bilimlilikni talab qiladi, essegga yuklangan mazmunni to‘laroq ifoda qilishga ko‘maklashadi.

Shaxsning ichki dunyosini “chizish” essedagi mantiq yo‘nalishiga bo‘ysunadi. Adib tashqi tasvirga nisbatan ichki, ya‘ni ma‘naviy qiyofa tasvirida bor mahoratini namoyish qiladi. Tasvir jarayonida essenavilar so‘zlarni tanlab-tanlab “ishga soladi”. Har bir so‘z, har bir ibora, har bir maqol bevosita yoki bilvosita, portret tasviridagidan farqli o‘laroq, ichki tasvir uchun xizmat qiladi.

## O‘QISH SAVODXONLIGINING RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

*Normuminova Dilobar Nuriddinovna,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada o‘qish savodxonligining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar, strategiyalar, o‘qib tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish, qolaversa matn bilan ishlash malakalari xususida fikr bildirilgan. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda matn ustida ishlash ko‘nikmalari tahlil qilingan. O‘qish va Tushunish o‘rtasidagi farqlar ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** savodxonlik, tushunish, metakognisiya, fonemik ong, leksik sifat, kognitiv jarayon

**Annotation:** This article discusses the factors, strategies, reading comprehension skills, and text handling skills that influence the development of reading literacy. Text processing skills are analyzed in the development of growth literacy. The differences between reading and comprehension are revealed.

**Keywords:** literacy, comprehension, cognitive process, metacognition, phonemic consciousness, lexical quality.

O‘qish, tushunish endi har bir o‘quvchi uchun interaktiv, strategik va moslashuvchan bo‘lgan jarayon hisoblanadi. O‘qib tushunish darhol o‘rganilmaydi, bu vaqt ichida o‘rganiladigan jarayondir. Tushunish o‘qilgan narsadan ma‘no yaratishni o‘z ichiga oladi. O‘qish bu yozilgan nutqni tushunish jarayoni. Tilshunoslik nuqtai nazaridan tushunish subleksik va leksik elementlardan iborat. So‘nggi tadqiqotlar, psixolingvistika, shuni



ko'rsatadiki, matnni tushunish uchun o'quvchi metalingvistikaga ega bo'lishi kerak. Metallingvistik ongni aniqlashda Lorik va Torok& Hodi tadqiqot olib borgan. Tilni obyekt sifatida o'ylash va uni ongli ravishda boshqarish tushunish qobiliyatini shakllantiradi.

Metakognisiya o'z fikrlaringiz haqida o'ylashdir. Lug'at va so'z ma'nosini tushunishni osonlashtiradigan muhim omildir. Perfetti "Leksik sifat gipotezasi"ni ishlab chiqdi, bu esa o'qish qobiliyatlari imlo, fonologiya, morfologiya va so'zning ma'nosi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

O'qish odamning atrofidagi hamma narsani o'rganishi uchun eng muhim qobiliyatlardan biri va boshlang'ich nuqtasi. Bu maktabda va butun hayot davomida o'rganish uchun juda muhimdir. Bu ko'nikma o'quvchilarga matn, tasvirlar va ularning xabarlarini tushunish, e'tiqodlar, amaliyotlar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish va ularning keyingi avlodga o'tishini ta'minlash hamda oldingi tajribalarini yangilari bilan bog'lash imkonini beradi. Ingliz olimi Aleksandr aytganidek, "O'qish bugungi kunda har qachongidan ham muhimroqdir, chunki bilimli fuqaro bo'lish, tanlagan kasbida muvaffaqiyatga erishish uchun juda muhimdir. [Aleksandr, 2007: 66].

O'qish va tushunish ikki xil narsadir, lekin ajralmas. O'qishning o'zi tushunishdir. Agar ma'lumot qayta ishlanmasa, tushunish amalga oshmagan bo'lsa, demak o'qish sodir bo'lmagan. Bernardezga ko'ra, "o'qish bosma so'zlar yoki yozma belgilarning ma'nosini bilish va tushunish san'ati, shuning uchun o'qish aniq tushunishdir". Melon-Galvez va Dela Cerna fikriga ko'ra, tushunish so'zi lotincha "prehendre" so'zidan olingan bo'lib, "ushlash" degan ma'noni anglatadi, bu tushunish san'ati yoki qobiliyatidir.[Gina Cervitte, 2001: 25].

Bernardez tushunishning to'rtta darajasini tasniflagan: so'zma-so'z, izohlash darajasi, tanqidiy daraja va qo'llash darajasi.

So'zma-so'z darajada, o'quvchilar o'qigan narsalarining asosiy ma'lumotlarini tushunishlari kerak, bu hikoyadagi qahramonlarni aniqlashni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi daraja, talqin qilish, izohlash darajasi, bunda o'quvchilar o'qish parchasida yozuvchining ma'lum bir vaziyatga nisbatan nimani nazarda tutmoqchi ekanligini bilishlari kutiladi.

Tanqidiy darajada o'quvchilar yozuvchining ishini muhokama qilishlari yoki tanqid qilishlari kerak. Misol uchun, o'qituvchi o'quvchilardan yozma ish uchun oxiri yoki sarlavhasi mos keladimi yoki yo'qligini so'rashi mumkin va ular javoblarini asoslashlari kerak.

So'nggi darajada o'quvchilar o'qiganlarini turli xil tadbirlar orqali qo'llashlari kutiladi. Masalan, o'quvchilar ma'lum bir yozma ish mavzusi haqida qisqacha matn yozadilar.

O'qish va matndagi ma'lumotlarni tushunish orqali tushunish rivojlandi. Tushunishni rivojlantirish o'quvchilardan hikoya va izohli matnni tahlil qilish, izohlash va javob berish talab qilinadi. [Bernardez, 2009: 36].

So'z ma'nosini bilish va matnni tushunish o'qish tushunchasining muhim elementlari hisoblanadi. O'quvchi o'zi o'qigan so'zlarni tushunmasa, u butun matnni tushunmaydi. Ota-onalar va o'qituvchilar o'quvchilar matnlarda uchraydigan potentsial noma'lum so'zlarni aniqlashi va yangi so'zlarning ma'nosini tushunishi uchun kontekstli maslahatlar berishga yordam berishlari mumkin.

O'qish savodxonligini rivojlantirish uchun foydali strategiyalar:

–talabalar qog'oz va qalam bilan o'qishi kerak. Ular taxmin qiladigan yoki tushunadigan narsalarni eslatib qo'yishadi. Ular savollarni yozishi, barcha ta'kidlangan so'zlarning ro'yxatini tuzishi, aniqlanishlari kerak bo'lgan biron-bir notanish atamani topishi kerak. Bu sinfda keyinroq muhokama qilish uchun tayyorgarlikda ham yordam beradi;



–talabalar matn muallifi tomonidan taqdim etilgan maslahatlardan foydalanishlari kerak. Kontekstli maslahatlarga, ya’ni bilmasligi mumkin bo’lgan soʻzlardan oldin yoki keyin toʻgʻridan-toʻgʻri soʻz yoki iboraga qarashlari mumkin.

–kontekstli maslahatlar quyidagicha boʻlishi mumkin: Ildizlar va qoʻshimchalar, soʻzning kelib chiqishi, kontrast (soʻzning qanday soʻz bilan solishtirilganligini yoki gapning boshqa soʻz bilan solishtirilishini bilish)mantiq (noma’lum soʻzni tushunish uchun jumlaning qolgan qismini hisobga olgan holda ta’rif (soʻzga mos keladigan izohni ishlatish) misol yoki tasvir;

–Grammatika, soʻzning ma’nosini yaxshiroq tushunish uchun jumlada soʻz qanday ma’no anglatishini aniqlash.

–PQRRni amaliyotga tatbiq etish.Bu toʻrtta bosqichdan iboratdir. Preview, Question, Read, Reflect, Read and Review. Koʻrib chiqish, oʻquvchilarga umumiy ma’lumotni olish uchun materialni tekshiradi. Oʻquvchilar oʻqiyotganda oʻzlariga savol berishlari kerak. Matnni oʻqiyotganda oʻquvchilar vaqti-vaqti bilan oʻqishni toʻxtatib, oʻqiganlarini umumlashtirishi kerak. Xulosa yaratishda talabalar eng muhim gʻoyalarni integratsiyalash va matn axborotidan umumlashtiradilar. Muhim fikrlarni ahamiyatsiz yoki ahamiyatlilarga ajratish kerak. Xulosa tuzish va umumlashtirish amaliyotni yanada tushunarli qiladi.

Oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati oʻquvchilarning oʻqish savodxonligiga sezirarli darajada ta’sir qiladi. Odatda bir yoki ikki bolali oilalarning bolalari yaxshiroq tushunishadi.

Bolaning oʻqish qobiliyatiga koʻplab omillar, jumladan, boshlangʻich bilim, uy muhiti, maktab tajribasi va qiziqish darajasi ta’sir qilishi mumkin. Biroq, sof oʻqish qobiliyati bolaning beshta erta savodxonlik qobiliyatiga ega boʻlgan muvaffaqiyati bilan bevosita boʻliqdir; fonemik xabardorlik, alifbo printsiipi, ravonlik, soʻz boyligi va tushunish. Ota-onalar va oʻqituvchilar ushbu beshta asosiy koʻnikmalarni rivojlantirish orqali oʻqish savodxonligini oshishiga koʻmak berishadi.

Fonemik ong – bu tovushlarni eshitish va ogʻzaki boshqarish qobiliyati. Bu mahorat butunlay oʻgʻzaki,yozma emas,til bilan amalga oshiriladi. Kuchli fonematik ongga ega boʻlgan bolalar oʻqish paytida soʻzlarni yaxshiroq aytishadi.Fonemik tushuncha soʻzlarni alohida tovushlarga boʻlish, soʻzlarni hosil qilish uchun tovushlarni aralashtirish, jummlalar bilan soʻzlarni tanib olish, boʻgʻinlarni ajratish va qofiyali soʻzlarni aniqlash va ishlab chiqarish qobiliyatini oʻz ichiga oladi.

Alifbo tamoyili harflarni taniy olish, soʻzlarning alohida harflardan yasalganligini tushunish va tovushlarni bosma harflar bilan bogʻlash qobiliyatini oʻz ichiga oladi. Soʻzlarni dekodlash yoki ovoz chiqarib aytish alifbo printsiipi bilan bogʻliq boʻlgan muhim mahoratdir.

Ravon oʻqish oʻquvchining oʻqish aniqligi va tezligini oʻz ichiga oladi. Ravon oʻqiydigan oʻquvchi matnni toʻgʻri, tez va mos ovoz ohangida oʻqiy oladi. Ravon oʻqish oʻquvchilar uchun yanada yoqimli va tajribaga ega boʻladi. Ravon oʻqiydiganlar odatda deyarli hech qanday qiyinchiliksiz oʻqiy oladilar. Bu ularga soʻzlarni dekodlash va tanib olishdan farqli ravishda tushunish va lugʻatga oʻz sa’y-harakatlarini jamlash imkonini beradi. Talaba matndan ma’no topadigan malakali oʻquvchi boʻlishi uchun u birinchi navbatda ravon oʻquvchi boʻlishi kerak.

Lugʻat oʻqish paytida soʻzlardan ma’no olishni oʻz ichiga oladi. Aslini olganda, oʻquvchi parcha ichidagi soʻzlarni tushunmasdan, matndan ma’noni tushuna olmaydi yoki tuza olmaydi. Soʻz boyligi kuchli boʻlgan bola yanada ravon va maqsadli oʻqiy oladi. Soʻz boyligi har kuni suhbat, oʻqish, toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrsatmalar va hayotiy tajribalar orqali oʻsib boradi. Bolalarga har kuni ovoz chiqarib oʻqish va tanlangan soʻzlarni aniq oʻrgatish kuchli lugʻat bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Gaplarni tushunish uchun soʻzlarni aniqlash juda muhimdir. Matnni oʻqish individual soʻzlarni aniqlash bilan boshlanadi. Oʻquvchi har bir jumlaning maʼnosini birlashtirishi va baholashi kerak.

Oʻqish savodxonligini rivojlantirishda ushbu omillar samarali natija beradi. Ona tili darsliklarida beriladigan matnlarni nafaqat qoidalarga koʻra, balki grammatikani aralashtirmagan holda ham tahlil qilish, oʻquvchilar matnda ishlatilgan soʻzlarning oʻz maʼnosini anglay olishlari yoki anglamaganliklariga eʼtibor berish, bilim darajalarini aniqlash va toʻgʻri yoʻnalish berish lozim. Zero, bola grammatik qoidalarsiz va badiiy ifodalarsiz ham oʻz fikrini bildira olsin, oʻqilgan yoki eshitilgan maʼlumotni toʻgʻri tahlil qila olsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, R. C., & Freebody, P. Vocabulary knowledge. In: J. T. Guthrie (Ed.), *Comprehension and Teaching: Research Reviews*. Newark, DE: International Reading Association. 1981
2. Bloom, P. *How children learn the meanings of words*. Cambridge, MA: MIT Press. 2000.
3. David Pearson va Gina Cervettining “The roots of reading comprehension instruction” maqolasi, Volume 79, 2017.

## OʻZBEK XAQL OGʻZAKI IJODIDA ROʻMOL RAMZI

*Abduraxmonova Dilshoda,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*Oʻzbek tili va adabiyoti fakulteti I kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada ramzlarning qoʻllanilishi, xalq ogʻzaki ijodi naʼmunalarida roʻmol ramzining tasnifi oʻrganib chiqildi. Tadqiqot davomida milliy qadriyatlarimizning bir boʻlagi boʻlgan roʻmol ramzi aks etuvchi qoʻshiqlar, urf-odatlarini tahlil qilishga, alohida toʻxtalib oʻtishga qaror qildik.

**Kalit soʻzlar:** ramz, roʻmol, xalq qoʻshiqlari, milliy anʼanalar, urf-odatlar, ayol, “lachak”, marosim.

**Annotation:** The use of symbols and the classification of the headscarf symbol in the examples of folk art were studied in the article. During the research, we decided to analyze the songs and traditions that reflect the symbol of the headscarf, which is a part of our national values.

**Key words:** symbol, headscarf, folk songs, national traditions, customs, woman, "lachak", ceremony.

**Аннотация:** В статье исследовано использование символов и классификация символа платка в примерах народного творчества. В ходе исследования мы решили проанализировать песни и традиции, отражающие символ платка, который является частью наших национальных ценностей.

**Ключевые слова:** символ, платок, народные костюмы, национальные традиции, обычаи, женщина, «lachak», обряд.

Oʻzbek xalq ijodiyoti bitmas-tuganmas ummondiki, qoʻshiqlar undagi sarchashma buloqlardan biridir. Qoʻshiqlar xalqimizga har qanday davrda: ogʻir yuklarni koʻtarib oʻtishda ham, dorilomon kunlarga yetishda ham, doimo hamroh boʻlib keladi.

Xalq qoʻshiqlari – qudratli tarbiya manbaidir. Ularda xalq turmushining barcha sohalariga oid pand-nasihatchilik, sevgi-sadoqat oʻgitlarini topasiz. Oʻzbek xalqi juda qadimdan behisob

qo‘shiq xazinasiga ega. Bu qo‘shiqlarni ko‘hna zamonlardan to hozirgi kunlargaacha ardoqlab , saqlab , sayqal berib aytib kelmoqdalar.

Tarixiy asoslari qadimiy bo‘lgan o‘zbek xalq qo‘shiqlari ruhiy ma‘naviy quvvat baxsh etuvchi o‘ziga xos qadriyatlar tizimi bo‘lib, har bir kishi uchun iftixor tuyg‘usining shakllanishida asosiy rol o‘ynagan. Xalq qo‘shiqlarining janriy tarkibi o‘ziga xos kompozitsion xususiyatlari, semantik uslubiyat xarakteri, so‘z magiyasi bilan bog‘liq qadimiy etiqodlar talqinining ifodasi, milliy ruh va milliy koloritning, yaqqol ko‘zga tashlanib turishi, xalqona ohanglarning yetakchilik qilishi bilan alohida ajralib turadi. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida bo‘lgani kabi xalq sherlarida ham fikrni shery talqin qilish, yani estetik idrok etilgan voqelik haqidagi taassurotlarni poetik so‘z vositasida bayon qilishdagi ijodiy o‘ziga xoslik, badihagoylik saqlangan.

O‘ta milliy, tarixiy badiiy-estetik hodisa sanaluvchi qo‘shiqlar millatning poetik xotirasi, bilimlari nomusi, tuganmas manaviy boyligi sifatida juda qadim zamonlardan to hozirgacha yaratilib, kuylanib kelmoqda. Xalq sheryatining qadimiy, ommaviy, ananaviy turi sanaluvchi qo‘shiqlar insonga, insoniyatga doimiy hamroh bolib, unga manaviy turmushda ko‘makchi, xilma-xil marosimlarning betakrorligini taminlovchi badiiy qismi vazifasini o‘tab kelmoqda. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida o‘zgacha bir sehr , kishi dilini zavq-shavqqa to‘ldiruvchi yoxud nozik dil torlarini nolalashiruvchi bir mayin joziba bor. Zero , bu yorug‘ olamning o‘zi ham qo‘shiq-kuy bilan tebranadi , go‘yo: hozirgina dunyoga kelgan chaqaloq onaning yoqimli allasi og‘ushida orom oladi. Keksalarimiz go‘dakning qulog‘iga bo‘lib aytishadigan azon ham qiroat bilan ohang bo‘lib qo‘yiladi. Yangigina kelinchak ham o‘zga xonadon ostonasiga yor-yor qo‘shiqlari ostida qadam qo‘yadi. Inson qazosi yetib bu yorug‘ dunyoni tark etar ekan , marosim qo‘shiqlari aytiladi.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarida turli mavzudagi qo‘shiqlarni uchratishimiz mumkin: vatan , muhabbat , mehnat , gullar... Har bir qo‘shiq o‘z ichida ko‘plab timsollar- ni , ramzlarni mujassam etgan. Ularning ichida ro‘mol ham mavjud. Bilamizki , qadimdan o‘zbek ayollari hayotida uchun ro‘mol alohida o‘rin tutib kelgan. Ro‘mol bu – ayollik libosi , ramzi. Ayol kishining boshida ro‘moli bo‘lishi , uning iffatidan , hayosidan dalolat bergan. Ro‘mol timsoli ishtirokidagi ko‘plab xalq og‘zaki ijodi na‘munalari mavjud.

*Ro‘molim( xalq so‘zi )*

Ro‘molim bor ro‘molim bor,  
Ro‘molimda tumorim bor.  
Bir yigitga xumorim bor, vox-vox,  
Dod alimdan getdi ro‘mol.

Ro‘mol dushib getdi yera,  
Yor eshitsa bo‘lur xafa.  
Yorga borib aytmang yora, vox-vox,  
Dod alimdan getdi ro‘mol.

Ro‘molimning uchi shoyi,  
O‘rtasida bordir oyi.

Olib bering jonim doyi, vox-vox,  
Dod alimdan getdi ro‘mol.

Xo‘p chiroyli edi ro‘mol,  
Alimdan uchirdi shamol.

Otam-onam ham kambag'al, vox-vox,  
Dod alimdan getdi ro'mol.

Ro'molda ediyo xayolim,  
Zabun bo'ldi hamma ahvolim.

Ham dushar yodima yorim, vox-vox,  
Dod alimdan getdi ro'mol.

*Qilpillama (xalq so'zi)*

Qoshing o'smadakkina, qilpillama,  
Beling tasmadakkina, qilpillama,  
Men seni kampir desam, qilpillama, doda,  
Qilig'ing qizdakkina, qilpillama,  
Qilpillama jonginam, qilpillama.

*Qiz:*

Sholi soldim keliga, qilpillama,  
Tegirmonni do'liga, qilpillama,  
Shoyi qiyiq yarashar qilpillama, doda,  
Cholginamni beliga, qilpillama,  
Qilpillama, jonginam, qilpillama.  
Ro'molim uchi sochiq, qilpillama,  
Kelsang darvozam ochiq, qilpillama.

*Yigit:*

Jon tasadduq bo'yingga, qilpillama, doda,  
Bo'lganman chindan oshiq, qilpillama,  
Qilpillama, jonginam, qilpillama.

*Qiz:*

Ro'molimning qirg'og'i, qilpillama,  
Shirin, yorning firog'i, qilpillama.

Xalq og'zaki ijodida nafaqat qo'shiqlar, balki qadimdan qolgan an'analarga nazar tashlasak, ayol kishining katta yoshli ekanligini yoki turmushga chiqqanligini aynan ro'mol orqali ajratishgan, tushda ro'mol ko'rsa xotin yoki erdan dalolat degan gap ham bor. Xaqimizning urf-odatlaridan ma'lumki, qiz bolaning uyiga sovchilikka borganda agarda qiz tomonning oilasiga quda tomon yoqsa, rozilik belgisi sifatida ro'molcha beriladi, ya'ni o'sha qizning egallanganligini bildiradi, qizlar turmushga chiqqanda, ota uyini tark etayotganda boshida albatta uzun ro'mol bilan chiqadi, yangi uyni ostonasidan kirganda ham boshida uzun ro'mol bo'ladi, bu go'yoki kelinni yomon ko'zlardan asrash, himoyalash degani. Yoki turmushga chiqqan ayollarga "lachak" kiydirish marosimida ham boshi toshday mustahkam bo'lsin, balolardan asrasin degan maqsadda ikki qavat ro'mol bog'lashadi. Mana shunday qadimiy urf-odatlardan kelib chiqadiki, ro'mol bu balo-qazolardan asrovchi bir predmet.

Xalq og'zaki ijodi na'munalari, xususan qo'shiqlarida insonning ruhiy olami, ichki kechinmalari, turmushida sodir bo'luvchi ko'ngilli va ko'ngilsiz voqealar, gam-anduh yoki shodligu xurramliklari, mehnat mashaqqatlari, sevgi iztiroblari his-tuygular orqali aniq badiiy obrazlar gavdalantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT RO'YXATI

1.G'ulom Qo'chqorov "Folklor qo'shiqchiligi". Toshkent – 2005, "Bilim" nashriyoti;

2. F.Jo‘rayeva “ O‘zbek xalq qo‘shiqlarida mifologiya “ BMI . Navoiy – 2015 .
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent 2000-yil.
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
5. uzsmart.ru sayti

## **NUTQIY MULOQOTDA BAHO MUNOSABATINING IFODALANISHI**

*Baxriddinova Yulduz,*

*O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti*

*Ilmiy rahbar: dotsent R.S.Nuritdinova*

Annotatsiya: ushbu maqolada gaplarning mazmun qirralari, nutqiy muloqot bilan bog‘liq xususiyatlar, nutqiy muloqotga baho munosabatlarini ifodalash. Nutqiy muloqotga baho berishning lingvistik xususiyatlar Zaynab (O‘tkan kunlar) obrazining nutqlari asosida o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Nutq, muloqot, actual, zamonaviy tilshunoslik, lingvistik xususiyat, pragmatika, emotsiya.

Annotation: in this article, the content of sentences, features related to speech communication, expression of value relations to speech communication. Linguistic features of evaluating speech communication were studied based on the speeches of the character of Zainab (Days of the Past).

Hozirgi kunda mamlakatimiz juda tez suratlarda rivojlanmoqda va barcha sohalarda yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan tilga bo‘lgan e‘tibor kun sayin ortib bormoqda. Bu tilmizning ochilmagan qirralarining ochilishiga, rivojlanishiga, yangiliklar bilan boyishiga sabab bo‘lmoqda. Olib borilayotgan tadqiqotlar va o‘rganishlar zamonaviy tilshunoslikning rivojlanishiga va yanada keng qamrovli shaklda o‘rganilishiga sabab bo‘lmoqda. Zamonaviy tilshunoslikning bir qancha o‘rganilmagan tomonlari, mavzulari va yo‘nalishlari bor va ular olimlar yosh tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda.

Nutqiy muloqot, nutqiy muloqotda baho munosabatlari ifodalash zamonaviy tilshunoslikning aktual mavzularidan biri. Nutqiy muloqot turli ko‘rinishlari va munosabat ifodalash ko‘rinishlarga ega. Nutqiy muloqot o‘nlab milliy, etnografik, ijtimoiy, axloqiy, falsafiy, tarixiy va ruhiy omillarning lisoniy birliklar orqali voqealanishida iborat bir Sistema bo‘lganligi uchun so‘zlovchi vaziyatdan kelib chiqib muloqotga kirishadi. Muloqot vaziyatga ko‘ra ijobiy va salbiy bo‘ladi. Nutqiy muloqotga baho berishning bir nechta xususiyatlari bor. Ulardan biri lingvistik xususiyatidir.

Nutqiy muloqot jarayoni, insonning nutqiy faoliyati uning rang-barang, chunonchi, ruhiy, ijtimoiy, ma‘naviy, madaniy bog‘liq holda amalga oshadi. Nutqiy muloqot jarayoni ijtimoiy va tabiiy jarayon bo‘lganligi sababli, pragmatikada nutqiy muloqot jarayoni inson faoliyatining o‘nlab qirralari bilan bog‘liqlikda o‘rganiladi. Shuning uchun sistem tilshunoslik til tizimini, til sistemasini o‘rgansa, pragmatika muloqot, o‘zaro fikr almashuv, kommunikatsiya, aloqa-aralashuv, so‘zlashuv tizimini o‘rganadi. Nutq muloqot jarayoniga tizim sifatida yondashish pragmatikaning asosiy tadqiq manbai va usulidir. Pragmatika muayyan vaziyatda aytilgan informatsiyaning tinglovchiga ta‘sirini o‘rganadi. Ta‘kidlash lozimki, lingvistik pragmatika so‘zlovchi ijtimoiy faoliyatining nutqdagi real ifoda masalalarini qamrab oladi. (Hakimov 2013, 8).

*“Kumushning yaqinlarig‘ina emas, balki foji‘adan xabardor bo‘lg‘an shaharning katta-kichigi Zaynabka beriladigan jazoni erta-kech kutmakda edilar. Biroq foji‘aning o‘ninchi kunlarida Zaynabning jinni bo‘lib, ochiq ko‘yi ko‘chada yurgan xabari va og‘asi tomonidan ushlanib kishanga soling‘an mojarosi eshitildi. Zaynabning jununi qozilar va*



*tabiblar tarafidan ham tasdiq etilgach, uning ustidagi jazo ko'tarildi. Darhaqiqat, aqldan ozib ko'chalarda ochiq kezish va kishanga tushishning o'zi ham Zaynab uchun kichkina jazo hisoblanmas edi."*

Keltirilgan parchada Zaynabning qilgan ishidan chekkan pushaymonliklari natijasida jinni bo'lib qolganligini ko'rishimiz mumkin. Bu parchada Zaynabning jinni bo'lib qolgani juda kuchli emotsiya bilan ifodalangan. Parchani o'qigan inson bu tasvirlar natijasida Zaynabga achina boshlaydi. Demakki, so'zlar qanday darajada ta'sirli bo'lishi nutqdagi so'zlarning qay darajada to'g'ri qo'llanganliga bog'liq.

Umuman olganda, so'zlovchi o'z nutqi jarayonida ishlatadigan imo-ishoralar nutqning yoki uzatilayotgan axborotning emotsionalligini oshirishga xizmat qiladi. Emotsiyalar esa adresatning ham, adresantning ham o'zaro pragmatik munosabatlariga ijobiy ta'sir etadi. Boshqacha aytganda, emotsiyalar so'zlovchining o'z nutqiga bo'lgan munosabatini aks ettirishga yordam beradi. Natijada muvafaqqiyatli nutqiy muloqot shakli yuzaga keladi.

1 — *Nimaga?*

— *Nimagaki, dadamning ko'ngliga gap keladir.*

— *Xo'b, — dedi Zaynab boshini bukib va eshitdingmi degandek qilib eriga qarab olg'andan keyin uydan chiqdi. Uning keticha Kumush Otabekka qattig' qilib aytdi:*

— *Qani, siz ham uyingizga!..*

2. *Otabek kulimsiradi:*

- *Eshitdim...*

- *O'sha bekning haqiga eshitgan kunimdan beri duo qilib kelaman...*

*Zaynab so'radi:*

- *Sizlarda qanday dushmanlig'i bor ekan?*

*Otabek "endi nima deysan" degandek qilib Kumushga qaradi.*

Bu gaplarda qarashlar orqali fikrlar ifodalangan"eshitdingmi degandek", "enni nima deysan degandek". Bu birikmalar gapdagi ma'noni ochib bergan.

Bunday nutqiy vaziyat qurshovida nafaqat verbal, balki noverbal vositalar ham, jumladan, imo-ishoralar, mimikalalar ham kela oladi. Fikrimiz dalili uchun quyidagi misolni keltirish mumkin: *Kundan-kunga Zaynabning susayib, o'ziga begonalashib borg'anini ul yaxshi onglar edi. Bu kun bo'lsa o'ynab aytgan so'zi javobsiz ham qoldirilib, bu hol yana uning miyasini qotirdi. Ko'nglida bir xiralik bilan borib daricha yonig'a o'ltirdi. Zaynabning hasadini qo'zg'atmas uchun Otabek bilan muomalada qilg'an ehtiyotlari zarracha foyda bermaganiga hayron, endi qaysi yo'sunda mirosani sozlash yo'llarini o'ylar edi.*

Ba'zi gaplarda esa harakatlar bir qancha ma'nolarni ifodalaydi.

*Kumush kirganda Zaynab daricha yonida to'ppi tikib o'turar edi.*

— *Oyim aytkandek, — dedi kulib Kumush, — siz bilan yulishqali keldim.*

*Zaynab to'ppisini qo'yib o'rnidan turdi:*

— *Men ham oldingizg'a chiqaymi, deb turg'an edim...*

*Kumush istehzo bilan kuldi:*

— *To'ppi tikib o'turibsiz-ku, manim olding'a chiqarmidingiz, barakalla sizga, — dedi.*

Keltirilgan misolda Zaynabning Kumush kelganda o'rnidan turishi hurmat ma'nosini ifodalagan.. Ammo bu harakat har doim ham hurmat ma'nosida bo'lavermaydi. Ayrim boshqa vaziyatlarda bu harakatni konteksga qarab jahli chiqqan holda o'rnidan turib ketish ma'nolarini ham ifodalaydi. Bu esa pragmatik vaziyatni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy muloqotga baho muhosabati ifodalash zamonaviy tilshunoslikda alohida o'ringa ega tushunchadir. Nutqiy muloqotga baho berishning xususiyatlari to'g'risidagi fikrlar har doim munozarali mavzular hisoblanadi. Nutqiy

muloqot muloqotga beriladigan barcha lingvistik xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan murakkab tuzilmadir.

## ОСОБЕННОСТИ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОЦЕССА XX ВЕКА.

*Алёна ТЕМИРОВА,*

*студентка 3 года обучения, Навоийского государственного педагогического института*

*Научный руководитель: ст. преп. Гафурова А. З.*

**Аннотация:** В данной статье я попробую раскрыть особенности литературного процесса серебряного века. Также, хотелось бы затронуть тему модернизма и его течения.

**Ключевые слова:** направление, литература, модернизм, основоположники, футуризм, символисты, акмеизм, Россия.

**Аннотация:** ushbu maqolada men kumush asr adabiy jarayonining xususiyatlarini ochib berishga harakat qilaman. Shuningdek, men modernizm mavzusiga va uning yo‘nalishiga to‘xtalib o‘tmoqchiman.

**Kalit so‘zlar:** yo‘nalish, adabiyot, modernizm, asoschilar, futurizm, simvolistlar, akmeizm, Rossiya.

**Abstract:** In this article I will try to reveal the features of the literary process of the Silver Age. Also, I would like to touch on the topic of modernism and its trends.

**Keywords:** direction, literature, modernism, founders, futurism, symbolists, acmeism, Russia.

В научной статье «Особенности литературного процесса XX века» будет рассматриваться направления модернизма в литературе, попробую дать характеристику данного понятия и в ходе работы приведу примеры из русской литературы, проанализирую отрицание литературных традиций и влияние новых направлений на развитие литературы 20 века.

Литературный процесс XX века является одним из наиболее интересных и разнообразных периодов в истории литературы. В этом столетии произошло множество изменений и новаций в литературе, которые существенно повлияли на способы создания и восприятия литературных произведений. Конец XIX — начало XX вв. стали временем яркого расцвета русской культуры, ее "Серебряным веком" ("Золотым веком" называли пушкинскую пору). [1]

В литературе один за другим появлялись новые таланты, зарождались разные направления, основывались литературные группировки и создавались знаменитые на весь мир произведения. Понятию "серебряного века" были присущи глубокие противоречия, характерные для всей русской жизни того времени.

XX век своей неординарностью и динамичностью перевернул русскую литературу, «породив» два огромных направления- реализм и модернизм. Реализм в литературе впервые возник и оформился как художественное движение во Франции в середине XIX века. Вскоре он распространился на Англию, Россию и США. Реализм- течение в искусстве и литературе, основным принципом которого является наиболее полное и верное отображение суровой реальности русского народа. К представителям реализма XX века можно отнести И. А. Гончаров («Обломов»), И. С. Тургенев («Отцы и дети», «Рудин»), Ф. М. Достоевский («Преступление и наказание», «Бедные люди»).

Выделяется творчество Л. Н. Толстого (роман-эпопея «Война и мир», «Анна Каренина»), А. П. Чехова («Человек в футляре»), А. И. Куприна (повесть «Олеся» и «Гранатовый браслет»), М. Горького (пьеса «На дне»).

В пьесе М. Горького «На дне», автор затрагивает многие социальные и нравственные проблемы, которые остаются актуальными и по сей день. Направление пьесы можно обозначить как критический реализм. Критический реализм возник в начале XX века и затрагивает больше такие темы, как нравственность, социальные проблемы и моральные дилеммы того времени. Горький в пьесе изображает нижние слои общества подробно и детально, представляя реалистические сцены быта и образы персонажей. Он описывает жизнь обывателей честно и достоверно, показывая их сложности и трагедии.

Другим важным писателем этого периода был Лев Толстой, автор всемирно известного романа "Война и мир". Его произведения отражали социальные и моральные проблемы, которые сталкивались обычные люди. Толстой стал основоположником философского течения, известного как толстовство, которое проповедовало ненасильственное сопротивление и умственное просвещение .

Модернизм в русской литературе – это литературное движение, которое возникло в начале XX века и продолжалось до революции 1917 года. Оно представляло собой реакцию на романтизм и символизм, которые доминировали в русской литературе в конце XIX века, и стремилось вводить новые идеи, формы и стили в литературу. Авторы модернизма стремились отразить современную реальность, проблемы человека в новых условиях, эмоции и чувства современного человека.

В русской литературе модернизм представлен такими авторами, как Андрей Белый, Владимир Маяковский, Валерий Брюсов, Иван Бунин и др. Они использовали различные стили и жанры, такие как поэма, стихотворение, роман, чтобы передать свои идеи и чувства.

Модернизм в свою очередь делится на три ветви: символизм, акмеизм и футуризм

Символизм в русской литературе – это литературное течение, которое возникло в конце XIX – начале XX века. Они использовали символы, метафоры и образы, чтобы передать свои мысли и чувства. [2] Одним из основных символов символизма стало «я» – олицетворение авторской индивидуальности и внутреннего мира поэта. Символисты также часто использовали другие символы, например, ночь, луна, море, цветы и прочее, чтобы передать свои мысли о мире и природе. Одними из известных символистов в русской литературе являются Александр Блок, Федор Сологуб, Вячеслав Иванов, Иван Бунин, Зинаида Гиппиус и другие. Их произведения отличаются глубоким философским содержанием, яркой символикой и красочным языком. Акмеисты в свою очередь стремились к идеальной форме слова, точной языковой выразительности и высокой стилистике. Основателями акмеизма считаются Николай Гумилев и Сергей Городецкий. Главными принципами акмеизма были индивидуальность поэта, противопоставление эмоционального и рационального начал, а также подчинение формы содержанию. Акмеисты отвергали символизм и его основные черты: растянутость, абстракцию и непонятность.

Акмеизм признавал яркую, четкую и ясную форму выражения, отдавая предпочтение конкретным образам, которые точно передавали эмоции автора. Акмеистские стихи отличались ясностью, определенностью и простотой. Применение метафор, эпитетов и сравнений также было характерно для акмеизма. Однако акмеизм оказался относительно кратким по своему существованию. К середине 1910-х годов акмеистское направление начало утрачивать свою актуальность и влияние.

Последняя ветвь, отходящая от модернизма- футуризм. В России футуризм проник в различные сферы искусства - литературу, живопись, скульптуру, архитектуру и музыку. Однако футуризм в русской литературе является наиболее известным и значимым для этого движения. Одним из ярких представителей футуриста был Владимир Маяковский, который также использовал необычные языковые средства и новые формы стиха. Он был полон энтузиазма и веры в прогресс, и его поэзия отражает современность и стремление к новому миру. Футуризм в русской литературе оказал значительное влияние на развитие искусства и литературы в целом. Он поднял много вопросов о роли искусства в обществе, значении слова и языка, а также о взаимосвязи искусства и науки. Футуризм также стал прорывом в создании новых форм и жанров литературы, открывая путь для экспериментов и новаторства. Футуристы отрицали русскую литературу существовавшую до. «Долой Пушкина, Гоголя!..»- говорили футуристы.

Хотя, некоторые критики считали футуризм чрезмерно экспериментальным и неконструктивным, отдававшим приоритет форме над содержанием. Несмотря на это, футуризм в русской литературе оставил значительный след и продолжает влиять на развитие современного искусства. Нельзя также не упомянуть о выходе женской литературы на первый план. Женщины-писательницы смели нарушить патриархальные традиции литературы и вносить свою уникальную перспективу и опыт в свои произведения. Они смогли создать сильные и провокационные тексты, которые рассказывали о женской реальности и проблемах. Примерами таких писательниц могут служить Анна Ахматова и Марина Цветаева. Анна Ахматова в своих стихотворениях затрагивала чувства русских женщин, переживающих за своих мужей и сыновей на фронте. Она перенесла всю боль и страдание хрупкой женской души на лист бумаги. [3]

В целом, 20 век в русской литературе был периодом разнообразия и творческих экспериментов. Писатели этого периода открыли новые горизонты и темы в литературе, отражая важные социальные и культурные изменения, которые происходили в России на протяжении этого времени.

#### Список литературы:

1. «Русская литература XX века: общая характеристика.» Самарская Государственная Академия Культуры и Искусств. г. Самара. 2015 г.
2. Бранская Е. В., Панфилова М. И. Модерн, модернизм, постмодернизм (к определению понятий) // Инновационная наука : Журнал. — 2015. — № 3. — С. 264—266. — ISSN 2410-6070. Архивировано 28 января 2022 года.
3. «Анна Ахматова. История великой женщины». 2009 г. Москва..
4. Мотылёва Т. О реализме и условности // Вопросы литературы. — 1959. — № 8. — С. 78—90.
5. Бальмонт К. Д., Поэзия как волшебство. М., 1915. С. 64

## LUQMON BO‘RIXON ASARLARIDA INSON TAQDIRI MASALASI

*Inobat Qandimova,*

*Buxoro davlat universiteti*

*Filologiya fakulteti filologiya va tillarni o‘qitish  
( o‘zbek tili) ta'lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada Luqmon Bo‘rixonning asarlarida inson taqdiri masalasi tasviri o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** badiiy ta'sir, talqin, Luqmon Bo‘rixon ijodi, badiiy obraz, badiiy ifoda.



**Abstract:** The article examines the depiction of the issue of human destiny in Luqman Borikhan's works.

**Key words:** artistic influence, interpretation, work of Luqman Borikhan, artistic image, artistic expression.

**Аннотация:** В статье рассматривается изображение проблемы человеческой судьбы в творчестве Лукмана Борихана.

**Ключевые слова:** художественное влияние, интерпретация, творчество Лукмана Борихана, художественный образ, художественная выразительность.

Hayot – har bir insonga berilgan neʼmat. Lekin uni qanday amallar bilan oʻtkazish insonning oʻz qoʻlida. Luqmon Boʻrixon asarlarini oʻqir ekanmiz, turlicha taqdir egalarini, ularning maʼnaviyati, ruhiyati, qarashlariga guvoh boʻlamiz. Yozuvchi badiiy tasvir etgan muhit, insonlar, ularning qismati, oʻtmishi va kelajagi kitobxonni taʼsirlantiradi, oʻyga toldiradi.

Insonning insoniyligi boshiga savdo tushganida bilinadi. Taqdiri azalning chigal va musibatli damlari boshga tushgan on, insonning maʼnaviyati, odamiyligi yuz koʻrsatadi. Luqmon Boʻrixonning nasrida aks etgan voqelik ham xuddi hayotdagidek qizgʻin. Adibning qissa va hikoyalarida asar qahramonlarining boshlariga turli qiyinchiliklar tushadi, baʼzida esa xursandchilik onlari ularni qurshab oladi.

Adibning "Aldoqchi tunlar" hikoyasida ham turli taqdir egalari tasvirlanganligini koʻramiz. Hikoya qahramoni Nur qoʻrboshi (asl ismi Nurbek)ning hayotida kutilmagan, hatto xayolga kelmaydigan musibatli kunlar boshlanadi. Nur qoʻrboshi ne-ne umidlar bilan safar qilib, kichkina bolasi, koʻzining oq-u qorasi boʻlgan nuridiyasining diydoridan uzoq boʻlsa-da, savdo qilish vajida uzoq shaharga yoʻl oladi. Bir yil oʻtar-oʻtmas yaqinlarini koʻrishni istab kelgan qoʻrboshi birdaniga ota judoligi, ayolining xiyonati, yakka-yu yagona oʻgʻlining esa uni emas, boshqa bironni ota deyishiga mahkum boʻladi. Bir insonning togʻday qaddini egadigan bu uch musibat uning boshiga qayerdan keldi dersiz? Bu paytda qizil qoʻshin (tarixdan ham maʼlumki) chekka-chekka qishloqlarga ham yetib kelgan edi. Qizil inqilobchilar Nur qoʻrboshi yashaydigan ovulga borib oʻz siyosatini oʻtkazgandi. Otasini ham achinarli oʻlimga mahkum qilgan edi. Nur qoʻrboshi bu musibatni hali qishlogʻiga kirib ulgurmasdan qishloqdoshi Sulaymon (raisning oʻgʻli)dan eshitadi. Nur qoʻrboshining ahvoli shu darajada ediki, u tun-u kun oʻgʻlining diydorini koʻrish ilinjida, "ota" degan soʻzini eshitish vajida kuyib-pishib inqilobchilarga qarshi kurashadi. Toʻrt yil davomida ovuliga bormay, inqilobchilarga qarshi kurashadigan toʻdada jang qiladi.

Yana asar davomida shuni kuzatamizki, Nur qoʻrboshi oʻgʻli uchun olgan farangi yogʻoch toychoqni toʻrt yil davomida boʻynidan qoʻymay taqib yuradi. Shu yillar mobaynida unga dalda bergan, oʻgʻlini koʻrishga boʻlgan ishonchini bir lahzaga ham soʻndirmagan mana shu yogʻoch oʻyinchoq boʻladi. Farangi bu toychoq unga shu qadar kuch berar ediki, kasal boʻlib qolganida ham shusiz tura olmasdi. Ammo taqdir ota va oʻgʻil diydorini Nur qoʻrboshi kutgandek qilmadi. Oʻgʻli uni tanimadi! Oʻgʻli uchun butun olamlarni ham yakson qilishga tayyor boʻlgan Otani tanimadi. Nur qoʻrboshi nuridiyasining koʻzlariga tikilib birgina "ota" deyishini kutdi. Lekin boʻlmadi, oʻgʻil otani tanimadi! Shu payt oʻq ovozi eshitildi. Bolaning yangi otasi Nur qoʻrboshi tomon oʻq uzgan edi, aslida u oʻq otilmasa ham oʻlib boʻlgan edi. Chunki toʻrt yil orziqib kutgan onlari u oʻylagandek xursandchilikka boy boʻlmadi. Oʻgʻli boshqa bironni "ota" deganida yurak bagʻrini oʻq teshib oʻtgandek boʻldi. Otilgan oʻq bir bahona boʻldi, xolos.



Luqmon Bo'rixon bu hikoyada inson taqdiri muammosini shu darajada mahorat bilan tasvirlaganki, ta'sirlanmasdan, achinmasdan iloj yo'q. Asarda aks etgan voqealar orqali insonning taqdiri, jamiyat, u yashagan muhit, atrofdagi kishilar hayoti bilan bevosita bog'lanishini anglash mumkin.

Hikoyada yana Sulaymon ismli yigit nomi tilga olingan. Uning taqdiri ham achinarli yakun topadi. Bu orqali davr va ijtimoiy muhitning murakkabligi haqida xulosa va tasavvurlarga ega bo'lish mumkin.

Yozuvchi ko'plab asarlarida taqdir masalasini birinchi o'ringa qo'yadi. Detallarga alohida e'tibor berib, taqdirlarni bir-biri bilan bog'liqlikda tasvirlaydi.

Ijodkorning "Sinov muddati" hikoyasi ham juda ta'sirli. Voqealar rivoji shu darajada chuqur yoritilganki, bunda bir inson taqdirini butunlay boshqa tarafga burib yuborgan muammo oydinlashgan. Ikki do'stning hayoti haqida bayon etilgan bu kichik hikoya tunganmas ma'no va ibratlar majmuasidir. Jasur tilmoch, hayotda omadi kelgan, Sobir esa uning teskarisi, o'qishda ham, harbiy xizmatda ham omadi chopmagan o'rtoqlar edi. Maktabda ularga siz ikkalangiz bir butun bo'lishingiz kerak, ya'ni Jasurning tilmochligi-yu, Sobirning bilimi bilan yutuqlarni zabt etishingiz mumkin deya maslahat bergan o'qituvchilar ham topilgan. Ammo taqdir ularni ayro qilib yubordi. Ikkalasi ham harbiy xizmatga topshirishdi. Sobirni nuqsoni borligi uchun qabul qilishmadi. Shundan so'ng u o'qishga topshirdi. Bir necha yil omadi chopmadi. Shu orada Jasur harbiy xizmatdan qaytdi. Favqulodda qutqaruv xizmatiga sinov muddati bilan ishga olingan Jasur o'ziga haddan ziyod ishonardi. Sobirning omadi kelmagan bo'lsa-da, do'stining xursandchiligiga sherik bo'lib, hujjat topshirishga birga bordi. Ikki o'rtoq qishlog'iga qaytarkan birdan yo'ldagi mashinaning g'ildiragi portlab yo'lning yoqasiga chiqib qoldi. Jasur bunday vaziyatda o'zini tashvishga qo'yishni istamay qo'rqanidan oyoqlari titray boshladi. Sobirga ham qishloqqa qochishni tavsiya qildi. Sobir ko'nmagach, Jasurning o'zi yugurganicha qishlog'iga oshiqdi. Sobir og'ir vaziyatda qolganlarni bunday ahvolda qoldirishni xohlamay qutqarishga chopdi. Jasur uyiga yetib borganida shunday shum xabarni eshitdi:

"— Jasurjon, keldingmi bolam, sho'rimiz qurib qoldi!

— Ha, tinchlikmi?!

Onasi sho'rq-sho'rq yig'lab yuz-ko'ziga ro'molini bosdi.

— Dadang taksida ketayotib avariya uchrabdi. Hozir kasalxonadan telefon qilishdi. Yura qol, tezroq boraylik. Aytgancha, Sobir jo'rang o'sha yerda ekan, baraka topsin.

— A, nima?!<sup>1</sup>"

Allah kutilmaganda bandasiga xayrlisini berarkan. Ancha payt sabrli bo'lgan Sobir o'z niyatlarining ijobatini sekin-asta ko'ra boshladi. Asar muallifi qahramonlarning ismini ham juda mohirlik bilan tanlagan, ismi jismiga monand bo'lishiga alohida e'tibor qaratgan.

Asarga sarlavha tanlashda ham yozuvchining mahoratini ko'rishimiz mumkin, "Aldoqchi tunlar" hikoyasining nomi ham xuddi shunday, Nur qo'rboshi har kecha o'ziga-o'zi dalda berar, ertaga, albatta, o'zi kutgan kunlar kelishiga ishonardi. Har kechasi u o'zini ishontirib qo'yardi, tun qorong'usi ham unga taskin bergandek bo'lardi. "Sinov muddati" hikoyasining nomiga to'xtaladigan bo'lsak, sinov muddati aslida Jasur uchun qo'yilganmidi yoki Sobir uchunmikan deb o'ylab qoladi kishi. Yuqorida ta'kidlaganimdek, inson boshiga kelgan kulfat uning haqiqiy inson ekanligini ko'rsatadi. Jasur va Sobirning aslida qandayligini taqdiri azalning o'zi ko'rsatib berdi. "Hayot so'qmoqlaridagi ana shunday sinovlarda ham o'zini tuta olgan Sobirning kelajagi haqida o'quvchida, albatta, ijobiy fikrlar paydo bo'ladi. Mulohaza qilganda, Sobir hayot atalmish katta imtihonning kichik sinovidan

---

<sup>1</sup> Luqmon Bo'rixon "Sinov muddati" / Internet sayti: <https://www.ziyouz.com>

nafaqat yaxshi, balki a'lo darajada o'tdi. Ijodkor oddiygina badiiy haqiqat orqali hayotdagi ayni haqiqatni ko'rsata olgan mohir nosirdir"<sup>1</sup>.

Hikoyalarda kutilmagan paytda inson taqdirining o'zgarganiga guvoh bo'ldik. Yozuvchi tomonidan ustalik bilan yoritilgan taqdiralar kitobxonni ham kutilmagan holatga tushurishi ajab emas.

#### **Adabiyotlar:**

1. Luqmon Bo'rixon Aldoqchi tunlar/ Internet sayti: <https://www.ziyouz.com>
2. Luqmon Bo'rixon "Sinov muddati" / Internet sayti: <https://www.ziyouz.com>
3. M. Sadulleyeva "Luqmon Bo'rixonning "Sinov muddati" hikoyasida badiiy va hayot haqiqati", "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027\_SJIF: 4.995, 2022.
4. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013.

### **BOBUR LIRIKASINING XARAKTERLI XUSUSIYATLARI**

*Hamidova Munavvar*

*NavDPI O'zbek tili vadabiyoti ta'lim yo'nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek mumtoz adabiyotida shoh va shoir sifatida shuhratli nom qoldirgan "dilbar shaxs"dir. Shoir o'zining g'azal, ruboiy va tuyuqlarida sodda va ravon tarzda betakror so'z san'atkorligini namoyon qiladi. Uning lirikasida shoh va shoirning murakkab hamda ziddiyatli hayot va kurash yo'li o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar.** Sharq mumtoz she'riyati, g'azal, ruboiy, tuyuq, lirik qahramon, poetik shakllar.

**Аннотация.** Захириддин Мухаммад Бабур – «очаровательный человек», оставивший известное имя в узбекской классической литературе как правитель и поэт. В своих газелях, рубаях и туюгах поэт умело показывает свое уникальное искусство слова. Его лирика выражает сложную и противоречивую жизнь и борьбу правителя и поэта.

**Ключевые слова.** Восточная классическая поэзия, газел, рубаи, туюг, лирический герой, поэтические фигуры.

**Abstract.** Zakhiriddin Muhammad Babur is a "charming man" who left a famous name in Uzbek classical literature as a ruler and poet. In his ghazals, rubai and tuyugas, the poet skillfully shows his unique art of words. His lyrics express the complex and contradictory life and struggle of the ruler and poet.

**Keywords.** Eastern classical poetry, ghazal, rubai, tuyug, lyrical hero, poetic figures.

Boburning lirik asarlari asosan uning devoniga jamlangan. Shoir o'zbekcha devonining ikki qo'lyozma nusxasi borligi ma'lum. Bulardan biri Parijda, ikkinchisi Hindistonda saqlanadi. Bobur devoni lirik turning har xil janrda yozilgan she'rlarni, jumladan, g'azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy, qit'a, fard va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Kishilarning ma'naviy qiyofasi, din, tasavvuf, hokimiyat va marifat masalalari, yor va unga bo'lgan muhabbat, vatan haqidagi o'ylar, unga intilish, zamondan norozilik, hayotni sevish Bobur lirikasining mavzulari hisoblanadi. Murakkab va ziddiyatli hayot va kurash yo'lini bosib o'tgan Boburning o'zi bu lirikaning markaziy qahramonidir. Bobur lirikasi til

---

<sup>1</sup> M. Sadulleyeva "Luqmon Bo'rixonning "Sinov muddati" hikoyasida badiiy va hayot haqiqati", "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027\_SJIF: 4.995, 2022.

va uslubi jihatidan nihoyatda sodda va ravondir. U jo'shqin va musiqiy misralarida hayotiy, original obrazlar yaratadi, xalq tili va uning og'zaki ijodi boyliklaridan unumli va o'rinli foydalanib, she'rlarining tilini boy va rang-barang qilishga erishadi.

Bobur hayot, sevgi va shodlik kuychisidir. U odamlarni hayotni qadrlashga va sevishga, rostgo'y to'g'ri bo'lishga, o'z shaxsiy manfaati ketidagina quvmaslikka, halol, sof ko'ngil bo'lishga, umuman ruhiy boylikka ega bo'lishga, mazlum va muhtojlarni oyog' osti qilmaslikka, maqsadga zo'r berib intilishga, qat'iyat bilan qanday bo'lmasin unga erishishga chaqiradi. Shoir bir she'rida shunday deydi:

Davlatg'a yetib mehnat elin unutm,  
Bu besh kun uchun o'zungni asru tutma... [1;37].

Bobur hayot, sevgi va shodlik kuychisidir. Boburning bunday erkin fikrlari o'z davrida favqulodda ahamiyatga ega edi va ular shoir adabiy merosi uchun katta ijtimoiy mohiyat, yorqinlik, mazmundorlik, joziba baxsh etadi. Bobur she'riyati ilm-ma'rifatni, axloq-odob kabi masalalarni ham qamrab oladi. Shoir ilmning o'z-o'zidan bunyod bo'lmasligini ta'kidlar ekan, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo'lishi mumkin deydi:

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,  
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak,  
Men tolibi ilmu tolibi ilm yo'q,  
Men borman ilm tolibi, ilm kerak [1;94].

Bobur aksariyat she'rlarining mazmunini "vatan ishtiyoqi, g'urbat hasratlari, sog'inch kayfiyati tashkil etadi. Bu bevosita shoirning murakkab hayoti va kurash yo'li, shodiyona alamli sarguzashtlari bilan bog'liq. Bobur temuriylar saltanatini saqlab qolish, Movarounnahrda yirik va mustahkam davlat qurishga intildi. Biroq bu orzulari amalga oshmadi. U vatanini tashlab ketdi" [2;34]. Undan olisda ko'plab mashaqqatlarni boshidan kechirib yashadi. Bularning hammasi shoir qalbidan qog'ozga ko'chdi, she'rga aylandi:

Ko'ngli tilagan murodga yetsa kishi,  
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.  
Bu ikki muyassar o'lmasa olamda,  
Boshni olib bir sorig'a ketsa kishi,- deydi shoir [1;82].

Yana shunisi e'tiborliki, bunday kayfiyatdagi ba'zi she'rlar shoir biografiyasi haqida kam ma'lumot beradi, ya'ni biografik asosning shoir she'riyatidagi o'rnini ko'rsatib turadi.

Beqaydmenu xarobi sim ermasmen,  
Ham mol yiqishtirur laim ermasmen.  
Qobulda istiqomat qildi Bobur dersiz,  
Andog' demangizlarki, muqim ermasmen [1;84].

Boburning vataniga qaytish orzusi ushalmadi. U yurtidan uzoqda qolib ketdi, davlati va saltanati uni umr bo'yi chet elga bog'lab qo'ydi. Binobarin, u:

Keldim bu sari o'z ixtiyorim birla,  
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur, - degan edi [1;86].

Bobur she'rlari orasida o'zining vatanidan olisga ketib qolishini "xatolig'" deb baholagan pushaymonlig' kayfiyati ham uchraydi:

Tole' yo'qki, jonimg'a balolig' bo'ldi,  
Har ishnikim ayladim, xatolig' bo'ldi.  
O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,  
Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi [1;93].

Demak, Bobur o‘z vatanini ishtiyoq bilan sevadi, g‘urbatdan hasrat va nadomat chekadi, bu kayfiyatini, holatini o‘z she‘rlarida - g‘azal va ruboiylarida mahorat bilan ifodalaydi. “Bobur lirikasidagi ishq mavzusi juda keng qamrovli. U oddiy insonning insonga bo‘lgan muhabbatidan, insonning Ilohga bo‘lgan muhabbati darajasiga ko‘tarilgan. Bu esa Bobur she‘riyatidagi so‘fiyona mayllarni namoyish qiladi. Bobur oshiqni zohidga, ishqni zuhdu – taqvoga qarama - qarshi qo‘yar ekan, bir jihatdan Navoiy singari shoirlarning an‘analarini davom ettirib, tarkidunyochilikni oqlamasa, ikkinchi tomondan tasavvuf ta‘limotidan bizga ma‘lum bo‘lgan zohidlar va oshiqlar (so‘fiylar) o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni [4;58] ko‘rsatib beradi:

Zohido do‘zax o‘tidin meni ne qo‘rqutasen,  
Hajr o‘ti qoshinda ko‘rmasmen ani uchqunga [1;52].

Yoki:

Tiyradur zuhd damidin ko‘ngul,  
Ishq o‘ti birla yorutmog‘ kerak...  
...Zuhd ketti, esa karam qildi,  
Ishq keldi-yu muhtaram qildi [1;91].

Xullas, Bobur lirikasining mavzu doirasi rang-barang bo‘lib, u o‘zbek klassik she‘riyatining ravnaq topishiga, ijtimoiy – falsafiy fikrlar taraqqiysiga katta hissa qo‘shdi. Bobur – yetuk san‘atkor shoir. U Lutfiy, Navoiy singari buyuk so‘z san‘atkorlaridan ta‘lim olib, ularning an‘analarini davom ettirib rivojlantirgan shoirdir. Shoir she‘riyatning badiiy soddaligi uchun kurashdi. Shoir yaratgan timsollar samimiyligi va tabiiyligi bilan kitobxonni hayratga soladi. Shoir badiiy sodda, ravon, musiqiy, tili boy va rangdor she‘rlar yaratdi. Uning she‘rlarida o‘y va fikr, his va tuyg‘u, tasvir va tavsif, so‘z va musiqiylik bir-biri bilan uzviy bog‘lanib ketadi; Insonning xilma-xil ichki kechinmalari, shodligi va qayg‘usi, orzu va armon, tolei va taqdiri o‘ziga xos badiiy bo‘yoqlar bilan tasvirlanadi, jonli obraz va portretlar yaratadi, tabiat manzaralari va turli lavhalarni rassom kabi chizib beradi. U har bir she‘ridagi mazmunni, kayfiyatni e‘tiborga olgan holda unga muvofiq shakl vazn qo‘llaydi, ichki qofiyalardagi, so‘z o‘yinlaridan, intonatsiya va tovush tovlanishlaridan ustalik bilan foydalanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Сочининг савдоси тушди. – Т.: Шарқ. 2007.
2. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. – Т.: А.Қодирий номидаги «Халқ мероси» нашриёти, 2002.
3. Vohidov R.J., Eshonqulov H.P. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Т.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
4. Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Т.:Маънавият, 2008.

## **ULUG‘BEK HAMDAM IJODIDA IJTIMOIIY MUHIT VA INSON RUHIYATI TASVIRI**

*Jo‘rayeva Farangiz G‘ayrat qizi*  
*Jizzax davlat pedagogika universiteti*  
*O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi*  
*Ilmiy rahbar: f.f.d. (PhD), dots. M.Jo‘rayev*

**Annotasiya:** Asarda bir davrdan ikkinchi davrga o‘tayotgan vaqtdagi turg‘unlik, muvozanatsizlik, o‘sha davr kishilarining ruhiyatiga ko‘rsatgan ta‘siri haqida fikrlar bayon etiladi. Quyida bitiladigan maqolamizda bir adabiy asar misolida inson ruhiyatidagi

evrilishlar, gʻalayonlar qay holda yoritilganligi va undan qanday xulosalar olishimiz kerakligi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit soʻzlar:** turgʻunlik, muvozanatsizlik, ruhiyat, adabiy asar, evrilish, gʻalayon, oʻrtalikni topa olish.

**Abstract:** The work expresses ideas about stagnation, disequilibrium, the impact on the psyche of people of that time.

**Key words:** stagnation, imbalance, psyche, literary work, evolution, revolution, search for the golden mean.

**Аннотация:** В произведении выражены мысли о застое, дисбалансе, влиянии на психику людей той эпохи.

**Ключевые слова:** застой, неравновесие, психика, литературное произведение, эволюция, переворот, поиск золотой середины.

Ulugʻbek Hamdamning har bir asarida oʻziga xos, takrorlanmas, insonni oʻylashga va mushohada qilishga undovchi fikrlar, obrazlar mavjud. Bu asarlar shunchaki muallif tomonidan ijtimoiy muhitni yoritish, yuzaki yondashuvlar asosida yozilmagan. Ulugʻbek Hamdamning “Muvozanat” asarini oʻqir ekanmiz, undagi har bir obraz va personajlar taqdiri bizni befarq qoldirmaydi, insonning oʻz-oʻzini taftish qilishga, oʻziga savollar berishga, tarix va kelajakka nazar solishga undaydi.

“Romanni oʻqib chiqar ekanman, bugungi kun odamini tasvirlashda hali realizmning ochilmagan imkoniyatlari koʻp ekaniga imon keltirdim.”<sup>1</sup>

“Asar orqali mustaqillikdan keyingi davrda yurtimizning ijtimoiy hayotida toʻliq tasavvurga ega boʻlish mumkin. Yozuvchi davrimiz hayoti qiyofasini jonli chizib berish, odamlarimizning oʻzlarini koʻzguga solib oʻrirlari uchun imkon yaratilgan holda bugungi kun kitobxonini, zamonamiz yoshlarini fikrida, ahdida sobitlik, nafs qutqusining fojialari, odamiylik mezonlari, meʼyor masalalari haqida chuqurroq oʻyga toldirish maqsadini koʻzlaydi”.<sup>2</sup>

Ulugʻbek Hamdam roman yozilgan payti koʻpchilikni qiynayotgan, koʻpchilikning ongu qalbida kechib oʻtgan yoki kechib turgan holatni qalamga oldi. Har bir narsani qurish va qaytadan bunyod qilish oson emas, agar bunday oʻzgarishlar bosqichma bosqich boʻlsagina, unga koʻnikish, qabul qilish oson boʻladi. Biroq toʻsatdan va kutilmaganda yuz bergan oʻzgarishlar davlatni ham, unda yashaydigan insonlarni ham muvozanatdan chiqarib yuborishi mumkin. Xuddi shunday holat asardagi qahramonlar hayotida roʻy beradi, asar orqali ulardagi turli xil holatlar, bu muvozanatsizlikning kishilar ruhiyatiga qanday taʼsir etganligi aks ettiriladi. Ulugʻbek Hamdamning “Muvozanat” asari bosh markazida Yusuf va uning oila aʼzolari, doʻstlari turadi. Ularning botiniy olamidagi savollar, hayotidan maʼno izlashi, hamma narsa yetarli, toʻkis boʻlsa-da, qalbida bir boʻshliq, kemptik borligi, oilaning darz ketishi, insonlarning qalban bir-biridan uzoqligi, masofalar yaqin boʻlsa ham, mehrning sovib ketganligi adib tomonidan mahorat bilan tasvirlanadi.

Ulugʻbek Hamdamning “Muvozanat” asarida ayollar obrazi ham tasvirlangan. Halima aya, Oygul, Zahro, Manzura kabi obrazlar taqdiri, hissiyotlari, oʻy-xayollari orqali oʻsha davrdagi, jamiyatdagi ayollar qanday holatda yashaganligini, ularning ruhiyati qay holda ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Zahro - Mirazimning xotini, oʻziga toʻq xonadonda erka boʻlib oʻsgan, univervitetda tahsil olgan, oʻz shaxsiy fikriga, qarashlariga, dunyoqarashiga ega boʻlgan ayol. Zahro va

<sup>1</sup> Ozod Sharafiddinov Modernizm joʻn hodisa emas. “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasi 2002 yil 24-son

<sup>2</sup> <https://fayllar.org/reja-ulugbek-hamdami-hayoti-va-ijodi.html>



Mirazim sevib turmush qurishadi, ularning ikki nafar qizlari bor, oila sirtidan qaraganda juda baxtiyor ko'rinadi, ammo biz Zahro bilan yaqinroq tanishar ekanmiz, uning botinidagi javobsiz savollarga duch kelamiz.

Qachonlardir, jonidan ortiq yaxshi ko'rgan ayolini keyinchalik befarq qoldirgan, unga e'tibor bermay qo'ygan, Mirazim oilasini moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan, biroq oila faqat moddiyat bilan but bo'lmasligini, oilada moddiyatdan ham muqaddas, mustahkam aloqalar borligini unutgan. Zahro katta va hashamatli uyda yolg'iz o'zi qoladi, qizlarini maktabga yuborgan, turmush o'rtog'ini ishga kuzatib bo'lgandan keyin boshqa qiladigan yumushi yo'q. Uydagi barcha ishlarni uy xizmatchilari bajarishadi, mana shunday holatda Zahro gullarga mehr qo'yadi va ularni parvarishlay boshlaydi. Mirazim esa bu xonadonga Alimqul ismli bir xizmatchini olib keladi.

Zahro - ko'hlik, chiroyli ayol. Alimqul esa Zahroga yomon ko'z bilan qarashni boshlaydi, Zahro buni his qiladi, unda alamzadalik va nafrat tuyg'ulari paydo bo'ladi, oxir-oqibat eri uy ishlariga qarashadi deya yuborgan xizmatchisi ochiq oydin uning ayoliga ko'z olaytiradi.

Har bir ayol o'zining kerak ekanligini his qilishni xohlaydi, uning ham oilasida o'z o'rni borligini, har doim mehr va e'tiborda bo'lishni istaydi. Agar bunday tuyg'ular vaqtida berilmasa, ayol qalbi soviydi, ba'zan alamdand, nafratdan o'zi xohlamagan ishlarga qo'l uradi. Zahro ham xuddi shunday holatda edi, uning zimiston hayotiga yagona nur bo'lib kirgan, uning tuyg'ulari bilan hisoblashadigan inson bu - Yusuf edi. Inson qachon baxtli bo'ladi deyishganda, uni anglagan va tushungan insonlar yonida deb javob berishgan ekan. Zahro Yusuf bilan suhbatlashar ekan, o'zini qayta dunyoga kelganday, qaytadan yashashni boshlagandek his qiladi, savollariga javobni Yusufdan topadi. Chin muhabbat aslida bir-birini to'ldirib, tushunib yashash ekanligini angelaydi. Zahro bilan Yusufning suhbatlari orqali Zahroning qanchalik teran fikrlovchi, samimiy, mulohazakor ayol ekanligi oshkor bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, Zahro ruhidagi bo'shliqni, kemptiklarni yashirish uchun g'ala-g'ovurga, bir soniyalik lazzatlarga juda ko'p e'tibor beradi, sirtidan o'zini baxtiyordek ko'rsatadi, aslida esa haqiqatlarni yaxshi biladi. Zahro yolg'izlikdan qiynaladi, boylik baxt keltirmasligini ich ichidan his qiladi. Alaloqibat, Zahro hayotidagi muvozanatni yo'qotib qo'yadi, baxt atalmish buyuk ne'matdan mosuvo bo'ladi. Ich-etini yemirayotgan savollarga javob topa olmaydi, oila bir butunligini yo'qotadi, eri Mirazim ham barcha maqsadlariga erishsa-da, ko'ngli sakinat, halovat topmaydi.

Demak, inson har bir ishda, umuman olganda hayoti davomida "o'rtalikni topa olishi" kerak. Hadisi shariflarda aytilganidek, har bir jabhada o'rtalikni ushlagan, muvozanatni saqlay olgan insongina qalb salomatligida, xotirjamlikda hayot kechiradi. Ulug'bek Hamdam o'zining birgina "Muvozanat" romani orqali inson ruhiyatidagi juda ko'p kashf etilmagan qirralarni, realistik qarash bilan ochib berdi. Adabiy asar orqali insonning eng intim, yashirin tuyg'ulariga ta'sir etish qalbining hech kim bilmagan, anglay olmagan torlarini chertish, ba'zida hech qayerdan javob topa olmagan savollariga javobni topish mumkin. Mahorat bilan yozilgan, qalblardan joy oluvchi asarlar esa insonning dunyoqarashini, hayotini o'zgartirib yuborishga qodir. Biz Ulug'bek Hamdamning asarini ham mana shunday asarlardan biridir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chumki asar bizga estetik zavq bag'ishlaydi, shunchaki zavq bag'ishlabgina qolmasdan, o'zligimizni taftish qilishga, jamiyat va undagi odamlarga befarq bo'lmaslikka, "oltin o'rtalikni" unutib qo'ymaslikka undaydi.

Xulosa qilib aytganda, asarni mutolaa qilgan har bir o'quvchi, asardan o'ziga tegishli xulosalarni chiqaradi, obrazlar taqdirida ochib berilgani, yoritilgan xatolarni takrorlamaydi, hayoti davomida shunday vaziyatlarga duch kelganda esa undan qay yo'l bilan chiqib ketishni biladi, degan umiddamiz.

### **Fodalanilgan adabiyotlar:**

1. Ozod Sharafiddinov Modernizm jo‘n hodisa emas. “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi 2002 yil 24-son.
2. <https://fayllar.org/reja-ulugbek-hamdami-hayoti-va-ijodi.html>
3. Ulug‘bek Hamdam Muvozanat. –T: Sharq. 2007 yil.

## **KOMPARAVISTIKA VA JAHON TILSHUNOSLIGI**

*Davronova Surayyo Mardon qizi*

*Navoiy davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Komparativistika haqida, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik taraqqiyotining 4 davri, agglutinatsiya hodisasi, «bobo til» tushunchasining mohiyati. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, komparativistika — tilshunoslikning qarindosh tillarni, ya‘ni genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq tillarni o‘rganuvchi, ular o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlovchi hamda ularning zamon va makon bo‘yicha tadrijiy taraqqiyotini tavsiflovchi sohasi; til oilalarining , shu tizimlardagi ayrim tillar va elementlarning kelib chiqishini aniqlash, jumladan, tillar o‘rtasidagi genetik qarindoshlikni — ularning yagona bir manba (bobo til)dan kelib chiqqanligini aniqlash (tillarning genealogik tasnifi) ham Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maqsadlari doirasiga kiradi.

**Kalit so‘zlar:**tilshunoslik, terminologiya, tasnifi, lisoniy hodisa ,metodlar, grammatik qurilishi, lingvistik naturalizm, nazariyalar.

**Аннотация:** О компаративистике, 4 периодах развития сравнительно-исторического языкознания, явления агглютинации, сущности понятия «язык предков». Сравнительно-историческое языкознание, сопоставительное языкознание, компаративистика — раздел языкознания, изучающий родственные языки, т. е. генетически родственные языки, определяющий взаимоотношения между ними и описывающий их постепенное развитие во времени и пространстве; Определение происхождения языковых семей, отдельных языков и элементов в этих системах, в том числе генетического родства между языками - определение того, происходят ли они из единого источника (языка предков) (генеалогическая классификация языков) также входит в задачи Сравнительно-историческое языкознание.

**Ключевые слова:** лингвистика, терминология, классификация, языковое явление, методы,грамматическая конструкция, лингвистический натурализм, теории.

**Abstract:** About comparative studies, 4 periods of development of comparative historical linguistics, the phenomenon of agglutination, the essence of the concept of “ancestral language”. Comparative historical linguistics, comparative linguistics, comparative studies - a branch of linguistics that studies related languages, that is, genetically related languages, defining the relationship between them and describing their gradual development in time and space; Determining the origin of language families, individual languages and elements in these systems, including the genetic relationship between languages - determining whether they come from a single source (the language of the ancestors) (genealogical classification of languages) is also part of the tasks of comparative historical linguistics.

**Key words:** linguistics, terminology, classification, linguistic phenomenon, methods,

grammatical construction, linguistic naturalism, theories.

Komparativistika haqida, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik taraqqiyotining 4 davri, agglyutinatsiya hodisasi, «bobo til» tushunchasining mohiyati. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, komparativistika — tilshunoslikning qarindosh tillarni, ya'ni genetik jihatdan o'zaro bog'liq tillarni o'rganuvchi, ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlovchi hamda ularning zamon va makon bo'yicha tadrijiy taraqqiyotini tavsiflovchi sohasi; til oilalarining, shu tizimlardagi ayrim tillar va elementlarning kelib chiqishini aniqlash, jumladan, tillar o'rtasidagi genetik qarindoshlikni — ularning yagona bir manba (bobo til)dan kelib chiqqanligini aniqlash (tillarning genealogik tasnifi) ham Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maqsadlari doirasiga kiradi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tillar tarixini qayta tiklash (rekonstruksiya qilish)da asosiy tadqiqot vositasi sifatida kiyosiytarixiy metodni foydalanadi; tadqiqotning eng umumiy shakli — (eng avvalo fonetikani qamrab oladigan) qiyosiy-tarixiy grammatikalar va (leksikani namoyon etuvchi) etimologik lug'atlar tuzishdan iborat. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tavsifiy yoki sinxronik tilshunoslik, me'yoriy va umumiy tilshunoslikka qarshi turib, ularni inkor etadi; shu bilan birga, u bir qancha masalalarda tavsifiy tilshunoslik bilan ham, umumiy tilshunoslik bilan ham o'zaro aloqada, bog'liqliqda bo'ladi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda qo'llanuvchi qiyosiy tarixiy metodning asosiy tadqiqot usullari quyidagilardir:

1) tashqi (qiyosiy) rekonstruksiya (tor ma'nodagi qiyosiytarixiy metod) — qarindosh tillardagi genetik jihatdan teng, o'xshash so'z va morfemalarni qidirib topish va bobo tildagi izchil tovush o'zgarishlarining qarindosh tillardagi natijalarini aniqlash; bobo tilning taxminiyfaraziy modelini yaratish va keyinchalik undan kelib chiqqan avlod tillarning aniq morfemalarini tiklash qoidalarini tuzish; taqqoslanayotgan tillar o'rtasidagi mosliklar tizimini (fonetika, morfologiya, sintaksis, leksika, frazeologiyada) aniqlash va shu asosda tillarning qarindoshligini belgilash vab.;

2) ichki rekonstruksiya — ayrim olingan bir til tizimida ushbu til tarixining ancha ilk bosqichlarida ba'zi bir elementlarning mavjud bo'lganligi haqida aniq guvohlik beruvchi hodisalar va o'zaro munosabatlarni aniqlash; ayrim bir tildagi eng qadimiy shakllar bilan eng yangi shakllarni o'zaro taqqoslash;

3) o'zlashma (rekonstruksiya qilinayotgan tillarga o'zlashgan yoki shu tillardan boshqa tillarga o'zlashtirilgan) so'zlar tahlilidan ma'lumotlar chiqarib olish;

4) toponimika materiallaridan ma'lumotlar chiqarib olish va boshqalar Amalga oshirilgan rekonstruksiyalar til tizimining barcha tomonlarini: fonologiya, morfonologiya, morfologiya, leksika, qisman sintaksisni qamrab oladi.

Biroq ushbu rekonstruksiyalarni tarixan aniq bir bobo til bilan bevosita tenglashtirib bo'lmaydi, ular tarixiy haqiqat bo'lmish bobo til haqidagi mavjud ma'lumotlarni modellashtiradi, xolos; ushbu ma'lumotlar ba'zi ob'yektiv sabablarga ko'ra barcha avlod tillarda yo'qolib ketgan morfemalar hamda fonemaviy ziddiyatlarni aniq rekonstruksiya qilish imkoniyati yo'qligidan, muqarrar ravishda to'liq, mukammal bo'la olmaydi; bir qator rekonstruksiyalar taxminiyfaraziy holatda bo'ladi.

Tillarni tarixiy taraqqiyotsiz qiyoslash, tarixiy qiyoslashdan farqli ravishda, qarindosh va noqarindosh tillarni chog'ishtirish deb atalib, u avvaldan Yevropaning antik davrida (yunon va lotin tillarini chog'ishtirish), qadimiy Hindistonda (sankrit bilan prakritlarni — o'rta hind tillarni chog'ishtirish), 11—12-asrlar Sharq tilshunosligida (M.Koshg'ariy va M.Zamaxshariy lug'atlarida qarindosh va noqarindosh tillar lug'aviy birliklarning chog'ishtirilishi) mavjud bo'lgan. Chog'ishtirma tilshunoslik 17—18-asrlarda Yevropadagi

va dunyoning boshqa mintaqalaridagi turli tuman qarindosh tillar bo'yicha tadqiqot materiallarining to'plana borishi bilan yanada rivojlanadi va Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning, eng avvalo, uning mag'zi bo'lmish qiyosiy tarixiy grammatikaning paydo bo'lishini odatda 18-asr oxirida yevropalik tilshunoslarning sanskrit bilan tanishuvlariga bog'liq deb hisoblaydilar [mas, nemis olimi F.Shlegelning "Hindlarning tili va donoligi" (1808) asari, ingliz olimi U. Jounzning sanskrit bilan "klassik tillar" (yunon va lotin) orasida qarindoshlik borligi haqidagi fikrlari va boshqalar]. Lekin Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka asos soluvchi asarlar 19-asrning 1-choragida maydonga keldi. Nemis tilshunosi F.Boppning "Sanskrit tilining tuslanish tizimi haqida va uni yunon, lotin, fors va german tillaridagi tuslanish tizimiga qiyoslash" (1816) va 3 jildli "Sanskrit, zand (avesto), arman, yunonlotin, litva, eski slavyan, got va nemis tillarining qiyosiy grammatikasi" (1833—52) asarlari hamda daniyalik olim R.K.Raskning "Qad. shimol tili sohasidagi tadqiqot yoki island tilining kelib chiqishi" (1818) asari qiyosiy tilshunoslik sohasidagi dastlabki jiddiy tadqiqotlardir. Shuni aytish kerakki, F.Bopp va R.K.Rask birbirlarining tadqiqotlaridan bexabar holda, mustaqil ravishda qiyosiy tilshunoslikka asos soladilar. Nemis tilshunosi Ya.Grimm esa o'zining 4 jildli "Nemis grammatikasi" (1819—37) va 2 jildli "Nemis tili tarixi" (1848) asarlari bilan Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka ma'lum hissa qo'shib, tilshunoslik metodologiyasiga tarixiylik tushunchasini kiritadi. Rus tilshunosi A.X. Vostokov o'zining "Slavyan tili haqida mulohazalar" (1820), 2 jildli "Cherkovslavyan tili lug'ati" (1858—61) bilan, chex tilshunosi yilDobrovskiy esa "Qad. slavyan tili grammatikasi" (1822) va boshqalar asarlari bilan Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning slavyanshunoslik tarmog'ini asoslab, uni rivojlantirdilar. Shunday qilib, F. Bopp, R.K. Rask, Ya.Grimm, A.X.Vostokovlar Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikni va bu tilshunoslikning ilmiy tekshirish metodi bo'lgan qiyosiy tarixiy metodga asos soldilar. Grimm va nemis olimi A. Pott esa Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asosi bo'lgan qiyosiytarixiy fonetikaning fan sifatida amaliyotga kiritdilar. Bobo tilni rekonstruksiya qilish yo'lidagi dastlabki jiddiy urinishlar 19-asr o'rtalarida nemis olimi A.Shleyxer tomonidan amalga oshirilgan. Tillarning yozuvigacha bo'lgan tarixi materiallarini, eng avvalo fonemalarni, dalillar asosida rekonstruksiya qilishning aniq metodikasi (daniyalik K.Vernerning, nemis olimi K.Brugman boshchiligidagi "yosh grammatikachilar"ning, F.de Sossyur va boshqalarlarning asarlarida) 19-asrning so'nggi choragida ishlab chiqilgan; ushbu metodika hozirgi Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning xdm asosi hisoblanadi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yangi bosqichi A. Meye, fransuz olimi A.Benvenist, daniyalik X.Pedersen, polyak olimi Ye. Kurilovich, italiyalik V.Pizani, rus olimlari A.V.Beletskiy, A.V.Desnitskaya, V.M.IllichSvitich va boshqalarning nomlari bilan bog'liq. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik fani Hindistondan Yevropagacha bo'lgan o'zaro qarindosh tillarni qiyoslash va eng qadimiy shakllarni tiklashga urinish asosida yaratilganligi uchun ba'zan hindevropa tilshunosligi deb ham atalgan.

Hindevropa tillari qarindoshligini o'rganish va german tillarini tadqiq qilishdan tashqari 19-asrning 2-yarmidan boshlab slavyanshunoslik, boltiqshunoslik, romanshunoslik (romanistika), eronshunoslik, keltshunoslik, hindshunoslik, somshunoslik (semitologiya) ham Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning keng rivojlangan sohalari hisoblanadi. 20-asrning 1-yarmida mazkur sohalar bilan bir qatorda hindevropa tillarining boshqa guruhlarini qiyosiytarixiy o'rganish, ural tilshunosligi (ayniqsa finugorshunoslik), turkiyshunoslik, mo'g'ulshunoslik ham keng rivojlandi. Qiyosiytarixiy jihatdan muvofiqligi o'rganilayotgan tillar doirasi kengayib bormoqda (tungusmanjur, dravid, kartvel, xitoytibet, avstronez tillari, Afrikadagi somhom tillari, bantu tillari, indeys tillarining bir qancha guruhlari va boshqalar). Uzoq qarindosh tillarni (nostratik tillar, Amerika, Afrika, Okeaniyadagi tillarning



makrooilalarini) o'rganish rivojlanmoqda. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik. bo'yicha tadqiqotlarning natijalari tillarning genealogik tasnifiga asos bo'lib, etimologiya va lingvistik paleontologiyaning ilmiy poydevori hisoblanadi; tarixchilar uchun esa xalkdar etnogenezi, ularning yozuvga qadar bo'lgan tarixi, qadimiy xalklar madaniyati va o'zaro aloqalari haqidagi lingvistik ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik. 19-asr — 20-asr boshlarida, asosan, Germaniya, AvstroVengriya va Skandinaviya mamlakatlarida rivojlangan bo'lsa, keyingi paytlarda bu tilshunoslik Rossiya (SSSR), AQSH, G'arbiy Yevropa, Finlyandiya, Shvetsiya, Vengriya, Yaponiya, Hindiston va boshqalar mamlakatlarda ham taraqqiy etmoqda. Turkiyzabon davlatlarda ham Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka qiziqish kuchayib bormoqda, qarindosh va noqarindosh tillarni o'zaro qiyosiy o'rganishga, lug'aviy, morfologik birliklarning tarixiy shakllarini aniqlashga e'tibor berilmoqda. Xususan, O'zbekistonda o'zbek qoraqalpoq, o'zbekturkman, o'zbek qozoq, o'zbek tojik, o'zbek rus tillarini, Qozog'istonda qozoq o'zbek, qozoq mo'g'ul tillarini qiyosiy o'rganish bo'yicha muayyan izlanishlar olib borilgan.

### **Vilgelm fon Gumboldt va uning til nazariyasi**

Vilgelm fon (1767-1835), nemis faylasufi, filologi, san'atshunosi, huquqshunosi va davlat arbobi. 19-asr 1-yarmi lingvistik komparativizmda alohida o'rin tutadi. eng yirik lingvofilosof va til nazariyotchisi, nazariy tilshunoslik va til falsafasining asoschisi Karl Vilgelm fon Gumboldt (1767-1835) ni egallagan. U o'zining mukammal ta'limi, g'ayrioddiy qiziqishlari va mashg'ulotlari (dunyoning ko'plab tillari va ularning tipologiyasi, klassik filologiya, falsafa, adabiy tanqid, san'at nazariyasi, davlat huquqi, diplomatiya va boshqalar) bilan mashhur edi; Esxildan tarjimalar va Pindar). U davlat va intellektual hayotda faol ishtirok etdi, Gyote, Shiller va o'sha davrning boshqa ruhiy rahbarlari bilan muloqot qildi.

U akasi Aleksandr fon Gumboldt bilan birgalikda Berlin universitetiga asos solgan. V. fon Gumboldt shaxs va butun insoniyatning har tomonlama va uyg'un rivojlanishi zarurligini targ'ib qildi va universitet ta'limida utilitarizm va tor mutaxassislikni qoraladi. V. fon Gumboldt sintetik bilimlar vakili bo'lsa, undan oldingilar (I. Gerderdan tashqari) analitik bilimlar vakillari sifatida faoliyat yuritgan. V. fon Gumboldtning lingvistik kontseptsiyasi 17—18-asrlar tilining antitarixiy va mexanistik kontseptsiyasiga munosabat edi.

U manba sifatida I. Herdarning tilning tabiati va kelib chiqishi, til, tafakkur va "xalq ruhi" o'rtasidagi munosabat haqidagi g'oyalari, shuningdek, Fr. tillarining tipologik tasnifi edi. va A. V. Shlegel. V. fon Gumboldt qarashlarining shakllanishiga nemis klassik falsafasi (I. Kant, I. V. Ggte, G. V. F. Gegel, F. Shiller, F. V. Shelling, F. G. Yakobi) g'oyalari ham ta'sir ko'rsatdi. V. fon Gumboldt 19-asrning birinchi yarmida nemis falsafasidagi yo'nalishlardan birini ilhomlantirgan. falsafiy antropologiya. V. fon Gumboldt kontseptsiyasining asosiy nazariy va metodologik tamoyillari quyidagilardan iborat:

- a) naturalistik va faollik yondashuvining sintezi (til ruh organizmi va ruh faoliyati sifatida);
- b) qarama-qarshi tamoyillarning dialektik korrelyatsiyasi (antnomiyalar shaklida);
- v) tilning tizimli va yaxlit ko'rinishi;
- d) dinamik, protsessual-genetik yondashuvning strukturaviy-statik yondashuvdan ustunligi;
- e) tilni o'zini o'zi yaratuvchi organizm sifatida talqin qilish;
- f) tilning vaqt o'tishi bilan o'zgarishini tarixiy tahlil qilishdan ko'ra, tilga abadiy (panxronik yoki achronik) qarashning ustuvorligi;
- g) jonli nutqni o'rganishning til organizmini tavsiflashdan ustunligi;
- h) mavjud tillarning haqiqiy xilma-xilligiga va insoniyatning umumiy merosi sifatida tilga qiziqish uyg'unligi;



i) tillarni mukammal tarzda tilni tarbiyalash qadamlari sifatida ideal tarzda ifodalashga urinish;

j) tilni faqat o'zidan, inson faoliyatining boshqa turlari bilan aloqadan tashqarida tasvirlashdan bosh tortish;

j) tilga falsafiy mavhum qarashning uni sinchkovlik bilan ilmiy o'rganish bilan uyg'unligi.

Yangi lingvistik metodologiyaning shakllanishida "Tafakkur va nutq haqida" (G. Fixtning "Tilning lingvistik qobiliyati va kelib chiqishi haqida" nutqiga munosabat; 1795 yil), "Latium va Hellas" (bu yerda barcha motivlar mavjud. keyingi ishlar allaqachon taqdim etilgan; 1806 ), "Tillarni ularning rivojlanishining turli davrlariga nisbatan qiyosiy o'rganish to'g'risida" (vazifalarni shakllantirish - F. Bopp va J. Grimm tushunchalari bilan taqqoslaganda - yondashuv. qiyosiy grammatika qurish; tilning dastlabki murakkabligi va tizimli tabiatiga ishonish; tilni tabiiy fan va intellektual-teleologik hodisa sifatida o'rganishga chaqirish; 1820), "Tillarning turli tabiatining ta'siri to'g'risida" adabiyot va ma'naviy taraqqiyot to'g'risida" (Tilni tushunchalar uchun tayyor belgilar nomenklaturasi sifatida tushunish tanqidi; tugallanmagan ish), "Grammatik shakllarning paydo bo'lishi va ularning g'oyalar rivojiga ta'siri to'g'risida" (ma'ruza) til bo'yicha fikrlashning shartlilikligi ilgari surildi; 1820-1822 yillarda nashr etilgan) va ayniqsa katta nazariya. "Inson tillarining tuzilishidagi farq va uning ma'naviy taraqqiyotga ta'siri to'g'risida" mustaqil nomga ega bo'lgan "Yava orolidagi Kawi tili haqida" (1836 - 1840) uch o'lchovli asarga birinchi kirish. insoniyatning" (1907 yilda alohida nashr etilgan). V. fon Gumboldt "qiyosiy antropologiya"ni qurish g'oyasini ilgari surdi, bu g'oya til nazariyasini "dunyoning eng yuqori va eng chuqur sohalari va barcha xilma-xilligini kuzatish", "muammolarni hal qilishga yaqinlashish" vositasi sifatida o'z ichiga oladi. inson sirlari va xalqlarning xarakteri".

U lingvistik komparativizmning usul va maqsadlari haqida o'ziga xos tushunchaga ega bo'lib, uning fikricha, tilning chuqur ildizlarini hayotning moddiy sharoitlaridan emas, balki ma'naviy sohadan izlashga chaqiriladi. Til qobiliyatini u nafaqat insonning o'ziga xos sovg'asi, balki uning muhim xususiyati sifatida ham tushunadi. U til va tafakkur, til va madaniyatning asl birligini tasdiqlaydi. V. fon Gumboldtning ishonchi komilki, til asoratlanish va takomillashish yo'lida asta-sekin rivojlanmaydi, balki darhol shaxsga xos bo'lgan yaxlit va murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi.

U tilning mavjudligi haqidagi g'oyani ongsiz shakl va "dunyoni fikrga aylantirish" harakatlarida namoyon bo'ladigan intellektual faoliyat sifatida ifodalaydi. U tafakkur tashqi voqelik va tafakkur o'rtasidagi oraliq dunyoni tashkil etuvchi tilga bog'liqligini ta'kidlaydi. Turli tillar turli dunyoqarashlar sifatida baholanadi. V. fon Gumboldt shaxs - odamlar - insoniyatning uch muddatli sxemasini ilgari suradi va til orqali dunyoni idrok etishda individual sub'ektivlik ma'lum bir til jamoasining jamoaviy sub'ektivligida, milliy sub'ektivlik esa - butun insonning subyektivligida olib tashlanadi, deb ta'kidlaydi. biologik emas, balki madaniy axloqiy va ijtimoiy asosda birlashgan irq. U tilning o'ziga xosligini va milliy ruhini, xalq ruhini ta'kidlaydi.

Uning ta'kidlashicha, "tilning haqiqiy ta'rifi faqat genetik bo'lishi mumkin". Genetik moment tildan ko'ra nutqqa nisbatan ko'proq aniqlanadi. Til deganda "har bir nutq jarayoni, lekin haqiqiy va asosiy ma'noda ... go'yo barcha nutqlarning yig'indisi" deb tushuniladi. Tilning ijodiy, "baquvvat" (ya'ni faollik) xususiyati kuchli ta'kidlangan. Til inson faoliyatining boshqa barcha turlariga nisbatan asosiy bo'lgan faoliyat sifatida talqin etiladi, bunda tushunchaning tovush bilan birlashishi, tovushning fikrning jonli ifodasiga aylanishi, inson ruhining faoliyati (energetika) tushuniladi. , bu faoliyatning o'lik mahsuloti (ergon) sifatida emas, balki amalga oshiriladi. Tilga ikki vazifa yuklanadi: a) tovush va tafakkurning

shaklsiz substansiyasini parchalash va bo'g'inli tovush va lisoniy tushunchani shakllantirish; b) ularni to'liq o'zaro singib ketguncha bir butunga birlashtirish.

Tilning shakli deganda, uning tizimli aloqalari yig'indisida olingan va ma'lum bir xalqning individual mahsulotini ifodalovchi ruhning ijodiy faoliyatidagi doimiy va bir xil boshlang'ich tushuniladi. Til materiya va shaklni, tashqi (tovush va grammatik) va ichki (ma'noli) shaklni ajratadi. Tilshunoslik rivojlanishining keyingi davrlari uchun tovushlar va fikrlarni bog'lash usulini belgilovchi tilning ichki shaklini tilning o'zi sifatida talqin qilish alohida ahamiyatga ega edi. Har bir tilning o'ziga xos ichki shakli borligi ta'kidlandi.

Tilning maqsadi «dunyoni fikrga aylantirishda», fikr va his-tuyg'ularni ifodalashda, o'zaro tushunish jarayonini ta'minlashda, shaxsning ichki kuchlarini rivojlantirishda ko'rinadi. Har bir alohida til ushbu tilga xos bo'lgan dunyoni tushunishga muvofiq dunyoni o'ziga xos talqin qilish vositasini, unda so'zlashuvchi odamlar uchun dunyo tasvirini shakllantirish vositasini ko'radi. Inson xulq-atvorini tartibga solish funktsiyasi tilga tegishli. V. fon Gumboldt izdoshlari (X. Steyntal, A. A. Potebnya, P. A. hayotiylik - narsalar), individual - odamlar (individual - jamoa), erkinlik - zarurat, nutq - tushunish, nutq - til, til - fikrlash, barqaror - harakatchan, tabiiy - spontan, impressionistik (vaqtinchalik, individual) - monumental, doimiy - diskret, obyektiv - sub'ektiv. X.Steyntal keyinchalik V.fon Gumboldtning mantiq va grammatika o'rtasida yotadigan, kategoriyalari tilning o'ziga tegishli bo'lmagan, balki tilda to'liqroq yoki to'liq bo'lmagan ifodasini topadigan "ideal grammatika" mavjudligi haqidagi tarqoq fikrlarini tizimlashtirdi. umumiy va xususiy bo'limlarga ega bo'lgan "haqiqiy grammatika" toifalari. V. von Gumboldt ichki shakl tushunchasi asosida tillarning mazmunli tipologiyasiga asos soladi (J. Xarrisdan olingan).

U har bir tilning shakl va mazmun jihatdan o'ziga xosligini tan oladi. Tilning o'z mazmuni jihatidan nafaqat idiomatik (idioetnik), balki universal komponent ham ajralib turadi. Umuman olganda, u J. Xarris g'oyalariga ergashadi, lekin idioetnik va universalni farqlashning boshqacha usulini taklif qiladi. "Umumiy qarindoshlik" (ya'ni tipologik yaqinlik) deganda "maqsad va vositalarning birligi" tushuniladi. Umumjahon ko'p tillilik qobiliyatining asosi, tildan tilga adekvat tarjima qilish imkoniyati sifatida talqin etiladi.

Tilning barcha turlari o'z imkoniyatlariga ko'ra teng deb e'tirof etiladi, til turlarining hech birini asl deb hisoblash mumkin emas. Aka-uka Shlegellardan keyin izolyatsiya qiluvchi, agglyutinatsiya qiluvchi va flektiv tillar ajralib turadi. Agglyutinatsiya qiluvchi tillar sinfidagi jumlaning o'ziga xos sintaksisi bo'lgan tillarning kichik sinfi mavjud - inkorporatsiya. "Sof" til turlarining imkoniyati inkor etiladi. V. fon Gumboldt g'oyalari 19—20-asrlarning ko'pchiligini ozmi-ko'pmi hayajonga soldi. Tillarni tavsiflashda V. fon Gumboldt g'oyalarini tushunish va amalga oshirishga urinishlar dastlab Germaniyada (X. Shtayntal, qisman V. Vundt, E. Gusserl, L. Vaysgerber asarlarida), keyin Rossiyada bo'lgan. (AA Potebnya, G.G.Shpet, P.A.Florenskiy, A.F.Losev asarlarida). Gumboldtchilik deb atalmish bir qancha navlarda rivojlangan bo'lib, u V. fon Gumboldtning falsafiy va lingvistik dasturiga muvofiq shakllangan til va uni o'rganish usullari haqidagi qarashlar yig'indisi sifatida tavsiflanadi.

Gumboldtchilik tilga antropologik yondashuvni, uni inson ongi va tafakkuri, madaniyati va ma'naviy hayoti bilan chambarchas bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi. Ammo 19-asrning ikkinchi yarmida. birinchi navbatda, universal komponent kesiladi, uning mavjudligi mantiqiy grammatika tomonidan tan olingan va psixologik grammatika tomonidan rad etilgan. Bu davr ruhiga mos ravishda V.fon Gumboldtning tilga mantiqiy va psixologik yondashuvlarni sintez qilishga urinishlari o'z davomini topa olmadi, Gumboldtchilar butunlay psixologizm pozitsiyasiga o'tdilar. 20-asrda. V.fon Gumboldt g'oyalari neogumboldtchilik deb atalmish oqimda rivojlangan.

XVIII asrgacha til o'zgarish hodisa deb hisoblangan. Aynan mana shu asrdan boshlab, tilga bunday qarash o'zgardi. Ya'ni XVIII asrning diqqatga sazovor eng katta xizmati shundaki, u tilga o'zgaruvchan, rivojlanuvchan hodisa sifatida baho berdi. Aniqrog'i, ushbu davrda Sharl` de Bros, Jan-Jak Russo, Monboddo, Adam Smit, Pristli, Gerder va boshqalar tillarning tarixiy taraqqiyoti g'oyasini qo'llab, uni rivojlantirdilar.

XIX asrning boshlariga kelib, tilshunoslikka alohida fan sifatida qarash g'oyasi qat'iy tus oldi. Ya'ni XIX asrning birinchi choragida tilshunoslikda faktlarni yig'ish, ularga e'tibor berish g'oyasidan qiyosiy-tarixiy g'oyaga-nuqtai nazarga burilish, o'tish yuz berdi. Albatta, XIX asrning boshlariga kelib, nuqtai nazarlarning o'zgarishiga lisoniy kuzatishlar, bu kuzatishlardan kelib chiqqan muayyan jiddiy fikrlar sabab bo'ldi. Aniqrog'i, XIX asrdan ancha oldin ayrim tillar o'rtasida o'xshashlik borligi aniqlansada, ammo uzoq vaqtlar davomida ushbu o'xshashlikning sabablari ilmiy jihatdan yoritib berilmadi, olimlar o'xshashlik sabablarini tushuntirib bera olmadi.

XIX asrning boshlariga kelib, turli mamlakatlardagi ayrim tilshunoslar deyarli bir vaqtda bir qancha tillar o'rtasidagi sistematik o'xshashlikni faqatgina ularning qarindoshligi bilan - bir umumiy qadimiy bobotildan kelib chiqqanligi bilan, keyinchalik esa har biri alohida, mustaqil rivojlanganligi bilangina tushuntirish mumkin, degan xulosaga kelishdi. Shuningdek, tillar o'rtasida o'xshashlik mavjudligi g'oyasining maydonga kelishida fanga tarixiy yondashish yuzaga kelganligi - til hodisalari tarixiylik nuqtai nazaridan izohlana boshlanganligi bilan, tilshunoslikka romantizm g'oyalarining ta'siri, ya'ni jonli tillarning o'tmishini o'rganishga undash g'oyasi bilan hamda sanskrit (qadimgi hind adabiy tili) bilan yaqindan tanishish kabilar tillar o'rtasidagi o'xshashlikni ularning qarindoshligiga ko'ra izohlash mumkinligiga olib keldi.

Masalan, Bengaliyada xizmat qilgan ingliz sharqshunosi va huquqshunosi Vil`yam Djons (1746-1794) sanskrit tilini yunon va lotin tillariga qiyoslab, ular o'rtasida yaqinlik, qarindoshlik borligi haqidagi fikrlarni, ma'lumotlarni qat'iy aytdi.

Nemis olimi Fridrix Shlegel` (1772-1829) esa o'zining mashhur «Hindlarning tili va donoligi» asarida sanskrit tilining na faqat lug'at tarkibida, balki grammatik munosabatida ham lotin, grek, german va fors tillariga qarindosh ekanligini, ularning kelib chiqishiga ko'ra umumiy asosga egaligini qayd etadi. Demak, tillarni qiyosiy nuqtai nazardan tadqiq qilish, ularga tarixiylik nuqtai nazardan yondashish kabilar qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maydonga kelishiga, tilshunoslikning alohida, mustaqil fan sifatida qat'iy tan olinishiga zamin yaratdi. Ushbu jarayonda qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, qiyoslash tillarni o'rganishda usul, vosita sifatida, tillarga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashish esa tadqiqotning principi (bosh g'oyasi, maqsadi) sifatida namoyon bo'ldi.

Ta'kidlash shart, qiyosiy-tarixiy metodning ochilishigina tilshunoslikning fan sifatida tan olinishiga, boshqa fanlar qatoridan mustahkam o'rin egallashiga olib keldi. Chunki mana shu metodgina til haqidagi fanga chinakam, haqiqiy ilmiylik g'oyasini berdi, ilmiylik ruhini kiritdi.

Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi bilan tilshunoslik ham tarixiy, ham ilmiy-nazariy jihatdan mustahkam asosga ega bo'ldi. Eslatish joizki, Mahmud Koshg'ariy, Vil`yam Djons, Fridrix Shlegel` kabi olimlarning ham qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishidagi xizmatlarini inkor qilib bo'lmaydi. Ular qiyosiy-tarixiy metodning ochilishiga jiddiy, chinakam yaqinlashishdi. Ammo qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishida Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimm, Aleksandr Vostokovlarning xizmatlari nihoyatda katta bo'lib, ular ijodkor (novator) tilshunoslar sifatida maydonga chiqdi.

Qiyosiy-tarixiy metod ilmiy-tekshirish usullarining muayyan sistemasi bo'lib, o'z oldiga qarindosh tillarni qiyoslash orqali o'rganib, u yoki bu tilning tarixini, undagi o'zgarishlarni, lisoniy hodisalarning mohiyatini, uning taraqqiyotidagi qonuniyatlarni ko'rsatib berish, tushuntirish vazifasini qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishidan to yosh grammatikachilargacha bo'lgan davr (XIX asrning birinchi choragi-1870 y).
2. Yosh grammatikachilar davri (1870-1890 y).
3. Yosh grammatikachilar davridan to F de Sossyurning «Umumiy tilshunoslik kursi» asari va xet yozma yodgorliklarini o'qib, ma'nosini ochib berishgacha bo'lgan davr (XIX asrning oxiri va XX asrning ikki o'n yilligi).
4. F. de Sossyur g'oyalaridan bizning davrimizgacha bo'lgan davr.
5. F. Bopp – V.Gumbol'dt
6. A.Shleyxer – G. Shteyntal bosqichlariga bo'linadi.

## ШЕВАЛАРДАГИ АЙРИМ ФОНЕТИК ЖАРАЁНЛАР

(Наманган вилояти Мингбулок шеvasи мисолида)

*Махлиё ДАРВИШАЛИЕВА,*

*Наманган давлат университети магистранти*

**Резюме:** Мақолада Наманган вилояти Мингбулок тумани қипчоқ шеваларидаги айрим фонетик қонуниятлар ҳақида фикр юритилади.

**Таянч тушунчалар:** шева фонетикаси, шевадаги товушлар парадигмаси, шевадаги товушлар синтагматикаси, товуш тушиши, товуш алмашиниши, товуш ортиши, танглай ва лаб сингармонизми.

**Резюме:** В статье рассматриваются некоторые фонетические правила в кипчакских говорах Мингбулокского района Наманганской области.

**Ключевые слова и понятия:** фонетика диалекта, парадигма звуков в диалекте, синтагматика звуков в диалекте, падение звука, смена звука, повышение звука, небная и губная сингармония.

**Resume:** Summary: The article deals with some phonetic rules in the Kipchak dialects of the Mingbulok district of the Namangan region.

**Key words and word expressions:** phonetics of a dialect, paradigm of sounds in a dialect, syntagmatics of sounds in a dialect, fall of sound, change of sound, rise of sound, palatal and labial synharmony.

Наманган вилоятининг жануби-ғарбий ареали қипчоқ шеваларида ундошлар билан боғлиқ фонетик ҳодисаларнинг айримлари бошқа ҳудудлардаги халқ жонли тили қипчоқ шевалари билан умумий ўхшашликка эга. Бироқ унда консонантлар билан боғлиқ шундай жиҳатлар борки, улар бошқа шеваларда кам учрайди.

Ундош фонемалар алмашуви ундошларнинг сирғалишга мойиллиги (спирантизация), алмашиниши, ўтиши, мослиги, ўзгариши (жаранглиланиши ва жарангсизланиши) каби фонетик жараёнлар билан боғланади.

Ўзаро қариндош тилларни ёки бир тилнинг турли даврларини қиёслаганда, бир тилдаги товушлар иккинчи бир тилда бошқа товушлар билан алмашинади ва товуш алмашиниши вужудга келади [6.70]. Масалан: *йулдуз-жулдуз-йулдус-йултур-жултур*. Бунда *л* сонор ундошидан ташқари, турли туркий тилларда бошқа товушлар ҳам ўзгариши мумкин [9.303]. Деярли барча туркологик тадқиқотларда сонор



товушлар, бошқа ундош товушларга нисбатан инсон тилининг энг қадимги товушларидан, деб қаралади. *Л* ундоши эса бешта сонорнинг биридир.

Юқоридаги мисолда сўз бошида *й, ж, ва д, т, р, з* товушлари ўзаро алмашган. Бу хусусият ўзбек шеваларига, хусусан, Мингбулоқ шевалари қипчоқ диалектининг “й”ловчи ва “ж”ловчиларига ҳам хосдир.

Худуднинг “й”ловчи қипчоқ гуруҳи нутқида *б* ундоши сўз бошида аслидай сақланади (*бор, бешлик* каби), сўз ўртаси ва охирида *в* ва *п* га алмашади. Худуд “ж”ловчи шеваларидаги ўзлашмаларда эса барча шеваларда кузатилганидек, сўз бошида *б, ф > п* га ўтади: [*пәтъңкә*] – ботинка, [*пәрмәр*] фермер каби.

Сўз ўртасида: *б > в*: [*эврө*] обрў, сандхи ҳолатда: [*эвәр//эвәр*] олиб юбор, [*йэвәр*] еб юбор, [*ьчвәр*] ичиб юбор каби. “Ж”ловчиларда сўз ўртасида *в > б > п* алмашинувини кузатиш мумкин: [*сэбүн*] совун, [*тэбэқ*] товоқ, [*ьбьп*] ивиб (ивимок), [*нәспәй*] носвой, [*қәтърға*] қовурға каби. “Ж”ловчиларда сўз бошида *б* ундошининг ўзлашмалардан ташқари *п* га ва *м* га алмашади: [*пүтүн нән*] бутун нон, [*дәйрәның мөйнь*] дарёнинг бўйи, [*пөйын*] бўйин (одамнинг бўйни) каби.

Туркий сўзлардаги *б > м* ҳолатини ҳар икки гуруҳ шева сўзларининг бошида кузатилади: [*мұрын*] бурун, [*мұрыррәқ*] илгарирок, олдинроқ каби.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, Республикамизнинг бошқа худудларида кенг тарқалган сўз ўртаси ва охирида *в* ундошининг тил ўрта *й* ва чуқур тил орқа *з* ундошига ҳамда *п* лаб ундошига алмашуви қуйидагича:

Мингбулоқ шеваларининг марказий ва шимолий ареали қипчоқ шохобчаларида (айрим ҳолатларда), *в > й* [*сүй*] сув, кузатилса, [*пәләп*] палов, [*чәгәндәз*] чавандоз каби ҳолат худуд шевасининг шарқий ареали қарлуқ шохобчаларидаги шеваларига хосдир. Бу гуруҳ шевалари вакиллари этник келиб чиқиши билан боғлиқ.

Мингбулоқ шеваларида товуш алмашинувларини бошқа ундошларда ҳам кузатиш мумкин: *й > з*: [*түймә*] тугма, [*түйсә*] тугса; *в > з*: [*түвдъ*] туғди, [*тәвды*] тоғнинг; *ҳ > с*: [*укаҳъ*] укаси, [*бәлэхъ*] боласи; *ҳ > ш*: [*әхнәқә//әнәхнәқә*] ана шунақа; *ҳ > қ*: [*қәҳтә*] қәқда, [*өҳмәнән//өҳмән*] ўқ билан каби.

Жануби-ғарбий Наманган вилояти Мингбулоқ шеваларининг ундошлари тизимидаги барча фонетик ҳодисалар, хусусан товуш алмашуви бошқа шеваларидагидек кўринишига эга бўлса-да, уларнинг айримлари бошқа шеваларда кузатилмаганлиги жуда характерлидир ([*мәхнәхъ*] машинаси, [*әхнәқә*] ана шунақа, мана шунақа каби). Бундай жараёнлар бошқа шевалар билан мазкур шевадаги фарқларни юзага келтиради.

Товушларнинг орттирилиши ва тушиши, сўз шакллари торайиб, кенгайиши фақат ҳозирги замон туркий тиллардагина бўлмай, қадимги ёзма ёдгорликларда ҳам қайд қилинган. Маҳмуд Кошғарий бундай ҳодисаларни турклар *чумчуқ, тамгақ* деб талаффуз қилсалар, қипчоқлар *чумуқ, тамақ* деб талаффуз этадилар, уни талаффузда осонлик бўлсин учун шундай дейдилар, деб изоҳлайди [11.69]. Ҳозирги ўзбек шевалари – худудий сўзлашув жарёнларида, хусусан, Мингбулоқ шеваларида ҳам товушларнинг ортиши ва тушиши ҳисобига сўз шакллари ўзгариш ҳолатлари мавжуд.

Мазкур худуд қипчоқ шеваларидаги ундошларнинг орттирилиши ва тушиш ҳодисаларини қуйидаги ўринларда кўриб ўтамиз: а) *сўз бошида ундош орттирилиши*. Бу жараён қадимги туркий тилга бориб тақалади. У спорадик тарзда кейинги даврларга ҳам хос [8.120]. Айрим шевашунос олимлар ундош товушларнинг сўз бошида орттирилиши кам учрайдиган ҳодиса деб эътироф этадилар [10.124; 5.21; 2.9]. Мингбулоқ шеваларида бунинг акси кўзга ташланади ва ундошларнинг сўз охирида



орттирилиши деярли учрамаслиги кузатилади. Ўзбек адабий тилида *a, o, ў, и* унлилари билан бошланувчи баъзи ўз ва ўзлашма сўзлар олдидан *ҳ, й, ч* ундошлари орттирилади. “Ж” ловчи шева вакиллари – Момохон, Чордона, Ингичка, Қолғандарё, Найман, Қорақалпоқ, Қирқчек, Қайрағочовул қишлоқлари аҳоли нутқида: [хэзэр] озор, [хэйвэн] айвон, [хэптэвүс//хэптэбүс//хэптэлэбьс] автобус, [хэйэл] аёл (бу жараён кўп уйрайди, [чэхчэймэ//чехчэймэ//чўхчэймэ] ўкрайма, [чэлчэймэ] алчаймоқ, алчайиб ётмоқ, [йьгнэ//йьнэ] игна, [йьлэн] илон, [йьп] ип, [хьшишэ] шиша каби; б) сўз ўртасида ундош орттирилиши. Қадимги ва эски туркий тилларда ҳамда бошқа кўплаб ўзбек шеваларида учраганидек, сўз ўртасида ундошнинг орттирилиши Мингбулоқ тумани шеваларида ҳам мавжуд, бироқ бу ҳодиса салмоқли эмас, нисбатан камдир. Сўз ўртасида, асосан, *й, т, в, ҳ* ундошлари ортади: [рэйьс] раис, [эйьлэ] оила, [дүйшэмбь] душанба, [йэңьттэн] янгидан, бошидан, қайтадан, [эскьттэн] аввалдан, олдиндан, илгаридан, [сэврэт] (омоним: сурат, суръат), [нэвмэ:т] номард, [сэхэт] соат, [сэхэдэт] саодат каби; в) сўз охирида ундош орттирилиши. Юқори таъкидлаганимиздек, сўзнинг бу позициясида товуш орттирилиши билан боғлиқ ҳодисани фақат *гэдэй* – гадо сўзидан бошқа сўзда учратмадик. Мингбулоқ шевасида сўз охирида ундошнинг орттирилишининг кам учраши ёки ўзлашма сўзлардан ташқари сўзларда учрамаслиги бу шева ўзига хос тавсиф ва хусусиятга эга деган хулоса чиқаришимизга асос бўлади.

Сўзнинг турли ўринларида ундошларининг тушиб қолиши ҳодисаси мазкур шевада ҳам бошқа шевалар каби хусусиятларга эга. Ундошларнинг тушиши сўз бошида ва охирида камроқ, сўз ўртасида кўпроқ содир бўлади. Бу эса Мингбулоқ шеваларида унлиларга нисбатан ундошлар позицияси мустаҳкамроқ эканлигини кўрсатади.

Сўз бошида ундош тушиши. Худуддаги “й” ловчи қипчоқ шеваларида сўз бошида ундошларнинг тушиши деярли кузатилмайди. Диалектолог олимлар таъкидлаганидек [7.112], “ж” ловчи шеваларда бу жараён кўп учрайди. Адабий тилимиздаги айрим сўзлар бошида келган *й, ҳ, ш* ундошлари туширилиб талаффуз этилади: [ьрьк] йирик, [ьрьң] йиринг, [ьрт] йиртмоқ, [ьрж] йироқ каби, сўзларда *й* ундоши, [элқьм] халқум, [уркьдь] хурқди, [ьсэвлэ] ҳисобла, [этлэ] хатла-сақрамоқ каби сўзларда *ҳ* ундоши, [ьш] шиш-бўртмоқ, [ьшмэ] шишган-семиз каби сўзларда *ш* ундоши сўз бошида тушиб қолади. Ундошларнинг сўз бошида тушишини, [ьл] йил [эвуч] ҳовуч каби, Навоий асарларида ҳам учраши қайд этилган [7.70].

Сўз ўртасида ундошнинг тушиши. Бу позицияда *л, п, з, ҳ, м, ш, э* ундошларинингина талаффуз этилмаслиги кузатилади: [бўсэ] бўлса, [кэсэ] келса, [йуқэ] юпқа, [нэмшэмгүл] номозшомгул; унлининг чўзилиши натижасида ундошнинг тушиб қолиши: [шэ:р] шаҳар, [бэ:р] баҳор, [дэ:льс] даҳлиз каби. Кўпроқ ўғуз шеваларига хос бўлган бундай хусусиятларнинг [1. 135;2.51;4.96] Мингбулоқ шевалари ундошларининг синтагматик муносабатларида ҳам кузатилиши туркий тиллар ва ўзбек тилининг шаклланишидаги муштарақ жараёнларнинг бири ҳисобланади.

Сўз охирида ундошнинг тушиши. Сўзнинг бу ўринда ундошнинг талаффуз этилмаслиги бошқа қипчоқ шеваларидан фарқ қилади. Таянч тип шеваларда охириги позициялардаги ундошларнинг кўпчилиги (бэ:– бор, қэвэ:– қовоқ каби) туширилса, бошқа ўзбек шеваларида бўлгани каби Мингбулоқ шеваларида ҳам, асосан, *т, д* ундошлари форс-тожик тилидан ўзлашган сўзларда, сўзнинг охириги ўрнида қатор ундош келган ҳолларда тушириб талаффуз этилади: [гьш] ғишт, [дэрж] дарахт, [хурсэн] хурсанд, [дурус] дуруст каби. Шевада, худди сўз ўртасидагидек, охириги позицияда *л* сонорининг туркий бир бўғинли сўзларда ҳам барқарор эмаслиги

кузатилади: [кэ] кел, [э:] ол, [сэ] сол каби, [төр] тўрт сўзида эса ўзлашма сўзлардаги қонуният кўзга ташланади.

Кўринадики, сўзнинг охириги позициясида ундош товушлар орттирилши жуда кам, ундошларнинг туширилиши эса сўзнинг барча ўринларида учрайди. Бироқ сўз бошида ва охирида ундошнинг тушиши ўзига хос жиҳатларга эга бўлиб, бу шеванинг ундошлар тизими унлиларига нисбатан анча барқарор ва мустаҳкам ўрин тутишини кўрсатади.

Хулоса қилиш мумкинки, Мингбулоқ туманидаги шеваларнинг ундошлар парадигмаси миқдор жиҳатидан қарлуқ лаҳжаларида нисбатан кўпроқ, қипчоқ лаҳжаларида эса, озроқ.

Мингбулоқ шевалари қарлуқ, қипчоқ ва аралаш гуруҳларга мансублиги учун шеваларда ундош товушлар миқдорида, артикуляциян ўрни ва талаффузда маълум фарқлар бор.

Диалектал ареал ундошлари туркий тил ва ўзбек шевалари учун ҳам умумий, лекин улардаги айрим ўзига хос хусусиятлар мазкур шеванинг ички фонетик-фонологик меъёрлари асосида содир бўлган.

Тарихийлик нуқтаи назардан ундошлар оппозицияси унлиларга нисбатан мустаҳкам системалашганлиги учун кескин ўзгаришларга учрамаган. Ундошларга оид ўзгаришлар, асосан, янги ундошларни ўзлаштириш ва товуш алмашилишлари билан чегараланади, бу ундошлар унлилардан кўра барқарор бўлган деб хулоса чиқаришга имкон беради.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Абдуллаев Ф. Фонетика Хорезмских говоров. – Ташкент, 1967. – Б.135;
2. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари таснифи масаласи. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. II. – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 51;
3. Абдуллаева Д. Ўзбек тили Ошоба шевасининг фонетик хусусиятлари. Фил. фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1999.
4. Ишаев А. Манғит шевасининг баъзи бир фонетик хусусиятлари. ЎДМ. II. – Тошкент, Фан, 1961. – Б. 96.
5. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1981;
6. Неъматов Х. Ўзбек адабий тили тарихий фонетикаси – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б.70.
7. Решетов В.В. Узбекский язык. I. – Ташкент: Узгосиздат, 1959. – С.112.
8. Рясянен М. Материалы по исторической фонетике тюрских языков. – М.: Иностр. литерат. 1955. – С. 120.
9. Сравнительно-историческая грамматика тюрских языков. Фонетика. – М.: Наука. 1984. – С.303.
10. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари. – Тошкент: Фан, 1962. – Б. 124;
11. Қошғарий М. Девону луғотит турк. I. – Тошкент, 1960. – Б.69.

#### **OILAVIY-MAIYSHIY MAROSIMLAR VA ULARNING HUDUDLARDA O‘TKAZILISHI XUSUSIDA**

*Sevinch Rajabboyeva*

*Navoiy davlat pedagogika instituti II kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: dots. N.Tursunova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek xalqining oilaviy-maiyshiy marosimlaridan biri, ayollar orasida o‘tkaziladigan “lachak o‘rash” marosimining o‘rni va uning qo‘llanishi to‘g‘risida fikr yuritilgan. “Lachak o‘rash” marosimini hududlar kesimida taqqoslash va ularning mohiyati ochib berish kabi tahliliy mulohazalardan iborat.

**Kalit so‘zlar:** umumxalq, marosim, oilaviy, to‘y, urf-odat, lachak o‘rash

Ma‘lumki, o‘zbek xalqining jahon xalqlari orasida tutgan o‘rni juda katta. Buning sababi uning marosimlarining, urf – odatlarining, an‘analarining o‘rni hayotda katta.

Dunyoda bironta xalq yo‘qki, turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlarni nishonlamasin. Shunday ekan, hozirgi kunda o‘zbek xalqining ba‘zi unitilib borilayotgan marosimlari qadimdan momolarimiz tomonidan urfga aylanib turkiy xalqlarning odatlari, etnografiyasi, rasm-rusm va irimlari o‘zaro mushtarak bo‘lib, ma‘no-mazmuni bir xillikni ko‘rsatsadi. Ammo, O‘zbekistonning turli hududlarida turlicha talqinda tashkil etilishi bilan ahamiyatli.

Marosim haqida gapirar ekanmiz, uning turli davrlardagi sayqal topib borishi bizni o‘ziga jalb qiladi. “Ma‘lum bo‘ladiki, “marosim“ tushunchasi “bayram“ so‘zi ifodalagan ma‘nodan kengligi bilan farq qilar ekan. Chunki marosim bir shaxs hayotidagi muhim voqea bilan bog‘lanishi mumkin. Bu tadbir, oila chegarasi bilan cheklanadi. Bayramda esa umumxalq ishtiroki bo‘lishi lozim.”<sup>1</sup> “Marosim insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo‘lishi bilan bir qatorda uni rivojlantirishdagi samarali vosita ham hisoblanadi. Marosim xalq san‘ati va madaniyati shakllari orasida eng ulkan auditoriyani o‘ziga jalb qiladigan ommaviy tadbir hisoblanadi.<sup>2</sup> Ana shunday marosimlardan biri bo‘lgan “Lachak o‘rash” marosimi oilaviy marosimlar sirasiga kiradi .

O‘zbek xalqining oilaviy marosimlari tarixiy zaruriyat asosida vujudga kelgan va zamon chig‘iriqlaridan o‘tib, muhim ma‘naviy qadriyat sifatida ravnaq topgan. Oilaviy marosimlar jarayonida namoyon bo‘ladigan odob – axloq , mehr – oqibat kabi hislatlar yoshlar ma‘naviyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbeklar marosimlarga boy xalqdir. Xalqimizning ijtimoiy – madaniy hayotini marosimlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan an‘ana, urf – odat va bayramlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shulardan biri, lachak o‘rash marosimidir. O‘zbek xalqining asrlardan asrlarga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlari , marosimlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Mana shunday milliylikimiz tarannumi bo‘lgan marosimlar haqida gap ketganda, har bir voqea, viloyatning marosim, urf – odatlari ko‘z oldimizga keladi. Xorazm vohasini qadriyatlar beshigi deb aytsak bo‘ladi. Biz shulardan keksalar tomonidan ayyolar o‘rtasida o‘tkaziladigan “Lachak to‘yi” haqida ma‘lumot beramiz.

Lachak – Markaziy Osiyoda yashaydigan ko‘p xalqlarning, ayniqsa, Xorazm ayollarining an‘anaviy bosh kiyimi sanaladi. Ushbu bosh kiyim turli joylarda har xil tarzda aytiladi. Misol uchun, qozoq va qoraqalpoqlarda “kiymishek”, turkman xalqlarida “esg“, Xorazmda esa, “lachak” deb aytiladi. Lachak o‘rash marosimi turli viloyatlarda turlicha nishonlanadi. Ko‘pni ko‘rgan momolarimizning aytishicha, qadimda ikki farzandi bor oilali ayollar ushbu bosh kiyimni kiyishlari shart bo‘lgan. XX asr boshlarida urf bo‘lgan ushbu bosh kiyim ayollarni turli xil bosh va ko‘krak kasalliklaridan saqlab qolgan. Urf – odatlarga ko‘ra, lachak kiygan ayol shu kundan boshlab hurmat – ehtiromga sazovor ayolga aylangan. Unga g‘iybat qilish, yolg‘on so‘zlash va shunga o‘xshagan yomon xislatlar taqiqlangan. Ushbu kundan u kiygan oq libosi va bosh kiyimi kabi farishtadek pok sanalgan .

Lachak o‘rashning o‘ziga xos qonun – qoidalari mavjud. Uni o‘raganda, ro‘mol iyakdan boshning yuqori qismigacha, undan keyin peshonadan orqaga qarab va bosh ustidan yumaloq

<sup>1</sup> M.Jo‘rayev, J. Eshonqulov, Sh. Turdimov, T. Mirzayev, A. Tilavov. O‘zbek folklori. Tosh. 2020. 43-bet.

<sup>2</sup>Latifa Xudayqulova, Nasiba Tursunova. Oilaviy – maiyshiy marosim folklori. Navoiy 2022. 6-bet.

shaklda o‘raladi. Ayol avvaliga chittan do‘ppi kiygan, bu lachakni mustahkam ushlab turuvchi vositadir. So‘ngra, ikki metr dan o‘n ikki metrgacha oq mato do‘ppi bo‘ylab o‘ralgan. Uni har bir o‘ramida xalfalar, otinoyilar tomonidan Qur‘ondan suralar tilovat qilib o‘ralgan. Bazibir manbalarga ko‘ra, oq matodan keyin oftobday porlasin deya sariq mato, gulday yashnasin deya qizil mato, yaxshilik, tinchlik doimo hamrohi bo‘lsin deya katta ro‘mol bosh ustidan yopiladi. Lachakning foydali tomonlari juda ko‘p. Lachak, asosan, bosh miyani issiq va sovuqdan saqlaydi. Insonning fikrlash qobiliyatini bir me‘yorda saqlab turadi. Lachak kiygan ayolga barcha sovg‘a – salomlar berib, uni lachak to‘yi bilan qutlashgan. To‘yga tashrif buyurgan mehmonlarga, ibodat qilganlarga lachak to‘yi qilish nasib qilsin deya barchasiga oq dastro‘molcha berilgan. Ushbu an‘anaviy marosim hozirgacha Xorazm viloyatida o‘tkazib kelinadi. “Marosim inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy vaziyatda o‘tadigan, o‘z ramziy harakatlariga hamda maxsus aytim – qo‘shiqlariga ega hayotiy tadbirdir”<sup>1</sup> Lachak o‘rash marosimida ham mana shu urf – odatlarga qarab, marosimga bog‘liq ashula, qo‘shiqlar aytiladi. Xorazmda ham bu marosimni o‘tkazish davomida mana shunday qo‘shiqlar aytiladi .

Qadim qudalarning udumi bu qolmaydi ,

Lachak kiygan boshni sovuq olmaydi.

Qiyomatda savol – so‘rov bo‘lmaydi

Lachakingiz muborak , muborak, muborak .

Bu marosimning o‘tkazilishi boshqa viloyatlarda boshqacha nishonlanadi.

Buxoro viloyatida lachak “Sallabandon”-, deb ataladi. Bu marosim bu yerda to‘yi bo‘lgan qizlarga o‘raladi. Marosim to‘yi bo‘lgan qizga kelin chaqirdi yani challandiga kelgan payti bog‘lanadi yoki farzandli bo‘lgan payti katta buvi yoki kayvonilar tomonidan bog‘lanadi. Lachak bu ayollik belgisi hisoblanadi. Shuning uchun ham qizlarga to‘yi bo‘lgandan keyin ayol nbo‘ldi deya lachak o‘raladi. Ma‘lumotlarga qaraganda, lachak o‘ragan ayol ta‘ziya ( janaza) ga brogan payti katta oq ro‘mol ham tashlab boradi. Agar lachak o‘ramagan bo‘lsa, bitta oddiy oq ro‘mol bo‘g‘lab boraveradi. Shunisi qiziqki, bu marosim turli yerlarda turlicha nishonlanadi .

Navoiy viloyatining Karmana tumanida esa, lachak kiyish marosimi umuman boshqacha nishonlanadi. Aytishlaricha, ayol kishi farzandli bo‘lgandan so‘ng, kelinning onasi chaqaloqli qizigaga lachak olib boradi va uni Yoshi ulug‘ momolar tomonidan o‘raydila. Lachak onaning oldidagi burchi, qarzi deb irim qilinadi. Agar chaqaloqli ayolning onasi vafot etgan bo‘lsa, unga lachakni katta yangasi yoki biror yaqin qondoshlari tomonidan albatta etilishi shart. Bazi bir joylarida ko‘pchilikka yoshi katta bo‘lgan paytida o‘raladi. Lachskning o‘ralishi boshqa viloyatlarniki bilan bir xil. Lekin lachak o‘ralganda ishlatilgan paxtadan shu yerdagi ayollarga berilganda, ana o‘sha paxtani qulog‘i og‘rigan payti qo‘ysa foyda beradi, degan irimlar bor. Qizig‘i shundaki, bu marosim haligacha nishonlanib kelinmoqda va uning kelib chiqishi Xorazm viloyatiga borib taqaladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning ijtimoiy – madaniy hayotini marosimlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan an‘ana, urf – odat va bayramlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘zbeklarning Lachak o‘rash marosimi ham xalqimizning an‘ana, ur-odat, qadriyatlarini o‘zida saqlagan qadimiy marosimidir. Lachak o‘rash marosimi ham har bir xalqning o‘ziga xosligi, betakrorligini ifodalovchi milliy mentalitetini, binobarin, xalqning tarixan shakllangan milliy ruhiyatining asosini tashkil etadi. Marosimlar biror sababsiz yuzaga kelmagani kabi lachak o‘rash marosimi ham ayollik belgisi sifatida yuzaga kelgan. Bugungi kunda qadriyatlarga xosligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi

---

<sup>1</sup> Latifa Xudayqulova, Nasiba Tursunova. Oilaviy – maishiy marosim folklori. Navoiy 2022 . 7-bet.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. B Sarimsoqov .O‘zbek marosim folklori.Toshkent. Fan. 1986.
2. S Davlatov . An’ana va marosim. Toshkent. Fan. 2009.
3. M Jo‘rayev, J Eshonqulov, SH Turdimov T. Mirzayev. A Tilavov. O‘zbek folklori Toshkent. 2020.
4. M Alaviya, O‘zbek xalq marosim qo‘shiqdari. Toshkent. Fan 1974.
5. L Xudayqulova, N Tursunova, Oilaviy –maishiy marosim folklori. Navoiy. 2023.
6. N Tursunova “Hozirgi o‘zbek dramaturgiyasida folklor stilizatsiyasi”. Monografiya. Toshkent. 2022.

## “BOSH” KOMPONENTLI IBORALAR O‘RTASIDA SEMANTIK MUNOSABATLAR

*O.Mamaradjabova,  
SamDU O‘zbek tilshunosligi  
kafedrasida I bosqich magistranti.  
Ilmiy rahbar: dots.U.Rashidova*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola frazeologiya sohasiga bag‘ishlangan bo‘lib,unda “bosh” komponentli iboralarning omonimlik,antonimlik va sinonimlik xususiyatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** somatik frazeologizmlar, “bosh” komponentli iboralar,semantik munosabatlar, “bosh” komponentli sinonim iboralar, “bosh”komponentli omonim iboralar.

Ibora- tilimizning lug ‘at tarkibini tashkil etuvchi birlik hisoblanadi.Ibora biror tushuncha yoki gapning bir yoki bir nechta so‘zlarning birikishi orqali ifodalanishidir.Masalan,boshi aylanmoq iborasi “behud bo‘lmoq,muvozanatini yo‘qotmoq” ma’nosida,boshidan kechirmoq “Boshidano‘tkazmoq”ma’nosida,boshi yostiqqa yetmoq “kasal bo‘lib yotib qolmoq ma’nosida,boshi ikkita bo‘lmoq “turmush qurmoq,oilali bo‘lmoq”ma’nolarini bildiradi.Tilshunoslikda bunday birliklarga nisbatan frazeologizmlar atamasi qo‘llaniladi va ularni o‘rganuvchi soha frazeologiya deb nomlanadi.O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni o‘tgan asrning birinchi yarmidan boshlab sturuktur,semantik,grammatik ,uslubiy,funksionalkabi aspektlari atroflicha keng o‘rganildi.

Shuningdek, tilshunoslikda odam ta’na a’zolari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralar ham mavjud.Masalan,boshi qotmoq, boshi ochiq,yuragidan urmoq,ko‘z-quloq bo‘lmoq, boshdan oyoq kabi bir qancha iboralarni keltirishimiz mumkin.Bunday iboralar somatizmlar yoki somatik frazeologizmlar deb ataladi.Bunday iboralar nafaqat bir til doirasida, balki bir nechta tillarni qiyoslash orqali ham amalga oshiriladi.Bularga misol qilib, A.Isayev,O.Nazarov,Sh.Usmonova,H.Alimovalarni keltirishimiz mumkin

Dastlabki somatik frazeologizmlar insonga har doim ko‘rinib turadigan inson ta’na a’zolari nomlari asosida yuzaga kelgan.Bosh insonning asosiy organlaridan biri bo‘lib,hayotning ramzi hisoblanadi.O‘ylash,fikrlash,fikr yuritish,idrok qilish,reja tuzishda bosh miyaning roli juda kattadir.Bosh haqidagi frzeologizmlar insonning aql va qobiliyatining ijobiy va salbiy ekanligiga baho beradi.

Bosh umumturkiy so‘z bo‘lib, ular orasida bir qancha semantik munosabatlar yuzaga keladi.Bularga misol qilib “bosh” komponentli iboralar o‘rtasidagi omonimlik,sinonimlik,antonimlik kabi munosabatlarni keltirishimiz mumkin.

Bir tushuncha yo tasavvur yoki nisbiy tugal fikr bir frazeologik ibora bilan ifodalanganidek ,bir necha frazeologik ibora bilan ifodalanishi ham mumkin.Bunday ekvivalent iboralar frazeologik sinonimlar deb yuritiladi.Bu iboralar ichida bosh so‘zi bilan sinonimlik hosil qiladigan iboralar ham mavjud.Masalan:



**Bir yoqadan bosh chiqaraylik**-qo'lni qo'lga beraylik.(Ahil bo'lmoq)

**Boshi osmonga yetdi**-terisiga sig'madi,o'g'zi qulog'iga yetdi,do'ppisini osmonga otdi.(Xursand bo'lmoq)

**Boshiga yetmoq**-boshini yemoq.(Yo'q qilmoq)

**Boshiga ko'tarmoq**-shovqin solmoq.(shovqin qilmoq)

**Boshidan kechmoq**-ko'nglidan o'tmoq,xayolidan o'tmoq (Ma'lum bir muddat fikrlamoq)

**Boshi ko'kka yetmoq**-terisiga sig'may ketmoq,o'g'zi qulog'iga yetmoq (behad sevinmoq)

**Boshini bukmoq**-yuzi yerga qaramoq (uyat-nomusdan bosh ko'tarolmaydigan holga tushmoq)

**Boshini yemoq**-boshiga yetmoq (yo'q qilmoq,halok qilmoq)

**Boshi shishdi**-boshi qotdi,miyasi g'ovlab ketdi (o'ylaverib gangimoq)

**Bosh egmoq**-bo'yin egmoq (itoatkor bo'lmoq)

**Bosh qo'shmoq**-burnini suqmoq (aralashmoq) kabi iboralar "bosh" komponentli iboralar bilan semantik munosabatga kirishadi va frazeologik sinonimlarni hosil qiladi.

Shuningdek, "bosh" komponentli iboralar o'rtasida omonimlik hodisasi ham kuzatiladi.Bunda bir ibora bir nechta ma'nolarda qo'llanilishi kuzatiladi.Masalan:

**Boshga ko'tarmoq I**-qattiq shovqin qilmoq.O'tgan yili bu vaqtda kalxoz dalalarida "universal"lar gumburlab,butun qishloqni boshiga ko'tarayotgan edi.I.Rahim,Chin muhabbat.

**Boshga ko'tarmoq II**-yuksak darajada izzat-hurmat qilmoq.Bilaman,Komila ularni o'z boshiga ko'taradi,keragidan ortiqcha sharoit hozirlaydi.Oybek,Oltin vodiyan shabadalar.

Xinalar muhabbat ko'klamida qizlarning qo'lini o'pish uchun yerdan bosh ko'taradi.G'.G'ulom.Qizaloq **Boshini yeb I**-juda ko'p hosil bermoq.Tut o'lgur boshini yeb tagi bilan bitta bo'lib to'kilib yotibdi.Mirmuhsin,Jamila

**Boshini yeb II**-yo'q qilmoq,halok qilmoq.Husning boshingni yeydi.A.Muxtor,Qoraqalpoq qissasi.

**Bosh ko'tarmoq I**-qo'zg'almoq,harakatga kelmoq. ....qalbmida go'yo isyon,g'alayon ajdohosi bosh ko'targan-u,menga tinchlik bermaydi.M.Ismoiliy,Farg'onada tong otguncha.

**Bosh ko'tarmoq II**-unib chiqmoq..

**Bosh ko'tarmoq III**-yostiqdand bosh ko'tarmoq kabi iboralar omonim ,ya'ni shakldosh iboralar hisoblanib,bunday iboralar matn ichida turli xil ma'nolarda qo'llanilishi kuzatiladi.Bunday somatik iboralarni nutqimizda qo'llash nuqtigimizning ifoda ko'lamini, ta'sirchanligini oshirishga yordam beradi.

"Bosh"komponentli somatik frazeologizmlar orasida zid ma'noli ya'ni antonim frazeologizmlarni uchratishimiz ham mumkin.Masalan:

**Boshi bog'liq-boshi ochiq**

**Boshi ko'kka yetmoq- tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq**

**Boshga ko'tarmoq-yerga urmoq** kabi iboralar o'zora zid ma'noli iboralar hisoblanadi.Bunday iboralarni matn tarkibida qo'llashimiz nutqimizning ta'sirchanligini oshirishga,unitinglovchi shaxsga tezda ta'sir qilishga yordam beradi.

Asarda laqab va taxalluslarning etimologiyasi haqida ham so'z boradi. Bobur "Boburnoma"da so'zlarni ma'lum mazmuniy maydonga birlashtirgan holda izohlaydi va tezaurus lug'at tuzadi. Mazmuniy maydon nazariyasi asosida tuzilgan tezaurus lug'ati 1852-yilda Yevropada ingliz tilshunosi I.M.Roje tomonidan yaratilgan. Shuning uchun ham Yevropa tilshunoslari tezaurus lug'at tuzishning asoschisi qilib I.M.Roje ko'rsatadilar. Biroq

bundan uch asr oldin Bobur “Boburnoma” asari orqali tezaurus lug‘at tuzishning ajoyib namunasini ko‘rsatdi.

Bobur Hindiston voqealari haqida fikr yuritar ekan, Hindistonning hayvon, parranda, o‘simlik nomlari, fasl nomlari, o‘lchov nomlarini batafsil izohlaydi. O‘rni bilan boshqa tillarda ularning qanday nomlanishi haqida chog‘ishtirma ma‘lumot ham beradi.

Yuqoridagi fikrlardan anglash mumkinki, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek tilining sayqallanishida, badiiy, publisistik, rasmiy va ilmiy uslublarining shakllanishida katta iz qoldirgan ulkan so‘z san‘atkori bo‘lishi bilan birga, tilshunoslikning grafika, onomastika, etimologiya, leksikografiya sohalarining rivojiga munosib hissa qo‘shgan tilshunos olim hamdir.

## USMON NOSIR SHE‘RIYATIDA VATANPARVARLIK G‘OYALARI HAMDA UNING POETIK XUSUSIYATLARI

*Surayyo XOLIQOVA,*

*Navoiy shashar 12-IDUM ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Insonni, uning ma‘naviy olamini kashf etadigan qudratli bir vosita borki, u ham bo‘lsa so‘z san‘ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhiyatining muhandislari deb ta‘riflanishi bejiz emas, albatta.

Xalqimiz orasida mana shu g‘oyat mashaqqatli sohaga butun hayoti va noyob iste‘dodini bag‘ishlab adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin egallagan, o‘lmas asarlarni yaratgan buyuk so‘z san‘atkorlari, ularning barchasining nomlari zikr etilishi albatta ko‘p vaqtni talab qiladigan bo‘lur edi – yetishib chiqqani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz.

Adabiyot so‘z san‘ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib kelgan. Xususan mustaqillik yillarida yurtimizda ma‘naviyatimizning g‘oyat muhim uzviy qismi bo‘lgan adabiyotni rivojlantirish shoir va yozuvchilarning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag‘batlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar o‘z hosilini berayotgani badiiy adabiyotimiz mavzular va ko‘lami jihatdan ham, janr nuqtayi nazaridan ham rang-barang bo‘lib borayotgani, adabiyot maydonida yangi-yangi nomlar paydo bo‘ldi,<sup>1</sup> qoralangan nomlar bugun oqlandi.

Shoir Usmon Nosirning hayoti uning lirik merosini tadqiq etish nafaqat adabiyotshunoslik balki tarix fanining o‘rganadigan dolzarb muammolaridan biridir. Unda Usmon Nosirning ruhiyati va butun hayotidagi murakkab va ziddiyatli ko‘zga ko‘rinmas yashirin jihatlari bilan ko‘lamli tarzda bayon etish nihoyatda qiyin bir jarayondir.

Adabiyotning asosida inson obrazi turar ekan, uning ruhiy olamini kashf etish ijodkorning bosh maqsadi hisoblanadi. Ijodkorning mahorati ham bevosita inson qalbining ko‘chinmalarini qay darajada haqiqiy tasvirlay olishi bilan belgilanadi. Zero, Umarali Normatovning quyidagi fikrlari: “Inson va uning tabiati, qalbi, ruhiyati haqiqatni kashf etishda hech bir soha adabiyot bilan tenglasha olmaydi, uning o‘rnini bosa olmaydi”<sup>2</sup>.

Ma‘lumki, har bir ijodkor o‘ziga xos iste‘dod sohibidir. Ular inson ruhiyati mazralarini faqat o‘ziga xos, boshqalarga o‘xshamaydigan tarzda kashf etdilar. Chunki har bir ijodkor shaxsning o‘z ruhiy olami e‘tiqodi shaxs sifatidagi xislat va fazilatlarini turlicha bo‘ladi. Zero, tabiatda aynan bir xil, bir-biriga o‘xshash barg yoki gul hidini topib bo‘lmaganidek, o‘xshash inson ruhiyatini topish ham mumkin emas. Binobarin, aynan shu ruhiy olam turfaligi

<sup>1</sup> I.A.Karimov Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch. T: “Ma‘naviyat” nashriyoti, 2008. 136-137-betlar.

<sup>2</sup> U.Normatov Umidbaxsh tamoyillar. T: “Ma‘naviyat” nashriyoti, 2000. 98-bet.

ta'sirlanish yo'lining ayrichaligi bilan badiiy adabiyotda o'ziga xos ijod namunalarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

O'zbek she'rshunoslik fanidan she'riyatda psixologik ta'sir, vatanparvarlik g'oyalari bilan bog'liq masalalar o'rganilgan bo'lsada, bu tadqiqotlar o'zbek she'riyatida psixologizm muammosi va vatanparvarlik g'oyalarini umumiy tarzda tadqiq etilganligi bilan asoslanadi. Vaholangki, ruhiyat va vatanparvarlik g'oyalarining talqini muammasosini muayyan ijodkor tafakkuri misolida tadqiq etish va shu asosida ijodkor mahoratini ko'rsatish g'oyat dolzarb masaladir. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish joiz deb bildik.

“O'tgan davr mobaynida eski tuzumdan og'ir meros bo'lib qolgan aynan shu illatlarga el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko'hna qadriyatlarimiz din-u diynatimizni tiklash hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish jamiyat qurish borasida xalqimizning ma'naviy yuksalishini o'z odiga qo'ygan olijanob maqsadlarga yetishuvda hal qiluvchi mezon deb qarash shu asosida ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelgani va bugun ham e'tiborimiz markazida bo'lib turganini ta'kidlash lozim”.<sup>3</sup>

Usmon Nosirning “Yurak” she'rining so'ngi misralaridan:

Itoat et!

Agar sendan

Vatan rozi emas bo'lsa.

Yoril chaqmoqqa aylan sen

Yoril! Mayli tamom o'lsam.<sup>1</sup>

Bu she'r o'quvchining tuyg'ularini hayajonga soladi, hayajon kishini befarqlikdan halos etadi. Kimningdir befarqlik qahriqattiqlik olamidan qutqara olgan she'r asl she'rdir.

Usmon Nosirning “Yana she'rimga” asari uning ijodiy qiyofasini belgilaydigan she'rlar sirasiga kiradi. Ushbu she'rni sinchiklab o'qigan she'rxon shoirning shu xildagi asarlarini yozib, adolatsiz zamon talablarga javob bermaydigan, zamonga bo'yin egmay, yosh jonidan judo bo'lgani sababini anglaydi.

She'rda chinakkam asar ulkan dardning mahsuli ekanligi juda chiroyli va lo'nda ifodalanadi:

She'rim! Yana o'zing yaxshisan

Bog'ga kirsang gullar sharmanda.

Bir men emas yurak shaxsisan

Jonim kabi yashaysan manda

“Yana she'rimga” she'rida shoir va she'r tushunchalarini poetik obraz darajasiga ko'tarib, boshqalarnikiga o'xshamaydigan poetik kashfiyot yarata oldi.

“Ko'ngil” she'ri shunday dardli xitob bilan boshlandi. Shoir ko'ngliga murojaat qiladi.

Ko'ngil, sen bunchalar nega

Kishanlar bilan do'stlashding?

Na faryoding, na doding bor

Nechun sen buncha sustlashding?

She'rda ko'ngil, ruhiyat tasviri inson ma'naviy olimi bilan bir qatorda ijtimoiy hayot ta'siri bilan ham mohiyatda chuqur uyg'unlik kasb etadi. Shoirning qalbi drammatizmi bilan ijtimoiy-falsafiy mohiyati uyg'unlashib, o'ziga xos bo'lgan fojeliqni vujudga keltirdi.

<sup>3</sup> I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.2008. 6-7-bet.

<sup>1</sup> Usmon Nosir.Tanlangan asarlar. 2 tomlik.. T.,G'. G'ulom. 1969. 1 tom, 93-bet.

Usmon Nosirning badiiy mahorati lirik qahramon ruhiyatini faqat poetik obrazlar, peyzaj tasviri asosida emas, balki badiiy ta'siri vositalaridan o'rinli va ijodiy foydalanish, ular orqali lirik qahramonning ichki dunyosi, ma'naviy qiyofalarini ochib beradi.

**NAVOIY« MUQBIL VA MUDBIR» HIKOYASINI O'RGATISHDA  
INNOVATSION YONDASHUV ORQALI O'QUVCHILAR NUTQIY  
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH  
SULAYMONOVA NAFISA SATTOROVNA,  
NDPI *akademik litsey ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi***

**Annotatsiya:** Alisher Navoiy adabiy merosi, ayniqsa, «Xamsa» dostoni matni ustida ishlash, uni akademik litsey o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini o'stirishda innovatsion yondashuv orqali o'rgatishning muhim jihatlari, sodda usullar orqali mumtoz adabiy matnning mazmunini, mag'g'zini va shaklini o'quvchilarga o'rgatishda usullari ochib beriladi. Nutqiy kompetensiya elementlarini innovatsion yondashuv orqali shakllantirishda matn bilan ishlash haqida fikr yuritiladi. Navoiy dostonidagi badiilik, so'z san'ati durdonalaridagi joziba o'quvchilarning o'z ichki, yashirin qobiliyatlarini ochib berishi bilan birga kreativ fikrlashga, bunyodkor g'oyalarning yuzaga kelishiga undashi ko'rsatib beriladi.

**KALIT SO'Z:** kompetensiya, «Avtofokus metodi», Bahrom, Boxtar diyori, Xovar diyori, Muqbil, Mudbir, vodiy, «Vodiy hamim»,«Jazirama vodiy», dengiz qirg'og'i, kema egasi.

**Oltinchi iqlim yo'ldan kelgan musofirning rivoyati**

Boxtar diyoridan ikki kishi Xovar tomon yo'lga chiqishgan edi. Ular tunu kun sayr qilishardi. Birining oti Muqbil, yana biriniki Mudbir edi. Muqbil pok, omadli, xalq e'tiborini qozongan yigit bo'lsa, Mudbir qayerga borsa, yuzida baxtsizlik changi paydo bo'ladigan inson edi. Yo'lda borisharkan, qo'rqinchli bir vodiya duch kelishdi. Uni biladigan odamlar bu yerdan yurmasdilar. Ushbu vodiyning sabza-yu bog'i tikon-u sho'ra, suvi-yu tuprog'i esa neft-u oltin-u gugurt edi. Tuprog'idan badbo'y bug' ko'tarilib, o'tdek shamoli kishi taniga urilar ekan, uni kulga aylantirib, ko'kka sovurardi. U yerda jonivorlarning yashashiga imkon ham yo'q bo'lib, kirib qolgan hayvon darrov halok bo'lardi. Odamlar uni "Vodiy hamim", ya'ni "Jazirama vodiy" deb atashar, harorati bu nomni isbotlab turardi. Bulardan ogoh bo'lmagan ikkala hamroh yo'l azoblari, balo dashtining uqubatlarini ko'rib, cheksiz bu dashtni bosib o'tishdan boshqa chora topisholmadi. Har qanday balo duch kelsa ham, chidashga ahd qilib, tavakkal qildilar-da, dasht da o'z safarlarini davom ettirdilar. Harorat alangasi kuchayib borgan sari Mudbirning besabrligi orta borardi. "Bu qanday havo bo'ldi? Bunday dashtni yaratishning nima keragi bor edi?" deb shikoyat qilar, behush mastlar kabi "Bu yerda suv yaratish qiyinmidi?", deb nola chekar, har bir so'zi tangriga e'tirozdan iborat edi. Buning ustiga doim hamrohiga "Men bechoraga sendek yo'ldosh hamroh bo'lmagani yaxshiroq edi. Qanday shum kunda senga yo'liqdimki, shunday yomon xosiyatlarga duchor bo'ldim", deb ta'na qilgani qilgan edi.

Muqbil esa xudo yodi bilan mashg'ul bo'lib, zikr-u tasbihdan bo'shamasdi. Mudbirga nasihat qilishdan charchamas, lekin bu pandlardan foyda yo'q edi. Muqbil barcha azoblarga bardosh berib, dashtdan chiqib oldi. Dasht ko'zdan yo'qolgach, ular dard-u balo dengiziga duch keldilar. Hamrohidan bezor bo'lgan Muqbil undan ayrilishni istagan edi, Mudbir qilgan ishlari, gapirgan so'zlaridan tavba qilib, hamrohini bundan buyon sabrli bo'lishiga ishontirdi. Muqbil uning qilgan ishlarini, noto'g'ri so'zlarini unutdi.

Ikkovlari dengiz qiro'og'iga kelib, u yerda bir kemani ko'rdilar, har tarafni izlab, kema egasini topdilar-da, haqini to'lab kema ichiga kirdilar. Kemachi ikkovlariga bitta sandal berdi.



Bir necha kema bir tomonga qarab suza ketdi. Kema qushdek tez suzib borarkan, Mudbir yana oh-voh qilib, bema'ni so'zlarni aytishga tushdi. Muqbil bo'lsa tasbih-u ibodat bilan band edi. Hamrohiga yana nasihat qila boshladi. Mudbir esa uning gaplariga parvo ham qilmay, kufr so'zlarni aytishdan tinchimasdi. Uning bu so'zlaridan qattiq g'am chekib, azoblanar ekan, Mudbir Tangriga xitob qilib "Ishlaringda hech tartib yo'q. Qum-u dashtingda odam suvsizlikdan iztirob cheksa, bahr va to'lqinlaringda bu qadar beboshlik. U yerdagi yetishmovchilig-u, bu yerdagi ortiqchalikdan aql-u hushini yo'qotmoqda", deb nido qilardi. Uning bu xil shum so'zlaridan yana-da ko'proq chayqalib, to'fon yana-da kuchaydi. To'lqinlar baland ko'tarilib, katta-yu kichik kemalarni har tomonga surib tashladi, anchasi suvga g'arq bo'ldi.

Ikki hamroh bir qayiqda qolishdi. Muqbil tavba-tazarru' qilib, tangridan o'z panohida asrashini iltijo qilar ekan, uning bu duolari ta'sir qilib, shamol tindi va dengiz taskin topdi. Qayiq dengizda tinch suzib borarkan, bir manzil ko'zga tashlandi. Uning rangi osmondek ko'k bo'lib, u tomondan yoqimli bo'y esib turardi. Bu sandal hidi bo'lib Masih nafasidek jonlarga oro berardi. Undan rohatlangan Muqbil shukrona sajdadini ado qildi-da, qayiqni o'sha qirg'oq tomon surib, ko'p o'tmay, u yerga yetib bordi. Qirg'oqda baland bir daraxt o'sar, barglari keng maydonga soya solib turardi. Uning tanasida katta bir kavak bo'lib, u yerda tiniq bir chashmadan suv chiqib, dengizga quyilardi. Ikki hamroh o'sha manzilda orom olmoqchi bo'lib, qayiqni bir ildizga bog'ladilar-da, Muqbil daraxt kavagiga ko'zi tushgach, qiziqib uning ichiga kirdi. Suv ichmoqchi bo'lgan Mudbir ham uning ortidan kirib keldi. Chashma boshida bir tosh bo'lib, unga xat yozib qo'yilgandi. Ikkovlari u xatni o'qishga tushishdi. Unda"Kimki bu manzilga kelib, ushbu ajoyibotni tomosha qilsa, shuni bilsinki, bu daraxt sehlidir, uni "Sandali simiyo", ya'ni, "Sehrlil sandal" deb atashadi. Chashmadan suv ichgan har qanday odam o'z chanqog'ini qondiradi. Agar u kishi to'g'ri, pok inson bo'lsa, bir oyga-cha xursand bo'lib, yeb-ichishga mutoj bo'lmay yuradi, yolg'onchi bo'lsa, uch kun o'tgach, suv va taom istab qoladi. Bu chashma suvidan bahramand bo'lgan odam keyinchalik yolg'on so'zlasa, o'sha ondayoq qorni yorilib, halok bo'ladi. Bu aytilgan so'zlar suv ichish haqida edi. Chashma ichiga tushishning ham o'z xosiyatlari bor: yolg'onchi bu suvga tushsa, o'sha ondayoq oyog'i kuyadi. Rostgo'y odam tushib, ko'zini yumib, qulog'-u burnini ushlab sho'ng'isa, boshini chiqargach, shunday narsalar ko'radiki, ularni aytib ham bo'lmaydi. Lekin bir sho'ng'igan odam o'zi ko'rganlarini yana bir ko'rmoqchi bo'lib, yana sho'ng'isa, suv pasayib ketadi-da, sho'ng'iy olmaydi", deb yozilgan edi. Xatni o'qigan Mudbir bir-ikki hovuch suv ichib, yolg'on va behuda so'zlashni bas qilmoqchi bo'ldi. "Bundan keyin yolg'on so'zlashni tark etdim. Shu ahdimni buzsam, o'limga ham roziman", dedi-da, chashma suvidan ichdi.

Muqbil Yaratganga shukrona aytib sajda qildi-da, keyin suvdan ichdi-yu, chanqog'ini bostirdi. Mudbir suv ichiga tushmoqchi bo'lib, oyog'ini tiqqan edi, qaynoq suv oyog'ini kuydirdi. Muqbil lungi bog'lab, suv ichiga tushdi-da, unda o'z aksini ko'rib, suv ichiga sho'ng'idi. Boshini chiqarib qaragan edi, chashma suvini emas, balki zilol suvga limmo-lim to'lgan hovuzni ko'rdi. Uning ichlari tartib bilan terilgan sandalrang sof toshlardan bo'lib, atrofi Eram bog'ini eslatar, u yerda esa, haram kabi chiroyli bir bino qurilgan edi. Hovuzdan chiqish uchun oyoq qo'ygan Muqbilni bir necha kumushtan qizlar qo'llarida top-toza matolar, tan quritish uchun esa ipak sochiqlar olib kelib yigitning qo'lga berishdi, sochiqlar bilan tanasini quritishdi. Ustiga sandal hidi kelib turgan xilma-xil kiyimlar kiydirishib, boshiga salla o'ratishdi-da, qo'lidan ushlab, sandal qasrga olib bordilar. Muqbil atrofga hayrat bilan boqarkan, o'zini boshqa bir olamga kelib qolgandek sezardi. Es-hushi og'ib qasr ichiga kirgach, hamma yog'i sandaldan ishlangan, yoqimli atir hidi ufurib turgan keng xonaga ko'zi tushdi. Sandaldan ishlangan taxt javohirlar bilan bezatilgan bo'lib, uning ustida quyosh yuzli



bir pari paykar go‘zal o‘tirganini, atrofida esa sahar paytidagi yulduzlar kabi sohibjamol kanizlar tizilib turishganini ko‘rdi. Muqbilning ko‘zi u diloroga tushgach, qoni qurib, rangi sarg‘aydi-yu, yiqilib hushidan ketdi. Gul yuzli sarvqomat go‘zal uning oldiga kelgach, yoqimli atridan o‘ziga keldi-yu, yana ko‘rib o‘zini yo‘qotdi. Mahbuba shirin so‘zlari uni xursand qilgach, yigitning ko‘ngli qaror topib, o‘ziga keldi. Go‘zal qiz unga yondashib o‘tirganida, Muqbilning shavq o‘ti belidan oshib, yana sabr-u qaroridan ayrildi-yu, ko‘ksini pora qilishiga sal qoldi. Mahvash uni qo‘lidan tutib taxti tomon olib borib, o‘tirishni taklif etdi. Muqbil yer o‘pib “Bunday joyda o‘tirishga haddim yo‘q”, desa ham, parivash taxtda yonma-yon o‘tirib, taom yeb, sharbat ichdilar. Keyin bazm boshlanib, jomlarda boda keltirildi. Bir diloro parivash sandal hidi anqib turgan jomni ularga uzatgan edi, mahbuba bir-ikki qultum ichib, keyin jomni Muqbilga tutdi. U o‘zini zo‘rg‘a qo‘lga olib mayni oxirigacha sipqordi. Qadah davrada to‘xtamay aylanar ekan, Muqbilning kayfi oshib devonalarga o‘xshab behijobona so‘zlarni ayta boshladi, keyin esa nojoiz harakatlarga o‘tdi. Gul yuzli go‘zal Muqbilga qarshilik qilmay, qo‘lidan qo‘lini olmay o‘tirardi. Yigit oxiri chiday olmay qizga “Meni qiyin ahvolga solib qo‘yding, rahm qilib dardimga davvo qilgin, vasl bilan hojatimni ravo qilgin!” deb iltijo qila boshladi. Parivash bu so‘zlarga “Bugun shuncha may ichib, hushimizni yo‘qotgudek mast bo‘ldik. Ertaga katta bir to‘y qilib, nikoh o‘qitaylik. Keyin o‘z murodingga erishasan”, deb javob qaytardi. Muqbil uning bu so‘zlariga e‘tibor bermay, qanday bo‘lsa ham o‘z maqsadiga erishmoqchi bo‘lib, nojo‘ya qiliqlar qila boshladi. Shunda mahbubasi “Agar o‘zingni to‘xtata olmayotgan bo‘lsang, biron sarvi qomat kanizimga aytay, tonggacha sening yoring bo‘lsin”, dedi. Muqbil o‘z maqsadi haqida boshqa og‘iz ochmadi. Parivash unga bir kanizagini hamog‘ush etdi, ikki eshik og‘asiga ishora qilgan edi, yigitni arang turg‘izib, alohida xonaga olib borib yotqizdilar.

Quyosh nurlari yoyilib ketganda uyqudan uyg‘ongan Muqbil o‘zining kechagi qilgan ishlarini eslab, xijolat chekdi-da, hovuz oldiga borib, cho‘milmoqchi bo‘ldi, sandalrang lungini beliga bog‘lab suvga tushib sho‘ng‘idi, keyin boshini ko‘tarib atrofqa qaradi-yu, o‘zining sirli buloq ichida turganini ko‘rdi. Ko‘zlariga ishonmay, yana bir necha marta suvga sho‘ng‘idi, lekin har safar boshini ko‘targanda o‘zini yana o‘sha buloq ichida ko‘raverdi. O‘z mahbubasi visoliga yetisha olmaganidan iztirobga tushgan Muqbil nima qilishni bilmas, Mudbirga esa o‘z ahvolini aytishni lozim ko‘rmasdi. Shu payt ko‘zi yana buloq ustidagi toshga tushdi. Uning burchagida yana bir xat yozilgan bo‘lib, Muqbil oldin e‘tibor bermagan ekan. Unda “Kimki bu simiyoni ko‘rib, suvga sho‘ng‘igach, yuz baloga duch kelgan bo‘lsa, qaytib chiqqanidan keyin bu yerda turmay, tezda suv orqali jo‘nab ketishi kerak. Aks holda uni dev yoki nahang o‘ldiradi”, deb yozilgandi.

Muqbil xat mazmunini anglab “Hayotim xavf ostida qolsa ham bu yerda qolaman, bunaqa hayotdan o‘lganim yaxshiroq”, dedi. Ammo yana fikr yuritib, jonining azizroq ekanini o‘yladi-da, ketishni lozim topdi. Qayiqni yechib hamrohi bilan birga dengizda suza ketishdi. Mudbir hamsafarining holatidagi o‘zgarishlarni ko‘rib, uning sababini bilishga intilsa ham, Muqbil unga hech narsani oshkor qilmadi. Qayiqda o‘y surib o‘tiraverdi. Ikkovlari Haqdan panoi so‘rab, qayiqni haydab borisharkan, Muqbil hajr o‘tida qiynalar, Mudbir holini so‘rasa javob qilmas, chunki uning g‘ami sharh etardek emasdi. Ba‘zida unga qarab: “Ey do‘stim, bu savolingga javob berishimni kutmagin. Holimni senga aytmayotganimning sababi uni o‘zim ham bilolmayotganimdandir. Holimdan malolat chekayotgan bo‘lsang, sen haqlisan, men esa bundan xijolatdaman!

Qilsa bexudlug‘um seni ranjur,  
Ne deyin, chunki borsen ma‘zur.  
Nafasingni menga diloso qil,

Lutf ila nechakim muvoso qil.  
Baxtdin kom agar bo‘lur hosil,  
Bo‘lsa bir kun maqomimiz sohil.  
Hajrima xotiringni shod aylay,  
O‘pib ilgingni xayrbod aylay”

derdi-da, qayiq ichida yana fig‘on qilardi. Mudbir hamrohining bu holatini ko‘rgach, “Chashma atrofida turli jinlar bo‘ladi deyishardi. Muqbilning majnunlarcha xatti-harakatlari ularning ta‘siri oqibatimikan”, deb o‘ylardi. Shu chog‘ dengizda katta bir kemani ko‘rib qolishdi. Shamol qayiqni o‘sha kema tomon surib ketdi. Uning yoniga yetib borib, ikkovlari to‘lqinlar xavfidan g‘am chekmaslik uchun kemaga chiqishdi. Kema ahlining barchasi o‘lgan bo‘lib, bironta ham tirik odam qolmagan edi. U sandal daraxti yog‘ochlari bilan to‘la ekan. Voqea shunday bo‘lgan ediki, Xovar Xusravining pariga o‘xshash bir qizi bo‘lib, shohning hayoti u bilan baxtiyor edi. Uning bir dardi bo‘lib, tabiblar har qancha davo qilsalar ham shifo topisholmagandi. Faqat sandal isigina unga foydali bo‘lib, bosh og‘rig‘ini qoldirardi. Shuning uchun shoh qiziga atab sandal yog‘ochidan qasr qurishga buyurgandi. Toki farzandi u uy ichida yashab, uning sog‘lig‘iga davo yetkazsin. Bu farmon olamga tarqalib, savdogarlar Hindistonga sandal tashish bilan band bo‘lishdi. O‘sha xushbo‘y sandalli imorat bitgach, savdogarlar kechasi-yu kunduzi shu ish bilan mashg‘ul ekanlar, dengizdagi bir girdobga duch kelib qolib undan chiqib ketolmay, ovqatlari tamom bo‘lib barchalari halokatga yuz tutgan edilar.

Bu mahal dengizda kuchli shamol ko‘tarildi-da, dengizda to‘fon boshlanib, shu joyni yel raqqosdek o‘ynatib, kemani girdobdan chiqarib yubordi.

Kema ichidagi ikki hamroh ham o‘z ishiga mashg‘ul bo‘ldi. Muqbil o‘z dardi bilan band bo‘lib, bir chekkada oiu fig‘onini davom ettirsa, Mudbir o‘lganlarni kemadan suvga tashlash, kema molini o‘z ixtiyoriga olish bilan band edi. Kema molini ham, kemandagi o‘zini ham o‘ziniki deb bilib, hamrohi holiga e‘tibor ham qilmasdi.

Shu payt uzoqda sohil ko‘rindi. Kema sohilga yetib borgach, Xovar diyoriga kirib kelganlari ayon bo‘ldi. Mamlakat shohi shu kuni tomoshaga chiqqan bo‘lib, daryoni kuzatardi. Yangi kelgan kemaga nazari tushib, a‘yonlariga “Kema ahlidan biron kishini huzurimga olib kelinglar, kimga tegishli ekanligi, qanday mollar keltirilganini bilayin, so‘ng uy tomon ketayin”, dedi. Mulozimlar kemaga ko‘tarilib unda biri shod, ikkinchisi esa g‘amgin ikki kishini uchratishdi. Shoh so‘zini eshitgan Mudbir u tomonga tez-tez yurib ketdi. Shoh qoshiga kelib yer o‘pib, duo qilgach, hukmdorning o‘z holati haqidagi savoliga “O‘zim savdogarman, ishim tijoratchilik, bu safarda hech kim omon qolmadi. Barcha xodimlarim vabo kasaliga uchrab halok bo‘lishdi. Bu sohilga esa bir men-u, bir Muqbil otliq qulimgina yetib keldik”, deb javob bergan ham ediki, qorni shisha boshladi. Undan libosi yirtilib, ko‘ksi ham chok bo‘ldi-yu, yiqilib jon berdi.

Shoh bu holatni ko‘rib hayratdan qotib qoldi. Bunday ishga hech ham duch kelmagan edi. Notavon Muqbilni olib kelishlariga farmon berdi-da, uni ko‘riboq ko‘nglini shodlik egalladi. Jon bergan hamrohini undan yashirib turib, Mudbirdan so‘ragan savollarini Muqbilga ham berdi. Muqbil o‘zining ko‘rgan-bilganlarini birma-bir shohga gapirib berdi. Shoh dediki, kema va undagi yuklar davlat xazinasiga beriladi. Muqbil aytgan barcha gaplarning chinligi shohga ma‘lum bo‘ldi. U dediki: “Sening rostgo‘yiliging ko‘nglimizni maftun qildi, nimani istasang, aytgin”, deb so‘radi. Muqbil dedi: “Ey shoh:

Shohning umru johin istarman,  
Charx avjida komin istarman.

Yana matlub xalq ibodatidur,  
Kim ulus mujibi saodatidur.  
Shoh agar qilsa, bandasin ozod,  
Tun-u kun aylagum duo bila yod”.

Muqbilning bu oqilona va yoqimli soʻzlari xush kelib, zebo chehrali va xushsoʻz bu yigit shoh koʻnglida mehr uygʻotdi. Unga shoh vazirlik unvonini berdi. Bir necha vaqt xizmat qilgach, davlat humoyi boshiga soya solib, uning qizini nikohlab berdi-yu, uni farzand qilib oldi. Muqbil bunga eʼtiroz bildirgan boʻlsa ham, uni oʻz ixtiyoriga qoʻymay, katta toʻy qilib, koʻz qorachigʻini unga juft qilib berdi. Boshdan oyoq sandalboʻy kiyimlar kiydirishdi, chunki parivash shuni istagan edi. Keyin ularni qasri sandalga olib bordilar-da, guli sumansoni oʻz mahbubiga topshirdilar.

Muqbil kelin chehrasiga boqib, hayratga choʻmdi. Chunki u oʻzi chekkan azoblarning sababchisi edi. Qasr ham, saqf-u ostonaga ham, taxt-u ofati zamona ham aynan suv ostida koʻrganlarining oʻzi edi. Hayrat oʻti dimogʻiga tutun yetkazib, bu oʻt uning vujudini nobud qilib, oh-u afgʻon chekib yiqildi, joni esa chiqay deb turardi. Shu chogʻ dimogʻiga sandal isi esib koʻzi charogʻi yoridi. Koʻzini ochgach, yana ahvolni koʻrib nola chekib behol boʻlardi.

Uning bu holatini kuzatayotgan mahvash ham unga mehribonlik koʻrsatib, koʻnglini olardi. Oxiri oʻziga kelib mahvash visoliga yetishdi. Lekin goʻzal mahbuba koʻrganlaridan lol boʻlib yurardi, bir kuni “Sening hayratli ishlaringdan men doim lolman. Voqealar sababini aytib bergil”, iltimos qildi. Muqbil rost soʻzlashdan boshqa chorasi boʻlmagani uchun bor koʻrganlarini bekam-u koʻst sharhlab berdi. Bularni eshitgan parivash tabassum qildi-yu, shunday deb soʻz boshladi: “Taqdir meni goʻzal qilib yaratgach, husnim haqidagi soʻzlar jahonga tarqaldi. Mening koshonam oldidan oʻtib qolgan jinlar shohi husnimga shaydo boʻldi-yu, qasrda jinlar shovqin-suroni boshlanib, men devona boʻlib qoldim. Shoh buni koʻrgach, tabiblarni chaqirtirib, dev-u parilarning seyr-u ziyonidan meni xalos qilishga kirishishdi. Ular dafʻ boʻldi, lekin eshitishimcha, “jinlar shohi gʻamimda yana devona boʻlib, dengiz ichida seyrli manzara bunyod etibdi. Sandaliy qasr atrofida bogʻ yaratib, undagi sandaliy taxt ustida mening timsolimni oʻtqazib qoʻyibdi. Sen hovuz ichida koʻrgan narsalar naqshlardan iborat boʻlib, uni koʻrgan xasta odam orom topar ekan. Sen u yerda boʻlgan chogʻingda mening tasvirimga shaydo boʻlgansan. U yerda timsolimga oshiq boʻlgan eding, bu yerda Haq seni visolimga yetkazdi”.

Shu soʻzlarni eshitgach, Muqbilning mushkullari bartaraf boʻldi-da, mahbuba xayolidan koʻngli yayrab, sandaliy qasrda baxtli boʻldi, kiyimini ham sandaliy rang qildi.

Sandal osoyishi ravon angla,  
Atri oning hayoti jon angla.  
Sandal isinda tek turub boʻlmas,  
Mushkni kimsa yoshurub boʻlmas.

Donishmand musofir oʻz afsonasini tugatgach, shoh sandal boʻyli nasimdan orom olib uyquga ketdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston Respublika Oliy Majlisining «Taʼlim togʻrisida»gi qonuni . – T.: 2020. 3- 2-sentabr.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4910 –sonli qarori . – T. : 2020- yil, 3- dekabr, 3- ilova 3- band

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 646- sonli «Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to‘g‘risida» qarori. – T . : 2020. 12-oktabr.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. XX jild. 10- jild. «Xamsa» . «Sab’ayi Sayyor» . – T . : 1993.
5. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. darslik . 11- sinf.– T . : «O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi». 2017. 177-bet

## **“ONA” KONSEPTINING RUS TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI**

*Nigora Fahlavon qizi SAFAROVA,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti*

*1-kurs magistranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.d. (DSc) N.J.Yarashova*

**Annotatsiya:** Jahon tilshunosligining Lingvokulturologiya va kognitiv tilshunosligi turli konseptosferalardan tarkib topgan. Konseptosefaralar esa ayni chog‘da, konseptlardan tashkil topadi va aynan ana shu konseptlar orqali tilshunoslikning turli sohalarida chuqur o‘rganiladi. Barcha madaniyatlar, jumladan rus madaniyatida ham “oila” konseptosefrasi va uning tarkibiga kiruvchi “ona” konseptiga ega hamda ular kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika va lingvokulturologiyaning o‘rganilish obyekti sifatida yuzaga chiqadi. Ushbu maqolada rus tilshunoslari tomonida badiiy matnlar orqali “ona” konseptining o‘rganilishini ko‘rib chiqamiz.

**Kalit so‘zlar:** Konseptosfera, konsept, kogneziya, mom, ona, olamning lisoniy manzarasi.

**Abstract:** Linguistics and cognitive linguistics of world linguistics are composed of different conceptual spheres. At the same time, concept chapters are made up of concepts and are studied in depth in various fields of linguistics through these concepts. All cultures, including the Russian culture, have the concept of "family" and the concept of "mother" included in it, and they appear as objects of study in cognitive linguistics, sociolinguistics, and linguocultural studies. In this article, we will consider the study of the concept of "mother" by Russian linguists through literary texts.

**Key words:** Conceptosphere, concept, cognition, mother, mother, linguistic landscape of the world.

**Аннотация:** Лингвистика и когнитивная лингвистика мирового языкознания состоят из разных концептуальных сфер. При этом концептуальные главы состоят из понятий и через эти понятия углубленно изучаются в различных областях языкознания. Во всех культурах, в том числе и в русской, есть понятие «семья» и входящий в нее концепт «мать», и они выступают объектами изучения когнитивной лингвистики, социолингвистики и лингвокультурологии. В данной статье мы рассмотрим исследование концепта «мать» российскими лингвистами через художественные тексты.

**Ключевые слова:** Концептосфера, концепт, познание, мать, мать, языковой ландшафт мира.

Rus tilshunoslida “ona” konsepti turlicha o‘rganilgan, xususan, Komsomolsk-na-Amur texnika universiteti vakillari E.A.Shushman, O.V.Chibisovalar ushbu konsepti lingvokulturologik jihatdan o‘rgangan bo‘lsalar, Ob-Ugr amaliy tadqiqotlar va ishlanmalar



instituti olimasi S. A. Popova kognitiv tilshunoslik o'rganish obyekti sifatida, Chlyabinsk davlat universiteti olimlari M.A.Andreyanova, G.A.Bagauddinova va Qrim muhandislik va pedagogika universiteti magistranti O.A.Ganiyeva o'zining magistrlik ishida "ona" konseptini ham chastoli tarzda hamda kognitiv lingvistika obyekti sifatida o'rganishgan.

Ushbu maqolada M.A.Andreyanova, G.A.Bagauddinova larning "Rus tilida "ona" tushunchasini amalga etishi va ingliz tililari (M. Gorkiy va J. E. Steynbek romanlari materiali bo'yicha)ilmiy ishlari va O.A.Ganiyevaning "Ona" tushunchasi va uning Yohane Rouling "Garri Potter" romanlari serialida talqin etish vositalari" deb nomlangan magistrlik ishini o'rganib chiqamiz hamda tahlil qilamiz.

Xususan, Chlyabinsk davlat universiteti olimlari M.A.Andreyanova, G.A.Bagauddinovalarning ilmiy ishlarida ikki millatda "ona" koseptining assotsiativ ko'lami jihatida o'xshash ekanligini ochib berishga harakat qilishgan. Ikkala romanda ham "ona" "aziz inson", "bag'rikenglik", "nazokat", "mehr", "kuch-qudrat", "qo'llab-quvvatlash" ramzi sifatida qaralishi aytiladi. Shu jumladan, ikkala ilmiy ish ham "ona" konsepti kodlashtirilgan shaklda o'rganilganligini ham hisobga olimiz kerak. Rus va ingliz tillari flektiv tillar oilasiga mansub bo'lganligi sababli, ikki til uchun ham umumiy bo'lgan "mom", "mam", "mum" terminlari bilan ifodalanadigan leksimalar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. M.A.Andreyanova, G.A.Bagauddinovalarning ilmiy ishlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ular Gorkiyning "Ona" romanida "ona" faqatgina bir tomonlama, ya'ni ijobiy jihatdan, talqin qilinganligini, Steyinberkning asarida esa ikki tomonlam, ya'ni ijobiy va salbiy jihatdan, talqin qilinganligini o'z ilmiy ishlarida ko'rsatib o'tishadi. O.A.Ganiyevaning magistrli ishida esa "Garri Potter" romanlar seriyasida "ona"ga nisbatan jasur ayol va farzandlarini har qanday holda ham himoya qiladigan kuch qudrat egasi sifatida qaraladi. M.A.Andreyanova, G.A.Bagauddinovalar ilmiy ishlari orqali Gorkiy romanida "o'lgan farzandini qasdini olishga bel bog'lagan ona" tushunchasi ilgari surilsa, O.A.Ganiyevaning ishida "o'z farzandi uchun jonidan voz kechagan ona" tushunchasi ochib beriladi. O.A.Ganiyeva ilmiy ishida eng kuchli muhabbat "ona sevgisi" ekanligini va bu dunyodagi eng qadimiy va kuchli sehr ekanligini "Garri Potter" romanlar seriyasi orqali ochib beradi. M.A.Andreyanova, G.A.Bagauddinovalar esa Gorkiy romani orqali "ona"ning naqadar mehr-shavqat ramzi ekanligini o'lgan farzandining do'stlariga mehr ko'rsatishi orqali namoyish qilishadi.

Onalar har qanday vaqtda ham farzandlarining tichligi va xotirjamligi hamda ularning xavfsizligi haqida qayg'uradigan shaxs sifatida deyarli barcha millatlarning kogneziasida saqlanadi. Ushbu fikrimizni o'zbek, rus va ingliz tillari lisoniy manzarasida namoyish bo'lishini yuqoridagi ilmiy ishlar vositasida ko'rishimiz mumkin. Xususan, O.A.Ganiyeva ilmiy ishida aynan shu fikrimizning dalili sifatida quyidagilarni yozadi: " *Ona har doim o'z farzandlarining kelajagi haqida qayg'uradi va ularning kelajagini ko'rmaslikdan qo'rqadi*" (3/6).

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, "ona"konsepti nafaqat o'zbek tilshunosligining konseptual o'rganilish obyekti balki rus va ingliz tilshunosligining o'rganilish obyekti o'la olishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdirasulov B.A. Konseptning lisoniy voqelanish jarayoni. // Science and Education Scientific Journal, 2020.
2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006
3. Shushman E.A., Chibisova O.V "Mother As A Linvokultural Konsept" *Международный Журнал Экспериментального Образования* №6, 2014.81
4. М.А.Андреянова, Г.А.Багаутдинова "Реализация концепта "мать (mother)" в русском и английском языках (на материале романов М.Горького и Дж.Э.Стейнбека)



Вестник Челябинского государственного университета. 2011. № 17 (232). Филология. Искусствоведение. Вып. 55. С. 17–22

5. С. А. Попова “Понятие “мать” в мировоззрении и фольклоре северных манси”. Bulletin of Ugric Studies. Vol. 9, № 2. 2019

6. Ганиева Арзы Османовна Концепт «Mother» (Мать) И Средства Его Реализации В Серии Романов Джоан Роулинг «Гарри Поттер»

## ИҚБОЛ МИРЗОНИНГ “БОНУ” РОМАНИДА ҚАҲРАМОН ПОРТРЕТИГА ЧИЗГИЛАР

*Нуруллаева Назокат,*

*БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси 2-босқич магистри*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Иқбол Мирзониинг “Бону” романидаги бош қаҳрамон портретини тасвирлашдаги маҳорати масаласи тадқиқ этилган.

**Калит сўзлар:** адиб, роман, характер, қаҳрамон, портретга чизгилар, бадиият.

**Абстрактный.** В данной статье рассматривается вопрос мастерства Икбала Мирзы в изображении портрета главного героя романа «Бону».

**Ключевые слова:** писатель, роман, персонаж, герой, портретные рисунки, искусство.

**Abstract.** This article examines the issue of Iqbal Mirza’s skill in depicting the portrait of the main character of the novel “Bonu”.

**Key words:** writer, novel, character, hero, portrait drawings, art.

Ўзбекистон халқ шоири Иқбол Мирзо ижодида шахс, унинг жамиятдаги ўрни ва тақдири масалалари алоҳида ўрин тутди. “Менга муҳаббат қалам тутказган. Кейинроқ бу туйғу юрт ишқига, ватан севгисига айланди. Бир пайтлар ватан мавзусида ёзсанг, кимдандир нимадир таъма қилаётгандек туюлардинг. У кунлар ҳам ўтди. Тушундимки, шоир миллат тақдири учун энг масъул шахс экан. Шоир ўз халқисиз ҳеч ким эмас, ҳеч нарса эмас. Шоир ўз ихтиёри билан ўзига дард юктирадиган табибга ўхшайди”- деб ёзади Иқбол Мирзо хотираларида. Ўзининг шеърларида Ватан севгиси, юрт ишқини баланд пардаларда куйлаган шоир адабиётнинг бошқа тур ва жанрларида ҳам қаламини синаб кўрди. Қисса, ҳикоя, драма ва ниҳоят роман жанрига қўл урди.

И.Мирзо асарларининг аксарияти ҳаётсеварлик туйғулари билан тўйинтирилган. “Бону”да эса адиб бир қизнинг босиб ўтган машаққатли ҳаётини тасвирлаб берар экан, инсон иродаси қанчалик кучли эканлиги, ўзлигини ҳар қандай шароитда ҳам йўқотмаслиги мумкинлигини ёрқин, реал лавҳаларда кўрсатиб беради.

Романда кўп фожиали дамлар, фожиали ҳаёт, айрилиқлар, хиёнатлар, шармандалиқлар, разолатларни ўз бошидан кечирган Бону деган гўзал қизнинг бошидан кечирганларини тасвирланган. Маҳорат билан ёзилган романи ўқиган китобхон асардаги воқеалар ичига, қаҳрамонларнинг тақдир дунёсига кириб боради, улар билан яшайди, улар билан бирга изтироб чекади. Айниқса, қалби пок, барчага ишонувчан гўзал қизнинг бошидан кечирганлари ўқувчини бефарқ қолдирмайди.

Романининг дастлабки саҳифалариданоқ қаҳрамоннинг ўз сўзлари орқали унинг портретига чизгилар берилади: “ Мен таъмагир эмасман.Ёрдам-пордам керакмас. Бировнинг устидан ёзиш ниятим ҳам йўқ. Ёшим ўттизни қоралаб, бу дунёда ҳар ким ўз муаммосини фақатгина ўзи хал қилиши мумкин деган қатъий хулосага келиб бўлганман. Адолат ва ҳақиқат тушунчаларини турмуш талотўплари қуюни шу

қадар биздан узоқлаштириб, осмони фалакка чиқиб кетдики, энди бу мезонлар фақат арши аълода мавжуддек кўринади.

Йўқ, мен аламзада ҳам эмасман. Тўғри, ҳаёт, менгинани минг хил услубда ўйнаб эрмак қилди. Гоҳо туғилганимга пушаймонлар едим, лекин атрофга шундоққина назар солсам, мен каби бахтсизлару мендан баттар бадбахтлар тўлиб-тошиб ётганини кўриб, ёқамни тутаман-да, яна лабларим шукрона айтиб шивирлай бошлайди” [Бону 3-бет ].

Роман қахрамоннинг бу сўзларини ўқиган китобхон унинг ҳаётига оид баъзи кодларни ечишга ҳаракат қилади: яъни бошидан оғир кунларни кечирган қиз, ёши ўттизларда, бошитга тушган кўргиликларни ўзи ҳал қиладиган иродали шахс: тили шукрона айтишдан тўхтамайдиган эътиқоди бутун Инсон.

Ёзувчининг маҳорати шундаки, романнинг дастлабки саҳифасиданоқ ўқувчини асар қахрамони ҳаёти ичига олиб киради, унинг машаққатли турмуши ҳақида ўзининг иқрорлари орқали маълумот беради. Асарнинг ўзига хослиги шундаки, Бону деган қиз–муаллиманинг тилидан мактублар, кундаликлар, хотиралар тарзи-усулида битилган.

Романга сўзбоши ёзган Ўзбекистон Қахрамони, мунаққид И.Ғафуров унга юқори баҳо беради: “Инсон жозибаси нима эканлиги, моҳият-мазмунини нимада эканлигини биз Бону битиклари орқали юрак-онгимиз алам-номусдан хинадек эзилиб, у билан бирга доду фарёд кўтариб, у билан бирга доду фарёдимишга етолмай, кузатиб борамиз.

Гирдоб нақадар даҳшатли эканини Бону билан бирга бошдан ўтказамиз: вой-ей! Суф бу дунё – бу дунга, деб хайқирамиз. Бонудаги умуминсоний куч ва салиқа касб этган Орият! Номус! – миллат, инсоният микёсида тарбияланса, ижтимоий зарурий кучга – ҳаракат ва интилишдаги кучга айланса, қанийди, деймиз. Бонунинг табиий самимияти, табиий орияти ўқувчини ром этади ва бизга ҳаракатдаги курашчанлик намунаси бўлиб туюлади” [ 2 ].

Ҳақиқатан ҳам романи ўқир эканмиз, Иқбол Мирзонинг ҳаёт учун курашиш, иродавийлик, машаққатлардан чўчимай, қалб гўзаллигини йўқотмай яшаш мумкинлигини Бону образи мисолида маҳорат билан кўрсатиб берганлигининг гувоҳи бўламиз.

#### Адабиётлар:

1. И.Мирзо. Бону. “Шарқ”, Тошкент. 2018.
2. Ғафуров И. Иқбол Мирзонинг “Бону” романи ҳақида / Китобда: “Бону”. Тошкент. “Шарқ”, 2018.
3. <https://kitobxon.com/uz/kitob/bonu>.
4. [https://teletype.in/@mutolaa\\_sehri/bonu1](https://teletype.in/@mutolaa_sehri/bonu1)

## SHUM BOLA” ASARIDAGI O‘XSHATISHLARNING MAVZUIY GURUHLARI VA ULARNING LEKSIK-SEMANTIK TABIATI

*O‘g‘iloy Amriddin qizi ISMATOVA*

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.d. R.N.Yusubova

*Annotatsiya. Maqolada “Shum bola” asaridagi o‘xshatishlarning mavzuiy guruhleri va ularning leksik-semantik tabiati yoritilgan.*

*Kalit so‘zlar: o‘xshatish, grammatik vositalar, leksik vositalar, presuppozitsiya, konnotativ ma’no.*

*Аннотация. В статье рассматриваются тематические группы аналогий в произведении “Озорник” и их лексико-семантический характер.*

**Ключевые слова:** *сравнения, грамматические средства, лексические средства, пресуппозиция, коннотативное значение.*

**Annotation.** *The article examines the thematic groups of analogies in the work “Mischievous child” and their lexical and semantic nature.*

**Keywords:** *analogy, grammatical means, lexical means, presupposition, connotative meaning.*

O‘zbek tilining semantik tabiati o‘xshatishlarga boy, o‘zbek kundalik muloqotida ham o‘xshatishlarning turg‘un va individual ko‘rinishlari keng qo‘llaniladi. Turg‘un o‘xshatishlar milliy ong jumbog‘ini yechishga imkon beradigan yorqin obrazli vositalardan biri hisoblanadi. Shunga ko‘ra, o‘zbek tilida o‘xshatishlar ikki yo‘l bilan hosil qilinadi:

1. Grammatik vositalar.

2. Leksik vositalar.

O‘xshatishlar – *dek/day*, - *simon*, - *namo*, -*omuz* kabi grammatik; *kabi*, *singari*, *naq*, *xuddi*, *yanglig‘* singari leksik vositalarni qo‘llash natijasida yuzaga chiqadi.

Insoniyat yaralibdiki, olamni qiyoslashlar – o‘xshatishlar ustida his qiladi, biror voqelik, holat, harakat, narsa-predmet, belgi, voqea-hodisalarni o‘xshatish asosida ko‘radi va tasvirlaydi, bir narsani ikkinchi bir narsaga o‘xshatadi. Shu sabab o‘xshatishlar azal-azaldan mavjud bo‘lgan. Masalan, dastlab ibtidoiy jamoa tuzumi davrlarida ham yo‘lsizlikdan qiynalgan odamlar qushdek parvoz qilishni, suvsizlikdan qiynalgan odamlar sarhadsiz dengiz-u daryolarda baliqdek suvda suzishni orzu qilishgan. Demak, o‘xshatishlar insonning tabiiy ehtiyojlaridan kelib chiqib yuzaga kelgan.

Asosan, o‘xshatishlar majoziy ma’noda qo‘llanilib, umumxalq tilida hamda ijodkorlar tomonidan yaratiladi. Xususan, biz so‘z ustasi G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi asosida betakror o‘xshatishlarning leksik- semantik tuzilishiga e’tibor qaratamiz.

### **1. Qushlar nomlariga asoslangan o‘xshatishlar:**

O‘zbek xalqi o‘xshatishlarda qumri, bulbul, zog‘, burgut, quzg‘un kabi qushlarga xos holat yoki belgi-xususiyatlarni insonlardagi ayrim belgi-xususiyatlarga o‘xshatishadi.

*Patlarining rangi Oysha chevarning ish qutisidagi ipaklarday tovlanar edi.* Bu yerda qush patlarining rang-barangligi chevarning ish qutisidagi ipaklar rangiga o‘xshatilishi ma’noni kuchaytirib, - day o‘xshatish vositasi natijasida vujudga kelgan. Bu o‘rinda o‘xshatishni quyidagicha modellashtirishimiz mumkin: O‘xshatilgan narsa – qush pati, o‘xshatiladigan narsa – *Oysha chevarning ish qutisi*, O‘xshatish asosi, belgisi – *ipaklarday tovlanish*, o‘xshatish vositasi – -day formasi. Qushlarni “nuridiydalariday, ko‘zining qorachig‘iday “ parvarish qilmoq, ya’ni umumxalq tilida bu o‘xshatish o‘z farzandiday asramoq ma’nosida qo‘llanilib insonning qushga nisbatan munosabati o‘xshatishning o‘ta yuqori darajasini ko‘rsatyapti. “Qo‘ndoqdan ajragan kakku bolasiday” o‘xshatishi – insonning sarson, dar-badarlik ahvoli inidan ayrilgan qushning holatiga o‘xshatilyapti. *So‘z tamom bo‘lishi bilan u “ kar qilingan bedanaday “ dovdirab o‘rnidan turibdi.*

### **2. Hayvon nomlariga asoslangan o‘xshatishlar.**

“Shum bola” qissasida hayvon nomlariga asoslangan o‘xshatishlarning quyidagi ko‘rinishlari kuzatildi, masalan: *It quvlagan tulkiday, tulki quvlagan tovuqday, it quvlagan soqovday, hurkovich kiyikdek, sirlangan xumchaga tushgan sichqonday, zinadan chiqqan itdek, paypoqdor tovuqday, arqon tishlagan itday, xumga tushgan arining ovoziday, bo‘ri tekkanday buralib, sutga tushgan sichqonday, halokuning itiday, hammomga tushgan bo‘taloqday, charvi yegan mushukdek, sigirning qaymog‘iday, baqqolning maymunidek, qassoblikka kirib qolgan itdek, mushuk suvdan hazar qilgandek, arining iniga cho‘p*

*suqqanday, tushovi yechilgan tayloqday, suv mo'rchaning qozoni yorilguday, pashsha qanotiday kabi. Masalan, asardan quyidagi misolni keltiramiz:*

*Erta bilan Hoji bobo qo'limga yarim tanga, uch miri juma puli berib:*

*Ma, bolam, o'ynab kel, barvaqt qayt. "Baqqolning maymunidek" kim ko'ringanga ajuva bo'lib yurma, "pochtachining otidek" har bir do'konning oldida to'xtab, ag'rayma, "qassoblikka kirib qolgan begona itdek ko'ringan bilan yoqalashma.(110-b). Qo'ylar xuddi "sutga tushgan sichqonday" boshlarini ko'tarib suzar edilar. (80-b).*

*"Suv qaynayotgandir", deb o'yladim men.*

*-Farangning shahrida osmondan to'p tashlabdi, -dedi, usta Mirsalim. Shu chog' shishadagi suv "mo'rchaning qozoni yorilganday" dahshat bilan manqaldonda portladi. (151-b).*

Bu o'xshatishlarni ko'rib adibning so'zga qanchalik chechanligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Adib it tulki, sichqon, tovuq, ari, bo'taloq, ot, mushuk, laylak, sigir, maymun, mo'rcha, pashsha singari hayvonlar va ularning tabiatdagi xususiyatlaridan kelib chiqib o'ziga xos o'xshatishlar yaratadi.

O'xshatish – narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri oraqli ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, aniqroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdir. O'xshatish eng qadimiy va ko'p qo'llanadigan tasviriy vosita. U asosan, nutqiy hodisa hisoblanadi. O'xshatish 4 asosiy qismdan tarkib topadi:

1. O'xshatilgan narsa.
2. O'xshatiladigan narsa.
3. O'xshatish asosi, belgisi.
4. O'xshatish vositasi. (*O'zbek nutq madaniyati. Po'lat Nosirov. 71-b*).

O'xshatishlar o'zi ifodalagan ma'nosidan tashqari qo'shimcha ravishda undagi yashirin qirralarni o'zida mujassamlashtirishi bilan tilshunosligimizda ahamiyatlidir. Bu yashirin ma'nolarni tadqiq etishi bilan bevosita presuppozitsiya sohasi shug'ullanadi. Fikrni anglashda obrazli, tasvirli bo'lishini ta'minlab kulgili, jiddiy, yomon tushuncha miyyada sintezlanadi.

### **3.Ovqat nomlariga asoslangan o'xshatishlar.**

*Nasibam uzilganday, qaymoqday, baliqday moshkichra, suzma xaltaday, sariyog'dek – bu o'xshatishlar ham o'ziga xos. Kir stol ustida Sirdaryoning beldan yo'g'on laqqa balig'i cho'zilib yotibdi. "Suzma xaltaday" ochiq ko'zlarini pashsha talab yotibdi. (138-b.) Quvadan, Marg'ilondan, Farg'onadan, Olti-ariqdan chetan-chetan anor olib kelgan dehqonlar ham laylak qilib, har bittasi handalakdek kattakon anorlarni uyib qo'yibdi. (111-b) Ishtahasi ham "karnaydakina" ekan. Xotin qozonning qopqog'ini ochdi – "baliqday" bo'lib, oppoq laganda moshkichri chiqdi. (51-b)*

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'xshatishlar inson tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hali o'xshatishlarning semantik qirralari to'la ochilgani yo'q. Ularni ilmiy o'rganish, tahlil qilish bizning zimmamizda ekan, ilm olishdan aslo charchamasligimiz lozim.

## **DEVELOPMENT OF SPEAKING COMPETENCE OF STUDENTS THROUGH AN INNOVATIVE APPROACH IN TEACHING THE STORY OF NAVOIY "ZAYD ZAHHOB"**

**PARDAYEVA DILORA,**

*Uzbekistan State University of World Languages. Graduate student*

**ABSTRACT:** This scientific article reflects on the methods of forming the elements of speech competence through an innovative approach in teaching academic lyceum students the



grace of Alisher Navoi's literary heritage, the skill of choosing words, and the use of artistic image tools. It is shown that the charm of the masterpieces of art and speech art in Navoi's epic reveals the inner, hidden abilities of the students, and encourages them to think creatively and come up with creative ideas.

**KEY WORDS:** competence, listening comprehension, speaking, reading comprehension, writing, Zayd Zahhab, ruler, ship, idol, pagan.

Adoption of the new version of the Law "On Education" in the Republic of Uzbekistan and its introduction into the educational process caused radical changes in the republic's education. In the civilization of the world, science and technology is developing so much that its development affects the development of literature, science, art, and culture of every nation. In Uzbek literature, reading and analyzing classic examples of written literature, born under the influence of folk oral creativity, has become a hobby of every reader. Reading the work of classical authors and listening to it does not happen directly. It is known that A. Navoi, a poet and statesman, has a special place with his indelible mark in the history, his unique creativity in the world of poetry, and the possessor of a tender soul. This heritage makes us understand literature and poetry, feel the intricacies of thought in them, and understand the meaning of life. In accordance with the decision of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4910 on "Selecting talented young people for academic lyceums", in order to develop education focused on the formation of certain competencies in students, teaching the lyrical heritage of A. Navoi in academic lyceums and instilling its true essence into the minds of students through new innovative methods. An attempt was made to highlight the beauty of the arts.

According to the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 646, the elements of speech competence: listening comprehension, speaking, reading comprehension, writing are the main goals of today's education.

Navoi's epic "Sabayi Sayyor" purifies the soul, serves to form a high spiritual world in the human body, and plays an important role in the creation of a perfect person. Minds familiar with Navoi always strive for goodness, share goodness and beauty with others. In the prose description of the epic "Sabayi Sayyor", the story of the stranger from the second climate is taught to the students, first of all, the content of the text is closely introduced. Then logical questions are asked based on the text. At the end of the lesson, before giving the test questions, they are given excerpts from the story "Zaydi Zahhab" and continue the content. This method of "Feedback" strengthens the concentration of attention even of the student who is not paying attention to the lesson process, quickly and easily understands the topic. His logical thinking, his interest in learning, studying and acquiring a profession will increase. Let's get acquainted with the short text of the story "Zaydi Zahhab" from the epic "Sabayi Sayyor".

During the time of Shah Jamshid, there lived a skilled jeweler in the country of Rum. His rare works were known to the people. In the royal palace, this jeweler performed the duties of owner and treasurer. Every gold and silver taken from the mine was brought to him. Because of this profession, he was called Zaydi Zahhab. He was also engaged in medicine and engineering. Day and night, he was the close interlocutor of the king and the main physician of the capital.

Zayd's days were spent in luxury, he considered the king's wealth as his own, but he was dishonest with the trust and did not hesitate to betray the king's property. Shah praised Zayd. No one could blame him, even if any of his sins were revealed to the king, he would not pay attention to him. If Mabodo paid attention, Zayd would use his craft and make wonderful tools, quickly angering the king.



One day, when Zayd came to the king and told him that two thousand batmans of gold would be needed for his throne, the king agreed, took the gold, took it to his office, and started working. Zayd tried to finish the throne in one year. This strange throne had eight legs, four above and four below. There were four talking parrots on the four lower stems, and four peacocks on the higher stems. The staircase of this throne, decorated with dur-u-lalls, also had eight legs, and it was designed in such a way that when the king wanted to ascend the throne, the legs lowered and overlapped one another. let him achieve his goals, let this throne be for him forever." At that moment, four peacocks spread their feathers and cast a shadow on the king's head like Huma bird. In which direction the king wanted to go, the throne started walking with a slight gesture. This is probably what people call "takhtiravon" - a walking throne.

The king throws a party. The king will raise the reputation of Zaydi Zahhab, a master craftsman. But some artisans who were aware of Zayd's actions knew that the throne was supposed to be made of gold only, but silver was used along with gold. And the fraud master believed that even if the king realized his betrayal, he would not destroy this magnificent throne. Realizing the evil intentions of his enemies, Zayd, although he was afraid, believed in the king's attention to him. At this time, his enemies will think of a way to convey the secret to the king. They find two parrots that look like parrots on the throne, and they teach one of them: "The throne is a fake", and the other "The master is a traitor". They give a lot of money to the one who guards the throne and take them as partners, and in the early morning they exchange the two parrots.

In the morning, when the king ascended the throne, the trained parrots still spoke. Shah was surprised by this and said, "Whoever did this, he is a person who knows about Zayd's work. Because he was afraid of the master, he conveyed his guilt to me through the language of birds. "It is very easy to determine the truth of this case," he thinks, and when he takes a piece of gold in his hand and slightly bends one of the legs of the throne, it becomes clear that silver has been used for the gold base. Knowing about this betrayal, the king cut off his love for Zayd, took away his property, put himself in chains and threw him in prison. This dungeon consisted of a pit with a narrow mouth but a wide bottom. It was absolutely impossible to escape from him.

Zayd was given two bowls of water every day. The master who committed fraud thought that one day he might be thrown into prison, so he always carried a dagger with ego under his shirt, prepared in advance. Zayd finds a way to escape from the dungeon. Every day, when he took bread and water, he would put the bread aside, dig up the soil with a dagger, and use the water to make a bed. The master who cut off the chain from his feet with his ego lived only by the heat of the bread. Every day he would wait for water, and when he got it, he would continue his work. Although the madori was drying up day by day, the zina was also getting higher every day. After several months of difficulty, the ladder finally reached a hole at the mouth of the dungeon, on which a heavy stone was pressed. Zayd digs a hole in the bottom of the rock with his dagger and escapes from the hole. Realizing that if the king finds out, he will be caught and killed, Zayd often walks to Farang.

The jailers inform the king that the prisoner has escaped. Realizing how he escaped from prison, the ruler is amazed by Zayd's tricks. At this time, Zayd, heading towards the country of the Farangs, reached the city of Qustantania. There was a temple outside the city and it was full of people. Entering it, Zayd found out that everything was decorated with gold and jewels, all the walls were decorated with precious stones, and they were closed at night and opened for the people to pray. As for me, I have my eye on the king's gold," he thinks, pretending to be an idolater, and in no time learns the prayers and rituals performed by the

infidels. He prayed day and night, expressed his devotion to every idol, and demonstrated the strength of his faith. This kind of trickery makes the people of the temple fool. Zayd's status is increased, and the temple's discretion is completely in his hands. He begins to carry out the trick he has devised.

He sees a cave in the mountain by the sea. During the trip, he made friends with a couple of fellow believers. Zayd searches for the two of them and instructs them to find the inside of the cave: "What tools are needed for jewelry, quickly find them and bring them secretly into the cave." After his companions brought these tools, when Zayd al was sleeping, he and his companions would come to the cave and make iron figures similar to idols, plates and candlesticks in the temple, cover them with gold, replace the real precious stones with fake ones, and take the gold plates and candlesticks to the cave and hide them. None of the people of the temple will find out about these tricks. After all the gold items have been exchanged in this way, Zayd asks the people of the temple to allow him to return to his homeland. They cry out that such a blessed one is leaving them. And Zayd said, "I didn't want to be separated from you either." Unfortunately, my mother died and left behind a lot of wealth, and I have no other heirs. He says, "I will go and receive all the wealth, then I will return to the idols and spend all my wealth on the idol." The people of the temple put their heads at his feet and say "Come safely to your country" and collect many gifts for him. Zayd took them and began to place the idols inside the cave in bags. Putting each idol in a sack, he fills a total of fifty sacks with idols. He also puts gold plates and lamps in sacks and secures them by placing cloths between them. Entering a large ship, he secretly transports all the wealth accumulated in the cave to the ship. He also brings the gifts of the people of the temple to the ship. Stepping onto the ship, Zayd looked at the pagans and said: "I wrote a letter and hid it in the temple. You will find it in front of the idol of Lot. It has something to say about you. Everything is useful for you," he says, and orders the ship to sail. As the ship was leaving, the people of the temple found the letter and began to read it while they were crying. In the letter, Zayd wrote down everything he had done. All the words in the letter were clearly true. A riot begins among the infidels.

At this time, Zayd reaches the coast of the country of Rum. The king of Rome is sick and lying in bed. In the previous years when this patient had an attack, Zayd would cure him by giving him a medicine he had prepared. After the doctor ran away, after a few moments, this disease began to torment the king again. No one can find a cure for him, and the king's pain is getting worse. Repenting of the punishment given to Zayd, the ruler remembers his physician when the pain increases.

When Zayd went to the beach, he heard about this incident and took all his belongings home, secretly walked inside the city, put the chains he had cut on his hands and feet during the escape, and fell into that deep dungeon. Zindonban learned that Zayd had appeared and quickly informed the king. The ruler was happy and ordered to "bring him to me quickly" and sent him abundant gifts, expensive clothes and his own horse.

When they brought them to Zayd, he did not leave the prison and said, "I have suffered a lot during this time because of the anger of the king. I will pay ten times more gold for that treachery. Another point is that the king, trying to break the idols of the farangs and to satisfy himself in the matter of religion, raised an army twice, but he could not achieve his goal. I will break their idols and give their gold to the king's treasury, I will scatter all my jewels from his head, I will quickly heal his severe pain. I have only one condition: let the king put chains on the legs of my enemies and bring them to me and deliver them to my beloved. Because if I go to the king's palace now, they will definitely attack me. Therefore, if I don't achieve this goal, I won't quit," he answers. Zayd's words are used as an excuse and he orders

them all to be captured and thrown into the dungeon. Zayd gives up his place in the palace to them, goes out and puts on the colorful clothes sent by the king, goes to the palace and kisses the king's threshold and shows respect. When the king recovered completely, he poured out all the gold and jewels he had brought in front of him. The astonished king could not believe his eyes. Then he asks, "Tell me what happened." Zayd tells all the events. The king was pleased with his story and sent the presented wealth to the treasury and gave him as much as a gift.

According to the king's decree, each of the idols is divided into a hundred bribes and distributed among the religious people. After that, the king orders everyone to wear golden clothes. Because gold makes people laugh like saffron. After some time, by the order of the king, the inhabitants of the prison were also released. Those who escaped also started to laugh at their clothes. People laugh at them.

When Bahram heard this story, he was happy and asked about the stranger's homeland and ancestors. "My country is the property of Rome, my work is medicine and wisdom. The son of Zayd, whom I mentioned, will be my father. The purpose of my coming here is to serve you. Thank God, I have reached my goal," the stranger answers. When the king heard this, he appointed him as a nadim, and Bahram, enjoying the story, went to sleep and did not wake up until the sun rose.

After the students are fully introduced to the text, the text is divided into 4 to 12 parts. White and red cards are distributed through the "autofocus method". Through these cards, red card holders are suddenly stood up and asked questions based on the text. After asking 10-12 quick questions, texts divided into parts by the "Autofocus method" are given and asked to continue the story or what happened before this story, the student who answers gets points, the student who fails to answer is not punished, but no points are given. In this way, the lesson ends with the test questions. In this case, all students will receive the points that belong to them. All will fully master the subject, regardless of whether they get high or low marks. With his works and deep thoughts, Navoi can surprise the reader of today's time and touch the sensitive heartstrings. In the process of working on the text of the "Sabayi Sayyor" epic, the student's speech competence such as writing, reading comprehension, speaking, and listening comprehension is formed. In this, of course, the dictionary of Navoi eras will help a lot. May all of us be accompanied by the grace and delicacy of Navoi's works.

#### **List of used literature:**

1. Law of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan "On Education". - T.: 2020. September 3-2.
2. Decision of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4910. – T.: December 3, 2020, Appendix 3, Clause 3
3. Decision No. 646 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On the introduction of the national test system for assessing the level of knowledge of general education subjects". - T. : 2020. October 12.
4. Alisher Navoi. A perfect collection of works. Volume XX. Volume 10. "Khamsa". "Sabayi Sayyor". - T.: 1993.
5. Tokhliyev B., Karimov B., Usmanova K. Literature. textbook. 11th grade.- T.: "National Encyclopedia of Uzbekistan". 2017. Page 177

**QORAKO‘L - OLOT O‘G‘UZLARI NUTQIDAGI SO‘Z HOSIL BO‘LISH  
XUSUSIYATLARI**  
*Anora TURSUNBOYEVA,*  
*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi*  
*Ilmiy rahbar: f.f.d. N.Q.Murodova*

Annotasiya: Mazkur maqolada Buxoro viloyati Qorako‘l Olot tumanidagi o‘g‘iz shevalari yuzasidan kuzatishlar bayon qilingan . Jumladan, ularning og‘zaki nutqiga xos so‘z va terminlarning lug‘aviy ma'nolari xususida fikr yuritilgan .

Kalit so‘zlar: sheva ,lahja,og‘zaki nutq, milliy til.

Abstract: In this article, the Oghiz dialects of Karakol-Olot district of Bukhara region are described. In particular, the dictionary meanings of words and terms specific to the oral speech of the document were discussed.

Key words: dialect, dialect, oral speech, national language.

Ma'lumki, shevalar adabiy tilimizni boyituvchi manbalardan biridir. Shunday ekan, ularga xos materiallarni o‘rganib ,lug‘atlarga kiritishimiz bugungi kunda juda muhim masalalardan hisoblanadi .

O‘zbek dialektologlari. O‘zbek shevalarining o‘rganilishi va tasnif qilinishida jahon ahamiyatiga molik bo‘lgan professor E.D.Polivanov, mashhur professorlar K.K.Yudaxin, G‘ozi Olim, A.K. Borovkov, V.V.Reshetov kabi olimlarning buyuk xizmatlari bor. Bu olimlar rahbarligida mahalliy o‘zbek olimlari yetishib chiqdi. O‘zbek shevalari akademik Sh.Shoabdurahmonov, professor va fan doktorlari M.Mirzaev, F.Abdullaev, S.Ibrohimov, X.G‘ulomov, Y.G‘ulomov, A.Aliev, A.Shermatov, A.Jo‘raev, O.Madrahimov, T.Yo‘ldoshev, N.Rajabov, X.Doniyorov, T.Nafasov, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov va boshqa olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Bu professor va fan doktorlari bilan birga 50ga yaqin fan nomzodlari, dotsentlar o‘zbek shevalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar va olib bormoqdalar.3(45bet)

Shuning uchun ham xalq shevalari xalq og‘zaki ijodining mahsuli sifatida uning tarkibiy qismiga daxldorligi bois Dialektalogiya ,Areal lingvistika kabi fanlarda o‘rganilishi milliy tilning rivojida va uning bardavomligini taminlashda muhim ahamiyat kasb etadi . O‘g‘uz tillari — turkiy tillar oilasining o‘g‘uz guruhiga mansub bir qancha o‘lik hamda hozirgi iste’molda bo‘lgan jonli tillar. Umuman, O‘g‘uz tillari 3 ta alohida-alohida guruhchalarga bo‘linadi: 1) o‘g‘uz-turkman guruhchasiga 10—11-asrlarda mavjud bo‘lgan o‘lik o‘g‘uz tili hamda hozirgi turkman tili va truxmen tili (Stavropol turkmanlarining tili) kiradi; 2) o‘g‘uz-bulg‘or guruhchasi qadimiy bijanaklar va ularning tili hamda hozirgi gagauz tili va Bolqondagi bir qancha turkiy urug‘lar (surg‘uch, gajal, qaramanli, qizilbosh va boshqalar) tilini o‘z ichiga oladi; 3) o‘g‘uzsaljuq guruhchasi esa qadimiy saljuq (11 —14-asrlar), eski usmonli (14—19-asrlar) va eski ozarbayjon (14—19-asrlar) singari o‘lik tillarni hamda hozirgi ozarbayjon tili va turk tilini, shuningdek, qrimtatar tilining janubiy lahjasini qamrab oladi.

Tilimiz doimo chetdan kirib kelayotgan so‘zlar hisobiga yoki ichki imkoniyatimiz asosini tashkil qilgan so‘z yasash orqali boyib boradi .So‘z hosil qilishning faol usullaridan biri bu so‘z yasashdir.

Shevalarda bunday so‘z yasash usuli ancha faol hisoblanadi .

Adabiy tildagi so‘zlar ma’lum qolip asosida bo‘ladi,shevalardagi so‘zlar esa adabiy tilga qaraganda ancha erkin.Ya'ni bu degani xalq so‘zlashuv tiliga yaqinroq shaklda yuzaga keladi .

Men ushbu maqolamda Buxoro viloyati Qorako‘l Olot tumanida istiqomat qiluvchi o‘g‘iz shevasida so‘zlashuvchilar nutqiga xos jarayonlarni imkon darajasida yoritishga harakat qildim .

Olot shevalarida Turkmanlar Qorako‘l shevasida esa Turkmanlar va Xorazmliklarni ham ta‘siri seziladi .

Kiyim kechak nomlaridan boshlaymiz . Qorako‘l Olot hududida adabiy tildagi "nimcha" so‘zining boshqacha variantlari ham uchraydi bular : "ichki" "ichkicha" "kitilka" so‘zlardir . Adabiy tildagi To‘n so‘zini oladigan bo‘lsak bu so‘zning ham boshqacha fonetik varianti uchraydi "don" shaklidagi donning ichiki qismiga paxta solinmagan variantini "yektek" "yektey" deb ataydilar.

Hashoratlar nomlaridagi farqlar : Biz adabiy tilda asalari deydigan hashoratni boshqacha variantini uchratishimiz mumkin buni biz fonetik variant deymiz (bunda tovushlar o‘zgarishga uchraydi) esalori bu yerda esal + ori bo‘lib so‘z yasalyapti . Qorako‘l o‘g‘iz shevasida

"ari" ni o‘rniga ori ko‘rinishi qo‘llanadi.

"Qurbaqa" so‘zni oladigan bo‘lsak bu so‘zni ham boshqacha varianti bor: "qurvoqqa"

"Toshbaqa" - "toshvoqqa" tarzidagi variantlarini ko‘rishimiz mumkin.

Yangicha taomlar: Qizdirmacha ,chakalak, moshova ,

(moshovani fonetik varianti ham bor bu moshkichiri deb aytilishiga ham duch kelamiz )fatir so‘zining petir shaklida qo‘llanishi va po‘chak (ismaloqdan qilinadigan taom )kabilarni hamma yerda uchratish qiyin bu taomlar ko‘proq Qorako‘l Olot hududlarida uchraydi.

O‘g‘izlarda so‘roq so‘zlar ham boshqacha ko‘rinishga egadir bu so‘zlarni biz turklarniki bn qariyb bir xil desak ham bo‘ladi lekin tovushlarni ba‘zilarida o‘zgarishlar ham uchraydi.

Masalan:

Nerda -qayerda ?

Nerdan -qayerdan?

Nama -nima ?

Namadan -nimadan ?

Qachon-qachon ? kabilarni misol keltirishimiz mumkin.

Daraja miqdor so‘zlarini ham qo‘llanishi boshqacha :

Gertekkina -ozgina ma‘nosida

Shoppotdey-qo‘l barobarida agar bu so‘z takror holda kelsa ,katta -katta ma‘nosini ham bildiradi.

Bir to‘da -ko‘p ma‘nosida ,kem so‘zi kam ma‘nosida qo‘llaniladi.

Ba‘zi bir yangi o‘g‘iz shevasi qo‘shimchalaridan: istak ma‘nosini ifodalash uchun

-joq qo‘shimchasi xizmat qiladi masalan gel so‘ziga

-joq ni qo‘shsak geljoq so‘zi hosil bo‘ladi va bu so‘z adabiy tildagi kelmoqchiman so‘ziga teng keladi.

Bormoqchiman so‘zini yasash un ham bor so‘ziga

-joq qo‘shimchasini qo‘shamiz shu bn istak ma‘nosini ifodalaymiz.

Bizlarni shevada -lar qo‘shimchasi juda kam qo‘llanar edi bugungi kunda hurmat ma‘nosida bu qo‘shimcha sekin sekin kirib boryapti.

-jik (jiq) qo‘shimchasini oladigan bo‘lsak bu qo‘shimcha juda kichraytirish ma‘nosida qo‘llanadi . Masalan:kichijik , moydajiq so‘zlarini ko‘ramiz .

Men bugun kichijik baliqchlari go‘rdim .

Men maydajiq otcholori yoldim .O‘g‘uz lahjasining eng muhim o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

Mana shunday boshqa shevalarda uchramaydigan qo‘shimchalarni uchratishimiz mumkin.



Shuni aytishim mumkinki, o'zbek adabiy tilining muhim va katta qismini tashkil qiluvchi o'g'iz lahjasi ni va uning shevalari materiallarni har tomonlama keng qamrovda o'rganish Dialektologiya va Areal lingvistika kabi fanlarni oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Qorako'l Olot o'g'iz shevalarini o'rganish davomidagi qisqa misollarimiz buning yaqqol dalili bo'la oladi. Shuning uchun ham uni leksik balki grammatik jihatdan o'rganishni muhim vazifa qilmog'imiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. A. Baskakov. Тюркские языки. М., 1962 (qayta nashr., М., 2006);
2. E. R. Tenishev (tah.). Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Региональные реконструкции. М., 2002;
3. Ashirboyev Samixon O 'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI Toshkent 2013-yil

## “TEMIR XOTIN” KOMEDIYASIDA KO‘MAKCHILARNING QO‘LLANILISHI

*Sabina Furqat qizi XOLNIYOZOVA,*

*NavDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: f.f.d.R.N.Yusubova*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ko'makchilarning shakliy va bajaradigan vazifasiga ko'ra turlari, sof va vazifadosh ko'makchilar hamda ularning Sharof Boshbekovning "Temir xotin" komediyasidagi mazmuniy o'rni, xususiyati haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** sof ko'makchilar, vazifadosh ko'makchilar, "Temir xotin" komediyasi.

**Аннотация:** В данной статье описаны типы помощников по их форме и функциям, чистые и послушные помощники, а также их исполнительная роль и характеристики в комедии Шарафы Бошбекова «Железная женщина».

**Ключевые слова:** чистые помощники, помощники с обязательствами, комедия «Железная женщина».

**Annotation:** This article describes the types of helpers according to their form and function, pure and dutiful helpers, as well as their meaningful role and characteristics in Sharaf Boshbekov's comedy "The Iron Woman".

**Key words:** pure assistants, assistants with duties, the comedy "Iron Woman"

O'zbek tilida yordamchi so'zlar sintaksisda alohida mavqege ega, yordamchi so'zlarni tadqiq etgan A.Pardayev ularni quyidagi jihatlariga ko'ra darajalanishlarni tahlil qilgan: "a) grammatik ma'no ifodalashdagi faolligiga ko'ra: ko'makchilar → bog'lovchilar → yuklamalar; b) analitik forma hosil qilish va gap bo'laklarini shakllantirishdagi ishtirokiga ko'ra: ko'makchilar → yuklamalar → bog'lovchilar; v) mustaqil so'zlarning lug'aviy ma'nosini shakllantirishdagi ishtirokiga ko'ra: ko'makchilar → yuklamalar → bog'lovchilar; g) birikma yoki gap tarkibida ma'no va vazifasini yuzaga chiqarishda shakliy qiymati bilan doimiy ishtirokiga ko'ra: ko'makchilar → yuklamalar → bog'lovchilar; d) presuppozitsiyani yuzaga keltirishga ko'ra: yuklamalar → ko'makchilar → bog'lovchilar. Ko'makchilar shakily va bajaradigan vazifasi jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi: a) sof ko'makchilar; b) yarim (nisbiy, vazifadosh) ko'makchilar; d) qo'shimchasimon ko'makchilar. Nutqimizda tez-tez qo'llanadigan uchun, sari, sayin, qadar, kabi, singari, sayin, orqali ko'makchilari sof ko'makchilar bo'lib, ular tobe so'zni hokim so'zga bog'lashga xizmat qiladi. Sof ko'makchilar boshqa so'zga birikkan holda turli munosabatlarni anglatadi. Jumladan, bilan ko'makchisi o'zbek tilida asosan ko'makchi, ba'zan bog'lovchi vazifasida qo'llaniladi. Shu boisdan yordamchi so'zning bu turi ko'makchi-bog'lovchi atamasi bilan qo'llaniladi.

A.Pardayev, "Devonu lug'otit turk'da *birla/bila* (birgalik ma'nosini ifodalaydi va bosh, qaratqich kelishiklarini boshqaradi): *Ol mening birla edi / iki bek birla el bo'ldi* (DAT,I, 83.) Bu ko'makchi hozirgi o'zbek tilidagi *bilan* ko'makchisining qadimiy variantidir, deb keltiradi. A.N.Kononov V.V.Radlov, R.Deni kabi qator turkiyshunoslarning fikrlarini e'tiborga olib, *bilan* yordamchisi etimologiyasini *birlan* so'zidan kelib chiqqanini aytgan. *Bilan* yordamchisining mumtoz adabiyotda qator shakllari mavjud bo'lib, ular quyidagilar: *birla, birlan, ila, -la*. Biz o'rganayotgan "*Temir xotin*" asarida *bilan* ko'makchisining quyidagi ma'nolarini bildiradi:

1. Harakatning biror shaxs yoki predmet tomonidan bajarilganini bildiradi: "*Peshayvon ustuniga Qo'chqor arqon bilan chandib tashlangan, aft-angoriga qarab bo'lmaydi.*"

2. Harakatni bajarishda vosita ma'nosida keladi: 1. "*Qo'chqor. Progress bor. Ilgari tezak bilan yoqilardi, endi tezakni ham salarka bilan yoqyapmiz.*" "*Alomatni qo'lidagi usti yopiq sochiq bilan yopilgan kosani ochib uzatdi.*" "*Tar-tar-tar*" qilib ko'chadan traktor o'tganii qayoqda-yu, qo'ng'iroqday ovozi **bilan** ko'ngillarni entiktirgan qizlar qayoqda! *Qo'chqor, nasibangiz menday odam bilan qo'shilgan ekanmi, omading kelgani shu-da!*

3. Harakatning bajarilish holatini ifodalaydi: *Taqdiringizni bu kishiga o'z inon-ixtiyoringiz bilan qo'shmoqqa rozimisiz? Alam bilan qandaydir kuyni hirgoysi qiladi.*

**Bilan** leksik sath birligi, ma'noviy nomustaqil, umumlashgan grammatik ma'noli, shaklan morfologik o'zgarmas, leksoid va affiksoid ko'rinishi, yakka qo'llanishli, sintaktik bog'lash vazifasida kela oladigan lisoniy birlik: *Unaqa yuragingga mushtlaganing bilan biz tushunavermaymiz, bir bir omi odam bo'lsak... Tashqi olam bilan faqat man shu metodda aloqa qilaman. Lekin bitta qafasga solib qo'yib, bola-chaqa bilan tomosha qilib yotaveramiz. Men bilan pachakilashma, mehmon o'lgur, etagingni boshingga yopinchiq qilib, sazoyi qilib yuboraman-a!*

**Qadar** ko'makchisi hokim bo'lakka tobelanish munosabatini yuzaga chiqarar ekan, bunda o'rin, payt ma'nolari ifodalanadi: *ALOMAT. O'rtoqlar! Hali dalalarimizda hosil ko'p! Yana bir harakat qilsak, marra bizniki! Kechani kecha, kunduzni kunduz demay «zangori kema» shturvallarini boshqarayotgan azamatlarimizning jasorati osmon qadar hurmat va olqishga loyiqdir! Kashfiyoting unga shu qadar ta'sir etganidan Olimjon ham xursand.*"

**Vazifadosh ko'makchilar.** Mustaqil so'zning "nomustaqillik" belgisiga ko'ra mo'tadilligi sababli mustaqil so'z ichidan nisbiy yordamchi ajralib chiqadi. Nisbiy ko'makchi bir xususiyati bilan ma'noviy mustaqil, ikkinchi xususiyati bilan nomustaqil leksemaga o'xshab ketadi va oraliq uchinchi guruhni hosil qiladi. Leksema nomustaqil leksema sifatida voqelanganda, leksema sememasi o'z muayyanligini kuchsizlantiradi va semema grammatik ma'no sifatida voqelanadi. Chunonchi, quyidagi gaplarda berilgan leksemalarning ma'nolarini qiyoslashga harakat qilamiz:

1. *Yaxshi-yomonni ko'ra-ko'ra odamning yaxshimi, yomon ekanini tez ajratadigan bo'lib qolganmiz.* (A. Qahhor)

2. *Sizdan tarqalayotgan elektromagnit to'lqinlarning qabul qilaman va shunga ko'ra nima zarur bo'lsa, o'sha ishni bajaraman.* ("*Temir xotin*") 1-gapda qo'llangan **ko'ra** so'zi "ko'rmoq" semasiga ega bo'lsa, 2-gapdagi **ko'ra** semasi chog'ishtirish semasiga ega. Qolgan nisbiy ko'makchilar ham xuddi shunday xususiyatiga ega. Masalan, **tomon** yordamchisiga misol keltirsak:

1. *Faqat ko'zingizning narigi tomoni bilan yig'lagansiz.*

2. *Alomatning yelkasidagi qizil mikrosxemani boshi uzra bir-ikki aylantirib, ko'cha tomonga otib yubordi.*

3. *Aytyapman-ku, Qo'chqor aka, masalaning estetik tomonini o'ylab odamga o'xshatdim, deb!*

4. *U yoq-bu yoqqa alanglab, Olimjonning hujrasi tomon yuradi.*

5. *Ko'cha tomondan traktorning kelib to'xtagani eshitiladi.*

O'rin va payt ma'nosidagi ot ko'makchili gaplarga "Temir xotin" asaridan misollar keltirsak:

1. *Ha endi, tushunmagandan keyin qiyin-da.*

2. *Mana, yetti yildan beri o'shanaqa robot ustida ishlayapman.*

3. *Anchadan keyin. Ha-a... Zap kelibsiz-da...*

4. *Birozdan so'ng oq ko'ylak, oq ishtonda Qo'chqor chiqadi.*

5. *Deraza oldida ogohlantirish ma'nosida yo'talib qo'yadi.*

Ravishdosh ko'p holda ko'makchi vazifasida keladi va ko'makchi sirasining boyishiga sabab bo'ladi:

1. *Shunday deb o'zingizni ovutasiz.*

2. *Indamas ekan deb, eshakday ishlataverish kerakmi, axir?!*

Ko'makchilar o'zbek tilshunosligida har jihatdan chuqur o'rganilmoqda. Ularni o'rganish anchagina oldin boshlangan va bu haqda bir necha monografiyalar chop etilgan. Tarixan qo'llanib, hozirda ham ma'nosi va shaklini saqlab qolgan ko'makchilar borligi tilimizda so'zlarning avvalgi va hozirgi holatlarni ko'rsatib bergan. Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib asarlari tarkibida qo'llangan ko'makchilardan tortib hozirgi zamon tilshunosligidagi ko'makchilar turli qarashlar yo'q emas. Ko'makchilar yordamchi so'z turkumining eng ko'p qo'llanadigan turi sanaladi.

Sharof Boshbekovning "Temir xotin" komediyasida ko'makchilardan, ayniqsa, "bilan" hamda vazifadosh ko'makchilardan unumli foydalanilgan. Asarda ko'makchilar qahramonlar orasidagi suhbatlarning, muloqotlarning mazmunini, xususiyatini tushunishda kitobxonga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ko'makchilar, uning xususiyatlari, ifodalaydigan ma'no munosabatlari bo'lib, gaplarni, asarlardagi nutqni tushunishimizda bizga katta yordam beradi. Jumladan, "Temir xotin" komediyasidagi ko'makchilar hamda yuklamalr gap tuzilishida, ma'nosini anglash uchun, tushunarli bo'lishi uchun unumli foydalanilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. *Pardayev A. O'zbek tili yordamchi so'z turkumlarining lisoniy tizimdagi o'rni va lingvopragmatik tahlili. T., Fan, 2013.*

2. *Mengliyev B.R. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Buxoro. 1995.*

3. *R. Sayfullayeva va muallifdoshlar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2009*

4. *Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent 1975.*

7. *Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: O'qituvchi, 1980.*

8. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

9. [www.library.uz](http://www.library.uz)

### **KIYIM KOMPONENTLI MAQOLLARNI TASNIFLASHGA OID**

*Xoliqova Sanam,*

*O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

*Ilmiy rahbar: dotsent R. Sharopova*

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi kiyim komponentli o'zbek maqollarining rang-barangligi, ularni tasnifi masalasida so'z boradi.

Аннотация. В данной тезисе рассматривается разнообразие узбекских пословиц с компонентом одежда и их классифицирование.

Abstract. This thesis deals with the diversity of Uzbek proverbs with a clothing component and their classification.

Kalit soʻzlar. Maqol, xalq ogʻzaki ijodi janri, butunnom, qismnom, kiyim komponentli maqollarni tasniflash

Ключевые слова. Жанр фольклора, гипероним, гипоним, классификация пословиц по одеждному компоненту.

Keywords. Genre of folklore, hyperonym, hyponym, classification of proverbs by clothing component.

Maqollar qisqa va loʻnda, obrazli, chuqur mazmunga ega xalq ogʻzaki ijodi janri boʻlib, ularda xalqning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuygʻulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan boʻladi. Ular uzoq davr mahsuli sifatida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollar tarkibida emotsional-ekspressiv boʻyoqdor leksemalar, zid maʼnoli soʻzlarning qoʻllanishi ularning taʼsir quvvatini oshirishga xizmat qiladi. Mavzu jihatdan nihoyatda boy va rang-barang mazkur barqaror birikmalarning lisoniy jihatlari tadqiqotchilarning tadqiq obyektiga aylangan boʻlsa-da, kiyim-kechak nomlari qatnashgan maqollarning semantik guruhlari va lisoniy xususiyatlari eʼtibordan tashqarida qolganligini taʼkidlash joiz.

Kiyim-kechak nomlari qatnashgan maqollarni ham mazmunini tashkil etishda qatnashgan asosiy komponentning vazifasi hamda maqolning semantik tabiati boʻyicha guruhlab oʻrganish lozim. Maqol mazmunini tashkil etishda qatnashgan asosiy komponentning vazifasi boʻyicha tasniflaganda libos nomi boʻlgan butunnom yoki libosning qismi boʻlgan qismnom qatnashgan maqollarga ajratish mumkin.

Maqol komponenti sifatida turli kiyim butunnomi ishtirok etishi hamda shu asosda xalqning turli qarashlari ifodalanishi kuzatiladi. Masalan, *Kamzul mursagi bilan yarashiq, lozim koʻylagi bilan* maqolida *kamzul, mursak, lozim, koʻylak* kabi kiyim nomlari qoʻllangan boʻlib, ularning har biri alohida kiyim turi sanaladi. Bu guruhdagi maqollarda kiyim umumiy nom yoki turi sifatida xizmat qiladi. Masalan, *Kiyimning yangisi yaxshi, doʻstning eskisi; Kiyimning janda boʻlsa ham, ganda boʻlmasin; Uyga palos yarashar odamga libos* maqollarida *kiyim, libos* leksemalari ishtirok etgan.

*Yaxshi qiz yoqadagi yulduz, Yaxshi yigit koʻkdagi yulduz* maqolida esa yoqa leksemasi qismnom boʻlib, asosan ust kiyimlarning qismi boʻlib xizmat qiladi.

Ayrim maqollarda ham butunnom, ham qismnomning kelishi kuzatiladi. Masalan, *Бўз кўйлакка садаф тугма ярашмас; Атлас кўйлакка – бўз ямоқ* maqollarida *koʻylak* leksemasi butunnom boʻlsa, *tugma, yamoq* esa uning qismlari sanaladi.

Kiyim komponentli maqollarni tasniflashda ularning asosiy xususiyati – tananing qaysi qismiga kiyilishi asosida belgilash lozim. Shunga koʻra maqollarni ust kiyim nomlari qatnashgan maqollar; bosh kiyim nomlari qatnashgan maqollar; oyoq kiyim nomlari qatnashgan maqollarga ajratib oʻrhanish maqsadga muvofiq. Bularga bir-bir toʻxtalamiz.

#### 1. Ust kiyim nomlari qatnashgan maqollar.

toʻn komponentli: Koʻrpa toʻn boʻlmas oʻynash er; Otoning ochgan yoʻli bor, onaning bichgan toʻni; Qulning toʻni qirq yamoq, ammo xushboʻy; Yirtiq toʻnga zar yamoq kabi.

Beldan oyoqqa qadar kiyilgani tufayli *lozim, ishton* komponentli maqollarni shu guruhga kiritdik: *Boʻzni bichsang ishton boʻlur, qayishini bichsang pushton boʻlur; Ichidan oʻtadi ishton boʻladi; Ishtoni yoʻq tizzasi yirtiqqa qaraydi; Ishtoni yoʻq el kezar; Ishtonsizning tushiga bir qarich boʻz kiribdi; Oq ishtonning boʻlagi qora ishtonga yarashmas.*



2. Bosh kiyimi nomlari qatnashgan maqollar. Bu guruhdagi maqollarda do‘ppi so‘zi faol qatnashganligi kuzatiladi: *Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi, Yel o‘tar cho‘qqi qolar, bosh ketar do‘ppi qolar, Yigirma shamol uchirsa do‘ppingni osmonda ko‘r kabi.*

ro‘mol komponentli: *Er-xotinning urushi – doka ro‘molning qurushi;*

bo‘rk komponentli: *Bosh yorilsa bo‘rk ichida, qo‘l sinsa yeng ichida;*

qasava komponentli: *Oshi yo‘q ashavasiga zor bo‘ladi, lavhagi yo‘q qasavasiga zor bo‘ladi.*

3. Oyoq kiyim nomlari qatnashgan maqollar.

Mazkur guruhga mansub maqollar orasida *etik* leksemasi faol qo‘llanadi: *Suvni ko‘rmay etik yechma;* Этикдўзнинг этиги йиртик, темирчининг тешаси кемтик; Oltin halqadan kech quloq og‘risa, zardo‘zi etikdan kech oyoq og‘riydi; Otingga ish tushsa otlig‘i bilan suv ichar, er boshiga ish tushsa etigi bilan suv kechar; Erga tegish oson, etik tortish qiyin.

kavush komponentli: Kinachining kavushi o‘zidan ilgari yo‘rg‘alar,

Xulosa qilinadigan bo‘lsa, kiyim-kechak komponentli maqollar ham o‘zining tarkibiy xususiyatlariga ega. Maqolning mazmunini tashkil etishda kiyim nomlari maqolning mazmuni yuzaga chiqishida asosiy vosita sanaladi. Kiyim-kechak komponentli maqollarni ularni tashkil etgan komponentning vazifasi hamda maqolning leksik-semantik, stilistik tabiati bo‘yicha guruhlab o‘rganish xalqning ijtimoiy hayoti va tafakkuriga xos xususiyatlarni uning lisonida aks etishi bilan bog‘liq ilmiy xulosalar chiqarishda poydevor sifatida xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jo‘rayeva B. O‘zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug‘ati. Toshkent: Fan, 2006.

2. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma: O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. Toshkent, 1990.

### **ETNOGRAFIK LEKSIKA HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR**

(Samarqand viloyati, Toyloq tumani misolida)

*Jalilova Muxlisa Zafarjon qizi,*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek tili Toyloq shevasida qo‘llaniluvchi nisbatan faol etnografizmlar hamda ularning adabiy til bilan munosabati va areal jihatdan o‘ziga xos ayrim xususiyatlari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** etnografizm, faol, lug‘at tarkibi, dialekt, sheva, bilingvizm, ikki tillilik sharoiti, leksika, semantika, dialektal leksika, areal leksika, marosim leksikasi, leksikaning sohalarda qo‘llanilishi.

**Аннотация.** В данной статье говорится об относительно активных этнографиях, используемых в тойлокском диалекте узбекского языка, а также об их взаимосвязи с литературным языком и некоторых их региональных особенностях.

**Ключевые слова:** этнография, актив, словарный состав, диалект, говор, двуязычие, двуязычие, лексика, семантика, диалектная лексика, ареальная лексика, ритуальная лексика, употребление лексики в полях.

**Abstract.** This article talks about relatively active ethnographies used in the Toyloq dialect of the Uzbek language, as well as their relationship with the literary language and some of their regional features.



**Key words:** ethnography, active, vocabulary composition, dialect, dialect, bilingualism, bilingualism, lexicon, semantics, dialectal lexicon, areal lexicon, ritual lexicon, use of lexicon in fields.

O‘zbek tili asrlar osha shakllanib, taraqqiy etib keldi. Ajdodlarimiz zakovati tufayli tilimizning noyob javohirlardan iborat so‘z xazinasiga yangi so‘zlar qo‘shilib, uning nafasati va imkoniyatlarini beqiyos darajada oshirdi. Qadim xalqimizning turmush sharoiti, o‘y-xayollari-yu fikrlari, orzu maqsadlari, uning dunyoqarashini biz avvalo, shevalarimizdan ilg‘ashimiz mumkin. Nega deganda, uzoq o‘tmishdan sas beruvchi yodgorlik ham shevalarimizdir desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman. Shu o‘rinda, olim Nigora Murodovaning quyidagi fikrlari yuqoridagi fikarlarimizning mantiqiy davomi bo‘ladi: “O‘zbek tilining bunday boy va betakror o‘ziga xosliklarini, mo‘jizalar yarata oladigan, qudratini oshiradigan lisoniy manbalarini aniqlash, ularni avaylab asrash lozim. Shu bois ham shevalarni o‘rganish – xalq tili, tarixi, etnik-madaniy hayotini tadqiq etish uchun qimmatli materiallar beradi. Sababi jonli xalq shevalari adabiy tilning yozma yodgorliklariga nisbatan qadimiy manbadir. Shuning uchun ham shevalarni o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.” [1]

«So‘zlovchi o‘z fikr hamda turli xil kayfiyatlarini shakllantirishda til materiallaridan foydalanadi. Bunda har qanday gap fikrni shakllantirish va ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Biroq kishi o‘z fikr-mulohazasini turli sharoit va zamonda bayon qiladi. Chunki so‘zlovchi borliqqa, tinglovchiga turlicha munosabatda bo‘ladi: Insonning miyasida tabiat aks etadi. Inson bu aks etishlarning to‘g‘riligini sinab ko‘rib, uni o‘z tajribasida, texnikasida qo‘llab ko‘rib, obyektiv haqiqatga erishadi. Demak, so‘zlovchi obyektiv borliqqa turlicha munosabatda bo‘ladi. O‘z fikrini ma‘lum maqsadni ifodalovchi gap orqali amalga oshiradi. So‘zlovchi sharoitga qarab turlicha maqsadda, turlicha kayfiyatda bo‘ladi. Ayniqsa xalq maqollariga murojaat qilsak, unda kishilar o‘z maqsad va tuyg‘ularini, fikr-mulohazalarini ko‘proq oddiy, murakkab bo‘lmagan maqol-gaplar orqali ifodalaganlar».[ 2]

Tilda milliy mentalitetning aks etishi tilshunoslik, falsafa kabi fanlarning azaliy va hamisha navqiron mavzusi. Biroq ma‘lum vaqt bu muammo tilshunosligimizda chetlab o‘tilganligi sir emas. Etnik qadriyatlarini etnik madaniyatning shakli sifatida qarash juda muhim. Tilshunosligimizning shakllanajak lingvokulturologiya yo‘nalishi asosiy diqqatini til madaniyatni o‘z birliklariga qanday singdirishi va ifodalashi, saqlashi va namoyon qilishi muammolariga qaratadi. Lingvokulturologik yo‘nalishning shakllanishi va taraqqiyoti madaniyat tushunchasini til va jamiyat yaxlitligining o‘ziga xos shakli sifatida tushunishga intilish kuchayganligi bilan belgilanadi. Bunda til milliy madaniyat, millat mentallikni talqin etish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Madaniyatshunos P.Sorokina e‘tiroficha, qadriyat – bu “har qanday madaniyatning asosi va negizi”dir. Modomiki, qadriyatlar asosiy madaniy tushuncha ekan, u o‘zida kishilarning o‘z maqsadlariga intilishiga ishonchlarini va unga erishishning asosiy vositalarini belgilaydi. T.Parson qadriyatni sotsial sistemaning tarkibiy qismi, “jamiyat a‘zolarining jamiyat haqidagi umum e‘tirof etilgan tasavvurlari majumi” sifatida qaraydi. Tilda milliy mentalitetning aks etishi tilshunoslik, falsafa kabi fanlarning azaliy va hamisha navqiron mavzusi. Biroq ma‘lum vaqt bu muammo tilshunosligimizda chetlab o‘tilganligi sir emas. Har bir shaxs bir vaqtning o‘zida madaniy shaxs hisoblanadi. Shuning uchun til belgilari til sohiblarining umuminsoniy va madaniy-milliy mentalligini aks ettiruvchi madaniyat “tili” funksiyasini bajarish qobiliyatiga ega. Milliy-madaniy o‘ziga xoslik shunda namoyon bo‘ladiki, tillar inson ichki olami har xilligini, uning borliq hodisalariga ijobiy va salbiy munosabatini baholashi bilan farqlanadi. Shuni ta’kidlash joizki, lingvistik adabiyotlarda

lisoniy birliklarning milliy-madaniy semantikasini ifodalovchi terminologik rang-baranglik mavjud: milliy-madaniy mundarija, milliy xususiyat, milliy o'ziga xoslik, milliy madaniyat xususiyatlari, semantikaning milliy-madaniy o'ziga xosligi, milliy mansublik semasi, ma'noning madaniy uzvi, madaniy koeffitsiyent va h.k. Lingvokulturemani tushunish uchun tadqiqotchi katta e'tiborni, uning mundarija unsuri sifatidagi ma'noda imkoniyat sifatida qatnashuvchi ichki madaniy mazmunga qaratadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, lingvokulturema sifatida o'z va o'zlashma qatlam birliklari, jonivor, o'simlik, shaxs nomlari, barqaror birliklar, tildagi metaforik va obrazli leksika, tilning uslubiy xazinasi, miflashgan madaniy-lisoniy birliklar, tilda aks etgan urf-odat, ritual va marosim, nutqiy axloq va odob kabilar namoyon bo'ladi.

Etnografizmlar guruhiga mahalliy-milliy urf-odat, diniy, madaniy to'y marosim va motam nomlari kiradi. Toyloq shevasi bunday so'zlarga juda boy. Shuningdek, olqish, qarg'ish ma'nolarini ifoda qiluvchi so'zlarni ham etnografik leksikaga kiritish mumkin, chunki ularda ham xalqning o'ziga xos ruhiyati, e'tiqod va nafrati o'z ifodasini topgan. Ta'kidlash o'rinliki, etnografik leksika mavzu va hajm jihatdan juda keng. To'y marosimlariga oid etnografizmlar alohida o'rganishni taqozo etadi. O'zbek to'y marosimlarini o'rgangan H.Ismoilov o'zbek to'y marosimlarini quyidagi ma'noviy guruhlarga ajratadi:

- muhim sana bilan bog'liq to'ylar (tug'ilish to'yi, beshik to'yi, soch to'yi va boshq.);
- sunnat to'ylari;
- yigitlik to'ylari (yigitlik oshi, mo'ylov to'yi);
- nikoh to'yi (qiz ko'rish, non sindirish, to'qqiz taboq);
- to'y bilan birga o'tkaziladigan marosimlar (ijob to'yi, qiz oshi);
- to'ydan so'ng o'tkaziladigan marosimlar.

Biz ham hudud sharoiti va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda yuqoridagi sanalgan shartli ma'noviy guruhlarning aksariyatiga to'xtalib o'tdik. Hudud etnografizmlari haqida gap ketganda, bir narsani unutmasligimiz lozimki, biz Samarqand etagida joylashgan, bevosita markazga yaqin hududmiz. Bundan bir necha asrlar ilgari bizning hudud savdo-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy markazga yaqin bo'lganligi uchun ham bu yerda urf-odat, an'ana va qadriyatlar boshqa hududlarga qaraganda qadimiyroq va ko'proq hisoblanadi. Ikki, uch millat vakillari istiqomat qiluvchi ayrim mahallalarda hattoki, etnografizmlar qo'llash sohasi turlichani tashkil etadi. Quyida biz ularning asosiylariga to'xtaldik va ularning ma'nosini izohlashga harakat qildik.

**Kelin talbon** – talbon (talbidan chaqirmoq) o'zbek adabiy tilida chorlar ya'ni chaqiruv yoki bo'lmasa chaqiruv marosimi desa ham bo'ladi. Yangi kelin shu marosim o'tmaguncha ota uyiga kelmaydi. Ota uyi uni shu marosim orqali chaqirib, ziyofat qiladi shundan so'ng kelin keladi. Bizningcha, ushbu so'z fors.toj. chil so'zidan ham olingan bo'lishi mumkin. Sababi kelin qirq kundan keyin kelib chillasini chiqarib keyinchalik otasining uyiga keladi. [3]

**Kuyov talbon** – bu so'z ham talbidan ya'ni chaqirmoq so'zidan olingan bo'lib, qiz taraf tomonidan kuyovni to'ydan so'ng kelinning ota-onasi tomonidan chaqirish marosimi uchun ham ishlatiladi. Bu ham kelin talbonga o'xshash.

**Ko'rdi** – to'yning yuz ochar marosimidan keyin kuyov va kelinning yaqin qarinishlari yoki qo'ni-qo'shnilar tomonidan yangi kelinga sovga salomlar berish marosimi uchun ishlatiladigan so'z.

**Savzito'g'rar / sabzito'g'rar** – tojik millatiga mansub aholi tomonidan **sabzireza** ham deyiladi. To'ydan bir kun oldin yaqinlar yig'ilib, kechga ertangi beriladigan nahor oshning sabzini to'g'rashadi. Bu marosimda asosan, erkak aholi ishtirok etadi. Bu marosim to'yoldi

marosimlaridan biri hisoblanadi. Sabzi to‘g‘rash bahona yaqin qarindoshlar gurungi bo‘ladi, diydorlashishadi.

**Nahor/nahor oshi** – bu marosim erta tongda o‘tkazilgani bois shu atama bilan nomlanadi. Bir manbada bu marosim Samarqandda udum bo‘lganiga 30 yildan oshdi deyilgan edi, biroq bu marosim ham ancha yillik marosim hisoblanadi. Bu ertalab qilinadi, 1-2 soatda o‘tib ketadi. Bunda Qur‘on tilovat qilinib, yoshlar baxtiga duolar o‘qiladi.

**To‘palang oshi** – to‘ydan bir kun oldin yaqin qarindoshlar bilan o‘tkazilgan tadbir marosimi. Bu marosimda sabzi to‘g‘raladi, ovqat qilinadi. To‘palang deyilishiga sabab, to‘y kunlari hamma shoshadi, ish ko‘payadi, g‘ala-g‘ovur ko‘p bo‘ladi. Shunday holatlarni inobatga olib, bu marosim shunday nomlanadi.

**To‘yona** – to‘y o‘tkazayotgan odamga yaqin kishilari tomonidan beriladigan tuhva hisoblanadi. Biroq, buni hozir hadyadan ko‘ra ko‘proq qarz ma‘nosida tushunishadi. To‘yonani olgan odam to‘yona bergan odamga uni qaytarishi kerak bo‘ladi.

**Fotya/potya to‘y** – fotiha to‘yi, bu marosim to‘ydan oldin qilinadigan marosim hisoblanadi hamda qiz tomonidan qilinadi.

**Yuz ko‘rishish/yuz ko‘rdi** – kelin hamda kuyov chimildiqda bir-birini ilk marta oyna orqali ko‘rishish marosimi. Bu marosimni yoshi katta ayollar o‘tkazadi. Ular oynani ushlaydi va kelin bilan kuyov oynada bir-birini ko‘rishadi. Bu ham qadimgi mentalitet bilan bog‘liq marosim turi hisoblanadi.

**Asal yalatish** – bu ham chimildiqda kelin va kuyov bir-biriga chimchiloq barmog‘i orqali asal yalatadi. Ya‘ni asal bu shirin ma‘nosida hayotimiz bundan keyin Shirin hamda totli bo‘lsin degan ma‘noda shu marosimni o‘tkazishadi.

**Ayog/ayog‘ bosdi marosimi** – chimildiqda kelin hamda kuyov bir-birining oyog‘ini bosishadi. Bu ham kekxa ayollar guvohligida bo‘ladi. Bu marosimning qiziq tomoni shundan iboratki, kim birinchi oyog‘ini bossa oilada kelajakda o‘sha insonning hukmronligi ta‘minlanadi. Ijtimoiy mavqe jihatdan ayollar ustunligi yoki erkaklar ustunligini ko‘rsatuvchi marosim bo‘lgani bilan, ammo bu yerda hurmat va izzat tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Bu ham bir xalqning fikr va xayollari bilan bog‘liq marosim.

**Opichlash /ko‘tarib tushurish marosimi** – kuyov tomonidan kelinni o‘zining xonadoniga olib kelgandan so‘ng, mashinadan uni uyga olib kirishda opichlab olishadi va bu ham bir qadriyat sifatida qaraladi. Kuyov qanchalik kelinni tez va oson tushirsa, u davradagilar oldida shunchalik mard hamda jasur sifatida ko‘rinadi.

**Alavdan aylantirish** – qadimgi din zardushtiylikdan qolgan marosim sifatida qaraladigan ushbu jarayon ya‘ni olovdan aylantirish marosimi, kuyov xonadoni oldida kelinni ko‘targan holda uch marta olovdan ya‘ni yoqilgan gulxan oldidan aylantiradi. Bunda ayollar tomonidan “hazoralik” qo‘shig‘i ham aytiladi.

**Hazor-alik** – (fors tojikcha hazor – ming, alik – salomg alik olish). Bu ayollarimiz orasida mashhr qo‘shiq turi bo‘lib, to‘ylarda ijro qilinadi. Kelin tomonidan har bir kishiga, avvalo Allohga, keim uning rasuli Muhammad s.a.v ga salom berish boshlanib, buyog‘i qo‘shnisigacha davom etadi. Bu qo‘shiq to‘y vaqti va to‘ydan keyin ham hayotiy tajribasi yuqori ayollar tomonidan kuylanadi. Atrofidagi ayollar esa, oxirgi bandlarda qo‘shilib, jo‘rnavozlikda kuylashadi. Bu marosim Toyloq tumanining deyarli barcha hududlarida amal qiladi.

**Huydo-huydo to‘y / sunnat to‘y** – bu to‘y islom tomonidan muqaddas deb e‘zozlangan yana bir qadimiy o‘zbek odatidir. Bu marosim o‘g‘il bolalar uchun 3, 5, 7, 9 yoshga kirganda, kamdan-kam hollarda 11-12 yoshda o‘tkaziladi. Bizning hudud tomonidan bu so‘zga nisbatan huydo-huydo to‘y degan atama ham ishlatiladi. Bundan tashqari o‘g‘il to‘y, yigit to‘y ham deyishadi.

**Poyandoz** – kelinning onasi tomonidan maxsus qilingan yoki tikilgan material orqali bir tarafda kelin tomon bir tarafda kuyov tomon qarindoshlar tomonidan tortishuv o'tkaziladigan marosim. Kuyov kelinning uyiga borgandan keyin, uni xonadonidan olib chiqish paytida o'tkaziladi va o'sha mato ustidan kuyov sakrab o'tadi va ikki tomondan tortiladi. Kim agar ushuni tortib ololsa, o'sha yigit kuchli va keyingi to'y uniki bo'lishi aytiladi. Bu chaqqonlik va epchillikni oshiradi, va o'ziga xos sport marosimi ham deyish mumkin. [5]

Urf-odatlar muayyan etnosning o'ziga xosliklarini namoyon etadi, butun etnografik sistemada lisoniy belgi sifatida faol o'ringa ega, shu jihati bilan tilshunoslik uchun muhim. Har bir til leksik makrosistemasida alohida bir mikrosistemani tashkil etuvchi, etnografik tushunchani ifodalovchi leksemalar tizimi mavjud. Ushbu leksemalarni o'rganish uchun tilshunoslikning maxsus sohasi — etnolingvistika shakllangan, u lingvistik soha sifatida lingvistik universalialarni ham, xususiy jihatlarni ham o'rganadi. Shuning uchun umumiy va xususiy etnolingvistika farqlanadi. Umumiy etnolingvistika etnografik til hodisalarining paydo bo'lishi, rivojlanishi kabi umumiy masalalar bilan shug'ullansa, xususiy etnolingvistika ayrim tillarga xos etnografizmlarni shu nuqtai nazardan tadqiq qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Murodova N. O'zbek dialektologiyasi. Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 6
2. Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. - Тошкент: Фан, 1971
3. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент, Фан, 1971. – Б. 63.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 2-жилд.- Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2003.

#### **ATOIY ASARLARIDA OMONIMLARNING QO'LLANILISHI**

*Nasillayeva Muxlisa Murodullo qizi,  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Atoiy ijodida omonimlarning qo'llanishi misollar asosida o'rganildi. Shoir devoniga kiritilgan g'azallarida qo'llangan omonimlarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Atoiy ijodi, tajnis, omoformalar, leksik omonimlar.

**Аннотация:** В данной статье на примере чувств поэта исследуется прием омонимов в творчестве Атоия. Анализируются лексико-семантические особенности омонимов, употребляемых в газелях, вошедших в диван поэта.

**Ключевые слова:** творчество Атоия, тажнис, омоформы, лексические омонимы,

**Abstract:** In this article, the method of using homonyms in Atoi's work is studied on the example of the poet's feelings. The lexical-semantic features of the homonyms used in the ghazals included in the poet's divan are analyzed.

**Key words:** Atoi's work, tajnis, homophorms, lexical homonyms,

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi bo'lgan Atoiy lirikasi til tarixida eski o'zbek adabiy tili davrini o'rganish uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi. Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, "Turkigo'y" bo'lgan Atoiy ijodining til xususiyatlari tahlil qilinganda shoir asarlarini badiiy hamda tilshunoslik nuqtai nazaridan yoritishda so'zlarning



nafaqat semantik tasnifi, balki ularning shakl va ma'no munosabatlari ham muhim o'rin egallaydi. Atoiy asarlari tili sodda, xalqonaligi bilan ajralib turadi. Shoir o'z g'azallarida adabiy til va jonli xalq tilining turlicha badiiy-tasviriy vositalarini mohirlik bilan qo'llash asosida sifatlashlar, mubolag'a va o'xshatishlar yaratadi, bu orqali o'zbek tilining boyligini namoyish etadi, o'zi ham adabiy tilni yangi-yangi tasviriy vositalar, so'z va iboralar bilan boyitadi [5]. Atoiy ijodida so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlaridan mahorat bilan foydalangan. Bunda uning g'azallaridan ayrim olingan misollar yordamida ko'rib chiqsak.

Bilamizki, talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlar omonimlardir. Chunki ular bir xil fonetik strukturaga ega bo'ladi[6]. Bunday shakllarga ba'zan tilshunoslikda omoformalar ham deyiladi. Ular ko'pincha turli so'z turkumlari doirasida yuzaga chiqadi. Shuningdek, omonim so'zlar badiiy asarlarda ham o'ziga xos ma'no xususiyatlariga ega bo'lib, ularning qo'llanilishi asarda ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Mumtoz adabiyotda bunday shakllarning qo'llanilishi tajnis san'ati deb yuritiladi. Tajnis she'riy san'ati ijodkorning aytmoqchi bo'lgan fikrini ta'sirchan ifodalashga yordam beradi. Ana shunday vositalardan Atoiy g'azallarida ham unumli foydalanilgan. Misol uchun uning qo'yidagi misralarini olaylik:

*Ne ravo bo'lg'ay bu kim, mehrob ichinda o'turub,  
O'turadur men duochini ko'zung boqib turub.* [4]

Baytda yorning mehrob ichinda o'tirib, duochi, jodu ko'zlari bilan oshiqqa boqib turib uni o'ldirishini qanday oshiqqa ravo ko'rishi mazmuni anglashiladi. Birinchi misra oxirida qo'llangan o'turub so'zi ikkinchi misra boshida qo'llangan o'turadur so'zi bilan shakldoshlik hosil qilgan. Ya'ni hozirgi o'zbek tilida qo'llanilgan o'tirmoq fe'li eski o'zbek tilida o'turmoq shaklida iste'molda bo'lgan.

*Baqar ohulayin har yon o'shal ikki qaro ko'zlar,  
Xadangni g'amzasin otmoq uchun go'yo qaro ko'zlar.* [4]

Xadang - o'q, kamon o'qi [1], g'amza - ko'z qisish, ko'z bilan ishora qilish[3] ma'nolarini anglatadi. Xadang bu yerda kiprik ma'nosida kelgan, shoir kipriklarni kamon o'qiga mengzaydi. Yorning o'sha ikki qora ko'zlari har yonga ohudek boqadi va xadang (o'qlarni) otish uchun go'yo qaro ko'zlaydi. Omonimlar:

1- misrada: ko'zlar- ot so'z turkumidagi ko'z so'zining ko'pligi. Ko'zlar shaklida  
2- misrada: ko'zlar- fe'l so'z turkumi, ko'zlamoq leksimasi hisoblanadi. Ko'z+la+r shaklida kelasi zamon affiksini olib tustangan.

*Hajring g'aminda bo'ldi tanim pora-pora qil,  
Qilcha jonimni ol, dag'i dardimga chora qil.* [4]

Ushbu baytda qil omoleksemalarining shakloshligi kuzatiladi. Omonimlar misralar oxirida qofiyadoshlikni ham hosil qilib kelgan. Bu o'rinda birinchi misrada kelgan soch tolasi manosidagi qil so'zini ikkinchi misrada kelgan qil, ya'ni qilmoq fe'li bilan shakldosh qilib qo'llash orqali so'z o'yini hosil qilingan. Baytda yor hajrida tanining pora-pora qil bo'lganligini mubolag'a san'ati orqali go'zal ifodalab bergan. Shoir yoridan shu qildek jonini ham olishini va shu yordamida dardiga davo qilishini so'rab yolvoradi.

*Bir ko'ngul bor erdi menda, ol ila olding ani,  
Emdi bir jonim qolibtur, gar yarar oni ham ol.* [4]

Baytda ol so'zi tajnis bo'lib kelgan. Bu so'z quyidagi ma'nolarni anglatadi.:

1- misrada: ol- hiyla, firib, nayrang, 2- misrada: ol - olmoq ma'nosidagi fe'l hisoblanadi.[1]

Baytdan quyidagi ma'no yuzaga chiqadi: *Bir ko'ngil bor edi menda, hiyla-nayrang bilan olding uni, endi bir jonim qolibdir, agar kerak bo'lsa, uni ham ol.* Ko'rinadiki, birinchi misradagi ot so'z turkumi bo'lmish ol so'zi keyingi misradagi ol-olmoq fe'li bilan tajnisni



yuzaga keltirgan. Atoiy gʻazallarida omonimlarning nafaqat bir baytda kelishi, balki ikki baytda kelgan soʻzlarning ham oʻzaro leksik omonim boʻlib kelish holati kuzatiladi:

*Raqiblargʻa qilur laʻbing tabassum,  
Qonimni gʻussadin toshurmogʻing ne?  
Koʻngul shishasida mehring mayidur,  
Jafo birla anga tosh urmogʻing ne? [4]*

2- misrada *toshurmogʻing* leksimasi 4- misrada kelgan *tosh urmogʻing* soʻz birikmasi bilan shakldoshlik hosil qilgan. *Raqiblarga laʻbing tabassum qilur, koʻngilni gʻussadin toshirmogʻing nimasi? Koʻngil shishasida sening mehring mayidir, yaʼni bu shisha sening mehring bilan toʻla, jafo bilan unga tosh urmogʻing nimasi?* Gʻussa soʻzi gʻam-alam[3] maʼnosini anglatib keladi. Yana bir misol:

*Desangkim: “jon sipar qilgʻil, Otoyim!”  
Turubmen ushmunok, oʻldur, ot, oyim. [4]*

Ushbu misralarda Atoiy oʻz taxallusini tajnisga oladi. *Otoyim* soʻzi bu yerda undalma boʻlib kelmoqda. Yaʼni yorga qarata *Otoyi, jon sipar qilgin*, bu yerda sipar soʻzi qalqon maʼnosini anglatadi[2], *desang, turibman mana shunday, oʻldir, ot, oyim*. Ikkinchi misrada undalma sifatida *oyim* soʻzi kelgan. Ushbu soʻzdan oldin kelgan *ot* feʼli undalma bilan birgalikda kelib birinchi misrada qoʻllangan *Otoyim* leksimasi bilan tajnis hosil qilganligini koʻrishimiz mumkin.

Atoiy ijodida garchi keng boʻlmasa-da, omonimlarning qoʻllanilishi shoirning soʻz qoʻllashdagi mahorati yuksak darajada ekanligidan dalolat beradi. Koʻp hollarda leksik omonimlar ot va feʼl soʻz turkumlari doirasida yuzaga kelganligini koʻrishimiz mumkin. Mana shunday soʻz maʼnolaridan keng qoʻllay olishi sheʼr mazmunini kuchaytirishga hamda uni taʼsirchan ifodalashga xizmat qilgan. Atoiy bunday shakllar orqali tajnis sanʼatining goʻzal namunalarini yarata olgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. – Тошкент: Фан, 1983. – 644 б.
- 2.Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. – Тошкент: Фан, 1983. – 624 б.
- 3.Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. – Тошкент: Фан, 1985. – 636 б.
4. Девони Шайхзода Атойи. – Тошкент: Фан, 2008. – 320 Б.
- 5.Мухторов А., Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент, 1995. –160 Б.
- 6.Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 446 б.

### **SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA ISTORIZMLARNING QOʻLLANILISHI**

*Islomova Eʼzoza Yorqin qizi,  
Navoiy davlat pedagogika instituti Oʻzbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada Shukur Xolmirzayev mahoratli ijodkopr boʻlish barobarida oʻz asarlarida tilning xilma-xil xususiyatlarini namoyon va yozuvchi ijod namunalarida tarix manzarasini aks ettirish maqsadida istorizmlardan unumli foydalangani oʻrganilgan.

**Abstract:** In the article, it is studied that Shukur Kholmirezayev, in addition to being a skilled creator, effectively used historicisms in order to show the various features of the language in his works and to reflect the historical landscape in his works.

**Kalit soʻzlar:** istorizm, tarixiy soʻzlar, eskirgan soʻzlar, leksik istorizm, semantik istorizm, frazeologik istorizm.

**Key words:** historicism, historical words, obsolete words, lexical historicism, semantic historicism, phraseological historicism.

Istorizmlar tarixini oʻrganish harakatlari Yevropa tilshunosligida ham, ingliz tilshunosligida ham umumiy lugʻatchilik masalalarini oʻrganishdan ikki-uch asr keyin boshlangan. Oʻquv lugʻatlarini ilmiy asosda oʻrganish XVII asrda birinchi ingliz leksikografi S.Jonson, XIX asr boshlarida fransuz tilshunoslari J.Dyubua, K.Dyubua, G.Matore, K.Bak, ispan tilshunosligida Y.Malkil ishlaridan boshlanadi. Keyinchalik oʻzbek tilshunosligida leksikografiyaning bu tarmogʻini takomillashtirish davlat ahamiyatidagi masala sifatida kun tartibiga qoʻyiladi. Ana shu xatti-harakatlar samarasi oʻlaroq oʻzbek oʻquv lugʻatchiligi yuqori pogʻonaga koʻtariladi va ulkan yutuqlarni qoʻlga kiritadi. Bunda P.N.Denisov, L.A.Novikov, S.G.Barxudarov, V.V.Morkovkin, Y.N.Karaulov, M.A.Skopina, V.N.Sergeyev, V.A.Redkin A.V.Tekuchev, Z.A.Potixa, D.E.Rozental kabilarning xizmatlari katta boʻladi. Til taraqqiyotining maʼlum bir davrida muomalada faol qoʻllangan, lekin keyinchalik shu soʻz ifodalagan predmet, voqea yoki hodisa oʻzining hayotiy faoliyatini toʻxtatgach, uni anglatgan soʻz ham eskirsa, qoʻllanish darajasini susaytirib, yoʻqotib, tarixiy soʻzga aylanib qoladi. Demak, tarixiy soʻzlar oʻzi atagan narsa yoki tushuncha isteʼmoldan chiqib ketganligi bois qoʻllanmayotgan leksik qatlamdir. Bu qatlam har bir davrda jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliq holda yuzaga keladi, kamayib boradi. Istorizmlar leksik, semantik, frazeologik xarakterga ega boʻladi. Eskirib isteʼmoldan chiqqan, oʻz sinonimiga ega boʻlmagan soʻzlarga *leksik istorizmlar* deyiladi: omoch, choʻri, yuzboshi kabi. Istorizmlar tilning leksik tarkibidan tamoman chiqib ketmaydi, zarur payt-da nutqda qoʻllanib turadi, lekin eskirganligi, unutilganligi sababli maʼnosi koʻpincha izoh talab qiladi. Hozirgi oʻzbek tili leksikasi tarkibidagi batrak, amin, vasiqa, vaqarnoma, mudarris, charx, kansava, tanob, choriq, quloq kabi soʻzlar tarixiy soʻzlar – leksik istorizmlardir. Soʻz maʼnosi anglatgan narsa, voqea, hodisalar eskirmay, uning maʼnosida yangilanish yuz berib, oldingi maʼnosi istemoldan chiqsa, *semantik istorizm* deyiladi. Masalan, arbob – aristokrat, arbob – fan arbobi; saroy – podsho qarorgohi, saroy – sanʼat saroyi; vazir – podshoning oʻrinbosari, vazir – ministri; rais – shayxlar rahnamosi, rais – jamoa xoʻjaligi boshligʻi kabi. Eskirib isteʼmoldan chiqqan, oʻz ekvivalentiga ega boʻlmagan iboralarga *frazeologik istorizmlar* deyiladi [17]. Masalan, madrasa tuprogʻini yalamoq, tarki dunyo qilmoq holatlari hayotda mavjud boʻlmasa ham, ularning ifodasi tarixiylik sifatida saqlanib qolgan .

Jamiyat toʻxtovsiz rivojlanib boradi. Yillar oʻtishi bilan mehnat qurollari, kiyim-kechak, uy jihozlarining yangi nusxalari paydo boʻladi, eskilarining baʼzilari ishlatilmaydigan boʻlib qoladi, natijada ularni ifodalovchi soʻzlar ham bora-bora juda kam qoʻllanadi yoki isteʼmoldan chiqib ketadi. Masalan, qadimgi oʻzbek qatlamga tegishli ashu (qizil tuproq), ashuq (temir qalpoq, dubulgʻa), aqru (sekin) kabi soʻzlar eskirgan soʻzlardir. Demak, qadimda nutqda faol qoʻllanilgan, bugun esa kundalik hayotda ishlatilmay qolgan soʻzlar eskirgan soʻzlar deb atalar ekan. Tilshunoslikda eskirgan soʻzlar ikki guruhga ajratiladi: tarixiy soʻzlar; istorizmlar.

1) *tarixiy soʻzlar* – hozirda mavjud boʻlmagan narsa hodisalarning isteʼmoldan butunlay chiqib ketgan nomlaridir; bunda soʻz oʻzi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskiradi: onboshi, ellikboshi, kanizak, olampanoh, eshik ogʻasi, xalfa kabi.

2) *istorizmlar* – hozirda mavjud bo‘lmagan narsa-hodisalarning iste‘molidan butunlay chiqib ketgan nomlaridir; bunda so‘z eskiradi, lekin tushuncha eskirmaydi, boshqa so‘z bilan ifodalanadigan bo‘lib qoladi, bunday so‘zlar iste‘molidan chiqish arafasida turgan, hozirgi tilda sinonimi bo‘lgan so‘zlardir. Agar buni ona tilimizda ifodalaydigan bo‘lsak, qavs ichida hozirgi tildagi sinonimlari berilgan: rayon (tuman), ekspres (tezyurar), oblast (viloyat), vrach (shifokor), xirurg (jarroh), injener (muhandis), redaktor (muharrir), redaksiya (tahririyat), ulus (xalq), bitik (yozuv) va h.

Bizning fikrimizcha, ushbu materialni o‘rganayotganda, istorizmlar haqida bir necha so‘z aytish kerak, ya‘ni g‘oyib bo‘lgan narsalar, hodisalar, tushunchalar nomlari: qo‘riqchi, zanjirli pochta, jandarm, politsiyachi, va boshqalar.

Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo‘lib turadi, bu tilning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqadorlik ularning bir-biriga ta‘sirini belgilaydi — jamiyatda bo‘lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy- texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma‘rifiy sohalardagi islohotlar tilning lug‘at boyligida yangi-yangi so‘z va atamalarning yuzaga kelishini, ayni paytda ma‘lum so‘z-Iksemalarning eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanishini taqozo qiladi. Bu jarayon tilning lug‘at boyligida istorizm, arxaizm va neologizm kabi leksik birliklarni yuzaga keltiradi<sup>1</sup>.

Surxon elining atoqli adibi Shukur Xolmirzyev mahoratli yozuvchi sifatida o‘z asarlarida istorizmlardan unumli foydalangan.

“Yosh buxoroliklar” degan yoshlar davralari tashkil topibdi. Ular mamlakat idora usullariga isloh kiritish, chunonchi, usuli jadid maktablarini ochish, gazetalar chop etish, *qozilarni* ham saylash talablari bilan chiqishibdi va ushbu takliflar yozilgan bir maktubni *amir* nomiga ham yuborishibdi. Ushbu parchada qo‘llangan qozi va amir so‘zlari istorizm sanaladi. Amir - boshliq, hukmdor, hokim. Buxoroda va ba‘zi musulmon mamlakatlarida: xon, podsholik unvoni hamda shu unvon egasi.<sup>2</sup> Qozi arabcha so‘z bo‘lib, ijro etuvchi, hukm chiqaruvchi ma‘nolariga ega. Musulmon davlatlarida hukmdor tomonidan tayinlanib, shariat asosida sud vazifasini bajaruvchi, sudya, shar‘iy mahkama raisi sanalgan. Ba‘zi qozilar ilm bilan ham shug‘ullangan. Ba‘zan imomlik vazifasini ham bajargan.<sup>3</sup>

Boqi *saroybon* hazratning eski mijozi ekan. Kichkina, qirg‘iyburun bu kishi ikki bukilib, salom berdi. So‘ng hazratning etagini ko‘ziga surtib

— Toji sar, toji sar,— dedi.

Keyin *navkarlarga hujra* ko‘rsatib, ulovlarini *tim* ostiga opkirtirdi. Hazrat bilan Qurbonni shinam bir *xosxonaga* boshladi. Eshoni Sudur horigan, sahro shamoli yuzlarini qoraytirib tashlagan edi. U kishi tezda hammom qizitishni buyurdi-da, o‘rtadagi xontaxta yoniga tiz cho‘kdi. Fotiha o‘qishdi. So‘ng hazrat xo‘rsinib:

— Shaharda nama ahvol? O‘rdada nima gaplar? So‘zlang!.. Yegan-ichganingiz o‘zingizniki, ko‘rgan-bilganingizdan so‘zlang!— dedi.— Alhol biz poytaxtning ob-havosini bilaylik.

Parchada qo‘llangan saroybon forscha so‘z bo‘lib, saroyni qo‘riqlovchi qorovul sanaladi. Shu bilan birga, karvonlar va savdogarlar qo‘nadigan saroy egasi, qo‘riqchisi. Hujra arabcha so‘z bo‘lib, kishi yashaydigan kichkina xona, uycha ma‘nosini anglatadi. Bu so‘z ham bevosita tarix bilan bog‘liq. Xosxona so‘zi katta mansab egalari yoki hukumat boshlig‘i

<sup>1</sup> H. Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2005. 204-b.

<sup>2</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2006.

<sup>3</sup> Karimov Q. S. Turkistonda tarixan shakllangan qozilik mahkamalari faoliyatiga kiritilgan o‘zgarishlar (Qo‘qon PDI. Ilmiy xabarlar nashri), 2021. 150-53-b.

turadigan joy, saroy ma'nosiga ega. O'rda tarixiy so'z bo'lib, turkiy va mo'g'ul xalqlarida hukmdor, xon qarorgohi, qal'ani nomlab kelgan.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, istorizmlar bugungi kunda qo'llanmasa ham tarixiy asarlarni mutolaa qilish, ularni tadqiq qilish maqsadida ularni o'rganish lozim. Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad – muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib otgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, 2006.
3. Karimov Q. S. Turkistonda tarixan shakllangan qozilik mahkamalari faoliyatiga kiritilgan o'zgarishlar (Qo'qon PDI. Ilmiy xabarlar nashri), 2021.

### **LUTFIY IJODIDA OMONIMLAR**

#### **(Tuyuqlari misolida)**

*Fayzullayeva Navruza Amridin qizi,*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Lutfiy ijodida omonimlarning qo'llanilish uslubiyati shoirning tuyuqlari misolida o'rganiladi. Shu asosda hozirgi va eski o'zbek adabiy tilining mushtarak va farqli jihatlari ochib beriladi. Lutfiy ijodida omonimlarning o'rni yoritiladi.

**Abstract:** In this article, the method of using homonyms in Lutfiy's work is studied on the example of the poet's feelings. On this basis, common and different aspects of modern and old Uzbek literary language are revealed. The role of homonyms in Lutfi's work is highlighted.

**Аннотация:** В данной статье на примере чувств поэта исследуется прием омонимов в творчестве Лютфия. На этой основе раскрываются общие и различные стороны современного и староузбекского литературного языка. Подчеркнута роль омонимов в творчестве Лютфи.

**Kalit so'zlar:** Lutfiy ijodi, tuyuq janri, tajnis, leksik omonimlar, grammatik omonimlar.

**Key words:** Lutfiy's work, Tuyuk genre, tajnis, lexical homonyms, grammatical homonyms.

**Ключевые слова:** творчество Лютфия, жанр Туук, тажнис, лексические омонимы, грамматические омонимы.

XIV-XV asrlar o'zbek adabiyotini Lutfiy ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Navoiygacha bo'lgan davrda ijod qilgan Lutfiy adabiy merosini adabiyotshunoslar yuqori baholashadi: “*Alisher Navoiy ila musohaba etmish Hirot shahrida tug'ilmish mashhur shoirdir. XV asr melodiyning adabiyot bobida bo'lmish buyuk namoyandalaridandur. O'z zamonasining jahongashta olim shoiridur* “. [ 8 . 32]

Eski o'zbek adabiy tilining rivojida Lutfiy asarlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ikki tilda ijod qilgan shoir ijodiy merosi o'zining adabiy va xalqona til uyg'unligi o'laroq vujudga kelganligi bilan alohida ajralib turadi. Lutfiy ijodida so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlaridan mahorat bilan foydalaniladi. Buni birgina omonimlar misolida ko'rishimiz mumkin.

Mumtoz adabiyotimizda omonimlar shoirlar uchun keng ijodiy maydon yaratib bergan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki faqat o‘zbek mumtoz adabiyotidagina mavjud bo‘lgan tuyuq janri uchun tajnis sifatida omonimlar asos bo‘lib xizmat qiladi. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida omonimlar xususida so‘z yuritganda tuyuq janriga ham to‘xtalib o‘tadi: “ *Va bu ikki baytki, tajnisi tomdur, ham turk shuarosi xos sasidurki, sortda yo ‘qtur va muni tuyug‘ derlar*”. [ 1 . 14 ]

Lutfiy tuyuqlarida tajnis sifatidagi omonimlarning ma‘nolarini aniqlash u qadar oson kechmaydi. Buning uchun lug‘atlarning o‘zi kifoya qilmaydi. Bu borada mumtoz adabiyotga xos bo‘lgan tushunchalarga ham murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Quyidagi tuyuqda bu yaqqol namoyon bo‘ladi:

*Tuz, begim bu damda suhbat ko ‘kini,  
Tut ayoq, kes dard-u g‘amning ko ‘kini,  
Ilkingdin chiqsa boshqa bir ayoq  
Ko ‘zga ilmon dunyaning yer-ko ‘kini. [ 7 . 350]*

Tuyuqda tajnis sifatida ko‘k omonimi tanlangan. Ko‘k so‘zi misralarda quyidagi ma‘nolarda kelgan:

1-misrada: ko‘k – musiqa [ 5 . 149]

2-misrada: ko‘k – motam

4-misrada: ko‘k – osmon [ 5 . 149]

Bilamizki, mumtoz adabiyotimizda ranglar ma‘lum bir ramzlar o‘laroq xizmat qiladi. Yuqoridagi tuyuqning ikkinchi misrasida kelgan “ko‘k” so‘zi ham motam ma‘nosida kelgan. Bunda quyidagicha ma‘no kelib chiqadi: *Begim bu damda suhbat musiqasini tuzgin, qadah tutib dard-u g‘am motamini kesgin*. O‘z navbatida, to‘rtinchi misrada kelgan “ ko‘k” birligi “ yer” so‘zi bilan bog‘lanib ham antonimlik, ham omonimlik kasb etgan va bir o‘rinda tazod, tajnis san‘atini yuzaga keltirgan. Bu tuyuqda faqat tajnislarda emas, balki misralar ichida ham omonimlar ishtirokini ko‘ramiz. Ayoq so‘zi eski o‘zbek adabiy tilida omonim so‘z sifatida qaralgan:

Ayoq- I. Oyoq

II. Qadah, jom, may [ 3 . 47]

Bugungi kunda ushbu so‘z faqat shevalarimiz tarkibidagina saqlanib qolgan.

Quyidagi tuyuqqa e‘tibor qarataylik:

*Garchi qurutmas ko ‘zumning yoshini,  
Haq uzun qilsun ul oyning yoshini.  
Yig‘lama ko ‘p, bu vujudning ishq o ‘ti  
Ne qurug‘in qo ‘yg‘usi, ne yoshini. [ 7 . 350]*

Tuyuqqa tajnis sifatida “yosh” omonimi tanlangan. U anglatgan ma‘nolarga e‘tibor beraylik:

1-misrada: yosh- ko‘z yoshi [3 .544]

2-misrada: yosh- umr [ 3 . 544]

4-misrada: yosh- qarining antonimi

Aynan to‘rtinchi misradagi “ yosh” so‘zining ma‘nosini xuddi shu misrada qo‘llangan “ qurug‘” birligi orqali aniqlaymiz . “Qurug‘” so‘zi ko‘p ma‘noli bo‘lib, “ quruq” va “ qari, keksa” ma‘nolarida keladi. Lutfiy bu so‘zni birinchi misrada o‘z ma‘nosida, to‘rtinchi misrada esa ko‘chma ma‘noda qo‘llagan. To‘rtinchi misradagi “yosh” omonimi bunda qolgan



misralardagi “ yosh” ga nisbatan omonimlik, “ qurug” ga nisbatan antonimlik vazifasini bajargan. Umumiy mazmunga ahamiyat beraylik: *Garchi ko ‘zimning yoshini quritmasa ham, ul oyning, ya ‘nikim yorning yoshini Haq uzun qilsin. Ko ‘p yig ‘lamaki, bu ishq o ‘ti na keksani, na yoshni omon qo ‘yadi.*

*Qoshlaring xush lojuvardi toq erur,  
Husn ichinda benazir-u toq erur.  
Torta olmasman firoqing netayin,  
Qilcha tanga bori ishqing toq erur. [ 7 . 348]*

Ushbu tuyuqqa tajnis sifatida quyidagi omonim so‘zlar qalamga olingan:

1-misrada: toq- kamon shaklidagi har bir narsa [ 5 . 248]

2-misrada: toq- yolg‘iz, juftsiz, tengsiz [ 5 . 249]

3-misrada: toq- osmoq, bog‘lamoq [ 5 . 250]

Umumiy mazmun: *Qoshlaring kamon shaklidagi xush lujuvard, husn ichida yagona. Netayinki, firoqingni torta olmayman, (chunki) qildek tanga barcha ishqing bog ‘langan.*

*Tilasangkim, anbari tar sochasen  
El bila qilg‘ il ishorat socha sen.  
Shakkarafshon qil chamanda so ‘z ila,  
Infiol ber to ‘ti, bulbul, socha sen. [ 7 . 349]*

Tuyuqdagi omonim so‘zlar:

1-misrada: soch- sochmoq

2-misrada: soch- soch

3-misrada: soch- qush turi

Tuyuqda nafaqat leksik birliklarning , balki grammatik vositalarning ham shakldoshligi kuzatiladi. -a fe‘lga xos grammatik kategoriya bo‘lsa, 2- va 4- misralardagi -a otga xos bo‘lgan grammatik kategoriya sifatida omonimlik hosil qilgan.

*Ko ‘z yoshim tuproq ila gar qotila,  
Kelmagayman javridin, haqqo, tila.  
G ‘amzasi o ‘lturdi-yu ul bexabar,  
Men agar o ‘lsam ne g ‘am ul qotila? [ 7 . 348]*

Yuqoridagi tuyuqning birinchi va to‘rtincha misrasidagi “ qotil” birligi o‘zaro omonimlik hosil qilgan: qotil I – “ aralashmoq, qo‘shilmoq”; qotil II – “ o‘ldiruvchi”, “qatl qiluvchi” ma’nolarini anglatadi. Ammo hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu so‘zlar shakldosh hisoblanmaydi. Birlik birinchi ma’nosida iste’moland chiqqan.

Lutfiy tuyuqlarida yana quyidagi omonimlar ham uchraydi: *tosh I* – “ tosh”, *tosh II* – “ tashqi tomon”; *ter I* – “ ter bezlari ajratib chiqaradigan tiniq suyuqlik”, *ter II*- “ termoq, harakat” ; *dog ‘ I* – “ yara”, *dog ‘ II* – “ yana, tag‘in”, *dog ‘* – “otash”; *yoz I*- “ yozg‘irmoq, shikoyat qilmoq”, *yoz II*- “ fasl”, *yoz III* – “yozmoq, bitmoq” ; *bor I* – “ mavjud”, *bor II*- “ bormoq, harakat” ; *til I* – “ til, muloqot vositasi”, *til II* – “ tilamoq”, *til III* – “ tilmoq, jarohatlamog‘”.

Lutfiy ijodidagi omonimlarni o‘rganish turkiy tillarga xos omonimiya hodisasini izohlash, omonimlarning tarixiy ko‘rinishlari, omonimik munosabat turlarini yoritish, shakldoshlarning yuzaga kelish davrini aniqlashda ahamiyatlidir. Shoir ijodidagi omonimlarning ko‘pchiligi hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham aynan qo‘llaniladi, ayrimlari

shakldoshlik xususiyatini yo‘qotgan, ba’zilari esa shevalarimiz tarkibida hanuz qo‘llanilib kelmoqda. Ular asosan ot va fe‘l so‘z turkumlari doirasida yuzaga chiqqan. Bundan tashqari, grammatik vositalarning omonimligi ham leksik omonimlar bilan bir qatorda qo‘llanilganining guvohi bo‘lamiz. Lutfiy tuyuqlaridagi shakldoshlar tajnis san‘atini yuzaga chiqarish barobarida original tasvir hamda bir qancha badiiy san‘atlarga asos bo‘lganligini ko‘ramiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғотайн. Мезон ул-авзон. Тарихи анбиё ва ҳукамо. Тарихи мулуки Ажам. Арбаъин. Сирож ул-муслимин. Муножот. Рисолаи тийр андохтан. МАТ. 20 жилдлик. - Т. : Фан, 2000. Т. 16.-336 б.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. - Т.:Фан, 1983. Т. 1.- 656 б.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. - Т.:Фан, 1983. Т. 2.- 644 б.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. - Т.:Фан, 1983. Т. 3.- 624 б.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. - Т.:Фан, 1985. Т. 4.- 636 б.
6. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш., Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2008.
7. Лутфий. Сенсан севарим. Девон. – Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. -352 б.
8. Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т.: Ўқитувчи , 1995.-161 б.
9. Пўлатжон Домулла. Тазкираи Қайюмий. – Т.,1998. – 244 б .

#### **ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ УПРАЖНЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА**

**Каюмова Нодира Карим кизи,  
студентка 3- курса НавГПИ Узбекистан**

**Аннотация:** Статья содержит информацию о фразеологизмах, о методике преподавания фразеологизмов и ряд упражнений для изучения и закрепления данной темы.

**Ключевые слова:** фразеологизмы, содержательность речи, словарный запас, устойчивые сочетания, лексические единицы, лингвистические компетенции.

**Abstract:** The article contains information on phraseological units, on the methodology of teaching phraseological units and a number of exercises for studying and consolidating this topic.

**Keywords:** phraseological units, content of speech, vocabulary, winged expressions, lexical units, linguistic competencies.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iboralar haqida ma'lumotlar, o'quv jarayonlarida iboralarning ishlatilishi, iboralarni o'rganishga oid mashqlar va mustahkamlash uchun topshiriqlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** iboralar, nutq boyligi, so'z boyligi, barqaror birikmalar, leksik birikmalar, lingvistik asoslanganlik.

Речь, беседа, любой вид общения издавна ценятся за содержательность, они имеют внутренний смысл. Содержательность речи зависит от степени умственного развития говорящего, от его интеллекта. Грамотная речь является одним из главных показателей образованности человека. Она совершенствуется всю жизнь, но особенно продуктивно в школьный период. От развития речи учащихся зависит успешность обучения по всем предметам. Поэтому главной задачей учителя является вызвать интерес к звучащему слову; научить пользоваться им; подготовить детей к совершенствованию речи.

В решении этих задач нам помогает фразеология – это раздел науки о языке, в котором изучаются фразеологизмы. Фразеологизмы это - устойчивые словосочетания, равные по своему значению либо одному слову, либо целому предложению. Например, «бить баклуши»- бездельничать, «работать засучив рукава» – работать усердно.

Употребление фразеологизмов в речи говорит о богатстве словарного запаса говорящего, делает речь ярче и выразительнее. Ведь как сказал В.Г. Белинский «Фразеологизмы, составляют народную физиономию языка, его оригинальные средства и самобытное, самородное богатство».

Практическое усвоение фразеологических единиц и других лексических явлений обогащает словарный запас учащихся, что служит основой работы по стилистике и ярким материалом для развития всех видов речевой деятельности.

Упражнения с фразеологизмами – это упражнения, составленные на специальном образом скомпонованном фразеологическом материале. Они направлены на повторение и закрепление изученных тем по русскому языку параллельным взаимосвязанным развитием речемыслительной деятельности школьников. Упражнения с фразеологизмами имеют определённую структуру, которая включает основное задание, исходный языковой учебный материал и ряд дополнительных заданий.

Основное задание связано с изучаемой на уроке темой русского языка и направлено на её закрепление на новом фразеологическом материале. Основное задание может предлагаться в сформулированном учителем варианте. Возможно самостоятельное формулирование задания учащимися. Самостоятельное формулирование заданий способствует активизации речемыслительной деятельности учащихся. Школьники проводят полный лингвистический анализ представленного исходного языкового учебного материала с учётом темы урока, ориентиров, справки с последующим синтезом их в формулировке задания. В ходе такой работы у школьников наблюдается высокая сосредоточенность внимания, наблюдательности, активизируется произвольная память. И, как правило, в ходе аналитического ознакомления с исходным языковым учебным материалом, справкой, ориентирами и пр. ещё до формулирования задания учащиеся выполняют большую часть работы в устной форме. Самостоятельно сформулированное задание служит важным показателем, который позволяет судить о наличии у школьников необходимых языковых знаний, умений (лингвистических компетенций) для его выполнения. Во время самостоятельного формулирования основного задания учащиеся опираются на тему урока и определённые ориентиры. К таким ориентирам относятся: условные обозначения, таблицы, шифры, пропущенные буквы и слоги; буквы, заключённые в скобках [1].

Можно привести несколько упражнений по изучению данной темы.

#### **№1. Установите соответствие.**

1) Служить верой и правдой –	Поразить очень сильно
2) Оказаться (быть) между двух огней –	Служить (честно) преданно.
3) Поразить до глубины души –	Мчаться стремительно
4) Добиться любой ценой –	Дурачить, обманывать.
5) Мчаться сломя голову –	Согласиться с (большой) неохотой
6) Промокнуть до нитки –	Говорить чистосердечно
7) Трудиться бок о бок –	Добиться любыми средствами
8) Согласиться скрепя сердце –	Трудиться, работать вместе, совместно
9) Говорить по локоть в руку на сердце –	В трудной ситуации.
10) Оставить с носом –	Промокнуть насквозь

**Ответы:** 1-Б, 2-И, 3-А, 4- Ж, 5-В, 6-К, 7-З, 8-Д, 9-Е, 10-Г.

**№2. Закончите фразеологизмы.**

Хитёр как...	Заяц
Белая ...	Гусь
Труслив как...	Осёл
... лапчатый	Рыба
Изворотливый как...	Ворона
Надут как...	Уж
Нем как...	Лиса
Упрям как...	Волк
Голоден как...	Индюк

**Ответы:** 1- Ж, 2-Д, 3-А, 4-Б, 5-Е, 6-И, 7-Г, 8- В, 9-З.

**Литература**

1. Бакулина Г. А. Субъективизация процесса обучения русскому языку в начальной школе. – Киров: Изд-во ВГПУ, 2000. – С. 216.
2. Молотков А.И. Фразеологический словарь русского языка- Москва: Изд-во советская энциклопедия, 1968.

**TIL SIYOSATI – DAVLAT SIYOSATINING BIR KO‘RINISHI**

*Abdullayeva Aziza Kamolovna,  
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy  
kommunikatsiyalar universiteti talabasi*

*Annotatsiya. Dunyo tarixida til siyosatining yuritilishi va bugungi kunda til siyosatiga berilayotgan e’tibor xususida so‘z boradi.*

*Kalit so‘zlar: qadimgi Yunoniston, qadimgi Rim imperiyasi, davlatchilik, til siyosati, xalqaro tillar, millat tili.*

*Аннотация. Речь идет о проведении языковой политики в мировой истории и о том внимании, которое уделяется языковой политике сегодня.*

*Ключевые слова: Древняя Греция, древняя Римская империя, государственность, языковая политика, международные языки, язык нации.*

*Annotation. We are talking about the implementation of language policy in world history and the attention paid to language policy today.*

*Keywords: Ancient Greece, ancient Roman Empire, statehood, language policy, international languages, the language of the nation.*

Tarixga nazar tashlasak, qudratli bo‘lishga intilgan davlat o‘z tilini mustahkamlashga, keng yoyishga va hatto majburan o‘rnatishga harakat qilganligini ko‘ramiz. Demak, til siyosati davlat siyosatining ajralmas va eng muhim qismi sanalib kelingan. Qadimgi Yunoniston va qadimgi Rim imperiyasini bunga misol qilish mumkin. Bo‘lmasa, davlatchilikni mustahkamlash shart bo‘lgan bir paytda, insoniyat kurashlar zaminida, qiyinchilik zamonida yashagan bir vaqtda ilm-fanga, masalan, tilshunoslik fanini rivojlantirishga e‘tibor qaratishining nima keragi bor edi?

Bilamiz, Aleksandr Makedonskiy ko‘plab harbiy yurishlar qilgan, Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlari juda katta hududni o‘z ichiga olgan. Yurishlar davomida O‘rta Yer dengizi, O‘rta Sharq, Qora dengiz atroflari hamda hozirgi Yevropa mintaqalariga grek madaniyati, ilm-fani tarqalgan, hatto Sharq madaniyati bilan qo‘shilib ketib, aralash madaniyat ellinizmni vujudga keltirgan. Aleksandriya ellinizm madaniyatining va ilm-fanning eng yirik markaziga aylantirilgan, uning nomi bilan bog‘liq qadimgi yunon tilshunosligi davri Iskandariya davri deb ham yuritiladi. Madaniyat, ilm-fanning rivojlanishi davlat hukmdorining e‘tibori o‘laroq rivojlangan. Harbiy yurishlar natijasida to‘plangan 700 ming jildga yaqin nodir asarlar olamshumul Aleksandriya kutubxonasining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan, kutubxonadagi nodir asarlarni o‘rganish uchun esa olimlar kerak, bu Aleksandriya maktabining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Mil. av. III-II asrlarda Iskandariya maktabida tilshunoslar ham faoliyat olib borishgan va grammatika maktabi vakillari tomonidan yunon tili grammatikasi yozilgan. Bu keyinchalik Qadimgi Rimda lotin tilshunosligining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan. *Iskandariya tilshunoslik maktablari vakillari grammatikani mustaqil fanga aylantirganlar. Ilm-fanga yo‘naltirilgan e‘tibor davlat siyosati tanlagan to‘g‘ri yo‘l edi. Davlat mustahkamligiga qanday e‘tibor qaratilsa, til siyosatiga ham undan kam e‘tibor berilmay qolmagan.*

*Aynan bunday siyosat qadimgi Rim hukmdorligi davrida ham olib borilgan.* Lotin tilidagi eng qadimgi yodgorliklar miloddan avvalgi III asrga mansub. Miloddan avvalgi 8-asrda Italiyaning Latsiy viloyatida yashagan qabila tilining keng yoyilishi harbiy yurishlar bilan bog‘liq. Davlat bosqini shu darajaga yetganki, lotin tili qadimgi Italiyaning boshqa tillarini siqib chiqarishi miloddan avvalgi IV-III asrlarga to‘g‘ri keladi. Imperiyaning gullab-yashnashi, mustamlakalarning kengayishi lotin tili Shimoliy Afrika, Ispaniya, Galliya, Germaniya, Dunaybo‘yi hududlariga tarqalishiga olib kelgan. Aynan siyosiy boshqaruv sabab lotinlashuv yuzaga kelgan.

*Hatto davlat boshliqlari ham tilga oid asarlar yozganlar. Eramizdan ilgarigi 100-44-yillarda yashagan qadimgi Rimning taniqli davlat arbobi, lashkarboshisi Yuliy Sezar o‘sha davr an‘anasiga ko‘ra mashhur notiq ham bo‘lgan. Yu.Sezar lotin tili haqida «Analogiya haqida» nomli grammatik asarini yozgan.*

*Bugun yer yuzida mavjud barcha davlatlar ko‘p millatli davlat bo‘lib, yagona fuqarolik ostida yashaydi, ularni davlat tili yagona fuqarolik ostida jiplashtiradi. AQShning rasmiy tili to‘g‘risidagi qonunining 162-moddasida ingliz tili Amerika Qo‘shma Shtatlari hukumatining rasmiy (davlat) tili ekanligi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, qonunda Amerika*



*Qo'shma Shtatlari barcha fuqarolarni o'zlarining jismoniy va aqliy qobiliyatlari doirasida ingliz tilida o'qish, yozish va gapirishga da'vat qilishi belgilangan. Yoki ingliz tilining dunyoga keng yoyilishida Britaniyaning siyosati yotibdi. Hindiston Britaniya mustamlakasida bo'lgan, mustaqil bo'lgach, 1949-yilda qabul qilingan konstitutsiyasida ingliz tili 15 yil davomida rasmiy til bo'lib qolishi, undan keyin hind tili rasmiy til bo'lishini belgilab qo'ygan.*

Bugun tillarning keng yoyilganlik darajasi, kuchli rivojlanish, dunyoviy ta'sir, bu tilda so'zlashuvchilarning ko'pligi yoki ko'plab davlatlarda rasmiy til sifatidagi nufuzga egaligi inobatga olinib, BMT tomonidan 6 ta rasmiy ish tili – ingliz, arab, xitoy, fransuz, rus va ispan tillari qayd etilgan. BMTning YuNESKO tashkilotining 2010-yilda qabul qilgan qaroriga asosan mazkur tillarning har biri uchun xalqaro til kuni belgilab qo'yilgan. 20- mart – xalqaro fransuz tili kuni, 20-aprel – xalqaro xitoy tili kuni, 23-aprel – xalqaro ingliz va ispan tili kuni, 6-iyun – xalqaro rus tili kuni, 18-dekabr – xalqaro arab tili kuni, deb e'lon qilingan.

1999-yil 17-noyabr kuni esa YuNESKO tomonidan 21-fevral – **Xalqaro ona tili kuni** deb e'lon qilingan va 2000-yildan boshlab nishonlanib kelinadi,

Tarixga nazar solsak, tillar uchun kurash zamirida davlat mustaqilligi uchun kurash yotadi. Bu millatning qadriyati uchun, or-nomusi uchun kurash demakdir. BMT xalqaro tashkiloti Bosh Assambleyasi 2008-yilni Xalqaro tillar yili deb e'lon qilgan. Izohlanishicha, bunga sabab 1952-yil 21-fevral kuni Bangladesh poytaxti Dakkada talabalar o'z ona tili – bengal tilini mamlakatning davlat tillaridan biri sifatida tan olishlarini so'rab namoyishga chiqishgan va politsiya tomonidan uzilgan o'qlardan bir necha talaba halok bo'lgan.

*Millatimizning buyuk ishonchi bo'lgan o'zbek tilining davlat tili sifatida qaror topishi ham yurt fidoyilarining asriy orzusi, kurashi natijasi bo'ldi. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tili, o'z-o'zidan davlat tiliga aylanmadi. Bu til ulug' ajdodlarimiz tilida necha o'n asrlar mobaynida jaranglab, go'zallashib buguniga yetib kelgan. Hukumatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrda "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5850-sonli, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6084-sonli farmonlarining qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorining qabul qilinishi til siyosatining yorqin ko'rinishi bo'lib, o'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqeyini oshirishga qaratilganligini ko'rsatadi.*

2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida dunyodagi va mintaqadagi muammolar xususida O'zbekistonning siyosiy yondashuvini o'zbek tilida aniq va teran yoritib berdilar. Prezidentimiz 2023-yil 19-sentabrda *BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida ham huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo'lmish Yangi O'zbekistonni barpo etish siyosatini qat'iy davom ettirayotganimizni o'zbek tilida so'zladilar. O'zbek tili bugun davlatimizning Bosh Qomusi bilan, davlat tili to'g'risidagi qonun bilan ham qattiq mustahkamlangan.*

Davlat tilining mustahkamligi uchun amalga oshirilayotgan amaliy ishlar talay. Masalan, [my.gov.uz](http://my.gov.uz) portalida "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash" xizmatining ishga tushirilayotganligi, endi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish jarayonida Davlat tilini bilish darajasini aniqlash hamda malaka sertifikatini olish uchun imtihondan o'tishlari belgilanmoqda.

Yozuv, shu tilning tarixga muhrlanishi, kelajagi garovidir, bugun turkiy tilli davlatlar rahbarlarining mushtarak alifbo atrofida birlashishga qaratilgan harakatlari turkiy tillarning ijtimoiy-siyosiy sahnadagi o‘rnini mustahkamlashga, xalqlar birlashuviga tashlangan dadil qadamdir.

*Davlat tili maqomida bo‘lgan til nafaqat qonun bilan mustahkamlanadi, balki davlat mustaqilligini mustahkamlaydi, rivojlanish strategiyasini belgilaydi, keng yoyiladi. Til shu millatning tafakkurini, ma’naviyatini olamga yoyadi. Bugungi globallashuv davrida rivojlangan va rivojlanish yo‘lida ketayotgan davlatlar tilga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratishgan. Chunki til shu davlatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarida faol qo‘llanadi, xalqaro minbarlarda baralla yangraydi, biz bugun bunga shohid bo‘lib turibmiz.*

## XALQARO BETARAFLIK

### *FARMONOV SUNNATILLO UTKIR O‘G‘LI* *Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada betaraflik tushunchasiga oid tegishi masalalar muhokama qilinadi. Neytrallik e’lon qilgan mamlakatlar qaysilar, ularning tashqi siyosati qanday olib boriladi, bu pozitsiyani mustahkamlovchi tegishli hujjatlar tahlil qilinadi. Jahon sahnasida O‘zbekistonning tutgan o‘rni masalasi ham muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** betaraflik, neytrallik, xalqaro taskilot, harbiy, mamlakat, tashqi siyosat.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы, связанные с понятием нейтралитета. Какие страны заявили о нейтралитете, как проводится их внешняя политика, анализируются соответствующие документы, закрепляющие эту позицию. Также будет обсужден вопрос места Узбекистана на мировой арене.

**Ключевые слова:** нейтралитет, нейтралитет, международная организация, военные силы, страна, внешняя политика.

**Annotation:** The article discusses issues related to the concept of neutrality. Which countries have declared neutrality, how their foreign policy is conducted, relevant documents that strengthen this position are analyzed. The issue of Uzbekistan's place on the world stage will also be discussed.

**Key words:** neutrality, neutrality, international organization, military, country, foreign policy.

Neytrallik nima? Neytrall davlatlar qanday yashaydi? Hozirda globallashayotgan dunyoda bu kabi tushunchalarni ko‘p ham eshitavermaymiz. Ommaviy axborot vositalari har kuni qaysidir mintaqada mojarolar, mamlakatlar to‘qnashuvi, siyosiy qarama-qarshiliklar yuzaga kelayotgani haqida habar berib borishadi. Bir tomonda g‘arb mamlakatlari Shimoliy Ittifoq bilan birga bo‘lishsa boshqa tomonda esa Rossiya siyosatini qo‘llab quvvatlovchilar jahon siyosati deb atalmish shaxmat taxtasida saf tortishadi. Ammo shunday mamlakatlar borki ular hech qaysi ittifoq, davlatlararo harbiy tashkilotlar tarafda emas. Ular buyuk davlatlar manfaatlari o‘rtasida qurbon bo‘lib qolishini xohlashmaydi va xalqaro tinchlik, xavfsizlikni ta’minlash vositasi bo‘lgan betaraflik shaklini e’tirof etishadi.

Neytrallik lotinchadan tarjima qilinganda “na biron, na boshqasi” degan ma’noni anglatadi. Aslini olganda xalqaro huquqda betaraflikning o‘zi ham ikkiga bo‘linadi. Urush paytidagi betaraflik va doimiy betaraflik. Birinchisida neytrallik maqomi, davlat urushda betaraf ekanligini e’lon qilganda va bu haqidagi bayonotni bir-biri bilan kurash olib borayotgan tomonlarga yetkazgan paytda paydo bo‘lishi tushiniladi. Neytral mamlakat

hududida taraflarning harbiy qo'shin va birlashmalarining bo'lishi taqiqlanadi shuningdek bu qoidani buzilishiga nisbatan harakatlar kuch orqali qaytarilishga haqli hisoblanadi. Buning sababi neytrallik xalqaro huquq instituti bo'lib, avvalo, u davlatlarni qurolli mojarolar bilan bog'liq falokatlardan himoya qilish vositasi hisoblanadi. Biroq urush payti o'zini betaraf hisoblagan mamlakatlarning taqdiri har doim ham ijobiy bo'lavermagan. Masalan ikkinchi jahon urushida Belgiya o'zini betaraf deb e'lon qilishiga qaramay Germaniya tomonidan bosib olingan. Turkiya esa betaraflik mezonini buzgan holda nemis qo'shinlarini o'z hududidan foydalanishga imkon bergan. Doimiy betarflikka ta'rif beradigan bo'lsak, bu davlatning xalqaro huquqiy maqomi bo'lib, qurolli harakatlarga qo'shilmaslik va harbiy blok, ittifoqlarga kirmaslik majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Ancha yillardan beri o'z neytralligini doimiy saqlab kelayotgan mamlakat sifatida esa biz Shvetsariyani ko'rishimiz mumkin.

1815-yilda Vena Kongressida Buyuk kuchlar tomonidan bu davlatning betarfligini tan olish va kafotlashlash to'g'risida deklaratsiya imzolanadi va o'sha yilning o'zidayoq Parijda tasdiqlanadi. 1848-yilda betaraflik pozitsiyasi Shvetsariya konstitutsiyasida mustahkamlanadi. Xo'sh bir necha asrlar davomida Shvetsariya neytrallik tozaligiga qay darajada amal qilgan? 1996-yilda mamlakatning 2-jahon urushi davridagi rahbariyati va moliyaviy doiralarning fashistlar o'rtasidagi aloqalari to'g'risida shov-shuvli da'volar kelib chiqdi. Shvetsariya banklarining seyflarida fashistlarning kapitallari, genodsitga uchragan yahudiylarning oltinlari aniqlangan. Shunga qaramay hozirgi vaqtda Shvetsariya neytral maqomi sababli BMTning yevropadagi markazi hisoblanadi. JJST, XMT kabi tashkilotlarning shtab kvartiralarini uning hududida joylashgani buning isboti o'laroq yaqqol namoyon bo'ladi. Ammo xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlar bu bilan cheklanib qolmaydi. Shvetsariya armiyasi NATO mamlakatlari armiyalari bilan harbiy kadrlarni tayyorlash va qurollarni standartlashtirish bo'yicha hamkorliklarni olib borish bilan bir qatorda Shimoliy ittifoq buyurtmalarini bajaradigan qurol ishlab chiqaruvchi firmalarni hududida joylashtirgan. Bu holatni esa betaraflikning moslashuvchanlik talqini sifatida e'tirof etishadi. Yevropada betaraf mamlakatlar faqatgina Shvetsariyadan iborat bo'lmay Avstriya, Shvetsiya, Lixtenshteyn ham shu qatorga kiradi. Lekin inobatga olishimiz kerakki, Yevropa ittifoqining a'zosi hisoblangan ayrim mamlakatlarning betarfligi prinsipi shubhali ko'rinadi. Boisi shundaki, YI da yagona tashqi siyosat qo'mitasi mavjud. Bu degani YI u yoki bu masalada baribir davlatlarning tashqi siyosatida qandaydir darajada o'z ta'siriga ega.

Neytrallik maqomini olganlar qatoriga nafaqat demokratik tamoyillar asosida rivojlangan g'arb davlatlarini balki o'zining gaz zaxirasi bilan mashhur bo'lgan va zotdor tulporlari orqali dunyoga tanilgan, O'rta osiyo hududida joylashgan Ikkinchi yirik davlat Turkmanistonni ham misol keltirish mumkin. Doimiy ravishda betaraflik siyosatini yuritish va bu maqomni olish haqida, SSSR parchalangandan so'ng ko'plab post sovet mamlakatlari tomonidan g'oyalar ilgari surildi. Ammo endigina mustaqillikka erishgan yosh davlatlar uchun bu g'oya iqtisodiy-siyosiy masalalarga ko'ra amalga oshmay qoldi. Ular uchun investitsiya va xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar, avvalo eskirgan mafkuradan chiqish va modernizatsiya uchun muhimroq edi. Qo'shni mamlakat Turkmaniston esa siyosiy vaziyati o'ta beqaror bo'lgan mamlakatlarga yaqin bo'lganligi (xususan Afg'oniston, Eron bilan) va o'zining geosiyosiy mavqei tufayli aynan shu siyosiy pozitsiyada turishni foydali hisobladi. Turkman siyosiy doirasining bu mexanizmni tanlashi tabiiyki jahon hamjamiyati uchun kutilmagan yangilik edi. Chunki endigina kommunistik davlat boshqaruvidan chiqqan tizimning bu yo'lni tanlashi anchayingina o'zgacha holat edi. 1995-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi "Turkmanistonning doimiy betarfligi" rezolutsiyasini qabul qildi. Bu voqeaning e'tiborga oladigan jihati shundaki betarfligi BMT tomonidan ma'qullangan mamlakat sifatida birinchi

davlat bo‘lib tarixga kirganligida. Turkmanistonning yopiq siyosati tufayli bu diyorga kirish qiyinchilik tug‘diradi va xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlar u qadar yaqin ham emas. Shunga qaramay hukumat o‘z fuqarolariga 2019-yilgacha tabiiy gaz, elektr va suv resurslari uchun to‘lovlarni bepul qilib qo‘ygan edi. Bu esa ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlar aholisining iqtisodiy tomondan Turkmaniston fuqarolariga havas qiladigan jihati desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Turkmaniston Respublikasi prezidenti Serdar Berdimuhamedov betaraflik siyosatiga quydagicha ta’rif bergan:”Turkmaniston dunyoning barcha davlatlari bilan yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro hurmat, teng huquqlilik va o‘zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan betaraflik siyosatini davom ettiradi. Davlatimiz betarfligining huquqiy maqomidan kelib chiqadigan asosiy tamoyillar, ya’ni global tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash. xavfsizlikni ta’minlash, yaxshi niyatga asoslangan do‘stlik va qardoshlik munosabatlarini kengaytirish, sayyoramizda barqaror rivojlanish mustaqil Turkmaniston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib qoladi.” Ko‘rinib turibdiki betaraf mamlakatlarning tashqi siyosatdagi prinsipi urush va mojarolardan qochish, boshqa davlatlarning bu pozitsiya orqali ishonchini orttirishdan iborat.

Dunyo va O‘zbekiston. Oxirgi 7 yilda o‘rta osiyoning markazida joylashgan O‘zbekistonning yaqin qo‘shnilari va jahon mamlakatlari orasidagi munosabatlar ancha yaxshilandi. Chet davlatlar bilan pragmatik siyosatning foydasi katta bo‘ldi. Sanksiyalar birin-ketin olib tashlandi, sarmoyalar kiritildi. Ammo bunga yarasha talablar ham ortdi. Inson huquqlarini ta’minlash, so‘z erkinligini yaratish shular jumlasidan. Xalqaro tashkilotlar tomonidan yurtimizni jahon hamjamiyati oldida qanday o‘zgarayotganini tekshirish uchun o‘z faoliyatlarini amalga oshirmoqda va hisobotlar keltirmoqda. Dunyoda sodir bo‘layotgan Tayvan-Xitoy ziddiyati, Ukraina-Rossiya urushi, G‘azo mintaqasidagi qarama-qarshiliklar esa istalgan suveren davlatdan mustaqil munosabat talab qiladi. Afg‘onistondagi hukumatning o‘zgarishi esa bizni har qadamda ertani jiddiy o‘ylashga chorlaydi. Bu kabi mojarolarda tomonlar o‘z tarafdorlarini yig‘ishga harakat qiladi. U holda savol tug‘iladi. O‘zbekiston kim tomonda?

2022-yilning 17-mart kuni Oliy Majlisning yalpi majlisida o‘sha vaqtdagi tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov Ukrainadagi inqirozli vaziyat va bu borada O‘zbekistonning pozitsiyasi bo‘yicha bayonot berdi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Ukraina hududiy yaxlitligini va suverenitetini tan oladi va Donbassdagi o‘zini o‘zi mustaqil deb e’lon qilgan respublikalarni tan olmaydi. Kimlardir buni olamshumul, kutilmagan, boshqalar esa O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosat borasidagi o‘z pozitsiyasini yana bir bor tashqi dunyoga eslatdi deyishdi. Agar respublikamizning yosh tarixiga nazar tashlasak bu kabi holatlar oldin ham sodir bo‘lganligiga ishonch hosil qilamiz. Masalan, 2000-yillarning boshida tashqi siyosatda g‘arb davlatlariga hayrixohlik qolaversa Afg‘onistondagi keskin vaziyat tufayli Aqsh bilan aloqalar yanada kuchaydi. 2001-yilda O‘zbekiston Qashqadaryoda Amerika harbiy bazasini joylashtirishga ruxsat berdi. Rossiya rasmiy doiralari esa bu borada ular bilan maslahatlashish lozimligi haqida murojaatlar yuborishadi. Bu signallarga esa O‘zbekistonning rasmiy vakillari (TIV) “O‘zbekiston mustaqil va suveren davlat. Bunday qarorlarni o‘z milliy manfaatlariga tayangan holda qabul qiladi” deya javob beradi. Ammo Aqsh harbiy bazasi ham milliy manfaatga asoslanib keyinchalik chiqarilib yuborildi.

Konstitutsiyaning “Tashqi siyosat” bobi 17-moddasida O‘zbekistonning tashqi siyosat prinsiplari keltirib o‘tilgan. Ulardan biri davlatlarning suveren tengligi prinsipi bo‘lib bu prinspga Ukraina-Rossiya ziddiyati fonida amal qilinganligini yuqoridagi bayonot orqali guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bunga yana bir misol sifatida G‘azo sektoridagi muammo haqidagi prezident nutqini keltishimiz mumkin.



“Biz Falastin xalqi bilan birdam ekanligimizni qat’iy bildiramiz va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasida va Xavfsizlik kengashining ilgari qabul qilingan rezolutsiyalariga muvofiq o‘z mustaqil davlatini barpo etishga bo‘lgan huquqini qo‘llab-quvvatlaymiz”,-dedi prezident Shavkat Mirziyoyev. Konstitutsiyaning 18-moddasida O‘zbekiston davlatlar va Xalqaro tashkilotlar bilan tinchliksevar tashqi siyosat olib borishi qayd etilgan. Davlat rahbarining har ikki tomonni gumanitar maqsadlarda murosaga kelishiga chaqirishi konstitutsiyaviy prinspga mos tushadi. Shuningdek G‘azo sektoridagi aholiga yordam ko‘rsatish uchun BMT Yaqin Sharq agentligiga 1.5 milion dollar ajratilishi tinchliksevar siyosatning yaqqol isboti o‘laroq xizmat qiladi.

Biz O‘zbekistonning tashqi siyosatdagi pozitsiyasi ancha muhokama qilishimiz mumkin. Harbiy bloklarga qo‘shilmasligi, o‘z hududida chet el harbiylarini saqlamasligi, tinchliksevar tashqi siyosat olib borishi va mamlakatlar bilan keng miqyosda munosabatlar olib borishi. Yaqinda bo‘lgan sammitlar va uchrasuvlar bunga misol.

Jak Moreyo ta’kidlaydi “Barchaning ishonchini saqlab qolish uchun Harakat qurolli mojarolarda kimningdir tomonini ololmaydi va siyosiy, irqiy, diniy yoki mafkuraviy tusdagi nizolarga qo‘shila olmaydi”. Aynan bir davlatga ishonish esa pand berib qolishi mumkin. Chunki, har bir davlat avvalo o‘z milliy manfaati uchun harakat qiladi. Tarixan misol keltiradigan bo‘lsak birinchi jahon urushida Italiya dastlab Germaniya tomonda jang qilgan ammo nemis diplomatlarining qay bir ma’noda siyosiy o‘yindagi mag‘lubiyati sabab Italiya g‘alabasi aniq bo‘lgan Antanta ittifoqi tarafiga katta va’dalar evaziga o‘tib ketgan. Shuning uchun xalqaro tinchlikni saqlab qolish vositasi sifatida betaraflik yoqlanadi.

## **BERDAQ SHE’RIYATIDA FE’LGA XOS GRAMMATIK FORMALAR PRAGMATIKASI**

**Gulandom Nematullayeva**  
**NavDPI tayanch doktoranti**

***Annotatsiya:** Maqolada fe’lga xos zamon va mayl qo‘shimchalarining pragmatik xususiyatlari Berdaq she’rlari misolida tahlil qilindi.*

***Kalit so‘zlar:** pragmatika, badiiy asar, poetik matn, zamon formasi, o‘tgan zamon, buyruq-istak mayli, grammatik ma’no.*

***Аннотация:** В статье были проанализированы прагматические особенности глагольных времен и склонительных суффиксов на примере стихотворений бердака.*

***Ключевые слова:** прагматика, художественное произведение, поэтический текст, форма времени, прошедшее время, повелительное наклонение, грамматическое значение.*

***Abstract:** The article analyzes the pragmatic features of verb tenses and declensive suffixes using the example of Berdak's poems.*

***Keywords:** pragmatics, artwork, poetic text, tense form, past tense, imperative mood, grammatical meaning.*

Amaliy tilshunoslikning inson ijtimoiy faoliyatining muhim jihati sanaluvchi pragmatika nutqiy jarayonni kommunikativ maqsad va nutqiy vaziyat bilan uzviy bog‘liqlikda, so‘zlovchining nutqiy strategiyasi, tinglovchiga ta’siri nuqtai nazaridan o‘rganadi. Pragmalingvistikaning asosiy maqsadi nutqning tinglovchiga ruhiy, kommunikativ



ta'sirchanligini oshirishdir. Shuning uchun pragmalingvistika nutqning lisoniy va nolisoniy omillari, faoliyatning samarasi orasidagi munosabatlarni o'rganish va muayyan sharoitlarda bu mutanosiblikning samarali usullarini ishlab chiqish kabi masalalarga e'tibor qaratadi.<sup>1</sup>

Badiiy asar mazmunining pragmatik xususiyatlarini ochib berishda tilning ifoda-tasvir vositalaridan unumli va o'rinli foydalanish ijodkordan sinchikovlik va katta mahorat talab qilishi tabiiydir. Bundan ma'lum bo'ladiki, sintaktik qurilma ifodalagan propozitsiyaning so'zlovchi va tinglovchiga tushunarli bo'lishi uchun nutq vaziyatida yoki kontekst zarur bo'lgan joyda pragmatik ehtiyoj yuzaga keladi. Bunday paytda nutqiy akt, predikativ bo'lmagan so'zlar, nutqiy vaziyat, so'zlovchi shaxsi kabi tushunchalar lingvistik paradigmaning asosiy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Grammatik formalarning pragmatik xususiyatlari turkiy tillar uchun ahamiyat kasb etadi, masalan zamon va mayl grammatik ma'nolari bir-biri bilan shu darajada zich bog'langanki, bir qarashda ularni bir-biridan ajratish, birini ikkinchisidan ayro tasavvur qilish mumkin emas. Grammatik ma'no morfologik sathda har bir shaklning ma'lum bir morfologik kategoriya doirasida ma'nosi, masalan, zamon, mayl sifatida yuzaga chiqsa, sintaksis doirasida predikativlik, so'z birikmasidagi hokim va tobe qismlarning, gap bo'laklarining bir-biriga o'zaro munosabati sifatida namoyon bo'ladi. «Zamon va mayl kategoriyalari shaxs-son va tasdiq-inkor kategoriyalari bilan bir butunlikda kesimlik kategoriyasini tashkil etadi. Bu kategoriyalarning o'zaro zich aloqadorligi va dialektik yaxlitligi bu kategoriyalarning har biriga mansub shakllarni, ularning kategorial va nokategorial ma'nolarini izchil farqlashni qiyinlashtiradi. Shu boisdan ko'plab tadqiqotlarda zamon shakllari mayl kategoriyasi ma'nolaridan bo'linmagan holda tadqiq etiladi va kategoriyalararo bog'liqlik barcha tilshunoslar tomonidan tan olinadi».<sup>2</sup>

Quyidagi ko'rinishda kelasi zamon, xabar mayli «niyat, maqsad» ma'nosini namoyon qilgan:

*Oyshyl jaqsyl jigit bilimpaz keler,  
Aytqan gaplerine tysimpaz keler,  
Aqylsyzdyñ qasiyeti az keler,  
Aqtaqlar hesh xyzmet yetpes xalыq ushyn.*

Shaxs voqea-hodisaning yuz berganligiga bevosita guvoh bo'lgan holatda o'tgan zamon, xabar mayli «bevosita ko'rganlik» ma'nosini yondosh ma'no sifatida hosil qilgan:

*Kimseler haddен zor boldы,  
Birazlar shyñnan xor boldы,  
Lashыng'a qurg'an tor boldы,  
Tordы heshkim yzgen yemes.*

So'zlovchi «bevosita ko'rgan» voqelik yaqin o'tgan zamonda ro'y berganida ushbu shakl kesimni shakllantiradi.

Turkiy xalqlar tili tarixida ko'pgina so'z va iboralar borki, og'aki nutqda qay tarzda talaffuz etilishidan qat'i nazar, ularning yozilishida ma'lum an'anaga amal qilinadi. So'z yoki morfemaning hozirgi talaffuz me'yoriga mos kelmaydigan, tarixiy shaklida yozilishi tarixiy-an'anaviy yozuv qoidasi asosida ishlatilishi bunga misol bo'ladi. Masalan, hozirgi o'zbek tilida buyruq-istak maylining [-gin] shakli o'rnida [gil], [-g'il/g'yl] shakllari mavjudligini hozirgi qoraqalpoq tilida ham ko'rish mumkin.

**Көрсөң қайтarmac'ыл** достың нәzerin,  
**Qoldan kelse, qurg'ыл** shadlyq bazarыn,  
**Өtkermegil** dosqa gәrtiң hazarыn,

<sup>1</sup> Nurmonov A., Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O'zbek tili va adabiyoti. 2001. -№ 4. 55-b.

<sup>2</sup> Musulmanova N.R. Grammatik shakllarda kategorial, yondosh va hamroh ma'no. – Toshkent: Fan, 2012. – B.56.

Doslar хызмет yeter yaranы ushыm.

Buyruq-istak mayli shakllarining asosiy xususiyati – soʻzlovchining istagi bilan bogʻliq holdagi harakatga undash, shu harakatga daʼvat etish, qoʻzgʻatishni ifodalash. H. A. Baskakov qoraqalpoq tilidagi buyruq-istak maylining I shaxs koʻplik formasini yasovchi -ауық, -аы affikslari -ауың affiksidan rivojlanganini, keyingisi esa oʻz navbatida -gʻay affiksiga I shaxs koʻplik formanti boʻlmish -lы (lық) qoʻshilishi asosida yuzaga kelganligini aytadi<sup>1</sup>. Hozirgi oʻzbek tilida buyruq-istak maylining I shaxs koʻpligi uchun asosan bir forma, yaʼni -аулік ishlatiladi, bu jihat boshqa turkiy tillarda ham kuzatiladi, masalan, hozirgi oʻzbek yozma adabiy tilida:

Qoraqalpoq tilida bu forma -ауық affiksi bilan qoʻllanadi:

*Оулапың yendi, халауық,*

*Usы ma bizge ылауық?*

*Bәrimiz bir is қылауық,*

*Sөzimdi тыңласаң менің.*

E. V. Sevortyan buyruq-istak maylining I shaxs koʻplik formasini yasovchi -(y)алым affiksini -(y)алы+m tarzida ikki qismga ajratish mumkinligini aytadi. Bundagi -(y)алы elementini qadimgi yodgorliklar tili uchun xarakterli boʻlgan hamda hozirgi ayrim turkiy tillarda saqlangan maqsad ravishdoshini (*supin*) yasovchi -gʻалы affiksiga bogʻlaydi va bu ravishdosh bilan -(y)алым affiksli buyruq-istak formasi oʻrtasida semantik jihatdan ham yaqinlik borligini uqtiradi<sup>2</sup>.

Buyruq-istak maylining 3 shaxs birlik koʻrinishi -sun shaklida qoʻllanishi Muqimiy asarlarida kuzatiladi, demak, Muqimiy yashagan davrda shunday shaklda qoʻllangan. Shuningdek, buyruq-istak mayli ifodalovchilari bundan boshqa maʼnolarni, masalan, maʼno kuchaytirishni ifodalashi ham mumkin:

*Ul tagʻ ofulpeshagʻ a holi xarobim kim desun?*

*Hajrida mundogʻ meni koʻrgan azobim, kim desun?*

Berdaq sheʼrlarida esa *sin/sын* shakllari qoʻllangan:

*Jaqsының gүli solmasын,*

*Qaza jetpesin-olmesin,*

*Gʻaripke jәbir kelmessin,*

*Өlgenshe niyetim менің.*

Zamon shakllarida yuzaga chiqqan mayl maʼnolari tizimida zamon maʼnolari ikkinchi darajali ahamiyat kasb etib, mayl maʼnolari ustuvorlik qiladi. Tarz-tus maʼnolari ikkilamchi maʼnoligicha qolaveradi. Baribir, taʼkidlash lozimki, zamon va mayl maʼnolari shu darajada zich bogʻlanganki, aksariyat hollarda maylning maʼnoviy xususiyatlarini zamonsiz, zamon maʼnolarini mayl maʼnosidan ajratib talqin qilib boʻlmaydi».<sup>3</sup>

Pragmatika tushunchasi “ish”, “faoliyat” maʼnolarini bildirar ekan, koʻrinadiki, pragmatika bevosita til belgilarining nutqdagi funksional qoʻllanishidan iborat ekanligini zamon va buyruq-istak mayli misolida koʻrib chiqdik, uning mazmuni esa til egalari oʻrtasidagi aloqa-aralashuv jarayoniga xos ifodalash va anglash prinsiplari asosida namoyon boʻlishiga amin boʻldik.

<sup>1</sup> Baskakov N. Karakalpakskiy yazyk. M., 1952. 449-s.

<sup>2</sup> Qarang: Shukurov Sh. Oʻzbek tilida feʼl mayllari taraqqiyoti. T.:Fan, 1980. 37-b.

<sup>3</sup> Musulmanova N.R. Grammatik shakllarda kategorial, yondosh va hamroh maʼno. – Toshkent: Fan, 2012. 56-b.

## ADABIY TIL VA SHEVALAR

*Aliyeva Sevara Murod qizi,*

NIU Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: *f.f.d. R.N.Yusubova*

**Annotatsiya.** *Adabiy til – muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me'yorlashtirilgan til hisoblanadi. Mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli, "qayta ishlangan" tushunchasi nisbiy hisoblanadi. Maqolada adabiy til va shevalar munosabati haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *adabiy til, sheva, dialekt.*

**Аннотация.** *Литературный язык – это переработанный и нормированный язык определенного общенародного языка. Форма, служащая культурным потребностям говорящего на этом языке народа, понятие "переработанный" является относительным. В статье рассматривается взаимосвязь литературного языка и диалектов.*

**Ключевые слова:** *литературный язык, диалект, диалект.*

**Annotation.** *A literary language is a revised and standardized language of a certain national language. A form that serves the cultural needs of the people speaking this language, the concept of "recycled" is relative. The article examines the relationship between literary language and dialects.*

**Keywords:** *literary language, dialect, dialect.*

Ba'zi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili adabiy til vazifasini o'tagan. Misol uchun, fors va turkiylar uchun arab tili va ba'zi Yevropa xalqlari uchun lotin tili xususida shunday deyish mumkin. Adabiy til, avvalo, yozma tildir. Yozma tilning asosiy vazifasi — turli uzoq-yaqin shevalar vakillari tushunadigan umumiy me'yor bo'lib, u xalq manfaatiga xizmat qilish lozim. Hamma hujjatni o'z shevasida yozsa, bu noaniqlik keltirib chiqaradi. Buning oldini olishga adabiy til xizmat qiladi. Adabiy tilga e'tibor qaratib, ba'zan shevalarni unutib qo'yamiz. Aslida, jamiyatda adabiy tilning ham, shevaning ham o'rni bo'lishi lozim. Sheva o'zida tarixiy xotirani, madaniy ko'nikmalarni va lug'at boyligini saqlaydi. Uning bu kapitalini adabiy tilga o'tkazish kerak.

Sheva nima? *Sheva* atamasi forscha so'z bo'lib, *ovoz, til, so'zlashish, holat, yo'sin, ravish* kabi ma'nolarni anglatadi. Shevalar o'zbek tilining o'ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarga ega bo'lgan kichik bir qismi bo'lib, o'zlarining jug'rofiy o'rinlari bilan bir-birlaridan ajralib turadi. Shevalar tilshunoslikning dialektologiya bo'limida o'rganiladi. Dialektologiya grekcha *dialektos* so'zidan olingan bo'lib, biror tilning mavjud sheva va lahjalarini o'rgatadi. Dialekt — *sheva*, logos *ta'limot*, ya'ni *sheva haqida ta'limot* demakdir. Dialektologiya fani -tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, u mahalliy sheva va lahjalarning o'ziga xos muhim xususiyatlari, ularning adabiy tildan va o'zaro bir-biridan farqlari, shevalarning adabiy tilga munosabati, adabiy tilni boyitishidagi ahamiyati, shevalarning tarmoq va guruhlari, ularning rivojlanish bosqichlari tarixi va shu kabi masalalarni o'rganadi.

Shevalar, bizningcha, ko'proq qishloqlarda ishlatilmoqda, bunga sabab hozirgi kunda ko'plab shahar guruh shevalarida gaplashuvchi insonlar bir-biri bilan deyarli adabiy tilda

muloqot qilishadi yoki soʻzlashish nisbatan madaniylashgan. Ammo bizning tilimiz qanchalik sòzga boy ekanligini bizning shevalarimiz aniqlab beradi. Shevalar taʼsirida yaratilgan, sheva asosida yozilgan badiiy asarlar ham mavjud. Togʻay Murod asarlari tilini sheva tashkil qiladi. Masalan, *Oʻzing bir sagʻir boʻlsang, senga kim qoʻyibdi otni, dedi.* (Ot kishnagan oqshom). *Yoʻldan oʻtkich-ketkichlar bobomizga hormang etadi.* (Otamdan qolgan dalalar). Birinchi misolda leksik dialektizm, ikkinchi misolda fonetik dialektizm mavjud.

Bizning xalqimizda ana shunday juda noyob sòzlar, yaʼni shevalar bor. Misol uchun, Samarqand viloyati Nurobod tumanining chekka qishloqlarida *tuxum mayak*, *isiriq hasarsimand* deyiladi, *buvi kattena*, *bobo esa kattata* deyiladi, masalan, *kattena* sòzini kelib chiqishi esa *katta oyi//katta ena* sòzlaridan kelib chiqqan hisoblanadi. Samarqandning togʻli hududlarida esa *bazruvid* sòzi mavjud, yaʼni bu sòz *ikki togʻning òrtasidagi kòl* degan maʼnoni beradi. Yana baʼzi shevalarda esa shevadagi kòp sòzlarni turli xil hududlarda sòzlarga fonetik òzgartirishlar qòshadi.

Masalan, baʼzi hududlarda *supurgi* bòlsa yana baʼzi hududlarda *supurtgi//shivirtki//shipirtki* deyiladi. Yoki *guruch brinch* tarzida aytiladi.

Eski oʻzbek adabiy tilining shakllanishida *qarluq-chigil-uygʻur* til birligi shevalari asos bòlgan. Bu lahjani Ye.D.Polivanov “chigʻatoy”, Gʻ.O.Yunusov “turk-barlos” deb atagan.

Bu shevalar Toshkent, Fargʻona, Samarqand hamda Buxoro shevalarini òz ichiga oladi. Hozirgi òzbek adabiy tili fonetik jihatidan asosan Toshkent shevasiga va morfologik jihatdan Fargʻona shevasiga asoslangan. Kòplab davlatlarda xuddi shunday, yaʼni davlatning poytaxt shevasiga asoslangan shevalardan foydalaniladi. Misol uchun, Fransiya davlatining tili asosida Parij, yaʼni fransiyaning poytaxti va uning atrofida keng tarqalgan frans shevalari yotadi.

Hozirgi kunga kelib kòplab tilshunos olimlarimiz shevashunoslik bòyicha ilmiy ishlar olib bormoqda va buning natijasida biz qanchalik soʻzga boy xalq ekanimizni butun jahonga kòrsatyapmiz.

Shevalar tizimining murakkablik darajasi – ekstralingvistik omillar: shevaning alohidalanish (ajralib qolish) darajasi, muayyan sheva vakillarining boshqa shevalar va tillarning vakillari bilan aloqa qilish darajasi. Alohida ajralib qolgan shevalarda uning vakillari bilan atrofdagi aholi oʻrtasida aloqalarning yoʻqligi (geografik yoki siyosiy sabablar, atrofdagi aholining til, madaniyat, diniy eʼtiqod jihatdan ayni sheva vakillaridan keskin farqlanishi tufayli), sheva vakillarining anʼanaviy turmush tarzini saqlab qolishga astoydil intilishi oqibatida sheva juda sekinlik bilan oʻzgaradi, katta va kichik yoshdagilarning tilidagi farq sezilarsiz darajada boʻladi. Adabiy tilning yoki boshqa shevaning kuchli taʼsiri ostida boʻlgan shevada aholining turli guruhlari nutqiga xos boʻlgan, bir-biriga qarama-qarshi qoʻyilgan va turli darajada farqlanadigan anʼanaviy va yangi qatlamlar ajralib turadi.

Shevalar tarixi jihatidan va hozirgi ogʻzaki nuqtai nazardan oʻrganiladi. Shunga koʻra, shevashunoslik tarixiy shevashunoslik va tasviriy shevashunoslik deb ikkiga boʻlinadi. Lahja va shevalarni tarixiy jihatdan tekshirganda, ularning oʻziga xos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyot yoʻllari va hozirgi holatga yetganga qadar qanday rivojlanish jarayonini bosib oʻtgan bayon etib beriladi. Demak, shevalarni tarixiy oʻrganish muhim ahamiyatga ega. Chunki til bir qancha davrlarning mahsuli boʻlib u yuzlarcha avlodlar tomonidan yaratilgan.

Tarixiy shevashunoslikning vazifasi – jamiyat a'zolari o'rtasida a'loqa vositasi bo'lgan umumxalq tilining urug'lar tillaridan qabilalar tillariga, qabila tillaridan ittifoq tillariga, va nihoyat, xalq tiliga hamda xalq tilidan milliy tilga tomon bo'lgan taraqqiyotning hamma bosqichlarini o'rganishdan iborat.

Sheva so'zlar qanchalik ko'p bo'lsa, adabiy til tarixini uchun shunchalik katta xizmat qiladi, Hozirgi kundagi asosiy maqsadimiz shevalarni adabiy til bilan teng holda o'rganishdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Sh.Shuabdurahmonov.O'zbek xalq shevalari lug'ati. T.:Fan,1971.
2. Sh.Rahmatullayev.O'zbek tilining etimologik lug'ati. T.:Universitet, 2000.
3. N.Rajabov.O'zbek shevashunosligi. T.:O'quvchi,1996.
4. Yo.Saidov.O'zbek dialektologiyasi. B.:Durdona, 2021.

### ETNONIMLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN AYRIM TOPONIMLAR XUSUSIDA

*Sofiya Alimovna USMONOVA,  
filologiya bo'yicha falsafa doktori, katta o'qituvchi  
(Qo'qon DPI)*

Nomshunoslikda urug', qabila, qavm, xalq nomlari – etnonimlar asosida vujudga kelgan toponimlar alohida o'rinni egallaydi. Darhaqiqat, o'tmishda Farg'ona vodiysida o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qipchoqlar, mang'itlar, yuzlar, qirqlar, qo'ng'irotlar, naymanlar, quramalar, qanglilar, olchinlar, saroylar, kenagaslar, do'rmonlar, qatag'onlar va shu kabi turli qavmlar istiqomat qilganlar. Tabiiyki, bu qavmlar, urug'lar vodiylar toponimiyasining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Aholi yashash maskanlarining ko'pchiligi ularning nomlari bilan atalib ketgan.

Vodiy etnooykonimlari tarkibiga nazar tashlasak, ularning talay qismini qipchoqlar va ularning urug'lari nomlari bilan atalganligiga guvoh bo'lamiz. Bu bejiz emas, albatta. Darhaqiqat, XIX asr oxirlarida Farg'ona vodiysida qipchoqlar 70 ming kishini tashkil etganlar. 1917-yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra vodiya 84 ta qipchoq qishloqlari mavjud bo'lgan[12.109-110].

Qipchoqlarning Farg'ona vodiysida qachondan buyon yashayotgani haqida turlicha fikrlar bildirilgan, ammo ayrim tadqiqotchilar ularning bu yerga XVI asrda SHayboniyxon qo'shini tarkibida kelganligini ta'kidlaydi [2.432-433]. Boshqa bir guruh olimlar esa qipchoqlarning vodiya XVIII asrning 20-30 yillarida kelishi bilan bog'laydi[8.17].

Urug' va qabilalarga bo'linish qipchoqlarga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, vodiylar hududida yashagan qipchoqlar to'rtta katta guruhga bo'lingan. Bular: qipchoq (yoki toza qipchoqlar), qirg'iz-qipchoqlar, xitoy-qipchoqlar va sart(o'zbek)-qipchoqlarga bo'lingan. To'rt guruhga bo'linishdan tashqari qipchoqlar o'tmishda bir necha urug' va tarmoqlardan iborat bo'lgan. *Qo'g'ay, bug'ach, kumushoy, o'lmas, puchug'oy, elatan, bo'g'oz, toz, sirmoq, yettiqashqa, qutlug'said, cherek, ko'kmo'yin, to'rtayg'ir (to'rt og'ayni), to'rtoy, tovuldi, chang'aroqchi, chiyal, qulon, oqbo'yra, qorabovur, boshqirt, tikan, qoratikan, oqtikan* kabi urug'lar shular jumlasidandir [13.40.]. Hozirda qipchoq urug'larining nomi ular yashagan hududlarda etnotoponim tarzida saqlanib qolgan.

Ushbu etnotoponimlarning har biri ostida xalqimiz tarixining bir bo'laki, urf-odatlarini yotadi.



O‘zbek millatining son va tarkib jihatidan eng katta komponenti tarkibini qipchoq-o‘zbeklar tashkil qiladi. Bu komponentning asosiy qismi tarixiy-xronologik nuqtai nazaridan o‘zbek millati tarkibiga keyin qo‘shilgan, lekin ayni vaqtda butun millat vakillarining yagona, umumiy nomi bo‘lib qolgan «o‘zbek» nomini ham shu komponent olib kelgan.

Qipchoq-o‘zbeklar qadimgi davrlarda turkiy xalqlarning qipchoq guruhiga kiruvchi ming, yuz, qirq, qipchoq (tor ma’noda), qangli, qiyot, qo‘ng‘irot kabi urug‘ va qabilalar asosida tashkil topgan bo‘lib, Itil (Volga) va Dunay daryolari, Hazar (kaspiy) dengizi, Orol dengizi, Ural tog‘lari, G‘arbiy Sibirdagi Irtish va Enasoy daryolari bo‘ylarida yashaganlar, Yettisuvda tuzilgan turk xoqonligida ham ancha mavqega ega bo‘lganlar [3.58]. Ular rus solnomalarida «polovetslar», Vizantiya solnomalarida «kumanlar» deb ataladi. Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu-lug‘atit turk» va Rashididdin-Fazlulloh Kazviniyning «Jome’-at tavorix» asarlarida qipchoqlar deb eslanadi hamda qipchoq so‘zining etimologiyasi haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Qipchoq - o‘zbeklar O‘rta Osiyoga kelguniga qadar juda qoloq davlat vakillari bo‘lgan emas, balki ular ham bu davrgacha ancha katta madaniyatga, og‘zaki va yozma adabiyotga ega bo‘lgan.

Binobarin vodiya qipchoq etnonimiga aloqador toponimlar bir necha joyda uchraydi. Chunonchi, Namangan viloyatining Namangan, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Chortoq, Pop, Andijon viloyatining Izboskan, Oltinko‘l, Asaka, Farg‘ona viloyatining Beshariq, Toshloq, Rishton tumanlaridagi Qipchoq deb ataluvchi aholi maskanlari hamda Andijon viloyatining Izboskan va Namangan viloyatining Norin tumanlaridagi Qipchoqovul, Farg‘ona viloyatining Toshloq tumani va Qo‘qon shahridagi Qipchoqariq oykonimlari bunga yorqin misol bo‘la oladi. Shuningdek, vodiya qipchoq qabilasining urug‘lari nomlari bilan atalgan toponimlar ham bir necha joyda uchraydi. Yashiq, Yettiqashqa, Puchug‘oy, Elaton, O‘lmas, Tumar, Sirmoq, Qo‘g‘ay, Bachqir, Qorabo‘yin, Tovuldi, Chang‘aroqchi, Oqbo‘yra, Bug‘ach, To‘rayg‘ir, Qizilmush, Uzunqishloq, So‘zoq singarilar shular jumlasiga kiradi.

Farg‘ona vodiysida 15 dan ziyod qishloq Qurama nomi bilan yuritiladi. Bu aholi maskanlari Uychi, Uchqo‘rg‘on, Norin, Namangan, To‘raqo‘rg‘on, Kosonsoy, Izboskan, Xo‘jaobod, Asaka, Andijon, Beshariq tumanlari hududidadir. Mazkur oykonimlarning nomlanishi bevosita qurama etnonimi bilan bog‘liqdir. 1926-yilgi aholi ro‘yxatiga ko‘ra respublikamizda yashovchi quramalarning soni 50 mingga yaqin bo‘lgan [9. 246]. Bu etnik guruhga mansub kishilar Ohangaron havzasida, Andijon bilan Namangan orasida turib qolganlar. Farg‘ona vodiysidagi quramalar XVII asrda, asosan, XVIII asr oxiri va XX asr boshlarida Ohangaron va uning atrofidagi qishloqlardan ko‘chib kelganlar va sekin–asta o‘troqlashib, mahalliy aholiga aralashib ketganlar [6.9]. Quramalarning vodiya joylashib qolishi, tabiiyki, joy nomlarida o‘z izini qoldirgan. Yuqorida keltirilgan etnooykonimlar bunga yorqin dalildir.

Farg‘ona vodiysida, xususan, Qo‘qon guruhi tumanlarida bir necha aholi maskani Jaloyir deb ataladi. Bu qishloqlar Uchko‘prik, Furqat, Buvayda, Rishton tumanlari hududlarida joylashgan. Ushbu oykonimlar jaloyir etnonimi asosida yuzaga kelgan. Jaloyirlar o‘tmishda yirik qabilalardan hisoblangan va bir necha urug‘larga bo‘lingan. Abulg‘ozi Bahodirxon «SHajarayi turk» asarining «Jaloyir elining zikri» qismida bu haqda: «Qadim el turur. Benihoyat ko‘p bo‘lur erdi... Urug‘lari ko‘p erdi» deb yozgan [1. 42]. 1920 va 1926 yillardagi aholi ro‘yxatida O‘zbekistonda yashovchi jaloyirlarning soni 25 ming kishiga yaqin ekanligi aniqlangan. Ular Toshkent, Buxoro vohasida, Nurota tog‘i etaklarida, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Karmana, Qorako‘l tumanlarida va Xorazmda yashaganlar [11.294]. SHuningdek, jaloyirlar Farg‘ona vodiysida ham hayot kechirganlar. Yuqorida zikr etilgan Jaloyir nomli qishloqlar buning dalilidir.

Vodiyda yashagan etnik guruhlardan yana biri turklardir. 1924-1925 yillardagi statistik ma'lumotlarga qaraganda, Farg'ona vodiysida istiqomat qilgan turklar 24 ming 279 kishidan iborat bo'lgan [10.364]. Katta Turk, Kichik Turk (Dang'ara tumani), Turkqishloq, Turkrovot (Quva tumani), Turk (Buvayda tumani), Turklar (Toshloq tumani), Turkobod, Turkmahalla (Xo'jaobod, Asaka tumanlari) oykonimlari mana shu turk qabilasi nomi bilan atalgandir.

O'zbek xalqi tarkibiga kirgan saroy qabilasi vakillari o'tmishda Buxoro, Karmana, G'ijduvon, Kattaqo'rg'on, Samarqand va Jizzax atroflarida, qisman Farg'ona vodiysida yashagan. O'zbekistonda saroy etnonimidan yasalgan bir qator qishloq nomlari mavjud. Xususan, Farg'ona vodiysida ularning soni 10 dan ortiqdir. Andijon viloyatining SHahrixon, Oltinko'l, Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanlaridagi Saroy; Farg'ona viloyatining Dang'ara tumanidagi Kapasaroy, Toptiqsaroy; Bag'dod tumanidagi Do'ngsaroy; Namangan viloyatining Uychi tumanidagi Tepasaroy; CHust tumanidagi Og'asaroy; Andijon viloyatining Oltinko'l tumanidagi Qo'shtepasaroy toponimlari shunday nomlar jumlasidandir.

Farg'ona viloyatining Dang'ara, Buvayda, Uchko'prik, Andijon viloyatining Izboskan, Paxtaobod, Namangan viloyatining Namangan tumanlaridagi Urganji, Qo'qon shahridagi Urganjibog' toponimlari urganji etnonimidan nom olgan. N. Veselovskiy, O.A.Suxarevalarning yozishiga qaraganda, urganjilar XVIII asr oxirida Urganch shahridan chiqib, Buxoroga va boshqa yerlarga o'rnashgan o'zbeklardir [5.9]. Darhaqiqat, Farg'ona vodiysidagi urganjilar shu davrlarda vodiy hududiga kelib o'rnashgan bo'lishlari mumkin. XIX asr Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalarda ham bu yerlarda urganji qavmiga mansub kishilar istiqomat qilganligi va ular o'z urug'larining nomini unutmaganliklari qayd etilgan [7.145].

Bulardan tashqari, Farg'ona vodiysi toponimiyasi tizimida yana Kenagas, Bahrin, Do'rmon, Olchin, Uyrot, Turg'oq, Kaltatoy, Minglar, Qirqlar, Uyshun, Telov, Chimboy, Qiyali, Uymovud, Qoraqo'yli, CHuvalanchi, Nayman, Xitoy, Qo'ng'iroq, Qangli, Beshbola, Beshsaroy, Arg'in, Beshqovoq singari toponimlar uchraydiki, bular bevosita shu nomdagi etnonimlar asosida shakllangandir.

Xullas, Farg'ona vodiysi toponimlarning yuzaga kelishida etnonimlar alohida o'ringa egadir. Bu xil etnotoponimlar ma'lum hududda yashab kelgan turli qabilalar, qavmlar, urug'larga oid ko'plab ma'lumotlar beradi, o'zbek xalqining shakllanish tarixini, etnogenezi masalasini yoritishda qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdulg'oziy. SHajarayi turk. -Toshkent, 1992. 42-b
2. Аристов. Н.А. Опыт выяснение этнического состава киргиз - казаков Большой Орды и киргиз-казаков // Живая старина. -1894. Вып. III-IV. - С. 432-433.
3. Бартольд В.В. Соч. Т.Н.Ч. – М., 1963. –С. 58.
4. Губаева С. Население Ферганской долины в конце XIX- начале XX в. -Ташкент, 1991. С. 39-40.
5. Qorayev S. Etnonimika. -Toshkent. 1979, 9-bet
6. Qorayev.S. Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi? –Toshkent, 1970. 126-b
7. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. –Ташкент, 1973. С.145.
8. Наливкин В.И. Краткая история Кокандского ханства... - С. 17.
9. O'zSE, 14-tom. Tokent. 1980. 246-bet.
10. O'zSE. 11-tom. -Toshkent, 1978. 364-b
11. O'zSE. 4-tom. -Toshkent, 1973 y. 294-b

12. Шаниязов. К.Ш.К этнической истории узбекского народа. - Ташкент, 1974. С. 109-110.
13. Ergashev A. Andijon viloyati etnonimlarining areal-onomastik tadqiqi. Fil.fan.nomz. diss.: -Toshkent, 2012. –B. 139.
14. Usmonova S.A. Qo‘qon shahri ko‘chalari tasnifi va tavsifiga doir //Scienceweb academic papers collection. – 2023.
15. Alimovna U.S., Shahzoda Avazmatova. Toponimiyaga xos ayrim leksik-semantik xususiyatlar //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 476-478.
16. A.S.Usmonova. Regional toponymy and toponymy study. Gospodarka i innowasje//2023. 33. 282-285.
17. U.S. Alimovna. Toponymy "Kokand" and its conceptual study . Open Access Repositor. 2023. 153-156.
18. S.A.Usmonova. Qo‘qon shahri guzarlari nomlari. O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv. 2021/5/22. 291-294.

## СВОЕОБРАЗИЕ «ЖЕНСКОГО ПОЧЕРКА» В СОВРЕМЕННОЙ ПРОЗЕ РОССИИ И УЗБЕКИСТАНА

**Н.М.ИБРАГИМОВА,**

*д.ф.ф.н. PhD, и.о. доцента*

*кафедры русского языка и литературы*

*НавГПИ, Навои*

**Аннотация:** В данной статье исследуется «женский» художественный почерк в русской и узбекской современной женской прозе, его своеобразие и обусловленность.

**Ключевые слова:** женская литература, своеобразие женского почерка, повышенная публицистичность стиля, «чужое слово», «вариативность текста», интертекстуальность, исповедальность, библейские цитаты.

Женская проза как социокультурный феномен, продиктованный временем и пространством, актуализировавшими необходимость участия женской половины общества в решении насущных проблем времени вошла в литературное пространство со своими задачами, своей художественной картиной мира, своеобразными художественными изобразительно-выразительными средствами, приёмами и особенностями отображения действительности, т.е. своим творческим почерком. И. Савкина основную задачу женской прозы формулирует как необходимость показать истинное лицо женщины, «разбить зеркало, в котором отражается не настоящее женское лицо, а миф о женственности, созданный мужской культурной традицией» [1;5]. Женская проза – воплощение именно женского обобщённого опыта, который совершенно необходимо учитывать обществу. Е. Маркова, описывая женскую прозу, использует метафору «женская книга» [2;404], объединяя отдельные тексты в единую идентичность (версии женской судьбы). С этим отчасти можно согласиться, не забывая о том, что такая коллективная идентичность, включает все многообразие индивидуального жизненного опыта конкретных художников – национального, религиозного, социального, духовного ... Писатель творит всем комплексом его личностных, психологических особенностей, поэтому, рассуждая о женской прозе как особом литературном пространстве, отмечая специфические общие качества, присущие прозе в целом, необходимо учитывать своеобразие, неповторимость творческого почерка конкретных авторов.

Не претендуя на полное описание тем современной женской прозы (это и не возможно, т.к. всегда существует определенная субъективность в выборе темы), лишь с целью показать некую тематическую обусловленность женского художественного почерка обозначим некоторые сугубо женские темы: тема любви в женской судьбе, «мгла безлюбия», физическое и духовное насилие над женщиной, роды, аборт, материнство, жертвенность женщины, тема семьи, занимающая важнейшее место в женской прозе. Обращаясь к этим темам, по-разному осмысляя их, сопрягая с различным кругом других проблем - экономических, общесоциальных, метафизических, авторы воссоздают свою картину мира. Отражённая в произведении жизнь, жизненные явления, определяющие тему произведения, осознаются и изображаются писателями с определённой женской точки зрения, которая детерминирует идею произведения. Эта идейно-тематическая основа художественного текста реализуется в жизненных картинах, поступках и переживаниях героев, в их характерах, в развивающихся событиях (сюжете), авторской позиции, особенностях речи, композиции произведения и других составляющих индивидуального художественного почерка. Анализ конкретных произведений женской прозы позволяет сделать общие выводы о своеобразии художественного почерка женской прозы, как целостного художественного пласта литературы, т.к. авторов объединяют конкретные общественно исторические условия (конец XX – начало XXI вв.), общее восприятие жизни, рассматриваемой сквозь призму женской психологии, женского отношения к миру, идентичность понимания задач, стоящих перед литературой.

Представители женской прозы расширяют границы традиционной поэтики, в частности, одна новаций – повышенная публицистичность стиля. Под стилем нами понимается художественные особенности творчества, обусловленные мировоззрением, творческой индивидуальностью писателя, избранным им творческим методом. Всё это проявляется в формосодержательной структуре произведения, так как очевидно, что стиль – это эстетическая целостность содержательной формы, единство общеэстетических принципов и формальных компонентов. От других категорий поэтики стиль отличается формой реализации.

Сегодня, в условиях становления глобального техногенно- информационного общества, когда личность подвергается стандартизации и отчуждению, собственное суждение стало своеобразной гарантией целостности личности, её независимого свободного духовного мира, главным признаком рассказов, повестей, романов, представителей русской и, в меньшей степени, узбекской женской прозы становится эссеизм (свободная трактовка проблемы). Автор анализирует избранную проблему, не заботясь о систематичности изложения, аргументированности выводов, общепринятом мнении, ориентируясь исключительно на своё отношение к миру. По сути, в женской прозе происходит контаминация художественного и публицистического (например, в рассказах В. Токаревой «Перелом», «Римские каникулы»; Г. Щербаковой «Дверь в чужую жизнь», «Вспомнить нельзя забыть»; в узбекской женской прозе З. Куролбой кизи «Грех», «Достоинство»; в романах С. Вафо «Увиденное и пережитое скиталицей», «Таинственное царство». Следует отметить, что в узбекской женской прозе эссеизм не столь ярко выражен, он как бы пробивается из глубины жизнеподобия, экстенсивности женской прозы, охватывающей новые, не свойственные доселе литературе, сферы жизни.

Широкое распространение получила проза, фиксирующая малейшие «движения души, противоречивую работу мысли героев» (что свойственно путевым наброскам, эссе, дневникам), иногда писатели используют чисто дневниковую форму,



предполагающую максимальное проникновение в глубины души героинь, дифференциацию процессов, происходящих во внутренней духовной жизни персонажей (Л. Улицкая, Г. Щербакова, З. Куролбой кизи). Исследователи творчества Л. Улицкой. (С.И. Тимина, В.Я.Скворцов и А.И. Скворцова, М.А. Черняк) прямо называют прозу Л.Улицкой «исповедальной», отмечая, что она «чутко улавливает нюансы человеческой природы», ей удалось проникнуть в самую глубину сердца<sup>1</sup>.

Характерной чертой для русской и узбекской женской прозы является интертекстуальность, т.е. обилие культурных отсылок, аллюзий, наполненных дополнительным смыслом. Границы произведения при этом размываются, пространство поиска смыслов расширяется. Каноническую формулировку понятиям «интертекстуальность», «интертекст» дал Р. Барт, отметивший, что в каждом тексте на различных уровнях в более или менее узнаваемых формах присутствуют тексты предшествующей и окружающей культуры<sup>2</sup>. Каждый текст – это новая ткань, сотканная из старых цитат, т.е. опираясь на «чужое слово», автор создаёт свой оригинальный текст, свою картину мира, что можно подтвердить анализом, например, повести Г. Щербаковой «Вспомнить нельзя забыть», романа С. Вафо «Таинственное царство» и др. Девушка Оля (из повести Г. Щербаковой «Вспомнить нельзя забыть»), жившая с родителями, «стройненькая, хорошенькая, училась играть на скрипке, вежливо здоровалась со старшими, а к сверстникам птицей летела навстречу с лучезарной улыбкой» [3;12], мечтавшая, как и многие её сверстницы, «о скоропалительной и бурной любви», повстречала Жору-пахана, имевшего «уже всяких - со скрипками и ракетками, на пуантах и без, с узенькими лодыжками и глубокими ямками пупочков». Готовая к любви, она распахнула перед ним душу, «и сердце её вздрогнуло: «Вот он!» Оказывается, в школьной программе встречаются точные слова. Знать бы только откуда они <...> И в мыслях молвила: вот он! И она улыбнулась ему доверчиво, как дитя», найдя во вспомнившихся хрестоматийных словах подтверждение своим эмоциям. Обернулась эта доверчивость жестоким насилием, сломавшим судьбу героини. Данная реминисценция отсылает к источнику, который, по мнению автора, читателями будет опознан. Таким образом, создаётся приращение эстетического потенциала текста за счёт расширения смыслового объёма путём отсылок к другим источникам. То же происходит в романе С. Вафо, который представляет собой творческое пересоздание мифической действительности (мифов об амазонках), попытку проникнуть в их сущностные сферы, ассоциативно соотнести с окружающим современным миром, сконструировать новые связи. Для Л. Петрушевской, В. Токаревой и других представительниц русской женской прозы особенно важен интертекст фольклора, библии, классической литературы. Взаимодействие собственно авторского и «чужого» художественного опыта обнаруживается на разных уровнях произведений. Библейские цитаты используются как выражение общечеловеческих истин, как предписание норм поведения. М.М. Бахтин в работе «Слово в романе», рассматривая Библию в качестве догматического текста, отмечает, что «контекст способен исказить точно процитированные слова». В результате происходят «смысловые и акцентные изменения в цитате», которая вступает в «химическое соединение в смысловом и экспрессивном плане» с

<sup>1</sup> См. об этом Скворцов В.Я., Скворцова А.И. Самобытие человека в повести Л. Улицкой «Весёлые похороны» // Вестник ВолГУ. Серия 2: Филология. Журналистика. Волгоград 2000. № 5 с. 105-112

Черняк М.А. Современная русская литература «Женский почерк» в современной прозе. М., 2005

<sup>2</sup> Подробнее об этом: Барт Р. От произведения к тексту. // Барт Р. Избранные работы: Семиотика: Поэтика. - М., 2008



контекстом, в результате меняется и цитата, и принявший её текст [4;153]. В семантику библейской авторитарной цитаты труднее вносятся контекстуальные смысловые изменения, ибо их «смысловая структура неподвижна и мертва, совершенна и однозначна», однако в современной литературе библейская цитата утрачивает авторитарную функцию и обретает способность изменять своё значение в новом контексте.

Замкнутой моделью сюжета в женской прозе включают ретроспекцию, многоплановость, характеризуется открытой авторской позицией, сочетанием анализа и комментария описываемых событий, использованием разнообразных внесюжетных элементов. Во многих произведениях сюжет выстраивается как бы из непосредственных наблюдений над жизнью, которая протекает рядом. Таковы, например, произведения Л. Улицкой, З. Куролбой кизи («Грех», «Достоинство», «Женщина») Страдания и бедствия героев, описываемые авторами, в совокупности создают впечатляющую картину неблагополучия мира. Интересен в этом плане рассказ Г. Щербаковой «Дверь в чужую жизнь». Катя, героиня рассказа, совершенно случайно оказывается в доме, который много лет, как серое чудовище, скрипел, падал давил её во снах. Когда-то она вошла в этот дом полная радужных надежд, любимой, как ей казалось, молодой женой. Но счастье было недолгим. Признав выбор сына неудачным, его родители откупились от невестки и выпроводили её восвояси в Северск. И остались от секундного счастья у Кати только брезгливые воспоминания, сын Павлик, родившийся недоношенным уже дома, в Северске, и красное пятно, появившееся на нервной почве и расползающееся от щеки и дальше. А через много-много лет Катя с детьми опять случайно оказалась в этом доме и имела возможность наблюдать семейную драму: отношения жены Коли Ларисы с дочерью Милкой. И опять в ужасе второпях она покидает этот дом. «Какие глупости эта ваша человеческая боль», - подытоживает, замыкая повествование автор.

Многочисленные авторские комментарии и рассуждения расширяют смысловое поле рассказа, активизируют читателя, приглашая к размышлениям: «Нельзя защищаться чужим благородством и чужой порядочностью. Нельзя писать о кодексе чести, а самому суетиться, суетиться...» [3;141] или: «Жить без любви можно только в двух случаях. Во-первых, если не отдаёшь себе в этом отчёта ... Живёшь и живёшь. Так делает большинство, потому что любовь – редкость. Как талант. Как сокровище. Как красота. Во-вторых, ... Если надо жить во имя больного или беспомощного... Потому что есть вещи выше любви...» [3;141]. Весьма своеобразна структура текста повести В. Токаревой «Перелом». Структурная завершенность (замкнутость) сюжета не соответствует смысловой завершенности. Завершённый художественный текст характеризуется «тотальной реакцией автора на героя и вместе с тем адекватной реакцией читателя на героя и автора. Здесь же автор интенционально направляет текст на незавершённость, предлагая тем самым читателю «достроить» первичный текст на своё усмотрение, т.е. возможно создать варианты, логически вытекающие из текста («вариативность текста»).

Переплетение точек зрения, мнений и голосов как форма художественного повествования способствуют передаче нюансов духовной жизни персонажей во всей непосредственности и непрерывной смене мыслей, чувств, впечатлений и воспоминаний. Художественная структура текста обогащена множеством пословиц и афоризмов, расширяющих смысловое поле повествования: «Смирение гасит душевное восполнение», «Жалость – сильное и богоугодное чувство, которое ничего не решает, и оно бессильно перед другим чувством – любовью», «Люди летят, как осенние листья,

гонимые ветром перестройки» [3;143] и т.д. В отличие от Г. Щербаковой нарратор-повествователь у В. Токаревой («Система собак», «Ничего особенного») лаконичен и предельно краток. Его функция – обращение к имплицитному или абстрактному читателю, функция хроникёра, открывающего текст, знакомящего с главной героиней, уточняющего, конкретизирующего, объясняющего. Это связано с переходом от одной темы к другой, стремлением выразить авторские интенции, подчеркнуть цель повествования, используя при этом принцип повтора: (начнём сначала, начать сначала). Здесь нарратор выступает в разных ипостасях: хроникёр, автор-повествователь и одновременно слушатель устного рассказа. Автор-повествователь, как бы опережая вопросы читателя, тут же на них отвечает и тем самым призывает читателя следовать за ним. Одной из характерных особенностей русской и узбекской женской прозы произвольная, индивидуальная позиция автора. Как известно, идея художественного текста отражает авторскую жизненную позицию. Она не манифестируется, не объявляется автором прямо, но утверждается внутренней логикой целостной структуры произведения, в которой проявляется авторская позиция. Этой логикой и создаётся стилистическое единство произведения при всём многообразии составляющих его компонентов.

Произведения русской и узбекской женской прозы отличаются выразительностью, яркостью, метафоричностью языка, многообразием стилистических приёмов, позволяющих создавать оригинальную и убедительную картину мира.

#### Литература:

1. Савкина И. «Мария»: Литературный альманах. Петрозаводск, 1995. Выпуск 2. - С. 5
2. Маркова Е. Жизнь без любви // «Русская душа»: Сб. поэзии, прозы современных писательниц русской провинции / wilhemshorst:VerlaqF.K. Gopferst 1995. –С. 404
3. Щербакова Г. Вспомнить нельзя забыть. М.:ЭКСМО, 2008, с.12
4. Бахтин М.М. Слово в романе // Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. Исследования разных лет. М., 1975, с. 153

### O‘RTA OSIYO VA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ILM OLISH VA AQLIY TAFAKKUR XUSUSIDA ILMIY QARASHLARI

*Shaxlo Narzullayevna XAYDAROVA,*

Navoiy innovatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar kafedrasida dotsenti

*Shaxlo Anvar qizi USMONOVA,*

Navoiy innovatsiyalar universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sharq va O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ilm olish va aqliy tafakkur qilish xususida ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Sharq mutafakkirlari, Avesto, shon-shavkat, komil inson, inson ongi, inson tafakkuri, ilm, dunyoqarash, ma’rifat.

**Аннотация:** В данной статье анализируются научные взгляды мыслителей Восточной и Центральной Азии на обучение и умственное мышление.

**Ключевые слова:** восточные мыслители, Авеста, слава, совершенный человек, человеческий разум, человеческое мышление, наука, мировоззрение, просвещение.

**Abstract:** This article analyzes the scientific views of Eastern and Central Asian thinkers on learning and mental thinking.

**Key words:** Eastern thinkers, Avesta, glory, perfect man, human mind, human thinking, science, worldview, enlightenment.

Sharq va O'rta Osiyo allomalari o'z asarlarida ilm olish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida urg'u berganlar.

Insonning sog'lom fikrlashga undovchi manbalardan biri "Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, ajdodlarimiz yaratgan eng qadimiy, noyob bilimlarning xazinasidir.

Jumladan "Avesto"da yaxshi fikr, bola tarbiyasi haqida quyidagi mulohazalar uchraydi: "Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi, tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avval yaxshi o'qishni, so'ngra yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin". "Yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman".

Tasavvuf allomalaridan biri Azizuddin Nasafiy "Komil inson" nomli kitobida yozadi: "Bilgilki, komil inson quyidagi to'rt narsaga mukammal shaklda ega bo'lgan insondir. Ularning birinchisi, yaxshi so'z, ikkinchisi, ezgu faoliyat, uchinchisi, go'zal axloq, to'rtinchisi, ilm. Bu to'rt narsaga erishgan kishi komil inson bo'lishi mumkin", hamda olim o'z fikrini davom ettirib: "Komil inson bo'lish uchun mukammallikka intilmoq lozim. Ya'ni, yaxshi aql, yaxshi so'z, yaxshi fikr, yaxshi axloq, yaxshi bilim va yaxshi amallarni ado etmoq, kishilarni izzat-hurmat qilmoq, yaxshi axloq bilan o'rnak bo'lmoq, adolatli, qanoatli, oriyatli, ma'rifatli bo'lmoq, ilm-bilimni chuqur egallamoq, olamni balo-fitna, g'iybatlardan saqlamoq, kishilar mushkulini oson qilmoq lozim" – degan.

Ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida inson tafakkurining amaliy va hayotiy ahamiyatini bayon etib, shunday yozadi: "Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayirib berur. To'g'ri yo'lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas'ud bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur". Alloma insonning aqliy kamoloti xususida ham to'xtalar ekan, quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur". Olim bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg'u beradi: "Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur".

Abdurauf Fitrat fikriga ko'ra, "Fikr bilan aql insonni kamolotga yetkazuvchi omil bo'lib, o'qish, ta'lim olish, o'rganish shaxsni saodatga yetkazadi". Olim yoshlar ma'naviyati, ularning kelajagi haqida qayg'urib, ularni ham ma'naviy ham jismoniy sog'lom, ilm-fan sohibi qilib kamol toptirish xususida ilg'or fikrlar bildirgan. Fitrat yoshlarni o'z vatandoshlarini aziz Vatanini sevishtga, uni asrashga chorlab, shu Vatan hamda millat saodati, baxti, ravnaqi uchun fidoyilik ko'rsatishga, sog'lom fikrlashga, jasoratli bo'lishga da'vat etgan.

Abu Nasr Farobiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganda mavjud bo‘lgan bo‘lsa, aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatleri, xarakteri, dini, urf-odatleri, ma’lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta’sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi. Abu Nasr Forobiyning e’tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o‘zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: “Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri bilan solishtirib ko‘radi, o‘z bilimlarining chinligini aniqlaydi”. Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: “Ilmlar ko‘pdir. Ular zamoni iqqolli bo‘lib, turli fikr va xotiralar ularga qo‘shilib borsa, ko‘payadi. Odamlarning ilmlarga rag‘bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o‘sha iqqolning belgisidir. Ayniqsa hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi”

Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o‘zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: “Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o‘rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo‘ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo‘ladigan narsadir. Bordi-yu, bu dalillar ochiq-oydin bo‘lsa-yu, isbotlar chinakamiga bo‘lsa, u holda bunga hikmat – donishmanlik deyildi”.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta’bir joiz bo‘lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta’minlashdagi roli, yovuzliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to‘g‘risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo‘lish ezgu ishlar tantanasini ta’minlovchi garov bo‘lib, uning yordamida hatto osmon sari yo‘l ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidir,  
Bilim tufayli, go‘yo ko‘kka yo‘l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to‘qqiz-o‘n asr vaqt o‘tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo‘ldi.

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma’rifatni rivojlantirishga yo‘naltirish yetakchi o‘rin tutadi. Binobarin, ilm-ma’rifat zulm va bid’atdan forig‘ bo‘lish yo‘lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan “Xilvat dar anjuman”, “Safar dar vatan” g‘oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o‘zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo‘lgan ilm puxta va mustahkam bo‘ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o‘zlashtirish zarurligini uqtiradi. Shuningdek, ilm o‘rganish mashaqqatli yumush bo‘lib, uni o‘rganishda ayrim qiyinchiliklarni yengib o‘tishga to‘g‘ri kelishi, bu yo‘lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo‘lish orqaligina mukammal bilimga ega bo‘lish mumkinligini ta’kidlaydi.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mustaqillik davrida yaratilgan hikoyalardagi folklor unsurlari, ularning badiiy asardagi funksiyasi Xurshid Do'stmuhammad "Vasiy" va Isajon Sultonning "Bibi Salima" hikoyalari orqali tahlil qilingan.

**Аннотация.** В данной статье элементы фольклора в рассказах, созданных в период независимости, их функция в художественном творчестве анализируются через рассказы Х.Достмухаммада «Васий» и «Биби Салима» Исаджона Султана.

**Annotation.** In this article, the elements of folklore in the stories created during the period of independence, their function in the artistic work are analyzed through the stories of Kh. Dostmuhammad "Vasiy" and "Bibi Salima" by Isajon Sultan.

**Kalit so'zlar:** folklorizm, hikoya, uslub, urf-odat va an'analar, milliy ma'naviyat

**Ключевые слова:** фольклор, сюжет, стиль, обычаи и традиции, национальная духовность и национальный дух

**Keywords:** folklore, story, style, customs and traditions, national spirituality and national spirit

Istiqlolimiz sharofati ila tadqiqotchilar orasida yozma adabiyotda folklorning ta'siri mavzusiga qiziqish yanada ortdi. She'riyatda, dramada, nasrda folklor unsurlarining poetik vazifalari tadqiqot ob'yektiga aylantirildi.

Yozma adabiyotdagi nasriy asarlarga folklorning ta'siri masalasidagi tadqiqotlar, asosan, istiqlol yillarida yaratila boshlangan. Yozuvchi o'z asariga folklori kiritishi bilan yoki asar kompozitsiyasiga folklori singdirib yuborish orqali asarining xalqonaligini oshiradi. So'nggi yillarda adabiyotimiz sahnasida juda ko'p hikoyalar maydonga keldi. Ularning soni ko'p bo'lsa-da, mavzusi, g'oyasi va yozuvchi tili bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbek hikoyachiligi rivojiga o'z hissasini qo'shib kelayotgan ijodkorlarimizdan Isajon Sulton, Xurshid Do'stmuhammad, Normurod Norqobilov va boshqa yozuvchilarimiz hikoyalarda milliy ruhning ustunligi sezilib turadi.

"Hikoya – epik turning kichik shakli. Hikoyada, odatda, qahramon hayotidan bitta (ba'zan bir-birga uzviy bog'liq, qisqa muddat davomida kechgan bir necha) voqeani qalamga oladi" [2.76]. Hikoya janri hajmi kichik bo'lsa-da, unda aks etishi kerak bo'lgan voqealar yetarlicha yoritib beriladi. Uning kompozitsiyasini qay darajada yoritilishi bu yozuvchining ijodiy saviyasiga bog'liq.

Mustaqillikdan avvalgi va keyingi hikoyalar zamon va mavzusi bilan farq qiladi. Mustaqillik davridan avval yaratilgan hikoyalimizda xalqimizning og'ir mehnat sharoitida yashaganligi va bu qiyinchiliklarda erishgan g'alabasi, ega bo'lgan sabr-toqati aks ettirilgan bo'lsa, istiqlolimizdan keying davrlarda yaratilgan hikoyalarda Vatanimizning yangi insonlari, yangi avlodlari, yangi siyosati haqida yozildi. Hikoya yozish usuli o'zgardi. Ularda voqelikka keng urg'u berilmasdan qahramon ruhiyatiga katta e'tibor qaratiladigan bo'ldi. Insonlarning milliy ruhi hikoyaning bosh qomusiga aylantirildi.

Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad va Isajon Sulton hikoyalari yangicha uslubda yozilsa-da, ularda folklorizm usullari asosiy o'rinda turadi. "Folklorizm" atamasi, aslida, ijodkorlarning asarlarida xalq og'zaki ijodidan foydalanishdir. Bu atama boshqa bir chet el adabiyotlarida ham mavjud. O'zbek adabiyotshunosligiga "folklorizm" atamasini professor Bahodir Sarimsoqov olib kirgan va uning nazariyasini ishlab chiqqan. Adabiyotshunos "Folklorizmlar tipologiyasi masalasiga doir" maqolasida har qanday yozuvchi o'z asarida



folklarga oid unsurlardan foydalanishi va shu bilan birga ularga ishlov berishini takidlaydi [3.37].

Zamonaviy adabiyotimiz namoyondalaridan biri Xurshid Do'stmuhammadning "Vasiy" hikoyasini folklorizm nazariyasi bo'yicha tahlilga tortar ekanmiz, bu hikoyaning yangi uslubda va o'zgacha bir ruhda yaratilganini kuzatish mumkin. Bu hikoyada bor yo'g'i ikki qahramon harakatlanadi, asosiy harakatlar, asarning mazmun-mohiyatini ochib berish esa bolali jinni juvonga yuklanadi. Ijodkor bunda murakkab folklorizmdan mohirlik bilan foydalangan. Adabiyotimizda folklorizmning oddiy va murakkab turlari adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan ko'rsatib o'tilgan [4.32].

"Vasiy" hikoyasida xalq og'zaki ijodi motivi bo'lgan ona mehri va farzandini har qanday yovlardan, yomon narsalardan asrash uchun o'z jonlarini ham fido qilishlari aks ettirilgan. Yozuvchi ayolning jinni ekanligini bilib olishni kitobxonning o'ziga havola qiladi. "Oppoq, toza dasturxonga yo'rgaklangan chaqaloqni tizzalari orasiga yotqizib tebratib o'tirgan juvon ayvonning lang ochiq derazasidan bo'ynini cho'zib hovliga qaradi" [5].

O'zbek oilalarida dasturxon oddiy detal bo'lsa-da, u qadrlanadi. Uni bosish, unga qo'l artish, uni ayoqostida saqlash gunoh ekanligi haqida bobolarimiz va momolarimiz bir qancha hikmatlar, rivoyatlar keltirgan. Hikoyada juvon chaqaloqni dasturxonga yo'rgaklaganidan uning aqli joyida emasligini bilamiz.

Ona farzandini nimalardandir qo'rimoqda. U bolani qo'riqlash, uni asrab qolish uchun ko'rpalar orasiga yashiradi. Juvon jinni bo'lsa-da, unda onalik mehri saqlangan.

Isajon Sulton ijodida ham milliy ma'naviyat va an'analarimiz aks etgan bo'lib, yozuvchining "Bibi Salima" hikoyasida bu mavzular ko'zga yaqqol tashlanadi. Hikoya bosh qahramoni Bibi Salimaning tong sahar turib eshiklarni ochib qo'yishi, uyga barokat kirishi bilan bog'liq motiv qahramonning xatti harakatlari zamiriga singdirilgan yopiq holda yashirin ifoda etilgan etnofolklorizmdir. Personajlar nutqidagi qarg'ishlar, olqishlarning o'rni bilan qo'llanishi folklorizmning sochiq holda qo'llanishidir. Demak, Isajon Sulton nasriy asarlarida folklorizmning qo'llanilish uslubiga ko'ra sochiq va yopiq, asar syujetida kelish o'rniga ko'ra sochiq va tizimli qo'llangan folklorizmlar deb guruhlashtirsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yozuvchining boshqa hikoyalarida ham ushbu jarayon ko'zga tashlanganini kuzatish mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan ko'riladiki, hikoya hajm jihatdan kichik asar bo'lsa-da, unda hayot haqiqati, hayot falsafasi badiiy uslubda o'z ifodasini topgan. Hikoyalarda qo'llangan har bir folklor unsuri yozuvchi tomonidan ma'lum bir badiiy maqsad uchun qo'llanadi va ijodkor tomonidan sayqallashtiriladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Isajon Sulton. Asarlar. Hikoyalar. 2-jild. –Toshkent :G'ofur G'ulom NMIU, 2017.
2. Qur'onov D. Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T ., 2013.
3. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasiga doir.// O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent , №4.1980.
4. Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizm. –Toshkent : Fan, 2011.
5. <https://tafakkur.net>

## DRAMATIK MATNDA TAVTOLOGIYANING KOGNITIV-STRATEGIK IMKONIYATLARI

*Dilnoza Xasan qizi YO‘LDOSHEVA,*  
*NavDPI 10.00.01-O‘zbek tili ixtisosligi tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dramalarda tautologiyaning kognitiv, hamda strategik imkoniyatlari, konsept tushunchasi, konseptlar tarkibida vujudga keladigan ma’nolar, obrazlar va assotsiativ qatorlarning rivojlanishi, tautologik birliklarning turli ma’no qirralari tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** kognitiv, konsept, tushuncha, tautologik konstruksiya.

**Аннотация:** В данной статье анализируются познавательные и стратегические возможности тавтологии в драмах, концепт-концепт, развитие смыслов, образов и ассоциативных линий, возникающих в концептах, различные аспекты значения тавтологических единиц.

**Ключевые слова:** познание, понятие, понимание, тавтологическая конструкция.

**Annotation:** In this article, the cognitive and strategic possibilities of tautology in dramas, the concept concept, the development of meanings, images and associative lines arising in the concepts, various aspects of meaning of tautological units were analyzed.

**Key words:** cognitive, concept, understanding, tautological construction.

O‘tgan asr so‘ngida yuzaga kelgan kognitiv tilshunoslik XXI asrga kelib antropotsentrik paradigmaning yetakchi sohalaridan biriga aylandi. J.Lakoff, M.Jonson, R.Langaker kabi amerikalik olimlar kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishida xizmat qilgan bo‘lsalar, soha N.D. Arutyunova, Ye.S.Kubryakova, V.Z.Demyankov, N.N. Boldirev, A.N. Baranov, D.O.Dobrovolskiy, A.V.Rudakova kabi rus olimlari tomonidan o‘zining keyingi yo‘nalishi va taraqqiyot bosqichini egalladi. O‘zbek tilshunosligida kognitiv tilshunosligiga doir nazariy qarashlarni Sh.S.Safarov [Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: “Sangzor”, 2006] boshlab bergan bo‘lsa, D.U.Ashurova, A.E.Mamatov, G‘.M.Hoshimov kabi olimlar tomonidan keng o‘rganilib kelinmoqda.

Tilshunoslikning antropotsentrik yo‘nalishga yuz burishi “til egasi” tushunchasini yuzaga keltirdi. Til “o‘z-o‘zida va o‘zi uchun” (F.de Sossyur) xizmat qilar ekan, tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o‘rganish [Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // Вопросы языкознания. 1994. № 4. -С. 304.] va bilishni “lingvistik aks ettiruvchi” [Рудакова А.В. Когнитология и когнитивная лингвистика / Под ред. И.А. Стернина. Воронеж, 2002. –С. 10.] deb qabul qilishni antropolingvistikaning bir sohasi sanaluvchi kognitiv tilshunoslikning o‘rganish obykti sifatida belgilash mumkin. Kognitiv tilshunoslik (inglizcha cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq) kognitiv faoliyat mahsuli (N.N. Boldirev) ekan, bilish nazariyasi bilangina emas, balki tilni tafakkur bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning sotsiologik, madaniy, lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini o‘rganadi. Kognitiv faoliyat insonning biror narsa-predmet, hodisa, holat, harakat, voqelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir. Kognitiv faoliyat bevosita til bilan bog‘liq holda kechadi, zero, til vositasida hayotiy tajriba va orttirilgan bilim o‘zaro almashiniladi, axborot qabul qilinadi va uzatiladi, bilish fondi va uning natijalarining ushbu qirralari bilishning lisoniy sistemasini tartiblashtirish, xotirada saqlashning lisoniy vositalarini o‘rganuvchi tilshunoslik fani bilan aloqadordir. Kognitologiya “... doirasida shakllangan kognitiv tilshunoslik, o‘z navbatida, murakkab vazifa ijrosini ko‘zlaydi, zotan lisoniy va bilim strukturalari o‘rtasidagi munosabatlar hamda doimiy muqobilliklar tahlili, izohi

rejalashtiriladi”. [Кубрякова Е. С. О когнитивной лингвистике и семантике термина “КОГНИТИВНЫЙ” // Вестник Воронежского государственного университета Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – Воронеж, 2001. 9-с.]

Inson mavjud voqelikni anglar ekan, egallagan bilimlarini turli “konseptlar” orqali egallaydi, ularni shakllantiradi, to‘ldiradi, rivojlantiradi va muloqot jarayonida ishlatadi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy obyekti – konseptdir. Kognitiv tilshunoslik – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog‘liqligini o‘rganuvchi fan bo‘lsa, konsept kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, madaniyat va inson o‘rtasidagi aloqa o‘rnatuvchi elementdir.

Konseptni inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks etishi deb ta’riflaydigan kognitiv yondashuv ham mavjud. Binobarin, konseptning asosida turgan sema – tarixiy bo‘lishiga va undan bir nechta yangidan-yangi tasavvur va ma’nolar kelib chiqqaniga qaramay, u har doim til egasi tomonidan kerakli ma’noda qabul qilinadi. Masalan: *tuman* so‘zi kelib chiqishi bo‘yicha qadimgi turkiy so‘z hisoblanib, Qo‘qon xonligi (1868) va Buxoro amirligi (1920) tugatilgunga qadar ma’muriy-hududiy birlik nomi sifatida amalda bo‘lgan. Bu so‘zning ma’nosi “10 ming va undan ziyod jangchini safarbar etishga qodir ma’muriy-hududiy birlik”dir. [O‘zbek sovet ensiklopediyasi.14-tomlik. 11 tom, –T.: O‘zSE, 1978. - B. 333.] Buxoroda tuzilgan huquqiy hujjatlardan birida “Tuman” (turkcha – “o‘n ming”) ma’muriy-hududiy birlikni ifodalovchi atama sifatida birinchi marta 1299 yilda eslatiladi”. [Begaliyev N. Nohiyami yoki tuman? // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. - Toshkent, 1990, 7 dekabr, № 5.] *Tuman* so‘zi eski o‘zbek (O‘rta Osiyo – turk, chig‘atoy) adabiy tilida ham ishlatilgan. Hozirgi o‘zbek tilida bu so‘zning “o‘n ming” ma’nosi eskirgan, u ko‘proq poetik detalga aylanib bormoqda. Hozirda “tuman”ning faol ma’nosi esa – “O‘zbekistonda: viloyat, shahar hududida ularning tarkibiy qismi bo‘lgan ma’muriy-hududiy bo‘linma”, shu bilan birga shevada “tuban, quyi” ma’nolari ham mavjud (O‘TIL, IV, 187). Muloqot egasi uning faol ma’nosini, birinchi navbatda, o‘z xotirasida saqlaydi va uning tarixiy (asl invariant) ma’nosini esa keyingi navbatda eslaydi va faqat zarur bo‘lgandagina nutqiy muomalada qo‘llaydi.

Sh.Safarovning o‘zbek tilshunosligida kognitiv tilshunoslik haqidagi nazariy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Sh.Safarov: «...konsept»ning zamiridagi «mental struktura» hech qanday moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmay, balki aqliy idrok jarayonida hosil bo‘ladigan, tasavvurdagi tuzilma ekanligini unutmazlik lozim. Boz ustiga, «konsept» atamasi «tushuncha», «ma’no», «mazmun» kabi boshqa mental hodisalar bilan yonma-yon turadiki, ayni paytda ularning o‘zaro munosabatini aniqlash, farqli belgilarini ajratish muammosi ham paydo bo‘ladi».

Tilshunoslar tavnologik konstruksiyalarning quyidagi asosiy turlarini keltiradilar:

1. Atributiv tavnologiyalar (qo‘poldan qo‘pol; axmoqona axmoqlik, chin haqiqat);
2. Strukturali tavnologiyalar (*ishchi ishlaydi; o‘qituvchi o‘qitadi; uyquda tush ko‘rish; ta‘magirlik bilan kun ko‘radigan ta‘magir*);
3. Qiyosiy tavnologiyalar (*ahmoqona ahmoqlik; vahshiyona vahshiylik*);
4. Predikativli tavnologiyalar (*hayot – bu hayot; daraxt – bu daraxt*);
5. Valentlik asosidagi tavnologiyalar (*men ko‘rganlarimni ko‘rdim; Siz ketishingiz kerak bo‘lganda, siz ketishingiz kerak; urushda urush bo‘lgani kabi*).

Nutqda tavnologiya so‘zlovchining turli holatidan kelib chiqib yuzaga keltiriladi.

Tavnologiyalar nutq jarayonida, og‘zaki nutqda, kutilmaganda yuzaga kelishi mumkin, masalan, tasodifiy foydalanish bilan tavsiflanadi. Nutqda bunday tavnologiyalarning paydo bo‘lishining sabablari psixofiziologik xususiyatga ega: fikr darhol emas, balki asta-sekin quriladi va so‘zlovchi ko‘pincha allaqachon aytilgan narsalarni keraksiz ravishda takrorlaydi.

Tavtologiyalar “odatdan tashqari” barqaror tavtologiya hisoblanadi, o‘rinsiz ortiqchaliklar (*ishda ishlamoq, topishmoq javobini topmoq, raqqosaning raqsga tushishi, piyoda odimlamoq, ajoyib mo‘jiza*). Aksariyat hollarda bunday tavtologik iboralar odatdan tashqari, o‘ziga xos “antik davrning sodda nutqiy qoldiqlari” sifatida ishlatiladi.

Tavtologiyalarni “bilmagan holda” yuzaga kelgan nutqiy xatolar sifatida tushunish mumkin. Tavtologik ifoda konstruktsiya tarkibiy qismlaridan birining ma’nosini aniq bilmaslik natijasida qo‘llaniladi (*sobiq eks-chempion, interval oralig‘i, satirik karikatura, mahalliy aborigenlar*).

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi badiiy matnda tavtologiyani to‘liqroq aniqlash va har tomonlama o‘rganish zarurati bilan belgilanadi, chunki u ma’noni oshirishga xizmat qiladi, buning natijasida tavtologiyaga asoslangan raqamlardan foydalanish tasodifiy yemas, balki qasddan. Ushbu qoida "belgi chegaralarini kengaytirish" uchun mo‘ljallangan pragmatika bilan kesishadi, tilshunoslikni fikrlarning plyuralizmiga va shuning uchun muloqotga mahkum qiladi, bu yesa o‘z navbatida axborot bilan bog‘lanib, inson bilimining har qanday sohasining ajralmas qismiga aylanadi.

Badiiy matnda tavtologiyani to‘liqroq aniqlash va har tomonlama o‘rganish zarurati bilan belgilanadi, chunki u belgi chegaralarini kengaytirish uchun mo‘ljallangan pragmatika bilan kesishadi, axborot bilan bog‘lanib, inson bilimining har qanday sohasining ajralmas qismiga aylanadi.

Tavtologik shakllanishlar kognitiv-pragmatik yondashuvni rivojlantirishga olib keladigan tilning umumiy nazariyasiga asoslangan funksional ta’rifga ega bo‘ladi. Muammoni bunday ko‘rib chiqish, bizning fikrimizcha, dolzarbdir, chunki bu nafaqat matni yaxshiroq talqin qilish, balki lingvistik shaxsning og‘zaki tavsifini berish imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Begaliyev N. Nohiyami yoki tuman? // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. -Toshkent, 1990, № 5.
2. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // Вопросы языкознания. 1994. № 4. –С. 304.
3. Кубрякова Е. С. О когнитивной лингвистике и семантике термина “когнитивный” // Вестник Воронежского государственного университета Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – Воронеж, 2001. –С. 180.
4. Рудакова А.В. Когнитология и когнитивная лингвистика // Под ред. И.А. Стернина. Воронеж, 2002. – С. 10.
5. Safarov S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: “Sangzor”, 2006. 92-b.

### **ПРОДУКТИВНЫЕ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ АФФИКСЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ КАК СРЕДСТВО ОТРАЖЕНИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ РЕАЛИЙ**

***Римма Рафиковна БИКСАЛИЕВА***

***преподаватель Навоийского университета инноваций***

**Аннотация.** Рассматривается влияние на словообразовательный механизм русского языка новейшего периода внутрилингвистических факторов, в частности, закона языковой экономии, и внелингвистических факторов – глобализации, либерализации общественно-политической жизни, экономических, идеологических, социальных, культурных преобразований.

**Ключевые слова:** неологизм, неология, неография, социокультурные реалии, внелингвистические факторы, социально-культурные, экономические и



идеологические факторы, разноструктурные языки, словообразовательные неологизмы.

Весьма ценным и для исследователей могут быть данные неологических словарей о продуктивных словообразовательных способах, моделях и формантах, используемых при образовании новых слов, о стилистической окраске новообразований. Рассматривая ключевые слова и словообразовательные модели современного дискурса, И.А. Нефляшева отмечает, что «показателем развития словообразовательной и лексической систем является не только рост производных от одной основы, но и наполнение известных словообразовательных моделей новыми дериваторами. Представляется возможным говорить не только о ключевых словах, но и о ключевых словообразовательных моделях текущего момента» [2; с. 178–179].

Очевидно, в рамках конкретной ключевой словообразовательной модели важную семантическую и стилистическую функцию выполняет словообразовательный формант, в первую очередь, словообразовательный аффикс. Е.В. Сенько, анализируя связь словообразования и внеязыковой действительности, обращает внимание на то, что «современное аффиксальное словообразование отличается ярко выраженным социально обусловленным характером» [5; с. 247].

В русском языке конца XX в. при образовании неологизмов высоко продуктивными являются словообразовательные модели с суффиксом *-(из)аци(я)*, с помощью которого создаются не только отглагольные, но и отыменные субстантивы: *валютизация, губернизация, латышизация, рекламизация* и др.

Наличие производных, указывающих на процесс, подчеркивает активность, широкую распространенность и интенсивное проявление в жизни реалий, называемых производящими. Так, экономические преобразования привели к явлениям *валютизации* – «перевод денежных средств, платежей и расчетов на иностранную валюту...»; *ваучеризации, долларизации, бартеризации* – «внедрение бартера (товарообмена без использования денег), отношений, основанных на нем», *купонизации, талонизации* и др.

Социальные потрясения, падение общего уровня культуры приводят к *дебилизации* и *баранизации* – «превращению в тупую, послушную, легко управляемую массу...» населения, а рост бандитизма приводит в целом к *бандитизации* – «распространению бандитизма» и *мафизации*.

Среди новых слов анализируемой группы есть единицы с эмоционально-экспрессивной или стилистической окраской: так, помета «разговорное» характеризует новообразование *дебилизация* – «1. Увеличение рождаемости умственно неполноценных детей ...; 2. Понижение интеллектуального и нравственного уровня нации...».

Е.А. Земская, анализируя речь 90-х годов XX в., отмечала, что для этого периода характерна «высокая активность отвлеченных существительных на *-щина*, дающих резкую отрицательную оценку какому-либо социальному, политическому или экономическому явлению, связанному с поведением или свойствами того лица, которое служит базовой основой» [1; с. 156].

Сочетание суффиксов субъективной оценки *-шик(о)* и *-чик* с основами – *демократ-, -депутат-, -банкир-* (новообразования *демократишко, депутатишко, банкирчик*, сопровождающиеся пометами «пренебрежительное» или «презрительное») отражает негативную оценку определенной частью общества лиц, номинируемых данными новообразованиями. Согласно [3; с. 35] «многие субстантивные диминутивы



с размерно-оценочными суффиксами не столько указывают на предмет незначительного размера, сколько выражают иронию, пренебрежение, уничижение. <...> Социальной экспрессией обладают и диминутивы — наименования лиц с уничижительными суффиксами». Между тем, как отмечает Л.В. Рацибурская, сама «активизация диминутивного словообразования отчасти объясняется усилившейся в последнее время тенденцией <...> к фамильярному умалению и снижению объектов номинации» [4; с. 368]. Не случайно исследователи рассматривают деминутивы как важную и специфическую составляющую русской языковой картины мира.

Кроме ключевых суффиксальных морфем, используемых в разнообразных словообразовательных моделях, можно говорить и о ключевых моделях с префиксальными или префиксоидальными морфемами. К ним, в частности, можно отнести префиксы и синонимичные им префиксоиды со значением неистинности, ложности (*лже-*, *псевдо-*, *квази-*) (производные с данными дериваторами отражают «неприятные ситуации смены ценностных ориентиров в стране») [3; с. 36], а также префиксы, указывающие на высокую степень проявления признака (*супер-*, *гипер-*, *мега-*), продуктивность которых связывается исследователями с установкой говорящих на преувеличение «общей, моральной или эстетической оценки при номинации лиц, объектов и событий» [6; с. 61]; префиксы со значением противоположности (*анти-*, *не-*) и некоторые другие. Культуролог С. Зенкин, отмечая пристрастия современной гуманитарной науки к приставкам *пост-*, *гипер-*, *супер-*, отмечает следующее: «Вкус культуры XX века к самоописанию через префиксы свидетельствует, как кажется, о двух вещах: в моде на префиксы прочитывается воля к схематизации культуры, к ее завершенности и исчислимости (трансформирование старых понятий, выраженных корнями); префиксы – средство культурной рефлексии [6; с. 4].

Предельный случай составляют многочисленные «нео-» течения: декларируя возврат к чему-то бывшему прежде. В то же время они самим своим префиксом буквально означают «обновление», т.е. изменение наследуемой традиции, а всякое изменение означает род отрицания.

Таким образом, согласно утверждению И.А. Нефляшевой, «ключевые модели могут служить основанием для выводов, выходящих за пределы узко лингвистических в силу выражения безусловных предпочтений в категоризации картины мира средствами языка определенного периода» [2; с. 182].

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Земская Е.А. Язык как зеркало современности (словообразовательные заметки) // Филологический сборник (к 100-летию со дня рождения академика В.В. Виноградова). – М., 1995. – С. 154–163.
2. Нефляшева И.А. Ключевые слова и словообразовательные модели современного дискурса // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2: Филология и искусствоведение. – 2009. – №2. – С. 177–183.
3. Радбиль Т.Б., Рацибурская Л.В. Словообразовательные инновации на базе заимствованных элементов в современном русском языке: лингвокультурологический аспект // Мир русского слова. – 2017. – № 2. – С. 33–39.
4. Рацибурская Л.В. Активные деривационные процессы в современном русском языке (на материале медийных текстов) // Научное наследие Б.Н. Головина в свете актуальных проблем современного языкознания (к 100-летию со дня рождения Б.Н. Головина): Сборник статей по материалам Международной научной конференции. – Нижний Новгород: ДЕКОМ, 2016б. – С. 365–369.

5. Сенько Е.В. Неологизация в современном русском языке: межуровневый аспект. – СПб.: Наука, 2007. – 355 с.
6. Социокультурные и лингвопрагматические аспекты современных словообразовательных процессов: коллективная монография/ Т.Б. Радбиль, Л.В. Рацибурская, Е.В. Щеникова, Н.А. Бакич, В.А. Торопкина, Е.А. Жданова/ Под ред. Л.В. Рацибурской. – М.: ФЛИНТА, 2018. – 232 с.

## FRAZEMALARNING LINGVISTIK IMKONIYATLARI

*Yulduz Shaxobovna RAHMATOVA,  
NavDPI tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada frazema tarkibidagi soʻzlarning semantikasi va sintaktik tuzilishi turkiy tillar bilan qiyoslangan holda tahlilga qilingan.

**Kalit soʻzlar:** frazeologiya, frazema, leksema, semantika, sintaksis, boshqird tili, qozoq tili, oʻzbek tili.

**Аннотация.** В данной статье семантика и синтаксическая структура слов, содержащихся во фразеологизме, анализируются по аналогии с тюркскими языками.

**Ключевые слова:** фразеология, фразеологизмы, лексема, семантика, синтаксис, башкирский язык, казахский язык, узбекский язык.

**Annotation.** In this article, the semantics and syntactic structure of words contained in phraseology are analyzed by analogy with the Turkic languages.

**Keywords:** phraseology, phraseological units, lexeme, semantics, syntax, Bashkir language, Kazakh language, Uzbek language.

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil boʻlimi boʻlib, unda koʻchma maʼnoga asoslangan barqaror soʻzlar bogʻlanmasi oʻrganiladi. “Frazeologiya” termini grekcha “pharsis” fraza, ifoda “logos” taʼlimot degan maʼnolarni anglatib, uning tadqiqot doirasiga faqat koʻchma maʼnoga asoslangan turgʻun birikmalar kiritiladi <sup>1</sup>. Tilshunoslik boʻlimi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat eʼtibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini oʻrganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qoʻllanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Uning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (yaʼni avvaldan tayyor boʻlmagan) soʻz birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Soʻzdan farqli oʻlaroq, frazemalar uchun emotsional-ekspressiv boʻyoqdorlik ajralmas xususiyat hisoblanadi, shu bilan birga, frazemalarning asosiy qismi uslubiy jihatdan neytraldir. Chunki frazema yordamida u yoki bu predmet, hodisa nomlanibgina qolmasdan, oʻsha predmet yoki hodisaga, shaxsga soʻzlovchining ekspressiv munosabati ham ifodalanadi. Soʻz va frazeologik birlik oʻrtasida koʻp qirrali semantik aloqalar mavjud: ichki maʼnodoshlik, sinonim, antonimik va hokazo. “Soʻzda toʻgʻri (nominativ) maʼno yetakchi (dominant) boʻlsa, frazeologik birlikda obrazli-nominativ maʼno yetakchidir. Soʻz asosan ifodalasa, frazeologik birlik har doim tasvirlaydi. Frazeologik birlikda obrazli maʼno global xususiyatga ega<sup>2</sup>”. Masalan, “*Puf desa, Buxoroga uchadi*” gap qolipli frazemaning maʼnosi lugʻatda shunday keltirilgan: “juda yengil va yupqa” maʼnosini beradi.<sup>3</sup> Ushbu frazema haqida O.Bayjigitov quyidagi fikrlarni keltiradi: “...biror joyning uzoq emasligini bildirish maqsadida vohiyda “Ahmoqqa Quva bir tosh” deyilsa, Toshkentda “Ahmoqqa Toʻytpa bir tosh” iborasi ishlatiladi. Yoki “Asakasi ketadimi?” –

<sup>1</sup> Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс, 2005. 7-6.

<sup>2</sup> Ураксин З.Г. Фразеология башкирского языка. - М.: Наука, 1975. 22-с.

<sup>3</sup> Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati. T., 1992. 224-b.

nimani yo‘qotadi, ma‘nosida, “Onasini Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatmoq” – adabini berib qo‘ymoq, “Puf desa Buxoroga uchadi” – omonatgina mazmunidagi iboralarida Quva, To‘ytepa, Asaka, Uchqo‘rg‘on, Buxoro toponimlari o‘zbek tilida yangi frazemalar shakllanishiga asos bo‘lgan”.<sup>1</sup> Masalan, “*Puf desa, Buxoroga uchadi*” frazemasida “juda yengil va yupqa” ma‘nosi bilan badiiy matnda qo‘llanilganligiga misol keltiramiz: *Boshqa ayollar ayvonlarga o‘tqazilib, kichkina iflos patnislarda puf desa, Buxoroga uchadigan taxir chap-chap non, qurtloqi turshak, jiyda va tishga yopishsa, ombir bilan ham sug‘urib olish qiyin bo‘lgan yopishqoq popuk tortildi.* (Oybek, Qutlug‘ qon).

Boshqird tilida *Йөрәк үксәгә кутеу* gap qolipli frazemasida “qo‘rqmoq” ma‘nosini anglatadi: *Хәзер ул кайтып килгәс, был тирәләгә баярзарзың йөрәктәре үксәләренә кутте инде* (B. Dəylətshina).<sup>2</sup> Ushbu frazema o‘zbek tilida ham shu ma‘noda qo‘llanadi: *Bu dalolatni eshitgan va Toshkentning dahayu mahallarini yaxshi bilmaydigan odam Yunusobodni Qoraqalpog‘istonning Shumanay tumanidan ham narida bo‘lsa kerak, degan xayolga borishi va yo‘l kirasini o‘ylab, yuragi tovoniga tushib ketishi aniq.* (Qulman Ochilov. Pista (hikoya)). Quyidagi tayanch komponenti *yurak* leksemasidan tuzilgan gap qolipli frazemalar “qo‘rqib ketmoq” ma‘nosini ifodalaydi: *yuragi orqasiga tortib ketdi, yuragi qoq yorilayozdi, yuragi shuv etib ketdi, yuragi yorildi, yuragiga vahima tushdi, yuragi orqasiga tortib ketdi, yuragi chiqib ketdi* va hokazo.

O‘zbek tilidagi “*qo‘li bog‘langan*”, “*qo‘l-oyog‘i bog‘langan*”, “*ipsiz bog‘langan*”, “*qo‘l-oyog‘i ipsiz bog‘langan*” gap qolipli frazemalar turkiy tillarda ham keng qo‘llanilganligini, *qo‘l, oyog, ip, bog‘lamoq* so‘zlarining turkiy tilga xosligi bilan ham dalillash mumkin, masalan, qozoq tilida ushbu frazema қолы жіпсіз байланды<sup>3</sup> tarzida qo‘llanadi. Masalan: *Qismat meni sahrolarga bog‘lasa ipsiz.* (M.Yusuf).

Frazemalar so‘zlardan farqli holda reallikdagi muayyan voqea-hodisani faqat ifodalash, nomlash uchun emas, shu bilan birga, unga nisbatan modal, emotsional, estetik munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Sh.Rahmatullaev frazeologik birliklarning ma‘no tabiatini bittadan ortiq so‘z yaxlitligicha ma‘lum bir obraz asosida, ko‘chirish yo‘li bilan semantik taraqqiyotni boshdan kechiradi<sup>4</sup> deb ta‘kidlab muayyan obraz asosida yuzaga kelgan ma‘noni frazeologik ma‘no deb ataydi

“Frazeologik iboralarni semantik tomondangina o‘rganish bu fanning barcha xususiyatlarini aniqlash uchun imkon bermaydi. Shuning uchun frazeologik iboralarni semantik, grammatik, etimologik va stilistik jihatlardan tekshirish va klassifikatsiya qilish ma‘qul. ...Frazeologik iboralarni grammatik (morfologik, sintaktik) tomondan tekshirganda, ularning so‘zga, so‘z birikmasiga va gapga teng (ekivalent) bo‘lib kelishi va boshqa shu kabi xususiyatlari o‘rganiladi<sup>5</sup>.

Frazemalarning gap qolipli ko‘rinishlarida o‘zbek tilida anchagina bo‘lib, ularning gaplardan farqi shundaki, bunda yaxlit ma‘no frazema tarkibidagi har bir so‘zning ma‘nosi bilan aloqador bo‘lmaydi, ular anglatgan leksik ma‘noga ko‘ra kelib chiqmaydi: *ko‘zi ilindi, ilon po‘st tashlaydi, itning tuvagi tilladan bo‘lib ketdi, lop desa, ola qop olib yugurmoq, oling-u, oldirmang, siz aytgan tollar kesilib ketgan, sichqonning ini ming tanga bo‘ldi, suv kelsa - simirmoq, tosh kelsa – kemirmoq* kabi. Ibora tarkibini sintaktik tahlil qilish nutq birligining tarkibini emas, balki til birligining tarkibini tahlil qilish bo‘ladi. Umuman, ibora tarkibida

<sup>1</sup> Bayjigitov O. O‘zbek lingvokulturologik frazeologizmlarining assotsiativ talqini // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. O‘zA ilm-fan bo‘limi (elektron jurnal). T., 2022, №11 (37). 182-b.

<sup>2</sup> Ураксин З.Г. Фраzeология башкирского языка. - М.: Наука, 1975. 27-с.

<sup>3</sup> Болғанбайұлы Ә., Қалиұлы Ғ. Қазіргі қазақ тілінің лексикологиясы мен frazeологиясы. Алматы: Санат, 1997. 196-б.

<sup>4</sup> Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. –Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. 5-b.

<sup>5</sup> Pinxasov Ya. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. -T., 1969. 56-57-b.

qatnashgan soʻzlar orasidagi sintaktik bogʻlanish oʻz kuchini saqlaydi, oʻlmaydi, faqat ichki boʻladi»<sup>1</sup>. Bu jihat frazemalarning nutq birligi boʻla olmasligini koʻrsatadi, chunki uning tarkibini tashkil etgan soʻzlar oʻrtasidagi bogʻlanish ichki sintaktik bogʻlanish sanaladi.

Frazema ham soʻz kabi ichki tomon va tashqi tomonga ega, soʻzdan farqli tarzda, ifoda va mazmun jihati murakkablikka ega, mazmuni ichki tomon sanalsa, shakli tashqi tomonidir, biroq ulardagi bogʻlanish turgʻun sanaladi. Frazemalar semantik jihatdan ham, sintaktik jihatdan ham barqaror boʻlib, semantik imkoniyati soʻznikiga nisbatan ancha murakkab, chunki frazema maʼno munosabatlari bilan uning tarkibidagi soʻzlar maʼnosida nomuvofiqlik mavjud. Shuningdek, gap qolipli frazemalar tarkibidagi soʻzlarning oʻrnini koʻpincha almashtirib boʻlmaydi, frazeologik birikma komponentlarining sintaktik munosabati turgʻunlashgan semantik yaxlitlikning vujudga kelishida muhim mavqega ega. Shu bois, sintaktik munosabatlarni tashkil etayotgan soʻzlarning grammatik shakllarini aksariyat hollarda oʻzgartirib boʻlmaydi, masalan: *Oʻtirs-a-oʻpoq, tursa – soʻpoq deyish, Burgaga achchiq qilib koʻrpani kuydirmoq, Ishi bitdi, eshagi loydan oʻtdi* kabi.

Frazemalarning lingvistik xususiyatlari tilshunoslikda, xususan, oʻzbek tilshunosligida ham tilimiz taraqqiyotining hozirgi davrigacha turli jihatdan tadqiq etilmoqda, leksema kabi frazemalar ham koʻp qirrali boʻlib, ularning semantik xususiyatlarini oʻrganish yuzasidan salmoqli yutuqlarga erishildi. Gap qolipli frazemalarning sintaktik tabiati alohida oʻrganilishi lozimdir.

## GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARIDAGI OMONIM SOʻZLARNING QOʻLLANILISHI

*Zamira Abdiraxmonovna AXMEDOVA,  
Navbahor tumani 11-umumiy oʻrta taʼlim maktabi direktori*

**Annotatsiya.** Maqolada linvopoetikaning oʻrganilishi, badiiy asarlarning linvopoetik tahlili muhimligi, aynan “Zarbulmasal” adabiy jihatdan qanchalik noyob asar hisoblansa, til nuqtayi nazaridan ham nodir asar ekanligiga ahamiyat qaratilgan. Ushbu asar tilida ahtonim, sinonim, omonim, paronim hamda leksika (dialektizmlar), istorizmlar, arxaizmlar (...) tasnifi va soʻzdan unumli foydalanish xususiyatlarini tahlil qilish lozim. Asarda berilgan ayrim omonim soʻzlar tahlili berilgan.

**Kalit soʻzlar:** linvopoetika, shakldosh soʻzlar, adabiy shakl, adabiy til, sintaktik birliklar, xalq maqollari, matallar, tasnif.

**Абстрактный.** В статье акцентируется внимание на важности изучения лингвопоэтики, лингвопоэтического анализа художественных произведений, а также на том факте, что «Зарбулмасал» является произведением редким с точки зрения языка, поскольку считается уникальным произведением из литературной литературы. точка зрения. На языке данной работы необходимо проанализировать особенности классификации и эффективного использования слова аhtonim, синонима, омонима, паронима и лексики (диалектизм), историзмов, архаизмов (...). Дан анализ некоторых омонимов, приведенных в работе.

**Ключевые слова:** ливпоэтика, сходные слова, литературная форма, литературный язык, синтаксические единицы, народные пословицы, пословицы, классификация.

**Abstract.** The article focuses on the importance of the study of linguopoetics, the linguopoetic analysis of artistic works, and the fact that "Zarbulmasal" is a rare work from the

<sup>1</sup> Rahmatulayev Sh. Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati. Toshkent. 1978, 10-bet.



point of view of language, as much as it is considered a unique work from a literary point of view. . In the language of this work, it is necessary to analyze the characteristics of ahtonym, synonym, homonym, paronym and lexicon (dialectisms), historiisms, archaisms (...) classification and effective use of the word. An analysis of some homonyms given in the work is given.

**Key words:** linvopoetics, similar words, literary form, literary language, syntactic units, folk proverbs, proverbs, classification.

Hozirgi kunda badiiy asar tilini lingvopoetik o'rganish ko'pgina ilmiy tadqiqotlar markazida bo'lib kelmoqda. Chunki til va adabiyot bir-biriga bog'liq bo'lib, uyg'unlikda taraqqiy etib kelgan. Shuning uchun lingvopoetik tadqiqotlar asosida tilshunoslarimiz tomonidan badiiy matnni ham, ham adabiyot nuqtayi nazaridan tadqiq etish ishlari amalga oshirilmoqda. A.Mamajonovning 1989-yilda nashr qilingan "Tekst lingvistikasi" nomli o'quv qo'llanmasi, M.Yo'ldoshevning "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" (2007), O.Azizovning "Tilshunoslikka kirish"(1996), shuningdek ko'pgina yosh tadqiqotchilarning olib borayotgan ishlari bunga misoldir.

Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o'zbek tili materiallari asosida to'liq tadqiq etgan M.Yo'ldoshev linvopoetik tahlilning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi: 1. Shakl va mazmun birligi asosida yondashuv, bunda shakl va mazmun bir-birini to'ldirib turishi lozim. 2. Makon va zamon birligidan kelib chiqish. Makon va zamon bir davrda bo'lishi kerak. 3. Umumxalq tili va adabiy til asosida baholash. 4. Badiiy matnga badiiy estetik yaxlitlik sifatida yondashuv, matnda ishlatilgan unsurlardan badiiy-estetik birlik hosil qilish. 5. Badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash. 6. Badiiy matnda eksplitsitlik va implitsitlik nizbatini aniqlash. 7. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash.

Har qanday badiiy asar asosida so'z va so'zlarning mantiqiy birlashishi natijasida hosil bo'lgan sodda va murakkab tuzilishga ega sintaktik birliklar yotadi. Til vositalarining lingvopoetik imkonoyatlarini aniqlash esa badiiy matnlarga tayanishni, qator badiiy asarlarni tahlil qilishni taqozo etadi. badiiy asarning eng muhim bosqichi til bo'lar ekan, biror asarni yuksak darajaga ko'tara olishda, avvalo bu asar tilimiz rivojiga qanday ta'sir o'tkazayotgani muhimdir. Lingvopoetika so'zining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, "lingvistika" va "poetika" so'zlarining qo'shilmasidan hosil bo'lgan. Hozirgi kundagi tilshunoslikning eng muhim vazifalaridan biri o'zbek lingvopoetikasining nazariy asoslarini ishlab chiqish, yaxlit va qolipga solishdan iboratdir.

Tilshunoslikda lingvopoetik tahlilni o'rganish uchun Gulxaniyning "Zarbulmasal" iga e'tibor qaratamiz. Bu asar yuzasidan badiiy tahlil ishlari ko'plab olib borilgan bo'lib, lekin lingvopoetik tahlil qilinmagan. Asarda adib xalq og'zaki ijodi materiallarini qayta ishlash bilan birga uning g'oyaviy yo'nalishi, uslubi hamda badiiy xususiyatlarini saqlab qolishga intiladi. Gulxaniy xalq og'zaki ijodini juda yaxshi bilgan. U o'zbek va tojik tillaridagi maqol, masal, hikmatli so'zlardan badiiy mahorat bilan foydalangan. O'sha davrning xalq tili va adabiy til vositalarini shu asari orqali bizgacha yetib kelishiga ulkan hissa qo'shdi.

"Zarbulmasal" asari yuzasidan ko'plab badiiy tahlil, tadqiqot ishlari olib borilgan. Ammo bu asar lingvopoetik tahlil qilishni ham taqozo etmoqda.

Bizga ma'lumki, Muhammad Sharif Gulxaniy XIX asrning birinchi yarmi Qo'qon adabiy muhitida masal-tamsil janrida xalqchil asar yaratishga muvaffaq bo'lgan shoirdir. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari adabiyotimiz nodir namunasi. "Zarbulmasal" Umarxonning amri, istagi bilan yozilganligi, u xalq orasida keng tarqalgan zarbulmasallarni



– xalq maqollarini yig‘ib, kitob holiga keltirish lozimligini aytgani hamda Gulxaniy shu nozik xizmatga loyiq, deb topilgan.

“Zarbulmasal” adabiy jihatdan qanchalik noyob asar hisoblansa, til nuqtayi nazaridan ham nodir asardir. Ushbu asar tilida ahtonim, sinonim, omonim, paronim hamda leksika (dialektizmlar), istiorizmlar, arxaizmlar (...) tasnifi va so‘zdan unumli foydalanish xususiyatlarini tahlil qilish lozim. Asarda berilgan ayrim omonim so‘zlar tahlilga e‘tibor qaratamiz. Ma‘lumki, omonim-shakli bir xil, anglatadigan ma‘nosi har xil bo‘lgan so‘zlardir. Aytilishi va yozilishi bir xil, ammo turli atash ma‘nolarini bildirgan shakldosh so‘zlardir. Gulxaniy bu asarida omonimlardan unumli foydalangan.

Az karam nest baxili kardan

Xo nihodan taomi zud zo‘rdan.

Bu mizralarda baxillik qilish yomon odat, ya‘ni karamdan emas, shuningdek dasturxonga qo‘yilgan taomdan yemoqlik yaxshi ekanligi aytilgan. Baytdagi karam so‘zi omonim so‘z bo‘lib, marhamat, muruvvat ma‘nosida kelgan. Karam – poliz ekini sifatida ham qo‘llanilib, shakldosh so‘z sanaladi.

G‘am hujum etganda besomonligim o‘rtar meni,

Mezbon xijlat chekar har necha mehmondir tanish.

Mazkur misralarda mehmon kelganda mezmon g‘amli, tashvishli bo‘lsa, bu holat mehmonni noqulay ahvolga solib qo‘yishi ifoda etilgan. Undagi tanish so‘zi omonim so‘z bo‘lib, tanish inson (sifat), tanishmoq (fe‘l) shakllarida qo‘llaniladi.

O‘zi ko‘r, Ravshan yururdi ajab,

Kecha-kunduzi jo‘stjo‘yi talab.

Bu baytda o‘zini ko‘rlikka solidi, lekin to‘g‘ri yuradi, kecha-kunduz birovdan ta‘magirlik qilishi aks etgan. Bunda ko‘r so‘zi shakldosh so‘z bo‘lib, ko‘r inson (sifat), ko‘rmoq (fe‘l) ma‘nolarida ishlatiladi.

Erur asli, nasli qizilbosh saqat,

Bitardi kitob barchasini g‘alat.

Bunda o‘zi qizilboshlar naslidan bo‘lib, yozgan kitoblari ham g‘lati, haqiqatdan yiroqligi ifoda etilgan. Parchadagi bitardi so‘zi omonim so‘z bo‘lib, noma yozmoq, ishini tugatmoq shakllarida ham qo‘llaniladi.

“Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas,

Riyozat chekmaguncha , yor vasliga yetib bo‘lmas.”

Bunda tikansiz gul, sadafsiz dur, qiyinchiliksiz hunar bo‘lmagani kabi yor vasliga ham osonlik bilan erishib bo‘lmashligi aytilgan. Bu baytdagi yor so‘zi (ot, fe‘l) shakldosh so‘zdir: yor keldi; o‘tin yormoq.

Sabr sening dardingga darmon bo‘lur,

Sabr bilan xor guliston bo‘lur.

Bunda sabrning dardlarga darmonligi, sabr bilan tikonzor gulzorlarga aylanishi ifodalangan. Parchadagi xor so‘zi omonim bo‘lib, tikanzor, tikan hamda haqir, bechora mazmunida shakldoshlik hosil qiladi.

Gulxaniy asarda aniq makon (Ho‘qand, Buxoro) va zamon (XIX asr), hayotiy voqealik (feodal jamiyatidagi notenglik)ni hamda xalq an‘analarining yaxshi-yomon qirralarini majoz va kinoya, so‘z o‘yinlari, kesatiqlar orqali bayon etadi. Bayon etishda turli omomin iborlar, sinonim, antonim, paronim hamda chegaralangan leksikalardan unumli foydalangan. Bu esa asarning linvopoetik tahlil qilish lozimligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, linvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash muhim tamoyillardandir. Chunki bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va

ifodalanishi aniq tasvirlanadi. Badiiy matnning estetik qimmatini belgilash va baholashda aynan shu tamoyil qulay va boshqa tamoyillar asosida ish ko'rishda ham zamin vafifasini bajarishi mumkin. Badiiy mazmunning ifodalanishida tilning fonetik-fonologik, morfemik, leksik-morfologik kabi birliklar ishtirok etadi. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili shu tilning poetic imkoniyatlarini ochishga, muallif tomonidan til xazinasidagi mavjud til boyliklaridan foydalanish mahoratiga baho berishga xizmat qiladi. Til ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida doimo qisqalik va ixchamlikka intiladi. Inson uchun qanday talaffuz qilish to'g'riligidan ko'ra, qanday talaffuz qilish qulay va osonligi muhimroq. Tildagi fonetik va leksik so'zlarni qo'llash bir qancha osonlik va ravonlikni ta'minlaydi. Badiiy asarning eng muhim bosqichi til bo'lar ekan, biror ijodkorni tilini o'rganar ekanmiz, avvalo eng e'tibor berishimiz kerak bo'ladigan narsa uning tilimiz rivojiga o'z asarlari bilan qanday ta'sir o'tkazayotgani bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azizov O. "Tilshunoslikka kirish" T.1996
2. Arastu."Poetika". T.2011
3. M.Yo'ldoshev. "Badiiy matnning lisoniy tahlil". T.2008
4. Gulxaniy. "Zarbulmasal". T.2016

### ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК НЕРОДНОМУ

*Азиз Бердимуратович КАСИМОВ,  
Навоийский государственный педагогический институт, преподаватель  
г. Навои, Узбекистан*

**Аннотация:** В статье рассматриваются основные формы работы в рамках организации занятий по интерактивному методу обучения.

**Ключевые слова:** интерактивные методы, суггестопедия, релаксация.

**Annotatsiya:** Maqolada interfaol o'qitish usulidan foydalangan holda darslarni tashkil etish doirasidagi asosiy ish shakllari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** interaktiv usullar, suggestopedia, relaksatsiya.

**Abstract:** The article discusses the main forms of work within the framework of organizing classes using the interactive teaching method.

**Keywords:** interactive methods, suggestionopedia, relaxation.

Сейчас основной акцент перенесён на практическую направленность обучения, на самостоятельную работу с учебными текстами – познавательными, научно-популярными, литературоведческими, художественными. В итоге обучения любому предмету, в том числе и неродным (иностраным) языкам, выпускник высшего образовательного учреждения должен уметь на практике применять свои знания, умения и навыки. Поэтому компетенции - это нечто большее, чем знания, умения и навыки. Это готовность и способность пользоваться приобретёнными знаниями, умениями и навыками в процессе решения жизненно важных задач.

Примерно те же задачи стоят перед интерактивным и интенсивным обучением, хотя, безусловно, каждый из этих методов представляет собой комплекс специфических приёмов и условий обучения.

Предлагаемый в настоящее время компетентностный подход опирается на лучшие методы и способы активизации учебной деятельности студентов, которые были выработаны ранее. Рассмотрим их характеристики. [2]

К основным формам работы в рамках организации занятий по интерактивному методу обучения относятся: мозговой штурм, ролевые и деловые игры, работа в парах, «карусель» (в аудитории образуется два кольца: внутреннее и внешнее, участники которых взаимодействуют между собой), работа в малых группах, незаконченное предложение, «броуновское движение» (движение студентов по всей аудитории с целью сбора информации по предложенной теме), «дерево решений» (группа делится на 3 или 4 подгруппы, и каждая группа обсуждает вопрос и делает записи на своём «дереве» (лист ватмана), потом подгруппы меняются местами и дописывают на деревьях соседей свои идеи), «суд от своего имени», «гражданские слушания», «займи позицию» (зачитывается какое-нибудь утверждение и студенты должны подойти к плакату со словом «ДА» или «НЕТ» и объяснить свою позицию), дискуссия, дебаты и др. «Преимуществом такой методики является то, что она пробуждает интерес обучающихся, поощряет их участие, способствует результативному усвоению материала, оказывает многоплановое воздействие, формирует жизненные навыки. Она обеспечивает высокую мотивацию и прочность знаний, развивает фантазию, творчество, коммуникабельность» [1]. Преподаватель при этом выступает в роли организатора учебной речевой деятельности. Студент и преподаватель являются равноправными субъектами обучения.

«Использование интерактивной модели обучения предусматривает моделирование жизненных ситуаций, применение ролевых игр, совместное решение проблем. Исключается доминирование какого-либо участника учебного процесса или какой-либо идеи. Это учит гуманному, демократическому подходу к модели обучения» [4].

Диалог как основная форма интерактивного обучения учит взаимопониманию, взаимодействию, совместному решению проблемы, имеющей значение для каждого. Для этого на уроках организуются индивидуальная, парная и групповая работа, исследовательские проекты, ролевые игры, работа с документами и различными источниками информации, творческие работы, рисунки и пр.

Существуют определённые правила организации занятий в интерактивной форме: 1) предпочтительно использовать на уроке технологии, которые позволяют вовлечь в обсуждение учебной проблемы всех студентов; 2) необходимо продумать систему поощрения и разнообразные разминки, снимающие напряжение и способствующие самореализации студентов; 3) оптимальным является количество участников интерактивного обучения, не превышающее 25 человек; 4) необходимо предусмотреть комфортность для студентов и возможность легко переходить из одной группы в другую для работы в больших и малых группах; 5) важно заранее оговорить регламент всех видов и форм работы; 6) состав подгрупп вначале формируется по принципу добровольности, а затем – по принципу случайного выбора.

Обязательными условиями организации интерактивного обучения являются: «доверительные, по крайней мере, позитивные отношения между обучающим и обучающимися; демократический стиль общения; сотрудничество в процессе общения обучающего и обучающихся между собой; опора на личный опыт обучающихся, включение в учебный процесс ярких примеров, фактов, образов; многообразие форм и методов представления информации, форм деятельности обучающихся, их мобильность; включение внешней и внутренней мотивации деятельности, а также взаимомотивации обучающихся» [5].

Рассмотрим способы образования видовой пары в русском языке.

Глаголы совершенного вида образуются от глаголов несовершенного вида разными способами:

- 1) прибавлением приставок, например: *писать – написать, строить – построить* и др.
- 2) отбрасыванием суффиксов, например: *одевать – одеть, давать – дать* и др.
- 3) заменой суффиксов, например: *прыгать – прыгнуть, разглядывать – разглядеть* и др.
- 4) заменой суффиксов и чередованием гласных и согласных в корне, например: *вздрагивать – вздрогнуть, умирать – умереть* и др.

Значительно реже глаголы совершенного вида образуются от глаголов несовершенного вида ещё двумя способами:

- 1) переносом ударения, например: *об-ре-зать – об-ре-зять, на-сы-пать – на-сы-пать* и др.
- 2) при помощи другого слова – супплетивный способ, например: *ловить – поймать, брать – взять* и др. [1]

Рассмотрим образование видовых пар глаголов движения. В русском языке есть глаголы движения, которые являются устойчивой структурно-семантической группой глаголов несовершенного вида, объединяющихся в пары слов с общим корнем (кроме разнокорневых в паре *идти - ходить*). Эти слова противопоставлены друг другу по значениям однонаправленности – неоднаправленности, а также по некратности – кратности. Соотносительные пары глаголов движения следующие: *бежать – бегать, везти – возить, вести – водить, ехать – ездить, идти – ходить, лететь – летать, нести – носить, плыть – плавать*. К группе глаголов движения относятся также лексемы: *брести – бродить, гнать – гонять, гнаться – гоняться, катить – катать, катиться – кататься, лезть – лазить, нестись – носиться, ползти – ползать, тащить – таскать, тащиться – таскаться*.

Глаголы движения имеют свою специфику в образовании видовых пар. Все бесприставочные глаголы движения – несовершенного вида. Они широко используют приставочное словообразование, в результате чего у них возникают новые оттенки значений и часто меняется видовая форма.

От глаголов однонаправленного движения (*идти* – 1 группа) при помощи префиксов образуются глаголы совершенного вида, а от глаголов неоднаправленного движения (*ходить* – 2 группа) видовая пара не образуется. [5]

При обобщении темы «Глаголы движения» необходимо проводить работу по закреплению лексического и грамматического значения видовых корреляций типа *приехать – приезжать, прийти – приходиться* и *одновидовых глаголов совершенного вида типа пойти, побежать; заходить, забежать (по комнате)*. Приставки придают глаголам движения различные оттенки значений, а также меняют видовое значение глаголов. Префиксы придают глаголам движения большей частью пространственное значение. Наиболее ярко это значение вносится приставками *в -/вы -, при -/у - от -/под -*. Префиксы данных пар противоположны по своему значению: *войти – выйти, принести – унести, отбежать – прибежать*.

Целесообразно группировать видовые корреляции, состоящие из глаголов движения, по следующим признакам: 1) по значению приставок: *войти – входить, вбежать – вбегать, влететь – влетать; выйти – выходить; выбежать – выбегать; вылететь – вылетать; прийти – приходиться, прибежать – прибежать; подъехать – подъезжать, подбежать – подбегать, подлететь – подлетать*; 2) по антонимичности лексических значений глаголов: *войти – входить и выйти – выходить, прийти – приходиться и уйти – уходить, подойти – подходить и отойти – отходить*.

Таким образом, видовая пара в русском языке чаще всего образуется суффиксальным образом, это считается продуктивным способом. Использование ударения и супплетивный способ – это непродуктивный способ образования видовой пары в русском языке.

### ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Валгина, Н.С., Розенталь, Д.Э., Фомина, М.И. Современный русский язык/ Под ред. Н.С. Валгиной: Учебник для вузов. – Изд. 6-е, перераб. и доп. – М.: Логос, 2001. – 528 с.
2. Виноградов В.В. Русский язык: (Грамматическое учение о слове). – М., 2005. <http://www.portal-slovo.ru/>
3. Жумаева Ф.Р., Хакимова Н.Х. Использование разных видов текстов в качестве дидактического материала на уроках русского языка. – Журнал “European science”, 2020. Номер 3 (52). Стр. 57-59. – <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-raznyh-vidov-tekstov-v-kachestve-didakticheskogo-materiala-na-urokah-russkogo-yazyka>



4. Ибрагимова В.Л. Категориальная семантика глагольного слова и проблема типологии глагола // Исследования по семантике: Семантика языка и речи. Межвузовский науч. сб. Вып. 16. Уфа: РИО БашГУ. 1991.
5. Лебедева Н.Б. Полиситуативность глагольной семантики (на материале русских префиксальных глаголов). Томск: Изд. Томского университета. 1999. - 262 с.

## ONA TILI DARSLIKLARIDAGI MATNLAR O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK TARBIYANING RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Xolbibibi Qurbonova

Navoiy davlat pedagogika instituti

O‘zbek tishunosligi kafedrasida dotsenti,

Marjona Nurxonova

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti

4-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Ekologik muammo bugungi muammo emas, balki qadimgi ajdodlarimiz ham atrof muhitni muhofaza qilishga katta e‘tibor berganlar. Ekologik tarbiyaning rivojlantirishda ona tili ta‘limi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ona tili ta‘limi jarayonida o‘quvchilarda ekologik tarbiya berish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologik tarbiya, muammo, tafakkur, darslik, o‘quv topshiriqlari, matn, nutqiy faoliyat, muloqot .

**Abstract.** Ecological problem is not today's problem, our ancient ancestors also paid great attention to environmental protection. Mother tongue education plays an important role in the development of environmental education. In this article, the issues of providing environmental education to students in the process of mother tongue education are covered.

**Key words:** environmental education, problem, thinking, textbook, educational tasks, text, speech activity, communication.

Fan texnika taraqqiyoti yuqori darajada rivojlanib borayotgan bir davrda ekologiya masalasi yer yuzining hamma burchaklarida asosiy muammo bo‘lib kelmoqda. Demak, ekologiya muammosi milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlardan biridir.

Darhaqiqat, insoniyat doimo tabiat qo‘ynida faoliyat ko‘rsatadi, u bilan uzluksiz munosabatda bo‘ladi. Bu faoliyat oqilona tashkil etilmasa, tabiat uchun muammolar keltirib chiqaradi. Xuddi shu muammo-ekologik muammodir. XX asrning ikkinchi yarmidan tabiatni muhofaza qilish-ekologik muammo global (sayyoraviy, dunyoviy) muammoga aylandi.

Global muammolarni hal etishda milliy o‘ziga xoslikni unutmaslik kerak, shu bilan birgalikda millat o‘z qobig‘iga o‘ralib qolmay umuminsoniy qadriyatlariga yuz tutmog‘i lozim. Ammo xalq o‘z milliy imkoniyatini anglab olmasa, u hamisha foydasiz material bo‘lib qolaveradi. Shu o‘rinda “Suvga tuflamaslik”, “Ostonani toza tutish” kabi qadriyatlarni eslab o‘tishlik yaxshi natija beradi. Bu qadriyatlarni amalga oshirish ham insonlarda mafkura, ayni vaqtda ekologik mafkura shakllanishini taqozo etadi.

Shuning uchun hozirgi kunda ekologiya faqat biologiya fanlari turkumiga kirmasdan balki, u ijtimoiy hayot bilan ham bevosita bog‘lana borib, ijtimoiy ekologiya kabi muhim sohani vujudga keltirdi.

Ona tili ta‘limi jarayonida ekologik tarbiya berish sun‘iy ravishda emas, balki o‘ziga xos xususiyatni va har bir fikrni tatbiq etish uslublarini puxta, aniq bilib olgan taqdirdagina samarali bo‘ladi. Shuningdek, ona tili darsliklarida ekologik tarbiyani o‘ziga mujassam etgan mashqlar, topshiriqlar,

matnlar juda ko‘plab berilgan. Masalan 5-sinf ona tili darsligida 28-173-,175-mashqlar 16-dars 1-topshiriq,22-dars 1-topshiriq ,46- darsdagi 1-top, 92-dars 1-topshiriq, 118-dars 1-topshiriq kabi mashq va topshiriqlar asosida o‘quvchilar ekologik savodxonligini oshiradi<sup>1</sup>. Quyida ona tili darsliklaridagi matnlar asosida o‘uvchilarda ekologik tarbiyaning rivojlantirishning innovatsion usullarda tashkil etish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tamiz.

Interfaol usullardan guruhlarda ishlash, klaster quyidagicha olib boriladi:

- 1.Matn yaratish.
- 2.Matn asosida savollar tuzish.
- 3.Tezkor savollar tuzish.
4. Mashq bajarish
- 5.Ekologiyaga oid hadislar ustida ishlash.
- 6.Klaster usulini o‘tkazish

***1.Matn yaratish. Har bir guruh a‘zolari “Ekologiya” mavzusi bo‘yicha matn yaratadi.***

### **1-guruh matni.**

“Ekologiya” tushunchasini fanga birinchi bo‘lib 1866-yilda nemis biolog E.Gekkel tomonidan kiritilgan. “Ekologiya”-yunoncha so‘z bo‘lib, uning ma‘nosi tirik organizmlarning yashash sharoiti yoki tashqi muhit bilan o‘zaro munosabatini bildiradi.

Ekologik muammolar-insoniyatning tabiatga ko‘rsatgan salbiy ta‘siri natijasida kelib chiqqan muammolardir. Bularga suvning ifloslanishi, atmosfera havosining ifloslanishi, tuproqning ifloslanishi, Orol muammosi kiradi. XIX-XX asrga kelib, Fan, texnika, sanoat, ishlab chiqarish keskin rivojlandi. Insoniyat tropik o‘rmonlar o‘rniga zavod, fabrikalar, temir yo‘llar yaratish natijasida atmosfera havosi suv, tuproq ifloslandi, ana shular oqibatida ekologik muammolar kelib chiqdi.

Orol dengiziga daryolardan qo‘yiladigan suvning kamayishi bu dengiz suvining qurib borishiga sabab bo‘ldi. Bu esa Markaziy Osiyoda ekologik muammolar kelib chiqishining yaqqol misolidir.

Tuproq tabiatning eng muhim boyligi bo‘lib, Yer po‘stining eng ustki g‘ovak, unumdor qismidir. Tuproq xalqning bebaho boyligi, unda oziq-ovqatlarimiz, kiyim-kechagimiz uchun xom ashyolar yetkaziladi. Tuproqni muhofaza qilish uchun uni erroziyadan saqlash, sho‘rini yuvish, atmosferadan tuproq ustiga har xil zarrachalar tushushini oldini olishimiz lozim.

### **2-guruh matni.**

Atmosfera havosi zavod va fabrikalardan chiqadigan chiqindi gaz, transport vositalarining harakati natijasida, qurilish maydonlaridan chiqadigan chang va tutunlar bilan ifloslanadi.

Bularni oldini olish uchun zavod va fabrikalardan chiqadigan chiqindi gazlar qayta ishlanishi, zararsizlanishi lozim.

O‘simliklar dunyosi atmosfera havosini tozalashda katta rol o‘ynaydi. Ular havodagi karbonat angidridni yutib, o‘zlaridan havoga kislorod chiqaradilar. Barglari ham yil davomida havodagi chang va turli gazlarni o‘ziga tutib qoladi.

### **3-guruh matni.**

Suv – yer sharidagi barcha organizmlarning hayoti uchun zarur bo‘lgan muhim mineraldir. Suv va suv resurslarining ifloslanishi deyilganda birinchi navbatda insonning salbiy faoliyatini ko‘z oldimizga keltirishimiz lozim.

Sanoat korxonalaridan, maishiy xo‘jalik korxonalaridan chiqadigan iflos oqava suvlar va hokazolar ta‘sirida suv ifloslantirilmoqda. Uni muhofaza qilish uchun birinchi navbatda tarbiya katta

---

<sup>1</sup> N.Mahmudov va boshqalar 2020 yil darsligida

rol o'ynaydi. Tuproqning ifloslanishi, suvning ifloslanishi, atmosfera havosining ifloslanishi bizning eng asosiy ekologik muammomizdir.

Barcha korxonalar va tashkilotlar oqava suvlarni daryolarga oqizmasligi, havoga har xil gazlarni chiqarmasligi chiqindi gazlarni qayta ishlashni amalga oshirishi, yerlarga normasidan ko'p mineral o'g'itlar solinmasligi bu muammolarni oldini olishimizga yordam beradi. Eng asosiysi, aholida ekologik madaniyatni kuchaytirishdir. O'quvchilar avvalo kelajakda tabiatga ozor yetmasligi uchun ular ekologiyaga doir bilimlar bilan qurollanishlari kerak. Hozirdanoq bo'sh vaqtlarida "Yashil soqchilar" to'garagi tashkil etilib, o'z mahalla, maktablari hovlisini toza tutishi, tabiatga ozor yetkazuvchilarga qarshi kurashish, mahallalar obodonchiligiga o'z hissalarini qo'shish kerak. Shu orqali o'quvchilarda ekologik madaniyat ham shakllanib boradi.

Yaratilgan matnlar mazmuni tahlil qilinadi va baholanadi.

Tuzilgan matnlar almashiniladi. Masalan, 1-guruh a'zolari tuzgan matnni, 2-guruh a'zolari, 2-guruh a'zolari tuzgan matnni 3-guruh, 3-guruh a'zolari tuzgan matnni 1-guruh a'zolari o'qib tahlil qilib savollar tuzishadi.

## **2.Matn asosida savollar tuzish.**

Bu savollar quyidagichadir:

2-guruh tuzgan savollar.

- 1.Ekologik muammolar deganda nimalarni tushunasiz?
- 2.Ekologik muammolarni keltirib chiqaruvchi sabablar, misollar keltiring?
- 3.Tuproq resurslari va uni muhofaza qilish to'g'risida tushuncha bering?

Bu savollarga 1-guruh a'zolari quyidagicha javob yozishlari kerak.

3-guruh tuzgan savollar.

1. Atmosfera havosining ifloslanishi to'g'risida nimalar bilasiz?
2. Atmosfera havosi ifloslanishni oldini olish mumkinmi?
3. O'simliklarni havoni tozalashdagi rolini tushuntiring?

1-guruh tuzgan savollari.

1. Suvning ifloslanishi va uni muhofaza qilish.
2. Ekologik muammolarni oldini olish mumkinmi?

Ekologik muammolarni bartaraf etishda o'quvchilar roli nimalardan iborat?

Guruh o'quvchilari olgan bilimlarini yanada mustahkamlash uchun lahzalik tezkor savollarga jalb etiladi. O'qituvchi har xil guruh uchun alohida savollar berib, javobini tahlil qilib boardi, g'olib guruhni aniqlaydi. Bu quyidagi savollardir:

1-guruh uchun.

- 1) Qay bir gulni bahor darakchisi deymiz? (boychechak)
- 2) Qaysi jonivor "Sahro kemasi" nomini olgan? (tuya)
- 3) Qaysi gul suvda o'sadi? (nilufar)
- 4) Qaysi hasharotlar eng kam umr ko'radi? (kapalak)
- 5) Qaysi qush bir oyoqda turadi? (laylak)
- 6) Yoz kunlari qaysi daraxt tagida uxlab bo'lmaydi? (yong'oq)

2-guruh uchun savollar

- 1) Hayotini yer ostida kechiradigan foydali jonivor? (chuvalchang)
- 2) Suvda suzadigan eng katta baliq? (kit)
- 3) Birinchi qor dastlab qayerda tushadi? (toqqa)
- 4) Quruqlikdagi eng katta hayvon? (fil)
- 5) Inson tanasining necha foizini suv tashkil etadi? (70%)

6) Eng toza ko‘l qaysi ko‘l hisoblanadi? (baykal)

3-guruh uchun savollar

1) Sayyoramizdagi qaysi qatlam suvli qatlam hisoblanadi? (gidrosfera)

2) Qaysi o‘simlik suvda yaxshi o‘sadi? (qamish)

3) O‘simlik nima bilan nafas oladi? (kislород bilan)

4) Daraxt va boshqa o‘simliklar bargi nima sababdan yashil? (xlorofill pigmenti borligi uchun)5) Eng yirik gul? (Rafleziya Arnoldi)

**Savol javob tugagach, o‘qituvchi g‘olib guruhni aniqlaydi. sinfda darsligida berilgan 159-mashqlarni bajarish.**

**O‘qituvchi:** Ekologik muammo bugungi muammo emas, balki qadimgi ajdodlarimiz ham atrof muhitni muhofaza qilishga katta e‘tibor berganlar. Ekologiya to‘g‘risida qimmatli fikrlar Zardushtiyar dinining kitobi Avestoda ham keltirilgan. Shunindek, hadislarida ham ekologiya masalalari keng yoritilgan.

Xulosa qilib aytganda, ekologik muammo butun dunyo xalqini uylantiradigan muammodir. Har bir inson o‘zi yashayotgan joyini, yashayotgan hududi tabiatini asrab avaylashi lozim. Bunda ona tili ta‘limi jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirishda darsliklarning o‘rni muhim.

#### **Adabiyotlar:**

1. M. Qodirov, H. Ne‘matov, M. Abduraimova, R. Sayfullayeva, B. Mengliyev va b. Ona tili . 8-sinf darsligi. Toshkent – 2019. Cho‘lpon .

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5jild/Tuzuvchi: jamoa. – Toshkent: O‘zbekiston entsiklopediyasi nashriyoti. 2012-y.

## **ZAMONAVIY DARSLIKLAR O‘QUVCHI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRUVCHI VOSITA**

**Qurbonova Yulduz Qulmurot qizi,**

NavDPI, doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘quvchi tafakkurini rivojlantirishda darsliklarning o‘rni hamda ona tili darslarida darsliklardan o‘rinli va samarali foydalanish yo‘llari.

**Kalit so‘zlar.** Metodika, texnologiya, maktab, darslik, ta‘lim.

**Аннотация.** В этой статье обсуждается роль учебников в развитии мышления учащихся и способы правильного и эффективного использования учебников на уроках родного языка.

**Ключевые слова.** Методика, технология, школа, учебник, образование.

**Annotation.** This article discusses the role of textbooks in developing students' thinking and ways to use textbooks appropriately and effectively in native language classes.

**Keywords.** Methodology, technology, school, textbook, education.

Mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik barkamol shaxs qiyofasida aks etuvchi ifodalarni yanada boyitadi. Zero, ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida tashkil etiladigan faoliyatning ijobiy natijasiga ega bo‘lishida ushbu ikki xislat asosiy mezonlar sifatida e‘tirof etilmoqda.

O'quvchi shaxsini mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan ona tili ta'limi katta imkoniyatlarga ega. O'quv jarayonini tashkil etishdagi asosiy o'quv qo'llanmalar darsliklar sanaladi.

Darslik shunday nashr turiki, unda o'quv predmetining mazmuni mantiqiy ketma-ketlikda tizimli tarzda ifodalanishi zarur. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mavjud bo'lgan darsliklarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ularning yangi tiplari va modellarini ishlab chiqishga kuchli ehtiyoj mavjud. Bunday ehtiyoj birinchi navbatda darsning tarkibiy qismlarini boyitishga bo'lgan didaktik zaruriyat sifatida kelib chiqmoqda. Didaktik tafakkur bu — o'rganish, o'rgatish va ta'lim mazmunining doimiy aloqadorligi, munosabatlarini izlash, aniqlash demakdir. O'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi. Shu boisdan ham, pedagogik, didaktik, ta'lim texnologiyalariga va darsliklarga olib kirishga o'quv jarayonidagi eng samarali vositalar deb qaralmoqda. Ulardan dunyo pedagogik amaliyotida keng foydalanilmoqda. "So'ngi uch yilda Davlat byudjeti va maqsadli kitob jamg'armasining qariyb 307 milliard so'm mablag'iga 98 ming nusxadan ortiq darsliklar yaratilgan. Biroq, sohada olib borilayotgan ijobiy ishlarga qaramasdan, darsliklar o'quvchilar yoshi, aqliy fiziologik va psixologik rivojlanish davriga muvofiq tayyorlanishda qator muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa oqibatda fanlarni o'zlashtirish darajasiga salbiy ta'sir etmoqda... umuman darsliklarni zamonaviylashtirish kerak"<sup>1</sup>. Har qanday fan darsligi mazmun, vazifa va tuzulish jihatidan mukammal bo'lishi lozim. Bu faqat darslikning emas, darsning samarasini oshirib, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi uchun keng imkon yaratib beradi. Darslikni o'rinli ishlata olish, o'quvchi yetkazib berish esa bugungi kunning zamonaviy o'qituvchisi oldidagi eng dolzarb masaladir.

Umuman olganda, Baxtiyor Mengliyev fikri bilan aytganda, " Darslik yuqori darajada umumlashtirilgan va zamonaviy ilmiy bilimlarga asoslangan ma'lumotlar- qoidalar, hukmlar, tasniflardan tashkil topishi lozim".<sup>2</sup> Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi.

Pedagogika fanlari doktori, professor U.Inoyatov zamonaviy darslikka tavsif berib quyidagilarni ta'kidlaydi: "Zamonaviy darslik – ta'lim-tarbiya mazmuni va vositalarini o'zida jamlagan manba. U ta'lim oluvchilarni o'quv materiallarini o'zlashtirishlariga va ularning mustaqil ijodiy faoliyatlarida zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Darslik shunday nashr turiki, unda o'quv predmetining mazmuni

---

<sup>1</sup> O'ZA internet sahifasi. Gulchehra Rixsiyeva. Darsliklar zamon talabiga mos bo'lsin. 2019.

<sup>2</sup> B. Mengliyev, B. Baxriddinova. Ona tili ta'limi: uzluksiz ta'lim bosqichlarida chalkashlik uchramayaptimi? Til va adabiyot ta'limi, 2015-yil, 2-son, 8-12-betlar.



mantiqiy ketma-ketlikda, uzviy hamda tizimli ifodalanishi zarur”<sup>1</sup>. O‘quv predmetining mazmuni uzviy va tizimli ifodalanishida, avvalo, o‘quv materialini maqsadga yo‘naltirilgan ravishda tizimlashtirish talab etiladi. Darslikning zamonaviylashuvi bu bevosita bo‘ljak kadrlarning zamonaga mos bo‘lib ulg‘ayishiga, fan-texnika yutuqlaridan to‘la xabardor bo‘lishiga, milliy qadriyatlarimiz ruhida kamol topishiga erishish demakdir.

Ko‘rinadiki, umumiy o‘rta ta‘lim maktabidagi ona tili ta‘limi sathlararo uzviylikka tayanadi. Bu avvalo darslikda ifoda topadi. Zero, “Yaratilgan darsliklarning yana bir muhim xususiyati shundaki, fanimiz yutuqlariga asoslangan ilg‘or ilmiy qarashlarni ta‘lim jarayoniga yo‘naltirish masalalari yaqqol ko‘zga tashlanadi”.<sup>2</sup>

Xulosa qilib aytganda, ta‘lim sifat va samaradorligini oshirishda darsliklarni rivojlantirish borasidagi ishlarni amalga oshirishda barcha fanlarning o‘rni muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘sib kelayotgan yosh avlodni hamda mahoratli pedagoglarni har tomonlama barkamol inson sifatida ko‘rish, ularga o‘z qiziqishlarini inobatga olgan holda qo‘shimcha bilimlar berish hamda ilg‘or pedagogik texnologiyalar va zamonaviy darsliklardan foydalangan holda jamiyat ravnaqi uchun xizmat qilishlariga shart-sharoitlar yaratib berish maqsad qilib olingan.

## TEXNIKA TERMINLARINING ETIMOLOGIK TASNIFI

### *O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi*

#### *Axmedova Maftuna Faxriddinova*

**Annotatsiya.** Texnika sohasiga oid terminlarning lug‘atlarda berilishi, terminologik birliklarni tizimli ochib berish, ularning etimologiyasi bilan bog‘liq bir qator izohli ma‘lumotlar Texnika terminlarining etimologiyasi, ularning yasaliş xususiyatlari, o‘zbek tilining izohli lug‘atlarda berilishi, etimologiya so‘zining ma‘nosi.

**Kalit so‘zlar.** Техника, термин, lug‘at, izohli lug‘at, etimologiya.

**Аннотация.** Приведение в словарях терминов, относящихся к области техники, систематическое раскрытие терминологических единиц, ряд пояснительных сведений, связанных с их этимологией, этимология технических терминов, особенности их образования, приведение в толковых словарях узбекского языка, значение слова ЭТИМОЛОГИЯ.

**Ключевые слова.** Техника, термин, лексика, толковый словарь, этимология.

**Annotation.** The assignment of terms related to the field of technology in dictionaries, the systematic disclosure of terminological units, a number of explanatory information related to their etymology the etymology of technical terms, their features of making, the issuance of the Uzbek language in explanatory dictionaries, the meaning of the word etymology.

**Keywords.** Technique, term, dictionary, Explanatory Dictionary, etymology.

Tilshunoslikda til taraqqiyotini jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq tarzda o‘rganish bugungi kunning o‘ta muhim masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. So‘nggi yillarda

<sup>1</sup>Feruza Qo‘chqorova. Yangi avlod darsliklarida o‘quv materiallarini konsentrizm prinsipi asosida tizimlashtirish. Xalq ta‘limi. 2018-yil, 3-son. 104-bet.

<sup>2</sup>Qodirov M., Ne‘matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. -T.: Cho‘lpon, 2006. -144 b.

terminologiya sohasida qator izlanishlar olib borilib, soha rivojiga bir qadar yangiliklar kirib kelmoqda. Ayniqsa, ma'lum bir yo'nalish yoki sohaga oid terminlarning tahlili, ularning tuzilishi, etimologiyasi bilan bog'liq ilmiy tahlil va izlanishlar jadallik bilan rivojlanmoqda. Buning natijasida, sohaga oid terminlarni tartibga solish, ularning izohli lug'atlarda berilishini takomillashtirish ehtiyoji ham ortib bormoqda. Texnika sohasiga oid terminlarning lug'atlarda berilishi, terminologik birliklarni tizimli ochib berish, ularning etimologiyasi bilan bog'liq bir qator izohli ma'lumotlar "O'zbek tilining izohli lug'ati" kitobining yangi 5 ta nashrida ancha keng yoritib berilgan.

Ma'lumki, har qanday tilning terminologik tizimini, shuningdek, tilning umumiy boyligini ko'rsatib beruvchi izohli lug'atlar har qanday tilshunoslik uchun bu boradagi eng yirik ilmiy tadqiqotlardan sanaladi. Aynan shu sohada bu masalada salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilgan.

"O'zbek tilining izohli lug'ati" 2020-yilda yangi va 5 ta kitobdan iborat bo'lib tahrirdan chiqdi. Yangi kitob oldingi kitobdan bir muncha yangiliklar, ustuvorliklari bilan ajralib turadi. Besh jildli o'zbek tilining izohli lug'atining eng muhim yangiliklaridan, afzalliklaridan biri unda o'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'z va terminlarga to'liq etimologik ma'lumot berilganligidir.<sup>1</sup> Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, fonetika, morfologiya, sintaksis fanlarining asoslarini yaratgan yunon tilshunoslik maktabi etimologiya fanining ham asoschilaridan hisoblanishadi. Etimologiya (yunoncha etimologiya-etimon haqiqat, so'zning haqiqiy ma'nosi, logos-ta'limot ma'nolarini anglatadi. 1. Tilshunoslikda so'z va morfemalarning kelib chiqishi va tarixini o'rganuvchi bo'limi. Tilning leksik qatlamlari ikkiga bo'linadi: 1) o'z qatlam; 2) o'zlashgan qatlam. Biz tilning leksik tarkibini aniqlashda albatta, tilshunoslikning etimologiya bo'limiga murojaat qilamiz. Tilshunoslikning barcha bo'limlari kabi etimologiya faniga ham o'zlarining nazariy qarashlari bilan asos solgan qadimgi yunon, xitoy, arab tilshunoslarining hissasi bu fan uchun ham beqiyos bo'ldi.

So'zlarni etimologik jihatdan tahlil qilishdan maqsad tilning leksik sathidagi muayyan so'zning qachon, qaysi davrda, qaysi til orqali, qanday so'z yasaliş qolipi bo'yicha, qaysi til materiali asosida, qanday shaklda va qanday ma'no bilan o'zlashganligini aniqlashdan iboratdir.<sup>2</sup>

Biz tahlilga olayotgan aynan texnika terminlari birikmasi tarkibidagi "texnika" so'zi izohli lug'atda quyidagicha izohlangan: Texnika [yun. *Technike* - mohir, usta < *techne* – san'at, mahorat]

---

<sup>1</sup> Saidov O'. O'zbek tilining izohli lug'atlarida ish yuritishga oid terminlarning berilishi : Filol.fan. bo'yicha fals. dokt. .... diss. – Qarshi, 2023. – B. 28

<sup>2</sup> Saidov O'. O'zbek tilining izohli lug'atlarida ish yuritishga oid terminlarning berilishi : Filol.fan. bo'yicha fals. dokt. .... diss. – Qarshi, 2023. – B. 28

1 Jamiyatning inson faoliyatidagi ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshiruvchi noishlab chiqarish ehtiyojlari uchun xizmat qiluvchi vositalar yig'indisi. *Ilg'or texnika. Aviatsiya texnikasi. Paxta terish texnikasi.*

2 Ishlab chiqarishning biror sohasida qo'llaniluvchi mashina, mexanizm, asbob, qurol, moslama ba sh.k.lar majmui.

3 Biror ish-faoliyat yoki harakat turida orttirilgan mahorat darajasi, malaka va ko'nikmalar yig'indisi; san'at, mahorat. *Suzish texnikasi. Qurilish texnikasi.* Shu so'zning o'zak qismidan *texnik, texnolog, texnologiya, texnikum, texnikaviy, texnologik* kabi terminlarning yasalishiga guvoh bo'lamiz. Bu termin o'zi alohida qo'llanganda ham mustaqil ma'noni ifodalaydi va o'zi bilan qo'shib kelgan so'zlar orqali yangi ma'nodagi termin yoki so'z hosil qila oladi. Xuddi shuningdek, izohli lug'atda o'zi yakka holda qo'llanilish xususiyatiga ega bo'lmagan, lekin o'zi bilan birga qo'shib kelgan so'zlar orqali yangi termin hosil qilish xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar ham ko'pchilikni tashkil qilishini ko'rdik.

Trans – [lot. Trans – orqali, orasidan, ichidan; orqasida; mobaynida] baynalmilal o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi bo'lib:

- 1) biron-bir fazo, maydon orqali harakatlanib, uni kesib o'tish (*mas., transatlantik*);
- 2) biror narsa ortidan, biror narsaning narigi tomonida borish, joylashish (*mas., transurantlar*);
- 3) biror narsa vositasida ko'rsatish; belgilash, yetkazish (*mas., transliteratsiya*) kabi ma'nolarni bildiradi.

Bu so'zning yana bir muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u orqali ilm-fanning barcha yo'nalishlariga oid terminlar hosil qilingan. Masalan,

texnikada – *transport, tranportyor, transportchi, transformator, transformatsiya, transformatsiyalamoq, translyatsiya, translyatsion, transparent;*

Tibbiyotda – *transplantant, transplantatsiya;*

Matematika – *transportir;*

Tilshunoslikda – *transkripsion, transkripsiya, transkripsiyalamoq, transliteratsiya;*

“O'zbek tilining izohli lug'ati” 4-jildida “Tele-yun.tele-uzoq, olis: uzoqqa, olisga ma'nolarini anglatishi berilgan. Aynan shu so'zning o'zi bilan yunon+o'zbekcha konstruksiyali: *teleboshqarish, teleboshqaruv, telemarkaz, telenazorat, teletomoshabin;*

*Yunon+rus+o'zbekcha konstruksiyali:televizorchi;*

*Yunon+yunon+o'zbekcha konstruksiyali: telefonboz, telefonlashmoq, telefonlashtirmoq, telefonchi;*

*Yunon+yunon+ruscha konstruksiyali: telefonist, telefonistka, telefoniya, telegrafist, telegrafistka;*

*Yunon+yunon konstruksiyali: telefonogramma, telegraf, telegrafiya, telemetriya, telepatiya kabi.*

*Turbina [fr.turbine<lot. Turbo, turbinis – quyun, uyurma; shiddatli aylanish.] Suv, bug‘ yoki gaz kuchi bilan ishlaydigan dvigatel. Bug‘ turbinasi. Gaz turbinasi. Turbina zavodi.*

*Turbinali, turbinachi kabi terminlar fransuz+o‘zbek konstruksiyali kabi shakllangan bo‘lsa, turbobur [ruscha turbobur<lot. turbo – quyun, uyurma + nemischa Bohrer – burg‘i] tex. Chuqur quduqlarni (mas. gaz, neft quduqlarini burg‘ilaydigan gidravlik apparat; burg‘i. Termin rus tilida hosil qilingan lekin undagi ikkita mustaqil so‘zlarning kelib chiqishi ikki xil tilga ya’ni **turbo** lotin va **Bohrer – burg‘i** nemis tillariga mansub ekanligini ko‘ramiz.*

Ko‘rinib turibdiki, ko‘pgina texnikaga oid terminlarning kelib chiqishi ya’ni etimologiyasi yunon, lotin, fransuz, ingliz, rus, nemis tillariga mansubligi va terminlarning yasash xususiyati o‘zi anglatgan ma’nosi bilan asos qilib olinganini tahlil jarayonida ko‘rdik. O‘zbek tilining izohli lug‘atida berilgan texnikaga oid terminlarning asosiy qismi ruscha-baynalmilal o‘zlashma so‘zlardan kirib kelgan bo‘lsa ham, yuqoridagi misollarda ko‘rganimiz kabi asos qismi ya’ni tarkibiy qismi, etimologik kelib chiqishi boshqa tilda, unga kelib qo‘shilgan so‘z boshqa tilning lug‘atiga mansub bo‘lgan texnika terminlari juda ko‘pchilikni tashkil etishini ko‘rdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov O‘.O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida ish yuritishga oid terminlarning berilishi : Filol.fan. bo‘yicha fals. dokt. .... diss. – Qarshi, 2023. – B. 28.

## **O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA GRADUONIMIYA HODISASI TAHLILI**

**Shahnoza BARNOYEVA,**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ingliz va o‘zbek tillaridagi sinonimik va graduonimik qatorlar misollar asosida yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** sinonimlar , graduonimiya, graduonomik qator.

**Аннотация:** В этой статье на примерах рассмотрены синонимические и градуонимические ряды в английском и узбекском языках.

**Ключевые слова:** синонимы, градуонимия, градуономический ряд.

**Abstract:** In this article, synonyms and graduonyms in English and Uzbek languages. The lines are illustrated by examples.

**Keywords:** synonyms, graduation, graduation series.

Sinonimlar nutqning ifodaliligini ta’minlaydi, bir tushunchaning bir necha so‘z bilan ifodalanishi va bu ifodalarda milliy-madaniy, ruhiy xususiyatlarning namoyon bo‘lishi boshqa tildagi mos ekvivalentini tanlab qo‘llashda tarjimaning adekvatligini ta’minlashi masalasiga,

albatta, e'tibor qaratiladi. Sinonim leksemalarning semantik xususiyatlarini tahlil qilish orqali ularning mazmunni biri ikkinchisiga nisbatan qay darajada ifodalashiga ko'ra klassifikatsiya qilinishi imkonini yaratgan. 1974-yilda A.Hojiyev tomonidan nashr etilgan «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati»ning lug'at maqolasi quyidagilardan tashkil topgan: 1) sinonimik qator, 2) sinonimik qatordagi so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'noning izohi, 3) sinonimik qatordagi har bir so'zga xos xususiyatning ta'rifi, 4) sinonimik qator va har bir sinonimga berilgan ta'rifni tasdiqlovchi misol-sitatalar. Lug'atda sinonimik qatordagi har bir so'zga xos xususiyatning ta'rifi berilgan o'rinlarda ma'no darajasiga e'tibor qaratilgan.

Sinonimlar o'zaro ma'noviy munosabatiga ko'ra ma'lum bir darajalanish qatorini hosil etar ekan, uning eng yorqin namunasi – *o'rtta* so'zini o'z ichiga olgan so'zlar qatoridir. Masalan: zavq – *o'rtta* – *maroq*–*o'rtta* –*shavq* tarzida.<sup>1</sup>

Graduonimik qatorni ajratishdan maqsad shuki, sinonimik qator leksemalari ma'nosida biror belgi, holat, xususiyatning oz-ko'pligiga, quyi-yuqoriligiga kabi darajalanishlar mavjud. Masalan, “O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati”da “nojo'ya (nomaqbul) xatti-harakatga yoki voqea-hodisaga qarshi kuchli darajada qo'zg'algan his-tuyg'u va shunday his-tuyg'uning ifodasi” ma'nosini beruvchi *jahl*, *achchiq*, *g'azab*, *qahr*, *zarda* sinonimik qatoridagi *g'azab*, *qahr* so'zlarida belgi darajasi kuchli ekanligi aytilgan.<sup>2</sup>

Darajalanishga ega sinonim so'zlar qatorini o'zbek va ingliz tillari misolida quyidagi tartibda tahlil qilish mumkin. Misollar :

*xursand*, *baxtli* – *happy* (A1)

*xushchaqchaq*, *xursandligini ko'rsatish* – *cheerful* (B1)

*shod* – *glad* (B1)

*mamnun*, *ajoyib* – *pleasant* (B1)

*hayajonli*, *o'ta xursand* – *ecstatic* (C1)

*quvnoq* – *jolly* (C1)

*quvnoq* – *merry* (C1)

*haddan ziyod baxtiyor* – *blissful* (C2)

*sodir bo'lgan yoki bo'ladigan narsa va holatdan o'ta xursand* – *elated*(C2)

*quvnoq* – *gleeful* (C2)

*quvonchli* – *joyous* (C2)

Demak, bu o'rinda sinonimik va graduonimik qatorning qay tartibda darajalanishi va ketma-ketligini ingliz (darajalanish harflar ketma- ketligida A1, A2, B1, B2, C1, C2) va o'zbek tillari misolida kuzatishimiz mumkin. So'zlar ma'noviy hamda qo'llanilish ko'lamiga ko'ra darajalanib boradi.

**1.O'zbek:** Bugun siz xursandga o'xshamaysiz.

**English:** You don't look very happy today.

**2. O'zbek:** Siz quvnoq ,yaxshi kayfiyatdasiz

**English:** You are in a cheerful mood

**3. O'zbek:** Men xursandman sababi imtixonidan o'tdim

<sup>1</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: FT, 2010. 105-b.

<sup>2</sup> Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 1974. 97-b.



**English:** I am glad because I passed the exam

**4.O‘zbek:** Sally yangi ishidan juda mamnun edi.

**English:** Sally was ecstatic about her new job.

**5.O‘zbek:** Kayfiyatim faqat bir stakan shampanidan keyin ko‘tarildi.

**English:** I was merry after only a glass of champagne.

**6.O‘zbek:** Biz ishdan uzoqda maroqli uch haftamizni o‘tkazdik.

**English:** We spent three blissful weeks away from work.

**7.O‘zbek:** Ular natijadan xursand bo‘lishdi.

**English:** They were elated at the result.

**8.O‘zbek:** Endi u bilan yana uchrashishning quvonchli umidi bor edi.

**English:** She could now enjoy the joyous prospect of being reunited with him again.

Graduonimiya (gr.graditio – “ko‘tarilish”, “o‘shish”, onymo – “nom”) lug‘aviy birliklar o‘zaro ma‘noviy munosabatiga ko‘ra ma‘lum bir darajalanish qatorini hosil etadi. Lug‘aviy graduonimiyaning mohiyati bir necha so‘zning, ma‘lum bir belgining oz-ko‘pligiga qarab lug‘aviy-ma‘noviy qatorida hosil bo‘ladi. Graduonimik qatorlar ko‘pincha alohida bir yetakchi so‘z atrofida birlashadi. Ya‘ni graduonimiya miqdorning oz yoki ko‘pligiga qarab o‘shib boradi. Darajalanish barcha so‘z turkumlari doirasida qo‘llaniladi.<sup>1</sup>

Graduonimik qator a‘zolarini sinonimik qator birliklaridan ajratishdagi asosiy belgi ma‘no va mazmun jihatidan darajalarda farqlanishdir. Ammo hozirgi kungacha ko‘pgina tillardagi sinonim lug‘atlarida ular aralash holda keltirilishi graduonimiyani tushunishga ajratishga to‘sqinlik qilmoqda. Isbot tilshunos G‘.Rahmonov o‘zining “O‘zbek tilida lug‘aviy sinonimiya va graduonimiyaning o‘zaro munosabati” nomli dissertatsiyasida graduonimiya bilan sinonimiyaning o‘xshash va farqli tomonlarini quydagicha keltirib o‘tadi. So‘zlarning ma‘no jihatidan bir xil bo‘lishi sinonimiya hodisasi deb yuritiladi. So‘z leksik ma‘nolaridagi paradigmatic munosabatni semantik jihatdan eslatuvchi yana bir hodisa mavjud bo‘lib, unda so‘zlar ma‘no farqlanishiga asoslanadi. Bu lisoniy hodisa esa, tilshunoslikda darajalanish (graduonimiya) hodisasi nomi bilan ifodalanadi. So‘zlar graduonimik lug‘atlarining yaratilishi sinonimlar va graduonimlarni ajratishga yordam beradi. Onlayn lug‘atlarga keladigan bo‘lsak, albatta, leksemalarning sinonimlari, antonimlari berilgan o‘rinlarda graduonimlarning ham berilishi zarur.<sup>2</sup>

Demak, barcha tillarda mavjud sinonimlarni tadqiq qilishning graduonimik metodologiyasi ishlab chiqilgan, chunki bir birlashtiruvchi semaga ega so‘z qurshovdagi so‘zlar bilan ma‘noviy farqqa ega, natijada graduonimiya va sinonimiya gradual sinonimik qatorda yuzaga chiqadi.

<sup>1</sup> <https://humoscience.com>. Usmonova M. Graduonimiya hodisasi va uning ayrim o‘zbek xalq maqollaridagi ifodasi // Innovations and technology and science education.

<sup>2</sup> Djumabayeva J. O‘zbek va ingliz tillarida leksik graduonimiya: Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2016.

## “PRETSEDENT” ATAMASI IZOHI XUSUSIDA

Zebo MALLAYEVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** *Dunyo tillari lug‘at tarkibi o‘zlashma so‘z tufayli boyib, kengayib boradi. O‘zbek tiliga kirib kelgan shunday o‘zlashtirma so‘zlardan biri “pretsedent” so‘zidir. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi pretsedentlik holatlari muhokamaga tortiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *tilshunoslik, pretsedent birlik, metod, tarjima.*

**Annotatsiya.** *Slovarnyy zapas yazykov mira obogauyaetsya i rasshiraetsya blagodarya zaimstvovannym slovam. Odnim iz takix zaimstvovannyx slov, voshedshix v uzbekskiy yazyk, yavlyaetsya slovo «pretsedent». V dannoy state rassmatrivayutsya sluchai pretsedenta v uzbekskom i angliyskom yazykax.*

**Klyuchevye slova:** *lingvistika, pretsedentnaya edinitsa, metod, perevod.*

**Abstract.** *The vocabulary of the world's languages is enriched and expanded thanks to borrowed words. One of such borrowed words that entered the Uzbek language is the word "precedent". This article discusses the cases of precedent in the Uzbek and English languages.*

**Keywords:** *linguistics, precedent unit, method, translation.*

Matn tilshunosligining yuzaga kelishi tilshunoslikda turli hodisalarning vujudga kelishi va ularning matn mazmuniy persepsiyasidagi o‘rni o‘rganila boshlandi. Matn mazmuniy idrokida intermatnlarning o‘rniga katta e‘tibor qaratildi, shu ma‘noda, intermatnning bir ko‘rinishi sifatida pretsedent birlik tahlilga tortildi. Yangilik bo‘yog‘iga ega ushbu termin qanday ma‘noni beradi?

1984-yilda nashr qilingan ikki jildli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”ning ikkinchi jildida “pretsedent” terminiga quyidagicha ta‘rif berilgan: “PRETSEDENT m. knij. (o‘zidan keyin sodir bo‘ladigan xuddi shu turdagi voqelarga namuna, o‘rnak bo‘la oladigan voqea, hodisa): o‘xshash, teng. sluchay, ne imeyuyshiy ~a pretsedenti (o‘xshashi, tengi) bo‘lmagan hodisa; ustanovit~ pretsedentni belgilamoq (o‘tmishda xuddi shunday voqea yoki hodisa bo‘lganini aniqlamoq); sudebnyy ~ yur. sud pretsedenti” [1, 195]. Biroq shu o‘rinda ta‘kidlash o‘rinliki, o‘tgan asrning 80-yillarida o‘zbek tilshunosligida pretsedent birlik yuzasidan izlanishlar olib borilmagan.

G‘.Satimov tomonidan 1999-yilda Toshkentda nashr qilingan uch tilli “English-Russian-Uzbek Dictionary of Juridical Terms” nomli lug‘atida pretsedentlik shunday izohlangan: [precedent n – pretsedent, predshestvuyushiy – avval bo‘lib o‘tgan, sodir etilgan] [2, 552]. J.Bo‘ronov, Sh. Bo‘tayev, M. Irisqulov, K.Rahmonberdiyevlar tomonidan 2001-yilda nashr qilingan “English-Uzbek Dictionary” nomli ikki tilli lug‘atda: [precedent n – pretsedent, voqea, hodisa]; [3, 466].

O‘zbek tilshunosligida badiiy matndagi pretsedentlik xususida dastlab M.Yo‘ldoshev ma‘lumot bergan [4,128]. D.Xudoyberganova pretsedent birliklarning lingvokulturologik xususiyatlariga keng to‘xtalgan bo‘lsa [5,129-154], Z.Salieva ilk bora pretsedentlikni o‘zbek va ingliz tili qiyosi misolida o‘rgangan [6].

2006-yilda nashrdan chiqqan “Macmillan English Dictionary for advanced learners” lug‘atida quydagicha izoh berilgan:

1.[C/U]an action or event in the past that is used as an example or reason for present action or event: + for. There are good precedents for this sort of cooperation between organizations. \*set/ establish / create a precedent. Arab states condemned the plan, regarding it as setting a dangerous precedent.

\*without precedent. This is disturbing news and totally without precedent.

1. [C] legal a decision by a court on which future decisions are based: It would not be right for this case to be treated as a precedent. 2a. [U] the practice of basing legal decisions on decisions in previous cases: The English legal system is a composite of legislation and judicial precedent [7, 1106].

“The Merriam-Webster Dictionary” izohli lug‘atining yangi nashrida:

[ precedent – Something said or done that may serve to authorize or justify further words or actions of the same or a similar kind.] deya izoh berilgan.

“Merriam-Webster Dictionary” elektron qurilmalar uchun mo‘ljallangan izohli lug‘atida esa quyidagicha ta’rif berilgan:

[precedent n. – a similar action or event that happened at an earlier time;

— something done or said that can be used as an example or rule to be followed in the future;

— the usual or traditional way of doing something. Full definition:

1: an earlier occurrence of something similar;

2 a: something done or said that may serve as an example or rule to authorize or justify a subsequent act of the same or an analogous kind < a verdict that had no precedent >

b: the convention established by such a precedent or by long practice; 3: a person or thing that serves as a model] [8, 17].

Pretsedent birliklarning turlaridan biri bo‘lgan pretsedent nomlar muayyan tilning onomastik ko‘lamiga kiruvchi birliklar hisoblanadi. Ular millat madaniyatini namoyon etuvchi eng asosiy birliklar bo‘lib, ma’lum bir xalq onomastik ko‘lami uning tarixi, madaniyati, estetik qarashlari, ruhiyatini o‘zida jamuljam etgan qo‘pqirrali hodisa sanaladi. Ma’lumki, mashhur matnlar yoki vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar, shuningdek, muayyan sifatlarning namunaviy yig‘indisiga ishora qiluvchi ramziy nomlar pretsedent nomlar hisoblanadi. V.A.Maslovaning fikriga ko‘ra, muayyan millatlarga yaxshi tanish bo‘lgan matnlar yoki voqealar bilan bog‘liq bo‘lgan shaxs nomlari pretsedent nomlar bo‘la oladi. Masalan, Oblomov, Taras Bulba kabi [9,41]. Shundan kelib chiqqan holda, Alpomish, Go‘ro‘g‘li, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Kumush, Otabek, Layli, Majnun, To‘maris, Tohir, Zuhra, Cho‘lpon kabilar o‘zbek; Gamlet, Afrodita, Gerakl, Zevs, Kolumb, Otello, Ofeliya, Yago, Buratino, Robin Gud, Napoleon kabilar xorij mamlakatlari vakillariga tanish bo‘lgan eng mashhur pretsedent nomlar hisoblanadi.

Aksariyat pretsedent nomlar muayyan millat vakillarining milliy mentaliteti bilan bog‘liq bo‘lishi bilan birga universal xarakter ham namoyon etishi mumkin. Jumladan, o‘zbek o‘quvchisi *Napoleon, Buratino, Charli Chaplin, Otello, Don Juan,*

*Robinzon Kruzo* kabi nomlar ishtirok etgan matnlar mazmunini hech bir qiyinchiliksiz qabul qilaveradi.

Pretsedent fenomenlarning asosiy belgilari:

- milliy-lingvomadaniy jamiyatning barcha vakillariga yaxshitanish;
- kognitiv (bilish va his qilish) planida dolzarb (pretsedent fenomenlar ortida har doim u yoki bu milliy-madaniy mentalitet vakillari uchun majburiy va umumiy tasavvur turadi);

- u yoki bu milliy-lingmadaniy jamiyat vakillari nutqida pretsedent fenomenlarga apellyatsiya takrorlanib, qaytalanib turadi;

- retsedent fenomenlar har doim nutqiy ifoda shaklida bo‘lishi shart emas.

Barcha pretsedent fenomenlar tez-tez til shaxsiyati diskursida foydalanilishi mumkin. Shu bilan birga, pretsedent nom va pretsedent aytimlar verbal fenomenlar sirasiga, pretsedent matn va pretsedent vaziyat esa, verballashtiriluvchi fenomenlar sirasiga kirib, murojaat mos keluvchi, belgilari bo‘lib xizmat qiluvchi, pretsedent nom va pretsedent fikr, mulohaza, ifodalar orqali amalga oshiriladi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. II tom. -Toshkent, 1984.
2. Satimov G. English-Russian-Uzbek dictionary of juridical terms. -Toshkent: Adolat, 1999.
3. Bo‘ronov J., Bo‘tayeov Sh., Irisqulov M., Rahmonberdiyev K. English-Uzbek Dictionary. – T., 2001.
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol.fan.doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya . - T., 2010. – B.128.
5. Xudoyberganova D. Badiiy matnning antroposentrik tadqiqi. Filol. fan.doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.,2010. – B.129-154.
6. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф.дисс...канд. филол. наук. -Ташкент, 2010.
7. Macmillan English Dictionary for advanced learners. – London, 2006.
8. Merriam-Webster Dictionary. Mobil qurilmalar uchun varianti. — URL: [http://www.apache.org/licenses/ LICENSES-2.0](http://www.apache.org/licenses/LICENSES-2.0)
9. Маслова В.А. Лингвокультурология. - Москва, 2001.

#### **ISSUES OF INTERLINGUISTIC COMMUNICATION AND THE IMPORTANCE OF ENGLISH IN LINGUISTICS**

**Dilfuza ZAYNUTDINOVA,**  
*Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Ishning maqsadi ingliz tilining dunyo muloqoti tili sifatida boshqa tillar va madaniyatlar o'rtasidagi munosabatni aniqlash, shuningdek, lingvistik va madaniy globallashuvning etnik-madaniy o'ziga xosliklarga ta'sirini o'rganishdir. Globallashuv*

*sharoitida etnik-madaniy o'ziga xoslik ko'p identifikatsiyaning tarkibiy qismi, jumladan, global muloqot tili va global madaniyat global o'ziga xoslikning tarkibiy qismlari sifatida ko'rsatilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *etnomadaniy o'ziga xoslik, ingliz tili global muloqot tili sifatida, usul, ko'p identifikatsiyalar, til va madaniy xilma-xillik.*

**Аннотация.** *Цель работы – определить взаимосвязь английского языка как языка мирового общения с другими языками и культурами, а также изучить влияние лингвокультурной глобализации на этнокультурную идентичность. В условиях глобализации этнокультурная идентичность является компонентом множества идентичностей, в том числе языка глобального общения и глобальной культуры как компонентов глобальной идентичности.*

**Ключевые слова:** *этнокультурная идентичность, английский язык как язык глобального общения, метод, множественная идентичность, языковое и культурное разнообразие.*

**Abstract.** *The purpose of the work is to clarify the relationship between the English language as the language of world communication and other languages and cultures, as well as to study the impact of linguistic and cultural globalization on ethnocultural identities. It is shown that in the context of globalization, ethnocultural identity is a component of multiple identity, including the language of worldwide communication and global culture as components of global identity.*

**Keywords:** *ethnocultural identity, English as a language of global communication, method, multiple identities, linguistic and cultural diversity.*

